ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
МИЛЛИЙ ГВАРДИЯСИ
ҲАРБИЙ-ТЕХНИК ИНСТИТУТИ

ГУМАНИТАР ВА ИЖТИМОИЙ ФАНЛАР
КАФЕДРАСИ

ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР ҲАЁТИ ВА МЕРОСИНИ ЎРГАНИШ ДУНЁ ТАЛҚИНИДА

халқаро илмий-амалий конференцияси тўплами
2021 йил 12 феврал

II-ҚИСМ

ИЗУЧЕНИЕ ЖИЗНИ И НАСЛЕДИЯ ЗАХИРИДДИНА МУХАММАДА БАБУРА В МИРОВОЙ ИНТЕРПРЕТАЦИИ

сборник международной научно-практической конференции
12 февраля 2021 года

ЧАСТЬ II

STUDYING THE LIFE AND LEGACY OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR IN THE WORLD INTERPRETATION

book of international scientific-practical conference
February 12, 2021

PART II

Тошкент – 2021

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ МИЛЛИЙ ГВАРДИЯСИ

ҲАРБИЙ-ТЕХНИК ИНСТИТУТИ

ГУМАНИТАР ВА ИЖТИМОИЙ ФАНЛАР КАФЕДРАСИ

ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР ҲАЁТИ ВА МЕРОСИНИ ЎРГАНИШ ДУНЁ ТАЛҚИНИДА

халқаро илмий-амалий конференцияси тўплами
2021 йил 12 феврал

II-ҚИСМ

ИЗУЧЕНИЕ ЖИЗНИ И НАСЛЕДИЯ ЗАХИРИДДИНА МУХАММАДА БАБУРА В МИРОВОЙ ИНТЕРПРЕТАЦИИ

сборник международной научно-практической конференции
12 февраля 2021 года

ЧАСТЬ II

STUDYING THE LIFE AND LEGACY OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR IN THE WORLD INTERPRETATION

book of international scientific-practical conference
February 12, 2021

PART II

Тошкент – 2021

КВК-26.8 О‘-32

Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ва меросини ўрганиш дунё талқинида // Халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами – Т.: Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Ҳарбий-техник институти, 2021 – 446 б

Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Ҳарбий-техник институти Кенгаши томонидан нашрга тавсия этилган (2021 йил _____- сонли баённома).

Масъул муҳаррир: **Р.А.Сайфулов** – Миллий гвардия Марказий девони режалаштириш, мувофиқлаштириш ва ҳамкорлик бўлими бошлиғи, юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD),

Таҳрир ҳайъати: **Ғ.Р.Мирзаев** - Миллий гвардия Ҳарбий-техник институти катта ўқитувчиси, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Н.С.Расулова– Миллий гвардия Ҳарбий-техник институти доценти, тарих фанлари номзоди, доцент

Х.Д.Хакназаров – Миллий гвардия Ҳарбий-техник институти доценти, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент

Й.А.Худойкулов – Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Ҳарбий-техник институти доценти, фалсафа фанлари номзоди, доцент

А.У.Ҳайдаров – Миллий гвардия Ҳарбий-техник институти катта ўқитувчиси

А.А.Сатторов - Миллий гвардия Ҳарбий-техник институти ўқитувчиси

Тақризчилар: **А.Мадраимов –** Темурийлар тарихи давлат музейи бўлим бошлиғи, тарих фанлари доктори.

С.Б.Тилабоев – Низомий номидаги ТДПУ «Тарих ва уни ўқитиш методикаси» кафедраси мудири, тарих фанлари номзоди.

Мазкур тўпламга Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ва фаолияти, ҳарбий маҳоратини ўрганиш ва кенг миқёсда тарғиб этиш, илмий ва маънавий мероси, хусусан, “Бобурнома” ва бошқа асарларининг дунё миқёсида ўрганилиши, бобуршуносик йўналишидаги тадқиқотлар, таржимашунослик, Бобур меросинининг XXI аср фани ва маданиятига қўшаётган ҳиссасига бағишланган мақолалар киритилган. Мақолалардаги маълумотлар асосли эканлигига муаллифлар жавобгардирлар.

© Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Ҳарбий-техник институти, 2021.

IV-ШЎЪБА. ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУРНИНГ “БОБУРНОМА” ВА БОШҚА АСАРЛАРИ ДУНЁ ОЛИМЛАРИ НИГОҲИДА

ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУРНИНГ “БОБУРНОМА” АСАРИДА ФАРҒОНА ВОҚЕАЛАРИ ТАВСИФИ ВА УЛАРНИНГ НАФИС МЎЪЖАЗ РАСМЛАРДАГИ ТАСВИРИ

Мадраимов А
Ўз РФА Темурийлар тарихи давлат музейи бўлим бошлиғи, тарих фанлари доктори, профессор

Заҳириддин Муҳаммад Бобур (1483, Андижон – 1530, Агра, Кобулда дафн этилган) ўзининг машҳур “Вақойиъ” – “Бобурнома” асарининг бошланишида Фарғона вилоятининг тавсифи ва 1494-1503 йиллар воқеаларини мукаммал тарзда баён этади[1]. Ушбу асарнинг ҳижрий саккиз юз тўқсон тўққизинчи йил воқеалари баёни бошланишидан ўрин олган тавсифда вилоят, унинг шарқи, ғарби, жануби ва шимолийда жойлашган Кошғар, Самарқанд, Бадахшон, Ўтрор каби жой номлари келтирилган. Бундан ташқари ушбу ҳудудга кирувчи шаҳар, қишлоқ, қалъа, қасаба ва бошқа жойлар номлари, уларнинг хусусиятлари ҳамда ушбу ҳудудда юз берган сиёсий воқеалар баёни ўрин олган. Бу давр сиёсий воқеалари С. А. Азимжонова[2], ушбу ҳудуд тавсифи географ олимлар проф. Ҳ. Ҳасанов[3], О. Бўриев[4] ва бошқалар томонидан ўрганилган[5].

“Бобурнома”даги Фарғона вилояти тавсифлари ва бу ҳудудда юз берган воқеаларнинг тасвирига бағишланган 16 аср охири – 17 аср бошларида Шимолий Ҳиндистонда Бобурийлардан Жалолиддин Муҳаммад Акбар шоҳ саройида яратилган кўплаб нафис мўъжаз расмлар мавжуд. Бу расмлар профессор С. И. Тюляев, Ҳамид Сулаймон[6], ҳинд олими М. С. Рандхава[7] ва бошқалар[8] томонидан чоп қилинган.

---

[1] Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома / П.Шамсиев, С. Мирзаев ва Э.Мано нашрлари асосида қайта нашрга тайёрловчи С. Ҳасанов. – Тошкент: “Шарқ”, 2020, -Б.336.

[2] Азимджанова С. А. К истории Ферганы второй половины XV в. –Ташкент: Изд-во АН УзР, 1957, -С. 94.

[3] Ҳасанов Ҳ. Бобур-географ // Фан ва Турмуш, 1982, ½, -Б. 22; Ҳасанов Ҳ. Бобур жойлари/ Шарқ юлдузи, 1961, %, -Б. 150-155; Ҳасанов Ҳ. Бобур сайёҳ ва олим. –Тошкент: Ўздавнеашр, 1960, -Б. 48; Ҳасанов Ҳ. Бобур сайёҳ ва табиатшунос.-Тошкент: Ўзбекистон, 1983, -Б. 62 ва 4 расм; Ҳасанов Ҳ. Бобурнинг географик мероси/ Ўзбекистон маданияти, 1958, 19 февр.; Ҳасанов Ҳ. Заҳириддин муҳаммад Бобур. – Тошкент: Ўзбекистон, 1966, -Б. 72, расм; Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиёлик географ ва сайёҳлар. –Тошкент, 1964, -Б. 251; Ҳасанов Ҳ. Сайёҳ олимлар. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 1981, -Б. 183-206 ва бошқа асарлари.

[4] Бўриев О. Фарғона водийсининг Темурийлар манбаларидаги тавсифи. Тошкент: “Академнашр”, 2018, - Б. 110-111;

[5] Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси /Бош муҳаррир – А. Аъзамов. –Тошкент: “Sharq”, 2014; Тузатилган иккинчи нашри, -Тошкент: “Sharq”, 2017(Ушбу китобдаги Марказий Осиёга оид жуғрофий атамалар муаллифи О. Бўриев); Захириддин Мухаммад Бабур. Бабуриды. Библиография/ Сост. Ш. Ш. Рустамходжаев, -Москва: Изд-во вост. Лит-ры, 2016; Мадраимов А. Средневековые города великого шелкового пути в “Бабур-наме” Захириддина Мухаммада Бабура / Материалы международной научно-практической конференции: «Средневековые города великого шелкового пути». 18-20 октябрь, 2018 год. / отв. Ред. Н. Ахмеджанов. – Туркестан, 2018, - С. 40-42.

[6] «Бобурнома» расмлари / Тузувчи ва сўзбоши муаллифи Ҳамид Сулаймон. –Тошкент: Фан, 1970, -С. 160 с илл.

[7] Randhawa M. S. Paintings of Baburnama/ -New Delhi, 1983/

[8] Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси /Бош муҳаррир – А. Аъзамов. –Тошкент: “Sharq”, 2014; Тузатилган иккинчи нашри, -Тошкент: “Sharq”, 2017; Захириддин Мухаммад Бабур. Бабуриды. Библиография/ Сост. Ш. Ш. Рустамходжаев, -Москва: Изд-во вост. Лит-ры, 2016; Мадраимов А. Темурий ва Бобурийлар даври маданияти, китобат ва рангтасвир санъати тарихига чизгилар. –Тошкент: “San’at” журнали нашриёти, 2015, -Б. 416, 120 расм; Мадраимов А. Темурий ва Бобурийлар даври миниатюра санъати ривожи. – Тошкент: “Фан”, 2019.- Б. 296. 80 расм Ва бошқалар.

«Бобурнома» қўлёзмаларига ишланган миниатюралар Ҳиндистон миниатюра рангтасвири намуналари бўлиб, бизгача беш юздан ортиқ ўн уч қўлёзмага ишланган миниатюралар етиб келган. Уларни яратишда юздан ортиқ рассомлар иштирок этган. Бу расмлар Москвадаги Шарқ санъати музейи, Ҳиндистоннинг пойтахти Янги Деҳлидаги Миллий музей ва Алвар шаҳридаги Давлат музейида, Англиянинг Лондон шаҳридаги Британия музейи, Виктория ва Альберт музейи, Оксфорддаги Бодли кутубхонаси, Францияниг Париждаги Миллий кутубхона ва Лувр музейида, Ирландиянинг Дублин шаҳридаги Честер Битти кутубхонасида, Америка Қўшма штатларининг Вашингтондаги Фрир галереяси, Фогг санъат музейи, Балтимор шаҳридаги Валтер санъат музейи ва бошқа шахсий мажмуаларида сақланмоқда[9].

Профессор С. И. Тюляев томонидан Москва шаҳридаги Шарқ халқлари санъати музейидаги пароканда варақлардаги миниатюралар махсус ўрганилиб, «Бобурнома» миниатюралари» (рус ва инглиз тилларида, Москва, 1960) алоҳида альбом сифатида чоп этилган[10].

Профессор Ҳ. С. Сулаймонов тузган «Бобурнома» миниатюралари» (ўзбек, рус, инглиз тилларида, Тошкент, 1970) номли альбомда Британия музейидаги OR.3714 рақамли қўлёзманинг тўқсон беш саҳифадаги қўш зарварақ, тўқсон икки саҳифадаги миниатюралар Бобурнинг Британия музейидаги миниатюра портрети билан чоп этилди. Бошқа расмли қўлёзма ва улар миниатюралари турли муаллифлар томонидан қисман тавсифга олинган ва чоп этилган. Ҳиндистон миниатюра рангтасвири тўғрисидаги санъатшунослик асарларида асосан Британия музейидаги OR.3714 рақамли расмли қўлёзма, Лондондаги Виктория ва Альберт музейидаги пароканда вароқ миниатюралари, уларни яратишда иштирок этган рассомлар тўғрисида маълумотлар эслатилади.

С. И. Тюляев ва Ҳ. С. Сулаймонов тузган альбомлар сўз бошларида Ҳиндистон миниатюра рангтасвири умумий тараққиёти баён этилиб, чоп этилган расмлар хусусиятлари қайд этилган. Булардан ташқари, Н. К. Карпова, М. С. Рандхава ва бошқаларнинг Москва Шарқ халқлари санъати музейидаги миниатюралар ва Деҳли Миллий музейидаги қўлёзма ва унинг расмлари тўғрисида алоҳида мақолалари чоп этилган.

Мақоланинг мақсади XVI аср охири – XVII аср бошларида яратилган «Бобурнома» қўлёзмалари бадиий безатилиши, миниатюраларни мавзулар бўйича таснифлаш, уларнинг бадиий ва услубий хусусиятларини аниқлаш, расмлар сюжетлари ва матннинг қиёсий таҳлили асосида рассомларнинг эстетик тамойилларини ўрганиш мумкин.

«Бобурнома» миниатюралари асар мазмуни билан боғлиқ ҳолда яхлит бир туркум расмларни ташкил этиб, уларнинг бадиий, маданий ва тарихий- маърифий аҳамияти жуда катта. Улар бадиий образларда ўша даврдаги Фарғона, Мовароуннаҳр - Марказий Осиё, Афғонистон ва Ҳиндистонда ҳам бўлиб ўтган энг йирик тарихий ва сиёсий воқеаларни қайта тиклайди, ўсимликлар ва жонворлар оламини тасвирлаган, жуда бой тарихий этнографик далилларга эга.

«Бобурнома» расмлари тасвирий санъатнинг турли жанрлари - маиший, ҳарбий, расмий маросимлар ва бошқа воқеа-ҳодисаларни акс эттиргани билан ажралиб туради. Расм ишланган асарнинг қомусий хусусияти ҳиндистонлик рассомларга ўзининг касбий иқтидори ва маҳоратини намойиш этиш учун кенг имкониятлар яратган. Хусусан, турли манзаралар:

[9] Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси / Бош муҳаррир – А. Аъзамов. –Тошкент: “Sharq”, 2014; 180 бет.

[10] Миниатюры рукописи «Бабур-наме» /Авт.-сост. И автор предисловия С. Тюляев. –Москва: Изогиз, 1960, -С. 111 с илл.

боғ яратиш, чашмаларни обод қилиш, спорт ўйинлари, ов ва бошқа воқеаларни тасвирлаш учун.

Рассомлар мислсиз маҳорат билан жонли, самимий ва таъсирчан «Бобурнома» асар тилига мос ажойиб расмлар яратдилар. Ҳар бир туркум мавзуга оид расмларида уларнинг умумий таърифи, нечта эканлиги ва миниатюраларининг бадиий хусусиятлари аниқланди.

Юрт ободончилиги мавзусига оид расмларни яратишда ҳиндистонлик рассомлар ўз олдиларига табиат ва бунёдкор инсон ўзаро муносабатини ёритишни ҳам қўйган кўринади. Мана шунинг учун, одатда, бошқа тасвирий ифодавий воситаларни танлаш юқоридаги мақсадга бўйсунади. Рассомлар ўз асарларида инсон бунёдкорлик ишлари ва сокин табиатнинг бунга муносабати жараёнини ўзаро уйғунликда намойиш эта олади. Бу мавзуга оид деярли барча миниатюраларда, саҳифанинг аксарият қисмини жуда ажойиб тарзда тасвирланган табиат манзараси эгаллайди – булар девор билан ўралган қоялар ва тоғлар қўйнидаги гўзал боғу - роғлардир. Уларга тартиб билан экилган мевали дарахтлар, одатда тоғ яқинида жойлашган бўлиб, ариқларда зилол сувлар, ям-яшил ўтлоқлар кўзга ташланади.

Баъзи ҳолларда рассомлар ўз асарларига чиройли супалар, гуллар чамани, ноёб ўсимлик ва дарахтлар тасвирини ҳам киритади. Улкан меъморий иморатлар деярли кўзга ташланмайди. Баъзи иморатлар тасвири узоқ уфқда перспектива қоидага мувофиқ кичиклаштирилган ҳолда кўзга ташланади. Айни мана шундай ажойиб манзараларни Виктория ва Алберт музейидаги «Бобурнинг «Боғи вафо» боғини қурилиши» ёки Британия музейи ва Деҳли Миллий музейидаги «Бобурнинг «Боғи вафо» боғи кўриниши» ва Москвадаги Шарқ халқлари санъати музейи ва Британия музейидаги «Бобур «Боғи калон» боғини ободонлаштирмоқда» миниатюраларида кўришимиз мумкин.

Расмларда деҳқонлар, ҳунармандлар ҳаёти, уларнинг чашмаларни ободончилигидаги иштироки тасвирланган. Бу мавзудаги расмлар ичида Рамдаснинг «Кобул яқинидаги Хожа Сеёрон чашмасини ободонлаштириши» ва Бҳавонийнинг «Фарғонанинг Канди бодом шаҳридаги бодом териш» номли миниатюралари ўзининг юксак бадиий савияси билан ажралиб туради. Уларда боғбонлар, тош йўнувчи ва бошқа қурувчиларнинг бунёдкорлик фаолияти алоҳида меҳр билан тасвирланган.

Шуни таъкидлаш керакки, «Бобурнома» миниатюраларида тасвирий санъати тарихида биринчи марта деҳқон, боғбон, тош йўнувчи ва бошқа ҳунармандларнинг бадиий образлари галереяси кенг миқёсда яратилган. Бу эса шу даврдаги Ҳиндистон миниатюра рангтасвирида халқ вакилларини Маҳеш, Ромдас, Нанҳа, Вишнудас ва бошқа рассомлар томонидан ўз асарларида тасвирлашга интилиши, бу ижодкорларнинг бунёдкорлик вакилларига ҳурматини кўрсатади.

Спорт ўйинлари ва ов манзаралари мавзудаги расмларда, асар матнидаги каби мусобақа руҳи сезилиб туради. Ҳиндистонлик рассомлар бундай воқеалар динамикаси, шиддатини борлиғича намойиш этишга, уларда иштирок этаётган шахсларнинг ҳиссий туйғуларигача тасвирлашга интилишган. Бу миниатюраларда асосий воқеа – курашчилар олишуви, от чопиш мусобақаси, ов манзаралари расм маркази бўлиб, кўп ҳолларда қўш саҳифада тасвирланган. Расмнинг образли ва композицион ечими асар асосий ғояси – инсоннинг табиатдаги устунлиги, унинг кучи, бақувватлиги ва моҳирлигини намойиш этишга хизмат қилади. Асар ғоялари асосий қаҳрамонлар образлари воситасида ечилади. Иккинчи даражали персонажлар расм четида, асосий воқеадан узоқроқда, баъзан доира чизиғи бўйлаб жойлаштирилиб, бўлиб ўтаётган ҳодисага қўшимча фон сифатида тасвирланади. Улар одатда асосий қаҳрамон томон қараётган бўлиб, кўз ўнгида энг муҳим воқеа юз бераётганини кузатади.

Бу мавзуга оид миниатюраларнинг кўп фигурали композицион ечимида кишилар тасвири жойлашуви, образлар тизимининг жонлилиги билан ажралиб туради. Кишилар ва жониворлар фигуралари жуда ишонарли, кутилмаган ҳолатларда тасвирланиши, бўлиб ўтаётган ов манзарасининг шиддати ва эҳтиросини очиб беришга хизмат қилади. Хусусан, Виктория ва Алберт музейидаги рассом Мадҳу Хурд яратган «Филлар, туялар жанги ва курашчилар мусобақаси» расмида жанг ҳолати ва эҳтиролар жунбуши юксак маҳорат билан очиб берилган. Характер жиҳатидан бу асарга Москвадаги Шарқ халқлари санъати музейидаги «Бобур, Қамбарбек ва Қосимбекларнинг от чопиш мусобақаси» ва Деҳли Миллий музейидаги «Бобур салласини қайта ўрамоқда» номли расмлар яқин туради.

Аксарият ҳиндистонлик рассомлар, Жаганнатҳ, Шивдас ва бошқалар асар матнидан четга чиқмасликка интилганлар. Баъзилари, Шиям, Маноҳар ва бошқалар эса, аксинча, воқеани ўзларича талқин қилишга интилганлар. Ўз асарларига дадил қўшимча шахсларни киритишган, тарихий воқеани ўзларича тасвирлашган.

Ов манзаралари, спорт ўйинлари мавзулардаги «Бобурнома» расмлари XVI аср охири ва XVII аср бошларида яратилган бошқа қўлёзмадаги миниатюралардан ҳам сони жиҳатидан кўплиги, воқеаларнинг ишонарли қилиб тасвирланиши, кенг қамровлилиги билан ажралиб туради. Бирон та бошқа туркум расмлар ўзининг юксак бадиий савияси, тасвирланган тафсилотлар бойлиги билан «Бобурнома» расмларига тенглаша олмайди. Ваҳоланки, бундай мавзудаги расмлар яна ҳиндистонлик рассомларнинг Рашидуддиннинг «Жомиут таворих», Ҳусайн Воиз Кошифийнинг «Анвори Суҳайлий», Абулфазл Алломийнинг «Акбарнома» асари ва бошқа китоблар қўлёзмаларига ишланган миниатюраларда мавжуд.

«Бобурнома»га ишланган аксарият миниатюраларда Бобурнинг сайр қилиши, ўзи ва аёнлари билан дам олиши, турли маросимлар, лашкар кўрик маросими ва бошқа маиший мавзулар тасвирланган. Улар ҳиндистонлик рассомларнинг ижод қамрови кенглиги ҳамда бу мавзуга қизиқиши кетталигидан далолат беради.

Миниатюралардаги асосий образлар, Бобур ва унинг яқин аёнлари тарҳ марказида тасвирланади. Баъзан улар бошқаларга нисбатан бироз каттароқ қилиб, тўлалигича ҳамда юз қиёфалари катта аниқлик ва юксак маҳорат билан яратилади. Гарчи ҳамманинг шахсий хусусияти қайтарилмас даражада яратилмаса-да, улар ҳолати, руҳияти туриши, қўл, панжа ҳаракати ёрдамида ифодаланади. Булар кўпчилик расмларда қайта – қайта тасвирланиб, ҳиндистонлик рассомларнинг ўзига хос тасвир услуби дейиш мумкин.

Миниатюра асосий қаҳрамонлари Бобур ва унинг аёнлари одатий ҳолда жиддий шахс сифатида тасвирланса, мулозимлар ва бошқа тамошабинлар бўлаётган воқеага ўзларининг муносабатини юз, қўл ҳаракатлари билан дадил ифодалайдилар. Ҳиндистонлик рассомлар Бобурийлар сарой урф - одатлари яхши билиб, аниқ ва ишонарли тарзда тасвирлагани уларнинг маҳоратидан дарак беради.

Сайр манзаралари, ёдгорликларни тамоша қилиш ҳиндистонлик рассомлар учун ўз ватани, меҳнаткаш халқига муносабатини намоён этиш кенг имкониятлар яратган. Улар турли жойлар манзараларини юксак маҳорат ва муҳаббат билан тасвирлаганлар. Буларнинг ҳаммаси жуда катта реалистик куч билан деярли барча Ҳиндистон рассомлари акс эттира олишган. Энг моҳир рассомлардан Жаганнатҳ, Кҳем, Нанда Гвалиёри расмларида воқеалар тинч, осойишта ҳикоя қилингандай тасаввур ҳосил қилади. Уларнинг асарларида маиший тафсилотлар қунт билан зарур рангларда шундай тасвирлайдики, бу тафсилотлар тамошабин эътиборини асосий воқеадан чалғитмайди, балки ёрдамчи восита бўлиб хизмат қилади.

Турли жойлар аҳолиси ва ижтимоий гуруҳлар вакиллари образини яратар экан, ҳиндистонлик рассомлар уларни умумлаштиришга ва типик вакилларини хусусиятларини

очиб беришга ҳаракат қилганлар, аммо уларнинг кийими, безаги ва бошқаларни тасвирлашда реалликка ва ҳаққонийликка интилишган ва унга эришганлар. Айни мана шу хусусиятларни Жаганнатҳ, Говинд, Кесу Хурд ва бошқалар ўз асарларида тасвирлай олганлар. Уларда ўша даврда Шимолий Ҳиндистонда яшаган турли этник гуруҳ ва ижтимоий табақа вакилларининг умумлашма образларини кўриш мумкин.

Бу мавзудаги миниатюралар ҳиндистонлик рассомларга ўз мамлакатининг гўзал жойлари, табиати жозибаси, меъморчилик намуналари хусусиятлари ва маиший тафсилотларни очиб беришга имкон яратган. Турли халқлардан иборат бўлган мамлакат аҳолиси ҳаёти ва одатларини миниатюрада тасвирлаб, ўша даврга хос хусусиятларни расмларда акс эттирган.

Учрашув, расмий қабул ва зиёфатлар мавзусига оид сюжетлар «Бобурнома» миниатюраларида кўп учрайди. Бундай мавзулар талқинида, кишиларнинг ўринларини белгилашда маълум даражада шаклланган тарҳлар ечимида қонун қоидалар мавжудлиги кўзга ташланади. Миниатюралар тарҳида асосий қаҳрамон – Бобур ва аёнларга маълум ўринлар ажратилган бўлиб, иккинчи даражали шахслар, мулозим, тамошабинлар ҳам шаклланган одоб ахлоққа биноан ўз ўринларига эга. Кишилар ва қўшимча тасвирлар умумий тарҳда ўз ўрни, чизиқларда маълум кетма-кетлик, уйғунликда жойлашганини кўриш мумкин. Уларнинг бундай жойлашуви асосий композицион ечим мақсадига мос тушиши керак. Кўп кишилак расмлар композициясида маълум схемалар – доира, учбурчак ва бошқа шакллар учрайди. Расмдаги шакллар, чизиқлар ва ранглар ўзаро боғланган ва умумий яхлит асар композициясини ташкил қилади.

Тажрибали рассомлар Фаррух Чела, Сонвала ва бошқалар, Бобурнинг тасвирида унинг ёши хусусиятларини ифодалаб тасвирлашга интилганлар. Лекин барча миниатюраларда Бобур шоҳ бўлгани учун ҳам ўша замон талабига биноан маълум даражада идеаллаштирилган. Бу эса унинг туриш ҳолати, атрофидаги аёнлар, мулозим, хизматкорлар, саройга хос ашёлар доирасида тасвирланишида билинади. Одатда рассомлар уни миниатюра марказида жойлаштиришдан ташқари, ўзига хос кийими, безаклари, атрофидаги ашёларнинг ҳам шоҳона ёки шоҳлар шароитига мос қилиб тасвирланиши талаб қилингани маълум бўлади.

Бундай расмлардаги аёллар образи ҳам ҳиндистонлик рассомлар томонидан жуда чиройли, келишган, жозибали қилиб тасвирланган. Уларнинг хатти – ҳаракати бўлаётган воқеага муносабатида кўринади. Бу аёллар асосан оқила ва донишманд қилиб тасвирланган. Бунда қадимий ҳиндистон рассомлик анъаналари аёлларни фақат гўзал қилиб тасвирлаш керак, - деган талабга XVI аср охири ва XVII аср бошларида ҳам риоя этилганлиги ҳайратланарли бир ҳолдир.

Хусусан, Бобурнинг катта онаси Эсон Давлат бегим миниатюраларда оқила ва қатъий иродага эга аёл сифатида тасвирланган. У давлат ишларини бошқаришда бевосита иштирок этган. Ҳадича Султон бегим ва Султон Поянда бегим ўзига хос ғурурга эга аёллар сифатида талқин қилинган. Бобурнинг опаси Хонзода бегим меҳрибон аёл сифатида ўз укасидаги ўн йиллик ўзгаришлардан ҳайратга тушганини ифода этаётган ҳолида тасвирланган.

Ҳиндистонлик рассомлар саройнинг маълум тартиб-қоида ўрнатилган дабдабали ва шонли ҳаётини акс эттириш билан бирга, ўз даври маданияти тараққий этганини намойиш этишган. Уларнинг бундай мавзудаги расмларида олим, шоир, созанда ва хонандалар образлари мавжуд. Воқеа-ҳодиса юз бераётган шоҳона сарой, боғ ва меъморий иморатлар миниатюрага ўзгача руҳ бағишлайди, расмларнинг образлар тизимидаги декоративлик хусусиятини бўрттириб кўрсатади.

Жанг манзаралари мавзудаги миниатюралар Бобурнинг ҳарбий фаолияти билан боғлиқ бўлган турли ҳаракатлар – қалъалар қамали, шаҳарларни забт этилиши, жангу жадал ва бошқа воқеа-ҳодисаларни тасвирлашга бағишланган. Уларнинг барчаси кўп фигурали мураккаб композицион ечимларга эга бўлиб, расмларда воқеа-ҳодисаларнинг драматизми, фожеаси, динамикаси маҳорат билан очиб берилган. Ҳиндистон рассомлари сипоҳийларнинг шиддат билан от чоптиришлари, фожиали тўқнашувлар, жангнинг даҳшатли муҳитини ўз асарларида юксак маҳорат билан тасвирлай олганлар.

Британия музейидаги рассом Маҳешнинг «Чин Тимур Султон, Мустафо Румий ва Ҳумоюн жанг майдонида», Дев Гужаротийнинг «Ҳумоюннинг Ҳамудхон устида ғалабаси», Деҳли Миллий музейдаги «Калат қўрғонини қамали», Алвар давлат музейидаги «Канва яқинидаги жанг» ва бошқа расмлардаги юқоридаги хусусиятларни кўриш мумкин.

Жанг манзараларига бағишланган барча миниатюраларни бир хил жуда юқори маҳорат савиясида яратилган дейиш қийин. Чунки бу мавзуда жуда кўплаб расмлар ишланган. Мана шунинг учун бўлса керак, Британия музейидаги рассом Решнинг «Бобурнинг Самарқандни қамал қилиши», Москва Шарқ санъат музейидаги «Ўзганд яқинидаги жанг», «Бобурнинг суворийларининг Аҳмад Танбал қўшини билан тўқнашуви» ва бошқа айрим расмларда сюжет воқеаларнинг ғаразли талқини, бир хил тасвирланган жангчилар, композицион ечимлардаги қайтариқлар кўзга ташланади. Лекин бу мавзудаги аксарият расмлар ўзининг оригиналлиги, композицион ечимларининг турли туманлиги, жангчиларни қаҳрамон сифатида тасвирлаши билан ажралиб туради. Уларда ҳиндистонлик рассомлар фожиали манзараларни жуда ишонарли тасвирлашга, улар моҳиятини очиб беришга, жангнинг шиддати ва даҳшатли моҳиятини кўрсата олишга муваффақ бўлганлар.

Жанг манзараларида оддий халқ вакиллари шунчаки бефарқ тамошабин қилиб тасвирланган эмас. Хусусан, калтак ва тошлар билан қуролланган, йўқсил ва мазлум халойиқ, яхши қуролланган душман тараф жангчиларига қўрқмасдан, мардонавор ҳужум қилмоқда. Ўзларининг ҳалоскорларини хурсандчилик, шоду ҳуррам, совға-саломлар билан кутиб олмоқдалар. Жангу жанжал жонига текканларида юкларини кўтариб, шаҳарларини тарк этмоқдалар. Мана шундай ҳолатларни Британия музейидаги «Бобурнинг Самарқанд шаҳрини қамал қилиши», «Бобурнинг Андижон яқинидаги жанги», «Кобул шаҳрини қўзғолончилардан озод этилиши» каби миниатюраларда кўриш мумкин. Бунда халқнинг ўз тақдирига бефарқ эмас эканлиги намойиш этилган ҳамда рассомларнинг жангу жадал, уриш ва қирғинларга муносабати ўз ифодасини топган дейиш мумкин.

«Бобурнома»нинг Фарғона даври (ҳижрий 899 – 1493/94 йилдан 909 – 1503/04 йилгача) га оид миниатюраларда асосан Фарғона, Мовароуннаҳр ва Хуросонда юз берган воқеалар акс эттирилади. Булардан энг муҳимлари – Бобурнинг Фарғона вилояти шоҳи бўлиши, унинг мустақиллик учун кураши, Самарқанд тахтини икки бор эгаллаши ва бошқа воқеалардир.

Бу даврга оид миниатюраларда асосий сиёсий воқеалар тасвири етакчи ўрин тутади. Бобурнинг Фарғона мустақиллиги ва Мовароуннаҳрдаги ҳокимият учун олиб борган зиддиятли фаолиятини тасвирлаган ҳиндистонлик рассомларнинг аксарияти адабий – тарихий матндаги воқеаларни ҳаққоний ва ишонарли қилиб кўрсатишга интилганлар. Мана шунинг учун уларнинг асарларида Бобурнинг фақатгина ғалабалари ва муваффақиятлари эмас, балки аламли мағлубиятлари ва ҳаётидаги аччиқ онлари ҳам ўз аксини топган.

Ҳиндистонлик рассомлар, энг муҳим сиёсий воқеаларни ўз миниатюраларида турлича талқин этганларини кўрамиз. Аксарият, хусусан, Номо, Фаррух Чела, Сонвала ва бошқа рассомлар асарларида матндаги воқеаларни ҳаққоний тасвирлаш устун. Лекин баъзи миниатюраларда Бобур образини, адабий тарихий матндаги баёнга хилоф тарзда,

идеаллаштиришга кучли интилиш сезилади. Масалан, қатор расмларда матнда баён этилгандек, шиддатли ва даҳшатли тўқнашув ўрнига Бобур қўшинларининг ғолибона юриши тасвирланади. Аксарият расмларда уни шоҳ бўлгани учун ўрта ёшли киши сифатида тасвирлашадики, бу йиллари у 12-21 ёшларда бўлган. Шунингдек, баъзи рассомлар Бобур шахсан иштирок этмаган жанг лавҳаларига ҳам унинг образини киритишган ўринлар мавжуд.

Миниатюраларда қатор йирик тарихий шахслар Мавлонои Қози, Қосимбек, Эсон Давлат бегим ва бошқалар тасвири мавжуд. Уларнинг расмлардаги тасвири асосан «Бобурнома»да баён этилган характерига мос ва хос. Шуни таъкидлаш керакки, адабий тарихий матнни билиш тамошабинни миниатюра сюжетини тушуниб олиш, рассомнинг ғоявий мақсади ва ижоди, унга хос хусусиятларини тушунишга ёрдам беради. Бу даврга оид миниатюраларда рассомлар халқ намоёндалари, уларнинг ҳаёти ва турмушини акс эттиришга кетта эътибор бергани сезилиб туради.

Ҳиндистонлик рассомлар Фарғона даври воқеаларини тасвирлашда фақат ҳаққонийлик ва этнографик аниқликкагина интилмасдан, табиат манзаралари, турмуш лавҳалари ўз шахсий кузатувлари, билим ва маҳорат билан кўрсатишга интилганлар. Шунга қарамай, уларнинг бу даврга оид кўплаб асарларидаги шахслар, Бобурдан ташқари, тасвирида хилма хиллик кўзга ташланади. Уларнинг портретларида ўхшашлик ёки тарихийлик мавжуд дейиш қийин.

Умуман, ҳиндистонлик рассомлар “Бобурнома” - адабий тарихий асарнинг Фарғона қисмида баён этилган мазмунни рангтасвир бадиий тилига муваффақиятли ағдара олган.

Миниатюраларда асосий эътибор муаллиф Бобурнинг ҳаёти ва фаолияти ўрин тутади. «Бобурнома» ўша даврдаги бошқа тарихий солномаларга хос бўлган кўтаринки муболағавий услубга нисбатан бўлиб ўтган воқеа – ҳодисаларни лўнда, тушунарли ва ифодали тарзда баён этиши билан ажралиб туради. Бобур асарининг бу хусусияти миниатюрист рассомлар ижодига таъсир этган дейиш мумкин. Ҳиндистонлик рассомлар миниатюраларини яратишда риоя этган асосий ғоя – концепцияси Бобурнинг бадиий эстетик тасаввурига яқин ёки деярли айнан деса бўлади.

Хулоса сифатида шуни айтиш керакки, Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг “Бобурнома” асари ҳам юртимиздаги, хусусан Фарғона водийси, Мовароуннаҳрда юз берган воқеларни баён этган бўлса, Ҳиндистонда уларга кўплаб расмлар ишланиб, китоб мазмунини тасвирий санъати тилига ағдарганлар, муаллиф дунёқарашини тарғиб, ташвиқ қилишга интилганлар. Асар ва унга ишланган расмлар Ўзбекистон ва Ҳиндистон халқлари маданий алоқалари ноёб обидасидир.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ASARLARIDA MILLIY – ETNIK BAG‘RIKENGLIK MASALALARI

Mamatov M.A.
falsafa fanlari doktori, professor, Farg‘ona davlat universiteti

Arab-musulmon tsivilizatsiyasi bilan umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan turkiy-forsiyzabon musulmonlar tsivilizatsiyasi shakllanishining tarixiy va madaniy asoslarini o'rganish o'zbek gumanitar fanlarinig muhim ilmiy muammolaridan biridir.

Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur siyosati va faoliyati xususiyatlari aynan shu nuqtai nazardan tahlil qilishga harakat qilindi.

XIII asr oxiridan boshlab, ya'ni Usmonli davlatining shakllanishi boshlanishi bilan Kichik Osiyoning shimoli-g'arbiy qismida Uch-Bey Usmon G'oziy boshchiligida, musulmon Uyg'onish tarixining yangi bosqichi - turkiy-musulmonlarni ijtimoiy-siyosiy madaniyatining shakllanishi boshlandi.

Bu jarayon turklar uchun Yunus Emre (1240-1321), Nasimiy (1369-1417), Lutfiy (1366-1465), Navoiy (1441-1501) va boshqalar ijodidan boshlab, davomi va qo'shilishi sifatida she'riyatning shakllanishi bilan birga keladi. diniy falsafiy oqim evolyutsiyasi - tasavvuf, arab-musulmon falsafasi, tarixi, matematikasi va O'rta asr musulmon Sharqining boshqa fanlari, shu jumladan, ularning taniqli vakillari Xorazmiy (780-846), Farobiy (870-950), Ibn Sino (980-1037) va boshqalar Markaziy Osiyo turkiyzabon vakillari, jumladan, o'zbeklar turkiy-musulmonlar tsivilizatsiyasining shakllanishi va rivojlanishi tarixiga ulkan hissa qo'shganlar va qo'shmoqdalar.

Ular orasida Bobur fenomeni, uning hayoti va faoliyati alohida e’tiborga loyiq noyob voqe’likdir. Uning o'ziga xosligi shundaki, u nafaqat musulmon olami, balki G'arbda ham Sarqda ham davrning o'z siyosati va ijodida antropotsentrizm va gumanizmning tamoyillari uyg"nlashtira olgan yagona vakili ekanligida. Bu tamoyillar faqat rassomlar, shoirlar, yozuvchilar va faylasuflar ijodida joy olgan davr, lekin hukmdorlar siyosatida emas. Hindistoda yaratilgan Buyuk mo'g'ul Imperiyasining asoschisi Amir Temurning nabirasi Zahriddin Muhammad Boburdir (1483-1530).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlagandek, “Бобур Мирзо халқимизнинг буюк фарзанди. Адабиёт, илм, маърифат нуқтаи назаридан у ҳамон яшаяпти” [1.].

Temur imperiyasidan farqli o'laroq, Boburiylar imperiyasi tarixi 300 yildan koʻproq davrni oʻ ichiga oladi. Bu yillar sug'orish tizimlarini yaratish, yo'l karvonsaroylar qurilishi, va boshqalar bilan bir qatorda milliy-diniy munosabatlarga nisbatan bag'rikenglik siyosati bilan ilgari surilgan mahalliy aholiga nisbatan hokimiyatning o'ziga xos boʻlgan.

“Boburnomada” muuallif oʻzi tashkil qilgan bayramga tayyorgarlik va uni oʻtkazish jarayonini shunday yoritadi: ...hind loʻlilarining vakillari oʻ san’atlarini namoyish etgani bayramda qatnashish uchun kelishdi [4, 322-324]. Bobur insonparvarlik va bagʻrikenglik siyosatiga tayanib, oʻzining markazlashtirilgan yagona gullab yashnayotgan davlat barpo qilish haqidagi asosiy maqsadini amalga oshira oldi[6, 8]. Shuning uchun hind xalqi Zahiridin Muhammad Boburning yagona Hind davlatini yaratishdagi ulran tarixiy xizmatlarini chuqur hurmat-ehtirom bilan yodda saqlab keladilar.

Vatandoshimiz shaxsiga nisbatan xotiralarning yorqin namunasi sifatida Hindistonning birinchi bosh vaziri Javoharlal Neruning 1932 yil 3 sentyabrda qamoqdan oʻz qizi Indira Gandiga yozgan 88 raqamli maktubini keltirish mumkin. U, Boburning yagona Hindistjn davlatini shakllantirishdadagi bebaho xizmatlarini minnatdorchilik bilan eslab, jumladan, shunday yozadi: “Barcha mavjud omma orasida Bobur eng madaniyatli va dilbar odamlardan biri edi. U mansabparastlik va diniy aqidaparastlik qarashlaridan xoli edi hamda ajdodlari kabi vayronagarchilikka yoʻl qoʻmagan”. Neruning soʻzlaridan ayon boʻladiki, Bobur u erda san’at va me’morchilik sohalarida ulkan oʻzgarishlar qilib, islohotlar oʻtkazib, xalq hayotini yaxshilasga intilgan [6, 272].

Boburning diniy bagʻrikengligi turli e’tiqol vakillarini davlat xizmatlariga jalb qilishida ham namoyon boʻladi.

Boburning “Risolai volidiya” she’riy asari [8,274-288] naqshbandiya tariqatiing mashhur shayxlaridan biri Xoja Ubaydullo Ahror nomi bilan mashhur bolgan Nasiriddin Ubaydullo ibn Mahmud Shoshiy (1404-1489)ning shu nomdagi asarini tahlil qilishga bagʻishlangan.

Taniqli tasavvufshunos olima G.S. G‘ulomova yozganidek, islom dini tanazzuli yuz berayotgan davrda jamiyatni boshqarishi lozim bo‘lgan hukmdorlar, mulkdorlar, yuqori tabaqadagi shaxslar orasida maishatbozlik, dabdaba, ko‘ngilxushlik, o‘yin-kulguga berilib ketish avj olib ketayotgan bir paytda tasavvuf ta]limotining naqshbandiya tariqati vakillari – sufiylar “nochor yashayotganoddiy odamlarni himoya qiladi, hukmron elitaning turmush tarziga qarshi chiqib, ruhiy, ma’naviy tarbiya vositasida jamiyatni sog‘lomlashtirish uchun ma’naviy qadriyatlarga? Eomon? Yovuz ishlardan voz kechishga undaydi, komillikka intilayotgan inson ularning idealiga aylanadi” [5, 109].

Ba’zi yozma manbalarhda Bobur shialikni qabul qilgaligi to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Bizning fikrimizcha, bu erda shuni ta’kidlash joizki, Bobur shaxsi shakllangan Farg‘ona vodiysida shialik hech qachon keng tarqalmagan. shilarga munosabatida esa uning diniy bag‘rikenglik xislati namoyon bo‘lganini ro‘rish mumkin xolos. Bobur o‘z o‘g‘li Humoyunga turli diniy konfessiyalar vakillari va yetakchilari bilan muntazam uchrashib, ularni shohona sovg‘-salomlar bilan siylab turishni, lekin siyosatga aralashtirmaslikni vasiyat qiladi. Bu, ehtimol, birinchi navbatda, Hindistonda turli diniy konfessiyalar ko‘pligi bilan bog‘liq bo‘lib, ba’zilarini davlan xizmatiga rahbarlik lavozimlariga tayinlash boshqalar tomonidan noto‘g‘ri tushunilishining oldini olish yoki Bobur siyosatda davlat ishlarini diniydan ajratish prinsipiga rioya qilganligi bo‘lishi mumkin.

Bobur o‘z she’rlarida ma’lum bir din doirasidanda kengroq va umuminsoniy ma’naviyatga ega bo‘ladigan barkamollik hamda yuksak axloqqa erishish asoslari, yo‘llarini bayon qiladi. Masalan, ko‘plab ruboiylaridan birida u shunday yozadi:

Kim ko‘rubdur, ey ko‘ngu’l, ahli johildin yaxshilig‘,
Kimki ondin yaxshi yo‘q ko‘z tutma ondin yaxshilig‘.
Bori elga yaxshilig‘ qilg‘ilki, mundane yaxshi yo‘q,
Kim, degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig [3, 16].

Bobur siyosatidagi bag‘rikenglik, milliy va etnik o‘ziga xoslikning namoyon bo‘lishiga Alisher Navoiy siyosati va ijodiga o‘xshashligi nuqtai nazaridan yondashish zarur. Va’lumki, Navoiy “Xamsa”sidagi asarlarida boshqa din vakillari bilan do‘stlik kuylanadi: Shirin – arman malikasi, Farhod Xitoy shahzodasi, uning do‘sti Shopur hindu edi. Bobur ham xuddi Navoiy kabi, o‘ mulohazalarida odillik, ezgulik, do‘stlik rishtalarini kuylaydi. Boburning shoh asari “Boburnomada”, shuningdek, g‘azallari, ruboyilari va boshqa asarlarida ma’naviyat, komil inson shaxsini shakllantirish masalalarimuhim o‘rin tutadi. O‘z siyosatida, badiiy ijodida o‘sha davrda mavjud imkoniyatlar va sharoitdan kelib chiqib, o‘zining insonparvarlik g‘oyalari aks etgan dunyoqarashini amalga oshiradi. Boburning ko‘plab ruboiylari orasida barkamol avlod xususiytlarin ifoda qilgan satrlar mavjud. Masalan:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqisidur,
Har kimki , jafo qilsa, jafo topqisidur.
Yaxshi kishi ko‘rmagay yomonliq hargiz,
Har kim, yomon bo‘lsa, jafo topqisidur[2, 48].

Davlatqa yetib, mehnat elin unutma!
Bu besh kun uchun o‘zungnu asru tutma!
Borg‘onni, kel emdi, yod qilmay, ey do‘st,
Borish-kelishingni lutf etib, o‘ksutma! [2, 49].

Shunday qilib, odatdagidek, qisqacha tahlilimizni sarhisob qilamiz: milliy, etnik va diniy o‘ziga xosliklarga nisbatan bag‘rikenglik Boburning o‘z imperiyasida O‘rta asrlarda Hindiston

hududidagi siyosati va ijodi uning turkiy-musulmonlar tsivilizatsiyasining shakllanishiga qo‘shgan bebaho hissasini ta’kidlash mumkin;

Bobur imperiyasining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivojlanish asoslaridan biri bo‘lgan siyosatining o‘ziga xosligi ushbu siyosatda amalga oshirilgan milliy etnik xoslik bag‘rikenglik, insonparvarlik tamoyillarida va uni amakga oshirish uning avlodlari tomonidan davom ettirilganligida edi [9, 315].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://www.uzavtoyul.uz/cy/post/prezidentimiz-shavkat-mirziyoyev-andijon-viloyatiga-keldi.html
2. Бобир. Танланган асар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983.
3. Бабур, Захириддин Мухаммад. Маҳрами асрор топмадим – Тошкент: Ёзувчи, 1993.
4. Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989.
5. Гулямова Г. С. Роль ислама в XV–XVI вв. Мавераннахре и Хорасане. // Россия и мусульманский мир. –2019. – №1. – С. 107-119.
6. Неру Джавахарлал. Открытие Индии. – М. : ИЛ, 1955.
7. Хасанов, С. З. М. Бабур. – O‘zbekiston NMIU, 2011.
8. Шоҳ ва шоир Захириддин Муҳаммад Бобур. – Тошкент: Шарқ, 1996.
9. Махаматов Т. М., Маматов М. А. Вопросы национально-этической идентичности и толерантности в политике и творчестве Захириддина Бабура. Сборник статей и тезисов докладов Международной научно-практической конференции на тему «Интеллектуальное наследие Захириддина Мухаммада Бабура и современность» – М.: -2020.

«БОБУРНОМА»ДА УМАРШАЙХ МИРЗО ВА УНИНГ АМИРЛАРИ ШАХСИНИНГ ПСИХОЛОГИК ТАВСИФИ

Аслонов И.Н.

Алишер Навоий номидаги Тошкент Давлат ўзбек тили ва адабиёти университети доценти, психология фанлари номзоди

Буюк шоҳ ва шоир, улуғ саркарда Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ва ижоди асрлар давомида дунё олимларининг диққат эътиборини тортиб келмоқда. Шарқ мумтоз ўрта аср араб-мусулмон мутафаккирлари орасида жаҳон шарқшунослигида энг эрта ўрганила бошлаган, маълум ва машҳур бўлган Бобур даражасида шуҳрат топган шахсият жуда кам топилади. Унинг мумтоз шоир сифатидаги меъросини эътироф этган ҳолда шуни таъкидлаш жоизки, унга жаҳоний шуҳрат келтирган асар “Вақоъе” (Воқеъалар), кейинчалик “Бобурнома” номи билан машҳур асарининг кўплаб жаҳон тилларига қилинган таржималаридир. «Бобурнома» асари мемуар жанрнинг мукаммал намунаси, тарихий-бадиий манба ҳисобланади. Шунингдек, асар турли тилларда адабиётшунослар, тарихчилар, тилшунослар, санъатшунослар, этнографлар, ҳайвонот ва наботот соҳаси вакилларининг тадқиқот манбасига айланган.

«Бобурнома» да Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг ҳаёти билан боғлиқ ҳолда XV асрнинг сўнгги XVI асрнинг биринчи чорагида Мовароуннаҳр, Хуросон, Афғонистон ва Ҳиндистонда кечган тарихий-ижтимоий ҳодисалар, шунингдек, ўз даврининг ижтимоий-сиёсий ҳаётида кўзга кўринган шахслар, уларнинг характери, эътиқоди, маънавий олами,

улар руҳиятида кечган мураккаб ҳолатлар, психологик жараёнлар бадиий-психологик жиҳатидан бетакрор тарзда тасвирланади.

«Бобурнома» асарида 1551 киши номи тилга олинган. Улар ичида жуда кўп тарихий шахслар (Темурий ҳукмдорлар, ҳарбий амалдорлар. Илм-фан ва санъат намояндалари)нинг шоир машоирлари (портретлари) ва руҳиятлари моҳирона чизилган, уларнинг хатти-ҳаракатлари, фаолиятлари баёни орқали шахсий хусусиятлари (характерлари) очиб берилган. Тарихий шахсларнинг қиёфалари ва фазилатларини ёритганда, Бобур уларга нисбатан ҳаққоний муносабатда бўлишга, уларнинг яшаш тарзи ва шароитидан келиб чиқиб, феъл-атворларининг энг муҳим жиҳатларини мумкин қадар аниқ ва ихчам ибораларда, лўнда ифодалашга ҳаракат қилган.

«Бобурнома»даги тарихий шахслар ҳақидаги дастлабки маълумотлар (ҳижрий 899 йил воқеалари), яъни Бобурнинг отаси Умаршайх Мирзо ва унинг атрофидаги амирларга берилган тавсифлар доирасида олиб борилган психологик таҳлиллар орқали шу нарса маълум бўлади-ки, кишиларнинг характер хусусиятлари ҳамда ахлоқий психологик сифатлари асар матнида тарихий маълумотларни тўлдирибгина қолмай асарнинг қиммати ва жозибасини оширади.

«Бобурнома»да муаллиф шахслар характер хуссиятларидаги ижобий сифатлар билан бир қаторда салбий сифатларни ҳам рўй-рост баён этади.

Масалан: Умаршайх Мирзонинг феъл-атвори ҳақида гапириб, "...хушхулқ, ҳазилкаш, гапга чечан ва ширинсўз киши эди. Шижоатли ва мардона киши эди", деган ижобий сифатлар ҳақида гапириб, бошқа ўринда: "Киймоқ ва емоқда бетакаллуф эди" ёки "юрт олиш дағдағаси туфайли анча ярашлар урушга ва дўстликлар душманликка айланарди" – дейди.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур ўзи юксак эътиқодли инсон бўлганлиги туфайли кишилар хулқига баҳо беришда энг аввало уларга эътиқоди, тақводорлиги, ислом аҳкомларини қай даражада адо этишига қараб ё ижобий ё салбий баҳо беради ва бу борадаги ўзининг кескин қарашларини намоён этади.

Умаршайх Мирзо ҳақида: "ҳанафий маҳзабида. Покиза эътиқодли киши эди. Беш вақт намозни канда қилмасди. Умрий намоз қазоларини бутунлай тамомлаган эди", Қосимбек қавчин ҳақида: "мусулмон ва диёнатли, тақводор киши эди" – деган жумлаларда Бобурнинг мазкур шахсларга нисбатан фахр ва ҳурмат туйғулари сезилса, Умаршайх Мирзонинг амирларидан бири Бобоқули Бобо Алибек ҳақида айтган: "Бенамоз эди, рўза тутмасди. Золим ва кофиртабиат киши эди"[1] деган сўзларида бундай шахсларга нисбатан салбий ҳис-туйғулари сезилади.

Шу қисқа парчада Бобур Умаршайх Мирзо ва унинг 12 нафар амирлари ҳақида тарихий маълумотлар билан бирга қаторда уларга психологик характеристикалар беради. Қуйида биз, тарихий шахсларга берилган ижобий ва салбий психологик сифатларни таққослашга ҳаракат қилдик:

	Тарихий шахсларнинг исми шарифи	**Ижобий психологик сифатлар**	**Салбий психологик сифатлар**
	Умаршайх Мирзо	8	2
	Амирлари		
	Худойберди Темиртош	2	0
	Ҳофиз Муҳаммад	2	1
	Ҳожа Хусайинбек	2	0

	Шайх Мазидбек	2	1
	Али Мазидбек қавчин	0	4
	Ҳасан Яқуббек	4	3
	Қосимбек қавчин	4	0
	Бобоқули Бобо Алибек	1	4
	Алидўст тағойи	0	8
0	Вайс Лоғарий	0	1
1	Али Дарвеш	2	2
2	Қамбарали мўғул	0	4
Жами		**27**	**30**

Юқоридаги жадвалдан аниқ бўлади-ки, Бобур ўз асарида ҳаққонийликка. Кишиларга баҳо беришда адолатли ва холис бўлишга ҳаракат қилганлиги кўринади. Яна шуни ҳам таъкидлаш керак-ки, одамлардаги тилга олинган салбий сифатларнинг нисбатан кўплиги Бобур характеридаги атрофдагиларга ҳамда ўзига нисбатан ўта талабчанлик хислатини намоён этади.

«Бобурнома»даги ушбу қисмидаги шахсларга берилган психологик тавсифларни тадқиқ этарканмиз, муаллиф кишилардаги *сахийлик, олийжаноблик фақирлик ва одмилик, золимлик, бахиллик, мунофиқлик, фитнакорлик ва хасислик* каби ахлоқий психологик сифатларга энг кўп эътибор қаратганлигини кўрамиз. Бобур кейинги ўринда *мардлик, шижоатлилик, ғайратлилик, интизомлилик ёки ҳафсаласизлик феъли торлик* каби иродавий сифатларга мурожаат қилади. Навбатдаги ўринда муомала ва мулоқотчанлик сифатлари унинг эътиборини тортиб, у кишилардаги *хушмуомалалик, гапга чечанлик, ҳазил – мутоибага мойиллик, камгаплик ёки сергаплик, хушомадга мойиллик, "қаттиқсўзлик"* каби сифатларни қайд этади.

«Бобурнома»нинг юқоридаги кичик парчаси асосида шундай хулосага келиш мумкинки, асар матнини психологик таҳлили орқали нафақат ундаги психологик маълумотлар аҳамиятини, балки Заҳириддин Муҳаммад Бобур шахсининг янги қирраларини очилишига имкон яратилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома/ ўрта ёшдаги мактаб болалари учун/ нашрга тайёрловчи П. Шамсиев: муҳаррир А. Ўктам/ - Т: Юлдузча. 1989. – 368 б.

2. Bobur Zahiriddin Muhammad.Boburnoma/Z. M. Bobur; O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi; Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi; Xalqaro Bobur fondi. – Toshkent: "O'qituvchi" NMIU, 2017. – 368 b.

БОБУРНОМА АСАРИДА ЭТНИК ВА ВА ЭТНОМАДАНИЙ ЖАРАЁНЛАРНИНГ ЁРИТИЛИШИ

Идиев А.А.

ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти таянч докторанти

Бугунги кунда Заҳириддин Муҳаммад Бобур ижодининг ноёб намунаси бўлмиш "Бобурнома" асари маҳаллий ва хорижий тадқиқотчилар томонидан кенг миқёсда ўрганиб,

келинмоқда, хусусан мазкур асар адабий [1,2,3], сиёсий [4,5,6], лингвистик [7,8,9,10], бошқа соҳалар бўйича илмий жиҳатдан ўрганилган.

Мустақилликка эришганимиздан сўнг миллий тарих хусусан ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихини ўрганишга бўлган давлат сиёсати даражасига кўтарилганлигини кўришимиз мумкин. Шу билан бирга, Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг "Бобурнома" асари нафақат юртимиз балки хорижда ҳам катта қизиқиш билан ўрганилмоқда. Мазкур асарнинг Сале томонидан қилинган таржимасида Бобур ва унинг қўшини асасини турк ва афғонлар ташкил этсада Европалик олимлар томонидан янглиш ҳолда мазкур давлатни "Буюк мўғуллар империяси" деб аташ одат тусига кирганлигини таъкидлайди. Шунингдек, мазкур асарда Андижон тавсифи ҳақида сўз борганда унинг асосий аҳолиси туркийлар эканлиги Бобур томонидан эътироф этилади. Шу билан бирга, А.Навоий Ҳиротда яшаб ижод этган бўлсада, асарлари ҳам мазкур тилдан унча фарқ қилмаганлиги қайд этилади, бу эса ўз навбатида жонли туркий тил тарқанлган ҳудуд Мовароуннаҳр ва Шарқий Туркистон билан чегараланмаган деган хулоса қилишимизга асос бўлади.

Ушбу асарда XV аср охири XVI аср бошларида Фарғона водийси, Тошкент, Ўратепа, Шохруҳия, Самарқанд ва Ҳисорда ўрнашган *дулдай, қипчоқ, баҳрин, чарос, мўғул, дуглат, бекчиқ, қавчин, арғун, уйғур, барлос, минг, чоғрак, манғит, ўтарчи* ва бошқа қабилалар тўғрисида маълумотлар келтирилган [11, 153].

Мазкур асар туркий халқлар тарихини ўрганишда ҳам муҳим манба бўлиб хизмат қилади зеро мазкур асарда ўнга яқин ўринларда туркий халқлар яшаш ҳудудлари тўғрисида қимматли маълумотлар мавжуд, шу билан бирга, агар асардаги этник маълумотлар чуқур таҳли этилса, мазкур асарда туркий халқларга мансуб қабила ва уруғ номлари ҳам кўп ўринларда учрайди.

Ҳусравшоҳ музофоти таркибида бўлган маҳаллий аҳоли хусусан туркларнинг ҳам аҳволи ўша даврда ёмон бўлганлиги қайд этилган.

Ўратепада жойлашган Дихкент қишлоғи аҳоли сартлар эканлиги аҳолининг хўжалик фаолияти туркларники сингари отбоқарлик ва қўйчилик эканлиги айтиб ўтилган.

Қобул тавсифи берилганда, у ерда кўплаб қабилалар ҳаёт кечириши жумладан, водий ва текисликларда аймоқлар, турк ва араблар; шаҳарларда ва баъзи қишлоқларда сартлар яшаши, бошқа қишлоқ ва вилоятларда пошшойи, перачи, тожиклар, береклар, ва афғонлар яшаши айтиб ўтилган. Ғазнанинг тоғли ҳудудларида ҳазорийлар ва қораунаслар (никудерилар)[11] ҳаёт кечиришиб, уларнинг баъзи бирлари мўғул тилида сўзлашишлари баён этилган. Тоғлик ҳудудлар яъни шимолий-шарқда (Нижрау тумани назарда тутилмоқда) кофирлар яшаганлиги қайд этиб ўтилган. Қобул вилояти аҳолиси тахминан ўн ёки ўн икки тилда сўзлашаши келтириб ўтилган улар: *араб, форс, турк, мўғул, ҳинд, афғон, пешшай, перачи, гебри, береки, ламгани*. Ҳеч бир вилоятда, бизга маълум бўлишича турли тилларда сўзлашадиган қабилалар бу даражада кўп эмас деб Бобур мазкур минтақани тавсифлайди.

Қобул вилоятининг тоғли ва тоғолди туманлари бўлган Пандхир, Гурбанд ҳақида маълумот берилган вақтда мазкур ҳудуд аҳолиси кофир эмаслиги таъкидланган шу билан бирга ҳудуднинг минерал бойликлари ва флора ва фауна дунёси ҳақида берилган маълумотлари асосида мазкур ҳудудлар аҳолисининг асосий машғулотлари сифатида чорвачилик (ҳазорийлар Гурбанддан, аймоқлар ва туркий қабилалар эса Гурбанд тоғлари ва

[11] Никудерлар (мўғ. Қараунас) - Ўрта аср мўғул қабилаларидан бири. "Солномалар тўплами" ва бошқа ўрта аср манбаларида эслатиб ўтилган. Айни пайтда ҳазоралар таркибидаги етник гуруҳ.

Борон дарёси этакларидаги маҳаллий аҳоли тилида Курраи Тозиён ва Дашти Шайх текисликларида истиқомат қилишган[12])

Асарда шунингдек туркий ва аймоқларнинг Самарқандга кўчишлари ҳам келтирилган демак бундан хулоса қилишимиз мумкинки ягона байроқ остида бирлаштирилган Мовароуннаҳр ва Хуросон ўлкаларида истиқомат қилувчи юқоридаги этник бирликлар иқлим шароитларига қараб доимий кўчманчи ҳаёт тарзини кечирганлар.

Бобур ўлканинг географияси ва аҳолиси тўғрисида батафсил маълумотга эга эканлиги туфайли Фарғона ва Самарқанд тавсифини жуда аниқлик билан баён этади. Шу билан бирга, Дашти Қипчоқ ҳудудидан Фарғона водийсига кириб келган кўчманчи туркий қабилалар ўтроқ бўлиб жойлашганлар. Мазкур маълумотлар кейинги давр тарихчилари Муҳаммад Солиҳ, Камолиддин Биноий, Ҳофиз Таниш Бухорий, Маҳмуд ибн Вали ва Абулғозийхон томонидан ҳам қайд этиб ўтилиши [12, 30,79] мазкур асарнинг илмий қиймати юқорилигини англатади.

Самарқанд шаҳри ҳақида гап кетганда Бобурнинг мазкур шаҳардаги бозорлар маълум бир касб тоифасига ихтисослашган ҳунармандлар бозорларидан таркиб топганлиги ва бу ҳол ҳудуддаги бошқа ҳеч бир шаҳарда учрамаслигини таъкидлайди. Шу билан бирга мазкур шаҳар тавсифида ушбу шаҳарда қандолатчилик соҳаси ҳам ривожланганлиги қайд этилади. Улуғбек расадхонаси олдида коғоз жувоз мавжуд бўлиб, унга Конигилдан сув келиши “Бобурнома”да қайд этилади ва мазкур коғоз дунёда тенги ёқлиги таъкидланади [13, 62; 14, 223; 15, 254; 16].

Хулоса қилиб айтадилган бўлсак “Бобурнома” асари бевосита сиёсий таъсир доиралари ва алоҳида ҳукмрон тоифа учун аталган тарихий асарлардан берилган маълумотларда ҳамд мавжуд эмаслиги билан ажралиб туради.

Шу билан бирга, мазкур асарнинг Марказий Осиё ва Ҳиндистон этнографиясини ўрганишда қийматини оширувчи жиҳати мазкур асарда алоҳида шахслар ва уларнинг қабилавий мансублиги акс эттирилмай балки, асосий урғу маҳаллий аҳоли ва унинг хўжалик фаолиятига берилганлигидадир, зеро мазкур даврга мансуб, “Тарихи гузидаи нусратнома”, “Шайбонийнома” ва бошқа тарихий асарларда этник маълумотлар асосан ҳукмрон тоифа вакилларига боғланган ҳолатда учрайди.

“Бобурнома” асарида келтирилган маълумотлар (шу жумладан этник маълумотлар ҳам) дақийқ эканлигига яна бир исбот, кейинги давр тарихчилари мазкур асарда келтирилган маълумотлардан фойдаланишган.

Асарда ўзбек атамаси кўп ўринда [17, 20,24,25,268,271,273,275,278,285] Муҳаммад Шайбонийхон бошчилигида кўчиб келган Дашти Қипчоқ аҳолисига нисбатан ишлатилган, Мовароуннаҳр маҳаллий аҳолиси эса ўз навбатида кўп ўринларда турк ва сарт атамалари билан кўлланилганлиги ўзбек атамасининг XVI аср бошида маҳаллий аҳолининг кейинги асрларда ўзбек номи билан аталиши бўйича фактологик маълумотларни тақдим этади.

“Бобурнома” асарини кейинги тадқиқотларда Шайбонийлар бошқаруви даврида яратилган ҳамда Сафавийлар ҳомийлиги асосида яратилган тарихий асарларда келтирилган этник маълумотларни қиёсий таҳлил этган ҳолатда йирик тадқиқотлар амалга оширилган тақдирда, XV аср охири XVI аср бошида Марказий Осиёда юз берган этник ва этномаданий жараёнлар тўғрисида қимматли маълумотларни аниқлаб, илмий муомалага киритиш мумкин.

[12] Ойратлар ёки Чараймоқлар (дари тилида "тўртта қабила") - Афғонистоннинг шимоли-ғарбий қисми ва Эроннинг шимолий-шарқида яшовчи ва асосан ярим кўчманчи турмуш тарзини олиб борадиган эронийзабон қабилалар гуруҳлари (жамшидлар, фирузкўҳи, тайман, теймур).

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Азимжанова С. А. Индийский диван Бабура. -Т.: Фан, 1966.
2. Машрабов З, Шокаримов С. Асрларни бўйлаган Бобур. –Т.: “Ёзувчи” нашриёти, 1997. 176 б.
3. « Boburnoma »ning Badiiy qimmati haqida, S.Jamolov,Toshkent 1989.
4. Нуритдинов М. Бобурийлар сулоласи. – Т.: “Фан” нашриёти, 1994. 46 б.
5. Жалилов С. Бобур ва Андижон. – Т.: “Ўзбекистон” нашриёти, 1993. – 102 б
6. Уилям Эрскин. Бобур Ҳиндистонда, –Т.: “Чўлпон” нашриёти, 1995.106 б.
7. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: “Ўқитувчи” нашриёти. 2017. 368 б.
8. Le Livre de Babur, Parij, 1985.
9. Histoire des Grands Moghols, Jean- Paul Roux, Paris 1995.
10. Histoire de L’Empire mogol, Fayard, Paris 1993.
11. Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература Средней Азии XVI-XVIII вв. «Фан», Т., 1985. С-153.
12. Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. “Ўқитувчи”. Т., б- 30,79.
13. Бабур-наме, стр. 62.
14. Бабур-наме, стр. 223
15. Бобирнома, Тошкент, 1960, стр. 254.
16. Хофиз и Таныш, Абдулла-наме ркп. ИВ АН УзССР, № 2207, л. 2046 (3936)
17. Текст воспроизведен по изданию: Бабур-наме. Ташкент. Главная редакция энциклопедий. 1992. С- 20,24,25,268,271,273,275,278,285.

BOBUROLOGY ABROAD

Rashidova M.X., Namozova D.B.
Senior teachers Military-technical Institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan

In order to develop national literature and history, to provide comprehensive support to creative intellectuals in Uzbekistan, to create the necessary conditions for their effective functioning, the monument of more than 20 outstanding poets and writers in the Alley of Literary Men has been erected and noticeably the architectural image of Zahiriddin Muhammad Babur deserves a special place among works of honor.

President of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev in his speech noted “... this great descendant, from the age of twelve, struck himself both on the grass and on the peak in order to preserve the state of Temurids, was not afraid of any enemies or trials. Babur inherited great love and noble qualities for his descendants to the motherland” [1].

As a result of the research carried out in the direction of Boburology in World Science, modern research on the recognition of new aspects of the king and poet is intensified. In fact, interest in the creativity of Babur began in the XVI century, and it was carried out in Russia, the USA, France, Great Britain, Germany, Japan, Turkey, India, Pakistan and a number of other countries.

Finding a way into the hearts of people in a difficult time that is changing rapidly today and inspiring them to reach high states, deep study of literature, the rich heritage of history, integration into the hearts of today's young people and bringing them closer to the next generation serves as a criterion of high spiritual values. In this regard, in-depth study of the life, activities and military skills of Bobur, active implementation of extensive research on new aspects of today’s agenda is one of the living issues. After all, one of the most important features of maintaining a high

spirituality in today's globalist era is the expression of an active study of the spiritual wealth of ancestors and leaving a worthy inheritance for the next generation [2].

For five centuries in the World of Science the activity of the life of Bobur, his scientific and spiritual heritage, military skills and courage continue to be studied intensively. In particular, in the USA, Great Britain, France, Germany, Japan, Turkey, India, Pakistan and other countries, a group of Boburology scientists was formed and today's generation continues their work.

As soon as the work "Boburnome" began to be studied interest in his work began to form as a separate line of Oriental Studies. In the XVI century works like "Tuhfai Somi" by Som Mirzo Safavi in Iran and "Ravzatus-salotin" by Sultan Muhammad Fakhri Hiravi in Khorasan view the image of Bobur not only as a king but mostly as a poet and brief information was given in this regard. Since the XVI century, in most of the works written in Central Asia, Iran, Turkey, Azerbaijan and India, information about Bobur has been brought and samples of his gazelles and rubai have been given.

It is observed that the attitude of scientists of the world to Bobur is manifested mainly in four directions:

1) political activity of Bobur as a statesman;

2) express the work "Boburname" as a collection of encyclopedic information and look at its author as a historian;

3) to recognize Bobur as a great poet and writer;

4) to look at Bobur as a unique great historical figure. The last direction was reflected mainly in artistic and publicistic works, which were written influenced by the form of Babur and his fantastic fate. The first translation of "Boburname" in Western European languages was carried out by Vitsen, which was published in Amsterdam in 1705 year.

The world-wide attitude to the work of Bobur's memoir "Boburname" is manifested in the following directions:

- evaluation as a historical work based on the chronological sequence of events;
- recognition as an encyclopedic work and study by comparing it with other sources written by contemporaries;
- translation of "Boburname" into world languages and interpretations of similarities and differences in them;
- to study the history of India on the basis of "Boburname";
- features related to the comparative study of the events in the work with the information in the books written in the following years [3].

Studies on the life of Bobur and the activities of the Boburids were carried out not only for scientific, but also for political purposes, the Government of England, along with the nature, wealth, territorial units of the country, paid special attention to the study of the management system of the Boburids.

German scientists in active research carried out in the direction of Boburology in Europe – A.Kaiser, A.Shimmel, F.Vyurtle, V.Stamler, from the French – A.Klaprot, F.Berne, Pierre Laruss, Pave de curtail, G.Fernan, F.Grenan, L.Gambi, B.Gramon, the contribution of Lui Bazen is significant.

By the nineteenth century, Boburology entered the stage of development at a rapid pace, even in the Eastern countries. Iranian scientist Z.Mansuri on the basis of research published his work "Iran and Bobur". Japanese orientalist E.Mano made a huge contribution to the Baborology. He is actively working on the promotion of the Bobur personality in the Japanese language, along with

the study of the Bobur heritage. Also in China in 1997 in connection with the translation of the book into the Uighur language by Hamit Temur, Boburology began to develop in this country as well. In particular, Abdurahman Hurmat has given a special place to the tasavvuf foundations in his work “Mubayyin” and in the brochure “The philosophy of tasavvuf”.

In recent years, a number of scientific and artistic works written abroad about Bobur and his descendants have been translated and published into Hindi, English, French and Persian languages. It should also be noted that in the preface to the works of Bobur, which are repeatedly published, thoughts are made about the study of the scientific, literary and spiritual heritage of Bobur and other issues related to Boburology.

REFERENCES

1. Sh.M. Mirziyoyev “We will build our great future together with our brave and noble people” Tashkent, Uzbekistan, 2017. p. 484.

2. The Golden Threshold of our homeland Tashkent is becoming more and more beautiful. President of the Republic of Uzbekistan Sh.M. Mirziyoyev's speech on 20 May 2020 on the visit to the Alley of Literary Men. Khalq sozi, 2020 May 21. №106 (7608).

3. S.Jalilov “Thinkings about Bobur”. Tashkent: Sharq, 2006. p.116.

“БОБУРНОМА” - ДА ЎРТА ОСИЁ ХАЛҚЛАРИ ТАРИХИГА ОИД НОДИР МАНБА

Ғайбуллоева М.А.
тарих фанлари номзоди, доцент.
Хужанд давлат университети

Бобир Заҳириддин Муҳаммад (1483.14.2 Андижон 1530.26.12, Ҳиндистоннинг Агра ш.) ўзбек классик адабиётининг йирик вакили, тарихчи, олим, темурийлар ҳукумдорлар сўнгги намояндаларидан бири. “Буюк муғуллар империяси” деб ном олган Ҳинд феодал давлатининг асосчиси сифатида танилган. Унинг отаси Умар Шайх Мирзо Амир Темурнинг набираси бўлиб, темурийлар давлатинг яшнасида катта ҳисса қўшган давлат арбобидир. Ўрта Осиё халқларинг ўрганиш тарихи унинг асосий манбаси “БОБИРНОМА” Заҳириддин Муҳаммад Бобирнинг энсиклопедик асаридир. “Бобурнома” фақат ўзбек адабиётини эмас балки жаҳон адабиёти ва фаннини бойитган монументал адабий тарихий ёдгорликдир. “Бобурнома” Бобир ҳаётининг сўнгги йилларида (1525-1530) Ҳиндистонда яратилган бўлса ҳам, лекин унда Бобирнинг 12 яшарлигида шо бўлганидан (1494) то вафотига қадар (1530) юз берган ҳодиса ва воқеалар, шулар билан боғлиқ юзлаб тарихий шахсларнинг ҳаёти фан учун катта аҳамиятга эга бўлган далилар адабий шаклда ёритилган. “Бобурнома” ўзбек прозасининг дастлабки юксак намунасидир. Бизгача етиб келган “Бобурнома” текстининг катта камчилиги унда 1509-1518, 1521-1524, 1529-1530 йиллар воқеалари баёнининг йўқолганлигидир. Шунга қарамай, “Бобурнома” ўша давр ижтимоий сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёти ҳақида яхлит ва кенг тасаввур беради. Бу асарни асосан уч қисмга: “Бобурнома” Бобур шоҳлигининг Мовароуннаҳр даври (1494-1504), Афғонистон даври (1504-24) ва Ҳиндустон даври (1524-30) давомида юз берган тарихий воқеалар баёнига бўлиш мумкин. Унинг баъзи манбаларда “Воқеъанома” деб номлниши ҳам бежиз эмас. Шу жиҳатдан “Бобурнома” XV асрнинг иккинчи ярми ва XVI асрнинг биринчи ярмидаги Ўрта Осиё, Афғонистон ҳамда Ҳиндистон тарихини ўрганишда қимматли тарихий манба ҳисобланади. Бобир Андижон вилоятнинг ўша давридаги аҳволи, сиёсий маъмурий

тузилиши, географик шароити, йирик шаҳарларини, у ерда бир неча йил ҳукмронлик қилган отаси Умар Шайхнинг шахсий ва оилавий ҳаёти, хулқ-атвори, ҳарбий юришларини, унинг саройидаги амалдорларни, сўнг бир неча марта Самарқандни олиш учун қилган ўз ҳаракатларини, темурийлар ва шайбонийлар билан бўлган муносибатлари, урушлари, Самарқанднинг ўша даврдаги аҳволини, маданий бойлигини, бу шаҳр учун юз берган ҳарбий тўқнашувларни мукаммал тасвирлайди. “Бобурнома” Моваруннаҳр ва унинг шаҳарлари, ер сувлари ҳақида аниқ маълумотлар беради. Масалан у, Самарқанд шаҳри ҳақида ёзади: “Рубъи маскунда Самарқандча латиф шаҳр камроқдур. Бешинчи иқлимдиндур... Темурбекдин бурун Темурбекдек улуғ шоҳ Самарқандни пойтахт қилғон эмастур....” [1, 104].

Темурбекнинг ва Улуғбек мирзонинг имороти ва боғоти Самарқанд маҳаллотида кўптур. Самарқанд аркида Темурбек бир улуғ кўшк солибтур, тўрт ошёнлиқ, Кўк саройға мавсум ва машҳур ва бисёр олий имораттур. Яна Оҳанин дарвозасига ёвуқ қалъанинг ичида бир масжиди жумъа солибтур... Масжиднинг пештоқи китобасида бу оятни “Ва из ярфау Иброҳимал қавоида (илоохириҳи) андоқ” улуғ хат била битибтурларким, бир қуруқ ёвуқ ердин ўқуса бўлур. Бу ҳам бисёр олий имораттур. Самарқаднинг шарқида икки боғ солибтур. Андин Феруза дарвозасигача хиёбон қилиб, икки тарафида терак йиғочлари эктурубдур. Дилкушода ҳам улуғ кўшк солдурубдур, ул кўшкта Темурбекнинг Ҳиндустон урушини тасвир қилибтурлар. Яна Пуштаи Кўҳақнинг доманасида Конигилнинг қора суйининг устидикам, бу сувни Обираҳмат дерлар, бир боғ солибтур. Нақши жаҳонға мавсум. Мен кўрган маҳалда бу боғ бузулуб эрди, оти беш қолмайдур эди. Яна Самарқанднинг жанубида Боғи Чанордур, қалъаға ёвуқтур. Яна Самарқанднинг қуйи ёнида Боғи Шамол ва Боғи Биҳишттур. Темурбекнинг набираси, Жаҳонгир мирзонинг уғли Муҳаммад Султон мирзо Самарқанднинг тош қўрғоннида – чақарда бир мадраса солибтур. Темурбекнинг қабри ва авлодидин ҳар кимки Самарқандга шоҳлик қилибтур аларнинг қабри ул мадрасададур [1, 104-105]. Бобурнинг ёзишича, у даврда Самарқанднинг қирмизи бахмали машҳур бўлган. Энг яхши қоғоз ҳам Самарқанддан чиққан. “Узуми ва қовуни ва олмаси ва анори балки жамиъ меваси хўб бўлур. Вале икки мева Самарқанддин машҳурдур: себи Самарқанд ва соҳибийи Самарқанд” [1,105]. Бобирда табиатга, уни билишга, хусусан она юртининг ўзига хос хусусиятларини англашга муҳаббат кучли бўлган.

Бобур Мовароуннаҳрда ҳокимиятни қўлга киритиб, уни қўлда тутиб қола олмагани, ички феодал курашлар ниҳоятга кучайган бир шароитда Шайбонийхон истилосининг олдини ололмагани туфайли ҳазирги Афғонистон территориясига ўтиб, Қобул ва унинг атрофидаги территорияларни қандай қўлга киритгани, турли туман қабилаларни қандай бўйсундиргани, бу янги давлатни қандай мустаҳкамлагани, қўшни давлатлар, хусусан Ҳусайн Бойқаро авлодлари бошлиқ Хуросон давлати билан қандай муносибатга бўлгани ва ҳикояларни баён этади. Бобур Қобулни пухта ўрганган. Бу вилоятдаги аҳолининг таркиби ҳақида ўқимиз: “Мухталиф ақвом Қобул вилоятида бордур. Кулбасида ва тузларида атрок ва аймоқ ва аъробдур. Шаҳрида ва баъзи кентларида сортлардадур. Яна баъзи кентларда ва вилоятида пашойи ва парожи ва тожик ва бараки ва афғондур. Ғазна тоғларида ҳазора ва нақдаридур. Буларнинг орасида баъзи мўғулий тил билан ҳикоят қилурлар. Ўн бирўн икки лафз била Қобул вилоятида талаффуз қилурлар. Мунча муҳталиф ақвом ва муғойир алфоз маълум эмаским, ҳеч вилоятга бўлғай” [1, 189]. Қобул шаҳридан халқаро аҳамиятга эга бўлган катта карвон йўли ўтгани ҳам тасвирланган. Шунинг учун бу ерда дунё бозорининг турлитуман моллари бўлган. “Хуросон ва Ироқ ва Рум ва Чин матои Қобулда топилур”, деб ёзади Бобур. Қобул шаҳрининг халқаро мавқеини янада ошириш учун қўлидан келган ҳамма тадбирларни кўрган, йўлларнинг савдогарлар учун хавсизлигини таъминлаш билан шахсан ўзи

шуғулланган. Бобирнинг Ҳиндистонга юриши, у ердаги ҳаёти, умуман бу мамлакатнинт географик тузилиши, иқлими, сувлари, ўсимликлар дунёси, ҳайвонот олами, ижтимоий сиёсий аҳволи, табиий бойликлари ҳам кенг ва чуқур, зўр тажриба ва билимдонлик билан ёритилганки, Ҳиндистон ҳақида Абу Райҳон Берунийдан кейин ҳеч бир ўзбек олими бундай мукаммал асар яратмаган эди. У Ҳиндистонни ўз мамлакати Мовароуннаҳрга таққослаб ёзади: "Ғариб мамлакате виқоъ бўлубтур. Бизнинг вилоятларға боқа ўзга оламедур. Тоғ ва дарёси ва жангал ва саҳроси, мавозеъ ва вилоёти ва ҳайвонот ва набототи, эли ва тили ва ёмғири ва ели борча ўзага воқиъ бўлубтур" [4, 292-293]. Бобир асарда шунча кўп географик номлар, кишилар номи, ҳайвонот ва ўсимликлар номини келтирадики, булар ҳамаси унинг ноёб хотира қувватига эга бўлганини исбот қилади. Бобир чет тиллардаги киши ва географик номларини мумкин қадар аслида қандай бўлса, шундай беришга ҳаракат қилади. Ў ҳинд тилларини ҳам қунт билан ўргана бошлаган.

Асарнинг Ҳиндистон ҳайвонлари, қушлари, сув ҳайвонлари, ўсимликлари, мевалар, гуллари ҳақидаги боблари шу қадар мароқли ёзилганки, ҳозиргача ўзининг илмий қиматини заррача бўлса ҳам йўқотмаган. Бобир бунда кўп нарсаларни эшитиб эмас, кўриб, билиб, текшириб ёзган у Мовароуннаҳр, Қобул вилояти, Ҳиндистон тасвирида поэтик эҳтирос билан шундай қалам тебратдики, натижада у бу мамлакатларнинг тасвирида Алишер Навойининг "Садди Искандарий" достонидаги юксак бадийлик даражасига кўтарилди.

Ўрта асрларда яратилган асар "Бобурнома" тарихий манба сифатида ҳамда маданият тарихини ўрганишда нодир тарихий асарлардан биридир. Унда Шарқ фани, адабиёти ва санъати ривожига улкан ҳисса қўшган Абдурраҳмон Жомий, Алишер Навоий, Мирхонд, Хондамир, Шайҳим Суҳайлий, Муҳаммад Солиҳ, Осафий, Биноий, Ҳилолий, Мир Абдуллоҳ Машҳадий, Султон Али, Беҳзод, Шоҳ Музаффар, Қул Муҳаммад Удий, Шайх Нойи, Ҳусайн Удий ва бошқалар ҳақида қимматли маълумотлар бор. У айниқса, Навоий ҳаёти ва ижодига кен тўхталиб, ижодининг тарихий аҳамиятига биринчилардан бўлиб юксак илмий баҳо берди. "Алишербек назири йўқ киши эди. Туркий тил билан то шеър айтубтурлар, ҳеч ким анча кўп ва хўб айтқон эмас." - деб ёзади у [1, 342]. Бобир бу асарида ана шу хил қимматли далилларни жам қилиш ва системалаш билан бирга, адабиёт ва санъат масалалари бўйича ўткир назариётчи ва танқидчи сифатида ҳам номоён бўлади. У ҳар бир шоирга, унинг асарига танқидий ёндашади, мазмуни ва бадиияти жиҳатидан бўш асарларни кўп вақт ўринли танқид қилади. У санъаткорларга ҳам шундай муносабатда бўлади.

Алишер Навоий Мирхондга тарихга доир асар, ҳамма осон тушунадиган, содда ва равон бўлиши керак, деган эди. Бунга амал қилиб ўзи "Тарихи мулуки Ажам" асарини ана шу услубда ёзган эди. Бобир ўз асарини шу услубда, ўша давр халқ жонли тилида ёзди ва бу томони билан ҳам янги типдаги тарихий асар намунасини яратди. Адабий жиҳатдан эса бу услуб реалистик характердаги услуб эди. "Бобурнома"- да воқеалар ва характерларни аниқ, таъсирли ва эсда қоладиган қилиб тасвирлашда Бобир зўр маҳорат кўрсатган[3, 45].

«Бобурнома»нинг сўз бойлиги – улкан хазинадир. "Бобурнома"да халқ мақоллари ва иборалари ғоят кўп ва керакли жойларда талабига қараб ўринли қўлланган. Унда келтирилган айрим афсона ва ривоятлар, ўзбек ва форс тилларидаги шеърий парчалар, асарнинг бадиий, умуман филологик аҳамияти ва қимматини янада оширган. "Ёмон от била тирилгандин яхши от била ўлган яхшироқ", "Ҳар кимдин яхши қоида қолғон бўлса, анинг бирла амал қилмоқ керак" каби жумлалари ҳикматли сўз даражасига кўтарилган. Бу асари билан Бобир ўзбек адабий тили тарихи ва қадимий маданиятини тараққиётига ўзининг жуда катта улушини қўшди.

Жаҳон халқларининг, шу жумладан Ўрта Осиё халқларинг ўрта асрлар тарихида, умуман, “Бобурнома” энциклопедик характердаги асар бўлиб, жаҳон маданият тарихидан доимий ўрин олган. Мана шунинг учун ҳам “Бобурнома” 490 йилдан буён энциклопедист жаҳон олимларининг диққатини ўзига тортиб келмоқда. Турли тилларда нашр этилиб, ҳозир ҳам нашр этилмоқда. Машҳур ҳинд ёзувчиси Мулк Рож Ананднинг Осиё ва Африка ёзувчилари Тошкент конференцияси (1958) минбаридан туриб “Бобурнома” хусусида айтган гаплари айни ҳақиқат: “...Улуғ Бобир мемуарлар ёзганлиги сизларга маълум... Бу Ўзбекистондаги каби бизда ҳам ғоят қадрланади. Ҳиндистоннинг баъзи рассомлари, жумладан Бобирнинг чевараси ушбу китобга расмлар чизган... Бу ажойиб қўл ёзманинг бир нусхаси Москвада сақланмоқда. Уни бутун дунёдаги энг ажойиб санъат асари деса бўлади. Мен Москвада бир неча марта шу музей (Шарқ музейи) да бўлиб, мазкур ажойиб қўл ёзмани ўргандим... Биз дунёдаги энг гўзал асарлардан бирини Ўзбекистон ва Ҳиндистон ўртасида баҳам кўрамиз”.

Хулоса қилиб, қайд қилиш зарурки Бобурнинг “Бобурнома” тарихий –меъмуар асари тожик халқи Марказий Осиё халқлари, шу жумладан қадимий Шарқ халқлари тарихи ва маданиятини ўрганишда тарихий, этнографик, географик манба ҳисобланиб, умумжаҳон тарихий аҳамиятга эгадир.

Тарихчи тадқиқотчи сифатида шуни қайд қилмоқчиман, Бобурнинг “Бобурнома” асари ҳозирги даврда ҳам турли йўналишдаги тадқиқотчилар, олимлар томонидан қайта-қайта давр талаби асосида кенг ўрганилмоқда. Тожикистон Давлат мустақиллиги даврида “Бобурнома” асарининг тожик халқи ўрта асрлар даври тарихи аҳамиятли манбаси сифатида нашр этилиши ўлкамиз тарихини ўрганувчи ёш тадқиқотчи таҳлилчилари учун жуда улкан таълимий-илмий аҳамият касб этади.

Адабиётлар рўйхати:

1. Бобурнома. Тошкент,1989.
2. Б.Гафуров .Таджики. – Москва,1972.
3. Эркаев С.А. Бобурнома тарихий манба сифатида.-Хужанд,1994.
4. Ўзбек совет энциклопедияси.-Тошкент,1972.

ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР УСЛУБИГА ХОС ЖИҲАТЛАРНИНГ УРДУЧА ТАРЖИМАДА БЕРИЛИШИ

Шарахметова М.А.

Тошкент давлат шарқшунослик университети кафедраси ўқитувчиси

Ўзбекистон Республикаси мустақилликка эришгандан сўнг халқимиз ўз адабиёти, маданияти, санъати ва маънавияти тарихига янгича кўз билан қараб, уни чин маънода асраб-авайлаш, чуқур ўрганиш имкониятига эга бўлди. Маънавий бойликларимизни ўзимиз янгидан таниб, идрок этибгина қолмай, балки бутун жаҳон илм ва маданият аҳли бизнинг тарихимиз ва санъатимизга қандай муносабатда бўлиб келгани, ҳозирда бу муносабатлар қай тарзда кечаётгани, жумладан, мумтоз адабиётимиз намуналари бошқа тилларга таржима қилиниб, тадқиқ этилиши ҳозирги куннинг муҳим масалаларидандир. Буюк ватандошимиз, бобурийлар салтанати асосчиси, ҳукмдор ва шоир, адиб ва тарихчи Заҳириддин Муҳаммад Бобур (1483-1530) қаламига мансуб «Бобурнома» ана шундай асарлардан биридир. XVI асрда яратилган ушбу асар том маънода туркий маданият, хусусан, ўзбек халқи маънавий

қадриятларининг юксак намунаси сифатида Шарқ ва Ғарб олимлари орасида катта қизиқиш уйғотиб, изчил ўрганилаётган асарлардан биридир.

Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг шоҳ асарини жаҳонга машҳур қилган, бошқа халқларни ҳам баҳраманд этган нарса унинг таржималаридир. Бугунги кунда «Бобурнома» дунёнинг турли тилларига жумладан, рус, инглиз, немис, голланд, француз, испан, япон, форсий, турк, араб, ҳиндий ва бошқа тилларга таржима қилинган ҳамда қайта-қайта нашр этилмоқда. Охирги маълумотларга қараганда, «Бобурнома» ҳозиргача йигирмага яқин тилга таржима қилинган [2:7].

Айрим тилларда «Бобурнома»нинг бир нечтадан алоҳида-алоҳида таржималари мавжуд. Инглиз, форс, урду тиллари шулар жумласидандир.

«Бобурнома» урду тилига тўрт марта ўгирилган. Мазкур таржималар турли даврда турли таржимонлар томонидан амалга оширилган. Мирзо Насируддин Ҳайдар Кўрагоний [5] туркийдан таржима қилган. Юнус Жаъфарий [6], Рашид Ахтар Надавий [7] ва Муҳаммад Қосим Сиддиқий [8] таржималари билвосита, яъни форсийдан ўгирилган.

«Бобурнома» ни урду тилига биринчи марта аслият тили, яъни туркийдан темурийлар авлодига мансуб Мирзо Насируддин Ҳайдар Кўрагоний таржима қилган. Маълумотларга қараганда, мазкур таржима 1898 йилда амалга оширилган, бироқ таржимани муаллифнинг ҳаётлик чоғида нашр этишнинг имкони бўлмаган. Кейинчалик уни 1926 йилда Кўрагонийнинг фарзандлари Деҳлида чоп эттирганлар. Қўлимиздаги мазкур таржима 1962 йилда Карачи шаҳрида «Бук-Ленд» нашриётида қайта чоп этилган [5]. Сарвароқда китобнинг номи «Бобурнома» деб, унинг тагида эса "*Тузуки Бобурий*" деб келтирилган. Китоб жами 426 саҳифадан иборат.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур услубига хос асосий жиҳатлардан бири аввало унинг «ҳар сўзнинг ростини» битиши, кўрган, эшитган воқеа-ҳодисаларни борича, реал тасвирлаши, қисқа ва содда баён тарзи, атроф-муҳитни теран идрок этиб ўқувчига юксак маҳорат билан етказа олишидир.

Бобур насрининг ўзига хос жиҳатларидан яна бири қаламга олинган воқеа-ҳодисаларни умумлаштириш санъатидир. У ҳажман ихчам парчадан ҳам ўқувчига бир олам маъно олиш имконини беради. Тасвир жилоси, лўндалиги ва ундаги фикрлар кўлами кишини ҳайратга солади.

Мирзо Бобур ўз кўзи билан кўрган, эшитган ёки ишончли манбалар асосида маълумот келтиради. Бу ҳақда муаллифнинг ўзи шундай дейди: *«Бу битилганлардин ғараз шикоят эмас, рост ҳикояттурким, битибтурмен. Бу мастур бўлғонлардин мақсуд ўзиниг таърифи эмас, баёни воқиъи бу эдиким, таҳрир этубтурмен.Чун бу тарихда андоқ интизом қилилибтурким, ҳар сўзнинг ростини битилгай ва ҳар ишнинг баёни воқейини таҳрир этилгай» [1:200]*.

Адабиётшунос олимлар Мирзо Бобур услуби ҳақида қуйидаги фикрларни билдирганлар: «..... XV аср охири ва XVI бошларидаги Ўрта Осиё, Афғонистон ва Ҳиндистон тарихи, жуғрофияси, этнографияси, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси, бу мамлакатларнинг халқлари, уларнинг яшаш тарзи, тили, урф-одатлари ва бошқа жиҳатлари ҳақида ишончли маълумотга бой қомусий асар экани ва асар муаллифининг билим ва қизиқиш доирасининг беқиёслиги, воқеа-ҳодисаларни ростгўйлик билан ҳалол тасвирлангани, тил ва услубининг содда ва равон, ихчамлигидир десак, асло хато бўлмайди»[4:22].

Бобур услуби хусусида кўплаб шарқ ва ғарб олимлари қуйидагиларни эътироф этишган. Масалан, инглиз тарихчиси М.Эльфинстон бу ҳақда шундай ёзади: *«Бу хотираларда буюк туркий шоҳнинг ҳаёти батафсил тасвирланган, унинг шахсий ҳис-туйғулари ҳар қандай*

муболаға ва пардалашлардан холи. Унинг услуби оддий ва мардона, шунингдек, жонли ва образли. У ўз замондошларининг қиёфалари, қилиқлари, урф-одатлари ва интилишларини ойнадек равшан тасвирлайди. Шу жиҳатдан бу асар Осиёда ягона, чинакам тарихий тасвир намунасидир»[3:214].

Қуйида «Бобурнома»дан олинган иқтибослар, парчалар мисолида муаллиф услубига хос жиҳатларнинг урдуча таржимада акс этишини мисоллар асосида қиёсий таҳлил қилсак:

Бобур асарлари биринчи навбатда, «Бобурнома» нисбатан содда тилда битилган. Бунинг сабаби муаллиф услубининг содда, равонлигидан ташқари, унинг халқ тилидан, унинг оғзаки ижодидан кенг фойдаланиши, кўплаб мақол-маталлар, кишилар қиёфасини тасвирлашда ҳажвдан моҳирона фойдаланиши, Қуръони шариф оятларига асосланган ибораларни қўллашидир. Натижада Бобурнинг тили нафақат содда ва равон, балки катта таъсирчанлик ҳам касб этади. Бир мисол келтирсак: Ҳижрий 933 (1526-1527) йил воқеалари баёнида Раана Сангаага қарши ҳал қилувчи жанг олдидан Бобуршоҳ бек ва навкарлари қаршисида оташин нутқ сўзлайди, унда жумладан қуйидаги иборалар бор эди: «*Ҳар кимки ҳаёт мажлисиға кирибтур, оқибат ажал паймонасидин ичгусидур ва ҳар кишиким, тириклик манзилиға келибтур, охир дунё ғамхонасидин кечгусидур. Ёмон от била тирилгандин, яхши от била ўлган яхшироқ»*[1:223].

Фикримизча, мазкур иқтибосдаги дастлабки гапга Қуръони шариф ояти асос қилиб олинган: «*Ҳар бир жон ўлим (аччиғи)ни тотувчидир. Қиёмат кунида, албатта, мукофотларингиз сизларга тўла-тўкис берилур. Бас, (ўша куни) ким дўзахдан узоқлаштирилиб, жаннатга киритилса, демак, у (катта) ютуққа эга бўлибди. Бу дунё ҳаёти эса, фақат ғурур (алдов) матоҳидир»* («Ол-и имрон» сураси, 185-оят). Иккинчи гап Мирзо Бобурнинг ўз ижодига мансуб бўлиб, ҳикматли сўз даражасига кўтарилгандир. Халқимизнинг қон-қонига сингиб кетган Қуръон оятлари асосида ва мақол-матал тарзида айтилган гаплар қўшинга улкан таъсир кўрсатади, уларни ғалабага руҳлантиради, натижада бу ҳал қилувчи жангда Бобурнинг қўли баланд келади. Мазкур гапнинг биринчи жумласи «*Ҳар кимки ҳаёт мажлисиға кирибтур, оқибат ажал паймонасидин ичгусидур ва ҳар кишиким, тириклик манзилиға келибтур, охир дунё ғамхонасидин кечгусидур»* урдуча таржимада қуйидагича берилган: - جس نے ماں کا پیٹ دیکھا ہے وہ ضرور ایکھ دن قبر بھی دیکھے گا جو دنیا میں آیا ہے وہ یہاں سے جائے گا بھی., яъни «ким дунёга келса, у албатта <u>бир кун дунёдан кўз юмади</u> (сўзма-сўз: қабрни ҳам кўради), кимки дунёга келса, у бу ердан кетади ҳам» *<u>Ёмон от била тирилгандин, яхши от била ўлган яхшироқ»</u>* ҳикматли сўз даражасига етган мазкур жумла қуйидагича ўгирилган: <u>بدنام ہو کر جینے سے نیکھ نام سے مر نا بہتر ہے</u> , яъни «Бадном бўлиб яшагандан кўра, яхши ном билан билан ўлган афзалдир». Мирзо Бобурнинг жанг олдидан айтган мазкур ҳикматли гапларининг таржимасида мазмун ва шакл бирлиги уйғун, шунингдек, муаллиф услуби сақланган, дейиш мумкин.

1506 йил воқеаларини тасвирлар экан, Бадиъуззамон Мирзо томонидан уюштирилган зиёфатдаги тартиб-қоидани баён қилиб, у шундай ёзади: «*Ҳар кимдин яхши қоида қолғон бўлса, анинг била амал қилмоқ керак, агар ота ёмон иш қилғон бўлса, яхши иш била бадал қилмоқ керак»*[1:143]. Ушбу жумлалар Кўрагоний таржимасида қуйидагича келтирилган: جس سے جو عمدہ قاعدہ جاری ہو وہ برتنا چاہیے – اگر باپ نے کوئی بری رسم جاری کر دی ہو تو اس کو اچھی رسم سے کیوں نہ بدل دیں- Ушбу жумла ўзбек тилига қуйидагича таржима қилинади: «Кимки бирон яхши қоидани йўлга қуйган бўлса унга амал қилмоқ керак. Агар ота бирон номаъқул иш қилган бўлса, уни яхши амал билан ўзгартирсин». Таржимада мазкур жумла аслиятдан бироз фарқли

равишда ўгирилган. Бизнингча, Мирзо Бобур қўллаган насиҳатомуз иборалар таржимасида шакл ва мазмун бирлиги сақланган.

Ҳажв орқали Бобур айрим кишиларга хос хусусиятларни енгил кулги ва беғараз ҳазил воситасида очиб беришга ҳаракат қилади. Масалан, Ҳусайн Бойқаронинг бекларидан бири бўлган Мир Муртоз шоҳмот ўйинига жуда ҳам берилган киши эди. Бобур унинг шоҳмот ўйинига бўлган ўчлигини шундай ҳажв қилади: «*Шатранжға кўп шағафи бор экандур, бу мартабадаким, агар икки ҳариф учраса бири била шатранж ўйнаб, яна бирининг этагини тутиб ўлтурур экандурким кетмагай, деб»* [1:137]. Кўрагоний таржимасида Мирзо Бобур келтирган ҳажвни урдуча талқини билан қиёслаб кўрсак: شطرنج کھے ایسے شائق تھے کھہ اگر دو کھیلاڑی آ جاتے تو ایک سے کھیلنے لگتے اور دوسرے کا دامن پکڑ کر بٹھا دیتے[5]- *Шатранжға кўп шағафи бор экандур* - شطرنج کھے ایسے شائق تھے жумланинг бу қисми тўғри таржима қилинганлигини айтиш жоиз, аммо бош гапдан кейинги اگر دو کھیلاڑی آ جاتے қисми эса «агар икки ўйинчи келиб қолса»тарзида таржима қилинган. Ҳолбуки, урдуда (غنیم) – اگر دو حریف ملتے (бўлса, саҳиҳ таржима бўларди. Шарт эргаш гапнинг иккинчи қисми ....*бири била шатранж ўйнаб, яна бирининг этагини тутиб ўлтурур экандурким кетмагай, деб»* да гапнинг феъл-кесим қисми «этагидан тутиб», ўтқазиб қўярди. Бизнингча, اس کھے نہ جانے کی امید(دل) میں бўлгани ўринли бўларди. Мирзо Бобурнинг кишилар характерини очишда بسائے بیٹھا کرتا تھا қўллаган беғараз ҳазили урдуча таржимада қисман акс этган дейиш мумкин.

Мирзо Бобур Андижон таърифида мазкур юртнинг ғалласию мевалари, расм-русумини содда, лўнда ва ихчам қилиб ёзади. Бир мисол келтирсак: «*Ошлиғи вофир, меваси фаровон, қовун ва узуми яхши бўлур. Қовун маҳалида полиз бошида қовун сотмоқ расм эмас. Андижоннинг ношпотисидан яхшироқ ношпоти бўлмас»*[1:34]. Ушбу жумлани Кўрагоний қуйидагича таржима қилган: [5]. اس میں غلہ ّ و میوہ بکثرت پیدا ہوتا ہے – انگور اور خربوزہ بہت اور عمدہ ہوتا ہے , яъни «Унда (Андижонда) ғалла ва мевалар мўлдир. Узум ва қовуни кўп ва хўб (аъло) бўлади. У ерда бир урф борки, ҳосил вақтида қовунларни полиз бошида сотмайдилар». Кўрагонийда биринчи гапнинг таржимасида аслиятдаги маъно айнан берилган, дейиш мумкин, шу гапнинг давомидаги *«...қовун ва узуми яхши бўлур»* таржимасида انگور اور خربوزہ بہت اور عمدہ ہوتا ہے таржимон بہت اور عمدہ [bahot] «кўп» сўзини қўшган ва бундан маънога путур етмаган. Фикримизча, муаллиф услубига хос қисқабаёнлик таржимада акс этган.

Юқорида келтирилган мулоҳазалар ва қиёсий таҳлиллар асосида шуни айтиш мумкинки, муаллиф услубига хос жиҳатлар урдуча таржимада тўлиқ акс этган. Таржима жараёнида киши исмлари ва жой номларининг ёзилишида имловий хатолар, қўшимчалар киритилиши натижасида баъзи жумлаларнинг чўзилиб кетиши каби камчиликлар кузатилди. Лекин бу жузъий камчиликлар муаллиф услубига путур етказмаган деган фикрдамиз. «Бобурнома»нинг урду тилига қилинган таржималаридан Мирзо Насируддин Ҳайдар Кўрагоний таржимаси бир неча жиҳати билан аҳамиятлидир. Биринчидан, аслият тили, туркийдан ўгирганлиги; иккинчидан, урду тилидаги илк тўлиқ таржима эканлиги; учинчидан, таржимада муаллиф услубининг сақланганлиги. Фикримизча, «Бобурнома»нинг тўрт урдуча таржимаси ҳам катта аҳамиятга эга – у урдузабон халқлар орасида ўзбек мумтоз адабиётининг нодир намунаси бўлмиш «Бобурнома»ни оммалаштиришда, бу улуғ асардан бошқа халқ вакиллари ҳам баҳраманд бўлишга имконият яратиш билан аҳамиятлидир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Бобурнома. Порсо Шамсиев, Содиқ Мирзаев ва Эйжи Мано (Япония) нашрлари асосида қайта нашрга тайёрловчи: Саидбек Ҳасанов – Тошкент: «Шарқ», 2002.
2. Заҳириддин Муҳамммад Бобур энциклопедияси – Тошкент: «Шарқ», 2014.
3. Сингх Н.К., Баннержи А.У. История Индии. – М., 1954; – С. Петербург, 1873.
4. Ҳасанов С.,Отажонов Н., Жамолов С. Буюк қомусий асар. – Тошкент, сўзбоши.
5. تزکے بابری ، مرزا نصیر الدین حیدر کراچی،۱۹۶۲
6. بابرناموہ (تزکے بابری)محمد قاسم صدیقی قومی قانسل بجڑائے فروغ اردو زبان، نئی دہلی ۲۰۱۰
7. تزکے بابری ،رشید اختر ندوی ،سنگے میل لاہور ۱۹۹۱
8. وقا ئع بابر ،یونس جعفری شہر بانو پبلی شیرز کر یکاڈی۲۰۰۷

“БОБУРНОМА”НИНГ ТАРИХИЙ – МАНБАВИЙ ҚИЙМАТИ

Хайдаров З.А

Чирчиқ ОТҚМБЮ ҚҚҲХМ кафедраси бошлиғи,

Бугунки кунда ҳарбий хизматчилар ўртасида ўзбек давлатчилиги тарихини ўрганиш муҳим аҳамият касб этмоқда. Инновациялар даври ҳисобланган XXI асрда жамият хаётининг барча тармоқларида бўлгани каби таълим ва илм-фан соҳаларини ахборотлаштириш жараёни шиддат билан давом этмоқда. Шу нуқтаи назардан давлатчилигимиз тарихининг янгича ўрганиш муҳим ахамият касб этмоқда. Захириддин Муҳаммад Бобур ва унинг авлодларига оид тарихий манбаларнинг мавжудлигига қарамасдан, илмий жамоатчилик томонидан чуқур ўрганилмаган.

Давлатчилик тарихини ўрганишга жиддий эътибор берилаётган бугунги кунда Бобурийлар тарихини ёритишдаги илмий асарларга эҳтиёж каттадир. Жаҳон адабиёти ва тарихий манбашунослигида мемуар жанрнинг мукаммал намунаси ҳисобланган «Бобурнома» тарихий манба сифатида ҳам муҳим аҳамият касб этмоқди. Шу билан биргаликда, у илм-фаннинг кўплаб соҳалари ҳақида маълумот берувчи асар ҳисобланади. Олимларимиз томомнидан «Бобурнома» бўйича олиб борилган тадқиқотлар салмоғи ҳам асарнинг қимматини белгилайди. «Бобурнома» воқеалари тасвирида ўз даврининг ижтимоий-сиёсий ҳаётида кўзга кўринган алоҳида шахсларнинг мавқеи биринчи даражага кўтарилади, характерлар яратишдаги рангинлик, ғолиб ва мағлуб шахс руҳий ҳолатини тасвирлашдаги бетакрорлик, тасвир этилган зиддиятлар замиридаги жасорат ва қўрқоқлик, мардлик ва хиёнат, ғолиблик шукуҳи ва мағлублик изтироби ўрин алмашиб туради [1].

Жаҳон адабиётшунослиги ва тарихшунослигиди «Бобурнома» қўлёзма нусхаларининг кўплаб тадқиқ этилаётганлиги, ундаги тарихий фактлар асосида бадиий, тарихий манбалар асарлар яратишга бўлган эътиборнинг кучаяётганлиги асарнинг оламшумул аҳамиятини яна бир бор тасдиқлайди. «Бобурнома» дунёнинг кўплаб миллий тилларига таржима қилиниб, қайта-қайта нашр этилаётгани ҳам бунинг яққол далилидир.

«Бобурнома»нинг ғоявий-бадиий мазмун кўлами, муаллиф шахсияти, ўзига хос тасвир услуби, бадиий маҳорат, ғолиб ва мағлуб шахс руҳий ҳолати тасвири муаммоларини замонавий таҳлил методлари асосида илмий тадқиқ этиш муҳим аҳамият касб этмоқда. «Бобурнома»нинг манбавий қиммати, муаллифнинг тасвирлаш маҳорати, асар таржималари

юзасидан хорижнинг бир қатор етакчи илмий марказлари ва олий таълим муассасаларида изланишлар олиб борилаётганлигидир.

Жумладан, California Universities (АҚШ), Humboldt Universitat (Германия), Oxford, Cambridge Universities (Буюк Британия), Jawaharlal Nehru University (Ҳиндистон), Kyoto University (Япония), Ain Shams University (Миср), Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети, Тошкент давлат шарқшунослик институти ва бошқа мамлакатлар бунга мисол бўлади.

Бобур ижодий мероси, жумладан, «Бобурнома»ни ўрганиш, уни тадқиқ этиш, асарнинг бадиий хусусиятлари, муаллифнинг ўзига хос баён услуби каби масалаларни махсус илмий тадқиқ этишда ўзбек олимлари: А.Фитрат, М.Шайхзода, Р.Воҳидов, Ё.Исҳоқов, И.Ҳаққулов, Ҳ.Болтабоев, Х.Султонов, В.Раҳмонов, Ш.Рустамхўжаев, А.Иброҳимов. каби олимларнинг илмий изланишлари каттадир.

«Бобурнома» – Марказий Осиё, Афғонистон, Эрон ва Ҳиндистоннинг XV аср сўнгги ўн йиллиги ва XVI асрнинг яқин 30 йиллик тарихини қамраб олган йирик монументал тарихий-мемуар асар эканлиги фанда ўз исботини топган. Бобур ушбу мемуар асарида тарихий ҳодисаларни нафақат кузатувчиси сифатида, балки бевосита иштирокчиси сифатида тасвирлайди. [2].

Бобур ўз даврининг сиёсий ҳукмдори бўлиш билан бирга, нозик дидли ижодкор ҳам эди. «Бобурнома»нинг кўп ўринларида бу жиҳат ёрқин акс этади. Мазкур масала биринчи галда Бобурнинг тарихни англаши билан боғлиқ. Бобур яшаган давр тарих майдонидаги мураккаб, кескин ва зиддиятли ҳодисаларга бой бўлиб, сиёсий-ижтимоий жараёнда ҳар томонлама тобланди.

«Бобурнома»да 1494 йил воқеаларидан бошлаб Мовароуннаҳр ва Осиёнинг бошқа ҳудудлар тарихи ёритилса-да, ундаги воқеалар динамикаси аввалги ва кейинги даврларни ҳам қамраб олади. Бобурнинг фикр доираси ниҳоятда кенг, эрудицияси жуда чуқур, хотираси кишини ҳайратда қолдирадиган даражада кучли эди. Уни коиноту табиатдаги барча ҳодиса ва соҳалар қизиқтирган, ҳамма вақт камолотга ва янгиликка интилиб яшаган. XV аср ва XVI асрнинг бошларидаги муҳим ижтимоий-сиёсий ҳодисалар Хуросон ва Мовароуннаҳрда бўлиб ўтган тожу-тахт учун курашлар авжига чиққан вақтда ёш Бобур Мирзо отаси Умаршайх мирзонинг фожиали вафотидан кейин Фарғона вилоятига шоҳ бўлади.

Болалик давридаги жангу жадаллар, сиёсий тўқнашувлар Бобурни ҳар томонлама чиниқтирди. Мазкур ҳолатлар «Бобурнома» саҳифаларида тасвир этиб борилар экан, муаллиф тарихга ва тарихий ҳодисаларга ўз нуқтаи назари билан субъектив ёндашади, яъни у ўз даври тарихининг «эксперти» сифатида воқеа-ҳодисалар тасвирини таҳлил қилиб беради [3].

Бобур яшаган давр Мовароуннаҳр ва Хуросонда темурийлар салтанатининг инқирози, Ҳиндистонда эса бобурийлар давлатининг барпо бўлиши билан боғлиқ. Ана шу замонда Бобур кўп бора ғолиблигу мағлублик аламини тотиб кўришига тўғри келган. Шундай вазиятларда унинг шахс сифатидаги беқарор ҳаёт тарзи руҳий ҳолатининг тасвири «Бобурнома»да қисқа, содда кўринишда бадиий ранг-баранглиқда тасвирланган. Бу ҳолатларни атрофлича ўрганиш, воқеалар ривожи ва кўламига қалбан ёндашиш орқали амалга ошиб боради. Бобур болалигидаёқ шаҳзодалик руҳи, жаҳонгирлик кайфияти ва нозик диди билан бошқалардан кескин ажралиб турарди. У кейинчалик, шоҳлик йилларида ҳам бойликка, ҳою ҳавасга, давлатмандликка ортиқча эътибор бермаган. Зеб-зийнатдан завқ олиш, роҳатланиш ҳиссиётига берилмаган, уларга бепарволик назари билан қарашга

одатланган. Мазкур руҳий интелектуал ҳолат уни умри давомида тарк этмайди. Бу хусусиятни «Бобурнома»нинг ҳар бир саҳифасида кузатиш мумкин.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур фаолиятида ҳам нақшбандия тариқати ва унинг вакиллари таъсири жуда катта бўлди. Унинг ҳокимият ишларида, давлат қурилишида, рақиблари билан бўлган курашларида, маънавий ҳаётида, хатто шахсий ҳаётида ҳам бу таъсирни кўришимиз мумкин. Бобур «Бобурнома»нинг жуда кўп ўринларида нақшбандия тариқати вакиллари, шайхлар ва уламолар ҳақида тўхталиб, уларнинг ўз ҳаётий фаолиятига алоқадорлик жиҳатларига урғу беради.

Жумладан, «Бобурнома»да тасвирланган Хожа Аҳрори Вали, Хожа Яҳё, Хожа Яъқуб, Махдуми Аъзам Косоний Даҳбедий, Мавлонойи Қози Абдуллоҳ, Абдураҳмон Жомий, Алишер Навоий кабиларни бевосита ўзининг устозлари, тарбиячилари сифатида эътироф этса, Имом Бухорий, Шайх Мотуридий кабиларни маънавий пирлари сифатида тилга олади.

Бобур давлат бошқарувида уларнинг шаръий йўл йўриқларидан оқилона фойдаланса, жанг ва курашларда ўзига ғолиблик муяссар бўлиши учун уларнинг маънавий мададидан, қўллаб-қувватлашидан умид қилади.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур қисқа умри давомида давлатчилик муносабатларида катта ишларни амалга оширди. Бобурнинг давлат ишларини бошқаришида, ҳокимиятни мустаҳкамлашида, ҳарбий соҳада ва бошқаларда унга устозлик қилган, тўғри маслаҳатлар, йўл-йўруқлар кўрсатиб турган содиқ, ишончли кишилар кўмаги катта бўлган.

У кўплаб фозил уламолардан таълим-тарбия олиб, араб ва форс тилларини мукаммал ўрганди. Шунинг натижасида у эътиқодли, сабр матонатли, раҳм шафқатли шахс бўлиб етишди. Унинг маънавий ғолиблигини таъминлашда бу жиҳатлар алоҳида аҳамият касб этади.Бобурнинг жанглардаги курашларда ғолибликка эришишида, баъзида ғурури ва нафси аммора устидан мутлақ маънавий ғолибликка етишида ҳам ўзи эътиқод қўйган бу таълимот ғоялари ва унинг улуғ пешволари мадади бениҳоя катта бўлди [3].

Заҳириддин Муҳаммад Бобур мукаммал эътиқод кишиси бўлганлиги учун жанглардаги ғолиблигини таъминловчи омиллар сифатида, аввало, Ҳақ таолонинг ҳукми ва тақдири, кейин эса ўзининг саъй-ҳаракати ва қатъиятида деб билади. Шу билан бирга, у мағлубликка маҳкум этувчи иллатлар сифатида ички низолар, ўзаро бошбошдоқликлар ва қатъий тартиб интизомнинг мавжуд эмаслигида, деб тушунади [4]

Ҳулоса ўрнида қайд этиш лозимки “Бобурнома” қомусий асар сифатида соҳалараро муҳим таянч манба бўлиши билан бирга, у бадиий, илмий, публицистик асарлар учун ҳам қимматли тарихий фактлар берувчи нодир асар саналади. Келажада бу асардаги тарихий фактлар асосида ўзбек ва жаҳон адабиётшунослигида бир қатор бадиий, илмий, публицистик асарлар яратилди.

Фойдаланган адабиётлар:

1. Сулоймонов И.И. “Бобурномада ” ғолиб ва мағлуб шахс ҳолатининг бадиий тасвири. Филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати .- Самарқанд. СамДУ, 2020 йил – Б.5

2. Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. –Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 70.

3. В. Ўзбек адабиёти тарихидан. –Тошкент: Бадиий адабиёт, 1961. – Б. 48.

Қаюмов А. Асарлар. 10 жилдлик. 5-жилд. Заҳириддин Муҳаммад Бобур ижодиёти. Т.: Мумтоз сўз, 2009. –Б. 246.

«БОБУРНОМА»ДАГИ ПИШОҒАР ТОПОНИМИ

Хидирова Г.Р.
Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти таянч докторанти

Марказий Осиёнинг XV – XVI асрлардаги географик тавсифи ва топонимияси ҳақида маълумотлар ўша даврларда ёзилган Темурийлар ва Шайбонийлар даври воқеликлари акс этган тарихий мазмундаги асарларда баён этилган ва улар ичида Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг "Бобурнома" асари илм-фаннинг турли соҳаларини қамраб олувчи қомусий манбалиги билан алоҳида ажралиб туради.

"Бобурнома" мемуар услубда ёзилганлиги сабабли, унда Бобур тўхтаб ўтган ҳар бир жойнинг географик тавсифи, топонимикаси ҳақида батафсил маълумот берилган. Шундай топонимлардан бири ҳозирда Жиззах вилояти Зомин туманига қарашли – Пишағор қишлоғидир.

Пишоғар – Дизак (Жиззах) билан Зомин оралиғида, Буюк Ипак йўлининг Фарғона водийсидан Самарқандга борадиган йўналишида жойлашган. XV асрда Самарқанд вилояти таркибидаги қўрғон бўлган [4, 47].

Пишоғар Заҳириддин Муҳаммад Бобур қаламига мансуб "Бобурнома" асарида тарихий воқеалар баёнида уч маротаба тилга олинади. Биринчиси, 1498–1499 йил воқеалари баёнида тилга олинган ва унда бу рустоқ Пашоғар шаклида берилган [5, 56]. "Бобурнома"да таъкидланишича, Пишағор маъмурий-ҳудудий жиҳатдан ўша пайтда Ўратепа вилоятини бошқариб турган Муҳаммад Ҳусайн мирзо кўрагон дуғлат (тарихчи Мирзо Ҳайдарнинг отаси)га қарашли бўлган. Заҳириддин Бобур асарда қишлов учун шу ерда тўхтаганини айтган. "Ёр яйлоқ кентларидин Пашоғарником, Ҳазрати Хожанинг мулк кентларидиндур, бу фатаротта анга тааллуқ бўлуб эди, тиладукким, бу қиш орияти бергай, то анда ўлтуруб Самарқанд вилоятиға иликдан келганча эврушгайбиз. Муҳаммад Ҳусайн мирзо ҳам рози бўлди". "Бобурнома"да келтирилган бу маълумотларга кўра, Пишағор XV аср бошларида Хожа Аҳрор Валийнинг мулки бўлган ва шу билан бирга Муҳаммад Ҳусайн мирзо кўрагон (Мирзо Ҳайдарнинг отаси)га ҳам қарашли бўлган. XVI аср вақф хужжатларига кўра, Хожа Аҳрор Валийнинг нуфузи баландлигига қарамасдан, унга тегишли бўлган мулклар баъзи ҳолларда Шайбонийхон ҳокимиятга келгунча қадар оилавий мулк тасарруфидан чиққан ҳолатлар бўлган [11, 39]. Шунга кўра, Пишоғар кенти аввал Ҳазрати Хожага тегишли бўлган (ҳозирги Зомин, Лайлак уя (Зомин яқинидаги қишлоқ)да ҳазратнинг мақбаралари мавжуд). Ҳокимият учун курашлар авж олган вақтда Муҳаммад Ҳусайн дуғлот қўлига ўтган [1, 59а].

Муҳаммад Ҳусайн мирзодан изн олган Бобур Хўжанддан Пишоғарга отланади ва йўлда иситма билан оғриб, кўп дард чекканини ёзади: "Хўжандтин отланиб Пашоғарға мутаважжиҳ бўлдум. Зоминға етган фурсатта иситтим. Бовужуди иситма Зоминдин отланиб илғор қилиб, тоғ йўли била ўтуб, Работи Хожанинг устига келдим. Яна ёниб, ҳеч ерда таваққуф қилмай, Пашоғарға келилди" [5, 56].

Мирзо Бобур 907 (1501) йилнинг кузида Самарқандни тарк этиб Ўратепа томонга йўл олганида ҳам Пишоғарда бир муддат тўхтаб ўтганини, унинг географик жойлашуви ҳақида қайд этади. "Уч-тўрт кун Дизакта истироҳат қилдук. Андин сўнг Ўратепа сари азимат қилдук. Пашоғар бир нима йўлдин қақасроқтур, чун муддати анда бўлуб эдим, ўтуб борурда, бориб ани сайр қилдим". Пишоғар Жиззах билан Зомин орасида бўлиб, Бобур айтганидек, "катта йўлдин қақасироқдир", яъни четроқдир. Бобур у ерда холаси ва бувисининг вафоти

ҳабарини эшитганини ҳам ёзади ва асарда бу ҳабарни олиб келган аёл Самарқанддан Пишоғаргача пиёда келганлиги баён қилинган [1, 96а].

Бу қадимий қишлоқ кўплаб тарихий воқеалар гувоҳи бўлиши билан бирга унда кўплаб тарихий шахслар етишиб чиққан. “Бобурнома”да Бобурнинг юришларида фаол қатнашган Пишоғарлик беклар ҳақидаги маълумотлар ҳам буни тасдиқлайди. Улар ака-ука Мулло Бобои Пашоғарий ва Бобошайхдир. Қадимда баъзан жой номлари тарихий шахсларнинг нисбаларида ҳам ўз аксини топган ва улар одатда туғилган жойини ўзларига нисба қилиб олишган. Шунга кўра, Бобур ҳизматида бўлган бу мулозимлар асли келиб чиқиши Пишоғардан бўлиши керак. Бу маълумотнинг тўғрилигини Муҳаммад Ҳайдар Мирзонинг “Тарихи Рашидий” асари ҳам тасдиқлайди.

Мулло Бобои Пашоғарий Бобурнинг ишончли мулозимларидан. Бобур Самарқандни иккинчи марта олганда унинг хизматига кирган. Сарипул жангида қатнашган. Жанг мағлубият билан тугагач, Ҳисорга қочган. Кейинроқ яна Бобур ҳузурига келган ва 1503 йил Хисравшоҳга элчи қилиб юборилган. Бобур Султон Ҳусайн таъзиясига жўнаётиб, Кобулнинг дахлсизлигини Низомиддин Али Халифа ва Аҳмад Қосим Кўҳбур билан Бобойи Пашоғарийга юклаган. Мирзохон бир неча бек билан исён кўтариб, Кобулни қамал қилганда, Бобурнинг ишончли беклари қаторида Бобойи Пашоғарий қўрғонни мудофаа қилишда қатнашган (1507 йил) [6,103]. Муҳаммад Ҳайдар Мирзонинг “Тарихи Рашидий” асарида ҳам бу инсон ҳақида қўшимча маълумотлар берилган. Унга кўра, Пишоғар Самарқанд таркибидаги ноҳия бўлган. “Чиғатойнинг ва тожик умароларидин Мавлонойи Бобойи Пашоғари мунинг биродари Бобо Шайх ва мунингдин ўзгалари мухолифат қилдилар. Бу Мавлоно Бобо Самарқанднинг Пашоғар қариясидин эрди. Анга шоҳ андоқ риоя қилиб эрдиларким, Моваруннаҳрни олғонда Самарқанд ва Ўратепа ва Чаҳортепа Кўҳистонни анга бериб эрди” [10, 445-446]. “Бобурнома”да Бобойи Пашоғарий томонидан бунёд этилган “Мулло Бобо” номли Кобул шаҳридаги боғ ва кўприк ҳам тилга олинади.

Бобошайх Мулло Бобои Пашоғарийнинг укаси бўлиб, табиийки у ҳам Пишоғар қишлоғидан. У акаси билан бирга Бобурнинг юришларида фаоллик кўрсатган. Кейинчалик Ҳумоюн Бадахшонга ҳоким этиб тайинланганда Бобошайх акаси билан унинг ҳузурида хизмат қилишган [6, 104].

Бу жой номи ҳақидаги маълумотларни “Бобурнома”дан салкам беш аср аввал ёзилган асарларда ҳам учратиш мумкин. Пишоғар дастлаб X аср араб географлари ал-Муқаддасий ва Ибн Хавқал асарларида тилга олинади. Ибн Хавқал маълумотига кўра, Пишоғар – шаҳарлари мавжуд бўлмаган рустоқлар сирасига киритилган ва бу рустоқнинг номи Башоғар (بشاغر) шаклида берилган: “шаҳарлари йўқ рустоқлар қуйидагилардир: Башоғар, Месха, Бургар, Бангам, Минк, Бискен ва Исбоскент” [2, 22].

Топономист олим С.Қораев Р.Г.Муқминованинг (бу қишлоқ Самарқанд шаҳри яқинида бўлган) ва Бобурнинг Ўратепага кетаётиб, Жиззахдан ўтгандан сўнг, Пишағарни сайр қилгани ҳақида берган маълумотларини таҳлил қилар экан, Пишағар номли қишлоқ иккита бўлган – бири Самарқанд яқинида Хўжа Аҳрорнинг мулки ҳисобланган, иккинчиси Жиззах билан Зомин орасидаги ҳозирги Пишағар қишлоғи деган хулосага келади [7, 100]. Лекин бу ердаги ҳар икки маълумот бир ҳудудга, яъни Зомин яқинидаги Пишоғар қишлоғига тегишли. Самарқанд таркибида ҳудди шу номли яна бир маъмурий бирлик қайд этилмаган. Аксинча, у XV асрда Самарқанд таркибида бўлган. Н.Негматовга кўра, Зомингa яқин туманлар араблар босқинига қадар тамомила шаклланган ва Зомин туманининг чегаралари анчагина кенг ҳудудни ташкил этган. Унинг тадқиқотларида, бу жой номи Шоғар (Бушоғар) шаклида келган: “унинг [Зомин] ҳудудида яна учта рустоқ жойлашган: Сабот, Минк ва Шоғар

(Бушоғар). Шоғар рустоқи – Пишоғар қишлоғи ва Шовдар тоғида” [3, 96]. Н.Негматов ёзма манбалар, географик ва топографик маълумотлар асосида Уструшона ҳудудидаги 18 та рустоқни ажратиб кўрсатади: “Уструшонанинг текислик қисмида – Бунжикат, Сабот, Зомин, Бурномад, Хоракана, Фекнан (Дизакнинг асосий шаҳри), Ховас, Шовкат, Фагкат; тоғли қисмида – Минк, Асбаникат, Бискар, Бангам, Вакр, Шоғар, Масча, Бургар ва Буттом рустоқлари жойлашган” [12, 43].

Пишоғарни туризм салоҳияти нуқтаи назаридан ўрганган И.С.Тухлиев ва Р.С.Амриддиноваларнинг маълумотларига кўра, Пишоғар жой номи ислом дунёсининг таниқли авлиёларидан бири Мавлоно Муҳаммад Пешоғарий номи билан боғлиқ [13, 4]. У ҳақида тўлиқ маълумотлар ҳозирча мавжуд эмас. Мавлоно ҳозирги Пишоғар қишлоғига дафн этилган. Унинг қабри зиёратгоҳга айлантирилган ва у “Хўжаи Сароб ота” зиёратгоҳи номи билан машхур. Авлиё ота ҳақида ривоятларга асосланган ёки маҳаллий аҳолининг оғзаки маълумотлари мавжуд. Бу маълумотларга асосланиб, Пишоғар топонимини шахс номи билан боғлаш бироз шубҳали. Бу маълумотлар манбавий асосини топсагина аниқ ва тугал хулосалар бериш мумкин.

Яна бир мулоҳазаларга кўра, Пишоғар жой номи ундан 4 км узоқликда жойлашган тоғлардаги ғор билан боғлик, яъни унга ишора қилиб, “пише ғор” – ғор олди, ғор ёни демакдир. Ғорга мутахассислар томонидан бир неча марта экспедициялар уюштирилган ва 200 метргача етиб борилган [13, 4].

Рус тадқиқотчиси П.Б.Лурье Пишоғар топониминиng этимологиясини тадқиқ қилар экан, бу топонимни Бешоғар ёки Пишоғар деб ўқиш мумкин ва у суғдча pys, ps – “орқа”, “орт” ва ғаг – “тоғ” сўзларидан ясалган бўлиб, “тоғ орти”, “тоғ орқаси” маъносини билдиради деган фикрни айтади [9, 120]. С.Қораев маълумотига кўра, бу қишлоқ номи тўғрисида икки хил халқ этимологияси мавжуд: 1) беш агар – “беш оқар”, яъни “беш сув”; 2) пеша ғор, яъни ғор оғзи, ғор ёни [8, 75]. Тожик тарихчиси Н.Неъматов ҳам бу жой номи суғдча ғар, яъни тоғ элементидан таркиб топган деган эди.

Пишоғар рустоқи чорвадор ва ўтроқ аҳоли маскани сифатида қадимдан мавжуд бўлган. Бу жой номи бошқа манбалардан фарқли равишда “Бобурнома” асарида бир неча маротаба тилга олинган ва Бобурнинг суронли йилларида “бошпана” вазифасини ўтаган. Пишоғар топоними эса манбалар ва адабиётларда турлича Башоғар, Пашоғар, Шоғар (Бушоғар) шаклларида келган. Асрлар давомида жой номларида ўзгаришлар бўлиши табиий ҳол. Бунга аввал мавжуд бўлган топонимлар бутунлай йўқ бўлиб кетиши, ёки шу қишлоқ маҳаллий аҳолисининг диалекти сабаб бўлган бўлиши ҳам мумкин. Шундан келиб чиқиб, бу топонимнинг ўзаги асрлар давомида ўзгаришсиз қолган ва олимлар таъкидлаганларидек, “ғар” сўғдча “тоғ” элементидан таркиб топган. Унинг бундай номланишида табиий географик жойлашуви асос бўлган бўлиши керак.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Бабур-наме, Записки Бабура. Отв. ред. С.А.Азимжанова, Перев. М. Салье. – Ташкент, 1958.

2. Бетгер Е.К. Извлечения из книги “Пути и страны” Абу-л-Касыма ибн Хаукаля// Труды САГУ им. В.И.Ленина. – Ташкент, 1957.

3. Буряков Ю.Ф., Грицина А.А. Штрихи истории Зааминского района// Древний Заамин (история, археология, нумизматика, этнография). – Ташкент: “Фан”. 1994. –117 б.

4. Бўриев О. “Бобурнома”даги топонимлар изоҳли луғати. – Тошкент: “Наврўз”, 2015. – 140 б.

5. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома: /Нашрга тайёрловчи П. Шамсиев; Муҳаррир А.Ўктам. – Тошкент: “Юлдузча”, 1989. – 366 б.

6. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси / Таҳрир ҳайъати А.Қаюмов ва бошқ. Бош муҳаррир: А.Аъзамов. – Тошкент: “Шарқ”, 2014. – 744 б.

7. Қораев С. Географик номлар маъноси //Масъул редактор: А.Р.Муҳаммаджонов. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1978. – 203 б.

8. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. –240 б.

9. Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ Согдийской топонимии. Дисс. на соис. уч. степ. канд. ф.н. – Санкт-Петербург, 2004.

10. Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аёзий. Тарихий Рашидий (Нашрга тайёрловчи, сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи О.Ё. Жалилов; масъул муҳаррир С. Ҳасанов; ЎзР ФА, Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик ис-ти. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 2011. 704-б.

11. Мукминова Р.Г. К истории аграрных отношений в Узбекистане XVI веке, По материалам “Вакф-наме”, Ташкент, 1966. – 323 б.

12. Негматов Н.Н. Государство Саманидов (Мавераннахр и Хорасан в IX–X вв.). – Душанбе, 1977.

13. Tuxliyev I.S., Amriddinova R.S. Sarob ota – new tourist routes of ecotourism - pilgrimage - recreation in the republic of Uzbekistan// Euro Afro Studies International Journal. Volume: 2, Issue: 2 (Special Issue), August 2020. P: 205–221.

ЁШЛАРДА ВАТАНПАРВАРЛИК ҲИССИНИ ТАРБИЯЛАШДА “БОБУРНОМА” АСАРИГА ИШЛАНГАН МИНИАТЮРАЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

Ҳайдаров С.А.
ТВЧПДИ Гуманитар фанлар факультети катта ўқитувчиси, педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD).

Замонавий ҳаётни бугун илм-маърифат ва таълимнинг тараққиётисиз тасаввур этиб бўлмайди, инсоният фан ўқи атрофида айланаётгандек гўё. Жаҳоннинг етакчи давлатларида таълимни ривожлантириш биринчи галдаги вазифа сифатида белгиланиши ҳам бежиз эмас. Негаки, мамлакатнинг келгуси равнақи айнан шу соҳада қўлга киритган ютуқлари билан чамбарчас боғликдир.

Зеро, Президентимиз айтганидек, ҳаммамизга аёнки, тараққиётнинг тамал тоши ҳам, мамлакатни қудратли, миллатни буюк қиладиган куч ҳам бу — илм-фан, таълим ва тарбиядир. Эртанги кунимиз, Ватанимизнинг ёруғ истиқболи, биринчи навбатда, таълим тизими ва фарзандларимизга бераётган тарбиямиз билан чамбарчас боғлиқ. [1]

Президент Шавкат Мирзиёевнинг 29 апрелдаги фармони билан Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси ва уни жорий йилда амалга ошириш учун йўл харитаси тасдиқланди. Мазкур концепция таълим тизимини ривожлантиришнинг ўқитиш методикасини такомиллаштириш, таълим-тарбия жараёнига индивидуаллаштириш тамойилларини босқичма-босқич татбиқ этиш йўналиши нафақат замонавий таълим методлари ва педагогик технологиялар ёрдамида таълим сифатини оширишга, балки тарихий қадриятлар, анъаналарнинг дидактик имкониятларидан оқилона фойдаланишни назарда тутади.

Шу йўналишда тарих фанини ўқитишда бугунги кундаги янгиликлар, ўзгаришлар ва қонунлар, замонавий манбалар, эришилаётган натижалар, бўлиб ўтаётган энг сўнгги

воқеликлар билан бир қаторда тарихий манбалардан фойдаланиш технологияларини яратиш долзарб педагогик муаммолар сирасига киради. Бу муаммолар дунё миқёсида тадқиқ этилиб, тарихчи ва педагоглар томонидан уларнинг ечимига оид янги илмий хулосалар тақдим этиб борилмоқда.

Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясида «таълим олувчиларнинг юксак маънавий-эстетик ва руҳий-ахлоқий тарбиясига, энг аввало, уларнинг миллий ва умуминсоний қадриятларга, мусиқа ва санъат оламига бўлган муносабатига эътибор қаратиш» [2, 25] муҳим вазифалар этиб белгиланган.

Жумладан, Темурийлар ва Бобурийлар даври маданияти, китобат ва рангтасвир санъати, хусусан, «Бобурнома» миниатюраларидан Ўзбекистон тарихини ўқитишда назарий асос сифатида фойдаланиш дарснинг дидактик имкониятларини оширади.

Кўргазмалилик оғзаки методга, оғзаки метод кўргазмали методга асосланганидек, ўқувчиларнинг мустақил фикрлашларини шакллантиришга йўналтирилган амалий фаолияти ҳам ўқитувчининг оғзаки ва кўргазмали тасвирларига суянади.

Бу жараёнда Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг «Бобурнома» асарига ишланган миниатюралардан фойдаланиш яхши самара беради. Бобур ўзининг мазкур асарида Мовароуннаҳрнинг турли вилоятлари, шаҳарлари, туманлари ва қишлоқларини тасвирлаб, уларинг географик ҳудуди, табиати, об-ҳавоси, ўсимликлари, ҳайвонлари тўғрисида фикр юритади. Шунга мувофиқ тарзда миниатюра санъати асарларида улар тасвирий образларда тақдим этилган.

Машҳур англиялик олим, татқиқотчи ва “Бобурнома” асарини инглиз тилига таржима қилган Аннет Сусанна Беверидж бу асарни Гиббон ва Ньютон эсдаликлари билан бир қаторга қўяди. Умуман олганда,т «Бобурнома»да давр, турмуш тарзининг барча кўринишлари хаққоний тарзда тасвирланган.

Масалан, ўқитувчи Бобур Мирзо ҳаётини тушунтирар экан, Бобурнинг «Бобурнома» асаридан фойдаланса ва мавзуга оид расмларни танлаб, кўрсатиб тушунтирса, ўқувчининг шу даврни ҳис қилиши осонлашади. Чунки, айрим ҳолларда ўқитувчининг маърузаси таъсирли, образли бўлса-да, айрим тарихий ҳодисалар, фактлар ўқувчи тасаввурида маълум даражада мавҳумлигича қолади. Айнан шунинг учун ҳам тарихий миниатюра санъати асарларининг таълимий аҳамияти катта. 8-синфдаги 1-чи «XV аср охири –XVI аср бошларида Хуросон ва Мовароуннаҳрдаги сиёсий вазият» ва 4-чи «Заҳириддин Муҳаммад Бобур –буюк давлат арбоби» мавзуларида Бобур тасвирланган миниатюра асари билан ишлаш жараёнида анализ ва синтезнинг қандай боришини кузатиб чиқайлик. Биз сурат – миниатюра санъати асари билан ишлашда мавзуни ўтаётганда фойдаланадиган миниатюранинг номини ўқувчиларга айтмасдан, суратни таҳлил этишдан бошласак, суратда тасвирланган Бобур Мирзо тимсолига қараб, ўқувчилар тасаввурида XVI аср кўз олдига келади. Ўқитувчининг кўрсатмаси билан ўқувчилар суратда тасвирланган Бобурнинг кийим-боши, хатти-ҳаракатларини кўради. Суратдаги Бобурнинг ўйчанлиги, умидсизлиги, тақдирга тан бериш ҳиссиётлари ўқувчиларда эмоционал таассурот уйғотади. Ўқувчилар юқорида кўрсатиб ўтилган ҳамма белгиларга қараб Бобур ва шу давр ҳақида маълум тасаввурга эга бўладилар ҳамда Бобурнинг аҳволини аниқлайдилар. Анализ шу билан якунлангач синтез жараёнига ўтилади. Ўқувчилар суратда тасвирланган шахс Бобур эканлигини билишди. Суратда табиат манзараси, тахтда ўтирган ҳолда Бобурнинг ватанидан узоқдалиги уни юрт соғинчини ҳис қилаётганлигини акс эттиради.

Худди шундай фикрларни Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг «Бобурнома» асари ҳамда унга ишланган миниатюраларга нисбатан ҳам билдириш мумкин. «Бобурнома»нинг 2008-

йилги нашрига сўз боши ёзган таниқли бобуршунос олим Ваҳоб Раҳмонов «Бобурнома»нинг котиби Бобурнинг улуғ шоҳларга хос саккиз шахсий фазилатини қайд этганлигини ёзади. У қудратли шоҳнинг (яъни Бобурнинг С.Ҳ) яхшиликларини айтган билан ва ёзган билан тугатиш маҳолдир. Лекин қисқаси буни, саккиз асл сифат унинг зотига хос эди: бири бу ким – иқболи баланд эди; иккинчиси – ҳимматли инсон эди; учунчиси – вилоят олмоқ эди; тўртинчиси – вилоят сақламоқ эди; бешинчиси – маъмурлик; олтинчиси – Аллоҳ бандаларига фаровонлик ниятли; еттинчиси – лашкар кўнглини қўлга олмоқ; саккизинчиси – адолат қилмоқ.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва унинг мемуар, ўлмас асари халқимизнинг ёрқин ва ишончли тарихининг зарварақларидан бўлиб, «Бобурнома» асари тўғрисида бир қатор тадқиқотчи ва олимлар фикр билдиришган.

«Бобурнома» асарига оид махсус асар ёзган Ансориддин Иброҳимовнинг «Бобурнома» буюк асар рисоласи «Бобурнома» тўғрисидаги асарлар орасида ўз илмийлиги билан ажралиб туради. [3, 80]Ушбу рисолада муаллиф «Бобурнома»ни Франция, Германия, Англия, Америка, Россия, Туркия, Ҳиндистон, Покистон, Япония ва Ўзбекистонда ўрганилиши ва унинг қўлёзма нашрлари, таржималари ва танқидий матнлари ҳақида илмий фикрларни баён этган. Саидбек Ҳасановнинг «Бобурнома»ни 2002 йилги нашрига ёзган сўз бошисида «Бобурнома»да [4, 3-16] 1605 нафар киши, 1151 жой, 277 қавми-қабила, насаб, 414 ҳайвон ва ўсимликлар, 40 та китоб рисола, 18 та мақол ва ҳикмат, 94 та шеърий ҳикмат берилганлигини қайд этиб ўтган.

Камолиддин Беҳзод ва Шоҳ Музаффар тўғрисида «Бобурнома»да берилган маълумотлар аҳамиятлидир. Бир ўринда «Бобурнома»да: «Устоз Беҳзод ва Шоҳ Музаффар тасвирида бекнинг сайи ва эҳтимоми била шундоқ машҳур ва маъруф бўлдилар»– дейилса, бошқа ўринда: Мусаввирлардин Беҳзод эди, Мусаввирлик ишини бисёр нозук қилди. Вале соқолсиз элнинг чеҳрасини ёмон очадир. Ғарғабини кўп улуғ тортадир. Соқоллик кишини яхши чеҳрали, кушойлик қиладур[4, 154].

Яна Шоҳ Музаффар эди, тасвирни кўп нозук қилур эди, таъширни худгузаро нозик қилур эди [4, 164].

Юқоридаги таърифлардан кўриниб турибдики, «Бобурнома» нафақат тарихий воқеликлар, балки шу воқеликларни юксак маҳорат билан тасвирлаган мусаввирлар ҳақида ҳам муҳим маълумотлар беради. Қолаверса, бундай таъриф улар яратган миниатюраларнинг ҳаққонийлиги билан ҳам изоҳланади. Шуларга асосан эътироф этиш ўринлики, миниатюра санъати асарлари замонавий шароитдаги тарих таълими учун мукаммал ўқув-иллюстратив материал вазифасини ўтайди. Демак, «Бобурнома» асарига ишланган миниатюралар ҳам алоҳида аҳамиятга эга. Агар 1960-йилги «Бобурнома» асарига 4 та миниатюра, 2000-йилги нашрида 8 та миниатюра илова қилинган бўлса, 2008-йилги «Бобурнома» асари нашрига ишланган миниатюралар рангли китоби алоҳида жилд шаклида чоп этилди. Унда 100 дан ортиқ миниатюралар берилган. Натижада Ўзбекистон тарихи дарсларида тарихий мавзудаги миниатюра санъати асарларидан фойдаланиш имконияти сезиларли даражада ортади.

Бундай методик усулларни ушбу илмий муаммога нисбатан қўллаш мақсадга мувофиқ:

- кўрсатиш (мисоллар, далиллар келтириш ва ҳ.к воситасида намойиш этиш);
- топшириқ ва мисоллар (мантиқий, муаммоли ва ҳ.к.) бериш;
- таққослаш, тарихий экскурсия, мозийга назар ташлаш;
- ўтмишга саёҳат;
- турли жадваллар тузиш;
- жаҳон тарихи билан мавзуларни боғлаш орқали таҳлил қилиб умумлаштириш;

- янги педагогик технология асосида қўшимча манбалардан фойдаланиб, дарс ўтиш, умумлаштирувчи ва такрорлаш дарсларида ушбу алоқаларни қўллаш.

Бундай шакл ва усуллар орқали дарс ўтишдан асосий мақсад иккала тарих курсини боғлаш мумкин бўлган мавзу материаллари мазмунини узвий алоқадорликда ўраганишда ёрдам бериш билан бирга ўқувчиларнинг яхлит илмий дунёқараши, тарихий билимлар тизимини шакллантириб, таълим самарадорлигига эришишдир. «Ўзбекистон тарихи»ни ўрганишда тарихий миниатюра санъати асарларидан фойдаланишнинг дидактик имкониятлари қуйидагиларда ўз аксини топади.

1. Ўқувчиларнинг ватанимиз тарихий тараққиётидаги ўзгаришларини ҳар томонлама ва чуқур тушуниб англаб олишларига ёрдам беради. Тарихий мавзудаги миниатюра санъати асарлари тарихий факт ва воқеаларни конкретлаштиради, ўқувчилар тасаввурлари тўғри ва аниқ, ўзлаштирган билим ва малалакалари пухта, мустаҳкам ва онгли бўлишини таъминлайди.

2. Ватанимиз тарихини ўқитишда тарихий мавзудаги миниатюра санъати асарларидан фойдаланиш таълимни реал тарихий воқеликлар, тарбия ишларини ҳаёт билан алоқадорликда олиб бориш имконини беради.

3. Ўқувчиларга таниш ва тушунарли бўлган миниатюра санъати асарлари уларнинг кўз ўнгида содир бўлган ёки бўлаётган ўзгаришларни, тарихий тараққиётнинг умумий қонуниятлари, объектив ва субъектив сабабларини тушуниб олишларини осонлаштиради.

4. Ўқувчиларнинг тарих фанига қизиқишини оширади, мустақил фикрлашга ўргатади, тарихга оид материалларни ўзлаштиришга ижодий ёндашган ҳолда ишлаш жараёнини фаоллаштиради, мавжуд билим ва малакаларини қўллай олишга ўргатади, уларга эмоционал таъсир кўрсатиши натижасида ўқув материалларининг таъсирчанлигини оширади.

Хулоса қиладиган бўлсак, «Бобурнома»да тарихий илмий манба сифатида эътироф этиладиган миниатюра асарларининг тарих дарсларидаги тадбиқи ўқувчиларга комплекс таъсир этиш имкониятларини оширади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимидаги нутқи, 30.09.2020 й.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сон Фармони. – Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.

3. Иброҳимов А. Бобурнома – буюк асар. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – 80 б.

4. Бобурнома. – Т.: Юлдузча, 1990. – 154 б.

5. Хайдаров С.А. Ўзбекистон тарихини ўқитишда “Зафарнома”дан фойдаланишни имкониятлари. Science and Education. 1(7). (2020).192-198

6. Хайдаров С.А. Педагог-ўқитувчиларда ахборот-коммуникация кўникмасини шакллантириш асослари. "Science and Education." Scientific journal. 1(7). (2020). 610-617

7. Сулаймон А.Ҳ. Тарих дарсларида интеграциялашган технологиялардан фойдаланиш. Science and Education. 1(8). (2020). 666-671

8. Ҳайдаров С. Ўзбекистон тарихи дарсларида педагогик технологияларни уйғунлашган ҳолда қўллашнинг методик талаблари. Academic Research in Educational Sciences. 1 (3). (2020).1313-1321.

9. Ҳайдаров С.А. Тарих фанини ўқитишга оид экологик муаммолар масаласи «Scientific Progress» Scientific journal 1(1). (2020)12-17.

10. Хайдаров С. Ўзбекистон тарихи фани дарслари самарадорлигини оширишда тасвирий санъат воситаларининг роли. Science and Education, 1(6), (2020).174-179.

11. Хайдаров. С.А. Тарих дарсларида тасвирий санъат асарларидан фойдаланиш. Science and Education. 1(9). (2020) 458-461.

“БАБУР-НАМЕ”- БЕСЦЕННЫЙ ЛИТЕРАТУРНЫЙ ПАМЯТНИК ПРОЗЫ НА УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Эргашева Д.К.

Преаватель Бухарского государственного университета

Народ Узбекистана по праву может быть горд тем, что в числе его предков есть выдающийся государственный деятель, ученый, прекрасный поэт, прозаик и переводчик — Захириддин Мухаммад Бабур. Все творческое наследие Бабура вошло в золотой фонд мировой литературы и культуры, является достоянием и национальной гордостью нашего народа. История эпохи Темура и темуридов свидетельствует о том, что почти все они, наряду с государственными делами, успешно занимались науками и творчеством. Так, представитель этой династии Захириддин Мухаммад Бабур за свою короткую жизнь вошел в историю не только как полководец и основатель государства Великих Бабуридов в Индии, но и как ученый и поэт, оставивший богатое творческое наследие. Его перу принадлежат оригинальные лирические произведения – газели и рубаи, трактаты по мусульманской юриспруденции – "Мубайин", по поэтике – "Аруз рисоласи", музыке, военному делу. Особое место в творчестве Бабура занимает бесценный литературный памятник прозы на узбекском языке – исторический труд "Бабур-наме". Эта книга носит в основном автобиографический характер и отражает историю народов Средней Азии, Афганистана и Индии конца XV – начала XVI веков. По совокупности сведений и их достоверности "Бабур-наме" является важнейшим и наиболее ценным историческим трудом, не имеющим себе равных среди аналогичных сочинений, написанных в средние века в Средней Азии, Иране, Афганистане и Персии. Поэтому так велик интерес к "Бабур-наме" в мировом востоковедении, тверждением чему являются его переводы на разные языки мира. По богатству и разнообразию материала, по языку и стилю «Бабур-наме» стоит выше любой исторической хроники, составленной придворными летописцами того времени. Не удивительно поэтому, что в разные времена труд этот привлекал пристальнейшее внимание ученых всего мира.

«Он был не самым великим, но гораздо более человечным, чем все другие восточные завоеватели... и чтобы ни думали о нём в других отношениях люди, мы не можем думать о нём иначе, как только относясь с глубокой симпатией к этому великодушному и общительному гиганту...», – отмечает В. Н. Морленд в своей книге «Аграрная система мусульманской Индии» [4, 127].

Роль и место научного и литературного наследия Бабура в культурной жизни Средней Азии и Индии поистине огромны. Бабур, являясь одним из лучших представителей сложившейся в Средней Азии феодальной культуры, внёс значительный вклад в развитие индо-мусульманской культуры и, прежде всего, среднеазиатской и индийской историографии.

По своему объёму и значению, однако, первое место в научном наследии Бабура занимает «Бабур-наме» – своеобразный человеческий документ, составленный на основе его тонких наблюдений за окружающим миром.

В нём робно описана политическая обстановка, царившая в Средней Азии, Афганистане и Северной Индии на рубеже XV – XVI вв. Как литературный и исторический памятник для изучения феодальных отношений в Средней Азии, Афганистане и Индии в конце XV и начале XVI вв. «Бабур-наме» не имеет себе равных и по степени самостоятельности содержащихся в этой книге сведений.

Заслуга Бабура как историка, географа, этнографа, прозаика и поэта в настоящее время признана мировой востоковедческой наукой. Его наследие изучается почти во всех крупных востоковедческих центрах мира (в СНГ, Чехии, Словакии, ФРГ, Турции, Италии, Франции, США, Англии, Индии, Пакистане, Афганистане).

Фактическим тверждением тому являются новые переводы на

французский язык «Бабур-наме», опубликованные эгидой ЮНЕСКО в Париже в 1980 и 1985 гг. Крупный французский востоковед Луи Базан в своём введении к французскому переводу (1980 г.) писал, что «автобиография [Бабура] представляет собой чрезвычайно редкий жанр в исламской литературе».

Интерес к этой книге в значительной степени обусловлен и весьма незаурядными личными качествами её автора – Захириддина Мухаммада Бабура, основателя обширной Империи Бабуридов в Индии, просуществовавшей более три века, до начала XIX столетия. В своей столице Бабур собрал вокруг себя немало выдающихся писателей, поэтов, художников, музыкантов, учёных, которым оказывал большое внимание. Все события, протекавшие на рубеже XV – XVI вв. в Средней Азии, Афганистане и в Индии, нашли отражение в «Бабур-наме». В основном этот труд посвящён описанию деятельности Бабура, его военных предприятий и походов, удач и неудач, изложению всех перипетий его богатой приключениями жизни.

История написания «Бабур-наме» неизвестна. Сам Бабур в своей книге об этом умалчивает. Согласно сведениям дочери Бабура Гульбадан-бегим, приведенным ею в своей книге «Хумаюн-наме», в Индии, в городе Сикри, в саду Бабуром была устроена площадь специально для игры в конное поло (*чавган-ди*). В помещении, построенном в верхней части этой площадки, Бабур имел обыкновение писать книги. Бабур в своей книге не даёт никаких данных о том, каким образом и при каких обстоятельствах у него возникла идея создания специальной книги и как, на основании каких именно материалов он приступил к её написанию в Индии.

Среди бесчисленного количества лиц, окружающих Бабура во время его нахождения в Мавераннахре, Афганистане, Индии, не удалось обнаружить имя летописца, который вёл бы записи для будущей книги [3, 262].

Современник Бабура, историк Мухаммед Хайдар, автор исторического труда «Тарихи Рашиди», сообщает, что в его время не было принято иметь придворного летописца. По-видимому, Бабур также не имел специального летописца, поэтому «Бабур-наме» – это всецело результат неутомимого труда самого автора.

Сведения, приведенные в «Бабур-наме», тверждают мысль, что Бабур начал вести свой дневник систематически только после битвы за Кандагар, т. е. начиная с 913 г. х., который затем был оформлен в виде отдельной книги, но уже в Индии.

«Бабур-наме» состоит из трёх частей. Первая её часть посвящена описанию политических событий в Мавераннахре в конце XV в.

Вторая часть охватывает события, происходившие на территории Афганистана, которая в эпоху Бабура была известна как «Кабульский удел».

В последней, третьей части описываются политические события в Северной Индии, географические данные страны, её природные особенности, содержатся интересные сведения о народах, населявших эту страну.

Автор «Бабур-наме» с присущей ему откровенностью описывает имеющую место анархию среди правящих кругов – феодалов, их беспрерывную борьбу за власть, приводит факты опустошения земледельческих оазисов, увеличения поземельного и других налогов, сбор которых весьма участился в годы смуты во владениях последних Тимуридов – в Хорасане и Мавераннахре.

«Бабур-наме», хотя и посвящена политической истории вышеназванных стран на рубеже XV – XVI вв., однако изобилует также бесценными материалами из социально-экономической жизни народов, затрагивает вопросы морали, этики, нравственности и другие аспекты современной автору эпохи. «Бабур- наме» содержит многочисленные сведения о литературной среде самого Бабура. На основе этих сведений можно воссоздать биографии многих малоизвестных поэтов того времени, живших в Средней Азии, Афганистане и Индии и писавших свои стихи на персидском, а также узбекском языках. В книге много ярких, с большим остроумием набросанных словесных портретов целого ряда его современников – государственных деятелей, поэтов, художников, музыкантов. Очень образно дан творческий портрет великого поэта Алишера Навои. Благодаря этим описаниям до нас дошли робности его многогранной научной и литературной деятельности. К творчеству поэта Бабур относился чрезвычайно уважительно, преклонялся перед его гением.

Не менее самобытен язык и стиль его произведения. Язык его прост и лаконичен, народен, в нём полностью отсутствуют риторические ухищрения, свойственные его современникам. Несмотря на обилие имён, названий, дат и событий, встречающихся в «Бабур-наме», эта книга читается легко, с неослабевающим интересом. Бабур робно описывает крупные города Средней Азии, Хорасана, Ирана, Афганистана и Индии. Его данные о Фергане, Андижане, Самарканде, Бухаре, Кабуле, Газни, Балхе, Бадахшане, Дели, Девалпуре, Лахоре бесценны, ибо автор даёт представление о географическом положении этих городов, их торгово-экономической роли в феодальном хозяйстве того периода.

Бабур рассматривал своё сочинение как руководство для управления государством, положения которого должны были способствовать не только значительной стабилизации государственной налоговой системы, но как результат – улучшить положение народных масс и оградить их от бесчинства феодалов. Это сочинение Бабур посвятил сыну Хумаюну – своему наследнику, будущему второму правителю Империи Великих Моголов в 1530-1556 гг. Это произведение Бабур написал на староузбекском языке (тюрки). Как свидетельствуют исторические первоисточники, написанные в Индии в Средние века, в этот период была заметна роль староузбекского языка – языка Алишера Навои, Бабура и его преемников. Бабур придавал большое значение правописанию, стилистике и произношению. В одном из писем на имя Хумаюна, отправленном в Кабул, он делает ему резкие замечания за грамматические ошибки и сложный стиль письма. Роль Бабура в развитии узбекской поэзии и языка в Индии значительна. Его поэтические произведения, написанные на узбекском языке, получили достойное признание в трудах учёных мира.

Бабур испытывал чувство безмерной любви к своей родине, Средней Азии, и Афганистану, который стал для него второй родиной. Он всегда жил надеждой вернуться домой.

Со дня смерти Бабура прошло более четырех с половиной веков, полных противоречий и острой социальной борьбы народов Средней Азии, Афганистана, Ирана и Индии. Это

немалый срок. Но имя Бабура – историка, талантливого художника слова, умелого полководца и государственного деятеля– бессмертно.

«Память человечества экономна, у великого обилия возникающих образов, имён и деяний она хранит позднее лишь те, которые еще содержат в себе нечто важное и потребное для жизни. Она обобщает уверенно, по какому-то безошибочному чутью, крепко храня нужное, пока оно нужно, и сметая всё остальное, как сор, в быстро уносящую реку забвений». Именно труд Бабура «Бабур-наме» выдержал истинное испытание временем.

Литературы:

1. Азимджанова С. А. Государство Бабура в Кабуле и в Индии. – М. : Наука (ГРВЛ), 1977. – 176 с.

2. Бабур, Захир ад-Дин. Бабур-наме. – Т. : Главная редакция энциклопедий, 1992. – 312 с.

3. Бабур // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона: в 86 т. (82 т. и 4 доп.). – СПб., 1890-1907.

4. Лэмб Гарольд. Бабур-тигр : великий завоеватель Востока / пер. с англ. Л. А.Игоревского. – М. : Центрполиграф, 2002. – 446 с.

«БОБУРНОМА» АСАРИНИНГ БУГУНГИ КУНДАГИ АҲАМИЯТИ

Нарзиева М. С.
Бухоро вилояти ХТХҚТМОҲМ катта ўқитувчиси

Асрлар давомида аждодларимиз учун, бугунги давр авлодлари орасида ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган “Бобурнома”-мемуар асари ўзбек ва умумтуркий адабиётининг дунёга маълум ва машҳур қомусий асари эканлиги ҳеч кимга сир эмас. Бу асарда халқлараро – Ўзбекистон, Афғонистон ва Ҳиндистон халқларининг маданияти, қадриятлари, ўзига хос жиҳатларидан ташқари бу ҳудудларнинг табиати, географияси, ҳайвонот ва наботот олами тўғрисида ҳам маълумотлар мавжуд. Шу учун бўлса керак, бу асар бир неча тилларга таржима қилиниши унинг бадиий қимматини оширади. Муаллифнинг билимдонлиги, кенг дунёқарашга эгалиги асарда билиниб турибди. Буюк қомусий олим Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг “Бобурнома” асари нега бебаҳо қўлланма ҳисобланади? У ўқишлилиги борасида нафақат Марказий Осиё давлатлари, балки Эрон, Туркия, Бангладеш, Покистон ва яна қатор давлатларнинг маданияти, тарихи, урф-одатлари, қадриятларини ўзида акс эттиргани билан қимматлидир. Дунё олимлари, адабиётшуносларининг “Бобурнома” асари ҳақидаги турли қараш ва баҳолари ҳам унинг нечоғли дунёҳамжамиятида қадрланишидан далолатдир:

Германиялик бобуршунос Клаус Шонинг “Бобурнома” га баҳо бериб, “мукаммал тизимдаги халқ тилида ёзилган энг катта ҳажмдаги асардир”, япониялик йирик бобуршунос Эйжи Мано “Бобурнома”ни “маълумотлар хазинаси” дея атаган бўлса, англиялик бобуршунос Бевериж хоним эса “бутун тарихда яратилган ёзма ёдгорликларнинг энг бебаҳосидир”, дея таъкидлаганининг гувоҳи бўламиз. Бу билан унинг ўрганилиши, тадқиқи тугамайди, аксинча ривожланади. Бу мемуар асарнинг очилмаган ўрганилмаган қирралари фан оламида ҳали қанча ёш бобуршуносларни вояга етказади. Асарнинг равон ўқилиши, тушунарли бўлиши учун махсус луғатлар мавжудлиги, ҳар қайси даврда ҳам унинг ўқилишини таъминлайди. Бугунги кунда заминимиз бобуршунослик марказига айланди дея оламиз. “Бобурнома” асари нафақат бадиийлиги, балки тарихий манба сифатида ҳам ўлмас меросдир. “Бобурнома” асари орқали нафақат ўша давр географик, тарихий, маданий

ҳаётини, балки Бобурнинг фазилатли шахс сифатида кашф этилиши бу асарнинг қимматини оширади. Ҳатто бу фактлар асоси ўлароқ бадиий адабиётимизда гўзал асарлар дунё юзини кўрди. Жумладан, Бобур ва бобурийлар сулоласи тарихи билан астойдил қизиққан ўткир қалам эгаси адиб П.Қодиров ижоди орқали ўлмас тарихий роман "Юлдузли тунлар", "Авлодлар довони" да Бобурнинг нафақат шоҳ ёки шоир, ҳозирги кунда ибрат бўла оладиган ота тимсолини гавдалантиради.

– Ҳумоюн Мирзо оғир бетоб бўлганда, уни азоб чекаётганига чидолмаган отаси жон таслим қилаётган шаҳзода атрофида айланиб, унинг тузалиб кетиши учун салтанатидаги энг қимматбаҳо Кўҳинур олмосини эмас, ҳеч нарсага тенг келмас қиймати беқиёс умрини бағишлаши ҳар қандай инсонни ҳайратга солади ва ўйга толдиради.

Зеро, «Бобур феъли-сажиясига кўра Цезарга қараганда севишга арзигуликдир. Унинг манглайига юксак фазилатли инсон деб битиб қўйилган» деганда инглиз тарихчиси Эдуард Холден жуда ҳақ баҳони берган эди. Шарқда ота ҳамиша улуғ аталиб келинган. Кўҳна тарихда номи битилган буюклар ҳамиша фарзандлари олдидаги масъулиятини чуқур ҳис қилганлигини кўрамиз. Шоҳ Бобур ҳаётлик чоғидаёқ тахтни ўғлига топширган дунёдаги яккаю ягона тахт эгаси. Қарангки, у ота сифатида Ҳумоюннинг салтанатни қандай бошқаришини кўришни, унга бу борада яқин кўмакчи, маслаҳатчи бўлишни истаган. Бобурмирзонинг бебаҳо инсоний фазилатлари ичида оила аъзоларига, қариндош-уруғлари, дўстларига меҳру оқибат кўрсатиши, садоқати асарларида айниқса, "Бобурнома"да яққол намоён бўлади. Бу меҳрибонлиги фарзандларига алоҳида эди. Ўғиллар тарбиясида ўзига хос қоидалари ва ёндашувлари бор эдики, мана шу жиҳатлар ҳали-ҳануз башариятни лол қилиб келмоқда. Шоҳ Бобур қаерда бўлишидан қатъи назар, фарзандлари ҳақида ҳар доим қайғурган, уларнинг бир-бирига меҳрибон, оқибатли, дўст бўлишини истаган. Шарқда оталар ҳамиша фарзандлари олдидаги масъулиятини чуқур ҳис қилган. Бобурмирзо ҳаётлик чоғидаёқ тахтни ўғлига топширган дунёдаги яккаю ягона шоҳ. Ота сифатида Ҳумоюннинг салтанатни қандай бошқаришини кўришни, унга бу борада яқин кўмакчи, маслаҳатчи бўлишни истаган. Бобурмирзонинг бебаҳо инсоний фазилатлари ичида оила аъзоларига, қариндош-уруғлари, дўстларига меҳру оқибат кўрсатиши, садоқати асарларида айниқса, "Бобурнома"да яққол намоён бўлади. Бу меҳрибонлиги фарзандларига алоҳида эди. Ўғиллар тарбиясида ўзига хос қоидалари ва ёндашувлари бор эдики, мана шу жиҳатлар ҳали-ҳануз башариятни лол қилиб келмоқда. Бобурмирзо қаерда бўлишидан қатъи назар, фарзандлари ҳақида ҳар доим қайғурган, уларнинг бир-бирига меҳрибон, оқибатли, дўст бўлишини истаган. Буни фарзандларига ёзган қатор мактубларида кўриш мумкин. Ҳумоюнмирзога ёзган хатида: "Укаларингга меҳрибон бўл, хато қилса кечир, асло ўзингдан узоқлаштирма", дейди. Шунинг учун ҳам Ҳумоюн Комрон билан Ҳиндол Мирзолар тахт талашиб, уни қаттиқ хафа қилганида ҳам уларни кечиради. Чунки фарзанд ҳам ота васиятини бажаришни ўз бурчи деб билади. Афғонистоннинг Қандаҳор вилоятида Бобурмирзо томонидан қурдирилган Чилзина, яъни қирқ зина тарихий обидаси бор. Тоғнинг ичига ғор қилинган. Қирқ зинани босиб чиққанингизда ўша ғор деворларига"Қуръони Карим"дан оятлар билан бирга, ўғиллари Ҳумоюн ва Комрон Мирзога ёзган панду насиҳатлари ҳам акс этган. Ҳамиша фарзандлари ҳақида қайғургани бу шарқона тарбия, шарқона ҳаёт тарзининг нечоғли гўзал эканидан далолатдир.

Ҳозирги кунда ўтмиш аждодларимиздан қолган бой адабий меросларни ўрганиш кенг йўлга қўйилган. Демоқчимизки, биз ҳали ҳам Бобур иодини мукаммал ўрганиб, "Бобурнома" дек бир улкан уммон остида ётган сирлардан тўла воқиф бўла олганимиз йўқ. Бобур ва бобурийлар ҳаётини ўрганиш, Бобур ижодидан баҳраманд бўлиш имкониятидан йироқ

пайтимиздаёқ Ғарбда у ҳақда тарихий, илмий, бадиий асарлар яратиб бўлинган. Бу буюк аждодимизнинг шахсияти ўша даврдаёқ бутун дунёни ҳайратга солиб, у ҳақда изланишлар олиб боришга даъват қилганидан дарак. Ҳали ҳамон бу давом этмоқда.

Шунинг учун бўлса керак, асрлар оша “Бобурнома” асари нафақат адабиёт ихлосмандлари, балки ўзбек миллати учун тарбиявий аҳамиятга эга хазина ёдгорлик бўлиб қолаверади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Бобур Заҳириддин. Бобурнома / Ҳозирги ўзбек тилига Ваҳоб Раҳмонов ва Каромат Муллахўжаева табдили. –Т. : "O`qituvchi"нашриёти(НМИУ).2008. -2008.

2. Бобир Заҳириддин. Мухтасар / Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Тошкент: Фан, 1971. – 413 б.

3. Бойқаро Ҳусайн. Рисола: Девон. – Т.: Шарқ, 1995. – 160 б.

4. Ҳасанов С. Бобирнинг “Аруз рисоласи” асари. – Тошкент: Фан, 1981. – 96 б.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING “BOBURNOMA”ASARI” DA AMIR TEMUR SIYMOSI

Madrahimov Z.

NamDU, Tarix kafedrasi dotsenti, t.f.n.

Yirik davlat arbobi, sarkarda, ajoyib lirik shoir Zahiriddin Muhammad Bobur (1483 – 1530) qalamiga mansub “Bobirnoma” asari ijtimoiy-tarixiy, ilmiy-tabiiy va adabiy-lingvistik ma’lumotlar xazinasidir. Asarda O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Hindiston tarixi, tabiati, aholisi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti xaqida qimmmatli ma’lumotlar bayon etilgan. Bobur tarixiy faktlarni shunchaki qayd etish, jangu jadallar, yurishlar haqida xronologik axborot berish bilangina kifoyalanmay, voqealarni jonli tilda qiziqarli hikoya qiladi, manzara chizadi, tabiatni, etnografik xolatlarni tasvirlaydi, davrni, uning xususiyatlarini gavdalantiradi. Shu sababdan asar faqat ilmiy-tarixiy ahamiyati bilan emas, balki o‘zbek badiiy nasrining yorqin namunalaridan biri sifatida ham biz uchun qimmatlidur. Shoir o‘z xotiralarini badiiy naql uslubda sodda va ravon bayon etadi. O‘nlab tarixiy shaxslarning aniq xarakterini yaratadi. Tabiat manzaralarini suratini chizadi, kitobni har xil syujetlar, ishqiy sarguzashtlar, she’riy parchalar bilan bezaydi. Tilga olingan shaxslarning portreti – kiyinishini, tashqi ko‘rinishini, fe’l atvorini, odatlari, o‘tmishi, avlod-ajdodi, birma bir ta’rif etiladi.

“Boburnoma”da bir yarim mingga yaqin tarixiy shaxslarning ismi-sharifi keltirilgan. Ular orasida eng mashhuri, shubhasiz, buyuk sohibqiron Amir Temurdir. Asarda Temurbek nomi turli munosabat bilan 31 marta tilga olingan. Markazlashgan davlat asoschisi, buyuk sarkarda va ilm-fan, adabiyot, san’at, madaniyat homiysi, temuriylar Uyg‘onish davri asoschisi Sohibqiron Amir Temur (1336 – 1405) nomi, hayoti, faoliyati bilan bog‘liq o‘ttizdan ortiq tasvir, lavha, izohlarning berilishi ham nihoyatda muhim. Bobur o‘z asarida dastlab Amir Temur nomini otasi Umarshayx Mirzo bilan bog‘liq bayonlar munosabati bilan tilga olib, to Dehli va Agra shaharlarida kechgan voqealar tasvirigacha u bilan birma-bir tanishtirib borgan. Shunga ko‘ra, Boburni ulug‘ bobokaloni Amur Temurning ilk tadqiqotchi va targ‘ibotchilaridan biri deb baholash mumkin [1].

Bobur mirzo bobosi Temurbek nomini ilk bor otasi Umarshayx mirzo ta’rifida keltirgan: “Valodat va nasabi: sekkiz yuz oltmishda Samarqandta edi. Sulton Abusa’id mirzoning to‘rtunchi o‘g‘li edi. Sulton Ahmad mirzo, Sulton Muhammad mirzo, Sulton Mahmud mirzodin kichik edi. Sulton Abusa’id mirzo Sulton Muhammad mirzoning o‘g‘li edi. Sulton Muhammad mirzo

Mironshoh mirzoning o‘g‘li edi. Mironshoh mirzo Temurbekning uchunchi o‘g‘li edi. Umarshayx mirzo bila Jahongir mirzodin kichik, Shohrux mirzodin ulug‘ edi” [2].

Bobur asar avvalida otasining nasl va nasabiga to‘xtalar ekan, u o‘zgacha ruh, alohida mehr va sog‘inchu qo‘msash bilan batafsil yozgan, hatto, nechanchi o‘g‘il, kimdan katta, kimdan kichikligi haqida ham izoh va tushuntirish bergan. Umuman, “Boburnoma”ning Amir Temur yodga olingan barcha o‘rinlarida u an’anaviy ravishda sohibqironni Temurbek nomi bilan zikr qilgan. Ammo temuriylar xonadoniga mansub bo‘lgan o‘zining va o‘zi kabi boshqa shahzodalarning temuriyzodalar ekanligini esa tarixiy fonda yorqin va ta’sirli ifodalash maqsadida ba’zi lavhalarda Bobur “naslidin”, “avlodidin”, “zodu budi”, “xonavodamiz” so‘zlarini mahorat bilan qo‘llab, “Temurbek naslidin”, “Temurbek avlodidin” “Temurbekning zodu budi” yoki “Temurbekdek ulug‘ podshoh”, “Temurbekning yurti”, “Temurbek avlodi ilgida”, bizning xonavodamiz” tarzida ham zikr etgan.

“Boburnoma” muallifi onasi Qutluq Nigorxonim Toshkent hokimi Yunusxonning ikkinchi qizi ekanini ta’kidlar ekan, shunday faktni keltirib o‘tadi: “Yunusxonning onasi turkistonliq qipchoq beklaridin Temurbek rioyat qilg‘on Shayx Nuriddinbekning qizi yo nabirasi bo‘lur” [3]. Amir Temur tarixidan ma’lumki, Shayx Nuriddinbek Sohibqironning ishonchli amirlaridan biri bo‘lgan. Ko‘p jangovar yurishlarda, jumladan Hindistonni zabt etishda qahramonlik ko‘rsatib, ulug‘ sarkardaning ishonchiga, hurmatiga sazovor bo‘lgan. Shuning uchun Bobur mirzo uni “Temurbek rioyat qilg‘on”, ya’ni hurmat qilgan inson sifatida ta’riflagan.

“Boburnoma”ning 1495 – 1496-yil tafsilotlari bayonida Bobur o‘zining davlat boshqaruvi tizimi to‘g‘risida yozar ekan, “Temuriya salotini dasturi” nomli tartib-qoida haqida ma’lumot beradi. U orqali u Amir Temur va temuriylarning taxtda, goh shohona to‘shak (ko‘rpacha) ustida o‘tirib davlat boshqargani, kengash chaqirgani va elchilarni qabul qilgani kabi boshqaruv hamda marosim usullaridan voqif bo‘lamiz: “Ul fursatlar Temuriya salotini dasturi bila to‘shak ustida o‘lturur erdim. Hamza Sulton bila Mahdiy Sulton va Mamoq Sultonkim keldilar, bu salotinning ta’zimig‘a qo‘pub to‘shakdin tushub, bu sultonlar bila ko‘rushtum. Sultonlarni o‘ng qo‘lda bog‘ishda o‘lturg‘uzdum. Muhammad Hisoriy boshliq borcha mo‘g‘ullar keldilar. Borcha mulozamatni ixtiyor qildilar” [4].

Yoki yetakchi sifatida tarix maydoniga chiqqan Bobur “Boburnoma”ning 1507 – 1508-yil voqealari bayonida, ya’ni Hindiston istilosi oldidan o‘zi joriy qilgan bir siyosiy islohoti, ya’ni o‘zini podshoh deb e’lon qilish buyrug‘i, sanasi haqida ilhom bilan to‘xtalar ekan, shu o‘rinda Amir Temurni eslaydi: “Ushbu tarixgacha (hijriy 913-yil) Temurbekning avlodini bovujudi saltanat mirzo derlar edi, ushbu navbat buyurdumkim, meni podshoh degaylar” [5].

“Boburnoma”da Samarqand mavzusi alohida o‘ringa ega. Chunki, Bobur Mirzo Samarqandni juda sevar edi, chunki Samarqand taxtiga astoydil intilgandi, chunki Samarqand taxti o‘sha paytlar temuriy mirzolarning mavqeini belgilab beradigan taxt edi, ota-bobolari bu ulug‘ shaharda tug‘ilib voyaga yetgan edi, Samarqandni buyuk Sohibqiron ulkan davlatiga poytaxt qilgan edi: “Mo‘g‘ul va turk ulusi Semirqand derlar. Temurbek poytaxt qilib edi. Temurbekdin burun Temurbekdek ulug‘ podshoh Samarqandni poytaxt qilg‘on emastur” [6].

Har ishda to‘g‘ri tadbir qo‘llaydigan Amir Temur mamlakat poytaxtini tanlashda ham to‘g‘ri yo‘l tutgani “Boburnoma”da shunday ta’riflangan: “Temurbekning zodu budi• Keshdin uchun, shahr va poytaxt qilurig‘a ko‘p sa’y va ehtimomlar qildi, oliy imoratlar Keshta bino qildi. …Chun

• Taniqli matnshunos olim V. Rahmonov Bobur “Boburnoma”da bir necha marta maroq bilan qo‘llagan “zodu budi” iborasini Kesh va Andijon tasviri misolida sharhlar ekan, olim “Bobur o‘zining tug‘ilib o‘sgan shahri Andijon ekanligini ham shu tarzda ifodalagan”, deb alohida qayd qilgan.

Keshning qobiliyati shahr bo‘lmoqqa Samarqandcha emas edi, oxir poytaxt uchun Temurbek Samarqandni-o‘q ixtiyor qildi” [7].

Amir Temur maqbarasi kim tomonidan bunyod etilgani ham “Boburnoma”da ko‘rsatib o‘tilgan: “Temurbekning nabirasi, Jahongir mirzoning o‘g‘li Muhammad Sulton mirzo Samarqandning tosh qo‘rg‘onida – chaqarda bir madrasa solibtur. Temurbekning qabri va avlodidin har kimki Samarqandta podshohlik qilibtur, alarning qabri ul madrasadadur” [8].

Bobur o‘zini Husayn Boyqaro yoki boshqa temuriy shahzodalar bilan qiyoslagan tarixiy tasvirlardan biriga murojaat qilsak. “Boburnoma”ning 1503 – 1504-yil voqealar bayonida, ya’ni Kobulda mustaqil hukumat tuzgan Bobur Mirzoga Sulton Husayn Mirzodan Shayboniyxonga qarshi turishga undovchi xabarlar keladi. Maktublardan birida Husayn Boyqaro Bobur Mirzoga Kohmard va Ajarda harbiy istehkom bilan mustahkam turishi haqida yozib yuboradi. Ammo Husayn Boyqaroning oqibatini o‘ylamay tutgan harbiy taktikasi va rejalari Bobur Mirzoga ma’qul kelmaydi va bu o‘rinda u ogohlik bilan temuriylar davlati asoschisi bo‘lgan mulkgir Amir Temurni yodga oladi. Ya’ni “Sulton Husayn Mirzoning bu xatlari mujibi noumidlik bo‘ldi. Ne uchunkim, Temurbekning yurtida bu tarixda andin ulug‘roq podshoh ham yosh va ham viloyat va ham cherik bila yo‘q edi” [9]. Yana u “Temurbek o‘rnig‘a o‘lturg‘on” deya fikrlarini davom ettirib, g‘alabasi, oqibati ta’minlanmagan harbiy yurishdan qattiq norozi bo‘lganligini yaqqol sezdirib, shunday tushuntiradi: “Sulton Husayn Mirzodek Temurbek o‘rnig‘a o‘lturg‘on ulug‘ podshoh g‘animining ustig‘a yurumakni demay, yer berkitmakni desa, el va ulusqa, ne umidvorliq qolg‘ay?” [10].

Bobur “Boburnoma”da Dehli shahrini o‘z tasarrufiga olish, egalik qilish va boshqarish tarixini bitar ekan gapni moziydan, ya’ni Dehli shahrining Amir Temur boshqaruviga o‘tishidan boshlaydi hamda lavhani aniq qilib “Dehli Sulton Alovuddinning iligida edi. Bu tabaqa sayyidtur. Temurbek Dehlini olg‘onda Dehli hukumatini bularning otalarig‘a berib, borib edi” [11] deb xulosalaydi.

“Boburnoma”da keltirilgan bunyodkorlik ishlari bilan bog‘liq bir qiyosiy tasvirga ko‘ra, Bobur Agrada amalga oshirgan bir imoratni bino qilishga jalb qilingan tosh yo‘nuvchi usta, hunarmandlar bilan ulug‘ bobokaloni bunyod qilgan masjid qurilishida qatnashgan sangtaroshlarning soni va ish unumini qiyoslar ekan, o‘zining bu borada ustun jihatlarini hech ikkilanmay “Har ish va har nima uchun jami’ muqarrar va muayindurkim, ota-onalaridin beri ul ish va ul nimani qila kelgandurlar. Nechukkim, “Zafarnoma”da Temurbekning “Masjidi sangin” imoratini qilurda mulla Sharif (Ali Yazdiy) mundoq mubolag‘a bila bitibdurkim, Ozarbayjon va Fors va Hindiston va yana o‘zga mamolik sangtaroshlaridin har kunda ikki yuz kishi masjidda ish qilurlar edi. Bir Agrada ushbu Agraning sangtaroshlaridin mening imoratlarimda har kunda olti yuz sakson kishi ish qilurlar edi” [12] deb dadillik bilan yozadi va o‘z farzandlarini ham bu kabi xayrli qurilish ishlariga chorlagandek bo‘ladi.

Samarqand taxti va mamlakat boshqaruv tizimi bilan bog‘liq aniq voqealar bayonida Bobur Mirzo Amir Temurning Samarqand taxtiga o‘tirgandan boshlab, to o‘zigacha Samarqand taxtiga o‘tirgan va hukumat surgan Temurbek, Jahongir Mirzo, Muhammad Sulton, Ulug‘bek Mirzo, Abdulatif Mirzo, Abdulla Mirzo, Abusaid Mirzo, Sulton Ahmad Mirzo, Sulton Mahmud Mirzo, Boysunqur Mirzo, Ali Mirzo kabi o‘n ikki nafar temuriy hukmdorlarni nomma-nom, tartib bilan sanab ko‘rsatgan, faqat o‘zinigina kishilik olmoshi “men” bilan “Boysunqur Mirzodin men oldim” deb yozgan. Nimagadir Bobur sulolaning bu kabi tarixiy ma’lumotida Samarqand taxtida besh yil hukmronlik qilgan va qaysidir ma’noda ko‘ngil ishini mulk ishidan ustun qo‘ygan Xalil Sultonni bu silsilada tilga olmagan, ko‘rsatmagan. Bunday tartib bilan ko‘rsatish, birinchidan, Bobur uslubiga xos bo‘lib, ikkinchidan esa u kitobxonni 140 yillik Samarqand taxti, boshqaruv tarixi bilan, ya’ni

o‘zi “…. uz qirq yilg‘a yovuq Samarqand poytaxti bizning xonavodada edi…” [13], deb yozgan e’tirofi, izohi bilan qisqa, aniq tarzda tanishtiradi.

Bobur uch o‘rinda “Temurbek naslidin” iborasini qo‘llagan. Birinchisi Husayn Boyqaro haqida: “Temurbek naslidin hech kim ma’lum emaskim, Sulton Husayn mirzocha qilich chopmish bo‘lg‘ay” [14]. Ikkinchisi Husayn Boyqaroning farzandlari bayonida: “Yana bir qizining oti Fotima Sulton edi, Temurbek naslidin Yodgor Muhammad mirzog‘a berib edilar” [15]. Uchinchisi – Husayn Boyqaroning amirlaridan biri haqida so‘z yuritar ekan, uning Amir Temur naslidan ekanini ta’kidlab o‘tgan: “So‘ngra kelganlardinkim, Shoh Ismoil Iroq va Ozarbayjonga mutasarrif bo‘lg‘onda, andin Xuroson kelib edilar, bir Abdulboqiy mirzo edi, Temurbek naslidindur, Mironshohiydur” [16].

Asarning Samarqand tasvirida Bobur Hindistondan keltirilgan sangtaroshlar va noma’lum rassom tomonidan Dilkusho bog‘ida qurilgan ko‘shk devorlariga san’atkorona chizilgan surat haqidagi kuzatishlari asosida yozgan qiziqarli ma’lumotga ega bo‘lamiz: “Temurbekning va Ulug‘bek Mirzoning imorati va bog‘oti Samarqand mahallotida ko‘ptur… Yana Ohanin darvozasig‘a yovuq qal’aning ichida bir masjidi jum’a solibtur, sangin, aksar Hindistondin eltgan sangtaroshlar anda ish qilibturlar… Dilkushoda ham ulug‘ ko‘shk soldurubtur, ul ko‘shkta Temurbekning Hindiston urushini tasvir qilibturlar…” [17].

“Boburnoma”da Temurbek nomi eng so‘nggi marta 1525-yil voqealari bayonida tilga olingan: “Nechukkim “Zafarnoma”da Temurbekning “masjidi sangin” imoratini qilurda Mullo Sharaf mundoq mubolag‘a bila bitibdurkim, Ozarbayjon va Fors va Hinduston va yana o‘zga mamolik sangtaroshlaridin har kunda ikki yuz kishi masjidda ish qilurlar edi” [18].

Bobur “Boburnoma”da keltirgan Sohibqiron Amir Temurga oid tarixiy ma’lumotlar, tasviru lavhalardan shunday xulosa qilish mumkinki, Bobur Amir Temur bilan faxrlangan va temuriylarning tarixini yaxshi o‘rgangan, bilgan hamda ana shu bilganlarini yorqin va ta’sirli tarzda ifodalagan, shuningdek, shoh va shoir Bobur hamda ulug‘ bobokaloni Amir Temur o‘rtasida yuz yilga yaqin tarixiy masofa bo‘lsa-da, u Amir Temurni har tomonlama to‘la his qilgan hamda u kabi siyosiy hushyor hukmdor bo‘lishga intilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1990. – Б. 9.

2. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Ўзбекистон ССР фанлар академияси нашриёти, 1960. – Б. 92.

ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУРНИНГ “ХАТТИ БОБУРИЙ”СИ ТАРИХИ

Джураев Ҳ.Х.

Бухоро вилояти халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш институти ўқитувчиси

Заҳириддин Муҳаммад Бобур меросини ўрганиш бўйича Ўзбекистонда ва хорижий давлатларда ҳам кўплаб илмий изланишлар олиб борилган, туркум китоблару мақолалар чоп этилган. Бу жараён ҳозир ҳам давом этмоқда. Натижада Бобур фаолиятининг янги-янги қирралари очилмоқда. Бобур ижодининг кам ўрганилган ана шундай жиҳатлардан бири – у яратган арабий хат тури билан боғлиқ.

Хатти Бобурий ёки Бобурмирзо томонидан яратилган хат қачон пайдо бўлган? Бу хат тури ўша даврнинг қайси машҳур кишилари назарига тушган? Унда қандай асарлар битилган? Унинг кўриниши қандай ва нечта ҳарфдан иборат, деган бири иккинчиси билан борлиқ табиий саволлар туғилади.

Ушбу ёзув турининг қачон пайдо бўлгани ҳақидаги аниқ маълумот “Бобурнома”да қайд этилган[13]: “Қобулни олғондин бир неча кун сўнг Муқим Қандаҳор сариға рухсат тилади... Қобулнинг даромад ва ҳосилини билмай мундоқ куллий таҳмил бўлғони учун вилоят хейли хароб бўлди... Ушбу маҳалларда Бобурий хаттини[14] ихтироъ қилдим.... Шаъбон ойида офтоб далв буржида эрдиким, Қобулдин Ҳиндустон азимати била отланилди[15].” Мазкур лавҳадан маълум бўлишича, ушбу воқеа ҳижрий 909 йилнинг шаъбон ойига қадар, яъни милодий 1504 йил бошланмай туриб юз берган. Бундан бобурий хат 1503 йилнинг охирги чорагида ихтиро қилинган, деган хулоса келиб чиқади. Бу пайтда Бобур 21 ёшда бўлган.

“Бобурнома”нинг 911/1505-1506 йил воқеаларида баён этилишича, Қози Ихтиёр ва Муҳаммад Мир Юсуф каби олимлар Бобуршоҳнинг ўзидан ушбу хат билан боғлиқ қоидаларни ёзиб олганлар: “Яна Қози Ихтиёр эди, қозиликни хўб қилди. Фиқҳда бир форсий рисола битибтур, тавр рисоладур. Яна бир мазмун била иқтибос учун оёти каломийни жамъ қилибтур. Мурғобта мирзолар била мулоқот қилганда, Қози Ихтиёр ва Муҳаммад Мир Юсуф била келиб мени кўрдилар. Бобурий хаттидин сўз чиқти, муфрадотни тилади, битидим. Ўшал мажлисда муфрадотни ўқуб қавоидини битиб, нималар битиди[16].”

Бобуршоҳнинг шахсан ўзи уларга бобурий хатнинг муфрадотини, яъни ҳарфларнинг алоҳида ҳолдаги кўринишини ёзиб берган. Баъзи тадқиқотчилар мазкур лавҳани “шоирнинг “Хатти Бобурий” асари ўз даври донишмандлари таҳлил ва тақризига ҳам ҳавола этилган, аҳли донолар фикрлари асосида қайтаишланган” - деб, талқин этганлар[17].

Кейинчалик бобурий хат мукаммал кўриниш касб этгач, унда қитъалар, шеърлар ва сархатлар битилган. Ушбу ёзувдаги битикларни ўша даврнинг нуфузли ва мўътабар кишиларига юбориш шарафли иш ҳисобланган: “Ҳумоюннинг ўғли бўлғонининг таҳниятига ва Комроннинг кадхудолиғининг таҳниятиға ва Мирзойи Табризийни ва Мирзобек тағойини ўн минг шоҳрухий сочиқ била йиборилди. Узум кийган тўн ва боғлағон камар ҳар икки мирзога йиборилди. Мулло Биҳиштийдин Ҳиндолға мурассаъ камар ва ханжар ва мурассаъ давот ва садафкорлиқ сандали ва кийган нимча ва тагбанд ва “Бобурий хати”нинг[18] муфрадотини йиборилди. Яна “Бобурий хати” била битилган қитъалар йиборилди. Ҳумоюнга таржиманиким, Ҳиндистонга келгали айтқон ашъорни йиборилди. Ҳиндолға ва Хожа Калонга ҳам таржима ва ашъор йиборилди. Мирзобек тағойидин ҳам Комронга

---

[13] Айрим саволларга жавобларни нашр этилган китобларда ҳам учратиш мумкин. Бироқ бир-биридан фарқ қилувчи ушбу жавоблар ўқувчиларни чалғитади. Қуйидаги маълумотларни қиёслашдан айнан шундай хулоса келиб чиқади: “Бобур 1502 йил 15 сентябрда Қобулни эгаллаб, ўша йили “Хатти Бобурий”ни яратган эди” (И. Мирзаев, “Бобур маърифати”, Тошкент, “Ўқитувчи”, 1996 й.,8-бет) ва “Бобур 1503-1504 йилларда “Хатти Бобурий” деб номланган алифбе яратди” (Заҳириддин Муҳаммад Бобур (1483-1530) номли проспект, Алишер Навоий номидаги давлат адабиёт музейи томонидан 1983 йилда нашр этилган).

[14] Бобур инсон исми бўлгани учун у катта ҳарф билан ёзилиши шарт. Аммо бобурий эса Бобур исмидан ясалган сифат бўлгани учун у кичик ҳарф билан ёзилади. Ҳатто бобурий сўзи отлашган сифат бўлганда хам, барибир, кичик ҳарф билан ёзилмоғи лозим эди. Қолаверса, амалдаги қоидаларга биноан ҳам бундай ибораларда фақат биринчи сўз катта ҳарф билан ёзилади (масалан, Фанлар академияси), холос. Мақоладаги иқтибосларда мазкур иборанинг “Бобурнома”да қайд этилган — “Бобурий хатти”, “Бобурий хати” ва “Бобурий хат” каби шаклларини сақлаб қолдик. Бироқ улардан қайси бири қўлланган маъқул, деган табиий савол туғилади. Бобурий, бизнингча, хат тури сифатида куфий, сулс, насх, таълиқ, настаълиқ, шикаста каби кенг тарқалмаган. Шунга қарамай, бобурий сўзи, шартли равишда, отлашган сифат, яъни Бобур яратган хат турининг номи сифатида қабул қилиниши мумкин.

[15] Бобурнома. – Т.: Шарқ. – 2002. – Б. 117.

[16] Бобур З.М. Бобурнома. – Т.: Шарқ. – 2002. – Б. 137-138. Шундан сўнг “Бобурнома”да то 935/1528 йилги воқеаларига қадар ушбу ёзув тури ҳақида бирон та ҳам маълумот қайд этилмаган.

[17] Мирзаев И. Бобур маърифати. – Т.: Ўқитувчи – 1996. – Б. 13.

[18] “Бобурномаянинг бошқа нашрида ушбу ёзув тури “Бобурий хат” шаклида қайд этилган. Бу ҳақда қаранг: Бобур З.М. Бобурнома. – Т.: Юддузча. – 1989. – Б. 328.

таржима ва Ҳиндқа келгали айтқон ашъор ва “Бобурий хати” била битилган сархатлар йиборилди[19].”

Энди навбат бобурий алифбонинг кўриниши ва унинг нечта ҳарфдан иборат эканлигига келди. Нашр этилган “Бобурнома” нусхаларида ҳам, Бобур ҳақидаги тадқиқотларда ҳам, мактаб дарсликларида ҳам бобурий хатнинг намунаси учрамайди[20]. Бу эса оддий ўкувчи кўз ўнгида бобурий хатнинг шакли-шамойили ҳақида муайян тасаввур ҳосил бўлишига имкон бермайди. Шуни инобатга олиб, бу хатдаги ҳарфларнинг кўриниши акс этган сурат китобхон ва журналхонлар эътиборига хавола килинмокда[21]. Ундан кўриниб турибдики, бобурий хат 29 ҳарфдан иборат экан.

Айтиш жоизки, Заҳируддин Муҳаммад Бобурнинг Қуръони карим битилган араб алифбосига гўёки қарши чиққанлиги ҳақидаги даъвода ҳам, бизнингча, ҳеч бир асос йўқ[22]. Зотан, Бобуршоҳ нафақат исломнинг асосий манбаи ҳисобланган Қуръони каримга алоҳида эҳтиром билан қараган, қолаверса, у ўз замонасининг етук фақиҳи ҳам бўлган[23]. Бундан ташқари, аруз илмини пухта эгаллаган[24] ва арузга хос нозик жиҳатлар фақат араб алифбосидагина тўлиқ намоён бўлиши мумкинлигини яхши билган Бобурдек беназир истеъдод соҳибининг араб алифбосига қарши чиқиши ақл бовар қилмайдиган ишдир. Бобурий хатни яратишдан қуйидаги мақсадлар кўзланган бўлиши мумкин:

- шарқшуносликда умумэътироф этилган уйғур ёзуви деб аталувчи туркий хат турини қайта тиклаш ва такомиллаштириш;

- ҳиндларнинг сеҳргарлик талабларига мос келувчи (яъни муайян таъсирдан кейин шакли намоён бўлувчи) хат турини яратиш ва шу тарика сеҳр-жодуликка мойиллиги кучли бўлган омманинг ушбу ёзув турига қизиқишини уйғотиш;

---

[19] Бобур З.М. Бобурнома. – Т.: Шарқ. – 2002. – Б. 248. Афсуски, бобурий хат ила битилган мазкур намуналарнинг ўзини ҳам, уларнинг такдири ҳақидаги ишончли маълумот ҳам бирон-бир манбада учратмадик.

Мазкур нашрнинг 249-бетидаги лавҳа ҳам диққатга сазовордир: “Офтоб тулуида Раприйнинг улуғ туқайининг қуйисидин кемага кирилди. “Таркиб хати” била таржима битар учун букун ун бир сатрлик, мистар боғладим. Ушбу кун аҳлуллоҳнинг сўзларидин кўнглумға танбиҳе бўлди”. Агар Бобуршоҳ “Таркиб хати”, дея бобурий хатни назарда тутган бўлса, унда айрим таржималарнинг шу ёзувда битилганини тахмин қилиш мумкин.

[20] Ҳаттоки Эйжи Манонинг яқинда нашр этилган мақоласида (қаранг: “Халқ сўзи” газетаси 14.02.03 й. Эйжи Мано: “Бобурнома” менинг тақдиримда) ҳам бобурий хат ҳақида қайд этилмаган. Тўғри, Захируддин Муҳаммад Бобур музейидаги баъзи лавҳалар остига бобурий хатнинг намуналари деб ёзилган. Бироқ мазкур лавҳаларнинг мазмуни ва уларнинг бобурий хатга мансублиги муайян тадқиқотлар олиб боришни талаб қилади.

[21] Хатти бобурийда битилган Қуръони карим (“Мусҳафи Бобурий”) дан парча – “Бақара” сурасининг 54-57 – оятлари. Ўзбекистон Республикаси энциклопедия. Давлат илмий нашриёти, 2006. 68 бет.

[22] Бу ҳақда қаранг: “Бобур маърифати”, И. Мирзаев, Тошкент, “Ўқитувчи”, 1996 й., 14-бет: “Тарихда ҳеч бир шоҳ, саркарда алифбе ёзмаганлигини, Бобур ислом дини муҳофазасидаги араб алифбосига қарши чиқиш билан бирга, бутунлай янги алифбо ёзганлигини ҳисобга олсак, уни маърифат жонкуяри дея оламиз”. Бу ерда, “бутунлай янги алифбо ёзган”, деган жумлани Бобур шунчаки янги алифбо дарслик ёзган деб эмас, балки мутлақо янги хат турини яратган ва унинг қоидаларини баён этган деб тушуниш ўринли бўлади. Бобурнинг маърифат борасидаги фидокорлиги эса кундай равшан ҳақиқат.

[23] Буҳақда батафсил маълумот олиш учун “Имом ал-Бухорий сабоклари” журналидаги (2001 йил № 3 сон) “Бобур ва ислом ҳуқуқшунослиги” номли мақолага қаранг.

[24] “Алишербек назири йўқ киши эди. Туркий тил била то шеър айтубтурлар, ҳеч ким онча кўп ва хўб айтғон эмас. Олти маснавий китоб назм қилибтур, беши “Хамса” жавобида, яна бир “Мантиқу-т-тайр” вазнида “Лисону-т-тайр” отлиқ. Тўрт ғазалиёт девони тартиб қилибтур: “Ғаройибу-с-сиғар”, “Наводиру-ш-шабоб”, “Бадойиу-л-васат”, “Фовоиду-л-кибар” отлиқ. Яхши рубоиёти ҳам бор. Яна баъзи мусаннифоти борким, бу мазкур булғонларга боқа пастроқ ва сустроқ воқе булубтур... Яна “Мизону-л-авзон” отлиқ аруз битибтур, бисёр мадхулдур, Йигирма тўрт рубоий вазнда тўрт вазнда ғалат қилибтур. Баъзи баҳурнинг авзонида ҳам янгилибтур, арузга мутаважжиҳ бўлғон кишига маълум бўлгусидур...” (Бобур З.М. Бобурнома. – Т.: Юлдузча. – 1989. – Б. 153-154).

Ушбу маколада бобурий хатнинг айрим жиҳатларини қурбимиз етганича ёритишга ҳаракат қилдик, холос. У мазкур ёзув турини ўрганишга даъват этувчи навбатдаги тадқиқотлар учун туртки бўлади, деган умиддамиз.

Маълумки, Заҳириддин Муҳаммад Бобур буюк саркарда, йирик давлат арбоби бўлиши билан бир каторда, ўзбек адабиёти, маданияти, санъатига улкан ҳисса қўшган шоир, олим, адиб ҳамдир. У ўзбек маданияти, илми ва маънавиятини бошқа давлатларга, жумладан, Афғонистон, Ҳиндистон мамлакатларига ёйган ҳамда турли миллатларнинг маданиятлари уйғунлашувига, ҳалқларнинг маънан бир-бирларига яқинлашишига катта хизмат қилган зотдир.

Заҳириддин Бобурдан бизга қадар “Бобурнома”, “Мубаййин”, “Мухтасар” каби нодир асарлар етиб келган. Жаҳон илм аҳли бу асарларнинг қийматини муносиб баҳолаган, улар ҳақида кўплаб илмий тадқиқотлар яратилган ва дунё тилларига таржима қилинган.

Илмимизда улуғ аждодимизнинг хат санъати борасидаги фаолияти жуда кам ўрганилган. Бу ҳақда машҳур “Бобурнома” асарининг 935 ҳижрий (1528 милодий) йил тафсилотига бағишланган қисмида бундай маълумот келтирилади: “Мулло Биҳиштийдан Ҳиндолға мурассаъ камар ва ханжар ва мурассаъ давот (сиёҳдон) ва садафкорлик сандали ва кийган нимча ва тагбанд ва бобурий хатнинг муфрадотини йиборилди. Яна бобурий хати била битилган қитъалар йиборилди. Хумоюнга таржиманиким, Хиндустонга келгали айтқон ашъорни йиборилди. Хиндолга ва Хожа Калонга ҳам таржима ва ашъор йиборилди. Мирзобек тағойидин ҳам Камронга таржима ва Ҳиндқа келгали айтқон ашъор ва бобурий хати била битилган сархатлар йиборилди".[25] Демак, 935/1528 йилга келиб "Бобурий хати" алифбоси тугалланган ва ундан расмий ёзишларда фойдаланилган. Бобурнинг алоҳида мукаммал хат ихтиро қилгани ва мазкур хат билан турли асарлар китобат қилингани таҳсинга лойиқ иш. Мазкур ёзув ва унинг тарихи билан машҳур ўзбек олимаси, Бобур ижодий меросининг билимдони, марҳум академик Сабоҳат Азимжонова шуғулланган. Олима қатор тадқиқотларида, шунингдек, 1964 йили шарқшуносларнинг Деҳлида бўлиб ўтган 26-халқаро анжуманида айнан шу ёзув ҳақида маъруза килган[26].

Ёзувнинг хусусиятлари ҳақида олима бундай ёзади: “Хатти Бобурий” ҳақидаги изланишларимизни бошқа манбалардаги маълумотлар билан қиёслашимиз ушбу алифбонинг фақатгина ҳуснихат учун мўлжалланган ёзув эмас эканини кўрсатади. Бу араб алифбосининг 28 ҳарфи асосида яратилган янги алифбо эди. Бобур ўз алифбосини барча диакритик белгилардан холи қилди ва араб алифбосига кейинчалик киритилган тўрт форсий ҳарфларни чиқариб ташлади.[27]”

Мазкур хатда кўчирилган Қуръони каримнинг бир нодир қўлёзмасининг расм нусхаси Тошкент Ислом университета манбалар хазинасида сақланмоқда. Ушбу қўлёзма нусхасини Бобур Халқаро жамғармаси аъзолари Эронга қилган экспедициялари вақтида аниқлашган ва 2004 йили Тошкент Ислом университетига тақдим этишган. Бу нодир манбанинг асл нусхаси Машҳаддаги Астан Қудс Ризавий номидаги марказий кутубхонада 50-руйхат рақами остида сақланади. Астан Қудс кутубхонаси мутасадди ходимлари Собир Сайид Маржон, Фозил Ҳошимийларнинг маълумот беришича, ушбу кутубхона 1200 йиллик тарихга эга ва у имом Ризо номи билан боғлиқ. Имом Ризо Маккадан Машҳадга келади ва мазкур кутубхонага асос

[25] Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: - 1989. – Б. 32.

[26] Азимджанова.С. Новые данные о "Хатти Бобури". 26 международный конгресс востоковедов. Доклады делегации СССР. М, 1964.

[27] Азимджанова С. Индийский диван Бабура. - Т.: Фан. – 1966. – Б. 30-31.

солади. Ҳозирда бу ерда олтмиш икки тилдаги адабиётлар мавжуд бўлиб, қўлёзмалар фондига эллик минг жилд нодир қўлёзма манба жамланган.

Бобурий хатда кўчирилган Қуръони карим қўлёзмасининг умумий ҳажми 271 варақдан иборат бўлиб, у форсча муқаддима билан бошланган[28]. Унда ушбу қўлёзмани Султон Ҳусайн ас-Сафавий Мусавий имом Абулҳасан Али ибн Мусо Ризо номига вақф қилгани, кутубхонага келган ҳар бир киши ушбу муборак хатни ўқишлари ва уни дуо қилишлари ёзилган. Шунингдек, ушбу китобни кутубхонадан олиб чиқмаслик, вақф шаръий усулда абадий қилингани боис, сотилмаслиги, ҳадя қилинмаслиги, гаровга қўйилмаслиги қақида танбеҳ берилган. Ушбу ҳолат 1119 хижрий йили жумадус-соний (1707 йил сентябр) ойида тасбит қилингани кўрсатилган. Қўлёзманинг кейинги саҳифасида унинг ҳижрий 1321 йили 24 шаъбон (1904 йили 13 январ) куни 50-сақланиш рақами билан янгидан кутубхона руйхатига олингани ҳақидаги тўртбурчак муҳр урилган.

Нусханинг яна бир эътиборли жиҳати унга қўлёзма билан танишган шахсларнинг муҳри қўйилган ва тарихи кўрсатилган. Мана шундай маълумотлардан иккинчи варақда Муҳаммад Абдурашид исмли шахснинг милодий 1766 йил 20 шаъбон, Муҳаммад Амин ибн Муҳаммад Маҳдий ал-Ҳусайнийнинг 1267 йил 7 шаъбон (милодий 1851 йил 7 июн) куни, шунингдек, ҳижрий 1104 йил сафар (милодий 1692 йил декабр) ойида, 1196/1782 йили танишилгани ҳақидаги маълумотлар ва шахс номлари битилган тамғалар, муҳрлар урилган. Шунингдек, ушбу саҳифада "Мусҳафи мажид кашмир қоғозига куфий хатида кўчирилган", деб қайд этиб қўйилган ва “Бобурий хати” куфий хатининг бир тури сифатида баҳоланган. Қўлёзманинг аксарият саҳифаларига унинг Астан кутубхонасига вақф қилингани ҳақидаги тўртбурчак муҳр урилган. Сўнгги саҳифага 1287 ҳижрий йили ражаб (1870 йил октябр) ойида Убайд Муҳаммад, ҳижрий 1296 йил зулҳижжа (1879 йил ноябр) ойида Сайид Ансорий, 1289 йил 29 сафар (1872 йил 9 апрел), 1270 йил 119 шаввол (1854 йил 15 июн), 1315 йил 19 жумадул-охир (1897 йил 15 ноябр) Астани Муқаддаснинг мутавалийи томонидан зиёрат қилиниб, қўлёзма билан танишганлиги ҳақидаги маълумотлар ёзилган.

Хулоса қилиб айтганда, ҳозирда Ўзбекистон халқаро ислом академияси манбалар хазинасига юқоридаги каби кўплаб нодир манбаларни жамлаш иши давом этмоқда. Келгусида ушбу маскан маънавий меросимиз дурдоналарининг том маънодаги хазинасига айланса ажаб эмас.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Эйжи Мано: Бобурнома. менинг такдиримда.Халқ сўзи. газетаси / 14.02.2003.
2. Азимджанова С. Индийский диван Бабура. – Т.: Фан, 1966, С. 30-31.
3. Азимджанова С. Новые данные о Хатти Бобури. 26 международный конгресс востоковедов. Доклады делегации СССР. М, 1964.
4. Бобур З.М. Бобурнома. – Т.: Шарқ. – 2002 – Б. 248.
5. Бобур З.М. Бобурнома. – Т.: Юлдузча. – 1989 – Б. 153-154.
6. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. – Т.: Бобурнома. – 1989 – Б. 32.
7. Имом ал-Бухорий сабоклари. Журналидаги // (2001 йил № 3 сон) Бобур ва ислом ҳуқуқшунослиги.
8. Мирзаев И. Бобур маърифати. – Т.: Ўқитувчи. – 1996. – Б. 14.
9. Тошкент ислом университети. Манбалар хазинаси. Қуръон. 1 - рақам.
10. Ўзбекистон Республикаси энциклопедия. Давлат илмий нашриёти. 2006. – Б. 68.

[28] Тошкент Ислом университети. Манбалар хазинаси. Куръон. 1 -ракам.

«БОБУРНОМА» АСАРИДА АДЛИЯ МАСАЛАЛАРИНИНГ ЁРИТИЛИШИ

Жайнаров О.Ҳ., Мухаммадиев Р.Р.
ЧДПИ ўқитувчилари

Заҳириддин Муҳаммад Бобур нафақат давлат арбоби ва шоир сифатида, балки олим, фаннинг турли соҳаларидаги илмий ишлари билан ҳам машҳур шахс. Шарқ мусулмон давлатлари таълим тизими фиқх илми билан чамбарчас боғлиқ бўлганлиги сабабли, Бобурнинг илмий меросида ҳам мусулмон ҳуқуқига оид асарлар мавжуд. Улардан энг машҳури шеърий шаклда ёзилган “Мубаййин” (1521/1522) асаридир. Асар ўғли Хумоюн Мирзога ёки баъзи маълумотларга кўра иккинчи ўғли Камрон Мирзога бағишланган [1, 3; 15, 105]. 2000 байтдан иборат асар Бобурнинг назарий ва ҳуқуқий қарашларини ўзида акс эттирган. Бироқ, айрим тадқиқотчиларнинг фикрига кўра, асарда мусулмон ҳуқуқининг асослари эмас, балки Темурийлар давлатининг ҳуқуқий ва иқтисодий тартиблари келтириб ўтилган.

Бобурнинг ҳуқуқий қарашларини акс эттирувчи асарлари фақатгина “Мубаййин” рисоласи билан чекланиб қолмаган. XVIII асрдан бери ўрганиб келинаётган “Бобурнома”да ҳам жуда кўплаб адлия масалаларига оид маълумотлар мавжуд [2, 169-170]. Бу асарда келтирилган адлия масалаларига тегишли маълумотларни икки гуруҳга бўлиш мумкин: адлия ишлари бўйича қариндошлари ва замондошлари томонидан қилинган ишларга Бобур томонидан берилган баҳолар, иккинчиси, муаллифнинг ўзи хукмдорлик даврида суд-ҳуқуқ соҳасида амалга оширган ишлари ҳақидаги маълумотлар.

Ўз замондошларининг адолат, ҳуқуқ борасидаги фаолиятларини баҳолашини тадқиқ қилиш, Бобурнинг одил судлов хақидаги фикрларини билиш ва уни адолатли ҳукмдор сифатлари тўғрисидаги қандай қарашларга эга бўлганлиги ҳақида умумий хулоса чиқаришга ёрдам беради.

Албатта, Бобур учун шак-шубҳасиз ўз отаси, Фарғона ҳукмдори бўлган Умаршайх Мирзо ва унинг адолат борасидаги ишлари энг олий даражадаги урнак намунаси бўлган. Бобур отасининг адолатлилигига мисол сифатида, Андижон шарқий тарафидаги тоғларда Хитойдан келаётган 1000 туялик карвонни қор босиб, нобуд бўлган барча одамларнинг молларини бир жойга йиғдириб, бир-икки йил ичида уларнинг Самарқанд ва Хуросондан ворисларини топдириб, карвондаги мулкларни ўз эгаларига топширганлигини келтиради [3, 10].

Бобур шунингдек, катта амакиси - Самарқанд ҳукмдори Султон Аҳмад Мирзонинг адолатини юқори баҳолайди. “Бобурнома”даги маълумотларга кўра Султон Аҳмад Мирзо саводсиз бўлишига қарамасдан, у Хожа Убайдуллоҳ Аҳрорнинг кўрсатмаларига амал килган ва шу туфайли “энг муҳим ва нозик масалаларни қонун йўли билан ҳал қилган”. Шунинг учун ҳам Султон Аҳмад Мирзонинг халқи “мамнуният ва тинчликда яшадилар, чунки ҳурматли Хожа туфайли улар билан муомала, аксарият ҳолларда адолат билан қонунга мос равишда ҳал этилган” [3, 20].

Бобурнинг қайдларига кўра, Султон Аҳмад Мирзонинг укаси ва меросхўри Султон Маҳмуд Мирзонинг ҳукмронлик даври акасиникидан кескин фарқ қилган: “Султон Маҳмуд ёмон ниятли одам эди, у ҳурматли Хожа Убайдуллоҳни ҳурмат қилмаган, сарой амалдорлари, аскарларга нисбатан адолатсиз бўлган ва ҳаттоки, ўз авлодларини зулм ва зўравонлик”га дучор қилган [3, 26].

Бобур наздидаги яна бир идеал ҳукмдор Ҳирот ҳукмдори Султон Ҳусайн Байқаро бўлиб, унинг адолатли суд жараёни мисолида муаллиф қуйидагиларни тасвирлайди: “Баъзи пайтларда у адолат учун ўз қариндошларини ҳам аямаган. Бир марта ўғли бир одамни ўлдирди ва у уни ўлдирилган кишининг қон-қариндошларига берди ва қозига юборди” [3, 155]. Бобур амакиси Султон Аҳмад Мирзонинг ишида бўлгани каби, Ҳирот хукмдорининг суд қарорлари борасидаги адолатини мусулмон ҳуқуқшуносларининг ижобий таъсири билан боғлашга ҳаракат қилган. Жумладан, фиқх илмини яхши билан адолатли кишилардан бири қози Ихтиёр бўлиб, у Ҳусайн Байқаро ҳукмронлиги даврида кўп йиллар қозилик қилган. Шунингдек, қози Ихтиёр фиқх илмига оид форсий тилда рисола ҳам ёзганлиги “Бобурнома”да алоҳида қайд этилган [3, 161].

Бобурнинг ҳукмдор сифатида ўзи чиқарган суд қарорлари баъзи ҳолларда адолатлилиги ва баъзан тушунарсизлиги билан кўпчилик тадқиқотчиларда катта қизиқиш уйғотади. Бобур томонидан чиқарилган асосий суд ишлари қўзғолончиларни ёки қўшин сафидан қочганларни жазолашни ўз ичига олади, бу каби ишларни белгилашда Бобур ҳам оғирлаштирувчи, ҳам енгиллаштирувчи ҳолатларни ҳисобга олган ҳолда, у ўз қаттиқ қўллиги ва адолатини намойиш этган.

1519 йилги ғалабалардан бирида Бобур барча асирларни тирик қолдиришга буйруқ беради, “аммо бир нечта “итоатсиз беклар” қўзғолон раҳбарларини қатл қилади ва қўзғолон бошлиқларининг бошлари ва ғалаба ҳақидаги хабар билан Қобулга жўнатишади, улар бу билан буйруққа қарши бордилар ва қонуний ҳукмдорга хиёнат қилдилар” [4, 223-224].

1526 йилнинг декабр ойида Бобур сарой ошпази томонидан тайёрланган ҳинд таомини еб заҳарланади ва шундан кейин ошпаздан шубҳаланиб, ҳақиқни билиш учун суруштирув ўтказади: ўзининг қайд қилган овқати қолдиқларини итларга бердиради ва овқатни еган итлар тез фурсатда нобуд бўлади. Шундан сўнг, ошпаз, чошнагир ва иккита хизматкор қўлга олиниб, улар сўроқ қилиниш учун девонга келтирилади. Ҳукмдор, сарой зодагонлари, аслзодалар, амирлар ва вазирлар ҳузурида суиқасднинг тайёрланиши ва унинг айнан қандай амалга оширилганлигини айбдорлар тан олади ва заҳар Бобурнинг қўриқчилари томонидан назорат қилинадиган қозонга солинмагани, балки тўғридан-тўғри унинг овқат ейдиган идишига солингани айтиб беришади. Бобур ўз чонагирига қаттиқ жазо тайинлаб, уни қатл эттиради ва жасадини тўрт бўлакка ажраттиради, сарой ошпази эса фил оёқлари остига ташланади. Қолган хизматчилар эса зиндонга ташланади. Қатл этилган сарой хизматчиларининг собиқ бекаси бўлган Иброҳим Лодийнинг онасини мол-мулки мусодара қилиниб, ўзи саройда қаттиқ назоратга олинади [7, 302-303].

Биз юқорида кўриб чиққан холатларнинг ҳеч бирида Бобур ислом ҳуқуқи меъёрларига мурожаат қилмаган, балки, ҳар доим қарорларини ўз ихтиёри ёки қариндошлари ва амалдорларининг фикрларини ҳисобга олган ҳолда чиқарган. Шунингдек, у ўзига хос тарзда, фатҳ этилган ҳудудлар аҳолисининг содиқлигини таъминлаш учун ўз давлатидаги маҳаллий урф-одатларни, шу жумладан суд фаолиятини ҳисобга олишга ҳаракат қилган [5, 29].

Бироқ, суд қарорларини қабул қилишда Бобур ислом фиқхи манбаларига таянганлигини инкор этиб бўлмайди. Тадқиқотчилар ўз ишларида таъкидлаганларидек, Бобур суд қарорларини қабул қилишда асосан ўз аждоди бўлган Амир Темур амалиётига таянган, у ҳам буюк бобоси бўлмиш Амир Темурнинг мағлубиятга учраб, содиқлик билан итоат қилган душманга мурувват қилиш, халққа зулм қилганларни қаттиқ жазолаш тамойилларига амал қилган.[6, 54-55]. Зеро, Амир Темур ўзидан олдинги туркий ҳукмдорлар қонун қоидалари ва исломий фиқхни умумлаштирган ҳолда адолатли ҳукм чиқаришга ҳаракат қилган.

Хулоса килиб айтиш мумкинки, Бобур суд-ҳуқуқ соҳасида шариат томонидан ўрнатилган расмий қоидаларга риоя қилганлига қарамай, у суд фаолиятида кўпинча қонуний урф-одатлар ва ўз ихтиёри асосланиб ҳукм чиқарган. Сабаби, суд-ҳуқуқ соҳасида бундай ҳукм чиқаришлар Бобурдан олдинги барча туркий ҳукмдорлар учун хос эди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Азимджанова С.А. “Бабур-наме” и его автор // Вопросы истории. - М., 1983. №6. - С. 103-109.

2. Азимджанова С.А. Государство Бабура в Кабуле и Индии. - М., Наука, 1977. - 176 с.

3. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. “Бобурнома”. Нашрга тайёрловчи Порсо Шамсиев. - Т., “Юлдузча”, 1989. - 368 б.

4. Бабур-наме // пер. М. А. Салье. - Ташкент: Главная редакция энциклопедий, 1992. - 464 с.

5. Edwardes S.M. Babur: Diarist and Despot. - London : A.M. Philpot Ltd., 1926. - 138 p.

6. Алиев А.А. «Завещание Тимура» и Мухаммед Бабур // Вестник Кыргызско-Российского Славянского университета. - 2015. №6. - С. 53-56.

“БОБУРНОМА” – ТАРИХИЙ, МАЗМУНАН РАНГ-БАРАНГ, ТИЛ ВА УСЛУБИ ГЎЗАЛ АСАР

Холиқов А.А.
Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси доценти

Темурийлар авлодидан бўлган Заҳириддин Муҳаммад Бобур (1483—1530) ҳукмдор, истеъдодли шоир, тарихчи ва заковатли олим сифатида бизга маълум. Бобур 12 ёшларида отаси Умаршайх Мирзодан қолган Фарғона вилоятининг ҳокимлик тахтига ўтиради. У Мовароуннаҳрни ягона қудратли давлатга бирлаштириб, ўзаро қирғин қабоҳатларга барҳам бериш, темурийзодалар орасида нифоқ ўрнига дўстлик, ҳамжиҳатлик ўрнатишни ўз олдига асл мақсад қилиб қўяди.

Бобур илм аҳлини ардоқлаган, ёшларга ўз ёрдамини аямаган, ҳомийлик қилган. Илм аҳли билан суҳбати ва уларнинг асарлари, битган шерлари ҳақида “Бобурнома”да ўз фикрларини баён этган. Бобурнинг унча тўлиқ бўлмаган бир девони, ислом дини асосларини баён этувчи “Мубаййин”номли шерий рисоласи, “Волидия” деб номланган тасаввуфга оид китобчанинг назм билан таржимаси, Бобур ихтиро этган ва “Хатти Бобурий” номи билан машҳур бўлган алифбоси хамда “Бобурнома” асарларидан иборат. Бобурдан колган ижодий мероснинг энг мухим ва энг йириги Ўрта Осиё, Афғонистон, Ҳиндистон ва Эрон халқлари тарихи, географияси, этнографиясига оид нодир ва қимматли маълумотларни ўз ичига олган ҳамда ўша давр ўзбек классик адабиёти ва адабий тилининг ёрқин намунаси бўлган «Бобурнома» асаридир. Бу асар мазмунининг ранг-баранглиги, улкан маълумотларни ўз ичига олганлиги, тил ва услубининг гўзаллиги билан беқиёсдир. Асарнинг асли номи «Бобурия» бўлсада, у «Воқеанома», «Тузуки Бобурий», «Воқеоти Бобурий» деб аталган, кейинчалик асар «Бобурнома» деган ном билан машҳур бўлиб кетди.

1948—1949 йилларда «Бобурнома» нинг икки кисмдан иборат тўлиқ матни шахс ва географик номлар курсаткичи, тўлиқ луғат, бази бир қисқа изоҳ ва таржималар иловалари билан босилган. Кейинчалик «Бобурнома»нинг тўлиқ матни 1960 йили қайта нашрга Лондон ва Козон босма нусхалари асос қилиб тайёрланди ва нашр этилди.

Бобур умри давомида гоҳ жангда енгилиб, гоҳ ғолиб келиб, улуғ мақсад йўлида бирлашишга, ягона, марказлашган давлат тузишга ҳаракат қилган. Гарчи унинг бу мақсади

амалга ошмаган бўлсада, Бобур инсонийлик фазилатларидан воз кечмади. Бобурнинг ички фазилатлари, армонлари, ўгитлари-ю, мероси ёшларимизга ибрат мактаби бўлса нур устига аълодир. Бобурнинг “Бобурнома” асари унинг бутун умри давомидаги эсдаликларидир. У умрининг охирларида 1525-1530 йилларда ушбу асарни яратган. "Бобурнома"нинг ўндан ортиқ қўлёзма нусхалари бўлиб, жаҳоннинг турли кутубхоналарида сақланади. Бу асар XII асрдаёқ турли шарқ тилларига таржима қилина бошланган. "Бобурнома" тарихий асардир. Академик В.Бартольд таъкидлаганидек: «Бобирнома» XVI асрдаёқ ҳаққоний равишда турк прозасининг классик асари» бўлиб тан олинган. Унда 1494-йилдан, яъни Бобур тахтга чиққанидан умрининг сўнгигача юз берган воқеалар ўз ифодасини топган. Бу тафсилотлар Бобур туғилиб вояга этган Мовароуннаҳр, сўнгроқ Хуросон, Қобул, Ғазна, Қандаҳор ва Ҳиндистонда юз берган воқеалар жамланган. Асарда ҳар бир йил воқеалари алоҳида берилади. Дастлаб ўша йилда юз берган муҳим воқеа баён қилинади. У Тангри иноятн билан Фарғона вилоятида 12 ёшида шоҳ бўлгани ҳақида хабар бериб, китобхонни Фарғона вилояти билан таништиради. Тоғаси ва амакиси Андижонга қўшин тортиб келгани, отасининг тасодиф билан фожиали ҳалок бўлгани вақтларига тўхталади.

“Бобурнома” асарида инсон камолоти ва хулқ атвор таснифи, Темур ва темурийзодалар ва ўзи билган кишилар ҳаёти ва портретлари шундай аниқ ва равон ёзилганки, уни ўқиган киши ўша даврда яшаган тарихий шахслар ҳақида янада мукаммалроқ илмларга эга бўлади. Бобур шу тарихий шахслар ҳақида фикр юритганда унинг яхши томонлари ва салбий томонлари ҳақида батафсил ростгўйлик билан унинг қиёфасини чизади. Ўз отаси ҳақида фикр юритганда “Чун Умаршайх мирзо баланд ҳиммaтлиқ ва улуғ доиялиқ шо эрди. Ҳамиша мулкгирлик дағ-дағаси бор эрди. Неча навбат Самарқанд устига черик тортти, бази маҳал шикаст топди, бази маҳал ... ёнди” айни пайтда ўз отасини "бадмаош", яъни у одамлар билан тил топиша олмаслиги, одамларнинг табиатини яхши билмаслиги боис кўп панд еган, дейди.

“Бобурнома”да ҳар бир тарихий шахс ва унинг фаолияти пухта таҳлил этилган бўлиб, Навоийнинг таржимаи ҳоли, шахси, фаолияти ва асарлари ҳақида ҳам маълумотлар берилган, жумладан, унда шундай сатрлар бор:

“Яна Алишербек Навоий эди, беги эмас, балки суҳбатдоши эди. Ёшлигида Ҳусайн мирзо билан мактабдош экандирлар. Хислатлари кўп экан. Билмадим, нима сабабдандир, Султон Абусаид мирзо уни Ҳиротдан сургун қилди. У Самарқандга борди. Неча йилки Самарқандда эди, Аҳмад Ҳожибек мураббий ва ҳомийси эди. Алишербекнинг мизожи нозиклик билан машҳурдир. Эл унинг нозик табиатлилигини давлатининг ғуруридан деб тасаввур қиларди. Ундай эмас экан. Бу сифат унда туғма экан. Самарқандда эканида ҳам ўшандай нозик мизож экан».

«Бобурнома»да улуғ шоирнинг давлат амалдори сифатида Ҳусайн Бойқарога садоқати ва саховати, унинг бир байти мазмуни ҳалокатига сабаб бўлган хасталикка ишора эканлиги ўта ихчам талқин этилади: “Аввалларн муҳрдор эди. Фаолиятининг ўрталарида бек бўлиб, бир қанча вақт Астрободда ҳокимлик қилди. Охири амалдорликни тарк этди. Мирзодан (Султон Ҳусайн Мирзодан) ҳеч нарса олмас, балки ҳар йили унга йирик-йирик маблағлар тортиқ қилар эди. Султон Ҳусайн мирзо Астробод лашкаридан қайтганда истиқболига чиқди. Мирзо билан кўриша туриб, ҳолати ўзгарди, тик туролмади, кўтариб олиб кетдилар. Табиблар унга асло ташхис қўя олмадилар. Эртасигаёқ Тангри раҳматиға борди”.

Бобурнинг Ҳиндистон мамлакатига юриши ҳақида ҳам “Бобурнома”да парча бор. У ҳам бўлса, Ҳиндистоннинг шимолий қисмини эгаллаган, Иброҳим Лўдий ва бошқа ҳинд саркардалари устидан ғалаба қозонган, аммо бу ўлканинг барча ҳудудларини ҳали эгаллашга улгурмаган Бобурнинг тўнғич ўғли Ҳумоюн мирзонинг элчиларига билдирган фикри

мавжуд. «...Тенгри таолодин умидвормизким, ўшул яқинда Ҳиндустон вилояти қўлга киргай. Ҳавохоҳ ва яхши фарох ҳавсалаларимиздин[29] Ҳиндустон вилоятиға қўюб, ўзумуз маврусий вилоятимизга борғаймиз. Ва керакким, бори халқимиз бу юрушда, Ҳумоюнға йўлдош бўлуб, ихлос кўрсатгайлар», деб ёзади у. Адиб ўзи шоҳ бўлса-да, яккаликка бардош ва чидам берганлиги, ўзини ғариб сезганлиги ҳақида умуман сўз юритмайди, балки буни Ватанга қайтиш орзуси орқали ифода этади, холос.

Қуйидаги рубоий эса, Бобурнинг ички оламини ўзида мужассамлаган, “Бобурнома” матнини шу жиҳатдан тўлдирганлигини кўрамиз.

Ёд этмас эмиш кишини ғурбатта киши,
Шод этмас эмиш кўнгулни меҳнатта киши.
Кўнглум бу ғарибликда шод ўлмади, оҳ,
Ғурбатта севинмас эмиш, албатта, киши.

Шунингдек, "Бобурнома" асари уч минтақа –Мовароуннаҳр, Афғонистон ва Ҳиндистон ҳақида кенг қамровли илмий билимлар беради. Мазкур асарда ушбу жойларнинг тарихи, географияси билан боғлиқ бўлган билимлар кенг ёритилади.

Асарда Самарқанд шаҳрига холис баҳо беришга ҳаракат қилади. Унинг фикрича, "Руби маскунда (жаҳонда -О.А.) Самарқандча латиф шаҳар камроқдир. Бешинчи иқлимдиндур. ... Самарқанд аҳли ҳазрати амирул мўминин Усмон замонида мусулмон бўлғондир. ... Мўғул ва турк улуси Семирканд (Семизқанд -О.А.) дерлар. Темурбек пойтахт қилиб эди. Темурбекдин бурун Темурбекдек улуғ шоҳ Самарқандни пойтахт қилғон эмастур. Қўрғонини фаслининг устидин буюрдимким, қадам урдилар. Ўнминг олти юз қадам чиқти. Эли тамом суний ва пок мазҳаб ва муташрри ва мутадаййин элдур” Бобур бошқалар қатори Самарқанд шаҳрининг географик жойлашуви ва географик ономастикасига (атоқли отлар номларини ўрганувчи фан) доир қимматли малумотлар беришга ҳаракат қилади. Жумладан, Самарқанд ва унинг атрофидан оқиб ўтувчи дарёлар (Жумладан, Кўҳак дарёси -Зарафшон -О.А.) ва каналлар, ариқлар номларининг маносини ёртишга ҳаракат қилади. Самарқанд атрофидаги қишлоқлар ва мавзеларни таърифлайди. Малумки, Самарқанд шаҳрининг юксалишида Амир Темур ва темурийларнинг ҳиссаси улкан. Шу даврда бунёд этилган Самарқанд шаҳридаги иморатлар уни гўзал шаҳарга айлантиради. Бобур асарда Амир Темур ва Темурийлар бунёд этган боғ-роғлар иморатлар йўл-кўприклар ҳақида кўплаб маълумотлар беради Амир Темур бунёд этган боғларни чиройли таърифлайди. Ҳар бир боғга алоҳида -алоҳида тавсифлар беради шу билан бирга Мирзо Улуғбек томонидан бунёд этилган расадхона ҳақида тўхталиб. "... Уч ошиёнлидир. Улуғбек Мирзо бу расад била Зичи Кўрагонини битиб турким, оламга холо бу зич музтаималдур" деб зикр этади. Самарқанд шаҳрига хос бўлган об-ҳаво, табиати, ва аҳолисининг ижтимоий машғулоти, маданиятини ёритишга уринади. Бобур бошқа шаҳар ва жойларни мутлақо камситмаган ҳолда Самарқанд ҳақида фахр ва ифтихор билан "Самарқанд шаҳри ажаб ораста шаҳредур, бу шаҳрда бир хусусият борким, ўзга кам шаҳарда андоқ бўлгай. Ҳар ҳирфагарнинг бир бошқа бозори бор,... . Оламда яхши қоғоз Самарқанддан чиқар" деб такидлайди. Дарҳақиқат, Самарқанд нафақат ўтмишда балки, бугун ҳам Мирзо Бобур зикр этганидек ер юзининг "сайқали" ва "гавҳаридур".

Юқорида биз фақат Бобур замондошларининг айримларининг Бобур келтирган таснифини кўрдик. Тарихий муҳит ва тарихий шахслар ҳақида тўлароқ билимларга эга бўлишни истасак Бобур асарларини чуқурроқ ўрганишимиз талаб этилади.

[29] Ҳавсала – бардош, тоқат, майл, рағбат.

Юртбошимиз таъкидлаганларидек, “Биз ўз олдимизга мамлакатимизда Учинчи Ренессанс пойдеворини барпо этишдек улуғ мақсадни қўйган эканмиз, бунинг учун янги Хоразмийлар, Берунийлар, Ибн Синолар, Улуғбеклар, Навоий ва Бобурларни тарбиялаб берадиган муҳит ва шароитларни яратишимиз керак. Бунда, аввало, таълим ва тарбияни ривожлантириш, соғлом турмуш тарзини қарор топтириш, илм-фан ва инновацияларни тараққий эттириш миллий ғоямизнинг асосий устунлари бўлиб хизмат қилиши лозим.

Ушбу мақсад йўлида ёшларимиз ўз олдига катта марраларни қўйиб, уларга эришишлари учун кенг имкониятлар яратиш ва ҳар томонлама кўмак бериш – барчамиз учун энг устувор вазифа бўлиши зарур. Шундагина фарзандларимиз халқимизнинг асрий орзу-умидларини рўёбга чиқарадиган буюк ва қудратли кучга айланади”.

Буюк аждодларимиз қолдирган улкан маънавий меъросни, уларда илгари сурилган ва улуғланган миллий қадриятларимиз, адолатпарварлик ва инсонпарварлик, ҳалоллик ва мардлик, жасорат ва фидойилик каби фазилатларни ёшларга мунтазам сингдириб боришимиз кундаги вазифа бўлиб қолмоғи лозим.

Адабиётлар:

1. “Бобурнома”. Т., “Юлдузча”. . 1990 йил.
2. Х. Қудратуллаев. “Бобурармони”, “Шарқ”. Т. 2005.
3. Р. Шамсутдинов, Ш. Каримов “Ватан тарихи” Иккинчи китоб Т. “Шарқ” 2003 йил.

«БОБУРНОМА» НИНГ ЎЗГА ТИЛЛАРГА ТАРЖИМАЛАРИ ХУСУСИДА

Иминова Д.
Андижон давлат университети катта ўқитувчиси

Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг «Бобурнома» асарига бўлган қизиқиш буюк бобокалонимизнинг ҳаётлигидаёқ бошланган бўлиб, ушбу асар турли даврларда ҳар хил илмий мақсадларда ўрганилиб, бир қатор халқларнинг тилларига таржима қилинган.

Дастлаб, мазкур асар форс тилига ўгирилган. Асарнинг форсча таржималари ичида Абдураҳимхон томонидан амалга оширилган ўгирма энг яхшиси ҳисобланади. Аслида, форс тилига таржима дастлаб, Шайх Зайниддин томонидан Бобурнинг вафотидан уч йил ўтгач бажарилади. Ундан кейин Абдураҳимхон, Поянда Ҳасан ва Муҳаммад қули таржималари пайдо бўлади.

Бобур ва унинг ёдномаси ҳақидаги хабар Ғарбга XVII асрда овоза бўлган. «Бобурнома» билан танишиб чиққан европаликларни, асар ўзининг кенг, чуқур мазмуни, гўзал услуби билан ҳайратга солади.

«Бобурнома»ни Европадаги дастлабки таржимаси 1705 йилда Голландияда Витсен томонидан амалга оширилган. 1826 йилда «Бобурнома» инглиз шарқшунослари У. Эрскин, Джон Лейден ҳамда М. Элфинстонлар томонидан ўрганиб чиқилиб, инглиз тилига ўгирилади. Кейинроқ Аннетт Беверидж томонидан «Бобурнома»нинг Ҳайдаробод қўлёзмаси асосида инглизча таржимаси амалга оширилди ва 1922 йилда чоп этилди ҳамда 1969 йилда Лондонда қайта нашр қилинди[1.299].

Инглизлар Ҳиндистонни босиб олиш учун қилган биринчи юришлари муваффақиятсизликка учраганларидан сўнг тарихга назар солиб, Бобур Мирзонинг тактикасини қўллайдилар ва ғалаба қозонадилар. Инглизлар бундай ғалаба келтирувчи жангни тарихда “Бобурнинг жанг услуби” деб атаганлар[2. 10-11].

1828 йилда Лейпцигда, И. Кайзер томонидан таржима қилинган «Бобурнома»нинг немисча нашри, босиб чиқарилди. 1857 йилда Қозонда «Бобурнома»ни матни Н.Ильминский томонидан нашр қилинди. Ушбу ҳолат «Бобурнома»ни Россияда ўрганиш учун кенг истиқболлар очиб берди. 1871 йилда асарнинг французча таржимаси пайдо бўлади. Бу таржима шарқшунос олим, француз коллегияси профессори Паве де Куртейлга тегишлидир.

Бу таржималарда ютуқлар ҳам қўлга киритилган, баъзан камчиликлар ҳам учраб туради, шунга қарамай ҳозирги кунда «Бобурнома»нинг бу таржималари жаҳон кутубхоналарининг ноёб мулкига айланган.

«Бобурнома» ажойиб тарихий-адабий ёдгорлик сифатида, XVIII асрнинг биринчи ярмидан бошлаб рус шарқшунос олимларининг эътиборини ўзига тортиб келади. «Бобурнома» таржимаси билан таниқли шарқшунос олимлар, юксак маданият эгалари, асл нусха тилини яхши билган ташаббускорлар шуғулланганлар.

1875 йилда “Вестник Европы” журналида «Бобурнома»нинг Фарғона таърифига бағишланган қисмини таржимаси босилиб чиқади. Бу асарнинг рус тилига қилинган биринчи таржимасидир, унинг муаллифи Ўрта Осиё тарихи ва археологияси бўйича мутахассис, академик Н.Ф. Петровский бўлиб, у ўз олдига қўйган масалани етарли даражада аниқликда ва бадиийликда бажаради. У таржимада асл нусха мазмунини аниқ сатр ости изоҳлари билан беради. Лекин бу таржима асл нусхадан эмас, балки «Бобурнома»нинг инглизча таржимасидан ўгирилган, шунинг учун «Бобурнома»нинг инглизча таржимаси муаллифлари Ж. Лейден ва У. Эрскинлар йўл қўйган хатолар русча таржимага ҳам айнан кўчиб ўтди.

1880 йилда рус китобхонлари таниқли рус археологи, этнографи, фольклоршуноси ва географи Н.Н.Пантусов томонидан ўгирилган «Бобурнома»нинг бир парчаси билан танишадилар. Бу парча “Фарғона Султон Бобур ёзмасида” деб номланган бўлиб, жиддий эътиборга лойиқ изоҳлар ва тушунтиришлар билан тўлдирилган. Пантусов таржимаси Петровский ўгирмасидан янада аниқлиги ва асл нусхага мувофиқлиги билан ажралиб туради.

Орадан 15 йил ўтгач, яъни 1895 йилда Б. Островский томонидан Паве де Куртейлнинг французча таржимасидан ўгирилган “Самарқанд Султон Бобур ёзмасида” деб номланган таржимаси босилиб чиқади.

1896 йили “Ўтмиш Самарқанд ва унинг атрофи Султон Бобур мирзо таърифида” деб номланган «Бобурнома»дан бир қисм русча таржимада босилиб чиқарилади. Бу таржима ўз вақтида В.В. Бартольд томонидан “Самарқанд ёдгорликларининг энг билимдони” деган муносиб таҳсинга сазовор бўлган В.Л.Вяткинга тегишлидир.

«Бобурнома»нинг турли таржимонлар томонидан амалга оширилган таржималаридан Островский ва Вяткин таржималари асл нусхага яқинроқлиги, унда асарнинг табиийлиги, тилининг соддалиги, миллий ҳусусиятларини ўзига хос мажмуини яхши сақланганлиги билан ажралиб туради.

1904 йилда «Бобурнома»нинг яна бир русча таржимаси амалга оширилади. Бу ўгирма Фарғона вилояти ҳарбий губернаторининг таржимони С.И. Поляковга тегишли бўлиб, таржимага кўз югуртирган китобхон, унда таржимоннинг сўз ва жумлаларни ҳамма вақт ҳам тўғри тушунавермаганлигини гувоҳи бўлади, кўплаб китобхонларга тушунарсиз бўлган хос сўзларга ҳам изоҳлар берилмаган.

Асарнинг русча таржималари дастлабки босқичда таништирув табиатига эга бўлиб, бу нарса давр тақозоси билан асосий ўринда турган. Таржимонлар таржимага ўша давр рус китобхонларини, уларнинг савия даражасини ҳисобга олган ҳолда, ёндашиб иш тутадилар. Улар «Бобурнома»нинг бой маълумотлари билан китобхон оммасини таништиришни ўз

олдига мақсад қилиб қўядилар. Бобур услубини таржимада акс эттириш масаласига эса етарли эътибор берилмайди.

Октябрь тўнтаришидан кейинги даврда, хусусан 1939 йилда П.И. Петров ҳам «Бобурнома»ни рус тилига ўгириб чиқади. «Бобурнома»нинг турли ўлкаларга тегишли қисмларини таржима қилиб, Бобурнинг бошидан кечирган воқеаларини ҳикоя қилиш усулида бериб амалга оширилган Петров таржимаси, ҳажмини тўлиқлиги билан бошқа русча таржималардан ажралиб туради. Асарнинг бу русча таржимаси «Бобурнома»нинг кенг оммавийлашиб кетишига сабаб бўлади.

Моҳир, тажрибали таржимон Михаил Александрович Салье ҳам «Бобурнома»ни рус тилига ўгириб чиқади. Бу таржима ҳозирги кунда энг тўла қонли, оргиналига яқин, асл нусханинг қимматини ўзида акс эттирган таржима аср ҳисобланади.

Михаил Салье, асл нусха матнни тўлиқ таржима қилиш билан бирга, муаллиф таржимада Бобур услубини акс эттириш масаласига жиддий эътибор беради. «Бобурнома»да Андижон шаҳрига “Тўққуз тарнов сув кирар. Бу ажабтурким, бир ердин ҳам чиқмас” деб ёзилган[3.60]. Михаил Сальенинг таржимасидан Бобурнинг услубига хос лўндаликни, ихчамликни, мухтасарликни сезиб олиш мумкин: “Вода поступает в город по десяти каналам, самое удивительное, что она потом не выходит ни одном месте”.

М.А.Салье томонидан «Бобурнома»ни рус тилига ўгирилган таржимаси 1958 ва 1993 йилларда Тошкентда чоп этилган.

Таниқли олима, тарих фанлари доктори, академик Сабоҳат Азимжонованинг бобуршуносликда хизматлари алоҳидадир. Ярим асрдан зиёд давом этган илмий фаолият мобайнида номзодлик ва докторлик диссертациялари, ўнлаб рисола ва мақолалари Бобур Мирзонинг ҳаёти ва ижоди, хусусан, “Бобурнома”ни ўрганишга бағишланган. С.Азимжонова халқаро миқёсда шуҳрат қозонган олимадир. 1980 йилда Мирзо Бобурнинг 500 йиллиги муносабати билан ЮНЕСКО нашр этган “Бобурнома”да француз, ҳинд, афғон олимлари билан бир қаторда С.Азимжонованинг ҳам иштирок этиши унинг бобуршуносликдаги хизматларини жаҳон миқёсида тан олинганлигидан далолатдир[4.30].

«Бобурнома» асаридаги маълумотлардан фойдаланган, жаҳонга машҳур олимларнинг кўпчилиги Бобурга, истеъдодли, серқиррали, танқидий ёндашадиган тарихчи сифатида, юқори баҳо беришган. Бобурнинг хотира ва эсдаликлари, жаҳондаги турли мамлакатларнигш мутахассисларини янада ўзига жалб қилиб, уларнинг диққат-эътиборини тортиб келмоқда[5.11].

1993 йили, америкалик шарқшунос, Ҳарвард университети профессори, форс ва араб тиллари билимдони, яқин шарқ тиллари, адабиётлари ва маданиятлари бўйича бир қатор рисола ҳамда мақолалар муаллифи Уиллер Макентош Текстон томонидан чиғатой асли, Абдураҳим Хон Хононнинг форсча таржимаси ва инглизчаси билан «Бобурнома»нинг учинчи тўлиқ таржимаси университетнинг маданият бўлими томонидан чоп этилади[6.155].

Мисрлик тарихчи ва шарқшунос олима Доктор Магда Салаҳ Маҳлуф, «Бобурнома» жаҳон маданияти тарихида ўлмас тарихий ва адабий қимматга эга асар сифатида муносиб ўрин эгаллайди. Шу сабабдан ҳам у жаҳоннинг инглиз, француз, урду, форс, туркий ва бошқа тилларига таржима қилинган. Биз эса бу асарни араб тилига ўгирдик, деб таъкидлайди[7.29].

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, юқорида таъкидлаб ўтилган таржималар «Бобурнома» таржимасининг мукаммаллашиб боришида босқич вазифасини ўтаб келди ва Бобир Мирзонинг ўзга тилли китобхонлар қалбидан мустаҳкам ўрин олишида, шубҳасиз, муҳим роль ўйнади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Машрабов З. Бори этга яхшилиғ қилғил... Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги НМИУ, 2013.
2. Ходжаева Л.У, Отажонов Н. История узбекско-русских литературных связей (на материале переводов «Бабурнаме» на русский язык). - Ташкент, 1988.
3. Заҳириддин Муҳаммад Бобир. Бобирнома. – Тошкент, ЎзР ФА нашриёти, 1960.
4. Ходжаева Т.А. Ўзбекистон ва Ҳиндистон адабий алоқалари тарихидан. Монография. ТДШИ. Тошкент, 2011.
5. Азимджанова С.А. Государство Бабура в Кабуле и в Индии. «Наука», Москва, 1977.
6. Мирсайдуллаев М. Бобурнинг касаллик тарихи. – Тошкент, MUMTOZ So'Z, 2013.
7. Доктор Магда Салаҳ Маҳлуф. «Бобурнома»нинг жаҳон маданияти тарихида тутган ўрни. “Бобур ва Бобурийларнинг жаҳон маданияти тарихида тутган ўрни” мавзуидаги халқаро илмий анжуман материаллари. Тошкент, «Фан» нашриёти, 2008.

ILM-FAN RIVOJIDA «BOBURNOMA» ASARINING DOLZARBLIGI VA TARBIYAVIY AHAMIYATI

Xurramov A.I.
Chirchiq oily tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti o‘qituvchisi
Ilhomov J.I.
Chirchiq oily tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti kursanti

Jahon adabiyotida memuar janrning mukammal namunasi hisoblangan «Boburnoma» tarixiy-badiiy manba sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birgalikda, u ilm-fanning ko‘plab sohalari haqida ma’lumot beruvchi qomusiy asar hisoblanadi. «Boburnoma» xorijiy tadqiqotchilarning e’tiborini o‘ziga tortganligi bois asar bir qancha chet tillarga tarjima qilingan. «Boburnoma» bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar salmog‘i ham asarning qimmatini belgilaydi. «Boburnoma» voqealari tasvirida o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy hayotida ko‘zga ko‘ringan alohida shaxslarning mavqei birinchi planga ko‘tariladi, xarakterlar yaratishdagi ranginlik, g‘olib va mag‘lub shaxs ruhiy holatini tasvirlashdagi betakrorlik, tasvir etilgan ziddiyatlar zamiridagi jasorat va qo‘rqoqlik, mardlik va xiyonat, g‘oliblik shukuhi va mag‘lublik iztirobi o‘rin almashib turadi. Tarixiy shaxslar ruhiyatidagi murakkab holatlar, psixologik jarayonlar, qahramonlar ma’naviy olami yoritilgan muammolarni tadqiq etish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Jahon adabiyotshunosligida bugungi kunda «Boburnoma» qo‘lyozma nusxalarining ko‘plab tadqiq etilayotganligi, undagi tarixiy faktlar asosida badiiy, tarixiy, publitsistik asarlar yaratishga bo‘lgan e’tiborning kuchayayotganligi asarning olamshumul ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. «Boburnoma» dunyoning ko‘plab milliy tillariga tarjima qilinib, qayta-qayta nashr etilayotgani ham buning yaqqol dalilidir. Binobarin, «Boburnoma»ning g‘oyaviy-badiiy mazmun ko‘lami, muallif shaxsiyati, o‘ziga xos tasvir uslubi, badiiy mahorat, g‘olib va mag‘lub shaxs ruhiy holati tasviri muammolarini zamonaviy tahlil metodlari asosida ilmiy tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz miqyosida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, adabiyot va ma’naviyatga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilayotganligi o‘zbek adabiyotining klassik namunalarini yangicha ruhda tadqiq etishni talab qilmoqda. O‘zbek adabiyotshunosligida mavjud mumtoz adabiy an’analar bilan bir qatorda,jahon adabiyotshunosligidagi yangicha tamoyil va metodlarni ijodiy o‘zlashtirish, ularni tadqiqotlarda faol qo‘llash ko‘nikmasi shakllanib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ- 2909-son «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori, 2017 yil 24 maydagi PQ-2995-son «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori, 2017 yil 20 iyundagi PQ-3074-son «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazini tashkil etish to‘g‘risida»gi Qarori, 2017 yil 7 fevraldagi PF- 4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha «Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 24 iyuldagi 571-son «Samarqand davlat universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 oktyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 29 oktyabrdagi O‘RQ-576-son «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida»gi Qonuni, 2020 yil 24 yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tarbiyaviy va mukammal asar muayyan darajada xizmat qiladi [1].

Bobur va boburiylarning adabiy faoliyati, «Boburnoma»ning turkiy nasr namunasi ekanligi, uning tarixiylik, badiiylik xususiyatlari ilmiy isbotlangan (Oxford, Cambridge Universitiy); Bobur asarlari jahon ilm fanining nodir adabiy merosi sifatida muhim ahamiyat kasb etishi ilmiy va nazariy jihatdan asoslangan (California University); Bobur va boburiylarning jahon ilm-fani, adabiyoti, madaniyatini rivojlantirishdagi roli, jahon adabiyotshunosligida tarixiylik va badiiy talqin masalasi, Boburning o‘ziga xos tasvirlash uslubi aniqlangan (Jawaharlal Nehru University); «Boburnoma»ning jahon tarixida tutgan o‘rni, muallif shaxsiyati masalasi asoslangan (Eötvös Loránd University); «Boburnoma» asari nusxalarining qiyosiy tahlili, asarning jahon tarixi uchun muhim manba ekani isbotlangan (Cumhuriyet, Kocaeli Üniversitesi); «Boburnoma»ning tarjimalari, asarning o‘ziga xos xususiyatlari, asardagi tarixiy shaxslar tasviri va talqini masalasi nazariy jihatdan isbotlangan (Azerbaycan Milli Ilimler Akademisi, Baki Dövlət Universiteti); Bobur hayotiy faoliyati va «Boburnoma» bo‘yicha dunyo mamlakatlarida amalga oshirilgan tadqiqotlar bibliografiyasi tuzilgan hamda asarning jahon adabiyotiga ta’siri isbotlangan (Institut vostokovedeniya RAN); «Boburnoma»ning badiiylik xususiyatlari, uning qiyosiy tahlili, asarda shaxs ruhiyati talqini masalalari asoslangan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zbekiston) [2,3].

Bobur o‘z davrining siyosiy hukmdori bo‘lish bilan birga, nozik didli ijodkor ham edi. «Boburnoma»ning ko‘p o‘rinlarida bu jihat yorqin aks etadi. Mazkur masala birinchi galda Boburning tarixni anglashi bilan bog‘liq. Bobur yashagan davr tarix maydonidagi murakkab, keskin va ziddiyatli hodisalarga boy bo‘lib, umazkur siyosiy-ijtimoiy jarayonda har tomonlama toblandi. Akademik V. Zohidov ta’rifi bilan aytganda: «Bobir tarix maydonida paydo bo‘lgan davr juda katta, murakab va ziddiyatli hodisalarga to‘la edi. Bobirning ilmiy va adabiy faoliyati ana shu hodisalarga bog‘liq bo‘lib, uning taqdirida o‘sha hodisalar katta rol o‘ynagan. «Boburnoma»da 1494 yil voqealaridan boshlab Movarounnahr va Osiyoning boshqa hududlar tarixi yoritilsa-da, undagi voqealar dinamikasi avvalgi va keyingi davrlarni ham qamrab oladi. Boburning fikr doirasi nihoyatda keng,eruditsiyasi juda chuqur, xotirasi kishini hayratda qoldiradigan darajada kuchli edi. Uni koinotu tabiatdagi barcha hodisa va sohalar qiziqtirgan, hamma vaqt kamolotga va yangilikka intilib yashagan. XV asr va XVI asrning boshlaridagi muhim ijtimoiy-siyosiy hodisalar Xuroson va Movarounnahrda bo‘lib o‘tgan toj-taxt uchun kurashlar avjiga chiqqan vaqtda yosh Bobur Mirzo otasi Umarshayx mirzoning fojiali vafotidan keyin Farg‘ona viloyatiga podshoh bo‘ladi. «Garchi

Bobur mirzo qonuniy taxt vorisi bo‘lsa ham hech kutilmaganda 12 yoshida podshoh bo‘lib qolishi uning aqliy jihatdan ertaroq ulg‘ayib yetilishiga, insoniy fazilatiyu, diniy e’tiqodining nisbatan erta rivojlanib takomillashuviga sezilarli turtki bo‘ldi». Bobur chigal siyosiy, ijtimoiy, tarixiy vaziyatda taxtga o‘tiradi. «Movarounnahr tuprog‘ida avj olgan o‘zaro janglarda Bobur Mirzo ham qatnashishga majbur edi». Bolalik davridagi jangu jadallar, siyosiy to‘qnashuvlar Boburni har tomonlama chiniqtirdi.

Asarning ikkinchi faslida «Husayn Boyqaroning g‘oliblik va mag‘lublik ruhiy holati tasviri» tahlil etildi. Tadqiq etilayotgan davr tarixida o‘zining harbiy qudrati, hukmronlik mavqei, madaniy va adabiy muhit yaratuvchisi hamda ilmiy va ijodiy salohiyati bilan alohida o‘rin tutadigan temuriylar sulolasining vakili, shubhasiz, Husayn Boyqaro edi. U Xuroson hukmdori sifatida mamlakat obodligi, ilm-fan, madaniyat va adabiyot rivojiga ulkan hissa qo‘shgan ma’rifatparvar shoh, shuningdek iste’dodli shoir sifatida ham o‘zidan munosib nom qoldirdi [4].

«Boburnoma»da muallifning Husayn Boyqaro haqida keltirgan ma’lumotlari SHayboniyxon haqidagi qarashlaridan jiddiy farq qiladi. Bobur Shayboniyxonni bir marta jang maydonida yuzma-yuz ko‘rgan. U bilan bir zamon va makonda yashab, Movarounnahr hamda Xuroson hududidagi janglarda g‘oyibona uchrashgan, o‘zaro kurashlar olib borgan, uning fe’li atvori haqida o‘z davrining bek-a’yonlari va lashkarlaridan eshitgan. Ammo Bobur Husayn Boyqaro bilan biror marta ham yuzma-yuz uchrashmagan. U haqidagi ma’lumotlarni kimdandir eshitgan, surishtirib bilgan yoki biror manba asosida bayon etgan. Umuman, muallifning bu shaxs haqidagi fikrlari temuriylar saltanatida Husayn Boyqaroning tutgan o‘rni, uning davlatchiligi va siyosat yuritishi bo‘yicha ma’lumotlar Boburning shaxsiy mulohazalaridek taassurot uyg‘otadi. «Boburnoma»da 1496-1497 yillar voqealaridan boshlab Sulton Husayn Boyqaroning nomi tez-tez uchray boshlaydi. Aynan shu vaqtga kelib Husayn Boyqaroning o‘g‘li Badi’uzzamon mirzo va boshqa farzandlari bilan toj-taxt uchun kurash jiddiylashib boradi. Bu davrda Hirot saltanatida shahzodalarning Husayn Boyqaro amriga itoat etmaslik, saltanatga qarshi oshkora kurashish holatlari sodir bo‘ladiki, bu jarayonlar xususida Bobur: «Oxir otaliq, o‘g‘ulluk orasida bu guftugo‘ylar anga munjar bo‘ldukim, otasi otasining ustiga va o‘g‘li o‘g‘lining ustiga Balx va Astrobodqa cherik torttilar», - deb yozadi.Bobur Husayn Boyqaroning hukmronlik davri, shaxsiyati haqida fikr yuritar ekan, shuncha yil umrini g‘oliblikda kechirgan Xuroson sultonining ham g‘olib va sururli damlarini, ham nobop o‘g‘illari tufayli fojiali fursatlarini tasvirlab beradi. Bobur temuriy shahzodalar, xususan, Husayn Boyqaro o‘g‘illarining xislati va xarakteri haqida fikr yuritar ekan, har bir davr uchun nojoiz bo‘lgan maishiy buzuqlik, mayparastlikni qoralaydi.

Bobur o‘z asari muqaddimasida «har qanday vaziyatda ham faqat rost gapni aytish» kerakligini ta’kidlaydi. Bu holat Husayn Boyqaro shaxsiyati tasviri tahlilida yana bir bor namoyon bo‘ldi. Bobur bu siymo haqida fikr yuritar ekan, o‘zining tasvirlash uslubidan chekinmagan holda har qanday voqelikni, faktni faqat ro‘yi rost ifoda etadi. Chunki bu Boburning qalb amri, mustahkam e’tiqodi hosilasidir [5].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017 йил 22 декбрдаги Олий Мажлисга мурожаатномаси // Халқ сўзи, 2017 йил 23декабрь. №258 (6952).

2. Салоҳий Д. Бобурнинг буюк эътиқоди. – Самарқанд, 2019. – Б. 88.

3. Издательство восточной литературы, 2016. – Б. 1180; А. Иброҳимов. Бобурийлар мероси. – Т.: Фан, 1998.

4. Бобурнинг адабий-эстетик қарашлари. – Тошкент: Фан, 1983.

5. М.Абдуллаева. «Бобурнома» ва «Шажараи турк»нинг қиёсий-типологик таҳлили. Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 2004.

“BOBURNOMA” – DUNYO OLIMLARI NIGOHIDA

Karimov A.
NamDU talabasi

14-fevral kuni yurtimizda buyuk shoir va ma’rifatparvar davlat arbobi, iste’dodli sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan kun sifatida nishonlanadi. Bobur adabiyotshunos, tarixchi, olim va shoir sifatida xalqimiz ma’naviy hayotida munosib o‘rin egalladi. Bobur o‘zining faoliyati davomida dunyo ilm-fani va san’atiga munosib hissa qo‘shdi. Uning “Mubayyin al-zakot”, “Muxtasar”, “Harb ishi”, “Musiqa ilmi”, “Kobul devoni”, “Hind devoni”, “Boburnoma” va boshqa asarlari o‘zbek adabiy hamda badiiy tafakkurining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatdi. “Boburnoma” asari haqli ravishda uning ijodining eng yuqori cho‘qqisi hisoblanadi.

“Boburnoma” – o‘zbek va umumturkiy adabiyotining dunyoga ma’lum va mashhur qomusiy asari. Bu memuarda O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Hindiston xalqlarining tarixi, madaniyati, qadriyatlari, o‘ziga xos xususiyatlaridan tortib, tabiati, geografiyasi, hayvonot va nabotot olami to‘g‘risida bebaho ma’lumotlar mavjud. Bundan tashqari bu asar o‘sha davr hayotining ko‘plab jihatlari bo‘yicha ilmiy ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan o‘ziga xos ensiklopediya hisoblanadi. Asar “Tuzuki Boburiy”, “Voqeoti Boburiy”, “Voqeanoma” kabi nomlar bilan ham ataladi. “Boburnoma” ning o‘ndan ziyod qo‘lyozma nusxasi ma’lum. Bobur hayotlik davridayoq ko‘chirilgan ikki nusxasi haqida ma’lumotlar bo‘ls-da, ular qayerda saqlanayotganligi ma’lum emas. Bobur asarining XVII – XVIII asrlarda ko‘chirilgan nusxalari Leningrad, Kalkutta, Agra, Haydarobod, Manchester, London, Edinburg va boshqa joylarda saqlanmoqda.

“Boburnoma” 1586-yilda forsiy tilga tarjima qilinadi. 1705-yilda Vitsen tomonidan asarning bir qismi Gollandiyada nashr etiladi. Jon Leyden va U.Erskinlar asarning turkiycha va forsiycha nusxalarini solishtirib ingliz tiliga tarjima qilishadi hamda 1826-yilda Londonda nashr ettirishadi” [1]. A.Kayzer tomonidan nemis tiliga tarjima qilingan. Rashid Rahmat turk tiliga va Mixail Salyelar asarni rus tiliga tarjima qilishgan. 1857-yilda “Boburnoma”ni Qozonda turkiyshunos olim N.Ilminskiy tomonidan nashr etiladi. Asar 1826 – 1985-yillarda 4 marta ingliz tilida, 3 marta fransuz tilida, 1 marta nemis tilida nashr etilgan. Keyingi yillarda asar professsor V. Takston tomonidan AQSh da (1993) va Yaponiyada (1995 – 1996) nashr etildi [2]. Umumiy olganda “Boburnoma” asari bugungi kungacha dunyoning 25 ta tiliga tarjima qilingan.

Hind olimi, Kashmir universiteti professori Muhobbul Hasan “Boburnoma” xususida fikr bildirar ekan, bu asarning Bobur shaxsiyati va davlat tizimini o‘rganishdagina emas, balki Hindiston tarixi, geografiyasi va madaniyatini o‘rganishda ham qimmatbaho manba ekanini, Hindistonni, uning xalqi hayotini tasvirlashda muallif idrokining naqadar o‘tkirligini ta’kidlab o‘tadi.

Bobur hayoti va ijodi Fransiyada ham keng o‘rganilgan bo‘lib, Fransiya ilm ahliga Zahiriddin Muhammad Bobur va “Boburnoma” haqida dastavval ma’lumot bergan fransuz sharqshunosi Bartoleme D’Erbelo (1621 – 1695) hisoblanadi. D’Erbelo o‘zining “Bobur yoki Bobar” nomli maqolasida Boburning hayoti, uning davlati va sarkardalik mahorati, adabiyot va san’atga qiziquvchi ilgor fikrli kishi bo‘lgani haqida ma’lumot beradi. “XIX asrga kelib Yevropa, xususan, fransuz sharqshunosligida Bobur merosini o‘rganish, uning asarlarini tarjima qilish borasida yangi davr boshlandi. Ayni shu yillarda Boburning ulkan asari “Boburnoma”ni fransuz tiliga tarjima qilish, uning matn xususiyatlarini o‘rganish, siyosiy-tarixiy ahamiyatini baholashda fransuz olimlari e’tiborga molik tadqiqotlarni yaratishdi” [3]. “Boburnoma”ni fransuz tiliga tarjima va tadqiq qilishga sharqshunos Anri Jyul Klaprot (1783 – 1835) birinchilardan bo‘lib harakatni boshlaydi. 1824-yil A.Klaprotning “Sulton Bobur yohud “Boburnoma” tarixiga oid kuzatishlar” nomli

maqolasi omma e’tiboriga havola etadi. Markaziy Osiyo va Sibirda yashagan xalqlar tarixi, madaniyati va adabiyotini yaxshi bilgan Klaprot Yevropa sharqshunosligida “Boburnoma” xususida ilk bor to‘laqonli fikr yuritgan edi. Shundan so‘ng 1854-yili Parijda “Hozirda va qadimda yashagan tarixiy shaxslar hayoti” nomli katta kitob chop qilinadi. Mazkur kitobdan sharqshunos M.Langle (1763 – 1824) ning “Zahiriddin Bobur hayoti va ijodi” nomli maqolasi ham o‘rin olgan edi. Maqolada Bobur haqida avvalgi manbalarga nisbatan ancha boy ma’lumot berilgan bolib, o‘quvchi undan adib hayoti va ijodi togrisida chuqurroq bilim olishga muvaffaq boladi. Boburning hayoti va ijodi fransuz kitobxonini tobora qiziqtirib bormoqda edi. Fransuz olimlari so‘nggi yillarda Bobur to‘grisida tez-tez maqolalar chop ettirar, kitoblar nashr qildirardi. Zahiriddin Muhammad Bobur merosini o‘rganish, “Boburnoma”ni tarjima va lisoniy tarjima qilishda fransuz turkologi Anri pave de Kurteyl (1821 – 1889)ning xizmatlari alohida tahsinga loyiq [4]. Fransuz kolleji (College de France) turkiy tillar kafedrasi mudiri, fransuz akademiyasi a’zosi, Sankt-peterburg fanlar akademiyasi muxbir a’zosi bolgan Pave de Kurteyl vatani Fransiyada turkologiya ilmining rivojlanishiga ulkan hissa qoshdi. Professor A.Pave de Kurteylning olimlik faoliyatida u tuzgan “Sharqiy-turkiy tillar lugati” (“Dictionnaire de turc orientale”. – Paris, 1870) yohud “Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur va Abulgozi Bahodirxon asarlarini o‘qish uchun izohli lugat” alohida ahamiyatga molikdir. Professor A.Pave de Kurteyldagi bu katta tayyorgarlik, eski o‘zbek tili va adbiyotidan egallagan puxta bilim uni “Boburnoma”ni tarjima qilishga undagan edi. 1871-yilda “Boburnoma”ning Pave de Kurteyl tarjimasi ikki jildda nashrdan chiqdi . Birinchi jildda tarjimonning o‘n olti sahifalik so‘zboshisi berilgan. Unda “Boburnoma”ning yozilish jarayoni, kitobda keltirilgan voqealar, Bobur shohning Afgoniston va Hindistonda barpo etgan qudratli imperiyasi xususida ma’lumotlar berilgan. G‘arblik ayrim olimlar “Boburnoma”ning bunyod bo‘lishini Bobur Hindistonda hukmron bo‘lgan davr bilan bog‘laydilar. Fransuz tarjimoni bu haqda quyidagi fikrni aytadi: “Agar mendan “Boburnoma” qaysi davrda yozilgan deb sorasalar, men kitob Bobur Hindistonni zabt etgandan so‘ng, ya’ni 1526-yildan boshlab yozilgan va Bobur shoh hayotining oxirigacha davom etgan, deb javob qilardim”. Professor Pave de Kurteyl bunday xulosaga kelishida, asarning dastlabki boblaridanoq Hindiston davri voqealarining uchrab turishini nazarda tutgan edi. Shunday qilib, Pave de Kurteyl Zahiriddin Muhammad Boburning merosini Fransiyada o‘rganish va targ‘ib qilishda o‘zining yuksak xizmatlari bilan katta hissa qoshdi. “Boburnoma”ning tarjimoni sifatida mashhur boldi. Olim boshlagan bu tarjimonlik ishi jahon ahliga manzur boldi va Bobur hayotini ko‘plab olimlar tomonidan doimiy ravishda o‘rganilishiga sabab boldi.

Venger sharqshunosi Herman Vamberi o‘zining “Buxoro va Transaksoniya” asarida “Boburnoma”ni “Sharq Sezarining xotiralari” deb baholaydi. Yaponiyalik yirik boburshunos olim Eyji Mano “Boburnoma”ni “ma’lumotlar xazinasi” deb atagan bo‘lsa, angliyalik boburshunos Beverij xonim “Butun tarixda yaratilgan yozma yodgorliklarning eng bebahosidir” deydi. Germaniyalik boburshunos Klaus Shoning esa “Boburnoma” ga baho berib “Mukammal tizimdagi xalq tilida yozilgan eng katta hajmdagi asardir” deya ta’kidlaydi. Bundan tashqari Veselovskiy, Ilminskiy, Erskin, Eduard Xolden, Elfiniston kabi rus va g‘arbiy yevropa olimlari “Boburnoma”ni yuqori baholashadi. Yaponiya, Hindiston, Turkiya, Afg‘aniston, yevropalik olimlar bilan hamkorlikda yurtimizda “Bobur ensiklopediyasi” yaratildi. Ushbu ensiklopediyaga Enji Mano “butun dunyo boburshunoslari uchun muhim qo‘llanma bo‘ladi deya” baho berdi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak o‘zbek xalqi hali ham Markaziy Osiyo, Afg‘aniston va Hindiston xalqlari o‘rtasidagi madaniy aloqalarni bog‘lab turgan buyuk shoir va yuksak davlat arbobi Bobur bilan faxrlanadi. Uning ijodining gultoji hisoblangan “Boburnoma” asari hozirgi kunga qadar ko‘plab dunyo olimlari tomonidan o‘rganildi hamda turli tillarga tarjima qilindi.

Bundan ko‘rinib turibdiki asar nafaqat sharq olimlari uchun balki g‘arblik olimlari uchun qiziqarli va izlanish uchun munosib tarzda yozilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. www.uzbekembassy.ir/great.aspx
2. https:/uz.m.wikipedia.org/wiki/Boburnoma
3. https://uchildiz.uz/bobur-merosi-jahon-olimlari-nigohida/

“BOBURNOMA” HAQIDA QISQACHA MULOHAZALAR

Mamasidiqov F.
NamDU talabasi

Temuriylar! Bu ulkan sulola hukmronlik qilgan davrga mana 6-7 asr bo‘ldi. Amir Temur vafotidan keyin uning avlodlari ichidan taxtga munosiblari sanoqli edi. Shunday zotlardan biri Zahiriddin Muhammad Boburdir.

Zahiriddin Muhammad Bobur – o‘zbek tarixi va mumtoz adabiyotining yirik vakili, buyuk shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, iste’dodli sarkarda, boburiylar sulolasi asoschisi, temuriy shahzoda. Bobur o‘z davrining buyuk shaxslaridan biridir. Uning she'rlari, ruboiylari o‘z vaqtida va hozir ham sevib oqilmoqda. Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub asarlaridan eng mashhuri – “Boburnoma” dir.

“Boburnoma” – adabiy va tarixiy ahamiyatga molik asar. Unda o‘z davridagi ko‘plab kishilarning turli vaziyatlardagi kechinmalari, Osiyoning ko‘plab tog‘lari, daryolari, o‘rmon va cho‘llari, iqlimi, aholisi, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy ahvoli haqidagi ma’lumotlar jamlangan. “Boburnoma” – o‘zbek nasrining go‘zal namunasi. Ungacha Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari muqaddimasida, Rabg‘uziy ijodida nasr namunalari uchrar edi. Alisher Navoiy uni yuqori pog‘onaga olib chiqdi. Biroq “Boburnoma” bu borada o‘zbek nasrining o‘ziga xos kashfiyoti sifatida yuz ko‘rsatdi. Asarda tarixning Bobur yashab o‘tgan davri voqelari ifodalangan. Bu voqealar Andijon, Samarqand, Xo‘jand, Hirotdan boshlab Kobul va Agragacha bo‘lgan qamrovga ega [2]. Ya’ni unda O‘rta Osiyodan boshlab Hindistongacha bo‘lgan masofadagi deyarli 50 yillik voqealar haqqoniy ifoda va bahosini topgan. “Boburnoma”dagi voqealar bayoni aniq, ixcham va lo‘nda, ta’sirchan, eng muhimi, hayotiy haqiqatga mos va muvofiqligi bilan e’tiborlidir. Bobur voqealar bayonida tabiat tasviriga, ayrim joylar tavsifiga, alohida kishilarning ta’riflariga jiddiy ahamiyat beradi. Asarda o‘sha davr kishilarining haqqoniy, realistik tasviri berilgan. Bu narsa Boburning bergan ma’lumotlaridagi ishonchlilikni ta’minlagan.

Asar bilan yaxshi tanishish Bobur xarakterini, undagi fazilatlar manbalarni aniqlashga imkon beradi. Bobur o‘z otasi haqida shunday yozadi: “…hanafiy mazhabliq, pokiza e’tiqodliq kishi edi… Ravon savodi bor edi” [3]. Bobur ko‘plab hukmdorlar, mamlakat boshliqlari haqidagi tarixiy faktlarni muhrlab qoldirgan. Amir Temur, Umarshayx, Mirzo Ulug‘bek, Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Badiuzzamon, Muzaffar Mirzo singari davlat boshliqlarining siyosiy-ijtimoiy faoliyatlariga baho berilgan. Boburning o‘zi har qanday holatda, hatto urush-taloshlar avj olib turganida ham adolat mezonini qattiq tutgan. Jumladan, (1503–1504) yillar voqealari bayonida shu holat kuzatiladi [4]. Qunduz shahri atrofida Xisravshohning askarlari ancha betartiblikka, zulm va zo‘ravonlikka o‘rgangan edilar. Ular Boburga qo‘shilganidan keyin ham bu odatlarini tashlamaydi. Bir navkar “…birovning bir ko‘za yog‘ini tortib olg‘on uchun eshikka kelturub tayoqlattim, tayoq ostida o‘q joni chiqdi. El bu siyosattin tamom bosildilar”, – deb ta’kidlaydi Boburning o‘zi.

Asarda o‘simliklar va hayvonot olami haqidagi nodir ma’lumotlar ham jamlangan, adib Afg‘onistondagi Dashti Shayxda o‘ttiz uch xildagi bir-birini takrorlamaydigan lola turlari haqida gapiradi. “Boburnoma”da adabiyot va san’at ahli, ilm-ma’rifat kishilariga ham munosib o‘rin berilgan. Unda Abdurahmon Jomiy, Shayxim Suhayliy, Husayn Ali Tufayliy, Sayfiy Buxoriy, Mir Husayn Muammoiy, Mullo Muhammad Badaxshiy, Yusuf Badiiy, Ohiy, Muhammad Solih, Hiloliy, Ahliy, Alisher Navoiy, Binoiy va boshqa so‘z ustalari haqida maroqli hikoyalar mavjud.

Kotiblardan Sulton Ali Mashhadiy, musavvirlardan Kamoliddin Behzod, Shoh Muzaffar, musiqa ustalaridan Qul Muhammad Udiy, Shayxi Noyiy, Shohquli G‘ijjakiy va boshqalarni faxr va iftixor bilan tilga oladi. Bu o‘rinda adibning Alisher Navoiy haqidagi ma’lumotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Asarda Navoiy siymosiga bir necha marotaba murojaat qilinganini kuzatish mumkin. Ular orasida Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari, Navoiyning shaxsiyati, uning ijodi, adibning badiiy ijod va ijodkorlarga bo‘lgan munosabati haqida ko‘plab qimmatli kuzatishlar mavjud.

“Boburnoma”da adibning shaxsi, uning tarjimayi holi, xarakteri, qiziqishlari, kishilarga munosabati borasidagi qarashlari tegishli tarzda o‘z aksini topgan. Biz asar sahifalaridan Bobur shaxsiyatidagi rostgo‘ylik, mardlik, adolatparvarlik, mehribonlik, qattiqqo‘llik, hassoslikning namoyon bo‘lish holatlari bilan tanishamiz. Asarda Boburning ajdodlari, oilasi, avlodlari haqida ham birlamchi ma’lumotlar berilgan.

Unda ayrim asarlarning yaratilish tarixi haqidagi ma’lumotlar ham keltirilgan, jumladan, (1500–1501)yillar voqealari bayonida bir hukmdorning Boburga yaxshi iltifot ko‘rsatmagani aytiladi va adib quyidagi misralarini eslatadi:

Kim ko‘rubtur, ey ko‘ngul, ahli jahondin yaxshiliq?

Kimki ondin yaxshi yo‘q, ko‘z tutma ondin yaxshiliq [5].

Bobur 1501–1502-yillar voqealari bayonida esa Toshkentga borib xon qoshida bir ruboiy o‘qigani eslanadi:

Yod etmas emish kishini mehnatda kishi,

Shod etmas emish ko‘ngulni g‘urbatda kishi.

Ko‘nglum bu g‘aribliqta shod o‘lmadi hech,

G‘urbatda sevunmas emish, albatta, kishi.

Xuddi shu yil voqealari bayonida u:

Jonimdin o‘zga yori vafodor topmadim,

Ko‘nglumdin o‘zga mahrami asror topmadim, – degan 7 baytli g‘azalini tugatganligini ham aytadi [6].

Kobul atrofidagi Gulbahor degan bir joydagi lolalarni sanatganda, u yerdan 34 xil lolani keltiradilar. Mana shu asnoda shoirning quyidagi g‘azali yaratiladi:

Mening ko‘nglumki, gulning g‘unchasidek tah-batah qondur,

Agar yuz ming bahor o‘lsa, ochilmoqi ne imkondur.

Shuningdek Bobur asarda 1508–1520, 1525, 1530-yillardagi voqealarni aks etmay qolgan [7].

Xulosa sifatida shuni qayd qilish mumkinki, “Boburnoma” o‘zining turli soxalarga oid haqqoniy ma’lumotlari hamda ayni bir sohaga oid emasligi bilan ajralib turadi. Negaki, unda bayon etilgan tabiiy geografik hududlar, hukmdorlar, hayvonot dunyosi o‘zgacha tasvirlanadi. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti Vatan sog‘inchi bilan o‘tgan bo‘lsada, undan kechmay vatanga talpinib yashadi. O‘zga elda hukmronlik qilgan bo‘lsa ham bunyodkorlik ishlaridan to‘xtamadi. Boburning vatanga bo‘lgan mehri va sog‘inchi o‘rnak bo‘lishga arzirlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://referat.uz/drugie/proizvedenie/10729-10729.html
2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. –Т.: Ўзбекистон, 1960. – Б. 6-7.
3. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. –Т.: Ўзбекистон, 1960. – Б. 72.
4. www.ziyouz.com
5. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Том 2. “Б” ҳарфи. – Т.: Давлат илмий нашриёти, 2001. – Б. 93.
6. https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/zahiriddin-muhammad-bobur-14-02-1483-26-12-1530.html
7. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Том 2. “Б” ҳарфи. – Т.: Давлат илмий нашриёти, 2001. – Б.83.

“BOBURNOMA” ASARINI TARIXIY VA BADIIY JIHATDAN O‘RGANISH

Sharopov A.M.
GulDU talabasi

Ona Vatan sog‘inchi qalbini bir dam ham tark etmagan shoh, shoir, tarjimon, buyuk sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur ijodkor sifatida kelajak avlodga ulkan meros qoldirgan. G‘azal, ruboiy, tuyuq kabi nazmda ham betakror va o‘lmas ash'orlar qoldirdi ,nasrda yaratgan asarlarining esa eng yetugi "Boburnoma" asari hisoblanadi . Bu asar memuar asar ekanligini bilamiz, lekin unda faqat tarixiy faktlar emas geografiya, fihq, falsafa, dehqonchilik va boshqa ko‘plab sohalarga oid ma’lumotlar o‘rin olgan. Qiziq joyi shundaki, asardagi voqealar shunchaki bayon qilinib ketavermaydi, bayonchilikka yo‘l qo‘yilmaydi, o‘qirmanmmi zeriktirmaydi. Zahiriddin Muhammad Boburning eng ulug‘ xistali shu ediku u tarixni buzmay, o‘zgartirmay haqqoniy aks ettiradi o‘z asarida. "Boburmomada " tasvir etilgan salkam 50 yillik tarix , unda ifodalangan tarixiy shaxslarga berilgan ta’riflar xolis va beg‘araz yondashish hosilasidir.

Bobur asarda juda ko‘plab o‘z davrining nomdor shaxslari to‘g‘risida o‘z fikrlarini bildirgan. Bu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, Xalqaro Bobur mukofoti sovrindori, taniqli Boburshunos, Navoiyshunos va Matnshunos Vahob Rahmonovning "Mumtoz so‘z sehri " asarida bayon etilgan quyidagi misraga e'tibor qaratsak : " Boburnoma" Amir Temur, Shohruh Mirzo, Abdusaid Mirzo, Ulug‘bek, Husayn Boyqaro, Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Xoja Ubaydulloh Ahror, Umarshayx Mirzo, Sulton Ahmad Mirzo, Sulton Mahmud Mirzo, Sulton Mahmudxon, Ahmad Tanbal, Xisravshoh, Zunnun arg‘un, Ismoil Safaviy, Shoh Tahmosp, Abulmakorim , Xoja Mavloiy Qozi , Badiuzzamon Mirzo, Abdullatif Mirzo, Rona Sango singari shoh va shahzodalar, amir va beklar , pir - murshidlar haqida muhim tarixiy ma’lumotlarni o‘zida aks ettirgani bilan bag‘oyat qimmatlidir " [1].

Albatta, Bobur yuqorida sanab o‘tilgan shaxslar haqida eng ishonchli, qimmatli va xolis ta'rif va tavsifni berib o‘tadi. Asarda tarixiy shaxslarni ta'riflash bilan bir qatorda ana shu shaxslarning qilgan bunyodkorlik ishlarini ham bayon etadi . Xususan, Bobosi Amir Temur va Mirzo Ulug‘bekning poytaxt Samarqandni obodonchiligi yo‘lida qilgan keng ko‘lamli ishlariga alohida to‘xtalib o‘tgan: Temurbekning va Ulug‘bek mirzoning imorati va bag‘oti Samarqand mahallotida kofir. Samarqand arkida Temurbek bir ulug‘ ko‘shk solubdur, to‘rt oshyonliq, Ko‘k saroyg‘a mavsum va mashhur va bisyor oliy imoratdur" yoki yana Ulug‘bek mirzoning "imoratlari " ga ham alohida e’tibor qaratib, " Ulug‘bek mirzoning imoratlaridin Samarqand qal'asining ichida madrasa

va xonaqohdur . Xonaqohning gunbazi bisyor ulug‘ gunbazdur, olamda oncha ulug‘ gumbaz yo‘q deb nishon berurlar" . [2]

Shoir oddiy va biz uchun mayda bo‘lgan detalni ham e'tibordan chetda qoldirmay , alohida e’tibor bilan bayon etgani juda hayratlanarli chunki Bobur oddiy shoir emas balki katta bir yurtning Shohi edi.

"Boburnoma " ni baiiy jihatdan ham yetuk asar dedik chunki bunga yetarli dalil va asos bor. Zahiriddin Muhammad Boburnig nasr yo‘lida yozilgan ushbu asarida ko‘plab she’riy parchalar, xalq maqollari va xalq orasida keng iste’molda bo‘lgan hikmatlardan foydalanadi. Misol uchun "Samarqand tasviri" , " Andijon tasviri " va " Alısher Navoiy ta'rifi " sahifalarini keltirib o‘tish yetarli. Asar davomida ko‘plab ilm ahllari , shoirlar, san'at kishilari haqida ham tarixiy shaxslarga bildirgan kabi o‘z fikr-u munosabatini bildiradi . Bobur o‘z navbatida adabiyot bilimdoni edi shu sababli davrining nomdor shoirlaridan biri Hasan Ya'qub haqidagi o‘z fikrini shunday bayon etadi "... tab’i nazmi bor edi, devon tartib qilib edi, vale she’ri bisyor sust va bemaza edi. Andoq she’r aytqondin aytmog‘on yaxshiroqdur”, – deydi. Bulardan tashqari yana Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Shayxim Suhayliy, Husayn Ali Tufayliy, Sayfiy Buxoriy, Mir Husayn Muammoiy, Mullo Muhammad Badaxshiy, Yusuf Badiiy, Ohiy, Muhammad Solih, Hiloliy, Ahliy , Binoiy va boshqa so‘z ustalari haqida ham hikoyalar mavjud. Ayniqsa Alisher Navoiy haqida bildirgan fikrlari juda xolis va hech qanaqa jimjimadorlikka o‘rin berilmay aytilgani kishini lol qoldiradi. Chunonchi, Bobur ulug‘ shoir va donishmand Alisher Navoiy haqida o‘z mulohazalarini bildirib shoirligini benazir deya takidlab, o‘zbek tilda she’rini hechkim unchali " ko‘p va xo‘b " yozmaganligini shuningdek, ilm-fan, san’at va adabiyot ahliga hech kim Navoiychalik g‘amxo‘r va murabbiy emasligini alohida qayd etadi. Bobur Navoiyning binokorlik va obodonchilik sohasidagi faoliyatini, Husayn Bayqoro bilan o‘g‘illari orasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishdagi tadbirlarni bayon etadi. Bularning barchasi Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyatidagi rostgo‘ylik, mardlik, adolatparvarlik, mehribonlik, qattiqqo‘llik, hassoslikning namoyon bo‘lish holatlari bilan ham bu memuar asar o‘lmas asar hisoblanadi. Asarda har bir yil voqealari alohida beriladi. Bu kabi qimmatli ma’lumotlar va keltirilgan mulohazalarning hammasi tarix uchun muhimdir.

1. Sakkiz yuz to‘qson to‘qqizinchi yil voqealari (1493)
2. Vaqoei sanai tis'a mia (1494 -1495)
3. Vaqoei sanai ihdo va tis'a mia (1495 -1996)
4.Vaqoei sanai isno va tis'a mia (1496 - 1497)
5. Vaqoei sanai salosa va tis'a mia (1497 - 1498)
6. Vaqoei sanai arbaa va tis'a mia (1498 - 1499)
7. Vaqoei sanai xamsa va tis'a mia (1499 - 1500)
8. Vaqoei sanai sitta tis'a mia (1500 -1501)
9 . Vaqoei sanai sab' va tis'a mia (1501 -1502)
10. Vaqoei sanai samon va tis'a mia (1502 - 1503)
11. Vaqoei sanai tis'a va tis'a mia (1503 - 1504)
11. Vaqoei sanai ihdo ashara va tis'a mia (1505 - 1506)
12. Vaqoei sanai isno ashara va tis'a mia (1506 -1507)
13. Vaqoei sanai salosa ashara va tis'a mia (1507- 1508)
14. Vaqoei sanai arbaa ashara va tis'a mia (1508 - 1509)
15. Vaqoei bostu panjum (1519 - 1520)
16. Vaqoei sanai sitta va ishrina tis'a mia (1519)
17. Vaqoei sanai isno va salosina tis'a mia (1525)
18. Vaqoei sanai arbaa va salosina va tis'a mia (1527)

19. Vaqoei sanai xamsa va salosina va tis'a mia (1528)

20. Vaqoei sanai sitta va salosina tis'a mia (1529)

Guvohi bo‘lganimizdek " Boburnoma " da salkam 50 yillik Movarounnahr, Xuroson va Hindistondagi voqealar o‘z aksini topgan. Bu o‘lmas , memuar , ensiklopedik asarning o‘rganilmagan qirralari juda ko‘p. Chunki asarda faqat tarix va badiiy jihatdan emas hattoki tabobatga oid ham ma’lumot bor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Vahob Rahmonov " Mumtoz so‘z sehri " T , - " O‘zbekiston" 2015.

2. Zahiriddin Muhammad Bobur " Boburnoma" T, - "Yulduzcha" 1989

“BOBURNOMA” - BUYUK QOMUSIY ASAR

Qobilova G.Sh.

BuxDU Filologiya fakulteti magistranti

“Boburnoma” Zahiriddin Muhammad Boburning nomini butun jahonga tanitgan qomusiy shoh asardir. U nafaqat o‘zbek adabiyotida, balki jahon adabiyoti tarixida ham munosib o‘rin egallab kelmoqda. “Boburnoma” tarixiy-badiiy asar sifatida turkiy xalqlar nasrining ilk namunalaridan biri sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu asar nodir tarixiy manba bo‘lishi bilan birga, ilm-fanning turli sohalarini qamrab oluvchi qomusiy kitob hamdir. Unda Bobur yashab ijod qilgan davrning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti badiiy shaklda o‘zining yorqin ifodasini topgan; voqealar qiziqarli, ravon va sodda tilda bayon qilingan.

“Boburnoma” yozuvchi xotirotlari, esdaliklaridan tashkil topgan. Shu sababdan uning asl nomini muallifning o‘zi “Vaqoyi’noma” , ya’ni “Voqealar kundaligi” deb atagani bejiz emas. Chunki bu voqealarning asosiy ishtirokchisi va bosh qahramoni Boburning o‘zi. Yozuvchining o‘zi ham bu haqda shunday deb yozadi:

Bu olam aro ajab alamlar ko‘rdum,
Olam elidin turfa sitamlar ko‘rdum.
Har kim bu “Vaqoyi”ni o‘qur, bilgaykim,
Ne ranju mehnatu ne g‘amlar ko‘rdum.

Bu asar boshqa manbalarda “Voqeoti Boburiy”, “Tuzuki Boburiy”, “Tavorixi Boburiy”, “Boburiya” kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Keyinchalik esa uni “Boburnoma” deyish rasm bo‘lib qolgan.

“Boburnoma” ning yaratilish tarixi haqida olimlar turli fikrlarni bildirishadi. Kitobni bir karra varaqlab chiqqan o‘quvchi bo‘lajak ayrim voqea va hodisalar oldindan bayon etilganligiga guvoh bo‘ladi. Bu esa, asar Bobur hayotining so‘nggi yillarida yozilganligidan dalolat beradi. Olimlarning aksariyat qismi “Boburnoma" Yozuvchi hayotining oxirgi yillarida, aniqrog‘i, 1525-1530 yillarda yozilgan, degan fikrni qo‘llab-quvvatlaydilar. Asarda 1494-1530-yillarda Movarounnahr, Xuroson, Afg‘oniston va Hindistonda ro‘y bergan tarixiy voqealar Bobur hayoti bilan chambarchas bog‘langan holda bayon etiladi. “Boburnoma” 12 yashar Boburning otasi Umarshayxning vafotidan so‘ng Farg‘ona viloyatiga podsho bo‘lganidan boshlanib, to umrining oxirigacha ro‘y bergan voqea va hodisalarni o‘z ichiga qamrab olgan. Afsuski, bu asar qo‘lyozmalarining bizgacha yetib kelgan nusxalarida Bobur xotiralarining 1509-1518, 1521-1524, 1529-1530-yillardagi voqealari yo‘qolgan. Lekin shunga qaramay, Bobur kundaliklari o‘zining tuzilishi va g‘oyaviy yo‘nalishi nuqtayi nazaridan bir butun asarligicha saqlanib qolgan.

“Boburnoma” asosan uch qismga bo‘lingan. Birinchi qismda Boburning Movarounnahrdagi podsholigi bilan bog‘liq voqealar, ona zamin tabiati va uning ne’matlari, otasi Umarshayxning nasl-nasabi, oilaviy hayoti, yurish-turishlari, saroydagi mansabdor tarixiy shaxslar, ularning o‘rni va faoliyati, xususan, ilm-fan, san’at hamda adabiyot namoyondalari haqida qimmatli ma’lumotlar bayon qilinadi. Bu davrda Bobur Samarqandni davlatning markazi qilishga harakat qiladi, shu maqsadda bir necha bor uni ishg‘ol ham qiladi. Biroq uning maqsad va harakatlari turli sabablarga ko‘ra amalga oshmaydi, shuning uchun Bobur o‘zga yurtga qarab yuzlanishga majbur bo‘ladi. “Boburnoma”ning Movarounnahr davri tavsifida turli toifadagi, tabaqadagi kishilarning hayoti, shahar va qishloqlarning manzarasi, nabotot va hayvonot olami, ob havosi, aholisi va ularning etnogenezi, tili, urf-odatlari hayotiy qilib tasvirlanadiki, natijada o‘quvchi Boburning donishmandligiga qoyil qoladi. Muhimi, Bobur haqiqatni gapirganida hech kimni ayamaydi. Har qanday voqea yuz bermasin, har qancha ulug‘ martabali yoki mansabdor shaxs haqida gap bormasin, u voqea hodisalarga, kishilarning yurishturishlariga, ularning insoniy xislatlariga haqqoniy baho beradi. “Boburnoma”da yozuvchi Farg‘ona, Andijon, Samarqand, Toshkent viloyatlaridagi shaharlarning tarixi, ular atrofidagi tabiatning go‘zal manzaralari, oqar suv va chashmalari, umuman ona zaminni shunchalik joziba bilan tasvirlaydiki, bular Bobur iqtidori va ona yurtga bo‘lgan kuchli muhabbatining haqiqiy inikosidir.

“Boburnoma”ning ikkinchi qismi Afg‘onistondagi voqealar bilan bog‘liq, asarda Bobur qanday qilib Kobul va uning atrofidagi yerlarni bosib olgani, afg‘on qabilalarini bo‘ysundurib, yangi davlat barpo etganligi to‘g‘risida ehtiroslarga to‘lib gapiriladi. Bobur Afg‘onistonning ayniqsa, xushhavo Kobul manzarasini maroqli va jozibali badiiy til bilan hikoya qilar ekan, uning tasvirini turli qiziqarli sarguzasht, rivoyat va o‘zining o‘tkir mushohadalari bilan yaratilgan she’riy lavhalar, rang-barang badiiy vositalar bilan bezaydi. Natijada Bobur esdaliklari kitobxonning diqqatini o‘ziga beixtiyor jalb etadi va o‘quvchi asarning qahramoni-Bobur bilan birgalikda voqealarda qatnashayotgandek sezadi o‘zini.

“Boburnoma”ning yuksak badiiyligi ham ana shundadir. Masalan, Bobur Kobul viloyatining aholisi haqida gapirar ekan, uni shunday ta’riflaydi:

“Muxtalif aqvom Kobul viloyatida bordur. Julgasida va tuzlarida atrok va aymoq va a’robdur. Shahrida va ba’zi kentlarida sortlardur. Yana ba’zi kentlarida va viloyatida pashoyi va paroji va tojik, baraki va afg‘ondur. G‘arbiy tog‘larida hazora va nakdariylar. Bularning orasida ba’zi mug‘uliy til bila hikoyat qilurlar...O‘n bir-o‘n ikki lafz bila Kobul viloyatida talaffuz qilurlar... Muncha muhtalif aqvom va mug‘ayyir alfoz ma’lum emaskim,

hech viloyatta bo‘lg‘ay” (Boburnoma, 189-bet).

Bobur Kobul manzarasining bahor faslida mislsiz go‘zalligini tasvirlar ekan, unga bo‘lgan muhabbati, ehtiroslarini quyidagi misralarda to‘lqinlanib ifoda etadi:

Sabzayu gullar bila jannat bo‘lur Kobul bahor,

Xossa bu mavsumda Boron yozisiyu Gulbahor.

Bu misralar bilan shoir Kobulga bo‘lgan dildagi muhabbatini ifodalagan bo‘lsa, uning vafotidan so‘ng hokini Kobuldagi o‘zi yaratgan bog‘ga qo‘yishlarini istab farzandlariga qoldirgan vasiyati esa Bobur bu shaharni naqadar sevishining amaldagi isbotidir, deb qaramoq kerak.

Boburning Afg‘onistondagi hayoti va faoliyati, prof. B.Valixo‘jayev ta’kidlaganidek, “Bobur siyosiy faoliyati uchun yana boshqa, yana katta voqealarga o‘tish ko‘prigi vazifasini o‘tagan. Bu katta voqea esa. Hindistonni qo‘lga kiritishdan iborat bo‘lgan. Ana shu maqsadga erishish esa 1519 yildan qat'iy vazifa qilib qo‘yilgan va shunga tayyorgarlik ishlari ko‘p yillar mobaynida rejalashtirilgan edi”.

Bobur hayotining Hindiston davri turli ajoyib va g‘aroyib voqealarga to‘libtoshgan. Uning o‘zi bu haqda shunday deb yozadi: ”G‘arib mamlakate voqe bo‘lubtur. Bizning viloyatlarg‘a boqa o‘zga olamdur. Tog‘ va daryosi va jangal va sahrosi, mavoze va viloyoti va hayvonot va nabototi, eli va tili va yomg‘iri va eli barcha o‘zgacha voqi bo‘lubdur” (Boburnoma, 342-bet).

Boburning avlodlarga qoldirgan boy va bebaho ilmiy-adabiy merosida buyuk ajdodimizga jahoniy shuhrat keltirgan asari, shubhasiz, “Boburnoma”dir. Ma’lumki, “Boburnoma” xronologik jihatdan to‘liq emas, asarda voqealarni yillar bo‘yicha bayon qilishda qator uzilishlar bor. “Boburnoma”ni fransuz tarjimoni Pave de Kurteylning tasdiqlashicha, yillar bo‘yicha bunday uzilishlar asl nusxada ham, forscha tarjimada ham mavjud. Bular inglizcha tarjimada ham o‘z aksini topgan. “Boburnoma”ning bu qadar ko‘p tillarga tarjima qilinishi, qayta-qayta nashr etilishi, jahon bo‘ylab shuhrat topishiga sabab, tasvirning g‘oyat keng qamrovliligi, XV asr oxiri va XVI asr boshlaridagi O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Hindiston tarixi, jo‘g‘rofiyasi, etnografiyasi, o‘simlik va hayvonot dunyosi, bu mamlakatlarning xalqlari, ularning yashash tarzi, tili, urf-odatlari va boshqa jihatlari haqida ishonchli ma’lumotlarga boy qomusiy asar ekani hamda asar muallifining bilim va qiziqish doirasining beqiyosligi, voqea-hodisalarning rostgo‘ylik bilan hamda ixchamligidir, desak aslo xato bo‘lmaydi.

“Boburnoma”da Boburning insoniy fazilatlarini, chunonchi, uning yirik lashkarboshi, har qanday qiyinchilikdan qo‘rqmaydigan, ijod ahlini qadrlovchi oliyjanob shaxs ekanini yakdillik bilan ta’kidlaydilar. Ular “Boburnoma”ning ayrim xususiyatlari, Boburning zamondoshlari haqida ham o‘z fikrlarini bayon qiladilar. Masalan, ingliz tarixchisi Leyn Puul shunday yozadi: “Uning memuarlari bir askarning harbiy yurish va chekinishlari haqidagi oddiy kundalik daftar emas; bu xotiralarda Sharq adabiyotini juda yaxshi bilgan, nozik va bilimdon kuzatuvchi, odamlarni sinchiklab o‘rganadigan, ular haqida holis va odil fikr yurita oladigan mutaasir qalb egasining dunyo haqidagi shaxsiy taasurotlari nozik fikrlari berilgan”.

Ma’lumotlarning ko‘pligi, aniq va to‘laligi, tarixiy voqealarning rostgo‘ylik bilan bayon etilishi, xronologik izchillik, ifodaning soddaligi va ravonligi ”Boburnoma”ning tarixiy manba sifatidagi afzalliklari va jozibasini yanada oshiradi. Bu jihatdan u ko‘pgina Sharq tarixchilarining kitoblaridan ustun turadi.

Ma’lumki, Sharq muarrixlarining aksariyat kitoblarida tarixiy dalillar afsona va rivoyatlar bilan bog‘lanib ketadi, qalamga olinayotgan voqealar muallifning podsho va hukmdorlarga bo‘lgan munosabatidan kelib chiqib tasvirlanadi, birovlarni ataylab maqtab ko‘kka ko‘tarish, boshqa birovlarni esa kamsitib yerga urish tamoyili ham ustunlik qiladi. ”Boburnoma”da esa bunday biryoqlama qarashlarni ko‘rmaymiz, aksincha, unda ijtimoiy-siyosiy voqealar holis va izchil tasvirlangani tufayli o‘sha davrdagi hokim tabaqalarning fazilat va kamchiliklari ham aniq-ravshan aks etadi va sharq feodalizmining o‘ziga xos ayrim xususiyatlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Bularning barchasi ”Boburnoma”ni aniq tarixiy dalillarga boy bo‘lgan beqiyos bir tarixiy asar deb aytishga asos beradi, uning muallifi esa, avvalo, bilim va tafakkur doirasi juda keng bo‘lgan alloma shaxs sifatida gavdalanadi.

“Boburnoma”da ana shunday xilma-xil ma’lumotlar shu darajada ko‘p uchraydiki, ilm-fanning deyarli barcha sohalaridagi mutaxassislar bu asardan bahramand bo‘la oladi. Bu dalillarning haqqoniyligi tufayli tarixchi o‘sha davrdagi O‘rta Osiyo, Xuroson, Afg‘oniston va Hindiston tarixiga tegishli muhim ma’lumotlarga ega bo‘lsa, tabiatshunoslar mazkur o‘lkalarning topografiyasi, iqtisodiy jo‘g‘rofiyasiga oid yangiliklarga, hayvonot olami bilan shug‘ullanuvchilar esa shu mamlakatlardagi hayvonot olamiga taaluqli bilim va tasavvurlarga ega bo‘ladi, o‘simlikshunoslar o‘simliklar dunyosi bilan tanishadi, etnograf olimlar shu joylarda yashaydigan

turli xalqlarning turmush tarzi, urf-odatlariga doir qiziqarli tafsilotlarga duch keladi, tilshunoslar o‘zbek adabiy tilining shu davrdagi ahvolini, adabiyotshunoslar esa shu davr adabiy muhitini tasavvur qila oladi.

Xulosa qilib aytganda, “Boburnoma” memuar asardir. Bunday asar, odatda, muallifning davr-zamonga, o‘tmishga oid xotiralarini, ko‘rgan va eshitganlarini ma’lum tartibga solib ifoda etishi natijasida vujudga keladi. Bu janrga xos asarlarda, ayniqsa, bo‘lib o‘tgan voqealarni birmuncha keyin tasvirlovchi memuarlarda muayyan darajadagi badiiy chizgilarni, tarixiy voqealarni bevosita aks ettirish bilan birga, umumlashtirib tasvirlash xususiyatini ham ko‘rish mumkin. “Boburnoma” ana shunday murakkab tarkibli memuarlar qatoriga kiradi. Muallif uzoq muddat orasida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy va tarixiy voqealarga ma’lum bir nuqtayi nazardan qaraydi va baho beradi. U tasodifiy hodisalar, ikir-chikirlarni mumkin qadar qalamga olmaslikka, asosiy voqealarni tanlash, saralashga katta ahamiyat beradi, asarning badiiy ifoda kuchini oshirishga harakat qiladi. Lekin asarda voqealar xronologik tartibda bayon qilingani va unda XV asr oxiri – XVI asr boshlaridagi O‘rta Osiyo, Xuroson Afg‘oniston va Hindistonda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy hodisalar tasvirlangani uchun u boshdan-oyoq tarixiy xususiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boburnoma. O‘z FA nashriyoti 1960-yil.
2. Mahmudov K. “Bobur-o‘zbek tilining bilimdoni”. Adabiy meros. 1988-yil.
3. Shamsiyev P. Boburnoma. -T. , Yulduzcha , 1989.

THE SIGNIFICANCE OF THE SPIRITUAL HERITAGE OF BABURIDS IN THE UPBRINGING OF YOUTH IN PATRIOTISM

Karimov U., Karimova G.
Lecturers of Fergana State University, Fergana City, Uzbekistan

During the years of independence, large-scale work has been carried out in our country to restore the names of our great ancestors, preserve their heritage and pass it on to future generations. It is a vivid symbol of the high respect of our people for the immortal values, scientific and literary heritage left by our great ancestors. At the same time, the restoration of our great heritage, its preservation and transmission to young people are the basis of our national values.

When we speaking about our great ancestors who glorified the name of our people, we proudly note the name of Zakhiriddin Muhammad Babur - the great Uzbek writer, historian, statesman, great commander, king and poet, founder of the Baburid empire.

The troubled life and active work of our great ancestor coincided with the last period of the Timurid state, which was going through a political crisis. All the sufferings of this period occurred during the reign of Babur Mirza. After various clashes in the historic square, Babur headed to Kabul. Although homesickness and a desire to return accompanied him throughout his life, he founded a huge empire in the historical regions of what is now Afghanistan, Pakistan and India. Historically, this state was named after the Baburid dynasty.

Babur, continuing the noble work of his ancestors in the name of enlightenment and prosperity of the country, left a great legacy for future generations.

“It is known that Amir Temur and his descendants, especially Zakhiriddin Muhammad Babur, who ruled in Central Asia and India, considered themselves the descendants of the Chigatay Turks. By the way, they were indifferent to the steppe Mongols and spoke with deep respect and pride

about their great ancestors, who left a deep mark in the history of these countries, their political and cultural, household and economic life ”[1, 12]

All over the world, today many material wealth and works, manuscripts of Babur and Baburids are widespread. For example, his unique sword is kept in the Metropolitan Museum of Art in New York. The Koh-I-Noor diamond, a gift to our ancestor, belongs to the British royal family. Historical artifacts of the great commander and statesman Babur are in museums and private collections around the world.

India also has many artifacts and historical sources belonging to Babur and Baburids. These include the original manuscript of Devoni Beaubourg, written in 1528, and a miniature of “the wedding of Prince Doro Shukuh” in 1640. Copies of these unique works were delivered to our country with the support of the Ministry of Foreign Affairs of Uzbekistan.

Devon Babura is a collection of works in the classical lyrical genres of the East. It has been determined that today there are 9 Devon Babur manuscripts in the world's manuscript collections and libraries.

“Today the Ministry of Foreign Affairs and the embassies of our country in India and Pakistan are taking consistent steps to study and transfer the Baburid heritage to our people. In particular, on the eve of the birthday of the great statesman, king and poet Zakhiriddin Muhammad Babur, an exhibition of manuscripts and miniatures of the Baburi period was organized in cooperation with the Indian Embassy and the Rampur Raza library. Here are excerpts from Babur's works, miniatures depicting Amir Temur, Zakhiriddin Muhammad Babur, Shokhdjakhon and Avrangzeb, pictures in books, works of art” [2, 58].

It should be noted that the Rampur Raza Library, founded in 1774 in India, contains many manuscripts and rare exhibits belonging to Babur. Of particular interest to many is the section of the museum dedicated to the history, literature and art of the Baburid period. The original of the famous "Devoni Beaubourg" is also kept here. It contains lines that Babur wrote with his own hands.

Indeed, the spiritual, educational, scientific closeness between peoples is reflected in the buildings built by great ancestors. In particular, such complexes as the Humayun Mausoleum in Delhi, “The Red Fortress”, “The Old Fortress”, “The Taj Mahal” in Agra and the Akbar Shah Mausoleum speak of the common history and cultural traditions of India and Uzbekistan.

Babur is also known in Uzbek literature for his exquisite lyrical works. His life and literary activity coincided with the time when political life in Movarounnahr was finally complicated by the chaotic movements of feudal groups and the ongoing crisis of the Timurid state. If we see the reflection of such difficulties in Beauburnom, then how they are reflected in the poet's psyche is reflected in his poems.

Although “Boburnoma” reflects the history of the peoples of Movarounnahr, Khorasan, India, Iran in the late fifteenth and early sixteenth centuries, it also addresses many of the pressing economic, social, political, economic and trade relations between the above-mentioned regions, in fact it is a masterpiece containing extremely rare information about the geographical location, climate, flora and fauna, mountains, rivers, peoples, tribes and peoples and their living conditions, customs, important historical buildings - Hindu and Muslim temples, weddings and funerals. That is why “Boburnoma” as a historical and literary heritage amazes scientists all over the world.

One of the great representative-monuments of the Baburi dynasty is the Lahore fortress, one of the monuments during the reign of Akbar Shah. It was built in 1566.

“Chiron-minor”, Jahangir's mausoleum, built during the reign of Jahangir, the Shokhdjakhon mosque and the Shalimar gardens, built during the reign of Shah Jahan, are rare masterpieces of world architecture. Shalimar parks were included in the UNESCO list in 1981.

Conclusion. The invaluable scientific, spiritual and cultural heritage of Zakhiriddin Muhammad Babur and his descendants instills pride in our great ancestors, love for the country and the Motherland.

REFERENCES:

1. Satimov, Gofurjon. The Baburids. Historical and educational booklet. Tashkent, Publishing House «Sharq», 2016.

2. Rustamov I. Methodical instructions on the subject of history of Uzbekistan. Fergana, 2009.

3. Qodirov P. “Bobur” Tashkent. “Шарқ”. 2002.

4. Jalilov S. Prince Bobur. Tashkent. “Movarounnahr”. 2013.

“BOBURNOMA”DA URUSH EPIZODLARI TASVIRINING G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI

Xolmatov O.U.

FarDU o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

Urush epizodlari tasviri tarixiy, badiiy va san’at asarlarida keng miqyosda o‘z ifodasini topgan. Ayniqsa, san’atshunoslikda urush tasvirlari aks ettirilgan asarlar alohida janr sifatida shakllangan bo‘lib, u batal janri deb ataladi. Bu janr, asosan, tasviriy san’atda uchraydi. “Batal” atamasi fransuz tilidan olingan bo‘lib, “jang” degan ma’noni anglatadi. Janr sifatida XV – XVI asrlarda shakllangan. Jang ko‘rinishlari, urush va harbiy hayot lavhalarini tasvirlash batal janrida asosiy o‘rinda turadi. Yevropa rassomlaridan P.Uchello, P.Franchesko (Italiya), F.Goyya (Ispaniya), E.Delakrua (Fransiya), rus rassomlaridan V.Vereshchagin bu janrda muvaffaqiyatli ijod qilganlar. O‘zbek tasviriy san’atida Kamoliddin Behzod, Muhammad Murod Samarqandiy kabi musavvirlar, XX asrda esa M.Nabiyev, O‘.Tansiqboyev, Z.Faxriddinov singari rassomlar jang lavhalari ishlangan san’at asarlarini yaratganlar [1,141-142].

Adabiyotda ham urush va jang tasvirlari aks ettirilgan asarlar qadimiy tarixga ega. Qahramonlik eposlari, jangnomalar, turli xalqlarning bahodirlari haqidagi afsona va rivoyatlar shular jumlasidandir. Keyinchalik yozma adabiyotda ham urush hodisasi keng miqyosda ifodalanib, badiiy adabiyotda salmoqli o‘rinni egalladi. Shu jumladan, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida tarixiy voqelik, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, geografik va etnografik ma’lumotlar qatorida turli yillarda bo‘lib o‘tgan urushlar ham realistik tarzda ifodalanadi. Boburning hayot yo‘liga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, 1497-yildan, ya’ni Samarqand uchun dastlabki jangidan boshlab to hayotining so‘nggi yillarigacha bo‘lgan davrda ko‘plab urushlar olib borganligiga guvoh bo‘lamiz. “Boburnoma” asarida muallifning 1494-yildan 1529-yilgacha bo‘lgan davrda ko‘rgan-kechirgan muhim voqealarini bayon etilishi va Bobur hayotining katta qismi urush jarayoni bilan bog‘liqligini inobatga olsak, asarda urush epizodlari tasviri salmoqli o‘rin tutishi o‘z-o‘zidan ma’lum bo‘ladi. Asarda bevosita Boburning o‘zi lashkarboshi sifatida qatnashgan bir necha katta-kichik jang manzaralari bilan bir qatorda zamondoshlari o‘rtasida bo‘lib o‘tgan to‘qnashuvlar ham mahorat bilan berilgan. O‘sha davrdagi qo‘shin tuzilishi, urush olib borish usullari va harbiy taktikalar, qamal holatlari, qurol-yarog‘ turlari bilan bir qatorda asarda ko‘plab harbiy-ma’muriy atamalar ham uchraydi. Shuningdek, “Boburnoma”da temuriylar qo‘shinining tuzilishi, harbiy san’ati haqida ham muhim ma’lumotlar bor. Bobur va boburiylarning harbiy mahorati masalalari haqida tarixiy manbalar ham guvohlik beradi. Xususan, M.Nuritdinov boburiylarning harbiy uslublari va sarkardalik qobiliyati haqida alohida ta’kidlaydi: “Ular raqib bilan urush olib

borishning vositalari va uslublarini takomillashtirdilar. Hindistonda birinchi bor artilleriyani qo‘lladilar.” [2,46] Bu ma’lumot ko‘rsatib turibdiki, Bobur va uning vorislari faqat harbiy taktika ustasi bo‘libgina qolmay, yangilikka intiluvchi sarkarda ham bo‘lganlar. “Boburnoma”da muallif nafaqat davlat arbobi, olim va shoir sifatida, balki sarkarda sifatida harakat qiladi. Bevosita tarixiy shaxsdan asar qahramoni funksiyasiga o‘tgan Bobur obrazi haqida N.Mallaev “ko‘p vaqt qo‘shinining oldingi safida boradi, xavf-xatarni pisand qilmaydi, navkarlarga o‘zi namuna ko‘rsatadi, ularga dalda beradi, birga mashaqqat chekadi” [3,604] – deb ta’kidlaydi. Bu orqali asarda Bobur faqat harbiy sarkarda emas, balki haqiqiy yetakchi va namunali shaxs sifatida ham yana bir bor namoyon bo‘ladi.

Asarda badiiy batalistika elementlari katta o‘rin tutadi. Bu epizodlarda realistik tasvirlar, jang manzaralarini bayon etish bilan bir qatorda voqelikka munosabat ham bildiriladi. Masalan, asarning 1495–1496-yillar voqealari bayon etilgan bobida Qunduz yaqinida Xusravshoh va Badiuzzamon o‘rtasidagi jang tasvirlanadi. Avval, to‘qnashuvning voqealar rivoji bayon etiladi: “…Xusravshoh bor kishisi bilan aslahalanib, Qunduzdan chiqib, orada qo‘nib, Badiuzzamon mirzo va lashkarlarining ustiga bostirib keldi. Bular – shuncha mirzolar va shuncha sardor beklar askarlari Xusravshohning kishilaridan ikki hissa ortiq bo‘lmasa-da, bir yarim hissadan ko‘proq bo‘la turib cho‘chib, ehtiyotkorlik deya xandaqdan chiqmadilar. Xusravshohning yaxshi-yomon, katta-kichik navkari to‘rt-besh mingcha edi.” [4,39] Bu tasvirlarda Badiuzzamonning askarlari son jihatidan ustun bo‘lsa-da, jur’atsizlik qilganliklari tasvirlanib, bu jarayonga muallif munosabati keyingi jumlalarda ifodalanadi: “Xusravshoh bu o‘tar bebaqo dunyo uchun va ketar navkari befavo uchun shuncha yomonlik va badnomlikni ixtiyor qilib hamda muncha zulm va adolatsizlik qilmoqni o‘ziga shior qilib, katta-katta viloyatlarga ega bo‘lib, shuncha ko‘p navkar va savdar saqlash tutumini qilib, balki so‘ngralar navkar va mulozimlari yigirma-o‘ttiz mingga yetib, viloyatlari va nohiyalari o‘z podshosi va mirzolaridan ortib, umrida erishgan g‘alabasi shu bo‘ldi. Shu tufayli Xusravshoh va tobelarining nomi sardorlikka chiqib, mardona bo‘ldilar. Xandaqdan chiqmaganlar qo‘rqoqlikda nom chiqarib, yuraksizlik bilan afsona bo‘ldilar.” [4,39] Bu jumlalar orqali Bobur jur’atsizlik va noto‘g‘ri taktika sabab mag‘lub bo‘lgan temuriylarni tanqid qiladi. Xusravshohning g‘alabasini “umrida erishgan g‘alabasi shu bo‘ldi” deb ta’riflar ekan, bu orqali uning kuchli sarkarda bo‘lmaganligiga, avvallari katta g‘alabalarga erishmaganligiga urg‘u beradi. Bu tasvir mag‘lub tomonning qat’iyatsizligini yanada aniqroq ko‘rsatadi. Bobur botirlik va jasoratni qadrlaydigan, janglarda ko‘p marta shu xislatlari evaziga g‘olib bo‘lgan sarkarda sifatida Badiuzzamonning bu mag‘lubiyatiga sabab qilib qo‘rqoqlikni keltiradi. Boburning mardlik va jasorat g‘oyalari aynan shu o‘rinda aniq ko‘zga tashlanadi.

“Boburnoma”da temuriylar o‘rtasidagi o‘zaro urushlar, ayniqsa Husayn Boyqaro va uning o‘g‘illari o‘rtasidagi to‘qnashuvlar ham tasvirlanib, bu jarayonlarga ham munosabat bildiriladi. Mana o‘sha lavhalar: “Oxiri ota-o‘g‘il orasidagi bu gap-so‘zlar shunga olib keldiki, otasi otasining ustiga va o‘g‘li o‘g‘lining ustiga Balx va Astrobodga lashkar tortdilar… Unchalik ko‘p urush ham bo‘lmadi. Badiuzzamon lashkari bosildi. Ko‘p sara yigitlar qo‘lga tushdi. Sulton Husayn mirzo barchasining boshini kestirdi. Yolg‘iz bu emas, qachonki bir o‘g‘li yovlashgan bo‘lsa, hamisha bostirdi. Qo‘lga tushgan navkarlarining barchasining boshini kestirdi. Haq uning tomonida bo‘lgach, u ne qilsin.” [4,45] Bobur bu o‘rinda Husayn Boyqaroni tushunishga intiladi. Otasiga qarshi kurashgan shahzodalarni keskin tanqid ostiga olib, ularning mag‘lubiyatiga sababni ham axloqsizlik va buzuqlik bilan bog‘laydi: “Bu mirzolar shunchalik buzuqchilik va aysh-ishratga mashg‘ul edilarki, Ramazondek tabarruk va aziz oyga bir kechalik fursat qolganda, otasidek ko‘pni ko‘rgan va ishbilarmon podshoh yarim kunlik yo‘ldan kelgan vaqtda ham, otasidan iymanmay, Xudodan qo‘rqmay, hanuz ishi may ichmoq, majlisorolik bilan dilxushlikka berilmoq bo‘ldi:

muqarrardirki, bunday kishi o‘shanday shikast topadi va bunday yashagan elni har kim yenga oladi.” [4,46] Bobur noqobil farzandlarning isyonidan tashqari ularning illatlari haqida ham to‘xtalish orqali munosib jazo olganliklarini ta’kidlamoqchi bo‘ladi. Bu lavhalarda Bobur mo‘min farzand sifatida namoyon bo‘ladi. Otaga qo‘l ko‘tarish va buzuqchilik har doim jazoga loyiq ekanligiga jiddiy urg‘u beradi. Bu orqali asarning didaktik xususiyati ham o‘z ifodasini topadi.

Bobur asarda o‘z ishtirokidagi harbiy to‘qnashuvlariga ham batafsil to‘xtaladi. Xususan, Shayboniyxon bilan to‘qnashuvi tasvirida dushmanning harbiy taktikasini sinchiklab kuzatadi. Mashhur to‘lg‘ama usuli haqida quyidagicha fikr bayon etadi: “O‘zbakning urushda ulug‘ hunari ushbu to‘lg‘amadir, ya’ni jangga tinimsiz aylanasiga yangi askar solib turishdir. Hech urushi to‘lg‘amasiz bo‘lmaydi. Bundan tashqari, ilgari va keyin bek-u navkarlar muntazam o‘q yog‘dirib safni saqlab keladilar, qaytganda ham tartib bilan saf bo‘lib qaytadilar.” [4,95] Bu epizodda Bobur ziyrak va kuzatuvchan sarkarda va harbiy mutaxassis sifatida ko‘rinadi. Bu fazilat Hindiston yurishida unga qo‘l keladi. Chunonchi, Ibrohim Lo‘diyga qarshi jang tasvirida aynan to‘lg‘ama usuli g‘alabaga bosh omil bo‘lganligi aks ettiriladi: “To‘lg‘amaga tayinlangan askarlarga o‘ng va chap qo‘ldan dushmanning orqa tomoniga o‘tib, o‘q otib urush boshlashlari, o‘ng va chap qanotdagilar ham dushman bilan olishishlari uchun farmon bo‘ldi. To‘lg‘amadagilar dushmanning orqasiga o‘tib, o‘q ota boshladilar… Tushgacha jang davom etdi. Kun tushga yetganda dushman yengildi va yakson qilindi.” [4,301] Boburning aql bilan ish ko‘rish va to‘g‘ri usul tanlash qobiliyati son jihatdan ancha kam bo‘lgan holda ham g‘alaba qozonish imkonini beradi. Bobur Hindistonga jami o‘n ikki ming kishilik lashkar bilan kelganligi quyidagi jumlalarda o‘z ifodasini topgan. “Biz birinchi marta Bhiraga kelganimizda bir ming besh yuz, ko‘pi bilan ikki ming kishi edik. Beshinchi bor kelganimda Sulton Ibrohimni yengib, Hinduston mamlakatini fath qildim. Hindustonga yurishda hech qachon buncha lashkar bilan kelinmagandi. Navkar va xizmatkorlar, butun qo‘shin bilan birga bo‘lganlarning soni o‘n ikki ming kishi deb ro‘yhatga olindi” [4,305].

Xullas, “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar, shaharlar ta’rifi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tasviri bilan bir qatorda urush epizodlari tasviri ham salmoqli o‘ringa ega. Bu epizodlarda Boburning harbiy yurishlari, olib borgan janglari bilan birga o‘z zamonida bo‘lib o‘tgan ko‘plab harbiy to‘qnashuvlar ham aks ettiriladi. Bu urushlar qisqa, sodda jumlalardan foydalanilgan holda xolis kuzatuvchiga xos obyektiv tasvirlarda bayon etiladi. Har bir tasvir so‘ngida muallifning voqelikka munosabati va o‘z xulosalari ham ifodalanadi. Boburning mardlik, jasorat, ziyraklik kabi fazilatlari ifodasida urush epizodlari tasviri katta o‘rin tutadi. Asardagi urush tasvirlari faqatgina tarixiy voqealarning real ko‘rinishi emas, muallifning didaktik g‘oyalarini ilgari surishda muhim vosita vazifasini bajaradi.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Ўз МЭ (Ўзбекистон миллий энциклопедияси). Б ҳарфи. www.ziyouz.com кутубхонаси

2. Нуритдинов М. Бобурийлар сулоласи. – Тошкент: “Фан”, 1994

3. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. 1 том. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1965 З.М.Бобур. Бобурнома. – Тошкент: “Янги китоб”, 2019

“BOBURNOMA” DUNYO OLIMLARI NAZDIDAGI QOMUSIY ASAR

Abdullayeva M.I.

Buxoro viloyat xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazi katta o‘qituvchi

Tarixga qarasak ham,bugungi kunga qarasak ham Andijon zaminidan ko‘p sohalar bo‘yicha qanday buyuk,fidoyi insonlar yetishib chiqqaniga amin bo‘lamiz.Chunki millat,el-yurt taqdiri uchun kuyinish,milliy g‘urur,or-nomus uchun bel bog‘lab maydonga chiqish-Andijon ahliga xos azaliy odat.Mana ulug‘ ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Boburni olaylik.Bu buyuk zot o‘n ikki yoshidan boshlab Temuriylar davlatini saqlab qolish uchun o‘zini o‘tga ham,cho‘qqa ham urdi,hech qanday dushmandan ham sinovdan ham qo‘rqmadi.Qirq olti yillik umri davomida bir zum ham halovat bilmasdan o‘tdi.O‘z avlodlariga Vatanga bo‘lgan buyuk muhabbatni,ezgu fazilatlarni meros qilib qoldirdi.[1,8-9]

Temuriylar tarixi barcha davrlarda jahon muarrixlarining diqqat markazida bo‘lib kelgan. Sharqshunos olim V. V. Bartold ta’kidlaganidek, Temur va uning avlodlari davri tadqiqotchisi “ Ma’lumotlarning kamligidan emas, ko‘pligidan qiynaladi. Chunki ular ko‘plab kutubxonalarga sochilib ketgan, ular avvalo tanqidiy nuqtai nazardan qarab chiqishni va nashr etishni taqozo etadi…”. Biz mavjud tarixiy manbalar va tadqiqotlar qadr-qimmatini holis baholagan holda, “ Boburnoma “asarining temuriylar shajarasini o‘rganishdagi manbaviy ahamiyatiga e’tibor qaratamiz.

Temuriylar tarixiga qiziqish yanada ortganligi bois, tarixiy manbalar qayta nashr etilmoqda, ilmiy, ilmiy-ommabop va badiiy asarlar yaratilmoqda. Bular ichida T. Fayziev, A. Ziyo, Sh. O‘ljaeva, Hakim Sattoriy va boshqalarnng temuriylarga oid asarlarini ta’kidlab ko‘rsatish mumkin. Ushbu asarning Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma“, Sharofuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma “, Ibn Arabshohning “Ajoeb ul maqdur fi axbori Taymur”, Hofizi Abruning “Majmuayi Hofizi Abru”, va “Zubdat ut-tavorix“, Mirxondning “ Razvat us-safo”, Abdurazzoq Samarqandiyning “Majmal-I Fasixiy“, Zahiriddin Muhammad Boburning

“ Boburnoma “, Xondamirning “Habib us-siyar fi axbor afrod ul bashar “va“ Hulosat ul-axbor “,Gulbadanbegimning “Humoyunnoma “, “Temur tuzuklari“ kabi manbalarni va yana ko‘plab ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish jarayonida yaratildi.

Eslab o‘tilgan manbalar orasida “ Boburnoma “temuriylarga mansub sulola vakili tomonidan yozilganligi uning tarixiy ahamiyatini yanada oshiradi. Bu manbaning O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Hindiston, va Eron xalqlari tarixi va geografiyasiga doir qimmatli asarligini yodda tutgan holda, temuriylar shajarasiga oid ma’lumotlarni tahlil qilamiz. Muallif “Boburnoma“da shajara tarixini yoritishni maqsad qilib qo‘ymagan, ammo voqealar bayoni davomida tarixiy holatdan kelib chiqib, u yoki bu mirzo va begimlar ismi sharifini eslab o‘tgan. Manbada bir qator mirzolarning hayot yo‘li, valodati va nasabi, shakl va shamoyili, axloq va atvori, jangu jadallari, viloyatlari, xotin va sarori, avlodlari va umarolari haqida batafsil ma’lumot berilgan bo‘lsa, ayrim mirzo va begim nomi bir yoki bir necha bor yuzaki zikr etib o‘tilgan. Chunonchi, Zahiriddin Muhammad Bobur mirzo otasi Umarshayx mirzo, amakilari Sulton Ahmad mirzo, Sulton Mahmud mirzo va Sulton Husayn mirzo ibn Mansur mirzolar haqida batafsil to‘xtab o‘tgan. “ Boburnoma “ xronologik jihatidan 1493-1529-yillarni o‘z ichiga olsada, 1510-1518-yillar va 1521-1524-yillardagi voqealar bayoni ayrim sabablarga ko‘ra yoritilmagan yoki bizgacha yetib kelmagan. Ba’zan esa 1493-yilgacha bo‘lgan siyosiy jarayonlar aks etgan ma’lumotlar ham uchraydi.

Qadimiy Movarounnahr va undagi xalqlar hayoti haqida jonli guvohlik beruvchi asarlar orasida “ Boburnoma “ alohida ajralib turadi. Ajayib lirik shoir, o‘zbek adibi Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan yaratilgan bu asar ijtimoiy-tarixiy, ilmiy, tabiiy va adabiy lingvestik ma’lumotlar xazinzsidir una 1494-yildan 1530-yilgacha O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Hindistonda kechgan voqealar bayon etilgan. Bobur tarixiy faktlarni shunchaki qayd etish jangu-jadallar, yurishlar haqida xronologik axborot berish bilangina kifoyalanmay, voqealarni jonli tilda qiziqarli hikoya qiladi, manzara chizadi, tabiatni, etnografik xolatlarni tasvirlaydi, davrni, uning xususiyatlarini gavdalantiradi.

“Boburnoma” asarini dunyo olimlari yakdillik bilan qomusiy asar sifatida baholashgan va temuriylar uyg‘onish davri va Bobur mavzusini yoritish bo‘yicha mukammal manba, deb bilishgan. Asarning o‘ziga xos muhim jihatlaridan biri, unda tarixiy shaxslar, buyuk siymolar, hukmdorlar, muhaddislar, olimlar, ijodkorlar, tarixchilar, san’atkorlar va oddiy insonlar haqida aniq ma’lumotlar, izohlar, tasvirlar, sharhlar, umuman, turli darajadagi tanishtiruv xarakteridagi dalillarning mahorat bilan keltirilganidir.

Asarda markazlashgan davlat asoschisi, buyuk sarkarda, ilm-fan, adabiyot, san’at, madaniyat homiysi, temuriylar Uyg‘onish davri asoschisi Sohibqiron Amir Temur nomi, hayoti, faoliyati bilan bog‘liq o‘ttizdan ortiq tasvir, lavha, izohlarning keltirilishi ham nihoyatda e’tiborli.

Bobur Amir Temur nomini otasi Umarshayx mirzo bilan bog‘liq bayonlar sabab tilga olib, to Dehli va Agra shaharlarida kechgan voqealar tasvirigacha u bilan birma-bir tanishtirib borgan. Shu bois, Boburni ulug‘ bobokaloni Amur Temur shaxsining ilk tadqiqotchi va targ‘ibotchilaridan biri, deb aytish mumkin.

Tadqiq va talqin qilinayotgan o‘ttizdan ortiq tarixiy ma’lumotlar, lavhayu tasvirlar asosida Amir Temur va Boburning o‘zaro mushtarak tomonlarining ayrim jihatlarini adib Xayriddin Sultonov “Bobur” nomli badiasida mahorat bilan yoritib bergan bo‘lsa,“Bobur ensiklopediyasi”dagi “Amir Temur” maqolasida ham “Boburnoma” ning 37a, 162b, 163a, 224b, 291b, 226b sahifalaridagi ma’lumotlar qisman aks etgan.[2,226] Porso Shamsiev, Sodiq Mirzaev va Yeyje Mano nashrlari asosida Bobur shunos olim Saidbek Hasanov qayta nashrga tayyorlagan “Boburnoma”ning 2002 yilgi namunasida ilmiy-tanqidiy matn asosida tuzilgan “kishilar nomlari” ko‘rsatkichida Bobur asarida Temurbek deb yozgani, Temurbek nomi bilan o‘ndan ortiq ma’lumot sanab ko‘rsatilgani aytiladi. Ayni paytda, atoqli olimlarimiz N. Mallaev va V. Valixo‘jaev “Boburnoma”dagi tarixiy shaxslar ta’rifi va tasviriga bag‘ishlangan tadqiqotlarida davr taqozosiga ko‘ra, Amir Temurni tilga olmaganlarni ham qayd etib o‘tish lozim.

“Boburnoma”da keltirilgan Sohibqiron Amir Temurga oid barcha ma’lumotu tanishtiruvlarni mohiyat – e’tibori bilan bir maqola doirasida quydagicha tasnif va talqin etish mumkin:

1. Umarshayx mirzo, Husayn Boyqaro va boshqa temuriylarning valodat va nasabi bilan bog‘liq lavhalarda sulola va davlat asoschisi Amir Temur nomi yuksak hurmat bilan tilga olingan tasvirlar.

Bobur asar avvalida otasining valodat va nasabiga to‘xtalar ekan, bu fiqrani u o‘zgacha ruh, alohida mehr va sog‘inch-u qo‘msash bilan batafsil yozgan, hatto nechanchi o‘g‘il, kimdan katta kimdan kichikligi haqida ham izoh va tushuntirish bergan. Umuman, “Boburnoma”ning Amir Temur yodga olingan barsa o‘rinlarida u an’anaviy ravishda sohibqironni Temurbek nomi bilan zikr qilingan. Ammo temuriylar sulolasiga mansub bo‘lgan o‘zining va o‘zi kabi boshqa shahzodalarning temuriyzodalar ekanligini esa tarixiy fonda yorqin va ta’sirli ifodalash maqsadida ba’zi lavhalarda “Temurbek naslidan”, “Temurbek avlodida Temurbekning zodu budi” yoki “Temurbek ulug‘ podshoh”, Temurbekning yurti”, Temurbek avlodi iligida”, “bizning xonavodamiz” tarzida ham zikr etigan. Temurbek nomi yurakka yaqin olinib, Sharafiddin Ali

yazdiy “Zafarnomasida”, Lutfiyning Amir Temurning to‘rtinchi o‘g‘li Shohruh Mirzoga atab o‘zbek tilida yozgan madh qasidasida, Alisher Navoiyning “Munoshaot”i, XVI asrda turkiy tilda yaratilgan O‘tamish Hoji ibn Muhammad Do‘stiyning “O‘tamish Hoji tarixi” asaridagi “Dostoni O‘g‘uzxon zikrida” ham uchraydi.

2. Ma’lum bir bek, umaro tilga olingan o‘rinlarda.

“Boburnoma”da Amir Temurdan tarbiya, muruvvat, yorug‘lik ko‘rgan bek, umaro, amaldorlar to‘g‘risida talaygina qimmatli fikrlar mavjud. Bobur bu kabi fikrlarni ishonarli qilib, “Temurbek rivoyat qilg‘on” degan shakilda ta’kidlaydi. Masalan, “xavotun va sarori” haqidagi ma’lumotda onasi Qutluq Nigorxonimga alohida to‘xtalar ekan, bobosi Yunusxonning ona tomonidan qarindoshligi Shayx Nuriddinbekka borib bog‘lanishi haqida Yunusxonning onasi turkistonliq qipchoq beklaridan Temurbek rioyat qilg‘on Shayx Nuriddinbekning qizi yo nabirasi bo‘lur”, deb yozadi. Sulton ahmad mirzoning oltinchi umarosi sifatida ko‘rsatilgan Darveshbek haqida ham xuddi shunday deydi: “Yana bir Darveshbek edi, Temurbek rioyat qilg‘on Egu Temurbekning naslidin edi. Hazrati Xojag‘a irodati bor edi”. Qizig‘i shundaki, Boburning Darveshbek to‘g‘risidagi mazkur ta’kidlari Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasining ikkinchi majlisida berilgan Darveshbek haqidagi fiqrada “Nasabi xud olam ahlig‘a zohirdur” deb yozgan ma’lumotiga mos keladi.

3. Davlat, taxt-u toj boshqaruvi bayon etilgan tarixiy voqealarda.

“Boburnoma” ning 1495-1496-yil tafsilotlari bayonida Bobur o‘zining davlat boshqaruvi to‘g‘risida yozar ekan, “Temuriya salotini dasturi” nomli tartib-qoida haqida ma’lumot beradi. U Amir Temur va temuriylarning shohona to‘shak (ko‘rpacha) ustida o‘tirib, davlat boshqargani, kengash chaqirgani va elchilarni qabul qilgani kabi boshqaruv va marosim usullaridan voqif etadi. “Ul fursatlar Temuriya salotini dasturi bila to‘shak ustida o‘lturur erdim. Hamza Sulton bila Mahdiy Sulton va Mamoq Sultonkim keldilar, bu sultonning ta’zimig‘a qo‘pub to‘shakdim tushub, bu sultonlar bila ko‘rushtim. Sultonlarni o‘ng qo‘lida bog‘ishda o‘lturg‘uzdim. Muhammad Hisoriy boshliq barcha mo‘g‘ullar keldilar. Barcha mulozamatni ixtiyor qildilar”.

Tabiiyki, bu holat tarixan Amir Temur ixtiyorida bo‘lib, keyinchalik podshoh Bobur tassarufiga o‘tgan viloyat, yurt o‘lka, shahar tasvirlarida ko‘p uchraydi. Tarixiy manbalarda “Dilkash shahar” deb e’tirof etilgan Kesh tasvirida bu shahar Amir Temurning ajdodlari bilan bog‘liq maskan ekanligi va bu joyni poytaxt etib tanlashga ikkilanganligi keltiriladi.[3,64-65] “Yana besh viloyatidur... Bahorlar sahrosi va shahri va bormi va tomi xo‘b sabz bo‘lur uchun Shahrisabz ham derlar. Temurbekning zodu budi Keshdin uchun shahar va poytaxt qilurig‘a ko‘p sa’y va ehtimomlar qildi... Chun Keshning qobiliyati shahar (poytaxt shahar demoqchi – V.R) bo‘lmoqqa Samarqandcha emas edi. Oxir poytaxt uchun Temurbek Samarqandni – o‘q ixtiyor qildi”.

Bobur o‘zini Husayn Boyqaro yoki boshqa temuriy shahzodalar bilan qiyoslangan tarixiy tasvirlardan birini sinchiklab kuzatsak, “Boburnoma”ning 1503-1504 yil voqealari bayonida, ya’ni Kobulda mustaqil hukumat tuzgan Bobur mirzoga Sulton Nusayn mirzodan Shayboniyxonga qarshi turishga undovchi xabarlar kelganiga duch kelamiz. Maktublardan birida Husayn Boyqaro Bobur mirzoga Kohmard va Ajarda harbiy istehkom bilan mustahkam turishi haqida yozib yuboradi. Ammo Husayn Boyqaroning oqibatini o‘ylamay tutgan harbiy taktikasi va rejalari Bobur mirzoga ma’qul kelmaydi va bu o‘rinda u ogohlik bilan temuriylar davlati asoschisi bo‘lgan mulkgir Amir Temurni yodga oladi. Ya’ni “Sulton Husayn mirzoning bu xatlari mujibi noumidlik bo‘ladi. Ne uchunkim, Temurbekning yurtida bu tarixda andin ulug‘roq podshoh ham viloyat va ham cherik bila yo‘q edi”. Yana u “Temurbek o‘rnig‘a o‘lturg‘on” deya fikrlarini davom ettirib, g‘alabasi, oqibati ta’minlanmagan harbiy yurishdan qattiq norozi bo‘lganligini yaqqol sezdirib, shunday

tushuntiradi: “Sulton Husayn mirzodek Temurbek o‘rnig‘a o‘lturg‘on ulug‘ podshoh g‘animining ustig‘a yurmakni demay, yer berkitmakni desa, el va ulusqa ne umidvorliq qolg‘ay?”.

Umuman, “Boburnoma”dagi Amir Temurga oid tarixiy ma’lumotlar, tasvir-u lavhalardan Bobur bobokaloni bilan faxrlangani, temuriylarning tarixini yaxshi o‘rgangani, ko‘rgan-bilganlarini yorqin va ta’sirli yo‘sinda ifodalagani, ulug‘ ajdodidek adolatli hukmdor bo‘lishiga bel bog‘lagani yaqqol seziladi. Boburning ilmiy ahamiyatga molik o‘ttizdan ortiq tarixiy ma’lumot-u lavhalari kelgusida Amir Temur hamda o‘zi to‘g‘risida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar va ijodiy asarlarining yaratilishiga zamin bo‘lishi, shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T., “O‘zbekiston” 1-jild, “O‘zbekiston”, T., 2017. 1,8-9-b
2. Xayriddin Sultonov.“Bobur ensiklopediyasi”dagi “Amir Temur” maqolasi. 2, 226-b
3. «O‘zbekiston ijtimoiy fanlar”, 1993, 1-son, 3,64-65 betlar

«BOBURNOMA»-O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTINING NODIR YODNOMASI

Oripova M.Q

BVXTXQTMOHM katta o‘qituvchisi

«Boburnoma» - o‘zbek mumtoz adabiyotidagi bebaho asarlar qatoridan munosib o‘rin egallab turgan asar sifatida e’tirof etiladi. Asarning o‘sha davr o‘zbek adabiy tilining yorqin namunasi sifatidagi qadri, qimmati hamon o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. «Boburnoma» - jahon adabiyoti va manbashunosligida ham muhim va noyob yodgorlikdir.

«Boburnoma” Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan eski o‘zbek (chig‘atoy) tilida yozilgan (taxminan 1518/19-1530). "Boburiya", "Voqeoti Bobur", "Voqeanoma", "Tuzuki Boburiy", "Tabaqoti Boburiy", "Tavorixi Boburiy" kabi nomlar bilan ham ma’lum. Boburning o‘zi esa "Vaqoe" va "Tarix" degan nomlarni ishlatgan. [1,3-b]

Mashhur «Boburnoma» – buyuk temuriylar tarixi (1494-1529 yillar voqealari), buyuk hokimiyat yaratilishidan so‘zlaydi.«Boburnoma» - birinchi navbatda shohanshoh Bobur, padar Bobur, lashkarboshi Bobur, samimiy Bobur, saxovatli Bobur, xaqgo‘y Boburning umriy tarjimai holidir. Bu asar O‘rta Osiyo, Xuroson, Afg‘oniston va Hindiston xalqlarining tarixi, madaniyati, etnografiyasi, turmush tarzi haqida g‘oyat muhim ma’lumotlar beradi. Shuningdek, kitobxon sharq hukmdorlarining davlatni boshqarish usuli va siyosati haqida aniq tasavvurga ega bo‘ladi. «Bobirnoma» fanning bir qancha sohalari bo‘yicha qimmatli materiallarga boy sharq xalqlari tarixini, adabiyot va san’at tarixini o‘rganishga ham yordam beradi. Akademik V.Bartold ta’kidlaganidek: «Bobirnoma» XVI asrdayoq haqqoniy ravishda turk prozasining klassik asari» bo‘lib tan olingandir.

«Boburnoma» asari o‘zbek adabiyotida dastlabki nasriy memuar va tarixiy-ilmiy asar bo‘lib, nafaqat O‘rta Osiyo, Xuroson, Afg‘oniston va Hindiston davlatlari, balki Eron, Turkiya, Bangladesh, Pokiston va yana qator davlatlarning madaniyati, tarixi, urf-odatlari, qadriyatlarini o‘zida aks ettirgani bilan qimmatlidir. «Boburnoma»da adabiyot va san’at ahli, ilm-ma’rifat kishilariga ham munosib o‘rin berilgan. Unda Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Shayxim Suhayliy, Husayn Ali Tufayliy, Sayfiy Buxoriy, Mir Husayn Muammoiy, Mullo Muhammad Badaxshiy, Yusuf Badiiy, Ohiy, Muhammad Solih, Hiloliy, Ahliy, Binoiy va boshqa so‘z ustalari

haqida maroqli hikoyalar mavjud. Kotiblardan Sulton Ali Mashhadiy, musavvirlardan Kamoliddin Behzod, Shoh Muzaffar, musiqa ustalaridan Qul Muhammad Udiy, Shayxi Noyiy, Shohquli G‘ijjakiy va boshqalarni faxr va iftixor bilan tilga oladi.

Bu o‘rinda adibning Alisher Navoiy haqidagi ma’lumotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Asarda Navoiy siymosiga bir necha marotaba murojaat qilinganini kuzatish mumkin. Ular orasida Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari, Navoiyning shaxsiyati, uning ijodi, adibning badiiy ijod va ijodkorlarga bo‘lgan munosabati haqida ko‘plab qimmatli kuzatishlar mavjud. Jumladan, Alisher Navoiy haqida shunday deyiladi: "Alisherbek naziri yo‘q kishi edi. Turkiy til bila to she’r aytibturlar-hech kim oncha ko‘p va xo‘b aytqon emas".

«Boburnoma»da adibning shaxsi, uning tarjimayi holi, xarakteri, qiziqishlari, kishilarga munosabati borasidagi qarashlari tegishli tarzda o‘z aksini topgan. Biz asar sahifalaridan Bobur shaxsiyatidagi rostgo‘ylik, mardlik, adolatparvarlik, mehribonlik, qattiqqo‘llik, hassoslikning namoyon bo‘lish holatlari bilan tanishamiz. Asarda Boburning ajdodlari, oilasi, avlodlari haqida ham birlamchi materiallar berilgan.

Unda ayrim asarlarning yaratilish tarixi haqidagi materiallar ham keltirilgan, jumladan, 906 (1500–1501)-yillar voqealari bayonida bir hukmdorning Boburga yaxshi iltifot ko‘rsatmagani aytiladi va adib quyidagi misralarini eslatadi:

Kim ko‘rubtur, ey ko‘ngul, ahli jahondin yaxshiliq?

Kimki ondin yaxshi yo‘q, ko‘z tutma ondin yaxshiliq.

Jahon sharqshunoslari Boburning kitobiga shunchalik qiziqadilarki, asar ingliz tiliga o‘n marotaba tarjima qilingan. «Boburnoma»ning ilmiy qiymatini yuqori baholab, nemis tarjimoni A.Kayzer shunday deydi: **«Podshoh Bobirning «Bobirnoma» asari shubhasiz Osiyoning tarixi, madaniyati va geografiyasi haqidagi eng muhim asarlardan biridir. Uning muallifn sharq hukmdorlari orasida juda kam uchraydigan bilimdon hokim va shoirdir. «Bobirnoma»ning muallifi har tomonlama yetuk bilimdon va o‘ta tadbirkordir».**

Yaponiyalik yirik bobur shunos Eyji Mano «Boburnoma»ni **“ma’lumotlar xazinasi”** deya atagan bo‘lsa, angliyalik bobur shunos Beverij xonim **“butun tarixda yaratilgan yozma yodgorliklarning eng bebahosidir”**,-deydi. Germaniyalik bobur shunos Klaus Shoning esa “Boburnoma”ga baho berib, **“mukammal tizimdagi xalq tilida yozilgan eng katta hajmdagi asardir”**, - deya ta’kidlaydi.

O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida «Boburnoma»ning 10 dan ziyod qo‘lyozma nusxalari saqlanadi. Ularning barchasini taqqoslash asosida, bobur shunos Porso Shamsiev mazkur nodir asarga tanqidiy matnni (1960) nashrga tayyorladi. Keyinroq, yapon olimi I.Mano ham “Boburnoma”ga tanqidiy matnni nashr uchun tayyorladi, shuningdek, N. Ilminskiy (1847), Beverij (1905), Fitrat (lavha, 1928) va P. Shamsievlar (1960) tomonidan ham chop etilgan.Uni fors (1586), golland (1705), ingliz (1826), fransuz (1871), turk (1940) va rus (1942) tillariga tarjima qilishgan.

«Boburnoma» mavzusi asosida qator badiiy asarlar ham yaratilgan. Flora Anna Stilning «Boburxon» (Parij,1940), Fernard Grenardning «Bobur» (Parij,1930), Harold Lembning «Bobur-yo‘lbars» (Nyu-York,1961), Vambek Gaskonining «Bobur va uning avlodlari yoki Buyuk mo‘g‘ullar» (Nyu-York,1980) esse-romanlari shular jumlasidandir. Hindistonlik Muni La’l boburiylar haqida 6 ta roman yozgan.

Bobur hayoti va ijodi bilan xalqimizga ma’nan yaqinlashdi. Bobur nomli xalqaro jamoat fondi va ilmiy ekspeditsiyasi (rahbari, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Zokirjon Mashrabov) o‘z faoliyatini boshlaganiga 29 yil bo‘ldi. Birinchi xalqaro safar 1992-yil may oyida boshlanib, bugungacha Bobur va boburiylar qadami yetgan yurtlarga yigirma besh martadan

ko‘proq ekspeditsiyalar uyushtirilib, Afrika qit’asidan Hindi-Xitoy yarim oroli, Yevropa-Amerika davlatlarigacha 375 ming kilometrdan ortiq masofa avtomashinada bosib o‘tildi. Ilmiy ekspeditsiya safarlari davomida ko‘hna tariximizga oid hamda buyuk ajdodlarimiz qoldirgan 500 dan ziyod noyob asarlarning asl va fotonusxalari mamlakatimizga keltirilib, fond qoshidagi “Bobur va jahon madaniyati” muzeyida mujassamlashtirildi va ilmiy iste’molga kiritilmoqda. Ular asosida 30 dan ortiq ilmiy-badiiy kitoblar chop etildi. “Bobur devoni” Kobul nashriga takmila, “G‘aribing Andijoniydur” devoni, “Boburnoma” miniatyuralari, “Bobur va Yuliy Sezar”, “Bobur haqida o‘ylar”, “Asrlarni bo‘ylagan Bobur”, “Boburiynoma”, “Buyuklar izidan”, “Boburiylardan biri”, “Hind sorig‘a”, “Andijondan Dakkagacha”, “Andijondan Bag‘dodgacha”, “Xorijda bobur shunoslik”, “Boburnoma uchun qisqacha izohli lug‘at”, “Markaziy Osiyo va Hindiston tarixida boburiylar davri”, “Tavorixi Musiqiyun”, Vilyam Rashbrukning “O‘n oltinchi asr bunyodkori”, Rumer Godenning “Gulbadan”, Harold Lembning “Andijon shahzodasi”, Xondamirning “Buyuklik xislati”, (“Habib-us siyar”), “Buyuk Sohibqiron o‘tgan yo‘llarda”, “Bobur va boburiylar bibliografiyasi”, “Boburiylardan biri”,”Bobur yo‘lbars” va boshqa kitoblar nashr etildi. Fond tashkil etilgandan buyon birgina, “Boburnoma”ning o‘zi uch marta qaytadan nashr ettirildi.

Bugungi yoshlarga tushunarli bo‘lsin degan niyatda “Boburnoma”ning kirill va lotin alifbolarida tabdili, Bobur ijodini o‘rganish bo‘yicha barcha bajarilgan ishlarning solnomasi sifatida mamlakatimizda ilk bor shaxsga nisbatan qomus, ya’ni “Bobur ensiklopediyasi” yaratildi. 64 bosma toboqli bu ulkan ensiklopediyani yaratishda o‘zbek bobur shunos olimlari qatorida Yaponiya, Hindiston, Turkiya, Afg‘oniston va yevropalik olimlar ham faol ishtirok etishdi. Bobur ijodini qirq yildan beri o‘rganib kelayotgan yaponiyalik bobur shunos olim Eyji Mano ensiklopediyaga **“butun dunyo bobur shunoslari uchun muhim qo‘llanma bo‘ladi”** deya baho berdi. Yana bir noyob qo‘llanmani, ya’ni Rossiya Fanlar Akademiyasining Tillar instituti bilan hamkorlikda “Zaxiriddin Muxammad Babur. Baburidi. Bibliografiya” kitobi ham nashr etildi. “Bobur va jahon madaniyati” muzeyida adabiyotlar ro‘yxati to‘plami, “Bobur va boburiylar bibliografiyasi”ning ikkita kitobi chop etildi. Andijonda Bobur parkida shoirning ramziy qabri hamda “Ark ichi” memorial majmuasi joylashgan. [2]

Bobur hayoti va ijodi to‘g‘risida o‘zbek yozuchilari (Oybek, B.Boyqulov,

X. Davron) tomonidan dostonlar, roman (P.Qodirov), qissa (X.Sultonov) va badiiy asarlar (3.Mashrabov, S.Shokarimov:«Asrlarni bo‘ylagan Bobur»; S.Jalilov: «Boburning Farg‘ona davlati», «Bobur va Andijon»; Qamchibek Kenja: «Hind sorig‘a»; X.Sultonov: «Boburning tushlari», «Boburiynoma»; R.Shamsuddinov: «Boburiylar izidan», «Boburiylar sulolasi»; T.Nizom: «Uch so‘z») ham yozilgan. 10 ga yaqin hujjatli, videofilmlar (F.Rasulov: «Bobur izidan», «Muqaddas qadamjolar»; T.Ro‘ziev:«Bobur salomi», «Bobur nomidagi Xalqaro ilmiy ekspeditsiya»; T. Hamidov: «Iftixor» va h.k.) yaratildi. Bobur nomli xalqaro jamoat fondining Lohur (Pokiston), Haydarobod (Hindiston), Abu Dabi (Birlashgan Arab Amirliklari), Moskva (RF), O‘sh (Qirg‘iziston), Toshkent, Namangan (O‘zbekiston) sh.larida bo‘limlari mavjud. 1998-yilda Bobur nomli xalqaro jamoat fondining bobur shunoslik sohasidagi xalqaro mukofotlari ilk marta Pirimqul Qodirov, Sabohat Azimjonova, G‘aybulloh asSalom, Ne’matilla Otajonov, Xayriddin Sultonov, Eyje Mano (Yaponiya), Muhammadali Abduqunduzov, Maqsud Yunusov, Shafiqa Yorqin (Afg‘oniston), Ma’murjon To‘xtasinov, Ravshan Mirtojiev, Majid Tursunov, Rahmonjon Azimov, Muhammadjon Mirzaevga berildi. [3,430-b]

Xullas, «Boburnoma» bahosi yo‘q asar. Bu memuar asar hali ko‘plab bobur shunoslar uchun yangi mavzu bo‘ladi. Shu ma’noda asarning nozik jihatlarini yanada teran anglab, yangicha qarash

va yondashuvlar bilan uning asosida lug‘atlar, yangi qo‘llanmalar yaratilsa, biz bundan faqat xursand bo‘lamiz.

«Boburnoma» o‘ziga xos ulkan memuar asar bo‘lib keyingi davrlar adabiyotining rivojida ibrat namunasi bo‘lib qoladi. Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining ma’lum va mashhur asarlari bilan tarixnavis adib, lirik shoir va ijtimoiy masalalar yechimiga o‘z hissasini qo‘shgan olim sifatida xalqimiz ma’naviy madaniyati tarixida munosib o‘rin egallaydi.

Adabiyotlar:

1. Bobur Zahiriddin Muhammad. «Boburnoma» [O‘rta yoshdagi maktab bolalari uchun.]/Nashrga tayyorlovchi P.Shamsiev; Muharrir A.O‘ktam.Toshkent. Yulduzcha.1989-yil.

2. Umirova Adiba «Asrlarni bo‘ylagan Bobur» «Xalq so‘zi» gazetasi, 2020-yil 15- yanvar, №11.

3. «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent.2017-yil

BOBURNOMA ASARIDA MEVA NOMLARI BILAN BOG‘LIQ QARASHLAR

Hojiyeva N.H.

Buxoro davlat univetsiteti o`qituvchisi

Buyuk qomusiy olim Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari o`zbek va umumturkiy adabiyotining dunyoga ma’lum va mashhur qomusiy asaridir. Bu memuarda O`zbekiston, Afg`oniston va Hindiston xalqlarining madaniyati, qadriyatlari, o`ziga xos xususiyatlaridan tortib, tabiati, geografiyasi, hayvonot va nabotot olami to`g`risida bebaho ma’lumotlar mavjud. Adabiyot, nafis san’at, tabiat go’zalligiga yoshligidan mehr qo’ygan Zahiriddin, barcha Temuriy shahzodalar kabi bu ilmlarning asosini otasi saroyida, yetuk ustozlar rahbarligida egalladi. «Boburnoma»ni varaqlar ekanmiz, asarda hayotning barcha jabhalari qamrab olinganligiga guvoh bo’lamiz.Boburdan qolgan ijodiy merosining eng muhim va eng yirigi O‘rta Osiyo , Avg‘oniston va Eron xalqlari tarixi , geografiyasi , etnografiyasiga oid nodir va qimmatli ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan va o‘sha davr o‘zbek mumtoz adabiyoti va adabiy tilining yorqin namunasi bo‘lgan ,,Boburnoma ‘’ asaridir. Bu asar mazmunining rang- barangligi , juda katta va qimmatli ma’lumotlarni o‘z ichiga olganligi, xil va uslubining go‘zalligi bilan XVIII , ayniqsa, XIX asr sharqshunos olimlarining diqqatini o‘ziga tortgan.

Asarda Bobur, avvalo, yetuk muarrix sifatida namoyon bo’ladi. U har bir mamlakat, o’lka, xalq tarixi haqida, shaharlar, kentlar, qal’alar to’g’risida batafsilma’lumotlar beradi. Asarda geograf va tabiatshunos alloma sifatida har bir o’lkaning dunyo xaritasida joylashgan o’rni, jug’rofik kengligi, tabiati, o’simlik va hayvonot olami, tuprog’i, iqlimi, dehqonchilik madaniyati borasida mukammal ma’lumotlar keltiradi. “Boburnomada” qayd etilgan anor, o’rik, bodom, olma, qovun, uzum, qaroli, noshvoti, don, binafsha, lola, chechak, tobulg’u, yabruh us-sanam, ayiqo’ti singari meva va gul nomlari orqali Boburning tabobatu nabobat olamiga tabiatga, ham jamiyat a’zolariga cheksiz e’tibor va ehtiromini bilib olamiz. Yana bir Marg‘ilondur, Andijonning g‘arbidadur, Andijondin yeti yig‘och yo‘ldur. Yaxshi qasaba voqe bo‘lubtur, pur ne’mat ;anori va o‘rugi asru ko‘p – xo‘p bo‘lur. Bir jins anor bo‘lur, “dona kalon” derlar , chuchukligida zardolu mayxushlig‘idin andak choshni bor. Samnon anorlarig‘a tajreh qilsa bo‘lur. Yana bir jins o‘ruk bo‘lurkim , donasini olib, ichig‘a mag‘z solib quruturlar, ‘’subhoniy’’derlar, bisyor lazizdur [1.10].

Bobur shoh hazratlari va uning avlodlaridan qolgan tarixiy va madaniy meros hanuzgacha jahon xalqlarini hayratga solib kelmoqda. Bobur hazratlarining qadamlari yetgan joyda, albatta,

bitta iz qolgan. Shulardan biri Afg‘oniston poytaxti Kobul shahrida bunyod etilgan ajoyib, xushmanzara tarovati betakror bog‘ - «Bog‘i Bobur»dir. Rabiulavval oyining avixorida tengri taolo fazl va karami bila Kobul va G‘azni mulk va viloyatini bejang – u jidol muyassar va musaxxar qildi. Kobul viloyati to‘rtinchi iqlimdindur. Kobul va kentlarida sardseriy mevalardin uzum va anor va o‘ruk va olma va bihi va amrud va shaftolu va olu va sanjid va bodom va yong‘oq qo‘ptur. Men olu- bolu niholini keturub ekturubmen , yaxshi olu – bolular bo‘ldi va hanuz taraqqiyda edi. Garmseriy mevalar misli norunj va turunj va amluk va nayshakar Lag‘monottin keltururlar. Kobulning rivochi xo‘p bo‘lur, bihi bila olusi ham yaxshidur. Bodringgi dag‘i yaxshi bo‘lur. Bir nav uzum bo‘lur, obi angur derlar, xeyli yaxshi uzumdir. Mast chog‘irlari bo‘lur. Xoja Xovard Said Domani ko‘hiyning chog‘iri tundluq birla mashhurdir.Agarchi holo taqlid birla andin ta’rif qiladurlarki: “Lazzati may mast donad hushyoronro chi haz” [1.216-217].

Bobur Kobulga qadam ranjida qilar ekan, bu yerning ob-havosi, iqlimi, bepoyon yaylovlari, shifobaxsh suvlari ul zotni hayratda qoldirgani «Boburnoma» asarida takror-takror qayd qilingan. Mazkur bog‘dagi yetti iqlimdan keltirilgan anvoyi gullar, mevali va manzarali daraxtlar hanuzgacha poytaxt shaharning ko‘rki bo‘lib hisoblanadi. On bir – o‘n ikki lafz bila Kobul viloyatida talaffuz qilurlar: arabiy, forsiy, turkiy , mo‘g‘uliy , hindiy, afg‘oniy, pashoyi, parojiy, garbiy, barakiy, lamg‘oniy . Muncha muxtalif aqvom va mug‘oyir alfoz ma’lum emaskim, hech viloyatda bo‘lg‘ay[1. 220].

Hozirgi kunda «Bog‘i Bobur» sayilgoh bo‘lib, davlat, jamoatchilik tomonidan o‘tkaziladigan ommaviy anjumanlar markaziga aylangan. Bobur shoh hayotlik davrida «Bog‘i Istolib», «Bog‘i Navro‘ziy», «Bo‘stonsaroy», «Chorbog‘», «Bog‘i Behishtiy», «Bog‘i Nur», «Bog‘i Xilvat» kabi ajoyib, betakror bog‘larni bunyod etgan. Shunisi ajablanarliki, Kobulning iqlim sharoitidan kelib chiqib, bu bog‘larda anvoyi gullar, mevali va manzarali daraxtlar qisman takrorlangan bo‘lsa-da, ammo ayrim jihatlari bilan keskin farq qilgan. Ya'ni, bog‘larning biri aksariyat mevali daraxtlardan tashkil topsa, boshqasi anvoyi gullar bilan bezatilgan. Kobul sharqi Lag‘monotdur. Bu viloyat besh tuman va ikki bo‘luktur. Lag‘mon tumanlaridin ulug‘rog‘i Ningnahor , ba’zi tarixlarda Nagarhor bitibdurlar. Ningnahor to‘qqiz rudtur. Sholisi va bug‘doyi yaxshi bo‘lur va norunji va turunji vaanori bisyor bo‘lur , yaxshi bo‘lur. Odinapur qo‘rg‘onining oldida janubiy tarafida bir chahorbog‘ soldim, Bog‘i Vafog‘a mavsum , rudqa mushrif, rud qo‘rg‘on bila bog‘ning orasidadur , norunji va turunji va anori bisyor bo‘lur. Badahshon va Buxorog‘a ul navshakarlardin yuborilib erdi. Bu bog‘ning norunjlar sarg‘arg‘on mahalda bisyor yaxshi ko‘rinur, xeyli yaxshi bog‘ voqe bo‘lubtur[1.220-221-222].

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida shuningdek, bu bog‘larga Movarounnahrdan Quvaning tuyatish anori, Baxmalning qirmizi olmasi, Konibodomning obinovvot o‘rigi, Oltiariqning husayni uzumi, Samarqandning anjiri keltirib o‘tqazilgan. Bunday bog‘larning jumlasiga «Bog‘i Shahraro» (keyinchalik bu bog‘ning nomi boburiyzoda Nuriddin Jahongirshoh (1605-1625 y.) tomonidan «Bog‘u ilmu Ganja» - Ganj ilmi bog‘i deb o‘zgartirilgan), «Bog‘i Jilovxona», «O‘rtabog‘», «Bog‘i Sur'at», «Bog‘i Mohtob»larni misol keltirishimiz mumkin. Afsuski, bu bog‘larning aksariyati hozirgi kunda yozma manbalardagina qolgan.

Jalolobod shahri ham shaxsan Bobur shohning tashabbusi bilan «Bog‘i Safo» bilan bezatilgan. Bobur shoh 1508 yilda vali'ahd farzand tug‘ilishi sharafiga Odinapur shahrida «Bog‘i Vafo» deb nomlangan bog‘ni bunyod qilganlar. Bu bog‘dagi gullar, mevali va manzarali daraxtlar, asosan, Movaraunnahrdan keltirilgan.

Afg‘onistonning atoqli olimi Ustod Ali Ahmadi Ko‘hzod «Baloisori Kobul va uning tarixiy oqimlari» nomli tarixiy asarida Bobur va Kobul shahri to‘g‘risida quyidagi jumlani keltiradi: «Kobulda Boburning ezgu-niyatlari amalga oshdi va Kobulga mehr-muhabbati tushdi, shu nuqtai-

nazardan bu maskanni obod, ko‘rkam bo‘lishiga hech qanday mehnat va mablag‘larni ayamadi. Shuning uchun poytaxtni va o‘z qo‘li bilan yaratgan bog‘ni hech qaysi bir farzandiga meros sifatida qoldirmadi, shahar va bog‘ abadiy uning tasarrufida ekanligini takror-takror ta'kidlab ketdi». Umuman olganda «Boburnoma» — Movarounnahr, Xuroson, Hindiston, Eron xalqlarining XV asr oxiri — XVI asrning birinchi yarmidagi tarixini o’zida aks eggirgan bo’lsa ham, shu bilan birga juda ko’p dolzarb iqtisodiy, ijtimoiy masalalar, yuqorida nomlari keltirilgan viloyatlarning o’zaro siyosiy-iqtisodiy va savdo munosabatlari, jug’rofiy mavqei, iqlimi, o’simlik va hayvonot dunyosi, tog’lari, daryolari, xalqlari, qabila va elatlari va ularning yashash sharoitlari, urf-odatlari, muhim tarixiy inshootlari — hindular va musulmonlarning ibodatxonalari, to’y va dafn marosimlari haqida nihoyatda nodir ma’lumotlarni o’zida qamrab olgan shoh asardir.

Adabiyotlar

1. Zahiriddin Muhammad Bobur Boburnoma. Yangi asr avlodi. – Toshkent -2018 –B.698.
2. Эрскин У. Бобур Ҳидистонда. –Т.: “Чўлпон”1995.
3. Ҳамидов Ҳ, Ҳусаний М. Машриқзамин ҳикмат бўстони. – Т.: “Шарқ” 1997.

ДАВРЛАРДА САЙҚАЛ ТОПГАН АСАР

Султонова Н.Ш.

Бухоро Давлат университети Тарих ва маданий мерос факулътети магистранти

Қадимий Мовароуннаҳр ва ундаги халқлар хаёти ҳақида жонли гувоҳлик берувчи асарлар орасида “Бобурнома“ алоҳида ажралиб туради. Ажойиб лирик шоир, ўзбек адиби Заҳириддин Муҳаммад Бобур томонидан яратилган бу асар ижтимоий-тарихий, илмий табиий ва адабий-лингвистик маълумотлар хазинасидир. Бобурнома-жаҳон адабиёти ва манбашунослигидаги муҳим ва ноёб ёдгорлик; ўзбек адабиётида дастлабки насрий мемуар ва тарихий-илмий асар. "Бобурнома" ўзида баён қилинган воқеалар жараёнига кўра 3 қисмга:

Бобурнинг Мовароуннаҳр (1494—1504), Афғонистон (1504—24) ва Ҳиндистон (1524—30)даги ҳукмдорлик даврига бўлинади. Биринчи қисмда Бобурнинг отаси-темурийларнинг Фарғона улуси ҳокими Умаршайх Мирзо (1461—94) хусусида ҳамда Бобурнинг Фарғона тахтига ўтириши (1494 йил июн), аммо Темурийлар давлатида авж олган тахт учун кураш оқибатида ўз улусидан маҳрум бўлиши (15-аср 90- йиллари), Самарқанд учун Шайбонийхонга қарши олиб борган жангу жадаллари (1497— 1501)нинг беҳуда кетиши, ва ниҳоят, тожу тахтдан бутунлай ажраб, Ҳисор тоғлари орқали тахминан 250 навкар билан Афғонистонга юз тутиши (1504) ҳақидаги воқеалар батафсил зикр қилинган.

Иккинчи қисмда Бобурнинг Кобулни забт этгани, сўнг у ерда мустақил давлат тузгани (1508), Эрон шоҳи Исмоил Сафавийнинг ҳарбий ёрдами билан Самарқандни яна ишғол қилгани (1511), лекин шайбонийлар (Убайдулла Султон, Муҳаммад Темур Султон ва Жонибек Султон)дан енгилиб (1512), Кобулга қайтгани, кейин эса Ҳиндистонни забт этишга ҳозирлик кўра бошлагани хусусидаги воқеалар баён этилган.

Учинчи қисм эса Бобурнинг Деҳли султони Иброҳим Лўдийни мағлуб этиб, шимолий Ҳиндистонни босиб олгани (1526) ва Бобурийлар давлатини барпо қилгани ҳақидаги маълумотлардан иборат.

“Бобурнома”да воқеа-ҳодисалар кунма-кун, йилма-йил тадрижий тартибда берилиб, Бобур тахтга чиққанидан умрининг охиригача (1494-1530) бўлган даврни ўз ичига олади. Асарни ўқиганда воқеа-ҳодисалар силсиласининг гоҳо узилиб қолганига дуч келамиз.

Масалан: 908 йилнинг охиридан 909 йилнинг охиригача (1503-1504), 914йилдан 925 йилгача (1508-1519), 926 йилдан 932 йилгача (1519- 1525) ва 936 йилдан 937 йилгача (1529-1530). Европа шарқшунос олимлари ва таржимонлари У.Эрскин, П.де Куртейл бу йиллар воқеаларининг баёнини Бобурнинг ўзи ташлаб кетган, чунки мавжуд ҳамма қўлёзмаларда шу йиллар воқеаларининг тафсилоти берилмаган, деган хулосага келдилар. Лекин бу ҳақда бошқача мулоҳазалар ҳам бор. Адабиётшунос олим Н.М.Маллаевнинг ёзишича, айрим майда воқеаларга, кичик деталларга қадар иншо этишга интилган Бобур бир неча йиллик тарихий воқеаларни четлаб ўтмаган, албатта. «Бобурнома» саҳифаларидан маълумки, бир куни Бобир Ҳиндистонда ўз ижодхонасида ишлаб ўтирганида жуда кучли шамол бўлиб, қўл-ёзмаларининг бир қисмини учириб кетади,- “Ушбу охшом таровиҳдин сўнгра бир пос ва беш гирий бўлуб эдиким, пашкол булутлари қайнаб, бир замоннинг ичида андоқ тўфон бўлуб, қаттиқ ел қўптиким, йиқилмағон чодир кам қолди. Мен хиргоҳ ичида китобат қиладур эдим, қоғаз ва ажзони йигиштирғунча фурсат бўлмади, хиргоҳни пешхона била- ўқ менинг бошимға йиқти. Хиргоҳ тунглуги реза-реза бўлди. Тенгри сахлади, осебе етмади. Китоб ва ажзо ғарқ-ўл бўлди. Ташвиш била йиғиштирулди. Сақарлот кат зайлуча- сиға чирмаб, кат остиға қуюб, устига гилемларни ёптук. Икки гирийдин сўнг таскин топти. Тўшакхона чодирин тиктуруб, шамъ ёқтурди. Машаққат била ўт ёндуруб, тонг отғунча ухламай, авроқ ва ажзонинг қурутмоғига машғул эдук”[1]. Эҳтимол ана шу тушириб қолдирилган ййллар баёни шунда йўқолгандир.

“Бобурнома” энциклопедик асардир. Бу бебаҳо асар Ўрта Осиё, Хуросон, Афғонистон ва Ҳиндистон халқларининг тарихи, маданияти, этнографияси, турмуш тарзи ҳақида ғоят муҳим маълумотлар беради. Шунингдек, шарқ ҳукмдорларининг давлатни бошқариш усули ва сиёсати ҳақида китобхон аниқ тасаввурга эга бўлади. “Бобурнома”даги шарқ халқларининг тарих, адабиёт ва санъат ҳақидаги қимматли материалларга бой маълумотлари ҳанузгача илм аҳли учун мустаҳкам асос бўлиб келмоқда. Унда тарихий воқеалар билан бирга табиият, география, топография, адабиётшунослик, тилшунослик, этнография, педагогика ва фаннинг бошқа соҳаларига доир жуда қимматли факт ва маълумотлар берилган.

Ўз давлати ва армияси эҳтиёжини қондириш учун қишлоқлардан мол-мулк ундириш, Афғонистон ва Ҳиндистон вилоятларига солинган солиқлар, турли шаҳар ва ўлкаларга уюштирилган ҳарбий юришлар ҳамда ўзи забт этган маламкатларда ободончилик учун суғориш системалари қуриш, кўмилиб кетган ариқ ва зовурларни таъминлаш, боғ-роғлар яратиш ва бошқа ҳар хил қурилиш ишлари[2] бунга мисол бўла олади. Бобур тадбиркор ва фаол давлат арбоби сифатида ўз фикрларининг мустақиллиги ва ҳаққонийлигига интилди. Бу, айниқса, унинг “Бобурнома”сида яққол ўз ифодасини топди. Муаллиф ўз асарида ҳар бир деталнинг тасвирида холисона муносабатда бўлади. У ҳар бир шахснинг ҳам ижобий, ҳам салбий томонларини рўйи рост, ҳар томонлама баҳолади. Темурийларнинг қаҳрамонлиги, мардлиги, ижодий ва поэтик қобилиятлари ҳақида гапириб, уларнинг салбий сифатларини ҳам ошкора ёзди.

Бобур шахсияти нафақат Осиё балки, Европа олимларини ҳам ўзига жалб этди. Умуман, Бобурнинг ҳаёти, шахсий фазилатлари Европа тадқиқотчиларини хайратда колдирган десак муболаға бўлмайди. Бобур сиймосида улар улкан саркарда, моҳир давлат арбоби, дилбар ва дилкаш инсонни кўрдилар. “Бобурнома”ни Лейден-Эрскин 1826 йилда Лондонда инглиз тилида чоп эттирди[3]. Таржимон асар муаллифи ҳақидаги фикрини шундай баён қилади: “Бобур характерининг энг мислсиз белгиси унинг бошқа ҳукмдорларникига мос келмаслигидадир. Осиё тождорларидаги маҳобатли, сунъий характер

ўрнига бизнинг кўз олдимизда Бобурнинг характери табиий, ҳаётий, севувчи, самимий бўлиб гавдаланади. Бобур тахтга ўтирганига қарамай, оддий турмушнинг энг яхши туйғуларини ва иштиёқини ўзида сақлаб қолди. Биз Осиёдаги ҳукмдорлар ичидан Бобур сингари даҳо ва талантли кишиларни камдан-кам учратамиз. Ақлининг фаоллиги ва теранлиги, хушчақчақ совуққонлик ва бевафо тақдирнинг найрангларини писанд қилмай, руҳини тетик тутиши, шоҳлар орасида камдан- кам учрайдиган саховатлилиги, мардлиги, талантлилиги; фанга, санъатга муҳаббати ва улар билан муваффақиятли шуғулланиши жиҳатидан олиб қараганда, Осиёдаги шоҳлар орасидан Бобурга тенг келадиган бironта ҳам шоҳ тополмаймиз". Бобурдаги табиий истеъдод унинг ҳар томонлама ривожланган ва комусий билимларни узида мужассамлантирган шахсияти, ақл-заковати, инсоний хислатлари ва қолаверса, унинг очик кўнгиллилиги, нозик табиатлилиги кишини хайратга солади.

1828 йилда Лейпцигда А.Кайзер Эрскиннинг инглизча таржималарини кисқартириб, «Бобурнома»ни немис тилида нашр эттирди. Бу таржима анча пухта бўлиб, унга илмий мукаддима, Бобурнинг харбий юришларини акс эттирувчи харита илова килинган. "Бобурнома"нинг илмий қийматини юқори баҳолаб, А.Кайзер шундай дейди: "шоҳ Бобурнинг «Бобурнома» асари шубҳасиз Осиёииг тарихи, маданияти ва географияси ҳақидаги энг муҳим асарлардан биридир. Унинг муаллифи шарқ ҳукмдорлари орасида жуда кам учрайдиган билимдон ҳоким ва шоирдир. «Бобурнома»нинг муаллифи ҳар томонлама етук билимдон ва ўта тадбиркордир".

Асардаги марказий образ Бобурнинг ўзи, албатта. Унинг ҳис туйғуларига бой қалби кўз олдимизда ёрқин жонланади. Унинг шахсий ҳис-туйғулари ҳар қандай муболағадан ёки пардалашдан холи, услуби оддий мардона, шу билан бирга жонли ва ифодали. Ўз замондошлари биографиясини, уларнинг қиёфалари, урф-одати, интилишлари, қизиқиш ва қилиқларини кўзгуда акс этгандек равшан тасвирлайди. "Бобурнома"нинг бунчалик эътибор қозонишига сабаб унда реал турмуш муносабатлари ниҳоятда қизиқарли тасвирланганлигидир. Бу машҳур асарга бўлган қизиқиш вақт ўтиши билан сусаймасдан, балки тобора ортиб бормоқда. Ана шу қизиқиш фақатгина асарнинг юксак илмий қиймати билангина эмас, балки юқори савиядаги бадиий қиймати орқали ҳам белгиланади. Асар узоқ вақт давомида ўзбек ва бир қатор туркий халқлар адабиётида проза жанрининг равнақида жуда катта таъсир кўрсатди. Академик В.Бартольднинг «Бобурнома» XVI асрдаёқ ҳаққоний равишда турк прозасининг классик асари» бўлиб тан олингандир -деган фикри мулоҳазаси фикримизнинг ёрқин исботидир. Асарда бевосита Бобурнинг ўзи лашкарбоши сифатида қатнашган бир неча каттакичик жанг манзаралари маҳорат билан берилган. Ўша даврдаги қўшин тузилиши, уруш олиб бориш, жанг усуллари, қамал ҳолатлари, қуролярог турлари, қурғонбузар қурилмалар билан бир қаторда асарда кўплаб ҳарбийма'мурий истилохлар (туман, улус, кўкалтош, эшикоға, ахтачи, тархон, шиғовул, шарбатчи (шарбатдор), мубашшир, туғчи, мирохур, рикобдор, доруға, мурчил, манжаниқ, ўрон ва бошқалар) ҳам учрайди. Шунингдек, асарда темурийлар қўшинининг тузилиши, ҳарбий сан'ати ва бошқа ҳақида ҳам ноёб маълумотлар бор.

Бобур мероси ҳар томонлама ва чуқур илмий текширишни талаб этади. Албатта, бу борада бирмунча ишлар қилинган, лекин буларнинг ҳаммаси ҳам бобуршуносликнинг ибтидосидир. "Бобурнома"ни ўрганишнинг илмий-маърифий ва тарбиявий аҳамияти ҳам каттадир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Бобурнома Т.:Юлдузча 1990й. Б-175

2. Ҳасанов С. Заҳириддин Муҳаммад Бобур Т.:Ўзбекистон 2011й Б-20
3. Азимжонова С Государство Бабура в Кабуле и в Индии М.:Наука 1977г
4. Бобур Заҳириддин Муҳаммад: энциклопедия Т. 2014й

«BOBURNOMA» REPRESENTATIVE OF THE FORMATION OF PATRIOTIC EDUCATION IN YOUNG PEOPLE

Mamajonov A.
Andijan State University, Associate Professor of World History, Candidate of Historical Sciences
Alisherov A.A
Andijan State University Teacher of the Department of World History

We understand the world through history, through the evolution of the stages of human development. Through it, we understand the essence of today, we define our dreams and hopes for the future. The great power of history, the educational power, the essence of coaching, when it embodies the ideas, the ideas of how to evaluate the present through the study of research, to understand today's people and to guide them.

History has placed a great, sacred task on the present generation of the Uzbek people. It is to make the Motherland the Motherland, to spread its fame all over the world, to add strength to its power, glory to its glory.

The maturity of the nation, the spiritual maturity of the individual is determined by his love, respect, sincerity, kindness to his homeland. Love for the motherland enters a person's blood through breast milk. This sacred feeling is nurtured by the mother goddess, nurtured by the father’s upbringing and example.

A mother with a umbilical cord blood, a person who does not know the history of the Motherland, the path of historical development, who is not infinitely proud of it, cannot be called a civilized person, a true patriot. Respect for one's own history means, first of all, attention to one's people, one's ancestors. There will be no future for a nation that does not know its history.

Patriotism means not only love for one's homeland, but also the creative use of world culture, material and spiritual wealth of other peoples, science, technology, rich historical experience and economic opportunities.

There is no need to explain or prove the identity of the world-famous Zahiriddin Muhammad Babur, whose umbilical cord blood was shed in Andijan. The greatness and potential of the Timurid king of Fergana, and later the successor of the great Sahibkiran Amir Temur in India, the great commander, the incomparable poet and a multifaceted scholar, has amazed the whole world over the years.

President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev - «Today, societies and civilizations are first and foremost social values ... it is important to study, understand and popularize the works of our great ancestors, their invaluable contribution to the development of world civilization» [1,35], - This creates opportunities for a broader study of the cultural heritage created by our great ancestors.

One of such works, which symbolizes the formation of patriotic education among young people, is «Boburnoma» by our great compatriot Zahiriddin Muhammad Bobur. Zahiriddin Muhammad Babur began his royal work «Boburnoma» at the age of twelve, when he became king of Fergana in 1494. [2,4].

«The blessed king, Zahiriddin Muhammad Babur, was only fortunate enough to rule on Indian soil for five years (1525-1530). But the state founded by Zahiruddin Muhammad Babur lasted 332 years. These years of war, unparalleled suffering, endless human suffering, longing for the homeland were the period of formation of the new Turkic-Indian state and a flourishing period of the poetic work of the sensitive poet Zahiriddin Muhammad Babur.

Although Zahiriddin Muhammad Babur came to these lands as a conqueror by the decree of history, the example of paradise took this land by fate, although his homeland - Andijan, the great Samarkand, where he lived through the hardest moments of his life, was not forgotten until his last breath. He loved the Indian land and the Indian people, sought to make it prosperous and united, united the hostile tribes and established a centralized state» [3,275-276].

The historical merit of Zahiriddin Muhammad Babur is that, on the one hand, he continued the activities of the Timurid dynasty in Turkestan, which was abolished in Turkestan due to the invasion of Shaibanikhan, and on the other hand, he and his descendants opened a new page in the history of Indian statehood. As a conqueror of Indian property, he did not take the wealth of the country to his homeland, but spent all his money on the beautification and development of this land, which he had brought from his homeland. Famous classical monuments and architectural wonders, born of the material and spiritual treasures of the Baburi dynasty, not only add beauty and glory to India today, but also bring enormous economic benefits.

The Baburis were, in fact, the successors of the Timurid dynasty in India, described by Professor I., Doctor of Historical Sciences. M. Muminov said that «they continued the best traditions, especially in Babur and Akbarshah India, which emerged during the reign of Timur as a result of economic and cultural development in Central Asia» [4,44]. Zahiriddin Muhammad Babur, a keen scholar of Herat and his homeland, Central Asian art, literature and culture, set out on a new path of Indian culture by establishing active ties between Central Asia and Iran and India.

Zahiriddin Muhammad Babur also paid special attention to architecture and began to build gardens, which are associated with the climatic conditions of the East, and it was customary for the governor or royal family to move to this garden in the spring and spend the whole summer here. Such gardens are built on the outskirts of the city, often along streams. Around the castle wall of the garden will be planted various trees that provide shade. After that, various fruit trees and unusual flowers are planted in order.

«Most of the buildings are two-story, with terraces. In the middle is a chordara room surrounded by porches, and the second floor is reached by stairs in the towers of the building.

After Zahiriddin Muhammad Babur conquered India, he began to create gardens in Agra. One of them was «Boghi Guli Afshan», «Boghi Orom» (located on the banks of the river Jamna) » [2,21-22].

A martyr of beauty and flowers, Zahiriddin Muhammad Babur adorns the gardens he has built with the fruits and flowers that exist in the world.

When Zahiruddin Muhammad Babur died, he was initially temporarily buried in a garden on the banks of the Jamna River. The park is still a place of pilgrimage under the name «Rome Garden».

«After the death of Zahiriddin Muhammad Babur, the descendants of Babur Mirza continued the wonderful tradition of building beautiful gardens. Valuable information about the gardens created during the reign of Akbarshah (1556-1605), the greatest representative of the Baburid dynasty, is given in the work of Akbarshah's state adviser, scholar Abulfazl, «Otini Akbari». In particular, 23 miles from Agra, Akbarshah built a new capital in Fathpur Sekri and covered its square with beautiful gardens. In Kashmir, he built the Nasim Garden on the shores of Lake Dal in

Srinagar. Among the gardens built by Akbar, it is the most beautiful and majestic around the Akbar Mausoleum in Sekandara in Agra. Babur Mirza's grandson Jahangir Mirza (1605-1627) is mentioned in Indian history as a great patron of fine arts and gardening » [5,71-72].

Later, the order of creation of gardens changed a bit. Sitorai mohi khosa, built in Bukhara in the 19 th century, and Mohlar Oyim in the village of Oyim in Andijan are the latest such constructions.

Eson Davlatbegim square in the Koshtegirmon district north of Andijan is one of those traditional constructions.

In the work of the famous English writer Margaret Rumer Goden (1907-1998) dedicated to Babur's daughter Gulbadanbegim, two miniatures depicting Eson Davlatbegim's square are given. One depicts a conversation between young Bobur and his grandmother. In the miniature, the gate parts of the inner and outer walls of the garden are depicted to the east. Pictures of several servants are also given. In one of them, a man is greeted by a gatekeeper as he climbs the stairs to the outer wall gate and explains something. Then the inner wall of the courtyard, the door, and the servants walking around were depicted. At the top of the pavilion, Prince Bobur is talking to his grandmother, Eson Davlatbegim.

The second miniature depicts Bobur in the garden when Umarshaikh Mirza was informed of his death in Akhsi. According to the «Boburnoma», this bad news first came to the garden. «When this happened to Umarshaikh Mirzo, I was in Andijan, in the garden ... I rode with pain and made a fortress with a navkar and a merchant next to me, » Babur wrote.

The miniature, it seems, depicts the exterior of the park: officials greet the messenger on horseback with excitement. Below is a camel and its bridle, a state of chaos in the mood of the people... These two miniatures greatly expand our perception of the garden and encourage us to gather new information about it.

Pirimkul Kadyrov in his novel «Bobur» described Eson Davlatbegim's square in an imaginary short phrase: «The beautiful square in the north of the city is surrounded by a high wall. There are guards at the gates » [6,34].

This description also corresponds exactly to the appearance reflected in the miniature. Inside the garden, the buildings in it are reflected in the writer's imagination as follows: a pavilion, a marble pool, a golden shed by the pool, rooms with elegantly carved doors.

Although all the rooms are not depicted in the miniature in Goden’s book, there is a partial view of the pavilion, pool and some outdoor buildings. As we read the page of the novel «Bobur» about the garden of Eson Davlatbegim, the garden described by the author passes through our imagination. The garden scenes in the miniature are combined with the writer’s expression, which greatly expands our knowledge of the subject.

In short, the fact that «Boburnoma» has become one of the immortal monuments of oriental culture as a symbol of the formation of patriotic education among young people, it is a unique example of India, as well as a high level of pride of the Uzbek people.

References

1. Mirziyoyev Sh. We will resolutely continue our path of national development and raise it to a new level. Volume 1 Tashkent. «Uzbekistan». 2017

«БОБУРНОМА» ТАРЖИМАЛАРИДА ПАРЕМИЯЛАРНИНГ АКС ЭТИШИ

Муҳаммадиева Д.
Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёт университети таянч докторанти

Жаҳон турколог олимлари якдиллик билан айтишганидек, «Бобурнома» қомусий асар ҳисобланади. Ундан барча соҳа олимлари ўзларига тегишли маълумотни топишлари мумкин. Турк олими Р.Р.Арат таъкидича, "Бобурнома" жаҳон адабиётидаги тарих, хотирот ва саёҳатга оид асарларнинг энг гўзалидир[30]. Маълумотларга қараганда, асар бугунга қадар қирққа яқин мамлакат олимлари томонидан севиб ўрганилмоқда. Шу боисдан ҳам бу асар дунёнинг йигирмага яқин тилларига таржима қилинган. Ҳатто баъзи тилларда бир нечта таржима вариантлари мавжуд. «Бобурнома»нинг озарбайжон тилига қилинган таржимаси ҳам мана шу жиҳатдан аҳамиятлидир.

Асарнинг озарбайжон тилида иккита таржимаси мавжуд бўлиб, Рамиз Аскер томонидан қилинган таржима Бокуда икки марта нашр этилган. Ушбу таржимада (2011) «Бобурнома»нинг туркча (Р.Р.Арат), русча (М.Салье) ва Порсо Шамсиев томонидан тайёрланган ўзбекча нашрларидан фойдаланилган. Таржиманинг Кириш қисмида муаллиф Бобур Мирзонинг шахсияти, ҳаёти ва ижоди ҳақида батафсил тўхталади. Таржимада ҳар бир шахс, ҳар бир жой ёки муҳим тарихий воқеалар алоҳида сарлавҳалар билан ажратиб берилган. Асар шу қадар кичик таснифларга бўлинганки, баъзи сарлавҳа остидаги воқеалар бир бетгаям бормайди[31]. Масалан, «Султон Маҳмуд Мирзонинг Самарқанд тахтига чиқмоғи»(40-б) ёки «Бойсунқур Мирзонинг Самарқанд тахтига чиқмоғи»(47-б) бўлимлари ярим бетдан, «Бойсунқур Мирзонинг Хисравшоҳ тарафиндан ўлдирилмоғи» (85-б) бўлими 7 қатордан иборат. Сарлавҳаларнинг умумий миқдори 153 та.

Таржима ўзбекча ва туркча матнга асосланганлиги учун воқеалар изчил ёритилган, тушиб қолган ёки берилмай ўтиб кетилган ҳолатлар йўқ. Аммо асарнинг сўнгги 936-йил воқеалари[32] 935-йил воқеаларига қўшиб юборилиб, шу билан якунланган. Таржиманинг умумий ҳажми 424 бетни ташкил қилади.

Таржимада мақол ва маталлар матн ичида асл манбадагидек ёзилган, сноскада ҳозирги озарбайжончада қанақа маъно англатиши берилган. Масалан: «Deh koca və dərəxtan koca» məsəlini, deyəsən, Axsi üçün söyləmişlər[33]. («Деҳ кужо ва дарахт кужо» масалини Ахси учун айтилганга ўхшайди. *–таржима бизники- Д.М.)* матн тагидаги изоҳда эса *Kənd harada, ağaclar harada*(қишлоқ қаерда, дарахтлар қаерда, *-таржима бизники-Д.М.)* деб изоҳ берилган. Мисоллар:

Зикри номеро ҳакимон умри соний гуфтанд (*(б.142.) – Həkimlər adın yad edilməsini ikinci ömür saymışlar.(*б.199); тенг бўлмагунча тўш бўлмас (б.115.) – *dəng olmayan tuş olmaz (б.155)*; Ким ўлар ҳолатга етса, ул билур жон қадрини (б.218.) – *Kim ölər hələkətə yetsə, ol bilir can qədrini (б.321);* Агар сад солмони ва-р яке рўз, Бибояд рафт аз ин кохи дилафрўз *(б.99.) – İstər yüz il, istər bir gün qal, Bu könül aydınladan köşkü tərk edəcəksən* (133); Не бормоққа ере муқаррар, Не турмоққа юрте муайян *(б.160.) – Nə getmək üçün qərar verilmiş bir yer, nə də durmaq üçün müəyyən bir yurd vardı(229).*

[30] Gazi Zahirüddin Muhammed Babür, Vekayi (Babür'un Hatıratı),I-II-cılt. – Ankara, 1987. S.037.
[31]Zahiriddin Muhammad Babur. Baburnama. Çevıren Ramiz Askar. 2-naşr. – Bakı, 2011.
[32]936-йил туркча матнда 5 қатор билан тугаган, ўзбекча матнда эса қўлёзмада тугаган ўрни кўрсатилиб, бошқа манбалар асосида тўлдирилган.
[33]Zahiriddin Muhammad Babur. Baburnama. Çevıren Ramiz Askar. 2-naşr. – Bakı, 2011. – Б.23.

«Бобурнома»ниг озарбайжонча таржимаси изоҳларга бой, уларнинг асосий қисми сатр остида берилган, диққатга сазовор жойи шундаки, изоҳларда туркча, русча ва ўзбекча нашрлар ўртасидаги фарқлар очиб берилган. Асар сўнггида тушунарсиз сўз ва ибораларга таъриф берилган.

«Бобурнома» қозоқ тилига Байузақ Қожабекулы томонидан 1990 йилда «Бабырнама» номи билан таржима қилинади[34]. Бу таржима ўзбекча танқидий матн ва русча таржима асосида қисқартирилган ҳолда босилган. Кейинги 1993 йилда тўлиқ таржима шаклида нашр этилган, аммо исм кўрсаткичлари ва географик номлар харитаси тушириб қолдирилган. Таржиманинг кириш қисмида муаллиф Бобур ва унинг ҳаёти, «Бобурнома»нинг бадиияти ва таркибий қисмлари ҳақида батафсил маълумот беради.

Қозоқча таржимада воқеалар жуда кичик-кичик мавзуларга бўлиниб берилган. «Бобурнома»даги афоризмлар, ғазаллардан парчаларни Оразақын Асқар қозоқчага таржима қилган. Нашрни кузатиш мобайнида паремияларнинг ўгирилишидаги ўзига хосликни аниқладик. Муаллиф мақолларни сўзма-сўз ўгирмайди, ҳозирги қозоқчада мавжуд бўлган эквивалентини қўллаш йўлидан боради. Масалан, *Ғофил аз инжо ронда ва аз онжо монда (Ғофил бу ердан қувилган, у ердан ажралган)* матали (б.64.) шундай ўгирилган: *Тоқал ешкі құдайдан муйіз сураймын деп, құлағынан айрылыпты* (б. 77.). Ёки, *«Инонмағил дўстунгга, сомон тиқар пўстунгга»* мақоли *(б.76.) «Жау жоқ деме, жар астында»* (б.99.) деб таржима қилинган. Мисоллар:

Қопудағини қопмаса, қариғунча қайғурур (б.74) – *Өз аяғымен келіп, қолымызға түскелі тұрған жау еш шығынсыз, жылыстап кетті.(95*), Корҳоро бавақт бояд жуст, Кори бевақт суст бошад суст (б.74) – *Дер кезінде біткен іс пайдалысы, Күні өткен соң болмайды жай-мәнісі (95),* Узраш батар аз гуноҳ (б.78) – *Оның ақталғаны қылмыстан да жаман (102),* Лаззати май маст донад, ҳушёрон чи ҳаз *(б.108.) –Мас біледі шараптың тәтті дәмін, Татпағанды демейді ол шат қыламын емес жаман егер.*

Эътибор берсак, иккинчи мақолнинг муқобили айнан Бобур айтмоқчи бўлган фикрни ифодаламаган. Чунки Бобур дўстининг хоинлигини таъкидламоқчи, қозоқчада эса атрофнинг хатарларга тўла эканлигига урғу қаратилган.

Кўринадики, таржимон мақолларни таржима қилиш жараёнида ўз тилида мавжуд бўлган эквивалентини қўллаш методидан фойдаланган, бироқ танланган бу метод ўзини у қадар оқламаган. Бунинг оқибатида «Бобурнома»нинг асл ифода услуби бузилган, тасвирийлик акс этмаган. Бу ҳолатни гап тузилишларининг ўзгартирилганлигида ҳам кўриш мумкин. Ишда таржимадаги бу каби камчиликлар яна кўплаб мисоллар асосида кўрсатиб беришга ҳаракат қилинган.

Аввал ҳам таъкидлаганимиздек, «Бобурнома»нинг таржималари ҳақида яхлит, мукаммал тадқиқот олиб борилмаган. Аммо бир неча тадқиқот ишларида айрим маълумотлар учрайди. Ўзга тилларга қилинган таржималарнинг савиясини аниқлаш, уларни ўзаро қиёслаб ўрганиш орқали асарнинг илмий қимматини белгилаш ўзбек халқининг жаҳондаги бошқа халқлар билан адабий-маданий алоқаларини ўрганиш нуқтайи-назаридан ҳам муҳимдир. Зеро, «Бобурнома» дунё шарқшунослари якдиллик билан қайд этганларидек, инсоният маданиятига қўшилган катта улуш ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Бабир Захир ад-дин Мухаммед. «Бабырнама». Қазақша сөйлеткен Байузақ Кожабекұлы. – Алматы, 1993.

[34] Бабир Захир ад-дин Мухаммед. «Бабырнама». Қазақша сөйлеткен Байузақ Кожабекұлы. – Алматы, 1993.

2. Gazi Zahirüddin Muhammed Babür, Vekayi (Babür'un Hatıratı),I-II-cılt. – Ankara, 1987. S.037.
3. Zahiriddin Muhammad Babur. Baburnama. Çevıren Ramiz Askar. 2-naşr. – Bakı, 2011.
4. Zahiriddin Muhammad Babur. Baburnama. Çevıren Ramiz Askar. 2-naşr. – Bakı, 2011. – Б.23.
5. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. «Бобурнома» Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Тошкент, 2002.
6. Саломов Ғ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент, 1983.

“BOBURNOMA” ASARI CHOP ETILISHI VA TARJIMALARI QISQACHA TARIXI

Galiyev S.
Guliston Davlat Universiteti talabasi
Ilmiy rahbar: “Tarix” kafedrasi dotsenti L.B. Qodirova

Ma’lumki, joriy yilning 14- fevralida butun dunyo buyuk tarixiy shaxslaridan biri, o'zbek xalqining qahramoni Zahiriddin Muhammad Boburning 538 yilligi nishonlanadi. Bobur Mirzo va Boburiylar o‘zbek, afg‘on, pokiston va hind xalqari madaniy merosi va tarixiy qadriyatlarini orttirishga xizmat qildilar. Yana shuni ta'kidlash kerakki, Bobur va Boburiylar o'z davrining buyuk siymolari bo'lib, ular jamiyatning ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishi bilan bir qatorda me'morchilik, shaharsozlik, bog'lar, xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligiga katta hissa qo'shganlar. Bizning maqolamizda Hindistonda vujudga kelgan va Yevropa davlatlari tomonidan “Buyuk Mo‘gullar imperiyasi” deb atab kelingan Boburiylar davlati asoschisi Bobur Mirzoning asosiy asari tarixini yoritish muhim masaladir.

Boburning ijodiy merosida “Boburnoma” markaziy o‘rinni egallaydi. Bu asar o‘zbek mumtoz adabiyotida munosib o‘rin egallaydi. “Boburnoma” – qomusiy-ensiklopedik asar sifatida o‘zida juda ko‘p ilmiy ma’lumotlarni jamlagan. “Boburnoma” sharq xalqlari tarixi, bu xalqlarning adabiyoti va san’ati to‘g‘risida qimmatli materiallarga boydir. Mutaxassislarning fikricha, o‘rta asrlarda O‘rta Osiyo, Eron, Afg‘oniston va Hindistonda yaratilgan asarlar orasida bu asarning o‘xshashlari yo‘q.

“Boburnoma”da keltirilgan ma’lumotlarning to‘g‘riliginini o‘sha davr tarixchilari: Xondamir, Muhammad Haydar [1, 545-bet]., Muhammad Solih va boshqalar ham tasdiqlaydi. “Boburnoma” asrini o‘rganish uning avlodlari davridayoq boshlandi. Akbarshoh davrida bu asar bir necha bor turkiychadan forschaga tarjima qilindi. Eng yaxshi tarjima Abdurahmonxon tomonidan bajarilgan.[2] Bu tarjima yuqori darajada bo‘lganligi, ilmiyligi bian mashhur bo‘ldi. “Boburnoma”ning eng yaxshi qo‘lyozmasi Avrangzeb davrida ko‘chirilgan. U Haydarobod qo‘lyozmasi nomi bilan dunyoga mashhurdir. Hozirgi kunga qadar juda ko‘p davlat olimlari Bobur asarlarini o‘rganishda katta hissa qo‘shdilar . Masalan : Gollandiya (1705-yil- Vitsen), Angliya (1826-yil, J.Leyden va V.Erskin; 1844-yil- R.Kalkedot; 1905-yil- A. Beveridj; 1909-yil- Talbot), Germaniya (1810- Y.Klaprat; 11828-yil-A.Keyzer), Fransiya (1871-yil- Pave de Kurteyl; 1980-1985-yillar- Bakke Gromon) Afg‘oniston (Abdul Hay Habibi), Pokiston (Rashid Axtar Nadvi, Shoh Alam Mavliyat), Hindiston (1924-yil- Mirza Nasriddin Haydar, Rizviy), Turkiya 1943-1946-yillar- R.R. Arat va N.I. Bayur) va boshqalar.[3]

XIX asr o‘rtalarida Bobur tarixi va uning asarlariga katta qiziqishni Rossiya imperiyasi bildirdi. Ular uchun O‘rta Osiyo va Hindiston tarixini o‘raganish muhim ahamiyatga ega edi. Rus sharqshunoslari bizning tarixga oid muhim qo‘lyozmalarini o‘rganishga katta hissa qo‘shdilar. Ilk bor “Boburnoma” to‘g‘risida ma’lumot Sankt –Peteburgda “ Ensiklopedik leksikon” da

keltiriladi.[4] N.I. Ilminskiy ilk bor “Boburnoma”ni (turkiy tilda) 1857-yil Qozon tipografiyasida chop ettirdi. N.I. Ilminskiy 1822-yil 22-aprelda Penza shahrida ruhoniy oilasida tug‘ilgan. Maktab va seminariyaning eng yaxshi bitiruvchisi sifatida 1842-yil Qozonga o‘qishga yuborildi. U yerda pravoslav dini akademiyasida taxsil oladi. Bu akademiyaning o‘ziga xos tomoni islom va buddaviylikni ham o‘rgatilishi edi. Shuning uchun talabalar arab, turk va tatar tillarini chuq o‘rganar edilar. Qozon Imperator universiteti o‘sha davrda mamlakatda sharqshunoslik markazi rolini o‘ynardi. Ilminskiy bu yerda ham yaxshi ta’lim ajralib turardi. Ushbu universitet tomonidan xristian dinini tarqatish uchun missionerlik kommisiyasiga Kazembek, Sablukov qatorida Ilminskiy ham kiritildi. Komissiyaning asosiy vazifasi xristianlarning muqaddas kitobini tatar va boshqa turkiy tillarga tarjima qilish va chop etish edi. Bu missionerlik komissiyasi yetarli darajada samara bermadi. Ammo bu tajriba unga o‘zining tarjima tizimini yaratishga yordam berdi. N.I. Ilminskiy 1891-yil 27-dekabrida Qozonda vafot etdi. Rossiya imperiyasiga xizmat qilgan bo‘lsada N.I. Ilminskiy O‘zbekiston tarixiga ham o‘zining bevosita hissasini qo‘shdi. N.I. Ilminskiy rus ziyolilarini ulug‘ podshoh va shoir hayoti bilan tanishtirdi. [5]Uning muharrirligida chop etilgan “Boburnoma” qo‘lyozmasi 1714-yil Buxoroda Timur Po‘lat tomonidan topilgan bo‘lib, sharqshunos Georg Jekat Ker tomonidan Sankt-Peterburgda o‘rganib chiqilgan. O‘rta Osiyoda 1809-yilda Abu al-Vahib tomonidan ko‘chirilgan qo‘lyozma topilgan bo‘lib, u 1824-yilda O.Senkovskiy tomonidan o‘rganilib qayta ko‘chirilgan.[6] Ilk bor chop etilgan “Boburnoma” ba’zi kamchiliklarga ega bo‘lib, hozirgi kundagi asardan farq qilgan.

Eng to‘liq qo‘lyozma yuqorida aytilgan Avrangzeb Olamgir davridagi “Haydarobod qo‘lyozmasi” edi. Aynan shu qo‘lyozmani birinchi bo‘lib ingliz tiliga Annet Syuzanna Beveridj conim tarjima qildi. A. Beveridj (1842-1929) tan olingan sharshunos olima, turkyi va forsiy qo‘lyozmalarni mohirlik bilan tarjima qilgan tarjimon sanaladi. 1905-yil Londonda “Boburnoma”ni ingliz tilida chop etdi. A.Beveridj faqatgina Boburning asarinigina emas, uning nevarasi Gulbadanbegimning “Humoyunnoma”sini ham ingliz tiliga tarjima qiladi.[8] A. Beveridj tarjimasidan foydalangan O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi sharqshunosi M.Salye 1958-yilda “Boburnoma”ni rus tiliga tarjima qildi va S.Azimjonova muharrirligida chop etildi. Yuqoridagi ishlarga qaramasdan, hali ham kamchiliklar mavjud. Jumladan ayrim so‘zlar, ayniqsa Afg‘oniston va Hindistonga taalluqli bo‘lgan geografik nomlar, kishi ismlari, hayvonot va boshqa hil atamalar transkrisiyasini batamom to‘g‘ri va aniq deb bo‘lmaydi. Bu ba’zi kamchiliklarni to‘g‘rilash yosh bobur shunoslarning asosiy vazifasi bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Собр. соч.: в 9 т. Т. 1 / В.В. Бартольд. М., 1963.

2. Бабур-наме / Пер. М. Салье. — Т., 1958. – С. 220.

3. Бабур-наме / Пер. М. Салье. — Т., 1958. – С. 10

“БОБУРНОМА”ДА АЛИШЕР НАВОИЙ ҲАҚИДА ТАРИХИЙ МАЪЛУМОТЛАР

Норов Т.О.

Тошкен давлат иқтисодиёт университети доценти, фалсафа доктори(PhD)

Алимова Г.А.

Қўқон давлат педагогика институти ўқитувчиси, мустақил тадқиқотчи

Заҳириддин Муҳаммад Бобур – нафақат ўзбек халқи тарихида бетакрор тарихий шахс сифатида эътироф этилади. У ўзининг сиёсий фаолияти, жаҳон тамаддунида, ижтимоий-

сиёсий жараёнлар тарихида ўчмас из қолдирган темурий ҳукмдор сифатида, унданда қадрлиси, жаҳон тарихи ва фалсафий тафаккур тарихида ўзининг бетакрор, улуғ файласуф, шоир, тарихнавис олим сифатида ўрнига эга бўлган нодир тарихий сиймодир.

Бобур мирзо ўзининг машҳур “Бобурнома”сида, Амир Темур, деярли ҳамма темурий ҳукмдорлар ва шаҳзодалар ҳақида маълумот қолдирган. Шунингдек, салтанатининг маънавий устуни бўлган яна бир улуғ мутафаккир - Амир Алишер Низомиддин Навоий(1441-1501) ҳақида ҳам қимматли маълумотлар қолдирган. Ушбу мақоламизда, шу хусусда фикр юритамиз. Чунки шу ойда халқимизнинг бу икки улуғ сиймосининг таваллуд айёмлари муносабати билан уларнинг руҳи олдидаги бурчимиз масъулиятидан келиб чиқиб, биз ушбу мақоламизни уларни хотирасига бағишлаймиз.

Мақола таҳлилида 1960 йилда Ўзбекистон Фанлар Академияси нашриёти томонидан нашр этилган “Бобирнома” асарининг академик нашрини асос қилиб олдик. Мақола матнида келтирилган маълумотларга саҳифаларини шу нашр асосида келтирамиз ва изоҳлаб борамиз. Зеро уларни изоҳлашдан кўра яна бир такрор эслатиш десак тўғрироқ бўлади. Чунки бу маълумотларни изоҳлашга зарурият йўқ. Шу сабабли, бизни кўчирмачиликда айбламоқчи бўлганларга шошилмасликни сўраб, кўпроқ сўзни Бобур мирзонинг ўзларига бердик. Негаки, бу масалада ундан ошириб нимадир дейиш, изоҳ бериш, эҳтимол, унинг сўзларини оҳорини тўкиб қўйиши мумкин деб ўйладик. Шуниси эътиборлики, “Бобурнома”да турли воқеалар ва мақом таққазоси билан 16 жойида Алишер Навоий номи тилга олинган.

Бобур мирзо, Навоий шахсига катта ҳурмат билан: “Яна Алишербек Навоий эди, беги эмас эди, балки мусоҳиби эди, кичиклигида ҳаммактаб экандурлар. Хусусият бисёр экандур” (Бобурнома-233). Бунинг мазмуни, Унда яхши хусусиятлар кўп эди. Алишербек Навоий шунчаки бек эмас эди, у ҳукмдорларга суҳбатдош ва маслаҳатчи эди, дейди..

Навоий ҳазратларининг 1464-1469 Ҳиротдан Самарқандга келишини Бобур “сургун”, “қувғин” тарзида шарҳлаб: “Билмон, не жарима била Султон Абусаид мирзо Ҳиридин ихрож *(сургун)* қилди”, дейди (Бобурнома-233)

Мир Алишер Навоий Ҳиридин Самарқандға келган фурсатлар Аҳмад Хожибек била бўлур эди. Султон Ҳусайн мирзо шоҳ бўлғондин сўнгра Ҳирига (Ҳиротга) келди.(Б-77)

“Алишербекнинг мизожи нозук била машҳурдур. Эл назокатини давлатининг ғуруридин тасаввур қилур эрдилар. Андоқ эмас экандур, бу сифат анга жибиллий *(туғма истеъдод)* экандур. Самарқандта эканда ҳам ушмундоқ нозук мизож экандур. Алишербек назири йўқ киши эди. Туркий тил била то шеър айтубтурлар, ҳеч ким онча кўп ва хўб айтқон эмас. Олти маснавий китоб назм қилибтур, беши «Хамса» жавобида, яна бир «Мантиқут-тайр» вазнида «Лисо-нут-тайр» отлиқ. Тўрт ғазалиёт девони тартиб қилибтур: «Ғаройибус-сиғар», «Наводируш-шабоб», «Бадойиул-васат», «Фавоидул-кибар» отлиқ. Яхши рубоиёти ҳам бор. Яна баъзи мусаннафоти *(асарлари)*борким, бу мазкур бўлғонларға боқа пастроқ ва сустроқ воқиъ бўлубтур. Ул жумладин иншоларини Мавлоно Абдурраҳмон Жомийға тақлид қилиб жамъ қилибтур Ҳосили калом, ҳар кимга ҳар иш учун ҳар хатким битибтур, йиғиштурубтур. Яна «Мизонул-авзон» отлиқ аруз битибтур, бисёр мадхулдур*(мадҳга, мақтовга сазовардир)*: Йигирма тўрт рубоий вазнида тўрт вазнда ғалат қилибтур. Баъзи баҳурнинг авзонида ҳам янгилибтур, арузға мутаважжиҳ *(қизиққан)* бўлғон кишига маълум бўлғусидур, Форсий девон ҳам тартиб қилибтур. Форсий назмда «Фоний» тахаллус қилибтур, баъзи абёти ёмон эмастур, вале аксар суст ва фурудтур*(заиф, кучсиз)*. Яна мусиқида яхши нималар боғлабтур. Яхши нақшлари ва яхши пешравлари (етакчи ўриндаги ишлари) бордур. Аҳли фазл ва аҳли ҳунарға Алишербекча мураббий ва муқаввий маълум эмаским, ҳаргиз пайдо бўлмиш бўлғай.

...Ўғул ва қиз ва аҳлу аёл йўқ, оламни тавре фард (ёлғиз яшаш)ва жарийда (*якка*) ўткарди. Авойил*(авввал, илгари)* муҳрдор эди, авосит бек бўлуб, неча маҳал Астрободта ҳукумат қилди, авохир *(кейин, охирида)* сипоҳиликни тарк қилди. Мирзодин(Ҳусайн Бойқаро) нима олмас, балки йилда мирзоға куллий маблағлар пешкаш қилур эди"(233).

Ўша даврдаги Фарғона вилояти элини тили хусусида гапирар экан бу ерда Навоий асарлари тили асосида гапирилишини келтиради. "Эли туркдур. Шаҳр ва бозорисида турки билмас киши йўқтур. Элининг лафзи қалам била росттур. Ани учунким, Мир Алишер Навоийнинг мусаннафоти *(асарлари)* бовужудким Ҳирида нашъу намо топибтур, бу тил биладур(Б-60).

Бобур мирзо, султон Ҳусайн Бойқаро билан ўғли Бадиуззамон мирзонинг Балх ва Астробот вилояти бўйича низолашиб, ёвлашгани ва уни ҳал қилишда Навоийни ўрнини шундай кўрсатади: "...Охир Алишербек ҳам элчиликка келди. Ҳарчанд саъй қилдилар, Астрободни инисига бермакка ризо бўлмади. Дедиким, менинг ўғлум Муҳаммад Мўмин мирзони хатна қилғонда мирзо анга боғишлабтур. Бир кун Алишербек била мирзонинг орасида бир суҳбате ўттиким, мирзонинг тез фаҳмлиғиға ва Алишербекнинг риққати *(нозик фаҳм)* қалбиға долдур. Алишербек сиррий*(махфий)* сўзларни мирзоға гўшаки ғалаба айтти. Дағи дедиким:— бу сўзларни унутунг. Мирзо филҳол *(бирданига)* айттиким, қайси сўзларни? Алишербек бисёр мутаассир бўлуб кўп йиғлади. (Б-100)

Бобур мирзо Навоий билан ижодий мулоқо хусусида: ...Бу иккинчи навбат Самарқадни олғонда, Алишербек тирик эди. Бир навбат манга китобати ҳам келиб эди. Мен ҳам бир китобат йибориб эдим, орқасида турки байт айтиб, битиб йибориб эдим. Жавоб келгунча тафриқа *(айрилиқ)* ва ғавғо бўлди.

...Доим қасида ва ғазал ўткарур эди. Навода бир амал менинг отимға боғлаб ўткарди. Ушул аснода бир рубои айтиб ўткарди. Ул фурсатларда бирар, иккирар *(иккилик)* байт айтур эдим. Вале ғазал тугатмайдур эдим. Биргина турки рубои айтиб йибордим(Б-142-143).

"Бобурнома"да, Амир Темур ва деярли ҳамма темурий султонлар, шаҳзодалар хусусида маълумотлар берилган бўлиб, хусусан, Ҳусайн Бойқаронинг ахлоқ ва атвори хусусида ҳам қимматли маълумотлар битилган: "Аввал тахт олғонда хаёли бор экандурким...*(бу ерда ичкилик ва бошқа айрим бошқа ишлар бўйича)*Алишербек ва баъзилар манъ қилибтурлар. Сўнгралар худ жамиъ иш-кучи суннат ва жамоат мазҳаби била мувофиқ эди(Б-222).

Навоийнинг укаси, хусусида: "Яна Дарвеш Алибек эди. Алишербекнинг туқған иниси эди. Неча маҳал Балхнинг ҳукумати мунда эди. Балхда яхши бекликлар қилди. Тийра мағз ва беҳунарроқ киши эди. Султон Хусайн мирзо аввал Қундуз ва Ҳисор устига келганда тийра мағзлиғидин туттурдилар. Балх ҳукуматидин маъзул *(озод бўлиш, бўшаш)* бўлди. Тарих тўққуз юз ўн олтида*(тахминан 1512-13 йиллар)*мен Қундуз келганда, менинг қошимға келиб эди, масх *(ўзгариш)* ва мабҳут *(ғурурли)* эди. Беклик қобилиятидин дур ва ичкилик салоҳиятидин маҳжур*(маҳрум, йироқ)*. Ғолибо Алишербек воситасидин мунча риоят топқандур(Б-235).

Яна бир бек ҳақида: "Бобо Али эшик оға эди. Аввал Алишербек риоят қилиб эди, сўнгра мардоналиғидин мирзо олиб, эшик оғаси қилиб беклиқ марта басира еткуруб эди"(237).

Навоийнинг ижод аҳлига ҳомийлик ва раҳнамолиги хусусида: Яна Камолиддин Ҳусайн Гозургоҳий эди, агарчи сўфи эмас эди, мутасаввиф *(тасаввуфчи)* эди. Алишербек қошида мундоқ мутасаввифлар йиғилиб, нажд ва самоъ *(зикр тушиш)* қилурлар экандур. Аксаридин мунинг усули яхшироқ экандур. Ғолибо сабаби риояти усули бўлубтур. Бир таснифи бор; «Мажлисул-ушшоқ» отлиқ, Султон Ҳусайн мирзонинг отиға боғлаб битибтур... (239).

Навоий билан ҳамкорликда ижод қилган ижодкорлар мисолида: “Яна Аҳлийдур, омийдур. Шеърлари ёмон эмас, девони ҳам бордур. Хушнависларлин агарчи хили киши бор эди, вале боринг саромади насх таълиқда Султон Али Машҳадий эди. Мирзо учун, Алишербек учун қалин китобатлар қилди. Ҳар кунда ўттуз байт мирзо учун ва йигирма байт Алишербек учун битир эди. Мусаввирлардин Беҳзод эди, мусаввирлиқ ишини бисёр нозук қилди...(244)

Навоий билан Маждиддин Муҳаммад ўртасидаги зиддият ва ихтилоф хусусида: “...Вале Алишербек бошлиқ жамиъ беклар ва аҳли мансаб била зиддона *(зид, қарши)* маош қилди, бу жиҳатдин борча анинг била ёмон бўлдилар. Саъй ва иғво қилиб, Маждиддин Муҳаммадни туттуруб, маъзул*(озод қилдилар, амалдан олишди)* қилдилар. Анинг ўрниға Низомулмулк девон бўлди. Неча маҳалдин сўнг Низомулмулкни ҳам туттуруб ўлтуруб, Хожа Афзални Ироқтин келтуруб девон қилдилар. Мен Қобул келган фурсатда Хожа Афзални бек қилиб эдилар, девонда ҳам муҳр босар эди”, дейди(Б-239).

Навоийнинг замондоши, у билан ижод ва бошқа масалаларда диомий мунозарада бўлган шоир Биноий муносабатлари хусусида, ҳозир ҳам эл орасида машҳур бўлган воқеани шундай баён қилади: ... “Ул жумладин бири будурким бир кун шатранж мажлисида Алишербек оёғини узатур. Биноий (орқаси)га тегар, Алишербек мутояба била дерки, “Ҳиротда шоирлар шунчалик кўпайиб кетдики, оёғингни узатсан оёғинг албатта битта шоирга (орқасига) тегиб кетади” деганига, Биноий ҳазил билан “Ҳа нимасини айтасиз, оёғни йизсангиз ҳам оёқ яна бир шоир(орқасига)га бориб тегади” (*матнда форсий тилда келтирилган*) (Б-242). Биноий ва Навоий муносабатига доир воқеа яна бир жойда “тугмали чакмон воқеаси” мисолида келтирилади(Б-431).

Яна Навоийнинг фаолиятидага бир ҳолат ҳазил мисолида шундай баён қилган: “Алишербекки қалин *(кўп)* нималар ихтироъ қилиб эди ва яхши нималар ихтироъ қилиб эди, ҳар кишиким, ҳар ишта бир нима пайдо қилди, ул ниманинг ривож ва равнақи учун «Алишерий» дер эди. Баъзи зарофат *(ҳазиломуз)* била Алишербекка иснол *(боғлаш, нисбат қилиш)* қилурлар эди. Нечукким Алишербек қулоқ оғриғида ёғлиқ *(румол)* боғлағон учун хотунлар кўк ёғлиқни қийиқ боғлағонни «нози Алишерий» от қўйдилар(242).

Бобур юртдан кетиб, Ҳиротга борганида Навоий қурдирган бинолар, у яратган ва обод қилган кўча ва боғларни томоша қилганини, лекин, у пайтда Навоий ҳаёт эмас эди. Воқеалар баёнидан англаш мумкинки, улар тирикликда кўришишмаган.

У ёзади: “Йигирма кунким, Ҳирида эдим, ҳар кунда кўрмаган ерларни отланиб сайр қилур эдим. Ажзчимиз (йўлбошчимиз)бу сайрларда Юсуф Али кўкалтош эди. Ҳар қайси сайргоҳқа тушулса эди, Юсуф Али кўкалтош бир навъ ош тортар эди. Бу йигирма кунда машҳур сайргоҳлардин бир Султон Ҳусайн мирзонинг хонақоҳидин ўзга ер кўрулмаган шояд қолмади экин, Гозургоҳ ва Алишербекнинг боғчаси ва жувози коғоз ва Тахти остона ва Пуликоҳ ва Каҳдистон ва боғи Назаргоҳ ва Неъматобод ва Гозургоҳнинг хиёбони ва Султон Аҳмад мирзонинг ҳазираси ва Тахти Сафар ва Тахти Навоий ва Тахти Баргар ва Тахти Ҳожибек ва Шайхи Баҳоуддин Умар ва Шайх Зайниддин ва Мавлоно Абдурраҳмон Жомийнинг мазорот ва мақобирини ва намозгоҳи Мухтор ва ҳавзи Моҳиён ва Соқи Салмоя ва Биллурийким, асли Абулвалид экандур, Имом Фахр ва Боғи Хиёбон ва мирзонинг мадорис ва мақобирини ва Гавҳаршодбегимнинг мадраса ва мақбарасини ва масжиди жомиъни ва Боғи Зоғон ва Боғи Нав ва Боғи Зубайда ва Султон Абусаид мирзо солғон дарвозаи

Ироқнинг тошида Оқсарой ва Пўрон ва Суфаи Тирандозон ва Чарғолонг ва Мирвоҳид ва Пулимолон ва Ҳожа Тоқ ва Боғи Сафид ва Тарабхона ва Боғи Жаҳоноро ва Кўшк ва

Муқаввийхона ва Савсанихона ва дувоздаҳ бурж ва Жаҳоноронинг шимол тарафидаги улуғ ҳавз ва тўрт тарафидаги тўрт иморат ва қалъанинг беш дарвозаси: Дарвозаи Малик ва Дарвозаи Ироқ ва Дарвозаи Фирузобод ва Дарвозаи Хуш ва Дарвозаи Қипчоқ ва Бозори Малик ва Чорсув ва Шайхулисломнинг мадрасаси ва Маликларнинг масжиди жоми ва Боғи шаҳр ва Бадиуззамон мирзонинг Жўйи Инжил ёқасидаги мадрасаси ва Алишербекнинг ўлтурур уйлариким, “Унсия” дерлар, мақбара ва масжиди жомийниким, “Қудсия” дерлар, мадрасаси ва хонақоҳиниким, “Халосия" ва “Ихлосия” дерлар, ҳаммом ва доруш-шифосиниким “Сафоия” ва “Шифоия” дерлар, борини андак фурсатта сайр қилдим(Б-255).

Одина куни ойнинг йигирма учида Алишербекнинг тўрт девонидин буҳур*(баҳр, шеър вазни, шакли)*, авзон бир байти била ғазаллар ва абётким, интихоб*(сайлаш, саралаш)* қилиладур эди, итмомиға етти*(тугади)*(Б-314).

Навоийнинг ўлимини қуйидагича баён қилинган: “Султон Ҳусайн мирзо Астробод черикидин ёнғонда истиқболға келди, мирзо била кўрушуб қўпқунча, бир ҳолати бўлди, қўполмади, кўтариб элтдилар. Табиблар асло ташҳис қила олмадилар. Тонгласиға-ўқ *(эртаси куниёқ)* тенгри раҳматига борди. Бир байти ҳасби ҳол воқиъ бўлубтур:

Бу дард илаки ўлармен, мараз чу зоҳир эмас,

Табиблар бу балоға не чора қилғойлар.” (233)

Яъни Навоий ўз ўлимини олдинроқ ўзи башорат қилганлигини айтиб ўтади. Гарчи Навоийнинг ўлими асар ниҳоясида бўлмасада унинг ҳаётининг интиҳоси шу тарзда баён қилиган.

Асар ниясида эса, бир қанча олимлар ва шайхлар Навоий туфайли султон суҳбатига мушарраф бўлганини: “Абулбақоким, илми ҳикмат бобида бебадал эрди. Ва Шайх Зайн садрким, Зайниддин Хавофийни набираси эрди, ҳиддати табъи бор эрди, назм ва иншодин салиқалиғ ва Ҳумоюн шоҳ замонида умаролиғ ҳам топиб эрди. Ва Шайх Абулвоҳид Фориғийким, Шайх Зайн Хавофийни абаси бўлур эрди, хуштабъ ва шеър ҳам айтур эрди. Ва Султон Муҳаммад кўсаким, Мир Алишернинг мусоҳибларидин *(суҳбатдошлари)* эрдиким, шоҳ суҳбатида иззат топиб, сарафроз бўлуб эрди. Ва мавлоно Шиҳоб муаммойиким, «Фақирий » тахаллус қилиб эрди, фазойил ва шеърдин насибаси бор эрди. Ва Мавлоно Юсуфи табибким, анинг Хуросондин тилатиб эрдилар, набз (томир уришини-пульсни) кўрмоғдин ва ташхис қилмоғ анинг иши эрди”(Б-461)деган баҳосиз маълумотларни қолдирган.

Шу ерда машқимиз ниҳоясига етди. Хулоса қилишни ўқиганларга қолдирдик. Яхши ният билан, ўқиганлар етсин муродга деймиз!

«BABURNAME» IN THE WORKS OF FOREIGN RESEARCHERS

Tashkenbayeva D.A.

Zahir ad-din Muhammad Babur - the author of the wonderful work "Babur-name" - "Babur's Notes" took a prominent place among the outstanding figures of science and culture of the medieval East. A talented writer, connoisseur of art, literature and science, an original memoirist, Babur, having a broad outlook and an inquiring mind, left a significant mark in many areas of the life of the peoples of Central Asia, Afghanistan and India. Thanks to his outstanding abilities, Babur went down in history not only as a commander and ruler - the founder of the Baburid dynasty in India, but also as a scientist and poet who left a rich creative literary and scientific heritage in the field of Muslim jurisprudence.

He wrote original lyric works (gazelles, rubai), treatises on Muslim jurisprudence (“Mubayin”), poetics (“Aruz risolasi”) , music, military affairs, as well as a special alphabet “Khatt-i Baburi”. However, the central place in Babur's work is occupied by an invaluable literary monument of prose in the Uzbek language - his historical work "Babur-name". The book was completed in India, it is mostly autobiographical and reflects the history of the peoples of Central Asia, Afghanistan and India in the late 15th - early 16th centuries [1].

In terms of the totality of information and their reliability, "Babur-name" is the most important and valuable historical and prose work, unrivaled among similar works written in the Middle Ages in Central Asia, Iran, Afghanistan and India.

In the richness and variety of material, in language and style, "Babur-name" stands above any historical chronicle compiled by the court chroniclers of that time. It is not surprising, therefore, that at different times this work attracted the closest attention of scientists all over the world.

“He was not the greatest, but much more human than all other Eastern conquerors ... and no matter what people think of him in other respects, we cannot think of him otherwise than with deep sympathy for this generous and sociable to a giant ... ", - notes V.N. Morland in his book" The Agrarian System of Muslim India [2].

The role and place of the scientific and literary heritage of Babur in the cultural life of Central Asia and India is truly enormous. Babur, being one of the best representatives of the feudal culture that developed in Central Asia, made a significant contribution to the development of Indo-Muslim culture and, first of all, Central Asian and Indian historiography.

In terms of its volume and significance, however, the first place in the scientific heritage of Babur is occupied by "Babur-name" - a kind of human document drawn up on the basis of his subtle observations of the world around him. It describes in detail the political situation that reigned in Central Asia, Afghanistan and North India at the turn of the 15th-16th centuries. As a literary and historical monument for the study of feudal relations in Central Asia, Afghanistan and India in the late 15th and early 16th centuries. "Babur-name" is unparalleled in the degree of independence of the information contained in this book.

The merit of Babur as a historian, geographer, ethnographer, prose writer and poet is currently recognized by the world oriental science. His legacy is studied in almost all major centers of Oriental studies in the world (in the CIS, Czech Republic, Slovakia, Germany, Turkey, Italy, France, USA, England, India, Pakistan, Afghanistan). The factual confirmation of this is the new translations into French of Babur-name published under the auspices of UNESCO in Paris in 1980 and 1985. The prominent French orientalist Louis Bazan, in his introduction to the French translation (1980), wrote that "(Babur's) autobiography is an extremely rare genre in Islamic literature." The same opinion is shared by scientists from other countries - S. Azimjanova (Republic of Uzbekistan) [3], Abdul-khai Habibi (Afghanistan), Muhib ul-Khasan (India), who participated in the international publication of Babur-name in French, which is another recognition of the role and place of the outstanding creation of Babur in the international arena.

Interest in this book is largely due to the very extraordinary personal qualities of its author - Zahir ad-din Muhammad Babur, the founder of the vast empire of Baburids in India, which existed for more than three centuries, until the beginning of the 19th century.

"Babur-name" consists of three parts. Its first part is devoted to the description of political events in Maverannahr at the end of the 15th century. The second part covers [4] the events that took place on the territory of Afghanistan, which in the era of Babur was known as the “Kabul inheritance”. The last, third part describes the political events in North India, the geographical data

of the country, its natural features, contains interesting information about the peoples who inhabited this country.

The author of "Babur-name" with his characteristic frankness describes the anarchy that takes place among the ruling circles - the feudal lords, their continuous struggle for power, cites the facts of the devastation of agricultural oases, an increase in land and other taxes, the collection of which became very frequent during the years of turmoil in the possessions of the last Timurids - in Khorasan and Maverannahr.

Thanks to “Babur-name” we learn about the terrible famine that took place in the city of Samarkand in the days of the siege by Sheibani-khan in 1501. When Sheibani-khan, the leader of nomadic Uzbeks, having made several attacks on the city of Samarkand, established his power there, and later conquered Fergana, Babur was forced to leave his native land and go to Kabul. All these events with a detailed description of the places where Babur had to wander in the days of his failures in the struggle for power in Maverannahr are described in the first part of Babur-name, covering the events of 1483-1504. The veracity of Babur's information is confirmed by the historians of that time: Khondemir, Muhammad Haydar, Muhammad Salih, Bennai and others. Babur himself writes: “... everything that is written here is true, and the purpose of these words is not to praise oneself - everything really was as I wrote. In this chronicle I made it my duty that every word I wrote was true and every case was presented as it happened”[5].

During his life in Kabul, Babur became well acquainted with the customs and manners of the country's inhabitants, who were sedentary farmers and nomadic pastoralists and spoke various languages of tribes and ethnic groups living in vast territories. He studied the caravan roads connecting the major cities of the country, and in each case described them in detail in the second part of his book.

The third, last part of "Babur-name" covers the events of 1525-1530. It is more detailed than the previous ones. Babur in this part of the book proved himself to be an outstanding historian of the peoples of India of the era described. The vastness of his knowledge in the field of history, economics and culture of the peoples of India surpassed the data of most Indo-Muslim historians of his time, second only to Abu Raikhan Beruni [6].

"Babur-name", although it is devoted to the political history of the above-named countries at the turn of the 15th-16th centuries, is also replete with invaluable materials from the socio-economic life of peoples, touches upon questions of morality, ethics, morality and other aspects of the contemporary author’s era.

“Babur-name” contains numerous information about the literary environment of Babur himself. On the basis of this information, it is possible to reconstruct the biographies of many little-known poets of that time who lived in Central Asia, Afghanistan and India and wrote their poems in Persian and Uzbek. The book contains many bright, with great wit, sketched verbal portraits of a number of his contemporaries - statesmen, poets, artists, musicians.

Literature

1. Le livre de Babur. Traduit du turc tchatay par loan-Louis Bacque Grammant. - Park.: UNESCO,1980. Intraduction by Louis Basane.

2. W. N. Morelend. The agrarian System of moslem India. - Cambrige, 1929.

3. Azimdzhanova S. Beruni i Babur ob Indii / Sb. Beruni i gumanitarnyye nauki, — T., 1972.

4. Mohibbul Hasan. Babur en Jnde. Le livre de Babur. — Paris, UNESCO, 1980. — P.40—41.

5. Lamb H. Babur the Gigr. First of the Great Mogols. — New Jork, 1961.

YOSHLARNI VATANGA DAXLDORLIK HISSINI KUCHAYTIRISHDA BOBUR MA'NAVIY MEROSINING O'RNI

Xodiyeva B.X.
Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani 5-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

"Vatan" atamasi aslida arabcha so'z bo'lib, "ona yurt" ma'nosini anglatadi. Vatan tushunchasi keng va tor ma'noda ham qo'llaniladi. Bir xalq vakillari jamuljam yashab turgan, ularning ajdodlari azal-azaldan istiqomat qilgan hudud nazarda tutilsa, bu tor ma'nodagi tushunchadir. Kishi tug'ilib o'sgan uy, qishloq nazarda tutilsa, bu keng ma'nodagi tushunchadir. O'zbeklarda falonchi vatanli bo'libdi, deyilganda o'sha odam uy-joyli, boshpanali bo'ladi,degan ma'noni anglatadi[1, 139].

Vatan ravnaqi g'oyasi, Vatanga daxldorlik hissi mazmunini har bir kishining manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg'unlashtiruvchi, uni xalq baxt-saodati yo'lida xizmat qilishga undovchi bunyodkor g'oyadir. U milliy istiqlolning oliy maqsadi – O'zbekistonda yashayotgan barcha fuqarolarning el-yurt kamoli bilan bog'liq orzu-umidlarini amalga oshirishni ifodalaydi. Vatanni ardoqlash , e'zozlash va unga xizmat qilish asosiy qomusimizning 52-moddasida ham ta'kidlab o'tilgan. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasini himoya qilish – O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar"[2, 18].

Har qanday davlat o'z istiqbolini sog'lom va barkamol avlod timsolida ko'radi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonini, kuchli fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlat qurishdek ezgu maqsadlar ro'yobini yoshlar ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida yoshlarning zamon talablari darajasida ta'lim-tarbiya olishi, vatanparvar bo'lishi, shu aziz Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirishi, salomatligini mustahkamlashi, o'z kuchi, bilim va salohiyatini yuqori, dunyoqarashini keng, mustaqil fikrlaydigan avlodni voyaga yetkazish va tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridandir.

Bugungi kunda yoshlarimizni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda o'tmishda yaratilgan ma'naviy meros va harbiy sarkardalar jasoratidan bahramand etishni talab etmoqda. Bu haqda birinchi Prezidentimiz Islom Karimov: "Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi"[3,29-30], deya ta'kidlab o'tgan edi. Binobarin, xalqimizning buyuk ma'naviyati uning tarixini chuqur o'rganish, anglash orqali Vatanimiz kelajagi hisoblanmish yoshlarimizni yagona maqsad sari muqaddas O'zbekistonimiz uchun xizmat qilishimiz zarur ekanligini taqozo etmoqda.

Bugungi kunda Vatanimiz oldida turgan eng dolzarb vazifamiz bu mustaqillikni asrash,xalqimiz tinchligini, osoyishtaligini saqlash muhim o'rin tutadi. Tarixda yurt ozodligi, mustaqilligi yo'lida dushmanga qarshi mardonavor kurashgan buyuk Vatandoshlarimiz Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddin Kubro, Amir Temur va Bobur kabi milliy qahramonlarimizni jasoratini yoshlarimiz ongiga singdirish orqali ularda Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirish va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she'riyatida o'ziga xos o'rin egallagan adib, shoir, olim bo'lish bilan birga yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir. Bobur

keng dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida nomi qolgan bo‘lsa, serjilo o‘zbek tilida yozilgan «Boburnoma» asari esa jahonning mashhur tarixiy va geografik asarlaridan biriga aylandi. Uning nafis g‘azal va ruboiylari turkiy she’riyatning eng nodir durdonalari bo‘lib, «Mubayyin» («Bayon etilgan») asari islom qonunshunosligi, «Xatti Boburiy», «Harb ishi», «Aruz haqida»gi risolalari esa, she’riyat va til nazariyasi sohalariga munosib hissa bo‘lib qo‘shildi.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483 yilning 14 fevralida Andijonda, Farg‘onaning hokimi Umar Shayx Mirzo oilasida dunyoga keldi. Bu davrda Markaziy Osiyo va Xurosonda turli hokimlar, aka-ukalar, tog‘a-jiyanlar, amakivachchalar o‘rtasida hokimiyat - ulug‘ bobolari Amir Temur tuzgan yirik davlatga egalik qilish uchun kurash nihoyat keskinlashgan edi.

Adabiyot, nafis san’at, tabiat go‘zalligiga yoshligidan mehr qo‘ygan Zahiriddin barcha temuriy shahzodalar kabi bu ilmlarning asosini otasi saroyida yetuk ustozlar rahbarligida egalladi.

«Boburnoma»da kishini sehrlaydigan, har galgi mutolaadan so‘ng albatta hayratga soladigan, tasavvuringizga kirmagan mo‘jizaviy faktlar, raqamlarga ko‘zingiz tushadi. Boshqa bironta tarixiy, nasriy asarlarda ko‘zga tashlanmaydigan misollar -hayotiy, kundalik turmushda sodir bo‘ladigan voqealar tasviri kishini hayratga soladi, lol qoldiradi. Yana har safar bu bebaho asarni o‘qirekanmiz, Bobur shaxsiyati, uning «Boburnoma»si o‘zining qaysi xislatlari bilan bunchalik inglizu olmon, hindu fors, yaponu nemis olimlarining qalbidan joy oldi ekan, degan savol tinchlik bermaydi.

Boburning o‘lmas sarguzasht, ilmiy, safarnoma asari «Boburnoma»dagi 30 dan ortiq fanlar haqidagi ilmiy, hayotiy, qiziqarli fakt va raqamlar, o‘z davri adabiyotidagina emas, bugungi kunda ham muallifning hayotiy tasvirlari kim haqida so‘z bormasin faqat rost so‘zni aytishga ahd qilingani va bu ishni, bu zahmatni sharaf bilan uddalagani muallifning beqiyos obro‘sini belgilaydi. Shoir Boburning dilbar g‘azallarida ishq, oshiq va ma’shuqa dardidan ko‘ra hayot lazzati va gashti, uning go‘zalligidan bahramand bo‘lish, aziz umrni aziz tutish, do‘st qidirish va uni ardoqlashga intilishni kuyladi. Balki shuning uchundir uning ash’orining har bir misrasida musiqiy dilrabolik, sehrgar xonishning lazzatini his qilamiz. Yoki, bu benazir shaxs 47 yilgina yashab biz avlodlarga hayot qancha umrguzaronlik qilishda emas, balki insoniyatga nechog‘li foydamiz tegishida, ular uchun nimani meros qoldirishda ekanligini anglatgani bilan e’tiborlidir. Uning asarlaridagi yuksak san’atkorlik, go‘zal badiiyat, inson sha’nini ulug‘lash kabi jihatlari bilan Boburni ardoqlashimizni anglab yetganday bo‘lamiz.

Bu buyuk ajdodimiz asarlarini mutolaa etib, hayolan Bobur shuhratining asl zaminiga yetmagandek, bu buyuk shaxs haqida ahli ilm, uning muxlislari bilan bo‘lgan suhbatlarga quloq solamiz va bu sirni topgandek bo‘lamiz. To‘satdan, Bobur zamondoshlaridan mehr ko‘rmay ham ularga mehr bergan inson ekanligini anglab yetamiz.

Boburga berilgan bu muxtasar, ammo mazmunan keng bahodan aksari uning insonga mehr ko‘rsatish, halol va sadoqat bilan yashashga qaratilgani kishini lol qoldiradi.

Bobur barcha temuriyzodalar ichida bobosi Amir Temurning yagona saltanatini qayta tiklash, mustahkam davlatchilikka ega saltanat uchun kurashni maqsad etganlarning birinchi da’vogari bo‘lgan. Albatta, bu jangu jadallar, yurt olish va berish qurbonliksiz bo‘lmagani aniq. Biroq uning shaxsiyatidagi yuksak insoniy fazilatlar, ayol zotiga ehtirom, atrofdagilarga mehr va shafqatda bo‘lish, odamlar uchun saxovat eshigini ochish umr mazmuniga aylangan. Bu bilan u boshqa saltanat egalaridan farq qiladi. Shu bilan ham Boburni biz ehtirom bilan ardoqlaymiz.

Ingliz tarixchisi Eduard Holden esa «uning manglayida yuksak fazilatli inson deb bitib qo‘yilgan» deydi[4, 158]. Agar Boburga nisbatan bu baholarni G‘arb olimlari bildirayotganligiga e’tibor bersak, uning teran insoniy xususiyatlarining olamiga kirib borish, bugungi avlodga,

ayniqsa yoshlarga bu shaxs haqida yanada kengroq ma’lumot berish lozimligi o‘z-o‘zidan ayon bo‘ladi.

Shaxsning ruhiyati va xarakterida mavjud xususiyatlar irsiyat orqali ko‘proq namoyon bo‘lishini allaqachon ilm isbotlab bergan. Zahiriddin Boburdagi muruvvat va saxovatmandlik xislati otasi Umarshayx mirzodan yuqqan. Boburning nazarida Umarshayx yaxshi sarkarda, davlat arbobi bo‘lmasa ham, pok siyratli musulmon, birovning haqqiga xiyonat qilmaydigan, saxovatpesha shaxsbo‘lgan.

Barcha davrlarda ham, ayniqsa Bobur hukmronlik qilgan XV-XVI asrda davlat boshqaruvi, uning barcha bo‘g‘inlarini nazorat etish va bir butunlikda asrash ancha murakkab bo‘lgan. Bunda mavjud siyosiy, ijtimoiy, moliyaviy va yurt birligini ko‘zlagan holda boshqaruv tizimini qo‘ldan bermaslikka intilishgina emas, balki bir yaxlitlikda saqlash yuksak mahorat talab qilgan va bemalol aytish mumkinki, Bobur bu vazifani sharaf bilan bajargan.

Boburning odam zotiga muruvvat va shafqati shunchalik kengki, uning sarhadini belgilash amrimahol. Ayniqsa uning ota sifatida o‘z farzandlari, farzand sifatida ota-onasi, sarkarda sifatida o‘z lashkari, beklari, oddiy fuqarosi, hatto shoh sifatida o‘z dushmanlariga ko‘rsatgan muruvvati bu bag‘ri keng insonning yuksak odamiyligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. IbrohimovA., Sultonov X., Jo‘rayev N. Vatan tuyg‘usi. –T.; O‘zbekiston, 1996,- B.139.
2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi –T.; O‘zbekiston, 2019, -B. 18.
3. Karimov I.A.Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. –T,: “Ma’naviyat”, 2008. – B.29-30.
4. Hasan Qudratullayev. Bobur armoni –T.: Sharq, 2009. –B.158.

ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР АСАРЛАРИДА ВАТАНПАРВАРЛИК ВА ЭЛСЕВАРЛИК ҒОЯЛАРИНИНГ ИФОДАЛАНИШИ

Эргашева М.З.

Бухоро вилояти Бухоро туманидаги 50-умумтаълим мактаби ўқитувчиси, юридик фанлари номзоди, доцент

Миллий маънавий мерос- миллатимизнинг, халқимизнинг беназир бойлигидир. Бу бойлик энг катта қадрият ҳисобланган буюк мутафаккирларимиз, аллома аждодларимиз асарларида, ғояларида чуқур ўз ифодасини топган.

Давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев ҳаққоний таъкидлаганларидек: “Буюк аждодларимиз бўлган ислом оламининг мутафаккирлари асарларини, уларнинг бутун жаҳон цивилизацияси ривожига қўшган бебаҳо ҳиссасини чуқур ўрганиш, теран англаш ва кенг оммалаштириш алоҳида аҳамиятга эгадир” [1, 35]. Юртбошимиз Олий Мажлисга қилган Мурожаатномаларига: “Биз ўз олдимизга мамлакатимизга Учинчи Ренессанс пойдеворини барпо этишдек улуғ мақсадни қўяр эканмиз, бунинг учун янги Хоразмийлар , Берунийлар, Ибн Синолар, Улуғбеклар, Навоий ва Бобурларни тарбиялаб берадиган муҳит ва шароитларини яратишимиз керак” [2, 2]- , деб алоҳида уқтирдилар.

Шу маънода, буюк шоир ва давлат арбоби Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг илмий –маънавий меросини, унинг ватанпарварлик, инсонпарварлик , меҳр-у оқибат, сабр-у тоқат, меҳнатга муҳаббат каби ғояларини янада чуқурроқ ўрганиш

муҳим аҳамият касб этади. Атоқли мутафаккир, давлат ва сиёсат арбоби, беназир шоир, тарихчи, истеъдодли саркарда, Бобурийлар сулоласи асосчиси, Темурий шаҳзода Заҳириддин Муҳаммад ибн Умаршайх Мирзо Бобур – ўзбек халқи маданияти тарихида ўчмас из қолдирган буюк шахсдир.

Таъкидлаш жоизки, Бобур илмий меросининг энг машҳури ва энг йириги унинг “ Бобурнома” асаридир. Асарнинг асли номи “Бобурия” бўлсада, уни “Воқеанома”, “Тузуки Бобурий” , “ Воқеоти Бобурий” деб атаганлар, кейинчалик асар “Бобурнома” деган ном билан машҳур бўлиб кетган. Унда буюк давлат арбоби, моҳир саркарда , шоҳ ва шоир Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг шахси, дунёқараши, ижтимоий - сиёсий фаолияти , меҳнат-у машаққатларга бой ҳаёти ва бошқалар чуқур ифодаланган.Бу тўғрида Бобурнинг ўзи шундай ёзади:

Бу олам аро ажаб аламлар кўрдум,
Олам элидин турфа ситамлар кўрдум.
Ҳар ким бу “ вақойиъ” ни ўқур, билгайким,
Не ранжу не меҳнату не ғамлар кўрдум [3, 107].

Бобурнинг ижтимоий- сиёсий ва ҳуқуқий қарашлари нафақат насрий асарларида, балки унинг шеърий асарларида ҳам кенг ўз ифодасини топган. Ўша давр муҳити, ҳукмдорларнинг олиб борган қонли урушлари, ўзаро низо, жанжал ва адоватлар уни Ватанини тарк этиб чиқиб кетишга мажбур қилганди. Ўз Ватанидан йироқда бўлиш, ундан жудолик Бобурни кўп изтиробларга соларди:

Кўпдан бериким ёру диёрим йўқтур,
Бир лаҳзаву бир нафас қарорим йўқтур,
Келдим бу сари ўз ихтиёрим бирла,
Лекин боруримда ихтиёрим йўқтур [3, 108].

Заҳириддин Муҳаммад Бобур- давлат бошлиғи , ҳукмдор бўлсада, унинг умри ғам-алам, ҳижрон-у изтироблар билан йўғрилган эди.

“Ғурбат бу азиз умрни кам қиладур”, - деб ёзар экан “ ҳижрон ғамидин заиф жоним сўлди, ғурбат алами бирла ичим қон тўлди” [3, 106], дейди.

Ўзи яшаган мураккаб бир даврда ҳар қандай шоҳликдан, олий ва юқори мартабалардан кўра кичикроқ бир амални афзал деб билган ҳукмдор “ Бобиро, шаҳлиғдин яхшироқ бу замонда бир беклик” [3, 113], деб тушунтиради.

Бобурнинг таъкидлашича, агарда инсон юқори мансабни эгаллаганда ва беҳисоб мол-мулк, давлат соҳиби бўлганда ҳам, жамиятни ўз меҳнати билан обод ва фаровон қилувчи халқни унутмаслиги, доимо улар тўғрисида қайғуриши лозим:

Давлатқа етиб меҳнат элин унутма,
Бу беш кун учун ўзингни асру тутма,
Борганни, кел эмди, ёд қилмай, эй дўст,
Бориш-келишингни лутф этиб ўксутма [3, 97].

Ташвиш-у аламларни , ғурбат-у ғамларни, машаққатли меҳнатни бошидан кўп ўтказган Бобур бу тўғрида шундай ёзади:

Неча бу фалак солғуси ғурбатқа мени,
Ҳар лаҳза тугангусиз машаққатқа мени,
Не чора қилай, нетайки, тенгри гўё
Меҳнатни менга яратти, меҳнатқа мени [3, 96].

Олий ҳукмдор Бобур ўз даврининг ҳақсизликлари, адолатсизликлари унга куп кулфат, ғурбат ва мусибатлар олиб келганлигидан қаттиқ норози бўлиб дейди:

Даврон мени ўткарди сари сомондин,
Айирди бир йўли мени хонумондин,
Гаҳ бошима тож, гаҳ балойи таъна,
Неларки бошимға келмади даврондин [3, 95].

У шодлигу хурсандчиликлардан бутунлай кўнгил узиб, жамият ва халқ манфаатларини ўйлашни, кучли ва қудратли давлат тузишни ўзининг олий ва шарафли мақсади деб ҳисоблайди:

Туз оҳ, Заҳириддин Муҳаммад Бобур,
Юз оҳ, , Заҳириддин Муҳаммад Бобур,
Сарриштайи айшдин кўнгулни зинҳор
Уз,оҳ, Заҳириддин Муҳаммад Бобур [3, 93].

Шуни таъкидлаш керакки, Заҳириддин Муҳаммад Бобур кўп меҳнат ва машаққатлар туфайли, ўзи таъкидлаганидек, кучли империя тузган бўлса-да, ўз Ватани жудолигидан қаттиқ куюнади:

Толеъ йўқи жонимға балолиғ бўлди,
Ҳар ишники, айладим, хатолиғ бўлди.
Ўз ерни қўйиб Ҳинд сари юзландим,
Ё Раб нетайин, не юз қаролиғ бўлди [3, 89].

Давлат бошлиғи- шоҳ бўла туриб, Бобур ўзини бошқа мамлакат ҳудудидаги ҳаётини ғарибликда ва ғурбатда ўтказганлиги тўғрисида шундай ёзади:

Ёд этмас эмиш кишини ғурбатта киши,
Шод этмас эмиш кўнгулни меҳнатта киши,
Кўнглум бу ғарибликда шод ўлмади,оҳ,
Ғурбатта севинмас эмиш албатта киши [3, 74].

Хуллас , жамиятнинг асосий соҳаларини қамраб олувчи Бобур асарлари ўзининг чуқур мазмундорлиги, жозибадорлиги ва бадиий равонлиги билан ажралиб туради. Элим деб, юртим деб ёниб ва куйиб яшаган , ўзи ёна туриб миллатга, халққа ёруғлик бера олган, ҳассос шоир ва давлат арбоби Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг илмий ва маънавий меросини янада чуқурроқ ўрганиш, уларда ўзининг юксак ифодасини топган Ватанга муҳаббат, элсеварлик, меҳнатсеварлик ғояларини ўсиб келаётган ёш авлод онгига синдириш, улар таълим-тарбиясида кенг фойдаланиш, тадқиқ-у тарғиб қилиш---ҳозирги даврда

ҳуқуқий демократик давлат қуриш ва адолатли фуқаролик жамиятини барпо этишдек эзгу мақсадни амалга оширишда долзарб аҳамият касб этади. Барча таълим муассасаларида улуғ бобокалонимиз Бобурнинг энг йирик асари “Бобурнома” ни чуқурроқ ўрганиш, ғазал-у рубоийларини кўпроқ ёд олиш бўйича “Энг ёш бобуршунос” номли Республика танловлари ўтказилса, ўқувчи- ёшларининг аллома шахси ва ижодига бағишлаб ёзган шеър ва мақолалари даврий матбуотда мунтазам чоп этилса, мақсадга мувофиқ бўларди.

Фойданилган адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М . Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т. : Ўзбекистон . 2017, 592 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи. 2020 йил, 30 декабрь

V-ШЎЪБА. БОБУР ВА БОБУРИЙЛАР ФАОЛИЯТИНИ ЎРГАНИШГА ОИД ЗАМОНАВИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ВА ЯНГИЧА ЁНДАШУВЛАР

БОБУРИЙЛАР ВА ҲОЗИРГИ ЗАМОН: ВИЖДОН ЭРКИНЛИГИ ҲУҚУҚИ

Абдухаликов С.
Миллий гвардия Ҳарбий-техник институти профессори, фалсафа фанлари доктори

Виждон эркинлигининг ахлоқий бурч, масъулият сифатида таркиб топиши қадимга бориб тақалади. Виждон эркинлиги талабига ҳар бир даврдаги бир бутун жамият ва унинг моддий, ижтимоий, сиёсий - ҳуқуқий ва маънавий ҳаёт соҳаларидаги маданий ўзгаришлар ҳосиласи сифатида қарамок керак. Виждон эркинлиги ғояси инсониятнинг илғор мутафаккирларининг ҳар бир соҳада ҳурфикр эркинлиги учун курашлари асосида шаклланди.

Бизга маълумки, кишилик тарихи қадимги Шарқ, хусусан Шумердан бошланган. Марказий Осиё, шу жумладан ҳозирги Ўзбекистон ҳудудидаги цивилизацияларнинг юзага келиши ҳам ўз қадимий тарихига эга. Бир қатор тарихий, ҳуқуқий ва фалсафий адабиётларда Ўзбекистон ҳудудидаги қадимги, ўрта асрлар ва янги даврлардаги диний - ҳуқуқий ҳаёт муаммолари бирмунча ўрганилган. Ҳудудимизда ислом маданияти қарор топган даврлардан бошлаб шариат нормалари ҳуқуқий тартибга солувчилик статусига эга бўлган. Ўлкамизни Чор Россияси босиб олган даврдан бошлаб совет тоталитар тузуми ўрнатилган давргача шариат нормалари амал қилган.

Ўзбекистон ҳудуди мисолида виждон эркинлиги динга нисбатан олдин ахлоқий масъулият, сўнгра сиёсий талаб ва киши ҳуқуқи сифатида тарихий аспектда монографик ҳолда ўрганилмаган. Ҳолбуки, исломгача бўлган даврларда ҳам ҳудудимизда ҳам оташпараст халқлар билан бир қаторда буддизм ва христиан динига эътиқод қилувчилар яшаганлар. Археологик фактлар Мавороуннаҳр - буддизм пайдо бўлган марказлардан бири эканлигини ва XVI асрдан бошлаб ўлкамизда ҳам арман хаворийлари (григориан) черкови жамоалари фаолият кўрсатаётганликларини кўрсатмоқда. XVI аср охирида старообрядча-эски тақводорлар рус казаклари жамоаси, XIX асрнинг 40 йилларидан эса меннонит - немислар жамоаси диний таъқиблардан қочиб, Хива хонлигига кўчиб ўтганлар. Кейинчалик ҳудудимизга кўчиб келган турли эътиқоддаги халқлар провослав насронийлар, евангелистлар, католиклар жамоалари ва бошқа мазҳабдаги диний жамоаларини бемалол, ҳеч бир тайзиқсиз тузганлар. Милодий йил ҳисобининг биринчи асрларидан бошлаб Самарқанд ва Бухорода яҳудийлар жамоалари ҳам ҳеч бир таъқибсиз иудаизмга эътиқод қилиб келмоқдалар.

Демак, исломгача бўлган ва ислом қарор топган даврлардан то ҳозирги кунгача халқларимиз ва давлатларимиз, оддий фуқародан то давлат арбобигача ўзга диний эътиқоддаги кишиларнинг ўз эътиқод ва ибодатларини ўташларига, агар у эзгулик сари юз тутган бўлса, ҳурмат билан қараганлар. Жумладан, буюк бобокалонимиз Амир Темур шундай дейди: «Қайси мамлакатни забт этган ёки қўшиб олган бўлсам, ўша ернинг обрў-эътиборли кишиларини азиз тутдим; сайидлари, уламолари, фузало ва машойихига таъзим бажо келтирдим ва ҳурматладим, уларга суюрғол, вазифалар бериб, маошларини белгиладим; ўша вилоятнинг улуғларини оға-иниларимдек, ёшлари ва болаларини бўлса, ўз фарзандларимдек кўрдим»[1,36.]. Амир Темурнинг ўз ўлка ва ўзга диндаги кишиларга

ҳурмат билан қараши унинг эзгуликка йўғрилган ўгитларга таянганлигидир. «Бирон ишни қилмоқчи бўлсам, - дейди у, - кенгашиб олиб, кейин Қуръондан фол очардим ва Қуръон ҳукми билан иш қилур эдим» [1, 13.].

Ҳақиқатан ҳам исломнинг Қуръон, Сунна ва бошқа муқаддас манбалари исломий маданиятимизнинг асоси бўлиб диний маросимлар, ахлоқий даъват, ҳуқуқий меъёрларни, анъаналарни, миллионлаб инсон ҳаётининг покликка, эзгуликка бошловчи жиҳатларини ўзида мужассамлаштирган. Дин эркинлигини тан олиш ва унга имкон бериш ҳам эзгуликдир. Жумладан, Қуръоннинг Бақара сурасининг 256- оятида «Динга зўрлаб киритиш йўқдир. Зеро ҳақ йўл залолатдан ажраб бўлди» [2, 31.] анкабут сурасининг 47-оятида эса «Эй Мухаммад, Биз Сиздан аввалги пайғамбарларга Китоблар нозил қилганмиз! Шунингдек, сизга ҳам Китоб - Қуръон нозил қилдик. Бас, Биз Китоб, яъни Таврот ва Инжил ато этган зотлар унга, яъни Қуръонга иймон келтирурлар» [2, 278.], дейилган. Шунингдек, Кофирун сурасининг 6-оятида диний эътиқод эркинлиги узил-кесил қуйидагича баён этилган: «Сизларнинг динингиз ўзларингиз учун, менинг диним Ўзим учундир!» [2, 473.]. Демак, Қуръони Карим мусулмон мамлакатларида бошқа динларга нисбатан муносабат ва диний эътиқод эркинликлари масалаларида ғоявий манба бўлиб хизмат қилган.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур (1483-1529) ана шундай тарихий диний бағрикенглик муҳитида тарбия топган эди. Шунинг учун ҳам Бобур ўзининг “Васиятнома”сида барча мазҳабдаги динларга нисбатан айирмачилик қилмасликни, жумладан, Ҳиндистонда ҳўкиз ўлдурмоғдан чекинишни, ҳеч бир қавм маъбудини бузмасликни асослаб берган ва амалда татбиқ этган. Бобурийлардан Акбаршоҳ даврида вафот этган эркаги билан тирик бева хотинини бирга оловда куйдириш одатларини бекор қилди.

Мустақил Ўзбекистон Республикасининг «Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида»ги қонуни ўтмишда, жумладан бобурийлар даврида ҳар қандай динга нисбатан бўлган бағрикенглик муносабатларининг ворисидир. Мазкур қонун ҳам ҳуқуқий институт сифатида чуқур илмий, инсонпарвар, адолатли ва умуминсоний-байналминал хусусиятга эга. У Ўзбекистон Республикасидаги диндор фуқароларнинг диний эҳтиёжларини қондириш учун зарурий ҳуқуқий шароитларни таъминлайди. Ушбу қонун барча фуқароларнинг дин ва даҳрийликка муносабатидан қатъий назар тенг ҳуқуқли-гини таъминлайди, давлатнинг диний ташкилотларнинг ички ишларига аралашмаслигини ҳаётга татбиқ этади, диндорларнинг ҳис-туйғуларининг таҳқирланишига йўл қўймайди, дин ва ҳурфикрликни танлашда зўрлик ишлатиш ва диний адоват, душманлик кайфиятларини қўзғатишни таъқиқлайди.

Ушбу қонун нормаларида фуқаролар, диндорлар ўртасидаги ўзаро ҳурмат ва инсоний муносабатларни мустаҳкамловчи истиқболли демократиямиз қоидалари ифодаланган. Улар фуқаролар виждони устидан ҳар қандай мажбурий тадбирлар қўллашга имкон бермайди, диндор ва диндор бўлмаган фуқароларнинг тенг ҳуқуқлилигига кафолат беради. Ўзбекистон Республикаси Конституциясида мустаҳкамланган шундай асосий демократик қоидалардан бири фуқароларнинг тўлиқ тенг ҳуқуқлилигидир. Жамиятимизда диндор ва диндор бўлмаганларни қарама-қарши қўйишга, диний ҳис-туйғуларни таҳқирлаш, камситиш, ҳақоратлашга, диний эътиқоди учун таъқиб остига олинишига, диний ташкилотлардан бирига кичик бўлса-да (масалан, исломий бўлганлиги учун), имтиёзлар беришларга йўл қўйилмайди. Ушбу қонуннинг 5-моддасида шундай ёзилган: “Ўзбекистон Республикасида дин давлатдан ажратилгандир. Ҳеч бир динга ёки диний эътиқодга бошқаларига нисбатан бирон-бир имтиёз ёки чеклашлар белгиланишга йўл қўйилмайди” . Бу қонуннинг ҳуқуқий

назарий асослари ва уни амалга татбиқ этиш, хусусан, ҳуқуқий амалиётнинг изчил демократизми тўғрисида гувоҳлик беради.

Барча динлар, диндор ва диндар бўлмаган фуқаролар-нинг қонун олдида тенглигининг эълон ва реализация қилиниши, фуқароларнинг динга мансублиги бўйича қандайдир имтиёзлардан фойдаланиши ва бу ҳақдаги норматив ҳужжатларнинг бекор қилиниши мамлакатимизда виждон эркин-лиги ҳуқуқи демократик хусусиятининг ёрқин ифодасидир. Конституциямиз ва мазкур қонун фуқароларнинг динга муносабатидан қатъий назар, демократик тенг ҳуқуқлилигини, жумладан, меҳнат қилиш, дам олиш, соғлиқни сақлаш, кексалик ва соғлиғини йўқотганда моддий таъминланганлик, уй-жойли бўлиш, таълим олиш, илмий, техник, бадиий ижод ва маданиятнинг бошқа ютуқларидан фойдаланишларини ўрнатган.

Диндор ва диндор бўлмаган фуқаролар Олий Мажлис ва халқ депутатлари Кенгашларига сайлаш ва сайланиш, сўз, эътиқод, матбуотдан фойдаланиш, йиғилиш, митинг, кўча намойиши, шахсий ҳаёт, уй-жой кабилари учун дахлсизлик ҳуқуқларига эга. Айни вақтда давлатимиз юқорида санаб ўтилган демократик ҳуқуқ ва эркинликлардан ташқари барча фуқаролар учун Конституциямизнинг 47-52-моддаларида белгилаб қўйилган бурч-мажбуриятларни ҳам юклайди.

Қонун диндорларга диний жамоа фаолиятида қатнашиш учун кенг ҳуқуқларни беради. Аввалambор, жамоанинг барча аъзолари нафақат ибодатларни бажаришда, балки жамоанинг ҳаёт фаолиятининг турли хил масалаларини ҳал қилишда ҳам тенг ҳуқуқларга эгадирлар.

Қонуннинг байналминал хусусияти барча диндорларнинг миллий ва диний мансублигидан қатъий назар қонун олдида тенглигида намоён бўлади. Мамлакатимизда барча диний ташкилотлар - православ, старобряд, католик, арман-григорян, протестант, шунингдек ҳар хил секталар ўз фаолиятларини ҳеч қандай қаршиликсиз амалга оширмоқдалар. Бундан ташқари асосий диний оқим–ислом (суннийлик ва шиалик), иудаизм, будда-ламаистик оқимлари мавжуд. Диний жамоаларда турли хил миллат ва элат вакиллари мавжуд бўлади. Демак, миллий белги у ёки бу диний эътиқодга мансублиги учун мезон бўла олмайди.

Қонуннинг гуманистик хусусияти унда ҳар бир фуқаронинг виждон эркинлигига бўлган талаби кафолатланганлигида кўринади. Унда инсонга ғамхўрлик қилиш, ҳокимият ёки диний идора вакиллари томонидан бўладиган тазйиқларни чеклаб диндорларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш биринчи ўринда туради. Қонун диндорлар соғлиғини муҳофаза қилади, чунки у дин пешволарининг диний фанатизм натижасида юзага келадиган ахлоқий, моддий ва жисмоний зиён етказишларининг олдини олади.

Демак, бугунги мустақил республикамизда виждон эркинлиги ҳуқуқларининг таъминланишларида Заҳриддин Муҳаммад Бобур ва бобурийлардан Акбаршоҳлар амалга оширган ишларнинг ҳам маънавий озиқавий ўрни бор.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Амир Темур тузуклари. –Т.:”Наврўз”, 1992.
2. Қуръони Карим. –Т.: “Чўлпон”, 1992.

ЖИЗНЬ И НАСЛЕДИЕ БАБУРА

Абдуллаева М.С.
профессор военно-технического института Национальной гвардии Республики Узбекистан
Азамжонов У.У.
курсант военно-технического института Национальной гвардии Республики Узбекистан

Имя Захириддина Мухаммада Бабура занимает достойное место в истории, в числе столпов мировой культуры.

Р.Фольц утверждает, что Бабура нужно считать скорее тюрком. Он называет его отца наполовину тимуридом - тюрком и наполовину чагатаидом, а мать - наполовину чагатаидкой и наполовину моголкой; при этом все чагатаиды к тому времени уже были тюркизированы [7].

Ж. Шальон также описывает Бабура как «тюркоговорящего чагатаида» [2]. «Чагатайским тюрком» называют его Н. К. Синха и А. Ч. Банерджи [9]. Более радикальную позицию занимает М. Х. Нури, который говорит о правомерности суждения, согласно которому Бабура и его потомков можно рассматривать как «узбекскую династию, правившую в Индии на протяжении более 300 лет» [8].

Биография

Мухаммад Бобур, представитель династии Тимуридов, за свою короткую жизнь вошёл в историю не только как полководец и основатель государства великих Бабуридов в Индии, но и как учёный, поэт, оставивший богатое творческое наследие. Обладая широким кругозором и пытливым умом, он оставил значительный след во многих областях жизни народов Средней Азии, Афганистана и Индии. Его имя в истории Узбекистана стоит в одном ряду с такими выдающимися личностями, как Джалолиддин Мангуберди, Амир Тимур, Мирзо Улугбек и Алишер Навои. Народ Узбекистана по праву может гордиться тем, что в числе его предков есть такая личность.

"Этот человек нёс за собой не смерть и разрушение, а напротив – Бабур знаменит тем, что он сам и его потомки создали величайшие произведения науки, культуры, архитектуры. Всемирно известный Тадж-Махал в Индии - яркий символ наследия Бабура. Эта историческая персона и эпоха, в которую он жил, имеют глобальное значение для науки и культуры» [7].

Слава

Пакистан назвал именем Бабура крылатую ракету, которую испытал в 2005 году. Улицы в честь Бабура - Бабар-роад, Бабар-стрит имеются в городах Индии, Пакистана и Бангладеш.

Мечеть Бабура в индийской Айодхье стала камнем преткновения между индуистами и мусульманами, в результате чего сооружение пострадало в 1992 году, эта тяжба длится десятилетиями, и суд постановил разделить землю между религиозными общинами.

Сад Бабура в Кабуле стал частью Всемирного наследия ЮНЕСКО и является любимым местом отдыха афганцев.

В городе Ош на юге Кыргызстана, столь красочно и с любовью воспетом Бабуром, на горе Сулайман-тоо стоит беседка с террасой, построенная им самим - худжра с айваном [1].

Кроме этого, именем Бабура назван Ошский государственный музыкально-драматический театр.

В 1958 году академик И.Муминов был одним из главных организаторов первой научной конференции в Узбекской ССР, посвященной 475-летию Захириддина Мухамада Бабура.

После обретения Узбекистаном независимости на Родине Бабура в городе Андижане ему был установлен памятник и создан музей, открыт парк имени этого замечательного человека, также его имени были удостоены Андижанский государственный университет и областная библиотека.

Парки и проспекты Бабура есть в Намангане, улицы - в Фергане и Нукусе.

В столице Узбекистана – Ташкенте - именем Бабура названы улица и парк. В Ташкенте при Государственном музее литературы имени Алишера Навои АН Республики Узбекистан действует экспозиция (зал) Бабура. В 1992 году в Узбекистане был создан фонд имени Бабура. В 2020 году памятник Бабуру был установлен на Аллее литераторов в Ташкенте.

Разносторонняя деятельность

Несмотря на очень краткое по времени правление в Индии (1526-1530гг.) Бабур сумел в некоторой степени объединить федерально-раздробленную страну и провести в жизнь такие важные мероприятия, как упорядочение земельно-водных отношений и налоговой системы. По его приказу благоустраивались мечети, сооружались здания различного назначения, строились бани, рылись колодцы и т.д. В крупных городах Индии – Дели, Агре, Лахоре, Девалпуре Бабуром заложены сады и парки с декоративными растениями. Характерно то, что при планировке садов он применял среднеазиатскую систему чарбаг. Из «Бабур - наме» становится известно, что в 1526 году в Панипате Бабуром в честь победы над Ибрахимом Лоди был разбит большой сад, именуемый Кабул-бахтом, который, по-видимому, был первым его сооружением на территории Индии. В садах, разбитых в Индии, Бабур впервые применил опыт по выращиванию среднеазиатских дынь и винограда (в Индии до сих пор выращивают сорт винограда названием ангури самарканди, т.е. самаркандский виноград) [4].

Бабур в своей деятельности постоянно преследовал цель - благоустройство властных ему крупных городов Индии. Планировка и архитектура общественных и частных построек, их внешнее оформление и интерьер, имея очень много общего со среднеазиатским стилем, органично сочетались в тоже время с индийской формой и стилем, что привело к соприкосновению двух культур – индийской и среднеазиатской. Джавахарлал Неру в своём труде «Открытие Индии» отмечал, что «после прихода Бабура в Индию произошли большие сдвиги и новые стимулы вдохнули свежесть в жизнь, в искусство, архитектуру, а другие отрасли культуры пришли в соприкосновение» [6].

Торгово-экономические связи

В Индии Бабур постоянно стремился укрепить торгово-экономические связи со Средней Азией, Афганистаном, Ираном, которые были прерваны после поражения Бабура в 1511 году в битве с Убайдуллаханом у Кули Малик, неалёку от Бухары. Специальный фарман (указ) Бабура об измерении расстояния между Агрой и Кабулом, о благоустройстве караван-сараев, постройке специальных колодцев на торговых магистралях, заготовке фуража и съестных припасов для путников был издан с целью ъёма товарооборота страны, нормализации системы внешних отношений с другими странами. Своё дальнейшее развитие эти отношения получили при его последующих преемниках [1].

Монеты Бабура

Первые известные монеты Бабура были выпущены в 1497 году, в которых были помещены надписи: султан Захириддин Мухаммад Бахадур (Бабур) и султан Ферганы, то есть в 1497 году Бабур позиционировал себя как местный правитель Ферганской области [10].

На монетах, выпущенных Бабуром в Самарканде в 1511-1512 гг., была

изображена водоплавающая птица с распростёртыми в полёте крыльями. Можно предположить, что образ летящей птицы, воспринимаемый в средневековье как идея света, благоденствия, был призван вселять надежду

самаркандцам в неспокойное время [3].

На монетах Бабура, выбитых в Мультане в 1530 году, четко выражена приверженность Захириддина Мухаммада Бабура основам суннитского толка и помещены имена четырёх правоверных халифов: Абу Бакра, Умара, Усмана и Али.

Дипломатические связи

В 1520-х годах Бабур установил мирные и добрые отношения с шейбанидами. В 1528 году они отправили ему послов с поздравлениями по случаю его победы в Индии [13]. К 1529 году владения Бабура включали Восточный Афганистан, Пенджаб и долину Ганга, до границ Бенгалии. В 1530 году незадолго до своей смерти Бабур отправил посла к московскому великому князю Василию Ивановичу.

Военное дело

Из сказанного выше следует, что творчество Бабура многогранно и богато, личность его многозначна. Но среди его разносторонней деятельности основное место занимает военное дело. Его многочисленные завоевательные походы сегодня, в которых прослеживается его бесстрашие, решительность, умение предвидеть исход боя могут быть примером ражания современным курсантам, именно эти качества помогают воспитывать у будущих офицеров необходимые качества военного.

Любовь к искусству

Бабур отметился не только как выдающийся полководец и государственный деятель, но и как весьма образованный человек, умеющий ценить искусство. В своей столице Агре падишах собрал вокруг себя немало талантливых писателей, поэтов, художников, музыкантов, исследователей, которым уделял большое внимание.

Творчество

Известен Бабур и как видный поэт, писатель. Центральное место в его творчестве занимает бесценный литературный памятник прозы на узбекском языке – его исторический труд «Бабур-наме», который является самым важным и ценным историко-прозаическим трудом, не имеющим себе равных среди аналогичных сочинений, написанных в средние века в Средней Азии, Иране, Афганистане, Индии [5] и выдержал истинное испытание временем.

Также Бабур - автор трудов «Деван», «Мубаййин», «Аруз Рисоласи», «Рисолаи Валидиййа», «Харб иши». Одним из известных газелей Бабура является стихотворение «Доброта» - «Яхшилик», в котором он пишет о том, что надо делать добро народу.

Наследие Бабура в мировой науке и литературе

Огромный вклад Бабура в развитие науки и культуры признан далеко за пределами Узбекистана, до настоящего времени обсуждается общественностью

и СМИ всего мира.

Знаменитое «Бабур-наме» было переведено на персидский (1586),

голландский (1705), английский (1826), французский (1871), турецкий (1940) и русский (1942) языки. К настоящему времени «Бабур - наме» переведено на 31 язык мира. На основе «Бабур-наме» написаны романы зарубежных авторов Ф. А. Стиль (Париж,1940), Ф. Гренарда (Париж,1930), Г. Лемба

(Нью-Йорк,1961), В. Гаскони (Нью-Йорк,1980), Мунилаъла (6 романов) и др.

Первый роман «Бабур тигр», посвященный истории жизни и деятельности Бабура, принадлежит перу американского писателя Герарда Лема, опубликован в США (Чикаго), (1961) [5]. Данный роман и в настоящее время пользуется широкой популярностью в Америке и других странах.

Гораздо позже, в 1981 году, в нашей стране вышел в свет исторический роман Примкула Кадырова «Звёздные ночи», который был удостоен Государственной премии. Интересные факты о Бабуре можно найти в исследованиях Андрея Березина из Талдыкоргана. О Бабуре написаны писателями поэмы (Айбек, Б. Байкабулов, Х. Давран).

Известный английский учёный Аннет Сусанна Беверидж исследователь и автор перевода «Бабур-наме» на английский язык, ставит эту книгу в один ряд с мемуарами Гиббона и Ньютона. «Мемуары Бабура следует рассматривать в одном ряду с наиболее увлекательными и романтичными произведениями литературы всех времён», - писал другой английский востоковед, издатель стихотворного дивана Бабура Е.Дениссон Росс [11].

Со дня смерти Бабура прошло более четырех с половиной веков, Это немалый срок. Но имя Бабура - историка, талантливого художника слова, умелого полководца и государственного деятеля, - бессмертно. «Память человечества экономна, из великого обилия возникающих образов, имен и деяний она хранит позднее лишь те, которые еще содержат в себе нечто важное и потребное для жизни. Она обобщает уверенно, по какому-то безошибочному чутью, крепко храня нужное, пока оно нужно, и сметая все остальное, как сор, в быстро уносящую реку забвений» [2].

Литература

1. Акматова А.Т. Архитектурные достоинства культовых памятников города Ош в XIX веке // Мировое сообщество: проблемы социально-экономического и духовно-политического развития: сб. науч. ст. Всерос. науч.-практ. конф. (г. Новороссийск, 18—19 апреля 2013 г.) / ред. Л. С. Андрияновой. Пенза: Изд-во ПГУ, 2013

2. Бабур-наме. Записки Бабура. Институт Востоковедения Академии наук Республики Узбекистан. Тошкент:Главная редакция энциклопедий. С.6. 1993.

3. Камышев А. М. Клады медных монет тимуридов и шейбанидов. Самарканд: МИЦАИ, 2013, С. 4.

4. Пандит Н.К., Бисмиллах А. Выступление на встрече в Узбекском обществе дружбы и культурных связей с зарубежными странами. Октябрь 1988.

5. Руденко Е.И. Зарубежные исследователи о тюркском элементе в Южной Азии // Известия НАН РК. Серия общественных и гуманитарных наук. - 2013. - № 2. - С. 4.

6. Уляницкий В. А. Сношения России со Средней Азией и Индией в XVI—XVII вв. Москва, 1889, с.3

7. Bhattacharya S. A Dictionary of Indian History. — Calcutta, 1967. — P. 600.

8. Lobo J.W. Reinventing Cultural Histories — Need to Place India-Central Asia Historical and Cultural Linkages in Proper Geographical and Ethnic Perspectives // International Seminar on Cultures and Societies in Transition. India, Russia and Other CIS Countries. — New Delhi, 2006. — P. 110.

ЁШЛАРНИ САНОГЕН ТАФАККУР ХУСУСИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА БОБУР ИЛМИЙ ВА МАЪНАВИЙ МЕРОСИ

Абдураҳмонова З.А.

ТДПУ ўқитувчиси, психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

1483 йил 14-февралда Андижон шаҳрида туғилган. Заҳириддин Муҳаммад Бобур - ўзбек мумтоз адабиётининг йирик вакили: буюк шоир; тарихчи, географ; давлат арбоби, истеъдодли саркарда; бобурийлар сулоласи асосчиси, темурий шаҳзодаси бўлиб, ёшларига буюк истеъдод соҳиби сифатида қилган самарали ишлари халқимиз томонидан зўр ҳурмат ва эҳтиром билан эсга олинмоқда ва ўрганилмоқда.

Мамлакатимизда маънавий жиҳатдан баркамол, руҳий ва жисмоний жиҳатдан соғлом, ватанпарвар, фидойи инсонни тарбиялаш, янги авлодни вояга етказиш вазифаларини амалга ошириш заруратининг ошиши узлуксиз таълим тизимининг асосий босқичларидан бири умумий ўрта таълим муассасаларида таҳсил олувчи ўсмир ёшидаги ўқувчиларда саноген тафаккурни ривожлантиришнинг ижтимоий-психологик хусусиятларини ўрганишга бағишланган тадқиқотларга зарурат туғдирмоқда.

Ҳар бир инсон ўзлигини англашга , аждодлари ҳақида кўпроқ билишга, улар ҳаётини ўрганишга интилади. Бу борада эса тарихий асарлар беқиёс аҳамиятга эга. Хусусан, Заҳириддин Муҳаммад Бобур асарларидаги ўтмишимиздан ҳикоя қилувчи воқеа ва ҳодисалар биз учун ҳамиша қимматлидир. [3;Б-4.]

Ёш авлоднинг мамлакатимиз барқарорлигига, унинг ижтимоий, маънавий юксалишига салбий таъсир кўрсатаётган экстремистик ва террористик оқимлар, патоген ғоялар таъсирига тушиб қолмаслиги учун муайян ижтимоий-психологик асосни яратиш, такомиллаштириш ҳозирги кунда психология фани олдида турган муҳим вазифалардандир. Ҳозирги вақтда патоген ғоялар ва дестабиллаштирувчи гуруҳларнинг пайдо бўлиш сабаблари, фаолият доираси кенгайишининг олдини олиш мақсадида ёшларнинг саноген тафаккурини ўстириш муҳим назарий ва амалий аҳамият касб этиб, бу соҳада ижтимоий-психологик тадқиқотларни олиб бориш долзарб вазифа бўлиб ҳисобланади.

Президентимиз таъкидлаганидек: “Зеъро, бугун инсоният ғоявий урушлар, маънавий зиддиятлар, зўравон ғояларнинг дунёни қайта тақсимлашга қаратилган ўйинлари авж олган шиддатли замонда яшаяпти. Ҳозир бузғунчилик, ахлоқсизлик ва маънавий инқирозлар ҳар қачонгидан ҳам хатарли тус олмоқда. Ёшларимиз бундай шароитларда ҳамиша ҳушёр ва огоҳ бўлиши, фитна ва ғаразли мақсадлар, манфаатдор кучлар турганини бир лаҳза ҳам унутмасдан, ёшлигиданоқ соғлом тафаккурни шакллантириш лозим”. [1.Б-488.]

Инсонннинг соғлом фикрлашга ундовчи манбалардан бири жаҳон маданиятига улкан ҳисса қўшган улуғ шоҳ, шоир, олим, том маънодаги буюк ижодкор бўлган Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг илмий ва маънавий мероси ҳисобланади.

Бобур Ҳинд заминига Ислом таълимотларини олиб кирган ва дин равнақига ўз ҳиссасини қўшган буюк шахсдир. Ўн икки ёшида отаси Умаршайх Мирзо вафотидан кейин шоҳ бўлган Бобур Мирзонинг ҳаёти жангу жадалларда ўтган. Тақдир тақозоси билан она юртидан кетишга мажбур бўлган. Ҳиндистонга бориб ўз ҳукмронлигини мустаҳкамлаб, марказлашган қудратли давлатни барпо этган.

Бобур гўзал хулқ-атвор эгаси, тақво, шижоат, ҳалоллик, вафодорлик, сабр-тоқат, ҳиммат, адолат, раҳм-шафқат каби хислатларни мужассамлаган. Бу хислатлар унинг ижодида ҳам ўз ифодасини топган.

Бори элга яхшилиғ қилғилки, мундин яхши йўқ,
Ким, дегайлар даҳр аро қолди фалондин яхшилиғ.

Шоир ушбу машҳур байт орқали: “Бировдан ёмонлик кўриб турганингда ҳам фақат яхшилик қил, ёвузликка эзгулик билан жавоб қайтар”, деб таъкидламоқда. Бобурнинг асарларидаги ахлоқий қарашлар, бағрикенглик, инсонпарварлик тамойиллари инсонларни доимо эзгуликка чорлаб туради. [2; Б.6-7.]

Бинобарин, инсоннинг соғлом тафаккури, мустаҳкам ирода ва эътиқоди, ҳалоллик ва адолат билан ҳаёт кечириши, инсон ва ижтимоий ҳаётга хос барча хислат, фазилат, хусусиятларга эга бўлиш, унга амал қилиш каби маънавий бойлик мажмуи бўлиб ҳисобланади.

Бобурнинг ёшлиги Андижонда ўз даврининг етук алломалари, фиқх илмининг уламолари шунингдек харбий стратигияни яхши биладиган саркардалардан сабоқ олиш билан ўтади. Бобурнинг отаси Умаршайх мирзо 1494 йилда 39 ёшида Ахсида фожеали тарзда халок бўлади. Бу пайтда эса Бобур 12 ёшда эди. Тахт учун турли шахслар қаттик кураш олиб боради. Бобур ўзининг зеҳну-заковати ва довюраклиги, шижоат ҳамда собитқадамлиги сабаб ўзининг асосий душманлари саналган Султон Ахмад Мирзо ва Султон Махмудхонни хужумларини бартараф қилиб 12 ёшида тахтга ўтиради. [2; Б.9-10.]

Соғлом тафаккурда намоён бўладиган тафаккурнинг тезлиги хусусан фавқулодда вазиятларда керак бўлади, бирор қарорни жуда қисқа муддат ичида қабул қилиш талаб қилинади. Фикрнинг тезлиги мактабда ўқувчиларга кўпроқ зарур бўлади. Фаолият олиб боришда адолат журъат, сабру-қаноат ва ватанпарварлик хусусиятларида намоён бўлади.

Бобур шеъриятида адолат туйғусини бош мавзулардан бири сифатида талқин этиб, бу борада анча илғор ижтимоий фикр юритиб олижаноблик тақдирлашга пасткашлик эса жазолашга лойиқ эканини қуйидаги рубоийсида таъкидлайди.

Ҳар кимки, вафо қилса, вафо топқусидур.
Ҳар кимки, жафо қилса, жафо топқуксидур.
Яхши киши кўрмагай ёмолиқ харгис.
Ҳар кимки ёмон бўлса жазо топқусидур.

Бобур ўзбек адабий тили ва адабиётининг ривожига бебаҳо ҳисса қўшган истеъдодли олим ва ўта зиёли инсон, машҳур давлат арбоби Заҳириддин Муҳаммад Бобур мураккаб ижтимоий-тарихий даврда яшаб ижод қилган.

У ўзга юрт тожи тахтидан Ватанинг бир сиқим тупроғини афзал деб билди.

Ватаннинг хуш бўйларини, Андижон шамоли-ю, мусаффо ҳавосини, табаррук тупроғининг исини, беқиёс экинзорларининг гўзаллигини, болалиги ўтган гўзал водийлар манзараси, дилкаш халқининг нафасини, ота-она қумсаб яшаганини баён қилиб, “Киндик қоним тўкилган Ватан -менинг бешигим, соғинчим ва туганмас армонларимдир”.деб ёзади.

Толе йўққи жонимга балолиғ бўлди,
Ҳар ишники айладим, хатолиқ бўлди.
Ўз ерни қўйиб, Ҳинд сори юзландим,
Ё, раб, нетайин, не юз қаролиғ бўлди.

Шоирнинг ғазалларида, рубоийларида армонга айланган Ватан соғинчини ҳис этиш билан бирга Ватанпарварлик туйғусини шакллантиришга ҳам маънавий манба бўлиб ҳимат қилади. Унинг бой мероси ёшларда Ватанпарварлик, садоқат, шукроналик, қаноат туйғуларини шаклланишига хизмат қилади. Буюк сиймоларимизни танитиш, улар тўғрисида кечалар ташкил этиш, адабиётшунос олимлар билан давра суҳбатлари уюштириш, рубоийхонлик кечаларини ташкил қилиш, “Менинг қаҳрамоним-Бобур сиймосида”,

“Бобурномадан олган сабоқларим”, каби мазмунига эга бўлган иншолар танловини ўтказиш амалий вазифалар бўлиб ҳизмат қилади.

Шу билан бирга ёшларда аввало китобхонлик фазилатларини шакллантириш, маънавий озуқа бўла оладиган манбалардан фойдалана олиш кўникмаларини шакллантириш лозим. Бу борада албатта оилада катталар, устозлар тўғри кўрсатма бериб боришлари ҳамда шахсий ибрат, амалий суратда намуна бўла олишлари мақсадга мувофиқ бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Тошкент: “Ўзбекистан”, 2017. -.Б.488.
2. Захириддин Мухаммад Бобур “БОБУРНОМА” Тошкент, (Шарфқ» нашриёт 2002.
3. Ulug` siymo (Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 531 yilligiga bag‘ishlanangan. uslubiy qo`llanma) Toshkent-2014.

З.М.БОБУР ИЖОДИДА ВАТАНПАРВАРЛИК ФАЗИЛАТЛАРИНИНГ ТАРАННУМ ЭТИЛИШИ

Абдураҳимова Д.А.

Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари Академияси доценти, п.ф.д. (DSc)

Инсон маънавий оламининг кучи, қудрати унинг Ватан олдидаги бурчи, масъулиятини қандай англаб тушунишда ҳам намоён бўлади. Ватанни англаш унинг муқаддаслигини англашдан бошланади назаримда... Худди Онанинг муқаддаслигини англагандек... Бутун вужудимиз, томирларимиз, қонимизу жонимиз билан бу муқаддасликни ҳис этгандек... Ватан таърифида кўп сўзлар айтилган, айтилмоқда ва келажакда ҳам айтилиши муқаррар. Зеро, ҳар бир авлод, ҳар бир инсон, аввало, ўзини англаш учун қалбига, ўз илдизларига боқаркан, шу тариқа Ватанни ҳам теранроқ, чуқурроқ англай бошлайди. Демакки, ҳар бир янги кун Ватан ҳақидаги янги бир ҳикматни англашимизга имкон беради. Ўзимизни чуқурроқ билиб борганимиз сари она юрт, ота макон, киндик қони тўкилган тупроқ, бизни аждодлар билан боғлаган руҳий-маънавий ришталар ҳақида ҳам кўпроқ ўйлай бошлаймиз. Буюк саркарда ва давлат арбоби, Ўзбекистон фарзанди Заҳириддин Муҳаммад Бобур айтган «Хижрон қафасида жон қуши дам қиладур» – қалбимизни шу азиз ва муқаддас Ватан билан боғлаган жон томири ҳақида фикр қиламиз.

Бобур поэзиясида Ватан мавзуси алоҳида ўринни эгаллайди. Унинг аксарият ғазалларидаги ҳижрондан шикоят, она юртга бўлган муҳаббат, Ватанни қўмсаш каби дил садолари ўқувчини чуқур ўйга солади. Шоирнинг ғурбат ва ҳижрон билан боғлиқ бўлган воқеий кечинмалари қатор рубоийларида ҳам ўз ифодасини топган. Улар орқали биз Бобурнинг ғурбатдаги руҳий изтиробларини ва Ватанга бўлган чексиз муҳаббат туйғуларини билан дардлашамиз:

Хижрон қафасида жон қуши дам қиладур,
Ғурбат бу азиз умрни кам қиладур.
Не навь битай фироқу ғурбат шарҳин
Ким, кўз ёши номанинг юзин нам қиладур[6].

Бобур шеъриятида инсон камолотидаги ахлоқий ва маънавий масалаларга ҳам кенг ўрин берилган. Шоир инсонни улуғлайди, унга ҳурмат назари билан қарайди, инсон қадр қимматини юқори кўтаради. У дўстлик, биродарлик, Ватанга садоқат каби сифатларни

олқишлайди. Бобурнинг фикрича, худбинлик, хасислик, риёкорлик каби ярамас иллатлар инсонни ҳалок этади. У кишининг ҳаёти яхшилик, мурувват, олийжаноблик, тўғрилик каби олий мақсадларга қаратилиши керак деб билади. У мансаб ва давлатга эришиб ғурурланмаслик, камтарин бўлиш каби инсоний фазилатларнинг камол топишига ундайди. Ота-она билан фарзанд ўртасида меҳр-муҳаббат, қадр-қиммат, эхтиром каби инсоний фазилатлар барқарор бўлишини истайди:

Отани чунки қибла дебтурлар,
Қибла янглиғ анга назар қилғил.
Ота оғритма, эй отам зинҳор,
Ота озоридин ҳазар қилғил [6].

Бобур ахлоқ -тарбия масаласига алоҳида эътибор берган. Шоирнинг маънавий-фалсафий қарашларини ва ижтимоий мавзуларга бўлган муносабатини аниқлашда унинг, айниқса, маънавий-ахлоқий тарбияга оид муаммоларни ўрганиш катта аҳамиятга эгадир:

Хулқингни рост қилғил хор сориғаким борсанг,
Ахсанта дер бори эл гар яхши от чиқарсанг.

Бобурнинг юқоридаги муаммоси заминидаги мазмун ва инсоний ҳис-туйғулар улуғ сўз санъаткори томонидан юксак маҳорат билан ифода этилган. Шоир хақиқий инсон номига эга бўлиш учун ахлоқнинг барча нормаларига риоя қилиш кераклигини, шундагина киши эл ҳурмати ва бахтга сазовор бўлишини уқтиради. Бобур ахлоқ-тарбия мавзусидаги бошқа асарларида ҳам ўз ҳаётида юз берган ҳодисалар, бошидан ўтказган кечинмалари асосида ўқувчи учун ҳам катта тарбиявий аҳамиятга эга бўлган хулосалар чиқаради:

Эшитса киши бу шуру шеван не дегай,
Доим бу тариқ ичгуни кўрган не дегай?
Душман сўзига кирма, эшит дўст сўзини,
Эшитмаса сўзни дўст, душман не дегай? [6].

З.М.Бобур томонидан ёзилган ҳар бир рубоий ва ғазаллар ёш авлодни юксак маънавий-ахлоқий фазилатлар соҳиби бўлиб улғайишга, ундан ўрнак олишга ундайди. З.М.Бобурдаги юксак инсоний фазилатларга нафақат шарқ, балки бутун дунё тарихшунос, фалсафа, адабиётшунос олимлар лол қолган.

Вильям Эрскин Бобурнинг шахси ҳақида гапирар экан, «саҳовати ва мардлиги, истеъдоди, илм-фан ва санъатга муҳаббати ва улар билан муваффақиятли шуғулланиши жиҳатидан Осиёдаги шолар орасида Бобурга тенг келадиган бирорта шо топилмайди», деган фикрларни билдирса, Инглиз тарихчиси Эдуард Ҳолден шундай эътироф этади: «Бобур феъл-атворига кўра Цезарга қараганда севишга арзигуликдир. Унинг манглайига юксак фазилатли инсон деб битиб қўйилган». «Бобурнома»нинг котиби Бобуршоҳнинг улуғ шоҳларга хос саккиз шахсий фазилатини қайд этиб ўтган: «У қудратли шоҳнинг яхшиликларини айтган билан ва ёзган билан тугатиш маҳолдир. Лекин қисқаси буки, саккиз асл сифат унинг зотига хос эди: бири буким – иқболи баланд эди; иккинчиси – ҳиммати юксак эди; учинчиси – вилоят олмоқ; тўртинчиси – вилоят сақламоқ; бешинчиси – маъмурлик; олтинчиси – Оллоҳ бандаларига фаровонлик нияти; еттинчиси – лашкар кўнглини қўлга олмоқ; саккизинчиси – адолат қилмоқ»

Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг улуғ инсонга хос фазилатларидан бири-мардликни улуғлаганидир. Мардликнинг олий даражада намоён бўлиши деб, Ватан учун душманга қарши жанг қилиш, зарур бўлса жонини ҳам қурбон қилишдир. Бобур бу ўринда, ёмон от

билан тирилгандин яхши от билан ўлган яхшироқдир, дейди. У зўравонлик, ўғрилик, қароқчилик, таъмагирликни қаттиқ қоралайди ва бундайларга нисбатан бировнинг бир кўза ёғини тортиб олгани учун уни жазолагани диққатга сазоводир.

Хулоса қилиб айтганда, Заҳириддин Муҳаммад Бобурдаги табиий истеъдод унинг ҳар томонлама ривожланган ва қомусий билимларни ўзида мужассамлантирган шахсияти, ақл-заковати, инсоний хислатлари ва қолаверса, унинг очик, кўнгиллилиги, нозик табиатлилиги бугунги кун ёшларида, жумладан,бўлажак ҳарбий хизмачиларда юксак маънавий-ахлоҳий хислатларни тарбиялашда зарурий манба бўлиб хизмат қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1.Низомиддинов И. Бобурийлар давлати.- Т.: «Ўзбекистон», 1983.
2.Нуритдинов М. Бобурийлар сулоласи, Т.: «Ўзбекистон», 1994.
3.Ёқубов Ҳ., З.М.Бобур.Т.: 1949.
4.Алимжанова С., З.М.Бобур. Мақолалар тўплами, Т.: 1995.
5.Хасанов С. Бобурнинг Аруз рисоласи, Т.:1981.
6.www.ZIYOUZ.com кутубхонаси.

REASONS FOR THE BABUR EMPIRE'S VICTORIES

Karimbekov S. A.
Teacher of the Tashkent military – technical Institute of the National guard of the Republic of Uzbekistan

Reasons for Babur’s victories were still under the research of many scholars around the world. But we pay our attention to the one which we think is essential. The gunpowder is the first explosive to have been developed. Popularly listed as one of the "Four Great Inventions" of China, it was discovered during the late 9th century but the earliest record of a written formula appeared in the 11th century. Knowledge of gunpowder spread rapidly throughout Asia, the Middle East and Europe, possibly as a result of the conquests during the 13th century, with written formula for it appearing in the 1267. In warfare to some effect from at least the 10th century in weapons such as fire arrows, bombs, and the fire lance before the appearance of the gun. While the fire lance was eventually supplanted by the gun, other gunpowder weapons such as rockets and fire arrows continued to see use in China and eventually Europe. Bombs too never ceased to develop and continued to progress into the modern day as grenades, mines, and other explosive implements. Gunpowder has also been used for non-military purposes such as fireworks for entertainment, or in explosives for mining and tunneling.

The evolution of guns led to the development of artillery during the 15th century, pioneered by states such as the Duchy of Burgundy. Firearms came to dominate early modern warfare in Europe by the 17th century. The gradual improvement of cannons firing heavier rounds for a greater impact against fortifications led to the invention of the star fort and the bastion in the Western world, where traditional city walls and castles were no longer suitable for defense. The use of gunpowder technology also spread throughout the Islamic world and to India, Korea, and Japan. The so-called Gunpowder Empires of the early modern period consisted of the Mughal Empire, Persian Empire, and Ottoman Empire. The use of gunpowder in warfare during the course of the 19th century diminished due to the invention of smokeless powder. Gunpowder is often

referred to today as "black powder" to distinguish it from the propellant used in contemporary firearms. Mughal India was one of the three Islamic gunpowder empires, along with the Ottoman Empire and Persia. By the time he was invited by Lodi governor of Lahore, governor who supported rebellion against Lodi Sultan Ibrahim Khan. Babur was familiar with gunpowder firearms and field artillery, and a method for deploying them. Babur had employed Ottoman expert Ali who showed Babur the standard Ottoman formation—artillery and firearm-equipped infantry protected by wagons in the center and the mounted archers on both wings. Babur used this formation at the First Battle of Panipat in 1526. Superior in numbers but without the gunpowder weapons, were defeated. The decisive victory of the Timurid forces is one reason opponents rarely met Mughal princes in pitched battle over the course of the empire's history. In India, guns made of bronze were recovered from Calicut. Fathullah a Persian mechanical engineer, who worked for Akbar, developed an early multi gun shot. Crossbows used earlier in ancient Greece and China, respectively Shirazi's rapid-firing gun had multiple gun barrels that fired hand cannons loaded with gunpowder. It may be considered a version of a volley gun. By the 17th century, Indians were manufacturing a diverse variety of firearms; large guns in particular, became visible in Tanjore. In the sixteenth century, Akbar was the first to initiate and use metal cylinder rockets known as *bans*, particularly against war elephants, during the battle of city. Mughal Army used rockets during the siege. Prince Aurangzeb's forces discharged rockets and grenades while scaling the walls. Marjan was mortally wounded when a rocket struck his large gunpowder depot, and after twenty-seven days of hard fighting city was captured by the Mughals. The Indian war rockets were formidable weapons before such rockets were used in Europe. They had bam-boo rods, a rocket-body lashed to the rod, and iron points. They were directed at the target and fired by lighting the fuse, but the trajectory was rather erratic. The use of mines and counter-mines with explosive charges of gunpowder is mentioned for the times of Akbar and Jahangir. Later were upgraded versions of Mughal rockets used during the Siege of Jinji by the progeny of the Nawab. Ali's father Fatah Muhammad the constable at Budikote, commanded a corps consisting of 50 rocket men for the Nawab. Ali realized the importance of rockets and introduced advanced versions of metal cylinder rockets. These rockets turned fortunes in favor of the Sultanate of Mysore during the Second Anglo-Mysore War, particularly during the Battle of Pollilur. In turn, the rockets were the basis for the Congreve rockets, which Britain deployed in the Napoleonic Wars against France and the War of 1812 against the United States. Gunpowder was discovered in China sometime during the first millennium AD. The earliest possible reference to gunpowder appeared in 142 AD during the Eastern Han dynasty when the alchemist Wei Boyang, also known as the "father of alchemy", wrote about a substance with gunpowder-like properties. He described a mixture of three powders that would "fly and dance" violently known as the Book of the Kinship of Three, a Taoist text on the subject of alchemy. Although he did not name the powders, "they were almost certainly the ingredients of gunpowder," and no other explosive known to scientists is composed of three powders, Wei Boyang is considered to be a legendary figure meant to represent a "collective unity", and the Cantong was probably written in stages from the Han dynasty to 450 AD. While it was almost certainly not their intention to create a weapon of war, Taoist alchemists continued to play a major role in gunpowder development due to their experiments with sulfur and saltpeter involved in searching for eternal life and ways to transmute one material into another. Historian Peter Lorge notes that despite the early association of gunpowder with Taoism, this may be a quirk of historiography and a result of the better preservation of texts associated with Taoism, rather than being a subject limited to only Taoists. The Taoist quest for the elixir of life attracted many powerful patrons, one of whom was Emperor Wu of Han. One of the

resulting alchemical experiments involved heating sulfur and saltpeter to transform them. The next reference to gunpowder occurred in the year 300 during the Jin dynasty. A Taoist philosopher wrote down the ingredients of gunpowder in his surviving works, collectively known as "The Master Who Embraces Simplicity". The "Inner Chapters" on Taoism contains records of his experiments to create gold with heated saltpeter, pine resin, and charcoal among other carbon materials, resulting in a purple powder and arsenic vapors. Taoist alchemists noted that saltpeter, one of the most important ingredients in gunpowder, burns with a purple flame, allowing for practical efforts at purifying the substance. The first confirmed reference to what can be considered gunpowder in China occurred more than three hundred years later during the Tang dynasty, first in a formula contained in the Taishang in 808, and then about 50 years later in a Taoist text known as the Zhenyuan miaodao yaolüe. The first formula was a combination of six parts sulfur to six parts saltpeter to one part birthwort herb. The Taoist text warned against an assortment of dangerous formulas, one of which corresponds with gunpowder: "Some have heated together sulfur and saltpeter with honey; smoke result, so that their hands and faces have been burnt, and even the whole house burned down." Alchemists called this discovery fire medicine and the term has continued to refer to gunpowder in China into the present day, a reminder of its heritage as a side result in the search for longevity increasing drugs. A book published in 1185 called The Control of Spirits also contains a story about a Tang dynasty alchemist whose furnace exploded, but it is not known if this was caused by gunpowder.

The earliest surviving chemical formula of gunpowder dates to 1044 in the form of the military manual also known in English as the Complete Essentials for the Military Classics, which contains a collection of factoids on Chinese weaponry. However the 1044 edition has since been lost and the only currently extant copy is dated to 1510 during the Ming dynasty. The Wujing Zongyao served as a repository of antiquated or fanciful weaponry, and this applied to gunpowder as well, suggesting that it had already been weaponized long before the invention of what would today be considered conventional firearms. These types of gunpowder weapons styles an assortment of odd names such as "flying incendiary club for subjugating demons", "caltrop fire ball", "ten-thousand fire flying sand magic bomb", "big bees nest", "burning heaven fierce fire unstoppable bomb", "fire bricks" which released "flying swallows", "flying rats", "fire birds", and "fire oxen". Eventually they gave way and coalesced into a smaller number of dominant weapon types, notably gunpowder arrows, bombs, and guns. This was most likely because some weapons were deemed too onerous or ineffective to deploy. So were some reasons for the Babur Empire’s victories.

BUYUK BOBOMIZ ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING BUYUKLILIK SIRLARI

Absalamov S.A.
Milliy gvardiya Harbiy-texnik instituti guruh komandiri

Qadriyatlarimiz tarixida Zahiriddin Muhammad Boburning murakkab shaxs sifatida tilga olinishiga koʻnikib qolganmiz. Har gal adib nomini jahonga mashhur etgan “Boburnoma” asarini, dilbar gʻazallarini, mehr bilan tarjima qilgan Xoja Ahrori Valining “Volidiya” asarini oʻqiganda shaxsiyatidagi zamondosh hukmdorlardan ustun jihatlarni koʻramiz. Maqola, kitob va boshqa ilmiy izlanishlarimizda Bobur shaxsining buyukligiga oid fikrlarni bildirdik va bu qarashlarimizni toʻldirib borishga intildik. Ammo uning shaxsiyati naqadar murakkabligi, hali ayrim jihatlari

xolisona aniqlanishi lozimligini ham sezamiz va bunga kirishishdan gohida andishaga boramiz. Bugun adibning tavalludi kuni munosabati bilan ayrim mulohazalarimizni bayon etishga jur'at qildim.

Tarixshunoslar va adabiyot sohasi bilimdonlari o‘rtasida Zahiriddin Muhammad Boburning islom dinining ikki qanoti – sunniy va shia oqimlariga munosabati masalasida turlicha fikrlar borligi sir emas. Bobur umri davomida komil musulmon sifatida sunniylikning hanafiylik mazhabiga sodiq bo‘lib keldi. Tarixdan ma'lumki, islom dini paydo bo‘lishidan ko‘p o‘tmay ikki qanotga bo‘lingan edi. Islom dini g‘animlari hatto hozirgi kungacha uning qudratini pasaytirish uchun bu ikki qanotni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yib, o‘z rejalarini amalga oshirishga urinib keladi.

1502 — 1503-yillar, ya'ni Zahiriddin Bobur temuriyzodalarning o‘zaro nizo va kurashlaridan ozor chekib, yengilib, borar yerini bilmay, Toshkentdagi xon dodalari, qarindoshlari tomon otlangan payt. Shunda ham u Andijon yoki Samarqandni egallab olishni emas, endi-endi bosh ko‘tarayotgan Shayboniyxonga qarshi kurashishni bosh maqsad deb bilgan. Biroq sultonzodalarga uning bu boradagi fikri borib yetmaganidan afsuslanadi va bu qarashiga Sa'diy Sheroziyning ruboiysi bilan urg‘u beradi: «Shayboqxondek g‘anim paydo bo‘libtur, muning zarari turkka va mo‘g‘ulg‘a musovidur. Muning fikrini hololiqtakim, ulusni hanuz yaxshi bosmaydur va ko‘p ulg‘aymaydur, qilmoqlik vojibdur. Nechukkim, debdurlar:

Imro‘z bikush chu metavon kusht,
Otash chu baland shud jahon so‘xt.
Magzorki zih kunad kamonro,
Dushman chu ba tir metavon do‘xt» [4].

(Mazmuni: Kuching yetar ekan, olovni vaqtidayoq o‘chir. Agar alanga olsa, jahonni kuydiradi. Dushmanni o‘q bilan urishga qodir ekansan, uni kamon kerishiga qo‘yma).

Bu esa Zahiriddin Boburga qattiq ta'sir qiladi. Bir tomondan, qamalda qolgan Samarqand ahlining nochor ahvoli, ikkinchi tomondan, Bobur safdoshlarining nomardligi muhoraba maydonida g‘olib kelishga bo‘lgan barcha intilishlarni puchga chiqaradi. Buning ustiga Shayboniyxondan tashqari, Boburni ta'qib etib yurgan Ahmad Tanbal Andijondan Pskentga kelgan. Biroq unga qarshi turadigan Sulton Mahmudxon «urush kishisi emas edi». Boburning bu shaxsga bergan bahosida o‘zining harbiy mahoratga munosabati aks etgan. Uningcha, bek, askar jangda dushmandan qo‘rqsa, ularning qadri yo‘q. Kurash — mardlar maydoni: «Sulton Mahmudxon urush kishisi emas edi. Sinohiylikdin bisyor oriy edi. Tanbal bila o‘tru bo‘lg‘on chog‘ xondin bedilona ahvol va af'ol zohir bo‘lur. Ahmadbek turk kishi edi (Bobur qarashida «turk kishi» iborasi qishloqlik qo‘rqmas, dangalchi, yaxshi sarboz ma'nolarini ham bildiradi — H.Q.), vale mardona va davlatxoh edi. G‘arib durusht aytur, derkim, bu Tanbal ne miqdor kishidurkim, muncha dag‘dag‘a va taraddud tortarsiz. Agar ko‘zungiz qo‘rqsa, ko‘zungizni bog‘lab yurub ro‘baro‘ bo‘laling».

Bu faktlarda Boburning urush olib borish uslubiga xos bir shakl ko‘zga tashlanadi. Uningcha, kishi qanchalik mohir bo‘lmasin, yov bilan olishishda aniq maqsadi, yurakdan intilishi bilan birga, albatta, atrofdagilarning sadoqati, ko‘magi zarur. Ya'ni yuksak harbiy mahoratni ro‘yobga chiqarish uchun aniq fikr, qarash, kontseptsiya lozim: «Burung‘ilar deb turlarkim, qo‘rg‘on berkitmaklikka bosh kerak, ikki qo‘l kerak, ikki but kerak: bosh sardor bo‘lg‘ay. Ikki qo‘l ikki taraftin kelur ko‘mak va madad bo‘lg‘ay. Ikki but qo‘rg‘onning suyi bila zahirasi bo‘lg‘ay. Biz bu atrof va javonibdag‘ilardin ko‘mak va madad ko‘z tutarbiz, bular xud har qaysi bir o‘zga xayolda».

Shayboniyxonning shiddatli qarshiligini, kuchini o‘zining harbiy imkoniyati bilan qiyoslab: "Bir men Kobulda qolib edim. Dushman bisyor qaviy, biz ko‘p zaif, ne maslahat qilmoqqa ehtimol, ne muqovamat qilmoqqa majol. Muncha quvvat va qudrat. O‘zumuzni bir yer fikrini qilg‘uluqdur va bu miqdor furja va fursatta qaviy dushmandin yiroqroq ayrulg‘uluqdur. YO Badaxshon jonibi,

yo Hinduston sori jazm qilmoq kerak” [2, 254], der ekan Bobur o‘ta mushkul siyosiy ahvolda qolganini bildirgan.

Boburning kindik qoni to‘kilgan Movarounnahrga qaytish maqsadi uni umrining oxirigacha tark etgan emas. Chunonchi, “Boburnoma”da muallif yozadi: “Bizning ehtimomimiz ul sarilar bormoqqa behad va beg‘oyattur. Hinduston ishlari ham bir nav’ somon topib keladur. Tengri taolodin umid andoqkim, bu oraning ishi Tengri taolo inoyati bila bot saranjom topqay. Bu ish zabtidin so‘ng betavaqquf, Tengri yetkursa, mutavajjih bo‘lg‘umdur. Ul viloyatlarning latofatlarini kishi nechuk unutqay. Alalxusus mundoq toyib va torik bo‘lg‘onda qovun va uzumdek mashru’ hazni kishi ne tavr xotirdin chiqargay”.

Ushbu satrlar Bobur Hindistonda mustahkam saltanat barpo etgan davrida yozilgan. Uning Vatan sog‘inchini yoniq ifodalagan yuqoridagi iqtiboaga e’tibor beraylik. Bobur uchun muqaddas maqsad bo‘lgan ushbu fikrning ifodasida u uch marta Tangri – Ollohga murojaat etadi. Bu e’tirof Bobur nomiga, gohida bo‘lsa-da malomat toshini otib, uning Hindistonda qurgan imoratlari, barpo etgan bog‘-rog‘lari, Movarounnahr sivilizatsiyasini yuksak davlatchilik siyosati bilan takomilga yetkazganiga qaramay, “nega Bobur bu bunyodkorlikni o‘z yurti Movarounnahrda qilmadi”, degan asossiz da’volarga munosib javobdir. Boburning hind yerida amalga oshirgan bunyodkorligining jahondagi shon-shuhrati Movarounnahrda qurishi ehtimoli bo‘lgan obidalar dovrug‘idan - balandroqdir.

Bobur 1512 yili Samarqand shahriga kirib boradi va bobosi Amir Temur, otasi Umarshayx mirzo saltanat qilgan poytaxt taxtiga ma’lum muddat o‘tirishga muvaffaq bo‘ladi. Keyinroq u Buxoro xoni Ubaydulla bilan jangda shikast topadi. Bu mag‘lubiyat Boburning asl maqsadi barbod bo‘lishiga katta xavf tug‘dirgan holat edi. Shu muddatda u Eron shohi Ismoil Safaviydan harbiy yordam so‘raydi va bu yordami uchun u Samarqand masjidida xutbada Ismoil Safaviy nomi va shia mazhabini kiritib o‘qishni taklif etadi. Sof sunniy tariqatiga mansub Samarqand aholisi Boburga ixlos bilan qarasa-da, uning bu harakatini ma’qullamaydi. U shaharni tark etishga majbur bo‘ladi. Biroq, yuqorida keltirganimizdek, Bobur bir umr Movarounnahrga qaytishni orzu qiladi.

Bobur Afg‘onistonda hukmronligi davrida afg‘on qizi Dildora og‘achaga uylanadi, ikki farzandiga hindistonlik qizlardan kelin qiladi. Farzandi Humoyunga yozgan “Vasiyatnoma”sida: “Ey farzand! Hinduston mamlakati turli mazhablardan iborat. Subhonollo taolo haqqi, senga buyurildiki, har bir mazhabga pok qalb bilan qaragin, har bir mazhab va tariqatga adolatli bo‘lgin. Xususan, sigirni qurbon qilishdan saqlanginki, bu Hinduston xalqining qalb ardog‘i va bu viloyat ahli podshohga yaxshi nazar bilan bog‘lanadi. Podshoh farmoniga bo‘ysungan xalqni xarob qilmagin. Adolatni ixtiyor qilgin. Shunda shoh raiyatdan, raiyat shohdan xotirjam bo‘ladi. Islomning taraqqiyoti ehson tig‘i bilan yaxshiroqdir. Zulm tig‘i bilan emas”, deb ta’kidlaydi.

“Vasiyatnoma”ning davomida Bobur sunniy va shia mazhablarining o‘zaro ixtiloflari e’tiborga molik emasligi, bu ikki qanot ziddiyatlari faqat islom dini kuchini yo‘qotishga olib kelishini alohida ta’kidlagani muhim. Bunda Boburning har ikkala qanotdan ayb qidirmagani, ularning bir aqida – muqaddas islom dini atrofida birlashishini istaganini ko‘ramizki, bu dalil uni shia tarafdorlariga bo‘lgan munosabatini aniq ko‘rsatib beradi: “Ahli sunnat va shialarning ikir-chikirlaridan ko‘zingni yum. Chunki islomga qarshilar bor. Turli e’tiqoddagi xalqlarni teng tutginki, shunda saltanat turli tashvishlardan xoli bo‘ladi”. Nazarimizda, Boburning Samarqandda shia mazhabiga bildirgan muvaqqat qarashlarini uning mustahkam saltanat yo‘lidagi intilishlari asosidan qidirish kerak. Yuqoridagi matn buning yorqin dalilidir.

Bobur hayoti bilan bog‘liq yana bir muhim jihat bu uning Hindistonda olib borgan urushlari va yakuniy g‘alabaga erishgani munosabati bilan unga berilgan “g‘oziy” unvoni masalasidir.. Tarixda Sulton Mahmud, Sulton Muhammad G‘oziy va boshqalar “g‘oziy” atalishgan.

Har kuni ertalab podshohning “Jarohai darshon” marosimida fuqaro oldida ko‘rinish berishi (salomga chiqishi), arzdorlarning podshoh qabuliga shikoyat bilan kira olish imkoniyatiga ega bo‘lishi, ma’muriy idoralar rahbarlari bajarishi lozim bo‘lgan vazifalarni aniq va ravshan belgilab berilishi… mamlakatni boshqarishdagi adolatli ishlari deb qarash kerak”. Bu guvohliklar yana bir bor Boburning shaxsiyatiga oid ayrim qarashlarni to‘g‘ri tushunishga yordam beradi, degan umiddamiz.

Zahiriddin Bobur Hindistonda Movarounnahrni eslatuvchi har qanday yangilikka astoydil qo‘l urgan, uni amalga oshirishga harakat qilgan. Bu ishlarni uning oddiy havasi, desak yanglishamiz. Ular Vatanga bo‘lgan yuksak ehtiromning, muhimi, kelajakka umid bilan qarab ish tutishning Bobur qalbida hamisha g‘olib bo‘lganini ko‘rsatadi. Quyidagi misolga nazar solaylik: u Movarounnahrda o‘sadigan, biroq Hindistonda bo‘lmagan daraxt, poliz va bog‘dorchilikka oid nabototni yangilik sifatida joriy etib, xursand bo‘lganini oshkora bayon etadi, bu yutuqlarni intilishlarining mevasi deb biladi: «Balxiy polizkorni qovun ekkali qo‘yulub edi. Bir necha qovun saxlag‘on ekandur, kelturdi. Xeyli yaxshig‘ina qovunlar edi. Bir ikki buta tok «Hasht behisht» bog‘ida ekturub edim, aning ham yaxshig‘ina uzumlari bo‘lub edi. Shayx Guran ham bir sabad uzum yiborib edi, yomon emas edi. Hindustonda qovun, uzumning muncha bo‘luridin filjumla xursandlig‘e bo‘ldi».

Humoyunga yozgan maktubida Boburning naqadar bag‘rikeng bunyodkor shohligiga guvoh bo‘lamiz. Hindistonda turib yozgan bu maktubida u o‘zining juda keng saltanatiga bir xilda qaragan: bunyodkorlik ishlari xoh Movarounnahr, xoh Xuroson va Afg‘oniston yoki Hindiston o‘lkasida bo‘lsin, ularning barchasiga Bobur bir xilda qayg‘urgan. Maktubni Bobur umrining oxirlarida, surunkali betob paytida yozganini eslasak, shu holatda ham uning yurak dardi, saltanat shuhrati va obodonchilik uchun kuyib-yonganini ko‘ramiz: «Korvonsaro va hammomlarning marammati, yana arkta Ustod Hasan Ali qilg‘on pishiq xisht bila nimkora imoratning itmomi, bu imoratni Ustod Sulton Muhammad bila mashvarat qilib, munosib tarh bila buyurulsun. Agar Ustod Hasan Ali tortqon burung‘i tarh bordur, xud o‘shandoq — o‘q tamom qilsun, yo‘q ersa, ittifoq bila bir shirin tarxliq imorat solsun. Andoqkim, sahni devonxona sahni bila barobar bo‘lg‘ay. Yana Xurd Kobulning bandikim, tangining Xurd Kobul sari chiqarida Buthoq suyig‘a bog‘lag‘uluqtur. Yana G‘aznining bandining marammati, yana Bog‘i Xiyobon va xiyobon. Yana bu bog‘ning suyi ozdur, munga bir tegirmon suyi sotqun olib, kelturmak kerak. Yana Xoja Bastaning g‘arbi-janub tarafida Tutum dara suvini bir pushta ustiga kelturub, havz qilib, nihollar tikturub edim…» [3, 144].

“Biz Hindustonda turip, mundoq zarufatomiz bayt aytmoq va bitmoq besurattur.Ketmakdin bir kudurat bulsa bu naf zarofatdin ikki kuduratdur.men dag‘I badihada bir ruboiy aytib, bitib yibardim:

Yuz shukur de, Boburki, Karimu g‘affor,
Berdi senga sindu hindu mulki biser.
Issiqligiga gar sanga yuqtur toqati,
Sovuq yuzini kuray desang g‘azni bor”. [4].

Xullas, barcha zamonlarda bunyodkorlik e’zozlangan. Qurilgan muhtasham imoratlar, ravon yo‘llar asrlar o‘tib o‘sha davr sarvarining ezgu niyatlari, chekkan tashvishlar va orzu umidlaridan dalolat berib turgan, insoniyat tomonidan qadrlangan Zahiriddin Muhammad Bobur, shubhasiz, shunday yuksak ardoqqa loyiq. Uning bunyodkorligi hayot paytidayoq unga mislsiz shuhrat keltirgan edi. Bugungi kunda esa, bu ezgu ishlari yanada salobat, ko‘rkamlik kasb etib, Sharq tamaddunining iftixoriga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boburnoma.Vaqoe’.T.:-2019. -B.223.

2. Qodirov P.Yulduzli tunlar. T.: Navroʻz.-2019.B.254
3. Qodirov P. Avlodlar dovoni. Humoyun va Akbar. T.:Adabiyot uchqunlari.– 2018. - B.144.
4. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/hasan -qudratullayev -bobur-haqida.html#respend

БОБУР ЯРАТГАН БОҒЛАР

Аҳмедов Ж.З.
Камолиддин Беҳзод номидаги Миллий рассомлик ва дизайн институти Музейшунослик кафедраси ўқитувчиси

Бобур Шарқда фақатгина мустаҳкам давлатчилик ва муносиб дипломатия мактабини яратмади, балки Хуросон ва Ҳиндистонда беҳисоб кошоналар, мадраса, равон йўллар, ирригация иншоотлари каби бунёдкорликни йўлга қўйди. Тарихшунос олим Абдулҳамид Лоҳурийнинг “шоҳнома” асарида келтирилишича, Қобулдаги Боғи Шаҳроро, Боғи жиловхона, Боғи сурат, Боғи моҳтоб, Боғи оҳухона, Ўртабоғ, Чорбоғи Кобул, Ҳиндистонда Аградаги Боғи Биҳишт, Хилватхона, Боғи Зарафшон, Оромгоҳ, Секридаги Боғи фотиҳ, Дилпурдаги Боғи Назаргоҳ, Нилуфар, Гвалиёр боғлари бевосита Бобурнинг раҳнамолиги, молиявий таъминоти ва кўпи унинг лойиҳаси асосида бунёд этилган.

Мазкур боғларнинг ободончилиги, юксак симметрия асосида бунёд этилиши, Бобур томонидан танланган дарахтлар, гуллар, умуман ландшафтнинг кишини хайратга солувчи эстетик гўзаллиги, айниқса бу боғларга Бобур Мовароуннаҳрдан келтирган анвойи гуллар, олуболу, найшакар, узум, қовун каби мева ва дарахтларни ўстириб, мевасидан тановул этгани бу ўлкаларда Мовароуннаҳр цивилизациясини кенг тарқалишига олиб келган.

“Боғи Вафо” Қобул вилоятининг Нингнаҳор тумани маркази Одинапур қўрғонида 1509 йилда Бобур томонидан бунёд этилган. Бу боғ Сипинғар тоғи этагида жойлашган. Бобур уни қуришда меъморчилик ва боғдорчиликнинг юксак намуналарини жорий этган. Боғ ўртасидаги тепалик чорчаман (гулзор) қилинган. Боғнинг жанубий томонида ҳовуз қурилиб, атрофига мевалардан норинж, анор ва турунж экилган. Бобур Лоҳур ва Дибалпурни забт этган йили у ердан шакаркамиш ва банан ҳам келтириб эктирган [2, 187.].

Бобур бу боғни жуда меҳр билан парвариш қилган ва бу ерда дам олишни хуш кўрган. “Бобурномада” боққа алоҳида таъриф берилган: “Боғи Вафонинг ҳадди ва ҳудуди ва сафо латофати бу тарихда мукаррар мазкур бўлубтур. Асру сафолиқ боғ воқиъ бўлубтур. Ҳар ким харидорлик кўзи била кўрса, билгайким, не турлук ердур” [1, 184].

“Боғи Зарафшон” 1528 йил Ҳиндистонда самарқандча чорбоғ услубида яратилган дастлабки боғ. Боғ Агра шаҳрида Бобур шахсан ўзи танлаган ерда унинг чизиб берган тархи бўйича бунёд этилган. Бобур шу боғда дафн этилган кейинчалик, васиятига кўра ҳоки Кобулга олиб келиниб қайта дафн қилинган. Бобур вафотидан сўнг Боғи Зарафшон Бобурийлар ҳукмдорларининг севимли масканига айланган. Ҳумоюн ҳарбий юришлари олдидан бу ерда машварат ўтказган. Акбар боғни янада кенгайтириб нилуфарзорлар билан ўраган ва Боғи Нилуфар деб атаган. Жаҳонгиршоҳ севимли маликаси Нуржаҳон Бегим шарафига номини Боғи Нурафшон деб ўзгартирган. Бобурийлар сулоласининг кейинги вакиллари Оромбоғ деб атаган.

“Боғи Калон” Кобул яқинида, Исталиф кентидаги боғ. Бобур Италифни сайр қилиб юрганида боғни кўриб ёқтириб қолади, унинг эгаларини рози қилиб сотиб олади. “Боғдин ташқари улуғ чинорлари бор, чинорларнинг туби сабзалиқ, сафолиқ манзиледур. Боғнинг

ўртасидин бир тегирмон суйи ҳамиша жорийдир. Бу ариқ ёқасида боғ ўртасида чинорлар ва дарахтлардур, бурун бу ариқ эгри-бугри ва бесиёқ эди. Мен буюрдумким, бу ариқни ража ва сиёқ била қилдилар. Бисёр яхши ер бўлди" [1, 112.].

"Боғи Наврўзий" (Боғи Бобур) Боққа Улуғбек Мирзо Кобулий асос солган. "Улуғбек мирзо тоғ доманасида боғ иморат қилиб эди, Боғи Наврузий отлиқ" (Бобурнома. 2002. 124-б). Бобур кейинчалик боғни сотиб олиб, қайтадан ободонлаштирган. Турли мевали ва манзарали дарахтлар эктирган ва ариқларни тозалатиб, оқар сувлар билан таъминлаттирган. 1540 йил Бобурнинг ҳоки Аградан олиб келингандан сўнг, у Боғи Бобур деб атала бошлаган. Боғи Бобур шаҳарнинг Шердарвоза тепалиги ён бағридаги бир неча гектар майдонни эгаллаган ниҳоятда хушманзара, обод, шаҳар аҳолисининг энг серқатнов оромгоҳ ва зиёратгоҳ жойи. Ҳар йили 21 март Наврўз кунида кўчат ўтқазиш маросими шу боғдан бошланади.

"Боғи Нилуфар" Дўлпурда Чамбал дарёси ёқасида Бобур томонидан барпо этилган чорбоғ. Боғда намозгоҳ, чўмилиш учун ҳовуз, шийпон, тош супа, фаввора ва сув етказиб бериш учун қувурлар тизими бўлган. Бобур Кобулдан қовун уруғи олиб келиб Боғи Нилуфарда эктирган.

"Боғи Сафо" Одинапур шаҳри яқинида Бобур қурдирган боғ. Кўркамлиги билан машҳур. Тоғ этагидаги чашма ёнида хушҳаво сафоли ерда барпо этилган. "Ғарбида тоғ доманасида чашмадур, бу чашма суви баландиларғаким, бу кўлға мушрифдур, ўлтурур учун қобил ер эди, боғе солдим. Боғи Сафоға мавсум, хейли хушҳаво ва сафо ер воқиъ бўлубтур. Нечукким шарҳи келгусидур"[1, 166.].

"Боғи Фатҳ" (Ғалаба боғи) 1527 йил Рона Санго устидан қилинган ғалаба шарафига Секри тоғ ёнбағрида жанг бўлган жойда Бобур томонидан бунёд этилган боғ. Боғи Фатҳни обод қилишга катта эътибор берган, турли иморатлар қурдирган [3.].

Хулоса қилиб айтганда, истиқлол йилларида буюк аждодимизнинг ҳаёти, ижоди, илмий мероси атрофлича ўрганила бошланди. Бобур номини абадийлаштириш учун, 1992 йил Андижонда "Бобур номидаги истирохат боғи"га асос солинди. Бобур номи билан аталувчи боғлар Тошкентда, Наманганда ва Чирчиқ шаҳарларида ҳам бунёд этилди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Бобурнома. Тошкент, 2002. Б. 166.
2. Бобур энциклопедияси. Тошкент, 2014. Б. 187.
3. Ziyonet.uz sayti. Bog'i Fath- Hindiston gultoji.

БОБУР ВА БОБУРИЙЛАР ДАВРИ МАЪРИФАТИНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ

Аҳмедова Ў.Н.

Фарғона вилоят ХТХҚТУМОҲМ ўқитувчиси

Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва Бобурийлар ҳукмдорлиги даврида қолдирилган улкан маънавий меросни ўрганиш ҳозирги ёшларнинг ўз аждодларига бўлган ҳурматидир. "Бу ҳақда гапирганда,-дейди, Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев, - Буюк ипак йўли ва савдо алоқаларининг тадрижий тараққиёти, ўтмишдаги улуғ аллома ва адибларимизнинг Ҳиндистонга бағишланган асарлари, бу юртда фаолият юритган Бобурийлар салтанати, Баҳоуддин Нақшбанд томонидан асос солинган нақшбандия тариқатининг ҳинд диёрида кенг тарқалиши сингари кўплаб мисолларни келтириш мумкин"[1.225.]. Бунинг учун ҳукумат томонидан амалий ишлар қилинмоқда. Бобур илмий меросини ўрганиш мақсадида "Бобур" Халқаро Фонди тузилди. Фонднинг амалий ишлари

натижасида Ўзбекистонни дунё бобуршунослигининг марказига айланишига хизмат қилди. Бобур ҳаёти ва ижоди билан халқимизга маънан яқинлашди. Барча бажарилган ишларнинг солномаси сифатида мамлакатимизда илк бор шахсга нисбатан қомус, яъни 64 босма тобоқли бу улкан “Бобур энциклопедияси” яратилди. Эътиборли жиҳати унда ўзбек бобуршунос олимлари қаторида Япония, Ҳиндистон, Туркия, Афғонистон ва Европалик олимлар ҳам фаол иштирок этишган.

Бобурийлар даври ҳақида бизга аниқ маълумот берувчи қадимий Мовароуннаҳр ва ундаги халқлар ҳаёти ҳақида жонли гувоҳлик берувчи асарлар ичида “Бобурнома” алоҳида ажралиб туради. Бобур қолдирган моддий ва маънавий мерос ичида энг қимматлиси ҳеч шубҳасиз “Бобурнома”дир. Бобурнинг бадиий нафосати ҳисобланган «Бобурнома» асари қатор тадқиқотларда ўрганилган. Бу борада эндиги амалга оширилиши муҳим вазифалар ҳам талайгина. Негаки, “Бобурнома”нинг бугунги кун нуқтаи назардан баҳолаш, ўқувчилар қалбига етказиш долзарб масалалардан бири ҳисобланади.

Ўзбек халқи учун умуминсоний маънавият билан бирга миллий маънавият ва унинг бойликлари ғоят қимматлидир. Ўрта Осиёлик мутафаккирларнинг илмий меросида, манбаларда ўзбекларда қадрланган, ўзбекона ахлоқ, одобга оид маънавий фазилатлар ҳақида кўплаб қимматли фикр, маълумотлар мавжуддир. Заҳриддин Муҳаммад Бобур ўзининг “Бобурнома” асарида ўзбекларга хос бўлган кўплаб маънавий-ахлоқий сифатларни тасвирлайди. Булар иймон ва эътиқодлилик, андишалилик, оилага муҳаббат,болажонлик, ҳалоллик, бировнинг ҳақига хиёнат қилмаслик, фарзандларнинг ота-оналарига, ака-ука, опа-сингил, қариндош-уруғларига меҳрибонлиги, диний қадриятларга риоя қилиш, саводхонлик, саҳоватлилик, хушфеъллик, ширинсўзлик, мардлик, одиллик, ҳаёлилик, саҳийлик, одамийлик, оқ кўнгиллилик, меҳнатсеварлик ва кабилардир.

Бобур ва Бобурий шаҳзодалар мамлакатда маърифат ва маданиятни юксалтириш учун таълим-тарбия жараёнларига ҳам алоҳида эътибор берганлар. Жумладан, Ҳумоюншоҳ мамлакат пойтахтида мадраса ва “Диний паноҳ” деб аталган диний илмлар марказини ташкил этади[2.78]. унда асосан диний билимлар берилган бўлиб, ислом дини назариялари ўрганилган. Акбаршоҳ даврида эса маърифатга берилган эътибор том маънода гуллаб-яшнади. Бу даврга келиб нафақат диний билимлар берадиган мадрасалар, балки дунёвий фанларни ўқитиш учун ҳам мадрасалар очила бошлади. Акбаршоҳ мактаб ва мадрасаларга аниқ ва кескин талаблар қўяр эди. Ёшларнинг мустақил билим олишига интилишини таъминлаш мақсадида бу борада “Талаба ҳамма нарсани ўзи тушуниб олишни ўрганишига, муаллим эса унга бирозгина ёрдам бериб туришига эришиш лозим,” деб таъкидлар эди[2.79]. Бундан маълум бўладики, Бобурнинг маърифатга берган эътиборини унинг авлодларида ҳам давом этганини кўрамиз. Натижада жамиятга кўплаб олимлар, фозиллар ва адиблар етишиб чиққан. Бу эса, халқнинг маданий ҳаёти ва турмуш фаровонлигини ошганлигида ўз ифодасини кўрсатган.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, ҳар қайси замон ва маконда ҳам маърифат асосланган жамият ва давлатга эҳтиёж ортиб бораверган. Чунки, маърифат масаласи миллат масаласи деганидир. Ўзбекистон Республикаси Президенти таъкидлаганидек, “Бунинг учун, аввалambор, ташаббускор ислоҳотчи бўлиб майдонга чиқадиган, стратегик фикр юритадиган, билимли ва малакали янги авлод кадрларини тарбиялашимиз зарур. Шунинг учун ҳам боғчадан бошлаб олий ўқув юртигача – таълимнинг барча бўғинларини ислоҳ қилишни бошладик.

Нафақат ёшлар, балки бутун жамиятимиз аъзоларининг билими, савиясини ошириш учун аввало илм-маърифат, юксак маънавият керак. Илм йўқ жойда қолоқлик, жаҳолат ва албатта, тўғри йўлдан адашиш бўлади.

Шарқ донишмандлари айтганидек, “Энг катта бойлик – бу ақл-заковат ва илм, энг катта мерос – бу яхши тарбия, энг катта қашшоқлик – бу билимсизликдир!”

Шу сабабли ҳаммамиз учун замонавий билимларни ўзлаштириш, чинакам маърифат ва юксак маданият эгаси бўлиш узлуксиз ҳаётий эҳтиёжга айланиши керак”[3.11.]. Шу сабабли ҳам Заҳириддин Муҳаммад Бобур мероси, инсоний олийжаноблиги, тарихий-маърифий, ижтимоий-тарбиявий ва эстетик аҳамияти билан қадрлидир. Комиллик белгиси бўлган-инсонпарварлик, халқлар дўстлиги, осойишталик ва бирodарлик учун кураш ғояларини ёшларни Ватанимиз тараққиётига ўз ҳиссаларини қўшадиган қилиб тарбиялайди. Шунингдек, баркамол авлодни тарбиялашда, тинчлик, демократик жамият қуриш учун курашаётган, салоҳиятли, қобилиятли халқимиз фарзандлари ўтмиш меросиз ҳамда ўз тарихимизни ўрганишда дастурул амал бўлиб хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати

1. Мирзиёев Шавкат Миромонович. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. – Тошкент. “Ўзбекистон”. 2019.
2. Ғофуржон Сатимов Бобурийлар салтанатида давлат бошқаруви. – Тошкент. Ўзбекистон. 2017.
3. Мирзиёев Шавкат Миромонович. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. – Тошкент. “Ўзбекистон”. 2020.

ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУРНИНГ ҲУҚУҚИЙ МЕРОСИ

Алимов Ш.Қ.

Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари Академияси профессори; т.ф.н., доцент,

Тиллаев Т.Н.

Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари Академияси доценти ю.ф.н., доцент,

Заҳириддин Муҳаммад Бобур нафақат Ўрта Осиё халқлари тарихида, балки Афғонистон, Покистон, Ҳиндистон каби мамлакатлар халқларининг иқтисодий, сиёсий ва маънавий тараққиётида чуқур из қолдирган давлат арбоби, илм-фан ва маънавият ҳомийси бўлган шахс. Шу боис, Бобурнинг давлатчилик, ҳуқуққа оид бой меросини ўрганиш ва айниқса ҳарбий олий ўқув юртларида тахсил олаётган курсантларнинг ҳуқуқий билимларини шакллантиришда аҳамияти катта.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур Ҳиндистонда Бобурийлар сулоласига асос солган давлат арбоби, ўзининг «Бобурнома» асари билан жаҳоннинг машҳур тарихнавис олимлари қаторидан ҳам жой олди. Унинг нафис ғазал ва рубоийлари туркий шеъриятининг энг нодир дурдоналари бўлиб, «Мубаййин» («Баён этилган»), «Хатти Бобурий», «Ҳарб иши», Аруз ҳақидаги рисолалари эса ислом қонуншунослиги, шеърият ва тил назарияси соҳаларига муносиб ҳисса бўлиб қўшилди.

Бобурнинг «Мубаййин» асари ислом ҳуқуқшунослиги ва шариат ақидаларига бағишланган бўлиб, унда Мовароуннаҳр ва Ҳиндистонга оид ўша давр ижтимоий-иқтисодий ҳаёти бўйича қизиқарли маълумотлар ҳам жамланган. Валиаҳд Ҳумоюн ва Комрон

Мирзоларга дастуруламал сифатида мўлжалланган «Мубаййин» да, айни замонда, намоз, закот ва ҳаж зиёрати тўғрисида ҳам шаръий мезонлар баён қилинган.

Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг «Мубаййин» асари 1522 йилда ёзилган бўлиб, беш қисмдан иборат. Унда, асосан, ислом динининг беш фарзи баён қилинган. Асарнинг кириш қисми Тангри таолога ҳамду сано билан, сўнгра Саййид ул мурсалиннинг, яъни жаноби Муҳаммад пайғамбар саллоллоҳу алайҳи васалламнинг нақллари билан бошланади.

«Мубаййин»нинг биринчи китоби «Эътиқодия» деб аталиб, аввал унда беш фарз: иймон, салот, закот, савм ва ҳаж ҳақида қисқача маълумот берилади. Сўнгра биринчи фарз, яъни иймон муфассал шарҳлари билан келтирилади. «Мубаййин»нинг «Эътиқодия» бобида иймон шароити ва натижаси, хотимада китобнинг «Эътиқодия» қисми тугалланганлигидан Аллоҳга ҳамду санолар ўқилади.

«Мубаййин»нинг иккинчи қисми «Китоб ус-салот»дан иборат. Асарда бу бобдан кейин намознинг вожиботлари баён қилинади. Бобур уларни йигирма иккита деб қайд қилади. Сўнгра муаллиф яна 15 вожиботни бирма-бир санаб ўтади.

«Мубаййин»нинг учинчиси «Китоб уз-закот» деб номланган. Бу китобда Бобур қимматли ва диққатга сазовор мулоҳазаларни юритади. «Китоб уз-закот»да закот шароитлари, закот молларининг баёни, чорвачилик ва тижорат молларидан тўланадиган тўловлар, деҳқончиликдан олинадиган хирожлар, уларни сарф қилиш йўллари ҳақидаги қоидалар баён қилинади.

Бобур даврида солиқлар тўрт қисмга бўлинган: биринчиси нақд пулга эга бўлган кишиларнинг «нақдина» закотидир. Бу тур закотни тилло ва кумушга эга бўлган кишилар тўлаши вожиб бўлган. Иккинчиси савойим, яъни уй ҳайвонлари ҳисобидан тўланадиган закотдир. Учинчиси тижорат молларидан тўланадиган закот. Бу закот турида барча турдаги савдо-сотиқ моллари, олтин-кумуш буюмлари, кийим-кечак, уй ҳайвонлари, ижара моллари ва ҳоказолар киради. Булардан пул ҳисобида олинган фойда нақд пулга чақилиб, «нақдина» закоти қоидаларига риоя қилган ҳолда тўланади. Тўртинчиси ушру хирож, ер ҳосилотларидан тўланадиган закот. Бу тур солиғига ер ҳосилотлари - мева, полиз экинлари, асал, тоғ экинлари, гул ва ҳоказолар киради. Бу закот турида ҳосилот фойдасининг ўндан бири ҳисобидан закот тўланган. Шунингдек, сув ҳамда қуруқ ерни ижарага бериш орқали кўриладиган фойдадан хирож олинган. Хирожнинг қиймати ҳам тушган фойданинг ўндан бирини ташкил этган. Хирож, ўз навбатида, икки қисмга бўлинган. Бири муқосама, яъни ҳосилдан хирож тўлаш. Бу тур хирожда ер ҳосилдорлигига қараб ўндан икки бўлагидан тортиб ярмигача тўланган. Иккинчи тури «муваззаф» деб аталиб (хирожни ер ҳажмига нисбатан бериш), ер ҳажми жариб (бир жариб 60х60 газ) ҳисобида ўлчаниб закот тўланган. Сабабсиз экилмаган ерлардан ҳам закот тўланиши кўзда тутилган.

Бобур закотни саккиз тоифадаги кишиларга бериш вожиблиги ҳақида ҳам гапириб ўтади, булар: фақирлар (озгина нарсалари бор бўлганлар), мискинлар (ҳеч нарсаси йўқлар), садақа йиғувчилар (Бобур уларни «омил», яъни иш юритувчи деб атайди), кўнгиллари исломга ошна қилинувчилар (Бобур уларни «Муаллафаи қулуб» деб номлайди ва у яшаган даврда уларнинг мавжуд эмаслигини айтиб, бу тоифага кимлар киришига шарҳ бермайди), бўйинларни (қулларни) озод қилишга (бу тоифадагиларни Бобур «мукотаб» деб атайди ва улар маълум муддат хожаларига хизмат қилганларидан кейин озод этилишини қайд этиб ўтади), қарздорларга, Аллоҳ йўлида жиҳодга кетаётганлар ва ниҳоят, ғарибларга (Бобур бу тоифага ватанида бой бўлса ҳам мусофирликда қийинчилик билан кун кечирадиган кишиларни киритади).

Бобур закот китобида, закот берилиши лозим бўлмаган шарт-шароитлар ҳақида баён қилади. У бундай ҳолларни иккига, уларнинг биринчисини аслий, иккинчисини фаръий қисмларга бўлади. Аслий қисмда закот берувчи закотини ота-онаси ва ундан юқори борувчи аждодларига бериб бўлмаслигини қайд этади. Фаръий қисмида болалари, набиралари ва авлодларига закот бериш жоиз эмаслиги таъкидланади. Шунингдек, эр ўз хотинига закот бермайди. Закот берувчи ўз закотини қулига бериши ҳам дуруст эмас. Асарда закотни ҳошимийлар ва уларнинг авлодларию қулларининг ҳам олишлари ножоиз эканлиги алоҳида таъкидлаб ўтилган.

Бобур асарида закотни куфр элига бериш ножоиз эканлигига ҳам алоҳида тўхталган. У закотни тўғри ёки хатолигига гумон қилинган ўринларда закот берувчининг закоти ҳисобга ўтиш-ўтмаслиги ҳақида ҳам ўзига хос шаръий талқинларни келтиради. Бобурнинг таъкидлашича, закотни беришда уни олган кишининг бунга ҳаққи борлиги шубҳа остига олиниб, сўнгра бу одамнинг бой ёки кофир, ёки закот олишга мансуб эмаслиги маълум бўлса, бу закот ҳисобга ўтмас экан ва уни қайтадан бериш вожиб экан. Бобурнинг айтишича, юқорида қайд этилган ва янглиш берилган закотни қайтариб олиш ҳам ўринли ҳисобланмас экан.

«Мубаййин» нинг тўртинчи китоби «Китоб ус-савм»дир. Ушбу китобда Бобур савм, яъни рўза тутиш шароитлари ҳақида қисқача, лекин мазмундор қилиб баён қилади. Бобур рўза тутишнинг моҳиятини очиб беради. Биринчи бобда рўзанинг фарзу нафли ва ниятлари очиб берилган.

Рўза учга бўлинади: 1. Фарз. 2. Нафл. 3. Вожиб. Рамазон ойида бир ой рўза тутиш фарзга киради. Рўза ақл-ҳуши жойида, ҳайз-нифос ва ҳомиладорликдан қутулган, рўза тутишга қодир, соғ-саломат ва муқим истиқомат қилувчи кимсалар учун вожибдур. Иккинчи бобда рўзанинг ҳисобга ўтмайдиган жиҳатлари баён қилинади.

Қуйидаги узрлик сабабларга кўра оғиз очилса, оғиз очилган кунлар учун бошқа вақтда рўза тутиб берилади: Сафарда беморлик, ҳомиладорлик туфайли, эмизикли бола бўлса, ҳайз ва нифос ҳолатида бўлганлик, беҳуш ва сархуш бўлиб қолинган кунлари бадалига тутиб берилади. Бундай қазо рўзалари ҳайит кунлари, уч кун ташриқ кунлари тутилмайди. Ташриқ кунлари Зулҳижжа ойининг 11, 12 ва 13-кунларидир.

«Мубаййин» китобига кирган бешинчи ва энг охирги асар бу ҳаж китобидур. Бобур ҳаж Каъбани тавоф қилишдан иборатлигини таъкидлаб, бу рукн вожиб, мустаҳаб, суннатлардан иборатлигини баён қилади. Сўнгра ҳаж вожиблари шароитининг баёни, яъни биринчи бобнинг тафсилотига ўтади. Ҳажга боришнинг шарт-шароитларидан бири ҳажга борувчи киши сиҳат-саломат бўлмоғи керак. Иккинчиси ўзи ва оила эҳтиёжларига сарф бўладиган харажатлардан зиёд маблағга эга бўлиши талаб қилинади. Бундан ташқари, ҳажга бориб келиши учун йўл озуқаси ва миниладиган бирорта ҳайвон бўлиши, ҳажга борувчи инсон озод киши бўлиши, йўлнинг бехатарлиги ҳам муҳим, ҳаж ойининг мувофиқлиги ҳам ҳажнинг асосий шартларидандир. Ҳаж ойидан бошқа муддатда қилинган сафар Умра, яъни кичик ҳаж дейилади.

Кейинги боб ҳаж адоси шароитининг баёнига бағишланади. Ҳажни адо қилувчилар вақтидан илгари эҳром (яъни, ҳаж кийимлари) боғламасликлари керак дейди.

Рисолада Бобур ихсор баёни ва турли ҳажлар ҳақида ҳам гапириб ўтади. Ҳаж китоби «Мубаййин» асарига хотима ясаш билан якунланади. Хотимада Бобур ислом дини асосларини баён қилишда ўзининг бор билими ҳамда шоирлик маҳоратини намойиш қилганлиги ва бунинг асосий боиси Ҳақ-таолога холислик эканлигини қайд этади.

Юқоридагилардан шу нарса маълум бўладики, «Мубаййин» маснавий жанрида ёзилган ислом асосларига оид қўлланмадир. Албатта, бу мақсадда яратилган асарнинг мазмуни билан ўқувчиларни осон таништириш мақсадида Бобур ўзининг бор шоирлик маҳоратини намойиш қилиб, уни назмда яратди. Бу асар фиқҳ илми мутахассислари учун муҳим манба бўлиб хизмат қилади.

Хулоса қилиб айтганда, Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг давлатчилик ва ҳуқуққа оид қарашлари нафақат ўз даври, балки бугун ёшларни ҳуқуқий онги ва маданиятини шакллантиришда, уларнинг келажакда етук кадрлар бўлиб етишишида қадр-қиммати беқиёсдир.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати

1. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома - Тошкент: «Юлдузча», 1990.
2. Зохидов В. Ўзбек адабиёти тарихидан - Т, 1961.
3. Нуриддинов М. Бобурийлар сулоласи - Т: «Фан», 1974.
4. Вохидов Р. Биз билган ва билмаган Бобур. Тошкент, 2001.

ОБРАЗОВАНИЕ ГОСУДАРСТВА БАБУРА В ИНДИИ

Алимова Г. А.

преаватель Военно-технического института Национальной Гвардии РУ

Бурхонов А. С.

курсант Военно-технического института Национальной Гвардии РУ

Существование Делийского султаната, появление правящего класса феодалов-мусульман, длительное совместное проживание и взаимовлияние индусов и мусульман готовили возникновение новой мощной мусульманской империи на севере Индии.

Хотя прибрежные районы Южной Индии - Малабар, Гуджарат, Коромандельское побережье, а также Бенгалия, издавна ведшие оживленную морскую торговлю пряностями и тканями с арабскими странами, Ираном, Малайей и Молукками, были более развитыми в экономическом отношении, они раздирались внутренними противоречиями и были ослаблены вмешательством европейских торговых компаний, постепенно вытеснявших индийцев из внешней, морской торговли. Поэтому-то в XVII в. феодально-централизованное государство бабуридов смогло сломить сопротивление южноиндийских государств и чинить себе значительную часть Южной Индии.[1]

Основателем этого государства в Северной Индии был Захириддин Мухаммад Бабур - первый правителем Индии.

Бабур являлся прямым потомком Тимура. Его отец – Умар Шейх Мирза – правил Ферганой. Бабур родился в Фергане в феврале 1483 года. Его отец умер в 1494 году, и он наследовал отцовское княжество в возрасте двенадцати лет. Старший и младший его дяди по отцу умерли вскоре один после другого, начались распри за овладение Самаркандом, который был завоеван Бабуром в 1497 году, когда победителю едва исполнилось пятнадцать лет. [1] Вскоре после этого он потерял эту столицу Средней Азии, будучи всецело занят сохранением своей власти в Фергане. Затем он снова завоевал Самарканд, но это повлекло за собой столкновение с Шейбани-ханом, вождем кочевников-узбеков, который нанес Бабуру поражение в битвах при Сар-и-Пуле и Ахси и вытеснил его из Самарканда и Ферганы. [2]

Эти поражения сделали Бабура странником, «передвигающимся, – как он пишет в своей автобиографии, – с одного квадрата на другой, обно шахматному королю». Ему

удалось захватить Кабул в 1504 году, свергнув там узурпатора. Тем самым обстоятельства направили внимание Бабура на юго-восток.

Завоевание Индии. Завоевание Бабуром в конце XV века Индии положило начало династии, которая правила страной до середины XIX века. Столь длительное влияние чуждой индийцам культуры принесло значительные перемены в историческом, религиозном и культурном укладе страны. Нужно отметить, что именно в «Бабур-наме» нашли свое наиболее робное описание проведенные Бабуром битвы. Так, к примеру, Бабур описал битву в Сикри с Рано Санграм Синхом, которая произошла 13 марта 1527 г. Рано Санграм и его союзники: Хасан хан Мевати - правитель Дунгарпура, Равал Уди Санг Багари, Рай Чандрабан Чаухан, сын правителя Чандари - Бхупат Рао, и многие другие не смогли устоять перед военной тактикой Бабура. Удачно исполненный им маневр тулгама, т.е. внезапный удар с тыла и флангов противника, и артиллерийский удар, решили судьбу сражения при Сикри. Описывая это сражение, Бабур объективно анализирует слабые и сильные стороны своего противника, не забывая при этом отдать должное храбрости и мужеству своего врага, Рано Санграм Синха. [3]

Как известно, сравнительно стабильным в политическом отношении стало положение в Индии после третьего сражения Бабура при Гогре, которое произошло 6 мая 1529 г. и завершилось полной победой Бабура и крупным поражением афганских и бенгальских феодалов. Битва при Гогре была третьей и последней победой, которая сделала Бабура полным хозяином Северной Индии. Весьма ценны его данные о независимых княжествах Гуджарата, Мальвы, Мевара, Бенгалии, Декана и Биджанагара. О Кашмире и Синде Бабур упоминает вскользь. Бабур, находясь в Индии, имел хорошую возможность общаться с коренным населением страны. Его полномочия и власть были распространены от Кабула до Бихара, охватывая большинство густонаселенных земледельческих оазисов Северной Индии.

Список литературы

1.Бамбер Гасконье. «Вуликие Моголы» Лондон, 2013

2.Лэмб Г. Бабур-тигр. Великий завоеватель Востока. М., Центрполиграф, 2002

3. http://www.allbest.ru.

ҲИКОЯЛАРДА “БОБУР” ОБРАЗИНИНГ БАДИИЙ ТАЛҚИНИ

Амирқулова З.М.

Термиз давлат университети ўқитувчиси,

Адабиёт ҳаётдаги етакчи тенденцияларни ифодалаш йўли билан миллион-миллион китобхонларнинг онг-шуурига, қалбига эстетик таъсир қилади, уларни истиқболга даъват этади. Шунинг учун ҳам биз бадиий асарларни севиб ўқиймиз ва ўрганамиз. Қолаверса, тарихий мавзуда асар ёзаётган адиб муайян адабий жанр доирасида иш кўради ва бу жанрга мансуб асар бадиийлик талаблари ва мезонлари даражасида яратилсагина, муваффақият қозониши мумкин. Демак, ёзувчи бирон – бир тарихий мавзуга қўл урар экан, бу типдаги асар яратишнинг ўзига хос жиҳатларини, ижодкорлик масъулиятини чуқур англаши, тарихий давр воқелиги ва тарихий шахс руҳиятини яхши ўзлаштирган бўлмоғи шарт.

Тарихий ҳақиқатлар қанчалик ибратли ва ҳайратланарли бўлмасин, у адиблар қалами остида қайта яратилар экан, маълум маънода бугунги кун билан, давр ва шахс муаммоси билан боғланмаса, тўла маънода маърифий ва эстетик қувватга эга бўлолмайди. Мунаққид

П.Шермуҳаммедов таъкидлашича, “Инсоннинг беҳаловат руҳияти шуниси билан ҳайратланарлики, у ҳеч қачон тарихий воқеалар, муҳим ҳодисалар, ибратли фактларга лоқайд қарамайди, ёки уни шунчаки билиш билан қаноат ҳосил қилмайди... Одамлар қалбидаги бу маънавий эҳтиёжни санъаткор адиб ўз пайтида туйиб, шундай бир бадиий олам кашф этадики, у кўзгу янглиғ аждодларимизнинг ҳақ-ҳуқуқи, озодлиги йўлида олиб борган мардонавор курашини тиниқ акс эттиради. Зеро, тарихий воқеа –ҳодисалар санъаткор қаламининг кучи билан “тирилтирилмаса”, ўтмишимиз ниҳоятда қашшоқлашиб, хира тортиб қолган бўлур эди” [6; 205]. Адабиёт ҳаётдаги етакчи тенденцияларни ифодалаш йўли билан миллион-миллион китобхонларнинг онг-шуурига, қалбига эстетик таъсир қилади, уларни истиқболга даъват этади. Шунинг учун ҳам биз бадиий асарларни севиб ўқиймиз ва ўрганамиз. Қолаверса, тарихий мавзуда асар ёзаётган адиб муайян адабий жанр доирасида иш кўради ва бу жанрга мансуб асар бадиийлик талаблари ва мезонлари даражасида яратилсагина, муваффақият қозониши мумкин. Демак, ёзувчи бирон – бир тарихий мавзуга қўл урар экан, бу типдаги асар яратишнинг ўзига хос жиҳатларини, ижодкорлик масъулиятини чуқур англаши, тарихий давр воқелиги ва тарихий шахс руҳиятини яхши ўзлаштирган бўлмоғи шарт. Ҳикоя жанри бошқа жанрларга нисбатан ихчам ва шаклан кичик жанр бўлсада, адабиётда тарихий воқеликнинг бадиий талқинини яратишда бу жанр имконияти кенг. Х.Дўстмуҳаммад айтганидек: “Бадиий адабиётда ҳар қайси жанр ўз ўрни, ўз файзи,аҳамиятига эга. Лекин ҳикоя жанрига хос бўлган имкониятлар туфайли ҳамиша у нисбатан кўп яратилади,кўп эълон қилинади, бинобарин, ҳар бир миллий адабиётнинг ўзига хос кундалик нафаси,қадам олиши, мавқеи ҳикояда кўпроқ намоён бўлади” [7; 58]. Лекин шуни таъкидлаш жоизки, тарихий ҳикояларда ёзувчи тарихий ҳақиқатни бузмаслиги ва қаламга олинаётган тарихий воқеани бадиий ҳақиқат даражасига олиб чиқиши лозим. Бу муаллифдан катта бадиий маҳорат билан бир қаторда, кучли билимни ҳам талаб қиладики, маҳорат ва билим уйғунлигида яратилган асар адабиёт мулкига айланади. Адабиётшунос олим С.Мирвалиев таъкидлаганидек: “Ёзувчи тарихчи яратган асар асосига ҳам суянади, нима бўлганлигини тарих фанидан ўрганиб, унинг қандай бўлганлигини бадиийлаштиради, яъни ҳаётий ҳақиқатлардан бадиий ҳақиқат, санъат ҳақиқатини келтириб чиқаради” [3;116] Тарих ва адабиёт масаласи серқирра, серқўлам ва теран масаладир. XX асрнинг 70-йилларидан бошлаб, халқимизнинг олис ўтмишига, тарихий шахслар тақдири ва ҳаётига қизиқиш ғоятда кучайди. Тарихий ҳақиқатни бадиий асарга айлатириш бадиий адабиётда устувор йўналишлардан ҳисобланади. Зотан, тарих воқеликнинг бўлиб ўтгани ҳақида сўзласа, адабиёт унинг қай тарзда бўлганини ёритади. Шундан келиб чиқиб айтиш мумкинки, адабиёт ҳар қандай тарихий воқеани шунчаки тасвирламайди. Унинг марказида инсон омили туради. Инсоний туйғулар ва кечинмаларни тасвирлаш биринчи планга чиқади. Истиқлол йилларида яратилган тарихий мавзудаги асарларда воқеликни тарихан холис, ҳаққоний тарзда акс эттиришга интилиш кучайди. Айниқса, тарихий шахслар образи талқинида адибларнинг ўзига хос бадиий –эстетик концепцияси, поэтик тафаккурининг намоён бўлиши ҳозирги ўзбек насрининг миллий хусусиятларидан бирига айланиб бормоқда.

Темур Қурбон қаламига мансуб “Ўлим шарпаси”, Дурбек Қўлдош қаламига мансуб “Хуфиёна битим”, “Шикор” каби ҳикояларда темурий шаҳзода, Абу Саид Мирзонинг тўртинчи ўғли, Андижон вилояти ҳокими, шоҳ ва шоир Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг отаси Умаршайх Мирзо, Дурбек Қўлдош қаламига мансуб “Хуфиёна битим” рзонинг ўлими билан боғлиқ тарихий воқеалар ва Бобурнинг ҳаётига оид воқеалар қаламга олинади. Тарихий манбаларда келтирилишича, Умаршайх Мирзонинг ўз салтанати ҳудудларини

кенгайтириш мақсадида қилган ҳаракатларидан таҳликага тушган акаси Султон Аҳмад Мирзо Тошкент ҳукмдори Султон Маҳмудхон ибн Юнусхон билан ўзаро иттифоқ тузиб 1494 йилда Андижонга қўшин тортадилар. Бироқ шу йилнинг 9 июнида, шундай таҳликали пайтда Умаршайх Мирзо Ахси шаҳридаги қароргоҳида элчи каптарларни учириш вақтида каптархона билан бирга жарга қулаб ҳалок бўлади. Заҳириддин Муҳаммад Бобур "Бобурнома" асарида отасининг ўлими ҳақида қуйидагича маълумот беради: "Бу аснода ғариб воқеа даст берди, мазкур бўлуб эдиким, Ахси курғони баланд, жар устида воке бўлубтур, иморатлар жар ёқасида эрди. Ушбу тарихда душанба куни рамазон ойининг тўртида Умаршайх мирзо жардин кабутар ва кабутархона била учуб, шунқор бўлди. Ўттуз тўққуз ёшар эрди"[2;15]. "Ўлим шарпаси" ҳикоясида муаллиф ушбу тарихий фактни ўзига хос услубда бадиий тўқималар билан бойитади. Ҳикоя туш мотиви билан бошланади. Адабиётшуносликда туш мотиви анъанавий тасвир воситаларидан бири бўлиб, ҳикоя,қисса,роман, достон каби лирик ва лиро-эпик асарларда ва айрим сюжетли шеърларда қўлланади. Халқ оғзаки ижодининг эпик жанрларида, мумтоз ва замонавий адабиётда яратилган шеърий,насрий ва драматик асарларда туш мотивидан фойдаланиш қаҳрамонларнинг руҳий ҳолатини очиб беришда муҳим ўрин тутади. "Ўлим шарпаси" ҳикоясида туш мотиви,айнан, мана шу вазифани бажаради. Ёзувчи асар қаҳрамонининг руҳий ҳолатини очиб бериш, кайфиятини, ички кечинмаларини ёритиш, психологик таҳлил қилиш, асар воқеаларини ўзаро боғлаб, унинг шаклан ва мазмунан яхлит бир бутунлигини таъминлашда туш мотивидан унумли фойдаланади ва шу орқали қаҳрамонни қуршаб турган турли муаммолар, унинг дилини жунбушга солаётган руҳий қийноқлар ва азоблар билан ўқувчини таништиради. Умаршайх Мирзонинг ички кечинмалари ва шу кечинмалар таъсирида унинг маълум руҳий кафиятда ҳаётий воқеаларга аралашуви ва муносабат кўрсатишини жонли тасвирлайди. Тушда кўпинча келажакда юз берадиган воқелик ҳақида рамзлар орқали хабар берилади. Ёзувчи ҳикояда тушларга хос шу муҳим хусусиятдан ифода воситаси сифатида ўринли фойдаланади. Асарда Умаршайх Мирзо тушидаги ҳар бир тасвир, нарса ва ҳодиса, хатти-ҳаракат ва ҳолат ўзининг маъносига эга.

Ҳикояда тилга олинган тарихий шахслардан бири Ҳофиз Муҳаммадбек дўлдой бўлиб, Султон Малик Қошғарийнинг ўғли Аҳмад Ҳожибекнинг иниси бўлган. "Бобурнома"да келтирилишича, Худойбердибек ўлгандан сўнг Ҳофиз Муҳаммадбек дўлдойни эшик оғаси қилиб юборади. Султон Абусаид мирзонинг воқеасидин сўнг Андижон беклари билан чиқишолмагач, Самарқандга Султон Аҳмад мирзо хизматига боради. Умаршайх мирзо Самарқандни олиш мақсадида Ўратепа устига келганда Ўратепани Умаршайх мирзо ихтиёрига топшириб, унинг хизматига киради. Умаршайх мирзо унга Андижонни беради. "Бобурнома"да Бобур Ҳофиз Муҳаммадбек дўлдой ҳақида " Сўнгралар Султон Маҳмудхон қошиға бориб эди. Мирзо Хонни топшуруб Дизакни анга бериб эдилар. Мен Кобулни олғондин бурунроқ Макка азимати қилиб, Ҳинд йўли била мутаважжиҳ бўлди! Йўлда тенгри раҳматига боритур. Фадир ва камсухан ва беҳайсият киши эрди" [2;15]. ,-дея маълумот беради. Муаллиф "Ўлим шарпаси" ҳикоясида "Бобурнома"да келтирилган мана шу тарихий маълумотга асосланади.

"Хожа Ҳусайнбек одми ва фақир киши эрди. Ул замон дастури била ичкуларда қўшуқларни яхши айтур экандур" "[2;15]. Ушбу маълумот ҳикояда қуйидагича бадиий акс этади: "Кўринишидан бекка ҳам ўхшамайдиган,доимо фақир одамлардек одми кийиниб юрадиган Хожа Ҳусайнбекнинг рангпаргина юзидан мирзо ҳеч қандай маъно уқиб ололмади". [4;97] .

“Ўлим шарпаси” ҳикоясида муаллиф “Бобурнома”да келтирилган маълумотлардан ўринли фойдаланади. Бироқ бу билан ҳикоя Бобур ҳақида бизгача етиб келган тарихий – адабий манбаларда битилган маълумотларнинг такрори деган хулоса чиқармаслик керак. Ҳикояда муаллиф услуби ва ўзига хослиги сезилиб туради. Муаллиф мавжуд маълумотларни ўрганиб, янги ва ўзига хос асарни яратишга муваффақ бўлган. Темур Қурбон қаламига мансуб.

Дурбек Қўлдош қаламига мансуб “Хуфиёна битим” ҳикоясида эса Умаршайх мирзонинг фожеали ўлимидан кейин Бобурга хиёнат қилган бекларнинг ўзаро хуфиёна битим тузиш жараёни қаламга олинади. Бу воқеа “Бобурнома”да келтирилади. Бироқ “Хуфиёна битим” ҳикоясига тарихий факт асос қилиб олинган бўлсада, муаллиф ҳикоя сюжетида бадиий тўқимага кенг ўрин беради. “Хуфиёна битим” ҳикоясида муаллиф асар воқеаларини мавжуд тарихий факт ва бадиий тўқима уйғунлигида тасвирлайди. Ҳикояда Аҳмад Танбал, Ҳасан Яъқуббек, Узун Ҳасан каби тарихий образлар билан бир қаторда исми келтирилмаган, Бобо деб номланган тўқима образ ҳам мавжуд. Ҳикояда баён қилинган воқеа Бобур ҳаётига тегишли бўлсада, Бобур образи кейинги қаторга қўйилади. Асосан, хиёнаткор беклар ва темурийларга содиқ фиқир Бобо ўртасидаги суҳбат ва воқеа кенг тасвирланади. Ҳикоя Умаршайх мирзонинг ўлими воқеаси билан бошланиб, унга содиқ фуқаронинг хиёнаткорлар томонидан аянчли ўлдирилиши билан тугайди. Бу билан ёзувчи тарихдан маълум бўлган Бобурга нисбатан қилинган хиёнат ва сотқинларга ишора қилади.

“Ўлим шарпаси” ва “Хуфиёна битим” ҳикоялари тарихий ҳикоялар сирасига киргани сабаб воқеалар юз берган макон тарихан аниқ. Ахси, Андижон, Тошкент каби жой номлари асар воқеалари юз берган тарихий жойлар сифатида тилга олинади. Бу эса ушбу ҳикояларда тарихийлик унсурларининг юзага чиқишига асос бўлади.

Кўп ҳолларда асар сарлавҳаси унинг мазмуни билан узвий боғлиқ бўлади.[1.145]. “Хуфиёна битим” ва “Ўлим шарпаси” ҳикоялари сарлавҳаси мана шундай хусусиятга эга. “Ўлим шарпаси” ҳикоясидаги туш мотиви асосида очиб берилиши лозим бўлган ғоя мазмуни сарлавҳа билан узвийдир. “Хуфиёна битим” ҳикоясида эса сарлавҳанинг номиёқ асар мазмунини ўқувчи кўз олдида аниқ очиб беради.

“Хуфиёна битим” ва “Ўлим шарпаси” ҳикояларида муаллифлар давр колоритини беришда тил имкониятларидан маҳорат билан фойдаланиганларига гувоҳ бўлиш мумкин. Ҳикояларда қўлланган “фалокат даст бериб”, “дорул бақоға рихлат қилдилар”, “азмойиш олмоқ”, “валиаҳд”, “бурноғи йил” каби эскирган қатор сўз ва қўшимчалар асар ҳикояларга давр руҳини беради. Ҳикоялардаги қаҳрамонлар нутқига эътибор бериб, сўзлар ва грамматик шаклларнинг мағзини чақиб кўрсангиз — кўз олдингизга жонли Бобур ё Умаршайх мирзо шахси ва уларнинг яшаган даври яққол номоён булади.

Адибларимиз миллат ва Ватан тарихини , буюк аждодларимиз ҳаёти ва тақдирини ҳужжатли манбалар асосида,тўлақонли, бадиий ифодасини яратишда катта ва бой тажриба орттиришди. Бу соҳада муаййан анъаналар ҳам яратилди. Тарихий наср табиатига хос етакчи хусусиятлар, ҳикоя жанрининг тарихий тараққиёт тамоиллари, ижодкорларимиз тажрибаси ўрганилди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари Тошкент: Ўзбекистон, 2001. — Б. 145.
2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. “Бобурнома”: Ўрта ёшдаги мактаб болалари учун :.Т Юлдузча 1989.- Б. 15.
3. Мирвалиев С.Ўзбек романи.–Тошкент: Фан, 1969.–Б.116.
4. Темир Қурбон “Ўлим шарпаси” // Шарқ юлдузи. –Тошкент: 2011 .–№ 6.–Б.97

5. Қўлдошов Д. Хуфиёна битим. Шарқ юлдузи.№2 2014.- Б.119.

6. Шермуҳамедов П. Тарихчи ва ижодкор нигоҳи // Шарқ юлдузи. –Тошкент: 1977.–№ 3.–Б.205

7. Х. Дўстмуҳаммад “Ҳикояларда ҳаёт ва хаёл ҳақиқати” // Шарқ юлдузи. –Тошкент: 2012 .–№ 8.–Б.58

BOBURIYLAR DAVLATIDA ELCHILIK MUNOSABATLARI

Umaraliyev A.A.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti

Boburiy hukmdorlar xorijiy mamlakatlarga elchilar jo‘natish va elchilarni kutib olishda ma’lum qonun-qoidalarga rioya qilganlar. Ular elchi yoki safir masalasiga jiddiy e’tibor berganlar, chunki elchilar xorijiy mamlakatlarda Xindistonning vakili, imidji hisoblanganlar. Hindistonda Zahiriddin Bobur davridan boshlab mansabdorlar tizimi ishlab chiqilgan. Odatga ko‘ra, Eronga yuboriladigan elchilar sayidlardan bo‘lib kelib chiqishlari eronliklardan bo‘lgan. Hindistonda istiqomat qiladigan eronliklar ma’lum bir imtiyozga ega bo‘lgan va saroyda xizmat qilgan. Elchining qo‘lida podshohlik maktubi bo‘lgan. Maktublar fors tilida bitilgan. Fors tili Janubiy va Markaziy Osiyo davlatlarida madaniyat, diplomatiya va xalqaro munosabatlar tili hisoblangan. Bundan tashqari, Boburiylar saltanatida fors tili davlat tili hisoblangan.

Elchini tanlashda uning aqliy rasoligi, bir necha tillarni bilishi, so‘zamolligi va o‘z suhbatdoshining ishonchiga kirishi masalalaariga katta e’tibor berilgan. Suhandonlik, ayniqsa hukmdorlar bilan muloqot qilganda ularning ko‘ngillarini topa biladigan, o‘z hamsuhbatining kayfiyatini ko‘taradigan, jismonan baquvvat, qaddi-qomati kelishganligi nazarda tutilgan. Elchi ma’rifatli, yuksak ma’naviyatli, har sohada ustasi farang bo‘lishi talablar sirasiga kirgan.

Elchilarning vazifalari quyidagilardan iborat bo‘lgan:

- eng asosiy vazifasi bu har ikki davlat va mamlakatlar o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni rivojlantirishdan iborat bo‘lgan;
- elchi shaxzodalar, vazirlar va nufuzli kishilar bilan hamda xorijiy davlatlarning shu mamlakatdagi elchilari bilan doimiy aloqada bo‘lishi talab qilingan;
- vaqti-vaqti bilan elchi hukmdor bilan uchrashib, u bilan bitim yoki ittifoq tuzish masalasida podshoga o‘z hukmdori maktubini topshirib, mazkur podshoning maktubini olib o‘z mamlakatiga yetkazgan;
- o‘zi elchilik qilayotgan mamlakatda sodir bo‘layotgan hodisalar to‘g‘risida muntazam ravishda hukmdoriga ma’lumotlar jo‘natib turgan;
- agar maktub yoki ma’lumotnomaning yo‘lda tortib olinishi xavfi mavjud bo‘lsa, bunday maktub va axborotlar maxfiy xodimlar tomonidan jo‘natilgan. Bunday maxfiy xizmatchilar savdogar yoki sayoxatchi sifatida faoliyat ko‘rsatganlar [2.].

Boburiy hukmdorlar elchilarining martabalari, elchilarning tarkibi ham o‘ziga xos tartibda shakllangan bo‘lib, shular haqida fikr yuritamiz. Elchilar favqulodda elchilar va oddiy elchilardan iborat bo‘lgan. Favqulodda elchini birqancha amaldorlar, xizmatkorlar kuzatib borishgan. Favqulodda elchining nufuzi, obro‘si, uning yurish-turishi, kiyinishi, uning atrofidagi amaldorlar, xizmatkorlarning saviyasi bilan belgilangan. Elchilikda kishilarning soni 500 va undan ko‘proq bo‘lib, ular orasida tahvildor, ya’ni sovg‘a-salomlar uchun mutasaddi shaxs hamda voqeanigor – elchilik tarkibida bo‘lib tarixiy uchrashuvlar, voqealar, bo‘lib o‘tgan hodisalarni qayd etib yozib borgan [1, 148.].

Boburiy podsholar davlat xukmdorlariga qimmatbaho va noyob sovg‘alarni yuborishgan, chunki bunday qimmatbaho buyumlar sovg‘a qabul qiluvchilarda katta taassurot qoldirgan. Yuborilgan sovg‘alar ro‘yxati podsholik maktubi bilan birga bo‘lgan. Masalan, Eron shohlari Boburiylarga arabiy yoki iroqi bedov otlar, noyob toshlardan yasalgan bezaklar, ro‘zg‘or buyumlari, qimmatbaho kiyimlar sovg‘a qilishgan. Boburiy Jahongirga yuborilgan sovg‘alar orasida noyob xanjar bo‘lib uning dastasi baliq tishidan tayyorlangan. Yana bir boshqa suyuqlik solinadigan idish bo‘lsa xo‘roz shaklida tayyorlangan bo‘lib, unda 30 litr sharobni saqlash mumkin bo‘lgan. Sovg‘alar yana shunisi bilan qimmatli bo‘lganki, ular qaysi bir davlat bilan bo‘lgan urushda qo‘lga tushirilgan va g‘alaba nishonasi hisoblangan. Elichilik munosabatlariga ko‘ra, bir davlat podshosidan kelgan sovg‘ani boshqa davlat hukmdorlariga jo‘natish hollari ham mavjud bo‘lgan. Eron shohlari Rusiyadan kelgan mo‘yna matolarini yoki Usmoniy Sultonidan kelgan qimmatbaho sovg‘alarni Hindistonga, Boburiy hukmdorlarga sovg‘a sifatida jo‘natishgan.

Elchini xorijiy davlatga jo‘natish vaqti oldindan belgilangan. Tayinlangan elchi jo‘nashidan oldin o‘z hukmdoriga ko‘rinish berib, podsholik maktubidan tashqari og‘zaki maxfiy ma’lumotlarni ham yetkazishi zarur bo‘lgan, ular to‘g‘risida maktubda ishora mavjud bo‘lgan.

Hukmdor tomonidan yuborilgan maktublarda nimalar to‘g‘risida so‘z borgan? Podsholik xati yoki maktubi tashqi ishlar yoki tashqi aloqalar bilan shug‘ullanuvchi vazir tomonidan bitilgan. Akbarshoh nomidan tayyorlanadigan maktublarning katta qismi zamonasining mashhur shoiri Abul Fazlxon tomonidan yozilgan. Ayrim hollarda maktubni tuzish ikki loyihadan iborat bo‘lib, ulardan maqbuli tanlab olingan. Shoh Jahon maktublari uning vaziri Sa’dulla Xon tomonidan yozilgan. Maktubda xukmdorning lavozimlari, xizmatlari, uning nomiga yo‘llangan hamdu sanolar ko‘tarinki ruh va chiroyli so‘zlar bilan bitilgan.

Xorijiy elchining mamlakatga kirib kelishi davlatlararo munosabatlarda katta shov-shuvga sabab bo‘lgan, imkon darajasida Boburiy hukmdorlar bu tadbirga dunyoning turli burchaklaridan elchilarni yig‘ishga intilib kelganlar. Bunday tantanalar yangi podshoxni taxtga o‘tirishi va uning legitimligini ta’minlashdan iborat bo‘lgan. Elchini mamlakat hududiga qadam qo‘yishi bilan uni kutib olish uchun mehmondor barcha chora tadbirlarni ko‘rgan. Mehmondor uni chegaradan kutib olgan va poytaxtgacha birga hamrox bo‘lgan. Qoidaga binoan mehmondor Hindistonning boshqa xorijiy mamlakatdagi elchisi bo‘lgan yoki u kelgusida kutib olingan elchining mamlakatiga elchilikka mo‘ljallangan shaxs ham bo‘lishi mumkin bo‘lgan. Elchilik taomiliga ko‘ra, elchi uchun maxsus shinam joy ajratilgan yoki mehmondorning uyida istiqomat qilingan. Elchi mamlakatga kirishi bilan Boburiy Sultonlar bu haqda farmon chiqarganlar. Uni chegarada yuqori martabali kishilar kutib olishgan, unga faxriy kiyim hadya qilishgan, u davlat ahamiyatidagi mehmon bo‘lib, elchi bilan bog‘liq barcha harajatlar davlat xazinasi tomonidan qoplangan. Elchiga amaldorlar orqali Boburiy hukmdor qachon va qaerda uni qabul qilinishi oldindan belgilangan[3, 128].

Hukmdor bilan uchrashuv marosimida elchining ko‘rinish berishi, taslim yoki sajda qilishi bilan boshlangan. Bu harakatlar elchining o‘zini xukmdor ixtiriga topshirganligini bildirgan. Elchining sajda qilishi Akbarshoh tomonidan kiritilgan bo‘lib, Shoh Jahon davrida sajda peshonani yerga tekkizish bilan almashtirilgan. Eronlik elchilarga xuddi o‘z mamlakatlaridek ikki qo‘lni ko‘krakka qo‘yib egilib salomlashishga ijozat berilgan. Boburiy hukmdorlar saroyida elchi keltirgan maktubni amaldorlardan biriga bergan va amaldor uni hukmdorga topshirgan. Hukmdor maktubni diqqat bilan o‘qib chiqqach, uni vazirga uzatgan. Shundan so‘ng, hukmdor elchiga savollar bilan murojaat qilgan. Elchi qisqa va lo‘nda javob berishi zarur bo‘lgan. Elchi maktubdan tashqari xukmdorga qo‘shimcha ma’lumotlar ham yetkazgan. Elchi hukmdorga ba’zi bir sovg‘alarni topshirgan [2].

Xulosa qilib aytganda, elchilik munosabatlari davlatlar o‘rtasida hamkorlik o‘rnatishda muhim ahamiyat kasb etgan va Boburiy hukmdorlarning xalqaro munosabatlarda mavqei mustahkamlanishiga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Г.А.Хидоятов. История дипломатии. Т., УМЭД. 2004.С.148.
2. http://www.history.ru.
3. Низомиддинов Н.Ғ. Буюк бобурийлар тарихи (XVI-XIX аср). Монография. – Т.: “Fan va texnologiya”, 2012, - Б. 128.

ШОҲ БОБУР – УЙҒОНИШ ДАВРИНИНГ СЕРҚИРРА ИЖОДКОРИ

Атамирзаев И.Х.
Наманган давлат университети катта ўқитувчиси
Солиев Ж.
Наманган давлат университети талабаси

Қомусий олим, истеъдодли шоир, фиқҳ илмининг билимдони, таржимон, географ, давлат арбоби ва моҳир саркарда Заҳириддин Муҳаммад Бобур нафақат ўзбек адабиёти, тарихи ва маданияти, балки жаҳон тамаддунига улкан ҳисса қўшган зот саналади. Соҳибқирон Амир Темур асос солган темурийлар салтанатининг муносиб давомчиси бўлган Бобурга тақдир аввал Афғонистон ва кейинчалик Ҳиндистон мамлакати фатҳини насиб этган. Буюк саркарда оз сонли қўшини билан Ҳиндистонни эгаллагач, бу минтақада янги салтанат – Бобурийлар салтанатига асос солган. У Ҳиндистонда бир-бири билан душманлик кайфиятида бўлган майда мустақил рожаларни қилич ҳамда сиёсат йўли билан бирлаштиради ва 1530 йилгача марказлашган йирик салтанатини барпо этади. Бу салтанат 332 йил, яъни Ҳиндистонни Буюк Британия тўлиқ босиб олгунга қадар ҳукм сурган. Чет мамлакатларда, ҳаттоки Ҳиндистонда ҳам Бобур ва унинг авлодларини “Буюк мўғуллар” деб аташган. Бу мутлақо нотўғри. Чунки “Буюк муғўллар” деган ибора Чингизхон ва ундан кейинги мўғул ҳукмдорларига тааллуқлидир. Бобурийлар юртдошимиз, темурийзода Бобурнинг авлодларидир. Улар тарихий ҳужжатларда ўзларини “Бобурий Мирзолар” деб юритишган. Бобурийларнинг мўғуллар деб хато аталишига европаликларнинг Амир Темурни ва темурийларни мўғуллардан тарқалган деган нотўғри хулоса чиқаришлари сабаб бўлган. Сўнгги йилларда “Буюк мўғуллар” ибораси ўрнида “Бобурийлар” деб қўлланилиши билан тарихий ҳақиқат тикланди.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур ўзидан катта адабий-илмий мерос қолдирган. Унинг шеърлар мажмуаси жамланган “Девон”и, “Бобурнома” номли тарихий-қомусий асари машҳур. “Мубаййин”, “Мухтасар” (Аруз рисоласи) каби асарлари ҳам бизгача етиб келган, аммо шоирнинг “Илми мусиқий”, “Ҳарб иши”, “Хатти Бобурий” каби асарлари ҳалигача топилмаган.

Бобурнинг туркий тилдаги “Девон”ида дилтортар ва жозибадор, шу билан бирга, ҳаётий сатрларга бой шеърий мисралари жамланган. Шоирнинг мафтункор ғазаллари, ижтимоий-сиёсий характердаги сермаъно рубоийлари мухлислари қалбидан жой олган.

“Бобурнома” жаҳон илм аҳлининг юксак эътирофига сазовор бўлган мемуар асар бўлиб, унда XV аср охири ва XVI асрнинг 30-йилларигача бўлган Мовароуннаҳр, Хуросон, Афғонистон, Эрон, Ҳиндистон, ва Покистон тарихи, географияси, маданияти, этнографияси

ва адабиётига оид ноёб манбадир. Ушбу асар XIX асрдаёқ кўплаб Европа тилларига таржима қилинган.

Бобурнинг адабиёт илмига доир қарашлари, хусусан, аруз илмига оид “Мухтасар” асарида Алишер Навоийнинг “Мезон-уз замон” асари каби аруз вазнининг ўзига хос баҳр ва рукнлари ҳақида маълумот берилган.

Шоҳ Бобурнинг таржимонлик фаолияти ҳақида шуни айтиш мумкинки, яъни у Хожа Убайдуллоҳ Аҳрор Валийнинг “Рисолаи волидиййа” (Отага аталган рисола) асарини форс тилидан туркий тилга шеърий таржима қилган. Мустақиллик йилларида ҳам ушбу асар форс тилидан ўзбек тилига таржима этилган. Асар 2004 йил сўзбоши ва изоҳ муаллифлари Маҳмуд Ҳасаний, Дилора Ражабовалар томонидан Тошкентда “Янги аср авлоди” нашриётида чоп этилган. Тасаввуф аҳлига ушбу рисола Бобурнинг шеърий таржимаси орқали етиб келган. Бобур тасаввуф талқинида қатор асарлар яратган, нақшбандийлик тариқати валийларидан Хожа Убайдуллоҳ Аҳрор таълимотига яқин турган, замонасининг уламоси Имом Аъзам Деҳбедий Косоний ҳазратларига қўл берган.

Бобурнинг фиқҳ илмига доир “Мубаййин” асари диний-тасаввуфий характерда бўлиб, унда ислом динининг беш рукни ҳақида шеърий маълумот берилган. Маснавий шаклида ёзилган ушбу асарда Ҳақ субҳанаҳунинг субутий сифатлари – ҳаёт, илм, иродат, қудрат, самъ ва басар (кўриш ва эшитиш), камол ва тақдири азалга ишорат қилинади. Асарда пайғамбаримиз Муҳаммад (с.а.в)нинг фазилатлари, саҳобаларнинг ғайратлари, охират куни, номаъи аъмол, мезон, аросат, мавоқиъ, шафоат, сирот ҳамда бош мавзу иймоннинг беш шарти ва натижаси ҳақида маълумот берилади. Ушбу асарнинг биринчи рукни “Эътиқодия” деб номланган. Асар исломнинг беш рукни (асоси)га бағишланган бўлиб, фарзандлари Ҳумоюн Мирзо ва Комрон Мирзоларга ислом илмини эгаллашлари учун ёзилган. Ушбу асарнинг кирилл ёзувидаги нусхаси С.Ҳасан, Н.Ҳасанлар томонидан 2000 йил Тошкентда чоп этилган.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур 1530 йилнинг 26 декабрида 47 ёшида вафот этади. Уни Агра шаҳрида Жамна дарёси ёнидаги Боғи Оромга дафн этадилар. Унинг васиятига кўра, Бобур шоҳнинг қабри Қобулдаги Боғи Калонга кўчирилади. Бу боғни Бобурнинг ўзи катта меҳр билан обод қилган эди. Кейинчалик бу боғ “Боғи Бобур” дея атала бошланган. Шоҳ ва шоир Бобурнинг ибратли ҳаёт ва ижод йўли барчамизга ўрнакдир. Зеро, биз ёшлар ҳам боболаримизга муносиб ворис бўлишимиз даркор. Бунинг учун бугунги ривожланаётган янги Ўзбекистонда билим олишимиз, аждодларимизнинг ноёб асарларининг бадиий ва илмий тадқиқини яратишимиз муҳим.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Мубаййин. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси, 2000. – 150 б.

2. Ислом тасаввуфи манбалари / Тузувчи, сўзбоши ва шарҳлар муаллифи: Ҳ.Болтабоев. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005. – 400 б.

3. Хожа Убайдуллоҳ Аҳрор. Рисолаи волидиййа. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004. – 145 б.

ҲИНД ТАРИХЧИЛАРИ БОБУР ХУСУСИДА

Азизиқулов А.
СамИСИ доценти

Бобурийлар сулоласи ҳукмронлиги Марказий ва Жанубий Осиё цивилизациясида алоҳида ўрин тутади. Афғонистон, Ҳиндистон ва Покистон тарихининг муҳим қисми сифатида эътироф этиладиган бу сулола тарихи тадқиқотчилар томонидан кенг ўрганилган соҳага айланган. Ҳатто Буюк Британия тарихи фанида бобуршунослик алоҳида тадқиқот объектига сифатида шаклланган [2, 3.]. Ҳинд тарихчилари томонидан бобурийлар сулоласининг вакиллари фаолияти пухта ўрганилган. Бобурийлар салтанати тарихига оид кўплаб асарлар яратилган бўлиб, ҳинд тарихчиси Л.П.Шарманинг “Бобурийлар салтанати “ асари ҳам шулар жумласидандир.

Асар бобурийлар сулоласи вакилларининг тарихини ёритишга қаратилган бўлиб, унда Бобур Мирзо, Хумоюн, Акбаршоҳ, Жаҳонгир, Шоҳ Жаҳон ва Аврангзебларниинг ҳукмдорлик давридаги барча ижтимоий сиёсий жараёнларни ҳамда маданий тараққиётнинг хусусиятларини баён этишга ҳаракат қилган. Муаллиф бобурий ҳукмдорлар фаолиятини объективлик тамойили асосида ёритишга ҳаракат қилган, бироқ айрим жиҳат ва жараёнларни шарҳлашда субъектив ёндашувлар ҳам мавжуд ва албатта бу табиий жараёндир. Шунингдек, Л.П.Шарма воқеа ва ҳодисаларни ҳамда ҳукмдорлар фаолиятини изоҳлашга ўзининг фикрлари билан бирга тез-тез инглиз тарихчиларини хулосаларини ҳам келтириб ўтади.

Биз асардаги фақат Бобур тўғрисидаги фикрлар хусусида тўхталиб ўтмоқчимиз. Асар муаллифи Бобур фазилатларини баён этар экан, унинг барча хислатларини очиб беришга ҳаракат қилади. Инглиз тарихчиси С. Лейн Поул Бобурни “Шарқ тарихидаги энг мафтункор шахс эди” деган мулоҳазасини келтириб ўтгандан сўнг, Бобурнинг жисмоний фазилатларини қуйидагича баён этади: “Бобурнинг инсон сифатидаги хислатлари ҳақиқатдан ҳам мақтовга сазавордир. У жисмонан жуда бақувват киши бўлиб, қалъа девори устида икки кишини қўлтиқлаб олиб, тўсиқлардан бемалол ўта олар эди. Ҳиндистонда дуч келган ҳар қандай дарёдан қийналмай сузиб ўтар, 80 милгача масофани дам олмай бир кунда босиб ўтар эди” [3, 25.]. Муаллиф Бобурнинг жисмонан бақувватлиги унинг моҳир саркарда бўлиб етишига асосий омил бўлиб хизмат қилган, деган фикрни баён этар экан шундай дейди: “Бобур жасур навкар ва тажрибали саркарда эди. У болалигиданоқ жангларда қатнашганидан ўлимга кўрқмасдан қарарди. Бобурнинг саркардалик тажрибаси Марказий Осиёнинг турли тоифа ва гуруҳдаги халқлари билан бўлган жангларда чиниқиб тобланди. У Темур ёки Чингизхон сингари туғма саркарда эмас эди, балки ҳаётининг дастлабки давридаги жангларда бир неча бор мағлубиятга учраб, аста-секин тадбиркор лашкарбошига айланди. У ҳеч қачон матонатини йўқотмади ва курашда йиқилган пайтларида ўзини ўнглаш учун доимо ирода кучини ишга сола билди, жангларда тажриба тўплади....Мана шундай тадбиркор лашкарбошилиги учун ҳам у Ҳиндистондаги жангларнинг барчасида ғолиб чиқди” [3, 25.]. Муаллиф шу ерда тарихчи С.Р.Шармани қуйидаги фикрларини келтириб ўтади: “У ажойиб чавандоз, моҳир мерган, чаққон қиличбоз ва толмас овчи эди”.

Бобурнинг жисмоний салоҳияти ва саркардалик қобилиятини ёритгандан сўнг унинг шахсий ахлоқий фазилатларини ҳам изоҳлаб ўтар экан шундай дейди: “Бобур садоқатли ўғил, меҳрибон ота, содиқ дўст, вафодор эр ва ғамхўр қариндош эди. .... Бобур қариндош-уруғларидан меҳр-мурувватини аямас, дўстларининг ташвишларига ҳамдардлик қилар ва қувончларига шерик бўлар, хотинлари бир нечта бўлишига қарамай, уларнинг барчасини

баравар иззат қиларди, ўғилларининг ҳам ҳаммасига бирдек меҳр билан қарарди. .... У сахий, олижаноб, мард, мафтункор, севимли ва жуда маданиятли киши эди" [3, 22.]. Бобурнинг мазкур фазилатлариини унинг қизи Гулбаданбегим ҳам ўзининг "Хумоюннома" асарида келтириб ўтади[1, 51.].

Ҳинд тарихчиси Бобурнинг диний бағрикенглик фазилатини юқори баҳолар экан, яна ҳинд тарихчиси С.Р.Шарманинг қуйидаги фикрларини келтиради: "Бобурнинг биронта ҳинд ибодатхонасини бузгани ёки ҳиндларнинг уларнинг диний эътиқодига кўра таъқиб қилганининг бирор бир асорати кўринмайди" [3, 23.]. Ҳамкасбининг бу фикрларини шарҳлар экан, шундай дейди: "Бобурнинг мусулмон ва ҳиндларга баравар муносабатда бўлгани тўғрисида бир неча мисол бор. 1529 йилда Гогра дарёси қирғоғидаги жангдан олдин у ҳинд ва мусулмон беклари билан тенг маслаҳатлашган эди....Шунинг учун ҳам кўпчилик тарихчиларнинг фикрига кўра Бобур диндор шахс бўлган бўлса ҳам, лекин у кўр-кўрона хурофотчи бўлган эмас ва Ҳиндистондаги фаолияти давомида диний жаҳолатпарастликка йўл қўймади" [3, 23.]. Л.П.Шарма Бобурнинг бағрикенглик маданиятини изоҳлашда яна бар ҳинд тарихчиси Р.П.Трипатининг фикрини келтириб ўтади: "...бобурийлар империясининг тантанаси унинг ҳарбий қудрати туфайлигина эмас, балки ўз сиёсатида диний эътиқод эркинлигини амалга оширгани ва маданий ҳаётга катта ҳисса қўшганлиги туфайлидир". Бу сиёсатни эса Бобур бошлаб берган эди? - дейди? Л.П. Шарма тарихчиларнинг мулоҳазаларни шарҳлар экан, Бобур маърифатчи шоҳ бўлган эди,-дейди [3, 23.].

Ҳозирги тарихчиларнинг барчаси, - дейди Л.П.Шарма, Бобурнинг тарихда жуда катта ҳурматга сазавор ўринни эгаллашини алоҳида таъкидлайдилар деб, уларнинг айримларининг фикрларини келтириб ўтади. Масалан, инглиз тарихчиси В.А.Смитнинг ёзишича, "Бобур ўша даврдаги осиёлик шаҳзодаларнинг энг зўри бўлиб, унинг тарихдаги ўрни ўтмишдаги шаҳзодалар орасида улкан таҳсинга сазавордир". Оврупалик тарихнавис Гавел эса Бобурни "Ислом дунёси тарихидаги энг жозибадор шахслардан эди" деб таърифлайди. Инглиз шарқшуноси У. Эрскиннинг таърифлашича , «Осиёлик шаҳзодалар орасида Бобур билан баробар мавқени эгаллай оладиган шаҳзода бўлган эмас". Бобурнинг шахси ва унинг феъл атвори шубҳасиз, ана шундай юксак баҳоларга сазавордир" [3, 25.]. Буюк саркарда ва давлат арбоби Бобурга нисбатан айтилган бу фикрларга муносабат билдирар экан, Л.П.Шарма шундай дейди: "... у Ҳиндистонга темурийларга хос давлат бошқарувини олиб кирди ва унга мустаҳкам асос солди.... Бобур янги империяни қай тарзда ўрнатиш кераклигини кўрсатибгина қолмай, балки бу империяни бошқариш сийёсатини ҳам ўргатиб қўйган эди. У Ҳиндистонда ўрнатган сулола ва унинг анъаналарини ҳеч қайси маалакатда топиб бўлмайди"[3, 25.]. Ҳинд тарихчиси Л.П.Шарма Бобурнинг Ҳиндистонда миллий давлатчилик тизимини яратишдаги хизматларини баҳолар экан, бир вақтлар афғонларга тобе бўлган Ҳиндистон, бобурийлар сулоласи даврида Афғонистонни Деҳли султонлигига қарам бўлганлигини фахр билан ифода этади.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак аввало, ҳинд тарихчиларининг ўзлари таъкидлаганидек бобурийлардек сулола Ҳиндистон тарихида бўлган эмас.

Иккинчидан, мазкур сулола асосчиси маърафатли шоҳ Бобур зурриётлари ҳам маърифатли бўлиб, Ҳиндистонда маданий тараққиётга катта ҳисса қўшдилар.

Учинчидан ватандошимиз Бобур ва бобурийларни Ҳиндистон тарихида бундай юксак эътироф этилиши, ҳар биримизга юксак ифтихор туйғусини уйғотади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Гулбаданбегим Хумоюннома Т. 1959й. -51 бет

2. Сотимов Ғ. Шоҳ ва шоир салтанати//Л.П.Шарма Бобурийлар салтанати, Т.: «Маънавият»-1998.-3 бет
3. Шарма Л.П.Бобурийлар салтанати; инг. Тилидан тарж. –Т.: «Маънавият», -1998й. -25 б.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR HAYOTI VA MEROSI BUGUNGI KUN NIGOHIDA

Baqoyev Sh.H.
O‘zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi Harbiy-texnik instituti

“Bobur Mirzo xalqimizning buyuk farzandi. Adabiyot, ilm, ma’rifat nuqtai nazaridan U hamon yashayapti. Bu maskanni yanada obod qilib, tarbiya o‘chog‘iga aylantirish zarur. O‘zligimizni anglab, buyuk tariximizni yoshlarga tushuntirsak, ilm-ma’rifatni rivojlantirsak hech qachon kam bo‘lmaymiz”[1.].

Sh.M.Mirziyoyev.

Dunyo tarixida juda ko‘plab olim-u fuzalolar, hukmdorlar shoir-yozuvchilar yashab o‘tgan. Biroq, ham ilm-fanda, ham adabiyotda va san’atda, bularga qo‘shimcha tarzda siyosatda ham yuksak marralarni zabt etgan, yuqori e’tirofga sazovor bo‘lgan shaxslar juda kam. Dovyurak sarkarda, adolatli hukmdor, iqtidorli shoir ham yozuvchi, adabiyotshunos bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur shunday buyuk shaxslardan biridir. Zahiriddin Muhammad Bobur o‘rta asr sharq madaniyati, adabiyoti, san’atida o‘zining keng dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan jaxon tarixida o‘ziga xos o‘rin egalladi.

“Bobur fe’l –atvoriga ko`ra Sezarga qaraganda sevishga arzigulikdir. Uning manglayiga yuksak fazilatli inson deb bitib qo`yilgan.”. Zahiriddin Muhammad Bobur 1483 yil 14 fevralda Andijon viloyatida, Farg‘ona ulusining hokimi Umarshayx Mirzo oilasida dunyoga keldi. Bu davrda Amir Temur tuzgan davlatni boshqarish uchun butun mamlakatda aka-ukalar amaki-jiyanlar o‘rtasida kurash avj olgan edi. Boburning esa yoshligidan adabiyot, shoirlar, yozuvchilar hayoti va ijodiga qiziqishi katta edi. Ammo, 1494 yil otasi Umarshayx Mirzo vafot etgach Bobur 12 yoshida otasi o‘rniga Farg‘ona ulusining hokimi bo‘ldi. Shu paytdan boshlab Bobur qalamni qilich bilan almashtirdi.

Taxt uchun dastlab ukasi Jahongir Mirzo, amakisi Sulton Ahmad Mirzo va tog‘asi Sulton Mahmudxonlar bilan kurash olib bordi. Ular bilan murosaga kelmasidanoq Zahiriddin Muhammad Bobur uchun yangi g‘anim Shayboniyxon paydo bo‘ldi. U katta harbiy kuch bilan dastlab Samarqandni, so‘ngra Andijonni ham egallagandan so‘ng Bobur Mirzo uchun qiyin damlar boshlandi va u janubga Kobul ulusi tomonga yo‘l oldi va u yerda o‘z hokimiyatini o‘rnatdi.

Kobulda bo`lgan kezlarida u bir necha bor o`z yurtiga qaytishga harakat qildi ammo uning urinishlari zoye ketdi. So`ngra u o`z mavqeini yaxshilash maqsadida janubga Hindiston sari yurish qilishga ahd qildi. 1526 yil aprel oyida Panipat yaqinidagi jangda Zahiriddin Muhammad Bobur Ibrohim Lo`diy boshchilik qilayotgan qo`shinni mag`lubiyatga uchratdi va Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos soldi.

Zahiriddin Muhammad Bobur bu g`alabasidan keyin uzoq yashamadi 1530 yil Agra shahrida vafot etdi, keyinroq uning vasiyatiga ko`ra jasadi Kobulga olib kelindi. Ammo, Boburiylar sulolasi Hindistonda 300 yildan ortiqroq hukmronlik qildi. Garchi Yevropa tarixchilari tomonidan “Buyuk mo`g`ullar” nomi bilan mashhur bo`lgan bo`lsada, aslida Hindistonda madaniyat, ilm-fan, adabiyot,

siyosiy-iqtisodiy masalalar, savdo-sotiq, ijtimoiy masalalar yuqori darajada isloh etilib, o`z rivojining cho`qqisiga chiqqan davr bizning bobokalonimiz asos solgan imperiya “Boburiylar imperiyasi” davrida bo‘lgan.

“Bobur bunyod etgan davlat garchi bobolariniki singari bepoyon mintaqalarga yoyilmagan bo`lsa-da, u o`z saltanatining sultoni buyuk imperatori darajasiga ko`tarildi. O`z mulkida boshqaruv tizimini mahkam tutib, uni mohirlik bilan idora qildi. Bu o`lkani 332 yil davomida mahorat bilan boshqargan buyuk sulolaga asos soldi ” [4.].

Zahiriddin Muhammad Bobur o`zining Hindistondagi qisqa hukmronligi davrida davlatda siyosiy vaziyatni barqarorlashtirish, shaharlarni obodonlashtirish, bog‘-rog`lar yaratish ishlariga rahbarlik qildi. Uning davrida Hindistonda kutubxonalar, karvonsaroylar, me’moriy inshootlar qurildi. Hindiston arxitekturasiga Markaziy Osiyo uslubini olib kirdi. Fikrimizning dalili sifatida – “Bobur Hindistonga kelgandan so‘ng katta siljishlar yuz berdi va yangi rag`batlantirishlar hayotga, san’atga, arxitekturaga toza havo baxsh etdi, madaniyatning boshqa sohalari esa bir – birlariga tutashib ketdi” - deydi Hindistonning davlat, siyosiy va jamoat arbobi Javaharlal Neru.

Bobur Mirzo saroy g`aznasini go`zal inshootlar barpo etishga sarfladi. Keyinchalik bu odat esa har bir Boburiy hukmdorning fazilatiga aylandi. Natijada, Toj Mahal, Qizil Masjid, Humoyun maqbarasi shuningdek, bir biridan go`zal bog` rog`lar barpo etildi.

“Mirzo Boburning Hindistondagi qudrati uning bosib olgan yerlari bilan emas, u hind xalqining ko`nglida uyg`ota olgan hurmat-ehtirom bilan o`lchanadi.” [5.].

Zahiriddin Muhammad Boburning adabiy-badiiy faoliyatidagi eng katta ishi bu “Boburnoma” asaridir. Bobur Mirzo bu asarda Markaziy Osiyo, Afg`oniston va Hindiston xalqlariga xos bo`lgan fazilatlar ularning o`sha davr dunyoqarashi, tafakkur olami murakkabligi, o`sha davr hayot mashaqqatlari, o`z hukmronligi davridagi ijtimoiy siyosiy muammolarni aks ettirgan. Boburnomada bayon qilingan voqealar bayoniga ko`ra 3 qismga bo`linadi. Bular:

1. Boburning Movarounnahrdagi (1494-1504) hukmronlik davri - Zahiriddin Muhammad Boburning otasi Umarshayx Mirzo xususida hamda Boburning Farg`ona taxtiga kelishi haqida. Temuriylar davlatidagi taxt uchun kechgan kurashlar oqibatida o`z ulusidan mahrum bo`lishi. Samarqand uchun Shayboniyxon bilan kechgan janglari va bularning barchasi behuda ketib Hisot tog`lari orqali Afg`onistonga yuz tutishi haqida voqealar bayon etilgan.
2. Zahiriddin Muhammad Boburning Afg`onistondagi (1504-1524) hukmronlik yillari, Kobulni zabt etishi, u yerlarda mustaqil davlat tuzgani Eron shohi Ismoil Safaviyning yordami bilan Samarqandni yana ishg`ol qilgani lekin Shayboniylardan yengilishi, Hindistonni zabt etish uchun hozirlik ko`rishi bayon etilgan.
3. Zahiriddin Muhammad Boburning Hindistondagi (1524-1530) hukmronlik yillari – Ibrohim Lo`diyning mag`lubiyatga uchrashi va Shimoliy Hindistonni zabt etib Boburiylar davlatiga asos solishi haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Shuningdek, Boburnomada ijtimoiy fanlar: tarix, falsafa, fiqh, din ta’limoti, tilshunoslik , jug`rofiya, tabiatshunoslik, madanshunoslik, dehqonchilik, bog`dorchilik va boshqalarga oid hanuzgacha o`z tarixiy va ilmiy ahamiyatini yo`qotmagan ma’lumotlar ilmiy asoslangan xulosalar keltirilgan. Asarda Bobur o`zi qo`shinga boshchilik qilib kirgan bir nechta jang manzaralari ham mahorat bilan tasvirlangan. O`sha davrning qo`shin tuzulishi, qamal holati, qurol-yarog`, urush olib borish taktikasi bilan bir qatorda harbiy ma’muriy istilohlar keltirilgan. Shuningdek, Bobur o`zi tasvirlagan hududlarning qishloq xo`jaligi, urf-odatlari, tabiati, o`simlik va hayvonot dunyosi, qazilma boyliklari to`g`risida qimmatli ma’lumotlar berilgan. Ushbu asarni o`rganish va ommalashtirishda O`zbekiston bilan birgalikda Tojikiston, Rossiya olimlarining mehnatlari ham diqqatga sazovor. XIX-XX asrlar davomida Georg Ker, N.Ilminskiy, O.Senkovskiy, M.Salye, Porso

Shamsiyev, Sodiq Mirzayev, V.Zohidov, Ya.G`ulomov, R.Nabiyev, S.Azimjonova kabi olimlarning sa'y harakatlari bilan asar bir necha bor rus va o`zbek tillariga tarjima qilinib chop etildi.

Bobur ruhan qiynalgan, saroy amaldorlari hiyla-nayranglari, xiyonatlari ta'sirida ezilgan kezlari, keyinchalik o`z yurtini tark etishga majbur bo`lib Afg`oniston va Hindistonga ketishga majbur bo`lgan kezlarida, yuragini Vatan tuyg`usi Vatan sog`inchi qiynagan damlarda o`zini she'riyatga bahshida etgan, bularni uning she'rlaridagi mazmundan ham sezishimiz mumkin:

Tole yo`qki jonimg`a baloliq bo`ldi,
Har ishniki ayladim xatoliq bo`ldi,
O`z yerni qo`yib Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig` bo`ldi.

Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" asaridan tashqari fiqh ilmiga bag`ishlangan "Mubayyin" asari ham mavjud. Boburning nasriy asarlari "Qobul devoniga", so`ngra "Hind devoniga" jamlangan. U sharq nasriy janrlarida 10 dan ziyod she`rlar yozgan. Uning she`rlari tarjimai xoli desak yanglishmagan bo`lamiz. Bobur she`riyatining asosini ishqiy-nasriy she`rlar tashkil etadi. Zahiriddin Muhammad Boburning asarlari mana 500 yildirki xalqimizning ma`naviy yuksalishiga, uni dunyoga tanitishga xizmat qilmoqda.

Mustaqillik yillarida davlatimizda Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti, ijodi va uning ma'naviy merosiga katta e'tibor berildi. 1993 yil Xalqaro Bobur jamg`armasi tuzildi va bu jamg`arma Bobur ijodini o`rganishda katta ishlarni amalga oshirdi. Jamg`arma ilmiy ekispoditsiyasi 10 dan ortiq Sharq mamlakatlarga mashina orqali ilmiy safar uyushtirdi, shuningdek, Bobur va Boburiylar bilan bog`liq bo`lgan tarixiy qadamjolarga borib ular haqida ko`pgina yangi ilmiy ma'lumotlar to`plashdi va keng jamoatchilik iste'moliga havola etishdi. Bugungi kunda ham davlatimizda Bobur hayoti uning ijodiga qiziqish katta, asarlari hali hanuz kitobxonlarimizning sevimli kitoblari safidan tushmagan. Biz Zahiriddin Muhammad Bobur va Boburiylar merosini qanchalik ko`p o`rgansak ham kamlik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 05 iyun 2017 yil Andijon viloyatida so`zlagan nutqi
2. Javaharlal Neru "Hindistonning ochilishi"(The discovery of India 1946 y.) asari;
3. Javaharlal Neru "Jahon tarixiga bir nazar" (Glimpses of world history 1934 y) asari;
4. Margaret Rummer Godenning "Gulbadanbegim" (1980 yil) asari;
5. Musahhib Alihon "Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyati va she'riyati". 2004 yil.

БОБУР ҲАЁТИ ВА МЕРОСИНИ ЎРГАНИШДА CAMTASIA STUDIO ДАСТУРИДАН ФОЙДАЛАНИБ МУЛЬТИМЕДИЯЛИ ЎҚУВ - МЕТОДИК ВИДЕОРОЛИК ТАЙЁРЛАШ

Ботирова Н.К.
Бухоро вилоят ХТХҚТМОҲМ ўқитувчиси

Бугунги кунда тарихимизни, буюк аждодларимиз меросини ўрганиш ва уларни ёшлар ўртасида кенг тарғиб қилишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бу ёшларни буюк аждодлар қолдирган мерос ва миллий қадриятларга ҳурмат руҳида тарбиялашга хизмат қиляпти.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва унинг авлодлари томонидан қолдирилган бебаҳо илмий ва маънавий-маданий мерос эса буюк бобокалонларимиз билан фахрланиш, юртни,

Ватанни севиш туйғуларини янада жўш урдиради. Бобур ҳаёти ва меросини турли замонавий технология ва мультимедия иловаларидан фойдаланиб ўқувчиларга етказиш мумкин.

Мультимедия иловаларини яратувчи бир нечта дастурлар мавжуд. Бу дастурий воситалардан Camtasia Studio дастури ўзининг интерфейси, жуда кўплаб форматлари, аудио-визуал қўлланма файлларга турли хил белгилар ва изоҳлар қўйилиши, дарсларга менюлар ҳосил қилиниши билан ажралиб туради, шунингдек, бу дастур ёрдамида аудио файлларни ҳам яратиш мумкин. Дарс ёзиш давомида экраннинг керакли жойини алоҳида ажратиб кўрсатиш имкони ҳам мавжуд. Ана шу афзалликлари туфайли аудио-визуал қўлланма дарслар ёзувчи дастур сифатида Camtasia Studio дастури ҳамда ёзилган аудио-визуал қўлланма файлларни битта интерфейсга жойлаштириш учун Macromedia Flash дастурлари танланди. Camtasia Studio дастури асосида мультимедиали қўлланма яратиш таълим тизимида фаолият олиб борувчи педагоглар учун жуда қулай ва махсус тайёргарлик талаб қилмасдан бажариладиган иш.

Биз Camtasia Studio дастуридан фойдаланиб, Бобур ҳаёти ва меросини ўргатувчи мультимедияли электрон видеороликни яратдик. Camtasia Studio дастури тўртта ёрдамчи қисмлардан иборат: Camtasia MenuMaker, Camtasia Player, Camtasia Theater ва Camtasia Recorder. Дастурнинг асосий қисми, шубҳасиз, Camtasia Recorder ҳисобланади. Барча дарслар айнан шу қисм ёрдамида яратилди. Camtasia Studio дастури ойнасининг пастки кисмида timeline деб номланувчи ишчи столи мавжуд булиб, у оркали аудио ва видео файллар устида турли хил амалларни бажариш мумкин. Булар жумласига файлларни бир-бирига боғлаш, кераксиз қисмларни қирқиб ташлаш кабилар киради. Асосий ойнанинг марказида дастур ишлаши мумкин бўлган файллар руйхатини кўрсатувчи «Корзина клипов» (Clip Bin) қисми жойлашган. Шу файлларни ўнг тарафдаги видеоплеерда кўриш мумкин. Бу кичкинагина Camtasia Player дастури фақатгина битта вазифани бажаради - AVI файлларини намойиш этади. CamtasiaStudio дастурининг тизимда юкланиши қуйидагича:



Юқорида Camtasia Studio дастурида кўрсатиб ўтилган ишлаш усулларини билган ҳолда видеороликни яратиш кетма- кетлигини бажарамиз.

1) Қайси мавзуда видеоролик ёзмоқчи бўлсак, аввал шу мавзу тақдимотини экранга очилади ва видеога олиш жараёнига тайёр ҳолатига келтирилади.

2) Camtasia Studio дастурини ишга тушириб New Screen Recording

бўлими танланади, сўнгра экраннинг керакли қисми белгиланади (кизил чизик билан) ва дарс жараёнини ёзиш бошланади:

3) Машғулот якунлангандан сўнг stop тугмаси босилади ва олинган видео монтаж қилинади:

4) Тайёр видеога овоз ёзилади:

6)Voice naretion бўлими очилиб Start recording буйруғи танланади, сўнгра видео файл охирида Stop recording буйруғи танланади ва файл avi кенгайтмали файл қилиб сақданади:

Camtasia Studio дастури ойнасининг пастки қисмида timeline деб номланувчи ишчи столи мавжуд бўлиб, у орқали аудио ва аудио- визуал қўлланма файллар устида турли хил амалларни бажариш мумкин. Булар жумласига файлларни бир-бирига боғлаш, кераксиз қисмларни қирқиб ташлаш кабилар киради. Асосий ойнанинг марказида дастур ишлаши мумкин бўлган файллар рўйхатини кўрсатувчи «Корзина клипов» қисми жойлашган.

Шу файлларни ўнг тарафдаги аудиовизуал қўлланма плейрда кўриш мумкин. Бу кичкинагина Camtasia Plaer дастури фақатгина битта вазифани бажаради — avi. файлларини намойиш этади.

Улар компьютер экранидаги ҳаракатлар, микрофондан овозларни ёзиш, ҳамда компьютерлар тушунадиган аудио-визуал қўлланма файллар форматига ўгириб беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Р.Ишмуҳамедов., М.Юлдашев. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар.- Т.: “Ниҳол нашрёти, 2013 йил 278 бет.
2. Олимов Б.А, Машарипов М.П “Офис дастурларини мустақил ўрганувчилар учун”.Т.: Методик қўлланма. 2012 йил.
3. Электрон университет. Масофавий таълим технологиялари. Олий таълим муассасалари учун/ А.Парпиев, А.Марахимов, Р.Ҳамдамов, У.Бегимкулов, М.Бекмурадов, Н.Тайлоқов.
4. ЎзМЭ давлат илмий нашриёти.- Т.2008 йил. 196 б.

ZAHIRDDIN MUHAMMAD BOBUR BOG`LAR ASOSCHISI VA YANGI EKIN NAVLARI TARQATUVCHISI

Hayitov J.Sh.,
BuxDU tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Yo‘ldoshev A.
BuxDU “Jahon tarixi” kafedrasi doktoranti

Insoniyat tarixida hukmdor, sulton, shoh va podshohlar juda ko‘p o‘tgan. Ular o‘zlarining davrida qilgan a’mollari bilan yaxshi va yomon, yoxud ijobiy va salbiy hukmdorlarga bo‘linadi. tarixdan bu haqda ko`plab misollar keltirish mumkin.

Mog‘ullar hukmdori Chingizxon (Temuchin 1156-1227yy) haqida so‘z ketganda, uning bosqinchiligi, shavfqatsizligi bilan bog‘liq ko‘p fikrlar bildiriladi. Xitoy tabibi Chan Chundan “abadiy hayot baxsh etadigan dori” yaratishni talab qilgan Chingizxon o‘limi oldidan tangutlarni bo‘ysundirish uchun harbiy harakatlar boshlaydi. “1227yilning yozida tangutlar davlati deyarli halokatga uchrab bo‘lgandi. Mo‘g‘ullar tangutlar poytaxtini deyarlu bosib olganlarida Chingizxonnig sog‘ligi juda yomonlashgandi. Chingizxon o‘z yaqinlariga o‘limi haqida hech kimga aytmasliklarini yig‘i- sig‘i qilmasliklarini, zinhor – bazinhor dushmanlariga bildirmasliklarini, tangut hukmdori va poytaxt Si Sya fuqarolari shahardan chiqishlari bilan qirib tashlanishini buyuradi” - deb yozadi tarixchi olim A. Berdimurodov [1. 64-65].

Holbuki, taslim bo‘lishsa tangutlarga avf e’lon qilingandi. Mo‘g‘ullar o‘z hukmdorlari vasiyatini ado etib qal’adan omonlik so‘rab chiqqan tangutlarni bitta qolmay qirib tashlashgan. Yuqoridagi holat Chingizxon singari jahongirlar hatto, o‘limi yaqinligini bilsada qonxo‘rlik va vahshiylikdan qaytishmaganlikalarini tasdiqlaydi.

Tarixda Aleksandr Makedonskiy (Zulqarnayn)ning O‘rta Osiyoga yurishi paytida Spitamenni taqib qilib, 120 ming begunoh odamni qirib tashlaganligini, Kaligula va Neron singari Rim saltanati hukmdorlarining xalqiga va boshqa mamlakatlar aholisiga qilgan qonxo‘rliklari haqida yozma ma’lumotlar saqlanib qolgan. “O‘zim bilan yuzma-yuz ” kitobida va Plutarxning “Yetti muloqot” asarida bundaylar o‘z xalqi uchun “zaharli ilon bo‘lganligi” yozib qoldirilgan.

Vatanimiz tarixini va xalqimiz nomini jahonga mashhur qilgan Sohibqiron Amir Temur (1336-1405; 1370-1405) va Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530; 1494-1530) sharqu-g‘arbdagi ushbu saltanatdorlardan tubdan farq qilishgan. Ularni qalbi ezgulik bilan yo‘g‘rilgan, xayrli va savob ishlar qilish hayot- faoliyatlarida yozilmagan qonun bo‘lgan deb hisoblasak, sira adashmaymiz. Amir Temur ulug‘ saltanatga asos soalr ekan, qayerga bormasin, qaysi zaminga qadami tegmasin, o‘zidan memoriy obidalar bog‘lar qoldirdi. Hozirda qumiqlarning bir qishlog‘i “Temurxon shur” deb atalsa, Dog‘istonda “Temur qoya ” nomli joy bor, u Yelesda qizi sharafiga dubulg‘asimon masjid qurdirgan. “Har bir shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqohlar qurishni

musofir yo‘lovchilar uchun yo‘l ustiga rabotlar (qal’alar) bino qilishni, daryolar ustiga ko‘priklar qurishni, buyurdim” – degan fikrlar bor, “Temur tuzuklarida” [2. 19]. Sohibqiron saltanati poytaxti Samarqand shahrida va boshqa viloyatlarda bog‘lar barpo etishga alohida etibor berdi. Bog‘lar barpo etish ikki maqsadda bo‘lib, birinchidan, mamlaktni obobdonchiligini taminlash bo‘lsa, ikkinchidan mavsumiy ov qilinadigan bog‘lar qilishga etibor qaratilgan edi. “Sohibqiron Samarqand atrofida ko‘pgina go‘zal bog‘lar bunyod ettirdi. Mohir memorlar, tajribali sohibkorlarning aql-zakovati, mehnatiyu – mahorati bilan barpo etilgan Bog‘i Dikusho, Bog‘i Chinor, Bog‘I Behisht, Bog‘I Baland, Davlatobod, Bog‘i Nav, Bog‘I Shamol, Bog‘I Jahonnamo, Bog‘I Maydon kabi chorbog‘lar va ulardagi go‘zal ko‘shklar o‘sha davr bog‘dorchilik san’atining namunalaridandir” [3. 86-87].

Ulug‘ bobokaloni ruhini shod etgan va undagi yuksak insoniy xislatlarni o‘zida mujassamlashtirgan Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) ham o‘zidan bog‘ va gulzorlar qoldirdi. U ayrim hukmdorlar singari qadami yetgan joyni vayron qilish, aholisini qirib tashlsh kabi tubanlikdan xoli bo‘lib, aksincha qalbi ezgulikka to‘la limmo –lim shaxs edi. Shuning uchun Hindiston Respublikasning birinchi hukumat rrahbari Javaharlal Neru: “ Italyada va umuman Ovropada uyg‘onish davrida adabiyotni, san’atni sevgan “avantyurist podsholar” ko‘p o‘tgan. Ammo, ular prinsipsiz badjahil bir hukmdorlar edi, dushmanlariga qarshi kurashda zahar solingan qadah va xanjar ishlatuvchi mustabidlar edi. Ritsar tabiatli Boburni bu hokimcha sultonlar qatoriga qo‘shish haqiqatga zid bo‘lur edi” - deb yozgandi [4. 30].

Zahiriddin Muhammad Boburning o‘zi otasi Umarshayx Mirzo(1455-1494; 1462-1494) Andijon shahrida bunyod etgan so‘lim bog‘da dunyoga keldi va 12 yashar bo‘lgunicha ushbu bog‘da buvisi hamda volidai muhtaramasi tarbiyasida bo‘ldi. Uning Movaraunnahrdagi hayoti Shayboniylar bilan jangu jadallarda o‘tdi. Bobur Qobul hukmdori bo‘lib turgan yillarda (1504-1525yillar) bir qator bog‘lar, gulzorlar barpo etdi. “Bobur Qandahorda mashhur Chilzinani barpo etdi. Bu tomosha maydoni yuqori tog‘ poyida joylashgan bo‘lib, u yerdan Afg‘onistonning butun uzunasi bo‘ylab ajoyib manzara ko‘z oldimizda namoyon bo‘ladi. Bu joy go‘zal Farg‘ona vodiysini eslatadi. Bobur va uning yaqinlari Qobul shahrida ko‘plab bog‘u-rog‘lar va saroylar barpo etdilar. Olamaro, Shoharo, Olamganchi, Bog‘I Bobur va boshqalar” – deb yozadi, afg‘on olimi G.S. G‘ayrat [5. 90].

Z.M.Bobur Kobulda Turkistonda yetishtiriladiga shirin-shakar qovun va tarvuz, oshqovoq singari poliz ekinlari navlarini olib borib ektirdi. U Hindistonda turganida Qobuldan Farg`ona qovuni sovg`a sifatida olib borilgandi. Z.M.Bobur bilan ushbu ekin navlari Shimoliy Hindistonga ham ekib bordi. Hindlar o`zbek meva va poliz, sabzavot ekinlari hosilidan tayyorlangan taomlarni iste`mol qiladigan bo`lishdi.

Z.M.Boburning katta amakisi Shoxrux mirzo (Mironshoh va Shohruh bir onadan tug‘ulgan) Xuroson poytaxti Hirotda Bog‘I Zog‘on va Bog‘I Safedni yaratgandi. Biroq, Zahiriddin Muhammad Bobur bog‘ yaratish san’atida yangi davrni boshlab bergan. U Agra va Dehlida, Lohurda ajoyib bog‘u-gulzorlar yaratdi. U bog‘ va gulzorlarni uuyg‘unlikda, me’morchilik san’ati bilan qo‘shilgan holda barpo etgandi.

Bobur 1526 yil 21 aprelda tarixiy Ponipat jangida g‘alaba qilgandan so‘ng muvaffaqiyati shaniga bog‘ barpo qildi. Bu o‘sha davrda kuzatilmagan hodisa edi, chunki Boburiylarga qadar Hindistonda bog‘ yaratish san’ati rasm bo‘lmagan edi.

“Boburnomada muallif Hindiston bog‘lari, mevali daraxtlari va gullari, qushlari va hayvonlarini shunchalik ehtiros bilan va jonli satrlarda tasvirlaydiki, bu tasvir va tariflarda Boburning tabiatga, uning go‘zalligiga oshiqona muhabbati shundoq ufurib turardi” – deb yozgan edi, Bobur shunos tarixchi olim S Jalil [6. 43-44].

Zahiriddin Muhammad Boburning Hindistondagi tarixiy bog‘lari, ya’ni Ponipat bog‘i, Agradagi “Zarafshon” bog‘i kabilar saqlanib qolgan. Qobulda bunyod etilgan “Bog‘i orom” (keyinchalik “Bog‘i Bobur”) ham hozirda mavjud. Boburning qabri shu bog‘da bo‘lib, Afg‘onistonda harbiy to‘qnashuvlar avj olgan paytda (1980-1990yillar) ushbu bog‘ bir harbiy guruh qarorgohiga aylanganligi esa achinarli holdir.

Xullas, Sohibqiron Amir Temur va temuriy hukmdorlar, Bobur va boburiylar bugungi avlodga o‘zlaridan umrboqiy memoriy obidalar qoldirish bilan birga oshufta qalblarga ilhom beruvchi, insonga ruhiy – ma’naviy tetiklik baxsh etuvchi, dillarni yayratadigan o‘nlab bog‘lar va gulzorlarni ham meros qilib qoldirdilar. Erishilgan zafarlar va quvonchli kunlardan nishona bo‘lgan bu bog‘lar ajdodlarimizning naqadar madaniy va dilbar insonlar bo‘lganlaridan dalolat berib turibdi. Shuningdek, Z.M.Bobur bilan Hindistoga yangi ekin navlari ham kirib borganligi alohida e`tiborga loyiq.

Foydalangan adabiyotlar ro`yxati.

1. Berdimurodov A. Go‘ri Amir maqbarasi.-T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti; 1996.-B.64-65.
2. Amir Temur o‘gitlari. T.: Navro‘z; 1992. – B.19.
3. Muhammadjonov A, Rajabov Q. Amir Temur.- T.: “O‘ZBEKISTON” NMIU. 2013. – B.86-87.
4. Djavaxarlal Neru. Vzglyad vsemirnoy istorii. M.: Polit-izdat; 1976.-C.30
5. Axmedov B.Amir Temur darslari.-T.:Sharq;2000.-B.90.
6. Jalilov S. Bobur haqida o‘ylar. –T.: Sharq; 2006.- B..43-44.

BOBURIYLARNING HIND JAMIYATIGA TA’SIRI

Mamasiddikov A.A.

Farg‘ona politexnika instituti kafedrasi

Dunyo tarihida o‘ziga xos iz qoldirgan va yangi tamaddun asoschisi hisoblangan, o‘zbek va hind tarihi zarvaraqlariga kirgan buyuk shoh va sarkarda, insoniy hislatlari bilan boshqa hukmdorlardan ajralib turuvchi Temuriylar naslidan bo‘lgan va jahon tarihida eng uzoq davom etgan Boburiylar sulolasi asoschisi Zahiriddin Muhammad Boburdir.

Bobur, nafaqat, davlat hukmdori, balki ko‘ngillar sohibiga aylangan dilbar shaxs sifatida tarih zarvaraqlarida o‘z nomini qoldira olgan sanoqli insonlardan biridir. Bu shaxsning vatanga bo‘lgan muhabbati har bir inson havas qilsa arziydigan bebaho fazilatdir. Taqdir charhpalagi uni o‘z yurtidan ayriliqda yashashini istadi. Afg‘onistonga va uzoq Hindistonga yo‘l oldi, shu yerda o‘z saltanatini to‘zib, hind xalqining istagi bo‘yicha davlatni boshqara boshladi. Mirzo Boburning hind diyoriga kirib kelishi ham juda qiziq voqealardan biri. U o‘zining donoligi bilan jamiyatdagi insonlar ongiga va hind xalqining qalbiga yo‘l topa oldi. Zabt etgan yerlari, orttirgan shon-u shuhrati va behisob boyliklariga qaramay, Bobur ona vatan sog‘inchi va hijron azobida yashadi va o‘z asarlarida vatan sog‘inchini madh etdi. Boburning fikrlariga nazar solsak, u tushunarli badiiy tilda, aniq va qisqa ifodalanib, insonni yuksaklikka ko‘taradi, qadr-qimmatni, oliyjanoblikni, vijdonlilikni va halollikni tarannum etadi.

Bobur O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘nggina o‘z yurtida haqiqiy qadr qimmatini topdi. Boburning tavallud kuni respublika miqyosida katta tadbir va bayramlar ko‘rinishida nishonlanmoqda. Bu ehtirom bejiz emas, albatta. To‘g‘ri, u vatanida emas, balki o‘zga yurtda panoh topdi. Lekin shunday bo‘lsa-da uni qalbida bir umr shu yurt mehri jo‘sh urib turdi. Mirzo Bobur

qayerda bo‘lmasin, vatanga bo‘lgan mehr-muhabbati uni shu yurt tuprog‘i bilan bog‘lab turdi. Boburning qanoti ostida ijod qilish maqsadida Samarqandu Buxoro, Balxu Hirot, Isfaxonu Sheroz kabi yurtlardan yuzlab shoir, olim, me‘mor, xattot va naqqoshlar Boburiylar saltanati qoshida qo‘nim topdi. Bu davrda madaniyat kun sayin rivojlanib bordi va Musulmon-hind madaniyati shakllandi. Bu madaniyat o‘zida san‘at, e‘tiqod va qadriyatlarining eng saralarini mujassamlashtirdi. Ushbu yangi madaniyat yangi ma‘naviy muhitni vujudga keltirdi. Ta‘lim bilan birgalikda she‘riyatning Sabki hindiy degan uslubi ham o‘sha ijodiy muhitning mahsuli hisoblanadi. Bu usulni Mirzo Abdulqodir Bedil eng yuqori cho‘qqiga olib chiqdi. Boburiylar hukronligi davrida Hind diyori yanada gullab-yashnagan, jahon hamjamiyatida o‘z o‘rnini topib, siyosiy va iqtisodiy masalalarda jahonning muhim markazlaridan biriga aylangan. Bobur, Humoyun, Akbar va Shoh Jahon ismlari bir umrga hind xalqining yodida saqlanib qoldi, hamda mashxur arbob Mahatma Gandi nomi bilan barobar qadrlanadi. Ular taxminan 300 yil davomida davlatni adolat bilan boshqarishib, hind xalqining fahr bilan esga oladigan tarihini yaratishdi, jamiyat o‘rtasida diplomatik munosabatlarga asoslangan tinch va osoyishta muhitni shakllantirishga erishishdi.

Bobur Markaziy Osiyo va Hind xalqi sotsial qarashlari rivojida beqiyos o‘ringa ega. Avvalo, u davlat boshqaruvida birinchi o‘rinda xalq manfaatini muhim deb bildi va bu qarashlarni nazariy jihatdan olg‘a suribgina qolmay, amaliyotda ham hayotga tadbiq etdi. Uning faoliyati jamiyat tengligiga, davlatning adolatli boshqaruviga, diniy birdamlikka, jamiyat va tabiatning gultoji bo‘lgan ayollarga ehtirom ko‘rsatishga qaratildi. Aynan ayollarga bo‘lgan munosabati va hurmati sababli ham hind xalqi va jahon hamjamiyati hurmatiga sazovor bo‘lgan. Bobur jamiyat tengligini ta‘milash va hind xalqi orasidagi ijtimoiy tabaqalanish tizimini bartaraf etishga nisbatan astoydil harakat qilgan va o‘sha davrdagi hind xalqi hayotidagi ko‘plab og‘riqli g‘alayonlarga barham bergan. Bobur o‘z asarlarida shaxsga baho beradi. Boburnomada shaxslar xoh yurt a‘yoni, xoh o‘zining farzandi bo‘lsin, rostgo‘ylik bilan ularning ijobiy va salbiy jihatlarini holisona tasvirlangani har bir kishini hayratga soladi. Boburning g‘oyalari g‘arbning kop‘gina olimlari tomonidan yuksak baholandi.

U soliq va pul siyosati sohasida yangi islohotlar va muhim ishlarni amalga oshirdi, o‘sha davrdagi ishlab chiqarish unumdorligini oshirish borasida bir qancha chora-tadbirlarga ahamiyat berdi. Bozorlarni erkinlashtirishga e‘tibor qaratdi. Bu davrda tashqi savdo, ya‘ni boshqa davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar o‘rnatish jamiyatni iqtisodiy va ijtimoiy hayot tarzini yaxshilanishiga olib keladi. Boburning iqtisodiy va ijtimoiy qarashlari uning Boburnoma, Mubayyin, Zakot to‘g‘risidagi katta kitob asarlarida o‘z aksini topgan. Bu asarlarda ehtiyojlar va soliq siyosati haqida fikr yuritgan. Bu fikrlardan soliq va soliq nazariyasi fanlarida foydalanib kelinmoqda. U soliq olgan hosilni harajatlardan oshgan va kelgusi yilga urug‘lik uchun olinganidan so‘ng olinishi, hozirgi soliq hisoblashning progressiv usuli bilan, Zakotni aholi daromadiga qarab to‘lash soliqning proportsiya usuliga to‘g‘ri keladi. [4.22]

U qisqa muddatli ona vatanidagi hukmronligi va hind xalqini boshqarish mobaynida inson manfaatini, unga bo‘lgan hurmat-ehtiromni yuksak darajaga ko‘tardi. Butun mamlakatdagi bir necha millat vakillarini birlashtirib, ularni birgalikda tinch totuv yashashiga erishdi. Bobur Hindistonga borganida birinchi yuzaga kelgan muammolardan biri din masalasi edi. Diniy bag‘rikenglikka oid farmonlar boburiylar davlatchiligini bezadi. Shohning Azimush-shan deb atalgan farmonida birinchi navbatda islomiy ta‘limot - Ollohga shukr aytish masalasi yuksak tarbiyaviy ohangda ta‘riflangan va o‘z ifodasini topgan. Boburning maqsadi faqatgina Amir Temur saltanatini tiklash bo‘lmasdan, balki islom dini tasarrufida bo‘lgan yurtlarda bu dinning qadr-qimmatini asrab qolish, yuksaklikka ko‘tarish, o‘zga dinlar ta‘siridan xalos etish ham bo‘lgan. Farmonning yana bir jihati nafsni tiyishga bag‘ishlanadi. Ushbu farmonning g‘oyasi va Boburning

maqsadi butun saltanat hududida may, sharob va insonni sarxush etuvchi ichimliklar va vositalarni man etish, hech qayerda, har qanday sharoitda iste‘mol qilmaslik edi. [2.65]

Bobur o‘z davlatida ilm-fan, madaniy, diniy islohotlar qilish bilan birga ayollarning shaxs sifatidagi huquq va erkinliklariga jiddiy e‘tibor qaratdi va bu masalalar Boburiylar saltanatidagi eng ustuvor jihatlardan biriga aylandi. O‘sha davrlarda barcha sharq xalqlariga xos bo‘lgan jihat, ya‘ni ayollarga past nazar bilan qarash hind jamiyati uchun ham begona emas edi. Agarki, biror ayolning eri vafot etadigan bo‘lsa, eriga qo‘shib ayolini ham yoqib yuborilar va bu jaholat hind xalqi uchun oddiyat kabi anglanar edi. Bobur o‘z davlati hududlarida bunga chek qo‘ydi. Boburning maqtovga sazovor bo‘lgan bu jihati nafaqat o‘z ayoli va qizlariga nisbatan, balki hindu fuqaro ayollarga nisbatan ham yuksak darajada edi. Tarihning shohidlik berishicha, Bobur davlat boshqaruvida o‘z jufti halollarining fikrlariga ham quloq tutgan va bu fikrlarni boshqaruvda amalda tadbiq etgan. Bobur Hindistonni zabt etmaganida, bu yerda adolatli, ma‘naviyatli jamiyat yaratmaganida, ilm-fan, adabiyot va san‘at bu darajada yuksak cho‘qqiga ko‘tarilmagan, musulmon va hind xalqlari tafakko‘ridan sarchashma olgan buyuk bir tamaddun yaratilmagan bo‘lar edi.

“Ko‘nglingni dinlarning muhokama maydoniga aylantirma. Adolat o‘rnatishda insonlarning e‘tiqodiga chuqur hurmatda bo‘l”. Ushbu purma‘no so‘zlar buyuk shoh va shoir, ulkan qalb sohibi, go‘zal fazilatlar egasi, sharq tamaddunida betakror shaxs Zahiriddin Muhammad Boburga tegishli.[3.28] Haqiqatdan ham bu buyuk shaxs jamiyatdagi insonlarga bo‘lgan hurmat va ehtirom sababli o‘z xalqining olqishlariga, tahsinlariga sazovor bo‘ldi, ularning qalbiga ismini o‘chmas qilib muhrlab qo‘ydi. Bobur Hindison zaminidagi ijtimoiy tengsizliklarga nisbatan keskin kurash olib bordi, turli kastadagi insonlarni birdamlikka chorladi va davlatning yuqori mansablariga jamiyatning barcha qatlamlaridan munosib nomzodlarni topa bildi. Turli irq va millatlarni bir osmon ostida birlashib yashashga va bir-birlariga nisbatan hurmatda bo‘lishga undadi. Yana bir muhim va nozik masala, ya‘ni diniy e‘tiqod masalasida ham oqilona siyosat olib bordi, mazxabparastlikka qo‘l urmadi, garchi o‘zi islom diniga e‘tiqod etsada, hinduizm diniga ham hurmatla munosabatda bo‘ldi va g‘ayridinlardan olinadigan turli soliqlarga barham berdi. Mangulikka bitilgan bu shaxs haqida hind davlat va jamoat arbobi Javohar Lal Neruning quyidagi fikrlari bunga misol bo‘ladi: Boburning hind xalqiga qilgan eng katta xizmati shuki, u xalqimizning ruhiy-ma‘naviy olamini kengaytirib, ularni o‘z kulbalaridan tashqariga qarashga, dunyoning naqadar katta ekanini anglashga majbur qildi.[1.41]

Dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g‘oyalariga asoslanadi. Yahshilik, tinchlik, do‘stlik kabi fazilatlarga tayanadi.

Boburni yanada ulug‘lagan uning yetti fazilati haqida eslaydilar: vatanparvarlik; jasurlik; yuksak himmatlilik; boshqaruvda benazirlik; odamlarga farovonlik, sog‘inch; jangchilar ko‘ngliga yo‘l topish; adolat qilmoqlik. Shu o‘rinda bir voqea keltiriladi. Sarkarda urush davrida o‘z qo‘shini bilan yo‘lga chiqqandi. Qahraton qish, juda sovuq havo bo‘lib, qo‘shin bir necha kun qorda qolib ketishga majbur bo‘ldi. Kun bo‘yi yurib toliqqan jangchilar dam olish uchun to‘xtadilar. Yo‘lni qor bosgani tufayli askarlar yo‘lni ochish uchun ishga tushishdi, shu paytda Bobur qarshiliklarga qaramay ular bilan tengma-teng yeng shimarib qorni ola ketdi. Qo‘l ostidagi sarkardalarga men ham insonman, shoh bo‘sam nima qilibdi, degan gaplarni aytadi.[4.31] Bobur o‘zining «Boburnoma» asarida Hindistonni egallashda faqat harbiy qudratgagina emas, balki insonparvarlikning nodir na’munasi sifatida tinchlik yo‘li bilan o‘zaro sulhparvarlik asosida muommolarni hal qilishga harakat qilganligini ifodalab mamlakatni «zo‘r bila yo sulh ila» olganligini aytib o‘tgan.[5] Arab sayyohi Ibn Battutaning esdaliklarida Hindistonda hukmronlik qilgan musulmon sulolalar to‘g‘risida to‘xtalib o‘tar ekan: «Barqarorlikda yashash uchun hindlarga bag‘rikenglik bilan munosabatda bo‘lib tub aholidan davlat ishlariga jalb etishga tushganliklari» to‘g‘risida aytib o‘tadi.

Bu siyosat Bobur va avlodlarining ham ichki siyosatining asosiy omili bo‘lib qoldi. Bobur barpo etgan davlatning uzoq bardavom bo‘lishining asosiy sababi diniy murosasozlik bo‘lganligidadir.

Akbarshoh davrida Boburiylar saltanati tarihida birinchi marta tili, dini, e’tiqodi, urf-odatlari va iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jihatdan misli ko‘rilmagan qudratli saltanatga ega bo‘lganligi bugun hech kimga sir emas. Akbarshohga Abdullaxon II jo‘natgan nomasida «Sulh asosida mustahkam va hamjihatlik asosida yashash yo‘lida har ikki tomon ahamiyat bersin..» degan so‘zlar yozilgan. Bu o‘z navbatida Akbarshoh tashqi siyosatining asosiy prinsipi faqat tinchlik va yaxshi ko‘shnichilik aloqalarini saqlagan holda davlatning mustahkamligi, xalqning forovonligiga ahamiyat berganligidan dalolatdir.

Boburiy hukmdorlardan yana biri Avrangzeb ham tarihda insonparvar hukmdor sifatida nom qoldirdi. Abdulaziz Muhammad Baxodirxon Avrengzebga yo‘llagan maktubida «U hamisha hayru ehsonning yorug‘ nuri, do‘stlik va hamjihatlik, millat asosini mustahkamlovchi, davlat va din poydevorini ko‘ruvchi, ko‘ragoniy bayrog‘ini ko‘taruvchi, adolat va haqiqat makoniga ravnaq beruvchi hamda birdamlik va ittifoqning ko‘rki…» sifatida uluglaganligini ko‘rishimiz mumkin. Avrangzeb saroyida bo‘ladigan munozaralarda nafaqat musulmonlar balki otashparastlar, hindular, nasroniylar, yahudiylar barobar ishtirok etganligi manbaalarda keltirilgan.

Mahatma Gandi «hindistonlik hindlar va musulmonlar ikki millat emas. Tangrining o‘ziki ularni birga qilib qo‘ygan ekan, bir kishini hech mahal ikkiga bo‘lib bo‘lmaydi» deb ta’kidlagan. Boburiylar tolerantlik ruhidagi siyosatining asosi sifatida va hind-musulmon umumiy jamiyatini shakllantirishda Vedadagi «butun dunyo - bir oila», yoki Qur’oni Karimdagi «Odamlar bir millat edilar» degan oyatlar orqali yagona bir xalqni shakllantirishga harakat qilishgan.

Bugungi kunda ham xalqlar va dinlar orasidagi bag‘rikenglik, tolerantlik g‘oyasi dunyoning dolzarb muommolaridan biridir. Shu munosabat bilan prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyusiyasini qabul qilish taklifini berdilar. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan esa har yilning 16 noyabr sanasi «Bagrikenglik kuni» deb e’lon qilingan.

Tarixda inson ongi va qalbida har doim bag‘rikenglik tuyg‘ulari mavjud bo‘lishini Boburiy hukmdorlar hayoti va faoliyatida ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Qudratullayev H. Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi. T.-2011.
2. Sotimov G‘. Boburiylar davlat boshqaruvida din. Hidoyat 2. 2001.
3. Sotimov G‘. tarjimasi “Bobur - Yo‘lbars” asari. T. O‘zbekiston, 2015.
4. Vohidov R. Biz bilgan va bilmagan Bobur. T., Ma‘naviyat, 2008.
5. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. T. Yangi asr avlodi, 2018.

BOBURIYLAR DAVRIDA LUG‘ATSHUNOSLIK

Mamiraliyev Q.
ToshDO‘TAU o‘qituvchisi
Ne’matov A.
ToshDO‘TAU talabasi

Qadim tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, aksariyat ilmiy-madaniy sivilizatsiyalar turkiy millatga mansub shaxslar bog‘liq. Shummerlar sivilizatsiyalari ham aynan turkiylarga tegishli ekanligi fanda o‘z isbotini topib ulgurdi. Adabiyotshunos va yozuvchi U.Hamdamov shunday

ta’kidlaydi: “Agar Erkin Vohidov tirik bo‘lganida, “O‘zbegim” qasidasida: “So‘ylasin, Afrosiyob-u, So‘ylasin o‘rxun xati...” deb emas, balki “So‘ylasin Shummer xati-yu..” deb boshlagan bo‘lar edi”. Darhaqiqat, o‘zbek diyorida tug‘ilgan buyuk shaxslar dunyo ilm-faniga, madaniyatiga beqiyos hissa qo‘shgan. Bu borada, ayniqsa, Zahiriddin Muhammad Bobur alohida ahamiyatga ega. U asos solgan sulola uch asrdan ziyod yashadi va mana shu davrda Hindistonda ilm va fanga oid juda ko‘p ishlar amalga oshirildi. **Boburiylar** — Hindistonda (1526—1858) hukmronlik qilgan turkiy sulola. Temuriylar sulolasining vakili, Amir Temur avlodi Zahiriddin Muhammad Bobur asos solgan. Chet ellarda, mamlakatimizda, hatto Hindistonda ham Boburni va uning avlodlarini “buyuk mo‘g‘ullar” deb atash odat bo‘lib qolgan. “Buyuk mo‘g‘ullar” degan ibora Chingizxon va undan keyingi mo‘g‘ul qoonlari (O‘qtoy qoon, Guyuk qoon, Munka qoon)ga taalluqli bo‘lib, Boburiylar aslida Bobur avlodlaridir. Ular tarixiy hujjatlarda o‘zlarini “boburiy mirzolar” deb yuritishgan. V. V. Bartold dunyoda tarqalgan “buyuk mo‘g‘ullar” iborasining xato ekanligini ko‘rsatib, “Yevropaliklar Temurni va uning o‘g‘illari hamda nabiralarini mo‘g‘ullardan tarqalgan deb hisoblab, (Bobur) saltanati uchun “buyuk mo‘g‘ullar” degan nom to‘qidilar”, ─ deb yozadi. Bu ibora esa Yevropadan Hindistonga “ko‘chib” kelib, hindlar orasiga inglizcha kitoblar vositasi bilan tarqalgandir. So‘nggi yillarda “buyuk mo‘g‘ullar” degan xato ibora o‘rniga “boburiylar” iborasi qo‘llanila boshladiki, bu ibora tarixiy haqiqatni to‘g‘ri aks ettiradi. Boburiylar Hindistonda 332 yil hukmronlik qildilar. Boburiylarning vakillari: Zahiriddin Muhammad Bobur (1526—30), Humoyun (1530-39; 1555-56), Akbar (1556-1605), Jahongirshoh (1605—27), Shoh Jahon (1627-58), Avrangzeb Olamgir (1658—1707), Bahodirshoh I (1707-12), Jahondorshoh (1712—13), Farrux Siyar (1713-19), Muhammadshoh (1719-48), Ahmadshoh (1748—54), Olamgir II (1754-59), Shoh Olam II (1759-1806), Akbar II (1806—37), Bahodirshoh II (1837-58).

Akbarshoh davrida ilm-fan ancha ravnaq topdi, ko‘plab kitoblar yozildi. Jumladan, “Hayvon hayoti” Damiriyning “hayot ul-hayvon” kitobini Abul Fazl fors tiliga 1575-yilda tarjima qildi; Abul Fazl keyingi yillarda yana injilni fors tiliga tarjima qildi. “Kalila va Dimna”ni tushunarsiz fors tilidan tushunarli fors tiliga tarjima qildi. “Akbarnoma” ─ Akbar tarixi, bu kitobda hind tarixi, Boburiy shohlarning birinchi kunidan Akbar zamonigacha yozilgan. Hindlarda muqaddas bo‘lmish “Maxabxarata”ni al-Badayuniy va al-Qazviniy fors tiliga tarjima qilishdi. Umuman, Akbarshoh zamonida ilm-fanda ko‘plab yutuqlarga erishildi. Boburiylar davri madaniyatiga oid qimmatli ma’lumotlarni qamragan yozma yodgorliklardan biri Abdusattor bin Qosim Lohuriyning 1612 yili Agra shahrida yozgan “Majolisi Jahongiriy” nomli asari bo‘lib, uning yagona qo‘lyozma nusxasi 2002 yil yanvarida Lohur shahrida yashovchi Xalil ur-Rahmon ismli ziyolining shaxsiy kutubxonasidan topilgan. Qo‘lyozma lohurlik Orif Navshohiy, Mo‘in Nizomiy kabi olimlar tomonidan 2006 yili Tehrondagi “Merosi maktub” nashriyotida kirish so‘zi va zarur izohlar bilan ikki ming nusxada chop etilgan.

Boburiylar davrida, ayniqsa, lug‘atshunoslik sohasida juda ko‘plab ishlar qilingan. Ushbu lug‘atlar ichida bir tilli, ikki tilli, uch tilli, hatto, to‘rt va besh tilli lug‘atlar ham mavjud. Arab, fors, turk, hind, angrezi tillaridagi besh tilli lug‘atlarning yaratilganligi Boburiylar davrida ilm-fanning, ayniqsa, lug‘atshunoslikning rivojlanganligi, til va adabiyotga e’tiborning pasaymaganligidan dalolat beradi. Quyida Boburiylar davrida yaratilgan lug‘atlarning nomi va hozirda qayerda saqlanayotganligi haqida ma’lumot beriladi:

Hindistondagi turkiy lug‘atlar ro‘yxati

1. Абдулла Бердибег бин Байрам. Лугати турки, 18 л Библиотека АМУ[35], инв № А. С. 1043/16

[35] Здесь и далее приняты следующие сокращения:
АМУ – Мусульманский Университет в Алигархе, библиотека им Мавлана Азада.

2. Али Бахш Атзафари Фарханги лугати турки ва фарси. МФМ, инв №27.

3. Амир Кхан бин Кхважа Падшах Кхан Ахрар. Талифи ал-Амир, 31 л., дата 1217 г. х., писано рукой автора. РЛР, инв № 2561.

4. То же, 28 л. РЛР, инв № 2562.

5. То же, 34 л. дата 1813 л. РЛР, инв № 2562 б.

6. То же, Турки лугат, 4 л., переписчик Гопал Лаъл, переписано в 13 в х КБЛ, инв № HL 3296.

7. Амир Кхан. Рисалаи манзум. 121 л. дата 1217 г. х., писано рукой автора. РЛР, инв № 2561.

8. То же, 33 л., дата 1273 г. х., переписчик Мухаммад Исмаил Ахрар Самарканди. РЛР. инв № 2563.

9. Анонимное. Амад намаи турки, 14 л., АМУ. инв № UI 190/2.

10. То же, 454 л. РЛР. инв № 2555.

11. То же, ОММ. инв № 5.

12. То же, Джадид манзум. 61 л. ОМХ. инв № 1226.

13. То же, Амадани турки, дата 1226 л. х., СМХ. инв № 1.Т 2.

14. То же, Амадан-нама дар турки ва фарси. МФМ. инв № 5.

15. Анонимное. Тухфати Хисоми (в стихотворной форме). СМХ. инв № LT 5

16. Анонимное. Турки мусадир. СМХ. инв № LT 10.

17. Анонимное. Рисалаи турки (дар каваид). 16 л., АМУ. инв № S. A. 891, 5521/6.

18. Анонимное. Рисалаи дар лугати турки (манзум в стихотворной форме). 9 л., Библиотека Османского Университета в г. Сикандрабад (Хайдарабад). инв № 1272.

19. Анонимное. Рисалаи дар лугат (манзум). 28 л., ОМХ. инв № 592. Это арабо-персидско-индийско-тюркский словарь.

20. Анонимное. Сарф ва наху забони турки. 45 л., ОМХ. инв № 164.

21. Анонимное. Фарханги турки. 8 л., нет конца. РЛР. инв № 2563 б.

22. Анонимное. Каваиди забони турки. ОММ. инв № 8.

23. Анонимное. Лугати турки. 16 л., переписчик Амир Али, АМУ. инв № S. A. 891 5529/21.

24. Анонимное. Лугати турки. 1 л., нет конца. АМУ. инв № S. A. 891 5529/19/2.

25. Анонимное. Лугати турки (мажмуаъи нисаби турки). 1 л. (86). АМУ. инв № U. F. 160/2. Состоит из 17 слов.

26. Анонимное. Лугати турки (манзум). 87 л., нет начала и конца. КБЛ. PR. 6452. Это словарь турки османи (руми) с переводом на фарси и арабский.

27. Анонимное. Лугати турки, араби, фарси ва хинди ва истилохи Шуштар ва гейра. 24 л., XIX в., КБЛ. инв № HI. 2002.

28. Анонимное. Лугати турки ва фарси. ОММ. инв № 27.

29. Анонимное. Лугати турки (манзуми джадид). 52 л., нет конца. ОМХ. инв № 1285.

30. Анонимное. Лугати турки. СМХ. инв № LT 3.

31. Анонимное. Лугати фарси ва араби ва турки. АСК. инв № 545.

32. Анонимное. Лугати араби, фарси ва турки, 598 л., нет начала. АМУ. инв № A. S. 1037/10. Слова тюрки объясняются со с. 253.

АСК – Библиотека Азиатского общества в г. Колькатта.
КБЛ – Библиотека Кхуда Бахш Кхана в г. Патна.
МАТ – Библиотека им Мавлана Азада в г. Тонк.
МФМ – Библиотека Мулла Фируз в г. Мумбаи.
НЛК – Национальная библиотека в г. Колькатта.
НУЛ – Надват ул-улама Шибли в г. Лакхнау.
ОММ – Библиотека восточных рукописей в г. Мумбаи.
ОМХ – Библиотека и научно исследовательский институт восточных рукописей в г. Сикандрабад (Хайдарабад)
РЛР – Библиотека Риза в г. Рампур.
СМХ – (Библиотека) Музей Салар Джанга в г. Хайдарабад.

33. Анонимное. Лугати араби ва фарси ва хинди ва турки ва ангрези. 5 л., КБЛ. инв № IIL 1535.

34. Анонимное. Лахджати ат-турк (мажмуаъи нисаби турки, четвертый нисаб). 7 л., (11а – 17а), дата – 1155 г. х. АМУ. инв № U. F. 60/2.

35. То же, Третый нисаб Лахджати турки. 6 л. (25а – 30б). АМУ. инв № H. G. 53/47.

36. То же, Лахджати ат-турк. 15 л., дата 1151 г. х. КБЛ. инв № ACC 2115. Написано у могилы Шейха Джами, составлено во время правления Хана Джалал ад-Дина.

37. То же, Рисалаи турки. 5 л., не до конца. ОМХ. инв № 183.

38. То же, Лахджати ат-турк. 15 л., СМХ. инв № LT 8.

39. То же, Нисаби турки (Тухфати ат-талибин). 46 л., РЛР. инв № 2660.

40. То же, Нисаби турки (Тухфати ат-талибин, второй нисаб). 7 л., РЛР. инв № 2660.

Yuqorida nomi sanab o‘tilgan lug‘atlarni topish va o‘rganish bugungi kunda lug‘atshunoligimiz oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Chunki, lug‘atlarning bari Hindiston kutubxonalarida saqlansada, hammasi turkiy lug‘atlar. Ularning bari Boburiylar Hindistonda hukmronlik qilgan yillarda yaratilgan. Ushbu lug‘atlarni tadqiq etish, uning ilmiy qimmatini fanga ma’lum qilish lug‘atshunosligimiz oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

2. X.Yoqubov. Bobir. -T.:1941;

3. V.Zohidov. Bobirning faoliyati va ilmiy-adabiy merosi haqida. Kitobda: Bobir. Bobirnoma. -T.:1960;

4. Xayriddin Sulton. Boburiynoma. -T.:1996;

5. U.Erskin. Hindistonda Bobur davlati (Ingliz tilidan G‘.Sotimov tar.). — T.: 1997:

6. R.Sharma. Boburiylar saltanati (Ingliz tilidan G‘.Sotimov tar.).. -T.: 1999.

BOBUR SHE’RIY ASARLARIDAGI FITOMORF METAFORALARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Muqimova G.R.

Buxoro viloyat XTXQTMOHM o`qituvchisi

Biz buyuk sarkarda shoh va shor Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari haqida so`z yuritar ekanmiz, bu dilbar shaxs qalamiga mansub har bir asar bizni mushohadaga chorlaydi. Shoirning qalamiga mansub kichik she’riy asarlar hajmi va shakli jihatidan katta emas. Ularning umumiy soni besh yuzga yaqin bo‘lib, g‘azal (120), ruboiy (208), tuyuq (14), qit’a (13), kichik masnaviy (8), muammo (53), fard (65) kabi janr namunalaridan iborat. SHuningdek, ilmi fiqhga (islom qonunshunosligiga) doir besh risoladan tarkib topuvchi («E’tiqodiyya», «Kitobus-savmaa», «Kitobus-salot», «Kitobuz-zakot», «Kitobul-haj») «Mubayyin» (sharhlangan, izohlangan, talqin berilgan), Xoja Ahror Valiyning nasrda bitilgan «Volidiya» (ota-ona haqida) asarining nazmdagi badiiy tarjimasi ham ulug‘ adib, sarkarda va davlat arbobining she’riy asarlari sirasiga kiradi. Zikri o‘tgan silsilada Bobur Mirzoning beshta masnu’ to‘rtligi ham mavjud. Turkiy she’riyat mulkining arsloni (Bobur so‘zining o‘zagi babr — yo‘lbars) maqomida faoliyat ko‘rsatgan bu notakror SHaxs va iste’dod sohibi o‘zining o‘ttiz olti yillik umrini jangu jadallar, iztirobu kurashlarda o‘tkazgan

bo‘lishiga qaramay, adabiyot mulkidagi bir qator noyob hodisalarga munosabat bildirish uchun vaqt ham topa oldi.

Ayniqsa shoir ijodida fitonimlar alohida hamiyat kasb etadi. Bobur tabiat mo‘jizalariga har doim hayrat bilan nazar tashlaydi va ularni o‘z asarlarida keltiradi. Ayniqsa mashuqani gul obrazida keltirib gazallarida san’at asarlarini yaratadi.

Sen gulsenu, men haqir bulbuldurmen,
Sen shu’lasenu, ul shu’lag‘a men kuldurmen,
Nisbat yo‘qtur deb ijtinob aylamakim,
SHahmen elga, vale sanga quldurmen,

deb yozgan edi. Ruboiydagi Gulu Bulbul, SHu’layu Parvona, SHohu Gadolarga yuzaki qarab, hayotiy oshiqu ma’shuqalarning o‘xshatilmishlari sifatida sharhlash mumkin. Aslida mazkur majoziy timsollar tasavvuf mulkidir.

Fig‘onim oshti bulbuldin, g‘ami yo‘q zarra bu quldin,
Base, Bobur, o‘shal guldin ko‘ngulda xor-xorim bor.

Bulbul — oshiq, *Gul* ma’shuqa ramzi bo‘lib kelmoqda. Gul va tikon hayotda ham, badiiy adabiyotda ham yonma-yon turadi. Bobur Mirzo talqinida «xor-xor» iyhom moddasi (xor-xor — tikan va tikan; xor-xor — ko‘chma ma’noda, tirnash, achishtirishdir) vazifasida kelmoqda. Alqissa, baytda tanosub, mubolag‘a, tashbeh o‘xshatish, iyhom, kichraytirish, tamsil kabi she’riy san’atlar qorishiq kelib, uning nafosatini ko‘tarishda xizmat qiladi.

Uning bunday she’rlari shunchaki san’atpardozlik namunasi bo‘lmay, muayyan g‘oyani yuzaga chiqarish, ma’shuqaning siyratiga mos suratini chizish, she’r ixlosmandi qalbida go‘zallikka nisbatan yuksak shavqu zavq uyg‘otish, misralarning ta’sir quvvati va uzoq esda saqlanishini ta’minlash kabi ulug‘vor maqsadlar yo‘lida xizmat qiladi:

Tishing dur, labing marjon, xading gul, xating rayhon,
YUzung hur, soching anbar, so‘zung mul, menging meynon.
Meynon menging, so‘zung mul, anbar soching, yuzung hur,
Rayhon xating, xading gul, marjon labing, tishing dur.

Oshiq nigohida ma’shuqa noyob mo‘‘jiza. SHundan ona — tabiatdagi eng oliy ashyo va mavjudotlar uning qiyosi uchun tanlanadi. Ma’shuqaning mitti-mitti va did bilan saflangan tishchalari - dur. Ummon tubida, sadaf bag‘rida voyaga etgan durning bahosi bironbir zamonda ham arzon bo‘lmagan va uning misqoli yuksak Kadrlangan. SHuning uchun ayni safda turishda ma’shuqa tishining haddi sig‘adi. Mahbuba labining marjonga muqoyasa qilinishi zohiran g‘ayri tabiiyday tuyulishi aniq. Biroq masalaga tanosub san’ati va yuqoridagi ta’kidimiz talabidan qarasak, fikrimiz ijobiy tomonga o‘zgaradi. Bobur hazratlari tashbeh qo‘llashda zinhor ma’shuqaning har qanday bolni ham dog‘da qoldiradigan, yurakka o‘t tashlashga qodir labini emas, balki uning ustiga ibodan hosil bo‘lgan va *gul yaproqchalari* tepasida makon tutgan shudring tomchilarini eslatuvchi terni nazarda tutmoqda. CHindan-da o‘sha quyosh nurida yilt-yilt shu’la uyg‘otuvchi tomchilar marjon donalaridir. Ma’shuqaning yonog‘i (xad) ochilgan *gul kosachasining yaproqchasiga* qiyoslangan; xat — ma’shuqaning ustki labidagi mayin va nafis tukchalar. Yo‘q, ular *rayhonday xushbo‘y* va *uning ildizchalari kabi mayindir.* Marjon ham anoyi emas, uning donachalari ana o‘shanday nafosat bog‘idan makon topadi. SHoir tashbeh qo‘llashda topqirlik ko‘rsatadi va mahbubaning suratu siyrati mutanosib badiiy tasvirini chizishda tug‘ma iste’dod sohibi ekanligini namoyish qiladi. Bobur Mirzo so‘z dodini berib, uni yuksak maqomga ko‘tarishga mahorat ko‘rsatgan, oz va soz she’riyati bilan mumtoz adabiyotimiz xazinasiga bebaho durdonalar qo‘shgan ulug‘ iste’dod sohibi sifatida qadrlidir.

Guli ro‘yat, ki zohir gashta rangi yosamin o‘ro,

Chi boshad k-az man gulrang sozy otashin o‘ro.
Namedonam zi may shud surx chashmi kofirat yoxud
Libosi ol po‘shondy ba katli ahli din o‘ro.
Maro ham g‘unchai dil bishkufad chun on dahan hargah
Zi xay shabnam chu binshinad ba gulzori jabin o‘ro.

Misralarda go‘yo gul haqida gap ketadi. Aslida, gul mahbubaning sifatlovchisi. Gul gul hajrida yosaminga o‘xshab qolgan. YA’ni rangi za’faron. YAsharish, yashnashdan ko‘ra xazon, so‘lish mayli balandroq. Ammo hali umid uchqunlari so‘nib bitmagan. Gul — ma’shuq jismiga harorat olib kirishning iloji bor. Gulrang — qizil may uning uchun «obi hayot» vazifasini o‘tay oladi. Shunday qilinganda, maygun lablardan sharob (bo‘sa) hadya etilganda, yosamin rangli chehraning «otashin» (shu’la rangli, qizil) qiyofaga kirishi hech gap emas.

Buyuk so`z san’atkori Boburmirzo ijodi hamisha bizni hayratlantirib kelgan. Biz uning g‘azallarini tahlil qilar ekanmiz har doim yangi bir qirrasini ochgan bo`lamiz. Mohirona qo`llangan tabiat inomlaridan metafora usulida qo`llangan g‘azal parchalari bizni hayratlantiradi va yana qayta murojaat qilishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. T. Sharq, 2007.
2. Bobur Zahiriddin Muhammad. Devon. T. Fan, 1994.
3. Bobur. Sochining savdosi tushti. T. Sharq, 2007.
4. Bobur. G‘aribing andijoniydur. T. Sharq, 2008.
5. Darsliklar.
6. kitob.uz

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR HAYOTI HAQIDA BAZI FIKR MULOHAZALAR

Nigmatov A.X.
TVCHDPI talabasi

Temuriylar sulolasining nomini jahonga taratgan vakillaridan biri Zahiriddin Muhammad Boburdir. Bobur Mirzo shoh, harbiy sarkarda, shoir va tarixchi olimdir. Boburning faoliyatiga nazar tashlasak, 47 yillik hayot yo‘lida shoh va shoirlikda katta yutuqlarga erishgan shaxsdir. Shohlik davrida Hindistonda 332 yil hukm surgan boburiylar imperiyasiga asos slogan. Shoirlik faoliyatida esa, Boburdan bizga uning devonlari, «Boburnoma»si, bir qator ilmiy, tarixiy, diniy-falsafiy va axloqiy-ta’limiy ruhdagi asarlaridan iborat meros qoldi. U Xoja Ubaydullohning «Risolayi volidiya»sini o‘zbekchalashtirdi, musulmon axloqiga oid «Mubayyin» nomli masnaviyni yaratdi, «Xatti Boburiy»ni ixtiro qildi.

Boburning harbiy faoliyati 1494-yili otasi Umarshayx Mirzo baxtsiz hodisa tufayli halok bo‘lgach, hokimiyatga 12 yoshda bo‘lgan Bobur qo‘liga o‘tadi. Bobur yosh bo‘lganligi uchun davlat ishlarini ishonchli beklardan Hojiqozi va o‘qimishli, oqila onasi Qutlug‘ Nigorxonim (vafoti 1505, Toshkent hokimi Yunusxon qizi) yordamida boshqarardi. Bobur Mizro yosh bo‘lishiga qaramay, bobosi Amir Temur saltanatining markazi – Samarqand taxtini egallash hohlaydi. Shu maqsadda Samarqand taxtida o‘tirgan Boysung‘ur Mirzo bilan ukasi Sulton Ali Mirzo o‘rtasida toj-u taxt uchun kurash boshlanganidan foydalanib, Bobur Mirzo boshchiligidagi Andijon qo‘shinlari 1495-1496-yillarda Samarqandga ikki marta muvaffaqiyatsiz yurish qiladi [1]. 1497-

yilda Bobur Mirzo yana Samarqandga yurish boshladi va Samarqand qamal qildi. Qamal 7 oydan ortiq davom etdi. Bu vaqtda shahar ichida oziq-ovqat tanqisligi yuz bergani tufayli Boysung‘ur Mirzo askarlari orasida parokandalik ro‘y beradi.

Tang ahvolda qolgan Boysung‘ur Mirzo kam sonli qo‘shini va yaqinlari bilan Qunduz hukmdori Xusravshoh huzuriga qochdi. Bobur Mirzo esa 1497-yilning noyabr oyi oxirida Samarqand taxtini egallashga muvaffaq bo‘ldi. Ammo Andijonda unga qarshi bo‘lgan odamlar tomonidan ukasi Jahongir Mirzoni Andijon taxtiga o‘tqazishga erishdilar.

Vujudga kelgan harbiy-siyosiy tanglikni tushungan Bobur Mirzo qanday bo‘lmasin Andijonni saqlab qolishga qaror qildi va Samarqandni yuz kun idora etgandan so‘ng uni tark etishga majbur bo‘ldi. Samarqand taxtini esa Sulton Ali Mirzo egalladi. Nihoyat, 1500-yilda Bobur Mirzo bilan ukasi Jahongir Mirzo o‘rtasida sulh tuzildi. Unga ko‘ra, Sirdaryoning shimoliy tarafi Axsi shahri bilan Jahongir Mirzoga, daryoning janubiy tomoni Andijon shahri bilan Bobur Mirzoga berildi [2].

1498-yil Samarqand taxtiga bobur ketganidan so‘ng Sulton Ali Mirzo o‘tiradi. Shu orada Dashti Qipchoqdan 1499-yili Muhammad Shayboniyxon Movarounnahrga yurush boshlaydi. 1500 yilda Shaybonixon Samarqandni egallaydi va Sulton Ali Mirzoni qatil etadi. Qolaversa aholini talab temuriy shaxzodalrni ham qilichdan o‘tkazadi.

Bu hol Samarqand shahri aholisining norozilik qo‘zg‘oloniga sabab bo‘ldi. Qo‘zg‘olonga Abulmakarim boshchilik qiladi. Shayboniyxon bu davrda Samarqandda 600 kishini qoldirib o‘zi Kolimalikda dam olayot gan edi. Shunda Samarqand shahri ahli 19 yoshli Bobur Mirzoni Samarqandga chorlab, shahar darvozalarini unga ochib berdilar. Shayboniyning Samarqand shahrida qoldirib ketgan 600 kishidan iborat askarlari qirib tashlandi [3].

Shaharni ikkinchi marotaba egallagan bo‘lsa-da, Bobur Mirzo Samarqanda uzoq vaqt tura olmagan. Chunki shahar vayron bo‘lgan, qolaversa ocharchlik ham hukm surar edi.

Bu haqda bobur o‘zi shunday bayon qiladi: “ Elga bisyor tanqislik bo‘ldi. Anga yettikim, faqir va miskin it etiin, eshak etini yeya kirishdilar”[4].

Bobur Mirzo hukmdor etib ko‘tariladi. Samarqand tumanlari, Qarshi, G‘uzor hududlari ham Bobur Mirzo hukmronligini tan oldi. Muhammad Shayboniyxon Turkiston atroflaridan katta qo‘shin to‘plab yana Samarqand harakatlanadi. Bu orada Bobur qurg‘oqchlik va oziq-ovqat yetishmagani tufayli lashkarlarining bir qismini tarqatib yuboradi.

Bundan foydalangan Shayboniyxon hujum boshlaydi. Bobur Mirzo Kesh, Toshkentdan kelayotgan yordamchi kuchlarni kutmasdan jangga kiradi. Zarafshon qirg‘og‘ida bo‘lgan jangda Bobur Mirzo yengiladi va Samarqandda yashirinadi. Shayboniyxon Samarqandni uzoq vaqt qamal qiladi. Shaharda misli ko‘rilmagan og‘ir ahvol yuzaga keldi. Bobur Mirzo och-yalang‘och qolgan Samarqandni yarim tunda tashlab Toshkent tomon otlandi. U tog‘asi Toshkent hokimi Sulton Mahmudxon huzuriga Samarqandni qaytarib olishda yordam so‘rab boradi. Biroq Muhammad Shayboniyxon Bobur Mirzo, Sulton Mahmudxonning birlashgan qo‘shinlarini yengadi [5].

1504-yilda Bobur Mirzo Kobulga borib, bu yerda hokimiyatni egallaydi.

Bu davrda Bobur Mirzo og‘ir damlarini o‘tkazadi. Boburning qizi Gulbadanbegimning «Humoyunnoma» asarida shunday deb yozadi: “To‘liq 11 yil davomida Movarounnahr o‘lkasida, chig'atoy, temuriy va o‘zbek sultonlari bilan shunday janglar va mudofaalar qiladilarki, ularning sanog‘ini batafsil bayon qilishga qalam ojiz va nuqsonlidir. Oxirgi hamrohlari va qarindoshlari boiib, jami 250 ga yaqin kishi, piyoda, yelkalarida chopon, oyoqlarida choriq, qo‘llarida tayoq bo‘lgani holda beyarog‘, xudoga tavakkal qilib Badaxshon va Qobulga qarab yo‘l oldilar” [6].

Bobur Mirzo 1508-yilida Afg‘onistonning podshosi deb e’lon qiladi va Qobul davlat poytaxti bo‘ldi.

1510- yilda Muhammad Shayboniyxon o‘limidan so‘ng Bobur Mirzo Eron shohi Shoh Ismoildan yordan olib, Movarounnahr yurush boshladi. 1511 yilda Shoh Ismoil qo‘shinlari yordamida shayboniylar qo‘l ostidagi Hisor, Ko‘lob, Qunduz, Badaxshon va Qarshi erlarini egallab, Samarqandni ham uchinchi marta qo‘lga kiritdi. Movarounnahrni butunlay qo‘lga kiritish niyatida bo‘lgan Boburga Safaviylarning tajribali sarkardasi Najmiddan Soniy boshchiligidagi 12 ming qo‘shini kelib qo‘shildi [7].

Bobur Samarqandni egallagach, noilojlikdan islomning shiyalik yo‘nalisliiga e’tiqod qiluvchi shoh Ismoilni oliy hukmdor deb e’lon qildi. Bu esa Samarqand xalqining Bobur Mirzodan yuz o‘girishiga sabab bo‘ldi. Chunki Movarounnahr aholisi, Boburning o‘zi ham islomning sunniylik yo‘nalisliiga e’tiqod qilganlar. Bu esa shiya va sunniy adovatlari yanda avj olishiga sabab bo‘ldi. Boburning ittifoqchilari, shiya mazhabidagi eroniy qizilboshlilarning[36] talon-tarojlari (ayniqsa, Samarqand va Qarshi shaharlarida) tufayli mahalliy aholi Boburni qo‘llab-quvvatlamadi. Bobur va eroniylarning birlashgan qo‘shinlari bilan Shayboniylar o‘rtasidagi hal qiluvchi jang 1512 yilning noyabrida G‘ijduvon yaqinida bo‘lib o‘tadi. Mazkur jangda Shayboniyxonning jiyani, Sulton Mahmudning o‘g‘li Ubaydulla Sulton tomonidan ittifoqchilar qo‘shnini tor-mor etildi. Bu mag‘lubiyatdan so‘ng Bobur Movarounnahrdan butunlay chiqib ketdi va Qobul hamda uning atroflarida o‘z hukmronligini to‘la mustahkamladi [7]. Bobur Mirzoning bundan keying maqsadi Hindiston sari bo‘ldi.

1505-yildan Hindistonga dastlabki yurishnini boshladi. 1519-yil bahoriga kelib Bobur Hindistonni zabt etish rejalarini amalga oshirishga kirishadi. 1519-yilda Hindistonga ikkinchi va uchinchi harbiy harkatlarini uyushtirdi. 1520-yilda to‘rtinchi bor yurush qildi. 1522-yildagi harbiy harakatida Qandaxorni egallashga moffaq bo‘ldi. 1525-yilda Panjob qo‘lga kiritdi. Nihoyat, 1526-yil aprelda Panipatda asosiy raqibi, Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diyning yuz ming kishilik qo‘shinini 12 minglik askari bilan tormor qiladi hamda Dehlini egallaydi. Oradan ko‘p o‘tmay, 1527-yilda Qanva yaqinida ikkinchi yirik hind sarkardasi Rano Sango ustidan ham zafar qozonib, Shimoliy Hindistonning Bengaliyagacha bo‘lgan qismini o‘ziga bo‘ysundiradi. 1528-yilda Chandiriydagi jangda ham ustunlik Bobur tomonda bo‘ldi. 1529-yilda Gagra yonidagi janda Ibrohim Lo‘diyning ukasi Mahmud Lo‘diy bilan bo‘lgan to‘qnashuvda Bobur lashkari yana g‘olib keldi. Shu yilda Bengal shohi Nusratshoh bilan do‘stona aloqalr ham o‘rnatdi.

Bir necha muddat oldin podsholikni Humoyunga topshirgan Bobur 1530-yil 26-dekabrda, 47 yoshida o‘zi asos solgan saltanat poytaxti Agrada vafot etdi va o‘sha yerda dafn etildi. Keyinchalik, 1539-yil, vasiyatiga muvofiq, xoki Kobulga keltirilib, o‘zi bunyod ettirgan «Bog‘i Bobur»ga qo‘yildi. Agrani o‘ziga poytaxt sifatida tanlagan Bobur katta qurilish va obodonchilik ishlarini boshlab yuboradi. Shu tariqa Bobur Hindistonda uch yarim asrga (1526-1858) yaqin hukm surgan qudratli boburiylar sulolasiga asos soldi.

Hind xalqining buyuk farzandi Javoharlal Neru «Hindistonning kashf etilishi», «Jahon tarixiga bir nazar» asarlarida Bobur Mirzo va uning nabirasi Akbarga yuksak baho bergan. U shunday deb yozadi: «Bobur - dilbar shaxs, Uyg‘onish davrining tipik hukm- dori, mard va tadbirkor odam bo‘lgan. U san’atni, adabiyotni sevardi, hayotdan huzur qilishni yaxshi ko‘rardi».‘

[36]Safaviylarning asosiy tayanch kuchi bo'lgan turk ko'chmanchilari XV asrning 2-yarmida “qizilboshlilar” deb atalgan. Bu harbiy ko'chmanchilar shia imomlari sharafiga boshlariga 12 qizil chiziqli salla o'rab yurganlar.

Xulosa qilishimiz mumkinki, Bobokalonimiz bo‘lmish Bobur Mirzo o‘z hayotlik faoliyati oson kechmagan. Doimi janglarda kechgan. Qolaversa, Shoir sifatida ham kelajak avlod uchun o‘z ijot namunalarini qo‘ldirgan va bular ichida eng qadirlisi bo‘lgan “Boburnoma”ni yozgan hamda bizga katta meros sifatida qoldirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rustambek Shamsutdinov, Shodi Karimov, O‘ktamjon Ubaydullayev. “Vatan tarixi” ikkinchi kitob «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati T.-2010 . bet-13.
2. Q.Usmonov, U. Jo‘rayev, N. Norquloy “O‘zbekiston tarixi” XVI-XIX asrning birinchi yarmi “O‘qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent—2014. Bet-6.
3. Rustambek Shamsutdinov, Shodi Karimov, O‘ktamjon Ubaydullayev. “Vatan tarixi” ikkinchi kitob «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati T.-2010 . bet-15.
4. Turg‘un Fayziyev Zahiriddin Muhammad Boburur va uning avlodlari”. Toshkent “Yozuvchi” nashriyoti. 1996. Bet-17.
5. Rustambek Shamsutdinov, Shodi Karimov, O‘ktamjon Ubaydullayev. “Vatan tarixi” ikkinchi kitob «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati T.-2010 . bet-15.
6. Гулбаданбегим. «Хумоюннома». Т., 1959. 24-25-бетлар.
7. B.J.Eshov, A.A.Odilov “O‘zbekiston tarixi” I – jild Toshkent-2013. Bet-346.
8. НеруД.Открытие Индии. М., Политиздат, 1989, стр. 272-273.

BOBUR SHAXSIYATIDAGI YUKSAK INSONIY FAZILATLAR

Qurbonova D.Sh.

Buxoro viloyat XTXQTUMOHM katta o‘qituvchisi

Tariximizning turli sahifalarini ko‘zdan kechirganda, xalqimiz ma’naviyati bilan bog‘liq shunday masalalarga duch kelasizki, ular halollik, haromdan hazar, ta`magirlikdan nafratlanish, kamtarlik, adolatparvarlik singari tuyg`ular millatimizga xos eng oliyjanob fazilatlar ekanligidan dalolat beradi. “birovning haqi”, “qiyomat qarz”, “peshona teri” degan so`zlar buning yaqqol ifodasidir.

Ma`lumki, Bobur Mirzoning otasi Umarshayx Mirzo temuriy hukmdorlardan biri edi. Bobur o`z xotiralarida otasining naqadar adolatli va halol odam bo`lganligini ko`rsatuvchi shunday ma`lumotni keltirib o`tadi. “Qay bir yili Xitoydan Farg`onaga ketayotgan ming kishilik karvon O`sh tog`larida qor ko`chkini ostida qolib halok bo`ladi. Umarshayx Mirzo darhol odamlarini yuborib, karvonning yuklarini nazorat ostiga oldiradi. Egalari halok bo`lgan shu mollarni ikki yildan ziyot ehtiyotlab saqlaydi. Xuroson va Samarqandga maxsus odam yuborib, karvon egalarining merosxo`rlarini daraklab toptiradi va ularni o`z mamlakatiga chaqirtirib, mollarini to`laligicha qo`llariga topshiradi[3,3].

“Boburnoma”da ham muallif o`sha davr kishilarining haqqoniy realistik tasvirini beradi. Bu holat Boburning bergan ma`lumotlaridagi ishonchlilikni ta`minlagan. “Boburnoma” bilan yaxshi tanishish Bobur xarakterini, undagi fazilatlar manbalarini aniqlashga imkon beradi.

Bobur o`z otasi haqidashunday yozadi. “hanafiy mazhabliq, pokiza e`tiqodliq kishi edi…Ravon savodi bor edi. “Hamsatayn” va masnaviy kitoblarni va tarixni o`qib edi. Aksar “Shohnoma” o`qib edi. Ta`bi nazmi bor edi, vale she`rga parvo qilmas edi. Bisyor sahovati bor erdi. Xulqi dog`i saxovaticha bor erdi, xushxulq va harrof (tez gapiradigan, so`zamol) va fasih (yoqimli)

va shirinzabon kishi erdi, shujo` (shijoatli) va mardona kishi erdi". Otasidagi bu xislatlarning ko`pi Boburning o`zida ham muajssamlashganini qayd etish joiz[3,12].

Maqolamiz mana shunday yuksak fazilatli hukmdorning farzandi, Hindistonni 332 yil davomida mahorat bilan boshqargan buyuk sulola asoschisi bo`lgan Boburning shaxsiy fazilatlari haqida.

Bobur ismi "sher" ma'nosini anglatib, uning o'zi ham ismi jismiga monand kishi bo'lgan, otasining daf`atan o`limi tufayli taxtga o`tirishga majbur bo`lganida u endigina 11 yosh-u 4 oylik bola edi. O`ta bilimli, husni xati chiroyli, mohir chavandoz, mergan kamonboz, chapdast qilichboz va zo`r ovchi bo`lib voyaga yetganligi haqida Vilyam Rashbruk ma`lumot beradi[3,27].

Bobur kelishgan qaddi-qomati va benihoya kuchliligidan tashqari dovyuraklikda, epchillikda, chaqqonlikda uning oldiga tushadigani topilmagan, uncha-muncha qiyinchiliklarni pisand etmagan, ayniqsa shikorbozlik bobida chinakam sher bo'lib ketgan. U ko'pincha ikki davangirday odamni qo'ltiqlab olib, Agra qal'asi devorlari ustida yugurib mashq qilgan. U yana ajoyib suzuvchi va g'avvos ham bo'lgan, buyuk Gangadan tashqari jamiki yo'lida uchragan hind daryolarini suzib o'tgan. Uning shirali til, ohangdor vazn bilan bitilgan tarjimayi holini - "Boburnoma"ni o'qir ekansiz, muallif badiiy didining naqadar nazokatliligi, aql-u zakovati teranligi, bilimi naqadar cheksizligining guvohi bo'lasiz. Bobur tabiatni va bazmi jamshidlarni jonidan yaxshi ko'rgan. Ayniqsa, tog'larni, daryolarni, bog'larni, yaylovlarni ko'rganda, zavq-u shavqi tug'yon urib, misoli bulbuligo'yo bo'lib, Ollohni birdam xotiradan faromush qilmagan.

1530-yilning mart oyida Bobur Lohurda bo'ladi, qaytishda Dehli yaqinida ikki oy turib qoladi. Nihoyat, avgust oyida Agraga qaytib kelgach, valiahdi Humoyunning qattiq dardga mubtalo bo'lgani to'g'risida xabar kelganda u podshohlikni unutib oddiy inson, mehribon ota timsolida barcha hikmat-u fazilatini yaqqol ko`ramiz.

"Boburnoma"ning ingliz tarjimoni Uilyam Erskin "Saxovati va mardligi, iste'dodi, ilm-fan, san'atga muhabbati, ularga mashg'ulligi bilan Osiyodagi podshohlar orasida Boburga teng keladigan birorta hukmdor topilmaydi", – deganida nechog`lik haq edi?!

Adabiyotlar ro`yxati:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so`zlagan nutqidan.

2. Karimov I. Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch. T.;2008-yil, 78-bet

3. To`xliyev B, To`xliyeva D. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi albom. T.;2012-yil

THE CONTRIBUTION OF BOBUR AND BOBURI DYNASTY TO THE RENEWAL OF WORLD CIVILIZATION

Turdiyev B.S.

Researcher Bukhara State University, Bukhara, Uzbekistan

The reforms carried out by Babur and the Baburi dynasty play an important role in the spiritual development, socio-economic development and rise of the peoples of the world. Babur was a great king and poet, a scientist and a great creative person who made a great contribution to the civilization of world culture. He left a deep mark in history with his good character, courage, honesty, loyalty, patience, humanity and justice.

His rich life experience and practical creative activity serve as an important example for the formation of a "New Uzbekistan - a new worldview" in the hearts of the younger generation. In the

words of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev: "Generally speaking, the decisive role in the progress of any society is played by the healthy and harmonious development of the growing generation, on which the future of this society depends. That is why in matters of expanding and further increasing the effectiveness of our reforms, we consider our energetic, proactive, comprehensively advanced youth with modern knowledge and skills to be our support, our backbone. We have set ourselves a great goal, namely, securing the foundation for a new Renaissance in our country, and for this purpose we must deliver an environment and conditions for nurturing new Khorezmis, Berunis, Ibn Sinos, Ulugbeks, Navois and Baburs. Crucial factors in this historic process, an integral part of our national idea, are the development of education and enlightenment, science and innovation, promotion of healthy lifestyle.

Our highest priority should be to empower youth to set and achieve ambitious goals. Only then will our children become a real force that can fulfill the age-old dreams of our people"[1]. Indeed, the way of life of our great ancestors serves as the foundation for our development today.

In this regard, it is noteworthy that Babur strengthened the foundations of the statehood of the country in the history of the peoples of India and laid the foundation of the Great Baburi Empire, which lasted more than three centuries. Six people from the Babur dynasty, namely Babur, Humayun, Akbar, Jahangir, Shah Shahri, and Aurangzeb, ruled India for a long time and contributed to the flourishing of Indian culture.

These years have been a period of great renewal for the cultural life of India. In his advice to his children, Bobur's extraordinary views on personality traits such as his strong leadership, their place in the state, who to rely on for the benefit of the country, trust and betrayal are noteworthy.

As much as Babur is skilled in the military, he is unique in his creativity, and he carried out every problem, large and small, on the basis of reason and thinking, wisdom, and the depth of scientific potential and the means of great thought, deeply grasping the direction and essence of the events that would take place.

The English translator William Erskine describes the great statesman, the skilful military leader Babur as a great cultural and political figure: "Babur is one of the brightest representatives of the rulers who came to the throne of the countries of the East. His personality consisted of the qualities of a noble man and a great king. He was a brave and enterprising commander, and an organized military leader who could follow people. He was a man of integrity and confidence, and his youthful zeal and courage never left him. At the same time, as a man of high faith, he highly valued the splendor and beauty and sought to support it in every way. He was a man of great power and glory, and any appearance of fame would broaden his imagination, and he would not want to share anyone's fame, and would prefer to have his own" [2].

Indeed, Babur's state and power were largely based on the power of science, culture, and enlightenment. Babur understood more clearly and deeply than anyone else that there is no future for a state and society that is not based on science, reason, and reasoning.

It is appropriate to link the great contribution of Babur and the Baburi dynasty to the development of world civilization on the basis of the following reforms in the field of cultural renewal. These are:

Firstly, their great services in the field of urban planning, architecture, gardening, repair, public administration and beautification of the country;

Secondly, their cultural and educational work among the people: scientific and cultural constructions such as libraries, observatories, their efforts in the field of fine arts, calligraphy, painting and the development of artistic creativity.

Thirdly, in creating this creative and cultural-enlightenment heritage, the spirit of internationalism, carefully preserved and developed by the Baburids, and the creative movement of ordinary creative people, who are their colleagues, comrades and shoulder to shoulder with them, are envisaged [3].

In general, among all the Temurids, only Babur fought to restore the single empire of Amir Temur, who was his grandfather, to build a strong kingdom. If in the history of the world community Amir Temur has gained a special reputation for his leadership, the establishment of justice and equality in the country, the welfare of the people, creativity and urban planning, Babur and his descendants left an unforgettable mark on Amir Temur with their creative, architectural and spiritual development of the society.

During the reign of Amir Temur in the life of the peoples of the region there were changes in socio-cultural development, spiritual and enlightenment development, creativity, urban planning and folk arts, which reached their peak in India during the reign of Babur and Baburids reached the bottom. From the high moral qualities that lead him to this great goal - humanity, compassion for others, opening the door to kindness and generosity for people - became the purpose of his life. During his short life of 47 years, Zahiriddin Muhammad Babur left a rich creative legacy. Even today, his ghazals, rubais, hens, the great and perfect memorial work – "Baburnama" is still loved and read by fans of world literature.

In short, Babur's statehood focused on the cultural development of society. Today, the Uzbek people are very proud to have such a unique scholar and great son as Babur. On 14 February 2008, stamps in his name were issued in the country to commemorate his 525th birth anniversary [4]. Thus, with the life and creative activity of Babur, illuminating the path of a new stage of development of Uzbekistan, there is no doubt that it will continue to contribute to the development of our country.

REFERENCES:

1. President Shavkat Mirziyoyev's Address to the Oliy Majlis. // https://president.uz/en/lists/view/4057

2.Uilyam Erskin. Bobur Hindistonda. –T.: "Cho'lpon".1985yil. 102-103-bet

3. Uralov A., Safarov N. Boburiylar va bunyodkorlik. –S.: "SKI", 1995. –B.7.

4. "The country's history on postage miniatures". Uzbekistan Today. Archived from the original on 14 June 2015. Retrieved 12 June 2015.

O'ZBEKISTON HUKUMATINING MUSTAQILLIK YILLARIDA MUQADDAS QADAMJOLARGA MUNOSABATI

Vohidov A.G'.

Buxoro davlat universiteti talabasi

O'zbekiston mustaqillikning dastlabki yillarida boshlab, muqadas ziyoratgohlarni mukammal o'rganish, tarixan xolisona ilmiy taxlil etish, ushbu qadamjolardagi buyuk siymolar, avliyolar tomonidan yaratilgan manaviy merosni tiklash va yoshlar ongiga singdirish masalasida muhim ahamiyatiga ega bo'lgan tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda.

Eng muhimi, hukumatimiz buyuk allomalar, avliyolar tarix bilan bog'liq xalqaro anjumanlarni o'tkazish, ular dafn etilgan qabrlarni tamirlash, qayta tiklash hamda obodonlashtirish, manaviy qadriyatlani ezozlash sohasidagi ibratli ishlarga rahbarlik qilmoqda. O'zbekiston

Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning "…butun dunyo ahli buyuk ajdodlarimizning merosini tan olishini, bu ulug‘ zotlar nima hisobidan bunday yuksak etirofga sazavor bo‘lgani, buning tub omillari, sabablari nima ekanini har tomonlama chuqur ochib berishga qaratilgan, aniq tasvirlar va dalillar asosida ilmiy-ommabop va marifiy ko‘rsatuvlar, hujjatli filmlar, maqola va risolalar yaratilyaptimi – yo‘qmi, yaratilayotgan bo‘lsa, ular bugungi talablarga javob beradimi, degan savolni o‘z-o‘zimizga berishimiz lozim", degan ibratli fikrlarni hozirgi kunning muhim ilmiy dolzarb masalasidir[37] .

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, mustaqillik yillarida muqaddas qadamjolarda yotgan avliyo va allomalarning faoliyatiga bag‘ishlab, YUNESKO rahbarligida xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan sanalar tashkil etilishi bilan bir qatorda, ilmiy tadqiqotlar olib borish asosiy vazifa sifatida taxlil etilmoqda .

1998 yilda tasavvuf ilmining yirik namoyondalaridan biri Bahoviddin Naqishbandning 680 yilligi nishonlandi. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda vijdon erkinligi, din, diniy tashkilotlar va dindorlarga nisbatan davlat siyosatida tub o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Vijdon erkinligi masalasining davlat bilan diniy taskilotlar o‘rtasida munosabati masalasida mustahkam huquqiy negiz yaratildi. Bu huquqiy negiz – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida" gi qonundir[38].

O‘zbekiston Reaspublikasi Konistitutsiyasi hamda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida " gi qonunda fuqarolar va diniy tashkilotlar uchun kafolatlangan huquqiy imkoniyatlar to‘la ro‘yobga chiqarildi. Dinning mavqei tiklandi. Barcha diniy uyushmalarga, jamoalarga qonun doirasida ochiq va daxlsiz faoliyat ko‘rsatish imkoniyati yaratilmoqda.

O‘zbekiston hukumati musulmonlarning xohish-istaklarini inobatga olib, islom dunyosining muqaddas yodgorliklarni, tarixiy obidalarni diniy tashkilotlar ixtiyoriga o‘tkazdi. Yangi masjidlar ochildi, eskilari tamirlandi. Masjidlar davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi. Ularning davlat, jamiyat oldidagi masuliyati belgilandi.

Din arboblari va ruhoniylar uchun ommaviy axbarot vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratildi. Diniy tashkilotlarga o‘z davriy nashrlarini chop etish yo‘lidagi to‘siqlar olib tashlandi. Diniy adabiyotlarning chop etilishi sezilarli ko‘paydi. Quroni karim va hadislar o‘zbek tiliga tarjima qilinib, chop etildi.

Hamyurtlarimizning hajga va umraga, Makka va Madina ziyoratiga, diniy farzni ado qilishga borishi kengaydi. (hajga 1980 yilda Sobiq ittifoq bo‘yicha 25-30 kishi, 1991 yilda 1500 kishi, 2000 yilda 4000 ga yaqin, 2018 yilda 7 mingdan ortiq kishi borgan. Respublikamizda Ramazon va Qurbon hayitlari bayram sifatida nishonlanib, dam olish kuni, deb elon qilindi. Diniy tashkilotlar xalqaro aloqalarni kengaytirish imkoniga ega bo‘ldi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Diniy ishlar qo‘mitasi tashkil etildi. Toshkent islom universiteti, Xalqaro islom tadqiqot markazi, Xalqaro islom akademiyasi faoliyat ko‘rsatmoqda[39].

Muqaddas ziyoratgohlar xalqimizning turmushida qadimdan muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Binobarin, yurtimizda mavjud ko‘plab ziyoratgohlar O‘zbekiston tarixi va madaniyatida o‘chmas iz qoldirgan mashhur kishilarning nomlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning beqiyos merosini aholi orasida targ‘ib etish hozirgi kunda katta manaviy- marifiy ahamiyatga ega. Jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001- yil 30 avgustda qabul qilingan "Madaniy meros obektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomilashtirish chora- tadbirlari

[37] Karimov I.A. Eng asasiy mezon - hayot haqiqatini aks etirish.- T.: O'zbekiston, 2009.- B.18.
[38] Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi (yangi tahriri) // O'zbekistoning yangi qonunlari. 19-son.-T.: Adolat, 1998. - B. 224-234.
[39] Azimov A. Islom va hozirgi zamon. – T.: O'zbekiston, 2018. – B. 112.

to‘g‘risida”gi qonuni hamda Vazirlar Mahkamasinig 2002 yil 29 iyuldagin 269 sonli Madaniy meros obektlarini muxofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtrish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 7 oktiyabrdagi qaroriga binoan . Nomodiy madaniy meros obektlarini muhofaza qilish , saqlash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish bo‘yicha 2010-2020 yillarga mo‘ljalangan davlat dasturi fikrimizning yaqqol dalilidir.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning muqaddas qadamjolarni saqlash va obod etish xayriya jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risidagi 07.08. 2008 yildagi 938 – sonli qarori bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni naqadar muhim ekanligini ko‘rsatmoqda[40].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlisning 1 –sessiyasida bizga meros bo‘lib qolgan madaniy merosning butun mazmun-mohiyatini nazarda tutgan holda : “O‘zbek xalqi tomonidan yaratilgan va milliy boyligimiz bo‘lgan noyob tarixiy yodgorliklarni saqlash va tamirlash manaviy dasturimizning muhim qismini tashkil qiladi. Bu milliy bolik ota-bobolarimiz tomonidann meros bo‘lib qolgan . Demak, biz uni ko‘z qorachig‘imizdek asrashimiz va kelgusi avlodlarimizga etkazishimiz lozim”, deb takidlagandi[41].

O‘zbekiston Respubllikasi YUNESKO tashkilotining teng huquqli azosi bo‘ldi[42]. Xivadagi Ichanqala qo‘riqxonasida (1990) hamda Buxoroning tarixiy markazida (1993) joylashgan yodgorliklar, SHaxrisabz shahridagi Temur va temuriylar davri memoriy yodgorliklari(2001) va Samarqand shahri markazidagi tarixiy yodgorliklar (2002) Xalqaro Jahon Madaniy Merosi Qo‘mitasiga 13 ta mashhur yodgorliklarni ro‘yxatga olish haqidagi arizalar taqdim etilgan. Oq Ostona bobo, Arab ota, Ishratxona, Mirsaid Baxrom maqbaralari, Bahoyddin Naqishband, CHor Bakr, SHayx Muxtor Valiy, al-Hakim at-Termiziy memoriy majmualari, shuningdek, Raboti Malik, Jarqo‘rg‘on va Vobkent minoralari, Qirq qiz saroyi shular jumlasidandir[43].

O‘zbekiston Respuplikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining Ilmiy ishlab chiqarish Bosh boshqarmasi memoriy yodgorliklardagi noyob sanat namunalarini qayta tiklash va konservasiya qilish ishlari bilan muntazam ravishda shug‘ullanib kelmoqda. Boshqarma ilmiy-tadqiqot ishlari asosida ayrim yodgorliklarni konservasiyalash va tiklashdan butun boshli memoriy majmua ham tarixan shakllangan qadimgi shahar markazlarini tiklashga o‘tildi.

Buxoro shahrining 2500 yilligiga tayorgarlik jarayonida O‘zbekiston Respublikasi tashabbusi va rahnamoligida Poyi Kalon memoriy majmuasi, Ark qalasi, Mir Arab madrasasi, Somoniylar maqbarasi, Bolohovuz maschidi, kabi yodgorliklari xullas, jami 28 ta madaniy meros obekti to‘liq tamirlandi, ular hududi obodonlashtirildi. va yodgorlik majmualari saqlanib qolindi.

Buxoro bag‘rida boy milliy tariximiz - yashirin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 1997 yilning 19 oktiyabr kuni Buxoro shahrining 2500 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda takidlaganidek: “Buxoro tarixiga nazar tashlar tashlar ekanmiz, millatimizning yigirma besh asrlik yo‘lini ko‘ramiz. Buxoroning har bir qarich eri, har bir tarixiy va madaniy obidasi el-yurtimizning buyuk iqtidori va yarattuvchanlik salohiyatidan, yuksak taraqqiyot, ilmu marifat, manaviyat va madaniyat, falsafa va din ravnaqi yo‘lidan darak beradi”[44]

---

[40] Jo’rayeva Sanobar. Surxandaryodagi muqaddas ziyoratgohlar tarixi va ularning aholi manaviy hayotdagi o’rni. Tar. fan. nomz. …diss. – T.: O’zR FA Tarix institute, 2009. – B. 123.

[41] Karimov I.A. O’zbekistoning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. Maruza. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1-sessiyasi.-1995 yil 23-24 fevral.

[42] Hoshimov M. YUNESKO faoliyatida diniy bag’rikenglik tamoyillari (O’zbekiston Respublikasi misolida): Tar. fan. nomz. diss . avtoref. –C T.: Toshkent islom universiteti, 2009. – B. 11-13.

[43] Mansurov R. Memoriy yodgorliklarni saqlash va tamirlash // Moziydan sado.-Toshkent, 2004.-N 3 (23).-B .4-5.

[44] Karimov I. Manaviy yuksalish yo’lida. - T.: “O’zbekiston”, 1998. - B. 369

Buxoro viloyati tarixiy markazidagi memoriy obidalarning YUNESKO tomonidan jahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgani yodgorliklarni muhofaza qilish masalalariga xalqoro jamoatchilik diqqat-etiborini qaratdi.

Qadim Buxoroni biz nafaqat “Islom dinining quvvati”, balki ayni paytda milliy madaniyatimiz va sanatimizning noyob chashmasi sifatida ham yaxshi bilamiz[45].

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi davlat raxbari SHavkat Mirziyoev boshchiligida hamda ko‘rsatmalari asosida Bahouddin Naqishband, Abdulxoliq G‘ijduvoniy memoriy majmulalari qayta qurilib, Markaziy Osiyodagi eng go‘zal ziyoratgohlarga aylantirildi. CHorbakr majmuasi, Sayid Amir Kulol, Xoja Ismattuloh Buxoriy, Xoja Mahmud Anjir Fag‘aniy ziyoratgohlari qayta tamirlandi, Abu Hafs Kabir maqbarasi, Behishtiyon maqbarasi, SHayx Jalol va Samarqand darvozalari yangidan bunyod etildi. Bular mustaqil O‘zbekistonda qadimiy memorchilik va shaharsozlik ananalari qayta tiklanayotganiga yorqin misol bo‘la oladi.

SHuni alohida takidlash lozimki, so‘ngi yillarda faqat Buxoro shahridagina emas, balki viloyat tumanlarida ham obidalarni tamirlash, ziyoratgohlarni obodonlashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Xoja Orif Revgariy, Xoja Ali Romitaniy, Xoja Muhammad Bobo Samosiy, Xoja Peshko‘, Mullo Mir, Xoja Ubbon, Xoja Zafaron, CHibirdonota, Abdurahmon Valiy, Qizbibi ziyoratgohlari qayta qurildi.

Buxoro vohasida ana shunday buyuk allomalar etishib chiqan. SHu bilan birga, vohaga ulug‘ avliyo-yu valiylarning qadami tekkan va ularning ruhi shu erda abadiy qo‘nim topgan. Vohaga asl qabri shu bo‘lgan alloma, avliyolarning ziyoratgohlaridan tashqari, mashhur sahobalarga atab qadamjo qilingan ziyoratgohlar ham mavjud bo‘lib, ular mahalliy hokimiyat va xalq hashari tomonidan tamirdan chiqarilgan.

Prezidentimiz 2017 yil iyuldagi “Abduxoliq G‘ijduvoniy tavalludining 915 yilligini va Bahouddin Naqshband tavalludining 700 yilligi nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish hamda uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi bilan bu boradagi ishlar ko‘lami yanada kengaydi. Hozirgi kunda majmua to‘liq rekonstruksiya qilindi. Yo‘laklarga maxsus toshlar yotqizib, yon-atrof obodonlashtirildi[46].

Faydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. SHavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston” 2017. – B.146.

2. Karimov I. Manaviy yuksalish yo‘lida. - T.: “O‘zbekiston”, 1998. - B. 369

3. Karimov I.A. O‘zbekistoning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. Maruza. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1-sessiyasi.-1995 yil 23-24 fevral.

4. Karimov I.A. Eng asasiy mezon - hayot haqiqatini aks etirish.- T.: O‘zbekiston, 2009.- B.18.

5. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi (yangi tahriri) // O‘zbekistoning yangi qonunlari. 19-son.-T.: Adolat, 1998. - B. 224-234.

6. Azimov A. Islom va hozirgi zamon. – T.: O‘zbekiston, 2018. – B. 112.

7. Hasan Paydoyev. “Yetti pir ziyorati”// Xalq so‘zi gazetasi. 2017. 20 avgus

[45] SHavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O’zbekiston” 2017. – B.146.

[46] Hasan Paydoyev. “Yetti pir ziyorati”// Xalq so’zi gazetasi. 2017. 20 avgust.

BOBUR G‘AZALLARIDA INTERTEKSTUALLIK

Xomidova M.F.
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti
Xayrullayev A.X.
ToshDO‘TAU o ‘qituvchisi

Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi o‘zbek mumtoz adabiyotining ajralmas va bebaho qismi sanaladi. Uning nazmidagi ohangdorlik, nasridagi qofiyadorlik o‘quvchi uchun juda xush yoqadi. Shuningdek, Bobur ijodi eski o‘zbek adabiy tilining eng yorin namunasi hamdir. Shu bois uning g‘azal, ruboiy, tuyuqlarini lingvistik jihatdan tahlil qilish biz uchun o‘zbek tilining boy imkoniyatlari haqida xulosa qilishimizga katta yordam bera oladi. Biz quyida intertekstuallik, ya’ni matn ichida boshqa matn parchasining kelishini (ilk marta fransuz olimasi Y.Kristeva tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan [3])Bobur g‘azallaridan olingan misollar yordamida tahlil qilamiz.

Ma’lumki, badiiy matnda intertekstuallik turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Intertekstuallikni faqat muayyan matnning parchasi hosil qilmaydi. Badiiy matnda tarixiy voqea, afsona va rivoyat qahramonlari, shaxslarning nomini keltirish ham intertekstuallik hodisasining bir turidir. Badiiy matnning hajmiga, turiga ko‘ra ham intertekstuallikning qo‘llanilishi har xil bo‘lishi mumkin[1]. Mumtoz she’riyat namunalari: g‘azal, ruboiy, tuyuq, qit’a kabilarda esa asosan intertekstuallikning bir turi bo‘lgan allyuziv nomlar keng qo‘llaniladi. Xalq og‘zaki ijodidagi doston, afsona, rivoyatlarga, diniy hikoyatlarga ishora qiluvchi allyuziv nomlar g‘azal va ruboiylarda badiiy matn tarkibiy qismi sifatida qatnashib, mazmunan oldingi matnga ishora qiladi. Bu jarayonda intertekstual birlik orqali har ikki matn o‘zaro aloqaga kirishadi.

Bobur g‘azallarida asosan intertekstuallik allyuziv nomlar shaklida ko‘p uchraydi. Uning g‘azallari mavzusiga e’tibor beradigan bo‘lsak, oshiqona g‘azallarning salmog‘i anchagina. Ularda uchraydigan allyuziyalar ham bevosita shunday matnlarga ishora qiladi.

Baloyi ishqki, har dam manda jafoyedur,
Bu ishdin kecha olmon ajab baloyedur.
Xati labig‘a tutash bo‘lsa, ey ko‘ngul, ne ajab,
*Ki **Xizr** chashmayi hayvong‘a rahnamoyedur.*
Yarar bu xasta ko‘ngul dardig‘a o‘qin yarasi,
Magarki har yarasi yorning davoyedur.
Bahor fasliduru may havosi boshimda,
Ayoq tut menga soqiyki, xush havoyedur.
Ul oy raqibg‘a bo‘ldi rafiqu Boburning
Rafiqu hamdami hajrinda ohu voyedur [5].

Bu g‘azalda abadiy hayot timsoliga aylangan Hazrati Xizr haqidagi afsonaga ishora mavjud. Yor jafosidan ozorlanayotgan oshiq holatiga mos ravishda uning sifatini aks ettiruvchi birikma – *chashmayi hayvon* birgalikda qo‘llangan. Bu birikma *obi hayvon, tiriklik suvi* kabi sinonimlarga ham ega bo‘lib, o‘zbek mumtoz adabiyotida juda faol qo‘llangan. Bobur ham xalq ichida mashhur afsonaga ishora orqali o‘zining lirik qahramoni holatini aniqroq tasvirlashga, ta’sirchan ifodalashga erishgan. Uning “*Borida*” radifli g‘azalida ham Xizr allyuziyasini uchratamiz:

Ne ko‘ray to‘bini qaddi xushxiroming borida,
Ne qilay sunbulni xatti mushfoming borida.
*Kim **Xizr suyin** og‘izlag‘ay labingning qoshida,*
*Kim **Masih alfozidin** degay kaloming borida.*

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Xizr antroponimi obi hayvon, suv, suy, chashmayi hayvon so‘z va birikmalari bilan birga keladi. Bu g‘azalda Bobur Xizr suyi birikmaidan foydalanib, uning hayot baxsh etish xususiyati haqidagi afsona matniga o‘z misralarini bog‘lay olganini ko‘rishimiz mumkin. Bu g‘azalda el ichida yana bir mashhur rivoyatga ishora qiluvchi allyuziv birlik mavjud. Iso Masihning ham mangu barhayotligi va uning jon baxsh etuvchi so‘zlari haqidagi afsona va rivoyatlar G‘arb va Sharq xalqlari orasida juda mashhur bo‘lib, mumtoz adabiyotda Iso, Masih kabi nomlarga *kalom, alfoz, lafz* kabi so‘zlarni qo‘shib foydalanish an’anaga aylanib ulgurgan edi. Alisher Navoiy ijodida ham bu allyuziya juda ko‘p o‘rinlarda uchraydi. Bobur ham bevosita ana shu an’anaga sodiq qolib, birinchi baytdagi fikrini yanada mustahkamlash maqsadida ***Masih alfozi*** birikmasidan intertekstual birlik sifatida foydalangan.

Sharq xalqlari folklorida, umuman xalq ichida bunday diniy afsona va rivoyatlar yozma adabiyotdan mustahkam o‘rin olgan va ular asosida yangi matnlar yaratilgan, g‘oyaviy-estetik puxta asarlar uchun iqtiboslar olingan.

Bobur ijodining, ayniqsa, g‘azaliyotining ishq-muhabbat tarannum etilgan namunalari juda ko‘p va betakrordir. Ularda intertekstual birlik sifatida asosan, *Farhod, Majnun, Layli, Shirin* kabi muhabbati doston bo‘lgan qahramonlar uchraydi. Shoir Bobur g‘azallarida o‘z holatini, yorining go‘zalligi-yu, xarakterini ana shu afsonaviy qahramonlarga qiyoslaydi, bu taqqoslash orqali esa bilvosita o‘quvchi uchun yaxshi tanish bo‘lgan “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” dostonlarini yodga tushiradi.

Sening ishqingda, ey nomehribon, bexonumon bo‘ldim,
Deman bexonumon ovvorayi ikki jahon bo‘ldum.
Labing gar bermasa bo‘sa nechuk jon elta olg‘aymen,
Bu yo‘ldakim, adam sahrosig‘a emdi ravon bo‘ldum.
So‘rub ul oy labidin og‘zining ramzini angladim,
Bir og‘iz so‘z bila ko‘rungki muncha xo‘rdadon bo‘ldum.
Nechakim qoshi yolar ishqida tuzlukni ko‘rsattim,
Vale oxir malomat o‘qlarig‘a-o‘q nishon bo‘ldum.
*Kular erdim burun **Farhodi** miskin dostonig‘a,*
*Bu **Shirindurki** oning birla-o‘q hamdoston bo‘ldum[5].*

Bu g‘azalda esa Bobur o‘zining holatini hatto Majnun va Farhodnikidan-da ustu qo‘yadi, ya’ni har ikki qahramonning ishq yo‘lida qanday azoblarga duchor bo‘lgani barchaga ma’lum. Boburning lirik qahramoni esa ulardan ham yomon ahvolda:

Bir pariy men telbani husnig‘a moyil qilg‘udek,
Ko‘zum ichra yer tutub ko‘nglumda manzil qilg‘udek.
Ko‘nglumizga javr behad qildi ul nomehribon,
Jonima yuz ming g‘amu mehnatni hosil qilg‘udek.
*Qilmadi **Farhod-u Majnun** o‘zni rasvo men kibi*
Kim, bu nav’ ish ish emasdur hech oqil qilg‘udek.
Ul pariy ishqida Bobur jon berib, ey ahli ishq,
Ishq atvorini ishq ahlig‘a mushkil qilg‘udek[5].

Quyidagi misalarda ham ijodkorning allyuziyalardan ustalik bilan foydalanganligi ko‘rishimiz mumkin:

*Qani **Shirin bila Layliki** sendin noz o‘rgansa,*
*Qani **Farhod-u Majnunkim**, alarg‘a ishq o‘rgatsam.*

Umuman olganda, Bobur g‘azallari tilining soddaligi, tashbehlarning orginalligi bilan o‘quvchini o‘ziga qanchalik rom qilsa, unda qo‘llanilgan intertekstual birliklar ham shunchalik asarning xalqchilligini oshirishga, o‘quvchining esa qomusiy bilimlarini to‘ldirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арнольд, И.В. (1997) *Семантика. Стилистика. Интертекстуальность* Текст. И.В. Арнольд. Сб. ст.; СПб, Изд-во С.-Петерб. ун-та. С. 443.
2. Фатеева, Н.А. (1998) Типология интертекстуальных элементов и связей в художественной речи Текст, *Известия АН. Серия литературы и языка*. Ташкент.№5. С. 25 - 38.
3. Kristeva, J. Bakhtine, (1967) *le mot, le dialogue et le roman Texte*. J. Kristeva Critique,. № 239, pp. 465.
4. Yo‘ldoshev, M. (2010) *Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi*. Fil. fan.doktori... diss.Toshkent.
5. https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-mumtoz-sheriyati/bobur/

ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУРНИНГ ДАВЛАТ БОШҚАРУВ ХУСУСИЯТЛАРИ

Юлдашев С.Ў.

Фарғона давлат университети ўқитувчиси фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Ўзбекистон тараққиётининг янги босқичида “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Президент Фармонини қабул қилиниши давлат ва жамият бошқаруви соҳасини такомиллаштириш борасидаги ислоҳларни бошлаб берди. Давлат ва жамият бошқарувида адолатли хукмдорларнинг пайдо бўлиши жамият талаблари, қонун-қоидалар, одоб-ахлоқ меъёрлари асосида яшаш ва фаолият кўрсатишга, инсонпарварлик, ҳалоллик, ижтимоий адолат, умуминсонийлик ғоялари ва тамойилларига астойдил содиқ бўлишга асосланади. Бу борада Ўрта аср Шарқининг буюк алломаси Абу Ҳомид Муҳаммад Ғаззолий “Ихёи улумид дин” (“Диний илмларнинг тирилтирилиши”) деб номланган асарининг “Дил ажойиботларининг шарҳи” бўлимида “Бошқарув дилнинг ҳақиқат моҳиятини эмас, балки сифат аҳволини танишга муҳтождир” дея таъкидлайди[1]. Шарқда ўз бошқаруви ва ҳукмронлиги билан адолатли жамият қуриш муҳимлиги ҳақида ном қолдирган ҳукмдорлар кўп бўлган. Давлат бошқарув жараёнини илмий тушунишга доир масалалар кўпроқ ижтимоий-маданий омил сифатида ёки ижтимоий модел кўринишида тарихда ўз аксини топган. Маълумки, жамиятда шахслараро бошқарув ўз-ўзидан юзага келмаган. Давлат бошқарувидаги янгиланишлар шахсларнинг жамият мақсадига йўналтирилганлиги ва ижтимоий соҳанинг таъсири натижасига боғлиқ бўлган.

Бугунги кунда давлат ва жамият бошқарувида ўз ўрни ва тажрибасига эга бўлган Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва Бобурийларнинг бошқарув усулини ўрганиш, илмий меросини тадқиқ этиш долзарб аҳамият касб этмоқда. Зеро, ҳам шоир, ҳам давлат ва сиёсий арбобининг илмий меросини ўрганиш Заҳириддин Муҳаммад Бобур шахсини ўрганиш ва тадқиқ қилиш жуда муҳим саналади.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур давлат бошқарувида жанговарлик, мардлик, мағрурлик, шахсиятидаги буюклик, улуғворлик, саховатпешалик, камтарлик, одамийлик, зукколик, зийраклик, нозик дид, яхшиликни қадрлаш, тадбиркорлик, узоқни кўра билиш каби ўз

ижобий фазилатларини мужассамлаштирган ҳолда ҳукмронлик қилган. Бобурнинг жанговарликка бўлган иштиёқи уни тинчликни таъминлаш масъулиятидан узоқлаштирмаган. Ҳарбий ҳаракатлардан бўш пайтларида у ҳаётининг энг осуда кунлари деб ҳисоблар ва илм билан шуғулланар эди. Унинг натижасида бир қатор тарихий ва адабий асарлар мерос бўлиб қолган. Энг муҳим масала сифатида эса у ўз одатига кўра давлатни бошқариш ишини такомиллаштириш билан ҳам машғул бўлар ва аркони давлатни мустаҳкамлаш ва раиятнинг турмуш шароитини яхшилаш чораларини изларди[2.17.]. Давлат ва жамиятни бошқаришда шахсдан ақл-идрокка асосланиш талаб қилинади. Давлат бошқарувида юзага келган муаммоларни бартараф этиш жамиятни илмий бошқаришнинг ижтимоий-маданий технологияларини қанчалик жорий этилгани билан боғлиқ десак адашмаган бўламиз.

Форобий ўз асарида алоҳида урғу беради, - “Бахт-саодатга эришув ва туғма қобилиятларнинг ривожланиши ўз-ўзича бўлавермайди, балки бу масалада қандайдир бир муаллим ёки раҳбарга муҳтожлик туғилади.

Ўзидан бошқаларга раҳбарлик қилиш, уларни бахт-саодатга эришув даражасига кўтариш ҳам ҳар кимнинг қўлидан келавермайди. Кимда бировни бахт-саодатга эриштириш, зарур бўлган иш-ҳаракат кабиларга руҳлантира олиш қобилияти бўлмаса ва бу иш-ҳаракатни бажара олишга қудратсиз бўлса, бундай одам сира ҳам раҳбар бўла олмайди”[3.290.].

Даставвал Бобурнинг бошқарув сиёсати Амир Темур давлатининг пойтахти, стратегик ва географик жиҳатдан муҳим бўлган Самарқандни эгаллаш ва Мовароуннаҳрда марказлашган кучли давлатни мустаҳкамлаш, Амир Темур салтанатини қайта тиклашдан иборат эди. Шунга кўра мавжуд бошқарув усули ўша давр учун анъанавий бошқарув дейилсада, лекин баъзи масалаларда ислоҳотларни амалга оширишга ҳаракат қилган. Жумладан, Бобур ва Ҳумоюн ўз давлат бошқарув тизимини 3 та катта қисмга ажратиб бошқарган. Улар “Давлат”, “Саодат” ва “Мурод” бўлимлардан иборат эди. Бу бўлимлар ягона давлат бошлиғи томонидан бошқарилган. “Саодат” бўлими асосан, шариат масалалари – таълим, илм, маданият масалалари билан шуғулланган. “Давлат” бўлими Бобурнинг садоқатли бекларидан бўлган Ҳиндубек қўл остида бўлган. “Мурод” бўлими эса Амир Увайс зиммасига юклатилган эди. Бу бўлимларнинг фаолияти махсус тайинланган киши томонидан назорат этиб туриларди[4.11.]. Бундай бошқарув усули Бобурийлар салтанатида бошқарув маданиятини маслаҳатлашган ҳолда машварат билан бошқарилганлигидан далолат беради. Чунки, Бобур 12 ёшидан давлат бошқарувига келиб жуда катта тажриба ортиргани аниқ эди. Бу билан бир қаторда Бобур Ҳиндистонда бошқарув усули инсонпарварлик тамойилларига амал қилиш кераклигини англаб етган ҳукмдор эди. У Ҳиндистонда ҳам худди Афғонистонда бўлганидек, кўплаб ижтимоий ҳайрли ишларни амалга оширди, мамлакат тараққиётига жиддий таъсир кўрсатди. Тарқоқлик ва парокандаликка, ўзаро ички низо, қирғинларга барҳам бериб, вилоятларни бирлаштирди, марказлашган давлатни мустаҳкамлаш ва юртни ободонлаштиришга, илму ҳунар ва деҳқончиликни ривожлантиришга катта эътибор қаратди. Қурилиш-ободонлаштириш ишларига ҳам бошчилик қилди.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур давлат бошқарувида мамлакат аҳолисини қайси дин вакили бўлишидан қатъий назар тенг ҳуқуқли эканлигига ва виждон эркинлиги тамойилларига амал қилган ҳолда бошқариш зарур эканлигини тушуниб етган. Чунки, диний бағрикенглик ва миллатлараро тотувлик давлат бошқарувида муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади. Ҳукмрон доираларнинг эътиқоди бўлмиш диний масалалари (шариат қоидалари) ҳамда раиятнинг сезиларли қисмини ислом динига эътиқод қилувчи

мусулмонлар ташкил этарди. Лекин бошқа дин вакилларининг ҳам давлат бошқарувида иштироки ва муносабатлари инобатга олинар эди.

Хулоса қилиб айтганда, Бобур ва бобурийлар давлат бошқарувига доир қарашларини шаклланиши унинг асосий хусусиятларига – органик яхлитлиги, тизимийлиги, қадриятлар, унда яшашнинг умумий йўллари учун зарурий асосда қанчалик бирлаша олганлиги билан ифодаланади. Унинг асосий белгиси сифатида *биринчидан,* тарихий географик ҳудудда вужудга келган аҳолининг урф-одатлари ва миллий қадриятлари; *иккинчидан,* ҳудуднинг геосиёсий хусусиятлари; *учинчидан,* жамиятда ташкил топган индивидлар фаолиятининг маълум бир усул ва анъаналари; *тўртинчидан,* ижтимоий-иқтисодий муносабатларнинг тартибга солинганлиги; *бешинчидан,* диний қадриятлар ва миллий маданиятнинг умумийлиги; *олтинчидан,* ҳокимият ва бошқарувнинг либераллиги каби хусусиятларини келтиришимиз мумкин. Бу эса, ҳозир ҳам давлат бошқарувида илмий билиш шакли сифатидаги жамиятнинг амалий ва назарий манфаатлари нуқтаи назардан ўзини намоён этади.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати.

1. Абу Ҳомид Муҳаммад ал-Ғаззолий. //Ёшлик. 1990. №6.
2. Ғофуржон Сатимов. Бобурийзодалар. Тарихий-маърифий рисола. Тошкент, “Шарқ”. 2016
3. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. Тошкент, Янги аср авлоди. 2016.
4. Ғофуржон Сатимов Бобурийлар салтанатида давлат бошқаруви. Тошкент. Ўзбекистон, 2017.
5. S Yuldashev (2020) International Journal of Progressive Sciences and Technologies. Socio-Cultural Technologies in Uzbekistan: History and Now. 1/19. 171-173.

SHARQ TAMADDUNI – ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR HAYOTI MISOLIDA

Yunusov D.B.
Milliy gvardiya Harbiy-texnik instituti ofitseri,
Sayfiddinov A.A.
Milliy gvardiya Harbiy-texnik instituti kursanti

“Mirzo Boburning Hindistondagi qudrati uning bosib olgan yerlari bilan emas, u hind xalqining ko‘nglida uyg‘ota olgan hurmat-ehtiromi bilan o‘lchanadi”

Qamar Rais

Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarini mutolaa qilar ekanmmiz, o‘lkamizning daryo va ko‘llariga oid ma’lumotlar juda ko‘p, daryolarning chuqurligi, muzlashi, suv sarfi va manbalari asarda batafsil ta’riflangan. Bobur XVI asr boshidayoq Osiyo qit’asidagi Hindukush va Himolay tog‘lari shimol va janub daryolari suvini ajratuvchi tog‘lar ekanini ko‘rsatgan bo‘lib, u zamonamizning yuksak ijodkori, yangilikka intiluvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi, qayerda bo‘lmasin bunyodkorlik bilan shug‘ullanganiga guvoh bo‘lish mumkin, ayniqsa Afg‘oniston va Hindistonda amalga oshirgan ishlarining adog‘i yo‘q. Bobur bu o‘lkalarning

madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan. Avvalo, davlatchilik va ijtimoiy boshqaruvni qaror toptirishga, obodonchilik ishlarini avj oldirishga, harbiy tuzilmani isloh etish, bu sohaga ham yangiliklar kiritishga intilgan. O‘zining qisqa, 47-yillik umri hisobsiz jang-u jadallarda o‘tgan Bobur o‘sha davr sultoni, shoh vazifasini ado etib, yana biz avlodlarga bebaho «Aruz risolasi»dek ilmiy asar, she’riy devon, din aqidalariga oid ganjinalar qoldirgan. Biron-bir yangilikka qo‘l urishdan oldin bu ish jamiyat va saltanat manfaatiga qanchalik xizmat qilishini har tomonlama o‘ylab ko‘rgan bunday shohlar tarixda juda ham kam uchraydi, masalan: Hindistonga kelgan kezlarida dastlab bir ibodat xonaga kirib, butlarni sindirib bog‘ yaratishga amr beradi va ko‘p o‘tmay bu harakati mahalliy aholi noroziligiga sabab bo‘lishini tushunib ishni to‘xtatadi bu esa uning qanchalar zukko ekanligidan dalolat beradi.

Farzandlariga maktub va vasiyatlarida diniy, irqiy va ma’naviy qadriyatlarga zid harakatlarni qilmaslik, diniy bag‘rikenglik bilan ish yurgizish zarurligini alohida ta’kidlaydi.

Komronga yozgan maktubida bunday deydi: «Farzandi arshad va arjumandi saodatnishon Muhammad Komron Mirzo bahodirga salomi muhabbat anjomidan so‘ng ulkim, ko‘kaltosh va ichkilaring bila sabaq o‘qurg‘a ruju’ kelturub ermishsen. Bu jihattin ko‘ngulga surur va xotirga huzur etib na bisyor xushholliq yuz berdi. Tangri taolo dargohidin umidim borkim, jami’i qobiliyat va salohiyat bobida komil va mukammal bo‘lub kamolg‘a yetgaysen».

Humoyunga yozgan maktubidan: «Yana men degandek bu xatlaringni bitibsen va o‘qumaysen, ne uchun kim, agar o‘qur xayol qilsang edi, o‘qiy olmas eding. O‘qiy olmagandin so‘ng albatta tag‘ir berur eding. Xatingni xud tashvish bila o‘qisa bo‘ladur, vale asru mug‘laqtur... Xatingni xud har tavr qilib o‘qusa bo‘lodur, vale bu mug‘laq alfozingdin maqsud tamom mafhum bo‘lmaydur. G‘oliban xat biturda kohillig‘ing ham ushbu jihattindur. Takalluf qilay deysen, ul jihattin mug‘laq bo‘ladur. Bundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila bitiy. Ham senga tashvish ozroq bo‘lur va ham o‘quvg‘uchig‘a...». Humoyunga yozgan maktubida Boburning naqadar bag‘rikeng bunyodkor shohligiga guvoh bo‘lamiz. Hindistonda turib yozgan bu maktubida u o‘zining juda keng saltanatiga bir xilda qaragan: bunyodkorlik ishlari xoh Movarounnahr, xoh Xuroson va Afg‘oniston yoki Hindiston o‘lkasida bo‘lsin, ularning barchasini bir ko‘rib, bir xilda qayg‘urgan. Maktubni Bobur umrining oxirlarida, surunkali betob paytida yozganini eslasak, shu holatda ham uning yurak dardi, saltanat shuhrati va obodonchilik uchun kuyib-yonganini ko‘ramiz: “Korvonsaroy va hammomlarning marammati, yana arkda Ustod Hasan Ali qilg‘on pishiq xisht bila nimkora imoratning itmomi, bu imoratni Ustod Sulton Muhammad bila mashvarat qilib, munosib tarh bila buyurulsun. Agar Ustod Hasan Ali tortqon burung‘i tarh bordur, xud o‘shandoq — o‘q tamom qilsun, yo‘q ersa, ittifoq bila bir shirin tarxliq imorat solsun. Andoqkim, sahni devonxona sahni bila barobar bo‘lg‘ay. Yana Xurd Kobulning bandikim, tangining Xurd Kobul sari chiqarida Buthoq suyig‘a bog‘lag‘uluqtur. Yana G‘aznining bandining marammati, yana Bog‘i Xiyobon va xiyobon. Yana bu bog‘ning suyi ozdur, munga bir tegirmon suyi sotqun olib, kelturmak kerak. Yana Xoja Bastaning g‘arbi-janub tarafida Tutum dara suvini bir pushta ustiga kelturub, havz qilib, nihollar tikturub edim…”[1.277B].

Ko‘rinib turibdiki, Bobur farzandlarining diyonatli, ilm-fazilatli bo‘lib o‘sishi uchun ularga kitob tanlab yuborish, ularning o‘rganishi uchun kitoblar yozishni otalik va podshohlik burchi deb hisoblagan, ularni o‘qish-o‘rganishga targ‘ib qilib, imlo va insho xatolarini to‘g‘rilab bexato, sodda, ravon va betakalluf yozishga chorlagan. Albatta, Boburning bunday sa’y-harakatlari zoye ketmadi, uning to‘rtala o‘g‘li, qizi, nabiralari va ularning farzandlari ilmu san’at, she’ru adabiyotda nom qozondilar. Boburiylar sulolasidan ko‘p sohibdevon shoirlar, tarixchilar, faqhlar, diniy va dunyoviy olimlarning ismini tazkiralardan keltirish mumkin.

Matndagi bir jihatga e’tiboringizni qaratmoqchiman: Bobur o‘zi yaratgan inshootlaridan, Hindistonga olib kirgan sivilizatsiyasidan mamnun bo‘lmoqda, yaratgan ansamblning muhandislik xususiyati, chiroyi uning o‘zini ham maftun etmoqda. Bu lahzalar Bobur umr daftarining eng lazzatli damlaridan biri bo‘lsa ajab emas. “Boburnoma”dagi ko‘plab misollar sivilizatsiyaga o‘ta moyil bunyodkor inson – faqat shoh Boburni emas, tom ma’nodagi muhandis Boburni, yaratilayotgan inshootining chinakam jonkuyarini ko‘z oldimizda gavdalantiradi. Quyidagi parchadan yaratuvchilik ishidan mamnun, har bir qo‘yilayotgan g‘isht, toshdan hayot zavqini tuygan kishining holatini sezamiz: “Tonglasig‘a buyurulg‘on erlarni yurub sayr qildim. Yakpora toshda buyurulg‘on kaylador havzning yuzini bir martaba tamom ko‘tarmaydurlar edi, buyuruldikim, sangtaroshlar ko‘prak kelib, bir martaba, havzning tubini durustroq olsunlarkim, suv quyib, atrofini tarozu qilsa bo‘lg‘ay. Kech namozi digar havzning bir martaba yuzini tamom oldilar. Buyurdimkim suv to‘ldirdilar. Atrofini suv bila tarozu qilib, hamvor qilmoqqa mashg‘ul bo‘ldilar. Bu navbat yana bir obxona buyurdimkim, erini yakpora toshdin tarosh qilg‘aylar, ichidagi kichik havzni ham yakpora toshdin qozg‘oylar”[2.240B].

Bobur Movarounnahrda, Hindiston va Afg‘onistonda faqat qurilish va obodonchilik bilan shug‘ullanmagan, balki tub islohot ishlarini ham olib borgan. XV — XVI asrda, undan oldin ham savdo-sotiq munosabatlari, davlatlararo bordi-keldilarning xavfsizligini ta’minlash eng katta muammo hisoblangan. Karvon yo‘llari qulay yurtning iqtisodiy ahvoli yaxshi, xalqining tinchligi barqaror bo‘lgan. Aytish joizki, Amir Temur saltanatida bu mezon o‘rniga qo‘yilgan, biroq Sohibqiron vafotidan keyin uning qalamravidan chet yerlarda qaroqchilik hollari uchrab turgan. Ana shu masalani tubdan isloh qilish, tasarrufidagi yerlarda osoyishtalikni saqlash uchun Bobur Kobul – Ningnahor yo‘lining xavfsizligini ta’minlashni asosiy vazifa deb biladi. Keyinchalik bu ishni butun Hindiston hududida ham joriy etadi. “Bu orada ma’mura yo‘q edi”, – deydi Bobur. Demak, Kobul – Ningnahor yo‘lining jo‘g‘rofiy sharoiti qiyinligi boshboshdoqlikka sabab bo‘lgan. Shu yo‘lning eng og‘ir qismida tartib o‘rnatganini, osoyishtalikni qaror toptirganini inobatga olsak, Boburning sa’y-harakatlari nechog‘li ulkan ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etganini ko‘ramiz: “Kobuldin sharq sari o‘n uch yig‘och yo‘ldur. Ningnahor bila Kobul orasi asru qattiq yomon yo‘ldur. Uch-to‘rt erda kichikrak-kichikrak ko‘tallari, ikki-uch erda tangilari bor. Xiridji va jami’ quttout-tariq afg‘onlardur. Bu yo‘lni ururlar edi. Bu orada ma’mura yo‘q edi. Qo‘riqsoyning oyog‘i Qoratuni men ma’mura qildurdim. Bu jihatdin er emin bo‘ldi”[3.212B].

Afg‘onistonning G‘azna tumani mamlakatning eng yirik viloyatlaridan bo‘lib, unda tarixiy obidalar, islomgacha bo‘lgan Budda madaniy yodgorliklari talaygina. Jumladan, Sulton Mahmud G‘aznaviy maqbarasi, g‘aznaviylar saroyi qoldiqlari hozirgacha saqlangan. Shu bilan birga, bu yerda Mahmud G‘aznaviy farmoni bilan katta suv to‘g‘oni qurilgan. To‘g‘on Chingizxon istilosi davrida buzib tashlangan. Zahiriddin Muhammad Bobur G‘aznada bo‘lganida bu to‘g‘onning holatini ko‘rib, uni qayta qurishga amr beradi: “Sulton (Mahmud) zamonida uch to‘rt band bor ekandur, bir band ushbu G‘azni suyida, G‘aznidin shimol sari uch yog‘och suv yuqqori Sulton bir ulug‘ bande solibtur, bu bandning balandlig‘i qirq-ellik qari bo‘lg‘ay, uzunligi taxminan uch yuz qari bo‘lg‘ay, suvni anda zahira qilib, baqadri ehtiyoj ekinga suv ocharlar erkandur, Hindustonni fath qilg‘on yil bu bandni yasamoq uchun Xoja Kalondin yarmoq yuborildi. Tengri inoyatidin umid borkim, bu band obodon bo‘lg‘ay”, bizning o‘lkadan borgan maxsus ekspiditsiyachilarimizga mahalliy aholi Bobur davrida ana shu to‘g‘onda jiddiy ta’mir ishlari olib borilganini, shundan so‘ng o‘nlab yillar davomida qaqrab yotgan yerlarga suv chiqqanini gapirib berganliklar. Hatto bandi Sultonning qaysi qismi o‘sha davrda Bobur amri bilan ta’mirlanganini mahalliy muhandis ularga aniq ko‘rsatgan ekan. Bu oddiy xalqning Boburga bo‘lgan ehtiromining ramzi emasmi axir Hindistonni tasarrufiga kiritgan Bobur, birinchi galda, bu yurtning arxitekturasiga, obidalari,

butxona va muqaddas binolariga e’tiborini qaratadi, uni Movarounnahr va Xuroson obidalari bilan solishtiradi, ijobiy tomonlarini zikr etish bilan birga ularga tanqidiy yondoshadi. Xususan, Gvaliyardagi imoratlar bilan qiziqib, ichiga kirib tomosha qiladi: «Man Singning va Bikramajitning imoratlarini tamom yurub, sayr qildim, g‘arib imoratlardur. Agarchi bo‘luk-bo‘luk va besiyoqdur, tamom sangi taroshidadindur. Agarchi hindustoniy takalluflar qilibturlar, vale behavoroq erlardur». Boburga Hind arxitekturasi hamma vaqt ham ma’qul bo‘lmagan. Shu bois, u Hindistonda o‘z yurti Movarounnahrni eslatib turadigan koshonalarni yaratishga kirishadi, ularni qurishga amr beradi. Ushbu misol fikrimizga dalildir. Rahimdod ismli shaxs hind elida qurgan “kichikroq tolorg‘ina” – kichik ayvon va bog‘cha Boburga o‘zi tug‘ilib o‘sgan Movarounnahrni eslatadi. Zero, bu imorat aynan Bikramajitning beso‘naqay imoratlarining yonginasida, go‘yo taqqoslash uchun bunyod etilgandek: “…Ushbu ulug‘ gumbazning ustida Rahimdod bir kichikrak tolorg‘ina qilibtur. Rahimdod ushbu Bikramajitning imoratlarida o‘lturubtur. Bu imoratlarni sayr qilib, otlanib Rahimdod solg‘on madrasani kezib, qo‘rg‘onning janubiy tarafida bir uluq havzning yoqasida Rahimdod solg‘on bog‘chani tafarruj qilib, kech o‘rdu tushgan chorboqqa kelduk. Bu bog‘chada xeyli gullar tikibtur. Xushrang qizil kaneyr bog‘chada xeyli bor. Bu yerlarning kaneyri qip-qizil xushrang kaneyrlardur. Bir pora qizil kaneyrni Gvaleyardin Agra bog‘lariga kelturub ektirdum”[4.464B].

Bobur Hindistonni o‘z tasarrufiga kiritgach, birinchi navbatda, Xuroson, Afg‘oniston va Movarounnahr bilan aloqani tiklash, ma’lumot va xabarlarni imkon qadar tezlikda yetkazishni o‘ylaydi, aloqa xizmatini yo‘lga qo‘yishga jazm etadi. “Boburnoma”dagi so‘zlardan iqtibos keltirsak: “Har to‘qqiz kuruh manor qo‘porg‘aylarkim, manorning balandlig‘i o‘n ikki qari bo‘lg‘ay. Ustida bir chordara qo‘porg‘aylar. Har o‘n sekkiz kuruhda olti yom oti bog‘lag‘aylar. Yomchi va sayisg‘a ulufa va otlarg‘a aliq ta’yin bo‘lg‘ay. Andoq farmon bo‘ldikim, bu yom oti bog‘latur er agar bir xolisag‘a yovuq bo‘lsa, bu mazkur bo‘lg‘onlarni andin saranjom qilsunlar, yo‘q ersa, har bekning parganasiga voqi’ bo‘lsa aning uhdasiga qilsunlar. Ushbu kun Chaqmoq bila Shohiy Agradin chiqtilar. Bu kuruhlarni mil bila muvofiq ta’yin qilildi[5.96B].

Yuqoridagi parchadan Boburning Sharqda mavjud bo‘lmagan aloqa tizimini ishlab chiqqanini ko‘ramiz. Bunda o‘sha davrdayoq aloqaning barcha jihatlari: ma’lum masofada qancha va qaysi sifatdagi otlar bog‘lanib, parvarishlanishi, ularning ozuqasi, ot boqarlar, ularga sarflanadigan sarf-xarajatlar miqdori nazarda tutilgan. Xarajatlar Boburning hukmronligi ostidagi hududda bo‘lsa o‘sha joyning beklari hisobidan, agar o‘zga hududda bo‘lsa haq to‘lash yo‘li bilan amalga oshirilishigacha inobatga olingan. O‘sha davrda uzoq masofa asosan “kuruh” o‘lchovi bilan belgilangan. Bobur Hindistondaligi bois “bu kuruhlarni mil bila muvofiq ta’yin qilildi”[6.288B], deydi. Shuning o‘zi ham mahalliy sharoitga moslashish, u yerda qabul qilingan umumiy o‘lchovlardan foydalanish – zulm orqali o‘z tartibini o‘rnatmaslik siyosatini olib borgani Boburning oliy himmatligidan dalolat beradi. Bobur tomonidan Hindistonda masofani o‘lchash, xazina miqdorini belgilashda qulay, o‘ziga xos arifmetik atama va hisoblash uslubi yangilik sifatida kiritilgan, jang taktikasiga oid ko‘plab atamalar joriy etilganki, bularning barchasini o‘rganish bugungi avlodlarni qadim ma’naviyatimiz yutuqlaridan xabardor etishi, odamda yuksak iftixor hissini uyg‘otadi. Masalan, Bobur Afg‘onistonda o‘z saltanatini barqaror etarkan, askarlarga amr va farmonlarni aniq, mazmunli yetib borishi uchun juda ko‘p afg‘oncha, arabcha amr so‘zlarini turkchaga o‘zgartiradi. Buni Boburning o‘zi katta bunyodkorlik deb biladi. Bugungi armiyamizda ham ularni qo‘llay boshlashimizni mustaqillik yillaridagi qadriyatlarimizga yuksak ehtirom sifatida qabul qilish mumkin.

Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonda Movarounnahrni eslatuvchi har qanday yangilikka astoydil qo‘l urgan, uni amalga oshirishga harakat qilgan. Bu ishlarni uning oddiy havasi, desak

yanglishamiz. Ular Vatanga bo‘lgan yuksak ehtiromning, muhimi kelajakka umid bilan qarab ish tutishning Bobur qalbida hamisha g‘olib bo‘lganini ko‘rsatadi. Quyidagi misolga nazar solaylik: u Movarounnahrda o‘sadigan, biroq Hindistonda bo‘lmagan daraxt, poliz va bog‘dorchilikka oid nabototni yangilik sifatida joriy etib, xursand bo‘lganini oshkora bayon etadi, bu yutuqlarni intilishlarining mevasi deb biladi: “Balxiy polizkorni qovun ekkali qo‘yulub edi. Bir necha qovun saxlag‘on ekandur, kelturdi. Xeyli yaxshig‘ina qovunlar edi. Bir ikki buta tok “Hasht behisht” bog‘ida yekturub edim, aning ham yaxshig‘ina uzumlari bo‘lub edi. Shayx Guran ham bir sabad uzum yiborib edi, yomon emas edi. Hindustonda qovun, uzumning muncha bo‘luridin filjumla xursandlig‘e bo‘ldi”[7.413].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, barcha zamonlarda Zahiriddin Muhammad Boburning bunyodkorligi, diniy bag‘rikengligi va obodonchiliklari hamda sivilizatsiyani olib kirishi mahalliy aholi tomonidan nafaqat Zahiriddin Muhammad Bobur balkim ‘‘Boburiylar” sulolasining e’zozlanishiga olib kelgan. Qurilgan muhtasham imoratlar, ravon yo‘llar asrlar o‘tib o‘sha davr sarvarining ezgu niyatlari, chekkan tashvishlar va orzu umidlaridan dalolat berib turgan, insoniyat tomonidan qadrlangan Zahiriddin Muhammad Bobur, shubhasiz, shunday yuksak ardoqqa loyiq. Uning bunyodkorligi hayot paytidayoq unga mislsiz shuhrat keltirgan edi. Bugungi kunda esa, bu ezgu ishlar yanada salobat, ko‘rkamlik kasb etib, Sharq tamaddunining iftixoriga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Atoulloh Husayniy. Badoye’-us-sanoye’ / Forschadan A. Rustamov tarjimasi. – T.: Adabiyot va san’at, 1981.277 b
2. Musulmankulov R. Persidsko-tadjikskaya klassicheskaya poetika (X-XV vv.) – M.: Nauka, 1989. – 240 s.
3. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-balog‘a. – T.: Xazina, 1996. – 212 b.
4. Shamsi Qaysi Roziy. Al-mo‘jam. – Dushanbe: Adib, 1991. – 464 s.
5. Hasanov S. Bobirning “Aruz risolasi” asari. – T.: Fan, 1981. – 96 b.
6. Hojiahmedov A. Navoiy aruzi nafosati. – T.: Fan, 2006. – 288 b.
7. Bobir Zahiriddin. Muxtasar / Nashrga tayyorlovchi S. Hasanov. – T.: Fan, 1971. – 413 b.

ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУРНИНГ ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА МАДАНИЙ СОҲАДА АМАЛГА ОШИРГАН УЛКАН ИСЛОҲОТЛАРИ

Ғаниев Б.С. (PhD), доцент, **Ғаниев А.Б.** талаба
Фарғона давлат университети

Буюк мутафаккир, шоир, давлат арбоби Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг илмий-фалсафий мероси, халқимиз тарихида алоҳида ўрин эгаллайди ва Ўрта Осиё халқларининг маданий ва маънавий мероси хисобланади. Унинг илмий, насрий ва сиёсий ижоди ҳамда қарашлари мазкур минтақанинг Ўрта аср илмий-фалсафий тафаккури ва маънавий маданияти ривожида муҳим аҳамият касб етади. Буюк саркарда, олим, файласуф, давлат қуришнинг моҳир ташкилотчиси Заҳириддин Муҳаммад Бобур инсоният тарихидаги енг йирик империялардан бирини қуришга муваффақ бўлди. Ўрта асрларда Ҳиндистон ҳудудида, Бобурийлар империяси номи билан машҳур марказлашган давлат ташкил топтирди. Бобур нафақат шоир, олим еди: у ҳукмдор сифатида нафақат тижорат, балки ишлаб чиқариш кучларини ривожлантириш, мамлакатининг мудофааси ва сиёсий, иқтисодий, ижтимоий-маданий соҳаларнинг қадриятларини мустаҳкамлаш тарафдори еди. Муваффақиятли савдо, тижорат ва хунармандчилик фаолияти, мақсадли, мослашувчан ижтимоий-иқтисодий ички

сиёсат, инсон интеллектуал ресурсларини самарали сафарбар қилиш натижасида у ички ва диний урушларни тўхтатишга муваффақ бўлди, шунинг учун мазкур мамлакат тарихида янги босқичнинг бошланиши, иқтисодиёт ва маданият юқори юксалиши билан белгиланган. Таниқли Ҳинд сиёсий давлат арбоби Жавоҳарлал Неру шундай ёзган еди: “Бобур дилбар шахс, Уйғониш даврининг типик ҳукмдори, Жасур, уддабурон инсон еди, у санъатни, адабиётни севарди, ҳаётдан завқланишни севарди...” [4, 371].

Янги давлат қуриш жараёнида у узоқни кўзлаган сиёсатчи, стратег сифатида намоён бўлади, мамлакат хавфсизлиги ва тараққиётини таъминлашда маданий-иқтисодий механизмнинг ролини, жамиятдаги ижтимоий барқарорликни таркиб топишига эришади. Бобур Ўрта асрлар тарихида чексиз жасорат билан истеъдодли сиёсатчи, давлат механизми ижтимоий-иқтисодий ва ҳарбий бошқарув асослари бўйича мутахассис сифатида майдонга тушди. Бобурнинг ҳукмдорлик даврида шаҳарлар инфратузилмасини ривожлантириш, халқаро савдо алоқаларини яхшилаш, жумладан, Буюк Ипак йўлининг ҳозирги Ҳиндистон ва Афғонистонда ишлаб чиқилган, етиштирган маҳсулотларини муваффақиятли савдоси учун кўп ишлар қилишга муваффақ бўлди. Унинг ҳукмронлиги остидаги тинчликсевар ички сиёсат натижасида карвонсаройлар, чакана савдо шохобчалари, шаҳар бозорлари, кутубхона ва мадрасалар қурилиши мамлакатда кенг ёйилди. У ўз атрофида ижод муҳитини яратиб, Уйғониш даврининг буюк олимлари, шоирлари ва санъаткорларини бирлаштирди. Аграда Ўрта асрларда Ўрта Осиё, Афғонистон ва Ҳиндистонда истиқомат қилган халқларнинг тарихи, географияси, сиёсати, иқтисодиёти ва ижтимоий ҳаёти ҳақида атрофлича маълумот берган машҳур Бобурнинг ҳақиқий дурдона асари ҳисобланмиш - “Бобурнома” нашр етилди. “Ўз кундалигида ўзи гувоҳ бўлган ва иштирок етган йирик ва кичик воқеаларни ёзиб қолдирган Бобур бизга ўз Ватани ва хорижий мамлакатлар ҳаёти, урф-одатлари, турмуши, табиати, олиб борилган жангу-жадалларнинг батафсил баёнини, аниқ кузатувларини қолдирган. “Бобурнома” ҳозиржавоб гаплар ва кутилмаган қиёслар, аниқ хусусиятлар ва нозик гапларга бой бўлиб, инсон қалби ва умуман атроф-оламни чуқур билишини кўрсатиб беради. Табиатни ардоқловчи ва аждодлари маданий меросининг билимдони Бобур бажонидил ўзига ёққан гул ва дарахтларнинг таърифларида яшайди, гўштларининг таъмини эслатишни унутмаган ҳолда ов қилиши керак бўлган ғаройиб ҳайвонлар ҳақида батафсил ҳикоя қилади.” [1,8] Бобур ижодида Она-юрти, унинг тоғлари, ер ва сув ресурслари мавзуси, ўсимлик ва ҳайвонот дунёсининг бетакрор гўзаллиги тарифлашга алоҳида аҳамият беради. У шахснинг шаклланишида Ватан туйғуси, оила, яқинларнинг ролини алоҳида таъкидлайди. Бобур қуйдагича таърифлайди: “Фарғона вилоятини ўраб турган тоғларда яхши летовки бор; бу тоғларда табулгу дарахт бор; бошқа ҳеч қаерда йўқ. Табулгу-қизил пўстлоқли дарахт, бу дарахтдан ставенлар ясайдилар, қамчилар дасталарини кесиб, қушлар учун қафас ясайдилар. Дарахтдан туксиз ўқлар ясайдилар. Бу жуда яхши дарахт. Узоқ жойларга олиб кетилади.” [1,17] Унинг шеъриятида Ватанга бўлган соғинч ва унга чексиз муҳаббат, миллий анъаналарга, фолклор, адабиёт ва санъатга бўлган ҳурмати ўз ифодасини топган.

Джаваҳарлар Неру ҳам қуйдагиларни таъкидлаган: “Бобур Ҳиндистондаги ҳаёти давомида қорларни интизор ва Шимолий тоғларнинг музликлари, гўшт таомлари, Фарғонанинг гуллари ва мевалари учун бетакрорлигини таъкидлайди, лекин у Ҳиндистоннинг ғоятда гўзал мамлакат эканлигини айтади.” [4,371] Бобур ўз “қайдлар”ида Ватанига қайтиш истагини тилга олмаса-да, бу истак борлигига шак-шубҳа йўқ эди. Шундай қилиб, 1528-йилда Кобулда Хожа Калонга йўллаган мактубида шундай деб ёзган еди: “...менинг у жойларга бориш истагим чексиз ва ҳадсиздир. Ҳиндистондаги ҳолатлар қандайдир тарзда ўзларини саралай бошлайди... Худонинг ёрдами билан бу масалаларни

тартибга солиш учун кечиктирмасдан Кобулга кўчиб ўтамиз.” [2,409] Бироқ Бобур ҳеч қачон ўз орзусини амалга ошира олмаган. Бобурнинг қизи Гулбадан Бегим “Ҳумоюннома” китобида отаси ҳаётининг сўнгги ойлари ҳақида анча батафсил маълумот қолдирган. Бобур Ҳумоюннинг оғир касал ўғлини қутқарар экан, маҳаллий халқлар маросимга кўра, Ҳумоюннинг хасталигини эгаллаб олаётганини айтиб, уч марта касалманд одамнинг каравоти атрофида юрди. Кўп ўтмай Ҳумоюн тузала бошлади ва Бобур хасталаниб, касалланиб, уч ойдан сўнг вафот етди. Бу Бобур вафотининг романтик версияси бўлиб, унинг қизи томонидан авлодларга қолдирилган.” [3,13]

Асарларда шоирнинг бетакрор шеъриятида инсон ахлоқи ва маънавий камолотининг фалсафий масалаларига тўхталиб ўтилади. Буюк мутафаккир олийжанобликни, одамлар ўртасидаги дўстликни, ўз ишига фидойиликни, инсоннинг идеаллари ва ижодий имкониятларига содиқликни улуғлайди, фидокорона меҳнат қилишга катта ҳурмат билан қарайди, инсон қадр-қимматини юксак қадрлайди. Бобур ўз асарларида эгоизм, очкўзлик, сотқинлик, шуҳратпарастлик каби - шахсни тубанликка йўлиқтирувчи салбий хислатларни танқид қилади. Одамларга, ёш авлодга самимий маслаҳатлар беради. Мутафаккирнинг ижтимоий-фалсафий меросида шахсда гуманистик хусусиятларни шакллантириш зарурлиги, инсоннинг маънавий-ахлоқий сифатларини қандай ўстириш кераклиги ҳақида қарашлар мавжуд.

Бобур марказлашган давлат тузиш чораларини кўриб, ижтимоий-иқтисодий барқарорлик ва фаровонликни таъминлайди. У инсониятга бой адабий ва илмий-фалсафий мерос қолдирди, жаҳон адабиёти ривожига улкан ҳисса қўшди. “Хаттот-и Бобурий” алифбоси, “Аруз рисоласи” рисоласи, Ислом динига оид “Мубайин” китоби, Хожа Аҳрорнинг “Рисолаи Волидия” фалсафий ва тасаввуфий асарининг таржимаси ва бошқа шеърият, мусиқа ва ҳарбий ишлар ҳақидаги илмий, фалсафий ва бадиий асарларини тилга олиш мумкин. Бобур солиқ тизими тамойилларини белгилаб берган, ҳар бир солиқнинг ундирилиш тартиби ва миқдорини белгилаб берган, солиқларни ундириш бўйича қимматли йўл-йўриқ манбаи бўлган “Мубайин” китобининг муаллифидир. Ноёб қомусий, “Бобурнома” асари ҳамон бутун дунёда илм аҳлида катта қизиқиш уйғотмоқда.

“Бобурнома”да табиат ва инсон гўзаллиги олқишламоқда, комил шахснинг ахлоқий фазилатлари, муаллиф холисона ҳаракати орқали Ўрта асрларда рўй берган тарихий воқеалар хроникасини ёритишда, зўравонлик ва иккиюзламачиликка йўл қўймади. Бобур донишманд олим, санъат ҳомийси сифатида намоён бўлади, тарихий шахслар фаолиятига баҳо бериш учун ўз даврининг энг илғор қарашларини холисона биладиган, фан ва санъат аҳли ижодининг билимдони ҳисобланган. “Бобурнома” Ўрта Осиё ва Ҳиндистон мамлакатларининг сиёсий ва иқтисодий тузилиши, табиати, фан ва маданияти, бу халқларнинг ҳаёти ва тили ҳақида кўплаб маълумотларни ўз ичига олади, замондошлари, давлат арбоблари, рассомлар, мусаввирлар, тарихчиларнинг оғзаки портретларини беради. Ўрта Осиё шаҳарларининг минерал ресурслари ҳақидаги маълумотлар ғоят қимматлидир ва уларнинг мамлакат иқтисодий ҳаётидаги аҳамияти эътироф этилган. “Бу тоғларда Туркуаз пласерс ва темир конлари бор. Фарғона вилоятининг даромадлари, агар адолат кузатилса, уч-тўрт минг аскарни қўллаб-қувватлаши мумкин.” [1,18]

Бобур Самарқанд ҳақида катта муҳаббат ва ҳайрат билан ёзади, Улуғбек расадхонасининг таърифини беради, бу иншоотнинг мукаммаллигини қайд этади. Энг муҳими, муаллиф ўз кузатишларини йиғиб, баён қилибгина қолмай, балки уларни умумлаштириб, кўрганларига аниқ таъриф беради. Бобур қуйдагиларни ёзади: “Улуғбек Мирзо бу расадхонада “Юлдузлар жадваллари”ни ёзиб, ҳозирда у бутун дунёда

ишлатилмоқда.” [2,61] “Бобурнома” ўша давр солномачилари томонидан тузилган ҳар қандай тарихий солномадан юқори туради, шунинг учун ҳам муаллиф умри давомида асари олимлар ўртасида катта қизиқиш уйғотгани ва XIX асрдан бошлаб бутун дунё олимларининг диққат марказида тургани бежиз емас.

“Бобурнома” Ўрта Осиё, Афғонистон ва Ҳиндистонда яшаб, ўз шеърларини форс ва ўзбек тилларида ёзган ўша даврдаги кўплаб шоирларнинг таржимаи ҳоллари ҳақида кўплаб маълумотларни ўз ичига олади. Китобда давлат арбоблари, шоирлар, рассомлар ва мусиқачиларнинг кўплаб оғзаки портретлари мавжуд. Буюк шоир, мутафаккир Алишер Навоий ижодий портретининг тавсифи жуда қимматлидир. Бобур таъкидлаганидек, Алишер Навоий нафақат истеъдодли шоир ва олим, балки нозик сиёсат арбоби, ўз даврининг илм-фан ва маданият ҳомийси ҳисобланади.

Ҳаёти ва ижоди эзгулик, инсонпарварлик ва бунёдкорлик тантанасига бағишланган Бобур илмий-фалсафий меросининг тарихий, маърифий ва тарбиявий аҳамияти ниҳоятда каттадир. Шунингдек, бугунги кунгача хизмат қилади, комил шахснинг ижтимоий-иқтисодий фаолиятини такомиллаштириш бўйича услубий манба, ёшлар тарбиясида муҳим ўрин тутади. Бобур ўз асарида ҳақиқий, ижодкор шахсни мадҳ етишни биринчи ўринга қўяди, уни улуғлайди, шаъни ва қадр-қимматини юксак қадрлашга чақиради. Бобурнинг вафотидан тўрт асрдан кўпроқ вақт ўтган бўлса-да, Уни: буюк мутафаккир, тарихчи, файласуф, этнограф, истеъдодли шоир, маҳоратли саркарда ва давлат арбоби каби хислатлари инсоният тарихида боқий муҳрлангандир. “Инсониятнинг хотираси иқтисодий; пайдо бўлган тасвирлар, номлар ва ишларнинг кўплиги кейинчалик фақат ҳаёт учун муҳим ва зарур бўлган нарсаларни сақлайди. Бу ишонч билан умумлаштиради, баъзи тўғри инстинкт кўра, мустаҳкам зарур пайтда зарур сақлаш, ва унутиш тез оқувчи дарё ичига аҳлат каби бошқа ҳамма нарсани супуриб ташледи.” [5,3]

Шундай қилиб, хулоса сифатида биз ижтимоий-фалсафий Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг қарашлари, унинг кўп қиррали шахс эканлигидан далолат беради, жумладан: йирик давлат арбоби, саркарда, истеъдодли олим, буюк шоир, буюк санъат билимдони ва ҳомийсидир. Буюк алломанинг ижтимоий-фалсафий фикрлари, ижоди ва адабий мероси ҳали-ҳанузгача ёш авлод учун тарбиявий вазифани ўтайди. Заҳириддин Муҳаммад Бобур асарларида куйланган эзгулик ва инсонийлик ғоялари асрлар давомида ўз қадр-қимматини ва аҳамиятини йўқотмаган ва Ўзбекистон тараққиётининг Янги босқичида мамлакатимизда рўй бераётган улкан ўзгаришларга жуда мос келган. “Агар бу ҳаётда яхшилик қилмасанг, нега яшайсан?” номли шиор бугунги “Бобурнома”нинг ўқувчисига айрича сўз бўлиб хизмат қилади.

Адабиётлар:

1. Захриддин Бабур. Бабур-наме. / пер. М. Сале. – Баку : Нагыл-Еви, 2011.
2. Захриддин Бабур. Бабур-наме. / пер. М. Салье. – Ташкент, 1958.
3. Захириддин Бабур и его труд «Бабур-наме». – Ташкент : Энциклопедия, 1992.
4. Неру Дж. Открытие Индии. – Москва, 1955.
5. Петрарка Ф. Автобиография : Исповедь Сонаты / пер. М. Гершензона и В.Иванова. – Москва, 1915.

МАМЛАКАТ РИВОЖЛАНИШИДА ДЕМОКРАТИК ИНСТИТУТЛАРНИНГ РОЛИНИ ОШИРИШ

Ганиев Ш.А.
Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси
Жанговар ва махсус тайёргарлик бошқармаси бошлиғи

Демократик йўлни танлаган давлатларда фуқаролик жамияти институтлари, турли нодавлат ташкилотларининг мавжудлиги объектив зарурат бўлиб, уларнинг фаолияти қонун билан ҳимоя қилинади.

Мазкур институтларнинг жамият ва давлат ҳаётининг барча соҳаларида демократик ўзгаришларни амалга оширишдаги роли ва аҳамияти ошиб, фуқароларимзнинг ижтимоий фаоллигини ошириш бўйича сезиларли чоралар кўрилмоқда.

Шу билан бирга, айни вақтда мазкур демократик институтларнинг имкониятларидан фойдаланиб, шахс, жамият ва давлат манфаатларини ҳимоялаш ҳамда мамлакатимизда тинчлик ва хавфсизликни таъминлаш, шунингдек куч ишлатувчи тузилмалар билан ҳамкорликда жамоат хавфсизлигини таъминлаш, ҳуқуқбузарликларга қарши курашишга қаратилган зарур ишларни амалга оширишни тақозо этмоқда.

Ўзбекистон Республикасининг Конституциясида фуқаролик жамиятига таъриф берилмаган бўлса-да, унда фуқаролик институтларини ташкил этиш ва улар фаолиятининг ҳуқуқий асосларини қамраб олган қуйидаги нормалар мавжуд:

– жамоат бирлашмалари (касаба уюшмалари, сиёсий партиялар, фуқароларнинг бошқа турдаги бирлашмалари) қонунда белгиланган тартибда рўйхатдан ўтказилган бўлиши лозим;

– конституциявий тузумни зўрлик билан ўзгартиришни мақсад қилиб қўювчи, республиканинг суверенитети, яхлитлиги ва хавфсизлигига, фуқароларнинг конституциявий ҳуқуқ ва эркинликларига тажовуз қилувчи, урушни, ижтимоий, миллий, ирқий ва диний адоватни тарғиб қилувчи, халқнинг соғлиғи ва маънавиятига тажовуз қилувчи, шунингдек, ҳарбийлаштирилган бирлашмаларнинг, миллий ва диний аломатлар бўйича сиёсий партияларнинг ҳамда жамоат бирлашмаларининг тузилиши ва фаолияти тақиқланади;

– жамоат бирлашмалари ижтимоий ҳаётда иштирок этиш учун тенг ҳуқуқий имкониятларга эга, давлат жамоат бирлашмаларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларига риоя этилишини таъминлайди;

– давлат органлари ва мансабдор шахслар жамоат бирлашмалари фаолиятига аралашмайдилар, шунингдек, жамоат бирлашмалари давлат органлари ва мансабдор шахслар фаолиятига аралашмайдилар;

– сиёсий партиялар ўз фаолиятларини молиявий таъминлайдиган манбалар ҳақида Олий Мажлисга ёки у вакил қилган органга ошкора ҳисоботлар бериб турадилар;

– давлат диний ташкилотларнинг фаолиятига аралашмайди;

– жамоат бирлашмаларини тарқатиб юбориш, уларнинг фаолиятини тақиқлаб ёки чеклаб қўйиш фақат суд қарори асосидагина амалга оширилади;

– оммавий ахборот воситалари эркиндир ва қонунга мувофиқ ишлайди, цензурага йўл қўйилмайди;

– ўзини ўзи бошқариш органларини сайлаш тартиби, уларнинг фаолиятини ташкил этиш ҳамда ваколат доираси қонун билан тартибга солинади [1.].

Фуқаролик жамияти институтлари фаолиятининг юқорида айтиб ўтилган конституциявий принциплари «Жамоат бирлашмалари тўғрисида», «Нодавлат нотижорат

ташкилотлар тўғрисида», «Жамоат фондлари тўғрисида», «Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида», «Касаба уюшмалари тўғрисида», «Оммавий ахборот воситалари тўғрисида», «Журналистлик фаолиятини ҳимоя қилиш тўғрисида», «Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида»ги ва бошқа қонунларда ўз ифодасини топиб, нодавлат нотижорат ташкилотлари фаолиятининг самарадорлигини оширишга қаратилган 200 дан ортиқ норматив-ҳуқуқий ҳужжат қабул қилинди, уларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш учун зарур институционал база яратилди.

Бугунги кунда фаолият кўрсатаётган 9200 дан зиёд нодавлат нотижорат ташкилоти жисмоний ва юридик шахсларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини, демократик қадриятларни ҳимоя қилишда, ижтимоий, маданий ва маърифий мақсадларга эришишда муҳим роль ўйнамоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йилда Олий Мажлисга мурожаатномасида фуқаролик жамияти институтлари ҳақида алоҳида тўхталиб, «Ислоҳотларимиз натижалари, бўлаётган ўзгаришлар ва аҳолининг кайфияти аввало маҳаллада сезилади. Шу маънода, “маҳалла – жамиятимизнинг ёруғ юзи ва виждони кўзгуси”, десак, тўғри бўлади. Шунинг учун барча даражадаги раҳбарлар пастга тушиб, ўз соҳаси бўйича маҳаллалардаги муаммоларни ўрганиши ва уларга ечим топиши, одамлар сезадиган натижани таъминлаши шарт. Бундан буён маҳалладаги ишларнинг аҳволи вазирлик, идоралар ва ҳокимликлар ишини баҳолашда бош мезон бўлади», деб таъкидладилар [3.].

Мазкур ғоянинг асосий моҳияти шундаки, бугунги кунда маҳалланинг нуфузини, унинг фаровонликни таъминлашнинг асосий бўғини сифатидаги ролини ошириш орқали жамият ва давлатнинг ривожлантиришни мақсад қилинган. Бу эса, тинчилик ва хавфсизликни таъминлашга, фуқароларимизнинг сиёсий ва ижтимоий ҳаётдаги иштирокининг зарурлиги ва аҳамитини белгилаб беради.

Фуқаролик жамияти институтлари тизимида ўзини ўзи бошқариш органларининг ўрни беқиёсдир. Зеро, бошқа мамлакатлардан фарқли ўлароқ, маҳалла институти юртимизда минг йиллар давомида синалган ва чуқур илдиз отган, аҳолини бирлаштириб турадиган ижтимоий ҳодиса сифатида ривожланиб келмоқда. Айниқса, унинг ҳозирги бозор иқтисодиётига ўтиш шароитида халқимизнинг урф-одатлари, анъаналари ва қадриятларини сақлаб қолиш, уларни жипслаштириш кафолати сифатида майдонга чиқаётганлигини яққол кўриб турибмиз.

Маҳалланинг тузилмаси ва функцияси вазиятга қараб ўзгариб турган, аммо у ўзини ўзи бошқариш тамойилини сақлаб қолган, ўз ҳудудида истиқомат қилувчи кишилар ўртасида ижтимоий-иқтисодий муносабатларни мувофиқлаштириб турган.

Маҳалла ўзини ўзи бошқариш органларининг энг ёрқин кўриниши, айни пайтда фуқаролик жамиятининг асоси ва таянчи деб тан олинганлиги билан ҳам ўзининг юксак мавқеига эга. У юксак маданият ва кишилар ўртасидаги муносабатлар маънавиятига асосланади.

Шу билан бирга, ушбу соҳадаги ишларнинг ҳолати амалга оширилаётган кенг кўламли ислоҳотларда, фуқароларнинг сиёсий маданияти ва ҳуқуқий онгини оширишда, уларнинг маънавий ва бошқа номоддий эҳтиёжларини қондиришда нодавлат нотижорат ташкилотларининг фаол иштирок этишига тўсқинлик қилаётган қатор тизимли муаммо ва камчиликлар мавжудлигидан далолат бермоқда. Хусусан:

биринчидан, давлатнинг фуқаролик жамияти билан самарали ва конструктив мулоқот механизмлари йўлга қўйилмаган, нодавлат нотижорат ташкилотларининг эҳтиёжлари

тизимли таҳлил қилинмаяпти, давлат ва жамиятни янада ривожлантиришнинг муҳим масалалари бўйича ўзаро фикр алмашиш учун самарали майдонлар яратилмаган;

иккинчидан, ижтимоий-иқтисодий ривожланиш дастурларини, норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни ишлаб чиқиш ва амалга оширишга нодавлат нотижорат ташкилотларини жалб қилиш даражасининг пастлиги барча ижтимоий гуруҳларнинг турли нодавлат нотижорат ташкилотлари томонидан ифодаланадиган манфаатларини чуқур ўрганиш ҳамда инобатга олишга имкон бермаяпти;

учинчидан, етарли қонунчилик базаси яратилганлигига қарамай, ижтимоий шериклик давлат органлари ва нодавлат нотижорат ташкилотлари ўртасида фуқароларнинг кенг кўламли ижтимоий муаммоларини ҳал қилишга, уларнинг, айниқса ёшларнинг ташаббуслари ва замонавий ғояларини ҳақиқатда илгари суришга қаратилган ҳамкорликнинг самарали механизмига айлана олмади;

тўртинчидан, мамлакатни социал-иқтисодий, ижтимоий-сиёсий жиҳатдан янада ривожлантириш бўйича инновацион ғояларни таклиф қилувчи фаол, ўзининг ташаббусларига таяниб фаолият кўрсатадиган нодавлат нотижорат ташкилотларини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантириш чоралари лозим даражада амалга оширилмаяпти;

бешинчидан, нодавлат нотижорат ташкилотларини рўйхатдан ўтказиш жараёнларини, уларнинг фаолияти тартибини белгиловчи қонунчилик нормаларида ортиқча бюрократик талаблар ва ғовлар назарда тутилган бўлиб, бу нормалар эскирган ва замон талабларига жавоб бермайди;

олтинчидан, нодавлат нотижорат ташкилотлари фаолиятини ҳар томонлама қўллаб-қувватлашга қаратилган ижро этувчи ҳокимият органлари томонидан қўлланилаётган идоралараро ҳамкорлик усуллари самарасиздир, давлат органлари ўртасида маълумотлар ва ахборот алмашишнинг ягона механизмлари мавжуд эмас;

еттинчидан, нодавлат нотижорат ташкилотларининг моддий-техника таъминоти ҳанузгача қониқарсиз ҳолатда қолмоқда, фуқаролик жамияти институтларини қўллаб-қувватлашга давлат томонидан ажратилаётган маблағлар ўрта муддатли ва узоқ муддатли кенг кўламли ҳамда умумреспублика миқёсидаги лойиҳалар ва дастурларни амалга оширишга имкон бермаяпти [2.].

Шуни алоҳида қайд этиш керакки, Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 25 сентябрдаги «Ижтимоий шериклик тўғрисида»ги Қонуни қабул қилиниб, мамлакатимизда демократиянинг ривожланишида давлат органларининг нодавлат нотижорат ташкилотлари ва фуқаролик жамиятининг бошқа институтлари билан ижтимоий-иқтисодий ривожланиш дастурларини, шу жумладан, тармоқ, ҳудудий дастурларни, норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни ҳамда фуқароларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларига дахлдор бошқа қарорларни ишлаб чиқиш ҳамда рўёбга чиқаришдаги ҳамкорлигини белгилаб берди.

Мамлакатимизни янгилаш ва модернизация қилишнинг устувор йўналишларидан келиб чиқиб, ижтимоий шерикликнинг асосий соҳалари белгилаб берди. Ижтимоий ҳимоя, фуқароларнинг ижтимоий фаоллигини қўллаб-қувватлаш ва ошириш, бандликни таъминлаш, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни, фермерликни ривожлантириш, атроф-муҳитни, аҳоли саломатлигини муҳофазалаш ва соғлом турмуш тарзини қарор топтириш, ҳар томонлама баркамол авлодни шакллантириш, оналик ва болаликни, шунингдек, хотин-қизларнинг ҳуқуқларини ҳимоялаш, аҳолининг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини юксалтириш шулар жумласидандир. Қонунийлик, очиқлик, ошкоралик ва иштирок этишнинг ихтиёрийлиги, мустақиллик ва тенг ҳуқуқли шериклик, холислик, ўзаро ҳурмат,

манфаатларнинг инобатга олиниши ва масъулият, мажбуриятларни қабул қилишнинг ихтиёрийлиги ижтимоий шерикликнинг асосий принциплари сифатида мустаҳкамлаб қўйилди.

Қонунда давлат органларининг нодавлат нотижорат ташкилотлари билан ҳамкорлигининг ташкилий-ҳуқуқий механизмлари, уларнинг ижтимоий аҳамиятга эга бўлган масалаларни ҳал қилишдаги иштироки шакллари ва усуллари аниқлаштирилди. Нодавлат нотижорат ташкилотлари ва фуқаролик жамиятининг бошқа институтлари ижтимоий-иқтисодий дастурларни, норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни ишлаб чиқиш ва рўёбга чиқаришда, давлат органлари ҳузуридаги ишчи гуруҳлари, комиссиялар ва жамоатчилик-маслаҳат органларининг фаолиятида, биргаликдаги тадбирлар, маслаҳатлашувлар ва музокараларда, ижтимоий шериклик тўғрисида битимлар ва шартномалар тузиш, қўшма лойиҳалар ҳамда режалар ишлаб чиқиш ва амалга оширишда ҳамда ўзаро ёрдам кўрсатиш, ахборот айирбошлашда иштирок этиши белгиланди.

Умуман олганда, жамиятда демократик институтларнинг фаолияти давлат ва жамият ўртасида самарали мулоқот олиб боришга, нодавлат нотижорат ташкилотлари ва фуқаролик жамияти бошқа институтларининг ижтимоий-иқтисодий ривожланишини амалга оширишга, гуманитар муаммоларни ҳал этиш, мамлакатимиз аҳолиси турли қатламларининг ҳуқуқ ва эркинликлари, қонуний манфаатларини ҳимоя қилиши орқали давлатимизда тинчлик ва осойишталикни таъминлаш ҳамда иқтисодий жиҳатдан таррақкий этишга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2018.
2. https://sputniknews-uz.com/society/20201229/15695638/Shavkat-Mirzievning-Oliy-mazhlisiga-va-khala-navbatdagi-murozhaatnomasi.html

ШОҲ ВА ШОИР БОБУР ҲАҚИДА ДОСТОН

Жуманазаров У.А.
Жиззах давлат педагогика институти профессори, филология фанлари доктори

Темур ва темурийлар сулоласига доир эпос намуналаридан бири шоҳ ва шоир Бобур ҳақидаги «Ойчинор» тарихий достони Қодир бахшидан 1969 йилда фольклоршунос А.Қаҳҳоров томонидан ёзиб олинган ва у ҳақида илк бор илмий мақола ёзган профессор Б.Саримсоқов: «Бобур ҳақида, умуман XVI аср воқеалари ҳақида Шеробод ҳамда Жанубий Тожикистондаги достончилик мактаби вакиллари томонидан яратилган асарлар фақат «Ойчинор» каби бир-икки достон билан кифояланмаган бўлиши керак» [1], деган мулоҳазани ўртага ташлаганди, илмдаги кейинги изланишлар мазкур фольклоршуноснинг фикрини тасдиқлади.

“Ойчинор” достони, унинг ғоявий-бадиий хусусиятлари, образлар талқини, тарихий достончиликдаги аҳамияти ҳақида М.Муродов, А.Эргашев, И.Рахматов, М.Ражабова, Т.Нафасов каби олимларнинг ишлари, шунингдек ушбу сатрлар муаллифининг мулоҳазалари эълон қилинди[2].

“Амир Темур ва Темурийлар туркумига доир достонлардан бири “Ойчинор”дир [3]. Достонда Бобур Мирзо бир томондан ҳукмдоршоҳ, карам дарёси мавж урганда адолатли, саховатли, раиятпарвар, тинчликсевар, юртпарвар, ростгўйлик, ҳалоллик, покликни севувчи, қадрловчи, шунингдек, тенгсизлик, хушомадгуйлик, худбинлик, нодонлик,

ёмонлик, қўрқоқлик, ёлғончилик, эгрилик, бахиллик, ношудликка қарши бўлган юрт султони, шоҳ: иккинчи томондан, ғазаб отига минганда эса қаттиққўл, ғазабкор, қаҳрли. Бобур Мирзо феъл-атворидаги ана шу хислату фазилатлар воқеалар ривожида Назарбой, Қайсар, Шайбоний, Ойчинор ва бошқалар билан муносабатларда, тўқнашувларда фольклор анъаналари доирасида очила боради.

Бобур достон воқеаларининг бошиданоқ барчасида жисман иштирок этмай, гарчи икки ўринда кўринсада руҳан барча воқеа-ҳодисаларда қатнашади. Дастлаб Ойчинор қўйган шартларни бажара олмаган Назарбой одамларнинг гапи билан Каттапойга қўнган лашкарлар бошлиғидан ёрдам сўраб борганда, Бобурга дуч келамиз. Бобур самимият билан Назарбойдан аҳвол сўрайди. Назарбой ўзини ғарибликка олиб, бир бевага уйланмоқчи бўлганини, бева эса қалинига ўнта қўзи, йигирмата бўри, ўттизта арслон, қирқта қоплон, элликта айғир, олтмиш бешта ахта, саксонта сарка, тўқсонта тахта сўраганини, шу шартни бажариш қўлидан келмаётганини айтгач, вазирлар ҳам ҳайрон бўлишади. Бобур Назарбойдан ёшини сўраб билгандан кейин Ойчинорнинг қалини мазмунини ғазабланиб баён қилади.

Бахши бир-бирига душман икки шахсни юзма-юз са¬вол-жавоб тасвирида ҳам бирини ёқлаш, иккинчисини қоралаш усулини қўлламайди. Балки ҳар иккиси ҳам мард, кенг фикрли, ўйловли шахс сифатида кўринади. Бобурнинг мардлиги хатосини тан олишда, айбини англашда кўринса, Шайбонийхон Амударёдан кейин сени таъқиб қилмайман, дейишда намоён бўлади. Ёш Бобур англаб етмаган нарсаларнн Шайбоний билади.

Достондаги эпик воқеаларнинг шу нуқтасида, яъни, Бобур ўз ичидаги қурт-сотқинни сезса ҳам, айбини асослай олмай турган бир пайтда Ойчинор вазир Қайсарни отга ўнгариб келади ва унинг Бобурга қилган хиёнатини фош этади. Ойчинор ва Бобур фақат шу ўринда юзма-юз келиб, ака-сингил тутинади. Достоннинг бошланишида Назарбой орқали Ойчинорнинг ақл-идрокига қойил қолган Бобур, уни кўргач алоҳида меҳр-муҳаббат билан ўзига яқин олади. Ойчинор отасини топгач, юрти Андижонга боришини айтганда, Бобур юртида қолган қўлёзмаларини етказишни сўрайди.

Бахшининг маҳорати шундаки, халқона соддалик, сўзларнинг жилоланиши, маънодорлиги билан ҳар бир образнинг ўзига хос жиҳатларини чизишга интилади. Достоннинг асосий қаҳрамонлари Бобур, Ойчинор ҳам, уларга қарши куч Назарбой, вазир Қайсар, ҳатто эпизодик образлар ҳам ўз характер-хусусиятига, феъл -атворига эга. Уларнинг ижобий ёхуд салбий жиҳатлари фольклорга хос муболағалар, ўхшатишлар, сифатлаш ва жонлантиришларда юксак бадиийликка кўтарилади. Қодир бахши «Ойчинор» достонини айтганда, гарчи ижодий тажрибаси кам, ҳали республика миқёсида танилмаган бўлса-да, қодирона оҳанг, қодирона руҳ сезилади. Бу у қўллаган бадиий воситаларнинг ҳаётийлигида, инсон ва табиат орасидаги уйғунлик, алоқадорликни бера олишда намоён бўлади.

Ижодкор халқ сотқинликни асло кечирмайди, уни энг оғир жиноят деб билади ва бундай қадрит достонда ҳам ўз аксини топган. Шу сабаб хоин фақат ички томондан тубан эмас, ташки жиҳатдан ҳам хунук. Дарвоқе, яна достондаги сўна чаққан тананинг бўкириб, ҳар хил ҳатти-ҳаракатлар билан қочишни кўз ўнгимизда келтириб, Бердиёр ва Келдиёр навкарнинг ҳолатини кузатсак, фикрий изчилликни, мазмунан юксакликни, бадиий мукаммалликни ҳис этиш, англаш қийин эмас. Улар ўхшатилаётган қобон (тоғ чўчқаси) ҳам, ғажир хам, зомбир ҳам, гўр ҳам, чакамик ҳам халқ ёмон кўрадиган, салбий маъно ташийдиган, бахтли яшашга халақит берадиган ҳайвон, қуш ёки ўсимликлардир. Қобон мусулмонлар учун ҳаром қилинтан, ғажир ўлимтикни хуш кўради, зомбир заҳар солади, ёмон одамларни худо қабрдан чиқариб отади ва гўри очиқ қолади, чакамик баданни тилади, жароҳатлайди. Буларнинг барчаси навкарларда мужассам. Достондаги ҳар бир ўхшаш нарса

ва ўхшатилаётган шахс орасидаги зоҳирий ва ботиний алоқа, чамбарчас боғланиши ҳақида, уларнинг реал замини ҳақида истаганча талқин қилиш ва мулоҳа юритиш мумкин.

Достонда яхшилик ва ёмонлик, эзгулик ва қабоҳат, диёнат, хиёнат, ахлоқ ва ахлоқсизлик орасида мангу жанг анъанавий ҳолатда гўзал аксини топган. Бу жиҳатдан асар воқеаларининг ривожига сабаб бўлган Назарбой образи характерлидир. У очкўзлик, қурумсоқлик, хасислик сифатлари билан жаҳон ёзма адабиётида машҳур Гобсак, Қори ишқамба, Солих махдум образларини эслатса-да, улардан фарқланади. Олти минг қўйи, минг туя, минг бия, минг ғўнон, минг эшак, минг тойхор, минг товуқ, минг хўрозга эга Назарбой минишга отни, юкор тишга бир эшакни кўзи қиймайди. “Устида минг жойидан ямалган чопон эди. Ёши 60 дан ошган эди, тиши тушган эди, иягида тўрт соқоли бўлиб, у ҳам носга ботган эди.” Ўзи учун мол-мулкини сарфлашга нечоғлик хасис бўлса, оилага, хизматкорларга муносабатда ҳам шундай қурумсоқ Унинг тўртта хотинида бир кўйлак бўлиб, «эшикка чиққиси келган хотин уни кияр эди.” Ана бу қодирона таъриф. Иккинчиси эса, у ўзгалардан қарз олиб, қарзини ҳўкиз тувар ва тошбақа толга чиқар вақтда беришида. Бу образнинг бутун жисмоний ва руҳий ҳолати жуда мароқ билан ҳикоя килинади. Унинг ёшига тўғри келмаган, ахлоқи, хотинбозлиги, 65 ёшда бўла туриб,ўн етти ёшли қизга кўнгли кетиши, турли кулгили ҳолатларга тушиши, оқибатда ўлимига сабаб бўлади.

«Ойчинор» достонидаги бундай ўринлар, образлар, воқеалар таҳлили тўғисида кўплаб мисоллар келтириш мумкин. «Ойчинор» достонини гарчи бобосидан эшитган бўлса-да, Қодир бахшининг маҳорати ва достончилик-бахшичиликдаги тажрибаси, бадиҳагўйлик, ижодкорлик қобилиятининг гўзал ва бетакрор бир намунасидир. Достонда халкимизнинг асл фарзанди машҳур шоир, атоқли саркарда, адолатли ва тадбиркор шоҳ Бобур Мирзога бўлган юксак ҳурмати, эҳтироми, иззат-икроми тасвирланган.

Асарда халқимизнинг урф-одатлари, удумлари, анъаналари, тур муш тарзи, адоб-ахлоқи, юртимиз табиати шарқона, хусусан ўзбекона ҳаёти, хулқи, дунёқараши, фалсафий, эстетик руҳий тушунчалари, дарди, қувончли онлари, шодиёна кунлари, маросимлари, шунингдек халқона иборалар, ҳикматлар ва тушунчалар кенг қамраб олиниши таҳсинга сазовордир. Гўё Қодир бахши Бобур Мирзо баҳона бўлиб, унга бўлган муҳаббати, асрлар давомида сўнмаган халқ ихлосидан руҳланиб, дўмбира жўрлигида қалбидаги бор сўзларини, ниятларини, орзу-умидларини, дард-аламларини, панд насиҳатларини, шоирлик ва салтанат соҳиблик, инсон ва шоҳлик, мартаба ва одамийлик ҳақидаги гапларини бир бора айтиб қолдиргандай.

“Ойчинор” достонининг ўзбек тарихий достонларининг мумтоз намунаси эканлиги асарнинг мазмуний салмоғидагина эмас, балки унинг шаклий компонентларида ҳам кўзга ташланади. Буни достондаги наср ва назмнинг ўзаро нисбати ҳам тўлиқ тасдиқлайди.

Оғзаки жонли анъаналарда кўп марта ижро этилиб келинганидан бўлса керак, достондаги наср ва назм ҳам миқдор, ҳам мазмун жиҳатдан тенг мавқе эгаллайди. Асарда нутқнинг бу икки шакли сюжет воқеалари баёнида бир хилда иштирок этади. Бошқа достонларда учраганидек бу достонда наср ва назм бир-бирининг изоҳи ёки қайта баёнидан иборат эмас, балки уларнинг ҳар бири асардаги янги воқеаларни баён этади ёки персонажларнинг оригинал кечинмаларини ифодалашга хизмат қилади.

Достондаги айрим ўринларда сажъ қўлланилган. Бобурнинг хиёнаткор вазири Қайсарбекнинг қиёфасини тасвирлашда қўлланилган қуйидаги сажълар фикримизнинг далилидир: “Қайсарбекнинг ёши ҳам олтмишдан ошган, сочлари тушиб, тишлари сераксиб қолган, ўзи кўса, ияги узун, қулоғи тикка, кўзи сузик, қилиғи бузуқ, ош бўлса тайёр, ўлгудай айёр эди”.

Достонда асосан икки типдаги шеърий вазн қўлланилган. Улар ўн бир ва етти хижоли бармоқ вазнларидан иборат. Халқ эпик шеъринг бу икки типи ўзларига хос вазифаларни ўтайдилар. Масалан, ўн бир хижоли бармоқ вазни асосан персонажларнинг кечинмаларини, уларнинг фикр мулоҳазалари ва мурожаатларини ифодалашда қўлланилган. Ойчинорнинг Назарбойдан келган совчиларга ўз шартларини баён этиши ўн бир ҳижоли вазн орқали ифодаланган. Етти ҳижоли вазн эса қаҳрамонларининг сафари, уларнинг жангу жадаллари, ҳатти-ҳаракатларини баён этишда қўлланилганлиги, бу ҳам эпик анъаналарнинг достонда изчил сақланганлигидан далолат беради.

Хуллас, "Ойчинор" достони тарихий ва бадиий тўқима образлар ўзаро муносабатга киришган, тўқима воқеалар эса тарихий воқеалар моҳиятини очишга хизмат қилдирилган тарихий асарлиги билан ўзбек халқ тарихий эпосининг мумтоз наъмуналари сирасида алоҳида ўрин тутади.

Фойданилган адабиётлар:

1. Саримсоқов Б. Халқона сатрларда. // Фан ва турмуш –Т.1983, №5.

2. У.Жуманазаров. Тарих ҳақиқати ва халқ ижоди бадийяти. –Т.:2007. –Б.85-87; Муродов М., Эргашев А. Алпомишнома. 1-китоб. –Т.:1999. –Б.357-369; Рахматов Й. Тарихий достонларда тарихий шахс образининг эпик талқини ("Ойчинор" ва "Шайбонийхон" достонлари мисолида). Филол. фан. ном. дисс. автореф. –Т.2009; Ражабова М. Қодир бахши репертуарида Бобур сиймосининг талқини // Қодир бахши абадияти. –Қарши. 2012. –Б. 68-71; Нафасов Т. Сўз ва соз соҳиби // Юқоридаги тўплам. –Б.65-68

3. Ойчинор. (Айтувчи Қодир бахши Раҳимов) // Ойсулув. –Т.1985

БОБУР-ЎЗБЕК МУМТОЗ АДАБИЁТИНИНГ ЙИРИК ВАКИЛИ

Иззатуллаева М.Ш.
Бухоро шаҳар 22-мактаб ўқитувчиси

Заҳириддин Муҳаммад Бобур- ўзбек мумтоз адабиётининг йирик вакили, буюк шоир, тарихчи, географ, давлат арбоби, истеъдодли саркарда; бобурийлар сулоласи асосчиси, темурий шаҳзода.

Бобурнинг отаси — Умаршайх Мирзо Фарғона вилояти ҳокими, онаси — Қутлуғ Нигорхоним Мўғулистон хони ва Тошкент ҳокими Юнусхоннинт қизи эди. Бобурнинг онаси ўқимишли ва оқила аёл бўлиб, Бобурга ҳокимиятни бошқариш ишларида фаол кўмак берган, ҳарбий юришларида унга ҳамроҳлик қилган. Бобурмирзонинг гўзал феъл, юксак ахлоқ соҳиби экани унинг мана шундай ота қўлида тарбия олгани аслида. Шоҳ Бобур ўз болалиги, отаси билан боғлиқ хотираларида бу ҳақда жуда кўп бора тилга олади.

Бобур ўз отаси ҳақида шундай ёзади: "ҳанафий мазҳаблиқ, покиза эътиқодлиқ киши эди… Равон саводи бор эди.

"Хамсатайн" ва маснавий китобларни ва тарихларни ўқуб эди. Аксар "Шоҳнома" ўқур эди. Табъи назми бор эди, вале шеърга парво қилмас эди.

Адолати бу мартаба эдики, Хитой карвони келадурганда, Андижоннинг шарқий тарафидағи тоғларнинг тубида минг ўйлук корвонни андоғ қор бостиким, икки киши қутулди. Хабар топиб, муҳассиллар (хирож олувчилар) йибориб, корвоннинг жами жиҳотини (ҳамма ёғини, бутун атрофини) забт қилди… Самарқанд ва Хуросондин ворисларини тилаб келтуруб, молларини солим (омон, соғ-саломат) топшурди.

Бисёр саховати бор эрди. Хулқи доғи саховатича бор эрди, хушхулқ ва ҳарроф (тез гапирадиган, сўзамол) ва фасиҳ (ёқимли) ва ширин забон киши эрди, шужоъ (шижоатли) ва мардона киши эди".

Бобур мирзодаги оташин қалб, ширали тил унда болаликданоқ шакллагани рост.

Бобур отаси йўлидан бориб, машҳур сўфий — Хожа Аҳрорга ихлос қўяди ва унинг тариқати руҳида вояга етади, умрининг охирига қадар шу эътиқодга содиқ қолади. Бобурнинг ўз асарларида айтишига қараганда, шоир сифатида ижодий фаолияти Самарқандни иккинчи марта эгаллаган вақтда бошланган: «Ул фурсатларда бирор икки рар байт айтур эдим», деб ёзади у. Бобур Самарқанддалигининг илк ойларида Алишер Навоий ташаббуси билан улар ўртасида ёзишма бошланади. Бобур атрофида ижодкорлар тўплана бошлаши ҳам шу йилларга тўғри келади. Жумладан, Биноий, Абулбарака ва Бобур ўртасидаги рубоий мушоираси Самарқанддаги қизғин адабий ҳаётдан дарак беради. Умуман, давлат арбоби ва кўп вақти жангу жадалларда ўтган саркарда сифатида ижтимоий фаолиятининг энг қизғин даврида ҳам, шахсий ҳаёти ва давлати ниҳоятда мураккаб ва хатарли шароитда қолган чоғларида ҳам Бобур ижодий ишга вақт топа билган, илм, санъат ва ижод аҳлини ўз атрофига тўплаб, ҳомийлик қилган, уларни рағбатлантирган.

Тарихий адабиёт ва тарих, мусиқа ва санъатдан яхши хабардор бўлган, диний таълимотга чин ихлос қўйган Бобур ҳар доим олиму фозиллар даврасида бўлиб, айниқса ижод аҳлига, касбу ҳунар соҳибларига самимий эҳтиром кўргазиб ҳомийлик қилди, уларни моддий ва маънавий рағбатлантириб боргани бизга тарихдан маълум. Ижод ва санъат аҳлига бундай меҳрли муносабат асло бежиз бўлмаган. Бобур табиатан ижодкор, оташин нафасли бўлган. Умрининг сўнггигача ижоддан узоқлашмаган, мумтоз адабиётнинг нодир дурдоналари саналиб келган энг гўзал назм гулшанини яратиб қолдирган.

Бобурнинг адабиёт оламида машҳур бўлган кўпгина рубоий ва ғазаллари ҳаётий кечинмалари, изтиробу қувончларини бан этади. Хусусан, «Топмадим» радифли ғазали ва «Ёд этмас эмиш кишини ғурбатда киши» мисраси билан бошланувчи рубоийси ўша йиллардаги ҳаёти билан боғлиқ. Бобурнинг улкан санъаткорлиги шундаки, шахсий кечинмаларини жиддий умумлашма даражасига кўтара олади ва натижада асарларида олға сурилган ғоялар умуминсоний қадриятлар даражасига кўтарилади. Бобур ижодида, хусусан, шеъриятида киндик қони тўкилган она юртини дилдилдан қўмсаш, унинг тупроғига талпиниш, ғариблик азобларидан ўтли ҳасрат, ёру диёр согинчи ва висол илинжи, такдир зарбалари ва турмуш уқубатларини теран мушоҳада этган ҳолда шеърга солади. Бобур ижодида барча мумтоз адабиёт вакиллари сингари ишқм-уҳаббат, вафо-ю садоқат, висол ва ҳижрон мавзуси ҳам салмоқли ўрин тутади. Унинг ҳар қандай назм намуналарида ёрнинг мафтункор гўзаллиги, беқиёс ҳусну латофати, шарқона одобу ахлоқи, нозу карашмаси енгил ва ўйноқи, мусиқий ва равон мисраларда катта маҳорат билан тараннум этилади.

Ҳозирда унинг 119 ғазали, 209 рубоийси, 10 дан ортик туюқ ва қитъалари, 50 дан ортиқ муаммо ва 60 дан зиёд фардлари аниқланган. Девони таркибида умумий ҳажми 270 байтдан иборат 8 маснавий ҳам ўрин олган.

Жонимдин ўзга ёри вафодор топмадим,
Кўнглумдин ўзга маҳрами асрор топмадим.

Инсон учун оғир синовли кунларда ўзидан-да яқин дилдош, жонидан-да ўзга вафо қилгувчи сирдош маҳрам топилмаслиги аниқ. Бобур ўз ҳаётида жуда кўп хиёнатлар, яқинларидан-да вафосизликлар кўргани тарихдан аён.

Ким кўрубтур, эй кўнгул, аҳли жаҳондин яхшилиғ,
Кимки ондин яхши йўқ, кўз тутма ондин яхшилиғ...
...Бори элга яхшилиғ қилғилки, мундин яхши йўқ
Ким, дегайлар даҳр аро қолди фалондин яхшилиғ
Яхшилиғ аҳли жаҳонда истама Бобур киби,
Ким кўрубтур, эй кўнгул, аҳли жаҳондин яхшилиғ.

Бобур лирикасида нафис оҳанг, равонлик, халқчиллик мужассам. Юрак қони билан ифода этилган гўзал сатрларда Бобурнинг оташин қалб наволари таралиб туради. Халқда чуқур маънога эга “Яхшилик қил, сувга от, балиқ билар, балиқ билмаса холиқ билар”деган нақл мавжуд. Бобур “Яхшилик” ғазалида инсоннинг бу ҳаёт аталмиш бўстонда фақат яхшилик уруғини сепиши лозимлиги, унинг умри яхшилик билан безанмоғи кераклигини кўп таъкидлайди.

Дарҳақиқат, инсон умри ҳаёт аталмиш бўстонни “гулга буркаб”, ўзидан фақат яхши ном қолдириши билан боқий умрга айланади. Ўзининг бетакрор ижоди, бой мероси билан ўзбек мумтоз адабиётини бойитган шоҳ ва шоир Бобур ман шундай умр эгасидир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Бобур Заҳириддин. Бобурнома / Ҳозирги ўзбек тилига Ваҳоб Раҳмонов ва Каромат Муллахўжаева табдили. Т. : "O`qituvchi"нашриёти(НМИУ).2008. -2008.

2. Бобир Заҳириддин. Мухтасар / Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Тошкент: Фан, 1971. – 413 б.

3. Бойқаро Ҳусайн. Рисола: Девон. – Т.: Шарқ, 1995. – 160 б.

4. Шарқ мумтоз поэтикаси: Манба ва талқинлар / Нашрга тайёрловчи, талқин ва шарҳлар муаллифи Ҳ.Болтабоев. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 430 б.

5. Ҳасанов С. Бобирнинг “Аруз рисоласи” асари. – Тошкент: Фан, 1981. – 96 б.

TA’LIM-TARBIYA TIZIMIDA BUYUK SIYMO ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATIDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ishmatova N.M., Irisboyeva X.U.
Toshkent “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi bosh o‘qituvchilari

Sharq va G‘arb mutafakkir, ma’rifatparvarlarining pedagogik qarashlarida milliy g‘urur, iftixor, milliy o‘zlikni anglash tushunchasi turli tarixiy davrda turlicha yondashilgan bo‘lsa-da, ularning negizida, zamirida ona vatanga muhabbat, insonparvarlik, baynalmilallik, boshqa xalqlarning milliy e’tiqodlari va urf-odatlariga hurmat va ehtirom bilan qarash mushtarakligi mujassamdir. Shu jumladan, milliy g‘urur, iftixor tuyg‘ulari bilan bog‘liq milliy va umuminsoniy qadriyatlar: Aristotel, Suqrot, Aflotun, Balzak, Gyote, Russo, Leonardo do Vinchi kabi g‘arb olimlarining qarashlarida qanchalik ulug‘langan bo‘lsa, Konfutsiy, al Buxoriy, Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Firdavsiy, Jomiy, ibn Sino, Amir Temur, Lutfiy, Mir Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek, Kamoliddin Behzod, Zahiriddin Muhammad Bobur, Jaloliddin Manguberdi kabi sharq mutafakkirlari tomonidan ham juda e’zozlanganini, ularning qoldirgan

ma’naviy meroslari yoshlarda milliy g‘urur, iftixor, komil inson kamoloti, barkamol avlod tarbiyasi mavzusidagi ilg‘or g‘oyalarni singdirishda alohida ahamiyat kasb etadi Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Xudo xohlasa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz ham bo‘ladi.”[13.415.b.] degan fikrga alohida to‘xtalib, mazkur g‘oyada bir butun ta’lim-tarbiya tizimida buyuk siymolarning ma’naviy merosi, to‘plangan boy tajribalardan foydalanishning afzalligi va zaruriyati haqidagi qarashlar o‘z aksini topgan. O‘tmish adabiyoti va tarixi, musiqa va san’atidan yaxshi xabardor bo‘lgan, diniy ta’limotga chin ixlos qo‘ygan Bobur har doim olim-u fozillar davrasida bo‘lgan, xususan, ijod ahliga, kasb-u hunar sohiblariga samimiy ehtirom ko‘rsatib homiylik qilgan, ularni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirib turgan. Ijod va san’at ahliga bunday mehrli munosabat aslo bejiz bo‘lmagan. Bobur tabiatan ijodkor edi. Yigitlik yillaridan boshlab to umrining oxirigacha samarali ijodiy ish bilan shug‘ullangan, har qanday sharoit va vaziyatlarda ham ijoddan to‘xtamadi, natijada har jihatdan muhim boy ilmiy va adabiy meros qoldirgan olim-u ulamo sifatida tanilgan. Bobur 18-19 yoshlarida ruboiy va g‘azallar yoza boshlagan. Uning «Topmadim» radifli g‘azali va «Yod etmas emish kishini g‘urbatda kishi» misrasi bilan boshlanuvchi ruboiysi o‘sha yillardagi hayoti bilan bog‘liq. Boburning ulkan san’atkorligi shundaki, shaxsiy kechinmalarini jiddiy umumlashma darajasiga ko‘tara oladi va natijada asarlarida olg‘a surilgan g‘oyalar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko‘tariladi. Bobur ijodida, xususan, she’riyatida kindik qoni to‘kilgan ona yurtini dil-dildan qo‘msash, uning tuprog‘iga talpinish, g‘ariblik azoblaridan o‘tli hasrat, yor-u diyor sog‘inchi va visol ilinji, taqdir zarbalari va turmush uqubatlari, zamona nosozliklaridan nola badiiy tahlil etiladi. Bobur ijodida ishq-muhabbat, sevgi-sadoqat, visol va hijron mavzusi ham salmoqli o‘rin tutadi. Uning g`azal va ruboiylarida, tuyuq va masnaviylarida ma’shuqaning maftunkor go‘zalligi, beqiyos husn-u latofati, sharqona odob-u axloqi, noz-u karashmasi yengil va o‘ynoqi, musiqiy va ravon misralarda katta mahorat bilan tarannum etiladi. Boburning o‘z she’riy asarlarini to‘plab, devon holiga keltirgan sanani ko‘rsatuvchi aniq tarixiy ma’lumotlar ma’lum emas. Ammo «Boburnoma»ning 1518-1519-yillar voqealari bayoniga bag‘ishlangan faslida Bobur devonini Kobuldan Samarqandga yuborganligi to‘g‘risida so‘z boradi. Demak, shu yillarda uning devoniga tartib berilgan va mazkur devon Movarounnahrda ham tarqalgan. Hozirda uning 119 g‘azali, bir masnu` she’ri, 209 ruboiysi, 10 dan ortiq tuyuq va qit’alari, 50 dan ortiq muammo va 60 dan ziyod fardlari aniqlangan. Devoni tarkibida umumiy hajmi 270 baytdan iborat 8 masnaviy ham o‘rin olgan.

Hindiston yurishlari davri (1521) da Bobur «Mubayyin» asarini yaratdi. Masnaviy tarzida yozilgan, islom huquqshunosligi va shariat aqidalariga bag‘ishlangan bu asarda Movarounnahr va Hindistonga oid o‘sha davr ijtimoiy- iqtisodiy hayoti bo‘yicha qiziqarli ma’lumotlar ham jamlangan. Valiahd Humoyun va Komron mirzolarga dasturulamal sifatida mo‘ljallangan «Mubayyin»da, ayni zamonda, namoz, zakot va haj ziyorati to‘g‘risida ham shar’iy mezonlar bayon qilingan. Shu yillarda Bobur Sharq she’riyatining asosiy masalalaridan biri aruz vazni, uning nazariyasi va amaliyotiga oid ilmiy risolasini yakunlaydi. Bobur nomini dunyoga mashhur qilgan shoh asari «Boburnoma» ustidagi ijodiy ishini 1518-1519-yillarda boshlagan («Boburnoma»). Boburning yuqorida keltirilgan asarlaridan tashqari, «Xatti Boburiy», shuningdek, musiqa san’ati va harbiy ishlarga maxsus bag‘ishlangan qator risolalari ham bo‘lgan. Ammo keyingi ikki asar matni hanuz topilgan emas. «Xatti Boburiy»da muallif arab alifbosini tahrir etib, yozuvni soddalashtirish va osonlashtirish maqsadida uni turkiy til va uning talaffuz mezonlariga moslashtirgan.

Bobur otasi yo‘lidan borib, mashhur so`fiy — Xoja Ahrorga ixlos qo‘yadi va uning tariqati ruhida voyaga yetadi, umrining oxiriga qadar shu e’tiqodga sodiq qoladi. Keyinchalik, «Boburnoma» asarida Bobur Xoja Ahror ruhi bir necha bor uni muqarrar halokatdan, xastalik va

chorasizlikdan xalos etganini, eng og‘ir sharoitlarda rahnamolik qilganligini ta’kidlaydi. Otasi Axsida bevaqt, 39 yoshida fojiali halok bo‘lgach, oilaning katta farzandi, 12 yoshli Bobur valiahd sifatida taxtga o‘tiradi (1494- yil iyun).

Movarounnahr XVasr oxirida o‘zaro nizolashayotgan temuriy shahzodalar yoki mulkdor zodagonlar boshchilik qilib turgan, deyarli mustaqil bo‘lib olgan ko‘pdan ko‘p viloyatlarga parchalanib ketgan edi. Movarounnahr taxti uchun kurash avjga chiqqan bir paytda, turli siyosiy fitnalar uyushtirilmoqda edi. Buning ustiga Umarshayx Mirzoga tobe bir necha bek va hokimlar yosh hukmdorga (Boburga) bo`ysunishdan bosh tortadilar. Ularning ayrimlari Boburning ukalarini yoqlasa, ba’zilari mustaqillik da’vosini qiladi, yana boshqa birlari Boburga raqib, boshqalari amaki, tog‘alariga qo‘shilib, uni jismonan yo‘qotish payiga tushadi. O‘z amakisi va tog‘asi bo‘lmish Sulton Ahmad Mirzo bilan Sulton Mahmudxon xurujlarini daf qilgan Bobur hukmronligining dastlabki 2-3 yilida mavqeini mustahkamlash, bek va amaldorlar bilan o‘zaro munosabatni yaxshilash, qo‘shinni tartibga keltirish, davlat ishlarida intizom o‘rnatish kabi muhim chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Boburning dastlabki siyosiy maqsadi Amir Temur davlatining poytaxti, strategik va geografik jihatdan muhim bo‘lgan Samarqandni egallash va Movarounnahrda markazlashgan kuchli davlatni saqlash, mustahkamlash hamda Amir Temur saltanatini qayta tiklashdan iborat edi. Bu paytda, qisqa muddat ichida Samarqand taxtiga uchinchi hukmdor kelgan edi. Sulton Ahmad Mirzo vafoti (1494-yil iyul) dan keyin taxtga o‘tirgan Sulton Mahmud Mirzo Samarqandda davlatni 5-6 oydan ortiq idora etmadi — qisqa muddatli kasallikdan so‘ng 43 yoshida vafot etdi. Uning o‘rniga Buxoroda hokim bo‘lgan o‘g‘li Boysung‘ur o‘tiradi. 1495-1496-yillarda Bobur Samarqandga ikki marta muvaffaqiyatsiz yurish qiladi. 1497- yil kuzida u Samarqand atrofidagi bir qancha joylarni va 7 oylik qamaldan so‘ng Samarqandni egallaydi, Boysung‘ur Qunduzga qochadi. Shahar qamal tufayli nihoyatda og‘ir kunlarni boshidan kechirmoqda edi. Hatto yegulik don ham topish mushkul edi. Bobur qo‘shinni ta’minlashda katta qiyinchiliklarga duch keldi. Navkarlaridan ayrimlari Andijon va Axsi tomon qochib ketadilar. Buning ustiga Andijonda qolgan ayrim beklar Boburdan yuz o‘girib, uning ukasi Jahongir Mirzo tarafiga o‘tadilar. Andijondan ko‘ngli notinch bo‘lgan va iqtisodiy qiyinchiliklarga uchragan, ayni zamonda og‘ir xastalikni boshidan kechirgan Bobur Samarqandni yuz kun idora etgandan so‘ng, uni tark etishga qaror qiladi. Ammo Xo‘jandga yetganda Andijon ham qo‘ldan ketib, muxoliflar ixtiyoriga o‘tganini eshitadi. Boburning Toshkent hokimi, tog‘asi Mahmudxon ko‘magida Andijonni qayta egallashga urinishi natija bermaydi, Bu muvaffaqiyatsizlik Bobur qo‘shiniga salbiy ta’sir etib, ko‘pchilik bek, navkarlar (700-800 kishi) Boburni tark etadi. O‘ziga sodiq kishilar (200-300) bilan qolgan Bobur ma’lum muddat Xo‘jandda turgach, Toshkentga - Mahmudxon huzuriga kelib, Andijonni qaytarib olish rejasini tuza boshlaydi. Ma’lum muddat o‘tgach, Bobur Xo‘jandga qaytadi, ko‘p o‘tmay, Marg‘ilonni qo‘lga kiritadi hamda Andijonni egallash tadbirlarini ko‘radi. Nihoyat, 2 yildan so‘ng (1498- yil iyun) uni qayta qo‘lga kiritadi. Bobur ukasi Jahongir Mirzo bilan sulh tuzib, uning ixtiyorida «Xo‘jand suvining Axsi tarafi viloyatlarini...» qoldiradi, Andijon tarafi viloyatlarini o‘z tasarrufiga oladi.

Temuriylarning o‘zaro urushlari kuchaygan kezlarda Shayboniyxon Movarounnahrni istilo qilishga kirishadi. U 1499- yil Jizzax va Samarqand orqali Qarshi va Shahrisabzgacha bosib boradi, katta o‘lja bilan Dashti Qipchoqqa qaytadi. Oradan ko‘p o‘tmay, katta kuch bilan Movarounnahrga qaytgan Shayboniyxon Buxoro va Qorako‘lni egallaydi (1499), Sulton Ali Mirzo kaltabinlik bilan Samarqandni Shayboniyxonga jangsiz topshiradi (1500). Biroq shahar aholisi va zodagonlarining ma’lum qismi temuriylar hukmdorligini tiklash tarafdori edi. Ular Farg‘ona hokimi Boburga maktub yo‘llab, Samarqandni ishg‘ol qilishga da’vat etganlar. Bobur 1500 yil kech kuzida o‘z qo‘shini (240 kishi) bilan Samarqandga yetib kelgach, aholi unga peshvoz chiqib, shahar darvozalarini ochib beradi. Shayboniyxonning shahar himoyasi uchun qoldirgan 600 nafar askari

qirib tashlanadi. Shayboniyxon Buxoroga chekinadi. Qisqa vaqt ichida Samarqandning barcha tumanlari, Qarshi va G‘uzor shaharlarida Bobur hokimligi e’tirof etiladi. Ammo shaharda oziq-ovqat zaxiralari tugab, ocharchilik boshlangan edi. Bundan xabar topgan Shayboniyxon katta kuch to‘plab, yana Samarqandga yurish boshlaydi. 1501- yil aprelda Zarafshon bo‘yidagi Saripul qishlog‘i yaqinida bo‘lgan jangda Bobur qo‘shinlari yengiladi. Bobur Samarqandga chekinadi. Shahar yana qamal qilinib, u to‘rt oy davom etadi. Qamalda qolgan shahar aholisining ochlikdan tinkasi quriydi, Bobur 1501- yilning 2-yarmida noilojlikdan Samarqandni tark etib, Toshkentga, Mahmudxon huzuriga yo‘l oladi. Bobur Temuriylar saltanatini himoya qilish va uni saqlab qolish uchun astoydil harakat qilib, Shayboniyxonga qarshi bir necha yil davomida muttasil kurash olib borsa-da, ammo mamlakatda hukm surgan og‘ir iqtisodiy tanglik va siyosiy parokandalik sharoitida maqsadiga erisha olmaydi. 1503 -yili Toshkent xoni Mahmudxon, Bobur va qalmoqlarning birlashgan qo‘shini Shayboniyxon tomonidan Sirdaryo bo‘yida tor-mor qilinadi. Bobur Samarqand taxti uchun kurashayotgan paytda Andijonni Sulton Ahmad Tanbal egallab oladi. 1501-1504-yillarda Bobur Farg‘ona mulkini qaytarib olish uchun Sulton Ahmad Tanbal, Jahongir mirzolarga qarshi olib borgan kurashi muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi. Temuriylarning to‘xtovsiz janglari va og‘ir soliqlaridan toliqqan xalq Boburni qo‘llamadi va u Movarounnahrni tark etishga (1504- yil iyun) majbur bo‘ladi.

Bobur 200-300 navkari bilan Hisor tog‘lari orqali Afg‘onistonga o‘tadi va u yerdagi ichki nizolardan foydalanib G‘azni va Kobulni egallaydi. Bobur Kobulni egallagach, mustaqil davlat tuzishga jadal kirishadi, qo‘shinni tartibga keltiradi, qattiq ichki intizom o‘rnatadi. Kobulga, umuman, Afg‘onistonga Bobur o‘z yurti kabi qaradi, qurilish, obodonlashtirish, kasb-u hunar va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish ishlarini boshlab yuboradi. «Bog‘i Shahroro», «Bog‘i Jahonoro», «O‘rtabog‘», «Bog‘i vafo» va «Bog‘i Bobur» kabi oromgohlar tashkil etdi. Shahar ichidagi Bolo Hisor qal’asini o‘z qarorgohiga aylantirib, uni qayta ta’mirlatdi, yangi imoratlar qurdirdi va oilasi bilan shu qal’ada yashadi. Uning Humoyun, Gulbadanbegim, Komron va Hindol ismli farzandlari shu yerda tug‘iladi. 1506- yil bahorda vafot etgan Qutlug‘ Nigorxonim Mirzo Ulug‘bek shu yerda bunyod ettirgan «Bog‘i Navro‘ziy»ga dafn etiladi.

Bobur Afg‘onistonda bir fotih sifatida emas, balki shu yurt, el obodonligi va ravnaqi uchun jon kuydirgan tadbirli hukmron sifatida qizg‘in faoliyat ko‘rsatdi, uning manfaatlari yo‘lida odilona va oqilona ish tutdi. Afg‘onistondagi amaliy faoliyatiga ko‘ra, Bobur butun Xuroson va Movarounnahrda qudratli davlat boshlig‘i va muzaffar sarkarda sifatida katta obro‘ orttira bordi, mintaqadagi siyosiy hayot e’tiborli o‘ringa ko‘tarildi. Shayboniylarning tobora kuchayib borayotgan yurishiga qarshi birgalikda chora ko‘rish masalasida Sulton Husayn Boyqaro barcha temuriy hukmdorlar qatorida Boburni ham maslahat yig‘iniga maxsus taklif etishi ana shunday yuksak nufuzni ko‘rsatuvchi dalildir. Bobur shu taklif bo‘yicha Hirotga otlanadi. Husayn Boyqaroning to‘satdan vafot etishiga (1506) qaramay, u Hirotga boradi va temuriy hukmdorlar bilan uchrashib muzokaralar o‘tkazadi. Temuriy hukmdorlarning birlashib Shayboniyxon qo‘shinlariga to‘siq qo‘yish rejalari amalga oshmaydi va tez orada birin-ketin mag‘lubiyatga uchrab, saltanatni batamom qo‘ldan chiqaradilar.

1507- yil boshlarida Bobur Hindistonga yurish boshlaydi. Ammo bu urinishi muvaffaqiyatsizlik bilan tugab, yana poytaxt Qobulga qaytadi.

Bobur Movarounnahr va Xurosondagi siyosiy vaziyat va urush harakatlarini kuzatib boradi, o‘z qo‘shinlarini doimo shay tutadi. Shayboniyxon Xurosonning yirik markazlarini qo‘lga kiritgach, Eronni zabt etish uchun yurish boshlaydi. Ammo Eron shohi Ismoil Safaviy bilan qattiq to‘qnashuvda (1510) yengiladi, o‘zi ham Marvda halok bo‘ladi. Shoh Ismoil Xuroson va Movarounnahrga qo‘shin kiritib shayboniylarga ketma-ket shikast yetkaza boshlaydi. Bobur shoh

Ismoil bilan harbiy-siyosiy ittifoq tuzib, 1511- yil bahorida Hisorni, yozida Buxoroni, oktabr boshida esa Samarqandni yana qo‘lga kiritadi. Boburning eroniylar ra’yi bilan ish tutishi aholida norozilik tug‘diradi. 1512- yil 28- aprelda Ko‘li malik jangiga Ubaydulla Sulton boshliq shayboniylardan yengilgan Bobur Hisor tomon ketadi. 1512- yil kuzida Bobur shoh Ismoil yuborgan Najmi Soniy laqabli lashkarboshi bilan Balxda uchrashib, Amudaryodan kechib o‘tib, avval Huzar (G‘uzor) qal’asini oladi, so‘ng Qarshiga yurish qiladi, shahar uzoq muddatli qamaldan so‘ng taslim bo‘ladi, shahar himoyachilari qattiq jazolanadi. 1512- yil 24- noyabrda G‘ijduvon jangida Bobur shayboniylardan yana yengilib, Kobulga qaytishga majbur bo‘ladi. Bobur Movarounnahrni egallash ilinjidan uzil-kesil umidini uzadi va butun e’tiborini Hindistonga qaratadi. 1519- yil bahoriga kelib Bobur Hindistonni zabt etish rejalarini amalga oshirishga kirishadi va keyingi 5—6 yil davomida bir necha yurishlar uyushtiradi. Nihoyat, 1526 -yil aprelda Panipatda asosiy raqibi, Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diyning yuz ming kishilik qo‘shinini 12 minglik askari bilan tor-mor qiladi hamda Dehlini egallaydi. Oradan ko‘p o‘tmay, ikkinchi yirik hind sarkardasi Rano Sango ustidan ham zafar qozonib, Shimoliy Hindistonning Bengaliyagacha bo‘lgan qismini o‘ziga bo‘ysundiradi. Agrani o‘ziga poytaxt sifatida tanlagan Bobur katta qurilish va obodonchilik ishlarini boshlab yuboradi. Shu tariqa Bobur Hindistonda uch yarim asrga yaqin hukm surgan qudratli boburiylar sulolasiga asos soladi.

Mirzo Bobur o‘z ajdodlariga katta hurmatda bo‘lgan shohlardan sanaladi. Chunki hayoti davomida har juma kunlari qarindoshlaridan xabar olish uchun, albatta, vaqt ajratgan. Buyuk imperiya hukumdori bo‘lsa-da, bu odatini umrining oxirigacha kanda qilmagan. Yana o‘zining bobokalonlari bo‘lgan Amir Temur avlodidan ekanligidan nihoyatda g‘ururlangan, Vatani Andijon-u Samarqandni beqiyos muhabbat bilan qo‘msab yashagani har bir avlod vakillari uchun ibratlidir. Zotan, Bobur Vatan sog‘inchining eng yorqin timsolidir. Bobur farzandlarining adabiyotga oshno bo‘lishini juda-juda istardi. O‘z ijodi namunalaridan ularni ham xabardor qilib turgan. Shundanmi, Mirzo Humoyun vaqti-vaqti bilan she’rlar mashq qilgan, Gulbadanbegim esa otasi kabi hassos qalb egasi bo‘lib voyaga yetgan va uning ham tarixiy asarlari asosida bir qancha asarlar yozilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston,

2. Ahmedov, B. Tarixdan saboqlar. –Toshkent: O‘qituvchi.

3. Nazarova, X. Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari uchun qisqacha lutg‘at.– Toshkent: Cho‘lpon, 1972.

ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР ВА ШАЙБОНИЙХОН МУНОСАБАТЛАРИГА ЯНГИЧА ЁНДАШУВ

Исақова З.

ф.ф.н., доцент, Наманган давлат университети

Тарихдан маълумки, 1499 йилда Шайбонийхон Самарқандни ишғол қилди ва темурийлар салтанати барҳам топди. Турон халқи Шайбонийхон байроғи остида жипслашди. Г.Вамберининг “Бухоро ёки Мовараунnаҳр тарихи” асарида бу ҳодиса шундай очиқланган: “Темурий сулоласининг юлдузи сўнаётганди ва 19 ёшли Бобур Мирзо уни тўхтатишга қодир эмасди. Чингизхон авлоди, Жўчи улуси [Олтин Ўрта] вакили Шайбоний Муҳаммадхон

темурийларнинг ўзаро уруши аланга олаётган ва босиб олиш учун қулай фурсат юзага келаётган лаҳзада кўп сонли ўзбек отлиқ аскарлари шарофати билан аллақачон Мовароуннаҳрнинг кўплаб муҳим нуқталарини амалда эгаллаб олганди. Бу омадли жангчи Темурийлар ҳукмронлигига нуқта қўйди".

Темурийлар ҳукмронлигига нуқта қўйган Шайбонийхон ким бўлган?

Султон Муҳаммад Шайбонийхон (1451-1510) Абулхайрхоннинг невараси, Шоҳбудоғ султоннинг ўғли, шайбонийлар сулоласи асосчиси. Абулхайрхон уни "Шоҳбахт" деб атаган. Отаси бевақт вафот этгач, Абулхайрхоннинг қарамоғида қолган. Султон Мухаммад Шайбон Бойшайх оталиғида вояга етган. Абулхайрхоннинг вафотидан сўнг Шайбонийхон Дашти Қипчоқда ўз ҳукмронлигини ўрнатган. Шайбонийга отасининг содиқ хизматкори Қорачабек ғамхўрлик қилиб, "…бу шаҳзодага садоқат билан хизмат қилган" . Шайбонийга Туркистон ва Ўтрор ҳукмдори Муҳаммад Мазид Тархон ҳомийлик қилган. Ҳерман Вамбери ёзишича, Мазид Тархон "…ўзбек бошлиқларининг елкасига чиқиб олиши таҳликасини ҳис этгандан кейин, хавфдан қутулиш учун уларни Бухоро ҳокими Абдулали Тархонга юборган" . Маҳаллий ҳукмдорлар Муҳаммад Шайбонийхоннинг кучидан ички ва ташқи рақибларига қарши курашда фойдаланганлар. Бу курашларда Шайбонийхон моҳир лашкарбошилик қобилиятини намоён қилган .

1490 йилдан шаҳзодалар ўртасидаги ўзаро кураш ва ички низолар туфайли заифлашган Мовароуннаҳрга юриш бошлаган. Бобур Мирзо 1500 йилда Самарқанд тахтини иккинчи марта эгаллаган, аммо маҳаллий зодагонларнинг кўпчилиги Бобур Мирзони қўллаб-қувватлашмаган. 1501 йилнинг баҳорида Бобур Мирзо Шайбонийхон билан бўлган жангда енгилиб, Самарқандни тарк этган.

Муҳаммадёр ибн Араб Қатағоннинг "Мусаххир ал-билод" асарида келтирилишича, Шайбонийхон билан Шоҳ Исмоил Сафавий ўртасидаги биринчи тўқнашувдан сўнг Шоҳ Исмоил Сафавий Шайбонийхонга сулҳ таклиф қилиб юборган мактубга эътибор бермаган: Шайбонийхон "хатни ўқиб кўрди-ю, аммо ундаги гапларга илтифот назари билан қарамади... шоҳнинг хат келтирган хабарчисини қамаб қўйишни буюрди" . Шайбонийхон иккинчи марта тинчлик сулҳини рад этиб, катта хато қилган ва ўз ҳалокатига йўл очган. Шайбонийхон 1510 йилда Мавр яқинидаги Маҳмудобод қишлоғида Эрон шоҳи Исмоил Сафавий билан бўлган жангда мағлубиятга учраган ва ўзи ҳам жангда ҳалок бўлган . Унинг бошсиз танаси Самарқанднинг Регистон майдонидаги Тиллакори ва Шердор мадрасалари ўртасидаги бурчакда жойлашган "Баланд Суфа"га дафн қилинган. Бу даҳмага кейинчалик бошқа шайбонийлар ҳам дафн этилган.

Шўро даврида, ҳатто ҳозирда ҳам айрим манбаларда Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва Шайбонийхон муносабатлари бир-бирига зид, оқ ва қора рангларда талқин қилинганки, бир тарихий шахсга фақат ижобий ва бошқа тарихий шахсга салбий баҳо бериш ҳақиқатга тўғри келмайдики, мақолада айнан шу масалага янгича ёндашилди:

Биринчидан, Шайбонийхон ва шайбонийларнинг ҳам давлатчилик тарихидаги хизмати буюкдирки, Шайбонийхоннинг сиёсат майдонига чиқиши темурийлар салтанатининг парокандаликка учраган даврига тўғри келди. Мовароуннаҳрдаги тарихий вазиятни тўғри баҳолай олган Шайбонийхон унинг ҳудудларини ишғол этишга киришди. Дашти Қипчоқ қабилаларини бирлаштириш ва ўзбек давлатини қайта бунёд этиш вазифасини Шайбонийхон амалга оширди.

Иккинчидан, темурийларнинг Мовароуннаҳр тарихи саҳнасидан тушишига, шайбонийхон эмас, темурий шаҳзодаларнинг ўзлари айбдор эдилар, яъни Соҳибқирон боболари бирлаштирган салтанатнинг парчаланиши тахт талашган шаҳзодалар

келишмаслиги, ўзаро иттифоқнинг йўқлигидан юз бердики, бу тарихий ҳақиқат ва тарихнинг қайтарилмас ҳукми эди. Бунинг одил ва холис баҳосини Бобур Мирзо “Бобурнома”да аниқ-равшан битиб қўйган.

Учинчидан, темурийлар ва шайбонийлар ўртасидаги муносабатлар аввалдан мавжуд бўлган. Темурий шаҳзодалар Дашти Қипчоқдан келин олган бўлишса, темурий маликалар у ерга келин бўлиб тушган. XV асрнинг ўрталарида Абу Саид Мирзо (1451-1469) ва Дашти Қипчоқ хони Абулхайрхон (1428-1468) ўртасидаги иттифоққа биноан Мирзо Улуғбек (1409-1449)нинг қизи Робия Султонбегим Абулхайрхонга турмушга берилган ҳамда улардан туғилган ўғиллар – Кўчкунчихон (1512–1529) ва унинг авлодлари 1578 йилга қадар Самарқанд ва унинг атрофларида ҳукмронлик қилган. Иккинчи ўғли Суюнчхожахон (вафоти 1525 й.)нинг авлодлари 1583 йилга қадар Тошкентда ҳукмронлик қилган. XV аср ўрталарида Астраханда ҳукмронлик қилган шайбоний сулоласи вакилларидан бири бўлган Аҳмадхон ҳам Султон Ҳусайннинг синглиси Бадакабегимга уйланган. Улардан туғилган ўғиллар кейинчалик, 1469 йили Султон Ҳусайн Ҳирот тахтини эгаллагач, шу ерда султон хизматида бўлганлар. 1497-1501 йилларда Бобур Мирзо ва Муҳаммад Шайбонийхон ўртасида Мовароуннаҳр ҳукмронлиги учун кураш кечган йиллар ва ундан кейинги даврда ҳам темурийлар ва шайбонийлар ўртасида қуда-андачилик янада ривожланди. Бобур Мирзонинг беш нафар опа-синглисидан уч нафари шайбоний султонлар никоҳида бўлган. 1501 йилда Самарқанд қамали натижасида Бобур Мирзонинг опаси Хонзодабегим Шайбонийхон никоҳига ўтди. Муҳаммад Шайбонийхоннинг уч ўғлидан иккинчиси – Хуррамшоҳ султон (1502-1511) Хонзода бегим ҳамда Шайбонийхоннинг ўғли, Бобур Мирзонинг жияни бўлган ва унга Балх вилояти суюрғол қилиб берилган эди. Бобур Мирзонинг Ёдгор Султонбегим исмли синглиси 1504 йили, Ахси ва Андижон Шайбонийхон томонидан эгаллангач, Ҳамза султоннинг Абдулатиф султон исмли ўғлига олиб берилган. Кенжа синглиси Руқия Султонбегим 1512 йили Бобур Мирзонинг шайбонийлардан енгилиши ва чекиниши натижасида Жонибек султон (Абулхайрхоннинг невараси, Шайбонийхоннинг амакиваччаси, шайбонийларнинг етук вакили Абдуллахон II нинг бобоси, 1529 йили вафот этган) қўлига тушган ва султон уни ўз никоҳига олиб, ардоқли малика сифатида эъзозлаган ҳамда ундан бир нечта фарзанд кўрган. Бобур Мирзонинг амакиси, Самарқанд ҳукмдори Султон Аҳмад мирзо (1469-1494)нинг икки қизи шайбоний султонлар никоҳида бўлган. Хусусан, катта қизи Қоракўзбегим Тошкент хони Султон Маҳмудхон никоҳида бўлган. 1508 йили хон ўлдирилгач, Қоракўзбегим шайбонийлардан Жонибек султон никоҳига ўтган ва умрининг охирига қадар шайбонийлар харамида олий маликалар сафида бўлган. Тўртинчи қизи Султонбегимни 1501 йили Шайбонийхоннинг тўнғич ўғли Темур султон олган. Шайбонийлар сулоласининг энг йирик вакили бўлган Абдуллахоннинг отаси Искандархон она томондан Султон Маҳмудхон (Бобур Мирзонинг тоғаси, Тошкент хони)нинг набираси эди. Шу жиҳатдан, Абдуллахоннинг Бобур Мирзога қариндошлиги ҳам бўлган.

Тўртинчидан, икки сулола ўртасида дипломатик ва савдо-сотиқ муносабатлари бардавом бўлган.. Бобур Мирзо Ҳиндистонни эгаллаб, сулола пойдеворини барпо этгач, Мовароуннаҳр билан кенг кўламли алоқаларни йўлга қўйди, шайбоний султонларга кек сақламаган, ҳаттоки, “Бобурнома”да Шайбонийхоннинг набираси Пўлод султон (Темур султоннинг ўғли, 1530 йили вафот этган) билан ёзишмаларини зикр этган. Бобур Мирзо Пўлод султоннинг назмга мойиллини билгач, унга “Девон”ини туҳфа қилган. Мактубга қуйидаги шеърий байтни илова қилган:

Ул сарвнинг ҳарамиға гар етсанг, эй сабо,

Бергил бу ҳажр хастасидин ёд кўнглига.

Раҳм айлабон соғинмади Бобурни, бор умид,

Солғай Худой раҳмни Фўлод кўнглига [4:179].

Шайбонийлар сулоласи вакили Абдуллахон даврида Бухоронинг нуфузи ортиб, Абдуллахон Ҳиндистондаги бобурийлар билан илиқ дипломатик муносабатлар ўрнатди, бир неча марта элчилар юборди, бобурий Акбаршоҳ элчиликларни қабул қилди. Шунингдек, 1528 йили Бобур Аградаги элчиларни қабул қилиш маросими ҳақида ёзар экан, Мовароуннаҳрдан келган Кўчкунчихон элчиларига чап томондан жой берилгани, уларга Эрон, ҳинд ва бошқа юртлардан келган элчилар билан бир хил муносабатда бўлинганлигини таъкидлайди. Бобур бу манзарани таърифлай туриб бошқа давлат элчиларининг кимлиги, уларни ким юборганлиги, уларга қандай муносабатда бўлинганлиги сингари масалаларга тўхталмасада, Мовароуннаҳрдан келган элчиларни номма-ном санаб, уларнинг Абу Саид султон (1530-1533), Меҳрибон хоним (Шайбонийхоннинг келини, Темур султоннинг хотини) ва унинг ўғли Пўлод султон томонидан юборилгани, уларга қандай совғалар улашилганини батафсил ёзади. “Бобурнома”нинг 1528 йил воқеалари баён қилинган қисмида шайбонийлардан бўлган Балх ҳокими Кистан Қора султон (шайбонийларнинг машҳур вакили Абдуллахоннинг амакиси)дан келган элчилар, уларни қабул қилиш ва кузатиш ҳолатларига тўхталади.

Бешинчидан, Бобур Мирзо “Бобурнома”да 1506 йилги воқеаларни тасвирлар экан, бу даврга келиб Мовароуннаҳрда Муҳаммад Шайбонийхон ҳукмронлиги ўрнатилгани, темурийларнинг айримлари жангларда ҳалок бўлгани, айримлари Шайбоний тарафига ўтиб кетгани ва бир ўзи ёлғизланиб қолганини надомат билан ёзган бўлса ҳам, шайбонийлар сулоласига мансуб кўплаб султонлар Бобур Мирзонинг хизматида бўлган. Шайбонийлардан бўлган Бахтиёр султоннинг ўғиллари – Ҳамза султон ва Маҳди султон дастлаб Шайбонийхонга хизмат қилган бўлса-да, кейинчалик Ҳисорда ҳукмронлик қилиб турган темурий ҳукмдор Султон Маҳмуд мирзо (1494 йилга қадар Ҳисор ҳокими, 1494-1495 йилларда Мовароуннаҳр ҳукмдори) хизматида бўлган. Султон Маҳмуд мирзо вафот этгач, 1495 йили Андижонга келиб Бобур хизматида бўлган ва унинг дастлабки жангларида иштирок этган. Шайбонийлар наслидан бўлган яна бир давлат арбоби, саркарда Одил султон 1525 йилдан Бобур хизматида бўлган. 1525 йилги “Миёни Дуоба”, 1526 йилги “Панипат”, 1527 йилги “Канва” жангларида Бобур қўшинининг асосий қисмларига бошчилик қилган ва ғалабани таъминлашга ўз ҳиссасини қўшган. У 1528 йили Ҳиротдан Кобулга келган Султон Ҳусайн Бойқаронинг невараси Шодибегимга уйлантирилган. “Бобурнома”да ёзилишича, шайбонийлардан бўлган Тонготмиш султон 1528 йили Бобур Мирзо ҳузурида уюштирилган зиёфатда ҳукмдорнинг чап томонида ўтирган. Тонготмиш султон Ганг дарёсининг Ҳалдий гузарида Бангола қўшини билан бўлган жангда иштирок этган ва Бобурнинг эътирофига сазовор бўлган. Бобур Мирзо қўшинида шайбонийлардан бўлган Муҳаммадий султон Панипат жангида (1526 й.), Тўламиш султон Канва жангида (1527 й.) жасорат кўрсатиб садоқатини намоён қилган. Бобур Мирзо қўшинида Маҳди султон, Ҳамза султон, Одил султон, Тўламиш султон сингари шайбонийларнинг садоқат билан хизмат қилиб юқори мартабага эришгани Бобур Мирзонинг барча туркий қавм, жумладан, шайбонийларга халқ сифатида қараганини кўрсатади. Бобур Мирзо Муҳаммад Шайбонийнинг қариндошларини ҳурмат билан муносабатда бўлиш билан бирга, душманлик қисматида уларнинг айби ёки ўрни борлигига бағрикенг ҳукмдор сифатида аҳамият бермайди.

Олтинчидан, Шайбонийхон шариат амалларига бўйсунган ва мусулмонлик қоидаларига амал қилган. Унинг дин арконларидан яхши хабардор эканини Бобур Мирзо ҳам тан олган. Шайбонийхон ўзини суннийлик мазҳабидаги мусулмонларнинг химоячиси деб ҳисоблаган.

Шоир ва тарихчилар уни “Халифат ур-раҳмон” ва “Имом уз-замон” деб улуғлашганки, Шайбонийхон Ҳирот олинган йил (1506 й.)да сазовор бўлган.

Еттинчидан, шайбонийхон маданият ва маориф соҳасида темурийлардан ибрат олиб, Бухоро, Самарқанд, Тошкентда масжидлар, мадрасалар солишга амр этган. Давлатни иқтисодий ва сиёсий жиҳатдан мустаҳкамлаш учун давлат бошқарувида “суюрғол” тизимини жорий этган. Забт этилган ҳудудларни бошқариш ишини фарзандлари, қариндош-уруғлари, биродарларига ишониб топширган. Балх – Султоншоҳга, Ҳисор – Маҳди ва Ҳамза султонларга, Андижон – Маҳмуд султонга, Қундуз – Аҳмад султонга, Ҳирот – Жонвафобийга, Марв – Қўбиз найманга, Тошкент – Суюнхожага, Хоразм – Кепакбий қушчига, Самарқанд ва Кеш – Муҳаммад Темурга, Бухоро ва Қоракўл – Маҳмуд султонга, Туркистон – Кўчкунчихонга тақдим этилган. 1507 йилда пул ислоҳоти ўтказиб, вазни бир хил - 5,2 грамм бўлган янги кумуш танга ва мис чақа пуллар зарб қилиш ва муомалага чиқаришга фармон қилган. Бу ислоҳот иқтисодиётни тартибга солиш ва савдо-сотиқни жонлантириш, ҳокимиятнинг сиёсий ва иқтисодий мавқеини кучайтириш, маҳаллий ҳокимлар мавқеини кучсизлантириш, деҳқонларнинг солиқ тўлаш имкониятини ошириш, давлат ва аҳоли мулкини кўпайтиришга имкон берган. Шайбонийхоннинг таълим соҳасидаги ислоҳотлари ҳам таҳсинга лойиқ бўлиб, кўп босқичли ўқитиш тизими жорий этилган. Ислоҳотга кўра, таълимнинг қуйи босқичи мактаб бўлиб, болалар олти ёшидан қабул қилинган. Мактабда икки йил ўқигач, ўқиш мадрасага давом эттирилган. Мадрасада уч босқичли таълим жорий этилиб, ҳар бир босқичда саккиз йилдан ўқилган. Ўқиш жараёни йигирма олти йил давом этган. Шайбонийхон билимли кишиларни жамиятнинг асосий таянчига айлантириш ҳаракатида бўлган.

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда, Бобур Мирзо билан Шайбонийхон ўртасидаги зиддиятли масалага нуқта қўйиш шарт. Зеро, битта миллат, битта халққа мансуб бўлган икки ҳукмдорнинг тарихдаги ўрни ўзига хос ва бетакрордир. Мовароуннаҳрда бир аср давомида ҳукмронлик қилган шайбонийлар сулоласи темурийлар, маҳаллий аслзодолар билан сингишиб, қон-қариндош бўлиб, мамлакатнинг ижтимоий-сиёсий ва маданий тараққиётида муҳим аҳамиятга эга бўлган.

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ЗАХИРИДДИНА МУХАММАДА БАБУРА

Исмагулова Г.Н.
Старший преаватель ЧВТКИУ

Духовное наследие великого мыслителя, поэта и государственного деятеля Захириддина Мухаммада Бабура играет огромную роль в повышении духовности молодежи, формировании в ее сердце и сознании чувств патриотизма, самоотверженности, честности.

Бабур снискал уважение и признание среди народов мира как великий ученый, поэт, государственный деятель, основатель империи Бабуридов, оставивший глубокий след в истории человечества, жизни Бабура вдали от Родины. Его творчество и социально-философские взгляды имеют огромное значение в развитии научно-философской мысли и духовной культуры средневековья. Великий полководец, ученый, философ, умелый организатор государственного строительства, Захириддин Мухаммад Бабур сумел построить одну из крупнейших империй в истории человечества. В условиях средневековья смог

создать на территории Индии централизованное государство. Бабур был не только поэтом, ученым: он, будучи правителем, выступал за развитие производственных сил, укрепление обороны страны и других ценностей политической, экономической и социальной сферы. В результате успешной предпринимательской деятельности, целенаправленной, гибкой социально-экономической внутренней политики, мобилизации человеческих, интеллектуальных ресурсов ему удалось прекратить междоусобные и религиозные войны, положив тем самым начало новому этапу в истории страны, отмеченной высоким ъемом экономики, культуры.

В процессе строительства нового государства он предстает как дальновидный политик, стратег, глубоко знающий роль культурно-экономического механизма в обеспечении безопасности и развития страны, социальной стабильности в обществе. Бабур вошел в историю Средневековья как талантливый стратег, обладавший безграничным мужеством, знаток основы социально-экономического и военного управления государственного механизма. Великому полководцу удалось создать высокоорганизованное дисциплинированное войско, стать непререкаемым авторитетом для своих воинов, пользоваться их безграничным уважением, успешно осуществлять работу по обеспечению войска необходимым оружием и провиантом. В период правления Бабур сумел многое сделать для развития инфраструктуры городов, улучшения международных торговых связей, в том числе успешного действия Великого Шелкового пути на территории нынешней Индии и Афганистана. В результате проведения мирной внутренней политики в условиях его правления государством получило широкое распространение строительство каравансараев, торговых точек, городских рынков, библиотек и медресе. Он создал атмосферу творчества вокруг себя, собрав великих ученых, поэтов, художников эпохи Возрождения. Именно в Агре увидели свет известные произведения Бабура, линная жемчужина его творчества – «Бабур-наме», книга, давшая исчерпывающие сведения об истории, географии, политике, экономике и социальной жизни народов, населявших Среднюю Азию, Афганистан и Индию в условиях средних веков. «Фиксируя в своем дневнике и крупные и незначительные события, свидетелем и участником которых он был, Бабур оставил нам робное описание битв и сражений, точные наблюдения над жизнью, нравами и обычаями своей родины и чужих стран. “Бабур-наме” богат остроумными высказываниями и неожиданными сравнениями, меткими характеристиками и тонкими замечаниями, свидетельствующими о глубоком знании человеческой души и окружающего мира в целом. Большой любитель природы и ценитель культурного наследия предков, Бабур охотно останавливается на описаниях понравившихся ему цветов и деревьев, робно рассказывает о диковинных зверях, на которых ему приходилось охотиться, не забывая при этом упомянуть о вкусе их мяса» [1, 8].

В трудах, в неповторимой поэзии поэта затронуты философские вопросы нравственности и духовного совершенства человека. Великий мыслитель возвышает благородство, дружбу между людьми, преданность своему делу, верность идеалам и созидательные возможности человека, относится к самоотверженному труду с великим уважением, высоко ставит человеческое достоинство. Бабур в своих произведениях критикует эгоизм, самолюбие, жадность, предательство, тщеславие – негодные качества, губящие личность. Даёт искренние советы людям, молодому поколению. В социально-философском наследии мыслителя имеются взгляды о необходимости формирования гуманистических черт в личности, как человек должен воспитывать в себе духовно моральные и нравственные качества. Исследуя проблему социального и нравственного

облика человека, основное назначение человеческой деятельности видит в созидательном труде, добре, великодушии, благородстве. В трудах поэта имеются ценные мысли о роли дружбы между народами, он считает дружбу самой важной стороной человеческого качества в торгово-экономических отношениях и в борьбе с неприятелем. Бабур принимал меры для создания централизованного государства, обеспечивающего социально-экономическую стабильность и благосостояние страны. Бабур оставил человечеству богатейшее литературное и научно-философское наследие, внес огромный вклад в развитие мировой литературы. Алфавит «Хатт-и Бабури», трактат «Аруз рисоласи», книга по исламской религии «Мубайин», перевод философско-суфийского сочинения Ходжа Ахрара «Рисолаи волидия» и другие научные, философские и художественные произведения о поэзии, музыке, военном деле. Бабур является автором произведения «Мубайин», который является ценным источником руководства по взиманию налогов, где излагались принципы налоговой системы, определялись порядок взимания и размер каждого налога. Уникальный энциклопедический, научный труд «Бабур-наме» по сей день вызывает большой интерес ученых, в том числе философов во всем мире. В «Бабур-наме» воспевается красота природы и человека, лучших нравственных качеств личности, автор выступает в качестве объективного летописца исторических событий, происходивших в условиях средних веков, осуждая насилие и ханжество. Бабур предстаёт мудрым учёным, меценатом, ценителем творчества людей науки и искусства, который умеет объективно и с точки зрения самых передовых взглядов своего времени оценить деятельность исторических личностей. «Бабур-наме» содержит многочисленные сведения о политическом и хозяйственном устройстве стран Центральной Азии и Индии, природе, науке и культуре, о быте и языке этих народов, приводит словесные портреты современников, государственных деятелей, художников, музыкантов, историков. Чрезвычайно ценными являются сведения о полезных ископаемых городов Центральной Азии, отмечается их назначение в хозяйственной жизни страны. «В этих горах есть бирюзовые россыпи и железные рудники. Доходами области Ферганы можно, если соблюдать справедливость, содержать три-четыре тысячи воинов» [1, 18]. С большой любовью и восхищением пишет Бабур о Самарканде, дает описание обсерватории Улугбека, отмечая совершенство этого сооружения. Главное, автор не только собирает и описывает свои наблюдения, но и обобщает их, давая увиденному точную характеристику. Бабур пишет: «Улугбек Мирзанаписал в этой обсерватории “Гургановы таблицы”, которыми пользуются теперь во всём мире» [2, 61]. «Бабур-наме» стоит выше любой исторической хроники, составленной придворными летописцами того времени, поэтому неудивительно, что еще при жизни автора труд вызывал большой интерес ученых, а с XIX века оказался в центре внимания ученых всего мира. «Бабурнаме» – своеобразный человеческий документ, составленный на основе его тонких наблюдений за окружающим миром. В нём робно описана политическая обстановка в Средней Азии, Афганистане и Северной Индии на рубеже XV-XVI вв. Это литературный и историко-философский памятник для изучения социально экономических отношений в Средней Азии, Афганистане и Индии в конце XV и начале XVI вв. Бабур хорошо знал обычаи, нравы жителей страны, которые были оседлыми земледельцами и скотоводами, говорившими на различных языках и обитавших на обширных территориях. В «Бабур-наме» имеются бесценные научные материалы из социально-экономической жизни народов, затрагиваются вопросы морали, этики, нравственности и другие аспекты эпохи Средневековья. «Бабур-наме» содержит многочисленные сведения о биографии многих поэтов того времени, живших в Средней Азии, Афганистане и Индии и писавших свои стихи на персидском и узбекском языках. В

книге много словесных портретов государственных деятелей, поэтов, художников, музыкантов. Очень ценным является описание творческого портрета великого поэта, мыслителя Алишера Навои. Как черкивает Бабур, Алишер Навои не только талантливый поэт и учёный, но и тонкий дипломат, меценат науки и культуры своей эпохи. Историко-познавательное и воспитательное значение научно-философского наследия Бабура, чья жизнь и творчество посвящены торжеству добра, гуманизма и созидания, огромно. Оно и сегодня служит методологическим источником для совершенствования социально-экономической деятельности человека, играет важную роль в воспитании молодежи. Бабур в своем творчестве ставит на первый план воспевание настоящего, созидательного человека, возвеличивает его, призывает высоко ценить честь и достоинство. Со дня смерти Бабура прошло более четырех веков, но имя великого мыслителя Бабура – историка, философа, этнографа, талантливого поэта, умелого полководца и государственного деятеля – бессмертно. «Память человечества экономна, у великого обилия возникающих образов, имён и деяний она хранит позднее лишь те, которые еще содержат в себе нечто важное и потребное для жизни. Она обобщает уверенно, по какомуто безошибочному чутью, крепко храня нужное, пока оно нужно, и сметая всё остальное, как сор, в быстро уносящую реку забвений» [4, 3]. Именно бесценное произведение Бабура «Бабур-наме» выдержало суровое испытание истории.

Таким образом, можно сделать вывод, что социально-философские взгляды Захириддина Мухаммада Бабура свидетельствуют о том, что он был не только разносторонне развитой личностью, крупным государственным деятелем, полководцем, талантливым ученым, великим поэтом, большим ценителем и покровителем искусства, но и страстным патриотом. Социально-философские мысли, творчество и литературное наследие великого ученого и поэта и в наши дни несет воспитательную миссию для молодого поколения. Идеи добра и гуманизма, воспетые в произведениях Захириддина Мухаммада Бабура, не утратили своей ценности и значимости на протяжении веков и очень созвучны тем огромным переменам, которые происходят в жизни нашей страны в условиях нового этапа развития Узбекистана .

Литературы

1. Захриддин Бабур. Бабур-наме. / пер. М. Сале. – Баку : Нагыл-Еви, 2011.
2. Захриддин Бабур. Бабур-наме. / пер. М. Салье. – Ташкент, 1958.
3. Захириддин Бабур и его труд «Бабур-наме». – Ташкент : Энциклопедия, 1992.
4. Неру Дж. Открытие Индии. – Москва, 1955. 5. Петрарка Ф. Автобиография : Исповедь Сонаты / пер. М. Гершензона и В. Иванова. – Москва, 1915.

БОБУР ВА БОБУРИЙЛАР ДАВРИДА АЁЛЛАРНИНГ ЖАМИЯТДАГИ ЎРНИ

Қодирова З.З.
Низомий номидаги ТДПУ мустақил тадқиқотчиси

Буюк ўзбек давтат арбоби ва адиби, Ҳиндистонда Бобурийлар империяси асосчиси Заҳириддин Муҳаммад Бобур (1483-1530) бой адабий мерос қолдирган: ҳуқуқ, мусиқа, адабиёт, тарих, фалсафа, география, биология ҳарбий ишлар ва бошқа соҳаларда. Унинг асосий асари "Бобурнома" ҳисобланиб, ғазал ва рубоийларида ҳам ўзининг илмий, фалсафий

қарашлари, ҳаётий воқеалар ўрин эгаллайди. Шуни айтиб ўтиш керак-ки, унинг барча асарлари ўзбек тилида ёзилган [1].

Заҳириддин Муҳаммад Бобур "Бобурнома" асари уч қисмдан иборат бўлиб, биринчи қисм XI аср охирида сиёсий воқеалар тавсифига бағишланган; иккинчи қисм Афғонистон (Кобул шаҳар) ҳудудида содир бўлган воқеаларни қамраб олади; учинчи қисм Шимолий Ҳиндистондаги сиёсий воқеаларни, мамлакатнинг географик маълумотларини, табиий хусусиятларини, бу мамлакатда истиқомат қилган халқлар ҳақидаги маълумотларни ўз ичига олади [2].

522 йилда ўғли Ҳумоюнга атаб ёзган «Мубаййин» номли асарида ўша замон муҳити акс эттирилган бўлиб, солиқ тизими, солиқ йиғишнинг қонун-қоидалари, шариат бўйича кимдан қанча солиқ олиниши ва бошқа масалалар назмда изоҳлаб берилган. «Хатти Бобурий» деб аталган рисоласида араб алифбосини туркий тиллар, хусусан, ўзбек тили нуқтаи назаридан бирмунча соддалаштириб беришга ҳаракат қилган [3]. Бобур "Мубайин" асари таълим-тарбия, одоб-аҳлоқ баҳсларни ўз ичига олган етук ва дидактик кўрсатмалар асосида ёзилган [4]. Бобурнинг рубоий ва ғазалларида дўстлик, Ватан, ҳалоллик, яхшилик ва ёмонлик, ота-онага ҳурмат, аёлларга муносабат, динга, бойликка, тарбиянинг аҳамияти, тарбия ҳақидаги фикрлар асосий ўринни эгаллайди [5].

Шунингдек, Бобурнинг педагогик таълимотлари гўзал "Аруз ҳақида рисола" сида ёрқин очиб берилган бўлиб, унда муаллиф версификатсия қоидалари ҳақида батафсил кўрсатмалар берган. Бу асар дидактиканинг бир тури бўлиб, унда ўзбек ва форс тилларининг қиёсий таҳлилида фонетика, бўғин ҳосил қилиш ва қофияланиш қонуниятлари диққат билан очиб берилган. Рисолада тарихий маълумотномалар, шарқнинг машҳур шоирларини текширишга доир мисоллар ва фойдаланилган терминларнинг муфассал изоҳи берилган. Бобурнинг адабий фаолияти ўзбек тили тараққиётига ўз ҳиссасини қўшди. Имло, услуб ва талаффузга катта аҳамият берган. Асарларнинг тили ва услуби жуда оригинал, содда, ихчам ва оммабоп. Бобурнинг тарихчи, географ, этнограф, насрий ёзувчи ва шоир сифатида эришган ютуқлари Жаҳон шарқшунослиги томонидан эътироф этилиб, унинг мероси дунёнинг барча йирик Шарқ марказларида ўрганилади.

Жумладан, 1995-йили инглиз тарихчиси У.Ерскиннинг “Бобур Ҳиндистонда” асари [6], ҳинд тарихчиси Л.П.Шарманинг 1988-йили Деҳлида босилган “Бобурийлар салтанати” асари [7], америкалик олим С.М.Беркнинг “Акбаршоҳ – бобурийларларнинг энг буюги [8]” (Берк Акбаршоҳ шахсияти ва фаолияти мисолида Ҳиндистонга Бобур асос солган, жаҳон тарихига, “Буюк мўғул империяси” номи билан кирган салтанатнинг мустаҳкам томир ёзиш жараёнини тасвирлайди) асарларида Бобурга замондош тарихчиларнинг қўлёзмалари, Ҳиндистон тарихига оид тадқиқотлар, XX асрнинг жаҳонга машҳур олим ва таржимонларининг асарларида Бобурнинг бутун ҳаёт йўли, ҳукмронлик фаолияти, диний-фалсафий қарашлари, давлатни бошқариш усули, маданият ва санъатга муносабати сингари масалалар тасвирланган. Америкалик тадқиқотчи Берк Бобурга берган қисқа ва лўнда тавсифларида унинг ҳаёт йўли, давлатчилик тарихидаги хизматлари ва шахси ва фаолиятидаги энг муҳим жиҳатларни мухтасар тарзда ёритишга эришган. Муаллиф Бобурнинг ҳукмронлик сиёсати хусусида шундай ёзади: “Бобуршоҳнинг фикрича, фотиҳлик ва ҳукмдорлик ишида юз минг усул қўлласа ҳам ҳақ ва зарур ҳисобланади. Бироқ босиб олинган ерларни, айниқса, бу ўлкаларни ўз салтанати таркибига киритиш режалаштирилган бўлса-да, у ғолиб аскарлар мағлублар мулкини талон-тарож қилишига мутлақо йўл қўймасди” [9]. Бобур ҳаёти ва ижоди Францияда ҳам кенг ўрганилган бўлиб, Франция илм аҳлига Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва “Бобурнома” ҳақида

даставвал маълумот берган француз шарқшуноси Бартолеме дъЕрбело (1621-1695) ҳисобланади. ДъЕрбело ўзининг “Шарқ кутубхонаси” [10] (Ла Библиотеқуе ориентале. Париж, 1967) қомусидаги “Бобур ёки Бобар” номли мақоласида [11] Бобурнинг ҳаёти, унинг давлати ва саркардалик маҳорати, адабиёт ва санъатга қизиқувчи илғор фикрли киши бўлгани ҳақида маълумот беради. XIX асрга келиб Европа, хусусан, француз шарқшунослигида Бобур меросини ўрганиш, унинг асарларини таржима қилиш борасида янги давр бошланди. Айни шу йилларда Бобурнинг улкан асари “Бобурнома”ни француз тилига таржима қилиш, унинг матн хусусиятларини ўрганиш, тарихий аҳамиятини баҳолашда француз олимлари эътиборга молик тадқиқотларни яратишди.

“Бобурнома”ни француз тилига таржима ва тадқиқ қилишга шарқшунос Анри Жюл Клапрот (1783-1835) биринчилардан бўлиб ҳаракатни бошлайди. 1824-йил А.Клапротнинг “Султон Бобур ёхуд “Бобурнома” тарихига оид кузатишлар [12]” номли мақоласи омма эътиборига ҳавола этади. Марказий Осиё ва Сибирда яшаган халқлар тарихи, маданияти ва адабиётини яхши билган Клапрот Европа шарқшунослигида “Бобурнома” хусусида илк бор тўлақонли фикр юритган эди. Шундан сўнг 1854-йили Парижда “Ҳозирда ва қадимда яшаган тарихий шахслар ҳаёти” номли катта китоб чоп қилинади. Мазкур китобдан шарқшунос М.Лангле (1763-1824) нинг “Заҳириддин Бобур ҳаёти ва ижоди” номли мақоласи ҳам ўрин олган эди [13]. Мақолада Бобур ҳақида аввалги манбаларга нисбатан анча бой маълумот берилган. Француз олимлари сўнгги йилларда Бобур тўғрисида тез-тез мақолалар чоп эттирар, китоблар нашр қилдирарди.

Маълумки, Бобурнинг “Аруз рисоласи” асари ўзбек, араб ва бошқа туркий халқлар шеърияти қонуниятларини ўрганишда муҳим аҳамиятга эга бўлган қўлланмадир. Қўлёзманинг бир нусхаси Париждаги Миллий кутубхонада сақланиб келинаётгани ҳақида 1923-йил турк олими М.Ф.Кўпрулизода илк бор маълумот беради. Француз шарқшуноси Эдгар Блоше ўзининг Париждаги “Миллий кутубхонада сақланаётган қўлёзмалар каталоги” китобида “Аруз рисоласи”нинг ушбу қўлёзмасига алоҳида тўхталиб ўтади [14].

Бобур давлатни бошқариш соҳасида ўз даврининг қатор тараққийпарвар тадбирларни жорий этиб, ўз давлатининг барча жойларида бунёдкорлик, ободончилик ишларига катта аҳамият беради, кўплаб карвонсарой ва ҳаммомлар қурдиради.

Бобурийлар даврида яшаган аёллар ўзларининг тафаккури, жамият, илм-фанга қўшган ҳиссаси билан аҳамиятлидир. Улар улкан мероси билан машҳурдир.

Улардан, Хонзода бегим Умар Шайх Мирзонинг (1456—1494) қизи, Заҳириддин Муҳаммад Бобур Мирзонинг опаси [15]. У 1478 йилда Андижонда туғилган. Унинг онаси—Қутлуғ Нигор хоним Тошкент хони Юнусхоннинг қизи эди. Тарихий манбаларга кўра, Хонзода бегим дид-фаросатли, ўткир зеҳнли ва ақл-заковат соҳибаси бўлган. Хонзода бегим айни балоғат ёшига етганда отаси Умар Шайх Мирзо тасодифан жардан йиқилиб, оламдан ўтади. Ота тахтига ўтирган 12 ёшли Заҳириддин Муҳаммад Бобур Мирзонинг қисматида дарбадарлик даври бошланади [16].

Хонзода бегим ўзининг ақл-идроклиги ва тадбиркорлиги натижаси ўлароқ, сарой маликалари орасида юксак эътиборга эга бўлади. Хонзода бегим Бобуршоҳ ва унинг тахт вориси Ҳумоюншоҳ саройида маслаҳатчи вазифасини бажарган. 1544 йили Хонзода бегим Кобулҳақ деган жойда оламдан ўтади. Орадан уч ой ўтгач, унинг хокини Кобулга келтириб, Бобуршоҳ мақбарасига дафн қиладилар.

Бобурийлар даврининг яна бир зукко, латофатли, жамият ҳаётига ҳисса қўшган аёли Гулбадан бегим ҳисобланади. Гулбадан бегим Заҳириддин Муҳаммад Бобуршоҳнинг Дилдор бегим номли хотинидан туғилган учинчи қизидир. Гулбадан бегим 1523 йили Кобулда

туғилган. Унинг онаси Дилдорбегимнинг ҳақиқий исми Солиҳа Султон бегим бўлиб, Заҳириддин Муҳаммад Бобур Мирзонинг амакиси Султон Маҳмуд Мирзонинг қизи эди. Гулбадан бегим отасн Бобур шоҳнинг фармонига кўра катта онаси, яъни Ҳумоюн Мирзонинг онаси — Моҳим бегим қўлида тарбияланади. Моҳим бегим Бобур шоҳнинг энг севикли катта хотини, ҳукмдорнинг хотинлари орасида энг оқила ва билимдони эди. Бинобарин, 1525 йили Гулбадан бегимни Моҳим бегим ўз тарбиясига олади. Гулбадан бегим ҳар иккала онасини ҳам самимий эъзозлаган. У ўз асарида онасини «Дилдор бегим» деб, Моҳим бегимни эса «онам ҳазратлари» деб тилга олади. Гулбадан бегим 1529 йилгача Кобулда яшайди. Бобур Ҳиндистонни қўлга киритгач, Моҳим бегим билан бирга шоҳ отасининг ҳузурига—Аграга боради. Отаси Бобур вафотидан сўнг, акаси Ҳумоюн шоҳ саройида яшайди. 1539 йилда Гулбадан бегимни Хизр Хўжахонга турмушга чиқарадилар. У бир ўғил кўради, исмини Саодатёр деб атайдилар. 1556 йили Ҳумоюн шоҳ вафотидан сўнг салтанат тахтига унинг ўғли Жалолиддин Акбаршоҳ (1542—1605) ўтиргач, шоҳнинг онаси Ҳамида бону билан Гулбадан бегим саройга — Деҳлига қайтиб келадилар. Ана шундан сўнг, Гулбадан бегим то умрининг охиригача жияни Акбар шоҳ саройида яшайди. Гулбадан бегим ўз замонасининг оқила, донишманд аёлларидан эди. У жияни Жалолиддин Акбар шоҳнинг «Фирдавс макон ва жаннат ошён Ҳазрат ҳақидаги воқеалардан нимаики билсангиз, ёзингиз»,— деган ишорасига мувофиқ, «Ҳумоюннома» номли ажойиб ва муҳим тарихий асарини ёзишга киришади. «Ҳумоюннома» Бобур шоҳ билан Ҳумоюн шоҳнинг ҳаёт тарзи ва саргузаштларининг мухтасар тарихи бўлиб, мантиқан «Бобурнома»нинг давомидир. Бу асарнинг муҳимлиги яна шундаки, «Бобурнома» асаридаги айрим воқеаларнинг келиб чиқиш сабаблари мукаммал очиб берилади.

Гулбадан бегим ўз асарида сарой аҳлининг ҳаёт тарзи, шунингдек, тарихий асарларда учрамайдиган Бобур шоҳ хонадонининг нозик хусусиятлари, оилавий шароитлари, тўй ва аза билан боғлиқ удумлар, уй-рўзғор асбоблари, кийим-кечак турлари каби жиҳозлар ҳақида муфассал ҳикоя қилади. Аммо, афсуски, асарнинг охирги қисми ўша замоннинг суронли йилларида йўқолиб кетган. Мир Маҳди Мирзонинг «Тазкират ул-ҳавотин» асарида келтирилган «Севгисиз ҳаётда маъно йўқ» мазмунидаги икки байтига қараганда, Гулбадан бегимнинг ғазалиётдан ҳам хабари бўлган.

«Акбарнома» асарининг муаллифи Абул Фазлнинг берган маълумотига қараганда, 1575 йилда Гулбадан бегим Каъбатулло зиёратига жўнаб кетади ва 1582 йилда кўп қийинчиликлар билан зиёратгоҳдан қайтиб келади. Абул Фазлнинг ёзишича, Гулбадан бегим 1603 йилда 80 ёшида вафот этади. Акбар шоҳ уни катта ҳурмат ва эҳтиром билан дафн этдиради. Акбар шоҳнинг ўзи Гулбадан бегим тобутини ўғил сифатида кўтариб, дафн маросимида ўғиллик бурчини бажаради [17].

Бу даврнинг яна бир кўзга кўринган аёли Хадича бегим эди. Заҳиридин Муҳаммад Бобур Мирзо Хадича бегим ҳақида: «Ўзини оқила тутар эди, вале беақл ва пургўй (кўп гапирувчи, эзма) хотун эди, рофизия (шиийлик мазҳабининг бир оқими) ҳам экандур»,— деб ёзади. Дарҳақиқат, Хадича бегим тез фурсатда ўзининг жозибали ҳусн-латофати-ю маккорона илтифотлари билан Султон Ҳусайн Бойқарони ўзига ром қилиб, ҳарамда улуғ бекалик ўрнини эгаллайди.

Президентимиз Ш. Мирзиёев: **—** Ёшларимизнинг мустақил фикрлайдиган, юксак интеллектуал ва маънавий салоҳиятга эга бўлиб, дунё миқёсида ўз тенгдошларига ҳеч қайси соҳада бўш келмайдиган инсонлар бўлиб камол топиши, бахтли бўлиши учун давлатимиз ва жамиятимизнинг бор куч ва имкониятларини сафарбар этамиз [18] -деган эди. Шундай экан биз ёшларимизга тарихимизни чуқур сингдира олсак, эртанги кун порлоқ бўлади. Улуғ

алломанинг юқорида айтиб ўтилган ишларини, ибратли ҳаёт йўлини ва фаолиятини ёш авлод қалбига сингдириш учун дарслар жараёнида, тўгарак машғулотларида тарғибот ишларини тўғри йўлга қўйишимиз зарур.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Т; Давлат илмий нашриёти 2006. 431-b
2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. –Т.: Юлдузча 1989. Б - 14
3. S. Azimjonova, D.Valiyev. Manaviyat yulduzlari T.: 1999 33-bet
4. С. Жалилов. Бобур ҳақида ўйлар «ШАРҚ» Т.: 2006 Б-18
5. S. Azimjonova. Zahiriddin Muhammad Bobur (maqolalar to`plami) T.: 1995 11 - bet
6. History of India under the first two soverrings of the House of Taimur-Babur and Humayun. By W.Erskine. in two vols, London, 1854; Life of Babar. By W.Erskine, in two vols, London, 1854
Уильям Эрскин. Бобур Ҳиндистонда. Тошкен: «Чўлпон», 1995
7.Шарма Л.П. Бобурийлар салтанати: инг.тилидан таржима. –Т.: Маънавият, 1998 Б-130.

ТАБИИЙ ОФАТЛАР БУЮК ШАХСЛАР ТАЛҚИНИДА: ҚОБУЛ ЗИЛЗИЛАСИ ҲАҚИДА ЗАҲИРИДДИН БОБУР ТОМОНИДАН ҚОЛДИРИЛГАН МАЪЛУМОТЛАРНИНГ ИЛМИЙ АҲАМИЯТИ

Қурбонов Н.Н.
Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети ўқитувчиси

Қадим замонлардан бошлаб ўз даврининг етук олимлари зилзила сабабларига аниқлик киритиш учун қизиқиб келганлар. Хусусан, милоддан аввалги 460-370 йилларда яшаб ўтган грек олими Демокритни қолдирган маълумотларига кўра, сувларни таъсири зилзилаларни келтириб чиқарувчи асосий воситадир. Бунда қор, ёмғир, денгиз ва кўлларнинг сувларини Ер остига сўрилиши зилзилани содир бўлишига олиб келади, деган қарашлари мавжуд бўлган.[1] Бундан ташқари милоддан аввалги 384-322 йилларда яшаб ижод қилган, яна бир грек олими Аристотель қолдирган маълумотларда, ғорлар ва бошқа Ер бўшлиқларида тўпланиб қолган ҳаво катта босим билан Ер қаърига кириши, ҳамда, довуллар ва Ой тутилиши – Ер силкинишини сабабчиларидир, деб айтиб ўтилган.[2]

Бироқ, тарихий манбаларда бу турдаги геологик ҳодиса ва унинг оқибатлари хусусида тўла маълумотлар учрамасада, улар ҳақида айрим воқеликларнинг юз берганлиги ҳамда оқибатлари хусусида хабарлар ёзиб қолдирилган. Жумладан, Абу Саид Гардизийнинг “Китоб Зайнал Ахбор” асарида “224 йилда (838-839 йиллар) Фарғонада кучли зилзила натижасида кўплаб иморатлар вайронага айланди”, деб маълумот қолдирилган.[3] Хуросонлик машҳур тарихчи Атомалик Жувайний эса ўзининг “Тарихи Жаҳонгушой” асарида 1208 йил Хоразм вилоятида юз берган кучли зилзила ҳақида маълумотлар келтириб,[4] Хоразм зилзиласи натижасида, кўҳна урганч ҳудудининг бир қисми Амударёга сурилиб борганлиги ҳамда, шаҳар вайронага айланганлигини ва одамлар анча азият чекканлигини айтиб ўтади.[5]

Геологик ҳодисалар ҳақида қимматли ва мукаммал маълумотлар қолдирган қомусий олим улуғ бобокалонимиз Заҳириддин Муҳаммад Бобурдир. Бобур ўз даврида диншунос,

географ, биолог, тарихчи, этнограф, ўлкашунос сифатида тадқиқотлар олиб борганлиги, у қолдирган маълумотлардан бизга маълум. Бобур фаолияти давомида Хуросон ва Ҳиндистонда Мовароуннаҳр цивилизациясини ёйилишига катта ҳисса қўшган. Ҳиндистонни Агра, Деҳли каби шаҳарларида виқорли иншоотлар барпо этиб, ҳинд халқи орасида обрў эътибор қозонган.

Бобурнинг асл мақсади, бобоси Амир Темурнинг муносиб вориси сифатида унинг салтанатини қайта тиклаб, юксак ва мустаҳкам марказлашган давлат барпо этишдан иборат эди. Бобур саркарда сифатида ўзининг энг оғир дамларида ҳам ўз мақсадидан чекинмади, у ҳаёти давомида бир неча бор тахтдан айрилди, лекин умидларидан воз кечмади. Бобур ўз эзгу ниятлари сари шахдам қадамлар билан олға юрди. Бобурни доимо келажакка умид билан қараши ва ватанпарварларга хос характирга эга эканлиги, ҳар дамда ёш авлод тарбиясида энг катта ибрат намунаси бўлиб, мангу номоён бўлади.

Заҳириддин Бобур қаламига мансуб “Бобурнома” машхур шох асар сифатида, дунёнинг ўттиздан ортиқ давлат тилларига таржима қилинган. Бу асарни машхурлигига сабаб, унда ўттиздан ортиқ фанларни таҳлил қилинганлиги, хусусан, табиат ходисалари кенг кўламда астоидил ўрганилганлиги, шунингдек, XV – XVI асрларда Мовараууннаҳр, Хуросон ва Ҳиндистонда содир бўлган тарихий ва сиёсий воқеаларни аниқ, ҳаққоний тарзда ҳар томонлама мукаммал ёритилганлигидадир. Асарда Бобур табиат ҳодисаларини қиёсий ўрганиб, мазкур соха олимлари сингари илмий хулосалар ясаб, ўз фикр мулохазаларини баён этган. Асарни қимматли маълумотларга бойлиги борасида шарқ ва ғарб олимлари ўзларини ижобий фикрларини бериб ўтганликлари, асарда келтирилган маълумотлар қиммати жихатидан тахсинга сазовор эканлигидан далолат беради.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур 1505 – 1506 йилларда содир бўлган табиат ходисаларидан бири – зилзила ва унинг даҳшатли оқибатлари ҳақида илмий мушоҳада юритган, унинг табиат ходисалар ҳақидаги мазкур фикрлари “Бобурнома” асари орқали бизгача етиб келган.

Бобур Қобулдалиги даврида табиий офат бўлишидан бир неча кун олдин ўзини синоатли хис қилади. Шу кунлари беҳосдан унинг ахволи ёмонлашиб қолади. У бу ҳақида “Бобурнома”да қуйидагича баён қилади: “...саҳар келиб Қуш Нодир ўлангига тушиб эрдикким, мен иситтим, ажаб тавр беҳузурлуқ эди. Мени ҳар неча саъй қилиб уйғотсалар ўшал замон кўзим уйқуга борур эрди. Тўрт – беш кундин сўнг филжумла яхшироқ бўлдим”. Бундан кўриниб турибдики, зилзила содир бўлишидан олдин унинг даракчилари номоён бўлган, буни эса Бобур ўз танасида юз бераётган лоҳасликлардан англаган.

Бобур “Бобурнома” асарида ўзининг фикрларини давом эттириб, 1505-1506 йилларда ҳозирги Афғонистондаги Қандаҳорда бўлган пайтида ўз кўзи билан кўриб гувоҳи бўлган зилзила ҳақидаги маълумотларида, қуйидагиларни баён этган: “Бу аснода андоқ зилзила бўлдиким, қўрғоннинг фасиллари ва боғларнинг томлари аксар йиқилиб, шаҳар ва кентларда кўп уйлар ҳамвор бўлиб, уй ва том остиға қолиб, ўлган бисёр бўлди. Памғон кентининг уйлари тамом йиқилди. Етмиш – сексон ўбдон кадхудолар том остиға қолиб ўлдилар. Памғон била Бектут орасида бир парча ерким арзи биргина тош отими бўлғай, учиб бир ўқ отими қуйи борди. Учкан ернинг ўрунидан чашмалар пайдо бўлди ва у отилиб турди. Истарғичтин Майдонғача тахминан олти – етти еиғоч йўл бўлғай, ер андоқ ёрилиб эдики, баъзи тараф белча баланд бўлур эди. Зилзила бўлғон зомон жамиъ тоғларнинг бошидан гардлар қўпти..., ўшал кун ўттиз уч қатла ер тебранди”.[6]

Айни шу йиллар Бобур ва унинг сафдошлари учун анча қайғули келди. Бу вақтларда у катта юришлар қилган, яқинлари томонидан берилган ваъдалар бажарилмаган ва Шайбонийхон зуғуми тоборо кучайиб бораётган бир палла эди. Бундай танг вазиятда мазкур

зилзила Бобурнинг режалаштириб қўйган ишларига тўсқинлик қилганлиги учун унинг руҳияти янада тушиб кетди. Буни англаб етган мирзолар Бобурни тоза ҳаводан нафас олиб ҳордиқ чиқариш учун табиат қўйнига олиб чиқадилар. Шу пайт ногоҳон тоғ бағрида чанг – тўзон кўтарилади ва тоғ тошлари қулай бошлайди. Табиий офат бир неча марта такрорланади.[7]

Бундан кўриниб турибдики зилзиланинг кучи вайронкор ва талофатли бўлиб, каттагина ҳудудни ўз домига тортиб кетган.

Қобулда содир бўлган мазкур зилзила Бобурни кўз ўнгида бир неча марта қайта – қайта содир бўлади ва боғу – роғни вайрон қилади. Бобурнинг қолдирган маълумотларидан келиб чиқиб, бу ҳудудда бир нечта афтершок ва унинг ортидан 8 - 9 балли зилзила содир бўлганлигини англаб олиш қийин эмас.[8]

Зилзила тафсилотларининг ўта аниқ баён этилиши ва синчковлик билан таҳлил этилганлиги, Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг табиат илмини ўрганиш борасида ўзига хос илмий мактаби бўлганлигидан далолат беради. Бизгача етиб келган мазкур тафсилотлар ана шу мактабнинг қимматли мевасидир. Бобур томонидан келтирилган бу маълумотлар сейсмология сохасида аҳамиятли саналиб, бугунги кунда ҳам ўз илмий – амалий қийматини сақлаб қолмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Суюнов А. Зилзилани олдини олиш мумкинми? // Муҳофаза + журнали. 2012 й. №5(91) 15-бет.
2. Суюнов А. Зилзилани олдини олиш мумкинми? Қайта тўлдирилган. // Муҳофаза + журнали. 2004 й. №2(16) 14-бет.
3. Абу Саид Гардизий. Зайн ал-Ахбар. пер. А. Арендса. Т.:“Фан”, 1991 г. Стр. 58.
4. Замонов А. Зилзила замонавий табиат ҳодисаси эмас. https://en.tgchannels.org/channel/tarixchilar.25.01.2020.
5. Норқулов М. Тарих ва табиий хавф. // Муҳофаза + журнали. 2014 й. №4(114). 8-бет.
6. Қудратиллаев Ҳ. “Бобурнома”да Қобулдаги зилзила тасвири. // Муҳофаза + журнали. 2020 й. №2(182) 16-бет.
7. Заҳириддин Муҳммад Бобур. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи Шамсиев П. Т.: “Юлдузча” 1989 й. 141-бет.
8. Саидова З. Ер нега қимирлайди? // Муҳофаза + журнали. 2014 й. №6(116). 24-бет.

ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУРНИНГ АДАБИЁТ ВА ШЕЪРИЯТИДА ЎРНИ

Маллаева Ф.

Қарши давлат университети ўқитувчиси

Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш - халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир, Президент Шавкат Мирзиёев “Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маъруза” [1, 176] “Заҳириддин Муҳаммад Бобур каби шоир ва мутафаккирларимиз хотирасини кино экранларида акс эттириш учун бирон –бир арзийдиган иш қилдикми?. Мана, бугун давримизда ўлмас меросни Бобурнома бутун дунёда тарғиб қилиб юрибди. Уларнинг мана шундай саъйҳаракатларини рўёбга чиқариш учун режиссёрларга зарур шароит яратиб берсак, гўзал бир бадиий филъм вужудга келган бўларди”

Заҳириддин Муҳаммад Бобур ўрта аср Шарқ маданияти, адабиёти ва шеъриятида ўзига хос ўрин эгаллаган адиб, шоир, олим бўлиш билан бирга йирик давлат арбоби ва саркарда ҳамдир. Бобур кенг дунёқараши ва мукаммал ақл-заковати билан Ҳиндистонда Бобурийлар сулоласига асос солиб, бу мамлакат тарихида давлат арбоби сифатида номи қолган бўлса, сержило ўзбек тилида ёзилган "Бобурнома" асари билан жаҳоннинг машҳур тарихнавис олимлари қаторидан ҳам жой олди. Унинг нафис ғазал ва рубоийлари туркий шеъриятининг энг нодир дурдоналари бўлиб, "Мубаййин" ("Баёнэтилган"), "Хатти Бобурий", "Ҳарбиши", Арузҳақидаги рисоласи эса ислом қонун шунослиги, шеърият ва тил назарияси соҳаларига муносиб ҳисса бўлиб қўшилди.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур 1483 йилнинг 14 февралида Андижонда, Фарғона улусининг ҳокими Умар Шайх Мирзо оиласида дунёга келди. Бу даврда Марказий Осиё ва Хуросонда турли ҳокимлар, ака-укалар, тоға-жиянлар, амакиваччалар ўртасида ҳокимият улуғ боболари Амир Темур тузган йирик давлатга эгалик қилиш учун кураш ниҳоят кескинлашган эди.

Адабиёт, нафис санъат, табиат гўзаллигига ёшлигидан меҳр қўйган Заҳириддин, барча Темурий шаҳзодалар каби бу илмларнинг асосини отаси саройида етук устозлар раҳбарлигида эгаллади. Бироқ унинг беташвиш ёшлиги узоққа чўзилмади. 1494 йили отадан етим қолди. 12 ёшида отаси ўрнига Фарғона улусининг ҳокими этиб кўтарилган Бобур қаламни қиличга алмаштириб, Андижон тахти учун укаси Жаҳонгир Мирзо, амакиси Султон Аҳмад Мирзо, тоғаси Султон Маҳмудхон ва бошқа рақибларга қарши курашишга мажбур бўлди. Бобур укаси Жаҳонгир Мирзо билан муросага келиш учун унга ён беришга Фарғона улусини иккига тақсимлаб, ярмини укасига топширишга қарор қилди ва ўзи Самарқанд учун олиб борилаётган курашга киришиб кетди. Бирнеча йил давом этган бу кураш қирғин баротдан бошқа бирор натижа бермади: унда катта ҳарбий куч билан аралашган Шайбонийхоннинг қўли баланд келди ва Бобур Самарқандни ташлаб кетишга мажбур бўлди. 1504 йили Шайбонийхон Андижонни ҳам қўлга киритгандан сўнг Бобур жанубга қараб йўл олди ва Кобул улусида ўз ҳокимиятини ўрнатди. 1505–1515 йилларда у Марказий Осиёга қайтишга бир неча бор уриниб кўрди. Аммо бу уринишлардан ҳеч қандай натижа чиқмади. Сўнг ўз мавқеини янада мустаҳкамлаш мақсадида, 1519–1525 йиллар давомида Ҳиндистонни қўлга киритиш учун бир неча бор жанглар олиб борди. 1526 йил апрель ойида Панипатда Ҳиндистон Султони Иброҳим Лўди билан ва 1527 йили март ойида Читора ҳокими Рано Санго билан бўлган жангларда Бобурнинг қўли баланд келди. Тарихий маълумотларнинг баён қилишича, Бобурнинг Ҳиндистонга юришида Деҳли ҳукмдори Иброҳим Султон сиёсатидан норози бўлган Панжоб ҳокимлари ҳам Бобурни қўллаганлар ва Сикри жангидаги бу ғалаба Бобурга Ҳиндистонда ўз ҳукмронлигини узил кесил ўрнатиш ва Бобурийлар сулоласини барпо этиш имкониятини берди. "Буюк мўғуллар" номи билан "ғалати машҳур" бўлган, аслида "Бобурийлар сулоласи" Ҳиндистонда 300 йилдан ортиқ ҳукмронлик қилди. Бобур бу ғалабадан кейин узоқ яшамади – 1530 йил декабр ойида Агра шаҳрида вафот этди ва кейинроқ унинг васиятига кўра фарзандлари унинг хокини Кобулга олиб келиб дафн этдилар.

Бироқ қисқа бир вақт ичида Бобур Ҳиндистонда сиёсий муҳитни барқарорлаштириш, Ҳиндистон ерларини бирлаштириш, шаҳарларни ободонлаштириш, савдо-сотиқ масалаларини тўғри йўлга қўйиш, боғ-роғлар яратиш ишларига ҳомийлик қилди. Ҳиндистонни ободонлаштириш, унда ҳозиргача машҳур бўлган меъморий ёдгорликлар, боғлар, кутубхоналар, карвонсаройлар қурдириш, айниқса, унинг ўғиллари ва авлодлари даврида кенг миқёсга ёйилди. Ҳиндистон санъати ва меъморчилигига Марказий Осиё

услубининг кириб келиши сезила бошлади. Бобур ва унинг ҳукмдор авлодлари ҳузурида ўша даврнинг илғор ва зеҳни ўткир олимлари, шоирлари, мусиқашунослари ва давлат арбобларини мужассам этган мукаммал бир маънавий, руҳий муҳит вужудга келди. Бобурийлар давлатидаги маданий муҳитнинг Ҳиндистон учун аҳамияти ҳақида жаваҳарлаъл Неру шундай ёзган эди: “Бобур Ҳиндистонга келгандан кейин катта силжишлар юз берди ва янги рағбатлантиришлар ҳаётга, санъатга, архитектурага тоза ҳаво бахш этди, маданиятнинг бошқа соҳалари эса бир-бирларига туташиб кетди”.

Бобур Ҳиндистонда катта ҳажмдаги давлат ишлари билан бир қаторда ўзининг адабий-бадиий фаолиятини ҳам давом эттирди ва юқорида зикр этилган асарларини яратди. Бобурнинг бутун жаҳон оммасига машҳур бўлган шоҳ асари “Бобурнома”дир. Маълумки, унда Бобур яшаган давр оралиғида Мовароуннаҳр, Хуросон, Эрон ва Ҳиндистон халқлари тарихи ёритилган. Асар асосан уч қисмдан иборат бўлиб, унинг биринчи қисми – XV асрнинг иккинчи ярмида Марказий Осиёда рўй берган воқеаларни, иккинчи қисми – XV асрнинг охири ва XVI асрнинг биринчи ярмида Кобул улуси, яъни Афғонистонда рўй берган воқеаларни; учинчи қисми – XVI асрнинг биринчи чорагидаги Шимолий Ҳиндистон халқлари тарихига бағишланган. “Бобурнома”да ўша даврнинг сиёсий воқеалари мукаммал баён қилинар экан, ўз юрти Фарғона вилоятининг сиёсий-иқтисодий аҳволи, унинг пойтахти Андижон шаҳри, Марказий Осиёнинг йирик шаҳарлари: Самарқанд, Бухоро, Қарши, Шаҳрисабз, Ўш, Урганч, Ўратепа, Термиз ва бошқа шаҳарлар ҳақида ниҳоятда нодир маълумотлар келтирилган. Унда Кобул улусининг йирик шаҳарлари Кобул, Ғазна ва улар ихтиёридаги кўпдан кўп туманлар, вилоятлар, Шимолий Ҳиндистон хақида маълумотларни учратиш мумкин. “Бобурнома”ни варақларканмиз, кўз олдимиздан Марказий Осиё, Афғонистон ва Ҳиндистон халқларига хос бўлган фазилат ва нуқсонлар, уларнинг тафаккур оламини кенглиги ва мураккаблиги билан бирга, ўша даврдаги ҳаёт муаммолари, Бобур давлатидаги сиёсий ва ижтимоий ҳаётнинг тўлиқ манзараси намоён бўлади. “Бобурнома”да келтирилган бу тарздаги маълумотлар Бобур даврида ёзилган бошқа тарихий манбалар: Мирхонд, Хондамир, Муҳаммад Солиҳ, Биноий, Муҳаммад Ҳайдар, Фаришта, Абул-Фазл Алломий ва бошқа тарихчиларнинг асарларида бу даражада аниқ ва мукаммал ёритилган эмас. Муаллиф “Бобурнома”да Алишер Навоий, Абдураҳмон Жомий, Беҳзод, Улуғбек Мирзо ва бошқа алломалар ҳақида ўзининг энг юқори фикр ва мулоҳазаларини билдирган.

“Бобурнома” – Мовароуннаҳр, Хуросон, Ҳиндистон, Эрон халқларининг XV аср охири – XVI асрнинг биринчи ярмидаги тарихини ўзида акс эттирган бўлса ҳам, шу билан бирга жуда кўп долзарб иқтисодий, ижтимоий масалалар, юқорида номлари келтирилган вилоятларнинг ўзаро сиёсий-иқтисодий ва савдо муносабатлари, жуғрофий мавқеи, иқлими, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси, тоғлари, дарёлари, халқлари, қабила ва элатлари ва уларнинг яшаш шароитлари, урф-одатлари, муҳим тарихий иншоотлари ҳиндулар ва мусулмонларнинг ибодатхоналари, тўй ва дафн маросимлари ҳақида ниҳоятда нодир маълумотларни ўзига қамраб олган шоҳ асардир. Шу боис “Бобурнома” тарихий ва адабий мерос сифатида дунё олимларини ҳайратда қолдириб келмоқда.

Узоқ йиллар давомида Ғарб ва Шарқнинг машҳур шарқшунос олимлари “Бобурнома” мазмунини жаҳон жамоатчилигига етказиш борасида катта фаолият кўрсатдилар. Масалан, голландиялик олим Витсен, англиялик олимлар Ж. Лейден, V. Зрскин, Р. Колдекот, А. Бевереж, Т. Албот германиялик Ю. Клайнрат ва А. Кейзер, франциялик Паве де Куртейл, ҳиндистонлик Мирзо Насриддин Ҳайдар Ризви, туркиялик Р. Р. Арт ва Н. І. Баюр ва бизнинг даврмиздаги франциялик олим Бакке Громон, афғонистонлик олим Абулҳай Ҳабибий, покистонлик олимлар Рашид Ахтар, Надви ва Шоҳ

Олам Мавлиёт шулар жумласидандир. “Бобурнома”ни ўрганиш соҳасида жаҳоннинг машҳур шарқшуносларн қаторидан япониялик олимлар ҳам жой олмоқдалар.

Маълумки, Бобурнинг тарихий, илмий ва адабий меросини ўрганиш ва оммалаштиришда Ўзбекистон, Тожикистон, Русия олимларининг фаолиятлари ҳам диққатга сазовордир. XIX–XX асрлар давомида Георг Кер, Н. Ильминский, О. Сенковский, М. Салье, Порсо Шамсиев, Содиқ Мирзаев, V. Зоҳидов, Я. Ғуломов, Р. Набиев, С. Азимжонова, А. Кдюмов каби олимларнинг саъй-ҳаракатлари билан “Бобурнома” бир неча бор рус ва ўзбек тилларида чоп этидди, уларга сўзбоши ёзилди ва кенг китобхонлар оммасининг маънавий мулкига айлантирилди, унинг шеърлари ҳам бир неча бор нашр этилди.

Бобур ўзбек адабиётида ўзининг нозик лирик асарлари билан ҳам машҳурдир. Унинг ҳаёти ва адабий фаолияти Мовароуннаҳрда сиёсий ҳаёт ниҳоят мураккаблашган феодал гуруҳларнинг бошбошдоқлик ҳаракатлари авжига чиққан ва Темурийлар давлатининг инқирози давом этаётган бир даврга тўғри келган эди. Бундай мураккабликлар инъикосини “Бобурнома”да кўрган бўлсак, уларнинг шоир руҳиятида қандай акс этгани унинг шеърларида намоён бўлади. Мовароуннаҳрни бирлаштиришга уринишлари натижа бермагач, Бобур руҳан қийналган, амалдорларнинг хиёнатлари таъсирида умидсизликка тушган кезлардаги кайфияти шеърларида акс этган. Кейинчалик ўз юртини тарк этиб, Афғонистон ва Ҳиндистонга юз тутганда Бобур шеъриятида Ватан туйғуси, Ватан соғинчи, унга қайтиш умиди мавж ура бошлади.

Толе йўқи жонимға балолиғ бўлди,
Ҳар ишниким айладим – хатолиғ бўлди,
Ўз ерин қўйиб Ҳинд сори юзландим,
Ё Раб, нетайин, не юз қаролиғ бўлди.

Шу билан бирга Бобур лирикасида шеъриятнинг асосий мазмуни бўлган инсоний фазилатлар, ёр васли, унинг гўзаллиги, унга чексиз муҳаббат ва ҳижрон азоби, айрилиғ аламлари ва висол қувончлари ниҳоят гўзал ва моҳирона ифода этилган.

Хазон япроғи янглиғ гул юзунг ҳажрида сарғардим,
Кўруб раҳм айлагил, эй лоларух, бу чеҳраи зардим.

Сен эй гул, қўймадинг саркашлигингни сарвдек ҳаргиз,
Аёғингга тушуб барги хазондек мунча ёлвордим.

Бобур ўз лирик шеърларида ҳар доим одамларни яхшиликка, адолат, инсонпарварликка, юксак инсоний туйғуларни қадрлашга чақирди:

Ҳар кимки вафо қилса, вафо топқусидур,
Ҳар кимки жафо қилса, жафо топқусидур.
Яхши киши кўрмағай ёмонлиғ ҳаргиз,
Ҳар кимки ямон бўлса, жазо топқусидур.

Бобур лирик шеърлари ва тарихий “Бобурнома”сидан ташқари ислом қонуншунослиги ва бошқа соҳаларда ҳам асарлар яратган. 1522 йилда ўғли Ҳумоюнга атаб ёзган. “Мубаййин” номли асарида ўша замон солиқ тизимини, солиқ йиғишнинг қонун-қоидаларини, шариат бўйича кимдан қанча солиқ олиниши ва бошқа масалаларни назмда изоҳлаб берган. “Хатти Бобурий” деб аталган рисоласида араб алифбосини туркий тиллар, хусусан ўзбек тили нуқтаи назаридан бирмунча соддалаштириб беришга ҳаракат қилган. У, тажриба сифатида “Хатти Бобурий” алифбосида Куръони Каримни кўчирган. Бобурнинг аруз вазни ва қофия масалаларига бағишланган. “Муфассал” номли асари ҳам бўлганлиги маълум, бироқ бу асар бизгача етиб келмаган.

Бобур ўзининг маълум ва машҳур асарлари билан тарихнавис адиб, лирик шоир ва ижгимоий масалалар ечимига ўз ҳиссасини қўшган олим сифатида халқимиз маънавий маданияти тарихида муносиб ўрин эгаллайди.

Адабиётлар.

1.Ш.Мирзиёев. “Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир” “ўзбекистон” том-2. 176 бет.

2. Муҳаммад Ҳайдар Мирзо. “Тарихи Рашидий” 178-бет.

3. Каримов И.А. «БаркамолавлодЎзбекистонтараққиётинингпойдевори». –Т.: « Ўзбекистон» 1997.

4. Каримов И.А «Баркамолавлодорзуси». –Т.: «Ўзбекистон» 2000.

5. Каримов И.А “Ўзбекистон ХХ1 асрга интилмоқда”. Ўзбекистон» 2001.

BOBUR DAVLATCHILIGINI BEZAGAN FARMONLAR

Maxsadov M.I.

O‘zbekiston Respublikasi MG Harbiy-texnik instituti, yu.f.b.f.d. (PhD)

Har bir yurt sultoni tomonidan davlatchilik tarixida o‘nlab, yuzlab amr, farmonlar, farmoyishlar beriladi. Albatta, bu farmonlarning mazmun-mohiyatini, muhimligini inkor qilmagan holda umumdavlat, umummillat manfaatini ko‘zlagan, shu yurt tarixi va taraqqiyotida o‘z aksini qoldirgan davlat hujjatlari, mamlakat boshlig‘ining farmonlari har davrda ham alohida ajralib turgan. Ushbu hol, podshoh Zahiriddin Muhammad Boburga ham taalluqlidir.

«Zahiriddin Muxammad Bobur g‘oziy farmoni» Bobur saltanatining so‘nggi yillari haqida ancha mukammal ma’lumot beradi. Undan Bobur uchun Hindistonda naqadar mushkul sharoit vujudga kelganligini his qilamiz. Hind xalqi boburiylarga qarshi kurashga Raana Sangaaning ham katta tazyiqi, ham ular yuragidagi vatanparvarlik kayfiyatlarini junbushga keltirib, behisob lashkarlar to‘plagani bois jipslashganlari, bir necha rojalar va sultonlar muttahid bo‘lganligi Farmonda keltirilgan fakt-raqamlarda Raana Sangaaning yuksak tashkilotchiligini tan olgan Boburning rostbayonligi o‘z aksini topgan: «Mahmudxon Iskandarxon o‘g‘lining viloyat va qishlog‘i bo‘lmasa ham, sardorlik umidida taxminan o‘n ming suvoriy jamlagan edi. Sog‘lomlik va omonlik vodiysidan uzoqlashganlarning hamma to‘plami, Hind qishlog‘i va viloyatida davom etib kelgan qoida bo‘yicha, hammasi bo‘lib, ikki lak bir ming» (ikki yuz bir ming kishi) kishiga yetgan [1, 439].

Biroq bir narsa muhimki, Zahiriddin Bobur ushbu muhoraba-jangni qanchalik qaqshatqich tarzda olib borgan bo‘lmasin, islom bayrog‘i va nizomini temuriylar saltanati yerlarida yanada barqarorligini ta’minlashga erishmagan bo‘lmasin, mag‘lub hindlarni «kofirlar» deb atab unga «g‘oziylik» unvoni berilgan bo‘lmasin, podshoh Bobur o‘zining mazkur farmoni bilan Sharq tarixida misli ko‘rilmagan yuksak ma’naviy darajaga ega ekanligini ko‘rsatdi: garchi bunda hindlar unga qarshi dushmanona tarzda bo‘lsa ham u anchadan beri orzu qilgan niyatini amalga oshiradi. Ya’ni o‘zining qo‘l ostidagi barcha nomusulmon bo‘lgan millatlardan undiriladigan *tamg‘a solig‘i*ni bekor qiladi. Shu bois, Boburning Raana Sangaa ustidan g‘olib kelishi bois hindlardan ham tamg‘a solig‘i bekor qilinadi. Bemalol aytish mumkinki, bu haqiqatda ham Bobur aytgandek, uning eng buyuk, mazmunan yuksak «azimush-sha’n», ya’ni inson sha’nini yuksaklikka ko‘taruvchi farmon edi.

Ikkinchi tomondan, bu Boburning hind lashkarboshilariga emas, hind xalqiga ko‘rsatgan

baland himmatining belgisi ham bo‘lgan. Buni Hindistondagi urf-odatlar, diniy qoidalar va xalq an’analariga ehtirom bilan yondashish deyish mumkin.

Boburning bu muhim «g‘oziy» farmoni zaminida uning ma’lum darajadagi bag‘rikengligi, sharoitdan kelib chiqib, saltanati iqtisodiy holatining qiyinlashuviga olib kelish mumkinligiga qaramasdan oddiy xalq manfaatini ko‘zlagani bilan ham muhim.

Boburning ikkinchi «azimush-sha’n» farmoni bevosita birinchi farmon bilan chambarchas bog‘liq. Aniqroq qilib aytsak, bu farmon xronologik va tarixiy voqealarning aks etishi jihatidan yuqoridagi farmondan oldinroq yuzaga kelishi kerak edi. Biroq Bobur Raana Sangaa bilan bo‘ladigan yirik jangga tayyorlanar, bu umrining mazmuni va maqsadlarining gultoji bo‘lgan jangga astoydil kirishganligi bois mazkur farmonni berish ma’lum muddatda orqaga surilgan edi.

Agar Boburning bu farmoni boshida Olloh tomonidan berilgan rizq va imkoniyatlarga shukronalik bayon etish asos qilib olingan bo‘lsa, asosiy qismida inson tarbiyasining yana bir jihati - Qur’onda va Hadisi sharifda qayta-qayta zikr etilgan *nafsni tiyishga* bag‘ishlanadi. Chunki, mazkur farmonning bosh g‘oyasi va shoh Boburning maqsadi ham butun saltanati hududida may, sharob va insonni sarhush etuvchi ichimliklar va vositalarni man etish, hech qayerda, har qanday sharoitda uni iste’mol qilmaslik farmoni edi, bu «… inson tabiati o‘zining fitrat-yaratilishiga binoan, nafs lazzatlariga moyil qilib yaratilgandir. Kishi maylini uyg‘otadirgan (gunohga sabab bo‘luvchi) yoqimli narsalarni tark etish esa Alloh taoloning tavfiqi va ilohiy ko‘makka bog‘liqdir»[2, 434-435].

Boburning bu farmoni mazmuniga kirishishdan oldin uning paydo bo‘lishi zaminiga bir nazar solsak. Boburning o‘zi 23-24 yoshga yetguniga qadar sharob iste’mol qilmagan va bu odatni u o‘ziga begona deb bilgan. Biroq temuriylar, ayniqsa Husayn Boyqaro saroyidagi mayparastlik, uning o‘g‘illari Badiuzzamon mirzo va Muzaffar mirzoning mehmondorchiligida qatnashgan Boburda umuman mayga rag‘bat bo‘lmaganligi alohida ta’kidlangan. Boburning iqroricha, bu yoshda sharob iste’mol qilsa ham birov unga qarshilik qilmagan. «Boburnoma»da Bog‘i Jahonorodagi bazm tasvirlangan. Lekin Boburning bu farmoni bilan ushbu tasvirning bevosita aloqasi bor. Bobur 47 yil umr ko‘rgan, hayotning 23 yiligacha may, sharob va chog‘ir ichmagan, vafotidan ikki yil oldin yuqoridagi farmon bois nafaqat o‘zi, balki butun saltanatida sharob ichishni man etgan.

Badiuzzamon mirzo bazmida Boburning may ichishga naqadar loqaydligi, beparvoligi, bu ishdan hazar qilishi, temuriyzodalarning mastlikka rujulari balandligini afsus bilan yozadi: «Badiuzzamon mirzo Muzaffar mirzoning mehmondorchilig‘ini eshitib, Bog‘i Jahonoroda Muqavviyxonada majlis tartib qilib, mani tiladi»[3, 204].

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, Bobur saltanatida mayni tark etish farmonini bergunga qadar o‘zining ichki olamida katta qarama-qarshiliklar, ruhiy kurashlarni boshidan kechirgan. U nafaqat o‘sha davr, balki butun insoniyat boshiga kulfat bo‘lib yog‘ilgan bu odatdan saqlanishiga chaqirgan. Afsuski, bu illat Bobur davrida emas, hozir ham insoniyatning katta muammosi bo‘lib qolmoqda.

Shunga qaramasdan Bobur o‘zini yengadi, farmon kuchga kiradi. Biroq masalaning boshqa tomoni – nega farmon aynan Boburning Raana Sangaa bilan bo‘ladigan yirik jangidan oldin berildi? Bu juda katta siyosiy, ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyatga molik masala. Chunki, Bobur temuriy saltanatining yaxlitligini eng avvalo davlatchilikdagi tartib-intizom, sog‘lom aql va hushyorlik zamirida ko‘radi. Bobur bu farmonning asosiy maqsadiga ko‘chishdan oldin qo‘l ostidagi bekzodalar, amirlari bilan psixologik tarbiya olib boradi, mayni tark etish, kishi ruhiyatini poklashi qatori insonda irodani tarbiyalashi, dushmanga qarshi birlikka kuch berishi, qolaversa bu intilish shariat qonuniga rioya etish ham ekanligini uqtiradi.

Boburning mazkur farmonini diqqat bilan o‘qir ekanmiz, unda «Boburnoma» muallifining yuksak ruhiy tug‘yonlari, o‘zining ichki ziddiyatlari bilan uzoq muddat tinmay kurash olib borganligini ko‘ramiz. Ichkilikni tark etish Boburning bosh maqsadi bo‘lsa-da, u ham o‘sha jamiyatning bir fardi, gunohkor banda sifatida **o‘z** irodasini yenga olmaganligi, bu muqaddas maqsadni ancha muddat paysalga solib kelganligini ochiq tan oladi. «Har ish vaqtiga bog‘liq» deya o‘zini tergab «parda ostita bekinib yuzni ko‘rsatmas edi» deb shohligiga qaramasdan jamiyat ahlini insofga chaqirish bois kasri nafsiga barham berganligini ko‘ramiz: «... Gunoh va sarkashlik asbobining ildizidan qo‘porib tashlab, tavba eshiklarini to‘liq jiddiyat bilan qoqdik, tavfiq yo‘llovchisi «Kimki astoydil eshik qoqsa, kiradi» mazmuniga muvofiq iqbol eshigini ochdi va bu urushni nafsga qarshilik ko‘rsatishdan iborat bo‘lgan zo‘r urush bilan boshlashni buyurdi»[4, 436].

Biz mumtoz adabiyotimiz durdonalarini mutolaa qilar ekanmiz, birinchi galda bu manbalar bugungi yosh avlodni, umuman insonning tarbiyasi, axloqi, jamiyatga bo‘lgan munosabatiga qanchalik foydasi tegishini o‘ylashimiz, eng muhimi mutolaadan keyin biz Bobur singari o‘zimizdagi qaysi illatdan mardlarcha xalos bo‘lishga intilishimizni nazarda tutishimiz kerak. Bobur mayni tark etishni unga qarshi urush ochganligi bilan izohlagan. Bu ham inson tabiatidagi har qanday nopok harakatni, o‘zining izzat nafsini sindirib, muttasil kurash va qat’iylik bilan amalga oshirish lozimligini ta’kidlagan.

Shubhasiz, Boburning bu o‘giti bugungi yoshlarimizni giyohvandlik, aroqxo‘rlik, diniy ekstremizm, aqidaparastlik ko‘chalaridan yig‘ishtirib olishga, mustaqillikni ne’mat bilib, uni mustahkamlash sari asrlar osha bizga bitilgan bir chaqiriq, sirli maktubdir.

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z saltanatida adolat mezonlariga qat’iy amal qilishga harakat qilgan. Shu bilan birga, kuchli ijtimoiy himoya siyosatini ham olib borib, xalqni og‘irini yengil qilishga harakat qilgan. Masalan, mayni tark etishga oid farmonidagi quyidagi jumlalarga e’tibor qaratish joiz: «go‘zal majlisni bezab turgan oltin va kumushdan yasalgan may idish va qadahlar va boshqa asboblarni yerga urib, pora-pora qilib, har birini miskin va bechoraga berdilar»[5, 438].

Bobur o‘z farmonida shariat qonuniyatini xalq manfaatiga yo‘naltirgan barcha millat, elat va xalqlarga o‘z vatandoshlari qatori munosabatda bo‘lgan, ya’ni bugungi kundagi kabi u o‘z davrida ijtimoiy adolat, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik tamoyillariga amal qilib kelgan. Butun mamlakat bo‘ylab o‘tgan sultonlardan qolib ketgan va daromadi haddan ortiq ko‘p bo‘lgan *tamg‘a* (yer solig‘i)ni nafaqat musulmonlardan balki o‘zga din vakillaridan ham olib tashlashni buyurganligini quyidagi satrlar orqali ham bilib olishimiz mumkin, jumladan: «hech shahar, yo‘l, ko‘cha, guzar va bandalardan tamg‘a olmasinlar, ham bu hukmning qoidalariga o‘zgartish kiritmasinlar: «Kimki buni eshitgandan keyin o‘zgartirsa, gunohi o‘zgartiruvchilarga bo‘ladi»[6, 439].

Mazkur farmonning o‘zi ham boburiylar saltanatida davlat ishlarini yurgizish naqadar qonunlarga bo‘ysunganini, har bir chiqariladigan qonun, davlatchilikka oid turli darajadagi hujjatlarning ijrosi va natijaviy yakuni nazoratga olingani, uning omma orasida tatbiq etilishi shartligi kabi tadbirlari tufayli o‘ta ahamiyatli bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z saltanatini shariat ahkomlari asosida boshqarib, adolat mezonlarini o‘rnatgan. Boburning «Mubayyin» asari esa islom aqidalari va fiqh (shariat qonunchiligi)ga oid bo‘lib, o‘zbek adabiyotining nodir namunalaridan biri, shariat ahkomi haqida o‘zbek tilidagi yagona yirik nazmiy asardir. «Mubayyin» so‘zi arabchadan olingan bo‘lib, «yo‘l ko‘rsatkich» ma’nosini bildiradi. Bobur «Mubayyin»ni o‘g‘illari Humoyun va Komronga bag‘ishlab, Abu Xanifa (hanafiylik) mazhabiga oid manbalar asosida mahorat bilan sodda va tushunarli tilda yozilgan.

«Mubayyin» asari islom dinining besh asosiy ruknini sharhlashga bag‘ishlangan bo‘lib, besh kitobdan iborat. Birinchi kitob «E’tiqodiya» deb nomlanib, unda iymon shartlari va kalom hamda aqida ilmiga oid tushunchalar berilgan. Ikkinchi kitob «Kitobus-salot»da namozning musulmon kishi uchun ahamiyati, namoz turlari va ularning o‘qilishi haqida ma’lumotlar bayon etilgan. Uchinchi kitob «Kitobus-zakot» zakot masalasiga bag‘ishlangan. To‘rtinchi kitob «Kitobus-savm»da ro‘za haqida so‘z yuritiladi. «Kitobul-haj» deb nomlangan beshinchi kitob so‘nggi farz – haj ibodatining tafsilotiga bag‘ishlangan.

Bobur «Mubayyin» asarini nazm nuqtai nazaridan emas, diniy ma’lumot berish orqali xalqni iymonli bo‘lishga, axloq meyorlariga amal qilishlari maqsadida yozgan. Boburning fiqh masalalariga oid barcha nazariy mulohazalari Burhoniddin Marg‘inoniyning «Hidoya», Imom Moturidiyning asarlariga monand ravishda ifodalangan. Movaraunnahrda islom dini asoslariga bag‘ishlangan asarlar asosan arab va fors tillarida yaratilgan. Bobur esa hanafiya mazhabi ta’limotiga to‘la asoslangan holda ilmiy va ayni vaqtda, o‘ziga xos ijodiy va badiiy uslubdagi talqinini o‘zbek tilida nazmda yaratishga muvaffaq bo‘lgan. U diniy qoidalarni hayotiy va sodda qilib bayon qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: “Фан”, 2019. - Б. 439.
2. O‘sha manba: -B.434-435.
3. O‘sha manba: -B.204.
4. O‘sha manba: -B.436.
5. O‘sha manba: -B.438.
6. O‘sha manba: -B.439.

ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР МАДАНИЙ МЕРОСИНИНГ ЖАҲОН ТАРИХИДА ТУТГАН ЎРНИ

Мирзаев А.

Андижон давлат университети катта ўқитувчиси

Ўзбекистон Республикасининг Президенти Шавкат Миромонович Мирзиёев, буюк ватандошимиз, шоир ва истеъдодли ҳарбий саркарда Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг ҳаёти ва фаолиятига холисона баҳо бериб: “Бу буюк зот ўн икки ёшидан бошлаб Темурийлар давлатини сақлаб қолиш учун ўзини ўтга ҳам, чўққа ҳам урди, ҳеч қандай душмандан ҳам, синовдан ҳам қўрқмади. Қирқ олти йиллик умри давомида бир зум ҳам ҳаловат билмасдан ўтди. Ўз авлодларига Ватанга бўлган буюк муҳаббатни, эзгу фазилатларни мерос қилиб қолдирди”[1. 8-9], - деб таъкидлайди. Зеро, “Ўзбек халқининг неча минг йиллик тарихида қандай мураккаб даврлар, оғир синовлар бўлганини барчамиз яхши биламиз”[2. 5].

Мазкур мақолада биз, буюк ватандошимиз Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг фаолияти ва у қолдирган маданий мероснинг баъзи жиҳатларини, атоқли давлат арбоби ва ҳарбий саркарданинг шахси ҳақида билдирилган айрим фикр ва мулоҳазаларни таҳлил этишга ҳаракат қиламиз.

Маълумки, Бобурнинг отаси, Фарғона хукмдори Умаршайх Мирзо, олимлар ва шоирларга ҳомийлик қилиши билан ҳам машҳур бўлган. Бобурийлар сулоласининг асосчиси, Ҳиндистоннинг келгусидаги хукмдори Мирзо Бобур мана шундай даврада ўсиб-улғайди ва

тарбияланди. 1526 йилда Ҳиндистонни эгаллаган З.М.Бобур, Деҳлидан жануби шарқда жойлашган унча катта бўлмаган Агра шаҳрини ўзига қароргоҳ этиб танлади[3. 148,150].

Бобур номидаги Халқаро жамоат фондининг раҳбари Зокиржон Машрабов “Бори элга яхшилиғ қилғил...” китобида Агра шаҳри ҳақида қуйидагиларни ёзади: «Агра. Бу тарихий шаҳарнинг бобурийлар ҳаётида алоҳида ўрин тутиши ҳеч кимга сир эмас. Бугунги кунда Самарқанду Бухоро, Хива каби қўҳна ёдгорликларга бой, машҳур зиёратгоҳ Агра шаҳрида Бобур Мирзонинг сўнгги тўрт йиллик умри кечган. Бобур шоҳлик қароргоҳи учун айнан шу жойни танлаган, боғлар барпо қилган, уни Ҳиндистоннинг обод ва кўркам марказига айлантирган»[4. 54].

Бобур ўзининг Ҳиндистонда бошлаб юборган бунёдкорлик ишлари хусусида фахрланиб ёзган эди: «Нечукким «Зафарномада» Темурбекнинг «масжиди сангин» иморатини қилурда Мулло Шараф мундоқ муболаға билан битибдурким, Озарбайжон ва Форс ва Ҳиндустон ва ўзга мамолик сангтарошларидан ҳар кунда икки юз киши масжидда иш қилурлар эди. Бир Аградa ушбу Агранинг сангтарошларидан менинг иморатларимда ҳар кунда олти юз саксон киши иш қилурлар эди. Аградa ва Секрийда ва Байанада ва Дўлпурда ва Гвалиорда ва Куйилда минг тўрт юз тўқсон бир сангтарош ҳар кунда менинг иморатларимда иш қилурлар эди»[5. 361].

Бобур Ҳиндистонда кам яшаган бўлишига қарамай, бир қанча боғ, кўприк ва иморатлар қурдириб қолдиришга улгурди. Агра шаҳридаги боғ ва Карнал туманидаги Панипат деган жойда бунёд этилган боғ Мирзо Бобурдан ёдгорлик ҳисобланади. Унинг ёнига Жомеъ масжиди қурдирилган.

Маълумки, Бобурнинг шахсан ўзи ободончилик ишларига катта эътибор берган. Унинг бошчилигида Агра, Секри, Дхалпур, Гвалйор шаҳарларида сарой ва бошқа иншоотлар қурилишида ҳар куни икки минг киши қатнашган. Уларда Мовароуннаҳрдан келган уста меъморлар ҳам бошчилик қилишган. Бобур қурдирган кўп иморатлар бизнинг давримизгача етиб келмаган, аммо учта масжид ханузгача сақланиб қолган[6.158].

Заҳириддин Муҳаммад Бобур (1483 - 1530) Аградa саройлар қурдираётган вақтларда Истанбулдан машҳур бир меъморни юборишни сўраб, Усмонийлар султонига элчи йўллайди. Бу таклиф Усмонийлар султони Сулаймон Қонуний (1520 - 1566) Истанбулни қураётган пайтга тўғри келгани учун Усмонийларнинг машҳур меъмори Синон Ҳиндистонга шогирди Юсуфни жўнатади[7. 181].

Ўзбекистон Республикаси Фанлар академиясининг корреспондент аъзоси В. Содиқов «Бобурнома» асарининг 1960 йилда ўзбек тилида чоп этилган нашрига Бобурнинг фаолияти ва адабий илмий мероси ҳақида ёзган сўзбошисида З.М.Бобур фаолиятига холисона ва ижобий баҳо беришга харакат қилган. У шундай ёзади: «Ҳа, Бобур томонидан барпо қилинган, унинг авлодлари томонидан мустаҳкамланган империя, феодал империяси бўлса ҳам... ўша давр шароити учун муҳим воқеа ҳисобланган. У империя мамлакатда экономикани, савдони, маданиятни ривожлантиришга, кишиларнинг ақлий доирасини кенгайтиришга, бир қатор халқ ва мамлакатлар ўртасидаги иқисодий, сиёсий ва маданий алоқаларни кенгайтириш ва мустаҳкамлашга маълум даражада имконият очди. Масалан, Бобур Москва шаҳрига ўзининг элчиси Хўжа Ҳусайнни Россия билан Ҳиндистон орасида дўстлик ва қардошлик ҳақида битим тузиб келишга юборади »[8. 13].

XIV-XV асрларда Ҳиндистоннинг Эрон ва Ўрта Осиё билан бўлган савдо муносабатларида Хўрмуз порт шаҳрининг аҳамияти катта бўлган.

Бобур ҳам Конибодомнинг бодоми ниҳоятда аъло навли эканини сўзлаб, «Хўрмуз ва Ҳиндистонга тамом унинг бодоми борур» деб таъкидлайди[9. 62].

Айни бир вақтда Ўрта Осиёнинг Ҳиндистон билан иқтисодий муносабатида Қобил ва Қандаҳор шаҳарлари муҳим савдо йўли бўлиб хизмат қилган. Бобур қуйидагиларни ёзади: «Ҳиндистоний ғайри Ҳиндистонни Хуросон дер. Нечукким араб ғайри арабни Ажам дер. Ҳиндистон билан Хуросон орасида хушки йўлдин икки бандардур, бири Қобил ва бири Қандаҳор. Қошғор ва Фарғона ва Туркистон ва Самарқанд ва Бухоро ва Балх ва Ҳисор ва Бадахшондан карвон Қобилға келурлар. Хуросондин карвон Қандаҳорга келур. Бисёр яхши савдохонадур. Савдогарлар Хитой ё Румга борсалар, ушмунча – ўқ савдо қилғайлар. Ҳар йил етти-саккиз-ўн минг от Қобилға келур. Ҳиндистондин оқ рахт ва қанд ва набот ва шакар ақоқир келтирурлар...Хуросон ва Ироқ ва Рум ва Чин матои Қобилда топилур. Ҳиндистоннинг худ бандаридур»[10. 186-187].

Шарқшунос-тарихчи олим Илёс Ғуломович Низомиддинов “XVI – XVIII асрларда Ўрта Осиё – Ҳиндистон муносабатлари” асарида Заҳириддин Муҳаммад Бобур асос солган Ҳиндистондаги Бобурийлар давлати тарихда «Мўғуллар империяси» номи билан машҳурдир деб таъкидлаб, собиқ совет тузуми давридаёқ Бобурийлар атамасини амалда қўллаган[11. 7].

Академик Иброҳим Мўминов ва бобуршунос олима Сабоҳат Азимжоновалар томонидан ҳам “бобурийлар” атамаси тўғри эканлиги таъкидланиб, XX-асрнинг 60-70 йилларидан бошлаб ушбу ибора кенг қўлланила бошланган.

Академик Бўрибой Аҳмедов «Буюк мўғуллар» ва «Бобурийлар» атамалари хусусида қуйидаги фикр-мулоҳазаларни билдирган: Бобурийлар 1526-1858 йилларда Ҳиндистонда ҳукмронлик қилган сулола. Унга темурийлардан Заҳириддин Муҳаммад Бобур асос солган. «Буюк мўғуллар» деган ибора Чингизхон ва ундан кейинги мўғул хоқонларига тааллуқли бўлиб, бобурийлар аслида юртдошимиз темурий Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг авлодларидир. Улар тарихий ҳужжатларда ўзларини «Бобурий мирзолар» деб юритишган. Академик В.В. Бартольд дунёда тарқалган «буюк мўғуллар» иборасининг хато эканлигини кўрсатиб, «Европаликлар Темур ва унинг ўғиллари ҳамда набираларини мўғулдан тарқалган деб ҳисоблаб, Бобур салтанати учун «Буюк мўғуллар» деган ном тўқидилар» деб ёзади. Сўнгги йилларда «Буюк мўғуллар» деб аталган хато ибора ўрнига «Бобурийлар» ибораси қўлланила бошландики, бу ибора тарихий ҳақиқатни тўғри акс эттиради[12. 404].

Шарқшунос олим В.В. Бартольд ўзининг асарларида Бобурийлар давлати Ҳиндистонда хукмронлик қилгани ҳақида таъкидлаб ўтади[13. 501].

З.М.Бобурнинг фаолияти ва маданий мероси ҳақида сўз борганда, Андижон Давлат университетининг фахрий профессори, бобуршунос тарихчи олим Сайфиддин Жалилов томонидан Бобурнинг меросини ўрганиш бўйича амалга оширилган илмий-тадқиқот ишларини алоҳида кўрсатиб ўтиш лозим бўлади. С. Жалиловнинг “Бобур ва Андижон” (1993), “Бобурнинг Фарғона давлати” (1995), “Бобур ва Юлий Цезар” (2001), “Бобур ҳақида ўйлар” (2006) каби бир қатор китоблари ва юзлаб мақолалари чоп этилган. Шунингдек, “Бобур ва Юлий Цезар” йирик асари учун эса 2004 йили халқаро Бобур мукофотига сазовор бўлди.

Бобуршунос олим Сайфиддин Жалилов Бобур шахсига қуйидаги таърифни беради: Бобур фаолиятига принципиал баҳо берилганда, барча тадқиқотчилар қуйидаги объектив ҳақиқатга эътибор қаратадилар: яъни, у буюк давлат арбоби бўлиш билан бирга талантли шоир, санъат ва адабиёт ошиғи, ўта қобилиятли олим, сўнгра ажойиб ҳарбий саркарда ҳам эди[14. 43].

Хулоса ўрнида таъкидлаш лозимки, З.М.Бобурнинг фаолияти ва ёзма меросини жаҳон тарихига боғлиқ ҳолда ўрганиш, келгусида илмий-тадқиқот ишларини олиб бориш учун янги мавзуларни очиб беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017.

2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент, “Ўзбекистон” НМИУ, 2016.

3. История Востока. В шести томах. Том III. – Москва, издательство «Восточная литуратура» РАН, 2000.

4. Машрабов З. Бори элга яхшилиғ қилғил..: мақола ва суҳбатлар, ёзишмалардан намуналар. – Тошкент: «Ғофур Ғулом» НМИУ, 2013.

5. Заҳириддин Муҳаммад Бобир. Бобирнома. – Тошкент, ЎзР ФА нашриёти, 1960.

6. Абидов Б. Бобурийлар салтанатида Ҳиндистон меъморчилик санъатига Мовароуннаҳр анъаналарининг таъсири. Темурийлар даври: Тадқиқотлар ва муаммолар. – Тошкент: Наврўз, 2014.

7. Жавоҳарлаъл Неру. Дунё тарихига назар//Жаҳон адабиёти. 1997. №4.

8. Заҳириддин Муҳаммад Бобир. Бобирнома. – Тошкент, ЎзР ФА нашриёти, 1960.

9. Заҳириддин Муҳаммад Бобир. Бобирнома. – Тошкент, ЎзР ФА нашриёти, 1960.

10. Заҳириддин Муҳаммад Бобир. Бобирнома. – Тошкент, ЎзР ФА нашриёти, 1960.

11. Низомиддинов И.Ғ. XVI – XVIII асрларда Ўрта Осиё – Ҳиндистон муносабатлари. – Т., «Фан», 1966.

12. Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. Қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1993.

13. В.В. Бартольд. Сочинения в 9-ти томах. Том V. – Москва, «Наука», 1968.

14. Жалилов С. Бобур ҳақида ўйлар. – Т.: «Шарқ», 2006.

ҚАДИМГИ ЎЗБЕК ТИЛИ ҲАРБИЙ ТЕРМИНЛАР ТАРЖИМАСИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ
(Қиёсий тадқиқи)

Мухамедова Л.Д., Худайбердиев Ш.Ш
Низомий номидаги ТДПУ ўқитувчилари

Жаҳон ғарб ҳарбий санъати ва терминларнинг ўша даврдаги ривожига Амир Темур ва унинг авлодлари, хусусан, Бобур қўшинган салмоқли ҳисса қўшган. Қадимги даврдан бошлаб қатор терминлар ўзлашишига сабабчи омиллар ҳарбий юришлар ва қатор ҳарбий низолар бўлган. Этимологик нуқтаи назар билан қараганда ўзбек тили ҳарбий теминологиясига форс-тожик, ҳинд, сўғд, араб, юнон, мўғил, туркий тиллардан ўзлашганини кўришимиз мумкин [1]. Масалан **АЙҒОҚЧИ** (т.-м.) - ўрта асрларда Ўрта Осиё худудларида, асосан, харбий атама сифатида қўлланилган бўлиб, қўшиннинг маълумот олиб келувчи даракчилари хамда қўшиннинг даракчи бўлимлари маъносида кенг қўлланилган. Шунингдек, ушбу атама 10 нинг ёлгон гап ёйувчи, иғво, туҳмат қилиб кун кўрувчи шахс маъносида ҳам қўлланилгани маълум. Инглиз тилида таржимасида эса қуйидагича кўрсатиш мумкин булар *spy* (eng), *espion* (fr) сўзлари билан қўлланилади [2]. **АМИР** (ар.) - Ислом дини қабул қилингунга қадар арабларда амир сўзи қабила бошлиғи, ҳарбий бошлиқ деган маъноларни билдирган. Араблар кўп жойларни босиб олиб, ўз динларига ўтказгандан сўнг Араб халифалигига қарам бўлган мамлакатларни бошқариш учун тайинланган ҳокимни, қўшин

қўмондони ва йирик лашкарбошиларни амир деб аташган. Ўзга тилларга таржимаси эса *grand général* (fr) *general* (eng) кўрсатилган [3].

ТАВОЧИ (м.) - XIII-XVII асрларда Ўрта Осиё ҳамда Эронда хон ва шохдар саройида хизмат қилган олий ҳарбий мансабдор. Тавочи зиммасига ҳарбий юриш кўзда тутилганда, тобе вилоятлардан озиқ-овқат, қурол-аслаҳа, от-улов билан белгиланган миқдорда лашкар тўплаб келиш, ҳарбий юриш олдидан ҳамма қўшинларни кўрикка ҳозирлаш, ҳарбий юриш вақтида дам олиш ва уни ўтказиш учун қўшинни қулай ўринга жойлаштириш, душман қароргоҳига яқинлашиб, уни қамал қилувчи қўшинларни жой-жойига қўйиш, асирлар ва жиноятчиларнинг жазоланишини назорат қилиш, қамал хавфи туғилганда теварак атрофдаги қишлоқлар аҳолисини қалъага кўчириб келиш каби вазифалар юкланган. Таржима қилганда эса *адьютант* (ўз) *adjudant* (fr*), adjutant* (eng) [4] каби терминларни қўллаш мумкин.

БОШ ТАВОЧИ (т.) - Амир Темур давлатида тавочилар бош тавочи ва пиёда аскар тавочисига бўлинган. Бош тавочилар туманот (ўн минглик), ҳазоражот (минглик), садажот (юзлик) етакчиларидан, вилоят катталаридан қўшинни ўз вақтида, белгиланган сон ва сифат, таъминланганликда етказиб бериш тўгрисида тилхат олганлар. Ҳозирги штаб бошлиғи (ўз) мақомига тўғри келади ва бу термин таржима қилганда *chef d'état-major* (fr)*, chief of staff* (eng) тушунилади.

ТУМАН I (м.) - 1. Ўн минг деган маънони англатади. Ўн минг аҳолиси бўлган ёки ўн минг кишилик қўшин етказиб беришга қодир бўлган музофот, яъни округ. Шунингдек, ўн минг отликдан ташкил топган қўшин ҳам туман деб аталган. *district* (eng) *округ* (р), *armée* (fr), *army* (eng)**.**

ТУРНАЧИ (?) - ҳарбий қаторни сафлаш билан шуғулланувчи зобит, қадим Туркистонда ва Усмонлилар давлатида човуш ҳам дейилган. officier (fr), officer (eng).

ЧАВУШ 1 – *officier de rang inférieur* (fr) *lower rank officer* (eng) *командир* (ўз) *le commandant* (eng) каби терминлар тушунилади.

ЧАВУШ 2 – қоровул, қўриқчи, *le concierge* (fr*). guard* (eng) каби термин мазмун ва моҳиятини англатади.

МИН БАШИ – МИНГ БЕГИ – ҳарбий ва маъмурий унвон билан тенглаштирилади [5]. Қўқон хонлигида хондан кейинги мансаб. Асосан, ҳарбий ишлар билан шуғулланган. Хива хонлигида мингбошилик энг кичик амал ҳисобланган. Ўрта Осиё чор Россияси томонидан истило этилгунга қадар Тошкент, Оқмачит каби шаҳарларнинг хокимлари ҳам мингбоши деб аталган. Чор Россияси мустамлакаси йилларида Тошкент даҳаларининг бошлиқлари ҳам мингбоши дейилган. Даҳамингбошиси аҳоли томонидан сайланиб, вилоят беги тарафидан тасдиқланган. Кейинчалик мингбоши олди-сотти ишларини назорат қиладиган мансабга айланиб қолган. XIX асргача термин ўзининг маъносини сақлаб қолган. Ушбу терминнинг ғарб тилларида қуйидагича *majeur* (fr), *major* (eng) (р) каби ҳарбий унвонларни англатади.

ЮЗ БАШИ – (т.) - 1. Ҳарбий бошлик; 2. Сўнгги ўрта асрларда Ўрта Осиё худудида юз нафар аскар бошлиғи юзбоши деб аталган; 3. Қишлоқ ва маҳалла оқсоқоли. *Capitaine* (fr)*, captain* (eng) (р), *дахбаши* (тож), *ротмистр* – десятник (р) каби атамалар қўланилиши мумкин.

ЭЛЛИКБОШИ (т.) - ҳарбий-маъмурий унвон бўлиб, ушбу термин Ўрта Осиё хонликларида юзбошидан кейинги мансаб ҳисобланган. 50 нафар аскардан иборат ҳарбий қисм кўмондони ёки 50 нафар аскар ажрата олувчи маҳалла, қишлоқ ёки овул раҳбари. Элликбоши мингбоши томонидан тайинланган [6].

ЎН БАШИ (т.) - Амир Темур армияси ва Ўрта Осиё хонликлари қўшинларидаги энг кичик ўн нафарлик гуруҳ - ҳарбий бўлинма бошлиғи. Бу терминнинг ғарб мамлакатларида қуйидагича англатади, масалан *капрал* (рус), *corporal* (eng), *le caporal* (fr), *ефрейтор* (рус) ва хоказолар.

ҚЎШИН – ҳарбий куч, мудофаа, армия (р) ва вооруженные силы (р) маъноларни билдириб ушбу терминга сўз қўшилиб янги терминлар хосил бўлган булар,

КЎШИН БЕГИ – ҳарбий қисм командири ҳисобланади. Бу термин *commandant de l'unité militaire* (fr), *командир войсковой части* (р) тушунилади.

ҚЎШБЕГИ (т.) - қўш, ҳарбий лагерь, қароргоҳнинг бошлиғи. XIX асрдан бошлаб Хива хонлиги, Қўқон хонлигида хоннинг биринчи вазири ҳисобланган. Бухоро амирлигида эса қўшбеги мансаби олий мансаб ҳисобланган. Манғитлар сулоласи даврида қўшбегига барча вилоятларнинг ҳокимлари, беклари бўйсунган ҳамда амирнинг пойтахтда бўлмаган вақтида хонликнинг барча ишларини бошқарган. Қўшбеги мансабидан кейин Оталиқ мансаби турган.

ҚУШЧИ, ҚУШБЕГИ (т.) - XV-XVI асрларда шоҳ ва хонлар қушхонасининг мутасарруфи бўлган. Унинг зиммасига овни ташкил қилиш ва ўтказиш вазифалари юклатилган [7]. Инглиз тилида *poultry hunter* (eng) деб таржима қилиб кўрсатиш мумкин аммо, бундай ҳарбий термин ғарб терминологиясида мувжуд эмас.

ИЛҒОР БЕГИ - (т.) - қўшиннинг олдинги қисми (авангард) бошлиғи ҳисобланган. Бу термин *avant-garde* (eng), *i'avant - garde* (fr) деб таржима қилинади.

ЯСАВУЛ - ЯСОВУЛ (м.-т.) - ўрта асрларда Мўғулистон, Ўрта Осиёда шоҳ ёки хон саройи узангисидаги кичик мансабдор шахс бўлган ва у командир ёрдамчиси (ўз) мақомига тенглаштирилган. Олий ҳукмдорнинг амру-фармойишларини бажарувчи шахсий хизматкори, фланг командири (ўз), *flanc* (fr), *commandant de bride* (fr), *flang commander* (eng) хранитель (р). **БОШЧИ=БОШЛИҚ=БОШЛИҒ –** идора, муассаса, ташкилотга бошчилиқ қилувчи шахс. Бошқа тилларда бу ҳарбий бошлиқ (ўз), *chieftain* (eng), *warlord* (eng), *chef de clan* (fr) каби тушунилади.

ТЎПЧИБОШИ (?) - ҳарбий лавозим бир тури ҳисобланади. Ўрта Осиё хонликларида ҳарбий ишларни бошқарган шахс. Бухоро амирлигида иккита тўпчибоши унвони бўлган: бири "тўпчибошийи лашкар" номи билан аталиб, Бухоро гарнизонининг бошлиги бўлган. Уни "вазири ҳарб" - ҳарбий вазир ҳам дейишган. Иккинчи тўпчибоши пойтахт қалъасининг бошлиги бўлган. Уни тўпчибошийи арки олий, яъни қалъа артиллериясининг бошлиғи дейишган [8]. **САРДОР** - (форс) - Ўрта Осиё хонликларида хон қўшини қўмондони, халқ лашкарбошиси. Ушбу терминнинг таржимаси ғарб тилларида *commander* (eng), *le commandant* (fr) *командир* (р). **СОЗАВУЛ –** ҳарбий офицер**,** офицер (р), *officier* (fr), *officer* (eng). **ТУРНАЧИ (САВАШ) –** ҳарбий офицер, *офицер* (р), *officier* (fr), *officer* (eng) каби терминлар қўлланилган. **ТУТКАВУЛ = ТУТХАВУЛ=ТУТГАВУЛ –** хазиначи, ғазначи шох саройи молиявий иқтисодий вазифани бажарувчи шахс деган тушунчани англатган. **ТИЛЧИ –** Айғоқчи шахс бўлган, замонавий тил билан айтганда *жосус* (ўзб) *шпион* (р), *espion* (fr), *spy* (eng) [9]. **ПИЁДА –** қуруқликдаги қўшин, Чингизхон қўшини забт этган мамлакатлар аҳолисидан мажбурий тартибда тузилгани ҳисобга олмаганда, пиёда аскарларга эга бўлмаган. Амир Темур қўшинида қалья, қўрғон, ҳисорларни муҳофаза қилишда фаолият кўрсатувчи пиёда аскарлар мавжуд бўлган [10]. Ушбу термин *пехота* (р), *infantry* (eng), *l' infanterie* (fr) таржималари қўлланилган. **СУ –** Армия, *army* (eng), *armée* (fr), *войско* (р). **СУ БАШИ –** Армия болиғи, Марказий осиёда ҳам Туркияда ҳам ўзининг илк маъносини аста секин йўқотди. *Head of the troops* (eng), *chef des troupes* (fr) *начальник войско* (р). **ЎҒЛАН 1** (м.-т.) - мўғулча сўз бўлиб, тахт вориси, шаҳзода деган маънони англатган.

ЎҒЛАН 2 – армия ўнг қўл ва чап қўл қанот кучларига жавоб берувчи ҳарбий. **ЛАШКАР** - (ф.-т.) - черик, қўшин, армия деган маънони билдирган. Мунтазам армия бўлмаган феодализм шароитида хон ва шоҳлар ҳарбий юриш олдидангина ўзига тобе вилоятларга чопар юбориб, қўшин тўплаган. Лашкарга чақирилган ҳар бир киши ўз оти, қуроли ва бир мунча озиқ-овқати билан келган. Ушбу термин *infanterie* (fr) ва *infantry* (eng), *пехоты* (р) қўлланилади.

Хулоса қилиб айтганда ҳарбий унвонлар ва даражаларни билдирувчи кўпгина терминларнинг аксарияти бир вақтнирнг ўзида бир нечта терминологик қаторларга киритилган: булар **бек, амир, сипахсилар, беклар беги, даруга, туман, беги, минг боши** ва ҳарбий мақом билдирувчи баъзи терминлар **чавуш, тавачи, ясавул, юз боши** ҳоказолар ҳарбий терминологияси ҳам суд терминологиясига тегишли бўлган [11]. Тарихий манбалар қадимда ватанимиз ҳудудида вужудга келган давлатларда ҳарбий жангчилардан ташқари "**соқчи", "қоровул", "чокар", "шихна", "ясовул", "кўкалдош", "муҳтасиб", "посбонбоши", "сарбоз", "миршаббоши"** ва **"миршаб"**лар каби терминлар ҳукмдор қароргоҳи, қалъалар ва бошқа иншоотларни қўриқлаш, қишлоқ ва шаҳарлардаги осойишталик ва жамоат тартибини сақлаш, аҳоли хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш, айбдорларни аниқлаш, топиш ва жазолаш каби вазифаларини бажарганлиги, шу каби тузилмалар негизида бугунги ички ишлар органлари терминлари ҳам шаклланган [12]. Бу эса ўз навбатида, ўзбек давлатчилиги тарихида терминлар борасида бой эканлиги ва терминлар узоқ тарихий илдизларига эга эканлигидан далолат беради.

Изоҳ:Қуйидаги қисқартмалар эса атаманинг (ф.-т)-форс-тожик, (ар.)- арабча, (т.)-туркий. (т.-м.) -туркий-мугулий, (м.) -муғулча, (ҳ.) - хиндча, (суғд.)-суғдча, (р.)-русча, (юн.)-юнонча (eng) – инглизча, (fr) – французча тилда эканлигини англатади. Этимологияси номаълум бўлган сўз муқобилига-? белгиси қўйилган.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Қарангhttps://qomus.info/encyclopedia/cat-t/temuriylar-harbiy-sanati-uz/ мурожаати.
2. Чориев З. Тарихий атамаларининг изоҳли луғати.Т.:Шарқ, 1999, б 316.
3. Судзиловский Г.А., Полюхин В.М., Шевчук В.Н. и др. Англо – русский военный словарь с. 149
4. Мухамедова Л.Д. Француз тилидан инглиз тилига ўзлашган ҳарбий терминлар // ЎзРҚКА илмий – ахборот журнали 2(4) 2019 – сон. 50 б.
5. Қаранг. Https: // etymoline.com/ word/major.
6. Дадабоев Ҳ.А. Амир Темурнинг ҳарбий маҳорати. Тошкент: Ёзувчи, 1996.,41 б.
7. Дадабоев Ҳ.А. Тарихий ҳарбий терминлар луғати.Т.: Университет, 2003; Военная лексика в староузбекском языке. Автореф-дисс...канд.филол.наук.Т., 1981. С.186
8. Ахмедов Б.Тарихдан сабоқлар.Т.,Ўқитувчи, 1994; Ахмедов Б. Тавончи ва жангчи терминлар ҳақида // ўзбек тили ва адабиёти, 1973. 4-сон. 73-76 б.
9. Древнетюркский словарь. «Наука». Ленинград, 1969. С. 111, 139.
10. Қаранг https://qomus.info/encyclopedia/cat-p/piyoda-askarlar-uz/ мурожаати.
11. Древнетюркский словарь. «Наука». Ленинград, 1969. С. 111, 139.
12. Разин Е. А., История военного искусства, т. 1-3, М., 1955-1961.

БОБУР ШАХСИЯТИНИНГ ТАРИХИЙ ТАЛҚИНИ

Норматов Р.Т.
Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари Академияси катта ўқитувчиси, доцент

Заҳириддин Муҳаммад Бобур шахсияти Ўзбекистонда, баъзи бир истисноларни ҳисобга олмаганда, XX асрнинг 40-йилларигача деярли ўрганилмади. Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ва ижоди ҳақида дастлабки мақолалар 1940 йилдан бошлаб чоп этила бошланган. Айрим хрестоматияларга унинг асарлари киритилган, Бобур лирикаси ҳақида номзодлик ишлар ёзилган.

Заҳматкаш олимлар Порсо Шамсиев ва Содиқ Мирзаевлар томонидан 1948-1949 йилларда «Бобурнома»нинг икки жилдлиги кирилл ёзувида чоп этилган. Шу йиллари «Бобурнома» шарқшунос Михаил Салье томонидан рус тилига таржима қилиниб, китоб ҳолида босилиб чиққан. 1959 йилда Азиз Қаюмов ва Сабоҳат Азимжонова томонидан «Бобур лирикаси» деб номланган рисола нашр этилди. Унда Бобур ғазаллари, рубоийлари, маснавийлари ва «Мубаййин» рисоласидан парчалар ўрин олган. 1960 йилда «Бобурнома»нинг илмий нашри чоп этилди. Мазкур нашрлар дунё юзини кўриши билан Бобур шахсиятини турли жиҳатдан тадқиқ этиш бошланди, бир қатор номзодлик ва докторлик ишлари ёқланди, рисола ва илмий мақолалар чоп қилинди [1].

Атоқли давлат арбоби, машҳур саркарда, ўзбек мумтоз адабиётининг йирик намояндаси Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва унинг фарзандлари бунёд этган улкан давлатни бошқариш санъати, лашкарни тузиш тизими, унинг ҳарбий ҳаракатларини ташкил қилиш ва бошқариш маҳорати, улар даврида яратилган меъморий, адабий, тарихий, мусиқий ҳамда тасвирий санъат асарлари асрларки дунё мутахассисларнинг, хусусан, инглиз тилида сўзлашувчи мамлакатлар тадқиқотчиларнинг диққат эътиборини ўзига жалб этиб келмоқда [2].

Европалик шарқшунос олимлар Анри Паве де Куртейль, Ҳ.Вамбери, Эльфинстон “Бобурнома” асарни қадимги рим императори Юлий Цезарнинг “Хотиралар” китоби билан бир қаторга қўйиб баҳолаган эдилар. Бу эса Бобур шахсининг дунёга машҳур инсонларга қиёс қилишга лойиқлигини ифодалайди.

Европа илм аҳлига «Бобурнома»ни биринчи марта таништирган голландиялик олим Витсеннинг таржимаси туфайли, бир томондан, Ғарб дунёси халқимизнинг бой адабий мероси билан таниша бошлаган бўлса, иккинчи томондан, инглиз шарқшунослари таърифлаган «Бобуриана» даври ҳам ана шу тариқа бошланади. Бирок, Бобурнинг Европадаги чинакам шуҳрати роппа-роса юз йилдан кейин – XIX аср бошларида қарор топди. Бу ишда инглиз ва француз шарқшунослари эътиборга молик тадқиқотлар яратишди. Улар китобни таржима қилиб, нашр эттиришдан ташқари, уни тадқиқ этишди Бобур ҳаёти ва шахсиятини ўрганиш ишига туртки беришди.

Бобурнинг ҳаёти, шахсий фазилатлари Европа тадқиқотчиларини ҳайратда қолдирган эди. Бобур сиймосида улар улкан саркарда, моҳир давлат арбоби, дилбар ва дилкаш инсонни кўрдилар.

Бу асар «Бобурнома» - Лейден-Эрскин таржимасида» номи билан 1826 йилда Лондонда чоп этилди. 1854 йилда Парижда “Ҳозирда ва қадимда яшаган тарихий шахслар ҳаёти” номли каттагина китоб чоп этилган. Мазкур китобдан шарқшунос М.Ланглэ (1763-1824)нинг “Заҳириддин Бобур ҳаёти ва ижоди” номли мақоласи ҳам ўрин олган эди. Мақолада Бобур ҳақидаги аввалги манбаларга нисбатан анча бой материал берилган. 1873 йили венгер шарқшуноси Ҳерман Вамбери Санкт-Петербургда нашр қилинган “Бухоро ва

Трансаксония тарихи” асарида “Бобурнома”ни “Шарқ Цезарининг хотиралари”, дея баҳолаган.

1871 йилда Парижда Павье де Куртейль томонидан «Бобурнома»нинг французча таржимаси икки жилдда нашрдан чиққан. Биринчи жилдда “Бобурнома”нинг ёзилиш тарихи, унда тасвирланган даврлар, Бобуршоҳнинг Афғонистон ва Ҳиндистонда барпо этган қудратли империяси хусусида маълумотлар берилган. “Мен таржима қилган бу асар фақат шарқшунослар учунгина эмас, - деб ёзади профессор Павье де Куртейль, - балки тарих ва география илми билан шуғулланувчи кишилар учун ҳам фойдалидир. Унда XV асрнинг охири ва XVI асрнинг биринчи ярмида яшаб ўтган арбоблар ва ҳукмдорлар ҳаёти, шарқий турк адабиётининг олтин даври тахрифи, шаҳзодалар, беклар ҳамда фуқаронинг турмуши тавсифланган” [3].

XX асрда ҳам инглиз ва француз шарқшунослари тарафидан Бобур меросини ўрганиш, “Бобурнома”ни таржима қилиш борасида улкан ишлар амалга оширилди. 1921 йилда инглиз тилидаги биринчи нашр асосида Льюкас Уайт Кинг томонидан тўлдирилиб, бойитилган ва тахрир қилинган янги нашр дунёга келди. Ношир инглизча таржимани нисбатан мукаммалроқ бўлган французча таржима билан киёслаб чиқиб, кўпгина жойларига аниқлик киритгандан сўнг, уни анча тўлдиришлар билан чоп эттиради.

«Бобурнома»даги кўпдан-кўп жуғрофий жой номлари, ўсимлик ва ҳайвонот дунёсига оид атамаларни ҳам таржимонлар батафсил шарҳлаб, тушунтириб берганлар. Биргина Льюкас Уайт Кингнинг ўзи тузган шарҳ ва изоҳлар 4000 дан ортикдир.

1930 йил француз олими Фернанд Гренарднинг “Бобур. Ҳинд империясининг асосчиси” рисоласи нашр этилади. Китоб ўн бобдан иборат бўлиб, унда Бобурнинг болалик вақтидан то умрининг сўнгги даврига қадар бошидан кечирган воқеалар тарихий-бадиий шаклда ҳикоя қилинган. Гренарднинг ушбу рисоласи “Бобурнома”га ҳамоҳанг ёзилган бўлиб, ундаги воқеаларга монанд келувчи илмий-оммабоп очерклардан иборатдир.

Бобурнинг Ҳирот ва Қобулдаги ҳаёти Гренард китобида бирмунча жонли тасвирланади. Шоҳ Бобур “ўзига хос ритмга эга бўлган ҳассос шоир, ўз “Эсдаликлар”и билан моҳир ёзувчи” қиёфасида гавдаланади. Ф.Гренарднинг бу китоби 1971 йил инглиз тилига таржима қилинган.

1983 йил ЮНЕСКО қарори билан Бобур таваллудининг 500 йиллиги кенг нишонланди. Бу қутлуғ санага франциялик олимлар ҳам ажойиб туҳфа тайёрладилар. Париждаги нашриётлардан бири “Бобурнома”нинг янги французча таржимасини “Бобур китоби” номи билан чоп этади.

Инглиз шарқшуноси, бобуршунос олима А.Бевериж хонимнинг таржимасидан роппа-роса 75 йил ўтгач, 1996 йилда Американинг Харвард университети профессори Уилер Тэкстон томонидан «Бобурнома»нинг инглиз тилидаги шарҳлар билан бойитилган яна бир тўлиқ таржимаси нашр этилди. Таржимоннинг мақсади «аслиятнинг хусусиятини сақлаган ҳолда ҳозирги замон инглиз тилига таржима қилишдан иборат» бўлган. Таржиманинг муҳим хусусияти – унда бой маълумотлар берадиган етти юзга яқин изоҳларнинг илова қилинганидир.

Кейинги йилларда Покистонда «Бобурнома»га ва умуман XVI асрда Ҳиндистондаги ўзбек тилида яратилган адабиётга нисбатан бўлган қизиқиш анча ортди. Карачи университети туркшунослари туркий ўзбек тили билан урду тили ўртасидаги лексик ўхшашликлар, урду тилидаги туркий сўзлар, Навоий ва Бобур асарлари тилининг хусусиятлари устида илмий ишлар олиб борилиши йўлга қўйилган.

«Бобурнома» урду тилига Бобурнинг авлодларидан бўлмиш Мирза Насриддин Хайдар Кўрагоний томонидан таржима қилиниб, дастлаб 1924 йилда Деҳлида, 1962 йили эса Карачида нашр эттирилган. Шунинг билан бир қаторда покистонлик олимлар «Бобурнома» асарида урду тили намуналари мавжудлигини таъкидлаб, алоҳида мақолалар ҳам ёзганлар. Жумладан, М.Х.Сиддиқий «Бобурнома» манбаларига таянган ҳолда, Бобурнинг Қандаҳорга юриши тарихини ёритган. «Бобурнома»нинг Абдураҳимхон ибн Байрамхон томонидан форс-тожик тилига қилинган таржимасини Рушан Оро Бегим нашрга тайёрлаб, 1972 йилда чоп эттирган. «Бобурнома» Ҳиндистоннинг давлат тили – ҳиндий тилига Йугжит Навалпурий томонидан таржима қилиниб, 1974 йилда Янги Деҳлида Ҳиндистон адабиёт академияси томонидан нашр этилган.

«Бобурнома»нинг аҳамияти ҳақида инглиз шарқшуноси Ф.Талботнинг қуйидаги сўзлари эътиборга молик: «Ҳозирги Ҳиндистонни ўрганмоқчи бўлган киши ишни, энг яхшиси, Бобурнинг хотираларини мутолаа қилишдан бошлагани маъқул».

1857 йилда шарқшунос Е.Березин «Мубаййин»нинг учинчи қисмини нашр этади. 1919 йилда эса Денисон Росснинг Бобур Ҳиндистонни забт қилгандан кейин ижод этган шеърларини ўз ичига олган тўпламини нашрдан чиқарди. Бобурнинг «Мубаййин» асарини илмий жиҳатдан махсус ўрганиш, энг аввало, Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг фалсафий ва диний-ахлоқий карашларини аниқлаш учун зарур бўлса, иккинчидан, бу асарнинг маънавий ҳаётимизда тутган ўрни ва унинг диний ва бадиий адабиётнинг ёрқин намунаси сифатидаги тарихий аҳамиятини белгилаш учун муҳимдир.

Хулоса қилиб шуни ғурур ва ифтихор билан айтиш мумкинки, Европа ва бошқа давлатларнинг тадқиқотчи ва таржимонлари Бобур меросини тарихий-этнографик, библиографик ҳамда лингвистик жиҳатдан тавсиф қилиш билан бобуршуносликнинг ривожига муносиб ҳисса қўшдилар. Қолаверса, Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг илм-фан, адабиёт ва санъатга оид бой меросини тўплаш, нашр этиш ҳамда ўрганиш давр талабидир.

Адабиётлар:

1. Хасанов С. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. –Т.: “O‘zbekiston”, 2011. 19-34-б.
2. Сотимов Ғ. Оламаро машҳуру манзур. // “Тафаккур” журнали. 1997 йил, 3-сон. 86-93-бетлар.
3. Холбеков М. Бобур ва “Бобурнома” француз шарқшунослиги саҳифаларида. // “Жаҳон адабиёти” журнали. 2017 йил, 2-сон. 191-196-бетлар.

SOURCES ON THE CULTURAL HISTORY OF INDIA DURING THE REIGN OF THE BABURIDS

Нуритдинов М.Н.

Источники по истории культуры Индии в эпоху правления Бабуридов

Doctor of philosophical science

The culture, spiritual life of each nation does not develop in isolation from the culture, spiritual life of other nations, but in close interconnection, mutual influence, absorbing what meets its needs and interests. If there are breaks in relations, then they are short-term and are associated with a break, political relations between states. So, at the beginning of the XVIth century, after the establishment of the power of the Safavids in Iran and the Sheibanids in Maverannahr, the cultural ties of Maverannahr with the countries of the Middle East sharply weakened. This coincided with

the period when incessant feudal wars, civil strife and struggle for power between representatives of the ruling dynasties became characteristic of Maverannahr, which entailed their economic decline in the country. All this, naturally, adversely affected the state of culture of the peoples of Central Asia. Although, in general, the cultural life of the region continued to develop not in isolation from the culture of other countries, but in connection with them. One of the main features of the period under consideration in the development of the philosophical thought of Maverannahr is that, starting from the XVIth century, it goes in two main directions.

The first direction is the development of social and philosophical thought in Maverannahr itself. Two stages should be distinguished here: the XVI-XVII and the XVIII-first half of the XIX century. The first is represented by such prominent scientists-philosophers as Mirzajan Shirazi (1), Yusuf Karabagi (2), Muhammad Sharif Bukhari, Inoyatulla Bukhari and a number of others. They created a number of works on philosophy, history, linguistics, works on Islamic law, as well as many commentaries and notes of a philosophical nature. The specific features of this stage will be discussed below.

The second stage is characterized by its specific tasks, which were solved in the course of the development of socio-philosophical thought and which can be the object of special research.

The second direction is the development of philosophical thought in India by thinkers from Central Asia who found themselves in the state of Baburids. The three hundred-year existence of the Baburid empire left a deep imprint not only on the cultural life of India, but also in Central Asia and other neighboring countries. Despite the remote geographic location of the state of Babur, his spiritual life has always remained a part of Central Asian culture, for he and his descendants have always been faithful to its traditions, spirit and continued to develop the best features of this culture.

Education

Baburids patronized the sciences and contributed to the development of education. The Mughal nobility and the upper classes followed suit. Hence the noticeable progress in education in India under the Baburids. The education system was put on the basis of clear programming of materials, which testifies to the wide involvement of the works of Central Asian scientists in the learning process. In general, the teaching of sciences is conventionally divided into four historical stages, depending on the specific conditions of each era and the requirements for knowledge.

The first stage covered the XIV-XV centuries. Then it was prestigious to study the grammar of the Arabic language, Muslim law, logic, Kalam, Sufism and interpretations of the Koran in educational institutions.

Second phase. At the end of the 9th century AH (beginning of the XVIth century), the Indian city of Multan, the main center of science, was turned into ruins. Scientists were forced to leave it and move to Lahore, and some of them found refuge in other cities. Among them was Sheikh Abdullah bin al-Hada al-Usmani at-Talbani, who moved to Delhi accompanied by Azizullah. Sultan Iskandar Lodi, upon learning of their arrival, extolled their position, showing great respect for them.

The third stage in the programming of study sessions is characterized by an increased interest in the philosophical sciences in all parts of India.

At the fourth stage, new amendments were made to the teaching programs in India by Sheikh Nizamuddin al-Saholawi, after which they did not change until the English conquest.

Interaction of ideas

The peoples of Central Asia and India were in close contact. For a long time they not only communicated with each other, but also conducted lively trade with other countries, which contributed to the "cultural interaction of the peoples of Central Asia and the peoples of China, India, Iran and Byzantium".

In the XVIth - XVIIth centuries, with the development of Babur's state, cultural communication between these states acquired new features. The progressive people who came from many countries introduced the Indians to the scientific and cultural achievements of their country, and those, in turn, to the works of prominent Indian scientists, poets, their way of life, etc. The Indians created many works in various fields, knowledge, including grammar, logic, philosophy, history, etc., not without the participation or influence of the works of scientists from Central Asia and Iran. Below we give some of these works.

The Works of Indian Scientists on Philosophy

The most famous is the work of Sheikh Mahmud bin Muhammad al-Javanpuri, called “The Rising Sun (ash-shamsul baziga- الشمس البازغة), and a treatise dedicated to form and matter - "Ad-davhatul mayada fis-sura val madda - الدوحة الميادة في الصورة و المادّة."

Below are the names of the authors and the titles of their works:

-Muhibbullah al-Bahori al-Hindi. “One substance of the indivisible part (“ Al-javharul fard fil juz al-lazi la yatajazza - الجوهر الفرد في الجزء الذي لا يتجزّأ");

-Mullah Hasan, bin Gulom Mustafa al-Lakhnawi. “The purpose of sciences in natural science” (“Gayatul ulum fil ’ilmit-tabiyi - غاية العلوم في العلم الطبيعي”);

-Idul Ali bin Nizomuddin al-Lakhnawi. “Useful haste in theology” (“Al-ujala an-naf'a fil ilahiyat - العجلة النافعة في الإلهيّات");

-Sheikh Rafiuddin bin Waliyullo al-Dehlavi: "Perfection of the art" ("Takmilus-sinoa - تكميل الصناعة");

-"Treatise on general issues" ("Risala fil umur al-amma - رسالة في الأمور العامّة");

-"A treatise on the secrets of love in all things" ("Risala asraril mahabba fi saryanil mahabba fil ashya kulliha - رسالة أسرار المحبّة في سريان المحبّة في الأشياء كلّها "Introduction to Science" ("Mukaddama fil ilm - مقدّمة في العلم").

-Fazl Imam al-Hayrabadi: "A summary of the book of healing by Ibn Sina" ("Talkhisush-sifa - تلخيص الشفاء");

-"Note - حاشية" to this work of his son Fazl Haqq. Peru also belongs to the following works;

- "Said gift in natural sciences - الهديّة السعيديّة فى العلوم الطبعيّة" ("al-Hadiyya as-sa'idiyya fil ulumi-t-tabiyiyya");

- "Dear family, enclosed in a high divine substance - الجنس الغالى فى الجوهر العالى فى الإلهيّات" ("al-Jinsul galiy fil javhari-l-ali fil ilahiyat");

- "Excellent chapters (dedicated) to the truth of being" ("ar-Ravdul masjud fi haqiqatil wujud - الروض المسجود فى حقيقة الوجود");

- "Treatise on the definition of science";

- "On the definition of bodies";

- "On the definition of natural universal";

- "About the doubtful";

- "About entities".

Sheikh Imaduddin al-Labkani: "A strong knot of some philosophical questions"; "Treatise on the definition of science"; "Treatise on Ten Categories" and dozens of other authors and works.

Commentaries and glosses written in India on the original works of thinkers from Central Asia and Iran.

-Commentary on "al-Matole" (the full title of the treatise "Matoleul anvor - مطالع الأنوار" - "The Ascent of Light"). The work is devoted to questions of philosophy and logic, written by Sirajuddin al-Urmaviy in the XIIIth century (Shahibek, the governor of Sand in India; commentary on him by Sheikh Nuruddin ibn Muhammad Salih al-Gujaroti).

-Commentary on "ash-Shamsiyya - الشمسيّة" written by Sheikh Abdulhak bin Sayfuddin ad-Dehlaviy. The original treatise is fully called "The Solar Treatise on the Foundations of Logic" and is one of the most famous treatises on logic. The author is Najmuddin al-Qazvini, nicknamed Dabiron (died c. 1276 or 1294), a disciple of Nasiruddin Tusi.

-Glossies to the commentary of the "Solar Treatise" by Razi Muhammad bin Ali bin al-Shahab al-Hamadani;

-note by Sheikh Wajihuddin al-Alawi al-Gujarotiy; the note of Nuruddin bin Muhammad Salih al-Gujarotiy;

-note by Sheikh Abdulaziz bin Waliyy-Ullah al-Muhaddis al-Dehlaviy.

In general, during the Baburid era, up to Avrangzeb, there was a certain rise in science and culture in the central cities of the empire.

Obviously, the treatise literally shook the minds of contemporaries and scholars of subsequent periods, as is indisputably evidenced by the number of commentaries and glosses written to it. In particular, these are the lengthy comments of Qaziy Muborak bin Daim al-Gunomaviy and Mavlaviy Hamdullo bin Shukrullo al-Sandilaviy. Less voluminous commentaries: Mullah Mubin bin Muhibullo al-Lakhnaviy "The Mirror of the Commentaries" ("Mirotush-shuruh - مرآت الشّروح"), commentary by Mawlavi Muhammad Hanif al-Dakhturiy, published in Deli in 1270/1854, “Illumination of sullam - تنوير السّلّم"); Naimuddin bin Fasihuddin al-Kanuji on the commentary on "The statement of the ladder" ("Tasdika-tus-sullam-تصديقات السلّم"); "Completion" of Sheikh Waliyyullah bin Habibullah al-Lakhnaviy to Mullah Hasan's commentary on the Ladders; another "Completion" of the same Waliyyullah to the commentary of Ahmad Abdulhakq.

Summing up everything that has been said, we can come to the conclusion that many outstanding scientists lived and worked in India during the reign of the Baburids. The creativity of each of them is of great interest from the point of view of determining the level of development of social and philosophical thought in India and Maverannahr, as well as the degree of mutual influence of the cultures of these peoples in the era under consideration.

References:

1. For him and other thinkers see; Nuritdinov MN Sources on the history of culture and social thought of Central Asia from the fund of the Institute of Oriental Studies (hereinafter IO) of the Academy of Sciences of the Uzbek SSR. ONU, 1985, no. 6, p. 53-55.

2. Nuritdinov M.N. Yusuf Karabagi and his philosophical views. Author's abstract, dissertation. Cand. philosopher, sciences. Tashkent, 1981

БОБУР ВА БОБУРИЙЛАР БУНЁД ЭТГАН БОҒЛАР

Пардаев А.
Қарши ДУ доценти
Хўжаёров А.
Қарши ДУ магистранти

Соҳибқирон Амир Темурнинг бунёдкорлик йўлида қилган ишлари унинг авлодларига анъана бўлиб қолди. Бу анъанадан буюк ватандошимиз Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳам четда қолмаган. Бобур вафотидан кейин қарийб беш аср вақт ўтишига қарамай, Бобуршоҳ ва унинг авлодларидан қолган тарихий ва маданий мерос ҳанузгача жаҳон халқларини ҳайратга солиб келмоқда.

Бобуршоҳ ҳаётлик даврида ажойиб, бетакрор боғларни бунёд этган. Шуниси ажабланарлики, Кобулнинг иқлим шароитидан келиб чиқиб, бу боғларда анвойи гуллар, мевали ва манзарали дарахтлар қисман такрорланган бўлса-да, аммо айрим жиҳатлари билан кескин фарқ қилган. Яъни, боғларнинг бири аксарият мевали дарахтлардан ташкил топса, бошқаси анвойи гуллар билан безатилган. Шунингдек, бу боғларга Мовароуннаҳрдан Қуванинг туятиш анори, Бахмалнинг қирмизи олмаси, Конибодомнинг обиноввот ўриги, Олтиариқнинг ҳусайни узуми, Самарқанднинг анжири келтириб ўтқазилган. Афсуски, бу боғларнинг аксарияти ҳозирги кунда ёзма манбалардагина қолган.

Қуйида ушбу боғлардан айримлари ҳақида ҳикоя қилинади.

БОҒИ ВАФО – Бобур томонидан Қобул вилоятининг Нингнаҳор тумани маркази Одинапур кўрғонида 1509 йилда бунёд этилган. Бу боғ Сипинғар тоғи этагида жойлашган, бироқ унга қор тушмаган, обу ҳавоси сафоли ҳисобланади. Боғ кўрғоннинг жануб тарафида бўлиб, кўрғон билан боғ ўртасидан сой оқиб ўтган. Бобур уни қуришда меъморчилик ва боғдорчиликнинг юксак намуналарини жорий этган. Боғ ўртасидаги тепалик чорчаман (гулзор) қилинган. Боғнинг жанубий томонида ҳовуз қурилиб, атрофига мевалардан норинж, анор ва турунж экилган. Бобур Лоҳур ва Дибалпурни забт этган йили у ердан шакарқамиш ва банан ҳам келтириб эктирган.

Бобур бу боғни жуда меҳр билан парвариш қилган ва бу ерда дам олишни хуш кўрган. Ҳиндистонга катта ҳарбий юриш арафасида ҳам Бобур Боғи Вафога келиб, Ҳумоюн ўз қўшини билан етиб келгунга қадар шу ерда кутган. "Бобурнома"да боққа алоҳида таъриф берилган: *"Боғи Вафонинг ҳадди ва худуди бу тарихда мукаррар битилибтур. Асру жуда сафолиқ боғ воқеъ бўлубтур. Ҳар ким харидорлик кўзи била кўрса, билгайким не турлук ердур"* [1:220].

БОҒИ ЗАРАФШОН – Агра шаҳрида, ҳозир Тожмаҳал мақбарасидан беш чақирим шимол томонда жойлашган, Ҳиндистонда самаркандча чорбоғ услубида яратилган дастлабки боғ ҳисобланади. Бобур шахсан ўзи танлаган ерда унинг чизиб берган тарҳи бўйича 1528 йилда бунёд этилган. Бу пайтда Бобур йирик давлат қуриб, уни барқарорлаштиришга эришган ва унга бас келадиган кучлар қолмагани учун Бобур асосий вақтини ижодга қаратишни ният қилган. Бобур Боғи Зарафшоннинг бир четида хилватхона солдириб, “Вақоъе" (яъни, “Бобурнома")ни қайта кўчирган. Давлат ишларидан бутунлай узилиб кетолмаганидан, Бобур кўринишга келувчиларни дарёдан кема орқали олиб ўтишни буюрган [1:357].

Бобур Боғи Зарафшонда ҳокимиятни Ҳумоюнга топширган (уч кундан сунг вафот этган, [2:196]). “Бобурнома"ни қайта кўчирган хаттотнинг ёзиб қолдирганига кўра, Бобур шу боғда дафн этилган (кейинчалик, васиятига кўра хоки Кобулга олиб келиниб қайта дафн қилинган).

Бобур вафотидан сўнг Боғи Зарафшон Бобурийлар ҳукмдорларининг севимли масканига айланган. Ҳумоюн ҳарбий юришлари олдидан бу ерда машварат ўтказган. Акбар боғни янада кенгайтириб Нилуфарзорлар билан ўраган ва Боғи Нилуфар деб атаган. Жаҳонгиршоҳ севимли маликаси Нуржаҳон Бегим шарафига номини Боғи Нурафшон деб ўзгартирган. Нуржаҳон Бегим боғ ўртасида Моҳитоб номли қабулхона бино қилиб, Намгир номи билан маълум тахт ўрнаттирган ҳамда Жаҳаз Маҳал деган сарой қурдирган. Бобурийлар сулоласининг кейинги вакиллари Оромбоғ деб атаган (маҳаллий ҳинд тилида Рамбоғ).

БОҒИ КАЛОН – Қобул яқинида, Исталиф кентидаги бунёд этилган. Бобур Исталифни сайр қилиб юрганида боғни кўриб ёқтириб қолади. Боғ Улуғбек Мирзо Қобулий томонидан

тортиб олинганини билиб, унинг эгаларини рози қилиб сотиб олади. “Боғдин ташқари улуғ чинорлар бор, чинорларнинг туби сабзалик, сафолиқ манзиледур. Боғнинг ўртасидин бир тегирмон суйи ҳамиша жорийдур. Бу ариқ ёқасида, боғ ўртасида чинорлар ва дарахтлардур, бурун бу ариқ эгри-бугри ва бесиёқ эди. Мен буюрдумким, бу ариқни режа ва сиёқ била қилдилар, бисёр яхши ер бўлди” [1:136].

БОҒИ НАВРЎЗИЙ (Боғи Бобур) – Кобул шахрининг Чордеҳий туманидаги Шердарвоза тоғининг этагида жоёлашган. Бокка Улуғбек Мирзо Кобулий асос солган. Онаси Қутлуғнигорхоним вафот этганида, Бобур амакисининг меросхўрларидан рухсат сўраб марҳумани шу бокка дафн қилган [1:157]. Бобур кейинчалик боғни сотиб олиб қайтадан ободонлаштирган. Турли мевали ва манзарали дарахтлар эктирган ва арикларни тозалатиб, окар сувлар билан кўркамлаштирилган. Бобурнинг ҳижрий 935 йилда Хожа Калонга ёзган мактубида «Назаргоҳ» деб аталган. Хумоюн Мирзо, Акбаршоҳ, Жаҳонгиршоҳ ва Шоҳжаҳонга бағишланган тарихий манбаларда “Ҳазрати фирдавсмакон муборак мақбарасининг боғи" деб тилга олинади. Бобур мақбарасининг атрофида Ҳиндол ва Ҳаким Мирзонинг қабрлари, бир оз юкорида Руқиябегимнинг қабри жойлашган. Бобур вафоти олдидан уни айнан шу бокқа дафн қилишларини васият қилган. 1540 йилда Бобурнинг ҳоки Аградан олиб келинганидан сўнг, у Боғи Бобур деб хам атала бошлаган.

Боғнинг узунлиги 550 м, мақбарага чикиладиган зинапоянинг баландлиги 50 м атрофида. Бобурийлардан Жаҳонгиршоҳ ва Шоҳжаҳон, кейинчалик Афғонистон ҳукмдорлари Нодиршох ва Зоҳиршоҳ боғда ободончилик ишларини амалга оширган. Боғда Шоҳжаҳон мармартошдан курдирган масжид бор. Унинг пештоқига Шоҳжаҳон қўшинининг Балх ва Бадахшондаги ғалабаси муносабати билан 1646 йилда ёзилган "Фатҳнома”дан парча китобат қилинган.

Бобурийлар сулоласидан Жаҳонгиршоҳ боғни девор билан ўраган. Шоҳжаҳон замонида боғ ичида оқ мармардан масжид бунёд этилган. Афғонистон амири Абдураҳмонхон 1880 йилда рафиқаси Биби Ҳалимага атаб павильон ва резиденция қурдирган.

Бобур боғи сўнгги даврдаги нотинчликлар оқибатида жиддий зарар кўрган эди, сўнгги йилларда қайта таъмирланди. Ҳозир Боғи Наврўзий (Боғи Бобур) кобулликларнинг энг севимли оромгоҳларидан саналиб, халқ сайиллари ва наврўз байрами тантаналари ўтказилади.

БОҒИ НИЛУФАР – Бобур томонидан Ҳиндистонда барпо этилган. Агра шаҳридан 50 чақирим жанубдаги Дўлпур (ҳозир Рожастан штатининг Бхаратпур райони ҳудуди)да жойлашган. Боғ ўрнини қизил қумтошли тоғ ёнбағрида, Чамбал дарёсининг ёқасида Бобурнинг ўзи танлаган. Боғда намозгоҳ, чўмилиш учун ҳовуз, шийпон, тош супа, фаввора ва сув етказиб бериш учун кувурлар тизими бўлган. Нилуфарзор ҳовуз ва қудуқлари бор боғлар Ҳиндистонда илгари ҳам қурилган, аммо чорбоғ шаклидаги оромгоҳлар Бобур давридан бошланган. Бобур Кобулдан қовун уруғи олиб келиб Боғи Нилуфарда эктирган. Боғнинг Нилуфар шаклидаги энг катта ҳовузи ва бир нечта кудуклари сакланиб қолган.

БОҒИ САФО – Одинапур шахри якинида Бобур томонидан курдирилган. Кўркамлиги билан машхурдир. Тоғ этагидаги чашма ёнида хушҳаво ва сафоли ерда барпо этилган [1:224].

БОҒИ ФАТҲ – Агра шаҳри яқинидаги Секри тоғи ёнбағрида жойлашган. 1527 йил Рона Санго устидан қозонилган ғалаба шарафига ҳал қилувчи жанг бўлган жойда бунёд этилиб, Боғи Фатх (Ғалаба боғи) деб номланган.

Ўн бир ёшидан бери икки Рамазон ҳайитини бир жойда ўтказа олмаган Бобур Ҳиндистон тахтини эгаллагач бундай имконият туғилган бўлсада, “анъанани бузмаслик учун (олдинги ийд Аграда кутиб олинган эди), 1528 йилда Рамазон ҳайитини Боғи фатҳда

ўтказишга қарор қилган, қуриб битказилган тош супа устига оқ уй (чодир) тиктириб, байрам қилган [1:330]. Бобур Боғи фатҳни обод қилишга катта эътибор берган, турли иморатлар ҳам курдирган, ишининг сифатидан қониқмаган усталарни ҳатто жазолатган [1:344]. Боғ шийпонининг болохонасида ўтириб, "Қуръон"ни ўз қўли билан кўчирган [2:15].

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: “Юлдузча”, 1989.
2. Гулбаданбегим. Ҳумоюннома. – Т.: “Маънавият”, 1998.
3. “Бобур энциклопедияси”. – Т.: “Шарқ”, 2014

“ДЎСТЛАР БИЛАН БИРГАЛИКДАГИ ЎЛИМ ТЎЙДИР”

Ражабов В.Н.
Чирчиқ ОТҚМБЮ катта ўқитувчиси

Бобур характери, унинг руҳий ва ахлоқий қиёфаси худди мана шундай энг оғир шароитда намоён бўлади. У кичик ғорга бошқалар, аскарлар киришини таклиф қилади. Ўзи эса ташқарида қолиб қорда ғовак ясайди ва ўша ерда дам олади: “...ҳавол торроқ кўрунди. Мен ҳаволнинг оғзида курак олиб, қор кураб, ўзумға бир такия миқдори ер ясадим, қорни кўкусгача қоздим, ҳануз ерга етмайдур эди. Бир нима елга паноҳ бўлди, ўшанда-ўқ ўлтурдим. Ҳар неча дедиларким, ҳаволға боринг, бормадим. Кўнгулга кечтиким, борча эл қорда ва чопқунда, мен иссиқ уйда ва истироҳат била мунда, борча улус ташвиш машаққатта, мен мунда уйқу била фароғатда, Мурувваттин йироқ ва ҳамжиҳатликдин қироқ ишдур. Мен ҳам ҳар ташвиш ва машаққат бўлса кўрайин, ҳар нечук эл тоқат қилиб турса турайин, бир форси масал бор: **“Марг бо ёрон сурураст” (“Дўстлар билан биргаликдаги ўлим тўйдир”).** Ўшандоқ чопқунда қозғон, ясағон чуқурда ўлтурдим, намози хуфтонғача қор онча чопқулаб ёғдиким, мен энгашиб ўлтуруб эдим, орқамға ва бошимға ва қулоқларимнинг устига тўрт эллик қор бор эди.” [1. 175 б].

Ана шу вазиятда Бобурнинг қулоғини совуқ олиб кетади. Бобурнинг шундай ўктамлиги ва матонати навкар ва аскарларни унинг атрофига жипслаштиради. Жипслашган қўшин жипслашмаган аскарлардан кескин фарқ қилади. Бундай қўшиннинг куч-қуввати ўз-ўзидан бир неча бор ортади. Бундай қўшин ўзидан бир неча бор ортиқ қўшинни ҳам мағлуб эта олади. ҳаёт буни тасдиқлади.

Шу ўринда француз тарихчиларидан бирининг араб мамлуклари ва француз аскарларини қиёслаши ёдга тушади: “Бир мамлук икки француз аскарини енгади,-дейди у,-лекин, беш француз аскари беш мамлукка бас келади, ўн француз аскари эса ўн беш мамлукни енгади.” Бу қиёслаш шуни кўрсатадики, ҳар бир мамлук жисмоний жиҳатдан ва маҳорат жиҳатдан француз аскарларидан анча устун. Шунинг учун уларнинг ҳар бири бир неча француз аскарига бас келади. Лекин, мамлуклар яхши уюшмаган. Шунинг учун яхши уюшган ўнта француз аскари ўн беш мамлукка бас келади. Худди шунинг учун ҳам Бобурнинг 11-12 минг кишилик қўшини Иброҳим Лўдийнинг 100 минг кишилик қўшини устидан порлоқ ғалаба қозонди. Бу ўринда ҳам Бобурнинг аскарлар руҳиятини билиши, ўзининг руҳан бақувватлиги унинг ҳарбий маҳорати билан уйғунликда ажойиб ғалабаларга олиб келади.

Жангчилар олдида шахсий ибрат кўрсатиш Бобур Мирзо учун шунчаки бир тадбир бўлмасдан, унинг характери, руҳиятидан келиб чиқадиган ҳодиса эди. Шунинг учун ҳам бу

ҳол Бобур фаолиятида мунтазам намоён бўлар эди. Шуни ҳам ҳисобга олиш керакки, бу хусусият лашкар учун энг қийин ва оғир дамларда доимо намоён бўлган.

Юқорида Бобурнинг қор-бўронларда, Ҳиндистондаги жангларда қандай ибрат кўрсатгани баён қилинди. 1504 йилда Афғонистон юриши ўтказилар экан, лашкар анча оғир шароитда қолди. Чунки, қўшин кам сонли бўлиб, атрофда ҳужум қилишга шай турган душман галалари изғиб юрар эди. Кам сонли қўшин юришни давом эттирар экан, қоронғу тушганда мустаҳкам қўрғонлар йўқлиги туфайли очиқ далаларда тунашга тўғри келар эди. Шундай пайтларда душманнинг қўққисдан қилган ҳужуми натижасида қирилиб кетмаслик учун ҳозирги ҳарбийлар тили билан айтганда патруллар қўйиларди. Патруллар у пайтда **чиғдовул** дейиларди.

Чиғдовуллар лашкар тўхтаган жойдан бир ўқ отими масофа четга чиқиб, туни билан навбатма-навбат айланиб юрар эдилар. Бу пайтда Бобур шо деб эълон қилинган эди. Бобурнинг қанчалик матонатли ва ўктам шахс экани шунда ҳам кўринадики, у шо бўлишига қарамасдан, аскарлар билан бир қаторда **чиғдовуллик** қиларди. «Бобурнома»да бу ҳақда шундай дейилади: “Ул юрушда бисёр эҳтиёт қилинур эди, ҳеч иш қила олмадилар. Мундоқ эҳтиёт қилилур эдиким, буронғор, жувонғор, ғул, ировул ҳар қайси бўдаллик бўдалида тушуб, ҳар қўл ўз тушидин яроғланиб яёқ ўрдунинг гирдиға чодирлардин бир ўқ отими йироқроқ чиқиб, кеча ўшанда-ўқ бўлўрлар эрди. Ҳар кеча бу дастур била томом черик элини чиқарилур эди. Ичкилардин уч-тўрти машъал била ҳар ахшом навбат била эврулур эдилар. Мен ҳам бирор навбат эврулур эрдим.» [1. 134-135 б].

Тарихий асарларнинг аксарида персонажлар ижобий ёки салбий аснода тасвирланадилар. Бобур эса «Бобурнома»да тарихий шахслар психологияси ва характерини тасвирлар экан, улардаги ҳам ижобий, ҳам салбий хислатларни кўрсатади. Масалан, Бобоқули Бобо Алибек характерини қуйидагича ифодалайди: *«Забти ва яроғи яхши эди. Навкарни яхши сахлар эди. Бенамоз эди, рўза тутмас эди. Золим ва кофирваш киши эди.»* [1. 16 б].

Бобурнинг ўз бобокалони соҳибқирон Амир Темурга чексиз ҳурматини таъкидлаш жоиздир. «Бобурнома»да Маҳмуд Ғазнавий ва Иброҳим Ғурийлар Ҳиндистонни фатҳ этиш учун қанча лашкар билан келганлари, ҳиндлар уларга қарши қанча қўшин чиқарганлари, жанг қандай шароитда ўтгани таҳлил қилинади, аммо Амир Темурнинг Ҳиндистонга юриши тўғрисида ҳеч нарса дейилмайди. Чунки, Бобур бобоси Темурбекнинг улкан обрўсига заррача соя тушишини истамайди. Ва ул жангни таҳлил қилишдан ўзини тияди. Гап шундаки, Соҳибқирон қозонган улкан ва порлоқ ҳарбий ғалабалар унинг қанчалик катта ҳарбий билим ва салоҳиятга эга бўлганини кўрсатади.

Бобурнинг Деҳли ёнидаги жангда озгина қўшин билан душманнинг қудратли армиясини енгиши ягона ҳодиса эмас. Унинг ҳарбий фаолиятида бундай порлоқ ғалабалар бир неча марта қўлга киритилган. Шулардан бири 1501 йилда Самарқанд шаҳрини олишда юз берган эди. Ўша пайтда Самарқанд Дашти қипчоқдан келган кўчманчилар қўлида бўлиб, шаҳарда олти-етти юз аскардан иборат гарнизон бор эди. Бу ерда ҳам ақл бовар қилмайдиган ҳодиса юз беради. Эндигина ўн саккиздан ўн тўққизга қадам қўйган Бобур Мирзо икки юздан сал ортиқ аскарлари билан олти юздан ортиқ кўчманчилар эгаллаб турган Самарқандни олишга қарор қилади ва энг ҳайратланарлиси шундаки, у бунга эришади. Гап шундаки, агар шаҳар ичида икки юз кишилик қўшин бўлса-ю, уни шаҳар ташқарисидаги олти-етти юз кишилик душман қўлга киритмоқчи бўлса ҳам бу мақсадга эришиши қийин бўларди. Чунки, шаҳардагилар девор билан ҳимояланган, уларга ўқ-найза билан зарар етказиш мумкин эмас. Ташқаридагилар эса очиқликда бўлиб, дарвоза ёки деворга

яқинлашиши билан уларни ўқ-найза ва тошлар билан ҳам қириб юбориш мумкин. Бобур Самарқандни олмоқчи бўлганда эса аҳвол бунинг аксича эди. Шаҳар ичида олти-етти юз кишилик гарнизон, ташқарида эса икки юз қирқ кишилик кичик қўшин.

Ярим тунда, шаҳар аҳолиси ва гарнизон қаттиқ уйқуга кетган пайтда Бобурнинг бир неча аскари Ғори Ошиқон рўпарасидан шоти қўйиб шаҳар деворига чиқишади. Улар ичкарига тушиб Феруза дарвозасининг яқинига борадилар. Фозил тархон бошчилигидаги қўриқчиларни маҳв этадилар ва қулфни болта билан синдириб Бобур Мирзога дарвозани очадилар. Бобур қўшини ичкарига кириб шаҳарни эгаллайди.

Шаҳар аҳолиси Бобурни қўллаб-қувватлайди. Эрталаб санаб кўрилса, кўчманчилардан беш-олти юз киши ўлгани маълум бўлади. Мана шу жанг ҳам Бобурнинг фавқулодда ҳарбий истеъдодга эга эканини кўрсатади. Шу билан бирга, мана шу жанг Бобурнинг ҳарбий психологияни қанчалик чуқур билгани, аниқроғи, аҳоли психологиясини нақадар тўғри баҳолагани ва ундан ҳарбий мақсадларда ўринли фойдаланганини кўрсатади.

«Бобурнома»да қурол-яроғ ва ҳарбий техникани такомиллаштириш бўйича Бобур Мирзо тадбирлари ҳам бирмунча ёритилган. Жумладан, уста ва ҳунармандларнинг шу йўналишда рағбатлантириб борилгани баён қилинган. Мовароуннаҳрдан Бобур билан Ҳиндистонга борган уста Алиқулига узоқ масофага катта-катта тошларни ота оладиган қурилма яратиш топширилади. Алиқули ишларни бошлаб юборади. Қурол тайёр бўлганда Бобур Мирзо уни кўришга боради. Аксига олиб, шоҳ келганда қурилма ишламай қолади. Уста Алиқули жуда оғир аҳволда қолади. Бу ҳақда «Бобурнома»да шундай жумлаларни ўқиймиз: «Биз борғоч, кўраларнинг тешукларини очти, ҳар ариқдин эриган олот сувдек шарилдоб қолибға кирар эди. Бир замондин сўнг қолиб тўлмай, бу кўралардин келатурган эриган олотнинг келмоғи бирар-бирар мунқате бўлди. Кўрада ё олотта қусуре бор экандур. Устод Алиқулига ғариб ямон ҳолате бўлди.” [1. 278 б].

Парчанинг давомида ўша Алиқулининг сувдек эриб турган қозонга ўзини ташлаш даражасида оғир аҳволга тушгани, қаттиқ хижолат бўлгани тасвирланади. Шундай ҳолатда шоҳ қурилмани яратишда камчиликларга йўл қўйган устага дашном бериш, уни жазолаш ўрнига рағбатлантиради. «Дарбин эдиким, ўзини қолиб ичидаги эриган мисқа ташлагай. Устод Алиқулиға дилжўйлиқ қилиб, хилъат кийдуруб, бу инфиъолдин чиқардук.» [1. 278 б].

Киши психологиясини чуқур билган Бобурнинг бу тадбири бир томондин гуманистик тадбир бўлиб, устани қийин аҳволдан чиқарган бўлса, иккинчи томондан, устани руҳлантириб қурилманинг камчилигини битиришга отлантиради.

Уста Алиқули қурилма камчилигини тафтиш қилишга ўзи киришади. Маълум муддатдан кейин қурилманинг камчиликларини бартараф қилиб ишга туширади. Бундай қурилманинг яратилиши XVI аср бошларидаги ҳарбий техниканинг катта ютуғи эди. Бу қурилма катта тошни бир ярим чақирим масофага отарди: “Якшанба куни ойнинг секкизида Устод Алиқули ўшул улуқ қозони билаким, қуярда тош уйи бенуқсон эди, дорухонасини ҳам сўнгра қуюб, тайёр қилиб эди, тош отарида тафарружига бордим. Намози дигар бор эди, тош отти. Минг олти юз қадам борди. Устодға камар ханжар ва хилъат ва тойчоқ от инъом бўлди.” [1. 284 б].

Бобур Мирзодан уч юз йил кейин, яъни XIX аср бошларида ўзи асли артиллериячи бўлган **Наполеоннинг қўшинидаги замбараклар ҳам 500-600 метрдан** нарига ота олмаганини ҳисобга олсак бу қурилманинг нақадар катта ихтиро бўлганини тасаввур қилиш мумкин. Афсуски, асарда қурилманинг қозони, саккизта кўраси бўлгани баён қилинган, лекин бошқа тафсилотлар ва ишлаш тамойиллари айтилмаган.

“Бобурнома”да ҳарбий техникани ривожлантириш тадбирларининг тавсифи фақат устод Аликулининг қурилмаси баёни билан чекланмайди. Бобур Мирзо қўшини махсус зарбзанлик аробалари ва тўплар билан ҳам қуролланган эди. Улар ҳақида ҳам китобда маълумотлар келтирилган.

Юқорида келтирилган мисол ва таҳлиллар Бобурнинг улкан саркарда сифатида шуҳрат топиши, қўшинни ўз замонаси учун илғор ҳарбий техника билан таъминлашга ҳаракати ва бунга эришгани, ҳарбий стратегияни ва айниқса тактикани ривожлантиришга жиддий эътибор бергани, аскарларнинг жисмоний ва руҳий тайёргарлигини мустаҳкамлаш доим унинг диққати марказида бўлгани туфайли эканини кўрсатади. Хулоса қилиб айтиш мумкинки, Бобурнинг фавқулодда зеҳн ва заковат эгаси экани, тахтга ўтиришдан аввал ҳам, тахтга ўтиргандан кейин ҳам заҳматкаш бўлгани, инсон руҳиятини чуқур билгани унинг дунёда хассос шоир, зукко олим ва моҳир саркарда сифатида донг чиқаришига ва ном қолдиришига сабаб бўлди.

Фойдаланган адабиётлар рўйхати:

1. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. “Бобурнома”, Т., 1989 й.

ЗАҲИРИДДИН МУХАММАД БОБУР ВА ИЖТИМОИЙ АДОЛАТ МУАММОЛАРИ

Раупов С.С.
БухДУ доценти, тарих фанлари номзоди,
Назарова Г.Х.
БухДУ ўқитувчиси

Бирор иш борасида ҳукм қилишда тўғри баҳо бериш, тортишиб қолганлар ўртасини аҳиллик билан ислоҳ қилиш, ҳар кимга мақомига яраша муомалада бўлиш, ҳақдорларнинг ҳаққига риоя қилиш, ўзганинг ҳақига хиёнат қилмаслик, фарзандларнинг барчасига бирдек яхши муомала қилиш, доимо инсофли бўлиш одиллик – адолат ҳисобланади.

Адолат тушунчаси инсон ёки инсонлар гуруҳи ўртасидаги ўзаро муносабатлар ҳолатини ифодоловчи тушунча бўлганлиги учун ижтимоий сўзи қўшилади. Чунки ижтимоий адолат ижтимоий муносабатларнинг барча жабҳаларига таалуқлидир.

Адолат тарих синовларидан ўтган тинчлик ва мехнат, эркинлик ва тенглик, бирдамлик ва бахт ҳақидаги тасаввурлар билан бирга, кишиларнинг эҳтиёжларини энг кўп ифодалайдиган ғоялар қаторига киради. Адолат кенг халқ оммасини қатий ва фаол ҳаракатга ундовчи, сафарбар этувчи кучга эга.

Исломнинг асоси бўлган Қуръони Карим ва Ҳадиси Шарифларда ҳам адолат борасида кўп ўгитлар айтилган. Адолатли бўлиш ҳар бир инсон учун зарур амалдир. Айниқса, масъул вазифада хизмат қилувчи кишилар ва раҳбарлар учун ўз қўл остидагиларга нисбатан адолатли муомалада бўлиши ўта муҳимдир. Бу ҳақда "Нисо" сурасининг 58 оятида шундай дейилади: - "Албатта, Аллоҳ сизларга энг яхши панд-насиҳатларни қилур. Албатта, Аллоҳ эшитувчи, кўргувчи зотдир".

Адолат қилиш раҳбар одамлар учун ўта зарур бўлган масъулият эканини Расуллуллоҳ (с.а.в) баён қилиб, ўз ҳадиси шарифларида айтганларки: "Сизлардан ҳар бирингиз раҳбар назоратчисизлар ва ҳар бирингиз ўз қўл остидагиларингиз учун сўроқ қилинурсиз."

Бирок кишига ёки қавмга шахсий адовати бўлгани учун адолатсизлик қилиш ёки ўз қариндоши, таниш-билишларига ён босиб, уларни қўллаб-қувватлаб адолатли бўлишни Аллоҳтаоло қатъий ман этиб, айтадики: "Эй мўминлар, Аллоҳнинг ўзи учун ҳақ йўлни тутувчи бўлингиз! Бирок қавмни ёмон кўришингиз сизларни адолат қилмасликка тортинмасин! Адолат қилингиз!" (Моида сураси, 8-оят)

Исломий ақидалар асосида тарбия топган Ўзбек халқининг улуғ бобокалони, буюк давлат арбоби, машҳур саркарда, шоир ва ёзувчи Заҳириддин Муҳаммад Бобур фаолиятининг барча сохаларида ижтимоий адолат устивор ахамиятга эга бўлган. У ўз салтанати сиёсатини амалга оширишда ислом, шариат, тариқат, футувват илмларини тўла эгаллаш билангина эмас, балки дунёвий илмларни ҳамда сиёсат тамойилларини, ўтмишдаги давлат бошлиқлари сиёсий қарашларини, маиший турмуш тарзини ўрганиш ва уларнинг энг мақбулларини қабул қилиш билангина муваффақиятли сиёсат юргизиш мумкинлигини англаб етган.

Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг жамиятда ижтимоий адолатни таминлашга хизмат қилган энг улуғ фазилатларидан бири ўзгаларнинг камчилик ва нуқсонларини ҳаққоний ва рўй-рост танқид қилишида, ҳақиқатга тик қараш, рост гапни ҳамиша айта билиш, адолатни ёқлаш ва танқидни тўғри қабул қилишидадир. Унинг шох асари «Бобурнома»нинг энг муҳим хислати шундаки, унинг муаллифи нимани баён қилмасин, масалага танқидий қарай олган, асарда ўша даврдаги жамиятнинг барча ноқисликларини бирма-бир очиб берган. «Бобурнома»да бу ҳақда шундай ўринлар бор: «Бу битилганлардин ғараз шикоят эмас, рост ҳикоятдурким, битибтурмен. Бу мастур бўлғонлардин мақсуд ўзнинг таърифи эмас, баёни воқеи бу эдиким таҳрир этибтурмен. Чун бу тарихта андоқ илтизом қилилиб турким (қарор қилиндиким) ҳар сўзнинг ростини битилгай ва ҳар ишнинг баёни воқеини таҳрир этилгай...» [1, 180]

Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳам бобокалони Амир Темур изидан бориб, бағрикенглик, кечиримлилик сиёсатига умр бўйи амал қилган.Бу эса жамиятда ижтимоий адолатни таъминлашда хал қилувчи ахамиятга эга бўлган. Унинг бу сифатлари яқинлари билан бўлган муносабатларида яққол кўзга ташланади. У ўз яқинлари унга хиёнат қилган пайтларда хам уларни кечиради, улар билан қон-қардошлик алоқаларини узмайди.Унинг айрим яқинлари ва ундан яхшилик кўрган айрим нокаслар душман томонга ўтиб, яна душманлик қила бошлаши Бобурни изтиробга солади ва қуйидаги байтни келтиради:

Ту бад кунандаи худро ба рўзғор супор,

Ки рўзғор туро чокарест кина гузор.

(Мазмуни: Сен ўзингга ёмонлик қилганни турмушга топшир, турмуш сенинг ўч олувчи хизматкорингдир) [1, 181].

Заҳириддин Муҳаммад Бобур фаолиятида ижтимоий адолатни таминлашга хизмат қилган сифатларидан яна бири – унинг дипломатиясидир. Дипломатия сўзи тор маънода– давлатнинг ташқи халқаро сиёсатини амалга ошириш, чет мамлакатлар билан алоқа қилиш соҳасидаги фаолияти, кенг маънода эса музокара олиб бориш санъати тушунчаларини ифодалайди. Бу ўринда шуни алоҳида эътироф этиш керакки, дипломатия тушунчасининг қадимий, тарихий илдизлари айнан унинг кенг маънодаги тавсифи билан боғлиқ. Яъни, дипломатия, аввало, давлатлараро алоқа сифатида эмас, балки давлатнинг ички бошқаруви тизимини тартибга солишда давлат аъёнлари, аъёнлар ва амалдорларнинг ўзаро ва раият (халқ) билан муносабатлари, музокара-мулоқот юритиш маҳоратлари, ҳар бир давлатнинг ички тартиб-қоидаларини амалга ошириш фаолиятида муваффақиятга эришиш санъати сифатида юзага келган. Кейинчалик давлатчиликнинг кучайиши давлатлараро алоқаларнинг

ва дипломатик музокаралар олиб бориш эҳтиёжининг юзага келишига олиб келган Бобурнинг жаҳонга машҳур нодир асари «Бобурнома»да унинг дипломатик қарашлари, бир неча аср ҳукм сурган бобурийлар империясидаги давлат бошқаруви тартиб-қоидалари, олиб борилган дипломатик музокаралар ҳақида махсус тўхталиб ўтилмаган бўлса-да, ҳодиса-воқеалар тасвири, шахслар тавсифида Бобур дипломатиясининг қирралари, сарой аъёнлари, амалдор ва беклар, ҳинд рожалари, элчилар, раият (халқ) билан музокара-мулоқот юритишдаги дипломатик назокатини англаб етиш қийин эмас. Шуни таъкидлаш керакки, Бобур ўзи жорий қилган тартиб-қоидаларга барча амал қилишини қатъий талаб қилар, ўзи ҳам бу тартибларга риоя қилар эди. Бобур дипломатик қарашлари ўзи барпо этган империянинг барча ҳудудларида салтанат бошқарувини темурийлар давлати тартиблари ва дипломатик қонунлари заминида ташкил этиши ва айни вақтда давлат бошқарувини ўзига хос янги тартиб-қоидалар билан бойитиб борганида ҳам намоён бўлади.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур мамлакатда ижтимоий адолатни таминлашда солиқларнинг ролига алохида эътибор қаратади. У соликларнинг мохиятини, уларнинг давлат ва жамият ҳаётига ўта кучли таъсир ўтказишини яхши билган. Шунинг учун хам унинг солиқ сиёсати адолатли ва кенг халқ оммаси учун мўътадил бўлган. У «Бобурнома»да давлатни бошқариш, давлат хазинасини ташкил этиш, солиқлар, олинаётган солиқларни даромадлар миқдорига боғлаш, халқаро иқтисодий муносабатларни ривожлантиришда хорижий савдогарларга солиқлар сохасида имтиёзлар бериш каби масалаларга хам алохида эътибор қаратган.

Бобур Ҳиндистонда давлат хазинасини адолат тамойиллари асосида ташкил этиш мақсадида кенг камровли солиқ ислохоти ўтказган, бутун давлат микёсида ягона солиқ тизимини яратиб, солиқлар микдорини сезиларли даражада камайтирган. Аввалари ҳар бир рожанинг ўз қоидалари буйича йиғиладиган солиқ ва йиғимлар Бобур даврида ягона исломий қоида ва тартибот асосида олинадиган бўлган. Яъни Бобур ўз давлати худудида ягона солиқ тизими ва бир хил солиққа тортиш тартибини жорий этган, солиққа тортишнинг мухим манбаи бўлган экин ери майдонини ўлчаш тизимини такомиллаштирган ва аниқлаштирган. [3]

Бобур камбағал ахолига солиқлар бўйича катта имтиёзлар берган. Бунинг учун солиқлар миқдори енгиллаштирилган хамда соликларнинг маълум қисмини бой-бадавлат кишилар давлатга эмас, бева-бечораларга, мухтож оилаларга беришган. Бобур мусулмонлардан олинадиган «тамға» солиғини бекор қилган.[6]

Бобур халкаро иқтисодий алоқаларни ривожлантириш давлатнинг иқтисодий қудратини оширишнинг мухим омили эканлигини яхши тушунган. Шу боис савдогарларга катта енгиллик ва имтиёзлар берилган. Савдо ахлидан олинадиган солиқ ва йиғимлар миқдори муътадил, адолатли ва ошкора бўлган. Сотиладиган махсулотлар миқдорининг ошиши солиқлар хиссасининг камайишига олиб келган ва савдо ривожига катта ижобий таъсир кўрсатган. Хорижий савдогарларга бир қатор енгилликлар берилган. Агар савдогарлар ислом давлатларидан келган бўлсалар даромадларининг 5 фоизи микдорида солиқ тўлаганлар. Номусулмон давлатлардан келган савдогарлар эса ўз юртларида мусулмон савдогарлардан олинадиган миқдорда солиқ тўлаганлар. [6]

Умуман олганда, Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг мамлакатни бошқаришда ижтимоий адолат тамойилларига таянганлиги бобурийлар сулоласининг Ҳиндистондай катта давлатни 332 йил мобайнида бошқаришларида таянч бўлиб хизмат қилган.

Адабиётлар

1. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. – Т., 1990.

2. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Девон. – Т., 1994.

3. Бобур Заҳириддин Муҳаммад . «Мубаййин» ва насрий баёни, «Рисолаи Волидиййа» асари назмий таржимаси ва шархи / Насрий баён ва шархлар муаллифи М.Кенжабек; - Тошкент: Sharq, 2014. - Б.213 - 238.

4. Жураев И. М. «Бобурнома» да маиший таназзул ва ижтимоий инқироз масалалари. // Интеллектуальное наследие Захириддина Мухаммада Бабура и современность: Сборник статей и тезисов докладов Международной научнопрактической конференции. – М. : Пробел-2000, 2020. – 199-204 бетлар

5. Мухитдинова Х. С. «Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг дипломатик қарашлари” //Интеллектуальное наследие Захириддина Мухаммада Бабура и современность: Сборник статей и тезисов докладов Международной научнопрактической конференции. – М. : Пробел-2000, 2020. – 375-379 бетлар

6. Олимжонов О. “Бобурийлар салтанати солиқ сиёсати.” //«ВОДИЙНОМА» (Тарихий мерос) Ижтимоий-тарихий, илмий ва оммабоп журнал, 2018 йил 3 (1 0) сон, 39-43 бетлар

БОБУРИЙЛАР ВА ТУРКИСТОН АЛОҚАЛАРИ

Саидов З.

Чирчиқ ОТҚМБЮ ўқитувчиси

Жаҳон адабиёти ва тарихшуносликнинг мукаммал намунаси ҳисобланган «Бобурнома» тарихий-бадиий манба сифатида ҳам муҳим аҳамият касб этади. Шу билан биргаликда, у илм-фаннинг кўплаб соҳалари ҳақида маълумот берувчи қомусий асар ҳисобланади.

«Бобурнома» маҳаллий ва хорижий тадқиқотчиларнинг эътиборини ўзига тортганлиги боис асар бир қанча чет тилларга таржима қилинган. «Бобурнома» бўйича олиб борилган тадқиқотлар салмоғи ҳам асарнинг қимматини белгилайди.

Фанда бугунги кунда «Бобурнома» қўлёзма нусхаларининг кўплаб тадқиқ этилаётганлиги, ундаги тарихий фактлар асосида бадиий, тарихий, публицистик асарлар яратишга бўлган эътиборнинг кучаяётганлиги асарнинг оламшумул аҳамиятини яна бир бор тасдиқлайди. «Бобурнома» дунёнинг кўплаб миллий тилларига таржима қилиниб, қайта-қайта нашр этилаётгани ҳам бунинг яққол далилидир. Бинобарин, «Бобурнома»нинг ғоявий-бадиий мазмун кўлами, муаллиф шахсияти, ўзига хос тасвир услуби, бадиий маҳорат, ғолиб ва мағлуб шахс руҳий ҳолати тасвири муаммоларини замонавий таҳлил методлари асосида илмий тадқиқ этиш муҳим аҳамият касб этади.

Ҳиндистон ярим ороли энг қадим замонлардан бери дунё тизимининг бўлинмас бир қисми бўлиб келаётганлиги ҳаммага яхши маълум. Ушбу минтақа асосан шимоли-ғарб томонидан, яъни Ҳиндиқуш тоғ тизмалари оша Марказий Осиё, хусусан, Туркистон билан бевосита алоқада бўлиб келганлиги ҳам ҳеч кимга янгилик эмас. Маълумки, Темурийлар сулоласининг энг сўнгги авлодлари бўлган бобурий ҳукмдорлар Ҳиндистон ярим оролига келиб ўз ҳокимиятларини ўрнатдилар.

Бобурийлар даврида Туркистон ҳудудларидан Ҳиндистонга кенг миқёсда турли соҳа вакилларининг, айниқса, маданият соҳасига алоқадор кишиларнинг кўчиб ўтиши туркий халқлар маданияти билан ерлик халқларни таништирди ва шу маданиятнинг Ҳинд ерларида ёйилишига ҳам сабаб бўлди.

Бобурийлар Ҳиндистонга нафақат сиёсий, маъмурий ва ҳарбий томондан, балки маданият (рассомчилик, меъморчилик, адабиёт, шеърият ва ҳ.к.) соҳаларида ҳам катта таъсир кўрсатганлар. Бунга жуда кўп мисоллар келтириш мумкин.

Масалан, Ҳиндистонда энг машҳур тарихий обида Тож Маҳал, кўпчилик олимларнинг таъкидлашича, Самарқанддаги Амир Темур мақбараси “Гўри Амир”га тўғридан-тўғри тақлид қилиб солинган [1].

Тож Маҳални қурдирган Шоҳ Жаҳон ўз “она ватани” бўлган Туркистонни қайтадан қўлга киритиш умидида яшаган.

Ҳатто у 1646 йилда Балх вилояти орқали бу томонга ҳарбий юришни амалга оширишга ҳам уриниб кўрган. Шоҳ Жаҳоннинг Балхга юриши тўғрисида Бобурийларга тегишли кўпгина мактубларда ва бошқа ҳужжатларда Туркистон “аждодларимизнинг қабрлари бор жой” деб қайд қилинган [2].

Ҳаттоки, отасининг куп соҳалардаги сиёсатининг тескарисини қилган Аврангзеб ҳам, бобурийларнинг Туркистонга нисбатан билдирган ўй-хаёлларига содиқ қолган.

Бундай мисоллар XVI-XVII асрларда турли тўсиқларга қарамасдан, Туркистон ва Ҳиндистон ўртасида мунтазам алоқалар мавжуд бўлганлигидан далолат беради. XVII асрга тегишли манба бўлган “Музаккир-и-асҳоб”да қайд қилинишича, Бобурийларнинг сўнгги авлодлари, ўз боболари Жаҳонгиршоҳ қилганидек, Самарқандга “Гўри Амирни” таъмирлаш учун пул ва усталарни юборгалар” [3].

Бобурнинг вафотидан кейин, Ҳумоюн ва ундан кейинги авлодлар ниҳоят ўзларининг Ҳиндистон султонлари сифатидаги мавқеларини тан олганлар. Лекин келиб чиқиши, қайси сулолага мансублиги жуда ҳам катта аҳамият касб этган дунёда, Темурийлар сулоласининг вакиллари бўлган Бобурий султонлар Ҳиндистонда мустаҳкам ўрнашиб олсаларда, ўзларининг Туркистонга бўлган интилишларини ҳеч тўхтата олмаганлар.

Абул Фазл Акбарни “Кўрагон оиласининг фахри” ва “Темур уруғининг чироғи “ чироғи дудмони Соҳибқирон» деб атайди.

Жаҳонгир Кобулда, Бобурнинг мақбараси ёнида, ўз номи ва Темурдан кейинги аждодларининг номлари ўйиб ёзилган тошни ўрнатишни буюрган эди.

Амир Темур сиймоси барча Бобурий султонлар учун намуна бўлиб хизмат қилган. Темур шахсиятига, унинг юришларига бағишланган китоблар доимо уларнинг ҳамроҳи бўлганлиги бизга манбалардан маълум. Масалан, Жаҳонгир ва Шоҳ Жаҳон Шарафиддин Али Яздийнинг “Зафарнома” асарини қайта-қайта ўқиб юрганлар.

Бобурий султонлар Ҳиндистонда ўз фаолиятлари давомида (давлат бошқаруви, ижтимоий-иқтисодий сиёсатда ва ҳ.к.) кўпинча Темурийлар давридаги қонун-қоидалар, анъаналар, расм-русумларга амал қилганлар.

Туркистон ва Ҳиндистондаги бобурийлар империяси ўртасидаги дипломатик алоқаларни таҳлил этар эканмиз, бу алоқалар кўпроқ икки томоннинг сафавийлар сулоласи ҳукмронлик қилган Эронга қарши курашда иттифоқтузиш режасини амалга ошириш мақсадини кўзлаб олиб борилган деб тахмин қилиш мумкин.

Бу борада учала томон ҳам муайян манфаатларни кўзлаб, яъни ўз чегараларига яқин жойлашган ҳудудлар, хусусан, Хуросон ва ҳозирги Афғонистон ерлари устидан назорат ўрнатиш учун кураш олиб борганлар. Туркистонликлар ҳам, бобурийлар ҳам элчиларни танлашда ўзларича бир-бирларини ҳайратга солишга ҳаракат қилганлар.

Шуни таъкидлаш лозимки, ислом дунёсида қабул қилинган анъанага мувофиқ, элчилик лавозимига кўпинча дин арбобларини тайинлаганлар. Бобурий ҳукмдорлар турли сабабларга кўра Туркистондан Ҳиндистонга келиб қолган ва давлат ишларида ёки бошқа соҳаларда

катта тажрибага эга бўлган билимли кишиларга ишонч билдириб, юқори лавозимларга, ҳарбий қўмондонлик вазифаларига тайинлаганлар ва улар меҳнати ва садоқатини юқори баҳолаганлар. Яхши хизматлари учун уларга катта мукофотлар, ерлар ҳадя қилганлар ва шу билан бирга улар йўл қўйган баъзи хатоларни ҳам кечириб кетганлар.

Ўрта Осиёдаги тасавнуф оқимидаги бир қанча оилалар бобурийларнинг Нақшбандия тариқатига мансуб эканликларидан фойдаланиб, кўпчилиги Ҳиндистонга келган ва сарой хизматига олинганлар.

Улардан бири бўлган Шарафиддин Самарқандий Акбаршоҳ хизматида ишлаган, лекин икки марта исёнда иштирок этганлиги сабабли Бенгалияда ҳаётидан ажралган. Яна бири, Абдуллахон (уни Турон ҳукмдори номи билан ёки Ҳиндистонга келиб Ҳумоюн яқинларидан бўлган шахс билан адаштирмаслик керак) аввалига Деканда Шер Хўжа хизматида бўлган, кейинчалик Лоҳурда ўзини шаҳзода Салим (кейинчалик Жаҳонгир) ихтиёрига топширган. 1603 йилда у Акбар саройига келган ва 1000 аскарга раҳбарлик қилиш мансабига эришган ва Сафдор жанг (Жанг қаҳрамони) унвонига сазовор бўлган.

Ҳулоса ўрнида шуни айтиш керакки, бобурийлар ва Ўрта Осиё давлатлари ўртасидаги дипломатик алоқалар мунтазам равишда ривожланиб борган.

ФОЙДАЛАНГАН АДАБИЁТЛАР

1. Мухаммад Юсуф Мунши. Мукимханская история. Т., 1956 с. 153.
2. Семёнов А. А. “К вопросу о культурно-политических Т.,1970г. с. 14.
3. Низомиддинов И. Ўрта Осиёнинг чет эл шарқи билан муносабатлари. Т.,1981 й. 27-бет.

CREATIVITY OF ZAKHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IN THE RUSSIAN HISTORIOGRAPHY OF THE 20TH CENTURY

Tashkenbayev T.T.
Tashkent State Transport University

The people of Uzbekistan can rightfully be proud that among their ancestors there is an outstanding statesman, scientist, wonderful poet, prose writer and translator - Zakhiriddin Muhammad Babur. (1483-1530). All Babur’s creative heritage was included in the golden fund of world literature and culture, is the property and national pride of our people. The history of the epoch of Temur and Temurids testifies to the fact that almost all of them, along with state affairs, were successfully engaged in science and creativity. Thus, the representative of this dynasty, Zakhiriddin Muhammad Babur, in his short life went down in history not only as a commander and founder of the state of the Great Baburids in India, but also as a scientist and poet who left a rich creative heritage. He wrote original lyric works - gazelles and rubays, treatises on Muslim jurisprudence – “Mubayin”, on poetics – “Aruz risolasi”, music, military affairs. A special place in Babur's work is occupied by the invaluable literary monument of prose in the Uzbek language - the historical work “Baburname”. This book is mostly autobiographical and reflects the history of the peoples of Central Asia, Afghanistan and India in the late XVth - early XVIth centuries.

In terms of the totality of information and their reliability, "Baburname" is the most important and most valuable historical work, unmatched among similar works written in the Middle Ages in Central Asia, Iran, Afghanistan and Persia. That is why there is such a great interest in "Baburnama" in world oriental studies, which is confirmed by its translations into different languages of the world. The beginning of the 20th century enriched the rather meager Turkic

literature with several valuable finds and publications. Thanks to the energetic efforts of Mrs. A. Beverij, Turkologists have obtained an excellent reproduction of the most interesting Hyderabad list "Baburname". English orientalist and diplomat Edward Denison Ross published a collection of Babur's poems in 1910. [1] Among the editions of E. D. Ross, the collection of Babur's poetry is of particular interest. The publisher deserves great gratitude for the addition of the complete facsémele manuscript to his work. It was a precious discovery for the Turkologists.

In order to further disseminate important news, on the basis of Denison's publication, the Russian Turkologist A.N. Samoilovich republished [2] and translated [18] the lyrics of Babur. He also owns a number of published and unpublished reviews of studies on Babur's work [3]. The scientist's reviews of the works of domestic and foreign Turkologists are always imbued with a spirit of goodwill, which does not exclude, however, objectivity, adherence to principles in assessments and exactingness. A.N. Samoilovich (1880-1938) a versatile creative figure, a Turkologist, one of the scientists who most researched the Turkic classical literature in St. Petersburg (2008, 2009), getting acquainted with the works and archival data of A.N. Samoilovich, we witnessed the high endowment of the scientist-orientalist , an expert in Turkic studies: a deep analyst, academician who has his own unique method of presentation. The unpublished scientific works of the scientist are kept in the manuscript department of the Russian National Library. Saltykov-Shchedrin. Archival data helps to present a broader picture of the literary environment, to reveal new facts in the study of the scientific and creative activities of a scientist in full, and also allows one to assess the outstanding role of a Russian Turkologist of a wide profile. We owe much of our knowledge of Babur's creativity and lyrics to IVStebleva (1931) I.V. Stebleva's studies devoted to Babur's lyric poetry [4] are famous among Turkologists. Stebleva poses and solves important theoretical issues of the structural and semantic paradigm of the genre, composition and semantic unity of the gazelle, the principles of constructing the figurative system of the gazelle genre and the relationship between the traditional theme of the genre and the reflection of the author's personality in it. It is important to note that the work contains an appendix containing verified texts of all Babur's gazelles that have come down to us. Babur's poetic heritage is multifaceted and rich. Lyric works are collected in the "Kabul Divan" (1519), then in the "Indian Divan" (1529-30).

He wrote poetry in over 10 genres of oriental lyrics. His poems reflect his personal life, environment and historical events. The basis of Babur's poetry is composed of poems of love and lyric content. The poet's skill is expressed in the original literary style and skillful use of the most expressive means of the Turkic language. "Babur's gazelles reflect reality to the extent that it could have been done without violating the aesthetic norms of classical Turkic poetry. Poetic creativity of Babur is peculiar, unique and timeless" [5] Among the scientific works of Babur a special place is occupied by" Treatise on Aruz "(1523-25), where the theory of the Eastern metric aruz is considered. Babur enriched the theory of adherence with new provisions and generalizations, developed a classification of its types and variants. 1972 the book was published in Moscow under the editorship of IV Stebleva [6] Numerous written monuments of antiquity and the Middle Ages, archival documents, especially the early ones, were discovered and made public thanks to the efforts of G.F. Blagova (1927). In 1954 G.F. Blagova defended her Ph.D. thesis, in which she continued the long-interrupted national tradition of philological study of the main work of Emperor Babur, his Notes. 40 years later, relying on her numerous developments in this area and using the latest achievements of modern branches of linguistics, she published the book "Babur-name": language, pragmatics of text, style "(M., 1994). This book is used in teaching and not only oriental disciplines. As a member of the department of the Ural-Altaic languages G.F. Blagova actively

participates in the long-term development of important research areas of Turkic linguistics - comparative-historical grammar and etymological dictionary of Turkic languages. In the last decade, G.F. Blagova devotes a lot of energy to the study of the historiography of Turkic linguistics. Through the efforts of Blagova and D.M. Nasilov (as editor-in-chief of the volume) published a one-volume edition of A.N.Samoilovich's works “Turkic linguistics. Philology. Runic "(M., 2005). An article devoted to the history of the textological study of the Turkic-language monument "Babur-name" has been published, the contribution to the study and preparation for publication of the text of the manuscript of the orientalists N.I. Ilminsky and A.N. Samoilovich [6]. On the basis of Blagova's archival materials, another volume has been published devoted to the scientific activities of this outstanding scientist - “Alexander Nikolaevich Samoilovich: Scientific correspondence. Biography "(Moscow, 2008). Blagova's latest plan is “History of Turkology in the second half of the 19th - early 20th centuries”, where it is supposed to concentrate the results obtained by her in the process of archival research, including expanding the source base due to documents of personal origin, as well as her numerous articles. Thanks to the persistence and enthusiasm of Russian scientists, significant scientific and scientific-organizational work has been done to study the work of Babur.

List of used literature:

1. Deneson Ross A Collecteon of Poems by the Emperor Babur \\ Journal and proceedengs of the Aseatec Soceety of Bengal.Vol.VI Extra № Calcutta,1910.p 38;
2. Samoylovich A.N Novyy angliyskiy perevod zapisok Babura // Arkhiv RNB.F.671.D.86.
3. Blagova G.F Akademik Samoylovich i izucheniye literaturnogo naslediya Zakhiriddina Babura // Vostok 1997 №6.S.120-125 Blagova G.F O nerealizovannykh nauchnykh planakh akademika A.N.Samoylovicha (po arkhivnym dannym // Peterburgskoye vostokovedeniye SPb.2003,№10.S.436-446 Blagova, G.F., Il'minskiy N.I. i A.N. Samoylovich: rabota nad "Babur-name" / G. F. Blagova // Vostok. - 2005. - N 1. - S. 134-148, Blagova G.F. A.N.Samoylovich issledovatel' «Baburname»// IAN. Lit. i yazyk 1994.T.53 №1.
4. Stebleva I.V. Semantika gazeley Babura M.:Nauka, 1982; Stebleva I.V Zakhiriddin Mukhammad Babur- poet, prozaik, uchenyy. Tashkent.1983.

ЖИЗЗАХ ВОҲАСИ АҲОЛИСИНИНГ ЧОРВАЧИЛИККА ОИД ХЎЖАЛИК ҲАЁТИНИНГ ЗАҲИРИДДИН БОБУР АСАРЛАРИДА ЁРИТИЛИШИ

Тошбоев Ф.Э.

(PhD), Жиззах давлат педагогика институти кафедраси мудири, доцент.

Фурқатов С.Ф.

ЎзМУ Жиззах филиали талабаси

Юртимиз тарихининг ривожланган ва сўнги ўрта асрлар даврига оид ёзма манбаларда Жиззах воҳаси тарихи ҳақида анча бой маълумотлар сақланиб қолган. Айниқса, Амир Темур ва темурийлар даври ҳамда шайбонийлар ҳукмронлиги замонида яратилган асарларда Жиззах воҳасидаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ҳақида батафсил маълумотлар берилган. Улардан Жиззах воҳасининг XV-XVI асрлар даври тарихи ҳақида Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг “Бобурнома” асари алоҳида аҳамият касб этади [Бобурнома, 1989. Б. 368].

Муаррих ўз асарида Жиззах воҳасидаги аҳоли масканлари - Илонўтти дараси, Халилия, Дизак, Пешағор, Зомин, Йом, Ёр-Яйлоқ, каби кентлар ҳақида маълумотлар келтиради. Дарҳақиқат, Бобур 1498-1499 йиллар қиш мавсумини ўзининг пири-устози Хожа Убайдуллоҳ Аҳрор мулкларидан бири Пешағор қўрғонида ўтказади. 1501-1502 йилларда Самарқандда Шайбонийхондан мағлубиятга учраган Бобур кам сонли аъён ва қўшинлари билан оғир аҳволда Жиззахга етиб келади. ...«Кеч намози дигар Илон Ўттида тушуб, от ўлтуруб этини шишлаб, кабоб қилиб, отни лаҳза тиндуруб отландик. Тонгдан бурунроқ Халилия кентига келиб туштик. Халилиядин Дизак келилди", деб Жиззах шаҳрининг муҳим мавзеларини санаб ўтади. Маълум муддат Жиззахда яшаб, шаҳар унинг атрофидаги қишлоқлар ва халқнинг ҳаёти тўғрисида кўрганларини эсдаликларига киритиб боради. ..."Семиз этлар ва майда этмаклар арзон, чучук қовунлар ва яхши узумлар фаровон. Андоқ усраттин мундоқ арзонлиқ ва андоқ балияттин мундоқ амонликқа келдук.

Ўлим дағдағаси хотирдан рафъ бўлиб, очлик шиддати элдин дафъ бўлди. Умримизда мунча фароғат қилмайдур эдик. Муддатул-умр амонлиғ ва арзонлиғ қадрини бунча билмайдур эдик. Ишрат устраттин сўнг, фароғат машаққатин кейин лаззатликроқ ва яхшироқ кўриниур. ... Мундоқ душман балосидан ва очлик ибтилосидин халос бўлиб амонлиғ роҳатиға ва арзонлиғ фароғатиға етиштук, Уч-тўрт кун Дизакта истироҳат қилдук» [Бобурнома, 1989. Б. 86].

Буюк адиб, Жиззах воҳаси аҳолисининг чорвачилик ва боғдорчиликда моҳир эканлигини юқоридаги каби чиройли жумлаларда таърифлайди. Ушбу маълумотдан билишимиз мумкинки, Жиззах деҳқончилик ва чорвачилик тараққий этган обод ва фаровон воҳа бўлган. Яъни, қорамол ва йилқиларнинг семиз этлари ва майда молларнинг гўшт (этмак)лари арзон ва мўл бўлган. Манбадан англашимиз мумкинки, қадимдан деҳқончилик ва яйлов чорвачилигига асосланган воҳа аҳолиси соҳибкорлик, жумладан чорвачилик маҳсулотларини етиштиришда Амир Темур ва темурийлар даврида ҳам машҳур бўлган.

Заҳириддин Бобурнинг Уструшонадаги Жиззах воҳасига чегарадош кентлар ҳақида "Ўратепанинг кўхпоя кентларидан" хисобланган Дахкат ҳақида, "Эли агарчи сорт ва деҳнишиндур, вале атроқдек гала ва рамаллиқ эллардир. Дахкатнинг қўйини қирқ минг ченарлар эди" деб таъриф беради. Ушбу таърифни тўғридан тўғри Масчо ва Дахкат билан ёнмаён жойлашган Ховос, Зомин, Жиззах ва алоҳида эътибор билан таърифланган Пешоғор учун ҳам таъллуқли деб хисоблашимиз мумкин. Бу юртда нафақат чорвачилик балки, деҳқончиликнинг ҳам кенг тараққий этганлиги аҳолиси моҳир соҳибкорлар бўлганлигини муаррихнинг "арзон, чучук қовунлар ва яхши узумлар фаровон" деб берган таърифидан ҳам англашимиз мумкин.

Бу ҳолат шубҳасиз аҳолининг турмуш даражасига ҳам катта таъсир кўрсатган. Ахоли фаровон ва бой яшаган. Тоза ва гўзал табиат, аҳолининг соҳибкорлигидан ноз неъматларнинг мўллиги, одамларнинг узоқ умр кўришини ҳам кафолатлаган. Бу ҳақда Заҳириддин Бобур қуйидагича ёзади. ..."Мен бир калонторининг уйига тушдим, қари киши эди, олтмиш етмишда бор эди, вале онаси хануз бор эди. Хейли умр топган хотун эди, юз ўн бир ёшда эди... Набирасининг набираси бир йигит йигирма беш-йигирма олти ёшлар, қоп-қора соқоллик йигит эди". Афсуски, бу фаровонлик узоққа чўзилмаган XV асрнинг охири XVI асрнинг бошларида темурийлар давлати кучсизланиб қолди. Бундан фойдаланган Шайбонийхон бошлиқ Дашти-Қипчоқнинг чорвадор қабилалари Мовароуннаҳр воҳаларини эгаллаб оладилар ва ўз ҳокимиятларини ўрнатдилар.

Дарҳақиқат, Жиззах воҳасида чорвачилик хўжалиги яхши тараққий этган бўлиб, у нафақат тоғли ҳудудларда, балки ўтроқ аҳоли орасида ҳам кенг ёйилган. Кейинги йилларда қилинган археологик тадқиқотлар бу фикрни тўлиқ тасдиқламоқда. Кейинги пайтларда кўплаб янги қоятош расмлари ёдгорликлари рўйхатга олиниб илмий муомалага киритилган Ушбу қоятош тасвирларида ёввойи ҳайвонлар сирасига ибтидоий буқа, ибтидоий сигир, тоғ эчкиси, архар, жайрон, сайғоқ, асл буғу, ёввойи от, кулон, ёввойи чўчқа шунингдек, йиртқич ҳайвонлардан шер, йўлбарс, гепард, леопард, бўри, тулки, чиябўри ва бошқаларни киритиш мумкин [Холматов,Пардаев, Тошбоев, 2018. Б. 62].

Улардан воҳанинг қадимги даврлардан чорвадор аҳоли учун унумдор ва кенг яйловга эга, қулай масканга айланиб борганлиги, маълум бўлади. Чунки, қадим замонларда Нурота тоғ тизмаси ҳудудларида йирик тўқайзорлар, қамишзорлар ва чала саҳролар мавжуд бўлганлиги ёки бу тизмага Қизилқум саҳроси туташ бўлганлиги боис, уларнинг яшаши учун қулай шароит мавжуд бўлган. Буни уларнинг қоятошларда акс этган ажойиб тасвирлари ҳам исботлаб турибди. Бу фикрни мозорқўрғонларда вафот этган одам билан қўшиб кўмилган ҳайвон суяклари, унинг рамзи ёки кулоллик идишларидаги тасвирлари ҳам тасдиқлайди[Тошбоев, 2018.Б.43-45].

Ўрта асрларга оид араб манбаларида “Дизакликлар жун ва тивитдан кийим кечак тикишга, гилам тўқиш ва намат босиш” ишларига уста бўлганлиги таъкидланади. Ушбу манбалардан ўтроқ аҳолининг деҳқончилик билан биргаликда уй чорвачили билан ҳам кенг шуғулланганлигини “бу ўлкада мевалар шу қадар кўп етиштирилганки, ҳатто, мевалар билан уйҳайвонлари боқилган” каби жумлалардан англашимиз мумкин. Шаҳарда ҳунарманчилик ва савдо, шаҳар атрофида зироаткор – деҳқончилик ва чорвачилик тараққий этган.

Фикримиз тасдиғи сифатида ушбу маълумотни келтирмоқчимиз. XVI аср иккинчи ярми, XVII аср бошларида яшаб ўтган Ҳофиз Таниш ибн Мир Муҳаммад Бухорий томонидан ёзилган «Абдулланома» («Шарафномаи Шоҳий») асарида ёзилишича, Бобо Султон Зоминда эканлигида атрофдаги қишлоқ ва қаълаларни эгаллаш натижасида кўп миқдорда бойлик тўплаган, кейинчалик бу бойликлар ғолиб Абдуллахон тасарруфига ўтади. “Абдулланома” муалифи Зоминдаги бу бойликларни шундай таърифлайди. “Нусратли сипох чексиз ғанимат ва мўл – кўл моллардан момуз бўлди, нафс асбоб, нозик чиннилар, кумуш ва олтин идиш оёқлар ҳамда безакларга бойидилар”. Бу ғалабадан сўнг Абдулахон Зоминни ўзига қароргоҳ қилиб, ғалаба нишонаси сифатида атофдаги вилоятлар (Ҳайдар Муҳаммад Мунший)га фатхномалар ёздиради [Абдулланома, 1999. Б. 307,308,309,310].

Шундай қилиб, Жиззах воҳасиннинг сўнги ўрта асрлар даврига оид тарихи ҳақида бой ёзма манбалар сақланиб қолган. Улар ичида Захириддин муҳаммад Бобур қаламига мансуб “Бобурнома” асари алоҳида аҳамиятга эга. Бугунги кунда Жиззах воҳасидаги ушбу асарда санаб ўтилган аҳоли манзиллари, тоғ водийлари ва қишлоқ маконларини харитага тушириш, асрда таъкидланган чорвадор аҳолининг яшаш тарзи билан боғлиқ этнографик маълумотларни ўрганиш муҳим аҳамиятга эга. Шу орқали “Бобурнома” да таъриф ва тавсиф берилган йўллар (Жиззах, Пшағар, Зомин, Ўратепа) бўйлаб туристик саёхатлар ташкил эитиш, бу бебахо меросни янада чуқур ўрганиш ва тарғиб қилишда муҳим аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. Т: «Юлдузча», 1989.
2. Тошбоев Ф.Э. Уструшона чорвадорларининг уй ҳайвонлари билан боғлиқ диний тасаввурлари. //Тафаккур зиёси. Жиззах давлат педагогика институти илмий-услубий журнали. Жиззах, 2018.
3. Холматов А.Н., Пардаев М.Ҳ., Тошбоев Ф.Э. Сузмойилота қоятош расмлари тадқиқотининг дастлабки натижалари // Археологические исследования в Узбекистане. Самарканд, 2018.
4. Шарафуддин Али Яздий. «Зафарнома» Т: «Ўзбекистон» 1992.
5. Ҳофиз Таниш Ал – Бухорий. Абдулланома. 1- жилд. “Шарқ” –Тошкент, 1999.

BOBURNING DIPLOMATLIK XUSUSIYATLARI

Toshpulatov B.B.

Milliy gvardiya Harbiy-texnik instituti katta o‘qituvchisi

Boburning diplomatik mahoratiga to‘xtaladigan bo‘lsak, uning diplomatik mahorati “Boburnoma”da muallif alohida, yoki ataylab o‘sha davrdagi diplomatik tartib – qoidalar, rasm bo‘lgan tadbirlar haqida fikir bildirmagan. Mazkur asarni qayta-qayta mutolaa etar ekanmiz, bizga ushbu masalani bo‘lib o‘tgan voqea- xodisalar ichidan, turli yillarda sodir bo‘lgan voqealarning mantiqiy birligiga asoslangan holda ma’lum yaxlitlikka namoyon bo‘ladi.

“Boburnoma”da muallif eng avvalo shuni ko‘rsatadiki, u hali yosh paytidan boshlab ushbu kasb sirlarini o‘rganishga, yo‘l qo‘yilgan xatolarini darrov tan olib, ochiq bayon etishga, tuzatishga harakat qilgan. Bobur barcha qo‘l ostidagi shaxslar, raqib va dushmanlarining har bir harakatida diplomatik nazokatni kuzatadi, boxolaydi.

O‘zining jamiyat, saltanatidagi mavqeini aynan temuriylar diplomatik qoida - qonunlari zamirida, o‘z saltanatidagi yangi tartib va qoidalar bilan to‘ldirib boradi. Unga hamma bo‘ysundi va o‘zi ham bu tartibga rioya etdi.

Bobur diplomatiyasining yuksak namunasi sifatida “yukunish” siyosati alohida o‘rin egallagan. Umuman temuriylar saroyida saroy ahli, bek va zodogonlarning bir-birlari bilan uchrashuvlarida kimning necha marta, qay tarzda, qaysi holatda ikkinchi tomonga qarab yukunishi uning mansabi, vazifa darajasi, g‘olib yoki mag‘lubligi bilan belgilanadi. “Boburnoma”da bu mavzu juda jonli misollar, turli makon va zamonda bor mohiyati bilan keltirilganki, bu eng avvalo Boburning yuksak diplomat bo‘lib etishganligi, yukunish orqali ham o‘z siyosatini yurgizganini ko‘rsatgan.

Bobur diplomatiyasida raqib tomonni mag‘lub etishdan ko‘ra, u bilan sulh tuzishga xayrixohligi tahsinga loyiqdir. Avg‘oniston va Hindistondagi davlat boshqaruvida bag‘rikenglik, o‘zga xalqlar dini, urf-odatini ehtirom etish, beva – bechoralarga yordam qo‘lini cho‘zish, yuksak saxovat orqali diplomatik munosabatlarni yaxshilashni ham ustuvor bilgan. U shuningdek, bunyodkorlik ishlari orqali ham muayyan diplomatik maktab yarata olgani ayniqsa ibratlidir. SHu qatori, Bobur diplomatiyasida o‘sha davrdagi mulk bo‘lish siyosati, bo‘yin egmagan yurt boshliqlari va eliga shunga munosib choralar ko‘rish, muzokaralar ish bermaganda kuch ishlatish siyosati ham olib borilganki, bu ham Bobur davlatchilik siyosati, diplomatiyasining bir qirrasidir.

Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi hali yanada chuqur o‘rganishga, diplomatiya tarixini ibratli misollar bilan to‘ldirishga xizmat qiladi.

Yod etmas emish kishini g‘urbatta kishi,

Shod etmas emish ko‘ngulni mehnatda kishi.
Ko‘nglum bu g‘ariblikda shod o‘lmadi, oh,
G‘urbatta sevinmas emish, albatta kishi.

Bobur hind sarlashkari Ibrohim Lo‘diy ustidan g‘alaba qilar ekan, to‘ng‘ich o‘g‘li Xumoyunga yozgan maktubida ona yurti Movarounnahr, Samarqand taxtini sog‘inib qaytish orzusi borligini bildirib, “Bizning ehtimomimiz ul sarilar bormoqqa behad va beg‘oyatdur. Ul viloyatning latofatlarini kishi nechuk unutqay. Alalxusus mundoq toyib va torik bo‘lg‘onida qovun va uzumdek mashru’ hazin kishi ne tavr xotirdin chiqirg‘ay” deganlarini eslasak, bu buyuk shaxsning irodasi, maqsad sari intilishining darajasini anglash mumkin.

Bobur umri Vatanga muhabbat, uni yovlardan asrash, go‘zallikka shaydolik va har qanday sharoitda ham hayotni sevish, uni ardoqlash bugungi avlodlarga, ayniqsa yoshlarga arzigulik ibratdir.

Inson ma’lum bir tarixiy davrda yashar ekan o‘sha davr ruhi bilan sug‘oriladi va albatta ma’naviyat, madaniyat, san’at, maorif, mafkura orqali tarbiya topib boradi.

Hozirgi kundagi ma’naviy, ma’rifiy ishlar bugungi xalqimizni milliy g‘urur, milliy iftixor, milliy g‘oya bilan sug‘ormoqda. Bularning orasida bizning farzandlarimiz ham borligidan, ular o‘z tillarida qiynalmay, o‘z fikrlarini bayon qilishlari, bobolari Amir Temur, Yassaviy, Ibn Sino, Al-Farg‘oniy, Ulug‘bek va Boburni faxr-iftixor bilan gapirishlari, ularning asarlarini o‘qishlari bu bir baxtdir.

Yoshlarimizni milliy ma’naviyatimiz ruhida, jahon miqiyosida o‘z mavqeini hamisha saqlab qoladigan shu muqaddas his-tuyg‘ularni teran idrok etadigan, shaxsiy manfaatlarini-el yurt manfaatlari bilan uyg‘un deb biladigan qilib tarbiyalashimiz lozim.

Agar biz yoshlarimizni o‘z Vataniga sodiq shaxslar sifatida tarbiyalashga bel bog‘lagan bo‘lsak, buyuk istiqlolimiz, taraqqiyotimiz, jahon miqiyosidagi o‘rnimiz hamisha o‘z ko‘limizda bo‘ladi. Bu bizning oliy maqsadimiz desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Jamiyatda mustaqil fikrlovchi, hurfikr, talabchan, didli, ma’naviyati yuksak yoshlarni qancha ko‘p bo‘lsa, salbiy ko‘rinishdagi madaniyatlarning bozori shuncha kasod bo‘ladi. YUksak ma’naviyati, aqlli, talabchan, fahm-farosatli yoshlar o‘zlari iste’mol qiladigan, kiyadigan, eshitadigan, ko‘radigan, o‘qiydigan narsalarga yuksak talab qo‘yadilar.

Yuksak ma’naviyatli insonni shakllantirish, e’tiqodli, irodali inson etishtirish bilan bog‘liq. Irodali, qat’iyatli inson jamiyat boyligidir. Jamiyatda o‘z mavqei va o‘rniga ega bo‘lgan e’tiqodli, diyonatli, ma’naviyatli inson o‘z farzandlarida ham iymon, e’tiqod va diyonatlilikni rivojlantiradi.

Darhaqiqat, buyuk tariximiz, xalqimizning ma’naviy-ma’rifiy tayanchi bo‘lgan ajdodlarimiz qoldirgan boy madaniy-ma’rifiy meros ulkan bir xazinaki, undan oqilona foydalanish lozim.

Biz asrlar davomida sayqal topib kelgan ana shu ma’naviyatga suyansak, uning hayotbaxsh o‘gitlaridan yoshlarimizni baxramand etsak va ularni ajdodlarimiz kabi vatanparvar, mard va Vatan manfaatlari yo‘lida fidoiy bo‘lishga undasak Vatanimizning shonli tarixi va buyuk ajdodlarimizdan faxrlanish hamda ajdodlarimizga munosib avlod bo‘lishga intilish tuyg‘ularini kamol toptirsak, yoshlarimizni milliy an’ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalab, ularda sog‘lom dunyoqarash hamda faol hayotiy pozitsiyani, o‘z fuqarolik majburiyatlarini ongli ravishda, yuksak mas’uliyat bilan bajarib, har qanday vaziyatlarda ham ona-Vatan himoyasi uchun tayyor turish hislatlarini qaror toptirsak, yurtimiz tinchligi va xalqimiz farovonligi ortib boraveradi.

Zeroki, bugungi yoshlar mustaqil O‘zbekistonning kelajagi ertasi. Zotan, biz navqiron avlod vakillarini barkamol, etuk kishilar qilib voyaga etkazsak ularning har birida or-nomus milliy g‘ururni izchil shakllantirib borsak, Vatanimiz buyuk qudratli davlatga aylanadi.

Vatanni, xalqimiz tinchligini va osoyishtaligini himoya qilish, vatanparvar bo‘lish, sodiqlik, fidoyilik tuyg‘ularini his etib yashayotgan har bir yosh avlod Mustaqil yurtimizning kelajagidir. Ana shu navqiron avlodni barkamol qilib voyaga etkazish, ularning har birida or-nomus, milliy g‘urur ruhini shakllantirish vatanimizning kelajagi porloq, taraqqiyoti esa bundanda yuksak bo‘lishida muhim ahamiyatga ega.

БОБУРНИНГ АДАБИЙ-ИЛМИЙ МЕРОСИ ХУСУСИДА

Умарова Л., Бобомуродова С.
ЖПИ Академик лицейи ўқитувчилари

Ватанга садоқат - ҳақиқатга садоқатнинг, миллатга меҳр эса аҳли башарга меҳрнинг ибтидосидир. Бусиз на адолат ғалаба қилади, на ҳақиқат юзага чиқади, на инсоннинг ўз шахсига эҳтироми шаклланади. Ватан меҳрини йўқотган шахс оёғи остидаги заминни йўқотади, бўшлиқда муаллақ қолади. Ватанга муҳаббат аждодлар меросига қизиқиш, миллий маънавиятдан баҳрамандлик, ўз шахсий салоҳиятига ишонч, умумбашариятга ҳурмат, келажак олдида масъуллик туйғуларини тарбиялайди. Мустақиллик маънавияти Ватанга муҳаббатдан, миллат манфаатларига садоқатдан бошланади, ҳар бир шахснинг ўз ички имкониятларини Ватан манфаати йўлида унумли ривожлантириши билан намоён бўлади.

Ўзликни англаш, энг аввало, ўтмишни ўрганишдан, тарихни билишга эҳтиёж сезишдан бошланади. Дарҳақиқат, ўзини англаётган, ўзини тушунаётган ҳар бир инсон қандай оилада дунёга келгани, ўз аждодлари кимлар бўлгани, ота- боболари нималар билан шуғулланишгани ва қандай умр кечиришганини билиб олишга интилади [1:19]. Уларнинг фазилатлари ва мерослари билан фахрланиб яшайди.

Буюк Соҳибқирон Амир Темур сулоласининг Ҳиндистондаги давомчилари – Бобурийлар салтанати ҳақида сўз кетганда, шубҳасиз, унинг асосчиси, ватандошимиз, моҳир лашкарбоши, доно давлат арбоби, истеъдодли шоир, адиб, олим Заҳириддин Муҳаммад Бобур кўз олдимизда намоён бўлади.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур Ўрта аср Шарқ маданияти, адабиёти ва шеъриятида ўзига хос ўрин эгаллаган адиб, шоир, олим бўлиш билан бирга йирик давлат арбоби ва саркарда ҳамдир. Бобур кенг дунёқараши ва мукаммал ақл-заковати билан Ҳиндистонда бобурийлар сулоласига асос солиб, бу мамлакат тарихида давлат арбоби сифатида номи қолган бўлса, сержило ўзбек тилида ёзилган “Бобурнома” асари билан жаҳоннинг машҳур тарихнавис олимлари қаторидан ҳам жой олди. Унинг нафис ғазал ва рубоийлари туркий шеъриятининг энг нодир дурдоналари бўлиб, “Мубаййин” (“Баён этилган”), “Хатти Бобурий”, “Ҳарб иши”, аруз ҳақидаги рисолалари эса ислом қонуншунослиги, шеърият ва тил назарияси соҳаларига муносиб ҳисса бўлиб қўшилди [2:149].

Заҳириддин Муҳаммад Бобур кўҳна Туркистонинг ҳар жиҳатдан етук, ғоят истеъдодли фарзанди эди. Мана, 500 йилдан ошибдики, бу ном тиллардан тушмайди. Гоҳ сиёсий давраларда, гоҳ адабий анжуманларда, гоҳ илмий мубоҳасаларда бу номга мурожаат қилиб келинади. Тўғри, давр тақозоси билан Бобур шахсияти билан боғлиқ мавзу муайян замонларда, муайян давраларда сусайган пайтлари ёхуд бошқачароқ талқин қилиниб, бир томонлама баҳоланган вақтлари ҳам бўлди [3:113]. У ҳам бўлса, кейинги юз йилда, ўз она диёрида ва муайян шарт-шароитларда. Лекин тарих гувоҳки, ўтган беш аср давомида унинг мутафаккир сифатида дунё назар-эътиборидан четда қолган пайти бўлган эмас.

Бобур Ҳиндистонда сиёсий муҳитни барқарорлаштириш, Ҳиндистон ерларини бирлаштириш, шаҳарларни ободонлаштириш, савдо-сотиқ масалаларини тўғри йўлга қўйиш, боғ-роғлар яратиш ишларига ҳомийлик қилди. Ҳиндистонни ободонлаштириш, унда ҳозиргача машҳур бўлган ёдгорликлар, боғлар, кутубхоналар, карвонсаройлар қурдириш, айниқса, унинг ўғиллари ва авлодлари даврида кенг миқёсда ёйилди. Айнан унинг даврига келиб Ҳиндистон санъати ва меъморчилигига Марказий Осиё услубининг кириб келиши сезила бошлайди [2:150].

Заҳириддин Муҳаммад Бобур XVI аср ўзбек адабиётининг кўзга кўринган йирик вакилларидан бири бўлиб, ўз ижодида Низомий, Хусрав Деҳлавий, Лутфий, Навоий анъаналарини давом эттирган буюк шоирдир. Ушбу табаррук зотнинг асарлари ўзининг юксак ғоявийлиги, чуқур мазмундорлиги ва бадиий равонлиги билан ажралиб туради. У ўзининг мураккаб ҳаёт йўли, дунёқараши, шунингдек, бой адабий-илмий мероси билан ўзбек адабиёти тарихида муносиб ўринга эга.

Бобурнинг шоир сифатида ижодий фаолияти ўз гувоҳлигига кўра, Самарқандни иккинчи марта эгаллаган вақтда бошланган, “Ул фурсатларда бирор-иккирар байт айтур эдим”, деб ёзади у. Бобур Самарқанддалигининг илк ойларида Алишер Навоий ташаббуси билан улар ўртасида ёзишма бошланади. Бобур атрофида ижодкорлар тўпланиши ҳам шу йилларга тўғри келади [6:201]. Жумладан, Биноий, Абулбарака ва Бобур ўртасида рубоий мушораси Самарқанддаги қизғин адабий ҳаётдан дарак беради. Умуман, давлат арбоби ва кўп вақти жанги жадалларда ўтган саркарда сифатида ижтимоий фаолиятининг энг қизғин даврида ҳам, шахсий ҳаёти ва давлати ниҳоятда мураккаб ва хатарли шароитларда қолган чоғларида ҳам Бобур ижодий ишга вақт топа билган, илм, санъат ва ижод аҳлини ўз атрофига тўплаб, ҳомийлик қилган, уларни рағбатлантирган.

Тарих ва мумтоз адабиёт, мусиқа ва санъатдан яхши хабардор бўлган Бобур ҳар доим олиму фузалолар даврасида бўлди, хусусан ижод аҳлига, касбу ҳунар соҳибларига самимий эҳтиром кўргазиб ҳомийлик қилди, уларни моддий ва маънавий рағбатлантириб турди. Бобур табиатан ижодкор эди. Йигитлик йилларидан бошлаб то умрининг охиригача самарали ижодий иш билан шуғулланди, ҳар қандай шароит ва вазиятларда ҳам ижоддан тўхтамади, натижада ҳар жиҳатдан муҳим бой илмий ва адабий мерос қолдирди.

Бобур Мирзо ва унинг ҳукмдор авлодлари ҳузурида ўша даврнинг зеҳни ўткир олимлари, шоирлари, мусиқашунослари ва давлат арбобларини мужассам этган мукаммал бир маънавий-руҳий муҳит вужудга келди. Бобурийлар давлатидаги маданий муҳитнинг Ҳиндистон учун аҳамияти ҳақида Жавоҳарлаъл Неру шундай ёзган эди : “Бобур Ҳиндистонга келгандан кейин катта силжишлар юз берди ва янги рағбатлантиришлар ҳаётга, санъатга, архитектурага тоза ҳаво бахш этди, маданиятнинг бошқа соҳалари эса бир-бирига туташиб кетди” [2:149].

Кўплаб таниқли тарихчи олимларимизнинг якдил фикрларича, Бобур Мирзо ва бобурийлар Афғонистон, Ҳиндистон, Покистон, Кашмир ва Бангладеш тарихида алоҳида из қолдирганлар. Бу аввало, бобурийлар қолдирган буюк меросдир. Бу мерос, энг аввало, моддий маданият бойликлари бўлса, иккинчиси маънавий маданият дурдоналаридир [4:61].

Бобур ҳақида ёзилган китоблар тўпланса, шак-шубҳасиз, ростмана улкан кутубхона пайдо бўлади. Уни Шарқда қанчалар севсалар, Ғарбда ҳам бундан кам севмайдилар. Элфинсон унинг “Бобурнома”сини: “ Осиёда ягона, чинаккам тарихий тасвир намунаси”,-деб таърифлайди. Академик В.В.Бартольд эса: “Туркий насрнинг мумтоз реалистик намунаси”,-деб баҳолаган. Машҳур Вамбери бу асарни Юлий Цезарнинг

“Комментарийлар”ига қиёслаган [5:101,102]. Албатта, бундай мисолларни умумжаҳон тарихидан кўплаб келтиришимиз мумкин.

Бобур Ҳиндистонда катта ҳажмдаги давлат ишлари билан бир қаторда ўзининг адабий-бадиий фаолиятини ҳам давом эттирди ва юқорида баён этилган асарларини яратди. Бобурнинг бутун жаҳонга машҳур бўлган шоҳ асари “Бобурнома”дир. Маълумки, унда Бобур яшаган давр оралиғида Мовароуннаҳр, Хуросон, Эрон ва Ҳиндистон халқлари тарихи ёритилган. “Бобурнома”да 1494-1529 йилларда Марказий Осиё ва Ҳиндистонда содир бўлган тарихий-сиёсий воқеалар йилма-йил ўта аниқлик билан баён қилинган бўлиб, улар муаллиф ҳаёти ва сиёсий фаолияти билан бевосита боғлиқдир [6:204].

“Бобурнома” XVаср ўзбек бадиий насрининг ёрқин намунаси сифатида соф бадиий лавҳалар, жонли тасвирлар, анъанавий лирик чекинишларга бой. Насрий матн ичида келтирилган халқ мақол-маталлари, иборалари, ибратли ўгитлар, шеърий парчалар унинг бадиийлигини янада оширади, ўзига ҳам жозиба бағишлайди.

“Бобурнома” тўрт марта форс тилига, тўрт марта тўлиқ инглиз тилига, икки марта француз тилига, яна немис, япон, турк, урду, ҳиндий ва бошқа тилларга таржима қилинган.

Бобур ўзбек адабиётида ўзининг нозик лирик асарлари билан ҳам машҳурдир. Унинг лирикасида шеъриятнинг асосий мазмуни бўлган инсоний фазилатлар, ёр васли, унинг гўзаллиги, унга чексиз муҳаббат, ҳижрон азоби, айрилиқ аламлари ва висол қувончлари ниҳоят гўзал ва моҳирона ифода этилган [2:152].

Хазон япроғи янглиғ гул юзунг ҳажрида сарғардим,
Кўруб раҳм айлагил, эй лола руҳ, бу чеҳраи зардим.
Сен эй гул, қўймадинг саркашлигингни сарвдек ҳаргиз,
Аёғингга тушуб барги хазондек мунча ёлвордим.

Бобур ахлоқ-тарбия масаласига алоҳида эътибор берган. Шоирнинг маънавий-фалсафий қарашларини ва ижтимоий мавзуларга бўлган муносабатини аниқлашда унинг, айниқса, муаммоларини ўрганиш катта аҳамиятга эгадир:

Хулқингни рост қилғил ҳар сориғаким борсанг,
Аҳсанта дер бори эл гар яхши от чиқарсанг.

Умуман, Бобур шеърияти ўзининг жанр хусусиятлари, мавзу доираси, ҳаётий фалсафаси ва бадиий жилоси билан ўзбек адабиётининг нодир намуналари қаторида фахрли ўрин эгаллайди [7:17]. Уларда ҳаёт ва инсонни қадрлаш, гўзалликдан баҳраманд бўлишга интилиш ҳақида нафақат ошиқ ва ориф инсоннинг,балки муаллифнинг шахсий қарашлари ҳам ўз аксини топган. Шунинг учун ҳам Бобур шеъриятини ул зот яшаб ўтган мураккаб даврнинг ўзига хос бадиий кўзгуси дейиш мумкин

Мухтасар қилиб айтганда, Ўзбекистон мустақилликка эришгандан сўнг мутафаккир бобомиз ўз юртида қадр-қиммат топди. Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президентининг фармонига кўра 1993 йилда буюк Бобур таваллудининг 510 йиллиги тантанали нишонланди. Андижон шаҳрида Бобур номида университет, театр, кутубхона, миллий боғ (“Боғи Бобур”) бор. Бобур миллий боғи мажмуасида “Бобур ва жаҳон маданияти” музейи, шоирнинг рамзий қабр-мақбараси бунёд этилган. Шаҳар марказида (муаллифи Равшан Миртожиев) ва Бобур боғидаги ёдгорлик мажмуида (муаллифи Қодиржон Салоҳиддинов) шоирга ҳайкал ўрнатилган.

Бобур ўзининг маълум ва машҳур асарлари билан тарихнавис адиб, лирик шоир ва ижтимоий масалалар ечимига ўз ҳиссасини қўшган олим сифатида халқимиз маънавий маданияти тарихида муносиб ўрин эгаллайди. Унинг Ватан мадҳи, юрт соғинчи, адолат ва

инсонпарварликни тарғиб этувчи ғоялари мана беш аср ўтса ҳам, миллий маънавиятимизнинг гултожи бўлиб келмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Н.Жўраев. Тарих фалсафаси. Т.:”Маънавият”, 1999.

2. Мураббий-қадриятлар тарғиботчиси. Ж.:”Сангзор”, 2012.

3. Б.Қосимов. Уйғонган миллат маърифати. Т.:”Маънавият”, 2011.

4. Р.Шамсутдинов, Ш.Каримов, У.Убайдуллаев. Ватан тарихи. 2-китоб. Т.: ”Шарқ”, 2010.

5. Тарих-ўтмиш ва келажак кўзгуси. Т.: ”Тафаккур қаноти”, 2014.

6. Буюк аждодларимиз. Т.:”Ўзбекиситон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2010.

7. С.Ҳасанов. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Т.: Ўзбекистон, 2011.

АЖДОДЛАР ТАРИХИ – РЕНЕССАНС ПОЙДЕВОРИ

Ўсаров Ғ.Қ.
ЎРОҲАБЮ тадқиқотчиси

Бугунги кунда юртимизда ёшларга ҳар қачонгидан ҳам катта эътибор берилмоқда. XXI аср–глобаллашув асрида ёшлар ўртасидаги турли хил муаммолар, ғарбдан кириб келаётган “оммавий маданият” ва ёшлар онгидаги лоқайдлик, беғамлик, ироданинг етишмаслиги каби иллатларга қарши курашмоқ зарур. Бунинг учун эса, улар қалбида ватанга муҳаббат, ғурур ва ифтихор туйғуларини пайдо қилиб, шакллантирмоғимиз лозимдир.

Ёшларда миллий ғурур ва ифтихор туйғуларини шакллантиришда бой тарихимиз, шонли ўтмишимиз, миллий-маданий мерос намуналари ва миллий қадриятларимизнинг ўрни беқиёсдир. Аввало, миллий қадриятлар нима деган саволга тўхталиб ўтсак, миллий қадриятлар – халқимизнинг асрлар давомида тўплаган ва эъзозлаб келаётган маънавий-маданий бойликларидир. Миллий қадриятларимиз, анъаналар ва урф-одатларимиз, улкан маънавий-маданий меросимизнинг бугунги кунгача авлоддан-авлодга ўтиб келиши шонли ўтмишимиз билан боғлиқдир.

Биз цивилизация ўчоғи бўлган ва 3000 йиллик тарихга эга қадимги Турон фарзандларимиз. Бундан 5000 йил илгари юртимизда, хусусан, қадимги Сурхон ва Хоразм воҳасида шаҳарсозликнинг вужудга келиши, деҳқончилик, чорвачилик, ҳунармандчилик ва савдо-сотиқнинг ривожланиши ва эрамиздан аввалги I-минг йилликка келиб, улкан Бақтрия ва Хоразм давлатларининг ташкил топиши нақадар узоқ тарихга эга эканлигимиздан далолат беради.

Президентимиз Шавкат Мирзиёев таъкидлаганидек, “Аждодларимиз тафаккури ва даҳоси билан энг қадимги тош ёзуви ва битиклар, халқ оғзаки ижоди намуналаридан тортиб бугунги кунда кутубхоналаримиз хазинасида сақланаётган минг-минглаб қўлёзмалар, уларда мужассамлашган тарих, адабиёт, санъат, сиёсат, ахлоқ, фалсафа, тиббиёт, математика, минералогия, кимё, астраномия, меъморчилик, деҳқончилик ва бошқа соҳаларга оид қимматбаҳо асарлар бизнинг буюк маънавий бойлигимиз” дир. Бунчалик катта меросга эга бўлган халқ дунёда камдан- кам топилади.

Бундан 3000 йил муқаддам инсоният цивилизациясининг ўчоқларидан бири бўлган қадимги Туронда, хусусан; Хоразм заминида буюк маънавий бойлигимизнинг илк

кўринишларидан бири–миллий-маданий меросимизнинг, миллий қадриятларимизнинг дастлабки ва бебаҳо намунаси бўлган “Авесто”нинг яратилиши аждодларимизнинг буюк маданият ва маънавият эгаси эканлигидан далолат беради.

Аввалом бор бебаҳо маънавий ёдгорлигимиз бўлган авлод– аждодларимизнинг, ота-боболаримизнинг ақл–заковати маҳсули бўлган “Авесто” нинг тарихнинг залворли, оғир синовлардан ўтиб, бизнинг давримизгача етиб келганлигининг ўзи бир тарихий мўъжизадир. “Авесто” нафақат қадимий Туроннинг, балки инсоният тафаккур оламнинг янги сарчашмаси, инсониятни эзгуликка чорловчи буюк қадриятдир.

“Авесто”да борлиқнинг бир бутунлиги, инсон ҳаётининг табиат билан уйғунлиги, ўзаро муносабатлари орқали инсон маънавий ахлоқий меъёрлари илк бор ишлаб чиқилган. Унинг туб маъно-моҳиятини белгилаб берадиган “эзгу фикр, эзгу сўз, эзгу амал” деган бош ғояси дунёвий ғояга айланиб кетди, умуминсоний қадриятларга айланиб улгурди.

Ўзингиз мулоҳаза юритиб кўринг, ватанимизда араб босқинидан сўнг, нақадар улуғ зотлар, дунё илм-фанига улкан ҳисса қўшган қомусий олимлар етишиб чиқди. Улар орасида: Мусо ал-Хоразмий, Аҳмад Фарғоний, Абу Наср Форобий, Абу Али ибн Сино, Абу Райхон Беруний каби қомусий олимлар, Ислом дунёсида эса номи улуғланган Имом ал-Бухорий, Махмуд Замахшарий каби азиз зотлар, айнан бизнинг аждодларимиздир.

Ўрта Осиё мутафаккирларининг бу даврда эришилган илм-фандаги улкан ютуқлари Шарқда биринчи бўлиб, “Уйғониш даври – Ренесеанс”нинг бошланишига сабаб бўлди ва бу даврда илм-фан, маданият ўзининг энг юқори чўққисига чиқди.

Ватанимиз алломаю шайхлар, олиму фузалолар юрти бўлиши билан бирга, мард, жасур, ватанпарвар қаҳрамонлар ватанидир. Соҳибқирон Амир Темур мана шундай ватанпарвар қаҳрамонлардан эди. У Мовароуннаҳрда муғуллар зулмига чек қўйиб, марказлашган давлат барпо этди. Амир Темур Осиё, Европа ва Африка қитъасидаги 27 мамлакатни ўз қўли остида бирлаштирди. Европани Усмонли турклар империяси хавфидан, Рус давлатини Тўхтамишхон зулмидан озод этди. Франция, Испания, Англия қироллари ўзларининг миннаддорчилик мактубларини Амир Темурга йўллашди. Амир Темурнинг маҳорати ва ҳарбий қудрати, уни дунё тарихчилари томонидан Александр Македонский, Сезар каби буюк ҳарбий қўмондонлар қаторида тилга олишларига сабаб бўлган. Амир Темур она юртимизни дунёдаги энг гўзал масканга айлантиришга ҳаракат қилган. У босиб олган ҳудудларидаги барча олимлар, ҳунармандлар, қўли гул усталарни Мовароннаҳрга тўплади, улкан бунёдкорлик ишларини амалга оширди.

Амир Темурнинг набираси Мирзо Улуғбек тахтга ўтиргач, ўзга юртларга юриш қилишдан кўра, мамлакатда тинчлик-осойишталик ўрнатишни, илм-фан, маданпиятни ривожлантиришга ҳаракат қилди. Улуғбек илму толибларнинг билим олишлари учун Самарқанд, Бухоро ва Ғиждувонда гўзал мадрасалар қурдирди. Самарқанддаги мадраса замонасининг дорилфунуни бўлиб, унда йирик олимлар: Қозизода Румий, Жамшид Коший, Муҳаммад Ҳавофий ва Али Қушчилар мударрислик қилишган. Улуғбек яна Самарқандда улкан Расадхона барпо этиб, ўз шогирдлари билан осмон жисмларини, юлдузларни кузатиб, астраномик хариталар тузганлар.

Темурийлар авлодидан бўлган Заҳириддин Муҳаммад Бобур эса Ҳиндистонда улкан салтанатга асос солдилар. Ҳиндистонни ҳар томонлама кўркам, гўзал мамлакат бўлишида бобурийлар сулоласи вакилларининг ҳиссаси жуда катта. Бобурийлар Ҳиндистонда 332 йил: то инглиз мустамлакачилари томонидан босиб олгунга қадар ҳукмронлик қилдилар. Бу давр мобайнида Ҳиндистонда халқнинг фаровон яшашлари учун ҳаракат қилдилар, боғлар, саройлар қурдирдилар. Илм-фан, маданият бобурийлар даврида, айниқса, Акбаршох даврида

энг юқори чўққига чиқди. Акбаршоҳ ҳукмронлик қилган давр - Ҳиндистонда “олтин давр” ҳисобланади. Бобурий ҳукмдор Шоҳжахон томонидан севимли рафиқаси Мумтоз Маҳал хотирасига атаб қурдирилган Тож Маҳал саройи бугунги кунда дунёнинг саккизинчи мўжизаси деб эътироф этиб келинмоқда. Шуни алоҳида таъкидлаб ўтишимиз жоизки, ҳар бир Темурий ва Бобурий ҳукмдорларга бунёдкорлик ғоялари хос бўлган. Улар ўз даврида мамлакатни ва шаҳарларни обод қилиш учун кўплаб иншоотлар барпо этишган. Юртимиздаги жамики гўзал обидалар: Гўри Амир, Оқсарой, Шоҳи Зинда мажмуаси, Бибихоним мадраса-масжидлари, Шердор, Тиллакори, Улуғбек мадрасалари, шунингдек, азиз авлиё ва шайхларимиз хотирасига ҳурмат билдириб, улар дафн этилган жойларни обод қилиб, муқаддас зиёратгоҳларга айантирилган. Имом ал-Бухорий мажмуи, Зангиота мажмуаси, Каффол Шоший мақбараси, Ҳаким ат-Термизий иншооти ва Хастимом мажмуаси каби дунё аҳлини ҳайратга солиб келаётган меъморчилик обидалари юртимиз донғини бутун дунёга таратиб келмоқда. Ҳар йили минг-минглаб чет эл сайёҳлари юртимизга ташриф буюриб, санъатимиз дурдоналари ва гўзаллик наъмуналаридан баҳраманд бўлишмоқда.

Аждодларимиз томонидан халқимизга қолдирилган ушбу мерос қалбимизда уларга нисбатан фахр ва ғурур туйғуси жўш уришига сабаб бўлади. Ҳар бир ватанимиз фуқароси бой тарихимизни, улкан маънавий-маданий меросимизни, қадриятларимизни, анъана ва урф-одатларимизни тўғри англаб етса, уларни кўз қорачиғидай асраб-авайласа, аждодларимиз ва улар қолдирган шонли тарих, маънавий-маданий меросга нисбатан тўғри муносабатда бўлса ва албатта “Учинчи ренессансга” муносиб ҳисса қўша олса, ота-боболаримизга муносиб фарзанд бўлган бўламиз.

БОБУР ОИЛАСИДА ФАРЗАНД ТАРБИЯСИ

Хаитбоев А.М., Касимов О.О.

Чирчиқ олий танк қўмондонлик муҳандислик билим юрти ўқитувчилари

Илму адабиёт осмонида ҳар бир буюк шоир ва етук олим бир порлоқ юлдуз бўлса, шубҳасиз, Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва унинг фарзандлари, яъни кўрагонийлар ё бобурийлар сулоласи бир каҳкашондир. Ҳиндистоннинг машҳур сиёсатчиси ва тарихчиси Жавоҳирлаъл Нерунинг айтишича: «Бобур санъат ва адабиётнинг улкан ҳомийси, бобурийлар саройи жуда шукуҳли, бой ва мисли кўрилмаган сарой эди». Албатта, бундай сарой ва бундай маданият ўзидан-ўзи қурилмайди. Шоҳ ва шаҳзодалар олим, шоир ва маданиятли кишилар бўлмасалар, илму маданият ривожига у қадар парво қилмасликлари мумкин. Аммо Бобур, унинг тўрт ўғли ва бир қизи — Ҳумоюн, Комрон, Аскарий, Ҳиндол ва Гулбадан бегим ҳам тарихда чуқур из қолдирган шоир, тарихчи, илму санъатни яхши ўрганиб, ўзлаштирган кишилар эдилар. Улардан бўлган фарзандларнинг барчаси ҳам ота-боболарининг изидан бориб, атоқли шоир, адиб ва олимлар сифатида илму санъат ривожига ката ҳисса қўшиб келдилар.

«Бобурнома»да ёзилишича, Бобур ўз фарзандларининг таълим-тарбияси ҳақида ҳамиша ўйлаб, уларни ўқиш ва ўрганишга тарғиб қилар экан. У «Мубаййин» рисоласини Ҳумоюн ва Комронга диний масалаларни ўргатиш учун назмда ёзади. Бобурнинг Ҳумоюн ва Комронга ёзган мактублари ҳам шу мавзуга қаратилган. Масалан, у Комронга ёзган мактубида бундай дейди: «Фарзанди аршад ва аржуманди саодатнишон Муҳаммад Комрон Мирзо баҳодирга саломи муҳаббат анжомидан сўнг улким, кўкалтош ва ичкиларинг била сабақ ўқурға ружуъ келтуруб эрмишсен. Бу жиҳаттин кўнгулга сурур ва хотирга ҳузур етиб

на бисёр хушҳоллиқ юз берди. Тангри таоло даргоҳидин умидим борким, жамиъи қобилият ва салоҳият бобида комил ва мукаммал бўлуб камолға етгайсен».

Ҳумоюнга ёзган мактубидан: «Яна мен дегандек бу хатларингни битибсен ва ўқумайсен, не учунким, агар ўқур хаёл қилсанг эди, ўқий олмас эдинг. Ўқий олмагандин сўнг албатта тағир берур эдинг. Хатингни худ ташвиш била ўқиса бўладур, вале асру муғлақтур. Хатингни худ ҳар тавр қилиб ўқуса бўлодур, вале бу муғлақ алфозингдин мақсуд тамом мафҳум бўлмайдур. Ғолибан хат битурда коҳиллиғинг ҳам ушбу жиҳаттиндур. Такаллуф қилай дейсен, ул жиҳаттин муғлақ бўладур. Бундин нари бетакаллуф ва равшан ва пок алфоз била битий. Ҳам сенга ташвиш озроқ бўлур ва ҳам ўқувғучиға». Кўриниб турибдики, Бобур фарзандларининг диёнатли, илм-фазилатли бўлиб ўсиши учун уларга китоб танлаб юбориш, уларнинг ўрганиши учун китоблар ёзишни оталик ва шоҳлик бурчи деб ҳисоблаган, уларни ўқиш-ўрганишга тарғиб қилиб, имло ва иншо хатоларини тўғрилаб бехато, содда, равон ва бетакаллуф ёзишга чорлаган.

Албатта, Бобурнинг бундай саъй-ҳаракатлари зое кетмади. Унинг тўртала ўғли, қизи, набиралари ва уларнинг фарзандлари илму санъат, шеъру адабиётда ном қозондилар. Кўрагонийлар ё бобурийлар сулоласидан кўп соҳибдевон шоирлар, тарихчилар, фақиҳлар, диний ва дунёвий олимларнинг исмини тазкиралардан келтириш мумкин. Уларнинг ҳаммасини тилга олиб ўтиш ё улар ҳақида бир-икки оғиз сўз айтиш анча вақт талаб қилади. Бу ҳақда ҳаттоки китоблар ёзиш ҳам мумкин. Биз бу ўринда Бобурнинг фақат шоир ва тарихчи фарзандлари ҳақида сўз юритиб, улар асарларидан бир-икки мисол келтириб ўтамиз.

Бобурнинг тўнғич ўғли Носируддин Муҳаммад Ҳумоюн 913 (1507) йили зулқаъда ойининг тўртинчи кечаси Кобулда туғилди. Онаси Моҳим бегим Султон Ҳусайн Бойқаро хонадонига яқин бир бекнинг қизи эди. Ҳумоюн Мирзо отаси вафот этгандан сўнг Деҳли тахтига эга бўлиб, 26 йил шоҳлик даврини суриб, 963(1556) йили раби ул-аввал ойининг 14 чисида Деҳлида оламдан кўз юмди.

Ҳумоюн Мирзо ҳам отасидек истеъдодли шоир эди. шоҳлик юмушлари, ички ва ташқи душманлар, яъни укалари ва лўдийлар билан тўхтовсиз олиб борган жанглари сабабли шеър ёзишга кўп вақт тополмаса ҳам, ундан бир қанча ғазаллар, рубоийлар, қитъалар ва бошқа шеърий парчалардан иборат (асосан форсийда) бўлган бир девон қолди. Бу девон доктор Ҳодий Ҳасаннинг тасҳиҳ ва иҳтимоми билан Ҳиндистонда босилиб чиқди. Бу девондан бир қанча шеърий намуналар тазкираларда ҳам келтирилган.

Ҳумоюн Мирзонинг каломидан намуналар:

Ҳардам зи фироқи ту малолест маро;

Ҳар рўз зи ҳижрони ту солест маро;

Ҳолест ба ғурбатамки натвон гуфтан;

Субҳоноллоҳ, ғариб ҳолест маро.

(Мазмуни: Ҳар дам фироқингдан қайғураман, ҳар кун ҳижронингда бир йилдек ўтади. Ғурбатдаги ҳол-аҳволимни айтолмайман, Субҳоноллоҳ, ғариб ҳолим бор.)

Эй, манзили моҳи аломат авжи Сурайё, Рўйи зафар аз ойинаи тиғи ту пайдо.

(Мазмуни: Эй, байроғинг жойи Сурайё авжидадир, тиғинг кўзгусида зафар намоёндир.)

Менки булбулдек гулидин куймишам оҳанг ила, Ўт солибтур жонима рухсораи гулранг ила.

Ҳумоюн Мирзонинг асарлари ҳали тўла топилган эмас. Масалан, яқинда биз унинг икки байт шеърини Содиқий Китобдорнинг «Мажма ул-хавос» тазкирасида учратдик. Мана, ўша байтлар:

Ғарийблиғ ғамидин меҳнату малолим бор, Бу ғамдин ўлмака етдим, ғарийб ҳолим бор.

Висоли давлатидин айрилиб не-не маҳзун, Тирикмену бу тирикликдин инфиолим бор.

Бобурнинг иккинчи ўғли Муҳаммад Комрон Мирзо 914(1508) йили туғилди. Унинг онаси Гулрух бегим туркман уруғига мансуб бўлган бекчик амирларидан бирининг қизи эди. Комрон Мирзо отаси ҳаётлигида Қандаҳор ва Кобулда ҳукмрон эди, Ҳумоюн Мирзо тахтга ўтиргач, Панжоб вилоятини ҳам унга инъом этди. Кўп вақт ўтмай оға-инилар орасида келишмовчиликлар ва низолар пайдо бўлиб, Ҳумоюн Мирзо Эронга қочишга мажбур бўлади ва Комрон Мирзо Афғонистон ҳудудида ўзини шоҳ деб эълон қилади. Ҳумоюн тахтни қайтариб олгач, 960(1553) йили Комрон Мирзонинг кўзига мил торттиради. Сўнг у ҳаж зиёратини ният қилиб Ҳижозга равона бўлади. Уч маротаба ҳаж қилиб, тўртинчи йили ҳаж маросимини адо этаётганда Арофатда 964(1557) йили зулҳижжа ойининг 15инчисида вафот этиб, Муалло қабристонида Хадичаи Кубро мозори яқинида дафн этилади.

Комрон Мирзо ажойиб истеъдодли, ширинкалом, дарвешмаслак шоир эди. Ундан ўзбек ва дарий тилларида яратилган жозибали ғазал, рубоий, қитъа, маснавий ва фардлардан иборат тўлиқ девон қолган. Бу девоннинг форсча шеърларини Муҳаммад Маҳфузулҳақ Ҳиндистонда ва ўзбекча шеърларини Саидбек Ҳасан Ўзбекистонда эълон қилдилар. Комрон Мирзонинг тўлиқ илмий-танқидий девони ҳамда ҳаёти ва ижоди ҳақида муфассал тадқиқот ушбу мақола муаллифи томонидан 1999 йили амалга оширилган. Яна бир муҳим жиҳатни қайд этиш керакки, Бобур фарзандларидан Комрон Мирзогина отаси изидан бориб, асосан, ўзбек тилида шеърлар ёзди. Ҳолбуки, Бобурдан кейинги насллар кўпроқ форс тилида ёзиб форс тили ривожига хизмат қилдилар. Комрон Мирзонинг шеърларидан бир намуна келтирамиз (ҳафталигимизда Комрон Мирзонинг айрим асарларини эълон қилганмиз - ред.): Аҳбобқа хуштурур рафиқ ўлса киши, Имдод ила ҳомий тариқ ўлса киши, Ислом элига жон била тарвиҳ қилиб, Бир-бирга бу беш кун шафиқ ўлса киши.

Аскарий Мирзо Комрон Мирзонинг туғишган иниси бўлиб, 922(1517) йили Кобулда дунёга келган. Ҳумоюн Мирзо тахтга ўтиргач, Сунбул вилоятини унга инъом қилди, аммо Аскарий Мирзо акаси Комрон Мирзо билан қўшилиб, Ҳумоюнга қарши исён кўтарди. Қийинчиликларга дуч келиб, 961(1554) йили ҳаж нияти билан йўлга чиқди, лекин мақсадга етолмай, ҳаж йўлида — Шом ва Макка ўртасидаги бир жойда вафот этиб, ўша ерда дафн қилинди. Аскарий Мирзо ҳам отаси Бобур ва ака-укаларидек истеъдодли эди. Ундан девон қолган-қолмагани ҳозиргача номаълум, аммо бир қанча тазкирачилар унинг маҳоратли шоир эканлигини тасдиқлаб, гўзал шеърларидан намуналар келтирганлар. Биз қуйида унинг каломидан бир неча мисол келтирамиз:

Эй Аскарий, ар масти мудоми хуш бош, Вар муътақиди бодаву жоми хуш бош, Гуфти: ба харобот набошам бе у, Бо ёр агар дарин муқоми хуш бош. (Мазмуни: Эй, Аскарий, агар мудом мастсан, хурсанд бўл; Агар бодаю жомга эътиқодинг бўлса, хурсанд бўл. Хароботда усиз бўлмайман, дединг; Агар ёр билан бу муқом (макон, жой)да бўлсанг, хурсанд бўл.)

Чунун ки хўй гирифтам ба ошнойи ту, Ҳалок мекунадам меҳнати жудойи ту.

(Мазмуни: Мундоққи, ошнолиғингга ўрганганман, Ҳажринг қайғулари мени ўлдиради.)

Ҳиндол Мирзо 925(1520) йили Кобулда туғилди. Унинг Ҳиндол деб номланишига сабаб: Бобуршоҳ Ҳинд мулкини тасарруф қилиш нияти билан йўлга чиқиб, Ҳиндистоннинг бир неча вилоятларини қўлга киритган чоғда Ҳиндолнинг таваллудини эшитиб, ирим қилиб, унга Ҳиндол деб ном қўйди.

Ҳиндол Мирзонинг онаси Дилдор бегим бўлса-да, Моҳим бегим қўлида тарбия топгани сабабли, оға-инилар орасидаги низоларда ҳар доим Ҳумоюн томонида туриб, унга ёрдам берарди. Шу жангларнинг бирида 958(1551) йили Жалолобод шаҳри яқинида Комрон Мирзонинг аскарлари Ҳумоюннинг ўрдусига тунда ҳужум қиладилар ва аскарлардан бири

Ҳиндол Мирзони танимай, ҳалок этади. Унинг жасади Кобулга келтирилиб, Боғи Бобурда отаси Бобуршоҳнинг оёғи остида дафн этилди.

Ҳиндол Мирзонинг ҳам забардаст, нозикхаёл шоир эканлигини бир қанча тазкирачилар тавсиф этиб, унинг шеърларидан гўзал намуналарни ўз тазкираларида нақл қилганлар. Қуйидаги намуналар ҳам Ҳиндол Мирзонинг етук истеъдоди ва маҳоратини исботлай олади:

З-он қатраи шабнам ки насими саҳари, Аз абр жудо кунад ба сад жилвагари, То бар рухи гул чаконад, эй, рашки пари, Ҳаққо ки ҳазор бор покизатари.

(Мазмуни: Тонг ели булутдан юз жилва билан ажратиб, гул юзига томизган ўша шабнам томчисидан кўра, эй парилар рашки, ҳақ гап шуки, сен минг бор покизароқсан.)

Сарви қади ту моили аҳли, ниёз нест, Нозест дар сари ту ки дар сарвиноз нест.

(Мазмуни: Сенинг сарв қаддинг ниёз аҳлига мойил эмас, сенда шундай ноз борки, ҳатто сарвинозда ҳам йўқ.)

Гулбадан бегим: Бобурнинг бу фазилатли, билимли қизи Кобулда 932/933(1526/1527) йил атрофида Дилдор бегимдан туғилди, аммо укаси Ҳиндол Мирзодек Моҳим бегим тарбияси остида бўлди. Шу сабабли Ҳумоюн Мирзога атаб «Ҳумоюннома»ни ёзди. У тўрт ёшида отасидан абадий айрилган бўлса-да, отасининг тарихчилик истеъдодини мерос олди.

«Ҳумоюннома» Ҳумоюннинг шоҳлиги даврида юз берган воқеаларга бағишланади. Шунинг учун 937 — 963(1530 — 1556) йиллар воқеаларини акс эттириши керак эди, аммо асарнинг қўлёзмасидан охирги саҳифалари йўқолгани сабабли Комрон Мирзонинг нобино қилингани воқеасига келиб, тугамай қолган. «Ҳумоюннома»нинг форсча матни инглизча таржимаси билан А.Бевириж орқали Лондонда ва ўзбекча таржимаси форсча матни билан биргаликда Ўзбекистонда С.Азимжонова томонидан чоп этилган.

«Ҳумоюннома»нинг бирёқлама ёзилгани назарда тутилмаса(унда Ҳумоюн қанчалик мақталган бўлса, Комрон ўшанчалик қораланган), уни ўша даврни акс эттирувчи энг дақиқ ва мустанад асар деб, тан олиш мумкин. Бу асарнинг жуда ихчамлиги, равон услубда ёзилгани ҳамда фасоҳат ва балоғат авжида эканлигини кўплаб тазкирачилар, тарихчи олимлар таъкид этганлар.

Гулбадан бегим узоқ умр кўрди. 983(1576) йили ҳаж зиёратига мушарраф бўлди, Ҳумоюн ва Акбардан кўп ҳурматлар кўриб, вафот этганидан кейин жасади Кобулга олиб борилиб, дафн этилди.

Хулоса: Айтиб ўтганимиздек, Бобуршоҳнинг набиралари ва уларнинг фарзандлари ҳам шеърий истеъдодни Бобуршоҳдан мерос олиб, шеъру адабиёт анъаналарини кўрагонийлар оиласида давом эттирдилар. Мисол учун, Комроннинг қизи Гулрухбегим ва ўғли Абулқосим Шавкатий, Акбар, Шоҳ Жаҳон ва унинг завжалари, Аврангзебнинг қизи Зебуннисо бегим, Баҳодиршоҳ Зафар ва бошқаларнинг номи, асарлари айрим тазкираларда зикр этилган. Демак, Бобуршоҳ нафақат буюк бир империяни, энг шавкатли бир маданий даврни ўз фарзандларига мерос қилиб қолдирмади, балки шоирлик ва тарихчилик истеъдодини, илмпарварлик ва санъатга қизиқиш каби олий хислатларни ҳам қолдириб, тарихда бобурийлар(кўрагонийлар) номини мангуликка эриштирди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. В. Эрксин “Заҳириддин Муҳаммад Бобур” 1921 й.
2. История Востока, Лекции Курс III 1888-89 ун.год.
3. Жавоҳарлал Неру “Ҳиндистоннинг кашф этилиши”.

BOBUR SIYMOSIGA NAZAR

Xaitov B.T.
Chirchiq OTQMBYU katta o`qituvchisi

Tarixdan ma'lumki, mamlakatimiz qadimdan alloma-yu mutafakkirlar, olim-u fozillar diyori hisoblanadi. Bu hududdan jahon ilm-fani ravnaqiga o`zining munosib hissasini qo`shgan Abu Nasr Forobiy, Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg`oniy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy singari qomusiy allomalar, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Imom Moturudiy, Burhoniddin Marg`inoniy kabi mutafakkirlar, To`maris, Shiroq, Spitamen, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi mard va jasur sarkardalar yetishib chiqdi.

Bebaho yurtimiz madaniyat, san'at, memorchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq markazi sifatida barcha davrlarda muhim ahamiyatga ega bo`lib kelgan.

Tariximizning eng murakkab, eng jozibador, eng dramatik siymolaridan biri bo`lgan Zahiriddin Muhammad Bobur o`zining qisqa – bor-yo`g`i qirq yetti yillik umri bilan nafaqat bizning, balki jahon tarixidan munosib o`rin olib ulgurgan, buyuk bir siymodir.

Zahiriddin Muhammad Bobur – 1483 yilning 14 fevralida Andijonda tug`ilgan. Bobur Mirzo Amir Temurga oltinchi avlod hisoblanadi. Bobur Mirzo – Umarshayx Mirzo – Abu Said Mirzo – Sulton Muhammad Mirzo – Mironshoh Mirzo – Amir Temur [1-32]. (Ba'zi manbalarda Mirzo Bobur Amir Temurning nevarasi deb atalishi noto`gridir).

Boburning otasi Umarshayx Mirzo Farg`ona viloyatining hokimi bo`lgan. O`z davrida Movoraunnahr hokimi bo`lgan Sulton Ahmad (Umarshayx Mirzoning akasi) davrida (1469-1494) Toshkent va Soxruxiya shaharlari ham uning boshqaruviga berilgan bo`lsada, lekin o`zaro urush va nizolar tufayli uning qo`l ostida faqat Farg`ona, Xo`jand va O`ratepa qolgan edi.

Onasi Qutlug` Nigorxonim Toshkent hokimi Yunusxonning qizi edi. Qutlug` Nigorxonim o`qimishli va oqila ayol bo`lib, Boburga hokimiyatni boshqarish ishlarida faol ko`mak bergan va harbiy yurishlar davrida unga hamrohlik qilgan.

Boburning bolaligi Axsi va Andijonda kechib, uning yaqinlari o`z davriga xos va mos diniy va dunyoviy bilimlarni egallashiga imkon yaratib beradilar. Shuningdek hukmdor farzandiga xos bo`lgan "harb ilmi"ni ham bolaligidan o`rganadi. Yoshligidan mard va jasur bo`lganligi uchun "Bobur" – "yo`lbars" nomiga sazovor bo`ladi.

Taqdir taqozosi bilan o`n ikki yoshida, otasining kutilmagan o`limidan so`ng taxtga o`tiradi. "Boburnoma"da yozadi: "Farg`ona viloyatiga o`n ikki yoshda podshoh bo`ldim". [1-29]

Boburning hayoti boshdan oyoq murakkabliklardan, taqdir imtihonlaridan iborat. U hokimiyatga kelgan vaqtda Temuriy shahzodalarning o`zaro urush va nizolari natijasida mamlakat parokanda, xalq esa nochor ahvolga tushib qolgan edi. Shuningdek, Dashti Qipchoqda bobosining hokimiyatini qayta tiklagan Muhammad Shayboniyxon o`z hududlarida tartib o`rnatib, o`zining harbiy yurishlarini Movarounnahr va Xurosonga qaratgan edi.

Barcha Temuriy hukmdorlar singari Mirzo Bobur ham Amir Temur hokimiyatining markazi hisoblangan Samarqand taxtini egallash orzusida bo`lgan. Bu uning Samarqandga bir necha marta yurish qilganligida ham ko`rishimiz mumkin. Lekin Samarqandni muqim egallash va boshqarish unga nasib etmadi. Dastlab ukasining o`zaro taxt uchun kurashi natijasida Samarqandni qo`ldan chiqazgan bo`lsa, keyinchalik Shayboniyxon va uning avlodlaridan yengilib bu shaharni egallash umididan butunlay voz kechadi. Dastlab Kobul va G`aznani egallagan bo`lsa, keyinchalik Hindistonni egallab u yerda Boburiylar imperiyasining tamal toshini quyishga muvaffaq bo`ldi. Bobur Mirzo Afg`on va Hind diyoriga bosqinchi sifatida emas, avvalo, tarqoqlik va parokandalikka,

o`zaro ichki nizo, qirg`inlarga barham berdi, viloyatlarni birlashtirdi. Markazlashgan davlatni mustahkamlash va yurtni obodonlashtirishga, ilmu hunar va dehqonchilikni rivojlantirishga ahamiyat bergan, ilm-ma'rifatga homiylik qilgan dono hukmdor sifatida nom qozondi. Har qanday sharoit va vaziyatlarda ham ijoddan to`xtamadi.

Uning davlatni boshqarish va harb ilmi asrlar davomida jahon hukmdorlari uchun ibrat maktabi bo`lib xizmat qildi va qilib kelmoqda. Shu sababli uning bu boradagi noyob tajribalari Yuliy Sezar, Napaleon Bonapart, Amir Temur singari buyuk sarkardalarning nomlari bilan bir qatorga qo`yib o`rganiladi.

Bobur uzoqni ko`ra oladiga siyosatchi va mohir sarkarda edi. Temuriylar saltanatini saqlab qolishning yagona chorasi ittifoq ekanligini yaxshi tushunadi. Shayboniyxonga qarshi yagona ittifoq tuzish taklifi bilan bir necha marta atrofdagi hukmdorlarga murojaat qilgan bo`lsada, ulardan o`zi kutgan javobni ololmaydi. O`z davrining eng kuchli hukmdorlaridan biri bo`lgan Sulton Husaynning xatti-harakatlarini qoralab: "Sulton Husayn Mirzodek Temurbek o`rnida o`tirgan ulug` podshoh g`anim ustiga yurishni demay, yer berkitmoqni, mudofaani desa, el va ulusda qanday umidvorlik qolsin?" deya afsus chekadi. [1-101]

Ushbu holat xuddiki, yurtimizga Chingizxon boshchiligidagi mo`g`ullar bosqini vaqtda Muhammad Xorazmshoh yo`l qo`ygan xatoni yana bir bor takrorlanishidir. "Jaloliddin, Temur Malik singari yetuk kishilarning harbiy kuchlarni asosiy nuqtalarga to`plab, dushmanga hal qiluvchi zarbalar berish kerakligi to`g`risida to`g`ri, dono maslahatlariga ham quloq solmadi. Sulton o`z qo`shinlarini turli shaharlarda alohida holda joylashtirish va mudofaadan iborat xato taktikani ma'qul ko`rdi. … Bunday holat tez orada butun mamlakatni fojiali oqibatlarga olib keldi" [4-137].

Kech bo`lsada, Husayn Bayqaroning Shayboniyxonga qarshi ittifoq tuzish taklifiga darhol qo`shiladi. "Ushbu damlarda Sulton Husayn Mirzo Muhammad Shayboniyxonni daf etishga taraddudlanib, barcha o`g`illarini chaqirtirdi. Meni ham chaqirtirgan edi. Sulton Husayn Mirzodek Temurbek o`rnida o`tirgan ulug` podshoh qo`shin to`plab, Shayboniyxondek g`animning ustiga yurish qilganda, el ayog`i bilan borganda, biz bosh bilan borgaymiz, el tayoq bilan borganda biz tosh bilan borgaymiz", deb yozadi. [1-127]

Afsuski uning bu ulug` niyati ham amalga oshmaydi. Sulton Husaynning bevaqt o`limi hamda uning o`g`illarining o`zaro taxt talashishlari, beklarning nizolari sababli ko`p o`tmasdan bu hududlar ham Shayboniyxon tomonidan egallanadi.

Mirzo Bobur ushbu holatlardan tegishli xulosa chiqarib farzandlarini doimo o`zaro ittifoqda, har bir ishni maslahat va kengash bilan amalga oshirish lozimligiga alohida e'tibor qaratadi. "Boburnoma"da Boburning o`g`li Humoyun Mirzoga yozgan xatining mazmunida quyidagi fikrlarni o`qiymiz: "… o`y fikrli va tadbirli beklar bilan kengashib, ularning so`zlariga amal qil. … Bir kunda ikki bora ukang va beklarni ixtiyorlariga qo`ymay, qoshingga chorlab, har qanday maslahat bo`lsa kengashib, har bir ishingni bu xayrixoh kishilar bilan ittifoqlikda amalga oshirgin".

Ittifoqlik, ahillik va kengashib faoliyat olib borish haqidagi fikrlar Amir Temurning "Temur tuzuklari"da ham alohida ta'kidlanadi: "Ishlarimning barini kengash bilan yurgizib, uni bitirishda to`g`ri tadbir qo`llar edim. Bir ishga kirishmay turib, undan qutulib chiqish yo`llarini mo`ljallab qo`yar edim. Uni to`g`ri tadbir, qat'iy jazm, chinlik-chidamlik ko`rsatib, ehtiyotkorlik bilan uzoqni ko`rib, ortini o`ylagan holda oxiriga yetkazardim". [2-17]

"Temur tuzuklari"da yana o`qiymiz: "Men tajribamdan shuni bildimki, yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir to`g`ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin ekan". [2-21]

Qisqa umr ko`rgan bo`lishiga qaramasdan Mirzo Bobur o`zidan ulkan adabiy meros qoldirdi. Uning "Boburnoma"dan tashqari "Mufassal", "Mubayyin" kabi asarlari ma'lum va mashhur. Xoja Ahror Valiyning nasrda bitilgan "Volidiya" asarini she'riy tarjimasi ham mavjud. Shuningdek uning

119 g`azali, 209 ruboiysi, 10 dan ortiq tuyuq va qit'alari, 50 dan ortiq muammo va 60 dan ziyod fardlari aniqlangan. [3-87]

Zahiriddin Muhammad Bobur o`zining favqulodda nodir iste'dodi, beqiyos insoniy salohiyati bilan haqli ravishda jahon ahlining hayrat va ehtiromiga musharraf bo`ldi. Ayni fazilatlari bilan u millatimizni, xalqimizni butun olamga tanitdi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Zahiriddin Muhammad Bobur hurfikrli inson, ilg`or g`oyali ijodkor sifatida madaniyatning, ma'rifat va ma'naviyatning taraqqiyoti uchun, ezgu maqsadlarining tantanasi uchun kurashdi. Shu maqsadda umr bo`yi ibratli ishlarni amalga oshirdi.

Zahiriddin Muhammad Boburning bolalik va o`smirlik yillari haqida roman yozgan "Boburnoma"ning ingliz tarjimoni Uilyam Erskin Boburni Osiyo podshohlariga qiyosan shunday baholaydi: Sahovatli va mardligi, iste'dodi, ilm-fan, san'atga muhabbati va ular bilan muvaffaqiyatli shug`ullanishi jihatidan Osiyodagi podshohlar orasida Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi". [2-5]

Javoharlal Neru Bobur haqida o`zining "Hindistonning kashf etilishi" kitobida bahoni keltiradi: "Bobur dilbar shaxs, uyg`onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo`lgan. U san'atni adabiyotni sevardi, hayotdan huzur qilishni yaxshi ko`rardi".

Xulosa qilish mumkinki, bugungi, globallashuv davrida yoshlarimiz To`maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Temur Malik, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Ulug`bek, Mirzo Bobur singari buyuk ajdodlarimiz qahramonliklarini e'zozlashi va sharaf bilan munosib davom ettirishini istasak bugun ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga har qachongidan ham ko`proq ahamiyat berishimiz darkor. Zero, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O`zbekiston Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 25 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigida ta'kidlaganlaridek: "… ular o`zlarining fuqarolik mas'uliyati, Vatan himoyachisi sifatidagi muqaddas yigitlik burchini anglab, o`z yurtiga fidoyi inson bo`lib yetishadi".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.

1. Boburnoma. "O`qituvchi" NMIU. 2008.

2. "Temur tuzuklari". O`zRFA "Fan" nashriyot davlat korxonasi. T.: 2019

3. O`zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2-tom. "O`zbekiston millik ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. T.: 2001.

4. Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova. O`zbekiston tarixi. T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2016.

БУХОРО ХОНЛИГИНИНГ БОБУРИЙЛАР ДАВЛАТИ БИЛАН ДИПЛОМАТИК АЛОҚАЛАРИ

Холиков Н.

Чирчиқ ОТҚМБЮ ўқитувчиси

Ҳофиз Таниш Бухорийнинг "Абдулланома" ("Шарафномайи шоҳий") асари Бухоро хонлигининг Бобурийлар давлати билан дипломатик ва савдо-иқтисодий алоқаларини ўрганишда алоҳида ўрин тутади. Зеро, бу манба тарихий воқеалар аниқ маълумотларга асосланиб ёзилганлиги, далилларга бойлиги билан ўзига хос хусусиятга эга. Бухоро хонлиги билан Ҳиндистон ўртасидаги алоқалар мазкур давлатларнинг ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий мавқеига боғлиқ. Ҳофиз Таниш Бухорийнинг "Абдулланома" асарида 1533 - 1589

йилларда Ўрта Осиё, Дашти Қипчоқ, Афғонистон, Хуросондаги сиёсий воқеалар акс этган [1].

“Абдулланома” асарида XVI асрнинг иккинчи ярмида Ўрта Осиё билан Бобурийлар империяси ўртасидаги ташқи сиёсий муносабатлар хусусида қимматли маълумотлар баён қилинади. Бу даврда Мовароуннаҳрда Абдуллахон II Бобурийлар давлатида Акбаршоҳ мамлакатни идора қилмоқда эди. Бу икки мамлакат ҳукмдорлари даврида Ўрта Осиё - Ҳиндистон муносабатлари жуда жадал ривожланган. Абдуллахон II ва Акбаршоҳ ўртасидаги дастлабки элчилик муносабатлари 1572 йилларга бориб тақалади. Абдуллахоннинг элчиси Олтамиш 1572 йили Деҳлига борган бўлиб, у Абдуллахоннинг ҳар иккала мамлакат ўртасида давом этиб келаётган дўстлик алоқаларини кучайтириш мазмунидаги мактубни топширади. Акбар элчи орқали Абдуллахонга дўстлик муносабатларини ўрнатишга рози эканлигини билдирган мактуб жўнатади. Абдуллахон элчиси Олтамиш Ҳиндистондан ўз ватанига қайтиш арафасида Бадахшонда ҳокимият учун кураш бошланганлигини эшитади. Бобурийлар давлати бу курашда Абдуллахоннинг қўли борлигини гумон қилади. Назаримизда, вазиятга ойдинлик киритиш мақсадида 1577 йил Абдуллахоннинг иккинчи элчиси Абдураҳим Ҳиндистонга келади. Элчи Ўрта Осиё билан Ҳиндистон ўртасида эронни бўлиб олиш таклифини етказади. Элчи юртига қайтаётганда Ҳиндистондан Акбаршоҳ Мирза Фулод бошчилигидаги жавоб элчилигини Абдуллахон саройига юборади. Акбар элчиси Эроннинг мусулмон давлати эканини эслатиб, Акбарнинг бу давлат ерларини бўлиб олишга рози эмаслигини англатиш билан бирга, Абдуллахон давлатининг кучайиб бориши Бадахшонга хавф туғдириши мумкинлигини тушунган ҳолда, бу хавфнинг олдини олиш учун қурол кучи билан эмас, балки дипломатик йўл билан келишишга уринишдан иборат эди. Бу икки давлат ўртасидаги дўстона элчилик алоқалари тўғрисидаги маълумотлар ҳатто майда деталларигача “Абдулланома” асарида тўлақонли ёритиб берилган.

Хусусан, 1578 йил 11 Абдуллахон ҳузурига Ҳиндистон мамлакати шоҳи Акбар томонидан элчи келганлигини баён қилади. Аммо муаллиф асарда элчининг исми шарифини келтириб ўтмайди. Тарихчи И.Ғ.Низомиддинов бу Мовароуннаҳрга келган Мирзо Пўлод бошчилигидаги Ҳиндистон элчилиги эканини эътироф қилади. Ҳиндистон элчилиги Абдуллахон тарафидан бундан бир йил муқаддам 1577 йилда Акбаршоҳ саройига юборилган амир Абдураҳим бошлиқ Бухоро элчилигига жавобан юборилган эди. И.Низомиддиновнинг маълумотларига кўра, Акбаршоҳ Мирзо Пўлод орқали Абдуллахонга юборган мактубида Бухоро ҳукмдори томонидан 985/1577 йили Эронни, аниқроғи Хуросон ва Қандаҳорни тақсимлаб олиш тўғрисида қилинган таклифга рози эмаслигини маълум қилган [2]. Амир Қурайш орқали Ҳиндистон шоҳи Акбаршоҳга “шоҳликнинг шарафли нишони билан нишонланган олий ёрлиғ, атоқли туҳфалар, қимматли совғалар, қарчиғай, лочин каби ов жониворлари, сарсар шамолидек учадиган тоза итлар, элдек юришли отлар, Бурокдек эладиган, баркдек ўтадиган туялар, булардан бошқа ҳар хил шоҳона туҳфалар, хусравона ҳадяларки, шоҳга лойиқ ва сазовор...” бўладиган тортиқларни бериб юборади. Акбаршоҳга юборилган мактубнинг мазмуни шундан иборат эдики, Хуросон вилояти “Қизилбошлар ва бошқа авбош фирқаларнинг забти ва тасарруфи остидадир” деб, уларнинг “шаҳар ва у қалъаларда саркашлик, жабр-зулм” ва бошқа фаолиятларини қоралаб, келғуси йили, яъни 1587 йилда эронга юриш қилишини билдириб, агарда бизга ёрдам бермаган тақдирингизда ҳам, улар “...олий шоҳга паноҳ тортиб борган пайтида, йўл бермагайсиз. Ва мамлакатингиз атрофида ҳам қўймай, ҳайдагайсиз”. Демак, мактубнинг мазмунига кўра, Абдуллахон элчи орқали Акбаршоҳни Эронга қарши юришда иттифоқлик қилишга чақирган. Ҳатто, бизни бу юришда қўллаб-қувватламаган тақдирингизда ҳам, эронликлар сиздан мадад сўраб борганда,

уларга ёрдам бермасликка ундаган. 1587 йил февралда Амир Қурайш элчилиги Қобилдан Ҳиндистон элчилари билан келаётганлиги ҳақида хабар келади. Абдуллахон Ҳиндистондан элчилар келаётганлигини эшитгач, уларни яхши кутиб олиш ҳақида буйруқ беради. Унга Ҳиндистонга Абдуллахон саройига Ҳаким Абулфатҳнинг биродари Ҳаким Ҳумом ҳамроҳлигида қайтади. Ҳаким Ҳумом Ҳиндистондан Абдуллахон элчилигига жавобан элчи қилиб амир Қурайшга қўшиб жўнатилган эди. Абдуллахон элчиларнинг Қобулга этиб келганидан хабар топиб, амир Қурайшга фармон юбориб тезликда олий остонага этиб келишини буюради. Қобул ҳокимига ҳам "Агар элчилар Қобулга келишган бўлсалар, уларнинг керак яроқларини тайёрлаб йўлга солиб юборилсин...", деб берган фармони 1587 йил 8 апрелда этказиб келинади. Аммо, элчилар ёзгача Қобулда қолиб кетишади.

Элчилар 1587 йил 6 июнда Қобулдан Балхга қараб йўлга чиқадилар. Асар муаллифининг берган маълумотларига кўра, элчи Абдуллахон ҳузурига келгач, Ҳиндистон мамлакати аҳволи, Акбаршоҳ билан учрашув жараёнини сўзлаб беради. Ҳиндистондан амир Қурайшга ҳамроҳ қилиб жўнатилган Ҳаким Ҳумом, Сардри Жаҳон ва бошқалар бу томонга элчи бўлиб тайинлангани, улар шолари томонидан ҳисобсиз кўп туҳфа, совғалар ва чексиз хадя асбобларини олиб келишган"лиги, аммо улар туя топа олишмаганлиги сабабли Андхудда қолиб кетганлиги хабарини етказади. Элчи берган маълумотларни эшитгач, Абдуллахон амир Қурайшга Андхудга бориб, туяларга элчиларнинг юкларини орттириб, олиб келишга фармон беради.

Фармонга биноан амир Қурайш 1587 йил 20 августда Андхудга жўнайди. 1587 йил 3 сентябр кунлари Андхудга юборилган амир Қурайиш Ҳиндистон элчилари билан Абдуллахон саройига этиб келадилар. Абдуллахон фармони билан элчиларнинг кириб келаётганлигидан хабар топгач, уларга иззат-ҳурмат кўрсатиш мақсадида қози Ҳожи Муҳаммад, Мирзо Ҳайдар Муҳаммад мунший ва Ийбон шиғовулларга элчиларни тантанали равишда кутиб олиш, уларни ўз мартабаси ва даражасига яраша жойлаштиришга буйруқ беради. Эртаси куни элчилар шарафига шоҳона мажлис, хусравона базм қуриш буюради. Муаллиф асарда элчиларни кутиб олиш ва улар шарафига бериладиган шоҳона маросимларни гўзал иборалар билан шарҳлайди. Ҳатто маросимда иштирок этувчи амалдорларни жойлашув тартибларини ҳам эътибордан қочирмайди. Элчилар шарафига Султон Ҳусайнмирзо мадрасасида катта базм берилади.

Бу жараён муаллиф томонидан қуйидагича таърифланади: "Иззату мансаб эгаси бўлмиш вазирлар, тўғри фикрли, саодат дастгоҳли амирлар ва ўзга зафарогоҳ аскарлар, ҳар бирлари ўз даражаларига лойиқ жойда ва ўз мартабасига муносиб мақомда турдилар". Абдуллахоннинг "Улар ўз шоҳларига қилган кўриниш маросимларидек кўриниш қилиб келсинлар, иззату икром ва таъзиму эҳтиром бажо келтирсинлар", деган фармонига биноан кириб келадилар. Ҳофиз Таниш ал-Бухорий элчиларни қабул маросимини қуйидагича таърифлайди: "Ҳаким Ҳумом зўр дабдаба билан у қароргоҳга йигирма этти марта салом қилди. Элчилик шароитини, хизмат одобини бажо келтирди. Уларнинг салом бериши эса қўли орқасини эрга қўйиб, сўнгра бошини кўтариб, қарши туриб бош эгишдан иборат эди. Муборак палоснинг четига этишгач, одоб оёғи билан кириб, қўл ўпиш шарафи билан мушарраф бўлди"[3]. Элчи Акбаршоҳ номидан олиб келган мактубни топширади. Мактуб: "То фалак барқарор бўлиб, давлат пойдор бўлган муддатигача дўстлик ва муҳаббат тўхтамини, садоқат, бирлик қоидасини ўзимизга лозим тутишга ҳаракат қилишимиз лозим", деган мазмунида битилган эди. Элчилар Акбаршоҳдан Абдуллахонга қимматли ҳадялар, туҳфалар тортиқ қилади. Шу билан бирга мажлис иштирокчиларининг ҳар бирига ҳадялар ином қиладилар. Элчилар эртаси куни амир Қулбобо кўкалдош ҳамроҳлигида шаҳзода

Абдулмўмин ҳузирига ташриф буюрадилар. Шаҳзодага қимматбаҳо туҳфалар тортиқ қиладилар. Бу эрда элчилар шоҳона инъомлар ва хусравона эҳсонлар билан сийланади. Абдуллахон томонидан олий нишонли амирлар Ҳиндистон элчилари шарафига тўй берсин, деган фармонга асосан, давлат арбоблари навбатма навбат элчиларга тўй бериб кутиб оладилар. Ўтказилган маросимларда элчилар мезбонларнинг ҳар бирига Ҳиндистоннинг тансиқ совғаларидан тақдим қилишган. Элчиларга ҳам "...жуда кўп қийматли асбоблар, фахрли, элдек юришли отлар, чопқир хачирларни, олтин билан зийнатланган эгарлари билан, яшиндек эладиган ёки Бурокдек учадиган туяларни қатор-қатор қилиб совға қилдилар..." [4]. Амир Қурайшга Ҳиндистон элчиларни олиб Бухорога боришига ва у эрда Абдуллахон қозиси Нуриддин Муҳаммадга элчиларни яхши кутиб олиб, уларга яхши қараб туриши ҳақида буйруқ беради.

Асарда амир Қурайш элчилиги баёни шу воқеа билан якун топган. Тадқиқотчи олимларнинг маълумотларига кўра, Ҳаким Ҳумом Ўрта Осиёдан Ҳиндистонга 1589 йили қайтади. Элчи орқали Абдуллахоннинг Акбаршоҳ номига ёзган мактуби ҳам бериб юборилган эди. Ҳиндистон элчиси билан бирга унга қўшиб Абдуллахон элчилари сифатида Аҳмад Али оталиқ ва Мирсадр Жаҳонлар жўнатилади. Абдуллахоннинг мактубида Акбаршоҳга миннатдорчилик билдирилади, "гўё Акбарнинг илтифоти билан Абдуллахон Ҳирот ва Хуросонни забт этишга муваффақ бўлган" [5].

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, Ўрта Осиё билан Ҳиндистон ўртасидаги дипломатик элчилик муносабатлари узоқ ўтмишга бориб тақалади. Кўриб ўтилган даврдаги икки мамлакат ўртасидаги элчилик алоқалари Ҳофиз Таниш Бухорийнинг "Абдулланома" асарида ўз ўрнини топган. Муаллиф асарни ёзишдан асосий мақсади дипломатик алоқаларни ёритиш деб ҳисобламаган бўлса-да, аммо сиёсий жараёнларни баён қилиш давомида элчилик муносабатларига оид айрим қимматли маълумотларни ҳам келтириб ўтади. Бу каби ноёб далилий ашёларга бой маълумотлар асарнинг илмий қимматини оширади ва келажак илмий тадқиқотчилар учун манба бўлиб хизмат қилади. Ҳофиз Таниш Бухорий "Абдулланома" асари билан Ўрта Осиё ва Бобурийларнинг сиёсий тарихини ёритиб берди ва Ўрта Осиёдаги тарихнавислик фани тараққиётига катта ҳисса қўшди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланома ("Шарафномайи шоҳий"). Биринчи китоб.Форс тилидан Содиқ Мирзаев таржимаси. – Тошкент "Шарқ", 1999 – 416 б.; Иккинчи китоб. Форс тилидан Содиқ Мирзаев ҳамда Юнусжон Ҳакимжонов таржимаси. –Тошкент "Шарқ", 2000 – 288 б.

2 Бухоро хонлиги ва Ҳиндистон ўртасидаги алоқалар қаранг:Алимова Р.Р. Марказий Осиё халқлари тарихи (сўнгги ўрта асрларда Ўрта Осиё хонликларининг ташқи иқтисодий алоқалари). – Тошкент, 2009;

3. Низамиддинов И.Ғ. Ўрта Осиёнинг чет эл Шарқи билан муносабатлари. – Тошкент, 1961. – Б.20.

4. Бухоро хонлиги ва Ҳиндистон ўртасидаги алоқалар қаранг:Алимова Р.Р. Марказий Осиё халқлари тарихи (сўнгги ўрта асрларда Ўрта Осиё хонликларининг ташқи иқтисодий алоқалари). – Тошкент, 2009;

5. Алимова Р.Р. Ўрта Осиё хонликларининг қўшни давлатлар билан дипломатик ва савдо-иқтисодий муносабатлари (XVI-XIX аср рус тарихшунослиги ва манбалари асосида). – Тошкент, 2017.

БОБУРИЙЛАР ДАВЛАТИНИНГ ТАШКИЛ ТОПИШ ЖАРАЁНИ

Ҳайдаров А.
Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси "Темурбеклар" мактаби директорининг ўринбосари, ф.ф.н., доцент

Бобурийлар давлатининг қарор топиши ва халқаро муносабатларига тарихига доир қўлёзма манбалар ва кейинчалик ёзилган босма манбалар жуда кўп ва хилма-хил бўлса-да, шунга қарамай, мазкур давлат ва бу икки минтақада яшовчи халқлар ўртасидаги алоқаларга бағишлаб ёзилган илмий тадқиқотлар камчиликни ташкил қилади. Айниқса, ушбу мавзуда ўзбек тилида ҳозирги замон талабларига жавоб бера оладиган, тарихни холисона ифода этувчи илмий ишлар деярли камчиликни ташкил этади[2; 4; 5]. Ана шу ҳолатни назарга олган ҳолда, биз Ҳиндистонда бобурийлар сулоласи ҳукмронлик қилган давр ва ушбу давлатнинг халқаро муносабатларини ёритишга ҳаракат қилдик.

Заҳириддин Бобур темурийлардан Умаршайҳ Мирзо (1456-1494)нинг тўнғич ўғли бўлиб 1483-1530 йилларда истиқомат қилган. Фарғона ҳукмдори Умаршайх Мирзо 1494 – йилда фожиали ҳалок бўлганидан 12 ёшли Бобур Фарғона ҳукмдори бўлди. Заҳириддин Бобур болалигидан темурийлар анъаналари, удумлари, урфу одатлари шароитида тарбия кўрган бўлиб, бобокалони Амир Темурдек Туркистонда марказлашган давлат тузишни орзу қилар эди.

1496-йил июнь ойида Самарқанд тахтига даъвогар сифатида қўшин тортиб Шовдор туманига етиб келди, унинг иттифоқчилари темурий шаҳзодалар - амакиваччалари Султон Масъуд Мирзо (1475-1506), Султон Али Мирзо (1483-1500) эдилар. Бундан бир неча вақт муқаддам Самарқанд шоси Султон Маҳмуд Мирзо (1453-1495) иккинчи ўғли Бойсунғур Мирзо (1477-1499) га Бухоро вилоятини берган эди. Султон Маҳмуд Мирзо вафот этганда сарой аъёнлари машварат қилиб, Бойсунғур Мирзони Бухородан чорлаб келиб Самарқанд тахтига ўтказдилар.

Ҳар уччала темурий шахзодалар Самарқанднинг уч томонидан қамал қилдилар. Қиш яқинлашиб қолган бўлиб, шаҳарда очарчилик авжига чиқди, шу сабабли иттифоқчилар Самарқандни қамалдан бўшатиб, ўз юртларига қайтиб кетдилар. 1497 йил май ойида Бобур Мирзо Самарқандга иккинчи марта қўшин тортиб келади ва Бойсунғур Мирзога қарши уруш очади. Иттифоқчилар яна шаҳарни қамал қиладилар, 1496 йилдагидек қамални тўхтатиб шаҳардан чекинадилар. Бобур Мирзо эса узоққа кетмай, Хўжа Дийдор қалъасини ўзига қароргоҳ қилиб, ўша ерда вақт ўтказади.

Шундан сўнг, Самарқанд аъёнлари кенгаши навқирон Бобурни 1497 йил ноябр ойи охирларида тантанали тарзда Самарқанд тахтига ўтказадилар. Темурий шаҳзодаларининг ўзаро урушлари натижасида Самарқанд ва унинг атрофидаги аҳоли ниҳоятда қийналган эди, шаҳар деярли вайронага айланиб аҳоли мол-мулки талон-тарож қилинганлиги боис, Бобур Самарқандда узоқ туролмади. Самарқандда 100 кун шолик қилгач, Бобур уни ташлаб кетишга мажбур бўлади. У Хўжандга етганда Андижоннинг қўлдан кетганлиги, Узун Хасан ҳокимиятни эгаллаб Бобурнинг мураббийси ва ҳомийси Хожа Қозини қатл этилгани хабари келади. Самарқандда эса Султон Маҳмуднинг ўғли Султон Али Мирзо ўз ҳокимиятини ўрнатган эди. 1498-1499 йиллар давомида Бобур Мирзо Самарқанд ва Андижон оралиғида ўзининг яқин кишилари билан сарсону саргардонликда бўлади, фақат 1499 йил июн ойида Андижонни эгаллайди[1, 21].

1500 йилда Шайбонийхон Самарқандни урушсиз қўлга киритади. Шайбонихон Самарқандга кириб барча темурий шахзодаларни қатл эттиради, Улар орасида Султон Али ҳам бор эди. 1500 йил кузда Шайх Абул Макорим бошчилигида Бобур Мирзонинг яқин кишилари унга Самарқанднинг Феруза дарвозасини очиб берадилар, ўша пайт Шайбонихон Конигилда эди. Бобур Мирзо тўсатдан бостириб кириб, Шайбонихоннинг қўшинларини қириб ташлайди. Бобур Мирзо ҳеч қаердан ёрдам ололмагач қийин вазиятга тушиб қолади ва 1501 йил Сарипул қишлоғи яқинидаги жангда Шайбонихондан енгилиб тўрт ойлик қамалдан сўнг Шайбонихон билан музокаралар олиб боришдан бошқа иложи қолмайди. Сулҳ битимига мувофиқ Бобур Мирзо опаси Хонзодабегимни Шайбонихон харамига жўнатиб ўз лашкарлари билан Самарқандни ташлаб кетади.

Шайбонихон ўлимидан сўнг 1511-йилда Бобур Эрон шоҳи Исмоил Сафавий кўмагида учинчи бор Самарқанд тахтини эгаллайди. Бу гал самарқандликлар Бобурни яхши қабул қилишмади, чунки уни шаҳар аҳолиси Бобурни шиа мазҳаблик Исмоил Сафавийга яқинлашиб кетган кимса сифатида қабул қилишди. Икки йилдан сўнг Бобур Самарқандни яна қўлдан бой беради ва Қобулга йўл олади. Узоқ курашлар, тинимсиз жангу жадалдан сўнг Бобурга омад кулиб боқади. Қобулни ўзига қароргоҳ қилган Бобур аста секин ўз ҳудудини кенгайтириб боради Бир неча бор Ҳиндистонга лашкар тўплаб ўз давлатини мустаҳкамлади. Ниҳоят, 1526 йил 21 апрелда Панипатда Бобурнинг 12 минг кишилик қўшини Ҳинд султони Иброҳим Лўдининг 100 минг кишилик армияси билан тўқнашиб, уни тор-мор этади. Бу пайтда Ҳиндистон парокандалик, чуқур иқтисодий инқирозни ўз бошидан кечираётган эди.

Заҳириддин Бобурнинг саркардалик истеъдоди, унинг ҳарбий санъати туфайли бу жанг Бобур ва унинг яқинлари фойдасига ҳал бўлди. Бобур Марказлашган янги давлатга асос солди, бу сулола вакиллари Ҳиндистонда 300 йилдан ортиқ вақт мобайнида мамлакатни бошқариб келди.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти давомида дунё кезди. Бобур Мовороуннахрнинг қанчадан қанча шахару қишлоқларини, тоғу тошларини кезди. Андижонда 12 ёшида тақдир тақазоси билан шо бўлди, 15 ёшида Самарқанд тахтини эгаллади, 18 ёшда яна иккинчи марта Самарқандни забт этди, 20-21 ёшида Қобул ва Ғазнани урушсиз эгаллаб уни ўз пойтахтига айлантирди. “Қобулни, - деб ёзган эди Бобур, - Зуннуннинг кичик ўғли Муқимдан олган йили Зуннун билан Хисравшох мен туфайли ночор қолиб, Султон Хусаин Мирзо хизматига бордилар” [2, 134]. Захириддин Бобур Мовороуннаҳрдан ташқари Хуросон, Афғонистон, Ҳиндистонда бир неча йиллар истиқомат қилиб янги давлатлар ташкил этди. “Бобурнома”даги маълумотлар ҳамон дунё ахлини ҳайратга солиб келмоқда. “Бобурнома”да 1494 йилдан то 1529 йилгача бўлган 22 йиллик воқеалар ўз аксини топган бўлиб, унда 1510-1519 йилгача бўлган воқеалар етишмайди. Шу билан бирга 1530 йилги воқеалар ҳам мавжуд эмас. Маълумки Бобур 1530 йил декабр ойида дунёдан кўз юмган.

Панипат жангидан кейин Ҳиндистонда Бобур бутунлай янги сулолага асос солди. Шимолий Ҳиндистонда ҳам Деҳли султонлиги инқирозга учради ва юқорида айтганимиздек Бобурийлар сулоласига асос солинди. То шу пайтгача хокимият тепасида бўлган Иброҳим Лўди тахтдан ағдарилди. Заҳириддин Муҳаммад Бобур 1526 йилдан то вафоти 1530 йил охиригача Ҳиндистонда шохлик қилди. Бобур ўз давлати келажагига ишониб, авлодларининг эртами-кечми истилочи эмас, маҳаллий ҳукмдор сифатида ҳатто узоқ ўлкалардаги давлатлар билан савдо-дипломатик алоқаларни ўрнатишига умид боғлаган [3, 87].

Бобурнинг васиятига кўра унинг катта ўғли Ҳумоюн тахтга ўтириб мамлакатни 1540 йилгача бошқарди. Бироқ жангу жадаллар натижасида 1540 йил Ҳиндистондаги афғонларнинг Сур қабиласи сардори Шершох тахтни эгаллаб Ҳумоюнни мамлакатдан қувуб

юборди. Ҳумоюн узоқ муддат 15 йилга яқин Эронда Шох Тахмасп саройида яшади. Ҳумоюн Тахмасп ёрдамида Хиндисонда хокимиятни қайтариб олиш эвазига у ерда шиа мазҳабини ҳукмрон мавқега айлантиришгга ваъда беради, шу сабабли Тахмасп унга Қандахор шаҳрини қароргоҳ сифатида беради. Ҳумоюн Деҳлини эгаллагач кўп ўтмай вафот этади. Бобоси Заҳириддин Бобур каби 14 ёшли Акбар тахтга ўтиради. У эллик йил давомида, яъни 1556 йилдан то 1605 йилгача Ҳиндистонни бошқаради. Акбарнинг ҳам ҳарбий ҳам дипломатик усуллар ёрдамида барча мусулмон беклари ва ҳинд рожаларини ўзига бўйсундиришга эришади. Бобурийлар сулоласи даврида Ҳиндистонда Шарқ расму русмлари, шариат, Қуръони Карим, Ҳадислар, дипломатиянинг асосини ташкил этар эди. Шу билан бирга Бобурий шахзодалар учун Амир Темур тузуклари дастурул амал ролини ўйнади. Ҳатто, Акбар бир сафар ўз қўшини билан бир шаҳарни қамал қилганида мулла шаҳар аҳолисининг жонини асраб қолиш мақсадида Қуръонни қўлида ушлаб шаҳардан чиқиб келади. Акбаршох “Муқаддас китоб” туфайли шаҳарликлар гарчи унинг душмани бўлса-да, уларнинг гуноҳидан ўтиб, жонларини сақлаб қолади[5, 37].

XVI аср охирларида Мовароуннаҳр, Ҳиндистон ва Эронда кучли феодал давлатлар ташкил топади. Ҳиндистонда бобурийлар сулоласининг энг забардасти буюк Акбар салтанат эгаси бўлганда (1556), Мовароуннаҳрда шайбонийлар сулоласининг сўнгги тадбиркор намояндаси Абдулла II ҳокимиятни ўз қўлига олди (1557).

Заҳириддин Бобур Ҳиндистонда янги империяга асос солган пайтда Ўрта Шарқ ва Марказий Осиёда тўртта мустақил давлатлар мавжуд бўлиб, уларга Туркиядаги Усмонийлар, Эрон Сафавийлари, Шимолий Ҳиндистонда Бобурийлар ва Марказий Осиёдаги Шайбонийлар давлати кирар эди. Бобурийлар давлати ўзаро муносабатларида мазкур уч давлат устувор аҳамиятга эга эди. Бобурийлар давлати ташкил топгандан сўнг давлатчилик бошқарувини ривожлантириш мақсадида ўзаро манфаатли алоқаларни йўлга қўйганлиги, шубҳасиз Марказий Осиё ва Ҳиндистон ярим ороли билан мунтазам ҳамкорликни таъминлашга хизмат қилган.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Жалилов С. Бобур ҳақида ўйлар. Т.:“Шарқ”, 2006. – Б. 21.
2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Б.134.
3. Низомиддинов Н.Ғ. Буюк бобурийлар тарихи (XVI-XIX аср). Монография. – Т.: “Fan va texnologiya”, 2012.- 568 б.

УТОНЧЕННОСТЬ НАТУРЫ ЗАХИРИДДИНА МУХАММАДА БАБУРА, КАК ПРАВИТЕЛЯ, ПОЛКОВОДЦА И ПОЭТА

Шаюсупова Л.Р.

Военно-технического института НГ РУз.

Айтбоев С.С.

Курсант Военно-технического института НГ РУз.

В основе развития каждого государства лежит духовное наследие, основанное на вигах, открытиях и трудах исторических личностей.

Воспитание гармонично развитой молодежи как достойных преемников великих предков является важным направлением духовно-просветительских реформ, проводимых в нашем государство. В ходе этого процесса проводится работа по глубокому изучению

духовного наследия великих предков, его пропаганды среди населения, особенно среди молодежи.

Изучение жизнедеятельности, научных открытий, военного искусства, своеобразной стили руководства государством, творчества таких великих предков как Аль-Хорезми, Беруний, Амир Темур, Мирзо Улугбек, Алишера Навои и Захириддина Мухаммада Бабура, способствуют расширению знаний и повышению культурного уровня молодого поколения, обогащению мировоззрения юношей и девушек.

Одним из ярких примеров великих исторических личностей для растающего поколения, является Захириддин Мухаммад Бабур, чьё духовное наследие, как великого мыслителя, поэта и государственного деятеля играет огромную роль в повышении духовности молодежи, формировании в ее сердце и сознании чувств патриотизма, самоотверженности, честности.

Более пяти веков с гордостью и любовью люди всего мира произносят имя нашего великого предка Захириддина Мухаммада Бабура, внесшего неоценимый вклад в развитие мировой науки и культуры.

Бабур был высокообразованным носителем среднеазиатской культуры. Его записки отражают интерес к истории, быту, флоре и фауне тех стран, которые он посетил. Они имеют огромную историческую и литературную ценность.

Он был компетентен в военных вопросах, строительстве, архитектура, история, музыка и многие другие. Обладая энциклопедическими знаниями и редкими способностями, он внес значительный вклад в изучение истории, литературы и искусства.

«Бабур - незаурядная личность, - с восхищением писал Джавахарлал Неру, - Он выдающийся правитель, смелый и предприимчивый человек эпохи Возрождения, любящий искусство, литературу, умеющий наслаждаться красотой жизни ».

Стихотворные сборники «Кабульский диван» и «Индийский диван», мемуары «Бабурнаме» и другие его произведения оказали решающее влияние на формирование узбекской литературно-художественной мысли. Научные работы Бабура позволяют составить всестороннее представление о географии, этнографии, флоре и фауне Центральной Азии, Афганистана, Индии конца XV — начала XVI века.

Среди научных трудов Бабура, особое значение имеет «Трактат об арузе» – труд, посвященный изучению филологических основ поэзии.

Вершиной его творчества справедливо считается «Бабурнаме» – произведение, в котором запечатлены исторические события, выдающиеся личности, природные пейзажи.

Бабур писал свои мемуары в жанре на основе путевых заметок и воспоминаний. В описании событий, исторических личностей (в частности, генеалогии Амира Тимура и Тимуридов), сражений, климата, флоры и фауны, семейного быта, обычаев и обрядов (например, празднования Навруза) широко разных народов автор акцентирует внимание на впечатляющем отображение. Отдельные страницы посвящены выдающимся личностям, таким как Мавлана Лютфи, Абдурахман Джами, Алишер Навои, Хусейн Байкара, Камалиддин Бехзад, Камалиддин Бинай и другие.

Кроме того, это своеобразная энциклопедия, содержащая научные сведения о многих сферах жизни той эпохи. Также в тексте «Бабурнаме» использованы предания и другие элементы устного народного творчества, приведены описания традиций и обрядов.

«Мемуары Бабура - это не дневник о появлении воина или отступлении, - пишет британский историк Лейн Пул, - В этих мемуарах личные наблюдения и мысли о мире изысканного ценителя восточной литературы, благородного, образованного и

наблюдательного, который глубоко изучена человеческая душа и предельно объективна в оценке ситуации ».

Богатство и разнообразие материала, языка и стиля «Бабурнаме» выше всякой исторической хроники, составленной придворными летописцами того времени. Вот почему в разное время эта работа привлекала такое внимание ученых. Знаменитый индийский писатель Мулк Радж Ананд назвал ее одной из самых красивых книг в мире.

Все тонкости человеческих эмоций отражены в поэзии Бабура. Но нет лирического поэтического наследия силы воли, которое характеризовалось бы широтой, красочностью, изобразительными средствами, жанровой направленностью (газель, рубай, кита, масневи, фард, муамма) и совершенством поэтических форм. Это гимн красоте земли и человеческой любви.

Следуя традиции Алишера Навои, Бабур в своем творчестве воспевает и превозносит настоящего мужчину. Все яркое и ясное в его стихах, его надеждах и радостях, основанных на противоречиях и поисках того времени. Высшее предназначение человека, по мнению поэта, - быть правдивым, справедливым, и в этом главная черта высокой духовности и нравственности.

С большой впечатляющей силой в стихах поэта выражена безграничная любовь к Родине, ностальгические нотки присутствуют во многих произведениях великого потомка Амира Темура. «Когда мы делились ковуном, привезенным из Ферганы, мои глаза наполнились слезами», - пишет он в «Бабурнаме». Тоска по родной стране перекликается с эмоциональными переживаниями, порожденными разлукой.

Нет Родины и счастья больше нет,
И ничего, кроме одной боли.
Я пришел на эту землю по собственной воле,
Но не могу оставить это место.

Каждый стих Бабура - безупречный образ, мелодия перекликается в душе человека, звучащая неповторимой музыкой для каждого, чье сердце способно к глубокой любви и столь же глубоко опечаленно тоской по Родине.

Необычайная мелодичность лирики, выраженная в художественно-литературном стиле и умелом использовании средств выражения родного языка, поэзия сближает Бабура с поэтическим творчеством людей. Не случайно многие свои газели и рубайи положили на музыку Бабура на основе поэзии вокальных партий бухарского шашмакома, хорезмских макомов и вокальных циклов «Фергано-ташкентский маком».

Достигнув независимости, Узбекистан приобрел безграничные возможности глубже и полнее исследовать нашу древнюю и уникальную историю, понять ее корни и духовность, открыть новые грани творчества и драгоценной деятельности удивительного человека, поэта, мыслителя и государственного деятеля Захириддина Мухаммада Бабура, внесшего неоценимый вклад в развитие мировой науки и культуры.

ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУРНИНГ ДАВЛАТИДА СОЛИҚ СИЁСАТИ

Эгамова М.А.

Андижон шаҳар ХТБ га қарашли 6-умумтаълим мактаб ўқитувчиси

Жаҳонга машҳур буюк мутафаккир, давлат ва жамият арбоби, маҳоратли ҳарбий саркарда, шоҳ ва шоир, темурий шахзода, бобурийлар сулоласининг асосчиси Заҳириддин Муҳаммад Бобур томонидан қолдирилган бой маданий меросни ўрганишга бўлган қизиқиш ва унинг номини асрлар оша авлодларга етказиш мамлакатимизда давлат сиёсати даражасига кўтарилди. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевни “2017 йил — Андижонда Заҳириддин Муҳаммад Бобур йили” деб эълон қилганлиги бунинг амалий исботи бўлди. Президентимиз Шавкат Мирзиёев Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳақида: «Бу буюк зот ўн икки ёшидан бошлаб Темурийлар давлатини сақлаб қолиш учун ўзини ўтга ҳам, чўққа ҳам урди, ҳеч қандай душмандан ҳам, синовдан ҳам қўрқмади. Қирқ олти йиллик умри давомида бир зум ҳам ҳаловат билмасдан ўтди. Ўз авлодларига Ватанга бўлган буюк муҳаббатни, эзгу фазилатларни мерос қилиб қолдирди»[1.8-9]. Бобур Мирзо бобомизнинг ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий-ҳуқуқий соҳаларда ҳамда давлат бошқаруви тизимида амалга оширилган ишлари ҳақида биз унинг яратган тарихий асарларидан маълумотлар оламиз.

Бобокалонимизнинг бизга қадар етиб келган «Бобурнома» асарида, «Закот» тўғрисидаги китобида ҳамда «Мубаййин» каби тўпламларида илгари сурилган ғоялар, ўша давр ижтимоий-иқтисодий ҳаёти тўғрисида бизларга батафсил маълумот беради.

Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг «Бобурнома» асари — жаҳон адабиёти ҳамда манбашунослигидаги муҳим ва ноёб ёдгорлик бўлиб, шунингдек, ўзбек адабиётида дастлабки насрий мемуар ва тарихий-илмий асар ҳисобланади. «Бобурнома»да 1494—1529 йилларда Марказий Осиё, Афғонистон ва Ҳиндистонда содир бўлган тарихий-сиёсий воқеалар йилма-йил ўта аниқлик билан баён қилинган бўлиб, улар муаллиф ҳаёти ва сиёсий фаолияти билан бевосита боғлиқдир. Бундан ташқари, «Бобурнома» узоқ йиллар «Буюк ипак йўли» бўйлаб қилинган саёҳат ва кузатишлар тавсили берилган асар ҳисобланади. «Бобурнома» да Ўрта Осиё билан қўшни Шарқ мамлакатлари ўртасидаги иқтисодий ва савдо муносабатларига доир маълумотлар ҳам ниҳоятда муҳимдир[2.58].

«Бобурнома» асарини ўрганиш жараёнида, биз Бобурнинг иқтисодий дунёқарашида солиқ сиёсатига алоҳида эътибор берилганлигини қайд этишимиз мумкин. Бобур давлат хазинасини бойитиш учун, ҳам жамият, ҳам шариат қонунларига мос тарзда солиқ тизимини жорий этиш масалаларига эътибор қаратган.

Бобур мамлакатни барбод ва аҳолини тамомила талон-тарож қилишдан иборат бўлган солиқларни қоралайди. Масалан, Бобур ўзининг 1525 (932 хижрий) йилдаги махсус буйруғи билан кишилардан, шаҳарлардан, қишлоқлардан, кўча ва гузарлардан олинадиган тамға пулини бекор қилади[3.34].

«Бобурнома» да ёритилишича, давлат бошқаруви тизимида хазинага мутасадди бўлган маъсул амалдорлар, уларнинг солиқ ундиришдаги маҳорати ва уқувига кўра лавозимларга тайинланган. Шу билан бирга Бобур бобоси Амир Темур салтанатидаги ерларни қайта ўз тасарруфига олиш жараёнида қўлга киритган мол, чорва, қимматбаҳо буюмлар, ер-мулкни ижарага берганда солиқ ундириш масалаларини ҳам назаридан четда қолдирмаган. Бобур Мирзо Амир Темур салтанати яхлитлигини қайта тиклаш ва барқарорликни таъминлаш мақсадида ўз тасарруфига киритган юртлардан хирож-бож, солиқ олишда ўзига хос тартибни

жорий этган. Биринчидан, агар эгалланган юрт илгари темурийлар тасарруфида бўлиб, туркий халқлар яшаса имкон қадар бу юртни таламаслик, ҳатто яроқсиз нарсаларга тегинмасликка амр қилинган ва йирик солиқлардан озод қилинган. Аксинча тасарруфига киритилган жой аҳолиси Бобурга қаршилик кўрсатиб, шариат ва давлат солиқ тартибига бўйсунмаса, катта солиқлар солинган, ердан олинадиган даромад солиғи энг оширилган миқдорда белгиланган.

Ҳиндистон юришлари даврида, 1521 йилда, Бобур солиқ ишлари ҳақида маълумот берувчи «Мубаййин» асарини яратди. Маснавий тарзида ёзилган, ислом ҳуқуқшунослиги ва шариат ақидаларига бағишланган бу асарда Мовароуннаҳр ва Ҳиндистонга оид ўша давр ижтимоий-иқтисодий ҳаёти бўйича қизиқарли маълумотлар ҳам жамланган[4.428].

Бобур солиқ сиёсатини ўзининг «Мубаййин» асарида кенгроқ баён этган. Маълумки, аввалларисолиқнинг энг асосий тури закот бўлиб, у шариат аҳкомлари билан боғлиқ равишда амалга оширилган. Чунки закот мукаммал, айни пайтда анчагина мураккаб иқтисодий жараён тартибини ўз ичига олиб, кўпгина қоида ва тартибларга бўлинган. Бобур мазкур асарини, ўз салтанатини солиқ тизимини янада тартибга солиш, ҳатто оддий халқни ҳам закот қоидалари билан яқиндан таништириш мақсадида уни содда, киши тушунадиган тида шеърий тарзда баён этган. Бу асар Бобурнинг иқтисодий сиёсати, солиқ қоидаларига бўлган муносабатини жуда кўп ва теран ифодалаб берган.

Тарихчи-шарқшунос ва манбашунос олима Сабоҳат Азимжонованинг таъкидлашича, Бобур Мирзо «Мубаййин» асарининг «Закот ҳақидаги китоб» деб номланган бобини тўртта бўлимга ажратиб, ўзига маълум бўлган солиқларни турли турларини санаб ўтади. Хусусан, тўртинчи бўлимда закот ундиришнинг тартиб-қоидалари: закот ундириладиган маҳсулотларнинг турлари, солиқни нақд пул шаклида ундириш, чорвадан солиқ ундириш, савдодан солиқ йиғиш, закот бўйича харажатлар, закот олинмайдиган шахслар, ушр ва хирож ҳақида, садақа-и фитра солиғи ва бошқалар ҳақида сўз юритилади. Солиқни тўплаш учун, нисаб яъни солиқ ундириладиган ғалла ёки чорва миқдори белгилаб олинган. Бобурнинг тавсияларига биноан нисаб йилда икки марта – йилнинг бошида ва охирида белгиланган. Табиий–иқлим шароитлари йил мобайнида икки марта ҳосил олиш имконини берган жойларда, хирож йилда икки марта ундирилган. Бобур ўзининг фуқароларига мурожаат қилиб, уларни итоатли бўлишга ундайди, деҳқонлар сўзсиз тарзда қонунларга бўйсуниб, давлат солиғини батамом тўлаб қўйганларидагина, давлат гуллаб-яшнаши ва фаровон юксалиши мумкинлигини таъкидлайди[5.142-143].

Шунингдек, Бобурнинг «Мубаййинул» асарида иқтисодий қарашлар қонунларга уйғун ҳолда ифодаланиб, ўша давр қонунчилиги асарда аниқ мисоллар билан келтирилганлигига гувоҳ бўламиз. Асарнинг номи ҳам “Мубаййинул-закот”, яъни “қонунлар изоҳи” маъносини беради. Бобур қишлоқ хўжалик соҳасида ер учун солиқ олишни хирож деб номлаб, ер солиғини икки тоифага: муқосама ҳамда муваззафга ажратади. Муқосама яъни ҳосил бўлагидан хирож бериш маъносини англатиб, олинган ҳосилнинг миқдорига боғлиқ бўлиб, 1/3 дан ½ гача миқдорда белгиланган. Муваззаф эса, экилаётган ер майдонини ҳажмига боғлиқ қилиб белгиланган[6.108]. Ўша даврда суғориладиган ерларга белгиланадиган солиқлар ҳам алоҳида ҳисобланган бўлиб, “сув солиғи” деб номланиб, у ҳосилнинг ўндан бирининг ярми миқдорида тайинланган.

Шунингдек, асарда чорвачилик соҳасига ҳам алоҳида солиқ солиниши ўз ифодасини топган бўлиб, чорва ҳайвонларининг турларига, сони ва қаерда боқилишига қараб табақалаштирилган солиқ белгиланган. Унга кўра, 40 та қўйдан биттаси, 120 та қўйдан

иккитаси, 201 тадан 400 тагача учтаси, қўй сони 400 тадан ортган бўлса, ҳар 100 та қўйдан биттасини солиққа тўлаш фарз қилинган.

Ўша даврда Бобур савдогарлардан олинадиган савдо йиғимининг ҳам адолатли ва холисона ташкил қилинишига катта аҳамият берган. Мусулмон савдогарларнинг савдо айланмасидан савдо йиғими 20 мисқол (4,5 грамм) олтиндан 1 мисқоли шаклида олинган, энг муҳими солиқ ҳиссаси даромад ҳиссасига нисбатан камайиб борган, яъни даромад кўпайиши билан солиқ камайган ва бойлик жамғарувчилар учун ўта манфаатли бўлган. Ҳозирги даврда мана шу сиёсатни қўллаш фойдадан ҳоли эмас. Чет эллик савдогарлардан олинадиган йиғим эса уларнинг қайси юртлардан келганлигига боғлиқ бўлган. Агар улар ислом мамлакатларидан келган бўлсалар, барча даромадларидан 1/20 қисми (5 фоиз) миқдорида солиқ солинган. Мусулмон бўлмаган мамлакатлардан келган савдогарлардан олинадиган солиқ миқдори шу мамлакатларда мусулмон савдогарлардан олинадиган солиқ миқдорига тенглаштирилган. Бобур ишлаб чиққан солиқ сиёсати узоқ йиллар давомида қўлланиб келинди ва мамлакатнинг иқтисодий тараққиётига ижобий таъсир этди.

19-аср охири – 20 асрнинг биринчи чорагида «Мубаййинул» босиб чиқарила бошланган. Масалан, 19-асрнинг сўнгги чорагида Е.Берёзин асарнинг учинчи қисмини нашр эттирган. «Мубаййинул»нинг илк тўла босма нашри Тошкентда 1905 йилда ношир Мулло Мирмаҳдум ибн Шоҳюнус Тошкандий томонидан амалга оширилган[7.350].

Бобур инсоният маданий ҳаёти тарихида ҳам чуқур из қолдирди. Унинг фаолияти ҳамда меросини ўрганишда турли соҳа олимлари – тарихчилар, филологлар ва бошқалар катта натижаларга эришдилар. Унинг асарлари нашр этилди, тадқиқотлар, илмий ва оммабоп асарлар яратилди. Унинг ижодини ўрганувчи ўнлаб олимлар етишиб чиқди[8.3].

Хулоса ўрнида таъкидлаш лозимки, улуғ бобокалонимиз Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг фаолияти ва ёзма меросини жаҳон тарихига боғлиқ ҳолда ўрганиш, келгусида илмий-тадқиқот ишларини олиб бориш учун янги мавзуларни очиб беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017.

2. Жалилов С. Бобур ҳақида ўйлар. – Т.: «Шарқ», 2006.

3. Заҳириддин Муҳаммад Бобир. Бобирнома. – Тошкент, ЎзР ФА нашриёти, 1960.

4.Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2-жилд, «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, Тошкент, 2001.

5. С. А. Азимджанова. Государство Бабура в Кабуле и в Индии. «Наука», Москва, 1977.

6. Заҳириддин Муҳаммад Бобир. Мубаййин. – Тошкент, Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2000.

7. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. – Тошкент: «Sharq», 2017.

8. Нуритдинов М. Бобурийлар сулоласи. Тошкент, «Фан» нашриёти, 1994.

БОБУР МИРЗО АСАРЛАРИДА ВАТАН МАДҲИ

Эргашева Г.М.

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети ўқитувчиси

Башарият тарихининг ижтимоий-сиёсий, илмий-маданий соҳаларида салмоқли ўрин тутган сиймолардан бири буюк ватандошимиз Заҳриддин Муҳаммад Бобурдир.

Заҳриддин Муҳаммад Бобур маданият, илм-фан, меъморчилик ва санъатнинг ривожланган, тараққий этган даври ҳисобланган XIV-XVI асрлар Мовароуннаҳр тарихида ўзига хос ёрқин ва аҳамиятли из қолдирди. Бу даврда улкан давлат арбоби, қомусий аллома, мумтоз шоир сифатида танилган Заҳриддин Муҳаммад Бобур умр бўйи таназзулга юз тутган темурийлар давлатини сақлаб қолиш йўлида ўзаро жангу жадаллар, омонсиз тўқнашувлар туфайли, кетма-кет мағлубиятлар унинг ўз она диёридан бош олиб кетишига сабаб бўлди. Ҳарбий юришлари натижасида Бобур жанубдаги Афғонистон ва Ҳиндистонда катта империяни вужудга келтирди. Бу тарихдаги янги бир салтанат – Бобурийлар салтанати эди.

Улуғ саркарданинг Ҳиндистонга юриши хайрли бўлди, десак, ўринсиз бўлмас. Ҳиндистонда тарқоқлик ва парокандалик, ўзаро ички низо авж олган бир пайтда одил ва адолатпеша раҳбарнинг давлат устига келиши маҳаллий ҳалқ учун ҳам жуда зарур эди. Бобур шундай бир паллада Ҳиндистондаги вилоятларни бирлаштириб, марказлашган давлатни мустаҳкамлаш ва юртни ободонлаштиришга, илму-ҳунар ва деҳқончиликни ривожлантиришга катта эътибор қаратиб қурилиш ишларига бочилик қилди[1].

Машҳур ҳинд давлат арбоби Жавоҳирлаъл Неру ўзининг «Ҳиндистоннинг кашф этилиши» ва «Жаҳон тарихига бир назар» асарларида Бобур ва унинг набираси Акбаршоҳга юксак баҳо бериб: «Бобур – дилбар шахс, Уйғониш даврининг типик ҳукмдори, мард ва тадбиркор одам бўлган. У санъатни, адабиётни севарди, ҳаётдан ҳузур қилишни яхши кўрарди. Унинг набираси Акбар яна ҳам дилбарроқ ва кўп яхши фазилатларга эга бўлган. Мард, жасур, истеъдодли лашкарбоши, раҳмдил, шафқатли, идеалист ва хаёлпараст, шу билан бирга, у ҳаракатчан, ўз ишини давом эттирувчиларнинг садоқатига сазовор бўлиш учун интилувчан одам бўлган»[2].

Мухтасар қилиб айтганда, халқимиз узоқ асрлардан буён қадрланиб келадиган мумтоз шоир ва аллома Бобурнинг ижоди айни замонда Ўрта Осиё халқлари билан қўшни Афғонистон, Ҳиндистон халқлари ўртасидаги қадимий тарихга эга бўлган муносабатларнинг узвий халқаси бўлиб келди ва шундай бўлиб қолмоқда.

Заҳриддин Муҳаммад Бобур жаҳонга машҳур бўлган «Бобурнома» асарини яратади ва унда Мовароуннаҳр, Хуросон, Ҳиндистон халқлари тарихи, урф-одат ва анъаналарини, миллий қадриятларини, тарихий шахсларни, мамлакат табиат лавҳалари, ҳайвонот дунёси, ўша даврдаги бир қатор фанлар жўғрофия, наботот, этнография, ҳарбий усул ва бошқа илмий ютуқларини акс эттиради. Бобурнинг маънавий-маърифий қарашларида Ватан туйғуси салмоқли ўрин тутади. Бобур ўз ҳаёти ижодида Афғонистон ва Ҳиндистонда давлатни бошқариб турган ҳолда, умрининг охирига қадар киндик қони тўкилган юртини унутмайди. У ўз она диёрини ҳаддан зиёд севади, Ватандан жудо бўлганидан ғам-алам чекади. Ватан соғинчи Бобур учун чексиз умид, чуқур хаёл бўлиб қолади. У Ҳиндистонда ўзини бир томондан катта давлатнинг ҳукмдори, иккинчи томондан эса ёру диёридан жудо бўлган бир ғариб мусофир бўлган киши деб ҳис қилади.

Бобур давлат, салтанатга эга бўлди, лекин унинг қалбидаги Ватанига бўлган садоқатини, она-тупроғига, халқига бўлган меҳр-муҳаббатини енга олмади. У барпо этган салтанат ва давлатни ўз диёрида барпо эта олмаганидан азият чекади. Унинг қатор шеърларида ушбу ҳолат ўз ифодасини топади:

Чархнинг мен кўрмаган жабру жафоси қолдиму?!
Хаста кўнглим чекмаган дарду балоси қолдиму?!
Мени хор этти-ю қилди муддаини парвариш,
Даҳри дунпарварнинг ўзга муддаоси қолдиму?!
Мени ўлтурду жафои жавр бирла ул қуёш,

Эмди тургузмак учун меҳру вафоси қолдиму?!
Ошиқ ўлғоч кўрдим ўлимни ўзимга, эй рафиқ,
Ўзга кўнглимнинг бу оламда ҳароси қолдиму?!
Эй кўнгул, гар Бобур ул оламни истар, қилма айб,
Тенгри учун де бу оламнинг сафоси қолдиму?![1]

Дунё яралибдики, инсоният озодликка, ҳурликка интилади. Туғилиб ўсган заминини, она тупроғини муқаддас билиб, уни ёт нигоҳдардан ҳимоя этмоққа чоғланади. Турон юртининг закий, улуғ, аллома ва ўз номидек шер ўғлони Бобур Мирзонинг ҳам дилидаги бирдан-бир ўчмас маёғи, орзуси Ватанини озод кўриш эди. Ўзи айтганидек, бу йўлда унинг асрларга туташ фиғонлари қолди, армонлари қолди[1]:

Қайғунгни чека-чека қарибтур Бобур,
Раҳм айлаки ўзидин борибтур Бобур,
Норанж юборди сангаким билгайсен,
Яъники, бу навъ сарғарибтур Бобур.

Дарҳақиқат, Бобурни умр бўйи изтиробга солган Ватан соғинчи ва армонни англагандек бўламиз.

Бобур номидаги халқаро жамғарма раёсатининг аъзоси, тарих фанлари номзоди, профессор Сайфитдин Жалилов «Бебаҳо меросимизни излаб» номли мақолласида дунёнинг 20 дан зиёд мамлакатга уюштирилган экспедициялар натижасида ноёб илмий маълумотлар тўпланганлиги, 30 дан ортиқ видеофильм суратга олинганлиги, 11 та китоб нашр этилганлиги ҳақида сўз юритади. Шунингдек, Афғонистон ва Ҳиндистонга экспедициядан кўзланган мақсад Бобурнинг Қобул шаҳри яқинидаги қабрини зиёрат қилиш, ўрганиш эди.

Учрашувлардан бирида Ҳиндистон парламенти аъзоси, профессор Сайфиддин Соод сўзга чиқиб, жумладан шундай дейди: «Ҳиндистонда бобурийлар ҳукмронлик қилган давр мамлакатимиз ва халқимиз тарихида ўчмас из қолдирди. Бобур ва бобурийлар сулоласи даврида бунёд этилган муҳташам саройлар ҳозирча Ҳиндистон шаҳарлари кўркига кўрк қўшиб турибди. Бобур авлодлари мамлакатимизга ислом цивилизациясини олиб киришди. Бу фан, маданият ва санъатнинг гуркираб ривожланишига сабаб бўлди. Айнан ўша даврда кўплаб мактаблар, касалхоналар, боғ-роғлар барпо этилди, каналлар қазилди, қишлоқ хўжалиги тараққий этди. Бу жараён инглиз босқинчилари мамлакатимизни босиб олгунича давом этди…»[3]. Шунингдек, экспедиция аъзолари Лоҳур шаҳридаги музей директори Сайфур Раҳмон Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва унинг авлодларига бағишланган экспонатлар билан таништирганлиги муносабати билан экспедиция аъзоларига илмий изланишларига муваффақиятлар тилаб қолгани ҳақида Бобур номидаги халқаро жамғарма раёсатининг аъзоси, тарих фанлари номзоди, профессор Сайфитдин Жалилов айтиб ўтди.

Бобур Мирзо ватанига бўлган муҳаббати шундаки, у умри сўнгги дамгача жангу жадаллар ичида кечди. Унинг мақсади улуғ эди: таназзул топаётган темурийлар мавқеини қайта тиклашга интиларди. Бу йўлда кўп ранжу аламларга сабру тоқат қиларди. У, айниқса, Ҳиндистонда эканида ўз юрини, фарзандларини, яқинларини қўмсар эди. Ватан соғинчини Андижон вилояти Боғишамол туманида Мирзо Бобурнинг қабр тошига битилган қуйидаги рубоийсида ҳам кўришимиз мумкин:

Кўпдин бериким ёру диёрим йўқтур,
Бир лаҳзаву бир нафас қарорим йўқтур,
Келдим бу сари ўз ихтиёрим бирла,
Лекин боруримда ихтиёрим йўқтур.

Заҳриддин Муҳаммад Бобур Ўзбекистон мустақилликка эришгандан сўнг туғилган юртида ҳақиқий қадр-қиммат топди. Андижон, Наманган, Тошкент шаҳарларида Бобур номига кўчалар номланиб, боғлар яратилди. З.М.Бобур номидаги Андижон давлат университет, театр, кутубхоналар фаолият кўрсатмоқда. Ҳар йили Заҳриддин Муҳаммад Бобур таваллуд топган 14 февраль куни ҳурмат-эҳтиром билан хотирлаб, нишонланиб келинмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Асадова Н.. Маънавий жасорат соҳиби. буюк шоир, давлат арбоби, Заҳириддин Муҳаммад ибн Умаршайх Мирзо Бобур (1483-1530) таваллудининг 535 йиллигига методик-библиографик қўлланма. Фарғона.: 2018.

2. Ғиясов Т. «Ўзбек халқининг содиқ дўсти». “Жаҳон адабиёти” журнали, 2009 йил 11-сон.

3. Жалилов С. Бобур ҳақида ўйлар. «Шарқ». Т.: 2006.

ЎЗБЕК ХАЛҚИНИНГ ҲИНД ТАХТИДАГИ ЖАВОҲИРИ

Эргашева М.С.

ЎзМТДП Марказий кенгаши ходими

Бобурдай жаҳоний шоҳ ва улуғ шоир меросини қадрлаш орқали биз ҳам миллий давлатчилигимиз тарихи, ҳам мумтоз адабиётимиз намуналари, ҳам қатор илмий кашфиётлар моҳиятини тушунишга интилмоқдамиз. Ана шу маънавий эҳтиёжни қондириш мақсадида ижодкорлар бадиий асарлар яратмоқда, улар санъаткорларимиз томонидан оммавий саҳнага қўйилмоқда. Рассом, ҳайкалтарош ва бошқа санъат ва илм аҳли борки, Бобурнинг меросига муносиб равишда бу ўлмас ижод намуналарини тушуниш йўлларини қидиришмоқда. Ҳар бир инсон ўзлигини англашга, аждодлари ҳақида кўпроқ билишга, улар ҳаётини ўрганишга интилади. Бу борада эса тарихий асарлар беқиёс аҳамиятга эга.

Истиқлол туфайли тарихимизни ҳаққоний ўрганиш имконига эга бўлдик. Кўплаб буюк бобокалонларимиз асарлари сингари Бобур ижодида ҳам ёшларимиз учун иборатомуз жиҳатлар кўп. Унинг Ватанни севиш, ота-онага ҳурмат, дўстга садоқат кўрсатиш хусусидаги фикрлари кишига юксак маънавий сабоқ беради. Ўзбек классик адабиётининг улкан намоёндаларидан бири, ўзбек адабиётининг ривожига бебаҳо ҳисса қўшган истеъдодли олим, машҳур давлат арбоби Заҳириддин Муҳаммад Бобур мураккаб ижтимоий-тарихий даврда яшаб ижод қилган.

Ҳар бир халқнинг тарихий, маданий-миллий қиёфасини аниқ белгиловчи улуғ шоҳлари, буюк олимлари, йирик адиб ва шоирлари бўлади. Инсоният тархида Бобурчалик шахсий имкон, иқтидор ва фазилатлари беқиёс кишилар жуда кам учрайди. Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг бизга қолдирган ижодий мероси нафақат ватандошларимизниинг, балки хорижликларнинг ҳам эътиборини тортибгина қолмай хаттоки, Франция пойтахти — Парижда Темур ва темурийлар ассоциацияси ташкил этилган бўлиб, унинг иш дастурида Бобур ва бобурийлар тарихи, санъати, маданиятини ўрганиш каби бир қанча тадбирлар белгиланган экан.

Жумладан, Покистон ҳукумати ва халқи ҳам Бобурийлар тарихи, санъати, маданиятини ўрганишга катта эътибор қаратишиб, мамлакатда мавжуд Бобурийлар меросини авайлаб — эъзозлаб келаётгани ҳам диққатга сазовордир.

Шунингдек,Ўзбекистон Фанлар Академияси академиги, таниқли давлат, жамоат арбоби Пўлат Қирғизбоевич Хабибуллаевнинг Покистонга бўлган ташрифида, покистонликларнинг Бобурга бўлган ҳурматини шундай таърифлайди: “.. -Исломобод шаҳрида уларнинг ўзбек халқига қанчалик қизиқиши, қанчалик дўстлигини кўрдик - Улар бизга шундай фикрни айтишди. “Бизнинг тарихимиз ўзбек халқининг тарихидан келиб чиқади, чунки бизга улуғ Бобур, Бобур авлодлари маданиятни, тилни, санъатни, бизни урф-одатимизни олиб келган”. (Покистон, 1992 йил)

Бобур жаҳон сиёсатида ҳам ўчмас из қолдрибгина қолмай, у олиб борган ташқи сиёсат Бобурнинг ўз даврида моҳир сиёсатчи бўлганидан дарак беради. Бобурнинг давлат ишларида юритган сиёсати дунёнинг қатор олимлари ва тарихчилари томонидан узоқ вақтлар давомида ўрганилиб келинмоқда. Бобурийлар ташқи сиёсатини тадқиқ этишнинг назарий асосларини С.Лен-Пул, Денисон Росс, К.А.Антонова, У.Эрскин, Х.Ламб ва С.Азимжонова каби тадқиқотчиларнинг илмий-тадқиқий хулосалари бунга яққол мисол бўла олади. Бобур марказлашган барқарор сиёсий мустақил давлатга асос солди ва Хиндистон ярим оролини бирлаштирди. Америкалик тарихчи Ричард Фольтс ўз китобида бобурийлар сиёсатига шундай таъриф беради. “Ўша даврда мусулмон дунёси кўп жиҳатдан бир дунё эди” бу ерда ислом маданиятининг бирлаштирувчи куч эканини таъкидлайди. Ўша давр Хиндистон маданияти учун ёт бўлган ислом маданиятининг ёйилишида Бобур ва боборийлар сулоласи вакилларининг ўрнини алоҳида эътроф этиш жоиздир.

1991-2010 йиллар оралиғида яратилган Бобур ҳаёти ва ижоди ҳақидаги академик, илмий-оммабоп нашрлар, диссертациялар, бадиий-адабий асарларнинг ёзилиши ва тадқиқ этилиши билан бобуршунослик илми изчил шаклланди. Мазкур ишларда Халқаро Бобур жамоат фондининг муносиб ўрни бор, фонд таркибидаги

Тарихда 332 йил ҳукм сурган Бобурийлар сулоласининг асосчиси — Бобур нафақат илмда балки назму насрда хам беқиёс ўрингa эгадир шунинг учун хам баъзи асардарда Бобурга *мумтоз адабиётимизнинг ажойиб сўз санъаткори дея* таъриф берилган.

Зеро, адабиётшунослик илмининг энг қийин соҳаси аруз бўлса, у арузга оид тадқиқоти - “Муфассал” билан барча арабу форс, туркий адабиётшуносларини ортда қолдирди. Агар Аҳмад Тарозий “Фунун ал-балоға” (“Адабиётшунослик фанлари”) да юзга яқин вазнни тадқиқ этган бўлса, Бобур ўз рисоласида 536 вазнни кўрсатиб берди.

Бобур наботот — ўсимликшунослик илмида биринчи бўлиб айрим дарахт ва ўсимликларнинг икки жинслилигини қайд этди.

Тилшунос сифатида қиёсий тилшунослик илмида уч оилага мансуб тилларни қиёслаш намунасини кўрсатди.

Бобур тошбитиклари матнининг ўзи ҳам тошга ўйиб ёзган кишининг буюк иқтидори кўрсаткичи бўла олади. Бобурнинг дастхати бўлган Оббурдон қишлоғи Озаҳак булоғи бошидаги тошбитикка академик А. Семёнов “Бобур тошбитиги жаҳоннинг энг нуфузли музейлари зийнати бўла олади”, деб баҳо берган эди.

“Бобурнома”дек қомусий асар муаллифи ўзининг кенг қамровли билимини шу асар орқали исботлади. Биргина “Бобурнома”да 30 яқин фан соҳалари бўйича аниқ илмий маълумотлар жамлангани фикримиз далилидир. Унда муаллифнинг ҳаёти, дунёқараши, яшаш тарзи ҳам чиройли далил ва бўёқларда берилган. Шоҳ ва шоирнинг кузатувчанлиги, атрофдаги барча ўзгаришлар, табиатнинг нодир воқеалари, жумбоқ ва мўъжизаларини ўрганмагунга қадар изланавергани кишини ҳайратга солади. Эҳтимол, Бобурнинг ана шу ҳислати ва қарашлари “Бобурнома”га шуҳрат келтирган ва бу асар ҳозир ҳам олимлар диққат-марказида бўлиб келмоқда. Аввало, бу асар ўз даврининг мислсиз насри намунаси

ҳисобланади. Сўнгра “Вақоеъ” (“Бобурнома”)ни биз адабиётшунослик, тилшунослик, элшунослик, наботот ва жониворшунослик (зоология), тоғ-коншунослик, санъатшунослик, ахлоқшунослик, тарихшунослик асари сифатида хам мутоала қилишимиз мумкин. “Бобурнома”ни Европалик шарқшунос олимлар П. де Куртейль, Ҳ.Вамбери, Эльфинстон бу асарни қадимги рим императори Юлий Цезарнинг “Хотиралар” (асар “Галлия уруши тарихи” ва “Фуқаролар уруши тарихи” номли икки қисмдан иборат – М.Х.) китоби билан бир қаторга қўйиб баҳолаган эдилар. Европа илм аҳлига Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳақида илк бор маълумот берган француз шарқшуноси Бартолеме д’Ербело (1621–1695) ҳисобланади. Д’Ербело ўзининг “Шарқ кутубхонаси” (1697) қомусидаги “Бобур ёки Бобар” мақоласида Бобурнинг ҳаёти, унинг давлати ва саркардалик маҳорати, адабиёт ва санъатга қизиқиши ҳақида маълумот бериб ўтади. “Бобурнома”ни Европага биринчи бўлиб танитган олим эса голландиялик Витсен бўлди. Витсен “Бобурнома”дан олинган парчаларни таржима қилиб, 1705 йилда нашр эттиради. Француз шарқшунослигида Бобур ижодини ўрганиш, у ҳақида тадқиқотлар ёзиш XVIII асрнинг иккинчи ярмидан бошланди. 1773 йилда шарқшунос А. де Лонгперйе ўзининг “Асарлар” тўпламида “Хатти Бобурий” ҳақида” мақоласини эълон қилди. Муаллиф “Хатти Бобурий” хусусида фикр юритаркан, Бобур алифбоси мураккаб араб алифбосидан ўзининг соддалиги ва ёзувга қулайлиги билан фарқ қилишини таъкидлаб ўтади. Тил тараққиёти давомида содир бўлган лингвистик ҳодисаларни талқин қилишда, сўз этимологиясини ёритишда “Бобурнома” асарининг ўрни беқиёсдир.

Марказий Осиё ва Сибирда яшаган халқлар тарихи, маданияти ва адабиётини яхши билган Клапрот Европа шарқшунослигида “Бобурнома” хусусида илк бор тўлақонли фикр юритган эди. Муаллиф “Бобурнома”нинг айрим бобларини ўз тилига ўгириб, таржималарини асл нусха билан қиёсий таҳлил қилади ва асар матнининг лисоний жиҳатлари ҳақида хулосалар чиқаради.1854 йилда Парижда “Ҳозирда ва қадимда яшаган тарихий шахслар ҳаёти” номли каттагина китоб чоп қилинади. Мазкур китобдан шарқшунос М. Ланглэнинг (1763–1824) “Заҳириддин Бобур ҳаёти ва ижоди” номли мақоласи ҳам ўрин олган эди. Шундай қилиб, “Бобурнома” тарихий-эсдалик ва бадиий асар сифатида Бобурнинг ёзувчилик маҳоратини ўзида мужассам этган кўпқиррали ва теран аҳамиятга молик ёдгорлик бўлиб, фақат ўзбек насринигина эмас, балки жаҳоний насрнинг шох асарларидан биридир. Шунинг учун Янги Деҳлидаги миллий музейнинг мутасаддиси жаноб Г.Н. Пантнинг “Бобурнома”га оид мақоласини қуйидагича якунлашида ҳикмат кўп: “Ҳиндистон тарихида унинг (Бобурнинг) қутлуғ ҳизматлари чинакам буюкдир, аммо солномачилик бобидаги хизмати эса хам ундан буюк” “Бобурнома” ажойиб адабий ва тасвирий санъат асаридир, тарихий ҳужжат сифатидаги қиймати эса беўлчовдир. Амир Темур таржимайи ҳоли яъни “Темур тузуклари” кашфиёт бўлса, Бобурнинг таржимайи ҳоли яъни “Бобурнома” бу кашфиётнинг олий нуқтасидир” деб таърифлаган эди.

Бугунга келиб, Ўзбекистон, Тожикистон ва Россия олимлари томонидан XIX-XX асрлар давомида Георг Кер, Н.Илминский, О.Сенковский, М.Сале, Порсо Шамсиев, Содиқ Мирзаев, В.Зоҳидов, Я.Ғуломов, Р.Набиев, С.Азимжонова, А.Қаюмов каби олимларнинг ҳаракатлари туфайли “Бобурнома” асари ўзбек ва рус тилларига таржима қилиниб, бир неча бор нашр қилинди.

Бобур Ҳиндистонда катта ҳажмдаги давлат ишлари билан бир қаторда ўзининг адабий-бадиий фаолиятини хам давом эттирди. 1503-йилда “Хатти Бобурий”ни яратди. 1521-йилда “Муббайин ал-закот”, 1523-25-йилларда “Мухтасар”, “Харб иши”, “Мусиқа илми” (топилма), “Волидия” асарларини, 1519-йилда 1-девон “Қобул девони”ни, 1528-29-йилларда 2-девон

“Ҳинд девони”ни яратди. “Тузуки Бобурий”, “Вақеоти Бобурий”, “Воқеанома”, “Бобурнома” номлари билан машҳур бўлган асарни 1525-1530 йилларда ёзди.

Маълумки, Бобурнинг “Аруз рисоласи” асари ўзбек ва бошқа туркий халқлар шеърияти қонуниятларини ўрганишда муҳим аҳамиятга молик қўлланмалардан ҳисобланади. Аммо, бу асар қўлёзмасининг сақланиб келинганлиги илмий жамоатчиликка маълум эмас. Қўлёзманинг бир нусхаси Париждаги Миллий кутубхонада сақланиб келинаётганлиги ҳақида 1923 йил турк олими М.Ф.Кўпрулизода илк бор маълумот берган эди. Француз шарқшуноси Эдгар Блоше ўзининг Париждаги “Миллий кутубхонада сақланаётган туркий қўлёзмалар каталоги” китобида “Аруз рисоласи” асарининг ушбу қўлёзмасига ҳам тўхталиб, кенг тавсиф бериб ўтади. Таниқли олим, профессор Ҳамид Сулаймонов 1968 йил Парижда бўлганида Э.Блоше каталогида зикр этилган “Аруз рисоласи” қўлёзмасининг микрофильмини олишга муваффақ бўлган эди. Шунингдек, Э.Блоше каталогида Бобур “Девон”и қўлёзмаси ҳам кутубхона фондининг 1230 инвентарь рақами остида сақланаётгани тавсиф қилинади. Блоше таърифича, 1515 йилда Қобулда кўчирилган ушбу “Девон”га Бобур ғазаллари ва рубойилари киритилган бўлиб, ниҳоятда чиройли миниатюралар билан безатилган.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур ўз маърифий-маданий, ижтимоий фаолиятида илмли киши (устоз), илмни ўрганиш учун илм талабгори бўлиш ғоясини илгари суради. У ахлоқ-одоб ҳақидаги қарашларига яхшилик, вафодорликни энг гўзал фазилат сифатида улуғлайди, ёмонликка жафо келтируви иллат сифатида қарайди. Унинг маънавий-маърифий қарашларининг бош ғоясида эса Ватан туйғуси энг салмоқли ўринда туради.

“…У турли фазилатлар билан безанган ва мақтовли хислатларга эга бўлган бир шоҳ эди. Ушбу барча фазилатларидан шижоат ва мурувват устун турарди. Туркий шеърни Амир Алишердан кейин ҳеч ким Бобур ёзган даражада ёзган эмас”. Мирзо Муҳаммад Ҳайдар. “Тарихи Рашидий”дан. “Бизнинг шоирларимиздан ўзини Ҳайёмга ўхшатишга тиришканлари кўп. Навоийнинг, Лутфийнинг, Умархоннинг, Фазлийнинг ва бошкаларнинг “Ҳайёмона” рубоийлари йўқ эмас, бор. Лекин буларнинг ҳеч бири рубоийда Ҳайёмга яқинлаша олмади. Ҳайёмга яқинлашишга муваффақ бўлган бирдан-бир шоир Бобур Мирзодир”. Абдурауф Фитрат.

“Бобур дилбар шахс эди. Уйғониш даврининг ажойиб султони, кучли, тадбиркор киши бўлиб, санъатни, адабиётни, гўзалликни севарди”. Жавоҳарлаъл Неру. “Ҳиндистоннинг кашф этилиши” китобидан.

“Бобур феъли-сажиясига кўра Цезарга қараганда севишга арзигуликдир. Унинг манглайига юксак фазилатли инсон деб битиб қўйилган”. Эдуард Холден, инглиз тарихчиси.

“Саховати ва мардлиги, истеъдоди, илм-фан, санъатга муҳаббати ва улар билан муваффақиятли шуғулланиши жиҳатидан Осиёдаги шоҳлар орасида Бобурга тенг келадиган бирорта шоҳ топилмайди”. Уильям Эрскин,“Бобурнома” таржимони.

“Мирзо Бобурнинг Ҳиндистондаги қудрати унинг босиб олган ерлари билан эмас, у ҳинд халқининг кўнглида уйғота олган ҳурмат-эҳтиром билан ўлчанади”. Қамар Раис, ҳинд жамоат арбоби ва адабиётшунос олим.

Бобурнинг рубоийлари унинг шеърияти чўққисидир. Бобурдан олдинги ва кейинги шоирлар бу бобда унга ета олмаганлар. Умар Хайёмнинг рубоийлари каби унинг рубоийлари ҳам фалсафий фикрларга бой, шаклан мукаммал эди. Ойбек.

Бобур ўзбек адабиётида лирик жанрларнинг ривожига катта хисса қўшди. Унинг лирик мероси ҳажми унча катта бўлмаса-да мавзу доираси, шаклий такомили ва бадиий томондан ғоят гўзал ва мукаммаллиги билан ҳам ажралиб туради. Саидбек Хасан.

Бобур ботирлигининг чеки бўлмаган, унинг бутун ҳаёти жасорат намуналари билан тўлиб-тошиб ётибди. Н.И.Веселовский.

Бобур Мирзонинг соф, содда, мардона, айни вақтда ғоят фусункор ижоди ҳам унинг хоксор ва барчага баробар юрагидан яққол бир нишонадир. Айтингчи, бизнинг беш аср наридаги ўтмишимизда яшаб ижод қилган шоиру адибларимиздан қайси бирининг асарларини бугун таржимасиз ёки ҳар турли "насрий баён"ларсиз тушуниш мумкин? Бу рўйхат жуда қисқа бўлиши ва унинг бошида Зиҳириддин Муҳаммад Бобурнинг номи туриши табиийдир. Хайриддин Султон.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур тийрак ақл, қомусий билимга эга бўлиши билан бирга, одамларни ўзига жалб қила биладиган, ташкилотчи, мард, чидамли, виждонли инсон эди. У жангларда сафнинг олдида борса, қийин шароитларда ҳамма билан бирга бўлиб, бор машаққатни баҳам кўрар эди. Исматулла Абдуллаев.

Хулоса ўрнида шуни айтиш жоизки, Бобур — буюк шоҳ, мумтоз шоир, назариётчи адабиётшунос, фақиҳ, тилшунос, санъатшунос, этнограф, ҳайвонот ва наботот оламининг билимдони сифатида кўп қиррали фаолият ва ижод соҳиби бўлибгина қолмай ўз даврининг, кучли маънавий жасорат соҳиби, мумтоз адабиётнинг сўз санъаткори, ўзбек халқининг ҳинд тахтидаги жавохири эди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйҳати

1. Бернье Ф. История последних политических переворотов в государстве Великих Моголов / пер. с французского Б. Жуховецкого и М. Томара. – М. ; Л. : Соцэкгиз, 1936.

2. Бобур ва Бобурийларнинг жаҳон маданияти тарихида тутган ўрни / Халқаро илмий анжуман материаллари. – Т. : ЎзРФА, 2008.

3. Низомиддинов И. Ғ. Ҳиндистонда ислом: тарих, ижтимоий-сиёсий ҳаёт ва ҳинд-мусулмон маданияти. – Т. : ЎзРФА, 2008.

4. Семёнов А. А. К вопросу о культурно-политических связях Бухары и Великомогольской Индии : материалы 2 -го совещания археологов и этнографов Средней Азии. – М. : АН СССР, 1959.

5. Синха Н. К., Банержи А.Ч. История Индии. – М., 1954.

6. Ўзбек дипломатияси тарихидан / Жаҳон Иқтисодиёти ва дипломатия университети. – Т., 2003.

7."Бобурни излаб", «Мерос» илмий-маърифий маркази. Андижон 1993

8. Бобур. Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома / Т.: Юлдузча нашриёти, 1990

9. Бобур. Танланган асарлар / Нашрга тайёрловчилар:Раҳмонов В., Ҳотамов Н./ -Т.: Ўқитувчи нашриёти,1983 Бобур. Заҳириддин Муҳаммад. Китобу-с-салот/.Масъул муҳаррир А.Рустам/.-Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти,

10. 1993 Бобур. Заҳириддин Муҳаммад. Китоб-л-ҳам:/ Бобурнинг "Мубаййин" асарига кирган китоб.-Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993

VI-ШЎЪБА. БОБУРНИНГ ЖАҲОН ЖАНГ САНЪАТИ ТАРИХИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ

БОБУРНИНГ ЖАНГ САНЪАТИ ТАРИХИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ БОБУРНИНГ «ҲИНД ЮРИШИ» ҲАҚИДА

Низомиддинов Н.Ғ.

Ўзбекистон халқаро ислом академияси ўқитувчиси, филология фанлари доктори

Аёнки, Бобурнинг «Ҳинд юриши» ва унинг сабаблари аллақачон дунёнинг кўпгина олимлари томонидан таҳлил ва тадқиқ қилинган. Масалан, инглиз шарқшуноси Денисон Росс Бобурда Ҳиндистонни забт этиш орзуси, унинг Кобулдаги янги давлати ишларини тартибга солиш вақтида йиллик солиқни йиғишдаги муваффақиятсиз уринишларидан кейин туғилган, деб ҳисоблайди. Ҳолбуки, тарихий ҳужжатларда Бобур даврига тааллуқли Афғонистоннинг ички аҳволи ҳақида маълумотлар ниҳоятда чекланган бўлиб, «Бобурнома»-дан ташқари, «ҳукмдорнинг афғон қабилаларига нисбатан юритган ички ва ташқи сиёсатини етарли даражада очиб берувчи бирорта манба йўқ.

Бобурнинг ўзи берган гувоҳликлари эса бор-йўғи 910 (1504–1505) ва 914 (1508–1509) йилларга тегишли», холос [1:10-11б.].

Бу борада С.Лень-Пул Бобурнинг Ҳиндистонга юришини узоқ йиллар кўзлаган режасининг натижаси эканлигида кўради:

«У кўп йиллар давомида Ҳиндистонга юриш қилишни ўйлаган ва фақат 1526 йилга келиб Лоҳурни қўли остидаги турклари билан Панжоб орқали иш-ғол қилишга қарор қилган».

Ёки Уильям Эрскин Бобурнинг бу юришини бобокалони Темурнинг Ҳин-дистонга қилган сафари ҳақида эшитган-билганларининг оқибати дея, шун-дай хулосалаган:

«Эҳтимол, ёш шаҳзоданинг бу чекка қишлоқдаги кекса кампирдан ҳинд мўъжизалари ҳақида эшитган ҳикоялари унинг алангаланган қалбида ўша узоқ ўлкага саёҳат қилиш ҳавасини уйғотгандир» [5:28б.].

Лекин рус муаррихи К.А.Антонова фикрича, «Бобур яна Кобулга қайтгу-дек бўлса, унча катта бўлмаган ҳудуднинг ҳокими бўлиб қолишини англар-ди. Шу боис унинг ўзи барпо этишни истаган қудратли давлати учун асосий марказ вазифасини Ҳиндистон ўташи керак эди» [2:76б.].

Дарвоқе, «Бобур, - Ҳаролд Ламб назарида, - ёши қирқ иккига кирганли-гига қарамай, ўттиз йиллик муттасил кураш ва саргардонликдан кейин ҳам ақалли бирорта ўз асосий қўним ерига эга бўла олмаганди. Шу сабабдан унга, ҳали ҳам шижоати ва куч-қуввати бўлганлиги учун Кобулнинг путури кетган «деворлар» билан чекланган сарҳадлари тор кўринарди» [7:237б.].

Ва ниҳоят, юқорида биз танишган фикр-мулоҳазалардан фарқли ўлароқ ўзбек олимаси С.Азимжонова, ушбу масаланинг ечимини бевосита Бобур-нинг ўз сўзларидан излаб ва изоҳлаб, бу хусусда ортиқча исбот талаб қил-майдиган йўлни танлаган. Зеро, қуйидаги матн парчасидан Бобурнинг ўша вақтдаги аҳволи ва юриш борасидаги стратегиясини нисбатан аниқ тасаввур қилиш мумкин:

«Бир мен Қобулда қолиб эдим. Душман бисёр қавий, биз кўп заиф, не маслаҳат қилмоққа эҳтимол, не муқовамат қилмоққа мажол. Мунча қувват ва қудрат. Ўзимизга бир ер фикрини қилғулукдур ва бу миқдор фур-жа ва фурсатга қавий душмандин йироқроқ

айрилгулукдур, ё Бадахшон жониби, ё Ҳиндустон сори жазм қилмоқ керак. Бу икки тарафдин бир тарафга бормоқни жазм қилмоқ керак.

Қосимбек ва Ширимбек тавобин билан Бадахшон бормоққа барин эрдилар...Мен ва баъзи ички беклар Ҳиндустон тарафи бормоқни таржиҳ қилиб, Лағмонга мутаважжуҳ бўлдук...» [4:133б.].

Бир қарашда, тўғри, «Бобурнома»дан келтирилган парча Бобурни Ҳиндис-тон юришига ундаган сабабларни қанчалик ойдинлаштирса, унинг сафар вақтини аниқлаш борасидаги шахсий режаларини ҳам шунчалик ёритиб бера олади». Аммо бу юриш мақсади шу билангина чекланмай, Бобурга ўз режа-сини амалга ошириш учун қулай вазият яратган яна шундай сиёсий ва маънавий омиллар ҳам бор эдики, улар қуйидагилардан иборат:

1. Қарийб йигирма саккиз давлатни забт этиб, буюк бир салтанатга асос солган темурийлар хонадони насли наздида «...Темурбек авлодининг илки-даги вилоятлар» сирасига «Ҳинд» ҳам кирарди.

2. Ўша давр қонунчилиги, яъни диний жиҳатдан мерос тушунчасининг устуворлик хусусияти эгалик туйғусини маънавий рағбат ва масъулият билан кафолатлар эди.

3. Бу ҳар икки сабабнинг мантиқий якуни – «зўр била ё сулҳ била» ҳал қи-линиши муқаррар бўлган масалага бориб тақаларди, яъни :

«Чун ҳамиша Ҳиндистон олмоқ хотирда эрди, бу бир неча вилоятлар-ким, Беҳра ва Хушоб ва Чаноб бўлғай, неча маҳал турк тасарруфида эди, буларни худ мулкимиздек тасаввур қилур эдук, зўр била ё сулҳ била ўзи-мизнинг мутасарриф бўлуримизга мутаяққин эдук».

Бобур 1526 йилнинг ноябрь ойида Кобулдан бошланган Ҳиндистон юри-шида дастлаб Панжоб ҳокими Давлатхон билан тўқнашди. Бу урушда мағлуб бўлган ҳоким ўзини вассал деб тан олгач, Бобур Деҳли музофотидаги Па-нипат майдонида нисбатан кичик қўшин билан Иброҳимшоҳнинг «бир лакҳ черик» – юз минг аскар ва жангари филлардан тузилган қўшинига қарши жангга чиқди. У бу урушда тўп ва «тўлғама усули»дан моҳирона фойда-ланиб, ўзига қараганда мислсиз кучли рақибни тор-мор келтиришга эришди[1]. Лекин ўзининг «аждодидан мерос қолган мулки» учун бўлган жангдаги бу ғалаба кейинчалик шоир-Бобур томонидан шундай баҳоланди:

Толеъ йўққи жонимға балолиғ бўлди,
Ҳар ишники айладим хатолиғ бўлди.
Ўз ерни қўйиб Ҳинд сори юзландим,
Ё раб, нетайин, не юз қаролиғ бўлди.

Бу юриш арафасидаги маҳаллий аҳолининг руҳияти ва кайфияти ҳамда умуман ҳинд жамиятида ҳукм сурган ҳолатни америкалик муаррих Персивал Спейер мухтасар равишда шундай таърифлаган:

«Ҳиндуизмда интеллектуал ва социал фаоллик мавжуд бўлишига қарамай, у ҳар икки жиҳатдан ҳам ўзига нисбатан терс ғоялари, куч-қудрати ва тажри–басига эга исломга мослашганлиги учун ҳиндлар ўша кезлари бирор жиддий фаолият олиб боришга тайёр эмасди» [8:21б.].

Панипат майдонидаги ҳал қилувчи жангдан кейин Бобур яна икки бор йирик ҳарбий тўқнашувда ғолиб чиқди. Бири, Рано Сангарам қўшини ва иккинчиси Гограда афғон ҳамда бенгал феодаллари билан бўлган жангларда. Мазкур воқеалар «Бобурнома»да қайд этилиб,

[1] Душман билан жангга киришдан олдин уни тўпга тутиш.

унда муаллиф-саркарда ўз ра–қиблари – мухолиф кучларнинг заиф тарафлари қатори, уларнинг ўзига хос қаҳрамонона жангари хусусиятларига ҳам муносиб муносабат билдирган.

Фикримизча, шу ерда Ибн Баттутанинг «Саёҳатнома»сида берилган қуйи-даги маълумотга мурожаат этиш жоиз туюлади. Чунки унинг «барқарорлик-да яшаш учун ҳиндларни зўрлаб исломга ўтказиш кутилган натижа-ларни бермаганлиги ва шундан сўнг, талай сезгир ҳукмдорлар уларга бағ-рикенглик билан муносабатда бўлиб, ниҳоят, туб аҳолидан давлат ишла-рига жалб этишга тушганликлари» хусусидаги қайди, бўлғуси «ҳинд тах-ти» соҳиби ички сиёсатининг ҳам асосий йўналиши бўлган эди. Яъни Бобур Ҳиндистонда ўз ҳукмдорлигининг бошидан ҳокимият мавқеини мустаҳкам-лаш ва давлат ишларини жадал юритиш ниятида асосий эътиборни узоқни кўзловчи фотиҳ учун зарур бўлган ижтимоий-иқтисодий муаммоларни бар-тараф қилишга қаратди. У Иброҳимшоҳ даврида «жабрланган афғон саркар-далари», қабила бошлиқлари ҳамда ўзга хайрихоҳлик билдирган ҳинд ва бошқа мулкдорларни мансаб-мартаба бериш бадалига давлат ишларига торт-ди. Бунда фотиҳнинг ёшликдан давлат ишларини юритиш соҳасидаги орттир-ган тажрибаси ва олган сабоқлари жуда қўл келди. Унинг давлат арбоби ва билимдон сиёсатчиларга хос хусусиятлари Шимолий Ҳиндистон шароитида энг нозик – ҳиндларга нисбатан диний мухолифатдан воз кечиш каби маса-лага тўғри ёндашишда ҳал қилувчи роль ўйнади.

Бу тадбир натижаси сиёсий барқарорлик ва феодал даромадининг икки асосий қисми – савдо ҳамда ҳунармандчиликни ривожлантириб, қишлоқ хў-жалигининг тикланишига имкон берди. Шаҳарларда ободончилик, таъмир-лаш, боғу роғлар барпо этиш ва экинзор ерларда суғориш ишларининг йўлга қўйилиши, Самбҳал ва Аграда масжиду мадрасаларнинг қурилиши Бобур-нинг ўз давлатида амалга оширган сиёсий, ижтимоий ва иқтисодий ислоҳот-ларининг илк нишонаси эди.

Бундан буён ҳам шу зайлда барча режаларни поёнига етказиш учун ички вазият, аввало, узоқ вилоят ва қўшни давлатлар билан тинч-тотув яшашни та-қозо қиларди. Долзарб сиёсий масалаларнинг моҳиятини тушуниб етган Бо-бур узоқ-яқиндаги дин пешволари ва давлат арбобларига совға-саломлар йўл-лади. Унинг Эрондаги баъзи ўз хайрихоҳларига кўрсатган марҳаматлари қуд-ратли қўшни мамлакат билан дўстона муносабатда қолиш ниятида эканли-гини билдирарди.

Ушбу фикр тасдиғини 1526 йили Хўжа Асаднинг Тахмасп саройига элчи қилиб юборилганлиги ва шу йилнинг оёқларида Эрон шоҳининг туркман миллатига мансуб Сулаймон номли вакилининг Ҳиндистонга келганлигидан билиш мумкин. «Шоҳ Тахмаспнинг Шайбонийхонга бўлган муносабати ва уни жангда тор-мор келтирилганлиги ҳақидаги Ҳумоюн Мирзо ва бошқа манбалардан олинган хабарларнинг «Бобурнома»да зикр этилиши Бобурнинг Хуросон ва Турондаги воқеаларни зўр қизиқиш билан кузатганлигини кўрса-тади» [9:18-19б.].

Бобур ўз давлатининг келажагига ишониб, зурриётлари эртами-кечми истилочи эмас, маҳаллий ҳукмдорлар сафига қўшилиши ҳамда салтанатнинг узоқ ўлкалардаги давлатлар билан савдо ва дипломатик алоқаларни ўрна-тишига умид боғлаган. Йўқса, унинг масофа нуқтаи назаридан Россиядек олис бир мамлакат билан алоқа боғлашга қилган ҳаракатини яна қандай ба-ҳолаш мумкин? Баъзи солномалар маълумотича, Бобур Россия билан дўстона муносабат ўрнатиш мақсадида бўлган ва «...биринчи ҳинд элчиси Москвага 1533 йили – «Бобур вафотидан кейин» етиб келган. У мусулмон савдогари бўлиб, ўзи билан бирга Буюк мўғуллар давлати асосчисининг дўстлик ва биродарликни таклиф этувчи ёрлиғини олиб келган» [3:133б.].

Бобур нисбатан қисқа вақт ичида, мамлакат ичкарисида қўллаган сиёсати билан боғлиқ ислоҳотларидан ташқари, Кобул, Қундуз, Бадахшон ва Ганг водийсидаги бир неча вилоятларни ўзига бўйсундириб, «Амударёдан то Бен-галия чегараси ҳамда Ҳимолайдан то Гвалиоргача чўзилган катта ҳудудда ўз ҳукмронлигини ўрнатди». Унинг шунингдек, салтанат иқтисодий қудрати-нинг бош омили – савдо-сотиқ масалалари ҳақида ҳам жиддий ўйлаганлиги «Бобурнома»да қайд этилган ўша давр бозор иқтисоди ва муносабатлари хусусидаги маълумот ва хулосалардан маълум:

«Қошғар ва Фарғона ва Туркистон ва Самарқанд ва Бухоро ва Балх ва Ҳисор ва Бадахшондан карвон Кобулға келурлар. Бисёр яхши савдохона-дир. Савдогарлар Хитой ё Румга борсалар, ушмунча – ўқ савдо қилғай-лар...Қуйи Ҳиндистондан ўн, ўн беш-йигирма минг уйлук карвон Кобулға келур. Ҳиндистондин оқ рахт ва қанд ва набот ва шакар ва ақоқир кел-тирурлар. Хуросон ва Ироқ ва Рум ва Чин матои Кобулда топилур. Ҳиндистоннинг худ бандаридур».

Агар Бобурнинг давлатчилик фаолиятига муқаддима сифатида унинг за-мондоши Ҳасанхожа Нисорийнинг «Музаккири аҳбоб» тазкирасидаги таъ-рифга келсак, унда шундай ёзилган:

«...Чиғатой султонларининг энг сараси ва зўр шижоатлиси эди. Шам-шир зарби билан Мовароуннаҳр мамлакатларига эга бўлиб, уни сақлаб қолишда кўп саъй-ҳаракатлар ва жонини аямасдан жаҳду жадаллар кўрсатди. Мардона тўқнашувлар қилди, аммо тақдир ўқига тадбир қал-қони дош бера олмагач, бирор натижа чиқара олмади.

Мулк қўлдан кетгач, табъ тўтиси ҳинд шакаристонига майл бил-дириб, денгиз мавжли эътиборини Ҳиндистон мамлакатларини эгаллаш-га сарф қилиб, қоронғулик ўлкасини қуёш ёғдули қиличи шуъласи нурлари билан чароғон этиб, феруз бахт билан шоҳликнинг феруз тахтига ҳазрат Деҳлида комрон ўтирди».

Аммо афсуски, ҳозиргача Бобурнинг давлатчилик фаолияти фанда кам ўрганилган мавзулигича қолиб келмоқда. С.Азимжонова таъкиди бўйича, Ғарбий Европа ва ҳинд тарихий адабиётида «Бобур администратор ва давлат арбоби» мавзуида бирор амалга оширилган жиддий тадқиқотни топишимиз қийин. Чунки унинг фаолияти ҳақида «у давлат арбоби эмас, балки фақат саркарда ва адиб бўлган» деган фикрлар юради. У ҳолда хорижий муаррих-ларнинг хулосаларидан шундай бир савол туғилади:

«Борди-ю, масалага мантиқ юзасидан ёндашилса, яъники, ҳар қандай экилган дарахтнинг сифати фақат унинг кейинчалик берган ҳосилига қараб белгиланса, пандит Жавоҳирлал Неҳру таърифлаган «ягона Ҳиндистон ҳа-қидаги кўҳна орзуни қайта тиклаган Акбар» даври, худди ўша Бобурнинг давлат арбоби сифатида ҳинд сарзаминига ўтқазган ниҳолининг меваси эмасмиди?»

Айни шу саволга ҳаққоний жавоб бериш учун мантиқ яна бир оз мозийга қайтиб фикр юритишни тақозо қилади. Сабаби, бизнингча, мазкур давр ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий омиллари юзасидан баён этилган илмий лавҳаларда Бобурнинг шахсиятига хос хусусият ва фазилатлар нисбатан сояда қолиб кетгандек. Ваҳоланки, Гулбаданбегим хотирасида сақланган ва-зиятда Бобурнинг «Ҳинд сари чорлаган мақсадининг амалга ошишида даст-лаб унинг на ўз укалари ва на сарой аҳли орасида қўллаб-қувватлаган суянчи бўлмаган». Демак, бу муаммони ҳал қилишда, асосан, бўлғуси «Ҳинд тахти соҳиби»нинг интуитив ва интеллектуал феномени ўз ҳал қилувчи ролини ўйнаган. Ва бу ҳақиқатни қуйидаги воқеликлар мисолидан сезиш қийин эмас.

«(Ҳазратнинг-Н.Н) доим Ҳиндистонни қўлга киритиш ҳаваслари бор эди. Амирларнинг сустлигидан ва биродарларининг ноаҳиллигидан бу ор-зуга эриша олмаган эдилар. Охирги

вақтда амирларнинг ичида шоҳ-нинг бу мақсадларига хилоф сўз айта оладиган ҳеч ким қолмагач, тўққиз юз йигирма бешинчи йили шоҳ икки-уч марта жанг қилиб, Бужурни эгалладилар».

Жангда қатнашган Бобур ва Иброҳим қўшинларининг сони тўғрисидаги илмий нашрларда зикр этилган рақамларда баъзи фарқланишлар кўзга таш-ланади, масалан:

1. Док.У.Рашбурк ҳисобида Бобур қўшинининг умумий сони 8 минг ас-кардан ошмаган.

2. А.Л.Шриваставнинг ёзишича, Бобур Панипатда 25 минг аскар билан жангга кирган.

3. Л.П.Шарма маълумотича, Иброҳим қўшинининг сони 100 минг эмас, 40 минг бўлган.

4. Гулбаданбегим хотираси бўйича эса:

«Султон Иброҳим юз саксон минг отлиқ аскар ва бир минг беш юзга яқин ҳарбий филга эга эди. шоҳ ҳазратларининг аскарлари савдогар-лар ва яхши-ёмон билан қўшганда ўн икки минг кишидангина иборат бўлиб, булар ичида жангга қатнаша оладигани фақат олти-етти минг киши эди...».

Аммо Бобурнинг ўзи берган маълумот хорижий манбалардаги рақамлар-дан буткул ўзгача:

«Аввал навбатким, Бҳирага келдук, минг беш юз, ниҳояти икки минг киши бўлған эдук. Бешинчи навбатким келиб, Султон Иброҳимни босиб, Ҳиндустон мамоликини фатҳ қилдим, ҳеч қачон Ҳиндустон юрушида мунча черик била келилмайдур эди. Навкар ва совдар ва чокар жамиъ че-рик била бўлғонлар ўн икки минг киши қаламға келди».

Панипатдаги жанг тарихига доир тадқиқотларда наинки фақат қўшинлар сони, балки икки тараф ўртасидаги фатҳ ва мағлубият сабаблари бўйича ҳам турлича ёндашувлар мавжуд. Баъзи муаррихлар Бобур эришган ғалабани асосан унинг қўллаган ҳарбий усуллари муваффақиятида кўрадилар. Ва шун-дай тадқиқотлар ҳам борки, уларда муаллифлар жангдаги ҳал қилувчи ролни фотиҳ Бобурга хос ҳар уч жиҳат – ақлий, жисмоний баркамоллик ҳамда ҳар-бий иқтидорнинг муштараклиги асосида талқин этганлар. Шулардан бири бўлган ҳиндистонлик олим Л.П. Шарма олдин Бобур шахсияти, сўнг унинг ҳарбий иқтидорига тааллуқли ва таърифга муносиб томонларини шундай

таъкидлаган:

«У жисмонан жуда бақувват бўлиб, ҳатто қалъа девори устида икки киши-ни қўлтиқлаб ўта оларди. Ҳиндистонда дуч келган ҳар қандайин дарёдан су-зиб ўтар ва саксон милча масофани дам олмай бир кунда босиб ўтар эди. У шайбонийлардан урушнинг «тўлғама» усулини, мўғуллардан пистирма қў-йишни ўрганди. Афғонлардан порохли милтиқ ишлатишни эгаллаган бўлса, эронийлардан тўпни ишлатишни ва турклардан суворийлар сафидан унумли фойдаланишни ўзлаштирди» [6:10-21б.].

Яна, Бобурнинг «Ҳинд»ни олишидаги саркардалик салоҳияти ва шунинг-дек, инсон сифатидаги имон-эътиқодига доир Ҳасанхожа Нисорийнинг «Му-заккири аҳбоб» тазкирасидаги маълумотлар шуниси билан эътиборлики, уларда ўша даврда юз берган воқелар нафаси ҳамда унинг қаҳрамонида

шаклланган қуйидаги хулосалар руҳияти яққол сезилиб туради:

Он чи саъй аст, ман талабаш бинамудам,
Ин қадар ҳаст, ки тағйири қазо натавон кард.

Неки саъй-ҳаракат бўлса, барини қилдим,
Ва билдим, тақдир битигин ўзгармаслигин.

«шоҳнинг нақшбандия олий хонадонига иродат нисбати бор эди. Юқори шон-шавкатли бобоси ва салтанат нишонли отасининг ҳазрат Хожа Аҳрорга иродати бўлган. Бобур шоҳ ҳам бу улуғлар хонадонига нисбатан иззат-икромни соатма-соат оширар ва бирон дақиқа бу ишни канда қилиб, ғафлатда қолмас эди. Барча дарвешларга лутф эшигини очиб, ниёзмандлик юмушини бажо келтирарди».

Ғолибнинг бирма-бир санаб ўтилган ижобий хислатлари ичида яна бир ҳукмдор саркардалар учун камёб жиҳати шу эдики, унинг ўз мулозиму нав-карларига ғамхўрлиги, уларга нисбатан қўли очиқлиги, «Бобурнома» саҳифа-ларида акс этган иссиқ ва совуққа чидамлилиги, сафар қийинчиликларида барча билан баробар азобларга дош беришда намуна кўрсатиши қўшин ичи-да мустаҳкам интизомни таъминлашга асос бўлганди. Агар Бобурнинг сар-гардонлик ва сафар йилларининг энг оғир ва ҳатто умидсиз дамларида ҳам ўз атрофидаги мулозимлари ва қўл остидаги аскарларига бўлган муносабати тамойилини мухтасар равишда бир форсий мақол мисолида мажозан ифода-ласак, унинг учун «Марг бо ёрон сур аст – ўлим ҳам дўстлар билан байрам» эди.

Бобур барпо этган марказлашган давлатнинг энг ҳаётбахш характерли ху-сусияти, яъни диний муросасозлик руҳияти, келгусида унинг зурриётларига салкам уч асрлик тарихга эга бўлган «Буюк мўғуллар» аталмиш маҳаллий – ҳинд сулоласи мақомини бахш этди.

Азим Ҳимолай тоғи ортидан келган бобурийлар сулоласининг ҳинд туп-роғида «маҳаллийлик мартабасига эришганлиги» муқаддам ва улардан кейин келган хоҳ мусулмон ёки христиан ҳукмдорлари бўлсин, уларнинг би-ртасига ҳам насиб қилмади. Деярли уч аср мобайнида бобурийлар салта-натида фуқаролар манфаатига хизмат қилган – ижтимоий-маиший, маърифий ва маданий соҳаларда жорий этилган режалар ўз маромига етганки, бу ҳақи-қат бевосита ҳинд ва хорижий тадқиқотчилар назарига тушган.

Хусусан, ҳинд муаррихи Р.П. Трипатҳий «Бобурийлар империяси тан-танасини унинг ҳарбий қудратида эмас, балки ўз сиёсатида диний эътиқод эркинлигини амалга оширгани ҳамда маданий ҳаётга катта ҳисса қўшганли-гида», деб билади.

Агар бундай хайрли ишларнинг ибтидоси тарихига қисқача экскурс қил-сак, Бобур шахсияти ва фаолиятига фанда берилган юксак баҳоларнинг яна аллақанчаси билан танишиш мумкин. Уларнинг энг характерли жиҳатлари-дан бири, ҳинд муаррихи Сайид Сабоҳиддин Абдураҳмоннинг «Мўғлия аҳд» асаридаги бобурона давлатчиликка хос диний сиёсат ва саъй-ҳаракатларнинг мухтасар баёни:

«…Бобур ўз диний эътиқодини эъзозлаб, машойих ва диндорларни иззату эҳтиром қилса-да, аммо уларни ўз сиёсий муаммоларига дохил бўлишларига имкон бермас ва фирқапарастлик хусусидаги маслаҳатларни қабул этмасди. У шунингдек, мазҳаб, табақа ва бошқа ихтилофли масалаларнинг саройда тарқалишига изн бермасди. Гарчи Бобур тақволи мусулмон бўлса ҳам «маз-ҳабий жунун»га табиати мойил эмасди. Ҳа, ҳукмдор ҳинд ва афғон амирлари салоҳиятига у қадар эътимоди бўлмаса-да, лекин уларга доим муносиб муо-мала қилиб, дўстона муносабатда бўларди.

Қисқаси, Бобур бу ерда ўз зурриётларига қуйидаги амалга ошган ислоҳот-лари натижасини қолдирди. У наинки мамлакатда сиёсий аҳволни ўзгар-тирди, балки салтанатни ғарбий вилоятлар билан бирлаштирди. Кушон ро-жаликларидан кейин Афғонистон ва Ҳиндистоннинг ўзаро алоқалари узил-ган эди.

Собиқ «турк султонлари» ҳукмронлигида чегаралар қаровсиз ҳолга туш-ганди. Бобур эса, Афғонистон ва Ҳиндистон ўртасида ўз салтанатини барпо қилиб, сўнг ўртадаги шимолий ва жанубий чегараларни мустаҳкамлади. Қачонлардир жангу жадал майдони бўлган бу сарзамин савдо-тижорат ҳамда маданият-маърифат марказига айланди» [10:285б.].

Бобурнинг Ҳиндистондаги фаолиятига доир ҳинд тарихчиси баёнида келтирилган «мазҳабий жунун» хусусидаги мухтасар, лекин аниқ нишонга олинган мавзуини яна озроқ давом эттириш керакдек кўринади. Зеро, Бобур-нинг ўз динидаги мавжуд фирқапарастликдан тортиб, то унинг Ҳиндистон-даги ўзга динларга нисбатан бўлган муносабати бизга, мантиқан, Қуръони каримдаги «Наҳл» сурасининг 125-оятини эслатади:

...وَجَادِلْهمْ بِالَّتِى هِىَ أَحْسَنُ... *

«Улар билан энг гўзал йўлда мужодала – мунозара қилинг!».

Бобур ўз давлатчилик ва ижодий ишларида наинки ҳиндлар билан муроса-созлик қилди, балки ўрта аср ислом мафкураси шароитида араб ҳарфлари-нинг ислоҳи орқали «Хатти Бобурий»ни ихтиро қилиб, манбалар хабарига кўра, янги алифбода кўчирилган «Қуръони карим нусхасини ҳатто Маккага юборишга журъат этди». «Хатти Бобурий»да Қуръони каримни кўчирил-ганлиги «Ҳумоюннома»даги қуйидаги лавҳадан тахмин қилинади, яъни:

«...Сикридаги боғда шийпон бино қилган эдилар, бу шийпонда тўрхона – юқори хужра қурдириб, унда ўтириб Қуръон ёзар эдилар».

Одатда бирор жиддий тарихий-бадиий асар тўғрисида сўзлашдан олдин, мантиқан, унинг ёзилиш сабаби аниқланади. Зеро, Бобурнинг «Вақойеъ»си ҳам шу жумладан бўлиб, ундаги бир рубоийнинг ўзиёқ муаллифнинг асарида мужассам изтиробли ҳаёти тарихининг бадиий талқини рамзидир. Рубоий руҳиятидан шоҳ-ижодкор гўё шеъриятга сиғмаган воқеликлар ва кўрган-ке-чирган азоб-уқубатларини насрда муайян бир тизимга солиб, келгуси авлод-ларга мерос қолдиришни ихтиёр этгандек...

Бу олам аро ажаб аламлар кўрдум,
Олам элидин турфа ситамлар кўрдум,
Ҳар ким бу «Воқойеъ»ни ўқур, билгайким,
Не ранжу, не меҳнату не ғамлар кўрдум.

Ўз замонаси ҳамда кейинги даврлар учун ҳам тарихий, ижтимоий-сиёсий, жуғрофий, ҳарбий ва бошқа жиҳатларда муҳим қийматга эга бўлган тахт соҳибининг «Бобурнома» асари жаҳон илмий жамоатчилиги эътиборига туш-ганидан бери ҳали-ҳамон тил, тарих, адабиёт, табиат, наботот, ҳайвонот ҳам-да ҳарб мавзулари мутахассислари диққат эътиборида.

Бобурнинг навбатдаги ижодий мероси – диннинг асосий рукнлари ва қо-нун-қоидалари тўғрисидаги ҳуқуқ илмига бағишланган «Мубаййин» нафақат исломий теология, балки шунинг билан бирга фалсафа, тарих ҳамда тилшу-нослик соҳалари учун ҳам ниҳоятда муҳим манба.

Асардаги фиқҳий, тарихий, фалсафий мавзулар юзасидан берилган таъ-рифларга қўшимча қилиб яна шуни ҳам айтиш керакки, унинг тил бойлиги ва баён услуби ҳақида тилшунос ҳамда адабиётшунос олимларнинг баҳоси жуда ҳам юксак.

Истиқлол йиллари «Мубаййин»ни ўрганиш ва унинг нашри устида иш олиб борган маҳаллий олимлар хулосаларида зикр этилишича, «муқаддам тадқиқотга тортилган асарнинг натижалари тоталитар тузум қолипи тақозоси туфайли фақат унинг сиёсий ва ижтимоий-иқтисодий жиҳатларига бағиш-ланган эди.

Ниҳоят, эндиликда «Мубаййин»нинг қиёсий матнини тузиш, бадииятини ўзлаштириш ҳамда шунингдек, унинг диний-фалсафий талқинларида мужас-сам миллий маънавий тизимга ҳамоҳанг ахлоқий асослари чуқур илмий таҳ-лилга киритилди.

Умуман, сўнги йиллардаги Бобур меросининг мустақиллик руҳида илмий-тадқиқий шарҳланиб қайта нашр қилиниши, ниҳоят, шоирнинг қалбига хос имон-эътиқоди, мақсад ва маслагини янада яқиндан ҳис этиш имконини бер-ди».

Бобурнинг Ҳиндистондаги марказлашган давлатига баҳо берганда, ўтган қисқа муддат ичидаги барча ижобий ва салбий воқеликларни ҳисобга олган ҳолдагина реал хулосага келиш мумкин. Фақат шундай услубда – «масала-нинг ҳар икки томонини ички диалектик бирликда таҳлил қилгандагина сал-кам тўрт йиллик тарихий муддат ичидаги ҳукмдор фаолиятининг асл ҳақи-қати намоён бўлади».

Азалдан бизда дунёдан кўз юмган азизу авлиёлар, олиму фузалолар номи уларнинг ибратли ва хайрли амаллари зикри билан эсга олинади. Ва эъти-қодда вожиб этилган бу анъананинг ҳикмати шундаки, ўтган аждодлар ди-ний-дунёвий фаолиятининг энг ёрқин саҳифалари доимо келгуси авлодлар учун ҳақиқий ҳаёт мазмуни инъикоси вазифасини ўтаган. Шу маънода оддий инсон ва адолатли шоҳ сифатида Бобурга хос юксак маънавий фазилатлар барча унинг илмий-ижодий, ҳарбий ҳамда ижтимоий-сиёсий фаолияти му-ваффақиятларининг гарови бўлганлиги қуйидаги саҳифалар таърифидан маъ-лум ва манзур:

«Ва маҳолдурким, ул ишоҳи қобилнинг яхшилиғларини на айтган билан ва битган билан тугангай. Лекин мужаммал буким, секкиз сифати асил анинг зотига муттасил эди: бириси, буким нажҳати баланд эди, иккимчиси, ҳиммати аржуманд эди; учумчиси, вилоят олмоғ; тўртум-чиси, вилоят сахламоғ; бешумчиси, маъмурлуғ; олтимчиси, рафоҳият нияти Тенгри таоло бандаларига; еттимчиси, черикни кўнгли(ни) қўлга олмоқ; секкизимчси, адолат қилмоқ...».

Сулоланинг Бобурдан кейинги намояндаси Ҳумоюннинг тахтга ворислиги хасталикдан бошини кўтариши биланоқ тасдиқланган. Бу воқеа шундай юз берган эди. Шаҳзода Самбалда олти ой яшаб, об-ҳавоси ёқмай дардга чалин-гач, фармойишга кўра, оғир иситма билан отаси ёнига келтирилди. Муолажа-да беморга берилган дори-дармонлар кор қилмаган. Шунда Бобурга фарзанди саломатлиги учун «дунё молларидан яхшисини тасаддуқ қилиниши керак»-лиги айтилади, хусусан, Иброҳим хазинасидан тушган олмосни! Ота эса бу йўлда барча дунё молларидан азиз ва бебаҳо ўз жонини тасаддуқ қилишга тайёрлигини билдиради:

«Тилга келдиким, дунё моли анинг ивазиға нечук бўлғай, мен анинг фи-доси қилурменким, ҳол анга мушкул бўлубтур. Ва андин ўтубтурким, мен анинг бетоқатлиғини тоқат келтургаймен. Ўшал ҳолатга кириб, уч қатла бошидин ўргулуб, дедимким, мен кўтардим ҳар не дардинг бор. Ўшал замон мен оғир бўлдум, ул енгил бўлди.

Ул сиҳҳат бўлуб қўпти. Мен нохуш бўлуб йиқилдим. Аъёни давлат ва аркони мамлакатни чорлаб, байъат қўлларини Ҳумоюнни қўлиға бе-риб, жойнишинлиғиға ва валиаҳдлиғиға насаб қилдим. Ва тахтни анга топшурдим».

Тарихий манбаларда Бобурнинг ўлимига қайси касаллик сабаб бўлган-лиги ҳақида аниқ хабар йўқ. Қизи Гулбаданбегим унинг ич касаллиги оғир-лашиб борганлиги аломатини Султон Иброҳимнинг онаси берган заҳар таъ-сиридан кўрган:

«...у бадбахт Байда ўз канизаги қўлига бир тўлча заҳарни бериб, шуни олиб бориб Аҳмад чошнагир қўлига бериб айтгинки,(шу заҳарни) қандай қилиб бўлмасин шоҳнинг хос ошига солсин, деб унга кўп ваъдалар қилди. шоҳ ҳазратлари эса бу Байда бадбахтни онам деб, ер ва жой-лар бериб, жуда қаттиқ ҳурмат ва риоя қилардилар ва унга, мени Султон Иброҳимнинг ўрнида деб билгил дер эдилар. Шунга қарамай, у мана шу ишни қилди... шоҳнинг кундан-кунга заифлашиб, озиб кетаётганлиги сабаби ўша заҳар таъсири эди...».

«Мусаввиди авроқ – варақаларни кўчирувчи» котибнинг хабарига кўра, Бобур қуйидаги санада вафот этган:

«Тўққуз юз ўттуз еттида жумодиулаввал ойини олтисида Чаҳорбо-ғидаким, ўшал шоҳ ўз қўли билан обод қилиб эрди, ҳоли мутағаййир бўлуб, бу олами бевафони падруд қилди».

Шу тариқа дунёдан кўз юмган Бобурнинг вафоти аввалига сир сақланди. Аммо охири, ҳинд амири «бирорта шонинг бошига шу каби иш тушга-нини эшитган одамларнинг бозорни талаш одатлари бор» эканлигини айт-ганда, шундай қарор қилинди: «Бир кишига қизил либос кийгазиб фил ус-тига миндирилсин ва у фил устида шундай барча ерда жар солсин:

«Бобур шоҳ ҳазратлари дарвешликни ихтиёр этиб, давлатни Ҳу-моюнга топширдилар».

Фойдаланилган дабиётлар

1. Азимджанова С. Государство Бабура в Кабуле и в Индии. (автореф. дисс. док. ист. наук.) Т.: 1969.

2. Антонова К.А. Очерки общественных отношений и политического строя могольской империи времен Акбара. М.:1952.

3. Гольдберг Н.М. Русско-индийские отношения в XVII веке (Ученые записки Тихоокеанского института) М-Л.: 1949.

4. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. «Бобурнома». Т. «Шарқ-матбаа акциядорлик компанияси» бош таҳририяти. Т.2002

5. Уильям Эрскин. Бобур Ҳиндистонда. (Ғ.Сотимов таржимаси). Т.: «Чўл-пон», 1995.

6. Шарма Л.П. Бобурийлар салтанати (Инглиз тилидан Ғ. Сотимов таржима-си) Т.: «Маънавият» 1998.

7. Harold Lamb. Babur the Tiger. Pinnacle books. New York. 1982.

8. Percival Spear. A history of India. Penguin books.1990.

9. Riazul Islam. Indo-Persian relations. Teheran. 1971.

ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУРНИНГ ҲАРБИЙ ИШ ТАРИХИДАН

Тураева Сайёра Рустамбаевна

Миллий гвардияси Ҳарбий-техник институти катта ўқитувчиси т.ф.н.

Аждодларимиз жаҳон ҳарбий санъати ривожига муносиб ҳисса қўшганлар. Буюк аждодимиз Заҳириддин Муҳаммад Бобур Ҳиндистон сарҳадларини қамраб олган катта салтанатини барпо этишида ҳам кучли тартибли қўшин хизматининг аҳамияти беқиёс эди. Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг жанг ҳаракатларида ғалабаларига унинг мустаҳкам тартиб асосида ташкил этган қўшини ва тадбиркорона маҳорат билан олиб борган сиёсати қўл келган. Бобур қўшинларининг тузилишида ўзидан олдинги ўтган аждодлари бўлган бобоси Амир Темурнинг анъанвий қўшин тартиботи сақланган бўлиб, фақат номланишларида ўзгаришларга учраганини, янада ривожлантиришга уринганини кузатиш мумкин. Марказий Осиё халқларининг қўшин тузилиш анъанлари узоқ ўтмишдан такомиллашиб келган.

Бобур қўшинида ҳар бир бўлинманинг вазифаси ва бажарадиган иши аниқ, пухта тақсимланган эди. “Бобурнома”да Қандиҳор учун бўлган жанглар тасвирида Бобур қўшининг тузилиши ҳақида яққол кўзга ташланувчи маълумотлар мавжуд. Хусусан, 1507-1508 йил воқеаларида “Қўшин саф тортган ҳолда Бобур ҳар бир бўлинмада кайси лашкарлари бош бўлганлигини таништиради. Яъни, Бобурнинг хотирлашича, … қўлидан

иш келар йигитлар ажратиб олиниб, қўшинни ҳеч маҳал онча тартиб ва насақ (интизом) била ясамайтур эдим. Ўн - ўн ва эллик- эллик битилиб, битилиб ўн улуғи ва эллик улуғи тайин этдим. Ҳар ўн ва ҳар эллик ўнг қўлда ва сўл қўлда турар ерларини билиб, уруш чоғи қилар ишлари маълум қилиб, ҳозир ва нозир эдилар. Буронғор ва жувонғор ва ўнг ва сўл қўл, ўнг ён ва сўл чопа отлонғоч бекулфат ясамоқ ва беминнат тавочи черик эли ери била ўқ (аниқ, тўғри) мутаважжиҳ (юз тутган, сафланган) бўлдилар.

Агарчи буронғор ва ўнг қўл ва ўнг ён бир маъниси бор. Вале алфоз тиғйири била ташхис мухталиф маонийға мен итлоқ (аташ, нисбат бериш) қилдим. Бобур бу бўлинмага ўзи шундай ном берганини айтади.

Бобур ўз қўшинини ўнлик ва эллик кишилик бўлинмаларга бўлганлигига ишора берилган. Қандиҳорга келгаунга қадар қўшинни интизомли тартиблаш масаласига катта эътибор қаратмаганлигини алоҳида таъкидлаб, қўлидан иш келадиган йигитлардан қўшин тузганлигини қайд этади. Бундан аён бўладики, қўшинга қабул қилинаёган аскарларни саралашнинг ҳам ўзига хос тартиби бўлган. Ҳатто қўшин сафида ҳар бир бўлинманинг турадиган жойини ҳам аниқ кўрсатилган эканлигини хотирлайди.

“… нечукким , маймана ва майсараким, “буронғор ва жувонғор” дерлар, ясолда қалбниким- “ғул” дерлар, дохоли (тегишли) эмас. Мунда бу навъ ясолни(саф, қатор қўшин) ўшул сарофате (ният, истамоқ) била буронғор ва жувонғор дейилди.

Маълумотдан англашиладики, Бобур ўз қўшинидаги бўлинмаларга ўзи ном ҳам берган. Улар сони ва вазифаси тақсимланган.

Яна “ғулким”, бошқа ясолдур, мунинг ямин (қўшиннинг ўнг қаноти) ва ясор (қўшиннинг чап қаноти)ини имтиёз учун “ўнг қўл”, “сўл қўл” битилди. Яна ғулдаким, хосса (хусусият) тобиндур (эргашувчи, бўйсунувчи), мунинг ямин ва ясорининг ўнг ён ва сўл ён айтилади. Яна хосса тобиндаким, бўй мурод эмасдур, яқин муротдур, мунинг ямин ва ясори ўнг ва сўл оталди.

Демак, ғул қўшин сафи марказни ташкил қилиб, “қалб” ҳам дейилган. Бобурнинг хос хизматидаги сарой айёнлари, энг яқин беклари, хатто ошпаз, от-улоқига қаровчи- мироҳур, узангисини тузкотини қарайдиган- рикобдор, парвоначи, қўрчи, хазиначи ва бошқа масъул лавозимдаги кишилар ҳам жойлашганлиги улар ичида ҳукмдорнинг тан сақчилари ҳам борлигига ишора берилади. Муаррих бу кишиларни умумий номда баъзан “ичкилар” , “ички беклар” деб, тилга олади.

“Буронғор: *Мирзахон, Ширин тағойи, Ёрак тағойи оға- инлари била, Чалма мўғил, Айюббек, Муҳаммадбек, Иброҳимбек, Али Сайид мўғул мўғуллари била, Султонқули чуҳра, Худобахш ва Абулҳасан оға инлари била*.” [1:225]. Демак , 10 та лашкарбоши номи тилга олинмоқда.

“Жувонғор: Абдураззоқ мирзо, Қосимбек, Тангриберди, Қанбар Али, Аҳмад элчи Бўға, Ғўри барлос, Сайид Ҳусайин Акобир, Миршоҳ қавчин. Демак, 8 та лашкарбоши қайд этилган.

Ировул: Носир мирзо, Сайид Қосим эшик оқо, Муҳиб Али қўрчи, Бобо ўғли Олловеран туркман, Шерқул қоровул мўғул оға-иниси била, Муҳаммад Али. ” 7 та лашкарбоши борлигига ишора берилмоқда.

“Ғулда менинг ўнг қўлим Қосим кўкалтош, Хисрав кўкалтош, Султон Муҳаммад дўлғой, Шоҳ Муҳаммад парвоначи, Қул Баязид баковул, Камол шарбатчи; сўл қўлимда Хожа Муҳаммад Али, Дўст Носир, Мирим Носир, Бобо Шерзод, Жониқули, Вали хазиначи, Қутлуқ қадам қоровул, Мақсуд увчи, Бобо шайх. Ғулда тамом ичкилар эди, улуғ беклардин кишилар йўқ эди. Бу мазкур бўлғонлардин ҳануз ҳеч ким беклик мартабасиға етмайдур эди”.

Маълум бўладики, мазкур даврларда “беклик” мартабаси ва мансабига лойиқ бўлиш учун белгиланган аскарлар миқдоридаги ҳарбий бўлинмага эга бўлиши лозимлиги талаб этилган. “Беклар”нинг бўлинмалари бирлашса қўшиннинг аскарларини катта ҳарбий кучини ташкил этган. Бобур ҳаётида кечган тарихий жараёнлар таҳлилидан англаш мумкинки, “беклар”нинг қўшин сафини тарк этиши, ҳарбий қудратни заифлаштирган.

Ғул қўшини сони қанчагача бўлиши мумкин эди?

Бобурномада “ .... Мирзо (Султон Ҳусайиннинг) 14 минг якка йигити бор экандур ва қирқ минглик ясоқлик йигити “ғул” экандар”, - деб маълумот берилади.

Ясоқлиқ хизмати. Ҳарбий хизматнинг бир кўриниши – “ясоқлик” бўлган. Бобурномада ясоқликнинг вазифаси – ясоқликқа таллуқ ишлар, деб, - “хадақ тўлдириш, қазмоқ ва йўл ясамоқ ва ўтун, самон хассага еткурмоқ”- эканлиги ёзилган. “Ва ҳар бирига 80 жериб [2] (ер берилур; мунддин 40 таноби “мазру” қилиб, хосилни худ бари ўзлари тасарруф қилурлар ва яхшилар аларнинг улуфасига ҳисоб қилурлар ва қолғон қирқ танобдан ортуқ эксалар мол берурлар)[1:175]. Маълумотдан биламизки, Бобур ҳарбий хизматчиларнинг ижтимоий ҳимояси масалларига ҳам эътибор қаратган. Айниқса, “Бобурнома” асарида Ҳиндистонни босиб олишдаги воқеаларни тасвирида, рақиби лашкарбоши Иброҳим Лодий шахсини тасвирида, қўмондонлар қўл остидаги ҳарбий хизматчи, аскарларга муриватли бўлишлари лозимлигига катта аҳамият беради. Мана шундай ижобий жиҳатлар Иброҳим Лодийда етишмаслигига, ҳарбий хизматчилар ички норозиликларининг устунлиги Бобурга қўл келганлиги ва ғолиб бўлганлигини алоҳида таъкидлайди.

Ҳарбий қўшин жойлашган жой қўриқлаш.Қўшин ҳарбий лагери жойлашиш ўрни ва хозирлигини кўриш муҳим масала бўлиб, уни “тавочи” лавозимидаги шахс бажарган. Тавочи – ҳарбий амалдор бўлиб, унинг зиммасига лашкар тўплаш, ҳарбий юришлар вақтида уни тўхташ манзилларида ўрнаштириш, жанг олдидан уни тартибга солиш, шохнинг буйруқ ва топшириқларини тегишли ерга этказувчи ва амалга оширувчи амалдор, адъютант вазифаси бажарган.

Қайсики жойга уруш режалаштирилса, “ўлжор” ёки “ фармон” чиқарилган ва қўшинга эълон қилинган. Ўлжор – ҳарбий юриш учун қўшинга берилган фармон ёки хабар [3:338] бўлган. Бобур жанг тактикасида бобокалони Амир Темур тажрибасига таянишга ҳаракат қилган.

“Амир Темур қўшинлари Ҳиндистонни босиб олишда Деҳли атрофида қароргоҳ қуриб, қўққисдан бўладиган ҳужумдан сақланиш ниятида хавфсизлик чораларини кўраган. Улар хандақлар қазиган, қозиқлардан тўсин ясаб, уларнинг атрофига шох-шаббалар билан беркитиб, тўсиқлар орқасидан бир- бирига боғлаб, буқаларни жойлаштирган (кечаси ҳимояланиш учун бўлса керак) , улар орқаидан қалқонлар ўрнатиб, охирида эса ўз чодирларини жойлаштирганлар.” [4:249]

Бобур даврида қўшин ҳабий лагерини “чоғдовуллуқ” хизматидаги аскарлар қўриқлаган.

Чоғдовуллуқ хизмати. “Бобурнома”да Қобул атрофидаги жанг манзараларда “ қўшиннинг тунгидам олиш манзилининг” қўриқланиш масалларига ҳам тўхталган. “.... Ул урушда бисиёр эҳтиёт қилурлар эди, ҳеч иш қила олмадилар. Мундоқ эҳтиёт қилурлар эдиким, буронғор, жувонғор, ғул, ировул ҳар қайсиси бўдаллик бўдалида тушиб, ҳар қўл (бўлинмалар) ўз тушидин яроқланиб яёқ ўрдунинг гирдиға чодирларидин бир ўқ отими йироқроқ чиқиб, кеча ўшанда ўқ бўларлар эди. Ҳар кеча дастур била чирик элини чиқарилур эди. Ичкиларидин уч-тўрти машъал била ҳар ахшом навбат билан эвирулур эдилар. Мен ҳам (Бобур) бирор навбат эвирулур эрдим. Чиқмоғон кишининг бурнини тешиб, черикдин

эвртур эрдук Черикни олти бўлак қилилиб эди. Ҳар бўлакка кеча-кундуз чоғдовуллуқ навбати эди. ”[1:157]. Маълум бўладики, Ҳар бир бўлинмадан дастур тамойил асосида 3-4 кишидан навбатма- навбат машаъла билан, чодирлари жойлашган жойдан бир ўқ узоқликда тунги соқчилик қилинган. Тунги навбатчиликда Бобурнинг ўзи ҳам иштирок этишидан, маълум бўладики. Катта унвонли ҳарбий мансабдорлар ҳам ушбу “тунги навбатчилик” хизматидан бош тортмаган. Тунги навбатчилик “чоғдовуллуқ” – деб аталиб, бир кеча-кундуз муддатта навбатчиликда турган. Чиғдовул - душман келишини олдиндан огоҳлантирган. Бу ҳақида Бобурномада 1507-1508 йил воқеалари баёнида Хирий қалъасини мудофаси суст эканлигига ишора қилиб, “Муҳаммад Бурундуқнинг маъқул раъйи била амал қилмай, не қўрғон ишини мазбут қилибтур, не уруш яроғини марбут, не қоравул, *не чиғдовулким ёғий (душман) келурдан огоҳ қилғай,* не ясолда тартиб ва насаққим ёғий келса уруш хотирхоҳ қилғай”[1:220] - деб, айтилган фикрлар ҳам тасдиқлайди.

Қоровуллик хизмати. “Бобурнома”да “1503-1504 йилги Қобулдаги воқеалари баёнида.... Дукки вилоятиға тааллуқ рудға тушулди. Ул юрттин кўчганда Шоҳбек навкари фозил кўкалтошнингким, Сивиннинг доруғаси эди, йигирмача қоравуллиғға келган кишисини тутиб келтурдилар”[1:160]. Мазкур маълумотдан англашиладики, ўрта асрларда қоровулликка 20 дан кўп киши жалб этилган ҳолатлар бўлган. Манбадаги маълумотлар кузатилса, “қоравуллар”- хизмати разветка бўлиб, душман қўшининги ҳаракатланиш жой ҳақида олдиндан ҳабар берган.

Биринчи тарихчи ўзбек аёли, Бобурнинг қизи малика Гулбаданбегим ўзининг “Ҳумоюннома” асарида келтирилишича, қоровуллар Бобур авлодлари даврида ҳам бўлган ҳарбий бўлинмадир. Манбада ёзилишича, “... Ниҳоят Деҳи Афғононга етганларида икки томоннинг қаровул қўшинлари тўқнаш келди. Тўқнаш келиши биланоқ ҳазратларининг [Ҳумоюн шоҳ] қаровул қўшини Мирзо Камроннинг қоравулларини қўлга олдилар ва ҳазратларининг олдига олиб бордилар”[5:71].

Қўрбегилик мансаби. Бобурномада “ …. Биз Қобул кегали туркман ҳазораси (қабиланинг номи) анвоъ беадаблиқлар ва раҳзанлиқлар қилиб эдилар. Аларни чопмоқ (тўполон, талон-тарож, забт этмоқ,босиб олмоқ) ҳаёл қилиб, андин шаъбон ойида туркман ҳазорасини чопа отландук. Дараи Хуш оғозида Жинглакта чопқун қўйдук. Оз- оғлоқ ҳазора чопилди. Дараи Хуш ёвуғида бир сумжда бир пора ҳазора яшунғон экандур. Шайх Дарвеш кўкалтошким акар қазоқлиқларда менинг била эди, қўрбегилик мансаби анда эди, ёйни кучлик тортар эди, ўқни хўб отар эди ….. ” [1:169] – деб хотирлайди. Маълум бўлишича, ушбу мансабдор жанг маҳали ҳукмдор ёнида юрган. Қўрбеги- “қўрчи” – қурол аслаҳа сақловчи мансабдор.

Бобурнинг жосуслик хизмати. Бобурнинг муҳораба майдонидаги ғалабаларини таъминлаган омиллардан бири, балки энг муҳими, унинг разведка хизматидан фойдаланиш қобилиятидир[6]. Айни шу маҳорат минглаб лашкарларни ўлим балосидан асрашда, урушни ўз фойдасига ҳал қилишда, қолаверса, атрофидаги кишилар руҳияти, шахсиятини янада яхшироқ англашида, душман нияти – сир-асроридан аввалроқ воқиф бўлишда Бобурга қўл келган.

Хисравшоҳнинг иниси Боқи Чағониёнийнинг Бобурга етказган разведка хабари билан боғлиқ Афғонистонда ўз ҳукмронлиги асосини солаётган Бобур бегона юртдаги шаҳар, қишлоқ, ўрмонзор, кўча ва пасткўча, дарё ва сойлар хусусиятини жуда синчковлик билан ўрганади. Айниқса, бу лашкар хавфсизлиги, салтанат тақдири билан боғлиқ бўлса, Бобурнинг синчковлик қобилияти янада ошган, эҳтиёт чораларини кўришга киришган. Ҳали Бобурнинг Кобул ҳокимияти мустаҳкам шаклланмаган бир пайтда, атрофидаги дўстлари ҳам

душман рафторини қилганда уларнинг ҳар бир ҳаракатини ўрганиш, кейин хулоса чиқариш бениҳоя муҳим эди. Шу даврда Бобурга нисбатан ёвқарашда бўлган Боқи Чағониёний «арзға еткурдиким, сув кечмай ушбу ердин (яъни Кўракатутдан – қавс ичидаги баъзи изоҳлар муаллифники), қўнуб, Кўҳат отлуқ ерга борса бўлур эмиш...» Бироқ Бобур бу хабарга унчалик ишонмади. Чағониёний Бобурни ишонтириш мақсадида бир неча айғоқчи кобулийларни олиб келади. Тундан кейин бир қадар ишонган бўлса-да, ушбу маълумотга таяниб уюштирган ҳужумдан Бобурнинг кўнгли тўлмайди: «Боқи Чағониёний арзга еткургандек нима черик элига тушмади. Боқибек бу саъйдин шармандароқ бўлди». Бу разведка маълумотлари кундалик ҳарбий амалиётлардан бирига хизмат қилган бўлса-да, Бобур бу масалага жуда жиддий ёндашган.

Бобур ёзади: «Икки намоз орасида Тожихон Сарангхонийнинг арзадошти ҳам жосус хабариға мувофиқ келур. Бу кайфиятларни Султон Муҳаммад келиб арзға еткурди». Ушбу маълумотномалардан сўнг «Бобурнома»да бу ердаги муҳорабанинг айрим деталлари баён қилинади. Бобур ўз хабарчилари — разведкачилар келтирган маълумотларга катта эътибор билан қараган.

1507-1508 йилларни Бобур сиёсий қарашларининг энг масъулиятли даври, десак бўлади. Кобулда ўз сиёсий ҳукмронлигини мустаҳкамлаган Бобур Ҳиндистонга юзланади. Ўзининг айтишича, «Жумоидулаввал ойи Кобулдин Ҳиндустон азимати била кўчилди». Ана шу бир жумла доирасида Бобурнинг янги саргардонлик тақдири, ўзининг иқрорича «не бормоққа ери муқаррар, не турмоққа юрте муайян, юқори-қуйи яна бир хабар олғунчи юрт тоза қилиб кўчилур эди». Бунда Бобур аниқ қилиб разведка хизмати, унинг ишончли хабарини олмагунча бошқа ерларни ўз тасарруфига киритишга шошилмаганлигини айтмоқда. Унинг бу тактикаси, ҳарбий истеъдоди кейинроқ Ҳиндистон муҳорабаларида жуда қўл келган. 1507-1509 йил воқеалари. Бобур Кобулдан ҳозирги Жалолобод вилояти — Нингнаҳордан Ҳиндистон томон борар экан, жуда кўп афғон тўдаларига дуч келади, улар билан муҳорабалар олиб боради. Бу жараёнда ҳам Бобур разведка хизматига мурожаат этади.

Бобур ўзининг лашкарлари билан жуда машаққатли довон, адирларни кезиб охири Панкйалий деган жойга тушадилар. Маҳаллий шароитни билиш, кейингина бир қарорга келиш учун Бобур «Ўғонбердини бир неча киши била тил олғали илгаррак» юборади. Бироқ, Ўғонберди ҳам бу гал «кўнгул тилагудек таҳқиқ хабар келтурмади». Албатта, бу ҳол Бобурни қаноатлантирмаган. У яна разведка хизматига мурожаат этади: «Офтоб бир найза бўйи чиққанда Рустам туркманниким, қаравулликқа йиборилиб эди, хабар келтурдиким, афғонлар хабардор бўлиб, қўзғолишиб турлар». Бобурнинг бу галги хабарчилари аниқ маълумот олиб келмаганларидан сўнг, у таваккал қилиб ҳужумга ўтади, ғанимларининг «бир пора асир ва ўй ва галаларини» қўлга киритади. Бобурнинг шу жойдаги бошқа разведка маълумотини олиши у билан кураш олиб бораётган афғон саркардаларининг умумий ҳолати ҳақида бўлиб, унинг энди, қайси йўлни танлаши учун муҳим эди.

Белдор бўлинма. Ҳарбий ҳаракатлардан олдин душман ҳужумларидан сақланиш мақсадида мудофаа иншооати (хандақ, чоҳ, қозонларни ўрнатиш жойи ва б.) қуришга жалб этиладиган аскарлар. Бобур қўшинида махсус белдорлар бўлинмаси деб аталган[7:91].

Тан қўриқчилик хизмати.Тан қўриқчи аслзода саркардалар фарзандларидан тузилган, хонни муҳофаза қилувчи махсус бўлинма бўлган. Баъзи манбаларда улар “чуҳрабоши”деб тилга олинади, Бобур ўзининг “Бобурнома” асарида бундай лавозим эгаларини “хосса тобини” деб таърифлайди[1:19]. Бундай хизмат тури темурийлар саройларининг пойтахтида яъни Самарқанд, Ҳиротда анча анъанавий тарақий этган эди. Манбани ўрганишда маълум бўладики, бу хизматдагилар “Самарқанд тобини”, “Ҳирот тобини” деган ибора билан

машҳур эди. Чунки улар мазкур пойтахт шаҳарларида ҳукумдор сулоласи вакилларининг, оила аъзоларининг хизматида бўлганлар.

Хизмат вазифасини бажармаган ҳарбийларга жазо тури. Кимки ушбу навбатчилик (нарядда) иштирок этмаса, жазо ҳам мавжуд бўлган. Ушбу навбатчилликга чиқмаганнинг жазоси бурнини тешиб, ип ўтказиб, қўшин сафи, ўрда атрофидан айлантирилиб, сазойи қилинган. Баъзи ҳолларда харбий хизматдан ҳайдалганлиги қайд этилади. "Бобурнома"да муаллиф ҳарбий қўшин тунги навбатчилигида ўзи ҳам иштирок этганлигини қайд этиб, ".....мен ҳам бирор навбат эврулур эрдим. (Тунгги қўриқчиликга) чиқмағон кишининг бурнини тешиб, черикдин эврутир[8] эрдуқ"[1:157].

"Бобурномада" қуйидагича ёзилади: "Арзға еттиким, черик эли Беҳра элиға бесарлиқ ва датандозликлар қиладурлар. Кишилар йибориб, бесарлиқ қилғон элнинг баъзиини яоққа еткуруб, баъзиини бурнини тешиб, ўрдудин эврурдилар (айлантириб)"[1:244].

Хуллас, аждодларимизнинг ҳарбий салоҳияти тарихини ўрганиш ёш авлод қалбида Ватанга муҳаббат туйғусини уйғотишда алоҳида аҳмиятга эга. Бинобарин, мамлакатимизда буюк саркардалар тарбиялаган халқ бўлиб, ушбу саркардалар ҳарбий маҳорати, тажрибаси миллат маънавиятини оширишда, ўзликни англатишда ўрни беқиёс. Биргина Бобур ҳарбий маҳорати кўплаб тадқиқотларга етарли материал бера олади. Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг шахсан ўз тилидан ёзилган "Бобурнома" асарини ўқир экансиз, одам бўйли қалинликда қор ёғган мавсумда ўзи ҳам аскарлар олдига тушиб, улар билан йўл очиш учун шашт қилган манзарани ўзидан унинг қандай ғамхўр қўмондон, масъулятли йўлбошчилиги ҳақида мулоҳазалар юритиш мумкин. Бобурнинг Аградан ўғли Камрон Мирзога Қобулга ёзган хатида, "Моворауннаҳр аҳолиси содда, аммо ишончлидир"- деган сўзларига аҳамият берадиган бўлсак, у барибир ўз қалбига яқин инсонларга, ватандошларига юкинган. У ҳар бир жанг олдидан аскарларга покланиб жангга киришга даъват этган, чунки бу майдон аскар учун ё нажод, ё ҳаёт билан видолашув бўлиши мумкин эди. Заҳириддин Муҳаммад Бобур маънавий меросини ўрганиш ёшларда Ватанга садоқат, руҳида тарбиялаш улар қалби ва онгига Ватан ҳимояси шарафли ва муқаддас бурч эканлигини сингдиришга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Zahiriddin Muhmmad Bobur. Boburnoma. / Nashrga tayyorlovchi va lug ‘at – izohlar mualliflari : S. Xasanov, O. Jo‘rayev. "Fan" – Toshkent – 2019. – B.-225.

2. Жериб - ер ўлчов бирлиги, тах 0,2 га. Бобур Султон Ҳусайиннинг ҳар бир йигитига саксон жариб ер бергани зикр қилинган. // Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. – Тошкент "Шарқ" нашрёти – 2014. – Б. 242

3. Навойи асарлари учун қисқача луғат. – Тошкент. 1993. – Б. 338.

4. Иванин. М. Икки буюк саркарда: Чингизхон ва Амир Темур ҳарбий санъати ва сиёсати. – Тошкент. " Янги аср авлоди" 2019. – Б. 249.

5. Гулбаданбегим. Ҳумоюннома / форс тилидан А. Қурбонов таржимаси. // Jahon adabiyoti. – 2015. aprel. – B. 71.

6. Қудратуллаев Ҳ. Бобурнинг разведка маҳорати/ e-tarix.uz›

7. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. – Тошкент "Шарқ" нашрёти – 2014. – Б.91.

эврутир - айлантирмоқ. Навойи асарлари учун қисқача луғат. – Тошкент. 1993. – Б.335.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING GAGRADAGI ZAFARLI YURISHLARI

Rashidov Rustam Rasulovich
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti dotsenti, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Fayzullayeva Viloyatxon Junaydullayevna
Toshkent shahar Yunusobod tumani 273-maktabi tarix fani o‘qituvchisi

Har bir xalqning tarixiy, madaniy-milliy qiyofasini aniq belgilovchi ulug‘ shohlari, buyuk olimlari, yirik adib va shoirlari bo‘ladi. Insoniyatning abadiyatga mansub ana shunday buyuk farzandlari safida Zahiriddin Muhammad Bobur ham o‘z o‘rniga ega. Kishilik tarixida Boburchalik shaxsiy imkon, iqtidor va fazilatlari beqiyos kishilar juda kam uchraydi.

Bobur — buyuk podshoh, mumtoz shoir, nazariyotchi adabiyotshunos, faqih, tilshunos, san’atshunos, etnograf, hayvonot va nabotot olamining bilimdoni sifatida ko‘pqirrali faoliyat va ijod sohibi edi. Birgina “Boburnoma” uning yigirmadan ortiq sohalarga qiziqqanligiga yaqqol misoldir.

Bobur, birinchi navbatda, shoh, boburiylar sulolasining asoschisi. Balki, boburiylar jahon tarixida eng uzoq yillar(332 yil) hukmronlik qilgan. U podshoh sifatida lashkar tortib shohlarga xos mag‘lubiyatlarning achchiq alamlariyu zafarlarning ulug‘vor nashidalarini surishni ko‘p marotaba o‘z boshidan kechirdi. Otasi singari ulug‘ himmatli va oliy maqsadli shaxs bo‘lganligidan Farg‘ona viloyatini kichik joy deb hisoblab, Samarqandga intildi. U yerda Shayboniyxondan yengilib, Kobulga keldi va keyin Hindistondek bepoyon yirik mamlakat hukmdoriga aylandi.

Buyuk shoh Bobur Hindistonda temuriylarga xos ulug‘ bunyodkorlik an’analarini davom ettirdi: muhtasham qasrlar tiklash, ariq-kanallar qazish, bog‘-rog‘lar bunyod etish, adabiyot, ilm-fan rivojiga homiylik qilish, elni adolat bilan boshqarish singari fazilatlar keyinchalik Hindistonning buyuk farzandlari tomonidan chinakam ijobiy baholandi. Hindistonning donishmand farzandi, buyuk davlat arbobi Javohirla’l Nehru o‘zining “Hindistonning ochilishi” va “Jahon tarixiga bir nazar” asarlarida Zahiriddin Muhammad Bobur haqida samimiyatga to‘liq ushbu fikrlarni izhor etgan:

Gagradagi zafarli yurish: Dehli taxtiga intilgan va G‘arbiy Afg‘oniston konfederatlari tomonidan Dehli sultonligiga munosib merosxo‘r deb e'lon qilingan va Rajput konfederatlari tomonidan qo‘llab-quvvatlangan Sulton Mahmud Lodi 1527 yilda Xanva jangida mag‘lubiyatga uchraganidan keyin qochib ketdi. U Gujaratda panoh topdi. Sharqdagi qarindosh-urug‘lari bilan bog‘lanishga harakat qilib, ularga qo‘shilishga muvaffaq bo‘ldi. U Sharqiy Afg‘oniston Konfederatlarining boshida Bixarni egalladi.

Bobur Chanderiga ekspeditsiyasidan bir muncha vaqt o‘tgach, yangi sulolaning Bixar qiroli Pathan Sulton Muhammad Shoh Lohani vafot etganida; uning o‘rniga voyaga etmagan o‘g‘li Sulton Jaloliddin Din Lohani tayinlandi, hech bo‘lmaganda Biharda ishlarning boshqaruvi bu shahzodaning onasi Dudu va Sher Shah Suri nomi bilan taniqli bo‘lgan Farid Xonga topshirildi; Lohani zodagonlarining yosh podshoh Bobil va Bayezid, Sher Shoh Suri va boshqa boshliqlar bilan bog‘liq bo‘lgan raqib da'volari chalg‘itilganligi va bu fraktsiyalar kelishmovchilikning ta'siriga qo‘shilganligi. Oldingi bosqinlarda Bobur qo‘shinlari tomonidan olib borilgan katoliklar yosh shahzodani Bengal sultoniga boshpana topishga majbur qildilar.

Bunday vaziyatda Jaunpur va umuman Hindistonning afg‘onlari o‘zlarining ishlarining buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik va barcha manfaatlarning birlashishi uchun iloji boricha Sulton Mahmud Lodini chaqirishga qaror qildilar. Rana Sanga Dehli taxtini o‘rnatishga harakat qildi. Ushbu urinishda mag‘lub bo‘lganidan keyin u Gujarat shahriga qaytib ketdi va keyin

Bundelxandagi Panna shahriga yo‘l oldi, u erda ijobiy o‘zgarishlarni kutib turdi va endi Bixar va Jaunpur taxtiga ko‘tarilish taklifini qabul qildi. Unga har chorakda vatandoshlari tez kelib qo‘shilishgan va qariyb butun Bixarni qarshiliksiz qo‘lga kiritganga o‘xshaydi. Ajablanarli tomoni shundaki, maxfiylik va muvaffaqiyatga erishilgan intrigalar va harakatlar bu haqiqatni har bir Patanning milliy muvaffaqiyatni his qilganligi va qabilalar o‘z boshliqlariga va bir-biriga ko‘rsatgan sadoqati bilan izohlanadi.

Bu xabarni eshitgan kunning ertasi kuni Bobur Agra shahriga qaytib keldi va u sharqiy armiya qo‘mondonligini zudlik bilan o‘z kengashiga olishga qaror qildi va shu bilan birga 1529 yil 2 fevralda yo‘lga chiqqan qo‘shinlarni olib ketdi va chegarani kesib o‘tdi. Doab 1529 yil 27 fevralda Dakdaki shahridagi Gangesning o‘ng qirg‘og‘iga etib bordi. Bu erda uni o‘g‘li Humayun, general Askari va boshqa tomondan kelgan bir necha general kutib olishdi.Ular bilan birga qo‘shinlari daryoning o‘ng qirg‘og‘iga tushishganda, ular chap tomonga qarab yurishlari va har doim uning atrofida bo‘lishlari kerak edi.

Shuning uchun bu vaqtda Sharqiy yoki Sherki qirolligi uchun uchta raqobatchi bor edi Sulton Jaloliddin Sherki, mamlakatni hukmronlik qilgan qadimgi shohlarning vakili Sulton Iskander Lodi tomonidan zabt etilgan. So‘nggi paytlarda u Boburga bo‘ysungan va uning himoyasini qidirgan. Uning da'volari ancha eskirgan, ammo shu davrda qayta ko‘rib chiqilgan va Bobur tomonidan aniq maqsadga xizmat qilish kerak edi.

Otasi va bobosi Sulton Ibrohim Lodiyga qarshi qo‘zg‘olonni boshqargan Sulton Jaloliddin Xon Lohoniy. U Biharda ko‘plab afsonaviy zodagonlar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan, ammo so‘nggi paytlarda ittifoqchisi Bengal sultonidan panoh topishga majbur bo‘ldi.

Marhum Sulton Ibragim Lodi va Dehli Lodi sulolasining vakili Sulton Mahmud Lodi, endi Patxlarning katta tanasi Biharga emas, balki Dehliga da'volarini qo‘llab-quvvatlash uchun birlashgan.

Vaziyatning haqiqiy ahvoli haqida ma'lumot olgan Bobur Gang qirg‘oqlariga yurishni davom ettirdi. Karra yonidan o‘tayotganda uni Sulton Jaloliddin-Sherqiy juda yaxshi kutib oldi va uning da'volarini ma'qul ko‘rdi va unga o‘z qo‘shinining bo‘linma nominal qo‘mondonligini berdi.

U shu shaharning ostidan bir yoki ikki marta yurish qilganida, uning harakatlarining samaralari ko‘zga tashlandi. U yaqinda Chunarga etib kelgan va hatto unga hujum qilgan Sulton Mahmud Lodi imperatorning yondoshuvi haqida ma'lum ma'lumot olganidan keyin, u qamalni ko‘tarib, sarosimada chekinayotganini va Sher Shah Suri ham shunday yo‘l tutganini bilib qoldi. Benaresni tashlab, daryoni shunday yog‘ingarchilik bilan o‘tkazib yuborgan ediki, uning ikki qayig‘i o‘tish joyida yo‘qoldi.

Ganges va Yamuna daryolari birlashadigan Ollohobodga etib borgan imperiya armiyasi oqimi 1529 yil 10 martda oxirgi daryoni Priag tomon boshladi va Bobur Chunar, Benares va G‘azipur orqali davom etib, endi orqada turgan Sulton Mahmudga Son daryosi yonida hujum qildi.

G‘azipurda Mahmud Xon Lohani afg‘onistonlik ta'sirida kelib, unga bo‘ysundi va o‘sha joyda yaqinda Sulton Jaloliddin Xon Lohani quvilgan shahzoda va Bixar taxtiga da'vogarlardan biri Sher Shoh Suri edi. Dehli va boshqa ta'sirli afg‘onlar o‘z takliflarini tenderga yuborishdi. Bu Bihar Loxaniy sulolasining parchalanishiga to‘g‘ri keldi, bu faqat Sulton Mahmud Lodi va uning tarafdorlarini birlashtirishga imkon berdi.

Jang boshlanishi: Bobur Xeridning qo‘shinini topdi, Bengal qo‘shini deb atalib, hozirgi Saron hududi o‘rtasida joylashgan Gang daryosining oqimini ham, Gangesning chap qirg‘og‘ini ham, ikkita daryolar birlashgandan keyin ham himoya qila oladigan qilib, Ganges va Ghaghara daryolarining birlashishi yaqinida joylashgan. U, shuningdek, bengaliyalik generallar oqim bo‘yida 100-150 ga yaqin kemalarni to‘plashdi, ular yordamida ular birdaniga dushmanning o‘tishiga

xalaqit berishga va ularni yengishga qodir edilar.U bunday qo‘shinni orqada qoldirib keta olmadi, chunki Baban va Bayezid qo‘shinlari ham Gagra daryosining yuqori oqimini egallab olgan edilar.U chindan ham Bengal bilan tinch edi, ammo boshpana uning dushmaniga Xerid armiyasining pozitsiyasi va uning rahbarlarining xatti-harakatlari uning Bengaliya hukumatining pozitsiyasi va niyati to‘g‘risida qat'iy bayonotga ega bo‘lishini shart qilib qo‘ydi. Shuning uchun u Bengal sultoni Nusrat Shohga elchi yubordi.Endi Boburga 20 mingga yaqin kishi bilan Jaunpurlik Sulton Junaid Birlas qo‘shildi. Ushbu qo‘shinlarning zo‘rlik bilan kelishi ularning lashkarboshisini vaqtincha sharmandalikka duchor qildi. Imperator uning talablariga qoniqarli javob ololmagach, Gagra daryosining narigi tomonidagi qo‘shinni kuchli mavqeidan voz kechishga majbur qildi. U mo‘ljalga olingan hujum uchun zarur choralarni ko‘rdi.U o‘z qo‘shinini oltita bo‘linishda shakllantirdi. Bu to‘rttadan Gangning chap qirg‘og‘ida joylashgan Askari qo‘shinlari va yaqinda bir tomonga qo‘shilgan Sulton Junaid qo‘shinlaridan iborat bo‘lib, ular Gagra daryosidan ham, qayiqlardan ham Haldiga yoki daryoning narigi tomoniga suzib borish orqali o‘tishga tayyor bo‘lishdi.

Askari Boburning kenja o‘g‘li edi. Qolgan ikkita bo‘linma hali ham Gangesning o‘ng qirg‘og‘ida edi. Imperatorning shaxsiy rahbarligi ostida bu daryoning kechishini amalga oshirish va undan keyin Siru yoki bokalda akkumulyator o‘rnatishga yuborilgan uning bosh muhandisi va artilleriya qo‘mondoni Turk Ustad Ali Quli operatsiyalarini yoritish edi. Gagra daryosi Beng‘al lageriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarama-qarshi joylashgan Gang bilan birlashmasidan yuqori poydevor bo‘lib, u to‘pni otib, dushmanga hujum qilish uchun Ghaghra daryosidan o‘tganida imperator bo‘linmasining o‘tish joyini qoplashi mumkin edi. Muhammad Zaman Mirza tomonidan qo‘llab-quvvatlangan va oltinchi diviziya dushman lashkarining chetida Gangesning Bihar qirg‘og‘ida daryolar kesishmasida koptok ochish edi. Lashkarlarning asosiy tarkibi Xaldi shahridagi Gagra daryosidan o‘tganidan keyin Askari ostidagi dushmanlarni o‘z qarorgohlaridan chiqarib, ularni daryoga chiqishga va ularni egallab olishga undash uchun buyurilgan edi. artilleriya olovi ostida va Bobur va Muhammad Zamonning ikkala bo‘linmasi orqali o‘tish mumkin bo‘lguncha.

Shu tariqa butun qo‘shin harakatga keltirildi va Askari to‘rt diviziyasi Haldi tomon yurdi. Ghaghara daryosida ham, Gangda ham batareyalar qurilib, olov boshlandi. Bengaliya armiyasi katta jasorat ko‘rsatdi va daryolarning tepasida ham, pastida ham imperator qo‘shinlariga hujum qildi.

Turli harakatlardan so‘ng Bobur Askarining Haldi Ghat orqali G‘aqra daryosidan o‘tganini va hozirda harakatga tayyorligini va uni yuqori martabali afsonaviy afg‘on zodagoni Shoh Muhammad Maarufning mag‘lubiyati tufayli kuchaytirganligi to‘g‘risida xabar oldi. o‘z izdoshlari bilan konfederatsiyani tashlab, endi o‘z qarorgohiga qo‘shilgan. Shunday qilib, umumiy hujum ertasi kuni ertalab amalga oshirildi, ammo shu vaqtning o‘zida daryoda kemalar o‘rtasida ba'zi janglar bo‘lib o‘tdi.

1529 yil 6-may kuni ertalab Askari qo‘shini harakatda ekanligi bilanoq Bengal qo‘shinlari uni kutib olishga chiqishdi va Bobur ikkiga bo‘linib ketishni va Muhammad Zaman qo‘shinini zudlik bilan bosib o‘tishni buyurdi. Bunga jasorat bilan ta'sir ko‘rsatdi, ammo keskin qarshiliksiz. Qo‘shinlar qayiqlarda, ba'zilari suzish bilan, ba'zilari esa qamish ustida suzishdi. Ularni qo‘nishda teng darajada jasurlik bilan kutib olishdi, ammo birga to‘planib, bir necha bor kuchli ayblovlar qo‘yishdi. Askari pastga qarab ketayotganda, dushmanlar o‘zlarini qurshab olishgan va uch tomondan qurshab olishdi.

Uning oqibati: Ushbu g‘alaba uning oqibatlarida hal qiluvchi bo‘ldi. Sharqda Afg‘oniston hukumatini qayta qurish umididan mahrum bo‘lgan afg‘onlar soni va Biharning marhum qiroli Sulton Jaloliddin Xon Lohani Bengali lageridan qochib o‘tganligi eslatib o‘tilgan. uning asosiy amirlari va Boburni tan olishgan.Bu Boburning so‘nggi yirik ishtiroki bo‘ladi. U o‘z kuchini mustahkamlashga va ma'muriy infratuzilmani yaratishda davom etib, o‘zining yangi Imperiyasida

jag‘irlarni (Mulklar) sodiq zodagonlar va ittifoqchilarga tarqatdi. U 1530 yil 26 dekabrda 47 yoshida noma'lum kasallikdan vafot etdi va uning o‘rniga katta o‘g‘li Xumayun tayinlandi

Xulosa qilib aytganda, Bobur saltanat boshqaruvida shaxsning roli va o‘rniga yuksak e’tibor bergan. U davlatchilik va boshqaruvning ta’siri va samarasi, pirovard natijada, avvalo, bilim va yuksak taffakurga ega, layoqatli, shijoatli va mard insonlarga ko‘p jihatdan bog‘liq ekanini hayotiy dalillar orqali ko‘rsatib bergani, ayniqsa, ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.“Ma’naviyat yulduzlari” (Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent,1999) kitobidan olindi.

2.Boburnoma, T., 1989; Baburname (2izdaniye, dorabotannoye), T., 1993; Kitobssalot, T., 1993; Kitobzzakot, T., 1993; Kitoblhaj, T., 1993; Devon, T., 1994; Mahrami asror topmadim, T., 1995.

3.Abdulahad Muhammadjonov, Abdurashid Abdugafurov, O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

4.Uotts, Tim J. (2011). "Panipat janglari". Mikaberidzeda Aleksandr (tahr.). Islom dunyosidagi ziddiyat va fath: tarixiy entsiklopediya. ABC-CLIO.

5.Hind tarixi jurnali; Vol. 66, tarix bo‘limi, Kerala universiteti, 1988 yil.

6.Hindistonning rivojlangan tarixi, doktor K.K.Datta, p. 429.

7.Bobur, Hindiston imperatori (2002). "Boburnoma": Bobur, shahzoda va imperatorning xotiralari.

ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУРНИНГ ҚЎШИННИ БОШҚАРИШДАГИ ЕТАКЧИЛИК СИФАТЛАРИ

Мирабдуллаева Ш.А.
Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари Академияси катта ўқитувчиси

XIV-XVII асрлар Яқин ва Ўрта Шарқ халқлари маданий ҳаётида юксалиш даври ҳисобланади. Бу даврда фаолият кўрсатган мутафаккирлар ўз асарлари орқали ҳукмдорларни заиф ва бечораларга қўл кўтармаслик, қон тўкиш билан шуғулланмаслик, айбсиз инсонларни ўлдирмасликка чақирганлар.

Шарқ алломалари ўзларининг нодир асарларида уруш масаласига алоҳида тўхталиб ўтиб, талончилик урушларини танқид қилган бўлсаларда, ҳукмдорларнинг ҳарбий фаолияти, қўшинлар тарбияси, аскарлар кучи ва қудратига катта аҳамият берганлар, уларнинг жасурлиги ва шижоатлилигини улуғлаганлар. Уларнинг фикрича, ҳукмдорлар қўшинларсиз, уларнинг кўмаги ва қўллаб-қувватлашсиз мавжуд бўлолмайди. Бунга жавобан ҳукмдор ва давлат доимо ўз қўшинларини қўллаб-қувватлаши, уларга моддий ёрдам бериши, имкон қадар солиқлардан озод қилиши, маошини камайтирмаслиги керак [1].

Мутафаккирларнинг таъкидлашларича, душманга қарши урушда ҳукмдор ва қўшинлар адолат қоидаларига риоя қилиш керак. Агар ҳукмдор ва қўшинлар адолат қоидаларига риоя қилсалар, улар душман устидан муқаррар ғалаба қозонадилар бунинг учун ҳукмдор қобилиятли, узоқни кўрувчи, маълум маънода жосуслик санъатига эга бўлиши керак.

Машҳур саркарда ва давлат арбоби Захириддин Мухаммад Бобур (1483-1530) ўзининг давлат ва қўшин ҳақидаги қарашларини “Бобурнома”, “Мубаййин” (Баён этилган) ва “Ҳарб

иши” каби асарларида мукаммал баён қилган. У ўз давлатчилик фаолиятининг энг муҳим мақсадларидан бири деб, мамлакат бир бутунлигини ва мустақиллигини сақлаш, уни ташқи душмандан ҳимоя қилиш, мамлакат ҳарбий салоҳиятини кучайтиришни билган. Унинг фикрича, мамлакат бирлиги ва мустақиллиги учун энг катта хавф – бу ташқи душмандан кўра ҳам мамлакат ичидаги ўзаро низолар, ота-бола, ака-укалар ва айирмачи кучлар ўртасидаги тожу тахтни эгаллаш учун бўлган урушлар ҳисобланади.

Бобурнинг фикрича, мамлакат мустақиллигини ҳимоя қилишда шоҳ ўта мулоҳазали, маслаҳат билан иш юритиши, шошма-шошарлик билан иш тутмаслиги керак. Шу билан бирга, мутафаккирнинг шаҳарни ёки мамлакатни ҳимоя қилиш учун зарур бўлган воситалар ҳақидаги фикрлари ҳам диққатга сазовордир. У ўз фикрини рамзий ифодалаб, мамлакат ҳимояси учун *бош, икки қўл, икки оёқ* керак дейди, бошни – *бош қўмондонга* яъни шоҳга, икки қўлни – *ён атрофга ёки иттифоқчилардан келадиган ёрдамга*, икки оёқни – *мамлакатнинг мудофааси ва захирасига* ўхшатади: “Донишмандлар айтадиларки қўрғон беркитмакликка бош керак, икки қўл керак, икки бут керак. Бош сардор бўлгай, икки бут қўрғоннинг суви билан захираси бўлгай” [2]. Унинг таъкидлашича, мамлакат мустақиллигини сақлашда шоҳнинг энг муҳим вазифаси – ўз хавфсизлигини ўйламасдан душман устига қатъият ва жасурлик билан ҳужум қилишдир. Акс ҳолда бундай шоҳдан ҳеч қандай наф йўқ: “Султон Ҳусайн Мирзодек Темурбек ўрнига ўтирган улуғ шоҳ ғанимнинг устига юришни демай, ер беркитмакни деса, эл ва улусга не умидворлик қолгай [2].

Захириддин Мухаммад Бобурнинг давлатчилик фаолиятида қилган муҳим ишларидан яна бири – мамлакат ҳарбий салоҳиятини мустаҳкамлашда янги ҳарбий қуроллар ишлаб чиқаришга катта эътибор берганлигидадир. Масалан, “Бобурнома”нинг бир неча саҳифаларида устоз Алиул исмли қурол устаси учун тош отар қурол (тўп) ясаш учун имкониятлар яратиб бергани, унинг устахонасини бориб кўргани, бу қуролни синаш пайтида иштирок этгани ва бу саркарда сифатидги муваффақиятларининг калити – бу черикнинг, яъни қўшиннинг кўнглини олмоқлигида бўлган. Унинг аскар кўнглини олмоғининг бош мезони кишининг қаерданлиги, миллати ва насабига эмас, балки унга – шоҳига *садоқат, мардлиги, фидойилиги, вафодорлиги, давлат ҳимоясига қўшган ҳиссаси* билан белгиланган. У қўшин кўнглини олиш уни фақат моддий жиҳатдан таҳминлашдангина иборат бўлиб қолмасдан, балки маънавий жиҳатдан қўшинни қўллаб-қувватлаш, унинг ўзига ҳайриҳоҳлигига эршишга ҳам муяссар бўларди. Бунинг ёрқин мисоли бўлиб, 1527 йилнинг март ойида Сикри ёнида рожа Рано Санго қўшини билан жангга кириш арафасида қўшин олдида сўзлаган оташин нутқи ва фармони билан қўшинни ниҳоятда руҳлантиргани, унинг жанговарлик кайфиятини оширганлиги хизмат қилиши мумкин. Бу воқеа “Бобурнома”да баён этилганидек, Гулбаданбегим (1522-1603)нинг “Хумоюннома” асарида ҳам таъкидлаб ўтилади: “Бу гапларни ҳамма бир овоздан қабул қилди. шоҳ худо хоҳласа, то жону танимизда охирги нафасимиз қолгунича урушамиз, жон фидоликда ва қон сочишликда ўзимизни аямаймиз, деб Қуръон билан қасам ичдилар” [4].

Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг шахс сифатидаги фазилатлари ҳам мақтовга лойиқдир. У жасур навкар ва тажрибали саркарда бўлган. Бобур болалигиданоқ жангларда қатнашганидан ўлимга қўрқмасдан қараган. Бу ҳақда С.Р. Шарма шундай деб ёзади: “У ажойиб чавандоз, моҳир мерган, чаққон қиличбоз ва толмас овчи эди” [5]. Бобур ҳеч қачон матонатини йўқотмаган ва курашда йиқилган пайтларда ўзини ўнглаш учун доимо ирода кучини ишга сола билган, жангларда тажриба тўплаган. Бундан ташқари, Бобур ўз ҳамроҳларини илҳомлантириб ишончини қозонар, уларни жасоратга ундар, зарур ҳолларда ўзига бўйсундира олган. У ўз қўшинидан каттароқ бўлган лашкарга қарши курашишдан асло

қўрқмас, ҳамиша рақибининг нозик ва кучли жойларини англаб олишга, ундан жанг жараёнида фойдаланишга ҳаракат қилган.

Ҳаётнинг оғир кунларида Бобур ҳамиша аскарлар даврасида бўлар ва шунинг учун ҳам навкарлар уни ҳурмат қилишган. Лекин у қаттиқ интизом тарафдори бўлган, тартиббузар, буйруққа бўйсунмаганлар ва айбдорларни қаттиқ жазолаган, буйруққа тўла итоаткорликни талаб қилган. Шунинг учун ҳам аскарлари Бобурни яхши кўрибгина қолмай, ундан қўрқар ҳам эдилар, унинг қўл остида қўшинлар яхши ташкил қилинган интизомли ва омилкор лашкарга айланган эди. У инсонга хос буюк фазилатлардан бири бўлмиш мардликни улуғлайди. Унинг фикрича, мардликнинг олий даражада намоён бўлиши деб, Ватан учун душман билан жанг қилиш, зарур бўлса, жонини ҳам қурбон қила олишдир. Мутафаккир бу ўринда ёмон от билан тирилгандан кўра яхши от билан ўлган яхшироқ, дейди. Бобур зўравонлик, ўғрилик, қароқчилик ва таъмагирликни қаттиқ қоралайди ва бундайларга нисбатан баъзан бешафқат бўлишни тарғиб қилади. Масалан, унинг аскарларидан бири бировнинг бир кўза ёғини тортиб олгани учун уни жазолагани диққатга сазовордир.

XIV-XVII аср мутафаккирлари бир томондан, асосий эътиборни қўшинлар куч-қудратини ошириш, уларнинг ҳарбий маҳоратини юксалтириш, мамлакат яхлитлиги ва хавфсизлигини сақлашга қаратган бўлсалар, бошқа томондан, давлатни таназзулга олиб борувчи адолатсиз урушларга қарши чиққанлар.

Аждодларимизнинг уруш, унинг ижтимоий тараққиётга салбий таъсири ва қўшинни бошқариш тўғрисидаги қимматли фикрлари бугунги кунда мамлакатимиздаги ихчам, замонавий қурол-яроғ билан қуролланган ва профессионал тайёргарликка эга бўлган миллий армиямизни мустаҳкамлаш, ҳарбий ҳизматчиларнинг жанговар шайлигини ошириш ва уларда юксак инсоний фазилатларни шакллантиришда муҳим манба бўлиб хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Негматов Б. Ўзбекистонда ҳарбий ишлар тарихидан лавҳалар. – Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ институти. 2010. 76 бет.

2.Бобур З.М. Бобурнома. – Тошкент.: “Юлдузча”, 1989. – Б. 84.

3. Гулбадан Бегим. Ҳумоннома. – Тошкент.: 1959. – Б. 34.

5. Шарма Л.П. Бобурийлар салтанати. – Тошкент.: “Маънавият” 1998. Б.25.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING AFG‘ONISTONDAGI BOG‘LARI VA QO‘SHINIDAGI YANGI TEXNIKA XUSUSIDA

Ahmadov A.A., Elova D.D.
BuxDU tayanch doktarantlari

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530 yy) jahon tarixida muhim iz qoldirgan va dunyo xalqlari sivilizatsiyasiga mislsiz hissa qo‘shgan insondir. Bu ulug‘ siymo o‘z nomi bilan o‘rta asrlarda ulkan saltanatga asos soldi, bundyodkor, fan va madaniyat darg‘asi, adolatli va xalqparvar hukmdor, xossos shoir, tarixchi va geograf sifatida tarix sahifalariga o‘zining muborak nomini abadul-abad muhrladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur Afg‘oniston poytaxti Kobulda turib, 21 yil hukmronlik qildi. 1504-1525-yillarda bu zaminda hukmronlik qilar ekan obodonchilik va bunyodkorlik ishlariga katta e’tibor qaratdi. Bobur har bir harbiy harakatlaridagi g‘alabasi sharafiga bog‘ qurdirishni odat qilgandi. Ushbu odatni Zahiriddin Muhammad Bobur umrining oxirigacha saqlab qoldi.

1526-yil 21-aprel mashhur Panipat (Hindiston) jangida g‘alaba qilgan Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z sharafiga katta bir bog‘ barpo etdi va o‘zi avvolo uning mevasidan bahramand bo‘ldi.

Afg‘onistonlik tadqiqotchi G.C.G‘ayrat “Bobur va uning yaqinlari Kobul shahrida ko‘plab bog‘ – rog‘lar va saroylar barpo etdilar. Olamora, Shohoro, Olamganj, Bog‘i Bobur va boshlar”[1] – deb yozgandi. Zahiriddin Muhammad Bobur davlatni buvisi Eson Davlat Begim, onasi Qutlug‘ Nigor Xonim kabilar maslahati bilan boshqargan. Yakkayu-yagona opasi Xonzodabegimni Ahmad Tanbaldek shavqatsiz, ochko‘z, qonxo‘r, badjahl bekka turmushga bermay, yosh bo‘lsada barcha og‘irliklarni o‘z bo‘yniga olgan. Bu kabi dalillarni uning faoliyatidan ko‘plab keltirish mumkin.

Zahiriddin Muhammad Boburning Kobulda joylashgan “Bog‘i Bobur”dagi maqbarasi uzoq asrlar davomida muqaddas ziyoratgoh bo‘lib keldi. Biroq, Afg‘oniston zaminida XX asrning 80-yillaridan boshlangan qonli to‘qnashuvlar davrida ushbu tabbarruk zamin o‘zaro urushayotgan tomonlardan birining harbiy qarorgohiga aylanganligi, anvoiy gul va mevali hamda manzarali daraxtlar o‘sadigan bog‘da harbiy bronomashina, artileriya, bronetank va harbiylar kazarmasi joylashganligi insonning kayfiyatini xira qilishi tabiiy edi. Bobur izidan xalqaro Bobur ekspeditsiyasi a’zolari 1990-yillarda Afg‘onistonga borganlarida ushbu holatdan tashvishga tushgan edilar. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Hazrat Alisher Navoiyning 580 yilligini nishonlash to‘g‘risidagi qarorlarida Hirotda joylashgan ulug‘ adib qabrini obodonlashtirish masalasini dolzarb vazifalardan biri qilib qo‘ydilar. Ajab emas, Z.M.Boburning Kobuldagi qabri va bog‘i ham hozirgi zamon talablari asosida istiqbolda obodonlashtirilsa degan umidimiz bor.

Doimiy harbiy yurishlar, sarson-sargardonliklar, o‘zga yurtda yashash bilan bog‘liq ma’naviy va ruhiy zo‘riqishlar, Ibrohim Lo‘diy onasining zaharlanishi, taxt vorisi bo‘lmish Humoyunning og‘ir betob bo‘lib qolishi, yangi tug‘ilgan o‘g‘li Anvar Mirzoning to‘satdan vafot etishi kabi ko‘pdan-ko‘p omillar tufayli Zahiriddin Muhammad Boburni umrining so‘ngida podshohlik ishlari qiziqtirmay qolgandi. Zahiriddin Muhammad Bobur tushkunlikka tushib qolgan, u vafoti oldidan Agradagi o‘zi qurdirgan “Zarafshon” bog‘idan chiqmay tanholikda yashaydi. Salomatligi yomonlashgan Bobur mislsiz mehr-muhabbat va astoydil e'tiqod bilan o‘z jonini o‘g‘li Xumoyunga sadaqa qilib,1530 yil 26 dekabrda 48 yoshni ham to‘ldirmay hayotdan ko‘z yumdi.Zahiriddin Muhammad Bobur Farg‘ona vodiysi, Kobul va Hindistondagi hukmronligini qo‘shib hisoblasak, 36 yil podshoh bo‘ldi. Uning ham o‘g‘li, qizlari va nabiralari 36 ta bo‘lgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning jasadi Agradagi o‘zi qurdirgan boqqa dafn etildi, vafotidan ancha vaqt o‘tganidan keyin xotinlaridan biri Dildorcha xonim tashabbusi bilan uning jasadi Kobuldagi “Bog‘i Bobur” ga keltirilib qayta dafn etildi.

Ulug‘ bobokaloni Amir Temurga ham, Zahiriddin Muxammad Boburga ham murakkab tarixiy sharoitda yashashga to‘g‘ri keldi.Amir Temur mo‘g‘ullar oyog‘i ostida toptalgan Movarounnahrni ozod qilish, mustaqil davlat barpo etish uchun kurashlarga sho‘ng‘ib ketdi va o‘z maqsadiga erishdi. Bobur shayboniylardan o‘nglab bo‘lmas harbiy zarbalarga to‘qnash keldi va 21yil Kobulda xukmdor bo‘lib turib qoldi, u yurtiga qaytish yo‘llari yopilganligiga ishonch hosil qilgach, o‘z orzu - maqsadlarini Hindistonda amalga oshirish uchun 12 ming qo‘shin bilan Ibrohim Lo‘diyning 100 ming nafar qo‘shini va 1000 ta jangovor filiga qarshi tavakkal qilib jangga kirdi. Taqdir uni yo‘qladi va raqibi ustidan porloq g‘alabaga erishib, yangi davlatga asos soldi.

Zahiriddin Muhammad Boburni shayboniylar bilan bo‘lgan ayovsiz janglar u o‘z qo‘shinini yangi harbiy texnika bilan qurollantirishda, harbiy intizomni o‘rnatishda saboq bo‘ldi. Zahiriddin Muhammad Bobur janglar sharoitida pistirma qo‘yishni mo‘g‘illardan, poroxli piltiq ishlatishni afg‘onlardan, to‘lg‘amani shayboniylardan, to‘p ishlatishni forslardan, fillar bilan jangga kirishni hindlardan o‘rgandi. Uning qo‘shini sovuq qurollar xanjar, qilich, nayza, qalqon, bilan birga o‘t ochar qurollar miltiq (pilta miltiq) va to‘plar bilan qurollangandi. Zahiriddin Muhammad Bobur

harbiy harakatlar olib borishda to‘satdan dushmanga hujum qilish usulidan keng foydalanardi. U otashin nutqi bilan jangchilarni ruhlantira olgan.[2]

Zahiriddin Muxammad Boburga taqdir begona yurtlarda podshohlik qilishini nasib etdi, muhojirlikda saltanat va davlat sohibi qaytariqa yo‘l tutishi, zarur bo‘lsa dushmanni do‘stga aylantira bilishini, u faqat ezgu ishlar bilan band bo‘lish kerakligini amalda isbotlay olgan, bu borada o‘rnak olsa arziydigan buyuk dahodir.Shuning uchun mustaqil Hindiston Respublikasining birinchi hukumat rahbari Javoharlal Neru: “Bobur g‘oyat sinchkov, zukko inson edi. Biz uni musofir kishi sifatida ba'zan noxolis fikrlar ham bildirar edi, deb o‘ylasak, uni hikoyalari o‘sha paytda Shimoliy Hindiston achinarli ahvolda ekanligidan dalolat beradi. Hindistonning birligi g‘oyasi u uchun asosan umr bo‘yi saqlandi... Bobur shu paytgacha o‘tgan podshohlar ichida eng madaniy va dilbar shaxsdir. U diniy fanatizmdan uzoq, boshqalar kabi vayronagarchilik qilmadi. U gullar va bog‘larni sevardi. Hindistonda turib har doim o‘z vatani - O‘rta Osiyoni eslardi”[3] - deb ulug‘ bobokalonimizga yuksak baho bergandi. Ushbu samimiy va dilkash fikrlarni hind millati vakili tomonidan yozilayotganligining o‘ziyoq buyuk vatandoshimizga bo‘lgan mehr - muhabbatni,faxrlanish va g‘ururni bizda yanada kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Axmedov B. Amir Temur darslari.-T., “Sharq”, 2000. B.90.
2. Sayfiddin Jalil Zahiriddin Muhammad Bobur va shayboniylar. T., 2001. - B.46.
3. Sayfiddin Jalil Bobur haqida o‘ylar. T., 2006. –B.46;63.
4. Mirsaydullayev M Boburning kasallik tarixi. T., “Mumtoz so‘z”, 2013-yil.

BOBURNING HARBIY SAN’AT RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI

Sattorov A.A.

Milliy gvardiya Harbiy-texnik instituti o‘qituvchisi

Sattorova X.N.

Toshkent shahar 276-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi

Bobur barcha temuriyzodalarga xos bo‘lganidek, yoshlik vaqtidan ilm-fanni o‘rganish bilan birga harb ishini ham astoidil egallashga bel bo-lagan edi. Uning ustozi Hasan Yoqubbek uni harb ishiga qanchalik mashqlar qildirib o‘rgatgani yuqorida ta’kidlab o‘tgan edik. Vaqt o‘tib, Bobur hokimiyatga ega bo‘lgach, bir qator janglarda shaxsiy namuna ko‘rsatishning ahamiyati katta bo‘lgani uchun ham Amir Temur bobomiz singari Bobur ham jang-jadallarning oldingi safida bo‘lishiga to‘g‘ri kelar edi. Boburning o‘z harbiy faoliyatida doimo “Tangrining inoyati bilan ozchilik ko‘pchilik ustidan g‘alaba qozonishi mumkin”, deb sa’y-harakat qilar edi. U janglarda ko‘rsatgan jasorati, harbiy intizomni qattiq tutishi va sarkardalar mahorati to‘g‘risida doimo qayg‘urib, ularni ko‘proq mashqlar bilan mashg‘ul bo‘lishga chorlashi o‘z natijalarini berar edi. Masalan Qandahor shahridan olingan kumush tangalarning kattagina qismi qo‘shin o‘rtasida bo‘lib berilgan edi. 1508 yilda Boburga qarshi Mirzo Ulug‘bekning o‘g‘li Abdurazzoq Mirzo Qandahorda o‘rnashib olgan arg‘un beklari Muqim va Shohbeklarning qo‘llab-quvvatlashlari bilan uni hokimiyatdan olib tashlab o‘zi hukmdorlikni egallash sa’y-harakatiga tushgan edi. Shu paytda bir tomondan Shayboniyxonning tahdidi ortib borayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan Bobur isyonchilarning tajovuzkorligi oshib borar edi. Mana shunday vaziyatda Bobur o‘ziga sodiq kishilardan iborat besh yuz kishilik askarlarni to‘playdi. Qolgan beklar va boshqa mansabdorlar ham unga qo‘shiladalar. Sodiq askarlar guruhi shahar tashqarisidagi lashkargohni o‘rab oladilar va

isyonchilarning qarshi harakatini sindirib turadilar. Isyonchilarning boshlig‘i Abdurazzoq Mirzo bo‘lib chiqadi.

Bobur Abdurazzoq Mirzoni yuzlashib turgan raqiblarning jang chizig‘iga yakkama-yakka janga chaqiradi. Abdurazzoqni bunga yuragi dov bermaydi. Lekin safidagi odamlardan beshtasi navbatma-navbat Bobur bilan olishuvga rozi bo‘ladilar. Bu ajoyib jangovar tomoshabop yakama-yakka jangda Bobur ularning beshalasini ham yer tishlatadi. Bu voqea keyin to‘qilgan afsona demasliklari uchun Haydar mirzo Bobur bilan olishgan va yer tishlagan navkarlarning nomlarini ham yozib qoldirgan.

Bobur O‘zbekiston va bizning yaqin hamkorimiz Hindiston xalqlari o‘rtasidagi tarixiy va madaniy aloqalarni, do‘stlik va hamkorlik munosabatlarni rivojlantirish va mustahkamlashdek muhim xalqaro ishlarda sezilarli rol o‘ynagan insondir. Kalkutta universiteti professorlari Sinha va Banerjiylarning ta’kidlashlaricha, Bobur O‘rta Osiyo va Hindiston o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in hisoblanadi. Shunday bo‘lishiga qaramay, shu vaqtgacha Boburning ko‘p qirrali faoliyati va ilmiy-adabiy merosi bizda to‘liq o‘rganilmadi, hayoti va ijodining ayrim tomonlarini baholashda chalkashliklarga, hatto xatoliklarga yo‘l qo‘yib kelindi.

Temurning o‘limidan so‘ng uning vorislari davrida o‘g‘il va nabiralariga mahalliy «suyurg‘ol» deb ataladigan va deyarli mustaqil boshqariladigan feodal yer-mulklar berish keng tus oldi. Bu parchalanish Movarounnahr xududida kichik-kichik feodal davlatlarning tashkil topishiga, markazning esa kuchsizlanib ketishiga olib keldi [1.18].

Farg‘ona mulkiga kirgan 8 ta shahar: Andijon, Axsi, Koson, O‘sh, Konibodom, Isfara, Marg‘ilon, Xo‘jand Bobur ixtiyoriga o‘tadi. Farg‘ona hukmdorining yozgi qarorgohi bo‘lmish Axsi shahri (Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumaniga qarashli hozirgi Axsi vayronalari) Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘ida edi. Farg‘onaning poytaxti Andijon o‘sha paytda vodiyning asosiy shahri, Movarounnahrdagi Samarqand va Kesh (Shaxrisabz)dan so‘ng uchinchi yirik shahar bo‘lib, mustahkam qal’a devorlari bilan o‘ralgan edi. Bobur ta’rifida shaharning uchta darvozasi bo‘lib, asosiy darvozasi janubdagi Hokan darvozasi edi. Shahar qal’a devorlarining orti chuqur handaqlar bilan o‘ralgan bo‘lib, suv oqib turgan, faqat darvozalarida ko‘prik bo‘lgan xolos. Boburning yozishicha, shaharning janubiy qismidan katta Hokan arig‘i qal’ani o‘rab o‘tgan. Boburnomadan ma’lum bo‘lishicha, Andijon atrofida bir qator davlat amaldorlarining chorbog‘lari mavjud edi. Bobur shaharning shimoliy tomonida joylashgan “Qo‘sh Tegirmon” mavzeidagi buvisi (katta onasi) Eson Davlat Begim chorbog‘ini va yana bir qancha yirik chorbog‘larni tilga olib o‘tadi. Farg‘ona vodiysining har bir shahri o‘zining tabiiy boyligi, mevasi bilan mashhur bo‘lgan. Bobur Andijonning nashvati-nokini ayniqsa maqtaydi.

Boburning yoshlik davridagi jangovar san’at bo‘yicha ustozlaridan biri Hasan Yoqubbek xohlagan vaqtda – yo Bobur uxlab yotganida, yoxud bog‘da olma terayotganida uni harbiy mashqlar bajarishga chorlar edi. Ot ustida jangovar harakatlar qilishga o‘rgatuvchi ustozi janglarda chiniqqan va mahoratli navkar bo‘lib, unga harbiy harakatlar jarayonida otda o‘zini qanday tutish, qiyin vaziyatlardan qanday chiqib ketish kabi og‘ir, lekin jangda qo‘l keladigan harakatlarni bajarishga majbur qilar, yosh shahzodaning muvaffaqiyatli harakatlaridan zavqlanib ketardi. Ustozning asosiy diqqati Boburning egarda o‘tirib kalta qayrilma qilichni qanday vaziyatlarda qo‘llash va qalqonni qanday tutish va undan jang paytida qanday foydalanishga qaratar edi. Shu bilan birga turkcha kamondan mo‘ljalga olib o‘q otish, mo‘ljaldan uzoqlashib borayotib orqaga qarab o‘q otish va uning yonidan otda chopib o‘tish jarayonida o‘q otish kabi mashqlarni mahorat bilan bajarishni talab qilardi. Yoqubbek Hasan shoirtabiat yigit bo‘lib, nutqida so‘z o‘yinlarini ko‘p ishlatardi. U yosh Boburga, “Agar podshohlikning eng ishonchli burguti tepangizda sizni himoyalab

turmasa, qarg‘a-quzg‘unlar suyaklaringizni tortqilab tashlaydi” deb turishini yozadi hind tarixchi olimi H.Lamb [2. 25].

Buyuk g‘alabalar sohibi, har birm harbiyga o‘rgan bo‘guvchi Boburning harbiy harakatlari va ularda mahorat bilan qullay olgan jang taktikalari hali tarixchilar tomonidan to‘liq tadqiq etilmadi. Boburning Kobul, Agra, Dehli shaharlari yaqinidagi buyuk g‘alabalarini har qancha o‘rganib tadqiq etsa ozdir.

1519 yil bahoriga kelib Bobur Hindistonni zabt etish rejalarini amalga oshirishga qat’iy kirishadi va keyingi 5-6 yil davomida bir necha bor yurishlar uyushtiradi. Chunki Qobulda osoyishta hayot hukm surardi. Sug‘orish tizimi yaxshilanishi bilan dehqonchilikdan olinadigan hosil miqdori ko‘payabordi. Chetdan olib kelib o‘tqazilgan ko‘chatlar yaxshi amal qilib, meva bera boshlaydi. Xalqning turmush farovonligi yaxshilanishi ko‘zga tashlanaboshladi, urush bo‘layotgan hududlardagi bezovtalikdan bezor bo‘lgan bek va amirlar, ularning navkarlari xavfsiz va bir maromda rivoj topib borayotgan Qobulga, Bobur shoh dargohiga guruh-guruh bo‘lib kela boshladilar.

Jangari afg‘on qabilalari ham o‘z yerlarida odatiy turmush tarzini tiklab, Bobur shohga ortiqcha tashvish to‘g‘dirmay qo‘ydilar. Shimoliy tarafdagi dashtlik qavmlar ham ortiqcha tahdid solmay qo‘ydilar.

1519-1525-yillarda Hindistonni qo‘lga kiritish uchun bir qator janglar olib boradi. 1526-yilning aprel oyida Panipat shahri yonida Hindistonning o‘sha vaqtdagi eng kuchli va e’tiborli sultoni Ibrohim Lo‘diyni mag‘lubiyatga uchratadi. 1527-yili mart oyida yana bir kuchli sarkarda, Chitora hokimi Rano Sango bilan qattiq jang bo‘lib o‘tadi va uni ham mag‘lubiyatga uchratib, Hind daryoning narigi sohilida ham o‘zining butunlay mutlaq hokimiyatini o‘rnatishga erishadi. Bunday zafarlarga erishishida Boburni navkarlari jasur va saxovatli inson deb bilishlarida edi. Unga ergashganlar, unga omad yulduzi kulib boqishiga ishonardilar. Xizmat ko‘rsatgan va taniqli sarbozlarga yangi unvon va lavozimlar berishda bobokaloni Amir Temur singari ish tutar edi [1. 23].

Bobur ko‘pincha “Tangrining inoyati bilan ozchilik ko‘pchilik ustidan g‘alaba qozonishi mumkin” - deguvchi edi. Bu jang haqiqatan ham harbiy intizomning yaxshiligi va sarkardaning mahorati tufayli g‘oliblikka olib keldi.

Bobur Mirzoning o‘z nasl-nasabini qanchalik qadrlashidan har bir inson o‘z nasl-nasabiga va millatiga, xalqiga e’tiborli bo‘lishni o‘rganishi maqsadga muvofiq ish hisoblanadi. Bo‘lajak milliy gvardiya ofitseri uchun Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburlar qoldirgan boy meroslarini o‘rganish va ularga amal qilib yashashi bilan boshqa yosh vatandoshlarimizga namuna bo‘lishga qodirdirlar.

Zahiriddin Muhammad Boburni buyuk davlat arbobi, shoir va harbiy sarkarda sifatida boy merosini o‘rganish bo‘lajak har bir ofitser kadrlarimizni ona-Vatanni himoya qilishga doimo shay bo‘lishida har qanday murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri va oqilona qarorlar qabul qilishida muhim vosita vazifasini o‘taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘aniyev A.S., Maqsudov Q.A., Mustafoyev N.G‘. Zahiriddin Muhammad Bobur – buyuk davlat arbobi, shoir va sarkarda. Risola. – T.: HTI. 2020.

2. H. Lamb “Bobur – Yo‘lbars” . –T.: “O‘zbekiston”, 2015.

НРАВСТВЕННЫЕ ВЗГЛЯДЫ ПРАВИТЕЛЯ И МЫСЛИТЕЛЯ ЗАХИРИДДИНА МУХАММАДА БАБУРА

Насиров К.Ж.
доцент Академии Вооружённых Сил Республики Узбекистан

Семья для нашего народа является священной, так как считается очагом воспитания и основой общества. Развитие и стабильность страны, прежде всего, зависит от спокойствия и благополучия в семье, где почётную роль играет глава семьи. Когда речь идёт о семейных ценностях, родственных узах, скрепляющих отношения между её членами, нам вспоминается личность Бабура, жизненная деятельность и творчество, которого являются ярким свидетельством традиционного образца восточной семьи.

В годы независимости, в рамках государственной политики возрождения национальной духовности и великого историко-культурного наследия Узбекистана в Андижане был установлен памятник и открыт музей легендарному сыну нашего народа Захириддину Мухаммаду Бабуру. Именно здесь 14 февраля 1483 года в семье прямого потомка Амира Темура Омар-Шейха Мирзы и Кутлуг Нигорханым – дочери Ташкентского правителя Юнусхана, родился мальчик, которого назвали Бабуром, что в переводе с арабского языка означает - «лев». С самого раннего детства Бабур рос способным ребёнком, влюбленным в литературу, искусство, красоту природы и окружающего мира. Родители дали ему образование и основы знаний он получил из уст выдающихся преавателей.

После смерти отца в 1494 году, в возрасте около 12 лет, поневоле он вынужден был унаследовать престол Ферганы. В 1500-1505 годах был вытеснен ханом Шейбани в Афганистан, где основал новое государство со столицей в Кабуле. В 1527 году Бабур одержал победу над правителем Дели Ибрахимом Лоди и его владения расширились, включая Пенджаб и долину Ганга. Правление Бабура за короткое время содействовало стабилизации политической ситуации в Индии и развитию торгово-экономических отношений. Чувствуя непрочность своего положения в чужих странах с самобытной культурой, он старался лучше познакомиться с местными обычаями и проявлял к ним всеобщую терпимость, что позволило династии Бабуридов править в Индии более 300 лет.

Джавахарлал Неру писал, что в период правления Бабура и его потомков в Индии произошли большие изменения, улучшившие жизнь, обогащенную искусством и архитектурой в среднеазиатском стиле. Согласно мнению исследователя из Кембриджа Морленда: «Бабур был не самым великим, но гораздо более человечным, чем все другие восточные правители…» [1].

Судя по историческим документам, сохранившимся до наших дней, справедливый правитель всегда думал о благе народа, находившегося его ответственностью. Индийский ученый Трипатхи Рам Просад писал, что Бабур заложил фундамент Великой Империи, которая по своей пышности, мощи и культуре осталась величайшей державой в мусульманском мире и могла даже соперничать с Римской империей.

За свою 47-летнюю жизнь Захириддин Мухаммад Бабур получил широкую известность как талантливый поэт, писатель, мыслитель, покровитель искусств, науки и культуры и оставил богатое научное и литературное наследие. Его перу принадлежит знаменитое «Бабурнаме», прекрасные лирические произведения – газели и рубаи, трактаты по мусульманскому законоведению – «Мубаййин» и поэтике – «Аруз», книги по музыке,

военному делу, а также собственный алфавит «Хатти Бабури». «Хатти Бабури» был создан на основе древнетюркской письменности и являлся упрощенным по начертанию [2].

Наследие Бабура как историка, географа, этнографа, прозаика и поэта переведены на более 30 языков мира и в настоящее время изучаются в востоковедческих центрах стран СНГ, Чехии, Словакии, Германии, Турции, Италии, Франции, США, Англии, Индии, Пакистане, Афганистане и т.д.

Среди многочисленных достоинств этого человека, правителя и мыслителя особое внимание хотелось бы обратить на проникновенную отцовскую любовь Бабура к своим детям. По рассказу его дочери Гульбаданбегим, Бабур пожертвовал собой ради любимого сына Хумаюна, который однажды заболел и находился при смерти. Согласно древнему обряду он прошел вокруг ложа сына трижды и сказал, что забирает болезнь, принимая смерть на себя. Результат потряс и ошеломил всех: Хумаюн в скорости встал на ноги и выздоровел, продолжив дело отца на троне Империи, а Бабур через три месяца, 26 декабря 1530 года в Агре скончался от тяжелой неизлечимой болезни.

Пример уважения и огромной любви к родителям были первостепенными принципами не только в жизни самого поэта, но и призывами в его литературных произведениях:

Уж лучше совершить тяжелых сто грехов,
Принять сто тяжких мук, сто обрести врагов,
Чем, став ослушником, родителя обидеть.
Чем не прийти к нему в тяжелый час на зов [3].

Поэтическое наследие Бабура многогранно и богато. Лирические произведения собраны в «Кабульский сборник», затем в «Индийский сборник». Он написал стихи на более 10 жанрах восточной лирики. В его стихотворениях отражены его личная жизнь, окружающая среда и исторические события. Основу поэзии Бабура составляют стихи любовно-лирического содержания. Мастерство поэта выражается в оригинальном литературном стиле и умелом использовании наиболее выразительных приёмов и языковых стилей.

Можно сказать, что стихи Бабура - автобиография поэта, в которых поэтическим языком, трогательно излагаются глубокие чувства, мастерски рассказывается о переживаниях, порожденных в результате столкновения с жизненными обстоятельствами. О чем красноречиво говорит сам поэт:

Каких страданий не терпел и тяжких бед, Бабур?
Каких не знал измен, обид, каких клевет, Бабур?
Но кто прочтёт «Бабурнаме», увидит, сколько мук
И сколько горя перенес царь и поэт Бабур.

Лирика поэта пропитана вдохновенной поэзией Алишера Навои. Известна переписка Бабура с Навои незадолго до смерти последнего. В своих газелях и рубаи поэт нимает такие проблемы человеческих взаимоотношений, как любовь, дружба, стремление к прекрасному и т.д.

Любовь к семье и Родине для Бабура - превыше всего: богатства, общественного положения и всех земных благ. В его газелях и особенно в рубаи с большой впечатляющей силой выражены тоска по родине и беспредельная любовь к ней.

Ты на чужбине - и забыт, конечно, человек!
Жалеет только сам себя сердечно человек,
В своих скитаньях ни на час я радости не знал!
По милой родине скорбит извечно человек.

В поэзии Бабур возвышает человека, относится к нему с великим уважением, высоко ставит человеческое достоинство. В своих рубаи он утверждает о том, как человек должен воспитывать в себе лучшие моральные качества.

Говоря о художественном языке произведений Бабура, необходимо отметить его простоту, общедоступность, ясность и сжатость. Поэт не любит громких фраз и сложных выражений. Простота языка Бабура способствует ясному восприятию читателями его творений, богатой палитры чувств и переживаний. Он также занимался художественным переводом, стихом перевел религиозно-философское прозведение «Волидия», то есть «Трактат о родителях» крупнейшего шайха накшбандийского ордена суфизма Ходжи Ахрора Вали.

О значении и месте Бабура и бабуридов в истории цивилизованного мира объективно признали индийские государственные и научные деятели Дж. Неру, М.Ганди, А.К.Сингха, Б.А.Луния и др [4].

Автобиография «Бабурнаме», первый образец этого жанра в исторической литературе, свидетельствует об истории великих тимуридов, борьбе за создание великой державы. Книга наполнена уникальным историческим и литературным наследием, живо воссоздаёт детали быта знати, нравы и обычаи эпохи. «Бабурнаме» неоднократно сравнивали с «Записками» Юлия Цезаря.

Имя Бабура - историка, талантливого художника слова, умелого полководца и государственного деятеля, - бессмертно. Память человечества экономна, из великого обилия возникающих образов, имен и деяний она хранит позднее лишь те, которые еще содержат в себе нечто важное и потребное для жизни. Она обобщает уверенно, крепко храня нужное, пока оно нужно. Именно труд Бабура «Бабурнаме» выдержал истинное испытание временем.

В каждый год в день рождения выдающегося ученого, мыслителя, поэта и правителя Захириддина Мухаммада Бабура, внёсшего неоценимый вклад в историю культуры народов Узбекистана и Индии, остававшимся при этом добрым человеком и отцом, широко отмечается в наши дни. Такого рода мероприятия приобретают особое значение в процессе воспитания растающего поколения, обладающего глубокими знаниями и духовным потенциалом, направленным на формирование гармонично развитой личности.

Литература:

1. Азимжонова С. Государство Бабура в Кабуле и в Индии. - М., 1977.

2. Ахмедов Б. Историко-географическая литература Средней Азии XVI-XVIII вв. - Т., 1985.

3. Поэзия Бабура. - Т., 1987.

4. Джавахарлал Неру. Открытие Индии. - Москва. Издательство иностранной литературы. 1955.

ВОЕННОЕ ИСКУССТВО ЗАХИРИДДИНА МУХАММАДА БАБУРА

Джумашев А.Н.

преаватель Военно-технический институт Национальной Гвардии

Акромов З.А.

курсант Военно-технический институт Национальной Гвардии

Захириддин Мухаммад Бабур был четвертым сыном Омар-шейха. С отцовской стороны Бабур был потомком Темуридов, а его мать была потомком Чингизидов. Это, безусловно, сказалось на личности Бабура, на его таланте полководца. В совершенстве обладая военным

искусством, своим личным примером вдохновляя войска, он смог завоевать огромную территорию, покорить народы и стать родоначальником династии Бабуридов, слава о которой пережила века.

Заняв престол своего отца и став правителем Ферганы, он с юности был вынужден отстаивать своё право на власть в междоусобных войнах. Против него выступил даже родной брат Джахангир-мирза, и ферганский удел пришлось разделить между братьями. Воспользовавшись усобицами, вождь кочевых узбеков Шейбани-хан захватил города Отрар, Карши, Шахрисабз, Самарканд и вытеснил Бабура из Средней Азии. Бабур был вынужден бежать в Афганистан. Прибыв в Афганистан, Бабур обнаружил страну, погружённую в хаос. Воспользовавшись этим, он захватил власть сначала в Кабуле, а потом в Кандагаре, чинив себе Афганистан.

Затем в течение долгих лет он готовил военный поход в Индию, время от времени делая набеги в Северную Индию. И когда Бабур оценил ситуацию для себя как благоприятную, он в 1525 году выступил в поход. Его войско спустилось в Пенджаб и заняло Лахор. Сидевший на троне в Дели султан Ибрахим Лоди правил Делийским султанатом и своей жестокостью, фанатизмом и религиозной нетерпимостью восстановил против себя своих данных. Стремясь избавиться от власти Ибрахима, индийские раджи решили пригласить в Индию Бабура, который, как они думали, избавит их от ненавистного султана и, взяв добычу, уйдёт туда, откуда пришёл.

Зимой в 1526 году был полностью захвачен Пенджаб. Решающая битва между ними произошла близ г. Панипат (к северо-западу от Дели) 21 апреля 1526 гогда. Армия Ибрахима Лоди, выступившая навстречу Бабуру, имела значительное численное превосходство (по некоторым источникам от 40 тысяч до 100 тысяч воинов против 12 тысяч у Бабура). Кроме этого в своём составе имела тысячу закованных в доспехи боевых слонов. Готовясь к сражению, Бабур выбрал хорошую позицию и тщательно укрепил её. На правом фланге его лагерь примыкал к Панипату, а левый фланг прикрывали искусственные сооружения – рвы, поваленные деревья и изгороди. По линии фронта было поставлено около 700 повозок, скреплённых ремнями, а между повозками установлены щиты. За ними разместились мушкетёры и пушкари, причём в укрытиях были оставлены проходы, достаточные, чтобы пропустить конные отряды в 100–150 всадников. На левом фланге Бабур поместил большой отряд для обходного движения.

Ибрахим Лоди атаковал. Однако вместо того чтобы обрушиться на врага, передние ряды индийцев, приблизившись к линии обороны войск Бобура, по какой-то причине остановились (произошло это, видимо, из-за неопытности султана, который, по свидетельству Бабура, был никудышным военачальником). Солдаты Бабура открыли беглый огонь из пушек и ружей по скопившимся массам воинов Ибрахима, представлявшим собой прекрасную мишень. Конница Бабура атаками с флангов и тыла смяла войска Ибрахима Лоди. Около полудня враг обратился в бегство. Разгром был полным — потери индийцев только убитыми составили около 20 тысяч. Среди павших врагов был опознан труп самого Ибрахима Лоди.

Преследуя отступавшего в беспорядке врага, Бабур 25 апреля занял Дели, а 4 мая вступил в Агру. Победа при Панипате, впрочем, не означала ещё установления его власти в Северной Индии. Вся территория к востоку от Агры оставалась в руках независимых афганских военачальников и индийских раджей. В следующие восемь месяцев власть Бабура распространилась от Аттока до Бихара. Мультан также был присоединён к его владениям. Но до полной победы было пока далеко. Два врага, с которыми предстояло бороться Бабуру,

чтобы обеспечить себе госство в Индостане, были афганцы и раджпуты. Последние сплотились вокруг Санграма Сингха, правителя Мевара.

Спор между Бабуром и Санграмом Сингхом разрешился 27 марта 1527 года в битве при Кхануа. Так же как в предыдущем сражении, Бабур велел укрепить свои позиции связанными повозками, насыпями и деревянными треножниками. Сражение было упорным, поскольку раджпуты имели численное превосходство. «Центры обоих войск стояли друг против друга, обные свету и тьме, – пишет Бабур, – а на правом и левом крыле происходила столь великая битва, что на земле возникло трясение, а на вышнем небе раздались вопли… Мрак от пыли собрался в облако и, словно тёмная туча, раскинулся над всем полем битвы… Разящие смешались с поражаемыми и победители с побеждёнными, так что признаки различий скрылись от глаз…» [1].

Решающую роль в победе Бабура опять сыграло огнестрельное оружие. «Мухаммад Хумаюн бахадур, – продолжает свой рассказ Бабур, — выкатив вперёд лафеты пушек, разбил ряды нечестивых, как и сердца их, ружьями и пушками» [1]. Раджпутская конница не смогла устоять против сокрушительного огня и потерпела полное поражение. «Немало убитых пало на поле битвы, – сообщает Бабур, – многие, отчаявшись в жизни, ушли в пустыню скитаний и стали снедью для ворон и коршунов. Из трупов убитых сложили холмы, из голов их воздвигли минареты…» [1]. Санграма не смог пережить своё поражение и умер в 1528 году. Избавившись от угрозы со стороны раджпутов, Бабур двинулся на восток против афганцев. В январе 1528 года он взял сильную крепость Чандари, занял Бихар, заставил отступить Нусрат-шаха, султана Бенгалии, и в мае 1529 года на реке Гогре разгромил выступивших против него афганцев во главе с Махмудом Лоди. К 1530 году границы его государства раздвинулись до Бенгалии.

Бабур совсем недолго прожил после своей блистательной победы. 26 декабря 1530 года он умер в Агре. Его похоронили на берегу Джамны, но через несколько лет прах падишаха был перевезён в Кабул. Личность и деяния Бабура произвели большое впечатление на современников. Историки отмечают, что он был не только способным полководцем и хорошим государственным деятелем, но обладал также незаурядным литературным талантом. Бабур писал прекрасные стихи на тюркском языке, а его проза отличается ясностью и простотой стиля. Кроме знаменитой автобиографии «Бабур-наме» и большого количества стихов он оставил после себя стихотворный трактат «Мубайин», где изложил свои взгляды на управление государством.

Литература

1. Захир ад-Дин Бабур. Бабур-наме [Электронный ресурс]. – URL: www.ziyouz. com.

БОБУРНИНГ ҲАРБИЙ ФАОЛИЯТИДА ЖАНГОВАР ЎРТОҚЛИК МАСАЛАСИГА ФУНКЦИОНАЛ ЁНДАШУВ

Абиджанова М.А.

Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари Академияси катта ўқитувчиси,

Ёшларни юксак ҳис-туйғуларга эга, баркамол шахс сифатида тарбиялаш йўлида, ўтмишдан мерос бўлиб қолган инсон тафаккурининг дурдоналарини, яъни буюк шахсларимизнинг илғор фикрларини ўрганиш — муҳим аҳамиятга эга. Чунки уларнинг илм-маърифат ва таълим-тарбия соҳасидаги беназир фикрлари, баркамоллик сари йўналтирувчи

ғоялари нафақат ижтимоий тараққиёт учун, балки ҳамма нарсага қизиқувчан, изланувчан, идрокли ёшларни тарбиялаш ва вояга етказишда бебаҳо маънавий хазинадир. Ана шу маънавий хазинадан ўринли фойдаланиш, уни тадқиқ этиш орқали дарс машғулотларига жорий этиш долзарб аҳамият касб этмоқда. Шу сабабдан ҳам ана шундай истеъдодли, илм-маърифат, юксак инсоний фазилатлар эгаси сифатида тарихда ўз номини Ватанпарварлик ва мардлик акс этган ишлари билан тарихда ўчмас из қолдирган шоир, олим ва ҳукмдор сифатида донг таратган Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ва ижодини ўрганиш, бугунги кунда ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашдек вазифани амалга оширишда муҳим маданий манбадир. У ўз даврининг истеъдодли ҳукмдори, ўта зукко, илм-маърифатни қадрловчи шахс сифатида келажак авлод учун намуна бўла оладиган, бир қўлида қалам ва бир қўлида қилич билан ўз тақдири ва яқинлари учун фидойилик кўрсатган бетакрор феноменал-“дилбар шахс”дир.

Инглиз тарихчиси ва таржимони Уильям Эрскин ўзининг “Бобур Ҳиндистонда” номли илмий асарида буюк саркарда, ҳукмдор Заҳириддин Муҳаммад Бобурга қуйидаги таърифларни келтирган. Бобур шарқ мамлакатлари тахтига ярашиб тушган ҳукмдорларнинг ёрқин намояндаларидан биридир. Унинг шахси олижаноб инсон ва улуғ шоҳга мансуб бўлган фазилатлардан таркиб топган. У жасур ва тадбиркор ҳамда шижоатли саркарда бўлиб, кишиларни ўз ортидан эргаштира оладиган ташкилотчи лашкарбоши эди. У кўнгли беғараз ҳамда ишонувчан киши бўлиб, ёшлик, ғайрат ва шижоати уни ҳеч қачон тарк этмаган [1.102 Б].

Бобурнинг ҳаёти, фаолияти ва бадиий ижоди тўғрисида қатор мамлакатларда, айниқса Ҳиндистонда кўп асарлар ва тадқиқотлар ёзилди. Кўпчилик маълумотларга қараганда, Бобур ватанидаги кучли зиддиятларни азият чекиб, тахт учун қонли курашларда мағлубиятга учраб, Ҳиндистонда тинч, мустаҳкам давлат барпо қилишни орзу қилган. Шу мақсадда Бобур Ҳиндистонга беш марта ҳарбий юриш уюштириб, охиргисида мақсадига эришади. Шимолий Ҳиндистоннинг бир қисмида ўз давлатини барпо қилиб, унинг пойтахти этиб, Агра шаҳрини танлайди. Бобурнинг Ҳиндистонга беш марта ҳарбий юриши ва бешинчи юришда ғалаба қозониб ўзини шоҳ деб эълон қилиш воқеалари, кам сонли қўшин билан кўп сонли ҳинд қўшинларини мағлубиятга учратганлиги тарихчилар асарларида батафсил ёритилган [2.133 Б].

Маърифатпарвар шоир ва ҳукмдор Бобур асарларининг мазмуни ранг-баранг бўлиб, у инсоннинг маънавий қиёфаси, фанлар равнақи, ёр, муҳаббат, яхшилик ва ёмонликни қаламга олган. Бобур ўзи забт этган Ҳиндистонда маданият ва маърифат ўрнатди. Бобур жуда эрта ҳаётдан кўз юмган бўлса-да, ўлмас асари “Бобурнома” билан ўзига ҳайкал яратди. Бу асар Ҳиндистонда буюк бобурийлар салтанатига асос солган Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг таржимаи ҳоли бўлиб, унда муаллиф оддий ва жонли тил билан ўзининг йўл қўйган хатоларию, қозонган ғалабалари, юксак орзу-умидларию тушкун ҳолатлари ҳақида ҳикоя қилади [3.74 Б]. Шу боис бу асар бой манба ҳисобланиб, тарихчилар унинг тарихий манба сифатида, адабиётшунослар уни бадиий асар сифатида, географлар уни жой номлари ва табиатини ифодаловчи географик асар сифатида, биологлар уни ўша давр ўсимликлар дунёси ва ҳайвонот оламини акс эттирган ноёб манба сифатида, ҳарбий соҳа вакиллари бу асарни муҳим ҳарбий маҳорат акс этган манба сифатида ва бошқа шу каби кўплаб мутахассисликлар ҳам уни муҳим илмий-назарий-услубий манба сифатида тадқиқ ва таҳлил этиб келишмоқдаки, бу эса асарнинг кенг қамровлилиги ва Бобур шахсининг такрорланмас эканлигини кўрсатади.

Маълумки, Қуролли Кучларнинг жанговар анъаналари тарихий равишда ҳарбий хизматда ўрнатилиб, авлоддан-авлодга ўтиб, ҳарбий хизматчиларнинг одоб-ахлоқ қоидалари ва қоидаларида намоён бўлади. Дунёнинг кўплаб давлатлари ўзларининг жанговар анъаналарига эга, уларнинг таркиби ҳар бир мамлакатда унинг тарихий хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда шаклланган. Жанговар анъаналар ижтимоий ва давлат тузилиши, шунингдек миллий хусусиятлар ва Қуролли Кучларнинг вазифалари билан белгиланади.

Ҳарбий хизматнинг ҳар бир йўналишида ўзига хос анъаналар мавжуд, масалан, разведкачилар, чегарачилар, учувчилар ва бошқаларни айтиш мумкин. Қоида тариқасида, бу анъаналар Қуролли Кучларнинг маълум бир жамоаларининг тарихи, унинг касбий хусусиятлари, қаҳрамонлик ва бошқа воқеалар билан боғлиқдир. Қуролли Кучлар учун жуда кўп умумий анъаналар мавжуд бўлиб, бу анъаналар йиллар давомида шаклланиб, такомиллашиб келмоқда. Бу каби анъаналар “Бобурнома” асарида ҳам ўз аксини топган.

Буюк тарихий сиймо сифатида Бобур шахси Европа ва АҚШ шарқшунос-тарихчи олимлари диққат-эътиборини ўзига жалб этган. Инглиз тарихчиси Эдуард Ҳолден, аввало, Бобурни машҳур Юлий Цезарь билан қиёслашни лозим топади: “Бобур феъл-атворига кўра Цезарга қараганда севишга арзигуликдир. Унинг манглайига юксак фазилатли инсон деб битиб қўйилган”. Бироқ Бобурнинг Юлий Цезардан ўзига хослиги шундаки, унга кучли давлат эмас, балки инқирозга учраб, ички зиддиятлар авж олган тожу-тахт насиб этган. Шу билан бирга у ўзи орзу қилган буюк ва эзгу амалларни ўз юртида эмас, балки ўзга ҳудудларда амалга оширганлиги билан характерланади. Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг болалик ва ўсмирлик йиллари ҳақида роман ёзган “Бобурнома”нинг инглиз таржимони Уильям Эрскин Бобурни Осиё шоҳларига қиёсан шундай баҳолайди:

“Саховати ва мардлиги, истеъдоди, илм-фан, санъатга муҳаббати ва улар билан муваффақиятли шуғулланиш жиҳатидан Осиёдаги шоҳлар орасида Бобурга тенг келадиган бирорта шоҳ топилмайди” [4.4 Б]. Дарҳақиқат, Бобур шахси ўта зиддиятли ва шу билан бирга ўта парадоксал аҳамият касб этади.

Юқорида айтиб ўтилган асарлардаги маълумотлардан шуни кўриш мумкинки, Заҳириддин Муҳаммад Бобур кенг қиррали қобилиятлар эгаси ва турли йўналишларда ўз фаолиятини юритган шахсдир. Айниқса, унинг миллий армиямиз анъаналари масалаларини тадқиқ этган тарихчи олим Ҳ.Дадабоев ўзининг “Амир Темурнинг ҳарбий маҳорати” номли илмий асарида Бобур томонидан Амир Темур ҳарбий маҳоратига билдирган фикрлари ўз ифодасини топган. Бобур Амир Темур жанг санъатида эришган ютуқларини яхши ўзлаштириб қолмасдан, балки амалиётда уни қўллай олган ҳукмдордир ҳам. Негаки, у Ҳиндистонни забт этишда худди Амир Темур қўллаган усул орқали кам сонли қўшин билан ғалабага эришди.

“Бобурнома” асари Бобурнинг ҳарбий маҳорати ва ҳарбий анъаналар ўз аксини топган муҳим тарихий манбадир. Асарда Бобур саркарда сифатидаги фаолияти, турли уруш ва жанглардаги кўрсатган жасоратлари ўз ифодасини топган. Шунингдек, Бобур дуч келган қийин вазиятларда ва оғир дамларда ўз яқинлари ва ҳарбий жамоасига намуна бўла оладиган фазилатларга эга бўлганлигини қайд этади. Масалан, “Бобурнома” асарида шундай ёзади: “*...Инжукон деган ердан уч-тўрт кунда Заррин довонининг тубига-Ҳаволи Қутий деган ғорга келдик. Ана шу куни қаттиқ бўрон бўлиб қор ёғарди. Барча ўлим ваҳимасига тушди. У эл тоғдаги ғор ва ковакларни ҳавол дейди. Шу ғорга етганда, қор қуюни тезлашди. Ушбу ғор қошида тўхтадик. Қор-кўп, йўл-сўқмоқ, тепилган-босилган йўл билан ҳам от зўрға юради. Кунлар ғоят қисқалигидан олдиндагилар ёруғ пайти ғор олдига келдилар, намозшом, хуфтон номозигача бошқалар етиб келди. Улардан кейингилар тўхтаган еридаёқ тушди. Кўплар от*

устида тонг орттирди, ғор торроқ кўринди. Мен ғорнинг оғзида курак олиб, қор курадим, қорни кўксимгача қазидим, сира ерга етмасди. Бироз шамолдан пана бўлди, ўша ерда ўтирдим. Ҳар қанча: "Ғорга киринг" дейишса ҳам кирмадим. Барча эл қорда ва бўронда, мен иссиқ уйда ва истироҳатда ўтираманми деб ўйладим" [4.208 Б]. Бу ҳолатдан кўриниб турибдики, Бобур ўзидан кўра ўз яқинлари ва ўз жамоаси ҳақида кўпроқ қайғурадиган ҳукмдор бўлган. Бу эса ўзгалар ҳақида қайғуриш, ўз яқинларига ғамхўрлик ва меҳр кўрсатиш, меҳрибонлик ва оқиллик сингари инсоний фазилатларини одат қилиб, анъана даражасига етказа олган раҳбар ҳамдир.

Воқеалар ривожи шуни кўрсатадики, Бобур бир кеча совуқда тунни ўтказади. Эртасига кўпчилик қистови билан ғорга киради. Бу эса унинг альтуристик характерига эга ҳукмдор эканлигини кўрсатувчи мезондир. "Бобурнома" асарида мазкур ҳолат бўйича шундай қайдлар учрайди: "*Ўша кеча қулоғимга совуқ таъсир қилди. Хуфтон намози пайти ғор ичини яхши кузатганлар "Ғор жуда кенгдир. Бунда ҳаммага етарли жой бор", деб қичқиришди. Буни эхшитишим билан, устимдаги қор-морни силкиб ғорга кирдим. Ғор яқинидаги йигитларни ҳам таклиф қилдим. қирқ-эллик кишига етадиган фароғатли жой бор экан. Егуликлар: қуритилган эт, қовурдоқ, кимда нима бўлса борини келтирдилар. Шундай совуқ, қор ва бўронда ажаб иссиқ бехатар ва фароғатли ерга келдик* [4.210 Б].

Бобур мурувват ва ҳамжиҳатликда ўз ҳарбий жамосига намуна, ибрат вазифасини бажара олган десак, муболаға бўлмайди. Негаки, бу хусусида "*Мана барча эл ташвиш билан машаққатда, мен мунда уйқу билан фароғатда бўлайми?! Бу мурувват ва ҳамжиҳатликдан йироқ ишдир. Мен ҳам ҳар ташвиш ва машаққат бўлса кўрайин, ҳар нечук эл тоқат қилиб турса, турайин. Бир форсий мақол бор: "Дўстлар билан бирга бўлган ўлим-тўйдир"* деб ёзади. Демак, юқорида айтиб ўтилган тарихий воқеа ва ҳодисаларда ҳарбий жамоанинг мушкул ҳолатларда, қўллаб-қувватлаш орқали қийин вазиятлардан чиқиб кета олишида жанговар ўртоқликни аҳамиятини белгилайди.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш лозимки:

биринчидан, Бобур шахси, унинг бой маънавий меросини тадқиқ этиш орқали бўлажак ҳарбий хизматчиларга ўргатиш муҳим амалий аҳамият касб этади;

иккинчидан, "Бобурнома" асарида келтирилган далиллар шуни кўрсатадики, ҳарбий анъаналар шаклланиши узоқ йиллик тарихга эга бўлиб, уни ўрганиш ва курсантлар ўртасида тарғиб этиш, уларда ҳарбий ватанпарварлик, юртга садоқат, фидойилик каби сифатлар шаклланиши учун маънавий асос саналади;

учинчидан, Бобур маънавий меросини кенг ўрганиш учун дарсдан ташқари вақтларда мустақил таълим учун ажратилган машғулотлар жараёнида "Бобур ҳаёти ва ижодини ўрганишга" доир семинар-тренинглар ташкил этиш, турли викториналарни ўтказиш, эссе танловларини ташкил этиш мақсадга мувофиқдир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Уильям Эрскин. "Бобур Ҳиндистонда". Тошкент "Чўлпон" нашриёти. 1995. –111Б.

2. И.Ҳошимов. Ҳиндистонда бобурийлар сулоласи салтанати. Тошкент "Ўқитувчи" 1996. –133 Б.

3. О. Ҳасанбоева. Педагогика тарихидан хрестоматия. Тошкент "Ўқитувчи" нашриёти. 1993. –208 Б.

4. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. (Ҳозирги ўзбек тилига табдили) Тошкент: "Ўзбекистон" 2019. – 440 бет.

ВОЕННЫЕ РЕФОРМЫ И ВООРУЖЕНИЕ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИИ БАБУРА

Алишер Мамажонов
доцент Андижанского государственного университета
Тургунов Абдурахман
старший преаватель Андижанского государственного университета

Говоря о великих потомках династии сахибкирана Амира Темура в Индии, Бабуридах, мы обращаем внимание на ее основателя, соотечественника Великого полководца, мудрого государственного деятеля, поэта, ученого Захириддина Мухаммада Бабура. Этот великий деятель Востока родился 14 февраля 1483 года в Андижане в семье Умаршайха, потомка Амира Темура, сына его внука Мироншаха Абдусаида Мирзы.

О жизни, деятельности и творчестве Захириддина Мухаммада Бабура написано много работ и исследований в ряде стран, особенно в Индии. По сведениям многих источников, Бабур страдал от ожесточенных конфликтов на своей родине, терпел поражение в кровопролитных битвах за престол. Из-за этого он был вынужден покинуть свою Родину и мечтал построить мирное сильное государство в Индии.

С этой целью Бабур начинает свой военный поход в Индию с 1519 года, активно осуществляя его, и до 1526 года пять раз организовывал военный поход в Индию, добиваясь своей конечной цели. В части северной Индии он возобновляет свое государство и выбирает город Агра, став его столицей. Ряд историков робно освещали тот факт, что Бабур победил большое количество индийских войск с 12-тысячным войском во время своих пяти военных походах в Индию.

В статье предпринята попытка дать представление о некоторых аспектах военной сферы в период правления Бабура.

“Бабур - один из ярких представителей правителей, взошедших на престол среди Восточных стран. Его личность состояла из качеств благородного человека и великого правителя. Он был отважным и предприимчивым полководцем, умевшим вести за собой народ.”[1,102].

Хотя Бабур добился великой победы с небольшой армией, он знал секреты военного дела, и в ходе своих действий он действовал, изучая такие произведения того времени «Кобуснома» и как писалось в этой книге и придерживаясь всем правилам этого произведения. «Даже если вы не можете сделать первый шаг раньше, действуя в бою, но не делайте шаг позже чем свой враг. Если вы попадете в гущу врагов в бою, вы никогда не выходите из войны, раньше, чем свои враги. Потому что на войне самовольно избавляешься от вражеской руки. Если они увидят ваше движение и ваше благородство (проворство, ловкость), они впадут в большое недоумение и в ярость. В таком месте пусть душа умрет, и душа Бойца (храбрым сердцем) будет долгой, и руки Богатыря будут выше»[2,68]. По структурному составу армия в период правления Бабуридов, как и у Тимуридов, делилась на кавалерию, артиллерию - стрелков, пехоту.

Национальный состав армии отличался по составу: "среди них были тюркские чигатайцы, барласы, джалаиры и кандагарские афганцы. После победы Бабура в Индии некоторые из военачальников и солдат разрешал вернуться на свою родину с добычей, а оставшихся Бабур отдвал в собственность большие земли и назначал некоторых из них на высокие должности. Потому что усиление армии было необходимо для безопасности молодой империи Бабура в Индии. [3,9].

В период Бабура военные поставки и расходы в основном покрывались из государственной казны. Снабжение войск также осуществлялось губернаторами провинций, которые несли ответственность за мобилизацию войск в государственной и военной системе. Каждый губернатор провинции отвечал за снабжение войск, собранных с их территорий. Они несли ответственность за обеспечение солдат одеждой, оружием и едой. В период Бабура во время военных кампаний, наряду с регулярными армиями, вспомогательные отряды также получали одежду, еду и оружие из государственной казны.

Во времена Бабура вооружение армии состояло из огнестрельного и холодного оружия. Холодное оружие включало мечи, луки, копья, кинжалы, топоры, дубинки и многое другое. «Пехота шла в основном с мечами, луками и боеприпасами» [6,85].

До изобретения винтовок, из которого в истории производились пули из пороха, лук (лук и стрела) был основным оружием дальнего действия в военной деятельности всего мира того времени. Сначала это была работа особых мерганов (снайперов), затем лук стал главным дальнобойным оружием армии любой страны.

В период правлении Бабура мастера и ремесленники, изготовлявшие оружие, пользовались большой репутацией и уважением среди ремесленников. Рукоять мечей сделанные из рога животных, слоновой кости и деревьев. Такие оружие, как мечи, кинжалы и копья, используемое в рукопашном бою, не всегда разрабатывалось в одинаковых количествах. Значение доспехов, шлемов и щита и другие виды ветхих оружий начали снижаться.

В Средней Азии винтовка начала распространяться в качестве оружия войны и охоты в начале шестнадцатого века, в основном привозились из Ирана и Турции. Во время похода Бабура в Индию там была особая группа, вооруженная винтовками. Роль группы, вооруженной винтовками, также была велика в завоевании Бабуром Индии. Позднее количество вооруженных винтовок увеличилось в армиях Акбаршаха, Джахангира, Шах-Джахана и Аврангзеба. Изначально винтовки ввозились в основном из Европы, но постепенно стали производиться и местными мастерами.

В течение многих лет Бабур готовит военный поход в Индию, начавшийся в 1525 году. Его войско спустилось в Пенджаб и заняло Лагор. Стойкости и настойчивости Бабуру было не занимать, да и делийский султан Ибрагим Лоди своей жестокостью и религиозной нетерпимостью восстановил против себя своих данных. В течение зимы 1526 года был захвачен Пенджаб, причем противник имел семикратное преимущество в живой силе, 100 тыс. всадников и тысячу закованных в доспехи боевых слонов

Бабур знал о страшной силе турецких пушек, он сразу же пригласил к себе турецкого мастера-пушкаря Али и создал собственную артиллерию. По обычаю турок Бабур укрепил свой центр повозками и установил среди них пушки. Воины противника не знали, что такое артиллерия, и после первых залпов огромная армия в смятении остановилась. В это время особые отряды Бабура зашли в тыл противнику, воинов Ибрагима охватила паника и они ударились в бегство, в этой битве погибло 40 тыс. человек и сам шах. Перепуганные, брошенные погонщикам слоны бродили по полю боя, и их стадами пригоняли к Бабуру, который не мог поверить, что столь великая победа далась так легко. В результате ему чинилась северная часть Индии от Инда до границ Бенгалии, включая Дели и Агру.

В 1526 году он основывает в Индии централизованное государство Бабуридов, которое вошло в мировую историю как «империя Великих Моголов», и существовало до завоевания в 1848 году Индии англичанами. Империя Бабура включала Восточный Афганистан, Пенджаб и долину Ганга до границ Бенгалии.

Большой ценитель и покровитель науки, искусства и литературы Бабур за свою короткую 47-летнюю жизнь оставил богатое литературное и научное наследие. Его перу принадлежат знаменитое «Бабурна-ме», снискавшее ему мировую признательность, оригинальные и прекрасные лирические произведения, содержательные трактаты по музыке, рифме, просодии, военному искусству.

Использованная литература

1. Эрскин У. Бобур Ҳиндистонда. Тошкент .“Чўлпон”. 1995.

2. Кайковус. Қобуснома.Тошкент. “Истиқлол”. 1994.

3. Ҳошимов И. Ҳиндистонда бобурийлар сулоласи салтанати. Тошкент. “Ўқитувчи”. 1996.

4. Бобур З. М. Бобурнома. - Тошкент. “Янги аср авлоди”. 2015.

5. Сирожиддин Саййид. Юз оҳ, Заҳириддин Муҳаммад Бобур... Тошкент. “Ўзбекистон”. 2011.

6. Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан. Тошкент. “Шарқ”. 2012.

7. Светлана Вдовина Газета Бизнес-вестник Востока 23 февраля 2006 года № 8(734)

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING ARTILLERIYA QUROL-ASLAHALARI RIVOJLANISHIGA QO‘SHGAN HISSASI

Alimardonov Z.Sh.

Milliy gvardiya Harbiy-texnik instituti kafedra boshlig‘i o‘rinbosari, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)., dotsent,

Isakov S.X.

Milliy gvardiya Harbiy-texnik instituti katta o‘qituvchisi,

Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan buyuk ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan, buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san’atimiz ham, albatta bo‘ladi[1].

Sh.M.Mirziyoyev

Dunyoda birinchi marta artilleriya qurol-aslahasini kim ixtiro qilgani hali hanuzgacha noaniq qolmoqda, chunki artilleriya tarixi etti asrdan ko‘proq vaqtni tashkil etadi. Biroq, bu qurollarga ehtiyoj ancha oldinroq paydo bo‘lgan edi: dastlabki janglardan boshlab odamlar, baland minora bilan o‘ralgan devorlar ortida o‘tirgan dushmanni urish uchun biron bir yo‘l topishga harakat qilishgan.

Tarixda o‘tgan harbiy muhorabalar sirlari, armiyani saqlash, tartib bilan ish yuritish, uni yangi aslahalar bilan boyitish tajribalari bugungi yosh askaru zobitlarimizda Vatanga muhabbat, o‘tmishimizdan g‘urur, yangilik yaratishga havas uyg‘otishi shubhasizdir. Ayniqsa, Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Boburning harbiy mahoratini, ularning yuksak jang tajribalarini imkon qadar o‘rganib, mustaqil yurtimiz mudofaa tarixining ayrim sahifalarini to‘ldirish dolzarb vazifalardandir.

Mazkur maqola ushbu katta mavzuning bir jihati bo‘lib, unda - Zahiriddin Muhammad Boburning artilleriya qurol-aslahalarinining rivojlanishiga qo‘shgan hissasi haqida so‘z yuritiladi.

Bobur Ghagra daryosi bo‘yida Mahmud Lo‘diy boshliq afg‘on va bengallarga qaqshatqich zarba beradi. Bobur bu jangda Askariy Mirzoning xizmatlarini alohida ta‘kidlagan. Bu ulug‘ sarkardaning hayotidagi oxirgi jangi edi. Hindistonlik tarixchilar Ghagra jangida Bobur tomonidan qo‘llanilgan artilleriyadan foydalanish usuli Hindiston zaminida birinchi bor qudratli kuchga ega ekanini isbotlagan. Panipat jangidan so‘ng Bobur ustod Mustafoga kattaroq hajmdagi to‘plarni yasashni buyurgan. Ghagra jangida daryoning ikkinchi tomonida turib qarshilik qilayotgan Mahmud Lo‘diy qo‘shini artilleriyadan tinimsiz o‘q uzilishi sabab, Bobur qo‘shinining daryoni kechib o‘tishiga xalaqit qilolmaydi. Bu esa, Boburga yanada mukammalroq qurol yaratish g‘oyasini beradi.

1525 yil voqealari bayonidan boshlab, «Boburnoma» sahifalarida Ustod Aliquli - harbiy to‘p yasovchi usta nomi tez - tez keladi. So‘ngra, Bobur harbiy aslahalari qatoriga aravalarga o‘rnatilgan “zarbzan” nomli qurol ham qo‘shadi. Tufang, to‘p, zarbzanlarning dushman askarlarini vahimaga solgani Boburda yangi g‘oyalarni amalga oshirish ishtiyoqini yanada oshiradi va bu ishning ustasi Ustod Aliquli bilan birga mutlaqo yangi qurol - artilleriya aslahasining ilk namunasini yaratishga kirishadi. Boburning bu ishni oxiriga etkazgunga qadar sabr-bardosh, chidam, uzluksiz izlanish olib borgani g‘oyat ibratlidir.

Ushbu jumlada, Zahiriddin Muhammad Boburning buyrug‘iga ko‘ra, juda mas‘uliyatli muhoraba oldidan aniq muddatda yasalib, amalga tatbiq etish lozim bo‘lgan aslaha haqida gap ketayotir. Mukammal to‘p yasash ustida Ustod Aliquli bilan birga uzoq izlanishlar olib boradi. Nihoyat, to‘pni yasashga muvaffaq bo‘ladi, barcha tayyorgarlikdan so‘ng, to‘pni sinab ko‘radilar. Bu qurilma toshni bir yarim chaqirim masofaga yoki Boburning yozishicha, “ming olti yuz qadam”ga otar edi[2]. Ilk tajriba muvaffaqiyatsiz chiqqan. Shunga qaramasdan, Bobur boshlagan ishining samarasiga ishongan, Ustod Aliqulini o‘ta o‘ng‘aysiz holatdan chiqarib, ko‘nglini ko‘taradi, hatto in‘omlar hadya etadi. Bu o‘z navbatida, Boburning ijodkor shaxsga munosabatini, yangilik yaratish sabr - bardosh talab etishini chuqur anglaganligini ko‘rsatadi.

Bobur bu borada ikki masalada o‘zining sinchkovligini namoyon etadi: birinchidan, u to‘p nishonining masofasini aniq belgilaydi, chunki bu qurolning asosiy sifat belgisi - o‘q qanchalik uzoqroqqa etishiga bog‘liq bo‘lgan. Ikkinchidan, uning Ustod Aliquliga qilgan in’omi faqat eng katta xizmat ko‘rsatgan, e’tiborli kishilarga ataladigan sovg‘asi bo‘lib, bu ham Boburning mazkur masalaga nechog‘li e‘tibor bilan qaraganini ko‘rsatib turibdi.

Jazo o‘rniga mukofot olgan usta butun qobiliyatini ishga solib, tajribada sinalayotgan to‘pning qusurini topadi va bu xabarni Boburga etkazishga shoshiladi. Bobur ustaning to‘pdagi kamchilikni qisqa muddatda aniqlab, yana zudlik bilan bu masaladan lashkarboshini xabardor etishni o‘z burchi deb bilganini taxsinga sazavor deb ta‘kidlaydi, texnik jihatdan eng murakkab bo‘lgan muammo to‘pni yaratishda uning qozonidagi poroxxonasidir, Ustod Aliquli aslahaning shu nozik qismi butunligidan xursandchiligini shohga etkazishga shoshgani ham shu bilan izohlanadi. Boburning mukammal to‘p yasash ustida Ustod Aliquli bilan birga olib borgan uzoq izlanishlari o‘zining yuksak natijasini beradi va misli ko‘rilmagan, 1500 - 2000 metrgacha bo‘lgan nishonni aniq urishga qodir bo‘lgan artilleriya to‘pi yaratiladi.



1-rasm. 1500-2000 metrgacha bo‘lgan nishonlarni aniq urishga qodir bo‘lgan artilleriya to‘pi.

Bunday qurilmalarning takomillashtirilgan tarzda yaratilishi XVI asr boshlaridagi harbiy texnikaning katta yutug‘i sanaladi[3].

Boburning yuksak bir niyati, orzusi - o‘sha davrda mukammal to‘p yaratishni amalga oshirgan mohir qurolsoz ustaga ehtiromi, uning xizmatini qadrlagani bo‘lsa, ikkinchidan, ta‘kidlaganimizdek, xuddi shu qurol Hindistonda uning g‘alabasini ta‘minlashda muhim omillardan biri bo‘lganidir.

Bobur Hindistonga yurish qilgunga qadar, avval Movarounnahrda Ahmad Tanbal, keyinchalik Hisravshoh, Shayboniyxon, Buxoro uchun kurashda Abdullaxon bilan jang qilgan, g‘alabalar nashidasini surgan, mag‘lubiyatlar alamini tortgan - ulkan muhoraba maktabini o‘tagan. Bobur yuz - yuz ellik ming askar, ayniqsa, ikki mingta jangovar filga (ta‘bir joiz bo‘lsa, bu fillar o‘sha paytda muhoraba maydonida bugungi tank vazifasini o‘tagan) ega hind sarkardasi Ibrohim Lo‘diy armiyasiga qarshi nisbatan kam sonli lashkar bilan kurashib, g‘alaba qozonishida ham ixtirolarining o‘rni beqiyosdir.

Taqqoslash uchun quyidagi ma’lumotni keltirish mumkin: Bobur Mirzodan uch yuz yil keyin, ya‘ni XIX asr boshlarida, o‘zi asli artilleriyachi bo‘lgan Napoleonning qo‘shinidagi zambaraklar 500 - 600 metrdan nariga ota olmagan ekan! Farang jahongiri Napoleonning to‘plari oppoq tutun purkab, o‘q otayotganini ko‘p kinolarda ko‘rganmiz, ammo, hazrati Bobur bobomizning ulardan uch barobar uzoqqa otuvchi to‘plarini kinolarda ko‘rish tugul, tasavvur ham qila olmaymiz.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash joizki, biz faqatgina Zahiriddin Muhammad Boburning harbiy mahoratiga oid bir jihatni ko‘rib chiqishga harakat qildik xolos. Bu bizga buyuk vatandoshimiz umr sahifasining bir pallasigagina nazar solish imkonini beradi. Buyuk vatandoshimiz o‘z davrida dunyo hamjamiyati taraqqiyoti uchun barcha sohalarda o‘zining benazir hissasini qo‘shgan siymo ekanligini biz avlodlar, yuksak tuyg‘u bilan chuqur anglashimiz, ta’bir joiz bo‘lsa, buyuk ajdodimiz tug‘ilib o‘sgan zaminda yashayotganimizdan faxrlanmog‘imiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalq so‘zi 2017 yil 4 avgust.
2. O‘zbekiston “Boburnoma” Toshkent – 2019.
3. https.//www.nampravda.uz > kultura > artilleriya.

БОБУРИЙЛАР СУЛОЛАСИНИНГ ҲАРБИЙ ЮРИШЛАРИДАГИ ПСИХОЛОГИК ТАМОЙИЛЛАР

Хайдаров К.А.

Миллий гвардия Ҳарбий-техник институти кафедра бошлиғи, сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD),

Темурийлар аввлодининг буюк саркардаси Заҳириддин Муҳаммад Бобур (1483—1530) жаҳонга машҳур “Бобурнома” асари ва унда акс этган бетакрор ҳарбий юрушлари билан шуҳрат топган улуғ шахс. Бобурнинг ҳарбий саънатида беқиёс матонатни ва душманлар билан музокарасида қанчалик психологик ёндашувни қўллаганини ўқиганмиз. Албатта, унинг ҳарбий юришлари, ғалаба ва мағлубиятлари ҳақида ҳам тарихчи олимларимиз анчагина фикрлар билдиришган. Айнан биз бу мақоламизда саркарданинг изчил шахсий жасорати, ўткир тафаккури, ҳарбий маҳорати, ҳозирги замон психологияси билан айтганда харизматик лидер шахс сифатида таърифлаш мақсадимиз бор.

“Бобурнома”ни синчиклаб мутолаа этарканмиз, бу темурийзоданинг ёшлигидан бобоси Амир Темур империясини қайта тиклашда, кенг миқёсдаги ҳудудда ягона, мустаҳкам сиёсатни юргизишга интилишида, орзуларини маълум даражада рўёбга чиқаришда нималарга асосланган ҳақида ўйладик.

Таҳлилимизни 1495—96 - йиллар воқеалари — Бобур 13 ёшда пайтида Хуросон, хусусан, Ҳисорда қандай ҳолат ҳукмрон бўлганидан бошлаймиз. Бу даврда темурий шаҳзодалар ва беклар юрт олишга ошиққан. Султон Ҳусайн Бойқаро тасарруфидаги Ҳисорда Султон Маҳмуд Мирзонинг беки Хисравшоҳ бош кўтариб, Бойқаро билан урушиб, икки марта унинг устидан ғолиб келади. Бобур бу ҳолатга шундай баҳо беради: “Хисравшоҳнинг мунча улғаймоғиға ва мунча ҳадди етмас ишларни қилмоғиға Султон Ҳусайн мирзонинг икки қатла келиб ола олмай ёнмоғи сабаб бўлди” .

“Бобурнома”да Ҳусайн Бойқарони ўткир саркарда, қиличбозликда беназирлиги эътироф этилса-да, рақиб билан муҳорабада ҳужумдан кўра мудофаага кўпроқ эътибор бериши танқид қилинган. Юқоридаги ҳолатда ҳам Ҳусайн йигитлари тутундан диққинафас бўлган лашкарни кўриб ҳужумга ўтишга рухсат сўраганда у кеч бўлгани, қоронғу тушаётганлигини сабаб билиб, рухсат бермайди. Бобур Султоннинг бу амрини мазкур муҳорабадаги қаттиқ янглишиш сифатида баҳолайди: “баъзи йигитлар тезлик қилиб урушға рухсат тиладилар. “Кечадур” деб Мирзо рухсат бермади”.

Бобур уруш манзараларини тасвирларкан, ғалаба ва мағлубиятни ҳарбий куч, аскар ва зобитлар сони, ҳарбий восита, қуроллар кучи ва ўлчови билан белгилайди, қиёслайди, солиштиради. Унингча, ғалабага эришиш учун рақибдан аскар сонига кўра устун бўлиш шарт эмас. Зотан, Хисравшоҳнинг муҳораба тажрибаси устунлик қилган. Ҳусайн Бойқаронинг душман кучи, уруш мавқеи, вақтини (“баҳор ёғинлари жиҳатидин…”) аниқ инобатга олмагани уни мағлубиятга олиб келган. Энг ачинарли томони, бу муҳорабада Ҳусайн лашкари сон жиҳатидан устун бўлган (“Булар мунча мирзолар ва мунча сардор беклар, бовужудким кишилари икки Хисравшоҳнинг кишисича бўлмаса, бир ярим ончада, худ не сўз…”). Яна ачинарлиси, Ҳусайн тарафдорларининг ғалабага ишончсизлиги, урушишга жазмлари йўқлиги уларни икки ой кавлаган хандақларидан ташқарига чиқмай ёв билан олишишларига монелик қилган (“…жазм риояти қилиб, хандақдин чиқмадилар”).

Бу фактларда Бобурнинг уруш олиб бориш услубига хос бир шакл кўзга ташланади. Унингча, киши қанчалик моҳир бўлмасин, ёв билан олишишда аниқ мақсади, юракдан

интилиши билан бирга, албатта, атрофдагиларнинг садоқати, кўмаги зарур. Яъни юксак ҳарбий маҳоратни рўёбга чиқариш учун аниқ фикр, қараш, концепция лозим: “Бурунғилар дебтурларким, қўрғон беркитмакликка бош керак, икки қўл керак, икки бут керак: бош сардор бўлғай. Икки қўл икки тарафтин келур кўмак ва мадад бўлғай. Икки бут қўрғоннинг суйи била заҳираси бўлғай. Биз бу атроф ва жавонибдағилардин кўмак ва мадад кўз тутарбиз, булар худ ҳар қайси бир ўзга хаёлда”.

Биз Бобурнинг ҳарбий қарашларини кўриб чиқиш учун атайин унинг Шайбонийхонга бўлган муносабатини асос қилиб олдик, нисбатан кенг тўхталдик. Худди шу муносабат — Бобурнинг ҳарбий концепциясини ташкил этади, десак хато қилмасмиз. Бобур ҳарбий юришлари давомида қўрқмаслик, жонфидолик, лашкарни ўзига эргаштириш, уруш майдонида шахсий мардлик кўрсатиш, хиёнатга нафрат, оддий аскар жасоратини қадрлаш, ҳар бир муҳорабага янгича ёндашиш, бой берилган жангдан андуҳга тушмасдан сабоқ олиш каби хислатларни ўзида тарбиялади, шуларга амал қилди. Албатта, Бобурнинг бу дастлабки адолати айрим жойда салбий натижа берган бўлса ҳам, кейинроқ тартибсизликка чек қўйган.

Бобур Панипат жангида, бугунги кун тили билан айтганда, “разведка”дан кенг фойдаланган. У жойларга ўз кишиларини юбориб, маълумот йиғган (“Ул юрттин дарё ёқалай қуйиға боқа икки кўч кўчулуб эдиким, тил тута борғонлардин Ҳайдарқули хабар келтирдиким, Довудхон Ҳайтимхонни беш-олти минг киши била миёни Дуоб сари кечурубтур. Уч-тўрт куруҳ Иброҳимнинг доирасидин берирак доира уруб ўлтурубтур”; “Хожа Калоннинг навкари Ҳайдарқулини тил тута юборилди”).

Бобур, аввало, рақиби Иброҳим Лўдий характерининг нозик жиҳатларигача, оила аъзолари, онаси, хуллас, керакли деб ҳисоблаган жамики маълумотларга эга бўлганидан сўнггина унга қарши курашга киради. Масалан, Иброҳим Лўдий қанчалик бой бўлмасин, табиатида мумсиклик ғолиблигини билган Бобур Ҳиндистонни забт этгандан сўнг Иброҳим қўл остидагиларни ўзига тобе этиб, ер, мулк, катта инъомлар беради.

Бобур рақиби Иброҳим Лўдий билан боғлиқ ҳинд ўлкасига оид барча маълумотларга эга бўлгач, урушга тайёрланишга киришади: хабарчилари (разведка) орқали етказилган маълумотларини жамлайди, умумлаштиради, хулосалар чиқаради. Разведка маълумотларида душманнинг қадам-бақадам ҳаракати, сони, қайси маҳалда қўним топганигача аниқликда берилган. Иброҳим кучини аниқ тасаввур этиш учун “тил” қўлга олиш ҳам режалаштирилган: “Иброҳим ўрдусидин ҳам мутавотир хабарлар кела бошладиким, бир куруҳ-икки куруҳ кўчуб ҳар юртта икки-уч кун мақом қила-қила келадур. Биз ҳам мутаважжиҳ бўлуб, Шоҳоболдин ора икки қўнуб, Жуун дарёсининг ёқосиға Сарсава тўғриси келиб туштук.

Ана шу тадбирлар маромига етгандан сўнг урушни олиб боришга ҳозирлик кўрилади. Бунда Бобур аввалги муҳорабаларда орттирган тажрибасидан келиб чиқиб, қурол-аслаҳасига ўзгартишлар киритади, “Рум дастури била” ҳарбий аробаларни урушга мослайди. Бу иш анча вақтни олса-да, сабр билан кутади: “Рум дастури била аробаларнинг орасида занжир ўрнига хомидин арғамчилар эшиб, бир-бирига боғлайдилар. Ҳар икки ароба орасида олти-етти тўра бўлғай. Туфангандозлар бу ароба ва тўраларнинг кейнида туруб, туфанг отқайлар. Бу асбобнинг тартиби жиҳатидин беш-олти кун бу юртта таваққуф бўлди” .

Иброҳим Лўдийнинг икки мингга яқин урушқоқ фили Бобурни кўп ўйлантиради. Бунинг устига, жанговар кемалари ҳам душманнинг куч жиҳатдан устунлигини таъминлаган. Шу боис, у жанговар тўп ясаш устида жиддий ишлайди. Унинг Уста Аликули билан бирга олиб борган узоқ изланишлари ўзининг юксак натижасини беради: мисли кўрилмаган, 1500 — 2000 метргача бўлган нишонни уришга қодир тўплар яратилади. Бу аслаҳадан Иброҳим

Лўдийнинг тўпни кўрмаган аскарлари ваҳимага тушади, тўплардан ғанимнинг кемаларига қаттиқ зарбалар берилади: “Бир неча кун кўпрук боғлагунча устод Аликули яхшилар тош отти. Аввалғи кун секкиз тош отти, иккинчи кун ўн олти тош отти”.

Биз юқорида Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳарбий маҳоратининг айрим қирраларини ёритишга уриндик, холос. Буюк саркарданинг ҳарбий истеъдодига оид синчиклаб ўрганиладиган жиҳатлар кўп. Урушнинг салбий оқибати, бек ва зобитларнинг хиёнаткорлиги, мақсадсиз уруш — умр заволи эканлиги, ҳарбий сафарбарлик сирлари, оддий аскар жасорати ва унга Бобурнинг муносабати, қалъа қуриш санъати ва уни беркитиш муаммоси, қўрғоннинг жойини танлаш сирлари, муҳораба олиб боришда жойнинг стратегик аҳамияти, армия ва озиқа заҳираси, асирга муносабат, ҳарбий ҳийлалар ва уни ўрнида қўллаш, разведка ва парол, муҳорабани бошқаришда шахснинг мавқеи, давлат бошлиғининг юрт бошқариш лаёқати ва бошқа масалалар шулар жумласидан. Булар орасида энг диққатга лойиқ жиҳат — бу Заҳириддин Бобурнинг жанг майдонидаги шахсий жасорати мавзуидир .

Фармоннинг бошқа бир жойида ҳиндистонлик султон ва рожаларнинг Амир Темур вассали бўлган “кофирлар туғини ислом мамлакатларининг икки юзга яқин шаҳрида тиккан эди. Масжид ва ибодатхоналарни хароб қилиб, у жойлардаги мўминларнинг хотин, бола-чақаларидан асир қилди”, дейилган. Кўриниб турибдики, Бобурнинг “ғазовот”и диний ҳаракат бўлмасдан, темурийларга мансуб ерларни қайтариб олиш, уларнинг шаънини ҳимоя қилишга қаратилган. Шунинг учун Заҳириддин Бобурга берилган “ғозий” шоҳ даражаси нисбий бўлиб, у бошқа ғозий султонлардан тубдан фарқланади. Тарихчи, бобуршунос Ғ.Сотимовнинг қуйидаги фикри бу масалага янада ойдинлик киритади: “Албатта, Ҳиндистонда бўлганида у маҳаллий ҳиндлар динига нисбатан муросасизлик қилган ҳоллар ҳам кўзга ташланади, лекин бу ҳол фақат жанг пайтларида, ғолиблик иштиёқи ёнган онлардагина сезилади… уларни ғайридин бўлгани учун эмас, балки ўз салтанатини ¬кенгайтириш ёлига ғов бўлган рақиб -сифатида ёлидан олиб ташлади. Бу мақсад ёлида у фақат ғайридин ражпутларнигина эмас, балки мусулмон афғонларнинг ҳам кўпини ўртадан кўтариб ташлаганлигини унутмаслик керак”

Бобурнинг ўтган бошқа шарқлик шоҳлардан фарқли ва бизни ҳайратга соладиган хислатлари кўпки, бир мақола доирасида улар ҳақида батафсил фикр билдириш мушкул. Мулоҳазаларимизни ҳинд тарихчиси Шри Рам Шарманинг бу борада холисона баён этган ушбу фикри билан якунлаймиз: “Бобурийлар Ҳиндистонга фотиҳ сифатида келган бўлсалар ҳам, улар қўл остидаги маҳаллий ҳиндларнинг ҳурматини қозонганлар ва уларга маъқул бўлган анъана ва удумларни ёлга қўя олдилар. Ҳар куни эрталаб шоҳнинг “Жароҳаи даршон” маросимида фуқаро олдида кўриниш бериши (саломга чиқиши), арздорларнинг шоҳ қабулига шикоят билан кира олиш имкониятига эга бўлиши, маъмурий идоралар раҳбарлари бажариши лозим бўлган вазифаларни аниқ ва равшан белгилаб берилиши… мамлакатни бошқаришдаги адолатли ишлари деб қараш керак”. Бу гувоҳликлар яна бир бор Бобурнинг шахсиятига оид ¬айрим қарашларни тўғри тушунишга ёрдам беради, деган умиддамиз.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Grekov B.D., Yakubovskiy A.Yu., Oltin O‘rda va uning qulashi, T., 1956; Razin Ye. A., Istoriya voyennogo iskusstva, t.2, M., 1957; Dadaboyev H., Amir Temurning harbiy mahorati, T., 1996.

2. Михаил Иванин. Икки буюк саркарда: // Тошкент. – 2019.

3. G‘.Sotimov, “Markaziy Osiyo va Hindiston tarixida boburiylar davri”, Toshkent, 2009.

4. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси, 2012 йил, 6-сон

ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУРНИНГ ҲАРБИЙ ХИЗМАТЧИЛАРГА ШАХСИЙ МУНОСАБАТИ

Мустафоев Ғ.

Миллий гвардия Ҳарбий-техник институти Илмий-тадқиқот ишларини мувофиқлаштириш ва халқаро ҳамкорлик бўлими иш юритиш бошлиғи

Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев таъбири билан айтганда, ҳозирги ахборот маконидаги қарама-қаршилик, одамлар, айниқса ёш авлоднинг онги ва қалби учун кураш кучайган шароитда ҳарбий-ватанпарварлик руҳидаги тарбиянинг ўрни ва аҳамияти тобора ортиб бораётганини замоннинг ўзи кўрсатиб турибди [1].

Заҳириддин Муҳаммад Бобур замонида ҳарбийлар кундалик ҳаёти ўзига хос хусусиятларга эга бўлиб, унинг бугунги кун, бугунги авлод учун аҳамиятини қуйидагилар белгиланиши мақсадга мувофиқ:

- Бобурнинг ҳарбийлар учун муҳим фазилатлари – характери, иймон эътиқоди, юксак маънавияти, садоқат ва ишончи барча учун ўзига хос намуна бўлиб хизмат қилади, айниқса, ҳарбий хизматчиларни кундалик ҳаётда ҳар томонлама ватанпарвар бўлиб тарбияланишларига кўмак беради;

- Бобур ҳарбий хизматчилар учун жуда зарур ҳисобланадиган мустаҳкам ирода соҳиби бўлиб, тарихий манбаларда бунга оид жуда кўп воқеалар ёзиб қолдирилган, яъни ҳар қандай вазиятда ҳам, охирги умид қолгунича курашиш хусусияти унда юксак даражада бўлганлигига гувоҳ бўлиш мумкин;

- Бобур саркарда ёки салтанат бошлиғи сифатида гавдаланади, аммо шу билан бир вақтнинг ўзида жангу-жадаллардан жуда оз вақт ортиб қолган кезларда илм-фан, маърифат билан машғул бўлдики, у томонидан яратилган мерос неча йиллардан буён қизиқиб ўрганилади. Ҳаттоки дунё миқёсида муҳим илмий тадқиқот соҳасига айланган бобуршунослик йўналиши вужудга келган бўлиб дунё мамлакатларида мазкур йўналишда фаол тадқиқотлар олиб борилмоқда. Яна бир жиҳати, Бобур қолдирган мерос қомусий аҳамиятга эга бўлиб, ҳарбий хизматчилар кундалик ҳаётида асосий касбидан ташқари, илму ҳунарни ҳам эгаллашлари лозимлигини англатади;

- ҳарбий хизматчилар кундалик ҳаёти учун зарурий хусусиятлардан бири бу – мунтазам равишда ғалаба руҳиятига эгалик ҳисобланади. Бундай характер Бобурда юқори даражага эга бўлиб, доимий равишда жанг майдонида буни исботлашга ҳаракат қилган, шу билан бирга аксарият ҳолларда, хоҳ қамалда бўлсин, хоҳ жангда у аскарлар билан бирга бўлишга ҳаракат қилган. Бундай ҳолат ҳарбийлар кундалик ҳаётида уларнинг руҳиятини мустаҳкамлашга ёрдам беради;

- ҳар қандай вазиятда ҳам Бобур кундалик ҳаётида адолат мезонларини устун қўярдики, ҳарбийлар кундалик ҳаётида бу жиҳати билан ҳам муносиб ўрнак бўла олади.

Юқоридаги жиҳатларни ўз қалбига доимий сингдириб боришлари учун ҳарбийлар Бобур шахсини мукаммал ўрганишлари ҳамда унинг асарлари, хусусан, “Бобурнома” билан танишишлари керак.

Қайд этилганидек ҳарбий ҳаракатлар олиб борилаётган паллаларда Бобурнинг аскарлар билан бирга бўлганлиги қўшинга жанговор руҳ бериб турганлиги маълум. “Қамал пайтида қўрғон деворининг устида ҳар кеча юрар эдик. Гоҳи мен, гоҳи Қосимбек, гоҳи яна беклар ва ичкилардан баъзилар айланарди. Феруза дарвозасидан Шайхзода дарвозасигача девор устида

от билан юрса бўларди. Баъзилар яёв юриб айланиб чиқарди. Бир айлангунча тонг отар эди [5, 82].

Манбаларда Бобурнинг мустаҳкам иродага эга бўлганлиги хусусида маълумотлар берилган. Унинг замонида қишнинг совуқ кунларида ҳам ҳарбий ҳаракатлар учун сафарларда қийинчиликларга дуч келинарди. Бобур эса чиниққан баҳодирликни ҳатто кундалик одатларда ҳам исботлаб келган. “Бобурнома”да қайд этилишича, “...ҳаво шу даражада совуқ эдики, ўша икки-уч кун орасида икки-уч киши совуқнинг шиддатидан ўлган эди. Менда ғуслга эҳтиёж бор эди. Ёқаларини қалин муз қоплаган, сувнинг тезлиги боис ўртаси музламаган бир ариқдаги сувга кириб ғусл қилдим. Ўн олти маротаба сувга шўнғидим. Сувнинг совуқлиги хийла таъсир қилди” [5, 86].

Сабр-тоқат, матонат ҳарбийлар кундалик ҳаётининг муҳим жиҳатига айланиши лозимлигини Бобур ҳаётида дуч келган машаққатлар, уларда бир тану-жон бўлиб қилинган ҳаракатлар самара берганлиги ойдинлашади. Ҳарбий ҳаракатлар учун сафар чоғида “... бир ҳафтага яқин қор тепиб, кунда бир-бир ярим шаръийдан ортиқ кўчилмас эди. Қор тепар киши мен эдим, ўн-ўн беш ички яқинлар ва Қосимбек эди. Ушбу кишилар яёв юриб қор тепар эдик. Ҳар қадам қўйганда белигача, қўксигача бота-бота қор тепар эди” [5, 148].

Ҳарбий хизматчилар учун яна бир ўрнак бўладиган жиҳатлардан бири, кўпчилик жангларда Бобурнинг қўшини душман қўшинига нисбатан озчиликни ташкил этганидир. Қўшимча қийинчиликларга қарамасдан, Бобур ушбу жангларда ҳам ғалаба қозонишни уддалаганлиги таҳсинга сазовор. Албатта ушбу ғалабалар яхши ният ҳамда мукаммал тайёргарлик эвазига амалга ошади. “Бобурнома”да маълумот бериладики, “...ўша йили Деҳли ва Ҳиндустон ерлари унинг (Иброҳим Лўдий афғон) тахти тасарруфида эди. Ҳозирда унинг лашкарини бир лак (юз минг киши) дейишарди. Ўзи ва бекларидаги филларнинг ҳисоби мингтага яқинлашарди. Биз унга қараб юрдик” [5, 196]. Лекин айрим ҳинд ва хориж тарихчилари бошқа рақамларни ҳам келтиради. Масалан, айрим манбаларда Иброҳим Лўдий қўшинининг сони қирқ минг, Бобурники эса саккиз минг атрофида бўлган, дейилади [6, 373].

“Тарихи Рашидий” келтирилишича, “...у Қандаҳорни фатҳ қилгандан кейин Кобулда бўлди. Хусравшоҳнинг уч мингтача қолган мўғуллари Улуғбек Кобулийнинг ўғли Абдураззоқ мирзони шоҳ қилиб кўтаришди ва Бобур шоҳга қарши қўшин тортишди, шу пайтда Бобур шоҳ қўлида беш юзта одам қолган эди. Ана шу беш юз киши билан у душманга қарши чиқиб жанг қилди. Бу энг қонли жанглардан бири бўлди. Кўп тўқнашув ва олишувлардан кейин у душманни тор-мор қилди. Ўша жангда шахсан унинг ўзи душманнинг бешта баҳодири – Али Саид, Али Сино ва яна учтаси билан уришди. У жасурлик билан қилич чопиб уларни қочирди. Ўша жангда Абдураззоқ мирзо Бобур шоҳнинг қўлига тушди. шоҳ мурувват қилиб, уни қўйиб юборди” [7, 312]. Демак бу каби ҳоллар Бобур учун доимий аҳамиятга эга бўлиб, ҳукмдор вазиятга олдиндан баҳо берган ҳолда унга доим тайёр бўлишга ҳаракат қилган. Ҳарбий хизматчилар ҳар қандай ҳолатда ҳам вазиятни олдиндан тўғри баҳолаган ҳолда унга мунтазам шай туриши муҳим жиҳатлардан саналади.

Ҳарбий хизматчилар кундалик ҳаётида аждодлар маънавий меросини ўрганишда “Бобурнома” асарининг аҳамияти, ҳарбий хизматчиларнинг қомусий билимларга эга бўлишлари учун ёрдам бериши билан характерланади. “Бобурнома”да тарихий шахслар, уларнинг насл-насаблари, ҳудудлар топонимик номлари ва ривожланган йўналишлари, халқларнинг урф-одат ва анъаналари, қўшин тузилиши, ҳарбий қурол-аслаҳалар, жанговор тактикалар ва уларни амалга ошириш механизмлари, қўшинларнинг ҳарбий ҳаракатлар давомида бошқариш ва рағбатлантиришга оид маълумотлар мавжуд. “Бобурнома”, мана,

салкам 500 йилдирки, тарих, география, этнография, лингвистика, зоология, ботаника, санъатшунослик ва боғлар яратиш билимлари бўйича энг қимматли манба ҳисобланиб келинмоқда. Ушбу мемуар асардан Ўрта Осиё, Афғонистон ва Шимолий Ҳиндистон тарихи, халқлари ҳаёти, урф-одатлари, ижтимоий тузуми, диний эътиқодлари ва ҳаётнинг турли-туман бошқа соҳалари ҳақида фавқулодда қимматли маълумотлар олиш мумкин [4, 51]. Ҳарбий хизматчилар мазкур асарни кундалик ҳаётда мутолаа қилишлари орқали ўз касбий фаолиятлари учун муҳим маълумотларни олишлари билан бирга, дунё халқлари маданияти ва шаҳарлари ҳақида билишлари мумкин бўлади.

Дунё миқёсида бобуршунослик соҳасида амалга оширишган тадқиқотлар натижасида жаҳоннинг элликдан зиёд мамлакатида махсус илмий йўналишлар вужудга келди ва уларнинг тадқиқотлари бугунги кунда ҳам фаол давом эттирилмоқда. Мазкур асарларда Бобур шахси ва “Бобурнома” асарига оид барча жиҳатларни синчиклаб ўрганишга, зарур ўринларда қиёсий тадқиқотлар олиб боришга ҳаракат қилинган ва уларда Бобур юқори даражада эътироф этилганлиги кўзга ташланади. Шундай олимлардан бирининг эътирофича, “...ҳар қандай синовга бардош бера олувчи, ирода ва матонатни мужассамлаштирган бу зот ўзида ҳарбий ҳийла ва жасоратни уйғунлаштира олади. Зарур бўлганда жазолашга ҳам, авф этишга ҳам қодир эди. У истеъдодли ҳарбий арбоб ва ишнинг кўзини биладиган, қўшинларни моҳирлик билан бошқара оладиган, уларни ишончини қозона олган саркарда эди. Эҳтиёткор давлат арбоби бўлатуриб, у ҳар қандай майда нарсага ҳам эътибор берар эди. Бу шоҳ фақат фотиҳ бўлибгина қолмай, яратувчи – бунёдкор ҳам эди” [3, 8-9].

Хулоса ўрнида қайд этиш керакки, ҳарбий хизматчилар кундалик турмуш тарзида Бобур ҳаёти ва фаолияти, ҳарбий маҳорати, илмий ва маънавий меросини фаол ўрганишлари орқали мамлакат хавфсизлигини мустаҳкамлашга ҳисса қўшишга, ҳар соҳада фаол, билимли ва қобилиятли бўлишга ҳаракат қилишлари даркор. Шундан келиб чиққан ҳолда, ҳарбийлар кундалик ҳаётида Бобур шахси ва “Бобурнома” асарини ўрганишни янада жадаллаштиришга оид қуйидаги таклиф ва тавсияларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ:

- Бобурнинг ҳаёт йўли давомида машаққатли синовларни бошдан кечиргани, уларни сабр-матонат, сабот билан енгиб ўтгани ҳарбийлар учун намуна бўлишини инобатга олган ҳолда, уларнинг тизимли равишда Бобур асарлари ва у ҳақда дунё олимлари томонидан яратилган китобларни ўқишларини ташкил этиш;

- бугун шиддат билан ўзгараётган мураккаб замонда одамларнинг қалбига йўл топиш ва уларни юксак мақсадлар сари илҳомлантиришда адабиёт ва санъатнинг таъсирчан кучини эътироф этган ҳолда Бобур ғазалларини ҳарбийлар ҳаётида фаол тарғиб этиш;

- Бобур ҳаёти ва ижоди, “Бобурнома” асари асосида ҳарбий хизматчилар, айниқса ҳарбий таълим муассасалари курсантлари ўртасида кўрик-танловлар, интеллектуал ўйинлар, маҳорат дарсларини ташкил қилиш;

- Бобур ҳаёти ва фаолиятини ОАВда фаол ёритиш орқали ёшлар онгида ватанпарварлик ва инсонпарварлик ғояларини янада мустаҳкамлаш зарур.

Шундай экан, аждодлар маънавий бойлигини фаол ўрганиш ва келгуси авлод учун муносиб мерос қолдириш ҳар бир инсоннинг ажралмас бурчидир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Хавфсизлик кенгашининг кенгайтирилган йиғилишидаги нутқи. 2020 йил 10 январь. Халқ сўзи. 2020 йил 11 январь.

2. Ватанимиз олтин остонаси Тошкент тобора чирой очмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 20 май кунидаги Адиблар хиёбонига ташрифидаги нутқидан. Халқ сўзи 2020 йил 21 май.

3. Бобур мемуари. Чиғатой тилидан француз тилига Паве де Куртейл томонидан таржима қилинган. Париж. 1871. Б. 8-9.

4. Жалилов С. Бобур ҳақида ўйлар. Т.: “Sharq”, 2006. 116 б.

5. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Т.: “Ўқитувчи” 2008. 287 б.

6. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. Т.: “Sharq”, 2007. 688 б.

7. Муҳаммад Ҳайдар мирзо. Тарихи Рашидий. Т.: “Sharq”, 2010. 719 б.

ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР ИЖОДИНИНГ ИЧКИ ИШЛАР ХОДИМЛАРИНИ ТАРБИЯЛАШДАГИ ЎРНИ

Алижонов А.Т.

Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси ўқитувчиси

Бобомиз Заҳириддин Муҳаммад Бобур номи билан ҳар қанча фахрлансак арзийди. Ўзбек халқининг довруғини дунёга таратган улуғ аждодларимиздан бири ўлароқ, ул зот бизни тарихимизни қадрлашга, келажакка буюк ишонч билан қарашга ўргатади.

Амир Темурдан сўнг темурий шаҳзодалар ичида мукаммал давлатчилик сиёсатини олиб борган, буюк Соҳибқиронга ҳар томонлама муносиб издош бўла олган авлодларидан бири Заҳириддин Муҳаммад Бобурдир. Чунки Бобур илм-маърифатга инсон эди.[47]

У 25 ёшида Афғонистон, Покистон, Ҳиндистон, Бангладеш каби қатор мамлакатларда буюк бобурийлар салтанатига асос солди. Унинг мамлакатни бошқариш сиёсати ва ҳарбий илми асрлар давомида жаҳон ҳукмдорлари учун намуна бўлиб хизмат қилди. Шунинг учун Бобурнинг номи Юлий Цезарь, Жалолиддин Мангуберди, Амир Темур каби буюк давлат арбобларининг номлари билан бир қаторга қўйилди.

Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг ташаббуси билан бой тарихий меросимиз, улуғ аждодларимиз ҳаёти ва фаолиятини теран ўрганишга эътибор ва қизиқиш кучайиб бораётган шу кунларда “Бобурийнома” маърифий романининг орадан йигирма икки йил ўтиб “Маънавият” нашриёти томонидан иккинчи нашри амалга оширилгани алоҳида эътиборга лойиқдир.

Ушбу асарда Бобур зиммасига юклаган масъулиятни адиб қуйидагича образли тасвирлайди: “Унинг шоҳлик қисмати гўёки темурийлар салтанатининг ойи ботиб, Мовароуннаҳр осмонида янги, порлоқ юлдуз пайдо бўлганини эслатарди. Чунки у тарих

[47] Фарғона областида қадимги замонларда пойтахт бўлуб турган Ахси ёки Ахсикент деган катта шаҳар бўлган экан. Чунончи, Наманган уездиға тобеъ худди Наманган шаҳридин ўн беш чақирим масофада Ахси бўлустида дарё лабида бир неча қишлоқдин иборатдур. Султон Абу Саид Султон Маҳмуд Мирзо ўғли, ул Мирзо Мироншоҳ ўғли, Мирзо Мироншоҳ Амир Темур ўғли. Умар Шайхни қабри алҳол Ахсидадур. Умар Шайх Мирзодин уч ўғил, беш қиз қолиб эди. Ўғлонларининг улуғи мен Заҳириддин Бобур эдим.

«Таърихи Рашидий»да[3] ёзилганига қараганда, Ахси шаҳрининг аввал биноси мўғул хонлари тарафидин бўлуб, 890-900-ҳижрий таърихида Амир Темур авлодларидин Умар Шайх Мирзо ва Шайбонийхон авлодларидин Жонибекхонга Ахси шаҳри бир неча вақт пойтахт бўлуб, бу шаҳарда ҳукмронлик қилган эканлар.

Қаранг: Исҳоқхон Ибрат. История древнего города Ахси в Ферганской области (1913) //Туркистон вилоятининг газети, 1913 йил, №48, 23 июнь.

осмонида ой ботган паллада намоён бўлган эди”.[48]

Бошқа шаҳзодалардан фарқли равишда Бобур даври энг мураккаб бир пайтга тўғри келди ва унга ўз юртида ҳукмронлик қилиш насиб этмади. Аммо мустаҳкам ирода, сабр-бардош, юксак ақл ва идрок, беқиёс жасорат ва матонатга эга Бобур ўзга юртда бўлса-да, ўз салтанатига асос солди. Бу салтанат тарқоқ мамлакатнинг сиёсий бирлигини таъминлади, унинг гуллаб-яшнаши учун асрлар оша ижобий таъсир кўрсатди. Шу боис ҳам Жавоҳарлаъл Неру: “Бобур Ҳиндистонга келиши туфайли буюк ўзгаришлар содир бўлди, санъатда, ҳаётда, меъморчиликда ва маданиятнинг бошқа соҳаларида янгича тараққиёт юз берди”, дея эътироф этган эди.

Бобур Мирзо шоир, шоҳ ва жамоат арбоби сифатида ўзидан бебаҳо маънавий мерос қолдирди.

Бобур ва бобурийлар давлатида салтанат ишлари қуйидаги вазирлик ва идоралар орқали бошқарилган: Молия вазири (хазинабон) ва у раҳбарлик қиладиган солиқлар бўлими. Бу идора бошлиғи “Девони аъло” деб аталган.

Салтанат ички ишлари иш бошқаруви идораси. Бу идора “Хони замон” ёки бош доруға томонидан бошқарилар эди.

Ҳарбий молия ишлари бошқармаси. Бу бошқарма ҳарбий лавозим эгаларига маош тўлаш ва ушбу тизимнинг сарф-харажатларини ҳисоб-китоб қилиш билан шуғулланган.

Адлия ишлари идораси. Бу идора фуқаролик ва жиноий ишларнинг ҳал этилишини назорат қилган, у “қози ул-қуззот”, яъни бош қози назорати остида иш олиб борган.

Хайрия ишлари бўлими. Бу бўлим диний ташкилотларга тушадиган киримлар, яъни хайрия ва эҳсонлар ҳисобини олиб борган. Бу ишлар учун “Садр ус-судур”, яъни бош садр мутасадди этиб белгиланган.

Маънавият бўлими. Бу идорага бош мухтасиб раҳбарлик қилиб, унинг жамоаси фуқароларнинг ахлоқ қоидаларига, эътиқодга амал қилиши каби ҳолатларни кузатиб борган.

Ҳарбий артиллерия (тўпхона) бўлими. Бу идора ҳарбий қурол-аслаҳа захираси билан шуғулланар эди. Унинг раҳбари эса “Мири отиш” ёхуд “Доруғаи тўпхона” деб аталган.

Ахборот ва хуфия хабарлар бўлими. Бўлим бошлиғи “Доруғаи дарак шавқи” деб аталиб, у мамлакатда бўлиб ўтаётган воқеа-ҳодисалардан шоҳни хабардор қилиб туриш учун масъул бўлган.

Пул зарб қилиш бошқармаси. Бу идорага ҳам махсус доруға раҳбарлик қилган.[49]

Ҳар бир юрт султони томонидан давлатчилик тарихида ўнлаб, юзлаб амр, фармонлар, фармойишлар берилади. Албатта, бу фармонларнинг мазмун-моҳиятини, муҳимлигини инкор қилмаган ҳолда умумдавлат, умуммиллат манфаатини кўзлаган, шу юрт тарихи ва тараққиётида ўз аксини қолдирган давлат ҳужжатлари, мамлакат бошлиғининг фармонлари ҳар даврда ҳам алоҳида ажралиб турган. Ушбу ҳол шоҳ Заҳириддин Мухаммад Бобурга ҳам тааллуқли.

Бобурнинг бундай қарорга келиши унинг умрининг охирроғида, аниқроғи вафотидан икки йил олдин содир бўлган. 1528 йил воқеалари. Бобурнинг Ҳиндистон билан боғлиқ юксак орзуси - Амир Темур салтанатини қайта тиклаш ва унинг ҳудудини аввалгидек темурийлар тасарруфига киритиш учун жон-жаҳди билан кураш олиб бораётган вақт эди. Маълумки, Бобурнинг юксак саркардалик, ҳарбий маҳорати, қолаверса лашкар билан ишлашда қобилиятли психолог сифатида иш кўриши туфайли сон жиҳатидан бир неча марта

[48] Хайриддин Султонов. Бобурийнома: Маърифий роман. — Тошкент, «Шарк» нашриёт-матбаа концернининг Бош таҳририяти, 1997

[49] *saviya.uz*

кўп, жанговар филлар ва маҳаллий шароитга мослашган ҳарбий қуроллар билан таъминлаган Иброҳим Лўдийнинг юз минглик армияси усти-ан ғалаба қозонган. Шундан сўнг, Ҳиндистондаги кўпгина шаҳар, қишлоқ ва ўлкаларга бош бўлган рожалар, саркардалар урушсиз қўл остидаги бошқарувни Бобур салтанатига топшириб, ортиқча қон тўкиш бефойда эканлигига ақллари етиб, муроса билан давлатчилик ишларини давом эттирганлар.

Ҳиндистон султони - рожаси Раана Сангаага қарши жанг катта ғалабасидан сўнг фармон бериб уни «Азимуш-шаън» деб атаганлигига эътиборни қаратмокчимиз. Мазкур масалани кенгроқ ёритишга Бобур фармонининг матни талайгина маълумот беради. Энг аввало шуни таъкидлаш керакки, Бобурнинг бу фармонида ғолиб шоҳнинг ғалаба нашидаси, фахрияси бор. Фармонда биринчи нав-батда исломий таълимот - Оллоҳга шукроналик келтириш масаласи юксак тарбиявий оҳангда ўз ифодасини топган. Бунда, Бобурнинг астойдил шукр дейишга асоси бор эди. Ахир, ўз юртида, ўзининг қондош темурийзодаларнинг юртга эгалик боис тож-тахт талашишлари, сарсон-саргардонликдан сўнг тақдир унга Ҳиндистондек буюк давлатни ўз тасарруфига киритишни насиб этди, бу мамлакатнинг йирик шаҳарлари қарийб курашсиз унга бўйсунди. («...муваффақият қўллари ғалаба нишонли байроқларимизни Деҳли, Агра, Жўнпур, Харийд, Биҳар ва бошқа ўлкаларда кўтарди»), Шу боис, Бобур «ҳар неъматга бирор шукр лозим ва ҳар шукрга унинг кетидан бирор неъмат» деган ҳикматнамо фикрни фармонига киритади. Бемалол айтиш мумкинки, Бобурнинг бу фикри бугунги мустақиллигимизнинг ҳар бир неъмати, ютуғига шукроналар қилишимиз лозимлигига ҳам асос беради. Чунки, бугунги шукримиз ортидан келгусида «бирор неъмат»нинг келиши аниқлиги ҳам тайин.

Бобурнинг бу фармонида унинг давлатчилик сиёсати, ўша даврдаги тасарруфига кирган юртларга темурийлар салтанати қонун-қоидаларининг кириб бориши, унинг амалда ишлаши ёки берилган фармонларга хилоф иш тутиши, солиқлар низомига риоя этиш ва этмаслик каби саволларга ҳам аниқ жавоб оламиз. Бобур унга қарши отланган Раана Сангаани энг аввало Ҳиндистонда Амир Темур салтанати томонидан жорий этилган қонунни поймол этганликда, Бобур давлатчилиги қонунларини писанд этмасликкина эмас, унга қарши қўшин тортиб ахдни бузганликда айблайди. Бобур фармонида ўқиймиз; «Кофирлар туғини ислом мамлакатларининг икки юзга яқин шаҳрида тиккан эди. Масжид ва ибодатхоналарни хароб қилиб, у жойлардаги мўминларнинг хотин, бола-чақаларини асир қилди».

Бобурнинг иккинчи «азимуш-шаън» фармони бевосита биринчи фармон билан чамбарчас боглиқ. Чунки, мазкур фармоннинг бош ғояси ва шоҳ Бобурнинг мақсади ҳам бутун салтанати ҳудудида май, шароб ва инсонни сархуш этувчи ичимликлар ва воситаларни ман этиш, ҳеч қаерда, ҳар қандай шароитда уни истеъмол этмаслик фармони эди, бу: «... Инсон табиати ўзининг яратилиши бўйича нафс лаззатларига мойилдир, завқ келтирувчи ёқимли нарсаларни тарк этиш Худонинг тавфиқ беришига ва осмоний кўмакка боглиқ. Башар нафси ёмонликка майл этишдан узоқ эмас».

«Ҳар иш вақтига боғлиқ» дея ўзини тергаб «парда остига бекиниб юзни кўрсатмас эди» деб шоҳлигига қарамасдан жамият аҳлини инсофга чақириш боис касри нафсига барҳам берганлигини кўрамиз: «... Гуноҳ ва саркашлик асбобининг илдизидан қўпориб ташлаб, тавба эшикларини тўлиқ жиддият билан қоқдик, тавфиқ йўлловчиси «Кимки астойдил эшик қоқса, киради» мазмунига мувофиқ иқбол эшигини очди ва бу урушни нафсга қаршилик кўрсатишдан иборат бўлган зўр уруш билан бошлашни буюрди».

Мазкур матндаги бир-икки ўринга диққатни тортамиз. Биз мумтоз адабиётимиз дурдоналарини мутолаа этар эканмиз, биринчи галда бу манбалар бугунги ёш авлодни, умуман инсоннинг тарбияси, ахлоқи, жамиятга бўлган муносабатига қанчалик фойдаси

тегишини ўйлашимиз, энг муҳими мутолаадан кейин биз Бобур сингари ўзимиздаги қайси иллатдан мардларча халос бўлишга интилишимизни назарда тутишимиз керак. Бобур фармонда «тавба эшикларини тўлиқ жиддият билан қоқдик» демоқда. Демак, инсон ўзида мавжуд ножўя ҳаракатлардан, жумладан майпарастликдан ҳам ҳавас билан, мавсумий тарзда халос бўла олмайди, унга барҳам бериш учун жид-дийлик, ирода талаб этилади. Кейин, Бобур майни тарк этишни унга қарши уруш очганлиги билан изоҳламоқда. Бу ҳам инсон табиатидаги ҳар қандай нопок ҳаракатни, ўзининг иззат нафсини синдириб, муттасил кураш ва қатъийлик билан амалга ошириш лозимлигини таъкидламоқда. Шубҳасиз, Бобурнинг бу ўгити бугунги ёшларимизни гиёҳвандлик, ароқ-хўрлик, диний экстримизм, ақидапарастлик кўчаларидан йиғиштириб олишга, мустақилликни неъмат билиб, уни мустаҳкамлаш сари асрлар оша бизга битилган бир чақириқ, сирли мактубдир.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, Заҳириддин Бобурнинг бу икки фармони бизнинг давримизда ҳам қимматини йўқотган эмас. Бу фармонларга 500 йилдан ортиқ вақт ўтди. Пекин бугун ҳам дунё халқлари меҳр, шафқат ва саховатга муҳтожлиги, солиқлар адолатли бўлиши лозимлиги, жамиятни ичкиликка муккасидан кетган кишилардан асраш, уларни инсофга чақириш давом этаётган экан, Бобурнинг «икки азиммуш-шаън» фармони шу иллатлар-дан халос этиш учун хизмат қилаверади.[50]

Буюк шоҳ Бобур Ҳиндистонда темурийларга хос улуғ бунёдкорлик анъаналарини давом эттирди: муҳташам қасрлар тиклаш, ариқ-каналлар қазиш, боғ-роғлар бунёд этиш, адабиёт, илмфан ривожига ҳомийлик қилиш, элни адолат билан бошқариш сингари фазилатлар кейинчалик Ҳиндистоннинг буюк фарзандлари томонидан чинакам ижобий баҳоланди. Ҳиндистоннинг буюк донишманд фарзанди, давлат арбоби Жавоҳир-лаъл Неҳру ўзининг «Ҳиндистоннинг очилиши ва ―Жаҳон тарихига бир назар» асарларида Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳақида самимиятга тўлиқ ушбу фикрларни изҳор этган:

«Бобур — дилбар шахс. Уйғониш даври ҳукмдорининг ҳақиқий намунасидир. У мард ва тадбиркор одам бўлган. »

Бобур ўта маданиятли ва жозибали инсонлар орасида энг етук инсонлардан бири эди. У мазҳабпарастлик каби чекланишдан ва мутаассибликдан йироқ эди... Бобур санъат ва, айниқса, адабиётни севарди".

ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР ВАТАНПАРВАР САРКАРДА

Холиқов И.Р.

Бухоро давлат университети ҳарбий таълим факультети ўқитувчиси

Шоҳ ва буюк саркарда, динига, миллатига содиқ фарзанд ҳамда нозик қалб эгаси шоир Заҳириддин Муҳаммад Бобур мирзонинг серқирра ижоди, уни буюкликка етаклаган ҳарб юришлари, ҳанузгача тарихчи олимлар, шоирлар томонидан ўрганилиб келинмоқда. Бобур мирзо ҳаётини ўрганар эканмиз, ғазал мулкининг султони мир Алишер Навоийдан кейин унинг ижодини давом эттирган маҳоратли шоир ва ёзувчи бўлсада, рубоийнависликда Навоий билан тенг беллаша оладиган шахс кўз ўнгимизда намоён бўлади. Заҳириддин Муҳаммад Бобур ўзининг ҳарбий юришлари билан ҳозирги кунга қадар барча авлодлар учун ўрнак бўладиган шахс сифатида эътироф этилади.

[50] Ҳасан Қудратуллаев Бобур давлатчилигини безаган фармонлар//e-tarix.uz.

Бобур умрининг охирига қадар ватан туйғуси ва соғинчи билан яшаган ватандошимиз сифатида тилларда достон бўлади. Бобур лирикасида ватан мавзуси алоҳида ўрин тутади. Унинг ҳар бир мисрасида ватан соғинчи, ватанга бўлган муҳаббат яққол намоён бўлади. Жумладан:

Кўпдан бериким ёру диёрим йўқдир,
Бир лаҳза-у бир нафас қарорим йўқдир,
Келдим бул сари ўз иҳтиёрим бирла,
Лекин боруримда иҳтиёрим йўқдур.

Ушбу мисралардан кўринадики, Бобурнинг қалбида ватан ва яқинлар соғинчи, қанчалик туғён сифатида жўш уриб туради. Аммо, Бобурнинг саркардалик маҳоратида ҳам она юртга бўлган муҳаббат, миллати ва динидан қатий назар оддий халқнинг ҳаётига шоҳ, саркарда сифатидаги масъулиятини кўришимиз мумкин. Бу борада гапирганимизда, унинг мардлиги, жасорати Темурийзодаларга хос эканлигини яққолроқ ҳис этамиз.

Унинг ҳаёти ва адабий фаолияти Мовароуннаҳрда сиёсий ҳаёт ниҳоят мураккаблашган, феодал гуруҳларнинг бошбошдоқлик ҳаракатлари авжига чиққан ва Темурийлар давлатининг инқирози давом этаётган бир даврга тўғри келган эди. Бундай мураккабликлар инъикосини «Бобурнома»да кўрган бўлсак, шоир руҳиятида қандай акс этгани эса, унинг шеърларида намоён бўлади. Мовароуннаҳрни бирлаштиришга уринишлари натижа бермагач, Бобур руҳан қийиналган, амалдорларнинг хиёнатлари таъсирида умидсизликка тушган кезлардаги кайфияти шеърларида акс этган. Кейинчалик ўз юртини тарк этиб, Афғонистон ва Ҳиндистонга юз тутганда Бобур шеъриятида Ватан туйғуси, Ватан соғинчи, унга қайтиш умиди мавж ура бошлади.

Толеъ йўққи жонимға балолиғ бўлди,
Ҳар ишниким, айладим хатолиғ бўлди,
Ўз ерин қўйиб Ҳинд сори юзландим,
Ёраб, нетайин, не юз қоролиғ бўлди.

Бобурнинг бутун ҳаёт фаолиятига назар ташлайдиган бўлсак, саркарданинг доимий равишда юртини қўмсаши, Ватанига бўлган муҳаббати ижодида акс этиб келиши яққол намоён бўлиб туришига гувоҳ бўламиз.

Бобурнинг жанглардаги маҳорати ғарбу шарқда ҳанузга қадар ўрганилиб, баҳсу – мунозараларга сабаб бўлиб келади. Айниқса Иброҳим Лўдининг юз мингга яқин аскари ва ярим минг ҳарбий филлари билан Панипат шаҳри яқинидаги жангда қилган ғалабаси Бобурнинг нақадар буюк саркарда эканлигини яна бир карра намоён этади. Бор-йўғи ўн икки мингга яқин қўшиннинг бундай ғалабага эришиши жуда мушкул эди. Бобур ютуқларида саркардалик тажрибасини етакчи ўринда кўрсатиш мумкин. У ҳарбий санъат сирларини нафақат дўстларидан, балки душманларидан ҳам ўрганган эди. Иброҳим Лўди билан жангида энг катта ютуқларидан бўлган ўқ отар тўпларни Шоҳ Исмоилдан ўрганган бўлса, тўлғама ишлатишни ашаддий ёвлари Шайбонийхон ва Убайдуллахон тажрибасидан ўзлаштирган. Ҳар бир саркардада бўлгани каби, Бобурда ҳам жангларда бир қанча мағлубиятлар бўлган эди. Бироқ, Бобур ҳар бир мағлубиятида йўлга қўйган хато ва камчиликларини кейинги жангларда ўз фойдаси учун ишлата олган. Жумладан, Лўди билан жанг қилиш учун бешта дарё ювиб турадиган Панжоб шаҳридан ўтиб борар экан, қўшинини бегона ўлканинг ботқоқликлари-ю касалликларидан беъзиён олиб ўтади. Шу ўринда Панипат шаҳри яқинидаги курашда, Бобур мирзонинг жанг учун тўхтаган майдони ҳам кучли режа асосида танланган эди. Уч томони ҳам беркитилган кенглик, яъни орқа томонида ботқоқликлар ва чангалзорлардан катта қўшиннинг ўта олмаслиги аниқ бўлса, ўнг томонида

Жамна дарёси, чапда эса Панипат шаҳрининг зич жойлашган аҳолиси уни ёвдан ҳимоя қилар эди. Бундан кўриниб турибдики, Лўдини фақат тўғридан кутиш мумкин. Лекин, салкам ўн баробар катта куч билан келаётган қўшинга ўқотар аравалар ва пистирмалар билан туриб бериш жуда қийин эди. Бобурнинг турли жойлардан келган кўп миллатли аскарлари ҳам унинг ҳарбий тажрибасига ишонишган, акс ҳолда муқаррар ўлим билан юзлашмаган бўлар эди. Бобурнинг ушбу сифати, саркарданинг қўшинини қанчалик ишонтириш қобилятига эга эканлигини кўрсата олади. Бобур жанг олдидан аскарларини машқ қилдираётган саркардаларга:"Машқ пайтида навкарларни аяманг, ҳозир уларни аясангиз, жангда мағлуб бўлиб ўлиб кетур", дея кучли машқ қилдиришга ундар эди. Саркарданинг аскарлар жанговар тайёргарлигига бундай қарашлари, замонавий армияларда ҳам кенг қўлланилиб келинадиган тажриба эканлигини гувоҳи бўламиз. Жумладан: "Ўқув – жанговар фаолият қанчалик қийин кечса, жангда аскар шунчалик енгиллик билан ҳаракат қилади" деган пурмаъно ибора кенг қўлланилади.

Бобур, барча бўлажак жангларда ишончли одамлари билан жангга кирар эди, жангга кирган барча одамларига ишонар эди. Бу қоидани саркарда бутун ҳарбий фаолиятида дастуриламал сифатида қўллаб келган. Саркарданинг барча жангларида малакали лашкарбошилари ва ўғли Хумоюн елкадош бўлишган. Бу унинг ғалабалари асоси эди. Ҳиндистон шоҳи Лўди билан бўлган жангда ҳам Хумоюнга қўшиннинг ўнг томонини ишониб топширган, унга Хўжа Калонбек, Ҳиндубек сингари маҳоратли саркардалар ҳамроҳ бўлган. Бобур Лўдининг кўп сонли қўшинига уч томондан ҳамла қилиб, очиқ марказдан эса етти юзта ўқ отар қурилмалар билан ҳужум қилган эди. Тўпларнинг ваҳимали овозидан, ҳамда оловли аравалардан чўчиган жанговор филлар эса, сафни бузиб ҳар тарафга қочади. Улар орасида Иброҳим Лўдининг оқ фили ҳам бўлиб, у жанг майдонида ҳалок бўлади. Ушбу ҳодиса, ғаним барча қўшинларини саросимага солишга олиб келди. Бобур қанчалик юксак ғалабага эришган бўлишига қарамасдан, илгари замонларда учраган саркардалардан фарқли ўлароқ, маҳаллий аҳолини аскарлари томонидан талон – тарож қилишга, уларнинг анъана ва урф-одатларини оёқ ости қилишга йўл қўймайди. Бу ҳаракатлари билан Бобур, ўзининг нақадар олийжаноб шахс эканлигини намоён қилади. Ҳатто, Лўдийнинг онаси малика Байдага ҳам шавқат қилди. Ваҳоланки, у Бобурнинг ўлимига сабабчи бўлади. Шу тариқа Бобур мирзо Ҳиндистон заминида бобурийлар сулоласига асос солган буюк саркарда сифатида нафақат юртимизда, балки ғарбу шарқда, ҳатто Ҳиндистоннинг ўзида ҳам тан олиб келинади. Бу иссиқ ўлкада яшар экан, қурилиш, маданий ва маърифий соҳага катта эътибор қаратади. Мамалакатдаги баъзи инсон ҳуқуқларига зид бўлган, эри ҳалок бўлса, хотини ҳам тириклигича алангада куйдириш сингари одатларга чек қўяди.

Қисқа бир вақт ичида, Бобур Ҳиндистонда сиёсий муҳитни барқарорлаштириш, Ҳиндистон ерларини бирлаштириш, шаҳарларни ободонлаштириш, савдо-сотиқ масалаларини тўғри йўлга қўйиш боғ-роғлар яратиш ишларига ҳомийлик қилди. Ҳиндистонни ободонлаштириш, унда ҳозиргача машҳур бўлган меъморий ёдгорликлар, боғлар, кутубхоналар, карвонсаройлар қурдириш, айниқса, унинг ўғиллари ва авлодлари даврида кенг миқёсга ёйилди. Ҳиндистон санъати ва меъморчилигига Марказий Осиё услубининг кириб келиши сезила бошлади. Бобур ва унинг ҳукмдор авлодлари ҳузурида ўша даврнинг илғор ва зеҳни ўткир олимлари, шоирлари, мусиқашунослари ва давлат арбобларини мужассам этган мукаммал бир маънавий-руҳий муҳит вужудга келди.

Бобурийлар давлатидаги маданий муҳитнинг Ҳиндистон учун аҳамияти ҳақида Жавоҳарлал Неру шундай ёзган эди: "Бобур Ҳиндистонга келгандан кейин катта силжишлар юз берди ва янги рағбатлантиришлар ҳаётга, санъатга, архитектурага тоза ҳаво бахш этди,

маданиятнинг бошқа соҳалари эса бир-бирларига туташиб кетди”. Бундан ташқари “Ҳиндистоннинг кашф этилиши” китобида Жавоҳарлаъл Неру Бобур ҳақида ушбу сўзларни эътироф этган: “Бобур дилбар шахс эди. Уйғониш даврининг ажойиб султони, кучли, тадбиркор киши бўлиб, санъатни, адабиётни, гўзалликни севарди”.

“Бобурийлар сулоласи” Ҳиндистонда 300 йилдан ортиқ ҳукмронлик қилишди. Ватандошмиз ва унинг авлодлари томонидан ўзга юртларда амалга оширган эзгу ишлари, қолдирган маданий меърослари, жаҳон цивилизациясида алоҳида ўринга эга. Асрлар оша, Бобурийлар томонидан Ҳиндистон ўлкасида барпо этилган бинолар барча миллат эгаларини лол қолдириши бунинг яққол натижаси сифатида қаралади. Бобурийларнинг Ҳиндистондаги амалий ишлари, инсонпарварлик, ватанпарварлик, диний бағрикенглик каби сифатлари ўзбек миллатининг бошқа миллатдан ажралиб турувчи хислатлари эканлигини ўзга юртларда намоён этиб келмоқда. Асрлар ўтади, бироқ ўзбекнинг буюк сиймоси, жаҳон тарихи зарварақаларида олтин битиклар билан битилган ҳолида мангу ўчмас из қолдирган шахс сифатида қайта ва қайта ўрганилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Жавоҳарлаъл Неру - Ҳиндистоннинг кашф этилиши китоби.

2. Ёқубов Ҳ., Заҳириддин Муҳаммад Бобур, Тошкент, 1949. Ҳасанов С., Бобурнинг Аруз рисоласи, Тошкент, 1981.

3. Ҳасанхожа Нисорий, Музаккири аҳбоб, Тошкент, 1993.

4. Нуритдинов М., Бобурийлар сулоласи, Тошкент, 1994.

5. Азимжонова С., Заҳириддин Муҳаммад Бобур, Мақолалар тўплами, Тошкент, 1995.

6. Файзиев Т., Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва унинг авлодлари, Тошкент, 1996.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING HARBIY YURISHLARI

Jumayeva L.I.

Buxoro viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti o‘qituvchisi

Movarounnahr 15-asr oxirida o‘zaro nizolashayotgan temuriy shahzodalar yoki mulkdor zodagonlar boshchilik qilib turgan, deyarli mustaqil bo‘lib olgan ko‘pdan ko‘p viloyatlarga parchalanib ketgan edi. Movarounnahr taxti uchun kurash avjga chiqqan, turli siyosiy fitnalar uyushtirilmoqda edi. Buning ustiga Umarshayx Mirzoga tobe bir necha bek va hokimlar yosh hukmdorga (Boburga) bo‘ysunishdan bosh tortadilar. Ularning ayrimlari Boburning ukalarini yoqlasa, ba’zilari mustaqillik da’vosini qiladi, yana boshqa birlari Boburga raqib, boshqalari amaki, tog‘alariga qo‘shilib, uni jismonan yo‘qotish payiga tushadi [2, 4]. O‘z amakisi va tog‘asi bo‘lmish Sulton Ahmad Mirzo bilan Sulton Mahmudxon xurujlarini daf qilgan Bobur hukmronligining dastlabki 2-3-yilida mavqeini mustahkamlash, bek va amaldorlar bilan o‘zaro munosabatni yaxshilash, qo‘shinni tartibga keltirish, davlat ishlarida intizom o‘rnatish kabi muhim chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Boburning dastlabki siyosiy maqsadi Amir Temur davlatining poytaxti, strategik va geografik jihatdan muhim bo‘lgan Samarqandni egallash va Movarounnahrda markazlashgan kuchli davlatni saqlash, mustahkamlash hamda Amir Temur saltanatini qayta tiklashdan iborat edi.

Bu paytda, qisqa muddat ichida Samarqand taxtiga uchinchi hukmdor kelgan edi. Sulton Ahmad Mirzo vafoti (1494-yil iyul) dan keyin taxtga o‘tirgan Sulton Mahmud Mirzo Samarqandda

davlatni 5-6 oydan ortiq idora etmadi — qisqa muddatli kasallikdan so‘ng 43 yoshida vafot etdi. Uning o‘rniga Buxoroda hokim bo‘lgan o‘g‘li Boysung‘ur o‘tiradi. 1495-1496-yillarda Bobur Samarqandga ikki marta muvaffaqiyatsiz yurish qiladi [3, 23-25]. 1497-yil kuzida u Samarqand atrofidagi bir qancha joylarni va 7 oylik qamaldan so‘ng Samarqandni egallaydi, Boysung‘ur Qunduzga qochadi. Shahar qamal tufayli nihoyatda og‘ir kunlarni boshidan kechirmoqda edi. Hatto ekkulik don ham topish mushkul edi. Bobur qo‘shinni ta’minlashda katta qiyinchiliklarga duch keldi. Navkarlaridan ayrimlari Andijon va Axsi tomon qochib ketadilar. Buning ustiga Andijonda qolgan ayrim beklar Boburdan yuz o‘girib, uning ukasi Jahongir Mirzo tarafiga o‘tadilar. Andijondan ko‘ngli notinch bo‘lgan va iqtisodiy qiyinchiliklarga uchragan, ayni zamonda og‘ir xastalikni boshidan kechirgan Bobur Samarqandni yuz kun idora etgandan so‘ng, uni tark etishga qaror qiladi. Ammo Xo‘jandga yetganda Andijon ham qo‘ldan ketib, muxoliflar ixtiyoriga o‘tganini eshitadi. Boburning Toshkent hokimi, tog‘asi Mahmudxon ko‘magida Andijonni qayta egallashga urinishi natija bermaydi. Bu muvaffaqiyatsizlik Bobur qo‘shiniga salbiy ta’sir etib, ko‘pchilik bek, navkarlar (700—800 kishi) Boburni tark etadi [5, 49-50]. O‘ziga sodiq kishilar (200—300) bilan qolgan Bobur ma’lum muddat Xo‘jandda turgach, Toshkentga — Mahmudxon huzuriga kelib, Andijonni qaytarib olish rejasini tuza boshlaydi. Ma’lum muddat o‘tgach, Bobur Xo‘jandga qaytadi, ko‘p o‘tmay, Marg‘ilonni qo‘lga kiritadi hamda Andijonni egallash tadbirlarini ko‘radi. Nihoyat, 2 yildan so‘ng (1498-yil iyun) uni qayta qo‘lga kiritadi. Bobur ukasi Jahongir Mirzo bilan sulh tuzib, uning ixtiyorida „Xo‘jand suvining Axsi tarafi viloyatlarini…“ qoldiradi, Andijon tarafi viloyatlarini o‘z tasarrufiga oladi.

Temuriylarning o‘zaro urushlari kuchaygan kezlarda Shayboniyxon Movarounnahrni istilo qilishga kirishadi. U 1499-yil Jizzax va Samarqand orqali Qarshi va Shahrisabzgacha bosib boradi, katta o‘lja bilan Dashti Qipchoqqa qaytadi. Oradan ko‘p o‘tmay, katta kuch bilan Movarounnahrga qaytgan Shayboniyxon Buxoro va Qorako‘lni egallaydi (1499), Sulton Ali Mirzo kaltabinlik bilan Samarqandni Shayboniyxonga jangsiz topshiradi (1500). Biroq, shahar aholisi va zodagonlarining ma’lum qismi temuriylar hukmdorligini tiklash tarafdori edi [4, 63-64]. Ular Farg‘ona hokimi Boburga maktub yo‘llab, Samarqandni ishg‘ol qilishga da’vat etganlar. Bobur 1500-yil kech kuzida o‘z qo‘shini (240 kishi) bilan Samarqandga yetib kelgach, aholi unga peshvoz chiqib, shahar darvozalarini ochib beradi. Shayboniyxonning shahar himoyasi uchun qoldirgan 600 nafar askari qirib tashlanadi. Shayboniyxon Buxoroga chekinadi. Qisqa vaqt ichida Samarqandning barcha tumanlari, Qarshi va G‘uzor shaharlarida Bobur hokimligi e’tirof etiladi. Ammo shaharda oziq-ovqat zaxiralari tugab, ocharchilik boshlangan edi. Bundan xabar topgan Shayboniyxon katta kuch to‘plab, yana Samarqandga yurish boshlaydi. 1501-yil aprelda Zarafshon bo‘yidagi Saripul qishlog‘i yaqinida bo‘lgan jangda Bobur qo‘shinlari yengiladi. Bobur Samarqandga chekinadi. Shahar yana qamal qilinib, u to‘rt oy davom etadi. Qamalda qolgan shahar aholisining ochlikdan tinkasi quriydi, Bobur 1501-yilning 2-yarmida noilojlikdan Samarqandni tark etib, Toshkentga, Mahmudxon huzuriga yo‘l oladi.

Shayboniyxonning bobosi Abulxayrxon 1451 yilda Temuriylar davlatida Boburning bobosi Abu Saidning hokimiyat tepasiga kelishiga yordam bergan. Shu bilan birga, Abulxayrxonning qizi Xon-zoda Abu Saidga turmushga chiqdi. Uning qizidan nabirasi Temuriylar oilasining Samarqanddagi Gur-Amir maqbarasida dafn etilgan [2, 95-96].

O‘zbek xoni Abulxayrxon 1450 yilda Ulug‘bekning qizi Robiya sulton begimga (1485 yil vafot etgan) uylangan. Ularning nikohidan Suyunchxo‘jaxon, Ko‘chkunchixon va Oq Burun sultonlar tug‘ilgan. Suyunchxo‘jaxon va Ko‘chkunchixonlar shayboniylar orasida katta nufuzga ega bo‘lib Turkiston, Toshkent va Movarounnahrni idora etganlar. Ko‘chkunchixon Muhammad Shayboniyxon vafotidan keyin Shayboniylar davlatini boshqargan [3, 32-34].

Shayboniyxon Boburning amakivachchasi, Mahmudxonning qizi - Oysha-Sulton xonimga uylangan, u Mug‘ul xonim nomi bilan tanilgan va xon umrining oxirigacha uning hurmatli rafiqasi bo‘lgan [4, 15].

Boburning yana bir amakivachchasi, Qutluk Xonim, shayboniyzoda Jonibek Sulton bilan turmush qurgan [5, 32-33].

Boburning o‘zi ta’kidlaganidek, 1526-1527 yillarda Hindistonni bosib olish paytida o‘zbek sarkardalari - sultonlar: Qosim Xusayn Sulton, Bihub Sulton, Tang Atmish Sulton, shuningdek G‘ozipurdan Mahmudxon Nuxani, Baba Kashka, Tulmish O‘zbek, Qurbon Chaxri unig tarafida jang qilishgan.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Boburnoma, T., 1989; Baburname (2izdaniye, dorabotannoye), T., 1993; Kitobssalot, T., 1993; Kitobzzakot, T., 1993; Kitoblhaj, T., 1993; Devon, T., 1994; Mahrami asror topmadim, T., 1995.

2. Abdulahad Muhammadjonov, Abdurashid Abdugafurov, O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

4. X.Yoqubov. Bobir. -T.:1941;

5. V.Zohidov. Bobirning faoliyati va ilmiy-adabiy merosi haqida. Kitobda: Bobir. Bobirnoma. -T.:1960;

ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУРНИНГ ФАВҚУЛОДДА ВАЗИЯТЛАРДАГИ ҲАРБИЙ-СИЁСИЙ ЮТУҚЛАРИ

Насиридинов З.А.
Миллий гвардия Ҳарбий-техник институти Симуляция маркази катта йўриқчиси
Ғиёсов Б.Ҳ.
Миллий гвардия Ҳарбий-техник институти гуруҳ командири

Ҳар бир халқнинг тарихий, маданий-миллий қиёфасини аниқ белгиловчи улуғ шоҳлари, буюк саркардалари бўлади. Инсониятнинг абадиятга мансуб ана шундай буюк фарзандлари сафида Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳам ўз ўрнига эга. Жаҳон тарихида Бобурдек ҳар томонлама шахсий намунага эга, иқтидор ва фазилатлари беқиёс шоҳлар жуда кам учрайди. Асл исми — Заҳириддин Муҳаммад ибн Умаршайх Мирзо[1] бўлиб, довюраклиги ва жасурлиги учун у ёшлигидан Бобур, яъни “Шер” лақабини олади.

“Шарқ тарих фалсафасининг ўзига хослиги шундаки, унда турли даврларда ҳукм сурган шоликлар ва уларнинг сулолалари тарихий даври сифатида қабул қилинади ва ана шу даврда юз берган барча воқеалар, маънавий-ахлоқий мезонлар, маданий ва ижтимоий тараққиёт бевосита ана шу шоликлар ва уларнинг сулолалари юргизган сиёсат асосида ўрганилади...”.

Демак, “Бобурийлар империяси” атамаси ҳам шунчаки вужудга келмаган. Заҳириддин Муҳаммад Бобур, биринчи навбатда, шоҳ, бобурийлар сулоласининг асосчисидир. Чунончи, тарихий сулолаларнинг ҳукмронлик йиллари давомийлиги нуқтаи назаридан қарайдиган бўлсак, балки бобурийлар империяси жаҳон тарихида энг узоқ муддат (1526 – 1858 йиллар, 332 йил) ҳукмронлик қилган сулола бўлиб чиқса ажаб эмас.

Бобурнинг сиёсий майдонга чиқиши, отасининг ўлими билан боғлиқ бўлиб, султон Умаршайх Мирзо Ахсида бевақт, 39 ёшида фожиали ҳалок бўлади. Табиийки, ўша

пайтдан бошлаб тахт учун турли шахслар ўртасида курашлар олиб борилади. Бу ерда Бобурнинг биринчи стратегик ютуғи, унинг Самарқанд тахтини эгаллашида эди. Оиланинг катта фарзанди бўлмиш, 12 ёшли Бобур ўзининг зехн-у заковати ва довюраклиги сабаб, асосий душманлари саналган Султон Ахмад Мирзо ва Султон Махмудхон хужумларини даф килиб, валиаҳд сифатида 1494 йил июнда салтанат тахтга ўтирди.

Темурийлар империяси заволга юз тутишни бошлаб, Мухаммад Шайбонийхон салтанат таҳтини эгаллаш учун сиёсий майдонга чиққанда, Бобур бу каби хавфли душманлардан эртароқ қутилиш лозимлигини ўз вақтида англаб етади. У ўз ҳарбий-сиёсий фаолиятида уч марта Самарқанд тахтини қўлга киритган бўлиб, шулардан иккитаси Шайбонийлар билан бўлган муҳоробада содир бўлган. Хусусан, У Мухаммад Шайбонийхон ҳақида: “Хожа Абулмакоримнинг тавассути била бу сўзни ораға солдимким, Шайбоқхондек ғаним пайдо бўлубтур, мунинг зарари туркка ва мўғулға мусовидур. Мунинг фикрини ҳололиқтаким, улусни ҳануз яхши босмайдур ва кўп улғаймайдур, қилмоқлик вожибдур”[2], дейди.

Шайбонийхон салтанат тахтини эгаллаш учун 1501 йилда иккинчи бор Самарқандни қамал қилганда, Бобур Самарқандда эди. Унинг опаси Хонзодабегим Шайбонийхонга никоҳланишга розилик бериш шарти билан укаси Бобурни шикастсиз Самарқанддан чиқиб кетишини таҳминлашга эришади ва Бобур ҳам ноилож бунга рози бўлади. Лекин мана шу ерда, Бобурнинг тўғри, тезкор-стратегик қарор қабул қилиш ҳамда вазиятни объектив баҳолай олиш қобилиятига тан бериш ўринлидир. Хусусан, Бобур ушбу қарор билан қуйидаги ютуқларга эришди ва янги сиёсий марраларни забт этишда ўзига йўл очди:

Биринчидан, Бобур жанг қилиш йўлини тутганда, халок бўлиши мумкин эди ва бу билан унинг сулоласи ҳам тарих саҳифасидан ўчириларди. Уни қолган оила аъзоларининг кейинги тақдири эса аянчли тарзда якунланиши ҳақиқитга яқинроқдир.

Иккинчидан, Шайбонийхон ўз сўзида турди ва Бобурнинг опаси Хонзодабегимга иззат-ҳурмат кўрсатиб, уни ўз никоҳига олди ва натижада Хонзодабегим салтанат малкасига айланди. Волидаи султон Қутлуғ Нигорхоним эса умрининг охиригача омонликда яшади. Тарихдан бизга маълумки, Хоразмшоҳлар маликаси Туркон хотуннинг Чингизхон асираси сифатидаги аҳволи аянчли бўлган ва у хору зорликда вафот этган.

Учинчидан, Бобур Самарқандни тарафдорлари билан бирга тарк этиши билан, хокимиятни қайтариб олиш учун янги куч тўплашга имконият туғилди. Самарқанд тахтини эгаллаш учун сўнгги уриниш ҳам муваффақиятсиз чиққани сабабли, Қобулга кетишга мажбур бўлди. Кейинчалик, Бобур Ҳиндистонга ҳарбий юриш қилди ва Бобурийлар империясига асос солди.

Юқоридаги мулоҳазаларга таянган ҳолда шуни айтиш мумкинки, Бобурнинг керакли пайтда тўғри қабул қилган битта қарори, бутун бир империя тузилиши учун пойдевор бўлиб хизмат қилди десак муболаға бўлмайди.

1526 йил 21 апрелда 43 ёшли Заҳириддин Муҳаммад Бобур қўшини (12 минг аскар) билан Дехли султони Иброҳим Лўдий қўшини (100 минг жангчи ва жанговар филлар) ўртасида Панипат яланглигида жанг бошланади. Ушбу жангда Лўдийлар қўшини Бобур армиясига қарши жанговар филлардан фойдаланган. Мазкур ҳарбий амалиётни ҳозирги кундаги танклар билан тенглаштириш мумкин. Шунга қарамасдан, Бобур ушбу жангда ўзини йўқотиб қўймади. Зудлик билан “Бобурнома”да “Фаранги”[3] номи билан келтирилган артиллерия қурилмасини қўллашга буйруқ берди. Хусусан, мазкур жанг учун Бобур пухта тайёргарлик кўришга ҳам улгурганди, яъни “Бобурнома”да устод Аликули[4] номи билан тилга олинган тўпчи уста ясаган артиллерия қурилмаси жангга шай қилинганди. Бундан ташқари, Бобур ушбу жангда ҳозирги кундаги “Бронетранспортёр”ларни ҳам қўллаган.

Қандай қилиб дейсизми? Бобур ҳўкизларнинг хом терисидан эшилган арқонлар билан бир бирига маҳкам боғланган 700 та аравани жангга ташлаган [5]. Туфакандозлар (ўқчилар) эса, аравалар орасига ўрнатилган қалқонлар воситасида ҳимояланиб душманни аёвсиз ўққа тутганлар. Кўриниб турибдики, ушбу жанговар техника ҳозирги зирҳли машиналарнинг ўзгинаси. Натижада туфак ва замбарак ўқларидан яродор бўлган филлар устларидан филбонларни йиқитиб, пиёдаларни янчиб ўтади, ҳиндлар саросимага тушиб қочишга тушганлар. Бу жангда Султон Иброҳим Лўдий ва тахминан 50 минг ҳинд жангчиси ҳалок бўлган. Шундан сўнг, Бобур Деҳли ва Аграни забт этиб, Шимолий Ҳиндистонда Бобурийлар давлатига асос солди.

Бир неча муддат олдин шоликни Ҳумоюнга топширган Бобур 1530 йил, 47 ёшида ўзи асос солган салтанат пойтахти Аграда вафот этди ва ўша ерда дафн этилди, кейинчалик (1539 йил) ўз васиятига мувофиқ хоки Қобулга келтирилиб, ўзи бунёд эттирган “Боғи Бобур”га[6] қўйилди.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур Ҳиндистонни истило қилган бўлсада, кўплаб Ҳинд сиёсатчилари уни ижобий фикрлар билан ёдга олади. Ҳиндистоннинг донишманд фарзанди, буюк давлат арбоби Жавоҳирлаъл Неру ўзининг “Ҳиндистоннинг очилиши” ва “Жаҳон тарихига бир назар” асарларида Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳақида самимиятга тўлиқ қуйидаги фикрларни изҳор этган:

“Бобур — дилбар шахс. Уйғониш даври ҳукмдорининг ҳақиқий намунасидир. У мард ва тадбиркор одам бўлган. Бобур ўта маданиятли ва жозибали инсонлар орасида энг етук инсонлардан бири эди. У мазҳабпарастлик каби чекланишдан ва мутаассибликдан йироқ эди... Бобур санъат ва айниқса, адабиётни севарди”[7] – деб ёзади буюк ҳинд арбоби Жавоҳарлаъл Неру.

Бангладеш пойтахти Дакка шаҳрини кезган ва “Лаълбоғ-қалъа” тарихий музейида бўлган адиб, Қамчибек Кенжа “Андижондан Даккагача” номли сафарномасида ҳаяжонини яшира олмай: “Ҳиндистон ва Покистон шаҳарларида кўп мозийгоҳларда, жумладан, Ҳайдар-ободдаги машҳур Соларжанг, Лоҳурдаги миллий музейларда бўлган эдик. Лекин Шарқ оламининг олис бир четида бобурийлар ҳаёти, уларнинг шолик фаолиятига оид ягона, махсус музейни кўрамиз, деб сира ўйламагандик”[8], деб ёзади.

Фойдаланилган адабиётларнинг рўйхати

1. Интернет материали. Манба: http://ferlibrary.uz/zairiddin-muammad-ibn-umarshayh

2. Қудратуллаев Ҳ. “Мунинг зарари туркка ва мўғулга мусовийдур”. Мақола., 18.01.2020 йил. Манба: https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/hasan-qudratillaev-muning-zarari-turkka-va-mogulga musoviydur/

3. Заҳириддин Муҳаммад бобур “Бобурнома”,. 200-бет. Фаранги – Бобурномада “Европадан келтирилган отиш қуроли”.

4. Қудратуллаев Ҳ. “Бобур – миллий артиллерия асосчиси. Мақола”,. 29.05.2013 йил. Манба: https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/asan-udratullaev-bobur-millij-ar/

BUYUK SARKARDA- ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

Raximov. I. A.

Farg‘ona politexnika instituti o‘qituvchisi

Darhaqiqat, Zahiriddin Muhammad Bobur haqida so`z yuritar ekanmiz, birinchi navbatda u yashagan davr va muhitni shuningdek, uning juda erta yosh taxtga o`tirganligini inobatga oladigan bo`lsak uning faoliayatini real yoritgan bo`lamiz.

Zahiriddin Muhammad Bobur O‘rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she’riyatida o‘ziga xos o‘rin egallagan adib, shoir, olim bo‘lish bilan birga yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir. Bobur keng dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida nomi qolgan bo‘lsa, serjilo o‘zbek tilida yozilgan «Boburnoma» asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan ham joy oldi. Uning nafis g‘azal va ruboiylari turkiy she’riyatining eng nodir durdonalari bo‘lib, «Mubayyin» («Bayon etilgan»), «Xatti Boburiy», «Harb ishi», Aruz haqidagi risolalari esa islom qonunshunosligi, she’riyat va til nazariyasi sohalariga munosib hissa bo‘lib qo‘shildi. Adabiyot, nafis san’at, tabiat go‘zalligiga yoshligidan mehr qo‘ygan Zahiriddin, barcha Temuriy shahzodalar kabi bu ilmlarning asosini otasi saroyida, yetuk ustozlar rahbarligida egalladi. Biroq uning betashvish yoshligi uzoqqa cho‘zilmadi. 1494 yili otadan yetim qoldi. 12 yoshida otasi o‘rniga Farg‘ona ulusining hokimi etib ko‘tarilgan Bobur qalamni qilichga almashtirib, Andijon taxti uchun ukasi Jahongir Mirzo, amakisi Sulton Ahmad Mirzo, tog‘asi Sulton Mahmudxon va boshqa raqiblarga qarshi kurashishga majbur bo‘ldi. Bobur ukasi Jahongir Mirzo bilan murosaga kelish uchun unga yon berishga — Farg‘ona ulusini ikkiga taqsimlab, yarmini ukasiga topshirishga qaror qilda va o‘zi Samarkand uchun olib borilayotgan ku-rashga kirishib ketdi. Bir necha yil davom etgan bu kurash qirg‘in-barotdan boshqa biror natija bermadi: unda katta harbiy kuch bilan aralashgan Shayboniyxonning qo‘li baland keldi va Bobur Samarqandni tashlab ketishga majbur bo‘ldi. 1504 yili Shayboniyxon Andijonni ham qo‘lga kiritgandan so‘ng, Bobur janubga qarab yo‘l oldi va Kobul ulusida o‘z hokimiyatini o‘rnatdi. 1505-1515 yillarda u Markaziy Osiyoga qaytishga bir necha bor urinib ko‘rdi. Ammo bu urinishlardan hyech qanday natija chiqmadi. So‘ng o‘z mavqyeini yanada mustahkamlash maqsadida, 1519-1525 yillar davomida Hindistonni qo‘lga kiritish uchun bir necha bor janglar olib bordi. 1526 yil aprel oyida Panipatda Hindiston sultoni Ibrohim Lo‘di bilan va 1527 yili mart oyida Chitora hokimi Rano Sango bilan bo‘lgan janglarda Boburning qo‘li baland keldi.

Tarixiy ma’lumotlarning bayon qilishicha, Boburning Hindistonga yurishida Dehli hukmdori Ibrohim Sulton siyosatidan norozi bo‘lgan Panjob hokimlari ham Boburni qo‘llaganlar va Sikri jangidagi bu g‘alaba Boburga Hindistonda o‘z hukmronligini uzil-kesil o‘rnatish va Boburiylar sulolasini barpo etish imkoniyatini berdi. Biroq qisqa bir vaqg ichida Bobur Hindistonda siyosiy muhitni barqarorlashtirish, Hindiston yerlarini birlashtirish, shaharlarni obodonlashtirish, savdo-sotiq masalalarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish bog‘rog‘lar yaratish ishlariga homiylik qildi. Hindistonni obodonlashtirish, unda hozirgacha mashhur bo‘lgan me’moriy yodgorliklar, bog‘lar, kutubxonalar, karvonsaroylar qurdirish, ayniqsa, uning o‘g‘illari va avlodlari davrida keng miqyosga yoyildi. Hindiston san’ati va me’morchiligiga Markaziy Osiyo uslubining kirib kelishi sezila boshladi. Bobur va uning hukmdor avlodlari huzurida o‘sha davrning ilg‘or va zehni o‘tkir olimlari, shoirlari, musi-qashunoslari va davlat arboblarini mujassam etgan mukammal bir ma’naviy-ruhiy muhit vujudga keldi. Bobur Hindistonda katga hajmdagi davlat ishlari bilan bir qatorda o‘zining adabiy-badiiy faoliyatini ham davom ettirdi va yuqorida zikr etilgan asarlarini yaratdi. Boburning butun jahon ommasiga mashhur bo‘lgan shoh asari «Boburnoma»dir. Ma’lumki, unda Bobur yashagan davr oralig‘ida Movarounnahr, Xuroson, Eron va Hindiston xalqlari tarixi yoritilgan. Asar asosan uch qismdan iborat bo‘lib, uning birinchi qismi — XV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda ro‘y bergan voqyealarni; ikkinchi qismi — XV asrning oxiri va XVI asrning birinchi yarmida Kobul ulusi, ya’ni Afg‘onistonda ro‘y bergan voqyealarni; uchinchi qismi — XVI asrning birinchi choragidagi Shimoliy Hindiston xalqlari tarixiga bag‘ishlangan. «Boburnoma»da o‘sha davrning siyosiy voqyealari mukammal bayon qilinar ekan, o‘z yurti Farg‘ona viloyatining siyosiy-iqtisodiy ahvoli, uning poytaxti Andijon shahri, Markaziy Osiyoning yirik shaharlari: Samarqand, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz, O‘sh, Urganch, O‘ratepa, Termiz va boshqa shaharlar haqida nihoyatda nodir

ma’lumotlar keltirilgan. Unda Kobul ulusining yirik shaharlari Kobul, G‘azna va ular ixtiyoridagi ko‘pdan-ko‘p tumanlar, viloyatlar, Shimoliy Hindiston haqida ma’lumotlarn iuchratish mumkin.«Boburnoma»ni varaqlarkanmiz, ko‘z oldimizdan Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindiston xalqlariga xos bo‘lgan fazilat va nuqsonlar, ularning tafakkur olamini kengligi va murakkabligi bilan birga, o‘sha davrdagi hayot muammolari, Bobur davlatidagi siyosiy va ijtimoiy hayotning to‘liq manzarasi namoyon bo‘ladi. «Boburnoma»da keltirilgan bu tarzdagi ma’lumotlar Bobur davrida yozilgan boshqa tarixiy manbalar: Mirxond, Xondamir, Muhammad Solih, Binoiy, Muhammad Haydar, Farishta, Abul-Fazl Allomiy va boshqa tarixchilarning asarlarida bu darajada aniq va mukammal yoritilgan emas. Muallif «Boburnoma»da Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Behzod, Mirzo Ulug‘bek va boshqa allomalar haqida o‘zining eng yuqori fikr va mulohazalarini bildiradi. [1.24]

«Boburnoma» — Movarounnahr, Xuroson, Hindiston, Eron xalqlarining XV asr oxiri — XVI asrning birinchi yarmidagi tarixini o‘zida aks eggirgan bo‘lsa ham, shu bilan birga juda ko‘p dolzarb iqtisodiy, ijtimoiy masalalar, yuqorida nomlari keltirilgan viloyatlarning o‘zaro siyosiy-iqtisodiy va savdo munosabatlari, jug‘rofiy mavqyei, iqlimi, o‘simlik va hayvonot dunyosi, tog‘lari, daryolari, xalqlari, qabila va elatlari va ularning yashash sharoitlari, urf-odatlari, muhim tarixiy inshootlari — hindular va musulmonlarning ibodatxonalari, to‘y va dafn marosimlari haqida nihoyatda nodir ma’lumotlarni o‘zida qamrab olgan shoh asardir. [2.41] Shu bois «Boburnoma» tarixiy va adabiy meros sifatida dunyo olimlarini hayratda qoldirib kelmoqda.Uzoq yillar davomida G‘arb va Sharqning mashhur sharqshunos olimlari «Boburnoma» mazmunini jahon jamoatchiligiga yetkazish borasida katta faoliyat ko‘rsatdilar. Masalan, gollandiyalik olim Vitsen, angliyalik olimlar J. Leyden, V. Erskin, R. Koldekot, A. Beverej, T. Albot, germaniyalik Yu. Klaynrat va A. Keyzer, fransiyalik Pave de Kurteyl, hindistonlik Mirzo Nasriddin Haydar Rizvi, turkiyalik R. R. Art va N. I. Bayur va bizning davrimizdagi fransiyalik olim Bakke Gromon, afg‘onistonlik olim Abulhay Habibiy, pokistonlik olimlar Rashid Axtar, Nadvi va Shoh Olam Mavliyot shular jumlasidandir. «Boburnoma»ni o‘rganish sohasida jahonning mashhur sharqshunoslari qatoridan yaponiyalik olimlar ham joy olmoqsalar.Ma’lumki, Boburning tarixiy, ilmiy va adabiy merosini o‘rganish va ommalashtirishda O‘zbekiston, Tojikiston, Rossiya olimlarining faoliyatlari ham diqqatga sazovordir. XIX-XX asrlar davomida Georg Ker, N. Ilminskiy, O. Senkovskiy, M. Salye, Porso Shamsiyev, Sodiq Mirzayev, V. Zohidov, Ya. G‘ulomov, R. Nabiyev, S. Azimjonova, A. Qayumov kabi olimlarning sa’y-harakatlari bilan «Boburnoma» bir necha bor rus va o‘zbek tillarida chop etildi, ularga so‘zboshi yozildi va keng kitobxonlar ommasining ma’naviy mulkiga aylantirildi, uning she’rlari ham bir necha bor nashr etildi. [3.24]

Bobur o‘zbek adabiyotida o‘zining nozik lirik asarlari bilan ham mashhurdir. Uning hayoti va adabiy faoliyati Movarounnahrda siyosiy hayot nihoyat murakkablashgan feodal guruhlarning boshboshdoqlik harakatlari avjiga chiqqan va Temuriylar davlatining inqirozi davom etayotgan bir davrga to‘g‘ri kelgan edi. Bunday murakkabliklar in’ikosini «Boburnoma»da ko‘rgan bo‘lsak, shoir ruhiyatida qanday aks etgani esa, uning she’rlarida namoyon bo‘ladi. Movarounnahrni birlashtirishga urinishlari natija bermagach, Bobur ruhan qiyinalgan, amaldorlarning xiyonatlari ta’sirida umidsizlikka tushgan kezlardagi kayfiyati she’rlarida aks etgan. Keyinchalik o‘z yurtini tark etib, Afg‘oniston va Hindistonga yuz tutganda Bobur she’riyatida Vatan tuyg‘usi, Vatan sog‘inchi, unga qaytish umidi mavj ura boshladi.

Shu bilan birga Bobur lirikasida she’riyatning asosiy mazmuni bo‘lgan insoniy fazilatlar, yor vasli, uning go‘zalligi, unga cheksiz muhabat, hijron azobi, ayrilig‘ alamlari va visol quvonchlari nihoyat go‘zal va mohirona ifoda etilgan. Bobur o‘z lirik she’rlarida har doim odamlarni yaxshilikka, adolat, insonparvarlikka, yuksak insoniy tuyg‘ularni qadrlashga chaqirdi: Bobur lirik

she’rlari va tarixiy «Boburnoma»sidan tashqari, islom qonunshunosligi va boshqa sohalarda ham asarlar yaratgan. 1522 yilda o‘g‘li Humoyunga atab yozgan «Mubayyin» nomli asarida o‘sha zamon soliq tizimini, soliq yig‘ishning qonun-qoidalarini, shariat bo‘yicha kimdan qancha soliq olinishi va boshqa masalalarni nazmda izohlab bergan. «Xatti Boburiy» deb atalgan risolasida arab alifbosini turkiy tillar, xususan, o‘zbek tili nuqtai nazaridan birmuncha soddalashtirib berishga harakat qilgan. U, tajriba sifatida «Xatti Boburiy» alifbosida Qur’oni Karimni ko‘chirgan. Boburning aruz vazni va qofiya masalalariga bag‘ishlangan «Mufassal» nomli asari ham bo‘lganligi ma’lum, biroq bu asar bizgacha yetib kelmagan. Bobur o‘zining ma’lum va mashhur asarlari bilan tarixnavis adib, lirik shoir va ijtimoiy masalalar yechimiga o‘z hissasini qo‘shgan olim sifatida xalqimiz ma’naviy madaniyati tarixida munosib o‘rin egallaydi.

Xulosa o`rnida shuni ta`kidlaymizki, Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat davlat boshqaruvi balki, she`riyat adabiyot sohasida ham o`ziga mos ravishda dunyo durdonalari qatoridan joy olgan shuningek bugungi yoshlarimizni vatanparvarlik ruxida tarbiyalashda ham alohida ahamiyatga ega ekanligini ta`kidlaymiz. Zero, kelajak mevasini ajodlarimizning boy merosidan o`rnak olsak jamiyat taraqqiy etaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. B.Jalilov va boshq. O‘zbek adabiyoti. T. A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2006
2. B. Qosimov va boshq. O‘zbek adabiyoti.T.- 2004
3. N.M. Mallayev. O‘zbek adabiyoti tarixi. T. “O‘qituvchi” 1965.
4. P. Qodirov. “Yulduzli tunlar ” T. “Sharq” 2006
5. S. Hasanov. “Z.M. Bobur” T. “O‘qituvchi” 1995
6. L. P. Sharma. “Boburiylar saltanati” T. “Ma’naviyat” 1998
7. Z.M. Bobur. Devon. T. “Fan” 1994

БОБУРИЙЛАР ДАВЛАТИНИНГ ҚЎШИНИ ЁХУД ҲАРБИЙ МАЪМУРИЯТИ

Шохакимов А.Р.
Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари Академияси катта ўқитувчиси,

Бобурийлар (1526-1858) салтанати инсоният тарихидаги буюк давлатлардан бири сифатида жаҳон давлатчилигида муносиб ўрин тутади. Бу давлатнинг асосчиси машҳур саркарда ва давлат арбоби Заҳириддин Муҳаммад Бобур (1483-1530)дир. У 1497 йилда Самарқандни қўлга олгач, Марказий Осиёда улкан салтанат тузишга ҳаракат қилади. Лекин шайбонийлар унинг бу ниятини амалга оширишга йўл қўймадилар.

Ўз навбатида, Бобур довюрак, жасур ва моҳир лашкарбоши бўлган. Рақиблари бир неча бор мағлуб қилган бўлса ҳам, у ўзини батамом мағлуб деб ҳисобламаган. Шунинг учун хам Бобур кўзлаган мақсадига етишига ҳамиша ишонган. У ўз мағлубиятларидан ҳам тўғри хулоса чиқариб, қобилияти ва иродасини чиниқтириб борган. Заҳириддин Муҳаммад Бобур турклар, муғуллар, шайбонийлар, форслар ва афғонлар билан бўлган жангларда жуда кўп тажриба тўплаган ва чиниққан. Уларнинг ҳар биридан жанг қилиш услубини ўрганиш асносида ўзининг уруш олиб бориш тактикаси ва қуролларини такомиллаштириб борган.

Дашт ўзбеклари қўшинларининг моҳирлигидан З.М.Бобур ҳам ҳайратга тушиб, уларнинг ўзига хос ҳарбий усули - «тўлғама» душман аскарларининг ён флангаларидан айланиб ўтишига юқори баҳо бериб, «ўзбекнинг урушида бир улуғ ҳунари - бу тўлғамадур, ҳеч уруши тўлғамасиз бўлмас», [1.81] деб таъкидлаган эди. Шунингдек, уларнинг иккинчи

бир усули ҳужум қилиш вақтида беку навкар жам бўлиб, ўқ отиб ҳужум қилиш бўлган. Кейинчалик З.М.Бобурнинг ўзи ҳам 1527 йилнинг 13 мартида Кхануадаги жангда худди шу «тўлғама» усули ва артиллерияни қўллаб, Рано Санго устидан тўла ғалабага эришган. Бундан ташқари, Заҳириддин Муҳаммад Бобур чидамлилик, матонат, жасурлик, ўлимга тик боқиш, ўзига ва ўз тақдирига ишониш каби хислатларга эга эдики, бу фазилатлар доимо унга кишиларни олға етаклаш имконини берган.

Бобурийлар салтанатининг қўшини ҳақида гап кетганда, аввало, уларнинг жуда катта ва қудратли лашкар сақлаганлигини эътироф этиш зарур. Жангда артиллерияни ишлатишни Заҳириддин Муҳаммад Бобур бошлаб берган.

Бобурий сарбозлар асосан уч тоифага бўлинган. Ҳар бир ҳарбий саркардага алоҳида мавқе (унвон) берилган. Ҳатто босиб олинган мамлакат (вассал)нинг ҳарбий бошлиқларига ҳам унвон берилган. Ҳар бир саркарда ўз қўшинига эга бўлиб, унинг сафларини янгилаш, ҳарбий машқлар ўтказиш, мустаҳкам интизом ўрнатиш, сарбозлар учун қурол-аслаҳа, кийим-бош ва озиқ-овқат тайёрлаш ишлари ҳам унинг назоратида бўлган. Мансабдорлар кўпинча ўз тоифасидаги навкарларни тайёрлаш билан шуғулланганлар. Ҳар бир саркардага шоҳ томонидан маош тўланган ёки ўнта жоғир ажратиб берилган.

Аҳадu навкарлари - шоҳга қарашли навкарлар бўлиб, уларга девон ёки бахши раҳбарлик қилган. Улар шоҳ номидан ҳарбий хизматга олинар, ҳарбий машқлар билан шуғуллантирилар ва мустаҳкам интизомда ушлаб турилар эди. Аҳади навкарларга яхши маош тўланган. Агар оддий отлиқ сарбозга 12-15 рупий берилса, аҳади навкарларидаги отлиқ сарбозга 500 рупий маош тўланган. Бу сарбозларнинг сони аниқ чекланмаган. Акбаршоҳ даврида аҳади навкарлари сони 12 мингга етказилган. Улар фақат шоҳ буйруғинигина тан олганлар.

Доҳили навкарлари шоҳ номи билан ҳарбий хизматга олинса ҳам, хизмат давомида ҳарбий саркардалар ихтиёрига берилган. Бобурийларнинг ҳаракатдаги қўшини жуда катта бўлган. Акбаршоҳнинг ҳаракатдаги қўшини 25 минг атрофида бўлган, деб тахмин қилинади. Жаҳонгиршоҳ (1569-1627) ва Шоҳ Жаҳон даврида эса бу рақам 300 мингга етган. шоҳнинг аҳади навкарлари, ҳарбий саркардаларнинг доҳили навкарлари, вилоят волийларининг қўшини ва қарам давлатларнинг қўшини қуйидагича қисмларга бўлинган:

Суворийлар. Бобурийлар қўшинининг энг яхши қисмини суворийлар ташкил этган. Суворийлар қуйидаги қисмлардан ташкил топган:

1. Боронғир. Боронғир суворийлари от, қурол ва кийим-кечакни ҳукуматдан олган.

2. Силадор. Силадор навкарлари эса ўзларининг оти ва қуроли билан келганлардан иборат бўлган.

Суворийлар отларининг сифатига қараб тоифаларга ажратилган. Бобурийлар қўшинида кўпроқ туркий ва този отлари ардоқланган. Суворийлар ўзларидаги отлар миқдорига кўра ҳам тоифаланган. Иккита отга эга бўлган навкарлар «икки отлиқ» («ду аспа»), битта оти борлар эса «бир отлиқ» («як аспа») деб юритилган. Айрим ҳолларда икки навкар битта отдан фойдаланган бўлиб, улар «ярим отлиқ» («ним аспа») дейилган.

Пиёда аскарлар. Акбаршоҳ даврида пиёда аскарлардан самарали фойдаланилган. Пиёда аскарлар икки тоифага ажратилган: бандуқчилар (милтиқчилар) ва шамширбозлар. Бундан ташқари, аскарлар камон, ўқ-ёй ва найзалардан ҳам усталик билан фойдаланганлар. Жангларда аскарлардан ташқари хизматкор қуллар ва сув ташувчи (мешкобчи)лар ҳам хизматга солинган.

Жангчи филлар. Акбаршоҳ даврида мингга яқин жангчи филлар сақланган ва мамлакат бўйича жангчи филлар сони 50 мингтага етган. Филлар жанг қилиш учунгина эмас, балки юк ташиш учун ҳам беминнат хизматда фойдаланилган.

Артиллерия. Заҳириддин Муҳаммад Бобур Ҳиндистонга жуда кучли артиллерияси билап кириб келган. Акбаршоҳ эса қўшиннинг бу турини янада такомиллаштирган. Унинг даврида улкап замбараклар тайёрланган ва ишга солинган. Акбаршоҳ даврида шу билан бир қаторда фил ёки туя уркачига ўрнатиб олиб юрса бўладиган кичик тўпчар ҳам ихтиро қилинган. Бу тўпларни бошқариш осон бўлгани учун жангда яхши самара берган.

Бобурийлар қўшинининг энг диққатга сазовор хусусиятларидан бири унинг ҳарбий мансабдорлар тизими бўлган. Ҳарбий мансаблар орасидаги мавқе даражаси 10га бўлинган. Мавқе даражасига қараб маош ва ҳуқуқлар белгиланган. Акбаршоҳ даврида энг кичик мавқе даражасидаги ҳарбий мансабдор 10 та навкарга бошчилик қилиш ҳуқуқига эга (ўнбоши) бўлган, энг юқори мансабдаги саркарда эса 12 минг кишилик қўшинга саркардалик қилган. 5 мингдан 7 минг нафаргача аскари бўлган қўшинга раҳбарлик қилиш ҳуқуқи фақат шоҳ қони бўлган шаҳзодаларгагина берилган. Тарихчи олим Абул Фазлнинг кўрсатишича, ҳарбий саркардалар 33 хил тоифага бўлинган, лекин бошқа манбаларда кўрсатилишича, ҳарбийларнинг тоифаланиши 66 тага етган. [2.36]

Жаҳонгиршох ва Шоҳ Жаҳон даврида ҳарбий саркардаларнинг 8000 аскаргача бўлган қўшинга раҳбарлик қилиш ҳуқуқи бор бўлган. Шаҳзодаларга эса 4000 аскаргача бўлган қўшинга лашкарбошилик ҳуқуқи берилган. 500 тагача бўлган қўшинга бошчилик қилувчи саркардалар «мансабдор», 500 тадан 2500 тагача аскарлари бор қўшинлар бошлиқлари «амир», 2500 тадан кўп аскарли қўшинлар бошлиқлари «амири аъзам» деб аталган. Ундан юқорилари «хони жаҳон» («дунё хони») деб юритилган. Харбий унвонларнинг энг юқориси «хони хонон» («хонлар хони») деб аталган. «шоҳнома»да айтилишича, Шоҳ Жаҳоннинг буйруғига биноан ўз ер-мулки ҳудудида истиқомат қилаётган саркардалар ўзига белгиланган лашкар миқдорининг бир қисмига тенг бўлган миқдорда навкар ушлаб туришга ҳақли бўлган. Ўз ер-мулкидан ташқарида, бироқ Ҳиндистон ҳудудида турадиган саркардаларга ўз лашкарининг тўртдан бир қисмига тенг миқдорда навкар сақлаб туришга рухсат берилган. Ҳиндистон ҳудудидан ташқарида жойлашган саркардаларга эса ўз лашкарининг бешдан бир қисмига тенг миқдорда қўшин ушлаб туришга рухсат берилган. Шуниси диққатга сазоворки, ҳарбий мансабдорга давлат идораларида махсус лавозим берилмаган. Акбаршоҳ даврида саркарда Абул Фазл Алломий (1551-1603) вазир бўлиб ишлагани ҳолда, саркарда рожа Ман Сингх бундай лавозимга қўйилмаган.

Ҳарбий мансабдорларнинг вазифаларини ва уларнинг мансабини ошириш ишини шоҳ белгилаган. Уларга давлат хазинасидан маош белгиланиб, борди-ю уларга жоғир белгилангудай бўлса, уларнинг мулкидан солиқ ундириш ҳуқуқи марказий идора ходимларигагина берилган. Тўпланган солиқ мулк эгаси бўлган ҳарбий мансабдорларга берилиб, унинг маошидан ўшанча миқдордаги маблағ чегириб қолинган. Уларга 12 ой мобайнида узлуксиз маош тўланган. Ҳар бир ҳарбий мансабдор ўз навкарларига давлат ҳисобидан маош берган.

Акбаршоҳ ўзининг ҳарбий мансабдорлар тизимига «зот» ва «суворий» даражасини ҳам киритган. Ҳар бир ҳарбий саркардага «зот» ва «суворий» мавқеси ҳам берилган. «Зот» нишони саркарда ихтиёридаги пиёда қўшин сонини билдирса, «суворий» нишони шу қўшин сафидаги отлиқ аскарлар сонини билдирган. Бундай даражага сазовор бўлган ҳарбий мансабдорлар ичида ҳам турли мавқега эга бўлиш мумкин бўлган. Масалан, ҳарбий мансабдорнинг 5 минг кишилик қўшини бўлганлар орасида юқори мавқеда, агар унинг

суворийлари умумий қўшин сонининг ярмидан кам бўлса, у иккинчи даражали мавқеда турган. Бундан ташқари, унинг даврида ҳарбий отлар ва филларга тамға босиб белгилаб қўйиш жорий қилинган. Бу иш билан алоҳида «Доғ макали» деб аталган бўлим ходимлари шуғулланганлар. Ҳар бир от ва филга ўз ҳарбий бошлиғининг ва шоҳининг тамғаси босилган. Ҳар бир ҳарбий мансабдорнинг қўшини ҳар йили ёки уч йилда бир марта шоҳнинг шахсий кўригидан ўтказилган.

Бобурийлар қўшинининг яна бир хусусияти шунда эдики, ҳарбий юришлардан дам олиш учун тўхталган жойларда чодирлар тикилган. Уларнинг чодирлари ҳажман жуда катта бўлиб, улкан саройни эслатган. Қўшин тўхтаган жойда тикилган чодирлар мажмуаси эса улкан бир шаҳарни эслатар ва 5 милдан 20 милгача радиусдаги ҳудудга ёйилган. Бу шаҳарчада 100-200 минг киши истиқомат қилган. Шуниси диққатга сазоворки, чодир ва ўтовдан иборат бўлган бундай улкан шаҳарни барпо қилиш учун тўрт соатгина вақт берилган.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур Темурийлар салтанатини сақлаб қолиш учун Шайбонихонга қарши бир неча йил давомида кураш олиб борсада, мамлакатда ҳукм сурган оғир иқтисодий танглик ва сиёсий парокандалик шароитида мақсадига ета олмайди. Тўхтовсиз жанглар сабаб у Мовароуннахрни тарк этишга мажбур бўлади ва 200-300 навкар билан Афғонистондаги ички жанглардан фойдаланиб, Ғазна ва Қобулни эгаллайди. 1526 йил Деҳлини қўлга киритди. Шу тариқа Бобур Ҳиндистонда уч ярим асарга яқин ҳукм сурган қудратли Бобурийлар сулоласига асосо солди.

Муҳтарам Президентимиз таъбири айтганда, улуғ аждодимиз Заҳириддин Муҳаммад Бобур ўн икки ёшдан бошлаб Темурийлар давлатини сақлаб қолиш учун ўзини ўтга ҳам, чўққа ҳам урди, ҳеч қандай душмандан ҳам, синовдан ҳам қўрқмади. Қирқ олти йиллик умри давомида бир зум ҳам ҳаловат билмасдан ўтди. Ўз авлодларига Ватанига бўлган буюк муҳаббати, эзгу фазилатларини мерос қилиб қолдирди. [3, Б.14].

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, Бобурийлар даврида ҳарбий ишларни такомиллаштиришга катта аҳамият берилгани учун бу қўшин қудратли, интизомли ва енгилмас лашкарга айланган. Айниқса, қўшинни бошқаришда ҳарбий мансабдорлик тизими жуда қўл келган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Бобур З.М. Бобурнома. - Тошкент: «Юлдузча», 1989. - Б. 368.

2. Ёшларга донолар ўгити / Тузувчилар: О.Салимов, Қ.Қуронбоев. - Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги нашрёт-матбаа, 2018.- Б.234.

3. Шоҳ, Жаҳон даврида ёзилган тарихий асар. Абулҳамид Лоҳарий. «шоҳнома» (бошқа номи «Шоҳжаҳоннома») асари.

4. Б.Негматов. Ўзбекистонда ҳарбий ишлар тарихидан лавҳалар. Т:, 2010. Фалсафа ва ҳуқуқ институти ноширлик бўлими. Б.-74.

5. Уильям Эрскин. Бобур Ҳиндистонда. Т:.1995. “Чўлпон” нашриёти. 110.

ЗАҲИРИДДИН МУҲАМАД БОБУР МАҲОРАТЛИ ҲАРБИЙ САРКАРДА

Розимова Ё.

Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлар Академияси ўқитувчиси, т.ф.н.

Мустақиллик даврида юртимизда кўплаб аждодларимиз қаторида Бобур Мирзога бўлган эътибор ҳам юксак поғонага кўтарилиб, унинг ижоди ва фаолиятини ўрганиш,

хотирасини абадийлаштириш борасида кенг кўламли ишлар амалга оширилмоқда. Ўтган давр мобайнида шоирнинг назмий девонлари, “Бобурнома”, “Аруз рисоласи”, “Волидия” сингари нодир асарлари қайта нашрдан чиқди. Бобур ва бобурийлар ҳақида хорижда яратилган юзлаб бадиий, илмий, тарихий манбалар ўрганилди, кўплаб асарлар ўзбек тилига таржима қилиниб, чоп этилди. Шоир ва ёзувчиларимиз, тарихчи олимларимиз томонидан бу мавзуда кўплаб асарлар яратилди. Юртимизда илк бор «Бобур энциклопедияси» тайёрланди.

Довюраклиги, қатъиятлиги ва жасурлиги боис “Бобур” (“шер”) тахаллусини олган бу саркарда ҳар қандай вазиятда ҳам ўзини йўқотмади. У жисмоний жиҳатдан бақувват бўлиб, моҳир чавандоз, қиличбоз, суворий ҳам эди. Ўз жасурлиги билан кўп вақт қўл остидаги аскарларга намуна ҳам бўлган. Тарихий манбаларда Бобурнинг жасорати, мардлиги, ўлимдан қўрқмаслиги, одамларга ишончи атрофдагиларда унга нисбатан катта эҳтиром юзага келтирганлиги алоҳида таъкидланади. Моҳир саркарда ўз ҳарбий маҳоратини ривожлантириб, шайбонийлардан “тўлғама” усулини, мўғуллардан пистирма қўйишни, афғонлардан порохли милтиқ ишлатишни ўрганган. Ўз даврида у кучли тўпчилар қўшинини туза олган. Шу билан бирга Бобур юксак инсоний фазилатлар соҳиби ҳам бўлган. У меҳрибон ўғил ва ини сифатида онаси Қутлуғ Нигорхонимга, оғир ҳаёт синовларини бошидан кечирган опаси Хонзодабегимга катта ҳурмат ва эҳтиром бажо келтирган. Бобур оила аъзоларига нисбатан катта масъулият ва меҳр ила муносабатда бўлган. Ўғли Ҳумоюн оғир хаста бўлиб қолганида барчанинг кўз ўнгида шу хасталик ўзига ўтишини худодан сўраб илтижо қилган. Бобурнинг қизи, мусулмон Шарқидаги ягона тарихчи аёл Гулбаданбегим ўзининг “Ҳумоюннома” асарида падари бузрукворининг ажойиб фазилатларини мароқ билан тилга олади.

Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг бебаҳо адабий, илмий-назарий асарлари қатори «Бобурнома»нинг ҳам ўрганилмаган тарафлари, қирралари шунчалар кўпки, уларни бугунги авлодга етказиш ўтмишдаги қадриятларимизни тиклаш, ундан баҳраманд бўлиш, ёшларда юксак ватанпарварлик руҳиятини тарбиялаш каби долзарб масалаларда алоҳида ўрин тутади.

Бобурнинг муҳораба майдонидаги ғалабаларини таъминлаган омиллардан бири, балки энг муҳими, унинг разведка хизматидан фойдаланиш қобилиятидир. Айни шу маҳорат минглаб лашкарларни ўлим балосидан асрашда, урушни ўз фойдасига ҳал қилишда, қолаверса, атрофидаги кишилар руҳияти, шахсиятини янада яхшироқ англашида, душман нияти – сир-асроридан аввалроқ воқиф бўлишда Бобурга қўл келган.

Таъкидлаш жоизки, разведка хизмати тарихи узоқ ўтмишларга бориб тақалади. Ундан оқилона, тактик жиҳатдан пишиқ фойдаланган шахсгина юксак натижаларга эришган.

Шоҳ ва саркарда Бобурнинг юксак мантиқий таҳлили, уруш шароитини яхши англаши, яшиндек тез хулосага келиши, разведка хизматига ўз фурсатида мурожаат этиши ва қарийб адашмаганлиги кишини ҳайратга солади. «Бобурнома»дан бунга кўплаб мисоллар келтириш мумкин.

1503-1504 йилги воқеалар. Бобур Мовароуннаҳрдан ноумид бўлиб, Кобулга юз тутган, Ҳисор вилоятининг Илоқ яйловларини кезиб, тақдир бундан кейин унга не кунларни раво кўришини ўй-хаёлларидан ўтказаётган мураккаб давр, бор-йўғи «ушбу юртта йигирма уч ёшнинг ибтидосида юзумга устара қўйдум» деб навқирон йигитлигига урғу берган пайти. Ёш Бобур бу юртларда ҳукмронлик қилаётган Ҳисор беги, кейинроқ ўзининг ашаддий душмани бўлган Хисравшоҳ ва унинг салтанати ҳақида маълумотга эга бўлиш учун Мулло Бобойи Пашоғарийни «елчиликка» юборади. Бобурнинг бундан мақсади элчи йўллашгина эмас, зарур маълумотга эга бўлиш эди. Лекин, Бобурнинг таъкидлашича, Пашоғарий «кўнгулга

ёққудек сўз келтурмади». Аслида, Пашоғарий жудаям қуруқ қайтмаган. У одамлар орасида бўлиб, айрим зарур маълумотларни етказган: «вале эл ва улусдин сўзлар келтурди».

Ўша вақтда Бобур ўз лашкарларининг кўп қисмидан айрилган, 200-300 аскар ва беклари билан қолиб, ҳимояга ўта муҳтож эди. Бу пайтда темурий шаҳзодалар ва уларнинг беклари орасида лашкарларининг бир бек ёки султондан иккинчисига гуруҳ-гуруҳ бўлиб ўтиши оддий ҳол бўлган. Бунда иқтисодий, маънавий, маиший жиҳатлар, албатта, омон қолиб лашкар сафида бўлиш масаласи асосий омиллардан бўлган. Шу боис Бобур учун Хисравшоҳ лашкарларининг кайфиятини билиш муҳим бўлган ва у бу вазифани разведка хизматига юклаган. Лекин натижадан унчалик кўнгли тўлмаган. Зарур маълумотга эга бўла олмаган Бобур ноилож Коҳмард ва Бомиён томонга равона бўлади.

Яна бир мисол Хисравшоҳнинг иниси Боқи Чағониёнийнинг Бобурга етказган разведка хабари билан боғлиқ. Афғонистонда ўз ҳукмронлиги асосини солаётган Бобур бегона юртдаги шаҳар, қишлоқ, ўрмонзор, кўча ва пасткўча, дарё ва сойлар хусусиятини жуда синчковлик билан ўрганади. Айниқса, бу лашкар хавфсизлиги, салтанат тақдири билан боғлиқ бўлса, Бобурнинг синчковлик қобилияти янада ошган, эҳтиёт чораларини кўришга киришган. Ҳали Бобурнинг Кобул ҳокимияти мустаҳкам шаклланмаган бир пайтда, атрофидаги дўстлари ҳам душман рафторини қилганда уларнинг ҳар бир ҳаракатини ўрганиш, кейин хулоса чиқариш бениҳоя муҳим эди. Шу даврда Бобурга нисбатан ёвқарашда бўлган Боқи Чағониёний «арзға еткурдиким, сув кечмай ушбу ердин (яъни Кўракатутдан – қавс ичидаги баъзи изоҳлар муаллифники), қўнуб, Кўҳат отлуқ ерга борса бўлур эмиш...»

Бироқ Бобур бу хабарга унчалик ишонмади. Чағониёний Бобурни ишонтириш мақсадида бир неча айғоқчи кобулийларни олиб келади. Тундан кейин бир қадар ишонган бўлса-да, ушбу маълумотга таяниб уюштирган ҳужумдан Бобурнинг кўнгли тўлмайди: «Боқи Чағониёний арзга еткургандек нима черик элига тушмади. Боқибек бу саъйдин шармандароқ бўлди». Бу разведка маълумотлари кундалик ҳарбий амалиётлардан бирига хизмат қилган бўлса-да, Бобур бу масалага жуда жиддий ёндашган.

1528 йил воқеалари. Заҳириддин Бобур Ҳиндистонда Иброҳим Лўдийнинг юз мингдан ортиқ лашкарини енгган. Бу узоқ ўлкаларда Амир Темур империясини тиклашдек орзуси амалга ошганлигидан шод бўлган даври. Бироқ бу пайтда унинг ҳукми Ҳиндистоннинг барча ўлкаларига тўлиқ ўтмас, қаршилик кўрсатаётган ҳинд рожалари, лашкар бошлиқлари ҳали анча ташвишлар орттирар эди. Бу вақтда Бобурнинг ҳарбий маҳорати етилган, у юрт олиш учун ҳар бир хабар, маълумотдан борган сари унумли фойдаланар, ҳинд ерида тезроқ мустаҳкам, ҳар қандай ихтилофлардан холи давлатни тузишга ошиқар эди. Ана шундай пайтда Бобур шерикларининг олдига, Кўҳ деган жойга кема билан етиб келади. Унинг кайфияти яхши, руҳи ғалабалар нашидасидан кўтаринки эди. Уруш оралиғида, исёнчи ҳиндулар, афғонларнинг тўсатдан қиладиган ҳужумлари вазиятида у курашчилар мусобақасини ўтказган, ҳатто бу спорт тадбири янада жонли ўтишини истаб, ўзи таъкидлаганидек, «хилофи қоида» «аввал зўрроқларни» майдонга чорлаган. Хуллас, бу пайт Бобур руҳиятида кам содир бўладиган хурсандлик дами бўлган. Ушбу маълумотномалардан сўнг «Бобурнома»да бу ердаги муҳорабанинг айрим деталлари баён қилинади, Банорасга ўтган афғонларнинг шикаст топганлиги ҳақида сўз боради. Аслида, бу ҳол курашларнинг бир кунлик лаҳзаси, холос. Аммо, шунга қарамай, Бобур ўз хабарчилари - разведкачилар келтирган маълумотларга катта эътибор билан қараган.

Бобурнинг ҳарбий-стратегик режалари билан боғлиқ воқеа. Афғонистон ерларида, февраль ойининг ўрталарида содир бўлган. 1509-1510 йилнинг бу қиши анча кеч келиб, Бобурга черикнинг озиқ-овқати ташвиши ором бермаётган пайт. У ёзади: «Сешанба куни

ойнинг еттисида бекларни ва дилазак афғонлари улуғларини тилаб, кенгашиб, сўзни мунга қўюлдиким, йил охир бўлубтур, ҳутға бир-икки кун қолибтур, туздаги ошлиқни тамом кўтарибтурлар. Бу фурсатта Саводқа борсак, черик эли ошлиқ топмай танқислиқ бўлғусидур».

Бобур ўзининг лашкарлари билан жуда машаққатли довон, адирларни кезиб охири Панкялий деган жойга тушадилар. Маҳаллий шароитни билиш, кейингина бир қарорга келиш учун Бобур «Ўғонбердини бир неча киши била тил олғали илгаррак» юборади. Бироқ, Ўғонберди ҳам бу гал «кўнгул тилагудек таҳқиқ хабар келтурмади». Албатта, бу ҳол Бобурни қаноатлантирмаган. У яна разведка хизматига мурожаат этади: «Офтоб бир найза бўйи чиққанда Рустам туркманниким, қаравулликқа йиборилиб эди, хабар келтурдиким, афғонлар хабардор бўлиб, қўзғолишибтурлар». Бобурнинг шу жойдаги бошқа разведка маълумотини олиши у билан кураш олиб бораётган афғон саркардаларининг умумий ҳолати ҳақида бўлиб, унинг энди, қайси йўлни танлаши учун муҳим эди. Аслини олганда, худди шу фурсатларда, афғон ерларини унча яхши тасаввур этмаган Бобур учун бундай хабарлар зарур ва разведка хизматининг асосий вазифаларидан бўлган. Бу маълумотлар юзаки қараганда жўнроқ кўринса-да, аслида Бобур ва унинг лашкарларини ўлимдан сақлаган, озиқ-овқатли мавзеларга етаклаган, кимга қарши курашишни олдиндан белгилаб берган.

Бобурга бевосита уруш майдонида, унинг ҳал этувчи палласида разведка нечоғли қўл келганини кўрсатади. Бемалол айтиш мумкинки, Ҳиндистонни эгаллашдаги бу якуний уруш муваффақияти, имкон қадар Бобур лашкарлари учун кам талафот билан якунланганлиги ана шу разведка маълумотларининг натижаси билан ҳам боғлиқ. Чунки биз «Бобурнома»нинг бирон саҳифасида Бобурнинг бунчалик кўп, устма-уст хабарчиларини маълумот йиғиш учун юборганини, разведка маълумоти муҳораба ютуғининг бош омили эканлигига бу қадар аниқ баҳо берилганини кўрмадик.

Заҳириддин Бобур муҳорабада ҳар қандай хатолик ёмон оқибатларга олиб келишини алоҳида таъкидлаган. Юқоридаги матндан кўринадики, Бобур разведка маълумотлари асосида ҳар бир бекни ўз лашкари билан маълум вақт ва манзилда қоровулликка тайин этган. Аммо, бу маълумотларга эътибор бермаган Абдулазиз бек жуда катта хатоликка йўл қўяди, ўзини ва лашкарини хавф остида қолдириб, уларнинг айримларидан айрилади, сафдошларини ҳам чалғитиб, уларнинг бошига турли кулфатлар ёғилишига сабаб бўлади. Ана шу мисолнинг ўзи ҳам Бобурнинг разведка маълумотларига нақадар эътибор бергани, унга ўзи амал қилгани, бу тартибни бузганларга муросасиз бўлгани далилидир. Зеро, Абдулазизнинг шу хатоси жуда катта муҳорабага ҳозирлик кўраётган Бобурнинг режаларини бузади, Муҳаммад Али жанг-жанг каби лашкарбошисини бу жангга киритишга мажбур бўлади.

Бобурнинг Иброҳим Лўдий билан олиб борган курашининг дастлабки пайтига тааллуқли. У Иброҳим Лўдий аскарлари ҳолати, унга ким дўст, ким ғаним эканлигини билиш, «таҳқиқ қилиб» келишни разведка хизматига буюради ва маълумот ишонарли бўлиши зарурлигини алоҳида таъкидлайди: «Сиялкоттин Шоҳим Нурбекни ҳам Лаҳур бекларига чоптирулдиким, ёғий не ерда эканин таҳқиқ қилиб, қайда қотилурларини соҳибвуқуф кишидин билиб, айтиб йиборсунлар».

Бобур ўз юрти ва бошқа ерли савдогарлар орқали ҳам разведка маълумотлари олишга интилган. Албатта, бу усул янгилик эмас. Савдогарлар ҳукмдорлар учун ҳамиша зарур маълумотлар етказиб туришган. Бироқ Бобурнинг бу галги мақсади аниқ нишонга теккан. У Иброҳим Лўдий ҳақида жуда муҳим маълумотга эга бўлади. Оламхоннинг Иброҳимга қарши туриши, Хуросонда эса кўчманчи ўзбеклар Балхни муҳосара қилганликлари ҳақида

маълумот олади ва зудлик билан қатъий қарорга келади: «Оламхонға Ҳиндустон сари рухсат бериб, ўзумуз Балх устига отландук».

Қуйидаги мисоллар юқоридагидек катта сиёсий аҳамиятга молик бўлмаса-да, муҳораба тақдирини белгилашда муҳим ўрин эгаллаган. 1525 йилги муҳорабалар Бобурни анчагина чарчатган бўлса ҳам, ёнида тўнғич ўғли Ҳумоюн мардонавор курашиб, кўпгина асирларни, қўлга киритилган филларни олиб келиб мулозамат қилганлиги унинг руҳиятини кўтарган эди. Лекин Бобур рақиби Иброҳим Лўдийнинг сир-асроридан, ҳарбий имкониятидан кенгроқ хабардор бўлишни мақсад қилар экан, қандай бўлмасин, душман орасидан «тил» олиб келишни буюради: «Ул юрттан кўчуб, Шоҳобод келдук. Тил тутар учун Султон Иброҳимнинг ўрдусиға киши йибориб, неча кун бу юртта таваққуф бўлди».

Демак, Бобур ҳатто разведка хабарини кутиб, бу жойда бир неча кун қолиб кетган. Унинг бу сабри ўз натижасини берган. У лашкарлари ва сафдошлари билан хавфсиз йўлни танлаб ҳаракат қилган. Бобурнинг бу галги тиришқоқлиги, мақсад сари интилиши, юксак разведка қобилияти зарур натижани берган. Ҳайдарқули келтирган хабар Иброҳим Лўдий билан бўлган жанг муваффақиятини таъминлаган. Бу хабарда душманнинг ҳарбий имконияти, армия сафларининг жойланиши ва сони, лашкарлар орасидаги ўзаро муносабат, ҳатто уларнинг қайси ҳолатда ўтириб-туришларигача тафсилоти билан етказилган эди. Бобур муҳорабаларда жуда катта ютуққа эришади, ўзи ташаббус кўрсатиб Уста Алиқули тўпчи билан яратган тўпларини ишга солиб, Иброҳим Лўдий устидан мутлақ ғалаба қозонади. Бу натижаларни қўлга киритишда, албатта, бевосита унинг разведкага оид қобилиятининг ҳам муҳим ҳиссаси бўлган.

Аждодларимизнинг ҳарбий салоҳияти тарихини ўрганиш ёш авлод қалбида Ватанга муҳаббат туйғусини уйғотишда алоҳида аҳамиятга эга. Бинобарин, миллатимизнинг ҳарбий тарихи деярли ўрганилган эмас. Биргина Бобур ҳарбий маҳорати кўплаб тадқиқотларга етарли материал бера олади. Бу масалаларни Бобурнинг моҳир адиб, шоир, олим, энциклопедик билим соҳиби сифатлари билан ҳамоҳанг ўрганиш, айниқса, янада катта самара беради.

Бошқа бир олим Эдуард Холден шуендай деган эди: “ Бобур соф жентелмен ва жангчи бўлган. У олийжаноблдикда қандай хосиятлар бор бўлса, уларнинг барчасини эгаллаган, Унинг манглайига юксак фазилат битиб қўйилган”. 1. Зеро, Бобур Мирзонинг ўзи: “Донишмандлар шарафли бўлишни иккинчи ҳаёт деб билганлар”, - деган эди. Атоқли олим ва ёзувчи Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг ҳам иккинчи ҳаёти беш юз йигирма йилдан ортиқроқ вақтдан бери давом этиб келмоқда.

Жавоҳарлал Неру Бобур ҳақида ўзининг “Ҳиндистоннинг кашф этилиши” китобида баҳони келтиради: “Бобур дилбар шахс, уйғониш даврининг типик ҳукмдори, мард ва тадбиркор одам бўлган. У санъатни адабиётни севарди, ҳаётдан ҳузур қилишни яхши кўрарди”. 2. Бобурнинг фикр доираси, ниҳоятда кенг, эрудицияси жуда чуқур, хотираси эса, “Бобурнома”да кўзга ташланишича, ғоятда кучли, ҳақиқатдан ҳам кишиниҳғайратда қолдирадиган даражада ўткир бўлган. Уни нафақат табиат, балки, унинг барча сиру синоатлари, бемисл гузалликлари ва уларнинг асл моҳияти, айни чоқда, ҳайвонотлар дунёси, яна муҳими, уларнинг ўзига хос хусусиятлари, шунингдек, ижтимоий – мафкуравий ҳаёт, ҳарбият, демакки, олам – борлиқ, ундаги жамики катта – кичик масалалар, уларнинг манба ва манъшалалари қизиқтирган.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Бахтиёр Омон. Бобурнинг болалиги. - Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2002.

2. "Бобурнома" учун қисқача изоҳли луғат. Тузувчи: Ф.Исҳоқов. - Андижон, 2008.
3. Буюк сиймолар, алломалар. (Марказий Осиёдаги машҳур мутафаккир ва донишмандлар). - Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1996.
4. Воҳидов Р. Биз билган ва билмаган Бобур. — Тошкент: Маънавият, 2008.
5. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Ҳозирги ўзбек тилига В.Раҳмонов ва К.Муллахўжаевалар табдил қилишган. - Тошкент: Ўқитувчи, 2008
6. Иброҳимов А. Бобурийлар мероси. - Тошкент: Меҳнат, 1993.

БОБУРНИНГ ҲАРБИЙ ЮРИШЛАРИДАГИ РАЗВЕДКА МАҲОРАТИ

Ҳайдаров Алишер Усмон ўғли
Миллий гвардия Ҳарбий-техник институти катта ўқитувчиси
Раимбоев Дилмурод Хасанович
Миллий гвардия Ҳарбий-техник институти навбатчи ёрдамчиси,

Бугунги кунда давлат бошқаруви фаолиятида барқарорлик, тинчлик ва жамоат хавфсизлигини таъминлашда буюк саркарда Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг амалий тажрибаси ёрқин намуна бўла олади. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёйев ҳақли равишда таъкидлаганидек, “Бобур Мирзо халқимизнинг буюк фарзанди. Адабиёт, илм, маърифат нуқтаи назаридан у ҳамон яшаяпти. Ўзлигимизни англаб, буюк тарихимизни, ёшларга тушунтирсак, илм-маърифатни ривожлантирсак, ҳеч қачон кам бўлмаймиз”[1].

Бобурнинг бебахо адабий, илмий-назарий асарлари қатори «Бобурнома»нинг ҳам ўрганилмаган тарафлари, қирралари шунчалар кўпки, уларни бугунги авлодга етказиш ўтмишдаги кадриятларимизни тиклаш, ундан бахраманд бўлиш, ёшларда юксак ватанпарварлик рухиятини тарбиялаш каби долзарб масалаларда алохида урин тутади.

Бобурнинг мухораба майдонидаги галабаларини таъминлаган омиллардан бири, балки энг муҳими, унинг разведка хизматидан фойдаланиш кобилиятидир. Айни шу маҳорат минглаб лашкарларни ўлим балосидан асрашда, урушни уз фойдасига ҳал қилишда, қолаверса, атрофидаги кишилар рухияти, шахсиятини янада яхширок англашида, душман нияти - сир-асроридан аввалрок хабардор булишда Бобурга қўл келган.

Бобур узи учун умр мазмунининг асоси булган карор — Хиндистон юришига: айни шу маълумотларга эга булганидан кейингина азм қилган: «Бажаврдинким, ёнилди, Бхира хаёли била ёнилиб эди, то Кобулга келиб эдук, хамиша Хиндустон юриши хаёлида эдук».

Мана бу мисол эса Бобурга бевосита уруш майдонида, унинг хал этувчи палласида разведка нечоғли қўл келганини курсатади. Бемалол айтиш мумкинки, Ҳиндистонни эгаллашдаги бу якуний уруш муваффакияти, имкон қадар Бобур лашкарлари учун кам талафот билан якунланганлиги ана шу разведка маълумотларининг натижаси билан ҳам боғлик. Чунки биз «Бобурнома»нинг бирон сахифасида Бобурнинг бунчалик кўп, устма-уст хабарчиларини маълумот йиғиш учун юборганини, разведка маълумоти мухораба ютугининг бош омили эканлигига бу қадар аниқ баҳо берилганини кўрмадик. Бобур ёзади: «Шанба куни жумодиул аввал ойининг ун туртида Агра навохисидин кучуб, чохлар козилгон юртка келиб тушулди... Дарвеш Мухаммад сорбон била Кисмтойким, Байанага бориб келиб, ер-сувни билиб эди, илгари Секрий қулининг ёқасида юрт кура юборилди. Келиб, юртта тушуб, Махдий Хожага, Байанадагиларга киши чоптирулдиким, бетаваккуф келиб, кушулгайлар».

Демак, Бобур бу мухорабага киргунга кадар уч марта разведка хизматига мурожаат этган. Унинг хабарчилари бу ернинг рельефи, сув захираси, холатини «куруб-билиб»

келишлари зарур эди. Бунда маълумот тулаконлилигини таъминлаш, шубхага урин қолдирмаслик топширилган. Бинобарин, хатоликка йул куйиш урушда енгилиш билан баробар булган. Бобур маълумотни олиб, қаноат ҳосил қилгандан сўнг тез хулосага келади: « ...бетаваккуф келиб кушилгайлар». Яъни заҳирадаги қўшинлар унга келиб қўшилишини амр қилган. Шундан кейин ҳам кўнгли тўлмаган Бобур яна разведкадан фойдаланади ва ана шу хабардин кейин ва бу ерда жанг олиб боришга оид тайёргарлик ишларини якунига етказади. Чунки хабарчиларнинг маълумотига биноан захира кучлари унга етиб келади, душманнинг қаерга, қайси масофада келиб тушганлигидан огоҳ бўлади ва шунга қараб керакли жойларда коровулларни тайинлайди: «Хумоюннинг навкари Бек Мирак муғулни бир неча йигит била кофирдин хабар олгали юборилди. Кечасига бориб, хабар олиб, тонгласи хабар келтурдиларким, ғаним кишиси Бусовардин бир курух илгаррак келиб тушган эмиш. Ҳам ушбу кун Махдий Хожа ва Мухаммад Султон мирзо ва Байанадаги илғор келиб қўшулдилар. Беклар навбат била каравулликка таъйин бўлдилар».

Заҳириддин Бобур мухорабада хар кандай хатолик ёмон окибатларга олиб келишини алоҳида таъкидлаган. Юқоридаги матндан куринадики, Бобур разведка маълумотлари асосида ҳар бир бекни ўз лашкари билан маълум вақт ва манзилда қоровулликка тайин этган. Аммо, бу маълумотларга эътибор бермаган Абдулазиз бек жуда катта хатоликка йул қўяди, ўзини ва лашкарини хавф остида қолдириб, уларнинг айримларидан айрилади, сафдошларини ҳам чалғитиб, уларнинг бошига турли кулфатлар ёғилишига сабаб бўлади. Ана шу мисолнинг узи ҳам Бобурнинг разведка маълумотларига нақадар эътибор бергани, унга ўзи амал қилгани, қаламравида бу тартибни бузганларга муросасиз бўлгани далилидир. Зеро, Абдулазизнинг шу хатоси жуда катта мухорабага ҳозирлик кўраётган Бобурнинг режаларини бузади, Муҳаммад Али жанг-жанг каби лашкарбошисини бу жангга киритишга мажбур бўлади.

Мана бу мисол Бобурнинг Иброхим Лудий билан олиб борган курашининг дастлабки пайтига тааллуқли. У Иброҳим Лудий аскарлари холати, унга ким дўст, ким ғаним эканлигини билиш, «тахқиқ қилиб» келишни разведка хизматига буюради ва маълумот ишонарли булиши зарурлигини алохида таъкидлайди: «Сиялкоттин Шоҳим Нурбекни ҳам Лахур бекларига чоптирулдиким, ёгий не ерда эканин тахкик килиб, кайда котилурларини сохибвукуф кишидин билиб, айтиб юборсунлар».

Бобур уз юрти ва бошқа ерли савдогарлар орқали ҳам разведка маълумотлари олишга интилган. Албатта, бу усул янгилик эмас. Савдогарлар ҳукмдорлар учун ҳамиша зарур маълумотлар етказиб туришган. Бирок Бобурнинг бу галги мақсади аник нишонга теккан. У Иброҳим Лудий ҳақида жуда муҳим маълумотга эга бўлади. Оламхоннинг Иброхимга қарши туриши, Хуросонда эса кўчманчи ўзбаклар Балхни мухосара қилганликлари ҳақида маълумот олади ва зудлик билан қатъий қарорга келади: «Оламхонга Ҳиндустон сари рухсат бериб, узумуз Балх устига отландук».

Куйидаги мисоллар юкоридагидек катта сиёсий аҳамиятга молик булмаса-да, мухораба тақдирини белгилашда муҳим ўрин эгаллаган. 1525 йилги мухорабалар Бобурни анчагина чарчатган бўлса ҳам, ёнида тҳнғич уғли Ҳумоюн мардонавор курашиб, кўпгина асирларни, қулга киритилган филларни олиб келиб мулозамат қилганлиги унинг руҳиятини кўтарган эди. Лекин Бобур ракиби Иброҳим Лудийнинг сир-асроридан, ҳарбий имкониятидан кенгрок хабардор булишни максад қилар экан, қандай бўлмасин, душман орасидан «тил» олиб келишни буюради: «Ул юрттан кўчуб, Шохобод келдук. Тил тутар учун Султон Иброхимнинг ўрдусига киши юбориб, неча кун бу юртта таваккуф булди». Демак, Бобур хатто разведка хабарини кутиб, бу жойда бир неча кун колиб кетган. Унинг бу сабри ўз

натижасини берган. У лашкарлари ва сафдошлари билан хавфсиз йўлни танлаб ҳаракат қилган. Лекин бу жойга етиб келган захоти яна бир кишисини разведкага, яна «тил» тутиб келишга жўнатган: «Иброхимнинг урдусидин ҳам мутавотир хабарлар кела бошладиким, бир курух-икки курух кўчуб хар юртта икки-уч кун мақом қила-қила келадур. Биз ҳам мутаважжих бўлуб, Шохободдин ора икки кунуб, Жуун дарёсининг ёқосига Сарсава туғриси келиб туштук. Хожа Калоннинг навкари Ҳайдаркўлини тил тута юборилди».

Бобурнинг бу галги тиришқоқлиги, максад сари интилиши, юксак разведка қобилияти зарур натижани берган. Ҳайдаркўли келтирган хабар Иброҳим Лўдий билан бўлган жанг муваффақиятини таъминлаган. Бу хабарда душманнинг ҳарбий имконияти, армия сафларининг жойланиши ва сони, лашкарлар орасидаги ўзаро муносабат, хатто уларнинг қайси холатда ўтириб-туришларигача тафсилоти билан етказилган эди. Бобур ушбу маълумотни олар экан, хужумга ўтиб, ўзининг энг кўзга кўринган сарлашкарлари Чин Темур Султон, Муҳаммад Султон, Султоним Жунайд, Мир Хусайн ва бошқаларни бу мухорабага сафарбар этади. Натижа унинг кўнглидагидан ҳам яхши булади. Бобур мухорабаларда жуда катта ютуққа эришади, ўзи ташаббус кўрсатиб Уста Аликули тўпчи билан яратган тўпларини ишга солиб, Иброҳим Лўдий устидан мутлоқ ғалаба козонади. Бу натижаларни қўлга киритишда, албатта, бевосита унинг разведкага оид қобилиятининг ҳам муҳим хиссаси бўлган.

Аждодларимизнинг ҳарбий салоҳияти тарихини ўрганиш ёш авлод қалбида Ватанга мухаббат туйғусини уйғотишда алоҳида аҳмиятга эга. Бинобарин, миллатимизнинг ҳарбий тарихи деярли ўрганилган эмас. Биргина Бобур ҳарбий маҳорати кўплаб тадкикотларга етарли материал бера олади. Бу масалаларни Бобурнинг моҳир адиб, шоир, олим, энциклопедик билим сохиби сифатлари билан ҳамоҳанг ўрганиш, катта самара беради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёйевнинг 2017 йил 2 июндаги “Боғи Бобур” маданият ва истироҳат боғида сўзлаган нутқи.

2. Жавоҳарлаъл Неру - Ҳиндистоннинг кашф этилиши китоби.

3. Ёқубов Ҳ., Заҳириддин Муҳаммад Бобур, Тошкент, 1949. Ҳасанов С., Бобурнинг Аруз рисоласи, Тошкент, 1981.

4. Ҳасанхожа Нисорий, Музаккири аҳбоб, Тошкент, 1993.

5. Нуритдинов М., Бобурийлар сулоласи, Тошкент, 1994.

6. Азимжонова С., Заҳириддин Муҳаммад Бобур, Мақолалар тўплами, Тошкент, 1995.

“БОБУРНОМА”ДА ҚЎЛЛАНИЛГАН ҲАРБИЙ ТЕРМИНЛАРНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

Курганов Анваржон Мухторович

Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси кафедра бошлиғи ўринбосари,

“Бобурнома”нинг кишини ҳайратга солувчи хусусиятларидан бири Бобур мирзони ўз даврининг комил инсони, турли соҳалардан мукаммал илмга эга бўлган забардаст олим, етук мутаффакир эканлигини кўрсата олган тарихий-мемуар асарлиги билан ажралиб туради. “Бобурнома”ни ўрганган деярли барча олимлар унда келтирилган фактик-аналитик маълумотларни тарих, география, биология, тиббиёт, этнография, тилшунослик, адабиётшунослик, ҳарбий санъат ва бошқа турли назарий фанлар ҳамда амалий соҳалар учун

катта ҳисса қўшган жаҳон дурдоналаридан бири, бебаҳо ва бетакрор қийматга эга манба эканлигини эътироф этишган. Бобур мирзо ҳарбий мақсадлар ва ҳаракатларни баён қилишда ҳарбий кўмондон сифатида фикр юритган ва ўз фикрларини қоғозга тушириб борган. “Бобурнома”да ҳарбийга соҳага оид термин(истилоҳ)лар ва иборалар қўлланилмаган саҳифа деярли топилмаса керак. Ушбу асар таржимасида давр руҳини акс эттиришда тарихий, миллий-маданиятга хос сўзлар муҳим ўрин тутади.

А.В.Федоров тўғри таъкидлаганидек[1. 284-292.], қадимий, бадиий асар таржимасидан мақсад замондош ўқувчини адабий ёдгорлик билан таништириш. Бу мақсадни амалга оширишда эса замонавий тилни қўллаш асосида зарур, тарихий руҳни акс эттириш учун грамматик ҳамда луғавий бирликлардан ўринли, танлаб фойдаланишда, албатта, лингвомаданий хусусиятлари кўзда тутилади. Аслиятдаги архаиклашган тил воситаларига таржимон ўз тилидан муқобил, мос тарихий-архаик вариант қидириб топишга уринмай, жиддий бадиий услубий сабабларни ҳисобга олиши зарур ҳамда тарихий ҳақиқатни бузмай асарни ўз тилига ўгириши лозим бўлади.

“Бобурнома”дан қуйидаги парчаларда келтирилган: **буронғор**, **жувонғор**, **ировул/ҳировул** каби ҳарбий терминлар кенг қўлланилган. Улар қуйидаги маъноларни англатади. Масалан: **буронғор –** *қўшиннинг ўнг қаноти*, **жувонғор** – қўшиннинг чап қаноти, **ировул** – *лашкарнинг олдинда борувчи қисми, яъни авангард.* Қуйидаги жумла мазмунига эътибор берамиз.

*Ғанимнинг **буронғори** бизнинг **жувонғоримизни** босиб орқаға эврулди, ировул ҳам ўнг қўл сари қолиб, олимиз яланг бўлди*[2. 80.].

Бобурнома асарининг инглизча таржимасида *буронғор – right, жавонғор – left, ировул – van* сўзлари орқали таржима қилинган. Инглиз тилида қўшиннинг ўнг ёки чап қаноти тушунчаларининг фақат *right* ва *left* сўзлари билан ифодаланиши оддий ҳолат ҳисобланади ва бу сўзлар ҳозирги инглиз тилида ҳам ҳарбий терминлар сифатида истифода этилади.

*His **right** beat our **left**, then wheeled (again) to our rear. (As has been said), the front of our centre was bare through our van’s being left to the right*[3. 139.].

Инглизча **van** лексемаси хусусида алоҳида тўхталадиган бўлсак, ушбу сўз ҳозирги инглиз тилида “**илғор**” ҳамда ҳарбий термин сифатида “**илғор отряд**” маъносида қўлланилади. У XVII асрнинг бошларида **vanguard** сўзининг қисқартирилган шакли сифатида пайдо бўлган. **Vanguard** лексемаси инглиз тилига XIV-XV асрларда француз тилидан ўзлашган. Французча **avant** – олдин, **garde** – қоровул. “Бобурнома”да қўлланган **ировул** термини мўғил тилидаги **ҳировул** сўзининг фонетик ўзгаришга учраган ўзлашманинг бир тури ҳисобланади.

“Бобурнома” асарида қўшиннинг марказий қисмини ифода этиш учун **ғўл** термини қўлланилган. Масалан: *Эртасига биз ҳам буронғор, жувонғор, ғўл, ҳировулни тартиб қилиб, **кежим** кийиб, яроғланиб, **ясол** ясаб, **тура** кўтарган **яёқларни** олимизға солиб, ғаним устига юрудук* [2. 64-65.].

*Next day we moved out against him, formed up with right and left, **centre** and van, our horses in their mail, our men in theirs, and with foot-soldiers, bearing mantelets, flung to the front*[3. 113.].

Юқорида келтирилган жумлада **ясол** термини “жанговар саф”ни англатади. Ушбу термин “отларга ёпиладиган зирҳли ёпинчиқ” маъносидаги **кежим**, “одам бўйи баробар қалқон” маъносидаги **тура** ҳамда “пиёда аскар” маъносидаги **яёқ** сўзлари ҳам ҳарбий термин (истилоҳ)лар сирасига киради. Инглизча таржимада **ясол ясаб** бирикмасини таржима қилишда **to form** феълидан фойдаланилган. “Бобурнома”да қўлланилган **кежим** инглиз

тилида “*метал ҳалқалар* ёки *япроқлардан ясалган кийим* ёки *ёпинчиқ*” маъносидаги *mail* сўзи билан берилган. Ушбу инглизча сўз айнан жанговар отларга ёпиладиган **зирҳли ёпинчиқ**нинг муқобиллигини тўлиқ таъминламагани учун таржимон **horses** (отлар) сўзини қўллаб матнга аниқлик киритган. “Одам бўйи баробар қалқон” маъносидаги **тура** сўзининг муқобиллигини таъминлаш мақсадида таржимон *mantelet* лексемасини танлаган. Манбаларда ушбу сўзнинг муқобиллари сифатида инглиз тилида бир нечта маънолари келтирилади.

Биринчиси, “елкага илиб юриладиган енгсиз нимча”, иккинчиси, “ёғочдан ясалган катта ўлчамдаги қалқон, тўсиқ” ва ҳозирги кунда анча фаол қўлланадиган иккита маъноси мавжуд. Ҳарбий соҳага алоқадор бўлган “ўт очиш нуқтасини ёпиб турувчи тўсиқ” ҳамда “кузатувчи яширинган жой” маъноларини англатади. “Бобурнома”да “пиёда аскар” маъносида қўллаган **яёқ** сўзини таржима қилишда мутаржим “foot-soldier” сўзидан фойдаланган. Аслида, инглизча **foot-soldier**, **infantryman** билан мутлақ синоним ҳисобланади. Аммо, ҳозирги инглиз тилида ушбу сўз ҳарбий терминлик хусусиятини йўқотган. У асосан корхона, ташкилот ва бошқа идораларнинг энг қуйи лавозимларда ишлайдиган оддий ходимларга нисбатан қўлланилади.

Хотима ўрнида шуни айтиш лозимки, “Бобурнома” асарининг инглизча таржимасини амалга оширилиши аввало, Бобур сиймосининг жаҳон шарқшунослари, Ғарбий Европадаги кенг китобхонлар томонидан яна бир бор эътироф этилганлигидан далолатдир. Таржима аслиятдаги миллий ва тарихий аҳамият касб этувчи сўзлар, термин (реалиялар), хусусан, Бобур ва бобурийлар сулоласи даврига оид лавҳаларни қайта яратишда аввалги нашрларга нисбатан анчагина ижобий ишлар амалга оширилган дейиш мумкин. Бизнингча, мазкур инглизча таржимани аввалги таржималар билан аслиятга солиштирган ҳолда таҳлил қилиш алоҳида монографик изланишни тақозо этади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Федоров А.В. Основы общей теории перевода. –М.: Высшая школа, 1983. – С. 284-292.

2. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи П.Шамсиев; Муҳаррир А.Ўктам. –Т.: Юлдузча, 1989, - Б. 80.

3. The Bābur-nāma in English (Memoirs of Bābur). Translated from the original Turki Text of Zahiru’d-dīn Muḥammad Bābur Pādshāh Ghāzī by Annette Susannah Beveridge. Issued in Four Fasciculi: - Farghana 1912 – Kabul 1914 – Hindustan 1917 – Preface, Indices, etc. 1921. Vol. I. Sold by LUZAC & CO., 46, Great Russel Street, London. 1922, P. 139.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING SARKARDALIK MAHORATI VA JANGOVAR TAKTIKASI

Tursunboyev A.A.

Milliy gvardiya Harbiy-texnik instituti Harbiy vatanparvarlik, ma’naviy axloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash bo‘limi ofitseri

Boburiylar imperiyasi o‘z davrining eng qudratli qo‘shiniga ega edi. Imperiya hududi Butun Janubiy Osiyoni, jumladan Afg‘onistondan Hindistonning janubiy qismigacha, Hind daryosidan Birma chegaralariga qadar ulkan hududni tashkil etar edi. Bu davrga kelib imperiyaning iqtisodiy salohiyati o‘sha davr butun dunyo iqtisodiyotining beshdan bir qismini tashkil etar edi. Kuchli va

zamonaviy qurol-yarog‘ga ega Boburiylar qo‘shinlarining jang maydonlaridagi zafarli g‘alabalari natijasida saltanat ham iqtisodiy, ham siyosiy jihatdan ravnaq topib bordi. Imperiyada harbiy elitaning mavqeyi baland bo‘lib kelgan. Tarixiy manbaalarda Bobur qo‘shinlarining moliyalashtirilishi, ijtimoiy va madaniy asoslari, harajatlari va erishilgan g‘alabalari haqida qator ma’lumotlar keltirilgan. Boburiylar va ularning raqiblari aslida qanday jang qilganlari to‘g‘risida bizgacha kam ma’lumot yetib kelgan.

Imperiya asoschisi Bobur tomonidan yangi harbiy tizim yaratilishi, uning Humoyun va afg‘on hukmdorlaridan Sher Shox Suri kabi hukmdorlar davrida yanada rivojlanib borishi kuzatilgan. Bobur qo‘shinlarida asosiy e‘tibor texnologiya yutuqlariga, jangovar taktikalarga, jangovar mashqlar, askarlikka yollash, ularni o‘qitish va moddiy-texnik ta’minotni qamrab olgan.

Bu davrga kelib Yevropa mamlakatlarida “Harbiy inqilob” sodir bo‘layotgan edi. Bobur esa Yevropa, O‘rta Osiyo va Hindiston davlatlarining jangovar qurollari va harbiy amaliyotlarini puxta o‘rganib chiqib o‘z qo‘shinlari uchun mos keladigan yangi model yaratdi.

Bobur va uning vorislari tomonidan qo‘shinlarning takomillashtirilishi natijasida porox, piyoda askarlar va qo‘shma qurollarning joriy etilishi jangovar ot va fillardan iborat eski ko‘rinishdagi qo‘shinlarni o‘rnini egalladi. Ushbu jarayon natijasida qo‘shinlarning jang maydonida harakatlanishi, joylashtirilishi va moliyalashtirilish usullari o‘zgardi.

Hindistonda yangi shakllanayotgan Boburiylar imperiyasi xalqaro va qit’alararo savdo-sotiq aloqalarida, harbiy hamkorlikda ham juda tez sur’atlarda ravnaq topib bordi. Bobur qo‘shinlari sonining ortib borishi natijasida Markaziy Yevropa, Yaqin Sharq, O‘rta Osiyo davlatlarida, shuningdek Mo‘g‘uliston va Rossiya dashtlarida paydo bo‘lgan turli xil qurol-yarog‘, texnika va taktikalar qo‘shinlarda joriy etib borildi. Bobur hokimiyat tepasiga kelishi bilan harbiy sohadagi o‘sish jadallashib bordi. Hukmronligining dastlabki yillarida Bobur Markaziy Osiyo va G‘arb harbiy san’atini hamohamg tarzda birlashtirib bordi.

Bugungi kunda davlat boshqaruvi faoliyatida barqarorlik, tinchlik va jamoat xavfsizligini ta’minlashda buyuk sarkarda Zahiriddin Muhammad Boburning amaliy tajribasi yorqin namuna bo‘la oladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev haqli ravishda ta’kidlaganidek, “Bobur Mirzo xalqimizning buyuk farzandi. Adabiyot, ilm, ma’rifat nuqtai nazaridan u hamon yashayapti. O‘zligimizni anglab, buyuk tariximizni, yoshlarga tushuntirsak, ilm-ma’rifatni rivojlantirsak, hech qachon kam bo‘lmaymiz”[1].

Boburning harbiy sarkardalik mahoratining o‘ziga xos xususiyatlaridan hamda muhoraba maydonidagi g‘alabalarini ta’minlangan omillardan biri, balki eng muhimi, uning harbiy sarkardalik qobiliyatining razvedka xizmatidan foydalanish qobilyatidir. Ayni shu mahorat minglab lashkarlarni o‘lim balosidan asrashda, urushni o‘z foydasiga hal qilishda, qolaversa, atrofdagi kishilar ruhiyati, shaxsiyatini yanada yaxshiroq yanada yaxshiroq anglashida, dushman niyati – sir-asroridan avvalroq voqif bo‘lishda Boburga qo‘l kelgan.

Bu borada Prezidentimiz ulug‘ ajdodlarimizning o‘rni beqiyos ekanligini ta’kidlab, Zahiriddin Muhammad Bobur haqida quyidagi fikrlarni bildirib o‘tganlar: “Mana, ulug‘ ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Boburni olaylik, bu buyuk zot o‘n ikki yoshidan boshlab Temuriylar davlatini saqlab qolish uchun o‘zini o‘tga ham cho‘g‘ga ham urdi, hech qanday dushmandan, sinovdan, sinovdan ham qo‘rqmadi. Qirq yeti yillik umri advomida bir zum ham halovat bilmasdan o‘tdi. O‘z avlodlariga Vatanga bo‘lgan buyuk muhabbatni meros qilib qoldirdi”[2]. “Boburnoma”ni fransuz tiliga tarjima qilgan Pave de Kurteyl Boburga quyidagicha haqqoniy baho beradi: “Har qanday sinovga bardosh bera oluvchi, iroda va matonatni mujassamlashtirgan bu zot o‘zida harbiy hiyla va jasoratni uyg‘unlashtira olar, zarur bo‘lganda jazolashga ham, afv etishga ham qodir edi; u

iste'dodli harbiy arbob va ishning ko‘zini biladigan, qo‘shinlarni mohirlik bilan boshqara oladigan, ularning ishonchini qozona oladigan sarkarda edi...”[3].

Boburninng shaxs sifatidagi fazilatlari ham maqtovga loyiqdir. U jasur navkar, tajribasli sarkarda bo‘lgan. Bobur bolaligidanoq janglarda qatnashgan, o‘limga qo‘rqamasdan qarafgan. Bu haqda L.P.Sharma shunday yozadi: “U ajoyib chavandoz, mohir mergan, chaqqon qilichboz va tajribali ovchi edi”[4]. Boburnomada keltirilishicha, harbiy harakatlar olib borilayotgan pallalarda Boburning o‘zi ham xoh jang, xoh qamal bo‘lsin askarlar bilan birga bo‘lganligi qo‘shinga jangovar ruh berib turganlini anglatadi. “Qamal paytida qo‘rg‘on devorining ustida har kecha yurar edik. Gohi men, gohi Qosimbek, gohi yana beklar va ichkilardan ba'zilar aylanardi. Feruza darvozasidan Shayxzoda darvozasigacha devor ustida ot bilan yursa bo‘lardi. Bir aylanguncha tong otar edi deb ta'kidlab o‘tgan.[5]. Bundan tashqari Bobur o‘z qo‘shinlari harbiy harakatlarni olib borayotgan pallalarda yuzaga kelgan turli xil qiyinchilik va to‘siqlarni shaxsiy namuna ko‘rsatib yechim topa bilgan. Bobur mardlikda himmati yuksak davlat arbobi edi. Hirotdan Kobulga borishda qor otning qornidan keladigan yo‘llarda o‘zi oldinga tushib qor tepib, lashkarga yo‘l ochadi. Boshqalar g‘orda qor bo‘ronidan jon saqlasalar, Bobur qorda o‘ra qazib osha yerda tunamoqchi bo‘ladi. “Bir haftaga yaqin qor tepib, kunda bir shar'iy – bir yarim shar'iydan ortiq ko‘chilmas edi, Qor tepar kishi men edim, o‘n-o‘n besh ichkilar bilan va Qosimbek edi, ikki o‘g‘li – Tangriberedi va Qanbarali bilan, yana ikki-uch navkari ham bor edi. Ushbu zikr etilganlar yayov yurib qor tepar edi. Har qadam qo‘yganida beligacha, ko‘ksigacha bota-bota” qor tepar edi.[6]

Boburning sarkarda sifatidagi muvafaqqiyatlari kaliti – bu cherikni, qo‘shinning ko‘nglini olmoqlikda bo‘lgan. Bobur askar ko‘nglini olmoqlikning bosh mezoni qilib, kishining qayerdan ekanligi, millati va nasabibni emas, balki podshohga sadoqat, mardligi, fidoiyligi, vafodorligi, davlat himoyasiga qo‘shgan hissasini belgilagan.[7].

Sarkarda Boburning jang vaqtida haqiqiy yetakchilarga xos abjirlik, shikoatkorlik, vaziyatning har qanday sharoitida ham nostandart qarorlar qabul qilish, jangovar harakatlarni oldindan ilg‘ay olish fazilatlari mavjud edi. Bobur o‘z raqiblari bilan olib brogan janglaridan birini quyidagicha xotirlaydi: “Shu asnoda men yetib bordim. Yetgan zahotimoq otni dushman ”ustiga yeldirdim. Ular dosh berolmay, tirqirab qocha boshladilar. Ko‘chadan qochirib tekis yerga chiqarib, qilich solar paytimda otimning oyog‘iga otdilar. Otim bukilib, yovning o‘rtasida meni yerga urdi. Chaqqonlik bilan turib, bir o‘q otdim”[8].

“Boburnoma”ni varaqlarkanmiz, ko‘z oldimizda Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindiston xalqlariga xos bo‘lgan fazilat va nuqsonlar, ularning tafakkur olami kengligi va murakkabligi bilan birga, o‘sha davrdagi hayot muammolari, Bobur davlatidagi siyosiy va ijtimoiy hayotning to‘liq manzarasi namoyon bo‘ladi. “Boburnoma”dagi ushbu ma'lumotlar Bobur davrida yozilgan boshqa tarixiy manbalar: Mirxond, Xondamir, Muhammad Solih, Binoiy, Muhammad Haydar, Farishta, Abul-Fazl Allomiy va boshqa tarixchilarning asarlarida bu darajada aniq va mukammal yoritilgan emas. Muallif “Boburnoma”da Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Kamoliddin Behzod, Ulug‘bek Mirzo va boshqa allomalar haqida o‘zining eng yuqori fikr va mulohazalarini bildiradi. Uzoq yillar davomida G‘arb va Sharqning mashhur sharqshunos olimlari “Boburnoma” mazmunini jahon jamoatchiligiga yetkazish borasida katta faoliyat ko‘rsatdilar. Masalan, gollandiyalik olim Vitsen, angliyalik olimlar J.Leyden, V.Zrskin, R.Koldekot, A.Beverej, T.Albot germaniyalik Yu.Klaynrat va A.Keyzer, fransiyalik Pave de Kurteyl, hindistonlik Mirzo Nasriddin Haydar Rizvi, turkiyalik R.R.Art va N.I.Bayur va bizning davrimizdagi fransiyalik olim Bakke Gromon, afg‘onistonlik olim Abulhay Habibiy, pokistonlik olimlar Rashid Axtar, Nadvi va Shoh Olam Mavliyot shular jumlasidandir. “Boburnoma”ni o‘rganish sohasida jahonning mashhur sharqshunoslari qatoridan yaponiyalik olimlar ham joy olmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 2 iyundagi “Bog‘i Bobur” madaniyat va istirohat bog‘ida so‘zlagan nutqi.
2. Mirziyoyev Sh.M. buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. –B.8-9
3. Z.M. Bobur. Boburnoma. T.: O‘qituvchu NMIU, 2018.
4. Sharma L.P. Boburiylar saltanati. – Toshkent: Ma’naviyat, 1998. –B.25.
5. Usmonov K. O‘zbek xalqi ma’naviy-ahloqiy merosida harbiy vatanparvarlik. – T.: “Tafakkur”, 2016, - B.100.

ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУРНИНГ ҚУРОЛ-АСЛАҲАЛАРИ ТАРИХИ ВА УНДА ХАВФСИЗЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ

Гаипов Р.А.

Миллий гвардия Ҳарбий-техник институти докторанти,

Буюк Бобокалонимиз Заҳириддин Муҳаммад Бобур ўзбек халқининг довруғини дунёга таратган улуғ аждодларимиздан биридир. У асос солган Бобурийлар салтанати Ҳиндистонда 332 йил ҳукмронлик қилди. Ушбу буюк саркарда жаҳон тарихида истеъдодли шоҳ ва шоир сифатида, беназир адабий мероси, бунёдкор ишлар соҳиби, кучли давлат арбоби сифатида юксак ўрин эгаллайди.

Ўзбекистон Президенти ижодкор зиёлиларимиз, бизнинг қандай буюк ва шонли ўтмишимиз, қандай улуғ аждодларимиз борлигини яхши биламиз ва бу билан ҳамиша фахрланамиз. Бундай жаҳон цивилизацияси ва маданиятига улкан хисса қўшган улуғ аждодларимизнинг ҳар бирини маънавий тарихий меросини ўрганишга, уни ёшларимизга тушунтиришга барчамизни сафарбар этди.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ва ижоди, ҳарбий маҳорати ва қаҳрамонликлари неча асрлардан буён фаол тарзда ўрганиб келинмоқда. Бу борада унинг хавфсизликни таъминлаш, жамоат тартибини, тинчлик ва осойишталикни сақлаш борасида ислоҳотлари алоҳида тадқиқ этиладиган соҳа ҳисобланади. Зеро Соҳибқирон Амир Темурдан кейин темурийлар салтанатининг муносиб вориси сифатида давлат ва жамоат хавфсизлигини сақлашга, чегараларни мунтазам ҳимоя қилишга, бу йўсинда қатор жангу-жадаллар олиб борган шоҳ айнан Бобур мирзо ҳисобланади.

Бобур замонида жамоат хавфсизлигини таълиминлаш унчалик осон бўлмаган. Буни халқнинг қисқа давр ичида у ёки бу раҳбар бошқарувига оғиб кетиши, сиёсий тарқоқликлар кучайиб бораётган бир давр бўлганлиги билан изоҳлаш мумкин. Бобурнинг фаолиятида ҳам бу каби ҳолатлар тез-тез содир бўлганлиги, Андижонда бўлганда Самарқанд, Самарқандда бўлганда Андижон қўлдан кетганлиги бунга мисолдир. Қизиқ жиҳати, келишмовчиликлар асосан қариндошлар, айниқса яқин қариндошлар орасида бўлиб, муҳитнинг унчалик ижобий бўлмаганлиги ҳам ҳақиқатга яқин. Шу боисдан ҳам ҳукмдорлар, хусусан Бобурнинг ўзи ҳам айрим ҳолларда эҳтиёткорликка алоҳида эътибор қаратганлиги айни муддао бўлган.

Хавфсизликни таъминлаш бобида ҳарбий соҳада эришган муҳим хусусиятларидан бири шу эдики, бошқа шоҳларнинг жангда ишлатган тактикаларини ўзлаштириб олиб, келгусида шунга тайёр бўлишга ҳаракат қилади ва бу орқали ўзига хос тажриба шаклланган эди.

Манбалар Бобур даврида қамалда қалъани қўриқлашга алоҳида эътибор қаратилганлигини тасдиқлайди. Бунда нафақат ҳарбий қурол ва аслаҳалар балки бошқа

моддий ва маънавий таъминот ҳам зарурлиги, бу борада Бобур анча қийинчиликларни бошдан кечирганлиги кўзга ташланади. “Бобурнома”да қайд этилишича, “...бурунгилар дебдурларки, қўрғон беркитмоқликка бош керак; икки қўл керак; икки оёқ керак: бош сардор бўлади. Икки қўл – икки томондан келадиган кўмак ва мадад бўлади. Икки оёқ – қўрғоннинг заҳираси билан суви бўлади[1]. Демак аскарларнинг қамал вақтидаги таъминоти уларнинг кейинги фаолиятига ҳам чуқур таъмир кўрсатишини англаган Бобур бу борадаги муаммоларни ҳал қилишга алоҳида эътибор қаратган.

Хавфсизликни таъминлашда ҳарбий соҳада эришган яна бир муҳим жихатларидан, Бобур қўшинларининг қурол-аслаҳаларини доимий ривожлантириб, такомиллаштириб борди. Бу эса қўшинларнинг жанговар салоҳиятига жуда катта таъсир кўрсатмай қолмайди.

Ўзбекистон тарихида ҳарбий қуролларни ўрганиш, асосий қуролсозлик марказларини тадқиқ этиш, биз ҳарбийлар учун муҳим аҳамият касб этади. Аждодларимизнинг қурол яратиш технологияларини билишга уринишлари, бу уларнинг техника борасидаги ижодий интилишларининг, мамлакат мудофаа қобилиятини ўстириш борасидаги изланишларининг самараси деб баҳолаш мумкин. Ўрганилаётган муаммонинг долзарблиги ва аҳамияти ҳам шундадир. Мамлакатимизнинг кўпгина олимлари бу борада ўз тадқиқотларида турли даврлардаги қуроллар ясаш технологияларини қайд этиб ўтган. Аммо жанговар милтиқлар, тўплар аксарият XV-XIX асрларга оид тадқиқотларда ўз ифодасини топган.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва бобурийлар қурол аслаҳаларини ўрганиш нафақат Ўзбекистон тарихида, балки жаҳон ҳарбий тарихида ҳам муҳим аҳамият касб этиб, курсантларни, мазкур давр тарихи билан қизиқувчиларни аждодларимиз фойдаланган ҳарбий қуроллари ва уларнинг имкониятларини тасаввур этиши ҳамда масала юзасидан холис фикрлаш имкониятини беради. Аждодларимизнинг замонасининг илғор қуролларини яратишга бўлган интилишлари, бу борадаги Хорижий давлатлар билан ҳамкорликларга уриниши эътиборга молик бўлиб, доимо ҳарб илмини такомиллаштириб, янгиликларни яратиб бориш лозимлигини, ҳамда бу борада лоқайдликка йўл қўйиб бўлмасликни тарғиб этади.

XVI-XIX аср манбалари Шарафиддин Али Яздийнинг “Зафарнома”, Рашидиддиннинг “Жоме ат-таворих”, Ҳофиз Таниш Бухорийнинг “Абдулланома”, Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг “Бобурнома”, Абдураҳмон Толеънинг “Абулфайзхон тарихи” асарларида Ўрта Осиёда қўлланилган кўплаб қуроллар номи тилга олинади.

Ўрта Осиёда ўрта асрларда жанговар қуроллар ҳолати, қуролсозлик тараққиётидаги ўзгаришларнинг суст кечиши қандай омилларга боғлиқлигини ўрганиш мақсадидан келиб чиқиб, бу ерда ясалган айрим жанговар қуроллар турлари, улар ясалиши ҳақидаги маълумотларни ўрганишни ўз олдимизга вазифа қилиб қўйдик.

Бобурийлар даври қурол-яроғлари хусусида маълумот берар эканмиз, уларни икки гуруҳга бўлишимиз мумкин: 1)совуқ қуроллар; 2)ўт очар қуроллар.

Совуқ қуроллар сарасига қилич, ўқ-ёй, найза, ханжар, ойболта, гурзи, камонлар ва бошқаларни киритиш мумкин.

Ўт очар қуроллар – булар, тўфанг деб аталган милтиқлар ва турли тўплар (тошли, нефтли, порохли ўқларга эга). Бу қуроллар даврлар ўтиб номланиши ўзгариши, сифат даражасида турлича бўлганлиги ва ўқлари, имкониятларида такомиллашиш юз берганлигидан далолат беради.

XV аср муаллифи Абдураззоқ Самарқандийнинг ёзишича: “Ҳарбий сафарда ҳар бир зобит жанг қилиш усулларини яхши билиши фарз саналган бўлиб, ўзи билан бирга бир йилга

етадиган озиқ овқат, қурол-аслаҳа, 30 та ўқ билан камон, темир совут, найза ва қалқон, болта, темир курак олиб юриши керак бўлган".

Ўрта Осиёнинг баъзи манзиллари айрим қурол турларини ишлаб чиқаришда машҳурликка эришган. Самарқанд қуролсозлик марказига айланиб, *совутсозлар маҳалласи* қурилган. Хусусан, *"Бобурнома"* асарида Чоч – Тошкентнинг машҳур камонлари еластиб ўтилади. Яъни манбаларда *"камоний чочий"* номи билан учрайди[2]. Камонгарон ёй ясовчилар маъносида бўлиб, "эски замонларда ушбу қишлоқда ёй ясагувчилар ўрнашганлари сабабидан шу ном билан аталган"[3].

XVI асрларда ўқ ёйдан отилган тез учадиган махсус ўқ - *"шиба"* [4] деб аталган. Тадқиқ қилинган тарихий манба ва адабиётларда камоннинг ўлчови ва ўқининг узунлиги мувофиқ келиши ҳақида фикр билдирилади[5]. Камон ва ўқларни олиб юриш учун усталар "садоқ" ясаганлар.

Нефт ва бошқа қуроллар Ўрта Осиё халқлари томонидан қадимдан урушда қўлланилиб келинган. Лекин милтиқ бу ерда тахминан ХВИ асрнинг иккинчи чорагидан бошлаб қўлланила бошланган[6].

"Бобурнома"да 1519-1520 йил Қобул воқеалари ҳақида ёзилганда "Бажавр эли, чун туфанг унидин ҳеч парво қилмадилар, балки туфанг унини (товушини) эшитгач, тамасхур қилиб, муқобалада шаъни, ҳаракатлар қилурлар эди. Ўшал куни Устод Аликули беш кишини туфанг била йиқди. Ўзга туфангдозлар ҳам туфанг отмоқда бисёр жалолад кўрсатиб яхши отдилар"[7]. Бу даврда "туфанг" деб аталган милтиқ, ўқ отар қурол бўлиб, дориси "порох" бўлган. Мазкур даврга оид миниатура расмларида узун ва ҳозиргига нисбатан қўполроқ бўлган қурол эди. Тўфанг отувчилар – "тўфангдозлар" деб, юритилган.

Аммо "Бобурнома"да бу қурол илк бор 1518 йил воқеалари билан боғлаб тилга олинади. 1508-1518 йиллардаги воқеалар "Бобурнома" дан жой олмаган. Шундай экан, тўфангнинг Бобур қўшинида илгарроқ бўлганлигини таъкидловчи Муҳаммад Солиҳ ва Муҳаммадёр ибн Араб Қатоғон сўзларига ишонса бўлади[8].

Заҳириддин Муҳаммад Бобур тарихда буюк саркарда, маҳобатли қўшин қўмондони эди. Унинг қўшинида ўрта асрларга хос Ўрта Осиёдаги Амир Темур ва темурийлар вориси сифатида улар қўллаган қуроллардан ҳам фойдаланилган. Аммо Бобур замонасининг илғор қуролларини ҳам қуролсоз усталарга ясатишга ҳаракат қилган. Бу давр қуроллари орасида "тўфанг", милтиқ – ўқ отар қуроли Ўрта Осиё манбаларидан, "Бобурнома" асарида илк бора учрайди. У кўплаб европа давлатлари билан доимий муҳорабаларда бўлган Усмонийлар давлатидан усталар чақиртириб, ўз даврининг илғор қуролларини қуйдиришга уринган. Ўзи эса ушбу "топ" қуролларини синаш ишларида ҳам бош-қош бўлган. Бобур қўшинининг қурол-яроғи масаласида илғор мамлакатлар тажрибасини ўрганишга, уни ўз аскарларига жорий этишда очиқ сиёсат олиб борган. Бу эса Ҳиндистон фатҳида жуда қўл келиб, буюк империя барпо этишга олиб келган. Тарихий манбалар Бобур замонасида қўшиннинг ҳарбийлар қуроллари борасида доимо изланишда бўлганлигини кўрсатади. Қўшиннинг жанговар шайлигини ошириш мақсадида доимо мерганлик борасида турли мусобақалар уюштириб турган. Мавжуд қурольларни такомиллаштириш бўйича, найинки қуролсоз усталар, балки ташаббускор аскарларни ҳам илғор ғоялари учун рағбатлантирган. Маъқул қуроллар қўшин учун қуролсоз усталар томонидан ясалган.

Хулоса ўрнида қайд этиш лозимки, Заҳириддин Муҳаммад Бобур даврида амалга оширилган хавфсизликни мустаҳкамлаш борасидаги барча чора-тадбирлар биринчи навбатда тинчлик ва осойишталикни таъминлаш, жамоат тартибини сақлаш, аҳолининг ўзаро тотув яшашига имкон яратишга қаратилган. Қурол-аслаҳаларни ривожланиши хавфсизлик

борасидаги муаммоларни ҳал этишда жуда қўл келганлигини таъкидлаш лозим. Қурол-аслаҳалар ҳар доим ҳам қўшинлар жанговар салоҳиятини юксалтириш ва давлатнинг мудофаасини мустаҳкамлашда мухим ўрин эгаллаб келган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Т.: “Ўқитувчи” 2008. 287 б.

2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур Бобурнома. – Т. :1989. – Б. 9. // Ҳофиз Таниш Ал-Бухорий. “Абдулланома” форс тилидан С. Мирзаев таржимаси, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Б. Ахмедов – Т. : “Шарқ”, 1999. – Б. 112.

3. Абу Тоҳирхожа. Самария // Мерос. – Т. : 1991. –Б. 77

4. Ҳофиз Таниш Ал- Бухорий. “Абдулланома” форс тилидан С. Мирзаев таржимаси, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Б. Ахмедов – Т. : “Шарқ”, 1999. – Б. 402.

5. Курилев В.П. Оружие казахов // Материальная культура и хозяйство народов Кавказа, Средней Азии и Казахстана. Сборник МАЭЛ. – М.: 1978. – С. 19.

6. Ҳофиз Таниш Ал-Бухорий. “Абдулланома” форс тилидан С. Мирзаев таржимаси, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Б. Ахмедов – Т.: “Шарқ”, 1999. – Б. 393.

ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР ИСТЕЪДОДЛИ САРКАРДА ВА ДАВЛАТ БОШҚАРУВИДА ҲАРБИЙ САНЪАТИ

Парпиева А.Ж.

Чирчиқ ОТҚМБЮ катта ўқитувчиси

Бобур (тахаллуси; тўлиқ исми Заҳириддин Муҳаммад ибн Умаршайх Мирзо) (1483.14.2, Андижон 1530.26.12, Агра) — ўзбек мумтоз адабиётининг йирик вакили: буюк шоир; тарихчи, географ; давлат арбоби, истеъдодли саркарда; бобурийлар сулоласи асосчиси, темурий шаҳзода.

Бобурнинг отаси — Умаршайх Мирзо Фарғона вилояти ҳокими, онаси — Қутлуғ Нигорхоним Мўғулистон хони ва Тошкент ҳокими Юнусхоннинг қизи эди. Бобурнинг онаси ўқимишли ва оқила аёл бўлиб, Бобурга ҳокимиятни бошқариш ишларида фаол кўмак берган, ҳарбий юришларида унга ҳамроҳлик қилган. Умаршайх Мирзо хонадони пойтахт Андижоннинг арки ичида яшар эди. Ҳоким ёз ойлари Сирдарё бўйида, Ахсида, йилнинг қолган фаслини Андижонда ўтказарди.

Бобурнинг ёшлиги Андижонда ўтган. Бобур барча темурий шаҳзодалар каби махсус тарбиячилар, йирик фозилу уламолар устозлигида ҳарбий таълим, фиқҳ илми, араб ва форс тилларини ўрганади, кўплаб тарихий ва адабий асарлар мутолаа қилади, илм-фанга, шеъриятга қизиқа бошлайди. Довюраклиги ва жасурлиги учун у ёшлигидан «Бобур» («Шер») лақабини олади [1]

Бобур отаси йўлидан бориб, машҳур суфий — Хожа Аҳрорга ихлос қўяди ва унинг тариқати руҳида вояга етади, умрининг охирига қадар шу эътиқодга содиқ қолади. Кейинчалик, «Бобурнома» асарида Бобур Хожа Аҳрор руҳи бир неча бор уни муқаррар ҳалокатдан, хасталик ва чорасизликдан халос этганини, энг оғир шароитларда раҳнамолик қилганлигини таъкидлайди. Отаси Ахсида бевақт, 39 ёшида фожиали ҳалок бўлгач, оиланинг катта фарзанди, 12 ёшли Бобур валиаҳд сифатида тахтга ўтиради (1494 йил июнь).

Мовароуннаҳр 15-аср охирида ўзаро низолашаётган темурий шаҳзодалар ёки мулкдор

зодагонлар бошчилик қилиб турган, деярли мустақил бўлиб олган кўпдан-кўп вилоятларга парчаланиб кетган эди. Мовароуннаҳр тахти учун кураш авжга чиққан, турли сиёсий фитналар уюштирилмоқда эди. Бунинг устига Умаршайх Мирзога тобе бир неча бек ва ҳокимлар ёш ҳукмдорга (Бобурга) буйсунишдан бош тортадилар.

Бобурнинг дастлабки сиёсий мақсади Амир Темур давлатининг пойтахти, стратегик ва географик жиҳатдан муҳим бўлган Самарқандни эгаллаш ва Мовароуннаҳрда марказлашган кучли давлатни сақлаш, мустаҳкамлаш ҳамда Амир Темур салтанатини қайта тиклашдан иборат эди. Бу пайтда, қисқа муддат ичида Самарқанд тахтига учинчи ҳукмдор келган эди. Султон Аҳмад Мирзо вафоти (1494 йил июль) дан кейин тахтга ўтирган Султон Маҳмуд Мирзо Самарқандда давлатни 5—6 ойдан ортиқ идора этмади — қисқа муддатли касалликдан сўнг 43 ёшида вафот этди. Унинг ўрнига Бухорода ҳоким бўлган ўғли Бойсунғур ўтиради. 1495—96 йилларда Бобур Самарқандга икки марта муваффақиятсиз юриш қилади. 1497 йил кузида у Самарқанд атрофидаги бир қанча жойларни ва 7 ойлик қамалдан сўнг Самарқандни эгаллайди, Бойсунғур Қундузга қочади. Шаҳар қамал туфайли ниҳоятда оғир кунларни бошидан кечирмоқда эди. Ҳатто эккулик дон ҳам топиш мушкул эди. Бобур қўшинни таъминлашда катта қийинчиликларга дуч келди. Навкарларидан айримлари Андижон ва Ахси томон қочиб кетадилар. Бунинг устига Андижонда қолган айрим беклар Бобурдан юз ўгириб, унинг укаси Жаҳонгир Мирзо тарафига ўтадилар.

Андижондан кўнгли нотинч бўлган ва иқтисодий қийинчиликларга учраган, айни замонда оғир хасталикни бошидан кечирган Бобур Самарқандни юз кун идора этгандан сўнг, уни тарк этишга қарор килади. Аммо Хўжандга етганда Андижон ҳам қўлдан кетиб, мухолифлар ихтиёрига ўтганини эшитади. Бобурнинг Тошкент ҳокими, тоғаси Маҳмудхон кўмагида Андижонни қайта эгаллашга уриниши натижа бермайди.

Бу муваффақиятсизлик Бобур қўшинига салбий таъсир этиб, кўпчилик бек, навкарлар (700—800 киши) Бобурни тарк этади. Ўзига содиқ кишилар (200—300) билан қолган Бобур маълум муддат Хўжандда тургач, Тошкентга — Маҳмудхон ҳузурига келиб, Андижонни қайтариб олиш режасини туза бошлайди. Маълум муддат ўтгач, Бобур Хўжандга қайтади, кўп ўтмай, Марғилонни қўлга киритади ҳамда Андижонни эгаллаш тадбирларини кўради. Ниҳоят, 2 йилдан сўнг (1498 йил июнь) уни қайта қўлга киритади. Бобур укаси Жаҳонгир Мирзо билан сулҳ тузиб, унинг ихтиёрида «Хўжанд сувининг Ахси тарафи вилоятларини…» қолдиради, Андижон тарафи вилоятларини ўз тасарруфига олади [2].

Темурийларнинг ўзаро урушлари кучайган кезларда Шайбонийхон Мовароуннаҳрни истило қилишга киришади. У 1499 йил Жиззах ва Самарқанд орқали Қарши ва Шаҳрисабзгача босиб боради, катта ўлжа билан Дашти Қипчоққа қайтади. Орадан кўп ўтмай,катта куч билан Мовароуннаҳрга қайтган Шайбонийхон Бухоро ва Қоракўлни эгаллайди (1499), Султон Али Мирзо калтабинлик билан Самарқандни Шайбонийхонга жангсиз топширади (1500). Бироқ, шаҳар аҳолиси ва зодагонларининг маълум қисми темурийлар ҳукмдорлигини тиклаш тарафдори эди. Улар Фарғона ҳокими Бобурга мактуб йўллаб, Самарқандни ишғол қилишга даъват этганлар.

Бобур 1500 йил кеч кузида ўз қўшини (240 киши) билан Самарқандга етиб келгач, аҳоли унга пешвоз чиқиб, шаҳар дарвозаларини очиб беради. Шайбонийхоннинг шаҳар ҳимояси учун қолдирган 600 нафар аскари қириб ташланади. Шайбонийхон Бухорога чекинади. Қисқа вақт ичида Самарқанднинг барча туманлари, Қарши ва Ғузор шаҳриларида Бобур ҳокимлиги эътироф этилади. Аммо шаҳарда озиқ-овқат заҳиралари тугаб, очарчилик бошланган эди. Бундан хабар топган Шайбонийхон катта куч тўплаб, яна Самарқандга юриш бошлайди. 1501 йил апрелда Зарафшон бўйидаги Сарипул қишлоғи яқинида бўлган жангда

Бобур қўшинлари енгилади. Бобур Самарқандга чекинади. Шаҳар яна қамал қилиниб, у тўрт ой давом этади. Қамалда қолган шаҳар аҳолисининг очликдан тинкаси қурийди, Бобур 1501 йилнинг 2-ярмида ноиложликдан Самарқандни тарк этиб, Тошкентга, Маҳмудхон ҳузурига йўл олади.

Бобур Темурийлар салтанатини ҳимоя қилиш ва уни сақлаб қолиш учун астойдил ҳаракат қилиб, Шайбонийхонга қарши бир неча йил давомида муттасил кураш олиб борса-да, аммо мамлакатда ҳукм сурган оғир иқтисодий танглик ва сиёсий парокандалик шароитида мақсадига эриша олмайди.

1503 йил Тошкент хони Маҳмудхон, Бобур ва қалмоқларнинг бирлашган қўшини Шайбонийхон томонидан Сирдарё бўйида тормор қилинади. Бобур Самарқанд тахти учун курашаётган пайтда Андижонни Султон Аҳмад Танбал эгаллаб олади. 1501—04 йилларда Бобур Фарғона мулкини қайтариб олиш учун Султон Аҳмад Танбал, Жаҳонгир мирзоларга қарши олиб борган кураши муваффақиятсизлик билан тугайди. Темурийларнинг тўхтовсиз жанглари ва оғир солиқларидан толиққан халқ Бобурни қўлламади ва у Мовароуннаҳрни тарк этишга (1504 йил июнь) мажбур булади [3].

Бобур 200—300 навкари билан Ҳисор тоғлари орқали Афғонистонга ўтади ва у ердаги ички низолардан фойдаланиб Ғазни ва Кобулни эгаллайди. Бобур Кобулни эгаллагач, мустақил давлат тузишга жадал киришади, қўшинни тартибга келтиради, қаттиқ ички интизом ўрнатади. Кобулга, умуман Афғонистонга Бобур ўз юрти каби қарали, қурилиш, ободонлаштириш, касбу ҳунар ва қишлоқ хўжалигини ривожлантириш ишларини бошлаб юборади. «Боғи Шаҳроро», «Боғи Жаҳоноро», «Ўртабоғ», «Боғи вафо» ва «Боғи Бобур» каби оромгоҳлар ташкил этди. Шаҳар ичидаги Боло Ҳисор қалъасини ўз қароргоҳига айлантириб, уни қайта таъмирлатди, янги иморатлар қурдирди ва оиласи билан шу қалъада яшади. Унинг Ҳумоюн, Гулбаданбегим, Комрон ва Ҳиндол исмли фарзандлари шу ерда туғилади. 1506 йил баҳорда вафот этган Қутлуғ Нигорхоним Мирзо Улуғбек шу ерда бунёд эттирган «Боғи Наврўзий»га дафн этилади.

Бобур Афғонистонда бир фотиҳ сифатида эмас, балки шу юрт, эл ободонлиги ва равнақи учун жон куйдирган тадбирли ҳукмрон сифатида қизғин фаолият кўрсатди, унинг манфаатлари йўлида одилона ва оқилона иш тутди. Афғонистондаги амалий фаолиятига кўра, Бобур бутун Хуросон ва Мовароуннаҳрда қудратли давлат бошлиғи ва музаффар саркарда сифатида катга обрў орттира борди, минтақадаги сиёсий ҳаёт эътиборли ўринга кўтарилди. Шайбонийларнинг тобора кучайиб бораётган юришига қарши биргаликда чора кўриш масаласида Султон Ҳусайн Бойқаро барча темурий ҳукмдорлар қаторида Бобурни ҳам маслаҳат йиғинига махсус таклиф этиши ана шундай юксак нуфузни кўрсатувчи далилдир. Бобур шу таклиф бўйича Ҳиротга отланади. Ҳусайн Бойқаронинг тўсатдан вафот этишига (1506) қарамай, у Ҳиротга боради ва темурий ҳукмдорлар билан учрашиб музокаралар ўтказади. Темурий ҳукмдорларнинг бирлашиб Шайбонийхон қўшинларига тўсиқ қўйиш режалари амалга ошмайди ва тез орада бирин-кетин мағлубиятга учраб, салтанатни батамом қўлдан чиқарадилар.

1507 йил бошларида Бобур Ҳиндистонга юриш бошлайди. Аммо, бу уриниши муваффақиятсиз тугаб, яна пойтахт Кобулга қайтади.

Бобур Мовароуннаҳр ва Хуросондаги сиёсий вазият ва уруш ҳаракатларини кузатиб боради, ўз қўшинларини доимо шай тутади. Шайбонийхон Хуросоннинг йирик марказларини қўлга киритгач, Эронни забт этиш учун юриш бошлайди. Аммо, Эрон шоҳи Исмоил Сафавий билан қаттиқ тўқнашувда (1510) енгилади, ўзи ҳам Марвда ҳалок бўлади. Шоҳ Исмоил Хуросон ва Мовароуннаҳрга қўшин киритиб шайбонийларга кетма-кет шикаст

етказа бошлайди. Бобур шоҳ Исмоил билан ҳарбий-сиёсий иттифоқ тузиб, 1511 йил баҳорида Ҳисорни, ёзида Бухорони, октябрь бошида эса Самарқандни яна қўлга киритади. Бобурнинг шиа мазҳабидаги эронийлар раъйи билан иш тутиши аҳолида норозилик туғдиради. 1512 йил 28 апрелда Кўли малик жангида Убайдулла Султон бошлиқ шайбонийлардан енгилган Бобур Ҳисор томон кетади. 1512 йил кузида Бобур шоҳ Исмоил юборган Нажми Соний лақабли лашкарбоши билан Балхда учрашиб, Амударёдан кечиб ўтиб, аввал Ҳузар (Ғузор) қалъасини олади, сўнг Қаршига юриш қилади, шаҳар узоқ муддатли қамалдан сўнг таслим бўлади, шаҳар ҳимоячилари қаттиқ жазоланади. 1512 йил 24 ноябрда Ғиждувон жангида Бобур шайбонийлардан яна енгилиб, Кобулга қайтишга мажбур бўлади. Бобур Мовароуннаҳрни эгаллаш илинжидан узил-кесил умидини узади ва бутун эътиборини Ҳиндистонга қаратади.

1519 йил баҳорига келиб Бобур Ҳиндистонни забт этиш режаларини амалга оширишга киришади ва кейинги 5—6 йил давомида бир неча юришлар уюштиради. Ниҳоят, 1526 йил апрелда Панипатда асосий рақиби, Деҳли султони Иброҳим Лўдийнинг юз минг кишилик қўшинини 12 минглик аскари билан тор-мор қилади ҳамда Деҳлини эгаллайди. Орадан кўп ўтмай, иккинчи йирик ҳинд саркардаси Рано Санго устидан ҳам зафар қозониб, Шимолий Ҳиндистоннинг Бенгалиягача бўлган қисмини ўзига бўйсундиради. Аграни ўзига пойтахт сифатида танлаган Бобур катта қурилиш ва ободончилик ишларини бошлаб юборади. Шу тариқа Бобур Ҳиндистонда уч ярим асрга яқин ҳукм сурган қудратли бобурийлар сулоласига асос солади.

Бобур Ҳиндистонда ҳам, худди Афғонистонда бўлганидек, кўплаб ижтимоий-хайрли ишларни амалга оширди, мамлакат тараққиётига жиддий таъсир кўрсатди. Тарқоқлик ва парокандаликка, ўзаро ички низо, қирғинларга барҳам бериб, вилоятларни бирлаштирди, марказлашган давлатни мустаҳкамлаш ва юртни ободонлаштиришга, илму ҳунар ва деҳқончиликни ривожлантиришга катта эътибор қаратди. Қурилиш ишларига бошчилик қилди.

Бобурнинг ўз гувоҳлигига кўра, шоир сифатида ижодий фаолияти Самарқандни иккинчи марта эгаллаган вақтда бошланган; «Ул фурсатларда бирор-иккирар байт айтур эдим», деб ёзади у. Бобур Самарқанддалигининг илк ойларида Алишер Навоий ташаббуси билан улар ўртасида ёзишма бошланади. Бобур атрофида ижодкорлар тўплана бошлаши ҳам шу йилларга тўғри келади. Жумладан, Биноий, Абулбарака ва Бобур ўртасидаги рубоий мушоираси Самарқанддаги қизғин адабий ҳаётдан дарак беради. Умуман, давлат арбоби ва кўп вақти жангу жадалларда ўтган саркарда сифатида ижтимоий фаолиятининг энг қизғин даврида ҳам, шахсий ҳаёти ва давлати ниҳоятда мураккаб ва хатарли шароитда қолган чоғларида ҳам Бобур ижодий ишга вақт топа билган, илм, санъат ва ижод аҳлини ўз атрофига тўплаб, ҳомийлик қилган, уларни рағбатлантирган.

Ўтмиш адабиёт ва тарих, мусиқа ва санъатдан яхши хабардор бўлган, диний таълимотга чин ихлос қўйган Бобур ҳар доим олиму фозиллар даврасида бўлди, хусусан ижод аҳлига, касбу ҳунар соҳибларига самимий эҳтиром кўргазиб ҳомийлик қилди, уларни моддий ва маънавий рағбатлантириб турди. Ижод ва санъат аҳлига бундай меҳрли муносабат асло бежиз бўлмаган. Бобур табиатан ижодкор эди. Йигитлик йилларидан бошлаб то умрининг охиригача самарали ижодий иш билан шуғулланди, ҳар қандай шароит ва вазиятларда ҳам ижоддан тўхтамади, натижада, ҳар жиҳатдан муҳим бой илмий ва адабий мерос қолдирди.

1526 йил 21 декабрда Бобурга қарши суиқасд уюштирилади. Маҳв этилган Иброҳим Лўдийнинг онаси ошпазлар билан тил бириктириб, унинг овқатига заҳар қўштиради.

Шунинг асоратими ёки кўп йиллик машаққатли ва қўнимсиз ҳаёт таъсирими, ҳар ҳолда кейинги йилларда Бобур тез-тез касалга чалиниб туради. 1527 йил октябрда Бобур яна хасталикка учрагач, умрининг охирлаб қолганини ҳис этади.

Бир неча муддат олдин шоликни Ҳумоюнга топширган Бобур 47 ёшида ўзи асос солган салтанат пойтахти Аграда вафот этди ва ўша ерда дафн этилди, кейинчалик (1539), васиятига мувофиқ хоки Кобулга келтирилиб, ўзи бунёд эттирган «Боғи Бобур»га қўйилди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбек миллий эциклопедияси 2-жилд Давлат илмий нашриёти 2001 йил, 83-93бетлар.
2. Ҳасан Қудратуллаев, «Бобурнинг давлатчилик сиёсати ва дипломатияси", Шарқ нашрити матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, Тошкент 2011, 284-287 бетлар.
3. Заҳириддин Муҳаммад Бобур "Бобурнома", Фан нашриёти 2019 йил, 154-161 бетлар.

БОБУРНИНГ РАЗВЕДКА МАҲОРАТИ

Саидов З.Ҳ.
Чирчиқ ОТҚМБЮ ўқитувчиси,

Таъкидлаш жоизки, разведка хизмати тарихи узоқ ўтмишларга бориб тақалади. Ундан оқилона, тактик жиҳатдан пишиқ фойдаланган шахсгина юксак натижаларга эришган.

Шоҳ ва саркарда Бобурнинг юксак мантиқий таҳлили, уруш шароитини яхши англаши, яшиндек тез хулосага келиши, разведка хизматига ўз фурсатида мурожаат этиши ва қарийб адашмаганлиги кишини ҳайратга солади. "Бобурнома"дан бунга кўплаб мисоллар келтириш мумкин.

Бир мисол Хисравшоҳнинг иниси Боқи Чағониёнийнинг Бобурга етказган разведка хабари билан боғлиқ. Афғонистонда ўз ҳукмронлиги асосини солаётган Бобур бегона юртдаги шаҳар, қишлоқ, ўрмонзор, кўча ва пасткўча, дарё ва сойлар хусусиятини жуда синчковлик билан ўрганади. Айниқса, бу лашкар хавфсизлиги, салтанат тақдири билан боғлиқ бўлса, Бобурнинг синчковлик қобилияти янада ошган, эҳтиёт чораларини кўришга киришган.

Ҳали Бобурнинг Қобул ҳокимияти мустаҳкам шаклланмаган бир пайтда, атрофидаги дўстлари ҳам душман рафторини қилганда уларнинг ҳар бир ҳаракатини ўрганиш, кейин хулоса чиқариш бениҳоя муҳим эди.

1528 йил воқеалари. Заҳириддин Бобур Ҳиндистонда Иброҳим Лўдийнинг юз мингдан ортиқ лашкарини енгган. Бу узоқ ўлкаларда Амир Темур империясини тиклашдек орзуси амалга ошганлигидан шод бўлган даври. Бироқ бу пайтда унинг ҳукми Ҳиндистоннинг барча ўлкаларига тўлиқ ўтмас, қаршилик кўрсатаётган ҳинд рожалари, лашкар бошлиқлари ҳали анча ташвишлар орттирар эди. Бу вақтда Бобурнинг ҳарбий маҳорати етилган, у юрт олиш учун ҳар бир хабар, маълумотдан борган сари унумли фойдаланар, ҳинд ерида тезроқ мустаҳкам, ҳар қандай ихтилофлардан холи давлатни тузишга ошиқар эди.

Ана шундай пайтда Бобур шерикларининг олдига, Кўҳ деган жойга кема билан етиб келади. Унинг кайфияти яхши, руҳи ғалабалар нашидасидан кўтаринки эди. Уруш оралиғида, исёнчи ҳиндулар, афғонларнинг тўсатдан қиладиган ҳужумлари вазиятида у курашчилар мусобақасини ўтказган, ҳатто бу спорт тадбири янада жонли ўтишини истаб, ўзи таъкидлаганидек, "хилофи қоида" "аввал зўрроқларни" майдонга чорлаган[1. 157 б]. Хуллас, бу пайт Бобур руҳиятида кам содир бўладиган хурсандлик дами бўлган.

Бироқ бу кайфиятни Султон Муҳаммад бахши келтирган разведка маълумоти ўзгартиради. Ҳаёт нашидасидан сармаст Бобур ўша заҳотиёқ шоҳ Бобурга айланади.

Мана бу мисол ҳам Бобурнинг ҳарбий-стратегик режалари билан боғлиқ. Воқеа Афғонистон ерларида, феврал ойининг ўрталарида содир бўлган. 1509-1510 йилнинг бу қиши анча кеч келиб, Бобурга черикнинг озиқ-овқати ташвиши ором бермаётган пайт. У ёзади: “Сешанба куни ойнинг еттисида бекларни ва дилазак афғонлари улуғларини тилаб, кенгашиб, сўзни мунга қўйулдиким, йил охир бўлубтур, ҳутға бир-икки кун қолибтур, туздаги ошлиқни тамом кўтарибтурлар. Бу фурсатта Саводқа борсак, черик эли ошлиқ топмай танқислиқ бўлғусидур” [1. 175 б].

Мана бу мисол эса Бобурга бевосита уруш майдонида, унинг ҳал этувчи палласида разведка нечоғли қўл келганини кўрсатади. Бемалол айтиш мумкинки, Ҳиндистонни эгаллашдаги бу якуний уруш муваффақияти, имкон қадар Бобур лашкарлари учун кам талафот билан якунланганлиги ана шу разведка маълумотларининг натижаси билан ҳам боғлиқ. Чунки биз “Бобурнома"нинг бирон саҳифасида Бобурнинг бунчалик кўп, устма-уст хабарчиларини маълумот йиғиш учун юборганини, разведка маълумоти муҳораба ютуғининг бош омили эканлигига бу қадар аниқ баҳо берилганини кўрмадик.

Демак, Бобур бу муҳорабага киргунга қадар уч марта разведка хизматига мурожаат этган. Унинг хабарчилари бу ернинг рельефи, сув заҳираси, ҳолатини “кўруб-билиб” келишлари зарур эди. Бунда маълумот тўлақонлилигини таъминлаш, шубҳага ўрин қолдирмаслик топширилган. Бинобарин, хатоликка йўл қўйиш урушда енгилиш билан баробар бўлган.

Аждодларимизнинг ҳарбий салоҳияти тарихини ўрганиш ёш авлод қалбида Ватанга муҳаббат туйғусини уйғотишда алоҳида аҳмиятга эга. Бинобарин, миллатимизнинг ҳарбий тарихи деярли ўрганилган эмас. Биргина Бобур ҳарбий маҳорати кўплаб тадқиқотларга етарли материал бера олади. Бу масалаларни Бобурнинг моҳир адиб, шоир, олим, энциклопедик билим соҳиби сифатлари билан ҳамоҳанг ўрганиш, айниқса, янада катта самара беради.

Фойдаланган адабиётлар рўйхати:

1. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. “Бобурнома”, Т., 1989 й.

ЛАШКАР ВА НАВКАРЛАРДА КРЕАТИВЛИК СИФАТЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА БОБУР ҚЎЛЛАГАН ТАДБИРЛАР

Шеров М.Б.

Чирчиқ ОТҚМБЮ катта ўқитувчиси,

Заҳириддин Бобур одамлар руҳиятини, айниқса, ўз яқинлари, аскарлар психологиясини нақадар чукур билгани кўп жиҳатдан унинг ҳарбий ғалабаларини таъминлаган эди.

Масалан, 1526 йил воқеалари тасвирланган бобда ҳинд рожаси Рано Санго билан бўлган жанг тасвирига катта ўрин ажратилган. Рано Санго қўшини Бобур қўшинидан сон жиҳатидан анча устун, яхшироқ қуролланган эди. Бунинг устига ҳинд қўшинида кўплаб жанг филлари бор эди. Бу ҳолат жангдан олдин Бобур аскарларининг руҳи тушиб кетишига сабаб бўлади. Китобда қўшиннинг шу пайтдаги руҳияти қуйидагича тавсифланади:

“Ушбу айёмда ўтган вақоедин нечукким мазкур бўлди, улуқ-кичикта дағдаға ва тараддуд кўп эди. Ҳеч кимдин мардона сўз ва далирона раъй эшитилмас эди. Ҳикоят дегучи

вузаронинг ва вилоят тегучи умаронинг на сўзлари мардона эди, на тадбирлари, на ўзлари соҳиб ҳимматона эди” [1. 289 б].

Руҳи бундай тушкун ҳолдаги қўшин билан душманга қарши жанг қилиб бўлмаслиги, жанг қилинса ҳам уни енгиб бўлмаслигини яхши тушунган Бобур аскарларнинг руҳини кўтариш йўлини излай бошлайди ва бир тадбир топади. У бутун қўшинни тўплаб шундай мурожаат қилади:

“Ҳар кимки ҳаёт мажлисиға киribтур, оқибат ажал паймонасидин ичгусидур ва ҳар кишиким, тириклик манзилиға келибтур, охир дунё ғамхонасидин кечгусидур. Ёмон от била тирилгандин яхши от била ўлган яхшироқ.

Тенгри таоло бу навъ саодатни бизга насиб қилибтур ва мундоқ давлатни бизга қарийб айлабтур. Ўлган шаҳид, ўлтурган ғози. Барча тенгрининг каломи бирла онт ичмак керакким, ҳеч ким бу қитолдин юз ёндурур хаёл қилмағай, то бадандин жони айрилмағунча, бу муҳораба ва муқоталадин айрилмағай.”

Бобурнинг бу оташин нутқидан руҳланган беклар ва аскарлар қўлга мусҳафни олиб ғалабагача жанг қилишга қасам ичадилар. Бобур қўллаган бу тадбир бир томондан, беклар ва аскарларнинг руҳини кўтариб юборган бўлса, иккинчи томондан, унинг хабари душман аскарларига етиб боргач улар орасида саросима ва тушкунлик бошланади. Бу ҳақда Бобурнинг ўзи шундай ёзади: “Тавр тадбире эди, ёвуқтин, йироқтин дўст, душман кўргали, эшитгали яхши бўлди”.

Қўлланган тадбир кўп жиҳатдан Бобур қўшини ғалабаси учун асос яратди. Икки қўшин орасида бошланган жанг жуда аёвсиз ва бешафқат бўлди. Бу жангда Бобур тўлғама усулини қўллади. Баъзи тарихчилар бу усулни тарихда биринчи бўлиб Бобур қўллади, десалар ҳам аслида у даставвал Чингизхон томонидан, кейинчалик Амир Темур томонидан ҳам бир неча марта қўлланган. Лекин, Бобур жангда бу усулни қўллашни жуда такомиллаштирди ва ҳарбий санъат даражасига кўтарди. Бобургача тўлғамани қўллаган қўшин тактик устунликни қўлга киритган бўлса, Бобур бу усулдан фақат тактик мақсадда эмас, руҳий жиҳатдан ҳам устунликни қўлга киритиш учун моҳирона фойдаланди. Тўлғамани қўллаш учун Турдика, Малик Қосим Бобо, Рустам туркман ва Низомиддин Султон Муҳаммад бахши тайин қилинади. Жанг энг қизиган пайтда юқорида исмлари зикр этилган беклар бошчилигидаги аскарлар душман қўшинларини айланиб ўтиб орқадан ҳужум қилади. Душман саросимага тушади. Шу пайт Бобурнинг ўзи бошқарган ғул олд томондан ҳужум қилади. Душман қўшинлари орасидаги саросима яна ҳам кучаяди. Энди бу қўшиннинг ўнг қанот ва сўл қаноти, жувонғор ва буронғори аралаш-қуралаш бўлиб кетади ва уни бошқаришга имкон қолмайди. Сон жиҳатдан оз бўлган Бобур қўшини эса жангни руҳий кўтаринкилик билан олиб борар эди. Бобур ёзишича аскарлар “шундай шавқ билан уруш қилардиларки, юқори олам фаришталаридан уларга таҳсин нидоси етарди” [1. 366 б].

Рано Санго билан жангда Бобур қўллаган тадбирлар унинг фақат алоҳида индивидлар психологиясини эмас, ҳозирги давр тили билан айтсак, гуруҳлар, ижтимоий қатламлар психологияси ёки социал психологияни ҳам чуқур билганини кўрсатади.

Бу жангдан олдин Бобур қўшинининг тушкун руҳиятда бўлгани ва уни кўтариш учун қандай тадбирлар қўлланган юқорида айтилди. Ўша тушкунликка Рано Сангонинг миқдор ва қурол-яроғ жиҳатидан анча устун қўшинга эга бўлиши сабаб эди. Бундан ташқари баъзи ғаламислар қўшин орасида турли нохуш гаплар ва миш-мишлар тарқатиб аскарлар руҳини яна ҳам туширишга уринган эдилар. Ўшандайлардан бири Муҳаммад Шариф деган шахс бўлиб у мунажжимлик қиларди. У аскарлар орасида, ҳозир Миррих юлдузи ғарб томонда турибди. Кимки ғарб томонда туриб уришса, у мағлуб бўлади, деб гап тарқатади. Бобур

қўшини ғарбда, Санго қўшини эса шарқда жойлашган эди. Мунажжимнинг бу “башорати” аскарлар руҳига салбий таъсир қилади. Буни зукколик билан илғаб олган Бобур қарши чоралар қўллайди.

Мунажжимнинг гаплари тўғрисида “Бобурнома”да шундай дейилади: “Муҳаммад Шариф мунажжим шумнафас, агарчи манга айтур ёроси йўқ эди, ҳар кимга йўлиқса муболағалар билан айтур эдиким: “Бу айёмда Миррих ғарб саридур, ҳар ким бу тарафдин урушса мағлуб бўлур”. Мундоқ шумнафас неким сурди, бедил элнинг кўнглини кўпрак синдурди. Анинг бу паришон сўзларига гўш қилмай, қилур ишларимизни тигилмай уруш ишида бажид ва масоф қилмоққа мустаид бўлдук.” [1. 286 б].

Бобур қўллаган тадбирлар, аскарлар руҳини кўтаришга йўналтирилган чоралар, унинг улкан ҳарбий маҳорати мунажжимнинг башоратларини пучга чиқарди.

Бобур Ҳиндистонга 11,5-12 минг кишилик қўшин билан борган эди. Ҳиндистонда у олиб борган дастлабки катта жанглардан бири Деҳли яқинида Иброҳим Лўдий қўшини билан бўлган. Иброҳим Лўдий қўшинида 100 мингдан ортиқ аскар, мингдан ортиқ жанг фили бор эди. Лекин, тарих гувоҳлик беришича, ҳар доим ҳам жангнинг натижасини аскарларнинг миқдори, ҳатто жанг филлари ҳам ҳал қила олмайди. Аксинча, ғалаба тақдири кўпроқ қўшин руҳиятига, саркарда маҳоратига ва тадбиркорлигига боғлиқ бўлади. Деҳли яқинидаги жанг эса бунга яққол мисолдир.

Иброҳим Лўдий катта иқтисодий ва ҳарбий қудратга эга эди. Бу ҳақда Бобур шундай ёзади: “Ғанимнинг ҳозир черикини бир лак ченарлар эди. Ўзининг ва умаросининг минг-икки мингга ёвуқ фили бор дерлар эди. Икки отасидин қолғон хазина худ нақд илигида эди.” [1. 243 б].

Рақибининг нафақат бойлиги ва қудратли қўшинини, балки руҳиятини ҳам чуқур таҳлил қилган Бобур уни енгиш мумкин, деган хулосага келади. Чунки, Иброҳим Лўдий табиатан жуда хасис бўлиб атрофидагилар, лашкарбошилар, аскарлар ундан норози эдилар. Хасисликдан ташқари Иброҳим Лўдий тадбирсиз, шижоатсиз ва ғайратсиз эди. Буни чуқур илғаган Бобур шундай ёзади: “Тенгри таоло рост келтурди, не йигитини рози қила олди, не хазинасини улаша олди. Қайдин йигитини ризо қила олурким, табиатига имсок кўп ғолиб эди... Не келиши саранжомлиқ эди, не туриши, не югуриши эҳтиломлиқ эди, не уруши” [1. 243 б].

Чуқур ҳарбий таҳлил руҳий таҳлил билан қўшилгач, Бобур Лўдийга қарши жанг бошлашга қарор қилади. Ҳолбуки, унинг қўшинида барча аскарлар ва хизматчиларни қўшиб ҳисоблаганда ўн икки минг киши бор эди. “Навкар ва савдар ва чокар жамиъ черик била бўлғонлар ўн икки минг киши қаламга келди” [1. 248 б].

Шундай қилиб Бобур ўн мингдан ортиқроқ аскар билан Иброҳим Лўдийнинг юз минг кишилик қўшинини тор-мор келтирди, жуда кўп ўлжа ва асирларни қўлга киритди, Бобурнинг исми ёнига буюк саркарда сифатини қўшиш қанчалик тўғри эканини шу жанг ҳам тасдиқлайди.

Бобур ўз қўшинидан 8-10 баравар ортиқ бўлган Иброҳим Лўдий қўшини билан жанг бошлар экан, тўлғама усулидан жуда усталик билан фойдаланади. Қўшин жангга ҳозир бўлганда узоқда Иброҳим Лўдийнинг аскарлари кўринади. Бу ҳолат “Бобурнома”да қуйидагича таърифланади: “Султон Иброҳимнинг кораси йироқтинким кўрунди, ҳеч ерда даранг қилмай, тез-ўқ келадур эди. Илгаррак кела бизнинг қорамизким, аларға кўрунди, бу тартиб ва ясолниким, мулоҳаза қилдилар, ҳаср бўлуб, турай-турмай, келай-келмай дегандек қилиб, не тура олди, не бурунғидек кела олди”. [1. 244 б].

Иқтисобдан кўриниб турганидек, Бобур қўшинининг ўзига хос сафланиши, жангга шай туриши Лўдийга ва унинг аскарларига қаттиқ таъсир қилади. Улар на туришини, на орқага юришини билмай қоладилар. Жанг бошланмай туриб Лўдий қўшинида вужудга келган бу руҳий саросималик жангнинг бошланиши ва боришига катта таъсир қилади.

Жанг узоққа чўзилмай унинг тақдири пешингача ҳал бўлди. “Офтоб бир найза бўйи чиқиб эдиким, уруш ангизи бўлди. Кун тушгача зарб уруш эди. Кун туш бўла аъдо мағлуб ва мақҳур ва аҳиббо мубтаҳиж ва масрур бўлдилар. Тенгри таоло фазлу карами била мундоқ душвор ишни бизга осон қилди ва андоқ қалин черикни ярим кунда ер билан яксон қилди[1. 244 б].

Жаҳон ҳарбий тарихида бундай жанглар жуда кам бўлган. Душманга нисбатан бир неча баравар кам қўшин билан жангга кириб, бир неча соат ичида бундай порлоқ ғалабага эришган саркардалар ҳарбий тарих саҳифаларида жуда кам учрайди. Ҳаттоки, Искандар Зулқарнайн ҳам қўшинидан 5-6 баравар ортиқ қўшинни енгган, аммо 10-12 баравар ортиқ қўшин билан урушмаган ҳам. Бундай ғалабанинг ўхшаши на Юлий Цезарь, на Наполеон, на Чингизхон фаолиятида учрамайди. Бобур Мирзо жангга 11-12 минг кишилик қўшин билан кириб душманга бир неча ўн минг кишилик талофат етказади.

Бу ҳақда “Бобурнома”да қуйидагиларни ўқиймиз: “Беш-олти минг киши Иброҳимнинг яқинида бир ерда-ўқ қатлға етибдурлар. Ўзга ҳар ерда ўлганларни бу маъракада ўн беш-ўн олти минг тахмин қилур эдук. Сўнгра Оградга келганда Ҳиндустон эли тақридин андоқ маълум бўлдиким, қирқ-эллик минг киши бу маъракада ўлган экандур.” [1. 245 б].

Бундай порлоқ ғалабанинг сабаби, аввало, Бобурнинг юксак ҳарбий маҳоратида. Лекин, ҳарбий маҳорат таркибига аскарлар ва душман руҳиятини жуда чуқур тушуниш ҳам киришини унутмаслик керак. Бобур эса аскарлар ва рақиб руҳиятини, ҳозирги тил билан айтганда, ҳарбий психологияни жуда чуқур билар эди. Унинг олиб борган жанглари, “Бобурнома”да аскарлар, беклар, душман аскарлари руҳиятининг жуда нозик, кўз илғамас жиҳатларини ҳам таҳлил қилиши шундан гувоҳлик беради.

Юқорида айтилганидай, у аскарлар психологиясини жуда яхши билган. Бундан ташқари, унинг ўзи ҳам руҳан тетик ва баркамол, жисман ва ахлоқан бақувват эди. Бунга бир неча мисолларда ишонч ҳосил қилиш мумкин.

Руҳий ва ахлоқий жиҳатдан унинг пок ва баркамол экани шунда кўринадики, у энг оғир шароитда аскарларга мардлик, чидам ва матонат намунасини кўрсатарди. Бу эса аскарларда унга ҳурмат ва муҳаббат ҳиссини уйғотарди.

Фойдаланган адабиётлар

1. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. “Бобурнома”, Т., 1989 й.

ШОҲ ВА ШОИРНИНГ ҲАРБИЙ СТРАТЕГИЯСИ

(Бобурнома асаридан айрим талқинлар)

Номуродова М, Бурхонов Т, Хайдаров Ф.

Ўзбекистон Республикаси Қуролли кучлари Академияси доцентлари

Ўтмишдаги салтанатлар фаолиятидан маълумки, ҳарбий жанглар сирлари, қўшинларни сақлаш, тартиб билан иш юритиш, янги аслаҳалар билан бойитиш тажрибалари ҳарбий хизматчиларимизда ўтмишимиздан ғурур, янгилик яратишга ҳавас уйғотиши ва Ватанга муҳаббатли бўлишни тарғиб этиши муқаррар. Айниқса, Амир Темур ва Заҳириддин

Муҳаммад Бобурнинг ҳарбий маҳоратини, уларнинг юксак жанг тажрибаларини туран таҳлил қилиш орқали мамлакатимиз мудофаа тизимини илмий жиҳатдан тўдиришимиз мумкин. Заҳириддин Муҳаммад Бобур Ҳиндистонни тасарруфига киритгунга қадар, энди қирқ ёшни қоралаётган паллада юрт олиб юрт берган, муҳорабаларда суяги қотган, дўст вафосидан кўра атрофидагиларнинг хиёнати, бевафолигидан кўп озор чеккан шох сифатида гавдаланади. У Ҳиндистонга юриш қилгунга қадар, аввал Мовароуннаҳрда Аҳмад Танбал, кейинчалик Хисравшоҳ, Шайбонийхон, Бухоро учун курашда Абдуллахон билан жанг қилган, ғалабалар нашидасини сурган, мағлубиятлар аламини тортган — улкан муҳораба мактабини ўтаган. Бобур юз-юз эллик минг аскар, айниқса, икки мингта жанговар филга (таъбир жоиз бўлса, бу филлар ўша пайтда муҳораба майдонида бугунги танк вазифасини ўтаган) эга ҳинд саркардаси Иброҳим Лодий армиясига қарши нисбатан кам сонли лашкар билан курашиб, ғалаба қозонган. У, биринчи галда, ҳинд, пушту ва балужларнинг жанг майдонида ҳали бу аслаҳага дуч келишмаганини билиб, ундан руҳий таъсир воситаси сифатида ҳам фойдаланади. Кашмир яқинидаги Бажавр жангида унинг туфангчилари шижоат кўрсатиб, ғанимни таҳликага солиб қўйишади. Бу эса Бобурга янада мукаммалроқ қурол яратиш ғоясини беради: «Бажавр эли чун туфангни кўрмайдур эдилар, туфанг унидин ҳеч парвое қилмадилар, балки туфанг унини эшитгач тамасхур қилиб, муқобалада шаниъ ҳаракатлар қилурлар эди. Ўшал куни Устод Алиқули беш кишини туфанг била отиб йиқди. Ўзга туфангандозлар ҳам туфанг отмоқта бисёр жалодат кўрсатиб, яхшилаб оттилар. Калқондин, жибадин, говсардин ўткара-ўткара, йиқита-йиқита оттилар. Оқшомғача шоядким, етти-секкиз-ўн бажаврий туфанг била йиқилди. Андин сўнгра андоқ эдиким, туфангнинг зарбидин бош чиқара олмаслар эди». Юқоридаги парчадан муҳорабада туфангчилар яхши ҳаракат қилишгани, натижадан Бобурнинг қувонгани кўриниб турибди. Бироқ унинг хаёлига туфангдан кўра мураккаброқ аслаҳа яратиш фикри келади ва изланади. У Хуросон ва Мовароуннаҳрдаги жангларда «Рум дастури била» уруш олиб борган. Бу услубдаги жангда ҳарбий аробалардан фойдаланиш кўзда тутилган. Шу дастурга Бобур янгилик киритишга ошиқади: туфангчиларнинг жанг майдонидаги ўрнини алмаштириб, улардан олдин янги ихтироси бўлган аробаларни қўяди. Бу янгилик аввалги туфангандозлар кўрсатган жасоратдан кўра самаралироқ бўлади ва Бобурга янги изланишлар эшигини очади: «Рум дастури била аробаларнинг орасида занжир ўрнига… арғамчилар эшиб, бир-бирига боғлайдилар. Ҳар икки ароба орасида олти-етти тўра бўлғай. Туфангандозлар бу ароба ва тўраларнинг кейнида туруб, туфанг отқайлар. Бу асбобнинг тартиби жиҳатидин беш-олти кун бу юртта таваққуф бўлдук».

Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳарбий қуролни янада такомиллаштириш, «фаранги» отиш устида ўйлай бошлайди. «Фаранги», бугунги ибора билан айтганда, ўқ отар тўп бўлиб, биринчи марта Бобур томонидан ҳинд муҳорабасида қўлланилган. Бундан олдин ҳам бу қуролнинг одмироқ нусхасидан фойдаланилган. Бобур туфангни такомиллаштириш, душманнинг кенгроқ майдондаги сафига зарба берадиган фарангий қурол ясашга астойдил киришади. Шундай қилиб, 1525 йил воқеалари баёнидан бошлаб, «Бобурнома» саҳифаларида Устод Алиқули — ҳарбий тўп ясовчи уста номи тез-тез келади: «Устод Алиқули ҳам ғулнинг олдидин неча қатла яхши фарангилар отти. Мустафо тўпчи ҳам ғулнинг сўл қўлидин ароба устидаги зарбзанлар била яхши зарбзанлар отти». Мазкур парчадаги бир жиҳатга эътибор берайлик: Бобур ҳарбий аслаҳалари қаторига энди аробаларга ўрнатилган зарбзан қурол ҳам қўшилган. Туфанг, тўп, зарбзанларнинг душман аскарларини ваҳимага солгани Бобурда янги ғояларни амалга ошириш иштиёқини туғдиради ва бу ишнинг устаси Устод Алиқули билан бирга мутлақо янги қурол — артиллерия аслаҳасининг илк намунасини яратишга киришади.

Бобурнинг бу ишни охирига етказгунга қадар сабр-бардош, чидам, узлуксиз изланиш олиб боргани ғоят ибратлидир. Ҳиндистондаги Бийана қўрғонини эгаллаш анча мушкул кечади. Қўрғоннинг баландлиги, ичкарига киришнинг мушкуллиги бор ҳарбий имконият билан уни эгаллашга йўл бермайди. Шунда Бобур янги қуролини маълум бир жойга ўрнатиб, катта ҳажмдаги нишон ўқини узоқроқ масофага етказадиган ускуна устида иш бошлайди. Бу ғояни Устод Аликулига айтиб, топшириқ беради. Қисқа вақт ичида Устод Аликули ускуна мажмуаси билан тайёр бўлганини билдиради. Бобур бу аслаҳанинг «қозон қуярининг тафарружига бордик», деб ёзади. Бунда «қозон» тўпнинг пороххонаси бўлиб, унинг чидамлилиги, ҳисоб-китоби (ўтга дош бериш даражаси, тебраниш ҳолати, ўқни аниқ масофа ва мўлжалга етказа билиши ва бошқалар) аниқ бўлиши лозим эди.

Устод Аликули билан «ҳаммуаллифликда» янги қурол яратиш жараёни Бобурнинг инсон руҳий кечирмаларининг билимдони эканини кўрсатадики, «Бобурнома»даги Устод Аликулининг ҳолати тасвири бунга мисол: «Бийана ва баъзи кирмаган қўрғонлар маслаҳатиға бир улуқ козон Устод Аликулиға буюрилиб эрдиким, қуйғай. Ўра ва жамиъ масолиҳини тайёр қилиб, манга киши йиборди. Душанба куни муҳаррам ойининг ўн бешида (эътибор берайлик, Бобурнинг ўзи ҳам бу тарихий воқеанинг кунини аниқ бермоқда, назаримизда унинг ўзи ҳам бу янгиликни тарихий воқеа эканлигини таъкидлаган бўлса ажаб эмас — ҳ.к.) Устод Аликулининг қазон қуярининг тафарружиға бордук. Қозон қуяр ернинг гирдида секкиз қўра қилиб, олотни эритибтур. Ҳар кўранинг тубидин бир ариғе бу қозоннинг қолибиға рост қилибтур. Биз борғоч, кўраларнинг тешукларини очти, ҳар ариғдин эриган олот сувдек шарилдоб қолибға кирар эди. Бир замондин қолиб тўлмай, бу кўралардин келатурган эриган олотнинг келмоғи бирар-бирар мунқатиъ бўлди. Кўрада ё олотта қусуре бор экандур. Устод Аликулиға ғариб ёмон ҳолате бўлди. Дарин эдиким, ўзини қолиб ичидаги эриган мисқа ташлағай. Устод Аликулиға дилжўйлик қилиб, хилъат кийдуруб, бу инфиъолдин чиқардук»[1].

Бобур устанинг тўпдаги камчиликни қисқа муддатда аниқлаб, яна зудлик билан бу масаладан лашкарбошини хабардор этишни ўз бурчи деб билганини таъкидлайди: «Бир-икки кун қолиб совуғондан сўнг очтилар. Устод Аликули кўп башошат била киши йиборибтурким, қозоннинг тош уйи бекусурдур (бунда бир масалага диққатни қаратиш зарур: тўпни яратишда унинг қозони — пороххонаси, назаримизда, техник жиҳатдан энг мураккаб муаммо бўлган кўринадики, Бобурнинг хавотири ҳам Аликулининг аслаҳанинг шу нозик қисми бутунлигидан хурсандчилигини шоҳга етказишга шошгани ҳам шу билан изоҳланади — ҳ.к.). Дорухонасини қуймоқ осондур. Қозоннинг тош уйини чиқариб,жамеъни анинг ислоҳиға таъйин қилиб, ўзи қозоннинг дорухонасини уймоққа машғул бўлди». Хуллас, Бобурнинг сабри, устанинг маҳорати тез орада юксак натижа беради: ҳарбий аслаҳалари ичида энг қудратли, муҳорабаларда душманга даҳшат солувчи тўп яратилади. Бобур бу ўринда икки масалада ўзининг синчковлигини намоён этаётир: биринчидан, у тўп нишонининг масофасини аниқ белгиламоқда, чунки бу қуролнинг асосий сифат белгиси — ўқ қанчалик узоқроққа етишига боғлиқ. Иккинчидан, унинг Устод Аликулига қилган инъоми фақат энг катта хизмат кўрсатган, эътиборли кишиларга аталадиган совға бўлиб, бу ҳам Бобурнинг мазкур масалага нечоғли эътибор билан қараганини кўрсатиб турибди.

Устод Аликулининг ютуғи Бобурни қаноатлантирган, албатта. Аммо у тўпни янада такомиллаштириш, зарба бериш қудрати ва ўқининг учиш узоқлигини ошириш устида бош қотирган. Тажриба чоғида тўпнинг қозонхонаси ёрилиб, бир парчасигина саккиз кишининг жонига зомин бўлган экан, бу тўпнинг катталиги қанча бўлган? Бобур даврида бунчалик иссиқбардош, юқори даражадаги ўтга чидамли металлар қаердан олинган? Бу саволларга

бериладиган жавоблар миллий армиямиз тарихига доир ихтиролар таҳлилига боғлиқки, бу ўринда биз турли соҳалардаги олимларимизнинг жавобига бугунги ўқувчининг чанқоқлигини айтишни истар эдик. Хуллас, Заҳириддин Бобур масалага жиддий қарайди: тўп ўрнатиладиган жой тупроғи, тупроқнинг таркиби, ернинг тўп зарбига бардошлилиги, муҳораба майдонининг мувофиқлигини ўрганади ва бу ишлар назоратини бевосита ўз қўлига олади. Тўп отишда, тажриба чоғидаги каби, фожиа такрорланмаслигини истаб, бу ишни ўрганишга масъул «муҳассислар ва белдорлар»дан иборат ҳайъат тайинлайди. Ана шу ишлар бажарилиб, кўнгли тўлгандан кейингина бошқа қурол, анжомларни ҳозирлашни буюради: «Устод Аликули тош отар учун бир боғда ясси ерни ихтиёр қилди. Муҳассислар ва белдорлар таъйин бўлдиким, қозон қурари учун булжор қўпорғайлар. Жамиъ черик элига фармон бўлдиким, тўра ва шоту ва навкари тўраниким, қалъагирлик асбобидур, тайёр қилгайлар». Шу ўринда бир масалага диққатни тортмоқчимиз.

Бобур янги ихтиро қилинган тўпни жангга ҳозирламагунча эгаллаши қийин бўлган қўрғон ҳужумига ўтмаган. «Бобурнома»да Бийана қўрғонининг жуда баланд, мустаҳкамлиги бир неча марта такрор айтилганки, унга қилинган ҳужумлар зое кетиб, мақсадга эришилмаган. Анча мукаммаллаштирилган тўпнинг яратилганига ишонч ҳосил қилганидан сўнг Бобур «қалъагирлик асбоб»ларини ҳозирлаш вақти етганини билдирмоқда. Шундан ҳам бу аслаҳанинг яратилиши Бобурнинг Ҳиндистонни ўз тасарруфига киритишида нечоғли зарур бўлганини билиш мумкин.

Заҳириддин Бобур Иброҳим Лўдийга қарши муҳорабага жуда жиддий ҳозирлик кўради. Бу унинг учун ҳаёт-мамот жанги эди. «Бобурнома»нинг шу жангга оид саҳифаларини ўқир эканмиз, Бобурнинг муҳораба майдонларида лашкари жойини белгилашида, аскарларни душман зарбасидан ҳимоя этиб, ҳисобсиз қирғинларга йўл қўймасликда, аввало, ўзи яратган, такомиллаштиришда бош бўлган тўпларга, тўпчилар хавфсизлигини таъминлашга диққат қилганини кузатамиз. У аввал тўп ўрнатиладиган майдонни танлаб, тўпни жойлаштириб, кейин муҳорабанинг бошқа бўғинларига эътибор қаратган: «Устод Аликулининг фарангий ва зарбзан отмоғини тафарруж қилдим. Ушбу кун Устод Аликули фарангий тоши била икки кемани уруб синдуруб, ғарқ қилди. Мустафо ҳам ул юздин фарангий тоши била икки кема уруб синдуруб, ғарқ қилди.

Улуғ қозонни жанг жойиға элтиб, ерини ясамоққа Мулло Ғуломни муҳассил қўюб, бир пора ясавуллардин ва жалд йигитлардин анга кўмак таъйин қилиб, ёниб келиб, ўрду тўғриси бир оролда маъжун едук.» Бобур Мулло Ғулом исмли кишига тўпларни ўрнатиш ишини назорат қилишни тайинлаб, ўзи оролчага бориб нафасини ростлар экан, шу жойдан туриб тўпсозлар ишини кузатади, зарур топшириқларни бериб, бу жараённи бир лаҳза ҳам назаридан четда қолдирмайди: «Намози пешин Устод қошидин киши келдиким, тош тайёр бўлубтур, не фармон бўлур? Фармон бўлдиким, бу тошни отсун, яна мен борғунча яна бир тошни тайёр қилсун». Бобур ўзининг бу яратувчилик фаолияти, ихтироси натижасини Иброҳим Лўдийни буткул тор-мор этганда кўп эслайди.

«Бобурнома»да 1528 йилнинг охиридаги воқеалар тасвирида Бобур уста номини аввалгидек Устод Аликули деб эмас, балки УСТОД билан келтиради. Бу бежиз эмас. Бу, биринчи марта Бобурнинг юксак бир нияти, орзуи — ўша даврда мукаммал тўп яратишни амалга оширган моҳир қуролсоз устага эҳтироми, унинг хизматини қадрлагани бўлса, иккинчидан, таъкидлаганимиздек, худди шу қурол Ҳиндистонда унинг ғалабасини таъминлашда муҳим омиллардан бири бўлган. Яна бир жиҳатга эътиборни қаратайлик. «Бобурнома»да муаллиф қуйидаги жумлани келтиради: «Нодирул-аср Аликули ўз улуси билан ғулнинг олдида эди ва милтиқ ва зарбзан ва тош отмоққа ишлар қилур эдилар». Бунда

давр шоҳи ўзининг моҳир ҳунарманд устасига «нодирул-аср», яъни асрнинг нодир кишиси, деб баҳо бермоқда. Хулоса қилиб айтганда, Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Ёшлари Форумида сўзлаган нутқида таъкидланганидек, “Ёшлар — Хоразмийлар, Фарғонийлар, Беруний ва Ибн Синолар, Улуғбек, Навоий ва Бобурлар авлодидир”[2].

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Қодиров П. “Юлдузли тунлар”. Т.-“Ўзбекистон” нашриёти, 1990 йил.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 25 декабрдаги Ўзбекистон Ёшлари Форумида сўзлаган нутқи. “Халқ сўзи” газетаси, 2020 йил, 26 декабрь.

ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУРНИНГ АГРАДАГИ ЗАФАРЛИ ЮРИШЛАРИ

Саминжонов М.А.
Миллий гвардия Ҳарбий-техник институти режалаштириш ва қўшинлар хизмати бўлими бошлиғи,
Ашрапов Ш.И.
Миллий гвардия Ҳарбий-техник институти режалаштириш ва қўшинлар хизмати бўлими катта офицери,

Ҳар бир халқнинг тарихий, маданий-миллий қиёфасини аниқ белгиловчи улуғ шоҳлари, буюк олимлари, йирик адиб ва шоирлари бўлади. Инсониятнинг абадиятга мансуб ана шундай буюк фарзандлари сафида Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳам ўз ўрнига эга. Кишилик тарихида Бобурчалик шахсий имкон, иқтидор ва фазилатлари беқиёс кишилар жуда кам учрайди.

Бобур - буюк шоҳ, мумтоз шоир, назариётчи адабиётшунос, фақиҳ, тилшунос, санъатшунос, этнограф, ҳайвонот ва наботот оламининг билимдони сифатида кўпқиррали фаолият ва ижод соҳиби эди. Биргина «Бобурнома» унинг йигирмадан ортиқ соҳаларга қизиққанлигига яққол мисолдир.

Бобур, биринчи навбатда, шоҳ, бобурийлар сулоласининг асосчиси. Балки, бобурийлар жаҳон тарихида энг узоқ йиллар (332 йил) ҳукмронлик қилган. У шоҳ сифатида лашкар тортиб шоҳларга хос мағлубиятларнинг аччиқ аламларию зафарларнинг улуғвор нашидаларини суришни кўп маротаба ўз бошидан кечирди. Отаси сингари улуғ ҳимматли ва олий мақсадли шахс бўлганлигидан Фарғона вилоятини кичик жой деб ҳисоблаб, Самарқандга интилди. У ерда Шайбонийхондан енгилиб, Қобулга келди ва кейин Ҳиндистондек бепоён йирик мамлакат ҳукмдорига айланди.

Буюк шоҳ Бобур Ҳиндистонда темурийларга хос улуғ бунёдкорлик анъаналарини давом эттирди: муҳташам қасрлар тиклаш, ариқ-каналлар қазиш, боғ-роғлар бунёд этиш, адабиёт, илм-фан ривожига ҳомийлик қилиш, элни адолат билан бошқариш сингари фазилатлар кейинчалик Ҳиндистоннинг буюк фарзандлари томонидан чинакам ижобий баҳоланди. Ҳиндистоннинг донишманд фарзанди, буюк давлат арбоби Жавоҳарлаъл Неҳру ўзининг «Ҳиндистоннинг очилиши» ва «Жаҳон тарихига бир назар» асарларида Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳақида самимиятга тўлиқ ушбу фикрларни изҳор этган.

Деҳли тахтига интилган ва Ғарбий Афғонистон конфедератлари томонидан Деҳли султонлигига муносиб меросхўр деб эълон қилинган ва Ражпут конфедератлари томонидан

қўллаб-қувватланган Султон Маҳмуд Лўдий 1527 йилда Ханва жангида мағлубиятга учраганидан кейин қочиб кетди. У Гужаратда паноҳ топди. Шарқдаги қариндош-уруғлари билан боғланишга ҳаракат қилиб, уларга қўшилишга муваффақ бўлди. У Шарқий Афғонистон ҳамжамият аъзоларининг бошида Биҳарни эгаллади [1. 429 б].

Бобур Чандери экспедициясидан бир мунча вақт ўтгач, янги сулоланинг Бихар қироли Патҳан Султон Муҳаммад Шоҳ Лоҳани вафот этганида унинг ўрнига вояга етмаган ўғли Султон Жалолиддин Дин Лоҳани тайинланди, ҳеч бўлмаганда Биҳардаги ишлар бошқаруви бу шаҳзоданинг онасига топширилди, Лоҳа зодагонлари ёш шоҳ Бобил ва Баезид, Шер Шоҳ Сури ва бошқа бошлиқлар билан боғлиқ бўлган рақиб даъволари чалғитилганлиги ва бу фракциялар келишмовчиликнинг таъсирига қўшилганлигидан далолат беради. Олдинги босқинларда Бобур қўшинлари томонидан олиб борилган жанглер ёш шаҳзодани Бенгал султонига бошпана топишга мажбур қилдилар.

Бундай вазиятда Жаунпур ва умуман Ҳиндистон афғонлари ўзларининг ишларини бузилишига йўл қўймаслик ва барча манфаатларнинг бирлашиши учун иложи борича Султон Маҳмуд Лўдийни чақиришга қарор қилдилар. Рана Санга Деҳли тахтини ўрнатишга ҳаракат қилди. Ушбу уринишда мағлуб бўлганидан кейин у Гужарат шаҳрига қайтиб кетди ва кейин Бунделхандаги Панна шаҳрига йўл олди, у ерда ижобий ўзгаришларни кутиб турди ва энди Бихар ва Жаунпур тахтига кўтарилиш таклифини қабул қилди. Унга ҳар чоракда ватандошлари тез келиб қўшилишган ва қарийб бутун Биҳарни қаршиликсиз қўлга киритганга ўхшайди. Ажабланарли томони шундаки, махфийлик ва муваффақиятга эришилган интригалар ва ҳаракатлар бу ҳақиқатни ҳар бир Патаннинг миллий муваффақиятни ҳис қилганлиги ва қабилалар ўз бошлиқларига ва бир-бирига кўрсатган садоқати билан изоҳланади.

Бу хабарни эшитган куннинг эртаси куни Бобур Агра шаҳрига қайтиб келди ва у шарқий армия қўмондонлигини зудлик билан ўз кенгашига олишга қарор қилди ва шу билан бирга 1529 йил 2 февралда йўлга чиққан қўшинларини олиб кетди ва чегарани кесиб ўтди. Доаб 1529 йил 27 февралда Дакдаки шаҳридаги Ганганинг ўнг қирғоғига етиб борди. Бу ерда уни ўғли Ҳумоюн, Аскарий ва бошқа томондан келган бир неча қўмондонлар кутиб олишди. Улар билан бирга қўшинлари дарёнинг ўнг қирғоғига тушишганда, улар чап томонга қараб юришлари ва ҳар доим унинг атрофида бўлишлари керак эди [2].

Шунинг учун бу вақтда Шарқий ёки Шерки қироллиги учун учта рақобатчи бор эди. Султон Жалолиддин Шерки, мамлакатда ҳукмронлик қилган қадимги шоҳларнинг вакили Султон Искандер Лўдий томонидан забт этилган. Сўнгги пайтларда у Бобурга бўйсунган ва унинг ҳимоясини қидирган. Унинг даъволари анча эскирган, аммо шу пайтда қайта кўриб чиқилган ва Бобур томонидан аниқ мақсадга хизмат қилиш керак эди.

Отаси ва бобоси Султон Иброҳим Лўдийга қарши қўзғолонни бошқарган Султон Жалолиддин Хон Лоҳоний эди. У Биҳарда кўплаб зодагонлар томонидан қўллаб-қувватланган, аммо сўнгги пайтларда иттифоқчиси Бенгал султонидан паноҳ топишга мажбур бўлди.

Марҳум Султон Ибрагим Лўдий ва Деҳли Лўдий сулоласининг вакили Султон Маҳмуд Лўдий, энди Биҳарга эмас, балки Деҳлига даъволарини қўллаб-қувватлаш учун бирлашган. Вазиятнинг ҳақиқий аҳволи ҳақида маълумот олган Бобур Ганга қирғоқларига юришни давом эттирди. Карра шаҳри ёнидан ўтаётганда уни Султон Жалолиддин-Шеркий уни жуда яхши кутиб олди ва унинг даъволарини маъқул кўрди ва унга ўз қўшинининг бўлинма қўмондонлигини берди.

У шу шаҳарнинг остидан бир ёки икки марта юриш қилганида, унинг ҳаракатлари самаралари кўзга ташланди. У Чунарга етиб келган ва ҳатто унга ҳужум қилган Султон Маҳмуд Лўдий императорнинг ёндашуви ҳақида маълум маълумот олганидан кейин, у қамални кўтариб, саросимада чекинаётганини ва Шер Шаҳ Сури ҳам шундай йўл тутганини билиб қолди. Банорасни ташлаб, дарё кечуви пайтидаги катта ёғингарчилик натижасида, унинг икки қайиғЪи ўтиш чоғида ғарқ бўлди.

Ганга ва Ямна дарёлари бирлашадиган Оллоҳободга етиб борган империя армиясини 1529-йил 10-март куни Приаг томонга бошлади ва Бобур Чунар, Банорас ва Ғазипур орқали давом этиб, энди орқада турган Султон Маҳмудга Сон дарёси ёнида ҳужум қилди.

Ғазипурда Маҳмуд Хон Лоҳани афғонистонлик таъсирига тушиб, унга бўйсунди улар яқинда Султон Жалолиддин Хон Лоҳани қувилган шаҳзода ва Биҳар тахтига даъвогарлардан бири Шер Шоҳ Сури эди. Деҳли ва бошқа таъсир доирасига эга афғонлар ўз таклифларини беришга. Бу эса Биҳар Лоҳаний сулоласининг парчаланишига тўғри келди, бу фақат Султон Маҳмуд Лўдий ва унинг тарафдорларини бирлаштиришга имкон берди. Аграни эгаллаш учун бўлган жангнинг бошланишидан олдин Бобур Ҳериднинг қўшинини топади, бу Бенгал қўшини деб аталиб, ҳозирги Сарон ҳудуди ўртасида жойлашган. Ганга дарёсининг оқимини ҳам, Гангаснинг чап қирғоғини ҳам, иккита дарёлар бирлашганидан кейин ҳам ҳимоя қила оладиган қилиб, Гангас ва Гҳагҳара дарёларининг бирлашиши яқинида жойлашган эди. У, шунингдек, бенгалиялик қўмондонлар оқим бўйида 100-150 га яқин кемаларни тўплашади, улар ёрдамида улар бирданига душманнинг ўтишига халақит беришга ва уларни енгишга қодир эдилар [3. 409 б.]. Лекин У бундай қўшинни орқада қолдириб кета олмади, чунки Бабан ва Боязид қўшинлари ҳам Агра дарёсининг юқори оқимини эгаллаб олган эдилар. У чиндан ҳам Бенгал билан тинчликда эди, аммо бошпана унинг душманига Ҳерид армиясининг позицияси ва унинг раҳбарларининг хатти-ҳаракатлари унинг Бенгалия ҳукуматининг позицияси ва нияти тўғЪрисида қатъий баёнотга эга бўлишини шарт қилиб қўйди. Шунинг учун у Бенгал султони Нусрат Шоҳга элчи юборади. Энди Бобурга 20 мингга яқин киши билан Жаунпурлик Султон Жунаид Бирлас қўшилади. Ушбу қўшинларнинг зўрлик билан келиши уларнинг лашкарбошисини вақтинча шармандаликка дучор қилган.Султон унинг талабларига қониқарли жавоб ололмагач, Агра дарёсининг нариги томонидаги қўшинни кучли мавқеидан воз кечишга мажбур қилди. У мўлжалга олинган ҳужум учун зарур чораларни кўрди. У ўз қўшинини олтита бўлинишда шакллантирди. Бу тўрттадан Ганганинг чап қирғоғида жойлашган Аскарий қўшинлари ва яқинда бир томонга қўшилган Султон Жунаид қўшинларидан иборат бўлиб, улар Агра дарёсидан ҳам, қайиқлардан ҳам Ҳалдига ёки дарёнинг нариги томонига сузиб бориш орқали ўтишга тайёр бўлишади. Аскарий Бобурнинг кенжа ўғли эди. Қолган иккита бўлинма ҳали ҳам Гангаснинг ўнг қирғоғида эди. Султоннинг шахсий раҳбарлиги остида бу дарёнинг кечишини амалга ошириш эди. Агра дарёси Бенгал лагерига тўғЪридан тўғри қарама-қарши жойлашган юқори пойдевор бўлиб, у тўпни отиб, душманга ҳужум қилиш учун Агра дарёсидан ўтганида шоҳ бўлинмасининг ўтиш жойини қоплаши мумкин эди. Лашкарларнинг асосий таркиби Ҳалдий шаҳридаги Агра дарёсидан ўтганидан кейин Аскарий остидаги душманларни ўз қароргоҳларидан чиқариб, уларни дарёга чиқишга ва уларни эгаллаб олишга ундаш учун буюрилган эди. Артиллерия олови остида ва Бобур ҳамда Муҳаммад Замоннинг иккала бўлинмаси орқали ўтишади. Шу тариқа бутун қўшин ҳаракатга келтирилади ва Аскарийни тўртта қўшини Ҳалди томон юради. Агра дарёсида ҳам, Гангада ҳам лагерлар қурилиб, жанг бошланади. Бенгалия армияси катта жасорат кўрсатади ва дарёларнинг юқори оқимида ҳам, қуйи оқимида ҳам шоҳ қўшинларига ҳужум қилинади. Турли ҳаракатлардан сўнг Бобур

Аскарийнинг Ҳалди Гат орқали Агра дарёсидан ўтганини ва ҳозирда ҳаракатга тайёрлигини ва уни юқори мартабали афғон зодагони Шоҳ Муҳаммад Мааруфнинг мағлубияти туфайли кучайтирганлиги тўғрисида хабар олади. Ўз издошлари билан ҳамжамиятни ташлаб, энди ўз қароргоҳига қўшилган. Шундай қилиб, умумий ҳужум эртаси куни эрталаб амалга оширилди, аммо шу вақтнинг ўзида дарёда кемалар ўртасида баъзи жанглар ҳам бўлиб ўтди. 1529-йил 6-май куни эрталаб Аскарий қўшини ҳаракатда эканлиги биланоқ Бенгал қўшинлари уни кутиб олишга чиқишди ва Бобур иккига бўлиниб кетишни ва Муҳаммад Замон қўшинини зудлик билан босиб олишини буюради. Бунга жасорат билан таъсир кўрсатади, аммо кескин қаршиликсиз.

Қўшинлар қайиқларда, баъзилари сузиш билан, баъзилари эса қамиш устида сузишган ва уч томондан қуршаб олишади. Натижада ушбу ғалаба ҳал қилувчи бўлди. Шоҳ ва шоир Бобур 1530-йил 26- декабрда 47 ёшида номаълум касалликдан вафот этди ва унинг ўрнига тахтга катта ўғЪли Хумоюн тайинланади. Хулоса қилиб айтганда, Бобур салтанати бошқарувида шахснинг роли ва ўрнига юксак эътибор берган. У давлатчилик ва бошқарувнинг таъсири ва самараси, пировард натижада, аввало, билим ва юксак тафаккурга эга, лаёқатли, шижоатли ва мард инсонларга кўп жиҳатдан боғлиқ эканини ҳаётий далиллар орқали кўрсатиб бергани билан аҳамиятлидир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Датта К.К., Ҳиндистоннинг ривожланган тарихи. –Б.429.

2.Ҳинд тарихи журнали; Вол. 66, тарих бўлими, Керала университети, 1988 йил .

3. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. “Бобурнома”. –Т., “Фан”, 2019. –Б.409.

ЗАХИРИДДИН МУҲАММАД БОБУРНИНГ РАЗВЕДКА МАҲОРАТИ

Артиков Ҳ.А

Миллий гвардия Ҳарбий-техник институти навбатчилик қисми бошлиғининг катта ёрдамчиси

Темиров Р.У.

Миллий гвардия Ҳарбий-техник институти навбатчи ёрдамчиси

Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг бебаҳо адабий, илмий-назарий асарлари катори «Бобурнома»нинг хам урганилмаган тарафлари, кирралари шунчалар купки, уларни бугунги авлодга етказиш утмишдаги кадриятларимизни тиклаш, ундан бахраманд булиш, ёшларда юксак ватанпарварлик рухиятини тарбиялаш каби долзарб масалаларда алохида урин тутади.

Бобурнинг мухораба майдонидаги галабаларини таъминлаган омиллардан бири, балки энг мухими, унинг разведка хизматидан фойдаланиш кобилиятидир. Айни шу махорат минглаб лашкарларни улим балосидан асрашда, урушни уз фойдасига хал килишда, колаверса, атрофидаги кишилар рухияти, шахсиятини янада яхширок англашида, душман нияти - сир-асроридан аввалрок вокиф булишда Бобурга кул келган.

Таъкидлаш жоизки, разведка хизмати тарихи узок утмишларга бориб такалади. Ундан окилона, тактик жихатдан пишик фойдаланган шахсгина юксак натижаларга эришган. Шох ва саркарда Бобурнинг юксак мантикий тахлили, уруш шароитини яхши англаши, яшиндек тез хулосага келиши, разведка хизматига уз фурсатида мурожаат этиши ва карийб адашмаганлиги кишини хайратга солади. «Бобурнома»дан бунга куплаб мисоллар келтириш мумкин.

1503-1504 йилги вокеалар. Бобур Мовароуннахрдан ноумид булиб, Кобулга юз тутган, Хисор вилоятининг Илок яйловларини кезиб, такдир бундан кейин унга не кунларни раво куришини уй-хаёлларидан утказаётган мураккаб давр, бор-йуги «ушбу юртта йигирма уч ёшнинг ибтидосида юзумга устара куйдум» деб навкирон йигитлигига ургу берган пайти. Ёш Бобур бу юртларда хукмронлик килаётган Хисор беги, кейинрок узининг ашаддий душмани булган Хисравшох ва унинг салтанати хакида маълумотга эга булиш учун Мулло Бобойи Пашогарийни «элчиликка» юборади. Бобурнинг бундан максади элчи йуллашгина эмас, зарур маълумотга эга булиш эди. Лекин, Бобурнинг таъкидлашича, Пашогарий «кунгулга ёккудек суз келтурмади». Аслида, Пашогарий жудаям курук кайтмаган. У одамлар орасида булиб, айрим зарур маълумотларни етказган: «вале эл ва улусдин сузлар келтурди».

Ўша вактда Бобур уз лашкарларининг куп кисмидан айрилган, 200-300 аскар ва беклари билан колиб, химояга ута мухтож эди. Бу пайтда темурий шахзодалар ва уларнинг беклари орасида лашкарларининг бир бек ёки султондан иккинчисига гурух-гурух булиб утиши оддий хол булган. Бунда иктисодий, маънавий, маиший жихатлар, албатта, омон колиб лашкар сафида булиш масаласи асосий омиллардан булган. Шу боис Бобур учун Хисравшох лашкарларининг кайфиятини билиш мухим булган ва у бу вазифани разведка хизматига юклаган. Лекин натижадан унчалик кунгли тулмаган. Зарур маълумотга эга була олмаган Бобур ноилож Кохмард ва Бомиён томонга равона булади. Яна бир мисол Хисравшохнинг иниси Боки Чагониёнийнинг Бобурга етказган разведка хабари билан боглик. Афғонистонда уз хукмронлиги асосини солаётган Бобур бегона юртдаги шахар, кишлок, урмонзор, куча ва пасткуча, дарё ва сойлар хусусиятини жуда синчковлик билан урганади. Айникса, бу лашкар хавфсизлиги, салтанат такдири билан боглик булса, Бобурнинг синчковлик кобилияти янада ошган, эхтиёт чораларини куришга киришган. Хали Бобурнинг Кобул хокимияти мустахкам шаклланмаган бир пайтда, атрофидаги дустлари хам душман рафторини килганда уларнинг хар бир харакатини урганиш, кейин хулоса чикариш бенихоя мухим эди. Шу даврда Бобурга нисбатан ёвкарашда булган Боки Чагониёний «арзга еткурдиким, сув кечмай ушбу ердин (яъни Куракатутдан - кавс ичидаги баъзи изохлар муаллифники), кунуб, Кухат отлук ерга борса булур эмиш...» Бирок Бобур бу хабарга унчалик ишонмади. Чагониёний Бобурни ишонтириш максадида бир неча айгокчи кобулийларни олиб келади. Тундан кейин бир кадар ишонган булса-да, ушбу маълумотга таяниб уюштирган хужумдан Бобурнинг кунгли тулмайди: «Боки Чагониёний арзга еткургандек НИМА черик элига тушмади. Бокибек бу саъйдин шармандарок булди». Бу разведка маълумотлари кундалик харбий амалиётлардан бирига хизмат килган булса-да, Бобур бу масалага жуда жиддий ёндашган.

1528 йил вокеалари. Захириддин Бобур Хиндистонда Иброхим Лудийнинг юз мингдан ортик лашкарини енгган. Бу узок улкаларда Амир Темур империясини тиклашдек орзуси амалга ошганлигидан шод булган даври. Бирок бу пайтда унинг хукми Хиндистоннинг барча улкаларига тулик утмас, каршилик курсатаётган хинд рожалари, лашкар бошликлари хали анча ташвишлар орттирар эди. Бу вактда Бобурнинг харбий махорати етилган, у юрт олиш учун хар бир хабар, маълумотдан борган сари унумли фойдаланар, хинд ерида тезрок мустахкам, хар кандай ихтилофлардан холи давлатни тузишга ошикар эди. Ана шундай пайтда Бобур шерикларининг олдига, Кух деган жойга кема билан етиб келади. Унинг кайфияти яхши, рухи галабалар нашидасидан кутаринки эди. Уруш оралигида, исёнчи хиндулар, афгонларнинг тусатдан киладиган хужумлари вазиятида у курашчилар мусобакасини утказган, хатто бу спорт тадбири янада жонли утишини истаб, узи таъкидлаганидек, «хилофи коида» «аввал зурроклари» майдонга чорлаган. Хуллас, бу пайт

Бобур рухиятида кам содир буладиган хурсандлик дами булган.

Бирок бу кайфиятни Султон Мухаммад бахши келтирган разведка маълумоти узгартиради. Хаёт нашидасидан сармаст Бобур уша захотиёк шох Бобурга айланади. Шу жараёнда «Султон Искандарнинг угли Махмудхоннингким, Султон Махмуд дерлар эди, БУЗУЛГОНИНИНГ хабарини келтурур». Демак, Бобурнинг разведкаси олдин унинг томонига утган Султон Махмудхоннинг «бузулгонини» етказган, яъни у уз ваъдасидан кайтиб, Бобурга нисбатан душманлик кайфиятини ихтиёр этган. Бу хабар «намози дигар»да — кун корайгунча етиб келган. Келаси куни «намози пешин» (куннинг ярми)да Бобур бу маълумотга ишонкирамай разведкага бошка кишини юборади ва у хам айни хабарни келтиради. Бобур ёзади: «Икки намоз орасида Тожихон Сарангхонийнинг арзадошти хам жосус хабарига мувофик келур. Бу кайфиятларни Султон Мухаммад келиб арзга еткурди». Ушбу маълумотномалардан сунг «Бобурнома»да бу ердаги мухорабанинг айрим деталлари баён килинади, Банорасга утган афгонларнинг шикаст топганлиги хакида суз боради. Аслида, бу хол курашларнинг бир кунлик лахзаси, холос. Аммо, шунга карамай, Бобур уз хабарчилари — разведкачилар келтирган маълумотларга катта эътибор билан караган.

1507-1508 йилларни Бобур сиёсий карашларининг энг масъулиятли даври, десак булади. Кобулда уз сиёсий хукмронлигини мустахкамлаган Бобур Хиндистонга юзланади. Узининг айтишича, «Жумоидулаввал ойи Кобулдин Хиндустон азимати била кучилди». Ана шу бир жумла доирасида Бобурнинг янги саргардонлик такдири, узининг икрорича «не бормокка ери мукаррар, не турмокка юрте муайян, юкори-куйи яна бир ХАБАР ОЛГУНЧА юрт тоза килиб кучилур эди». Бунда Бобур аник килиб разведка хизмати, унинг ишончли хабарини олмагунча бошка ерларни уз тасарруфига киритишга шошилмаганлигини айтмокда. Унинг бу тактикаси, харбий истеъдоди кейинрок Хиндистон мухорабаларида жуда кул келган.

1507-1509 йил вокеалари. Бобур Кобулдан хозирги Жалолобод вилояти - Нингнахордан Хиндистон томон борар экан, жуда куп афгон тудаларига дуч келади, улар билан мухорабалар олиб боради. Бу жараёнда хам Бобур разведка хизматига мурожаат этади. «Бобурнома»дан маълумки, Бобур учун энг мухими, лашкарни эмин тутиш билан бирга уни озик-овкат, турар жой, чорва, отларни емиш билан таъминлаш булган. Армиянинг, салтанатининг озик-овкати масаласи хамиша биринчи галдаги вазифаларидан саналган. Бобур Нингнахор туманидаги Одинапур кургонига якинлашганида айнан егулик махсулот, айникса, шоли танкислигига дуч келади. Кеч куз пайтида эса шоли дехконлар томонидан йигиштириб олинган, далаларда айтарлик хосил колмаган. Бобур ёзади: «Кеч куз эди. Шолини тузларда аксар кутариб эдилар. Ер билур кишилар арзга еткурдиларким, Алишанг туманининг руди юкори мил канори шолини калин экарлар. Черикка кишлик ошлик эхтимоли борким, андин хосил булгай.» (Хакикатда, Алишанг тогликда жойлашган булиб, унинг тепарок кисмида шоли экини кеч пишади. Ушбу сатрлар муаллифи Афгонистон Жалолободининг бу мавзеида булиб, у ерда жуда юкори навли шолилар етиштирилишига гувох булган). Бу холатда разведка хизмати кузланган натижани берган: «Нингнахор жилгасидан отланиб, илдам келиб, Сойгилдин утиб, Пуройин дарасигача борилди, калин шоли черик эли олдилар.»

Мана бу мисол хам Бобурнинг харбий-стратегик режалари билан боглик. Вокеа Афгонистон ерларида, феврал ойининг урталарида содир булган. 1509-1510 йилнинг бу киши анча кеч келиб, Бобурга черикнинг озик-овкати ташвиши ором бермаётган пайт. У ёзади: «Сешанба куни ойнинг еттисида бекларни ва дилазак афгонлари улугларини тилаб, кенгашиб, сузни мунга куйулдиким, йил охир булубтур, хутга бир-икки кун колибтур,

туздаги ошликни тамом кутарибтурлар. Бу фурсатта Саводка борсак, черик эли ошлик топмай танкислик булгусидур». Бобур узининг лашкарлари билан жуда машаккатли довон, адирларни кезиб охири Панкйалий деган жойга тушадилар. Махаллий шароитни билиш, кейингина бир карорга келиш учун Бобур «Угонбердини бир неча киши била тил олгали илгаррак» юборади. Бирок, Угонберди хам бу гал «кунгул тилагудек тахкик хабар келтурмади». Албатта, бу хол Бобурни каноатлантирмаган. У яна разведка хизматига мурожаат этади: «Офтоб бир найза буйи чикканда Рустам туркманниким, каравулликка йиборилиб эди, хабар келтурдиким, афгонлар хабардор булиб, кузголишибтурлар». Бобурнинг бу галги хабарчилари аник маълумот олиб келмаганларидан сунг, у таваккал килиб хужумга утади, ганимларининг «бир пора асир ва уй ва галаларини» кулга киритади. Бобурнинг шу жойдаги бошка разведка маълумотини олиши у билан кураш олиб бораётган афгон саркардаларининг умумий холати хакида булиб, унинг энди, кайси йулни танлаши учун мухим эди. Аслини олганда, худди шу фурсатларда, афгон ерларини унча яхши тасаввур этмаган Бобур учун бундай хабарлар зарур ва разведка хизматининг асосий вазифаларидан булган. Бу маълумотлар юзаки караганда жунрок куринса-да, аслида Бобур ва унинг лашкарларини улимдан саклаган, озик-овкатли мавзеларга етаклаган, кимга карши курашишни олдиндан белгилаб берган.

Аждодларимизнинг харбий салохияти тарихини урганиш ёш авлод калбида Ватанга мухаббат туйгусини уйготишда алохида ахмиятга эга. Бинобарин, миллатимизнинг харбий тарихи деярли урганилган эмас. Биргина Бобур харбий махорати куплаб тадкикотларга етарли материал бера олади. Бу масалаларни Бобурнинг мохир адиб, шоир, олим, энциклопедик билим сохиби сифатлари билан хамоханг урганиш, айникса, янада катта самара беради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Жавоҳарлаъл Неру - Ҳиндистоннинг кашф этилиши китоби.

2. Ёқубов Ҳ., Заҳириддин Муҳаммад Бобур, Тошкент, 1949. Ҳасанов С., Бобурнинг Аруз рисоласи, Тошкент, 1981.

3. Ҳасанхожа Нисорий, Музаккири аҳбоб, Тошкент, 1993.

4. Нуритдинов М., Бобурийлар сулоласи, Тошкент, 1994.

5. Азимжонова С., Заҳириддин Муҳаммад Бобур, Мақолалар тўплами, Тошкент, 1995.

6. Файзиев Т., Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва унинг авлодлари, Тошкент, 1996.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR – QALAMI VA QILICHI O‘TKIR HUKMDOR

Mo‘minov I.R.

Milliy gvardiya Harbiy-texnik instituti Rejalashtirish va qo‘shinlar xizmati bo‘limi katta ofitseri

Sohibqiron Amir Temur turkiy dunyoda yengilmas qo‘shin tuzgan va buyuk g‘alabalari bilan Turon mulki kuch-qudratini olamga yoydi. Amir Temur asos solgan ulkan saltanatni boshqarishda qadimiy turkiy davlatchilik an’analari etakchi o‘rin tutib, unda hukmron sulola vakillari harbiy jang san’atini mukammal o‘zlashtirishi ham shart qilib quyilgan edi. Farg‘ona hokimi Umarshax Mirzoning farzandi Bobur Mirzoning yoshligi temuriylar davlati chuqur inqiroz davriga kirgan yillarga to‘g‘ri keldi. Bu beqaror davrda harbiy qo‘shinlarning jangavor tayyorgarligi, va eng muhimi, hukmdorga sadoqati siyosiy hayotda muhim o‘rin tutgan. Barcha temuriy shahzodalar kabi

tarbiya etilgan Bobur Mirzo yoshligidan kamondan o‘q otish, qilichbozlik, ot chopish bilan shug‘ullanib harbiy jang san’atini egallaydi va tabiiyki, buyuk turkiy bobolarining misli ko‘rilmagan janglari va g‘alabalari madh etilgan kitoblarni o‘qib, eshitib ulg‘aydi. bu muhit ta’sirida tarbiya topgan yosh Bobur barcha temuriy shohzodalar kabi katta siyosiy davolar bilan balog‘atga etdiki, buni “Boburnoma”dagi ko‘pgina qaydlarda ham ko‘ramiz. Xususan, otasi Umarshayx Mirzoga ta’rif berar ekan, Bobur uni “Hamisha mulkgirlik dag‘dag‘asi bor erdi, deya” eslaydi[51].

Bobur Mirzoda buyuk hukmdorlargagina ato etiladigan ko‘plab hislatlar mavjud bo‘lib, ular ichida harbiy mahorat sirasiga kiradigan ko‘nikmalar - kuchli xotira va kuzatuvchanlik, strategik fikrlash qobiliyatini alohida e’tirof etish mumkin. Otasining fojiali o‘limidan keyin, “*Tangri taolloning inoyati bilan ... ramazon oyining beshida tarix sakkiz yuz to‘qson to‘qquzda Farg‘ona viloyatida o‘n ikki yoshda podshoh*” bo‘lib qolgan Bobur Mirzoning yoshligi Farg‘ona vodiysidagi shaharu qo‘rg‘onlarni (Axsi, Marg‘inon, O‘zgan va boshqalar) himoya qilish, egallash uchun tinimsiz kurashlar, urushlar, mulk talashilar bilan o‘tdi. Bu davr yosh Bobur Mirzoning harbiy mahorati charhlanishida, harb ilmi sir-sinoatlari egallashida, harbiy mahoratini takomillashtirib borishida muhim o‘rin tutdi. Qo‘shin tuzish va boshqarish bo‘yicha ilk ko‘nikmalarga yosh Bobur aynan Farg‘ona viloyatida o‘tgan yoshlik davrlarida ega bo‘ldi. Bu suronli yillar, ilk g‘alabalar nashidasi va “*ajab shikast*”, ya’ni mag‘lubiyat alami yosh Boburning ruhiy olami, dunyoqarashi shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Hayotini qudratli saltanat tuzish yo‘liga tikkan jasur va mard, to‘g‘riso‘z va talabchan shahzodani voyaga etkardi.

Bobur Mirzoning harbiy mahorati, sarkardalik qobiliyati Muhammad Shayboniyxon bilan kurashlar davomida yanada takomillashdi. XV asrning oxirlarida temuriylar davlatida boshlangan siyosiy beqarorlik Oliy hokimiyat, ya’ni Samarqand taxti uchun tinimsiz kurashlarga olib keldi. Bobur Mirzo temuriylar davlati taqdiri hal qilinayotgan bu murakkab davrda katta siyosiy sahnaga chiqdi. Uning Samarqand taxtiga asosiy da’vogar sifatida kurashga qo‘shilishini tabiiy hol sifatida qarash kerak bo‘ladi. Zero, yosh bo‘lishiga qaramasdan siyosiy tafakkuri, sarkarda va hukmdor uchun zarur ko‘nikmalarga egaligi, eng muhimi, temuriylar davlatini saqlab qolishda barcha temuriy hukmdorlarning birlashishi hayotiy zarurat ekanligini chuqur anglagan edi. Bobur Mirzo Samarqand taxtiga uch marta o‘tirishga muvaffaq bo‘lgan yagona temuriy hukmdor sifatida ham tariximizdan o‘rin oldi.

Bobur Mirzo o‘zining oz sonli qo‘shini bilan Samarqand va uning atrofidagi mavzelarda Shayboniyxon qo‘shinlari bilan bir necha marta ochiq jangga kirishdi. Bu borada Saripul jangi va Samarqand mudofaasi Bobur Mirzo va Muhammad Shayboniyxon o‘rtasidagi siyosiy kurashlarda muhim o‘rin tutdi. Bobur Mirzo raqib qo‘shin jang usullari bilan tanishish, ilg‘or taktik an’analarni o‘zlashtirishga ham etarlicha e’tibor qaratgan. “Boburnoma”da Shayboniyxon qo‘shinlarining harbiy taktikasi, xususan dasht o‘zbeklari tomonidan mohirona qo‘llanilgan harbiy taktika – “To‘lg‘ama usuli” haqida berilgan ma’lumotdan ham ko‘rish mumkin[52].

Tarixiy manbalarda va maxsus ilmiy adabiyotlardagi ma’lumotlarga tayansak, shayboniylar va temuriylar qo‘shin tuzilishi va qurollanish darajasiga ko‘ra deyarli teng holatda bo‘lgan. Bu davrda otliq va piyodalardan tuzilgan qo‘shin o‘q-yoy, qilich va jangavor bolta bilan qurollangan bo‘lib, boshda dubulg‘a, egnida sovut va qo‘lda qalqoni bo‘lgan. Kamon o‘qlari charmdan to‘qilgan

51 Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома / Нашрга тайёрловчи П. Шамсиев. – Тошкент: Юлдузча, 1990. – Б. 10.

52 Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома / Нашрга тайёрловчи П. Шамсиев. – Тошкент: Юлдузча, 1990. – Б. 79-81.

sadoqlarda olib yurilgan. Tarixchi, shoir Muhammad Solih “Shayboniynoma” asarida Muhammad Shayboniyxon doimo kamon va sadoqda o‘q olib yurgani haqida ma’lumot beradi[53].

Otlar ko‘kragi (va peshonasi)ga maxsus himoya vositasi – *kejim* solingan. Jangda qo‘shinning qism va bo‘linmalarini ajratib turuvchi maxsus rangdagi kiyimlar kiyishi, jangavor tuzilishi, maxsus harbiy qismlarning mavjudligi, nog‘ora va karnay-surnay sadolari orqali jangni boshlash va tugatish, qo‘shinnini boshqarish, jangavor ruhini ko‘tarish o‘sha davr harbiy san’atining ajralmas qismi bo‘lgan. Bu davrda o‘q otar qurollardan, xususan to‘fang (miltiq) ham hujum quroli sifatida tarqala boshlagan. Shunga qaramasdan kamonning ahamiyati va qo‘llanilishi mintaqamizda yana uzoq davrlar davom etdi. Bobur Mirzo Kobul va Qandahor oralig‘idagi hududlarni o‘z azmiga olib yurgan “*Qozoqlik yillari*”da o‘zi asosan o‘q-yoydan foydalangan bo‘lsada, qo‘shinida miltiq otuvchi to‘fangdozlar bo‘lgani ma’lum. Bobur Mirzoqo‘shinlari afg‘on qabilalari bilan bo‘lgan janglarda to‘fang (miltiq) bilan hujumga o‘tganda, bu qurol va uning zarba kuchidan bexabar afg‘onlar o‘zlarini miltiq o‘qiga tutib bergan holatlar ko‘p bo‘lgan.

1526 yil 21 aprelda *(hijriy yil hisobi bo‘yicha 932 yilning rajab oyi)* Dehli yaqinidagi Panipat qishlog‘i yaqinidagi jangda Bobur podsho qo‘shinlari Dehli Sultoni Ibrohim Ludiy qo‘shini ustidan g‘alaba erishdi. Panipat jangida Boburning 24 ta zambarak va 15 ming jangchidan iborat qo‘shiniga qarshi Ibrohim Ludiyning 30-40 ming jangchisi va 100dan ortiq jangga o‘rgatilgan fillar janga kirishdi. Boburning buyrug‘i bilan jang maydonida aravalardan yarim doira shaklida dala istehkomi barpo etiladi. Aravalar oralig‘ida to‘fang (miltiq) bilan qurollangan, sovut bilan himoyalangan jangchilar joylashtiriladi. Jang taqdirini qo‘shin markaziga joylashtirilgan to‘pchilar bo‘linmasi hal qildi. Zambarakdan otilgan o‘qlar shovqinidan qattiq qo‘rqqan jangovor fillar Ibrohim Ludiy qo‘shinining jangavor safini buzib qocha boshladi. Peshindan keyin hujumga o‘tgan Bobur qo‘shinlari to‘liq g‘alaba erishdilar[54].

Bu jang tarixda ikki jihati bilan qoldi:

1. Panipat jangida Bobur qo‘shinlari birinchi marta to‘p-zambarakdan keng foydalandi;

2. Panipat jangidagi g‘alaba Boburga Dehli va Agrani egallash hamda Shimoliy Hindistonni to‘liq bo‘ysundirish uchun yo‘l ochib berdi.

1527 yilda Shimoliy Hindistonda paytaxti Agra shahri bo‘lgan Buyuk Boburiylar saltanatiga asos solindi. Begona mamlakatda hukmronlik qilish uchun harbiy qudratni to‘xtovsiz takomillashtirib borish talab etilardi. Buni Bobur Mirzo juda yaxshi anglagan. Qo‘shinning jangovor tayyorgarligi, ta’minoti masalalsi doimo hukmdorning diqqati markazida turgan. Bobur Mirzo o‘g‘illarini ham harb ilmini yaxshi egallashga dav’at qilib turgani ma’lum. Xususan, “Boburnoma”da uning Agradan turib, o‘g‘li Xumoyunga va Kamronga xat yozgani, bu maktublar Bayonshoh ismli mulozim (xat-xabarlar tashuvchi) orqali jo‘natilgani bayon etilib, Xumoyunga yozilgan maktubi to‘liq keltirib o‘tilgan. Unda Bobur Mirzo o‘g‘liga “Sizlarning jon tortib, qilich chopmoq mahallaringizdur”, deya ta’kidlaydi[55].

Bobur va uning avlodlari davrida Kobul, Agra va saltanatning boshqa shaharlarda keng bunyodkorlik ishlari olib borildi. Saroylar, ko‘shklar, chorbog‘lar, madrasa, masjid va boshqa imoratlar bunyod etildi. Bobur va uning avlodlari ota yurtlari bo‘lgan Turkiston bilan aloqalarni

[53] Батафсил қаранг: Муҳаммад Солиҳ. Шайбонийнома. – Тошкент, 1989. – Б. 179-181; Аҳмедов Б. Ўзбек улуси. – Тошкент: Нур, 1992.

[54] Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома / Нашрга тайёрловчи П. Шамсиев. – Тошкент: Юлдузча, 1990. – Б. 242-245.

[55] Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома / Нашрга тайёрловчи П. Шамсиев. – Тошкент: Юлдузча, 1990. – Б. 320-322.

saqlab qolishga yo‘naltirilgan siyosat olib bordilar. Boburning nabirasi Akbarshoh va Buxoro xoni Abdullaxon Ikkinchi o‘rtasida strategik hamkorlik aloqalari shundan dalolatdir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma / Nashrga tayyorlovchi P. Shamsiиev. – Toshkent: Yulduzcha, 1990.
2. Muhammad Solih. Shayboniynoma. – Toshkent, 1989.
3. Ahmedov B. O‘zbek ulusi. – Toshkent: Nur, 1992.

VII ШЎЪБА. БОБУР ҲАЁТИ ВА МЕРОСИНИ ЎРГАНИШ ЁШЛАР НИГОҲИДА

“BRIGHT DAYS AFTER DARK NIGHTS”- ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR - A PROMINENT STATESMAN AND POET

Jalilova L.J.
Senior teacher, Bukhara State University
Safarova M.M.
Student of the 3rd course Faculty of Foreign Languages, Bukhara State University

The people of Uzbekistan can rightly be proud of the fact that among their ancestors there is an outstanding statesman, scientist, wonderful poet, prose writer and translator — Zahiriddin Muhammad Babur. His name in the history of Uzbekistan is on a par with such figures of politics and military affairs as Jaloddin Manguberdy, Amir Timur, Mirzo Ulugbek, Alisher Navoi. For his great achievements in the art of war and the creation of the Baburid Empire in India, he was nicknamed the "Timurid Prince".

Babur was born in the family of the Timurid prince Umarsheikh - the ruler of the Ferghana region in 1483 at the height of the internecine struggle of various Timurid rulers in Central Asia, and in Khorasan for the redistribution of the vast territory of the state created by Amir Timur. At the age of 12, after the tragic death of his father, Babur becomes the new ruler and enters the struggle for power in Transoxiana [1.24].

Most of his life, the great commander spent in military campaigns and battles. In the following years, he stubbornly sought to create a large centralized state in Transoxiana, uniting its scattered regions and creating a new great Timurid state, but the plans of the general were not crowned with success. His dreams were destined to be realized in India, where he went with his troops in 1526. In this country, Babur managed to create the basis for his empire, which was later called the "Mughal Empire" in Western sources. It existed for about 300 years-until the XIX century. Babur's ideas preached the establishment of harmony between peoples, as well as the introduction of education in all segments of the population. Like other Timurid rulers, Babur in his capital Agra gathers around him many outstanding writers, poets, musicians and artists of the time, thereby contributing to the development of science and culture. Along with his military and political activities, Zahiriddin Muhammad Babur was a prominent representative of the art of that time [3.45].

We can say that fate treated Babur rather unceremoniously, as a result of the fall of the Timurids, it threw him into a god – forsaken valley (Ferghana), lying at the foot of snow-capped peaks-even if not far from the Stone City (Samarkand), the stronghold of the Mongol Chagatai. The Ferghana Valley, cut off from the outside world by snow for many months, was fed by a single stream – a caravan road running from Samarkand to the border posts of the Chinese Empire. In fact, the valley served as the border between the nomadic lands and the still magnificent Samarkand - between farmers and hunters, science and barbarism. Remote and unremarkable, it seemed destined for obscurity.

However, Babur's pen intervened in his fate. In the little-known Chagatai dialect, he compiled and recorded the story of Fergana and his own life. In the silence of that era, Babur made him hear his voice. During his 47-year life, he left a multifaceted and rich literary heritage.

All of Babur's creative heritage has been included in the golden fund of world literature and culture, and is the heritage and national pride of our people. The history of the era of Temur and the Temurids shows that almost all of them, along with state affairs, were successfully engaged in science and creativity. So, the representative of this dynasty, Zahiriddin Muhammad Babur, in his short life, went down in history not only as a commander and founder of the Great Baburid state in India, but also as a scientist and poet who left a rich creative heritage. He wrote original lyrical works-ghazals and rubai, treatises on Muslim jurisprudence - "Mubayin", poetics – "Aruz risolasi", music, military affairs. A special place in Babur's work is occupied by a priceless literary monument of prose in the Uzbek language – the historical work "Baburname". This book is mainly autobiographical in nature and reflects the history of the peoples of Central Asia, Afghanistan and India in the late XV-early XVI centuries [2.15].

Reading these notes, made five centuries ago, we seem to be listening to the story told to us at the evening fire, when, dismounting from his horse, Babur settled down at the entrance to his tent, having finished the pursuit or, more often, having escaped from the pursuit of enemies. Day after day, Babur paints pictures of the era before the arrival of the Europeans, who came to get their hands on the treasures of the East.

His cousin, Haidar, had arrived in Kabul at the age of nine, and had also been deeply impressed by Babur's customs. Haidar also wrote that his education included " the art of calligraphy, reading, writing poetry, writing letters, drawing and decorating manuscripts... such crafts as cutting seals, jewelry, making saddles and armor, making arrows, spearheads and knives... instructions in such state affairs as important agreements, making plans for wars and raids, as well as training in archery, hunting, raising hunting falcons and everything that is useful in the government of the country." This circle gives a good idea of the pleasures and serious pursuits at the court of Timurid, and Babur himself now had free time to indulge his poetic talent, which brought him fame, according to Haidar, not the last poet to write in the Turks. The language of the Turki is such that versification in it is more similar to the art of crossword puzzles than to the usual poetry. Babur, for example, during one of his illnesses, amused himself by writing a quatrain and transforming it into five hundred and four different ways. Babur's short poems are scattered throughout the pages of his memoirs, but they are mostly meaningless in translation, as they rely on verb constructions [3.22].

Writers have noted that Babur's poems are his autobiography, in which deep feelings are touchingly expressed in poetic language, masterfully told about the experiences generated as a result of a collision with life circumstances.

In his ghazals and rubai, the poet raises such problems of human relationships as love, friendship, the desire for beauty, nobility, humanity, etc. He praises earthly love as the highest human dignity. Babur claims that for the sake of a date with his beloved, he is ready to endure any difficulties. Without her, he can't imagine life. With great sincerity, the poet expresses his willingness to sacrifice himself, his whole being, for the sake of love. Love for Babur is above wealth, social status and earthly goods. The poet in his gazelles creates the image of a beautiful beloved, endowing her with an unprecedented beautiful appearance, rich inner and spiritual content. His poetry also touches on the issues of morality and spiritual perfection of man. He exalts it, treats it with deep respect, and places a high value on the dignity of the individual. In rubai, he talks about how a person should cultivate the best moral qualities.

In his book “Baburname”, Babur describes in detail the major cities of Central Asia, Khorasan, Iran, Afghanistan, and India. His data on Ferghana, Andijan, Samarkand, Bukhara, Kabul, Ghazni, Balkh, Badakhshan, Delhi, Devalpur, Lahore are invaluable, because the author

gives an idea of the geographical location of these cities, their trade and economic role in the feudal economy of that period.

Description Babur caravan routes leading from Kabul, not only India, but also in Central Asia, with the characteristics of mountain paths leading to the most important passes, coincides with topographical descriptions of the XIX century, forced to admire the enormous knowledge of the author. That is why A. Bornes, who visited Kabul in 1882, after visiting Babur's tomb, wrote that he had a deep respect for the memory of Babur, which has increased even more since he read the curious records of the "Baburnama".

In "Baburname" descriptions of the nature, fauna and flora of Central Asia, Afghanistan and India are beautifully reflected; his topographical, toponymic, and ethnographic observations of Afghanistan and India are so accurate and imaginative that they are in no way inferior to the data of famous European travelers of the XIV-XX centuries, and, on the contrary, in many cases even surpass them with a more detailed and reliable presentation.

The last part of "Baburname" although mainly devoted to the description of political events in Northern India, which took place from the day of Babur's first campaign in India to seize power from Sultan Ibrahim (1517-1526) to the day of Babur's death, also contains a lot of interesting information about the political, economic, and cultural life of the peoples of India [4].

Babur was one of the greatest men of his time. The great literary works of Z. M. Babur immortalized his name in the centuries. Interest in the wonderful works of the poet all over the world increases from year to year. Despite the extensive work carried out in recent years to study the works and activities of Babur, his work is still poorly studied and requires more attention. During his short life, Zahiriddin Muhammad Bobur left mankind a rich literary and scientific heritage, a work that carries an educational mission for the younger generation and is an invaluable asset. This heritage serves as a kind of school for us in the study of history, awareness of a sense of patriotism. The ideas of goodness and humanism sung in the works of Bobur have not lost their value and significance over the centuries.

In many scientific centers, in all over the world, his works are translated and studied, books about him are written. A deep study of the priceless heritage of ancestors will not only help to learn better about the common culture of the peoples of the East, but will also contribute to the further strengthening of the idea of friendship. The name of Bobur - a historian, commander and statesman - is immortal, and his works have stood the test of time. Evidence of this is a tribute to his talent and high recognition of his scientific contribution to the development of literature and historiography.

References:

1. «Бабур – Тигр. Великий завоеватель Востока.» Гарельд Лэмб. (1962) Москва. Центрополиграф.2002.
2. Российское бабуроведение xx века./ Г.И. Халлиева. г.Чита, ноябрь 2011г.
3. Великие Моголы. Потомки Чингисхана и Тамерлана | Гаскойн Бэмбер.
4. Захириддин Мухаммад Бабур: полководец, политик, поэт. [Электронный ресурс]. Режим доступа: https://www.advantour.com/rus/uzbekistan/culture/literature/ba bur.htm/ (дата обращения: 20.02.2020).
5. https://interkomitet.uz/glavnaya/k-536-letiju-zahiriddina-muhammada-bobura/

ТЕНГСИЗ ИБРАТ СОҲИБИ

Рузикулова Э.
Низомий номидаги Тошкент давлат Педагогика университети Бошланғич таълим факультети талабаси

Бобурнинг рубоийлари унинг шеърияти чўққисидир. Бобурдан олдинги ва кейинги шоирлар бу бобда унга ета олмаганлар. Умар Хайёмнинг рубоийлари каби унинг рубоийлари ҳам фалсафий фикрларга бой, шаклан мукаммал эди [1].

Ойбек

Tarixga nazar soladigan bo‘lsak, unda shunday buyuk siymolar o‘tganki, ularni esga olmaslikning sira ham iloji yo‘q. Shunday buyuk shaxslardan biri bu Zahiriddin Muhammad Boburdir. Bobur o‘zining ulkan ilmiy merosi bilan turkiy adabiyotga sezilarli darajada hissa qo‘shdi. Bu ilmiy meros mana necha asr o‘tibdiki, hali hanuz o‘zining qadr qiymatini yo‘qotgani yo‘q. O‘zining ommaviyligi va dolzarbligicha qolmoqda. Boburning asarlaridagi turfa xil taqdirlar, nafaqat, uning hayot yo‘llari hozirgi kun yoshlari uchun ibrat namunasidir. Uning hayot yo‘llariga nazar soladigan bo‘lsak, favqulodda katta iste’dod sohibi ekanligini, kuchli qat’iyatga ega shaxs ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bunga yorqin misol sifatida 12 yoshli Boburning taxtga chiqishini, 15 yoshda esa Samarqandni egallashi bunga yaqqol dalildir. Buyuk alloma juda kichik yoshidan ulkan salohiyatga ega bo‘lgan. U hayotida bo‘layotgan sinovlar oldida dovdirab qolmadi, balki kurashdi. Hayotning barcha sinovlariga, achchiq-chuchugiga bardosh berdi. Aynan mana shu holat biz yoshlar uchun ibrat namunasi emasmi? Biz ham hayotimiz davomida turlicha sinovlarga duch kelamiz. Hayot bir tekis ravon emas. O‘zining o‘nqir-cho‘nqirliklari bilan go‘zaldir. Hayotimizda bo‘ladigan o‘zgarishlar oldida dovdirab qolib, to‘g‘ri yo‘ldan adashmaylik, tengdoshim. Shunday kunlarda bobokalonimizning bosib o‘tgan yo‘llariga nazar solib, shundan ibrat olaylik. Bobur bardosh, matonat bobida tengsiz bo‘lgan. Buni quyidagicha izohlashimiz mumkin. O‘z tog‘asining unga xiyonat qilishi, ishongan beklari tomonidan aldanishi uning ruhiyatiga juda katta ta’sir o‘tkazadi. Mana shunday kunlarda qo‘liga qalam olib quyidagi g‘azalini bitadi.

Mening ko‘nglumki gulning g‘unchasidek tah-batah qondur.
Agar yuz ming bahor o‘lsa ochilmog‘i ne imkondur?
Agar ul qoshi yosiz bog‘ gashtini orzu qilsam,
Ko‘zimga o‘qdurur sarv-u ko‘ngulga g‘uncha paykondur.
Bahor-u bog‘ sayrin ne qilaykim, dilistonimning
Yuzi gul,zulfi sunbul qomati sarvi xiromondur[2].

Temuriy shahzodaning mana shu holatini ko‘z oldimizga keltiraylik, qanday qiyin ahvolda qolgan. O‘z yaqinlari aldoviga duch keladi. Mana shunday qiyin vaziyatni o‘zining sabr-matonati, irodasi bilan yengib chiqadi. Bobomizning mana shu xislatlarini o‘zimizda mujassamlashtiraylik. Hattoki, Bobur g‘azallari-yu ruboiylariga ham metin iroda, sabr-bardosh haqidagi tushunchalarni jamlagan. Shoir ijodida insonning ma’naviy dunyosini boyitadigan, har tomonlama kamol toptiradigan ko‘plab satrlarni uchratishimiz mumkin. Boburning hayot yo‘llarida inson e’tiborini tortadigan yana bir jihat bor. Bu ona vatanini, yurt tuprog‘ini sog‘inish hissidir. Buni aynan quyidagi ruboiydan ham bilib olishimiz mumkin.

Tole’ yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi

Har ishniki ayladim ,xatolig‘ bo‘ldi.
O‘z yerni qo‘yib, Hind sori yuzlandim,
Yo rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi [3].

Bobur ruboiylarining barchasi ohangi,jozibasi,mazmundorligi bilan inson qalbining nozik torlarini chertib o‘tadi. Nafaqat, ohangraboligi,balki,undagi yurt sog‘inchi, vatanni qo‘msash holatlari inson nazaridan chetda qolmaydi. E’tiborga molik yana bir jihat. Shu darajada vatanini kuchli sog‘ingan shoir oddiy yeldan ham najot kutadi.

Ey yel, borib ahbobqa nomimni degil.
Har kim meni bilsa, bu payomimni degil,
Mendin demagil gar unutulg‘on bo‘lsam,
Har kimki, meni so‘rsa, salomimni degil [4].

Bobur lirikasiga jamlangan g‘azal-u, ruboiylar o‘zining musiqiyligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Hofiz-u xonandalarimiz tomonidan kuyga solingan bu satrlar katta-yu kichikning ko‘ngliga birday yo‘l topadi. Radio-televideniyada yangragan bu mumtoz kuylar ba’zida insonning ko‘ziga yosh keltirib, bosib o‘tgan hayot yo‘liga nazar tashlashga majbur qiladi. Nega shunday? Chunki unda bir insonning qalb tug‘yonlari, ichki kechinmalari jo‘sh uradi. Men mana shunday buyuk siymoning vorisi ekanimdan faxrlanaman. Ko‘ksimda faxr va iftixor tuyg‘usi jo‘sh uradi. Ruboiylarni mutolaa qilar ekansiz, vatanni e’zozlash, uni asrab-avaylash kerak ekanligini anglab borasiz. Aynan ruboiylarga jamlangan mana shu ma’no yoshlar e’tiboridan chetda qolmasligi kerak. Har bir yosh avlod o‘ziga-o‘zi savol berishi kerak. Men Vatanim uchun nima qildim. Har birimiz qo‘lni-qo‘lga berib, yurtimizning gullab yashnashi, har tomonlama kamol topishi uchun o‘z hissamizni qo‘shishimiz kerak. Jahon arenalarida yurtimiz bayrog‘ini yuksaklarga ko‘tarmog‘imiz darkor. Mustaqil, hur O‘zbekistonimizda yoshlarning o‘qib–o‘rganishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan.Tinchlik degan ne’matning qadriga yetib, doimo o‘qib, izlanishda bo‘laylik. Hozirgi kun aynan shuni taqozo etmoqda. O‘tmishga e’tibor beradigan bo‘lsak, ilm olishga bo‘lgan talab juda kuchli bo‘lgan. Lekin shunday bo‘lishiga qaramasdan bobolarimizning ilm-fan borasidagi yutuqlarini ko‘rolmaydigan nokas dushmanlar ham topilgan. Ular bizning ming yillik tariximizni yo‘qotishga urinishgan. Shunga qaramasdan ajdodlamiz ilm olishdan to‘xtamagan, o‘zlarining nodir asarlari bilan tariximizni boyitishgan. Yurtimizning farovonligi uchun o‘zlarining jonlarini tikishgan. Ne-ne insonlarning joni evaziga qo‘lga kiritilgan mustaqillikning qadriga yetaylik.

Shunday ekan, serquyosh O‘zbekistonimizning yanada chiroy ochib, gullab–yashnashiga o‘z hissamizni qo‘shaylik. Boburning ona vatanini sog‘inib chekkan iztiroblari har birimiz uchun saboq bo‘lsin. O‘zbekistonday go‘zal diyorda tug‘ilib, voyaga yetayotganimiz uchun Ollohga shukronalar aytaylik. Har bir o‘gil-qiz yuragida quyidagi satrlar shior yanglig‘doimo yangrab turmog‘i darkor.

Biz barkamol o‘ktam avlodmiz,
Kelajagi buyuk davlatmiz [5].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Асадова Н. Соҳибдевон – буюк саркарда. «Маънавий жасорат соҳиби» буюк шоир, давоат арбоби, Заҳриддин Муҳаммад ибн Умаршайх Мирзо Бобур (1483-1530) таваллудининг 535 йиллигига методик-библиографик қўлланма. – Фарғона, 2018.

2. To‘xliyev B., Karimov B., Usmonova K. 10-sinf Adabiyoti. "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. – T., 2017.

3. Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. 9-sinf adabiyoti. – T.: "O‘zbekiston", 2019.

4. Ahmedov S., Qosimov B., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. 5-sinf Adabiyoti. – T.:"Sharq" nashriyot - matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2020.

5. Ahmedov S., Qosimov B., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. 5-sinf Adabiyoti. – T.: "Sharq" nashriyot - matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2020.

“BOBURNOMA” BUYUK QOMUSIY ASAR

Sotvoldiyeva M.O.
Andijon Davlat Universiteti Tarix fakulteti talabasi

Jahon adabiyoti, madaniyati va san’ati xazinasini bunyod etish hamda boyitishda qadimiy va boy tarixga ega bo‘lgan o‘zbek xalqining ham munosib o‘rni, beqiyos hissasi bor. Bashariyat tarixining ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-madaniy sohalarida salmoqli o‘rin tutgan siymolardan biri buyuk vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Boburdir. Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining qarama-qarshiliklari murakkab va qisqa hayoti davomida anchagina asarlar yozib qoldirgan bo‘lsada ularning hammasi bizgacha yetib kelmagan. Boburdan qolgan ijodiy merosning eng muhim va eng yirigi O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi geografiyasi, etnografiyasiga oid nodir va qimmatli malumotlarni o‘z ichiga olgan va o‘sha davr o‘zbek klassik adabiyotida va adabiy tilining yorqin namunasi bo‘lgan “Boburnoma” asaridir [1.97].

“Boburnoma” jahon adabiyoti va manbashunosligidagi muhim va noyob yodgorlik o‘zbek adabiyotida dastlabki nasriy memuar va tarixiy ilmiy asar hisoblanadi. Bu asar mazmunining rang-barangligi bir jahon materialini o‘z ichiga olganligi til va uslubining go‘zalligi bilan XVIII, ayniqsa XIX asr sharqshunos olimlarining diqqatini o‘ziga tortgan va uning turli qo‘lyozma nusxalari izlana boshlagan va g‘arb tillariga tarjima qilishga kirishilgan edi.

“Boburnoma” asari boshqa manbalarda “Voqeoti Boburiy”, “Tuzuki Boburiy”, “Tavorixi Boburiy”, “Boburiya” kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Keyinchalik uni “Boburnoma” deb nomlash rasm bo‘lgan. “Boburnoma”ning yaratilish tarixi haqida olimlar turli fikrlarni aytishgan. Kitobni bir karra varoqlab chiqqan inson bo‘lajak ayrim voqea va hodisalarning oldindan bayon etilganligining guvohi bo‘ladi. Bu esa asar Bobur hayotining so‘ngi yillarida yozilganligidan dalolat beradi. Olimlar aksariyat qismining fikricha, “Boburnoma” yozuvchi hayotining oxirgi yillarida, 1525-1530-yillarda Movarounnahr, Xuroson, Afg‘oniston va Hindistonda ro‘y bergan tarixiy voqealar, Bobur hayoti bilan chambarchas bog‘liq holda bayon etiladi [2.114].

“Boburnoma” 12 yashar Boburning otasi Umarshayxning vafotidan so‘ng Farg‘ona viloyatiga podsho bo‘lganidan boshlanib, to umrining oxirigacha ro‘y bergan voqea hodisalarni o‘zi ichiga qamrab olgan. Afsuski, bu asar qo‘lyozmalarining yetib kelgan nusxalarida, Bobur xotiralarining 1509-1518, 1521-1524, 1529-1530 yillar voqealari yo‘qolgan. Bobur kundaliklari o‘zining tuzilishi va g‘oyaviy yo‘nalishi nuqtai nazaridan bir butun asarligicha saqlanib qolgan. “Boburnoma” Zahiriddin Muhammad Boburning nomini butun jahonga tanitgan qomusiy asardir. U nafaqat o‘zbek adabiyotida, balki jahon adabiyoti tarixida munosib o‘rin egallab kelmoqda. “Boburnoma” tarixiy baiiy asar sifatida turkiy xalqlar nasrining yorqin ilk namunalaridan biri sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu asar nodir tarixiy manba bo‘lishi bilan birga, ilm-fanning turli sohalarini qamrab oluvchi qomusiy kitob hamdir [3.89].

“Boburnoma” yozuvchi xotiralari, esdaliklaridan tashkil topgan. Shu sababdan “Vaqoenoma” Voqealar kundaligi deb atalganligi bejiz emas. Chunki bu voqealarning asosiy ishtirokchisi va bosh qahramoni Boburning o‘zidir. “Boburnoma” o‘zbek nasrining go‘zal namunasidir. Ungacha Yusub

Hos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari muqaddimasida Rabg‘uziy ijodida nasr namunalari uchrar edi. Alisher Navoiy uni yuqori pog‘onaga olib chiqadi. Biroq “Boburnoma”, bu borada o‘zbek nasrining o‘ziga hos kashfiyoti sifatida yuz ko‘rsatadi. Asarda tarixning Bobur yashab o‘tgan davri voqealari ifodalangan. Bu voqealar Andijon, Samarqand, Xo‘jand, Hirotdan boshlab Kobul va Agragacha bo‘lgan qamrovga ega.Ya’ni unda O‘rta Osiyodan boshlab Hindistongacha bo‘lgan masofadagi deyarli 50 yillik voqealar haqqoniy ifoda va bahosini topgan.

“Boburnoma”dagi voqealar bayoni aniq ixcham va lo‘nda ta’sirchan va eng muhimi hayotiy haqiqatga mos va muvofiqligi bilan etiborlidir. Muallif voqealar bayonida tabiat tasviri, ayrim joylar tavsifi, alohida kishilarning haqqoniy realistik tasviri berilgan [4.128]. Bu narsa Boburning bergan ma’lumotlaridagi ishonchlilikni ta’minlagan. Asarda o‘simlik va hayvonot olami haqidagi nodir ma’lumotlar ham jamlangan bo‘lib, jumladan, adib Afg‘onistondagi Dashti Shayxda 33 xildagi bir birini takrorlamiydigan lola turlari haqida gapiradi [5.60-61].

Ma’lumotlarning ko‘pligi aniq va to‘laligi tarixiy voqealarning rostgo‘ylik bilan ifoda etilishi xronologik izchillik, ifodaning sodda va ravonligi “Boburnoma”ning tarixiy manba sifatidagi afzalliklari va jozibasini yanada oshiradi. Bu jihatdan u ko‘pgina Sharq tarixchilarining kitoblaridan ustun turadi. Malumki Sharq muarrixlarining aksariyat kitoblarida tarixiy dalillar afsona va rivoyatlar bilan bog‘lanib ketadi,qalamga olinayotgan voqealar muallifning podsho va hukmdorlarga bo‘lgan munosabatidan kelib chiqib tasvirlanadi,birovlarni ataylab ko‘kka kotarish boshqalarni kamsitish, yerga urish tamoyili ustunlik qiladi. “Boburnoma”da esa bunday biryoqlama qarashlarni ko‘rmaymiz, aksincha unda ijtimoiy-siyosiy voqealar xolis va izchil tasvirlangani tufayli o‘sha davrdagi xokim tabaqalarning fazilat va kamchiliklari xam aniq ravshan aks etadi. Bularning barchasi “Boburnoma”nianiq tarixiy dalillarga boy bo‘lgan beqiyos bir tarixiy asar deb aytishga asos beradi.

“Boburnoma”ning o‘ndan ortiq qo‘lyozma nusxalari bo‘lib jahonning turli kutibhonalarida saqlanadi. Asarni 1857-yilda Qozonda Ilminskiy,1905-yilda Londonda Beverij xonim nashr ettilar. O‘zbekistonda dastlab professor Fitrat 1928-yilda “Boburnoma”dan parchalar elon qilgan edi. Asar 1948-1949 yillarda 2 jildda nashr etildi.1960,1989, 2002 yillarda “Boburnoma”ning tuzatilgan nashrlari amalga oshirildi. “Boburnoma” XVI-asrdayoq turli tillarga tarjima qilina boshlangan. Jumladan, 1586-yilda fors tiliga o‘girilgan.Yodnoma Ovrupaga XVIII asrning boshida kirib bordi.1705-yilda Vitsen kitobni golland tiliga tarjima qilib Amstredamda chop etdi.1926-yilda Leyden va Zerskin uning ingilizcha tarjimasini,1871-yilda Pavde de Kurteyl fransuzcha tarjimasini nashr qildilar. XX asrda bu asarni Rashit Rahmati Orat turkchaga, Mixail Sale ruschaga tarjima qildilar.

Xullas, “Boburnoma” 4 marta ingliz, 3 marta fransuz va 1 marta nemis tiliga o‘girilib nashr etilgan. Unga asoslanib Boburning hayoti va faoliyatini yorituvchi o‘nlab badiiy asarlar yaratildi. Keyingi yillarda Boburnomaning professor B.Tekston tomonidan AQSHda (Kembrij sh., Xarvard unversiteti 1993) hamda ikki jild xajmda mukammal so‘zlik, ko‘rsatkich va sharx izoxlar bilan Yaponiyada (Kioto,1995-1996) ilmiy tanqidiy matni chop etildi.

Ingiliz tarixchisi Elfinston bu asar “Osiyo tarixini xaqqoniy yoritgan asar”, deb baholagan. Ikkinchi ingliz tadqiqotchisi Leyn Pulning ta’biricha: “Agar biron tarixiy hujjatni boshqa guvohliklarsiz ham haqqoniy deb qabul qilish mumkin bo‘lsa, bunday hujjat Boburning yodnomalaridir”. Amerikalik tadqiqotchi Berk Boburga bergan qisqa va lo‘nda tavsiflarida ulug‘ siymoning hayot yo‘li, davlatchilik tarixidagi xizmatlari va shaxsiyatidagi eng muhim jihatlarni muxtasar tarzda yoritishga erishgan. Muallif Boburning hukmronlik siyosati xususida shunday yozadi: “Bobur shoxning fikricha, fotihalik va hukmdorlik ishida yuz ming usul qo‘llasa ham haq va zarur hisoblanadi. Biroq bosib olingan yerlarni, ayniqsa, bu o‘lkalarni o‘z saltanati tarkibiga kiritish

rejalashtirilgan bo‘lsa-da, u g‘olib askarlar mag‘lublar mulkini talon-taroj qilishiga mutlaqo yo‘l qo‘ymasdi”.

“Boburnoma” haqidagi fikrlar ham diqqatga sazovar: “Men bor haqiqatni yozdim”, deydi muallif va haqiqatdan ham u o‘zining kamchiliklari, omadsizlikka olib kelgan noto‘g‘ri xatti-harakatlarini o‘quvchidan yashirmaydi. Bobur hayoti va ijodi Fransiyada ham keng o‘rganilgan bo‘lib, Fransiya ilm ahliga Zahiriddin Muhammad Bobur va “Boburnoma” haqida dastavval malumot bergan fransuz sharqshunosi Bartoleme d’Erbelo (1621-1695) hisoblanadi. D’Erbelo o‘zining “Sharq kutubhonasi” (La Biblioteque orientale. Paris, 1967) qomusidagi “Bobur yoki Bobar” nomli maqolasida Boburning hayoti, uning davlati va sarkardalik mahorati, adabiyot va sanatga qiziquvchi ilg‘or fikrli kishi bo‘lgani haqida ma’lumot beradi.

Jahon madaniyatiga o‘zining boy merosi bilan ulkan hissa qo‘shgan Zahiriddin Muhammad Boburning asarlari mana 500 yildan ortiq davr mobaynida xalqimizning manaviy yuksalishiga, uni dunyoga tanitishga xizmat qilib kelmoqda. Uning merosiga bo‘lgan munosabat esa, yurtimizning o‘z istiqloliga erishganidan so‘ng chinakam va haqqoniy tus olgani hamda bobur shunoslik fani o‘zining yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilganini g‘urur va iftixor bilan qayd etish o‘rinlidir. Boburning shox asari – “Boburnoma” turli soha olimlari uchun qimmatli manba bo‘lishi bilan birga, milliy ma’naviyatimizning noyob durdonasi sifatida xalqimiz tafakkurining o‘ziga xos jihatlari, ko‘hna qadriyatlarimiz, shonli tariximizni bamisoli tiniq ko‘zgu kabi aks ettirib turadi [6.94].

Xulosa qilib aytganda,O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyingi davrda, shox va shoir Boburning hayoti va faoliyatini o‘z eliga yaqqol namoyish qilishning yangi-yangi imkoniyatlarini yaratdi. Mustaqillik va milliy g‘oya olimlarga bobur shunoslik sohasida o‘ziga xos qanot bag‘ishladi. Bobur va Boburiy ijodkorlar asarlarini katta tirajlarda nashr qilish izchil davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bobur ensiklopediyasi. – Toshkent: “Sharq”nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2014.
2. Abdulg‘afurov A. O‘ZME. Birinchi jild. – Toshkent, 2000.
3. Азимжонова С. Государство Бабура в Кабуле и в Индии. – М., 1977.
4. Ахмедов Б. Историко-географическая литературе Средний Азии XVI-XVIII вв (письменные памятники). – Т., 1985.
5. Бобурнома. – Т., 1960.
6. Ўзбек адабиёти тарихи. 3 ж. – Т., 1978.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR – BUYUK SHOIR VA DAVLAT ARBOBI

Aliyeva N.
NamDU, Musiqa yo‘nalishi talabasi

XVI asr o‘zbek xalqi tarixidan o‘ziga xos ayrim xususiyatlariga ega. XVI asr boshlarida temuriylar hukumronligi tugatilib, Shayboniylar boshchiligidagi ko‘chmanchi o‘zbek qabilalari O‘rta Osiyo va Shimoliy Afg‘onistoning bir qismini bosib oldilar. Temuriy hukmdorlar o‘rtasidagi to‘xto‘vsiz urushlar va bosqinchilar hujumi qurulish inshootlari xalq xo‘jaligini ishdan chiqargan edi. Ana shu davrdan boshlab ma’lum ijtimoiy sabablarga ko‘ra, hozirgi O‘zbekiston hududida yashab kelgan aholining anchagina qismi hozirgi Sibir, Hindiston va boshqa joylarga tarqalgan u

yerlarda o‘rtoqlashib qolgan. Tarixchi professor H.Z.Ziyoyevning ma’lumotlarga qaraganda, Sibirga ko‘chib borgan o‘zbeklarning soni 12 mingdan ortiq bo‘lgan.

Hindistonda Boburiylar hukmronlik qilgan davrlarda (1526–1857) eski o‘zbek tilida adabiy harakatchilikning rivojlanishi o‘zbek tili grammatikasi va leksikografiyasiga oid ko‘plab asarlarning yaratilishi Hindistonda o‘zbeklar nufuzining katta bo‘lganidan xabar beradi.

XVI asr o‘zbek adabiy tilining o‘rganishda Boburning she’rlari “Boburnoma”si Muhammad Solihning “Shayboniynoma” dostoni, Hojaning “Gulzor” va “Muftahl adl (Adolat kaliti)” asarlarida ham Majlisiyning “Qissay Sayfulmalik” dostoni va boshqalar asosiy manba bo‘ladi.

Xususan, XVI asr ahamiyatli asarlaridan biri bo‘lmish, “Boburnoma” – jahon adabiyoti va manbashunosligidagi muhim va noyob yodgorlik, o‘zbek adabiyotidagi dastlabki nasriy memuar va tarixiy-ilmiy asar [1].

Adabiyotimiz va adabiy tilimiz tarixidan Alisher Navoiydan keyin eng sharafli o‘rinni yirik so‘z san’atkori Zahriddin Muhammad Bobur egallaydi. Bobur ajoyib shoir bo‘libgina qolmay yetuk adib tarixchi etnograf, geograf, lashkarboshi, davlat arbobi ham bo‘lgan. Uning ulug‘ tarixiy shaxs ekanligi hamma joyda e’trof etiladi. O‘zbek xalqi uning nomini doim faxr bilan tilga oladi.

Bobur (taxallusi; to‘liq ismi Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo) (1483.14.2, Andijon 1530.26.12, Agra) – o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili: buyuk shoir; tarixchi, geograf; davlat arbobi, iste’dodli sarkarda; boburiylar sulolasi asoschisi, temuriy shahzoda [2].

Boburning otasi – Umarshayx Mirzo Farg‘ona viloyati hokimi, onasi – Qutlug‘ Nigorxonim Mo‘g‘uliston xoni va Toshkent hokimi Yunusxonning qizi edi. Boburning onasi o‘qimishli va oqila ayol bo‘lib, Boburga hokimiyatni boshqarish ishlarida faol ko‘mak bergan, harbiy yurishlarida unga hamrohlik qilgan. Umarshayx Mirzo xonadoni poytaxt Andijonning arki ichida yashar edi. Hokim yoz oylari Sirdaryo bo‘yida, Axsida, yilning qolgan faslini Andijonda o‘tkazardi.

Boburning yoshligi Andijonda o‘tgan. Bobur barcha temuriy shahzodalar kabi maxsus tarbiyachilar, yirik fozilu ulamolar ustozligida harbiy ta’lim, fiqh ilmi, arab va fors tillarini o‘rganadi, ko‘plab tarixiy va adabiy asarlar mutolaa qiladi, ilm-fanga, she’riyatga qiziqa boshlaydi. Dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan “Bobur” (“Sher”) laqabini oladi.

Bobur otasi yo‘lidan borib, mashhur sufiy – Xoja Ahrorga ixlos qo‘yadi va uning tariqati ruhida voyaga yetadi, umrining oxiriga qadar shu e’tiqodga sodiq qoladi. Keyinchalik, “Boburnoma” asarida Bobur Xoja Ahror ruhi bir necha bor uni muqarrar halokatdan, xastalik va chorasizliqdan xalos etganini, eng og‘ir sharoitlarda rahnamolik qilganligini ta’kidlaydi. Otasi Axsida bevaqt, 39 yoshida fojiali halok bo‘lgach, oilaning katta farzandi, 12 yoshli Bobur valiahd sifatida taxtga o‘tiradi (1494 yil, iyun).

Davlat arbobi va ko‘p vaqti jangu jadallarda o‘tgan sarkarda sifatida ijtimoiy faoliyatining eng qizg‘in davrida ham, shaxsiy hayoti va davlati nihoyatda murakkab va xatarli sharoitda qolgan chog‘larida ham Bobur ijodiy ishga vaqt topa bilgan, ilm, san’at va ijod ahlini o‘z atrofiga to‘plab, homiylik qilgan, ularni rag‘batlantirgan.

O‘tmish adabiyot va tarix, musiqa va san’atdan yaxshi xabardor bo‘lgan, diniy ta’limotga chin ixlos qo‘ygan Bobur har doim olimu fozillar davrasida bo‘ldi, xususan, ijod ahliga, kasbu hunar sohiblariga samimiy ehtirom ko‘rgazib, ularni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirib turdi. Ijod va san’at ahliga bunday mehrli munosabat aslo bejiz bo‘lmagan. Bobur tabiatan ijodkor edi. Yigitlik yillaridan boshlab to umrining oxirigacha samarali ijodiy ish bilan shug‘ullandi, har qanday sharoit va vaziyatlarda ham ijoddan to‘xtamadi, natijada, har jihatdan muhim boy ilmiy va adabiy meros qoldirdi.

Boburning ulkan san’atkorligi shundaki, shaxsiy kechinmalarini jiddiy umumlashma darajasiga ko‘tara oladi va natijada asarlarida olg‘a surilgan g‘oyalar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko‘tariladi.

Bobur ijodida ijodida ishq-muhabbat, sevgi-sadoqat, visol va hijron mavzui ham salmoqli o‘rin tutadi. Uning g‘azal va ruboiylarida, tuyuq va masnaviylarida ma’shuqaning maftunkor go‘zalligi, beqiyos husnu latofati, sharqona odobu axloqi, nozu karashmasi yengil va o‘ynoqi, musiqiy va ravon misralarda katta mahorat bilan tarannum etiladi.

Poetik asarlari bilan xalqimiz qalbidan chuqur o‘rin olgan shoir insoniy his tuyg‘ulari, sof va tabiiy ishq kishilarning ehtiyojlaridan tug‘ilgan ijtimoiy mavzularini yetuk did bilan yuksak saviyada sodda tilda tarannum etishga muvaffaq bo‘lgan.

XVI asr olamida asarlarning sodda uslub va tilida yozish Bobur asarlarining tokiy hozirgacha qadirlanib va sevib o‘qilib hamda kuylab kelishga sababchi bo‘ldi. Chunki, Bobur o‘z asarlarini sodda tilda yozish bilan birga boshqalarni ham tushunarliy tilda yozishga qiyin so‘zlarni balandparvoz iboralarni ishlatmaslikka chaqirdi. Bu jihatdan uning o‘g‘li Humoyunga yozgan maktubi xarakterlidir: “Mundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bilan ham sengo tashvish ozroq bo‘lur ham o‘qug‘uchig‘a”.

Bobur har bir so‘zidan o‘rinli foydalanishga, uning mazmuni aniq va puxta bo‘lishga intilgan. U ko‘pincha sodda jumlalar bilan fikrini qisqa va lo‘nda qilib yozadi, ortiqcha so‘zlarni qalashtirmaydi. Bobur lirikada va prozada Navoiy traditsiyasini davom ettiradi. Umrining ko‘p qismini harbiy yurishlarda, o‘z ona yurtidan uzoqlarda o‘tkazgan bo‘lsa ham ona tilini unutmagan, doimo Farg‘ona ona vodiysi ruhi bilan yashagan. Uning o‘zbek adabiy tili tarixidagi birdan-bir xizmati adabiy tilini jonliy tilga yaqinlashtirishdan iborat bo‘ladi.

Bobur she’rlari va “Boburnoma” asarning hozirgi har bir savodxon o‘zbek bemolol tushuna olishining o‘zi fikrimizni isbotlaydi. Ayrim olimlar bu tildagi soddalikni, Bobur ko‘proq xalq orasida bo‘lganligidan, deb hisoblaydilar. Ensiklopedik ma’lumotga ega bo‘lgan Bobur ona tilidan tashqari fors-tojik, arab, urdu va hind tillarini ham yaxshi bo‘lgan. U tillarda so‘zlash olgan va yoza olgan. Lekin u bir she’rida kamtarlik bilan fors, arab tillarini yaxshi bilmaganligim uchun asarlarimni turkiy tilda yozdim, deydi: “Boburnoma” Zahiddin Muhammad Boburning eng yirik prozaik-ensiklopedik asaridir. Asarda 1494–1529-yilgacha, ya’ni 35 yillik tarixiy voqiyalar bayon etilgan.

“Boburnoma”da saltanat ishlarida bek va shahzodalarning ishtiroki, o‘sha paytdagi davlat devonini yurgizishda faoliyat ko‘rsatgan shaxslarning o‘rni ham keng yoritib berilgan. Bobur qaysi bek yoki sultonga baho bermasin, eng avvalo, Amir Temur saltanatining yaxlitligi, yurt tinchligi va raiyat manfaati bilan bog‘liq masalalarni inobatga olib fikr yuritadi [3], Farg‘ona va Hindiston iqlimi, o‘simlik va hayvonat dunyosi, urf-odatlar va muallifning ko‘rgan-bilganlar tasvirlangan.

“Boburnoma” tez orada shuhrat qozonib, XVI asrning o‘zidayoq bir necha marta fors tiliga tarjima etildi. 1589-yili shoirning nevarasi Shoh Akbar saroyida hizmatda bo‘lgan Abdurahim ibn Bayramxon Xoni Xonon tomonidan tarjima qilindi. Tarjima ko‘p nusxada ko‘chirilib, “Voqeati Boburiy”, “Tarixi Bobursho‘hiy” nomlari ostida Sharq mamlakatlariga keng yoyildi [4]. Yodnoma Ovrupaga XVII asr boshlarida kirib bordi. 1705-yilda Vitsen kitobni golland tiliga tarjima qilib, Amsterdamda chop etdi. 1871-yilda Pave de Kurteyl fransuzcha tarjimasini, 1926-yilda Leydan va Erskin uning inglizcha tarjimasini nashr qildilar. XX asrda bu asarni Rashit Rahmati Orat turkchaga, Mixail Sale ruschaga tarjima qildilar. Xullas, “Boburnoma” 4 marta ingliz, 3marta fransuz, 1 marta nemis tiliga o‘girilib nashr etildi. Unga asoslanib, Boburning hayoti va faoliyatini yorituvchi o‘nlab badiiy asarlar yaratildi.

“Boburnoma”ning o‘ndan ortiq qo‘lyozma nusxalari bo‘lib, jahonning turli kutubxonalarida saqlanadi. Asarni 1857-yilda Qozonda Ilminskiy, 1905-yilda Londonda Beverij xonim nashr etdilar.

O‘zbekistonda dastlab professor Fitrat 1928-yilda “Boburnoma”dan parchalar e’lon qilgan edi. Asar 1948 – 1949-yillarda 2 jildda nashr etildi. 1960, 1989, 2002-yillarda “Boburnima”ning tuzatilgan nashrlari amalga oshirildi [5].

Bobur asarlarining diyalektal xususiyatlariga kelganimizda shuni aytish mumkinki, uning Andijon shevasi va Navoiy asarlarining tiliga nisbatan aytilgan “Andijon eli turuktur, shahr va bozorisida turkiy bilmas kishi yo‘qtur. Elning lafzi qalam birla rosttur. Ani uchun kim Mir Alisher Navoiyning musannafoti bovujudkim, Hirida nash’u namo topuptur, bu til bilodur”, – degan so‘zlar to‘laligicha bo‘lmasa-da uning o‘z tiliga to‘g‘ri keladi.

Uning araslari qatorida119 g‘azali, bir masnu she’ri, 209 ruboiysi, 10 dan optik tuyuq va qit’alari, 50 dan ortiq muammo va 60 dan ziyod fardlari aniqlangan. Devoni tarkibida umumiy hajmi 270 baytdan iborat 8 masnaviy ham o‘rin olgan.

Bobur O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng o‘z yurtida haqiqiy qadr-qimmat topdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga ko‘ra 1993-yilda Bobur tavalludining 510 yilligi tantanali nishonlandi. Andijon shahrida Bobur nomida universitet, teatr, kutubxona, milliy bog‘ (“Bog‘i Bobur”) bor. Bobur milliy bog‘i majmuasida “Bobur va jahon madaniyati” muzeyi, shoirning ramziy qabr-maqbarasi bunyod etilgan. Shahar markazida (muallifi Ravshan Mirtojiyev) va Bobur bog‘idagi yodgorlik majmuida (muallifi Qodirjon Salohiddinov) shoirga haykal o‘rnatildi. Andijondagi markaziy ko‘chalardan biriga, shuningdek, Toshkentdagi istirohat bog‘i va ko‘chaga, Andijon viloyati, Xonobod shahridagi istirohat bog‘iga Bobur nomi berildi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Bobur nomidagi medali ta’sis etildi. Sharqshunos olim Ubaydulla Karimov bu medalning birinchi sovrindori bo‘ldi.

Andijonlik tabiatshunos olim Zokirjon Mashrabov rahbarlik qiladigan Xalqaro Bobur jamg‘armasi (1993) Bobur ijodini o‘rganishda katta ishlarni amalga oshirdi. Jamg‘armaning ilmiy ekspeditsiyasi 10 dan ortiq Sharq mamlakatlari bo‘ylab avtomobilda ilmiy safarlar uyushtirib, 200 ming km dan ortiq masofani bosib o‘tdi, Bobur va boburiylar qadamjolari, ularning ilmiy merosiga oid yangi ma’lumotlar to‘plab, ularni ilmiy iste’molga kiritdi. Mazkur ma’lumotlar asosida 10 dan ziyod ilmiy, hujjatli, badiiy asarlar (Z.Mashrabov, S.Shokarimov: “Asrlarni bo‘ylagan Bobur”; S. Jalilov: “Boburning Farg‘ona davlati”, “Bobur va Andijon”; Qamchibek Kenja: “Hind sorig‘a”; X. Sultonov: “Boburning tushlari”, “Boburiynoma”; R. Shamsuddinov: “Boburiylar izidan”, “Boburiylar sulolasi”; T. Nizom: “Uch so‘z”), 10 ga yaqin hujjatli, videofilmlar (F. Rasulov: “Bobur izidan”, “Muqaddas qadamjolar”; T. Ro‘ziev: “Bobur salomi”, “Bobur nomidagi Xalqaro ilmiy ekspeditsiya”; T.Hamidov: “Iftixor” va h.k.) yaratildi. Biz qayerda yashamaylik, e’tiqod yoki maslaklarimmiz qanday bo‘lmasin – xammamizni qon-qarindosh qilib, chambarchas bog‘lab turuvchi birdan-bir omil o‘zbekligimmiz, “Turkiy” farzandi ekanligimmizdadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. wikipedia.org.
2. Buyuk yurt allomalari. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018. – B. 350.
3. Buyuk yurt allomalari. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018. – B. 355.
4. saviya.uz
5. ebook.lark.ru

LIFE DESERVES TO BE VALUED

Safarova Z.D.
Uzbekistan State World Languages University Sophomore of first English faculty
Supervisor: **Rakhimova G.O**

The Fault in Our Stars is a fabulous novel written by John Green, a renowned author of Young Adult Fiction [1]. The book is about two young adults with cancer, Hazel Grace Lancaster and Augustus Waters, and their pure, but sad-ending love story. Both of these kids are so smart and good-humored that you cannot understand why they should die, what their fault is. One of the characters of the novel, Peter Van Houten, the author of An Imperial Affliction explained this matter: "Were she better, or you sicker, then the stars would not be so terribly crossed, but it is the nature of stars to cross." [2.64]. It is what should be. Even if it is hard to admit, however, it is the fortune they should accept.

The novel is aimed to make us realize that "The world is not a wish-granting factory" [2.116] . That's why every time we cannot get what we want. But we can be grateful for what we have, what we are granted by fortune. Sometimes, we feel pain as "the pain demands to be felt"[2.36]. The novel also teaches gratitude for even pain because "without pain, how could we know joy?"[2.24]. The book helps reader understand the real value of joy, appreciate every instant of life and to some extent, live with pain. The author stated that "nothing to be gained by worrying between now and then"[2.40]. The only thing we should do is to confront and accept because we cannot avoid noticing the universe.

From the point of my personal view, I can affirm that the novel can share its whole feelings, pains and joys with reader. While reading the book, one can feel the pure love of two teenagers. But they could not hope for growing together because of their cancer. Hazel even does not want Augustus to be wounded when she dies. So she says: "I am like a grenade and at some point I am going to blow up and I would like to minimize the casualties"[2.58]. Nonetheless, Augustus is also aware that one day death will come and he does not want to lose his numbered days till that one day. So he says: "I know that love is just a shout into the void, and that oblivion is inevitable, and that we're all doomed and that there will come a day when all our labor has been returned to dust, and I know the sun will swallow the only earth we'll ever have, and I am in love with you"[2.85]. The little infinity of these two souls would not be traded for the world. Because, "forever within the numbered of days" is given to Hazel by Gus.

In this book, you may also feel the caring love of parents. The author stated that the only thing that bites worse than having cancer is having a kid with cancer. Hazel's dad probably thinks he might never see his daughter again, every single morning of his entire weekday life as he leave for work. Hazel's mother always hovers around her. Hazel worries that they won't have a life for themselves. So, she admitted that much of her life had been devoted to trying not to cry in front of people who loved her in order not to hurt them.

During the novel, you will find a good friendship between Augustus and Isaac. Gus is such an inspiring and joyful to his friend that Isaac dislikes living in the world without Augustus.

While reading the novel, you live in their life, you feel pain, even you cry. Finally, you realize that you should be grateful for your life with all ups and downs, you should appreciate your family and friends on time, and you should value the love which is gifted for you. Personally, I am not willing to add anything to this book or state its faults. It is just the whole with strength and weakness as a real life.

All in all, I once again reaffirm my point that it is a marvelous novel to read with passion. I highly recommend you to read this book if you want to realize that you are alive for now and your life deserves to be valued.

References:

1. www.theguardian.com

2. John Green. The Fault in our stars. Published in the United States by Dutton Books, a member of Penguin Group (USA) Inc. 345 Hudson Street, New York, New York 10014 www.penguin.com/teen

«BABURNAME» AND OTHER WORKS IN THE RESEARCH OF WORLD SCIENTISTS

Akhramova M.

2nd year student of the faculty of History, Andijan state university

Introduction. The author of the remarkable work Baburname – The Notes of Babur, took a prominent place among the outstanding cultural figures of the East. A talented writer, a connoisseur of the art of literature and science, an original memuarist, Babur, having a broad outlook and an inquisitive mind, left a significant mark in many areas of the life of the people's of Central Asia.

He wrote original lyrical works ghazals, rubai [1, 14], treatises on Muslim jurisprudence « Mubayin»[2, 104], poetics «Aruz Risolasi»[3, 10],music, military affairs, as well as a special alphabet of «Hatti Baburi».

The central place in Babur's work is occupied by a priceless literary monument of prose – his historical work Baburname. The book was completed in India and it's mainly autobiographical in nature, and reflects the history of the peoples of Central Asia, Afghanistan and India, in the late XVth – early XVI th centuries[4, 24]. Due to the complexity and its reliability, Baburname is the important and valuable historical and prose work. According to the wealth andvariety of the material, the language and style of Baburname, it is considered one of the most notable monuments of literature. It is not surprising, therefore, that at various times this work has attracted the closest attention of scientists around the world.

Both an official Chronicle and highly personal memoir, the Baburname presents an action-filled and extraordinarily detailed picture of life in Central Asia and India during the late XVth and early XVIth centuries. It is also the text most often quoted by historians and scholars of Mughal India. The prose of Zahiriddin Muhammad Babur, the firstMughal emperor, is described as frank, intimate, thankful, andunbiased. It is all the more astonishing, therefore, that the Babur name is also the first real autobiography in Islamic literature. Babur has no historical precedent for his narrative, yet even today it is a remarkably engrossing volume to read [5, 6].

Babur's merit as a political figure, historian, poet and prose writer is now recognized by the world of oriental science.His legacy is studied in almost all major countries of the world.The actual proof of this is the translations into the different languages of the world.

Methodology. The independence of our country caused fundamental changes in the historical destines of its people, and opened up a wide scope for active study of the heritage of their great ancestors. For that reason, the world's interest in such a rich book as Baburname has acquired a worldwide significance. «The interests that Babur expressed so eloquently in their memoirs – his profound curiosity about the natural world and human personalities, for example- defined also the

directions that scientists were to take»- that's what says Thackston in his book.

As we all know, that Baburname consists of three parts. The first part is devoted to the description of political events in Transoxiana at the end of XVth century. The second part covers the events that took place in the territory of Afghanistan, which in that period was known as the «Kabul lot». The last, the third part, describes the political events in Northern India, the geographical data of the country, its natural features, also contains interesting information about the peoples, who inhabited this country [6, 46]. The author of the book with the inherent frankness anarchism among the ruling circles- feudal lords, their continues struggle for power, tells t s..he facts of the devastation of agricultural oases, the increase in land and other duties in Khorasan and Transoxiana.

Although Baburname is devoted to the political history of the above-mentioned countries at the turn of the XVth- XVI th centuries, it also abounds in invaluable materials from the socio-economic life of the peoples, touches on issues of morality, ethics and other aspects of the era of author. Baburname contains numerous information about the literary environment of Babur himself. On the basis of this information, it is possible to recreate many little-known poets of that time who lived in Central Asia, India and Afghanistan. The book include many vivid examples of a number of his contemporaries - statesmen, poets, artists, and musicians as well [6,340-341].

In contrast to most Eastern historians, who repeated the information of earlier historians, Babur in his work from beginning to end remains an original narrator, describing everything based on his observations. No less distinctive is the language and style of his work. His language is simple and concise, popular, it completely lacks the rhetorical tricks peculiar to other writers. Babur made an unusual decision to keep a record of his life, but the language in which he chose to keep it was even more uncommon. Opting not to write in Persian, the universal language of culture and literature of his time and place, he kept his memoirs in Chaghatay Turkish, the Timurid's spoken language-indeed of the whole Turco-Mongolian world at the time. To this day the Baburname is one of the longest examples of sustained narrative prose in the language, as the attempts to turn Chaghatay, into a viable literary vehicle turned out to be a «flash in the pan», doomed by the turn of the events that swept the Timurids from Iran and Central Asia[5, 10]. Despite the abundance of names, titles, dates and events found in the work, this book is easy to read, with unflagging interest.

Results. The works written by the statesman and talented poet Z.M.Babur are attracting more and more interest from historians, scientists and writers around the world day by day. Thanks to the perseverance and enthusiasm of many foreign researchers, significant scientific and organizational studies was done to learn the Babur's heritage. The outstanding European orientalists from Holland- Whitson (1705), England- J. Leyden and Erskine (1826), Caldecott(1844), A.Beveridge(1905), Talbot(1909), Germany-Y.Klaprat(1810), A.Keizer(1828), France –Abel Pavet de Courteile(1871), Bakke Gromon(1980-1985), Afghanistan- Abdulhai habibi), Pakistan- Rashid Akhat Nadvi, Shah Alam Mavliyat, India- Mirza Nasreddin Haidar, Rizvi, Turkey- R. Arat and N. I. Bayur (1943-1946) and others brought Babur's studies to the forefront of world science, and made an important contribution to familiarizing the world community with the content of his oeuvre.

For instance, British interest in the Baburname began predictably enough, in India. Around 1805 an english translation of the memoirs was started by John Leyden, who worked from an imperfect Chaghatay text and he had found either at Fort William College in Calcutta in the Collections of Mountstuart Elphistone. Erskine attempted to reconcile Leyden's translation from the Chaghatay and adapt it to his own translation from the Persian. Erskine had worked exclusively from the khanhanan's Persian translation. The Persian, however, is so faithful to the syntax of the original that the language is, at best enigmatic and, at worst, incomprehensible. « Though simple

and concise» Erskine relates « a close adherence to the idioms and forms of expression of the Turki original, joined to a want of distinctness in the use of the relatives, often renders the meaning extremely obscure, and makes it difficult to discover the connexion of the different members of the sentence [5, 11]. At the same time, a well known English scientist, researcher and author of the translation of Baburname into English, puts this book on a par with the memoirs of Gibbon and Newton. «In Asia» says Beveridge, «it (I.e., Babur's autobiography) stands apart from the others [7, 37]. Beveridge's translation, on the other hand, reads like a student's effort- all the words have been looked up in the dictionary and put together in a meaningful fashion but without certainty as to the force of nuance of the original. She also chose to reproduce the repetitiouness of the original and, far worse, to retain a one- for- one correspondence between Turkish and English words. This was a conscious decision on her part, for she dwells on it in her introduction and faults her predecessors for doing otherwise, insisting on « strict observance of Babur's limits of vocabulary, effected by allotting to one Turki word one English equivalent, thus including synonyms for which Turki has little use because not shrinking from the repeated word [5, 11]. So, the above facts indicates that the poet's skill is expressed in the original literary style and skillfulluse of the most expressive means of the Turkish language.

Conclusion. Babur's poetic heritage is multifaceted and rich. All of Babur's creative inheritance has been included in the golden fund of world literature and culture. The people of our country can rightly be proud of the fact that among their ancestors there is a notable statesman, scientist and a wonderful poet - Zahiriddin Muhammad Babur(1483-1530). The representative of Temurid dynasty in his short life went down in history not only as a commander and founder of the Great Baburid state in India, but also as a scientist and poet who left luxuriant creative legacy. J. Nehru in his book “The Discovery of India” wrote: “Babur was a charming person, a typical sovereign of the Renaissance, a bold, enterprising man he loved art, literature, and loved to enjoy life”.

More than four and a half centuries have passed since Babur's death, but the name of Babur as a great historian, a talented poet, a skilled commander and statesman has become immortal. It was his work “Baburname” that became one of the treasures of world literature.

References:

1. Ross D. A Collection of poems by Emperor Babur. – Calcutta, 1910.
2. Bobur. Mubayyin.– T., 2001.
3. Khasanov S. Boburning "Risolayi Aruz"asari. – T.,1981.
4. Azimdjanova S. On the history of Ferghana in the second half of 15th century. – T., 1957.
5. Thackston Wh. M. The Baburnama. Memoirs of Babur, Prince and Emperor. – New York, 1996.
6. Beveridge A. S. The Baburnama in English. Emperor of Hindustan Babur. – London, 1905.
7. Calcutta Reviw, 1879.

ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР ДАВРИДА МЕЪМОРЧИЛИК (СОҲИБҚИРОН ТЕМУРДАН МЕРОСИЙЛИК ВА ЎЗИГА ХОСЛИК)

Раззақов Ж.Н.

Наманган давлат университети Археология йўналиши магистранти

Мовароуннахр тарихида ўчмас из қолдирган, Афғонистон ва Ҳиндистон тарихида эса бир неча асрга татигулик бурилиш ясаган, бу мамлакатлар халқларининг маданий,

ижтимоий-иқтисодий ҳаётида сезиларли ўзгаришларни амалга оширган буюк давлат арбоби, моҳир саркарда, улкан шоир, аллома ва меъмор, хуллас, баркамол инсон — темурий шахзода Заҳириддин Мухаммад Бобур шоҳи Ғозий Ҳиндистонда бобурийлар салтанатига асос солди, бу салтанат тарқоқ мамлакатнинг сиёсий бирлигини таъминлади ва унинг гуллаб-яшнаши учун асрлар оша ижобий таъсир кўрсатди.

Бобурийлар сулоласи вакиллари ҳақида нафақат Шарқ, балки Ғарб мамлакатларида, шу жумладан Буюк Британияда ўнлаб илмий-тарихий асарлар яратилган. Бу асарларнинг кўплари бобурий шаҳзодаларнинг замондошлари томонидан яратилган бўлиб, асар муаллифларининг аксарияти ўша даврда бўлиб ўтган воқеаларда ўзлари иштирок этганлар. Бу асарлар Ҳиндистонда уч ярим асрга яқин муддат давомида ҳукмронлик қилган бобурийлар сулоласи ҳақида қимматли маълумотлар беради [10, 4-5-б.].

Мовароуннаҳр ва Хуросонда маданият, адабиёт, халқ хўжалиги соҳаларининг турли тармоқларида Соҳибқирон Амир Темур ҳазратлари олиб борган оламшумул ободончиликларни жуда кўп гапирамиз. Бобокалонимизнинг фармойишлари билан қурилган муҳташам бино-ю мадрасалар, карвон йўллари-ю катта-катта кўприклар, маданий-маиший обидалар ҳамда кўплаб шаҳарларда ул зотдан ёдгорлик бўлиб қолган боғу роғлар ҳақида адибларимиз, салоҳиятли ёзувчи-у олимларимиз ўз асарларида ҳикоя қилганлар. Соҳибқирон ҳазратларининг бунёдкорлик йўлида қилган ишлари унинг авлодларига анъана бўлиб қолди. Бу анъанадан буюк ватандошимиз Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳам четда қолмаган. Бобур вафотидан кейин қарийб беш аср вақт ўтишига қарамай, Бобуршоҳ ҳазратлари ва унинг авлодларидан қолган тарихий ва маданий мерос ҳанузгача жаҳон халқларини ҳайратга солиб келмоқда.

Бобур ҳазратларининг қадамлари етган жойда, албатта, битта из қолган. Шулардан бири Афғонистон пойтахти Кобул шаҳрида бунёд этилган ажойиб, таровати бетакрор боғ – “Боғи Бобур”дир.

Бобур Кобулга қадам ранжида қилар экан, бу ернинг об-ҳавоси, иқлими, бепоён яйловлари, шифобахш сувлари ул зотни ҳайратда қолдиргани “Бобурнома” асарида такрор-такрор қайд қилинган. Мазкур боғдаги етти иқлимдан келтирилган анвойи гуллар, мевали ва манзарали дарахтлар ҳанузгача пойтахт шаҳарнинг кўрки бўлиб ҳисобланади. Ҳозирги кунда “Боғи Бобур” сайилгоҳ бўлиб, давлат, жамоатчилик томонидан ўтказиладиган оммавий анжуманлар марказига айланган. Бобуршоҳ ҳаётлик даврида “Боғи Истолиб”, “Боғи Наврўзий”, “Бўстонсарой”, “Чорбоғ”, “Боғи Беҳиштий”, “Боғи Нур”, “Боғи Хилват” каби ажойиб, бетакрор боғларни бунёд этган[1, 4-5-б.]. Шуниси ажабланарлики, Кобулнинг иқлим шароитидан келиб чиқиб, бу боғларда анвойи гуллар, мевали ва манзарали дарахтлар қисман такрорланган бўлса-да, аммо айрим жиҳатлари билан кескин фарқ қилган. Яъни, боғларнинг бири аксарият мевали дарахтлардан ташкил топса, бошқаси анвойи гуллар билан безатилган. Шунингдек, бу боғларга Мовароуннаҳрдан Қувонинг туятиш анори, Бахмалнинг қирмизи олмаси, Конибодомнинг обиноввот ўриги, Олтиариқнинг ҳусайни узуми, Самарқанднинг анжири келтириб ўтқазилган. Бундай боғларнинг жумласига “Боғи Шаҳраро” (кейинчалик бу боғнинг номи бобурийзода Нуриддин Жаҳонгиршоҳ (1605–1625 й.) томонидан “Боғу илму Ганжа” – Ганж илми боғи деб ўзгартирилган), “Боғи Жиловхона”, “Ўртабоғ”, “Боғи Суръат”, “Боғи Моҳтоб”ларни мисол келтиришимиз мумкин. Афсуски, бу боғларнинг аксарияти ҳозирги кунда ёзма манбалардагина қолган [11, 103-104-б.].

“Боғи Бобур”нинг тоғ ён бағрига туташган шарқ тарафида, ул зотнинг фармонига мувофиқ, 1508 йилда “Тахти Бобур” кўшки қурилган бўлиб, у ердаги тарошланган тошларга қуйидаги жумла ўйиб ёзилган: “Тахтгоҳи олампаноҳ Заҳириддин Муҳаммад Бобур ибни

Умаршайх Кўрагон ҳалладуллойи мулки фис сана 887 ҳижрий” (Мазмуни: Заҳириддин Муҳаммад Бобур ибни Умаршайх Кўрагон олампаноҳ тахти мулки санаси 887 ҳижрий йил) [1, 104-б.].

Бундан ташқари, Кобулдаги “Балоисор” қасри ҳам Бобуршоҳ томонидан қурилган бўлиб, кейинчалик унинг ўғли Мирзо Комрон томонидан таъмирланган, ҳозирги кунгача унинг харобалари етиб келган, холос. Валиаҳд шаҳзода Жалолобод шаҳри ҳам шахсан Бобуршоҳнинг ташаббуси билан “Боғи Сафо” билан безатилган. Бобуршоҳ 1508 йилда валиаҳд фарзанд туғилиши шарафига Одинапур шаҳрида “Боғи Вафо” деб номланган боғни бунёд қилганлар. Бу боғдаги гуллар, мевали ва манзарали дарахтлар, асосан, Мовараунаҳрдан келтирилган бўлиб, ул зот бу ҳақда “она юртимни эслатиб турсин деб ният қилдим” деган эканлар. Бобуршоҳ ҳар галги сафари олдидан ана шу боғда зиёфатлар, ҳарбий ҳаракатларга тайёргарлик юзасидан машваратлар ўтказган. Бобуршоҳ 1506 йилда Кандахор шаҳрида “Чорбоғи Кандаҳори”, ундан сўнг шу манзилда “Боғи Чорбоғ” боғини бунёд қилганлар. Бу боғ Арганбоб дарёсининг қирғоғида жойлашган бўлиб, ҳанузгача гўзаллиги, таровати билан барчани ўзига маҳлиё қилиб келади.

Қандаҳор шаҳрида саксонта сангтарош тўққиз йил тошларга ишлов бериб, “Қирқ зина” ансамблини барпо этган. Бу тошларга Бобуршоҳ ва унинг зурриёдлари Мирзо Ҳумоюн, Мирзо Комрон, Мирзо Аскарий, Мирзо Ҳиндолларнинг исмлари ўйиб ёзилган. 1542 йили Акбаршоҳ таваллуд топиши билан, Мирзо Ҳумоюннинг амрига мувофиқ, унинг исми ҳам қўшиб ўйдирилган [12, 78-б.].

1598 йилда Акбаршоҳ бу тошларга қўшимча равишда ўз фарзандларининг исмларини ёздирган[13, 120-б.].

Бобур Кобулда умргузаронлик қилган давр шаҳарнинг сиёсий, ижтимоий-иқтисодий тараққиётида муҳим аҳамият касб этган. Афғонистоннинг атоқли олими Устод Али Аҳмади Кўҳзод «Балоисори Кобул ва унинг тарихий оқимлари» номли тарихий асарида Бобур ва Кобул шаҳри тўғрисида қуйидаги жумлани келтиради: “Кобулда Бобурнинг эзгу-ниятлари амалга ошди ва Кобулга меҳр-муҳаббати тушди, шу нуқтаи-назардан бу масканни обод, кўркам бўлишига ҳеч қандай меҳнат ва маблағларни аямади. Шунинг учун пойтахтни ва ўз қўли билан яратган боғни ҳеч қайси бир фарзандига мерос сифатида қолдирмади, шаҳар ва боғ абадий унинг тасарруфида эканлигини такрор-такрор та'кидлаб кетди” [7, 13-б.].

Ҳиндистоннинг Агра шаҳрида Бобур вафотидан олдин фарзандларига ўз ҳокини Кобулда, ўзи яратган боғда дафн этишни васият қилди. Бу унинг Кобулга бўлган ҳурмати, меҳр-муҳаббатини исботловчи далилларидан биридир. Бобуршоҳнинг жасадини валиаҳд амирзода Мирзо Ҳумоюн филлар карвонида Кобулга келтириб, ўзи васият қилган боққа дафн қилди. Мовароуннаҳрлик меъморлар Бобур қабрига сағана, устига кўшк айвон бунёд этишди. Мирзо Ҳумоюн Кобул дарёсидан боққа сув келтириш иншоотларини қурдириб, олампаноҳ ҳоки дафн этилган тепаликка сув чиқарди ва боғдаги дарахт, гулларни ўз оқими билан суғорилишига имкон яратди.

Бобур боғи ўз номи билан шу кунгача жаҳонга машҳур. Бобурнинг қабри бир неча марта таъмирланган. Биринчи даъфа Шоҳ Жаҳон буюк боболари дафн этилган сағана ва масжидни, боғни қайтадан таъмирлаб, сайёҳлар зиёрат қиладиган масканга айлантирган.

Бобурнинг бунёдкорлик фаолияти ҳам ҳудди Соҳибқирон Амир Темур каби фарзандларга меърос бўлиб қолди [6, 13-б.]. Амир Темурдан Заҳириддин Бобургача ва ундан кейин ҳам Ҳиндистонда шукуҳли кошоналар қурилди. Бобурий Шоҳжаҳон қурдирган Тож Маҳал бунинг тенгсиз далилидир [2, 38-б.].

Бобурийлар замонида Лал Қалъада шоҳлар оиласи таом ейдиган махсус ошхона бўлган. Таом тайёрлаш, дастурхонга тортиш ва истеъмол қилиш ўзига хос усулда амалга оширилганлиги ҳақида ҳам ажойиб маълумотлар бор. Бобуршоҳ ҳазратлари ва ул зотнинг зурриёдлари ҳиндларнинг урф-одатларига эҳтиром билан қараган ҳолда, маҳаллий халқ учун муқаддас бўлган қорамол гўшти ва бошқа ибодатга киритилган ўсимликлардан таом тайёрлашни таъқиқлаганлар, бу эса бобурийзодаларга нисбатан ҳинд халқининг ҳурматини оширган[4, 45-б.].

XV аср охири – XVI аср бошида Мовороуннаҳр ва Хуросонда темурийлар салтанати жаҳога кўз-кўз қиладиган меъморий обидалар бунёд этилди. Шубҳасиз, бу бунёдкорлик ўша даврда меъморчилик муҳандислигини, унга қизиқишини жуда юксакликка кўтарган эди. Мана шу ижтимоий-маданий уйғонишнинг тарихий, бадий адабиётга бевосита таъсири кучли бўлган. Хусусан, насрий асарларда қурилган, қурилиши лозим бўлган бинолар кенг тасвирланган. Бу маълумотлар манба сифатида фақат меъморлик тарихигагина алоқадор бўлмасдан, балки ҳар бир адибнинг мазкур соҳага қандай ёндашганини кўрсатиш билан ҳам муҳимдир. Масалан, Бобур ўз асарларида бинолар, ўзи яратган боғлар ҳақида ҳикоя қилар экан, мавзуга ўша даврнинг ҳокими – шоҳ нуқтаи назари билан ёндашади. Уни кўпроқ тикланажак иморатнинг баланд-пастлиги, жойлашган мавзеи, иморат қайси материалдан қурилгани. Атрофидаги боғларнинг тарихи, ҳатто дарахтлар, гул кўчатлари билан мувофиқ келиш-келмаслиги қизиқтирган. Хуллас, Бобур масалага юртбоши назари билан қараган ва шундай тасвирлаган. Алишер Навоийни эса, кўпинча қурилган бинонинг асл вазифаси қизиқтирган. “Бобурнома”да Ҳиндистон рожалари Ман Синг ва Бикрамажит иморатлари бадиий тасвирлангани диққатга лойиқ. Бобур кўпроқ Ҳиндистоннинг меъморлик услубига катта эътибор билан қарайди, бу иморатларнинг “ғариб” (ғазал)лигини таърифлаш билан бирга, ўз дидига ўтиришмаган томонлари – “бесиёқ” лигини таъкидлайди. Қолаверса, ҳинд усталари томонидан қўлланилган афзалликни (“бу иморатлар томом санги тарошидадиндур”) алоҳида таъкидлайди ва намуна сифатида Ман Синг иморати тасвирига ўтади [9, 115-б.].

Бу тасвир китобхон кўз ўнгида ёзувчи Бобурдан кўра, меъмор Бобурни кўпроқ эслатади. Иморатни тузилишидан ташқари, унинг қайси материалдан ишлангани, қаватларнинг ер сатҳидан баланд ёки қуйилиги, ҳинд услубидаги гумбазлар, кошинкорлик нозик дид билан таърифланади. Бобур Ман Синг иморатларида “гирдо-гирдини тамом кейла (банан) дарахтини кўрсатибтурлар” деб, Ҳиндистонда ўсадиган машҳур банан дарахтини расмини деворга солиш одат эканини алоҳида уқтиради [8]. “Мансингнинг ва бикрамажитнинг иморатларини тамом юриб, сайр қилдим, ғариб иморатлардур. Агарчи бўлук-бўлук ва беқиёсдир, бу иморатлар тамом санги тарошидадиндур. Барча рожалар иморатлариддин Ман Сингнинг иморатлари яхшироқ ва олийроқдур. Ман Синг иморатининг томининг бир зил шарқ соридур. Бу зилъни ўзга зилъларға боқа кўпрак такаллуф қилибтур, баландлиғи таҳминан қирқ-эллик қари бўлғай, тамом санги тарошидадиндур, юзини ганч била оқортибтурлар. Баъзи ерда тўрт табақа имораттур, икки қуюғи табақаси хейли қоронғидур, андак ёруғлуғи муддате ўлтурғондин сўнгра зоҳир бўладур…”. Бобур тасвирида муаллиф дунёқараши, фикр теранлиги намоён бўлади [3, 35-б.]. Ҳиндистон вилоятларидан бири – Чандерийни тасвирлар экан, иморат сифатлари орқали жамиятдаги турли табақага мансуб кишиларнинг мавқеини кўрсатади. Азалдан иморатлар, саройлар, йирик меъморий обидалар ўша давр ҳукмдори шуҳратининг белгиси бўлган. Шубҳасиз, Бобур яшаган ва ҳукмронлик қилган даврда ҳам бу масалага шундай қаралган, ҳатто бундай этибор ўзининг юксак даражасига чиқган ҳам эди. Шу жиҳатларни яхши билган Бобур бу ҳолат Ҳиндистон

учун ҳам ҳос эканлигини жуда усталик нбилан ифодалаган: “ Вазиъ ва шарифининг иморати тамом тошдин, улуғларнинг иморатлари такаллуф била тарошида тошқин қилибдурлар. Резапой элининг иморати ҳам тошдин, қояташ тарошида эмас, пўшиши сафол ўрниға тахта санглар била қилибдурлар” [5, 45-б.].

“Бобурнома” даги меъморчиликка оид тасвирлар зийрак нигоҳли ёзувчининг кузатишигина эмас, балки ўзи кўплаб иморатлар қурган, уларни тарҳини чизган моҳир меъмор мушоҳаларидир. Муаллиф Ман Синг иморатларининг ҳар бир деталига эътибор беради, уларни Моваройуннаҳр ва Хуросон меъморчилик обидалари билан солиштиради. Қиёсларда Бобурнинг ўз юртига меҳрини, ватанга садоқат ва муҳаббатини ҳам англаймиз. Бобур бу муҳташам иморатдаги асосий камчиликни (“агарчи ҳиндустоний такаллуфлар қилибтурлар вале беҳавороқ ерлардур”) кўрсатиб, ўз юртидаги пурсафо ва гўзал биноларни эслайди. Бобур Ман Синг иморатидан сўнг унинг ўғли Бикрамажит томонидан қурилган биноларни кўздан кечиради. Бу тасвирда танқидий руҳ хийла кучли ифодаланган. Унингча, энг асосий камчилик – иморат ичига ёруғлик тушмаслигидир [9, 115-б.].

Бобур ҳамиша ҳам меъморий обидаларнинг баландлиги, серҳашамлиги ҳайратга солмаган. У аввало, иморатнинг сиёқи мутаносиблигига аҳамят берган. Бунда иморатлар учун ишлатилган материаллар – қурилиш ашёларининг сифати, хили, қаердан олиниши, коннинг заҳираси, узоқ-яқинлиги ҳам уни қизиқтирганки, булар муаллиф тасвирида етакчи унсурлар ҳисобланади. Иморат учун ишлатилган тош, қум, ёғоч ва ғиштнинг рангги, пишиқлиги, қалинлиги, чидамлилиги, агар маҳаллий материал бўлса қаердан олинишигача (ёки узоқ ўлкалардан ташиб келтирилиши) зикр этилган [12, 96-б].

Хулоса сифатида шуни қайд қилиш мумкинки, Ҳиндистонда меъморчилик санъати жуда қадимий бўлиб, мусулмонларнинг бу юртга кириб келиши меъморчиликда ўзига хос янги, гўзал ва бетакрор йўналишларни юзага келтиради. Бу йўналишлар меъморчиликдаги фақатгина янги қонун-қоидаларни бирлаштирибгина қолмай, ислом оламидаги диний ва ижтимоий талабларни ҳам тўлиқ ўзида акс эттирган. Бобокалонимиз Заҳириддин Муҳаммад Бобур Ҳиндистон диёрида кўп яшамаган бўлсалар-да, Амир Темурнинг анъанасига содиқ қолган ҳолда бир қанча боғлар, иморатлар, кўприклар, жомеъ масжидлари ва ободончилик ишлари бўйича ҳам кўплаб ишларни амалгам оширган. Масалан, Агра, Секри, Дҳалпур, Гвалийў шаҳарлардаги Бобурнинг бунёдкорлик соҳасида қилган ишлари ҳозиргача инсониятни лол қолдириб келмоқда. Бобурга бунёдкорлик ишларини яратиш хислати, унга бобоси Соҳибқирон Амир Темурдан мерос бўлиб қолганди. Бу мерос энди Бобурнинг авлодларига ўтган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Abdullo Olim. Bunyodkor Bobur bog‘lari // Ma’rifat. – 2008-yil 27-dekabr. – № 7.
2. Азимжонова С. Гулбаданбегим. Ҳумоюннома. – Т., 1959.
3. Бобур З. М. Бобурнома. – Т.: Юлдузча, 1989.
4. Воҳидов Р. Биз билган ва билмаган Бобур. – Т.: Маънавият, 1999.
5. Иброҳимов А. Бобурнома – буюк асар. – Т.: Ғ. Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2000.
6. Низомиддинов Н. Ғ. Ҳиндистонда ислом: тарих, ижтимоий-сиёсий ҳаёт ва ҳинд-мусулмон маданияти. – Т.: ЎзРФА Давлат Адабиёт музейи, 2008.
7. Нуриддинов М. Бобурийлар сулоласи – Т.: Фан, 1994.
8. Petersen, Andrew (1996). *Dictionary of Islamic architecture*. Routledge. –P. 201. ISBN 0-415-06084-2. Retrieved 11 August 2009.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA Z.M.BOBUR HAQIDAGI ASARLARNI O‘RGANISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Qurbonova E.
UrDU magistri

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da yoshlarni jismonan baquvvat, ma’naviy jihatdan yuksak, aqliy jihatdan barkamol, ruhiy jihatdan qobiliyatli, zamonaviy ilm va kasb-hunarni mukammal egallagan, o‘zining shaxsiy fikriga ega vatanparvar, insonparvar va mehnatsevar shaxs qilib tarbiyalash ko‘zda tutilgan. Bunda boshlang‘ich ta’lim ham muhim o‘rin tutadi. Ma’lumki, boshlang‘ich ta’lim insonning bilim va tarbiya olishida poydevor vazifasini o‘taydi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarga Davlat ta’lim standartlariga mos bilim, ko‘nikma va malakalar berish, umumiy madaniyatni shakllantirish uchun uni jamiyat hayotiga moslashtirish, ularda mustaqil fikrlashni rivojlantirish, inson shaxsini har tomonlama tarbiyalash orqali ularda vatanparvarlik, mustaqillik va demokratiyaga sodiqlik hissini shakllantirish belgilab qo‘yilgan.

Ma’lumki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismio‘qish darslarida amalga oshiriladi. Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslari o‘z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko‘ra ta’lim tizimida alohida o‘rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta’limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta’limini o‘qish ta’limisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. O‘quvchi matnni to‘g‘ri, tez, tushunib o‘qish, mazmunini o‘zlashtirish bilan ilk bor o‘qish darslarida yuzlashadi. Aynan o‘qish ta’limida insonning, avvalo, o‘zligini, qolaversa olamni anglashga bo‘lgan intilishlariga turtki beriladi. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarini ilg‘or ta’lim texnologiyalaridan foydalanib tashkil etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan bo‘lib, bu darslarni qiziqarli va samarador bo‘lishini ta’minlaydi. Chunki ilg‘or ta’lim texnologiyalarining asosiy maqsadi o‘quv jarayonini faollashtirish, o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialini o‘zlashtirishning yuqori darajasiga erishish va ularni mustaqil fikrlashga hamda o‘z fikrini bayon etishga o‘rgatishdir.

Bugungi kunda ta’lim texnologiyalarini tushunishning asosiy yo‘li aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta’lim oluvchi bilan muntazam o‘zaro aloqani o‘rnatish, pedagogic texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta’lim oluvchining xatti-harakati orqali o‘qitishdir. O‘zaro aloqa pedagogic texnologiya asosini tashkil qilib, o‘quv jarayonini to‘liq qamrab olishi kerak.

Ta’lim texnologiyalarini qo‘llashda muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni tahsil oluvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish shuningdek, tahsil oluvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma hamda malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.
Ta’lim texnologiyalarini majburan qo‘llash orqali maqsadga erishib bo‘lmaydi. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo‘llanilayotgan ilg‘or texnologiyalardan foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo‘lishining

sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topish, mustaqil o‘rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishga o‘rgatadi.

Boshlang‘ich sinf “O‘qish kitobi” darsliklaridan o‘zbek xalqi tarixida katta o‘rin tutadigan buyuk ajdodlarimiz haqidagi bir qator asarlar ham o‘rin olganki, bular boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi dunyo fani va ma’rifatiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shgan allomalar, buyuk shaxslar haqida ma’lumot beradi. Ana shunday buyuk insoonlardan biri Zahiriddin Muhammad Boburdir.

Boshlang‘ich sinf “O‘qish kitobi” darsliklaridan Zahiriddin Muhammad Bobur haqidagi bir qator asarlar o‘rin olgan. Jumladan, “Shoh va shoir” ilmiy-ommabop maqolasi va G‘.Komilovning “Ona sabog‘i” hikoyasi (1-sinf); G.H.Pantning “Boburning fazilatlari” ilmiy-ommabop maqolasi(2-sinf); “Bobur va kabutar” rivoyati; X.Sultonning “Zahiriddin Muhammad Bobur” va Mirzo Karimning “Sayilda”, P.Qodirovning “Bobur va Humoyun” hikoyasi (3-sinf); Bu berilgan hikoya, rivoyat va matnlarning har biri qaysidir jihati bilan Boburning insoniy fazilatlarini ko‘rsatishga, uning o‘zligi haqida o‘quvchilarda tasavvur uyg‘otishga yordam beradi. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida Bobur haqidagi asarlarni o‘rganishda ham o‘quvchilarning hikoyani chuqur o‘rganishlarini, uni tahlil qila olishlarini ta’minlash kerakligini hisobga olgan holda metod tanlashga e’tibor qaratiladi. Bunda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Shu bois yuqoridagi asarlarni o‘rganish darslarida “Klaster”, “Aqliy hujum”, Venn diagrammasi”, :Dumaloq stol”, “Esse”, “T-sxema” kabi turli metodlarni o‘rni bilan qo‘llash darsning samaradorligini oshirish omili bo‘ladi desak, yangilishmaymiz.

Xususan, 4-sinfda P.Qodirovning “Bobur va Humoyun” hikoyasi o‘qilayotganda o‘quvchilarga Bobur haqida oldingi sinflarda olgan bilimlarni Klaster shaklida ko‘rsatish taklif qilinadi. Bu esa o‘quvchilarning Bobur haqidagi tushunchasini aniqlashga va uni yanada kengaytirishga yordam beradi.

“Ikki qismli kundalik” metodi esa hikoya o‘qish darsining yangi mavzu o‘rganilayotgan qismida yoki uni mustahkamlashda foydalaniladi. Bu metod bilan ishlash asosan yozma shaklda amalga oshiriladi. Bunda o‘quvchi o‘zining konspekt daftarini ikki qismga ajaratadi.

Yangi o‘rganilgan tushuncha, ta’rif yoki izohlar daftarning birinchi tomoniga yoziladi. Ikkinchi tomoniga esa har bir o‘quvchi berilgan ta’rifdan kelib chiqib, o‘z ta’rifini bir necha variantda yozishi kerak bo‘ladi. Masalan:

Berilgan ta’rif	O‘quvchining ta’rifi
Fidokor ota	O‘g‘lini juda yaxshi ko‘radi O‘g‘li uchun jonini fido qilishga ham tayyor

Bu metod o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini shakllantiradi hamda ularda o‘z fikrini izchillik bilan ifodalash ko‘nikmasini hosil qiladi.

“Aqliy hujum” metodi o‘quvchilarning hikoya mazmuni xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, shuningdek, o‘z tasavvurlaridan ijobiy foydalanish borasida ma’lum ko‘nikma hamda malakalarni hosil qilishga undaydi.

Ushbu metod yordamida Bobur haqidagi hikoyalarning mazmunini o‘zlashtirishni bilib olish imkoniyati tug‘iladi. Masalan, “Hidi, tilimi va mazasidan” rivoyatini o‘qitishda “Aqliy hujum” metodidan foydalanish mumkin:

Bog‘bon nima uchun Bobur shohni aldashga jur’at qildi?

Shoh aldanganini kechiradi deb o‘ylaysizmi?

Nima uchun Bobur o‘zini aldagan bog‘bonni jazolamay, aksincha taqdirladi?

Darsda o‘quvchilarni berilgan savollar doirasida keng fikr yuritishga undash, ular tomonidan kutilmagan mantiqiy fikrlarning bildirilishiga erishish muhim sanaladi.

Ko‘rinadiki, Bobur haqidagi asarlarni o‘rganish darslarida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning buyuk ajdodimiz haqidagi bilimlarni yanada kengaytirishga, dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o‘quvchilarning ijodiy, mustaqil va mantiqiy fikrlashini shakllantirishga erishish vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlari (Ona tili, o‘qish, matematika, atrofimizdagi olam va tabiatshunoslik) (1-4 sinflar).-Toshkent. 2017

2. Azizxo‘jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.- Toshkent. O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.

3. Qosimova K.va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T. Nosir, 2009 Boshlang‘ich sinf “O‘qish kitobi” darsliklari

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR HAYOTI VA MEROSINI O‘RGANISH

Buxorova U., Xoliqulov A.
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy Universiteti talabalari

> Bobur – dilkash shaxs. Uyg‘onish davri hukmdorlarining haqiqiy namunasi. U mard va tadbikor odam bo‘lgan.
>
> **Javoharlal Neru**

O‘zbekiston. Tuprog‘ida „oltin“ unayotgan, qishlarida bahor “shivirlayotgan”, beg‘ubor osmonida oppoq kabutarlar erkin parvoz qilayotgan betakror zamin. Qanchadan qancha buyuk daholarni ulg‘aytirgan, voyaga yetkazgan muqaddas dargoh. Mana shunday daholardan biri – Zahiriddin Muhammad Boburdir. U o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, buyuk shoir, tarixchi, geograf bo‘lish bilan birga atoqli davlat arbobi, iste’dodli sarkarda hamdir. Dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan „Bobur“ („Sher“) laqabini oladi.

Bobur tabiatan ijodkor edi. Yigitlik yillaridan boshlab to umrining oxirigacha samarali ijodiy ish bilan shug‘ullandi, har qanday sharoit va vaziyatlarda ham ijoddan to‘xtamadi, natijada, har jihatdan muhim boy ilmiy va adabiy meros qoldirdi. Ingliz tarixchisi Eduard Holden mutafakkirni “lashkarboshi, arbob va adabiyotchi sifatida Sezar bilan bir qatorda qo‘yilsa, jozibador xarakteriga ko‘ra Rim hukmdoridan ham yuqori turuvchi insondir“ deb ta’riflaydi.[56] Afg‘onistonu Hindistonda tartib berilgan she’riy devonlar, to‘plamlar, “Boburnoma”, “Aruz risolasi”, “Xatti Boburiy”, “Risolayi Volidiya”, “Mubayyin”, musiqa va harbga doir risolalar o‘ttiz olti yilga yaqin umrini davlat va taxt tashvishlari bilan o‘tkazgan mo‘jizaviy inson qalamining tuhfalaridir. Bobur ijodida,

[56] Mashrabov Z, Shokarimov S. Asrlarni bo‘ylagan Bobur. Toshkent: Yozuvchi – 1997.

xususan, she'riyatida kindik qoni to‘kilgan ona yurtini dil-dildan qumsash, uning tuprog‘iga talpinish, g‘ariblik azoblaridan o‘tli hasrat, yor-u diydor sog‘inchi va visol ilinji, taqdir zarbalari va turmush uqubatlari, zamona nosozliklaridan nola badiiy tahlil etiladi. Bobur ijodida ishq-muhabbat, sevgi-sadoqat, visol va hijron mavzui ham salmoqli o‘rin tutadi. Uning g‘azal va ruboiylarida, tuyuq va masnaviylarida ma'shuqaning maftunkor go‘zalligi, beqiyos husnu latofati, sharqona odob-u axloqi, nozu karashmasi yengil va o‘ynoqi, musiqiy va ravon misralarda katta mahorat bilan tarannum etiladi.

Hozirda uning 119 g‘azali, bir masnu she'ri, 209 ruboiysi, 10 dan ortiq tuyuq va qit'alari, 50 dan ortiq muammo va 60 dan ortiq fardlari aniqlangan. Devoni tarkibida umumiy hajmi 270 baytdan iborat 8 masnaviy ham o‘rin olgan.[57] Bobur qalamiga mansub asarlarning qo‘lyozma nusxalari Fransiya , Turkiya, Hindiston, Eron kabi mamlakatlar kitob fondlarida saqlanmoqda va ularning faksimile turli davrlarda zahmatkash olimlarimiz tomonida yurtimizga keltirilgan. Mirzo Bobur jahon adabiyoti memuar janrining nodir namunasi hisoblangan „Boburnoma“ qomusiy asarinining muallifidir. „Boburnoma“ – eski o‘zbek tilida yartilgan nodir manba. Ushbu memuar asar ijtimoiy hayotning barcha sohalariga oid ma'lumotlar jamlangan qomusiy manba sifatida o‘ziga xos qiymatga ega. „Boburnoma“ XV asr o‘zbek badiiy nasrining yorqin namunasi sifatida sof badiiy lavhalar, jonli tasvirlar, an'anaviy lirik chekinishlarga boy. Nasriy matn ichida keltirilgan xalq maqol-matallari, iboralari, ibratli o‘gitlar, she'riy parchalar uning badiiyligini yanada oshiradi, o‘ziga ham joziba bag‘ishlaydi. Ushbu asar to‘rt marta fors tiliga, to‘rt marta to‘liq ingliz tiliga, ikki marta fransuz tiliga, yana nemis, yapon, turk, urdu, hindiy va boshqa tillarga tarjima qilingan.[58] Mirzo Boburning asarlari nafaqat adabiyotshunoslikda, balki o‘zbek tilining taraqqiyotida ham beqiyos manba hisoblanadi. Birgina „Boburnoma“ asarining o‘zi XV asr o‘zbek tili qay tarzda tarannum etilganligining yaqqol ko‘zgusidir. Asar tilining o‘ziga xosligi va okkozional so‘zlarning keng qo‘llanilishi muallifning kashfiyotidir.

Zahiriddin Muhammad Boburning „Mubayyin“ asari islom dinining asoslarini bayon qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda diniy masalalar tafsilotigacha chuqur bilimdonlik va yuksak badiiy mahorat bilan ifodasini topgan. Muallif „Mubayyin“ asarining qurumi va shakliga alohida e'tibor bergan.[59] Odatda islom dini asoslariga bag‘ishlangan asarlarning aksariyati arab va fors-tojik tillarida yaratilib kelingan. „Mubayyin“ esa, o‘zbek tilida yaratilgan e'tiborli asardir. U o‘zbek tilining shirasi va boyligini to‘laligicha aks ettiradigan diniy va badiiy adabiyotning yorqin namunasi hamdir. Boburning ulkan san'atkorligi shundaki, shaxsiy kechinmalarini jiddiy umumlashma mavqeiga ko‘tara oldi va natijada asarlarida olg‘a surilgan g‘oyalar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko‘tarildi. Ushbu asar fiqh qoidalarini barchaga tushuntirish maqsadida yozilganini asardagi xitoblardan ham bilish mumkin. Bobur o‘rni kelganda olimlarga ham murojaat qilib, ushbu asarni din yo‘lidagi bir manba ekanini ta'kidlaydi. Qolaversa, asar nafaqat turkiy xalqlarga, balki arab-fors millatlariga ham yetib borishini istaydi.[60] Boburning yuqorida keltirilgan asarlaridan tashqari, „Xatti Boburiy“ nomli risolasida muallif arab alifbosi yozuvini soddalashtirish va osonlashtirish maqsadida uni turkiy til va talaffuz mezonlariga moslashtirgan.

Boburni anglashda bobur shunos olimlarning u haqida qilgan tadqiqot ishlari hamda bildirgan fikrlari biz uchun katta ahamiyatga ega. Sharq she'riyatining yuksak fazilatlarini o‘zida mujassamlashtirgan zabardast shoirning shaxsiyatini anglashda Fuod Kupruluzoda, Beverij, Bartold, A. Belinskiy, Y. G‘ulomov, H. Yoqubov, V. Zohidov, H. Sulaymon, S. Azimjonova, A.

[57] Buyuk ajdodlarimiz, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti: Toshkent – 2010
[58] O‘sha kitob, 204-bet.
[59] Saidbek Hasanov, Fiqhshunos olim. Sharq yulduzi: 1-son – 1993-yil.
[60] Shuhrat Hayitov, Islom nuri gazetasi. 5-son – 2019.

Qayumov, S. Jamolov, S. Hasanov, V. Rahmonov, H. Qudratullayev, N. Otajonov kabi olimlarning xizmatlari benihoya kattadir.[61]

Yuqoridagi fikrlardan ma'lum bo'ladiki, turkiy xalqlar adabiyotida Bobur hayoti va ijodining o'rganilishi bobur shunoslik ilmida muhim o'rinni egallaydi. Amalga oshirilgan tadqiqotlarda har tomonlama yondashish amaliyoti kuzatiladi. Bu kabi ishlar kelgusida tadqiqotlarda katta ahamiyat kasb etadi, albatta. Nazarimda, bugungi kunda Bobur Mirzo ijodi yuzasidan qilingan bu kabi ishlarni bir tizimga solib tahlil va tavsif etish bobur shunoslik ilmidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Mirzo Boburning asarlari nafaqat adabiyotshunoslikda, balki o'zbek tilining taraqqiyotida ham beqiyos manba hisoblanadi. Birgina „Boburnoma" asarining o'zi XV asr o'zbek tili qay tarzda tarannum etilganligining yaqqol ko'zgusidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mashrabov Z, Shokarimov S. Asrlarni bo'ylagan Bobur. Toshkent: Yozuvchi – 1997.
2. Buyuk ajdodlarimiz, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti: Toshkent – 2010
3. Saidbek Hasanov, Fiqhshunos olim. Sharq yulduzi: 1-son – 1993-yil.
4. Shuhrat Hayitov, Islom nuri gazetasi. 5-son – 2019.
5. Shuhrat Hayitov, Bobur ijodining dunyoviy talqini yohud "Sezardan ustun turuvchi shaxs" (O'zbek filologiyasiga oid tadqiqotlar ilmiy to'plamidan)

BOBURIYLAR DAVLATI KUTUBXONALARNING TASHKIL ETILISHIGA DOIR

Mirzayev Z.M.
Qarshi davlat universiteti "Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish" yo'nalishi talabasi

Boburiylar davlatida kutubxonachilik faoliyati madaniy hayotining ajralmas qismi sanalgan. Bobur va boburiylar davlatida kitobat san'ati ham yuksak darajada rivojlangan [2, 264].

Bobur Andijonda - Farg'onada ekanidayoq maxsus kutubxona tashkil qilishni orzu qilgan. Buni eng ishonchli ingliz tadqiqotchisi Vilyam Erskin ham ta'kidlaydi. U Bobur va boburiylar sulolasining Hindiston tarixi, uning davlat tuzumi hamda Hindiston yarim orolidagi madaniy hayotning shakllanishida tutgan o'rni haqida oqilona va odilona xulosalarni bayon qilgan beg'araz mutaxassislardan biridir [3, 3]. Lekin uning janggu jadallar bilan to'la hayot tashvishlari bu ezgu orzuning ro'yobga chiqishiga o'z davrida imkon bermadi. U butun safarlari davomida, jangu jadallar vaqtida ham ko'plab kitoblarni o'zi bilan olib yurgan .

Nihoyat, Bobur Hindistonning Amristar shahriga kelishi bilanoq, vaqtincha bo'lsa ham hayot tashvishlarilan bir oz nafasni rostlab, dastlabki kutubxona yaratish ishiga kirishdi va aholidan turli kitoblar sotib olishni tashkil qildi.

Hindiston shaharlari bo'ylab maxsus jarchilar orqali kitoblar sotib olish haqida e'lon qildirdi. Bobur amriga binoan, Amristarda kutubxona uchun birinchi marta maxsus bino qurildi. Sharq tarixida o'sha damgacha kutubxona uchun bino qurilgani ma'lum emas edi. Boburgacha o'tgan podshohlar o'z saroylarida ma'lum xonani kutubxona uchun moslashtirganlar, xolos. Keyinchalik, Amritsardan Dehliga ko'chilgach, ushbu poytaxt shaharda ham kutubxona uchun Bobur maxsus

[61] Shuhrat Hayitov, Bobur ijodining dunyoviy talqini yohud "Sezardan ustun turuvchi shaxs" (O'zbek filologiyasiga oid tadqiqotlar ilmiy to'plamidan)

imorat qurdirdi. Bu yangi binoda kutubxona tashkil qilish ishlariga ko‘plab miqdorda oltin sarflangan va bu ishlarni tashkil qilishni sevimli ahliyalaridan Navbahor begimga topshirgan.

Erskin ta’biricha, ushbu fozila ayolni jahondagi ayollardan chiqqan dastlabki kutubxona mudiri deb hisoblamoq kerak. Zero, o‘sha davrgacha garchi kutubxonalar tashkil qilingan bo‘lsa ham ularda bironta maxsus mudirlik lavozimi bo‘lmagan. Boburning Dehli va Amristarda tashkil qildirgan kutubxonasidagi barcha to‘plangan kitoblar ilmiy yo‘nalishi va tili jihatidan maxsus javonlarga joylashtirilgan. Har bir tildagi kitoblar o‘z navbatida fanlar bo‘yicha ajratilib, maxsus joylarga terilgan. Vilyam Erskinning xabar berishicha, kutubxonada katta bir ro‘yxat – daftar bo‘lib, jami kitoblar unga alifbo tartibida qayd etilgan. Ushbu ro‘yxat shunday tuzilganki, ma’lum tildagi va fanning biror sohasiga doir kitobni tezlik bilan topish imkoniyati yaratilgan. Bunday tartib Sharqning o‘rta asr kutubxonachiligi tajribasida yangilik edi.

Yana bir yangilik shundan iborat bo‘ldiki, kitoblar tili va fan sohasi bo‘yicha joylashtirilishidan tashqari yana ensiklopedik jihatdan ham alohida ro‘yxat tuzilgan edi. Masalan, Iskandar, yoki Buqrot (Gippokrat) nomlari zikr qilingan kitoblarni izlagan kishi uni tezlik bilan topa oladigan bo‘lgan [3, 3].

Dehli kutubxonasida Bobur yaratgan yangiliklardan yana biri – maxsus tarjima bo‘limining tashkil qilingani edi. Humoyun Mirzo davridan boshlab ilmiy kitoblar tarjimasiga katta e’tibor berildi.

Ayniqsa, Akbar, Jahongir, Shoh Jahon va Avrangzeblar davrida Bobur yaratgan kutubxonaning tarjima bo‘limi shunday kengaydiki, ko‘zga ko‘ringan turli soha olimlaridan mingga yaqin kishi maxsus davlat topshirig‘i bo‘yicha ilmiy asarlar tarjimasi bilan shug‘ullangan. Ularga muttasil ravishda davlatdan maosh to‘lab turilgan. Keyinchalik, Dehlida Bobur asos solgan kutubxona “Hindiston saltanati kutubxonasi” deb atalib, dunyodagi eng yirik kutubxonalardan biri deb hisoblangan.

Ming afsuski, boburiylar sulolasining hukmronligi tugatilib, Hindiston Buyuk Britaniya mustamlakasiga aylangach, “Hindiston saltanati kutubxonasi” talon-taroj qilindi, eng ko‘p qismi Londonga tashib ketildi.

Ilgari Bobur kutubxonasida saqlangan bir necha yuz jild kitob hozir Hindistonning Patna shahridagi “Xudobaxsh” nomli xususiy kutubxonada saqlanadi. Bu yerdagi noyob kitoblardan biri Hindistonda o‘tgan mashhur xattot Mir Ali tomonidan ko‘chirilgan “Yusuf va Zulayxo” kitobi bo‘lib, uning bugungi bahosi 100 ming Angliya funt sterlingiga tengdir. Yana bir noyob asar Shayx Muslihiddin Sa’diyning mashhur “Guliston”i bo‘lib, bu - muallif dastxati bor nusxadir, shuning uchun ham jahonda eng qimmatbaho kitoblardan sanaladi.

Bobur zurriyotlaridan bo‘lgan sultonlar va hukmdorlarning barchasi ilm-fan, adabiyot, she’riyat va musiqa shaydolari bo‘lishgan. Shuning uchun bobosi asos solgan kutubxonani o‘z navbatida turli fanlarga ajratib, sharq falsafasi va ta’limiga, shuningdek, she’riyatga bag‘ishlangan kitoblar bilan boyitishgan. Boburiylar sulolasi davrida ilm-fanning rivojiga bunchalik katta e’tibor berilishi bizning zamonamiz nuqtai nazaridan go‘yo afsonaga o‘xshab ketadi. Boburiylar imperiyasining butun jahon miqyosida mashhur bo‘lganiga sabablardan biri ham kutubxonachilik ishlarining yaxshi yo‘lga qo‘yilganligidir[1, 84].[62]. Ma’lumki, o‘tgan asrlarda umuman Sharqda hozirgi tushunchadagi kitob chop etish urf emas edi. Barcha kitoblar qo’lyozmalardan iborat bo‘lib, ko‘p nusxada san’atkorona ko‘chirilar, oralariga turli tasvirlar chizish, rangli bezaklar berish keng tarqalgan edi. Bu ishlarning barchasi qo‘lda bajarilardi. Shuning uchun bu ishlarga ko‘p vaqt va mehnat sarflanar, bunday qo‘lyozma kitoblarning narxlari ham qimmat bo‘lar eli. Bobur qayerda

[62]Жалилов, С. Бобур ҳақида ўйлар. Т.: “Шарқ”, 2006. – Б.84.

o‘shanday tasvirli va bezakli ilmiy qo‘lyozma kitob ko‘rsa va bu haqida eshitsa, har qancha qimmat bo‘lsa ham uni sotib olgan va shu tarzda o‘z kutubxonasini muttasil ravishda boyitgan.

Masalan, Bobur hayotlik chog‘ida Firdavsiyning tasvirli ishlangan mashhur “Shohnoma” asaridan o‘n ikkita nusxasini oltinga sotib olgan va kutubxonasiga keltirgan. Keyingi boburiylar davrida ham “Shohnoma”ning noyob nusxalari to‘planib, ular adadi 70 taga yetgan. Firdavsiy asarining eng ko‘p nusxasi jahon bo‘yicha Bobur kutubxonasida saqlanar edi.

Boburdan so‘ng taxtga o‘ltirgan Humoyun Mirzo otasning kutubxonasini ancha boyitgan. U Sharqqa mashhur miniatyurachi va naqqosh Kamoliddin Behzoddan “Tarixi Temuriy” va “Riyoz ul adviya” kitoblariga surat ishlab berishini so‘rab kitoblarni Xurosonga yuborgan. Humoyun Mirzo, xususan, geografiya va ilmi nujum (astronomiya) fanlariga qiziqardi. Shuning uchun o‘sha sohaga oid kitoblarni, har qancha qimmat bo‘lsa ham albatta sotib olardi.

Bobur kutubxonasi ayniqsa, Akbarshoh davrida yanada boyidi. Xususan uning tarjima bo‘limi ancha kengaydi. Akbarshoh davrida kutubxonada ishlash uchun o‘zga yurtlardan ko‘plab olimlar taklif qilindi. Akbarshoh kutubxona yoniga musofir donishmandlar istiqomat qilishi uchun maxsus mehmonxona soldirgan. Kutubxona dovrug‘i uning davrida atrofga shunchalik yoyildiki, hatto Misrdan ham olimlar ilmiy safarga kelishgan. Vaholangki, Misr u davrda jahondagi ilmiy markazlardan hisoblanar edi. Akbarshoh davrida davlatning markaziy kutubxonasiga Inoyatillo Sheroziy degan shaxs mudir etib tayinlanadi. Kutubxonada ishlash uchun kelgan barcha [1, 85] mehmonlarni boshqarish ham uning vazifasiga kirardi. Shuning uchun Inoyatillo Sheroziy ixtiyoriga ko‘plab xizmatchilar, mulozimlar, kotiblar biriktirilgan edi.

Akbarshoh qo‘l urgan ikkinchi yangi ish - Bobur asos solgan saltanat kutubxonasidagi kitoblardan ko‘plab nusxalar ko‘chirtirish, ya’ni qo‘lyozma kitoblar adadini ko‘paytirish bo‘ldi. Ingliz tadqiqotchilarining tekshirishlariga qaraganda, Bobur asos solgan davlat kutubxonasida Akbarshoh davrida 52 ming nomda kitob to‘plangan bo‘lib, ularning umumiy adadi 400 ming jilddan ortiq bo‘lgan. Bu - o‘sha davr uchun hazilakam boylik emas edi.

Akbardan so‘ng Jahongir davrida kutubxona yana ham kengayadi. Jahongir Boburiylar orasida birinchi bo‘lib Yevropa tillarini o‘rgandi. Shu sababli u davlat kutubxonasini G‘arbiy Yevropa tillarida bitilgan kitoblar hisobiga ham boyitadi. Yevropacha kitoblar uchun alohida bo‘lim ochiladi. Shuningdek, u mashhur olim Hamaxshariyning Qur’oni Karim tafsirini ikki ming tilloga sotib oladi. (U hozir Xudobaxsh kutubxonasida saqlanadi.) Jahongir birinchi marta kutubxonada suratlar galereyasini tashkil qildirdi va buning uchun kutubxona yoniga yangi bino qurdirdi.

Xulosa qilib aytganda Boburiylar davlatida kutubxonalar samarali faoliyat yuritsalar-da, XVII-XVIII asrlardan Boburiylar saltanatida bo‘hron (inqiroz) alomatlari boshlanib, bu holat ma’naviyatda ham o‘z aksini topdi. Mamlakat inglizlar qo‘liga o‘tgach esa, saltanat kutubxonasidan ham baraka ketdi - ilmiy asarlar har tomonga, eng avvalo Angliyaga olib ketildi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Жалилов, С. Бобур ҳақида ўйлар. Т.: “Шарқ”, 2006. – 116 Б.
2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. Бош муҳаррир: А.Аъзамов. – Т.: “Sharq”, 2017. – 688 б.
3. Улиям Эрксин. Бобур Ҳиндистонда. Т.: “Чўлпон”. 1995. 128 б.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR HAYOTI VA IJODI

Ўткиров А.Ф.
Тошкент давлат педагогика университети Тарих факултети талабаси

Buyuk o‘zbek shoiri, mutafakkir, tarixchi va davlat arbobi: Boburiylar sulolasi va imperiyasining asoschisi - Bobur Mirzo Andijon shahrida tug‘ilgan (14-fevral 1483-yil), Farg‘onaning hukmdori Umarshayx Mirzoning o‘g‘li, Amir Temurning chevarasi edi. Bobur 1494-yilda Farg‘onaning hukmdori bo‘lib, 1526-yilda Hindistonda boburiylarning markazlashgan davlatiga asos soladi va bu davlat inglizlar fathigacha mavjud bo‘lgan. Uning o‘zi 1530-yil 26-dekabr Agra shahrida vafot etadi.

Samarqandni boy bergan Boburni taqdir oxir-oqibat Afg‘onistonga olib keldi, keyin esa katta tropik issiqlikdan hind qit'asi uni qaynab turgan bug‘ qozoniga o‘xshatdi. Bu yerda Farg‘ona, O‘sh, Qobul va Samarqand kabi hamma narsa boshqacha edi. U Hindistonni mag‘lub etib, u yerda yashashi, keyin u yaratgan imperiyaning hukmronligini merosxo‘rlarga topshirishi kerak edi. Bobur Hindistonning turli xalqlarini birlashtirdi, odamlar uchun og‘ir yuk bo‘lgan soliqlarni bekor qildi. "Mamlakat bo‘ylab sultonlarning qoldiqlari bo‘lgan va shariat qoidalariga kiritilmagan soliq chegarasiga ko‘tarilgan soliq bekor qilindi. Farmonga ko‘ra, har qanday shaharda, qishloqda, yo‘lda, ko‘chada hech qanday soliq to‘lanmaydi. Ushbu farmonga o‘zgartirishlar kiritmang: kim, bu haqda bilib, o‘zgarish qilsa, jazodan qocha olmaydi»[1, 468]. Bobur insonparvarlik va bag‘rikenglik siyosatiga tayangan holda o‘zining asosiy maqsadi – "markazlashgan yagona va obod davlat barpo etish" ni amalga oshirishga muvaffaq bo‘ldi [2, 8]. Amir Temur imperiyasidan farqli o‘laroq, Boburiylar imperiyasi 300 yil davom etdi, bu esa obodonlashtirish, sug‘orish tizimlarini yaratish, yo‘llar qurish, karvonsaroylar va boshqalar bilan birga mahalliy aholiga nisbatan hokimiyatning milliy-diniy munosabatlarda bag‘rikenglik siyosatini yuritdi. Shuning uchun hind xalqi Boburning yagona Hindiston davlatini shakllantirishga qo‘shgan hissasini minnatdorlik bilan eslaydi. Uning shaxsiyatiga nisbatan bunday munosabatning yorqin namunasi - Hindistonning birinchi bosh vaziri Javaharlal Neru, 88-sonli maktubida murojaat qilgan: "... Bobur faqat mavjud bo‘lgan eng madaniy va maftunkor insonlardan biri edi. U mazhablararo cheklovlardan va diniy fanatizmdan ozod edi va uning ota-bobolari singari adolatli bo‘ldi". Neruning fikriga ko‘ra, Bobur Hindistonda bo‘lganidan keyin katta o‘zgarishlar yuz berdi, san'at va arxitektura bilan boyitilgan hayotni yaxshilaydigan yangi islohotlar amalga oshirildi.

Boburning she'riy merosi ko‘p qirrali va boydir. Lirik asarlar "Qobul devoni" (1519), so‘ngra "Hind devoni" (1529-30) da to‘plangan. U Sharqiy lirikaning 10 xil janridan ko‘proq she'r yozgan. Uning she'rlarida shaxsiy hayoti, atrof-muhit va tarixiy voqealar aks ettirilgan. Bobur she'riyatining asosini - sevgi va lirik mazmundagi she'rlar tashkil etadi. Shoirning mahorati asl adabiy uslub va turk tilining eng ta'sirchan vositalaridan mohirona foydalanish bilan ifodalanadi. Boburnoma fors (1586), golland (1705), ingliz (1826), frantsuz (1871), turk (1940), rus (1942) tillariga tarjima qilingan. Bobur o‘z vatani haqida o‘ylashni to‘xtata olmaydi, Afg‘oniston va Hindistonni bosib olgach ham, umrining oxirigacha o‘z xohish-istaklarini yashirmasdan, yana va yana ularga qaytdi. Mashhur "Boburnoma" ga qaraganda, Boburning xotiralari, bolaligidan boshlab, uning uchun bu joylar yer yuzidagi go‘zallikning o‘lchovi bo‘lib qoldi, u bilan Hirotdan Hindistonning Janubiy uchigacha bo‘lgan ulkan imperiyasiga kirgan davlatlarni taqqoslab, Farg‘onani bir parchasiga ham arzimaydiganligini ko‘p bora ta’kidlab o‘tadi.

Din - bu davlat siyosatining bir qismi. Bobur aqlli qo‘mondon edi, yechimlarni topib, boshqa odamlarga ularning urf-odatlar orqali "yaqin" bo‘lgan. Bobur dinga nisbatan juda nozik edi, u

sunniy yo‘nalishi a’zosi edi. "Mubayyin" to‘plamida, u o‘sha davrdagi barcha diniy urf-odatlar va qoidalarni tasvirlab berdi. "Mubayyin" diniy-falsafiy asari 1521-yilda yozilgan bo‘lib, unda Islom shariatining 5 ta asoslari bayon etilgan. Uning "Harb ishi" ("Harbiy ish"), "Musiqa ilmi" ("Musiqa fani") kabi boshlang‘ich kasblari hali ham topilmagan. Bobur Arab grafikasi asosida "Xatti Boburiy "("Bobur maktubi") ni tuzgan, Qur'onni turkiy fonetikaga mos alifbosini yozgan.

Hindiston davlat arboblari va olimlari J. Nehru, M. Gandi, A.K Singx, B.A.Lunia va boshqalar Bobur va boburiylarning madaniyatli dunyo tarixida tutgan o‘rni va ahamiyatini ko‘p marotaba ta’kidlashgan. Bobur nafaqat davlat arbobi va mohir sarkarda edi, shuningdek, buyuk shoir, yozuvchi, tarixchi va olim. Mashhur Hindiston xalqining davlat arbobi J.Neru 1955-yilda tarjima qilingan "Hindiston kashfiyoti" kitobida shunday deb yozgan edi: "... Bobur go‘zal ruhga ega bo‘lgan odam edi, Uyg‘onish davrining odatiy vakili, jasur va tadbirkor odam, u hayotdan va adabiyotdan zavqlanib yashashni yaxshi ko‘rardi » [3, 272].

Bobur hayoti va ijodi dunyo olimlarini ham qiziqtrib qo‘ygan, ular mahalliy olimlar kabi tadqiqotlar olib borishmoqda. Masalan, U.Erskin, L.M.Puul, S.M.Edvards, A.Beveriz, X. Beveriz, R. M. Kaldekot, Ch.Stori, E. Holden, L.U. King**.** "U eng buyuk emas, balki boshqa barcha Sharqiy bosqinchilarga qaraganda ko‘proq inson edi... [u kim aniq yozmaydi] va u boshqa yo‘llar bilan u haqida o‘ylamasligi kerak odamlar, biz bu saxovatli va do‘stona gigantga chuqur xayrixohlik bilan munosabatda bo‘lgandan keyin uni boshqacha o‘ylay olmaymiz...", deb yozadi Boburshnos ingliz tadqiqotchisi V. Morland o‘zining "Musulmon Hindiston agrar tizimi" kitobida. Bobur o‘z davrining buyuk siyosiy va madaniy arbobi bo‘lib, bugungi kunda biz Osiyo madaniyatining xazinalariga teng deyishimiz mumkin.

Ingliz olimi Elfiniston "Boburnoma"ning umumiy mazmuni va undagi voqealar haqida shunday yozadi: "Xotiralar buyuk turkiy shohning hayotini tasvirlaydi, uning shaxsiy his-tuyg‘ulari har qanday mubolag‘asizlikdan ozoddir, uning uslubi sodda va jasur, yorqin va majoziy, zamondoshlarining qarashlari, intilishlari va harakatlarini yorqin aks ettiradi. Shu nuqtai nazardan, u faqat haqiqiy Osiyo tarixiy xarakteridir. Bobur har bir insonning ko‘rinishini, kiyimlarini, ta'mini va odatlarini ifodalaydi va mamlakatlarni, ularning iqlimini, tabiatini, iqtisodiyotini, san'at va hunarmandchiligini tasvirlaydi. Lekin muallifning tabiati eng jozibali”. "Boburnoma" da ko‘p yillik kuzatuvlarni Zahiriddin Bobur doimo xotiralar sifatida tasvirlagan. "Boburnoma"ning ta'rifi, birinchi navbatda, shaharning tabiiy va geografik tavsifi, uning hukmdori, tashqi ko‘rinishi, ma'naviy dunyosi, ajdodlari, ziyolilari. Keyin u urug‘lar, qabilalar, tillar, urf-odatlar va joyning boshqa xususiyatlarini tasvirlaydi. "Boburnoma"ning o‘ziga xos jihatlaridan biri, u ko‘plab harakatlar va ijtimoiy-siyosiy tasvirlarini yorqin tasvirlagan**.** Ushbu tarixiy shaxslarning aksariyati Temuriy, Shayboniy, qo‘mondonlari, o‘sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotda muhim rol o‘ynagan ruhoniylarning bir qismi va ko‘plab san'at va adabiyot namoyandalaridir.

Bobur ijodini o‘rganish bo‘yicha xalqaro ilmiy ekspiditsiya a'zolari shoir izidan bir necha bor ilmiy safarlarni tashkil etib, "Bobur va uning sivilizatsiya dunyosidagi o‘rni" memorial muzeyida saqlanayotgan 500dan ortiq kitob va hujjatlar bilan tanishdilar. Andijonda ramziy qabr joylashgan Bobur bog‘i, shuningdek, "Ark ichi" yodgorlik majmuasi mavjud.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Bobur tomonidan Hindiston hududida olib borilgan siyosat, uning o‘rnini Hindiston yerlarida mustahkam va Birlashgan imperiyaning asoschisi sifatida belgilaydi. Keyinchalik uning siyosati, xususan, nabirasi Akbar tomonidan davom ettiriladi va mamlakatni boshqaradi. Uning davrida Boburiylar imperiyasi eng katta iqtisodiy va siyosiy kuchli davlatga aylangan. Akbar nabirasi Avrangzebning hukmronligi, iqtisodiy va siyosiy kuchlarning zaiflashuvi, imperiyaning qulashi va uni buyuk Britaniya hukumati ostiga bosqichma-bosqich o‘tish bilan yakunlanadi. Rasmiy ravishda Boburning avlodlari imperatorlar nomini 1858-yilgacha saqlab

qolishgan. Britaniya rasmiy ravishda Boburiylar imperiyasining qulashi haqida e'lon qildi va Britaniyaning eng boy koloniyasini –Hindistonini tashkil etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Z.M. Bobur. Boburnoma. – T.: Фан, 1960.
2. Xasanov, S. Z. M. Bobur. – O‘zbekiston NMIU, 2011.
3. Неру Дж. Открытие Индии. – М., 1955.
4. Благова Г. Ф. К истории изучения «Бабур-наме» в России // Тюркологический сборник. К шестидесятилетию А. Н. Кононова. – М. : Наука, 1966.

BOBURIY AVLODLARINING ILM-MA'RIFATGA QO‘SHGAN HISSASI

Xudoyorova N.N.
Islom Karimov nomidagi TDTU Termiz filiali assistenti
Obidova F.A.
Termiz davlat universiteti talabasi

O‘zbek adib va shoirlari P. Qodirov, B.Boyqobilov, X.Sultonovlar Boburga bag‘ishlab roman, qissa, doston yaratganlar. Shoir va yozuvchilarimiz Bobur timsolini yaratar ekanlar, birinchi galda «Boburnoma»ga murojaaat etadilar. Chunki «Boburnoma» ham tarixiy, ham badiiy asar hisoblanadi. Unda 1494-yildan 1530- yilgacha Xuroson, Movarounnahr, Hindistonda yuz bergan voqealar aks etgan. Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Badiuzzamon, Muzaffar Mirzo, Umarshayx, Sulton Ahmad, Sulton Mahmud kabi o‘nlab taxt egalari, Alisher Navoiy, Muhammad Solih, Kamoliddin Binoiy, Behzod, Mirak Naqqosh, Husayn Udiy singari adabiyot va san’at arboblari haqida qimmatli ma’lumotlar, mulohazalar keltirilgan. Bularning hammasi tarix uchun muhimdir. Bobur tabiatan nihoyatda ziyrak va sinchkov, goyat fahmli va idrokli, hamma narsaga qiziquvchan edi. U qayerga bormasin, o‘sha yerning jo‘grofiy o‘rnidan tortib o‘simlik va hayvonot dunyosigacha, ob-havosidan elining tili-yu urf-udumigacha, hamma ~hammasi bilan qiziqadi va yozib qoldiradi. «Boburnoma» shu jihatlari uchun ham o‘ta qadrli, qimmatli asardir. Bobur nima haqida, kim haqida yozmasin, g‘oyat samimiydir. O‘zining quvonchini ham, g‘amini ham hech kimdan yashirmay, ro‘y-rost aytadi. Do‘sti haqida ham, dushmani haqida ham ko‘nglidagini so‘zlaydi. Bu hol asarga alohida ruh bag‘ishlaydi. «Boburnoma» badiiyatiga ko‘ra ham o‘zbek mumtoz nasrining eng go‘zal namunasidir. O‘z davrining eng so‘nggi ma’lumot va mulohazalarini bir joyga to‘plagan bu qomus badiiy zavqi baland ijodkor tomonidan yozilgan edi. Unda go‘zal ijodiy kuzatishlar, chiroyli badiiy lavhalar ham talaygina, muallifning har zamonda ichki qofiyalar-saj’ga murojaat qilishi asarga alohida ko‘rkamlik bagishlaydi. «Boburnoma» o‘zbek adabiyotidagi nasr taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatdi. XVII asrda yashagan Abulg‘ozi Bahodirxonning «Shajarayi turk», «Shajarayi tarokima» asarlari shu ta’sirning samaralaridir. Bobur haqida zamonasining buyuk kishilari uning shaxsiy fazilatlari haqida ajoyib fikrlarni bildirganlar.

Javoharlal Neru «Bobur uygonish davrining tipik vakili, zakovatli, dovyurak va tadbirkor shaxs bo‘lgan, u san’atni, adabiyotni sevgan, hayot nafosatidan lazzatlana bilgan» deb yozadi. Bu go‘zal asarda J. Neru ta’biri bilan aytganda, go‘zal shaxs bo‘lgan Boburning juda ko‘p fazilatlari bilan bir qatorda axloqiy-estetik qarashlari ham yorqin bir tarzda o‘z ifodasini topadi. U tabiat va jamiyat nafosatini, shaxs, urf-odatlar va marosimlar, me’morchilik, , adabiyot va san’at, xullas, jamiki nafosatni chuqur his qiladi va teran tahlil qiladi. Muallif asar davomida barkamol, ya’ni axloqiy va estetik mukammal inson sifatida shakllanadi. Zahriddin Muhammad Bobur shu bilan birga mohir tarjimon hamdir. U Xoja Ahror Valining «Risolai Volidiya» asarini tarjima qiladi.

Bobur haqidagi birinchi roman muallifi amerikalik olim va yozuvchi Gerald Lemb asarini «Bobur arslon» deb nomlaydi. Bu romanni 1961~ yil Amerikaning Chikago shahrida ingliz tilida nashr ettiradi. U shunday deb yozadi: «. . . Bobur Ulug‘bek Samarqandda yo‘l tutgandek yo‘l tutdi, o‘zini faqat hukmdor shoh debgina emas, balki, inson mamlakatni idora etishga javobgar shaxs deb bildi. . .» Ingliz sharqshunosi Eduard Golden esa «Boburda buyuk qalb egasiga xos bo‘lgan barcha oliyjanob fazilatlar mavjud edi, uning asarlari yuksak darajada mukammallik kasb etadi»,~ deb yozgan edi. Ikkinchi-himmati arjumand edi.

Bobur Mirzoning fikricha, podshohlikning asosiy shartlaridan biri adolatning yetuk pallasi himmat bilan belgilanadi. Afgonistonning Nangarxor viloyatida Mirzo Ulugbek qurdirgan bog‘ni Bobur bir kampirdan o‘z narxidan o‘n hissa ko‘p pul berib rozi qilganida, Hindistonni zabt etganida, qashshoqlikda qolgan ahli musofirlarga turli hadyalar berganida, janglarda tushgan o‘ljalarni adolat bilan taqsimlashida bu himmat yanada yaqqol ko‘rinadi. Lekin Bobur himmatni faqat iqtisodiy jihatdangina deb bilmaydi balki do‘stga ardoq va hurmatning ham qadriga etadi. Uchunchisi- viloyat olmoq. «Boburnoma»da muallif mulk olish siyosati keng va atroflicha, turli rang va jilolarda o‘z aksini topgan. Biroq shuni ham ta’kidlash kerakki hindilarning hammasi ham Boburning siyosatini ma’qul ko‘rmagan, lekin Bobur o‘zeri, vataniga sodiq kishilar ruhiyatini «Boburnoma»da aniq ko‘rsatib bergan. To‘rtinchisi-viloyat saqlamoq.

Tarixiy dalillar shundan dalolat beradiki, Bobur qayta bunyod etgan temuriylar saltanati, rasm-odati, qonun-qoidasi, mustahkam qo‘shinini asrash va uni ta’minlash borasidagi tartiboti bilan nafaqat o‘zining hayotlik davrida, balki keyin ham o‘zini oqlab keldi. Boburning Afgoniston va Hindistonda ona yurtida qurolmagan imorat va bog‘lari, sug‘orish inshootlarini bunyod etishi «viloyat saqlash» siyosatini anglatadi. U yurt saqlashni, avvalo, yerga mehrdan boshladi. Qo‘lga kiritgan joylarini obod etdi, yangidan-yangi daraxt, gul nihollari, poliz ekinlari o‘stirishi tajriba etdi. Bu sohada yutuqqa erishdi. Biroq, u qayerda bo‘lmasin, temuriylar saltanatidagi urf-odat tartib va intizomni kanda qilmadi. Beshinchisi- ma’murlik. Boburning fikricha, har qanday ma’murlik adolat bilan hukm chiqarishga bogliq. Faqat adolatli tuzumgina haqiqiy ma’murlikni vujudga keltiradi. Qo‘lga kiritilgan o‘lja boylik, yer-suvlarni bek~u a’yonlar, shahzodalarga insof va adolat jihatidan taqsimlash ham yurt ma’murligining asosini tashkil etadi. Masalan: Bobur Hindiston safari davomida Kalot degan joyga etganida uning askarlari yo‘lda uchragan Hindiston savdogarlarini talashni ixtiyor etadilar. Lekin Bobur bu ishga qarshi chiqadi va adolatdan emasligini bildiradi. Oltinchisi- rafohiyat niyati Tangri taolo bandalariga. Bobur siyosatida andisha-avf etish, bechoraga ko‘mak kayfi hamisha ustun bo‘lgan. Adashganni kechirish musulmonchilik, shariat ahkomiga bo‘ysunish Bobur mamlakatchilik siyosatining negizi hisoblangan.

Bobur Andijonni tark etib, Afgoniston yerlarini kezar ekan, Hirotdan Qobulga qaytishi qish fasliga to‘gri keladi. «Bir haftacha sovuq qor tepib, kunda bir sha'riy, yarim sha’riy ortuq kishi men edim. O‘n-o‘n beshlar ichki bila va Qosimbek edi. Ikki o‘gli Tangriberdi va Qambar Ali bila ikki-uch navkari ham bor edi. Ushbu mazkur bo‘lgon yayoq turib qor tepar edik. Har kishi yetti-sakkiz, sakkiz-o‘n qarich ilgari yurib qor tepar edi. Har qadam qo‘yg‘onida beligacha, ko‘ksigacha bota-bota qor tepar edi. Bir necha qadam borg‘ondan so‘ng ilgarigi kishining xalmi kuyub turar edi. Yana bir kishi ilgari o‘tar edi. Bu o‘n-o‘n besh, yigirma kishi oyoq qornikim tepar edi, ancha bo‘lur edikim, bo‘sh otni tortsa bo‘lur edi. . . Mahal ul emas edikim, kishiga taklif va zo‘re qilingay, har kimning himmat va jur’ati bo‘lsa, bundoq kishilarni uhi talab qilar». Bu tadbir, birinchidan, Boburning mushkul paytlarida o‘z eli bilan hamdardligini bildirsa, ikkinchidan uning harbiy taktikasini, rahmdilligi, inson ruhining bilimdoni ekanidan dalolat beradi. yettinchisi cherikning ko‘nglini olmoq. Boburning askar ko‘nglini olmagining bosh maqsadi kimning qayerdanligi, millati, kasbiga qarab, emas, balki uncha shohga sadoqati, mardligi, fidoiyligi vafodorligi, davlat

himoyasiga qo‘shgan hissasi bilan belgilangan. «Yolgiz bu emas, har qachonkim tangri taolo davlat berdi mehmon va g‘arib beklarni, yigitlarni, boylaridin, andijoniylaridin ortuqroq va yaxshiroq ko‘rdim. Bovujud baloedurkim, hamisha el meni g‘iybat qilurlarkim, boylaridin va andijoniylaridin o‘zgani rioyat qilmas. Masal borkim, «dushman ne demas, tushga ne kirmas» «Darvozom shahrrotavon bast, notavon dahoni muxalifan bast (shahar darvozasin bekitsa bo‘ladi, ammo muxoliflar og‘zini berkitib bo‘lmaydi. Sakkizinchi-adolat qilmoq. Boburning yuksak insoniy fazilatlari uning davlatchiligida, nisbatan adolat bilan ish tutishida o‘z aksini topdi. Tiriklik paytida farzandlarini rizo etib mulk qoldirdi. Boburning nazdida navkar beklarning sadoqati, sadoqat bilan taqdirlanishi kerak. Mirzo hamisha ana shu aqidaga sodiq qoldi. «Do‘stbek vafotidan so‘ng uning ukasiga bir viloyatni beradi. «Do‘stbekning vafotidin so‘ngra viloyatni inisi Mirim Nosirga berdim»- deydi Bobur. Bu uning sadoqatli beklariga bo‘lgan hurmati ifodasidir. Hatto ular vafotidan so‘ng ham Bobur ular xonadonidan-oilasidan xabardor bo‘lgan. Bu esa Boburning oliyhimmat, muruvvatli shoh ekanidan dalolat beradi. Mana shu fazilatlar romanda keng tasvirlangan. O‘zbek adabiyotida Bobur haqida yozilgan asarlar orasida Pirimqul Qodirovning («Yulduzli tunlar») romani o‘zning chuqur realizmi va g‘oyat qiziqarli, go‘zal qilib yozilgani bilan ajralib turadi. Romanda hayot haqiqatini, Bobur yaragan murakkab davrni (XV—XVI) va bu inson Bobur obrazini ochib berish uchun lozim bo‘lgan tipik voqealar, hayotiy detallar ko‘p va ular joy-joyida yorqin ifodalangan.

Pirimqul Qodirov «Yulduzli tunlar»ni yaratish bilan tarixiy mavzuni badiiy o‘zlashtirishning yangi namunasini ko‘rsatdi. Binobarin, roman markazida yakka tarixiy shaxs Bobur obrazi tursa-da, asarda mehnatkash xalq, tarixni harakatga keltiruvchi asosiy kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, asarda Bobur yashagan murakkab va ziddiyatli davr, xususan, romanning bosh qahramoni Bobur hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan muhim voqealar nihoyatda tabiiy va jonli aks etgan. Pirimqul Qodirov romanda «Boburnoma», «Humoyunnoma» singari mashhur asl manbalardan voqeliklar topishga uringan va ulardan ijodiy foydalangan. Bu hol «Yulduzli tunlar»da hayot haqiqatining badiiy haqiqatga aylanishida muhim rol o‘ynagan. «Yulduzli tunlar» — tarixiy-biografik roman. Unda ulug‘ noyob inson-Boburning ziddiyatli hayoti, faoliyati, markazlashgan yirik davlat tuzish yo‘lida chekkan aziyatlari, ko‘rsatgan jasoratlari keng tarixiy ko‘lamda mohirona tasvirlab berilgan. Roman voqealari Boburning Andijondagi yoshlik chog‘larini tasvirlashdan boshlanib,uning mazmunli hayoti bemisl chizgilarda tasvirlanadi.Asarda Boburning adabiyotga oshuftadil farzandlari-Gulbadanbegim hamda Komron Mirzolarning she'riyatga oshnoliklari,ular yozgan asarlari haqida kerakli va juda noyob ma'lumotlarga ham keng o‘rin berilgan.

Bir so‘z bilan aytganda,Boburiy avlodlarining ilm-ma'rifatga qo‘shgan hissalari bemisldir.Tarix,zamin-u zamon bunday ma'rifatli sulolani bir marta ko‘rdi,desak,mubolag‘a bo‘lmaydi.Ularning ilm-ma'rifatga,adabiyot va san'at rivojiga qo‘shgan hissalariga tasannolar aytsak,arziydi.Bobolar merosini,ular ijodini avlodlarga yetkazish bugungi kunning bosh vazifalaridan biridir.Zero,Bobur ijodi o‘lmas va hamd-u sanolarga loyiqdir:

Har kimki vafo qilsa,vafo topqusidir,
Har kimki jafo qilsa,jafo topqusidir.
Yaxshi kishi ko‘rmagay yomonlik hargiz,
Har kimki yomon bo‘lsa,jazo topqusidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. «Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori». Toshkent, 1999-yil.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma» Toshkent «Yulduzcha», 1990-yil.
3. Pirimqul Qodirov «Yulduzli tunlar» Toshkent, «O‘zbekiston» 1990- yil.

4. Nuriddinov. M. «Boburiylar sulolasi» Toshkent, «Fan» 1994- yil.
5. Nurmatov. M. «Yetuk ijodning shu'lasi», «Til va adabiyot ta'limi» 1993- yil, 1-son, 6-bet.
6. Qorayeva. B. «Boburnoma»da milliy ruh va qadriyatlarning aks ettirilishi, «TAT» 1996-yil, 5-6-son.
7. Qudratullayev. X. «Bobur-Amir Temur saltanati vorisi», «Muloqot» 1996- yil, 4- son.
8. Valijanov. S. «Gulbadanbegim», «Guliston», 1990- yil, II-son
9. Qudratullayev.X. «Himmati arjumandi Bobur yoki shohning sakkiz xislati» «Tafakkur», 1996-yil, 3-son.
10. Valiyev B. «Bobur bog'lari», «Qishloq hayoti», 1996-yil, 13-fevral.

THE PLACE OF THE GREAT RULER AKBARSHAH IN THE HISTORY OF INDIAN STATEHOOD

Ikromov N.T.
Samarkand State Institute of Foreign Languages 2nd year master's degree student
Qilichev B.T.
Samarkand State Institute of Foreign Languages 2nd year student of bachelor's degree student

Named the great ruler in the history of Central Asia and India, the fifth son of Amir Temur, the successor of Umarshaikh Mirzo Zahiriddin Muhammad Babur (1483-1530) was a leading statesman of his time, historian, leader of science and enlightenment, centralized. was the founder of the state and the Baburi kingdom. The Baburi kingdom, founded by Zahiruddin Muhammad Babur, reached its peak during its 332-year reign (1526-1858), in which Zahiriddin Muhammad Babur and the representatives of the Baburi dynasty played an invaluable role.

The great services rendered by Amir Temur and his successors in history still amaze the people of the world. The role of Amir Temur's successors in the history of Indian statehood and their achievements are mentioned with special pride by Indian historians and Central Asian historians. These rulers were not only mature statesmen and invincible commanders of their time, but also distinguished themselves from other rulers by the qualities of justice, patriotism, kindness, courage and bravery inherent in the Timurids. This article describes some of the noble deeds of one of the rulers of Temurids, Akbarshah, in India. That is why we have many great ancestors in our history who have made a great contribution to the world science culture. The deeper we study the work of these ancestors, the scientific and cultural heritage, the stronger the feelings of national pride and patriotism. These patriotic sentiments play an important role in our time. Increasing the knowledge and potential of the youth of our country, bringing them up as true patriots is one of the urgent issues in our country.

On this basis, we would like to supplement the above opinion with the words of our first President IA Karimov. As the first President of our country IA Karimov said, "There is no future without historical memory" has a deep meaning and content on this basis. With this in mind, we must study the history of our great ancestors who lived in history, study their great services and pass them on to our youth. Below we try to analyze the great services rendered by this great ancestor Akbarshah.

Jalaliddin Muhammad Akbar bin Humayun bin Babur Temur, one of the greatest representatives of the Baburi dynasty, was born in February 1542. Shortly afterwards, Humayun and his family arrived in Kandahar, where his brother ruled. Then his brother goes to Iran when he hears that he is going to arrest and kill him. His son Akbar and his wife stay with his brother. Eventually, when Kabul and Kandahar fell back to Humayun, Akbar met his father Humayun again.

After the conquest of India, his father appointed him governor of the Punjab. After announcing the death of his father, he is enthroned in Punjab and announced to the people. At that time, in 1556, Akbar was only 13 years and 9 months old. For this reason, Bayramkhan was appointed as his advisor and assistant in the conduct of the kingdom [p. 1,11].

When the emperor heard that his son and heir to the throne, Salim, had revolted in Ilox-obod in order to seize the property, he quickly returned from Dukkan. There he left Daniel and Abul-Fazl to continue his reign. When he arrives in Agra, he immediately writes a letter to Salim to apologize to his father. At the same time, Abul-Fazl returns from Dukka. There was a cold between him and Salim. Fearing that his father would turn against him, he killed his subjects Rajaram and Salim before coming to Qahan (1602). The emperor takes revenge on the killers in a fit of rage. In 1604, his son Daniel also died. Unable to bear these worries, Akbarshah died in 1605 and was buried in Alexander the Great near Agra. In India he reigned for about 50 years [p. 1.17]. In addition to his victorious marches, Akbarshan did a lot of good deeds for the development of the country. The following is the just system of Akbarshah's rule in the Timurids:

In governing India, Akbarshah pursued a new policy that few rulers had done before. His policy was based on the principle of the Indian Indians. The rule of the emperor was based on humanity and did not discriminate on the basis of nationality or religion. As a result, he won the love of the people. Seeing this, the Hindus and Rajas obeyed him wholeheartedly, for they had now seen a ruler who acted on the motto of seeing the sons of the same country together, without separating them. The emperor exempted the people from the jizya tax that was tormenting them. Indigenous people participated in government affairs from the bottom up. The governor of Kabul was appointed from the Hindus. The Hindus also began to establish kinship relations between those they had never imagined and dreamed of, and their rulers. Most of the Hindus came into his circle.

In the past, Hindus looked at Muslim "invaders" with hatred, but now they look at them with sincerity and love. This policy of the emperor was a revolution in relation to the policy of Muslim rulers in India in general. In particular, it eliminated the difference between Muslims and Hindus in paying taxes. There was a special place for the complainants, and everyone came here to express their grievances. He also tied the lands of the peasants to them as property and forgave their previous debts. He developed modern rules. He forbade underage marriage and allowed widowed Hindu women to marry. He encouraged Hindu scholars to study Sanskrit. His governors ordered:

- Be aware of the condition of subordinates;
- Be kind to people and help the poor;
- Not accepting gifts;
- Not to object to representatives of other religions, to guide if necessary;
- Not to convert to Islam by force, etc.

During the reign of Akbarshah, Urdu, a language composed of Indo-Persian, Turkish and Arabic, came to life. Turkish became the language of the royal family, Persian became the state language, and Arabic became the language of Islam. It is said that Akbarshah paid great attention to his army and its organizational issues. In fact, each cannon was given a name and their history was recorded [p. 1,18]. In addition, Akbarshah was awarded the title of "National King" and "Ruler of the People" in return for his just policy in India [2,]. The emperor has always pursued a far-sighted policy. As a result, he was able to establish his dominance in India completely and decisively. That is why he was called the Great Akbar, one of the greatest Baburi rulers in India. In the opinion of the Indian historian Ishwari Prasad, “Akbar is the greatest king not only in the history of India but also in the history of the world. If compared to European rulers, Akbar is superior to them in both glory and success.” [3,].

In conclusion, it is very important today to know the history of our great ancestors. The great ruler we have studied above, Akbarshah, one of the representatives of the Baburi dynasty, was able to build the perfect state of his time. His great services to the interests of the country and the people are spoken of and revered by many historians and people of the world.

Literature

1. M. Nuriddinov. The Baburi dynasty. Tashkent-1994
2. Sinxa N. K., Banerdji A. G., History of Indii, M., 1954.
3. Prasad Saxena. History of Shahjahan of Delhi. Allahabad, 1958
4.www.ziyo.uz, www.kitob.uz.

HISTORY OF THE MILITARY MARTIAL ART OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR

Mansuraliyev Q.Sh.
National Guard of the Republic of Uzbekistan cadet of the Military-Technical Institute

Zahiriddin Muhammad Babur (1483-1530) is a great person who has found fame with his world-famous work “Bournemouth”, a poetic wall with a collection of charming gazelles, “Mukhtasar” I and several other works on aruz. Of course, about his military marches, victories and defeats, too, our historian scientists have expressed few thoughts. We have carefully read the “Bournemouth”, thinking about what it is based on, in the restoration of the Empire of Amir Temur, the grandfather of Temur from the very young age of temuriyzoda, in the pursuit of a unified, solid policy in the vast territory, in the realization of his dreams to some extent. We saw this solution in Bobur's consistent personal courage, sharp vision, military skills.

We begin our analysis with the events of 1495 – 96-year – old-Babur 13-year-old during which the state of Khoroson, in particular, in the Fortress, dominated. During this period, the temurian princes and princes fell in love with the land. At the International Fort of Sultan Hussein, Sultan Mahmoud Mirzo will raise his head and fight the International Fort and win over him twice. Babur assesses this situation as follows: the two executions of Sultan Huseyin Mirzo led to the burning of the Khisravshah, which did not reach the limit for a while and ulgaymugh.

Babur Hussein analyzes the seal of International and his son Badiuzzaman against Khisravshah, brother Vali and supporters in depth. Hussein writes that the rich international and his troops were not aware of the secrets of the seal, first of all he had little information about Ghanim, was given to secondary work instead of pressing the enemy, grinding. He writes with regret that the simple trick of the cunning Khisravshah, a two — month-old movement of Hussein Boykaro, the lead, where the Hussein soldiers are located, has easily won over the houses by introducing smoke through the hole in the fortress: “the knowingly smoke-infected, which the alarmist poured out, has burned to the lead Eli and the lead eli has escaped”

Huseyn Boygaroni in the “Boburnoma” was criticized for paying more attention to the mudofaa than the attack on the mohoraba with the opponent, although in the Sharp commander, the infallibility of fencing is recognized. In the above case, Hussein does not allow, knowing that the cause of the darkening, since it is too late, when the young men ask permission to attack seeing the Army, who is careless with smoke. Babur evaluates this order of the Sultan as a hard error in this seal: “some young men wish to let the war go quickly. Mirzo did not allow it as” evening.

When describing the landscapes of the Battle of Babur, he determines, compares, determines the victory and defeat by military power, the number of soldiers and officers, the strength and scale

of the military vehicle, weapons. In his opinion, to win, it is not necessary to surpass the opponent by the number of soldiers. Already, the seal experience of Khisravshah prevailed. Hussein Boykaro‘s failure to clearly take into account the enemy's strength, the position of the war, his time (“spring rains jihatidin...”) led him to defeat. The most sad aspect is that the army of Hussein in this seal is superior in terms of numbers ("these are some Mirzas and some sardor Princes, if the people of bovujudkim are not the person of the two Khisravshah, then one and a half, the word of khud ne...”). Again, unfortunately, the lack of confidence in the victory of Hussein's supporters, the lack of resolve to fight prevented them from getting out of the trenches they dug for two months and getting with yov (“...by doing the rioyat of jazm, they did not get out of the trenches”).

Babur was a very serious supporter of the kingdom of temurids to the joint elimination of threats and attacks from the outside. To make sure of this, let's look at how the invasion of Herot by Sheikhan was analyzed by Babur.

As is known from history, the city of Herat was appointed governor in the partnership of two sons of Hussein Boykaro – Badiuzzamon mirzo and Muzaffar mirzo – bashirkat. Babur negatively assessed this situation. With the approach of the mighty Sheybanid Khan to Herot, both Sultans Mirzas “... ne were determined to fight, ne Kurgan berkitmakka jozim did not do anything and did not do anything and did not know that he was going to die stupidly”.

He was appointed to the two princes as the owner of two mature Becks (Muzaffar mirzoga Muhammad Burundukbek, Badiuzzamon mirzoga Zunnun Argun). Babur analyzes in depth the political, military-strategic views of these two Beks, their relations to the battle, which decides the fate of power, and expresses his conclusions. “Muhammad Burundukbek was the person who knew the account," said Babur, primarily based on his plan of Defense, attack, intended to retreat without damage, when necessary. Muhammad Burunduk's recommendation provides for the unification of all forces, the achievement of unity among the commanders, the withdrawal of the main force to the mountainous region. This task was to be performed by Badiuzzamon and Zun Argun, and with Herot mudofa she herself and Muzaffar mirzo.

Why does the Babur approve this proposal of the Burundian? The point is that this proposal of Bek was in harmony with the military theory of Bobur, according to which strategic plans such as the unification of all forces around one goal (even in the case of Herat mudofa, this is implied), the Prevention of damage from the enemy attack to the frontline of the army, the relocation of the climbing troops. However, Zunnun Argun, who advised Badiuzzamon Mirzo not to accept a Burundian offer, comes only from his own personal interest, and Badiuzzamon flies to his trick. The main reason why the Babur temuriyzadeh was taken to the Shaiboniyhan in Herat is more in the same alley. In his eyes, this war was lost as a result of military illiteracy of superstitious timuriyzoda, ignorance of the secrets of the seal, kaltabinlik, given to personal interests.

In order to further clarify this issue, we considered it necessary to bring a piece from the “Bournemouth”as evidence. Because the art of the seal of the Bobur is clearly visible in this passage will be thrown. “Zun's Argun agarchi was a brave man, vale Khasis and Moldavian and Ra’y and farther from the account, and fragile and mad man. In this opportunity, Hirida Aga-ini the company was knowingly King (IE Bediuzzaman and victorious Mirzas - What?Q.). Under the patronage of Badiuzzamon mirzo, it was the owner, nechukkim was present, the Moldavian jihatidin Muhammad Burunduk did not agree with the city tour, he dreamed of staying in the city, and ani could not be compared. Your mother, Calvary and telugh, will not be a better proof of anything than Mundi, zarraq and Tammu' El, having accepted the lies and flattery, has made himself a virtue and dishonor”.

The most striking aspect of this is that Zunnun accepted the tricks of the Argun Ghans as the basis (“several Sheikh and mullo anga come and say, the pole disagrees with our will, sanga was nicknamed hezabrullah”(rank), you are Uzbek olgung”). Bobur knows that Zunnun’s swinging few follow the crisp foolishness that sees the job of flying a false rank of a person who has seen the battle accelerated. Believing that he said, mullahs, you have given the same title to you because you will certainly overcome Shaybaniyhan, “forty-fifty thousand uzbak otrusunda one hundred-hundred and fifty people knowingly take oqq. Die out Zunnunni, head hips. “Soon after the dream, Shaybaniyhan will take over Herat lightly and achieve his goal.

1502-1503-th year, that is, the moment when Zahiriddin Azor suffered from mutual disputes and struggles of Babur temuriyzadeh, was overcome and did not know the place of arrival, was thrown towards the Khan's brothers and relatives in Tashkent. Even then, he knew that it was the main goal not to take over Andijan or Samarkand, but to fight against now-the chief Sheikh, who is now raising his head. However, he regrets that the Sultans did not go to his opinion on this matter, and emphasizes this view with the ruboiys of SA'diy Sherozi: "Ghanim is emerging as a Shaybakhond, the harm of MU is Turkish and Mongolian musovidur. The idea of MU is halaliktakim, the nation still does not press well and does not grow much, it is necessary to do. Nechukkim, debtors:

Imroz bikush chu metavon kusht, fire chu high shud world Sok.Magzorki zih kunad kamonro, enemy chu ba tire metavon fire".

(Content: when your strength is enough, turn off the fire in time. If it burns, it will burn the world. If you are able to hit the enemy with an arrow, do not put it on the bow tensioner).

This look of Zahiriddin Bobur begins to find his proof soon after the dream. Babur did not get rid of this cunning, strong innate. When he occupied Samarkand for the second time, he besieged the city fortress of Sheikhan and tried to get inside. The besieged people of Samarkand will help Bobur. Babur Hussein expects support from the International and timuriyzadeh, calls them to unity, but “Sultan Hussein mirzodek mardona and Sahib experience the King tells us (that is, the Baburga-H.Q.) without any help, giving us heartfelt support, ambassador ymaymay sends " Kamoliddin Huseyn to the embassy during the siege of Gozirgahi.

This strongly affects Zahiriddin Babur. On the one hand, the impoverished condition of the people of Samarkand, who were besieged, on the other hand, the Nomadness of the Babur comrades, undermines all efforts to win the muhoraba square. On top of this, he came to Pskent from Ahmad Tanbal Andijan, who also pursued Babur, except for Shaybaniyhan. But the Sultan Mahmudhan, who was against him, was not a war man. The assessment that Bobur gave this person reflected his attitude to military skills. Back then, when the soldier is afraid of the enemy in battle, they have no value. Struggle-the field of the mards: “Sultan Mahmudhan was not a war man. From the synod was bisyor Ory. Lazy willful otru willful chog Khan bedilona situation and forgiveness will be revealed. Ahmadbek was a Turkish person (the expression “Turkish person” in the Babur look means village fearless, lazy, good sarboz - H.Q.), vale was brave and statesman. Say strange posture, derkim, this is a lazy ne quantity kishidurkim, hag‘dag and taraddud tartarsiz while. If your eyes are afraid, keep your eyes closed and be opposite.

In these sounds, a form characteristic of the style of carrying out the Battle of Bobur is noticeable. In his opinion, no matter how skillful a person is, a clear goal in getting by with yov, along with his heart aspiration, is of course necessary for the loyalty, support of those around him. That is, for the realization of high military skills, it is necessary to have a clear idea, look, concentrate: "the noses are debtors, I need a head to lead drifting, I need two hands, I need two boots: head to captain. Two hands come from two sides as support and reinforcements go. As soon

as the water of the two idols lead to the willful Reserve. We are keeping an eye on the support and support of these surroundings and shelves, these hoods are in every other dream."

Zahiriddin Babur practiced this military theory during his incalculable seals. Whether it is Khurasan, Afghanistan or the provinces of India, villages and cities have remained faithful to the above view in their subsequent walks, landings. This was the lesson he received from his great ancestors. His confession was that when the unity reigned in the temuriy shahzadeh, he would not leave Samarkand to the Sheybani, he would not agree with him to the peace he did not want ("if there was any hope on the one hand, either reserve, who would listen to the word of the truce").

We deliberately took as a basis his attitude to the Sheikhan for consideration of Bobur's military views, we touched on a relatively wide range. On the same occasion — constitute the military concept of Bobur, we will not be mistaken. During the Babur military march, such qualities as not to be afraid, vivacity, to follow the army, to show personal courage on the battlefield, to hate the square, to appreciate the courage of an ordinary soldier, to approach each muhuraba in a new way, to take lessons without falling from the Battle of the rich to anduh, were brought up, followed. He took possession of other lands, owned property, wealth, sought to bring each of the seals in accordance with the law of war, order, along with a terrible blow to the subordinates. For example, when he occupied the Afghan and Indian lands one by one and entered the lands under the jurisdiction of the Turks, his armies ruled not to touch even the "tip of the thread, needle sinuglarig‘a"of the inhabitants of this land. Pay attention to the phrase. Usually, when sewing clothes with a needle, the thread is cut off and a small part remains in the hole of the needle so that they remove it, that is, this ring piece is unsuitable. Even if the needle is sinking, it will remain so unsuitable. This means that Babur forbade to take such an absolutely unsuitable thing from the lands where the Turkic people lived and entered under the jurisdiction of the temurids and expressed his opinion with an image.

This military policy of Babur is not only related to property, but also to the fact that it is “obligatory and necessary” to deal well with the people of this country: "Chun was always in the memory of Hindustan, these few provinces, Bhayra and HUSA and Chinab and Chanut, how many mahal were under Turkish jurisdiction, we imagined these things as Zur bila ya truce bila be our own mutasarrif bila we were mutayaqqin. In this aspect it was imperative that the mountain eli knowingly earn a good salary and must have. I have a decree that no one will cause damage and defect in the surrounding and Navoi of all these glows, but the tip of the thread, the synogies of the needle.”

Of course, this initial Justice of Bobur even gave a negative result in some place, but then put an end to more confusion.

Babur fought many battles in Movarounnahr, at the fortress, with the famous Becky Khisravshah of Sultan Mahmud Mirzo. In the “Baburnoma" the author gave much more detailed information about this person. Tole came true to him, asserting that the number of his troops exceeded 20-30 thousand, Babur writes that he had found embarrassing injuries because of the theft of the muhuraba literacy in Khisravshah, he did not know the war situation as well as the commander. Before that, he assessed his character as a person and negatively assessed him as a soldier (“the agarist was praying, and the food was vale was a tiara, and he was a wicked, and the spiteful, and unfaithful, and Haram was a man...”) While khisravshah Babur is walking towards Kabul, which the capital has reached, because of its low morality, tyranny, the armies carry their goods and go to their homes, many of them go towards Babur. In this situation, Babur iqtidorli acts as an army officer: despite the difficulty of the Hindu Kush mountain with his low-numbered soldiers returning from Herat, he meets Ghanimi Khisravshah, who is militarily strong, but at the

same time invincible, on the banks of the Andarab River in the Dushi Valley. Although he is in a difficult situation, retreating from the persecution of the Sheikhan to Kabul, he is forced to peace with high courage, courage, self-confidence, thousands of soldiers. His This military tactic then comes to him very hand in India as a good experience in winning over a multi-number Ghanim with a low-number army.

Initially, Bobur is in panic of fighting against the army of "one lac, not two lac" (one hundred thousand, maybe two hundred thousand), more than two thousand fighting elephants and Indian commander Ibrahim Lodi, who has many military vehicles and weapons. However, the Babur, who saw many seals and overcame the dongdor commander with his perception and war savvy, first learns the situation in the Loch kalamravi. The inconsistent political situation in India, the fragility of the rajahs, tired of their Ibrahim Lodi rule, creates favorable conditions for the entry of the Babur into this country.

During the Battle of Babur Panipat, as they say today's language, he widely used intelligence. He sent his people to the places where he collected information ("Ul yurttin River yakalay kuyig‘a Baqa two Koğa moved, language tuta Borg‘lardan Haydarkuli brought a message, David Haytimhan five to six thousand people knowingly forgive me as Duob. Three or four kuruh Ibrahim's circle berirak circle urub öltürübtür"; "Khoja Kalan's navkari Haydarkulini language tuta sent"). There is a lot of evidence that Bobur has widely used the intelligence service in the"bournoma", which is a special topic in the analysis of his harb skills, which is due to a special study.

Babur, first of all, enters into the struggle against his rival Ibrahim Lodi in the most subtle aspects of his character, only after having access to the public information that he considers necessary-the family, his mother, so to speak. For example, Abraham, no matter how rich he was, after the conquest of India by Babur, who knew that the victory of the classics in his nature, Abraham subordinated the subordinates, giving land, property, great gifts.

Babur, who has detailed information about Ibrahim Lodi, explains his characteristics briefly, clearly as follows: "Tengri is true, ne was able to please his young man, ne was able to share his treasure. Kaydin can not consent to the young man, nature had won a lot imsok. He was a carefree young man, eager to assemble himself Yarmak. The arrival of the Ne was an order, the stand of the ne, the Walk of the ne was a probabilistic, the Battle of the ne. Let's pay attention to the last phrase in this passage. In it, the lack of Merit of Lucius to the war was expressed after all his shortcomings. With this achievement on the battle field of Babur, the science of the seal, first of all, the high human characteristics of the commander, justice to the subordinates attitude, indicating that it is connected with the display of a personal example. We have seen this in the above assessments given by the author to Khisravshah, Sheybanikhon, Hussein boy International and other princes.

After having all the information about the Indian Country related to the Babur rival Ibrahim Lodi, he begins to prepare for the war: he collects his information, summarizes it, draws conclusions, conveyed through his messengers (intelligence). In intelligence data, the step-by-step movement of the enemy, the number, is given in the accuracy of which until he finds a landing in the neighborhood. To give a clear picture of the power of Abraham, the capture of the "language" was also planned: "Abraham began to receive certain messages from the Horde, one kuruh-two kuruh Nomads will be able to make status in each land for two or three days. We, too, became an expert, landed on the ORA of Shahabuddin two, and came to the dam of Sarsava on the yakosig of the Juun River. Khoja Kalan's navkari was sent to capture Hyderkuli". Before entering into the Battle of Babur, it took into account the climatic conditions of the Earth, from which it was inhabited to its geographical location.

After reaching the completion of these activities, the readiness to take the hit is seen. Bunda Babur, proceeding from the experience gained in the previous seals, introduces amendments to the weapons, the "Greek program bila" adapts military cars to the war. Although this work will take quite a while, patiently waits: "The Rum program knowingly instead of a chain among the cars, homidine swimmers will wind up and tie each other. Six-seven Nets divide between both cars. The thugs stand behind these cars and nets, and the thugs are the thugs. In terms of the order of this instrument, five to six days were the concessions of this land."

The above excerpt from the "Boburnoma" should be included in the textbook on the history of our military art, analyzed and presented as an application to the soldiers of today's young officer. If we pay attention, we will witness that the bunda Babur settled in the sealing field after the rifles and other forces, thinking that their armies would survive during the battle. He did not approve of striving towards the enemy until the end of this plan leading to victory as a skilful commander. Such examples, which can be included in the military manual and textbooks in the"Bournemouth", are abundant.

Think a lot about Abraham Lucius's nearly two thousand warring Philistines, Bobur. On top of this, the combat ships also provided the enemy with a power advantage. Therefore, he works seriously on making combat balls. His long search, accompanied by The Master Alikuli, gives a high result: unprecedented balls are created, capable of hitting a mark up to 1500 — 2000 meters. From this armor, the soldiers of Abraham Lodi who did not see the ball are in panic, from the balls they are given a hard blow to the ships of the Ghanim: "master Alikuli good stone otti, until he connects the bridge for a few days. The day before was eight stone otti, the second day Sixteen Stone otti".

After the Bobur sees the full readiness for the war, he goes to the last issue, that is, the future muhoraba is consulted with all Beck, the Sultan and his soldiers. The evidence in the book of bournoma testifies that Babur did not see any work without the advice of his subordinates, no matter which seal, battle and conflict he went to. In today's phrase, harb took his work on a democratic basis. In some cases, he himself, no issued a sentence without accepting anyone's opinion. For example, on the eve of the start of one of his walks in India, the astrologer will want to stop him from entering the battle. However, the Babur, who believes in his strength, the enthusiasm of his soldiers, shows courage, begins to seal and triumph: "Mohammed Sharif astrologer shumnafas agarchi manga (that is, Baburga-H.Q.) there was no aytur, I knew the exaggerations to everyone: "in this ayyom, Mirrix is a Western saridur, everyone will be defeated if he fights from this side" ... your mother did not say these miserable words, we must have done our work without sewing, and we must have done the work of war and be happy".

Seeing bamaslahat work with his subordinates often ended with good results, which led to an increase in his reputation as a soldier. For example, he prefers to settle his decision in solidarity with his lords in the most difficult moment of the war, which he carried out with Ahmed lazily: "I came to my father's morgue and wished him Jahongir Mirzo, to stand in the land of the war, and to practice. Muhammad friend burned, Sheikh Bayazid bila Qanbar Alibek came. In the southern veranda of the mausoleum there is a monument eduk…»

In short, before the beginning of the war against Ibrahim Lodi, the Babur takes everyone's consent, introduces his Lords with the upcoming harsh war conditions and sets forth the plan of the war: "and after this instrument and alot are ready and perfect, he knows the complete princes and the word O‘bdon wishes to the assembly of the assembly, om the council and again, it is necessary to know the car and the net around him, and to rest the rifle and the bow behind the car and the net."

The Battle of Panipat is described in detail in the"bournoma". In it, along with the internal experiences of the businessman, businessman, skillful commander, fearless warrior Bobur, his high military courage, seal skills are reflected in various aspects. This bloody, relatively long seal has "donated" countless offerings to both parties.

The war is a solution in favor of the Babur, which, with a very small number of troops, will win over almost two hundred thousand warriors, Ibrahim Lodi, who has a powerful military arsenal and Means. Zahiriddin Babur, who believes that the number of troops is not important for the victory of the seal, the high human qualities of the commander, along with military literacy, courage and courage, perception and creativity, are the main factors of intolerance to the regiment, also turns out to be true — his military theoretical views find one more time proof.

Above, we tried to illuminate some aspects of the military skills of Zahiriddin Muhammad Babur, but it was not. There are many aspects to be studied meticulously about the military talent of the Great Commander. The negative consequences of the war, the deceit of Beck and officers, the fact that it is an aimless war — life plant, the secrets of military mobilization, the courage of an ordinary soldier and the attitude of Bobur to him, the art of building a fortress and the problem of its disposal, the secrets of choosing the location of the fort, the strategic importance of Jum from the sentence. Among these, the most noteworthy aspect is the subject of Zahiriddin Bobur's personal courage on the battlefield.

List of used literature

1. Muhammad Babur From Zahiriddin. "Baburname":.─ T.: "New century generation", 2018y.

2. H.The Sultan. Baburiyname-T.: "East", 1997.

3. H.Zire " lost in Test match Babur Armani: - T.: "East", 2005

4. L.Harald. ICA-Tiger: translator G‘.Satimov: - T.: "Uzbekistan", 2018.

5. D.Eldoshev. The birth of the emperor: - T.: State Scientific Publishing House "National Encyclopedia of Uzbekistan", 2018.

6. HeUvatav. Great country thinkers: - T.: "Uzbekistan", 2018. 7. P.Kadyrov. Generation pass: - T.: "Sparks of Literature", 2018.

7. www.vikipediya.uz

8. www.scientificbooks.com

9. www.ziyonet.uz

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR AND HISTORICAL MARGILAN

Azamjonov U.U.

Cadet of the Military-Technical Institute National Guard of the Republic of Uzbekistan

Azamjonov A.U.

Student of Fergana State University

By the time of Amir Timur and temurids, the city of Margilan managed to restore its position in the life of the Valley[1,7]. The works of Ibn Arabshah, Zahiriddin Muhammad Babur, Muhammad Salih, Mirzo Heydar, Mahmud ibn Vali, Hofiz Tanish al-Bukhari, Khoja Abul Bako ibn Khoja Bahawuddin, Muhammed Mufti Ohangaroni, Muhammadyar ibn Arab Qatag‘an,

Mutribiy Samarkand, Shah Mahmud ibn Mirza Fazil Churos can be included in the sentence of the written sources on Margilan created during the Timurids and Uzbek Khans. However, since the information of Mirzo Babur about Margilan and the relations of Margilan with Babur Mirzo have not yet been studied as a subject of research, it is necessary to pay attention to this issue in this article.

According to written sources, the city of Margilan played an important role in the battles and internal competition that took place during the Mongols, temurids and Uzbek Khans[2,26]. By the time of the Timurids, Margilan existed in the Fergana Valley Andijan, Osh, Khujand, Isfara, Kasan, Ahsi.

It is recognized as one of the seven towns (cities), namely “haftgona”, like marginon[3,5]. About this Ibn Arabshah cites the following: "also Marginon is one of the cities of Movarounnahr. In ancient times it was the capital, in which the Ilikhan stood. Let the owner of "Hidoya” (entrance), jalaliyyah Sheikh, thank alloma Burhonuddin al-Margiynani – Tangri –Ta'olo (that person)," [4,86] who came out of Margiynon " [4,86]. Mirzo Babur writes about the city of Margilan in his work” Bournoma“: "another is Marginondur, west of Andijan, seven wooden roads of Andijan. A good settlement has come true... Eli sorttur and mushtzan and pursharu are salty eldur. In Movaraunnahr, most of the famous militants in mayidur, Samarkand and Bukhara are marginalized. Owner “Hidoya” Marginon's Rushdon equestrian centidindur " [5,35]. Similar information is mentioned in Mahmoud ibn Wali's work “Bahrul asror” (“the Ummah of Secrets”) [6,70].

Mirzo Haydar, the author of the work” history of Rashidiy’, wrote that during the Timurids Margilan considered Fergana as the city of tabar[7,234]. During the reign of Umarshayh Mirzo, ruler of Fergana region, Khoja Ubaydullah Ahrur came to Margilan[8,27]. The first meetings of Mirzo Babur with his grandfather Yunusxon, Khoja Ahror, occur exactly in Margilan. While yunuskhan garchand is the ruler, the one who welcomed Khoja Ahror does not express himself among the people of peshwazh Marghilan, but bends his head, demonstrating his high esteem. When one of the followers of the Khoja Ahrur Wali, Muhammad Qazi, showed Yunuskhan to Khoja Ahror, ul zat descended from a horse and raised Yunuskhan's head. In this way, Jonah had gained the trust of Khoja Ahror with his humility and humility[7,251]. Mawlono Munir Margilani lived in the 15th century. He was one of the famous scribes of the Timurid period. Information about Mevlana in Mirzo Muhammad Haydar's work “Historical Rashidiy” threeraydi” the Babur King was born in time for the prophecy of Ane Khan al-alad people were destroyed. The Khan came from Mongolia. The deadlines were ahead...At that time, Yunushan's Umarshaykhs had a friendship, there was no king. Filjumla king six of the month of muharram was born in history eight hundred and eighty-seven. One of the muttahirids of mevlano Munir Margilani Ulugbek's Ulugh found history as “shashumi muharram”. Hakan gaddasallahu sirudinudin asked to put a horse. – Put a horse as Zahiriddin Muhammad“, - they said. In the Shul era, the Chugatai garden was full of splendor. Zahiriddin Muhammad dushvarlik birla was introduced in these languages. ICA put that horse. Babur became famous as King”[7,240].

Muhammad Mufti Ohangaroni (XVI century) according to the information in his book “Mawlonoullohullah manoqibi”, Nasiriddin Ubaydullah Khoja Ahror shogirdi Alam Fazili and Vasily Shah Hussein Charkuhi (who died in 935g‘ 1528-29) were married in the city of Margilan[9,30].

In the XV-XVI centuries in the city of Margilan, a developed cultural environment reigned. Sultan Hussein, the Ruler of Chunanchi, on the recommendation of the Masters of international art, entrusted Darvesh Ali Hodjazodai Changi to create a moyatayn in honor of his authority. To perform this task, he lived in Hodjazo for twelve years in a garden in the city of Margilan. It turns

out that the place hooks are owned by Khoja Ahror. Here in the middle there is one big tree. He is a suction for the same legendary person Khoja Ahror, who was just like aso.

One night, Dusty came to that tree and stood here for a while. Then he somehow felt the fury of a strong inspiration. It was as if all the tattoos of moyatayn, who wanted to create with the same inspiration power, had found a solution. This is done by the artist the same great Sheikh and murshid (that is

Khoja Ahror) is the interpretation that came into being under the help and patronage of[10, 272-274].

The work “Jome’ ul-maqomot” (makhdumi O‘zam maqomot), written in Samarkand in 1026 (1616-17) by Khoja Abul Baqo ibn Khoja Bahovuddin, grandson of makhdumi O‘zam, is an excellent work among the works written about Makhdumi O‘mot[11,28]. One of the important aspects of”Jome’ ul-maqomot " is the story of Mirzo Babur's journey to Margilan through the life of piri Makdumi Uzem in Samarkand. According to him, one of the tobeins, who was buried in Margilan, a member of Maxdumi, came to visit the Tomb of Khoja Maoz Jabal[12,116].

The events that took place in 1498-1499 years in Fergana in Mirzo-Babur's work “Boburname” bayonida de Margilan city has also been mentioned many times: “circumcision time I came to the door of the Marginan stronghold. Ali friend tag‘oyi stood behind the gate and did not open the gate, the covenant begged. After the Covenant and the ordained, he opened the gate and took care of it among the gate " [5,68].

Khoja Abulmakorim, one of the descendants of Burhoniddin Marginani, can also be seen from the series of events described in the work of “Bournemouth”, where Zahiriddin Muhammad Babur took an important place in his activity in Movarounnahr. It is known that Khoja Abulmakorim was in favor of one of the Sons of Sultan Ahmed Mirzo to sit on the Samarkand throne. However, during the struggles, the hands of the second son Sultan Ali Mirzo came up high. As a result, the supporters of the Muslim Mirzo were persecuted and the risk of revenge from them was increased. Khoja Abulmakorim was forced to leave Samarkand in order to get rid of the turbulent situation. He somehow came to O‘ratepa. Mirzo Babur himself writes about this: "in the end we went to the yaylaks on the south side of this taraddud and tarafiqa O‘ratepe. How many days in ul-Navoi surprised our work, not knowing our accommodation in borur sargardon was passed. One day, while I was here, Khoja Abulmakorim, as well as jalayi vatan was sargardon, came to see me. Borur was a fanatic of our land and our hard work, and he was a fanatic , and in our case he was very hard, he read the Fatiha. The Manga was also influenced by pisyor, I did not regret it. On this day, a cavalry appeared from the foot of the other creek in the late prayer, this is the navkari of the friend taghud Ali ekandur. Paving horseback. This content is deliberately destroyed, if the azim sins have occurred from me, vale hope that if I have, grace, devote my sin, to give, hand over Marginon, a sort of servant and servant, arib xijobim rafo olgay”[5,67].

At the time of Mirzo Babur's sarcasm, Khoja Abulmakorim came to him and wished the White conqueror a sharp turn in his later life. With the spiritual support and personal participation of abulmakorim, the governor of Marginon Ali came to Babur on the same evening and conveyed the message of the city to him. Apparently, it seems that in this situation a big role was played by the fact that Khoja Abulmakorim, who was considered the pride of the marginals, joined Babur Mirzo[13,55-59]. Because, until that time, Babur Mirzo was separated from all the cities in Ferghana and completely lost hope of the opportunity to rule. Only, with the appearance of Abulmakorim, it seems that the struggle for the throne in him is more complicated[14, 83-85]. Khoja Abulmakorim sent Babur to Marginon and returned to Samarkand. After receiving Samarkand by the troops of Sheikhan, Babur calls Mirzo to come to Samarkand. After this call,

when Babur Mirzo arrived in Samarkand, Khoja Abulmakorim left the city and joined him[15,72-80]. It is true that even in the”Bournemouth " the data came from three days later to the Vasmandan stronghold of the Asfidak stronghold. Bovujudkim, went to Samarkand Navoi for a murder and came to feed, put your trust in the Lord again, ushal fantastically hung onto Samarkand after noon in Vasmandin prayer. The master Abulmakorim was also accompanied knowingly by man " [5,79].

On the stage of subsequent events in the”bournoma", the name of Khoja Abulmakorim was not mentioned. Details of the events related to the life of Khoja Abulmakorim are mentioned in the book “Musahkhir Al-Bilad” (the conquest of the countries) belonging to the pen of Muhammad ibn Arab Qataghan, who was born in the second half of XVI and died in the late first half of the XVII century. This information not only explains us from the fate of Khoja Abulmakorim, but also clarifies the assumptions that exist to this day about how the events that took place in the last years of his life actually happened: “ The Great Lord Han shaikhulislom has always instructed Khoja Abulmakorim to always be an interviewer ulfat in his serif conversation and humour sitting and to walk in his royal The degree of guardianship allowed Mr. Hodja to return to the city of ul, adding to the glory of Buhari " [16, 72-74].

In the work of Muhammad ibn Arab Qatag‘an “Musakhkhir al-Bilad“, Khoja tells about the support that Abulmakor gave to Babur Mirzo in the conquest of Samarkand and the circumstances that made them rich and wandered in the coup: "on the second day of this event, some of the appointed people who had stayed in the presence of Khoja Abulmakorim, Qasimbek qavchin and Babur Mirzo, were.. At the beginning of 907, Khoja Abulmakorim with a painful heart and tongue-pora, as well as some great scholars and scholars, came out of the gate of Samarkand with about a hundred of his original navars and drew the direction face towards Andijan...”[16,75-80].

According to the information, the marginals also occupied important functions during the reign of Mirzo Babur in India. Take, for example, one of the palace ministers of Zahiriddin Muhammad Babur, Muhib Alikhan Khossa Mukhib Ibn Nizamiddin Ali Marginani, with a seal.

In the sources it is also mentioned by the ratio of” Caliphate Fergani “as the author of the work” Boznamah". During the reign of Akbarshoh, he was the governor of Delhi and died in 1581 year. As can be seen from the name of the book he wrote, in this game there is a mention of hunting birds. [17,252]. He wrote this work, consisting of 61 chapters, dedicated to Muhib Ali Fergani Akbarshoh. For this reason, his name was written by adding the name “interviewer bakhan specific seal”, that is, “Hon nicknamed Bird specific keeper” [18, 322-323].

From this information it can be seen that the Margilan Mirzo holds an important position in the activities of the Bobur, while the Margilan is a staunch elkadosh on all fronts and served him faithfully for a lifetime.

List of used literature

1. Pidaev Sh.RMargilan in the system of world civilization // the role of the city of Margilan in the history of world civilization. International scientific conference materials dedicated to the 2000 anniversary of the city of Margilan. Tashkent, 2007.

2. Sayyid Is A Faithful Prayer. Footage from the history of Margilan / / international conference materials on the topic “the role of Burhonid in the world science and culture of Al - Marginoni”. - T.: "Science", 2000.

3. Jovonmardiev A. In the XVI-XIX centuries in Fergana, land-water issues. - T.: "Science", 1965.

4. Ibn Arabshoh. Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari). 1-kitob – T.: “Mehnat” nashriyoti, 1992.- B. 86.

5. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Porso Shamsiev, Sodiq Mirzaev va Eyji Mano (Yaponiya) nashrlari asosida qayta nashrga tayyorlovchi: Saidbek Hasanov– - T.: "Sharq", 2002.

6. Mahmud ibn Bali. The sea is relatively kinder than the prudent / / Introduction, translation, Note, indexes. B. A. Akhmedova. - T.: "Fan", 1997.

7. Mirzo Muhammad Haydar Ayoziy G‘ Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi, tadbil, izohlar va ko‘rsatkichlar muallifi O.Jalilov. - T.: "O‘zbekiston", 2011.

8. Azimzhanova S. A. UPK relay race of the secondary sex of the XV century. 1957.

9. Muhammad Mufti Ohangaroniy. Mavlono Lutfulloh manoqibi G‘G‘Fors tilidan Abdulloxo‘ja Ma’rufxo‘ja o‘g‘li va Shuhrat Sirojiddinov tarjima qilgan. - T:.Imom al-Buxoriy xalqaro jamg‘armasi, 2002.

10. Qayumov A. Asarlar. 5-jild. Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiyoti. – T.: “MUMTOZ SOZ”, 2009.

11. Kattayev K. Maxdumi A’zam Dahbediy va uning mashhur avlodlaridan meros qolgan qadimiy nodir kitoblar. Birinchi kitob. – T.: “TAFAKKUR BOSTONI”, 2016.

12. Xoja Abul Baqo ibn Xoja Bahovuddin. “Jome’ ul-maqomot”. Qo‘lyozma. O‘z FA ShI. – № 72.

13. Abdulahatov N. Amir Temur va temuriylar davrida Farg‘ona G‘G‘ Farg‘ona o‘lkashunosligi. – F.: “Farg‘ona”, 1996.

14. Abdulahatov N., G‘oziev T. Burhoniddin Marg‘inoniy: tarixiy haqiqat va asotirlar. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2010.

THE SCIENTIFIC HERITAGE OF MUHAMMAD BABUR FROM THE RESERVE

Hudoykulov Y. A.
National Guard of the Republic of Uzbekistan Military-Technical Institute Social Humanitarian associate professor of the Department of Sciences
Azamjonov A.U.
Student of Fergana State University

Only people who respect and support the ancient national values, culture, art and history will be able to achieve high career and power. History plays an important role in the promotion of each nation to the world as a strong nation, further raising our spirituality, which is a factor of progress. The president of our country Shavkat Mirziyoyev noted that “preserving the historical heritage, studying and leaving it from generations to generations is one of the most important priorities of the policy of our state”. These words serve as a guideline for all scientists and specialists, researchers working in this direction.

In this regard, among the reforms and changes carried out in our country, the attachment of the life, activity and scientific heritage of our great ancestors to the higher educational institutions of the Republic for the purpose of deep study and research in all aspects, the introduction into the life of higher education and society is reflected in the high level of attention

Our Compatriot Sh.Mirziyoyev gave a high assessment to the creativity and activity of our compatriot Zahiriddin Muhammad Babur, who made a huge contribution to the history of World Culture From our great ancestors at the pre-election meeting in Andijan in 2016, and emphasized that we should never forget that we have such ancestors, and that they are children of Andijan, as well as many The International Public Foundation named after Babur has also been carried out

many noble and rewarding works on bringing to our country the unique manuscripts and books, archival documents, as well as the study of osori wastes, as much as possible their originals or copies of extracts, which have been carried out in different periods and conditions since 1992 and are kept in prestigious museums, The importance of the international scientific expedition in the activities of the international public fund named after Babur occupies a special place. As a result of the scientific research carried out by the International Scientific Expedition of Babur in the same period, more than 700 unique books and rare manuscripts have been brought and embodied in the museum “Babur and world culture” under the fund and are included in scientific consumption. On their basis, more than 40 scientific and artistic books were published. In particular, for the next ten years, research has been carried out to study the rich scientific literary heritage of our great ancestors, to find their works that have not reached us before, to return them to their homeland and translate them, presented to readers in the form of a book.

To the Kabul edition of the “Babur Devon” takmila, “Gulbadan”, “the wall of strange Andijani”, miniatures of the “Baburnoma”, “Babur and Julius Caesar”, “thoughts about the Babur”, “Babur who has passed through the centuries”, “baburiynoma”, “in the footsteps of the Great”, “One of the Baburians”, “Indian soriga”, “from Andijan to Dakkaga”, “from Andijan to Baghdad”, “abroad the bibliography of Babur and Baburids”, “the period of baburids in the history of Central Asia and India”, “Tavorihi Musiqiyun”, “sixteenth century builder”, “Andijan shahzadasi”, “a description of greatness”, (“Habibus Siyar”), “on the roads past the great entrepreneur”, “the bibliography of Babur and Baburids”, Books "Bobur Tiger”, “Kohinur – Bobur's Apple”, "Risolai Boburiya" and many others were published.

Since the foundation was established, only one “Bournoma”itself has been re-published three times. In the intention of being understandable to today's young people and compatriots, the tabdili, Russian-language translations of the “Bournemouth”in Cyrillic and Latin alphabets were created.

The work “Historical Rashidi” by Muhammad Haydar Mirzo, the grandfather's cousin, is the second “Bournemouth” in World historiography and literary studies. Such a large memoir was translated into Uzbek from Persian and published under the auspices of our foundation.

In addition, if we talk about the work carried out in recent years on the study of the scientific heritage of our great ancestors, promotion among the current younger generation, new books being published, films on expedition trips, articles published in the prestigious editions of the Republic, for the first time in our country one of the great figures in world history, dedicated, it was accepted by scientists and intellectuals of the world Orientalists as a great scientific achievement and world-wide event.

Currently, a group of translators and specialists are working under the fund to publish the third edition of”Zahiriddin Muhammad Babur encyclopedia", as well as copies in English and Russian languages from 2020-2021. In cooperation with the Institute of Turcology of the Russian Academy of Sciences with the international public fund named after Babur, 2016 year is not less than the Encyclopedia of salmugh “Zavitiddin Muhammed Babur. Baburido‘. The book” bibliography " was released from the publication. To this end, in order to analyze, systemize, provide comments and promote the historical and creative heritage of Babur Mirzo from a scientific point of view, “Zahiriddin Muhammad Babur. Baburids " encyclopedic, scientific and scientific-popular materials collection ("Zavriddin Muhammed Babur. Baburido «собрание энциклопедических, научных и научно-популярных материалов.» A-B-V) the work is being carried out in the form of the publication of a book consisting of 4 volumes, the first volume of this collection (parts A-B-V) is released from the publication and its subsequent volumes are planned to be published for 202022 years.

In particular, the foundation plans to publish the “Babur kulliyoti” (a collection of Selected Works)under the leadership of the well-known baburshunos writer scientist, youth coach Mirzo Kenjabek, who served in Uzbekistan for 2020-2021 years, as well as the books “Bori Elga do good” dedicated to our great ancestor Zahiriddin Muhammad Babur.

Proceeding from the tasks of the Charter of the International Public Foundation named after Babur, in the current year, Zahiriddin Mohammed Babur and baburids, as well as to study and promote the scientific heritage of our other great ancestors, to publish new books, to encourage poets, writers, scientists and writers who are conducting scientific researches and researches in this regard at the level of, During these trips, we aimed to distribute the books published by the foundation to the people of Afghanistan, who are incompetent, on the basis of the project, organized international scientific trips to turn the graves of Boborahim Mashrab into painful ruins with Afghan partners into pilgrims. The Islamic State of Afghanistan was turned into a place of pilgrimage for the ruined graves of our great ancestors Alisher Navoi, mawlonoi and Kamoliddin Bekhzadlar located in the city of Herat and around it. 2150 bush landscape tree seedlings were taken from Andijan and were also divided into gardens. The governor of Herat (governor) and the officials of the Ministry of culture of the Republic of Afghanistan expressed deep gratitude to the people and government of Uzbekistan on behalf of the people of Afghanistan, and noted that Uzbekistan is not only improving the graves and tombs of its great ancestors, but also developing the light of the whole world.

The replenishment of The Book Museum “Babur and world culture” under the fund and the Museum “History of Andijan urban culture” with valuable and cultural resources is the result of scientific research conducted in the Old City of Andijan on the basis of a joint contract of the fund and the Institute of Archeology of the Republic of Uzbekistan for 25 years. The Old City of Andijan where archaeological excavations have been carried out, Sarvontepa, Devonavoy Central Mosque where the current artisans are located, and the cultural archaeological layers found between the Jome’ madrasa mosque and the IX-XVI century historical monuments there prove that the city of Andijan has a 2500-year history of urban culture. As a result of the above, two books and an archaeological museum were established, scientific conclusions were drawn by mature archaeologists of our country and taken under the protection of UNESCO. The president of our country, Shavkat Mirziyoyev, gave instructions on the introduction of the location of this cultural heritage into the route of international tourism. Inshallah, we will also celebrate Andijan's 2500-year anniversary in the coming days.

Of course, the International Public Foundation named after Babur and its scientific expedition will continue to carry out scientific research and other tasks in this direction. We think that we are waiting for new evidence, information about the life and work of Zahiriddin Muhammad Babur and other great ancestors.

Literature

1. Mirziyoyev CityM. We will build our great future together with our brave and noble people. - Tashkent: “Uzbekistan” NMIU, 2017.

2. H.The Sultan. Baburiyname-T.: "East", 1997.

3. H.Zire " lost in Test match Babur Armani: - T.: "East", 2005

4. Z.M.Oh, my God. Baburname: - T.: "New century generation", 2018.

5. L.Harald. ICA-Tiger: translator G‘.Satimov: - T.: "Uzbekistan", 2018.

6. D.Eldoshev. The birth of the emperor: - T.: State Scientific Publishing House "National Encyclopedia of Uzbekistan", 2018.

SHOH BOBUR – UNUTILMAS SIYMO

Olimov K.
Namangan davlat universiteti Tarix yo‘nalishi talabasi

O‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, buyuk shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, iste’dodli sarkarda, boburiylar sulolasi asoschisi, temuriy shahzoda Bobur (taxallusi; to‘liq ismi Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo) 1483-yilning 14-fevralida Axsikentda shahrida tavallud topgan. Boburning otasi – Umarshayx Mirzo Farg‘ona viloyati hokimi, onasi – Qutlug‘ Nigorxonim Mo‘g‘uliston xoni va Toshkent hokimi Yunusxonning qizi edi. Boburning yoshligi Andijonda o‘tgan. Bobur barcha temuriy shahzodalar kabi maxsus tarbiyachilar, yirik fozilu ulamolar ustozligida harbiy ta’lim, fiqh ilmi, arab va fors tillarini o‘rganadi, ko‘plab tarixiy va adabiy asarlar mutolaa qiladi, ilm-fanga, she’riyatga qiziqa boshlaydi. Dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan “Bobur” (“Sher”) taxallusini oladi. Otasi Axsida bevaqt, 39 yoshida fojiali halok bo‘lgach, oilaning katta farzandi, 12 yoshli Bobur valiahd sifatida taxtga o‘tiradi [1].

Bobur yosh bo‘lishiga qaramasdan, bir qator harbiy yurishlarga rahbarlik qiladi. 1497-yil kuzida u bobo yurt Samarqand atrofidagi bir qancha joylarni va 7 oylik qamaldan so‘ng Samarqandni egallaydi [2]. 1501-yilga kelib Bobur Samarqand shahrini nizolar tufayli tark etib Toshkentga keladi. 1501 – 1504-yillarda Bobur Farg‘ona mulkini qaytarib olish uchun Sulton Ahmad Tanbal, Jahongir mirzolarga qarshi olib borgan kurashi muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi va naijasda u Movarounnahrni tark etishga majbur bo‘ladi. Bobur 200 – 300 navkari bilan Hisor tog‘lari orqali Afg‘onistonga o‘tadi va u yerdagi ichki nizolardan foydalanib G‘azna va Kobulni egallaydi. Bobur Kobulni egallagach, mustaqil davlat tuzishga jadal kirishadi, qo‘shinni tartibga keltiradi, qattiq ichki intizom o‘rnatadi. Kobulga, umuman Afg‘onistonga Bobur o‘z yurti kabi qaradi, qurilish, obodonlashtirish, kasbu hunar va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish ishlarini boshlab yuboradi. “Bog‘i Shahroro”, “Bog‘i Jahonoro”, “O‘rtabog‘”, “Bog‘i vafo” va “Bog‘i Bobur” kabi oromgohlar tashkil etdi [3]. Shahar ichidagi Bolo Hisor qal’asini o‘z qarorgohiga aylantirdi [4]. Yangi imoratlar qurdirdi va oilasi bilan shu qal’ada yashadi. Uning Humoyun, Gulbadanbegim, Komron va Hindol ismli farzandlari shu yerda tug‘iladi.

1519-yil bahoriga kelib Bobur Hindistonni zabt etish rejalarini amalga oshirishga kirishadi va 1526-yil aprelda Panipatda asosiy raqibi, Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diyning yuz ming kishilik qo‘shinini 12 minglik askari bilan tormor qiladi hamda Dehlini egallaydi. Bobur Hindistonda ham, xuddi Afg‘onistonda bo‘lganidek, ko‘plab ijtimoiy xayrli ishlarni amalga oshirdi, mamlakat taraqqiyotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Tarqoqlik va parokandalikka, o‘zaro ichki nizo, qirg‘inlarga barham berib, viloyatlarni birlashtirdi, markazlashgan davlatni mustahkamlash va yurtni obodonlashtirishga, ilmu hunar va dehqonchilikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratdi. Qurilish ishlariga boshchilik qildi. O‘tmish adabiyoti va tarix, musiqa va san’atdan yaxshi xabardor bo‘lgan, diniy ta’limotga chin ixlos qo‘ygan Bobur har doim olimu fozillar davrasida bo‘ldi, xususan ijod ahliga, kasbu hunar sohiblariga samimiy ehtirom ko‘rgazib homiylik qildi, ularni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirib turdi. Ijod va san’at ahliga bunday mehrli munosabat aslo bejiz bo‘lmagan. Bobur tabiatan ijodkor edi. Yigitlik yillaridan boshlab to umrining oxirigacha samarali ijodiy ish bilan shug‘ullandi, har qanday sharoit va vaziyatlarda ham ijoddan to‘xtamadi, natijada, har jihatdan muhim boy ilmiy va adabiy meros qoldirdi. Bobur 18–19 yoshlarida ruboiy va g‘azallar yoza boshlagan. Uning “Topmadim” radifli g‘azali va “Yod etmas emish kishini g‘urbatda kishi” misrasi bilan boshlanuvchi ruboiysi o‘sha yillardagi hayoti bilan bog‘liq. Boburning ulkan san’atkorligi shundaki, shaxsiy kechinmalarini jiddiy umumlashma darajasiga ko‘tara oladi va

natijada asarlarida olg‘a surilgan g‘oyalar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko‘tariladi. Bobur ijodida, xususan, she’riyatida kindik qoni to‘kilgan ona yurtini dildildan qo‘msash, uning tuprog‘iga talpinish, g‘ariblik azoblaridan o‘tli hasrat, yoru diyor soginchi va visol ilinji, takdir zarbalari va turmush uqubatlari, zamona noso‘zliklaridan nola badiiy tahlil etiladi.

Bobur ijodida ishq-muhabbat, sevgi-sadoqat, visol va hijron mavzusi ham salmoqli o‘rin tutadi. Uning g‘azal va ruboiylarida, tuyuq va masnaviylarida ma’shuqaning maftunkor go‘zalligi, beqiyos husnu latofati, sharqona odobu axloqi musiqiy va ravon misralarda katta mahorat bilan tarannum etiladi. 1521-yil Hindistonga yurishlari davrida Bobur “Mubayyin” asarini yaratdi. Masnaviy tarzida yozilgan, islom huquqshunosligi va shariat aqidalariga bag‘ishlangan bu asarda Movarounnahr va Hindistonga oid o‘sha davr ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bo‘yicha qiziqarli ma’lumotlar ham jamlangan. Valiahd Humoyun va Komron Mirzolarga dasturulamal sifatida mo‘ljallangan “Mubayyin”da, ayni zamonda, namoz, zakot va haj ziyorati to‘g‘risida ham shar’iy mezonlar bayon qilingan. Shu yillarda Bobur Sharq she’riyatining asosiy masalalaridan biri aruz vazni, uning nazariyasi va amaliyotiga oid ilmiy risolasini yakunlaydi. Shuningdek, Bobur barchaga yaxshi ma’lum bo‘lgan Movarounnahr, Xuroson, Afg‘oniston va Hindistonning 1493 – 1529-yillardagi tarixiga bag‘ishlangan “Boburnoma” asarini ham juda yuksak mahorat bilan yaratgan [5]. Ushbu asar 1518 – 1519-yillarda yozila boshlangan va umrining so‘nggi kunlarigacha bu asar ustida ish olib borgan. Hozirda uning 119 g‘azali, bir masnu she’ri, 209 ruboiysi, 10 dan optiq tuyuq va qit’alari, 50 dan ortiq muammo va 60 dan ziyod fardlari aniqlangan. Devoni tarkibida umumiy hajmi 270 baytdan iborat 8 masnaviy ham o‘rin olgan [6]. Boburning yuqorida keltirilgan asarlaridan tashqari, “Xatti Boburiy”, shuningdek, musiqa san’ati va harb ishlariga maxsus bag‘ishlangan qator risolalari ham bo‘lgan. Ammo keyingi ikki asar matni hanuz topilgan emas. “Xatti Boburiy”da muallif arab alifbosini tahrir etib, yozuvni soddalashtirish va osonlashtirish maqsadida uni turkiy til va talaffuz mezonlariga moslashtirgan [7]. Yuksak salohiyat sohibi, barcha sohalarda avlodlarga o‘rnak bo‘lgan Bobur Mirzo 47 yoshida o‘zi asos solgan saltanat poytaxti Agrada vafot etdi va o‘sha yerda dafn etildi, keyinchalik, vasiyatiga muvofiq xoki Kobulga keltirilib, o‘zi bunyod ettirgan “Bog‘i Bobur”ga qo‘yildi.

Bobur Mirzo hozirgi jamiyat uchun yana bir jihati sabab buyuk hisoblanadi. U nafaqat davlat arbobi balki, ota sifatida ham buyuk inson edi. Uning farzandlariga bergan tarbiyasi butun boburiylar sulolasining yuksak saviyasini belgilab bergan. Hozirgi jamiyat uchun ham yuqoridagi tarbiya yaqqol o‘rnak bo‘la oladi. Ulug‘ siymo xotirasi uchun mustaqil O‘zbekistonda salmoqli ishlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimov farmoniga ko‘ra 1993-yilda Bobur tavalludining 510 yilligi tantanali nishonlandi. Andijon shahrida Bobur milliy bog‘i majmuasida “Bobur va jahon madaniyati” muzeyi, shoirning ramziy qabr maqbarasi bunyod etilgan. Shahar markazida va Bobur bog‘idagi yodgorlik majmuida shoirga haykal o‘rnatildi. Andijondagi markaziy ko‘chalardan biriga, shuningdek, Toshkentdagi istirohat bog‘i va ko‘chaga, Andijon viloyati, Xonobod shahridagi istirohat bog‘iga Bobur nomi berildi [8]. O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Bobur nomidagi medali ta’sis etildi. Sharqshunos olim Ubaydulla Karimov bu medalning birinchi sovrindori bo‘ldi. Andijonda 1993-yil 23-dekabrda Xalqaro Bobur jamg‘armasi tashkil etildi. Ushbu jamg‘arma Bobur ijodini o‘rganishda katta ishlarni amalga oshirdi. Jamg‘armaning ilmiy ekspeditsiyasi 10 dan ortiq Sharq mamlakatlari bo‘ylab ilmiy safarlar uyushtirib, 200 ming km dan ortiq masofani bosib o‘tdi, Bobur va boburiylar qadamjolari, ularning ilmiy merosiga oid yangi ma’lumotlar to‘plab, ularni ilmiy iste’molga kiritdi. Mazkur ma’lumotlar asosida 10 dan ziyod ilmiy, hujjatli, badiiy asarlar yaratildi. Jamg‘armaning Lohur (Pokiston), Haydarobod (Hindiston), Abu Dabi (Birlashgan Arab Amirliklari), Moskva (Rossiya

Federatsiyasi), O‘sh (Qirg‘iziston), Toshkent, Namangan (O‘zbekiston) shaharlarida bo‘limlari mavjud. 1998-yil jamg‘armaning bobur shunoslik sohasidagi xalqaro mukofoti ta’sis etildi.

Xulosa qilib aytganda, Bobur Mirzo butun dunyoda dong taratgan imperiyaga asos soldi, nafaqat Movarounnahr, balki, Afg‘oniston va Hindistonning madaniyati shakllanishida ham muhim ahamiyat kasb etdi. Barcha xalqlar uchun diniy erkinlik bergan sanoqli hukmdorlardan biriga aylandi. She’riyat dunyosida “ruboiylar sultoni” nomini oldi. O‘z avlodlari va bugungi avlodlarning yuragida yuksak darajadagi shaxs, “shoh va shoir” nomining chin ma’nodagi sohibi, o‘tli qalb egasi, buyuk sifatida o‘rin egalladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmonov U., Jo‘rayev U., Norqulov N. O‘zbekiston tarixi. – T., 2014. – B. 5.
2. Jo‘rayeva G., Usmonov Q., Jo‘rayev U., Norqulov N. O‘zbekiston tarixi. – T., 2019. – B. 9.
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/.
4. Лебедова Т. И., О неисследованних погребенях Гури Амир //Археология, история и култура Средниии Азии. 2002. – С. 68.
5. Usmonov U., Jo‘rayev U., Norqulov N. O‘zbekiston tarixi. – T., 2014. – B. 16.
6. O‘zME. Birinchi jild. – Toshkent, 2000. B. 81
7. Hofiz Tanish al-Buxoriy. Sharafnomayi shohiy. Asos. 1983-yil. B. 65
8. Abdulahad Muhammadjonov, Abdurashid Abdugafurov. O‘zME. Birinchi jild. 2000-yil. B. 78

“BOBURNOMA” ASARIDA TARIXIY VOQELIKLARNING TAVSIFI VA BAYON ETILISH USULI

Xolmonova N.Sh.

Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakulteti magistranti

Vatanimiz tarixida shunday hukmdorlar borki, o‘z nomlarini tarixda nafaqat adolatli boshqaruvi, harbiy jihatdan ustuvorliklari bilan emas, balki, kelajak avlod uchun qoldirgan ulkan tarixiy memuar asarlari bilan ham muhrlagan. Ulardan biri temuriy Zahiriddin Muhammad Bobur bo‘lib, o‘zining “Boburnoma” asarida o‘z davridagi ko‘plab kishilarning turli vaziyatlardagi kechinmalari, Osiyoning ko‘plab tabiati, iqlimi, aholisi, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy ahvoli haqidagi ma’lumotlar jamlangan. “Boburnoma” – o‘zbek nasrining go‘zal namunasi. Ungacha Yusuf xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari muqaddimasida, Rabg‘uziy ijodida nasr namunalari uchrar edi. Alisher Navoiy uni yuqori pog‘onaga olib chiqdi. Biroq “Boburnoma” bu borada o‘zbek nasrining o‘ziga xos kashfiyoti sifatida yuz ko‘rsatdi. Asarda tarixning Bobur yashab o‘tgan davri voqelari ifodalangan. Bu voqealar Andijon, Samarqand, Xo‘jand, Hirotdan boshlab Kobul va Agragacha bo‘lgan qamrovga ega. Ya’ni unda O‘rta Osiyodan boshlab Hindistongacha bo‘lgan masofadagi deyarli 50 yillik voqealar haqqoniy ifoda va bahosini topgan. “Boburnoma”dagi voqealar bayoni aniq, ixcham va lo‘nda, ta’sirchan, eng muhimi, hayotiy haqiqatga mos va muvofiqligi bilan e’tiborlidir. Muallif voqealar bayonida tabiat tasviriga, ayrim joylar tavsifiga, alohida kishilarning ta’riflariga jiddiy ahamiyat beradi. Asarda o‘sha davr kishilarining haqqoniy, realistik tasviri berilgan. Bu narsa Boburning bergan ma’lumotlaridagi ishonchlilikni ta’minlagan. Asar bilan yaxshi tanishish Bobur xarakterini, undagi fazilatlar manbalarni aniqlashga imkon beradi [1].

Bobur ko‘plab hukmdorlar, mamlakat boshliqlari haqidagi tarixiy faktlarni muhrlab qoldirgan. Amir Temur, Umarshayx, Mirzo Ulug‘bek, Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Badiuzzamon, Muzaffar mirzo singari davlat boshliqlarining siyosiy-ijtimoiy faoliyatlariga baho berilgan. Boburning o‘zi har qanday holatda, hatto urush-taloshlar avj olib turganida ham adolat

mezonini qattiq tutgan. Jumladan, 909 (1503–1504)-yillar voqealari bayonida shu holat kuzatiladi. Qunduz shahri atrofida Xisravshohning askarlari ancha betartiblikka, zulm va zo‘ravonlikka o‘rgangan edilar. Ular Boburga qo‘shilganidan keyin ham bu odatlarini tashlamaydi. Bir navkar “birovning bir ko‘za yog‘ini tortib olg‘on uchun eshikka kelturub tayoqlattim, tayoq ostida o‘q joni chiqdi. El bu siyosattin tamom bosildilar”, – deb ta’kidlaydi Boburning o‘zi.

“Boburnoma”da adabiyot va san’at ahli, ilm-ma’rifat kishilariga ham munosib o‘rin berilgan. Unda Abdurahmon Jomiy, Shayxim Suhayliy, Husayn Ali Tufayliy, Sayfiy Buxoriy, Mir Husayn Muammoiy, Mullo Muhammad Badaxshiy, Yusuf Badiiy, Ohiy, Muhammad Solih, Hiloliy, Ahliy, Alisher Navoiy, Binoiy va boshqa so‘z ustalari haqida maroqli hikoyalar mavjud.

Bu o‘rinda adibning Alisher Navoiy haqidagi ma’lumotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Asarda Navoiy siymosiga bir necha marotaba murojaat qilinganini kuzatish mumkin. Ular orasida Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari, Navoiyning shaxsiyati, uning ijodi, adibning badiiy ijod va ijodkorlarga bo‘lgan munosabati haqida ko‘plab qimmatli kuzatishlar mavjud.

“Boburnoma”da adibning shaxsi, uning tarjimayi holi, xarakteri, qiziqishlari, kishilarga munosabati borasidagi qarashlari tegishli tarzda o‘z aksini topgan. Biz asar sahifalaridan Bobur shaxsiyatidagi rostgo‘ylik, mardlik, adolatparvarlik, mehribonlik, qattiqqo‘llik, hassoslikning namoyon bo‘lish holatlari bilan tanishamiz. Asarda Boburning ajdodlari, oilasi, avlodlari haqida ham birlamchi materiallar berilgan. Unda ayrim asarlarning yaratilish tarixi haqidagi materiallar ham keltirilgan, jumladan, 906 (1500–1501)-yillar voqealari bayonida bir hukmdorning Boburga yaxshi iltifot ko‘rsatmagani aytiladi va adib quyidagi misralarini eslatadi:

Kim ko‘rubtur, ey ko‘ngul, ahli jahondin yaxshiliq?
Kimki ondin yaxshi yo‘q, ko‘z tutma ondin yaxshiliq.

“Boburnoma”ning boshqa memuar asarlardan yana bir alohida qiymatlilik darjasi shundaki unda tasvir uslubi nihoyatda yengil yani istalgan o‘quvchi undagi voqealarning mag‘zini osongina tushunib oladi. Bundan tashqari XV-XVI asrlarda Markaziy Osiyo, Afg‘oniston, Hindiston o‘lkasini tarixiy, geografik va toponomik jihatdan Boburnomadan mufassalroq yoritilgan biror asar yo‘qki bu memuar asar bugungacha Yevropa olimlari tomonidan o‘rganiladi. Bobur o‘z asarida Temuriylar davlatining inqirozini hech bir mubolag‘alarsiz bayon etadi, o‘zining Shayboniyxondan yengilganligini tajribasizligi tufayli bo‘lgani va bu unga achchiq saboq bo‘lganini ham keltirib o‘tadi. Bobur temuriylar davlatini saqlab qolishga nechog‘liq urinmasin temuriylar o‘rtasidagi boshboshdoqlik va o‘zbo‘larchilik bunga yo‘l qoymaganini hatto kezi kelganda eng yaqin odamlari uni sotib ketgani, dushman bilan ittifoq tuzganini achchiq g‘azallari va ruboiylarida qayd etadi va bularni yoritilish tarixini ham “Boburnoma”da yozib o‘tadi.

Yetakchi sifatida tarix maydoniga chiqqan Bobur “Boburnoma”ning 1507-1508 yil voqealari bayonida, ya’ni Hindiston azimati oldidan o‘zi joriy qilgan bir siyosiy islohoti, ya’ni o‘zini podshoh deb e’lon qilish buyrug‘i, sanasi haqida ilhom bilan to‘xtalar ekan, shu o‘rinda Amir Temurni eslaydi: “Ushbu tarixqacha (913 yil) Temurbekning avlodini bovujudi saltanat mirzo derlar edi, ushbu navbat buyurdumkim, meni podshoh degaylar [2].

Kesh, Samarqand, Qorako‘l (viloyat), Dehkat (kent), Xuroson (viloyat), Mo‘lton (navohi), Hirot, Qandahor, Bihira (viloyat), Dehli, Agra kabi shahar, kentu viloyatlar bilan bog‘liq tasvirlar. Tabiiyki, bu holat tarixan Amir Temur ixtiyorida bo‘lib, keyinchalik podshoh Bobur tasarrufiga o‘tgan viloyat, yurt, o‘lka, shahar tasvirlarida ko‘p uchraydi. Shuni mamnuniyat bilan ta’kidlash lozimki, Boburning “Boburnoma”da keltirgan shahar, viloyatlar tasvirida va obodlik, farovonlik yo‘lida amalga oshirgan keng qamrovli faoliyatlari, yetakchilik salohiyatlari bayonida Amir Temur, temuriylar va o‘zining Sharq Uyg‘onish davri madaniyatining ajralmas qismi bo‘lgan shaharsozlik madaniyatiga ko‘rsatgan ta’siridan va ular hukmronligi davrida shaharlarning taraqqiy topganidan

yetarlicha xabardor bo‘lamiz. Tarixiy manbalarda Dilkash shahar deb nom olgan Kesh tasviriga diqqat qilsak, tasvir orqali Kesh qadimdan Amir Temurning ajdodlari bilan bog‘liq shahar ekanligi va uning o‘zi tuzishga bel bog‘lagan yirik markazlashgan davlat uchun poytaxt shahar tanlashdagi bilimi, mahorati, to‘xtami, qaroridan ham voqif bo‘lamiz: “Yana Kesh viloyatidur… Bahorlar sahrosi va shahri va bomi va tomi xo‘b sabz bo‘lur uchun Shahrisabz ham derlar. Temurbekning zodu budi Keshdin uchun shahr va poytaxt qilurig‘a ko‘p sa’y va ehtimomlar qildi. … Chun Keshning qobiliyati shahr bo‘lmoqqa Samarqandcha emas edi. Oxir poytaxt uchun Temurbek Samarqandni-o‘q ixtiyor qildi” [3]. Bobur ushbu ma’lumotini asarda “Samarqandni Iskandar bino qilg‘ondur. Mo‘g‘ul va turk ulusi Samarqand derlar. Temurbek poytaxt qilib erdi. Temurbekdin burun Temurbekdek ulug‘ podshoh Samarqandni poytaxt qilg‘on emas” [4], deb yozgan qimmatli ma’lumoti bilan to‘ldirgan. Bobur ushbu qisqa tasvirida mahorat bilan poytaxt Samarqandni yer yuzining madaniy va ma’rifiy markazlaridan biriga aylantirgan ulug‘ bobokalonining tabarruk nomini qayta-qayta yodga olib, go‘yo botini va zohiridagi g‘uborlardan xalos bo‘lib, u ulug‘ zotga ko‘rsatgan lutfi, cheksiz hurmatiga guvoh bo‘lamiz. Mazkur o‘rinda shuni alohida ta’kidlash kerakki, taniqli matnshunos olim V. Rahmonov Bobur “Boburnoma”da bir necha marta maroq bilan qo‘llagan “zodu budi” iborasini Kesh va Andijon tasviri misolida sharhlar ekan, olim “… Bobur o‘zining tug‘ilib o‘sgan shahri Andijon ekanligini ham shu tarzda ifodalagan” [5], deb alohida qayd qilgan. Yoki muallif Qorako‘l shahri bayonida Amir Temur barpo qildirgan mashhur bog‘laridan biri bilan “Temurbek degandurkim” deya mamnuniyatu e’tirofini yaqqol sezdirib, Sohibqironni shunday tanishtiradi: “Yana Qorakul viloyatidur… Andoq mashhurdurkim, Temurbek degandurkim: mening bir bog‘im borkim, tuli o‘ttuz yig‘achtur” [6].

Harbiy taktika va bunyodkorlik ishlarida o‘zining faoliyati bilan bog‘liq qiyosiy tasvirlarda. Bobur o‘zini Husayn Boyqaro yoki boshqa temuriy shahzodalar bilan qiyoslagan tarixiy tasvirlardan biriga murojaat qilsak.“Boburnoma”ning 1503–1504 yil voqealar bayonida, ya’ni Kobulda mustaqil hukumat tuzgan Bobur Mirzoga Sulton Husayn Mirzodan Shayboniyxonga qarshi turishga undovchi xabarlar keladi. Maktublardan birida Husayn Boyqaro Bobur Mirzoga Kohmard va Ajarda harbiy istehkom bilan mustahkam turishi haqida yozib yuboradi. Ammo Husayn Boyqaroning oqibatini o‘ylamay tutgan harbiy taktikasi va rejalari Bobur Mirzoga ma’qul kelmaydi va bu o‘rinda u ogohlik bilan temuriylar davlati asoschisi bo‘lgan mulkgir Amir Temurni yodga oladi. Ya’ni “Sulton Husayn Mirzoning bu xatlari mujibi noumidlik bo‘ldi. Ne uchunkim, Temurbekning yurtida bu tarixda andin ulug‘roq podshoh ham yosh va ham viloyat va ham cherik bila yo‘q edi”. Yana u “Temurbek o‘rnig‘a o‘lturg‘on” deya fikrlarini davom ettirib, g‘alabasi, oqibati ta’minlanmagan harbiy yurishdan qattiq norozi bo‘lganligini yaqqol sezdirib, shunday tushuntiradi: “Sulton Husayn Mirzodek Temurbek o‘rnig‘a o‘lturg‘on ulug‘ podshoh g‘animining ustig‘a yurumakni demay, yer berkitmakni desa, el va ulusqa, ne umidvorliq qolg‘ay?” [7].

Samarqand taxtida alohida hukumat surgan va davlat boshqargan temuriylar

birma-bir sanab, izohlab ko‘rsatilgan tarixiy va qizg‘in jarayonlar tasvirida. Samarqand taxti va mamlakat boshqaruv tizimi bilan bog‘liq aniq voqealar bayonida Bobur Mirzo Amir Temurning Samarqand taxtiga o‘tirgandan boshlab, to o‘zigacha Samarqand taxtiga o‘tirgan va hukumat surgan Temurbek, Jahongir Mirzo, Muhammad Sulton, Ulug‘bek Mirzo, Abdulatif Mirzo, Abdulla Mirzo, Abusaid Mirzo, Sulton Ahmad Mirzo, Sulton Mahmud Mirzo, Boysunqur Mirzo, Ali Mirzo kabi o‘n ikki nafar temuriy hukmdorlarni nomma-nom, tartib bilan sanab ko‘rsatgan, faqat o‘zinigina kishilik olmoshi “men” bilan “Boysunqur Mirzodin men oldim” deb yozgan. Nimagadir Bobur sulolaning bu kabi tarixiy ma’lumotida Samarqand taxtida besh yil hukmronlik qilgan va qaysidir ma’noda ko‘ngil ishini mulk ishidan ustun qo‘ygan Xalil Sultonni bu silsilada tilga olmagan, ko‘rsatmagan. Bunday tartib bilan ko‘rsatish, birinchidan, Bobur uslubiga xos bo‘lib, ikkinchidan

esa u kitobxonni 140 yillik Samarqand taxti, boshqaruv tarixi bilan, ya’ni o‘zi “… yuz qirq yilg‘a yovuq Samarqand poytaxti bizning xonavodada edi…”[8], deb yozgan e’tirofi, izohi bilan qisqa, aniq tarzda tanishtiradi.

“Boburnoma” o‘zining manba sifatidagi qiymatini bugungi kungacha yo‘qotmagani shundaki undagi ma’lumotlarning to‘liq va aniqligi, bundan tashqari tasvir uslubini tushunarliligidadir. “Boburnoma”da tarixiy voqealar xronologik ketma ketlikda keltiriladi, bundan tashqari tarixiy izchillik ham yo‘qolmagan. Bobur voqealarni ko‘proq og‘zaki bayon qilish uslubidan foydalanib yozib qoldiradi. Shuningdek “Boburnoma”ning yana bir muhim manbaligi shundaki o‘sha davrning toponimik nomlarini nihoyatda ko‘plab keltirib o‘tilganligi va ularning qayerda va qanday paydo bo‘lganini ham aytib o‘tilganligidadir. Shunday ekan “Boburnoma” tarixiy memuar manba sifatida yana ham ko‘plab tadqiqotlarni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mallayev N. Boburnoma // O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O‘qituvchi, 1976. 174 bet
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma . Toshkent: Sharq, 2002.
3. Sharafiddin Ali Yazdiy nazarda tutilayabdi…(Rajabova B. Alisher Navoiy ijodida Amir
4. Temurga oid ma’lumotlar // O‘zbek tili va adabiyoti, 2016, 1-son. 42–48–betlar.)
5. Mallayev N. Boburnoma // O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O‘qituvchi, 1976. 593-609-betlar

THE IMPORTANCE OF EDUCATION IN THE WORK OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR

Nuriddinova Y.B.
Uzbekistan State World Languages University, 2nd Faculty of English,
2nd year student

Zahiriddinov Muhammad Babur is one of the famous representatives of Uzbek classical literature who lived in the late 15th and early 16th centuries. Zahiriddin Muhammad Babur in his controversial, complex and short life (1483-1530). Although they were created, not all of them have survived. Babur's works, which have been added to the treasury of knowledge so far, are an incomplete divan, Islam. A book of poems entitled “Mubayyin”, which explains the basics, and a booklet on mysticism called Walidiya with the translation, the alphabet table invented by Babur and known as "Baburi's Behavior" and in your hands. It consists of the work "Baburnoma". The most important and largest of Babur's creative legacies are the peoples of Central Asia, Afghanistan, India and Iran. Containing rare and valuable information on the history, geography, and ethnography of the Uzbek period. “Baburnoma” is a shining example of classical literature and literary language. This is the content of the work the diversity, the inclusion of a world of material, the beauty of language and style of the eighteenth, especially the nineteenth century. Attracted the attention of orientalists, and various manuscripts of it began to be sought, and the West had begun to translate into their languages[1.].

According to his own testimony, Babur's creative career as a poet began during his second conquest of Samarkand; "At that time, I would say a few bytes," he wrote. In the first months of Babur's reign in Samarkand, Alisher Navoi initiated correspondence between them. It was during these years that artists began to gather around Babur. In particular, the rubai poem between Binoi, Abulbaraka and Babur testifies to the intense literary life in Samarkand. In general, as a statesman and a long-time warlord, Babur was able to find time for creative work, gathering and sponsoring

people of science, art and creativity, even during the busiest period of his social life, when his personal life and state were in extremely difficult and dangerous conditions. , encouraged them. Babur, who was well versed in literature and history, music and art, and devoted to religious teachings, was always in the circle of scholars and scholars, especially with respect and patronage of the creative people and professionals, and encouraged them materially and spiritually. Such a kind attitude to the people of art and creativity was not in vain. Babur was creative by nature. From his youth to the end of his life, he was engaged in fruitful creative work, did not stop working in any circumstances, and as a result, left a rich scientific and literary heritage, which is important in all respects.

The International Babur Foundation (1993.23.12), headed by Andijan naturalist Zokirjon Mashrabov, did a great job in studying Babur's work. The Foundation's scientific expedition has traveled more than 200,000 km by car to more than 10 Eastern countries, collecting new information about the Babur and Baburid shrines and their scientific heritage and putting them into scientific use. On the basis of this information more than 10 scientific, documentary, artistic works (3. Mashrabov, S. Shokarimov: "Bobur for centuries"; S. Jalilov: "Bobur's Fergana state", "Bobur and Andijan"; Qamchibek Kenja: "Indian sorig" H. Sultanov: "Dreams of Bobur", "Boburiynoma"; R. Shamsuddinov: "In the footsteps of Boburiylar", "Boburiylar dynasty"; T. Nizam: "Three words"), about 10 documentaries, videos (F. Rasulov: „ In the footsteps of Babur ”,“ Sacred shrines ”; T. Roziyev:“ Greetings of Babur ”,“ International Scientific Expedition named after Babur ”; T. Hamidov:“ Pride ”and others). The Fund has branches in Lahore (Pakistan), Hyderabad (India), Abu Dhabi (United Arab Emirates), Moscow (Russia), Osh (Kyrgyzstan), Tashkent and Namangan (Uzbekistan). In 1998, the Foundation's first international awards in the field of beekeeping were awarded to Pirimkul Kadyrov, Sabohat Azimjanova, Gaybulloh asSalom, Nematilla Otajonov, Khayriddin Sultanov, Eyje Mano (Japan), Muhammadali Abdukunduzov, Maqsud Yunusov, Shafiqa Yorkin (Uzbekistan), Tursunov, Uzbekistan (Uzbekistan). , Rahmonjon Azimov, was given to Muhammadjon Mirzayev[2.].

In addition to large-scale government work in India, Babur continued his literary and artistic activities and created the above-mentioned works. Bobur's world-famous masterpiece is the Boburnoma. It is known that it covers the history of the peoples of Movarounnahr, Khorasan, Iran and India during the period of Babur's life. The work consists mainly of three parts, the first of which deals with the events that took place in Central Asia in the second half of the 15th century; the second part, the events of the end of the 15th century and the first half of the 16th century in Kabul, that is, in Afghanistan; the third part is devoted to the history of the peoples of Northern India in the first quarter of the sixteenth century. The "Boburnoma" perfectly describes the political events of that period, the political and economic situation in the Fergana region, its capital Andijan, the largest cities of Central Asia: Samarkand, Bukhara, Karshi, Shakhrisabz, Osh, Extremely rare information is given about Urgench, Uratepa, Termez and other cities. It contains information about the major cities of the Kabul nation, Kabul, Ghazni, and many of their districts, provinces, and northern India. As we turn the pages of the Boburnoma, we see the qualities and shortcomings of the peoples of Central Asia, Afghanistan and India, as well as the breadth and complexity of their world of thought, the problems of life at that time, the political and social life of Babur. The landscape is displayed. This type of information in the Baburnama is not so clear and complete in the works of other historical sources written during the time of Babur: Mirkhand, Khandamir, Muhammad Salih, Binai, Muhammad Haydar, Farishta, Abul-Fazl Allami and other historians. In "Boburnoma" the author expresses his highest opinions and comments about Alisher Navoi, Abdurahmon Jami, Behzod, Mirzo Ulugbek and other scholars.

Although the "Boburnoma" - reflects the history of the peoples of Movarounnahr, Khorasan, India, Iran in the late fifteenth and first half of the sixteenth century, it also addresses many pressing economic and social issues, including the above-mentioned regions. continuous political, economic and trade relations, geographical location, climate, flora and fauna, mountains, rivers, peoples, tribes and peoples and their living conditions, customs, important historical structures - temples of Hindus and Muslims , is a royal masterpiece that contains extremely rare information about weddings and funerals. That is why "Boburnoma" as a historical and literary heritage amazes scientists around the world.

For many years, prominent orientalists of the West and the East have worked hard to bring the content of the Boburnoma to the world community. For example, the Dutch scientist Witsen, the British scientists J. Leiden, V. Erskin, R. Koldekot, A. Beverej, T. Albot, the German Yu. Kleinrat and A. Keyzer, Pave de Courteil of France, Mirza Nasriddin Haydar Rizvi of India, RR Art and NI Bayur of Turkey and Bakke Gromon of France, Abulhay Habibi of Afghanistan, Rashid Akhtar of Pakistan, Nadvi and Shah Alam Mawliyat of Pakistan. . Japanese scholars are among the world's leading orientalists in the study of the Boburnoma. It is known that the work of Uzbek, Tajik and Russian scholars in the study and popularization of Babur's historical, scientific and literary heritage is also noteworthy. During the XIX-XX centuries Georg Ker, N. Ilminsky, O. Senkovsky, M. Sale, Porso Shamsiyev, Sodiq Mirzayev, V. Zohidov, Ya. Thanks to the efforts of such scholars as Gulomov, R. Nabiyev, S. Azimjanova, A. Kayumov, "Boburnoma" was repeatedly published in Russian and Uzbek, with a foreword and a spirituality of a wide range of readers. became his property, and his poems were also published several times. Babur is also known in Uzbek literature for his delicate lyrical works. His life and literary activity coincided with the height of the chaos of feudal groups in Movarounnahr, where political life was finally complicated, and the crisis of the Timurid state continued. If we see the reflection of such complexities in the "Boburnoma", the poet's psyche is reflected in his poems. When his attempts to unite Movarounnahr were unsuccessful, Babur reflected in his poems the mood of a time when he was mentally tormented and frustrated by the betrayals of officials. Later, when he left his homeland and went to Afghanistan and India, Babur's poetry began to feel a sense of homeland, a longing for the homeland, and the hope of returning to it[3.].

Babur is known as an enlightened ruler, patron of arts, science and culture. Around his court in Agra, he gathered many eminent writers, poets, painters, musicians and scholars. He himself was a scientist, a talented writer and poet. Babur's daughter, Gulbadan-begim, recalled that her father built an equestrian polo court in the city of Sikri with a special room where he used to write books. Babur is the author of lyric poetry (rubai and gazelles), treatises on Muslim jurisprudence (Mubayin), poetics (Aruz risolasi), music, military affairs, the creator of the special alphabet of Khatt-i Baburi. The pinnacle of Babur's scientific and literary heritage, the creation that brought him world fame, is undoubtedly the unique autobiographical book Babur-name (Babur's Notes), which reflected information about the history and life of peoples, economy, nature and geography of Central Asia, Afghanistan and India at the end of the 15th - the beginning of the XVI centuries.

The famous work of our great compatriot Zahiriddin Muhammad Babur "Boburnoma" was published in Spanish under the name "Babur Memurias". The work was translated by Merse Comes, a professor at the University of Barcelona and an orientalist. In November of this year, the university hosted a presentation of the book with the participation of the Spanish public and writers. Professor Merse Comes presented the book to the President of Uzbekistan Islam Karimov out of deep respect for the Uzbek people. In this regard, the head of our state sent a letter of thanks to the Spanish scientist. He reads: "I sincerely thank you for translating and publishing in Spanish the

work" Boburnoma ", created by the great poet and scholar of the Uzbek people, great statesman and public figure Zahiriddin Muhammad Babur and one of the rare masterpieces of Uzbek national culture. He declare that "I am confident that the Boburnoma, translated by your initiative and efforts, will serve not only in Spain, but also in the Spanish-speaking world to get acquainted with the unique cultural and rich historical heritage of our country. President Islam Karimov sincerely congratulated the translator on the coming New Year 2005, wished him good health, scientific and creative victories, and invited him to visit Uzbekistan where Babur was born and raised.

Babur is known as an enlightened ruler, patron of arts, science and culture. Around his court in Agra, he gathered many patron of arts eminent writers, poets, painters, musicians and scholars. He himself was a scientist, a talented writer and poet. Babur's daughter, Gulbadan-begim, recalled that her father built an equestrian polo court in the city of Sikri with a special room where he used to write books. Babur is the author of lyric poetry (rubai and gazelles), treatises on Muslim jurisprudence (Mubayin), poetics (Aruz risolasi), music, military affairs, the creator of the special alphabet of Khatt-i Baburi.

The pinnacle of Babur's scientific and literary heritage, the creation that brought him world fame, is undoubtedly the unique autobiographical book Babur-name (Babur's Notes), which reflected information about the history and life of peoples, economy, nature and geography of Central Asia, Afghanistan and India at the end of the 15th - the beginning of the XVI centuries.

References:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma/ 2017./https://fayllar.org/zahiriddin-muhammad-bobur-boburnoma-nashr-haqida.html

2. Wikipedia, the free encyclopedia/ 2020./https://uz.wikipedia.org/wiki/Bobur

3. Zahiriddin Muhammad Bobur/ 2021./https://muxlis.uz/oz/article/zairiddin-muammad-bobur

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA BOBUR MA’NAVIY MEROSINING AHAMIYATI

Suvonova S.F.

BuxDU Tarix va madaniy meros fakulteti talabasi

Zahiriddin Muhammad Bobur Vatan sog‘nchini Vatan qadrini tub mohiyatigacha yetgan va yoshlarimizga o‘rnak bo‘ladigan mukammal inson. Boburnomani o‘qiganimizda Vatanda yashab turib ham Vatanimizni qalbimizning tub-tubidan soginib ketamiz.

Bugungi murakkab dunyoda odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirish uchun adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish zarur. Chunki, qalb go‘zalligini yanada mustahkamlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishda xalqimizning qadimiy tarixini, buyuk ajdodlarimiz merosini chuqur o‘rganish muhimdir. O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev Yozuvchilar xiyobonini adabiyot, ma'rifat va madaniyat makoniga aylantirdi, har bir yozuvchining hayoti va ijodini ma'lum bir universitetga bog‘lab, ochiq darslar o‘tkazib, ma'rifiy tadbirlar, ularning asarlarini, risolalarini, kitoblarini chuqur o‘rganish, yangi asarlar yozishning muhimligini ta'kidlab o‘tdi.

Vatanparvarlik, insoniylik kabi umuminsoniy qadriyatlarni kelejak avlod qalbiga doimiy singdirish uchun harbiylar Bobur shaxsini chuqur o‘rganib, uning asarlari bilan tanishishlari kerak. Xususan, "Boburnoma" asarini chuqur o‘rganish darkor. Binobarin, hozirgi globallashuv jarayonida

axborot makonidagi ziddiyatlar kuchayib, odamlar, ayniqsa, yosh avlod ongi va qalbi uchun kurash kuchayayotgan bir paytda ta'lim-tarbiyaga alohida e'tibor berish lozim. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida hayotning boshqa sohalari qatori keng ko'lamli harbiy islohotlar, shuningdek qisqa muddatli natijalar va O'zbekiston Qurolli Kuchlarini tubdan isloh qilishga strategik yondoshish amalga oshirilmoqda. Ma'lumki, buyuk qomusiy olimlarimiz va tarixiy shaxslarimizning ma'naviy merosi yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat tuyg'usini tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Xususan, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ajdodlarimizga tegishli bo'lgan or-nomus, qadr-qimmat, ishonch, sadoqat va vatanparvarlik kabi fazilatlar tarannum etilgan "Temur tuzuklari", "Boburnoma" kabi nodir asarlar bu borada muhim manbadir. Jumladan, Bobur bobomiz qalamiga mansub quyidagi ruboiy kindik qoni to'kilgan muqaddas zaminni doimo ko'z qorachig'idek asrab-avaylashimiz kerakligi, uning qadriga yetib, uning ravnaqi uchun fidoyilik ko'rsatishimiz kerakligini uqtiradi:

Tole' yo'qi, jonimga balolig' bo'ldi,
Har ishnikim ayladim xatolig' bo'ldi.
O'z yerni qo'yib Hind sari yuzlandim,
Yo rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi

Qadim zamonlardan buyon bizning muqaddas zaminimiz buyuk sivilizatsiyalardan biri, bir qator yuksak darajada rivojlangan madaniyat markazlari sifatida qabul qilingan. Rivojlangan O'rta asrlarda madaniyatimizning barcha sohalari mamlakatimiz hududlarida yuksaklikka ko'tarilgan bo'lsa, san'at, she'riyat va adabiyot yuksak darajada rivojlanib temuriylar uyg'onishi tarixida qolgan bo'lib, Boburning "Boburnoma" asari qimmatli asar hisoblanadi. "Boburnoma" - bu jahon adabiyoti va manbashunosligidagi muhim va noyob yodgorlik, o'zbek adabiyotidagi birinchi nasriy memuar va tarixiy ilmiy asar. "Boburnoma" ning birinchi nusxasi eski o'zbek (chig'atoy) tilida yozilgan (taxminan 1518-1519-1530). Tarixiy manbalarda asarning "Boburiya", "Voqoti Bobur", "Voqeanoma", "Tuzuki Boburiy", "Tabaqoti Boburiy", "Tavorihi Boburiy" kabi turli nomlarini keltirishimiz mumkin. Boburning o'zi "Vaqoye" va "Tarix" nomlaridan foydalangan. "Boburnoma" da muallifning hayoti va siyosiy faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan 1494-1529 yillarda Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindistonda sodir bo'lgan tarixiy va siyosiy voqealar bayon etilgan. Boburning hayoti va ibratli asarlari uning zamonida va undan keyin ham izdoshlari tomonidan atroflicha o'rganilgan va bugungi kunda ham uning vatanparvarligi va ma'naviy merosiga bo'lgan qiziqish davom etmoqda. Buyuk allomaning yorqin hayoti va ko'p qirrali faoliyatini chuqur o'rganish yoshlarimizda vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlash va kuchaytirishga xizmat qiladi shubhasiz. Darhaqiqat, XV asrning ikkinchi yarmidagi buyuk daho, shoh va shoir, buyuk davlat arbobi, mohir sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyatini o'rganish har qanday davr tadqiqotining eng muhim yo'nalishi bo'lgan. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida Bobur obrazi o'rganilmoqda.

Bugungi kunda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Bobur va uning asarlari misollaridan biri bo'lgan "Boburnoma" alohida o'rin tutadi. "Boburnoma"ni chuqur o'rganish Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarida vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytirishning muhim manbai bo'lib xizmat qiladi. Memuar asar hisoblangan "Boburnoma"da yozilishicha, Boburning o'zi harbiy harakatlar paytida, askarlar bilan birga bo'lganligi armiyaga jangovar ruh bag'ishlagan. Buni uning shoh asaridagi ma'lumotlarda ham ko'rishimiz mumkin: «Qamal paytida biz har oqshom qal'a devorida yurdik. Ba'zan men, ba'zida Qosimbek, ba'zida beklar va ba'zi ichkarilar aylanib ketishadi.

Feruza darvozasidan shahzodaning darvozasiga, devorga ot minib chiqish mumkin edi. Ba'zilar aylanib yurishdi. Bobur hayotida boshdan kechirgan qiyinchiliklar, sabr-toqat va sabr-toqat

harbiylarning kundalik hayotining muhim tomoniga aylanishi kerakligi va umuman ularning qilgan sa'y-harakatlari samara berdi. Boburning qo‘mondon sifatida muvaffaqiyat qozonishining kaliti armiya qalbini zabt etish edi. Boburning askar yuragini zabt etishning asosiy mezoni odam qayerdan kelib chiqqanligi, uning millati va nasabidan emas, balki uning sadoqati, jasorati, sadoqati, podshohga sodiqligi va davlatni himoya qilishdagi hissasi edi. Ular Bobur faoliyatini qanchalik chuqur o‘rgansalar, u bu buyuk qo‘mondonning yangi qirralarini shunchalik kashf etadi. Bugungi kunda Bobur va Boburiy shohlarining hayoti, faoliyati va tarixini har tomonlama o‘rganish ishlari olib borilmoqda. Bunday tadbirlar Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining vatanparvarligi va harbiy-vatanparvarlik xususiyatlarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Biz vatanparvar, millatsevar, beqiyos shoir, dunyoga mashhur faylasuf Bobur nomi bilan faxrlanishimiz kerak. Milliy xavfsizlikni mustahkamlash sohasi yoshlarni, ayniqsa harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish, shuningdek xavfsizlik va hududiy yaxlitlikni ta'minlashda ishtirok etish hissini shakllantirishdir.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviyatimizning bebaho durdonalarini yanada kengroq tarqatish va shu tariqa har birimizning kundalik ishimizning bir qismi bo‘ladigan tarbiya va ongimizga begona bo‘lmaslik maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Shu munosabat bilan ko‘plab mutafakkirlar singari Boburning adabiy merosiga murojaat qilish o‘rinli. Boburning noyob merosini qadrlash va ulardan munosib foydalanish, Bobur asarlarini yoshlarimiz qalbi va ongiga singdirish, albatta, yoshlarda milliy g‘urur tuyg‘usini oshiradi. Mas’uliyat va sadoqat kabi fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi. Ta’lim muassasalarida talabalarga dam olish vaqtidagi tanaffuslarda ovoz kuchaytirgichlar orqali shoh va shoirning yoshlarni vatanparvarlikka, insoniylikka undaydigan g‘azal va ruboiylari o‘qib eshittirilsa Vatanni ko‘z qorachig‘idek asrash, uning qadriga yetish, qo‘yinki, o‘zlikni anglashlariga yordam beradi.Biz yoshlar Bobur bobomizdan vatanparvarlikni, Vatan qadrini yurak-yurakdan his qilishni o‘rganmoqlig‘imiz joiz.

Adabiyotlar

1. Mamlakatimizning oltin ostonasi - Toshkent tobora chiroy ochib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2020 yil 20 may kuni Yozuvchilar xiyoboniga tashrifi chog‘idagi nutqidan. 2020 yil 21 may.

2. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng yuqori bahodir. T.: “O‘zbekiston” 2018. -B.171-172. 2-jild

3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. T.: "O‘qituvchi" 2008.

4. Javaharlal Neru. Jahon tarixiga nazar. 1975y. II jild. 115 b.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING – TARIXIY VA MADANIY MEROSI

Meliyeva M.R.

Nizomiy nomidagi TDPU “Falsafa” kafedrasi metodisi

Uzoq-yaqin tarixdan ma’lumki, ona-yurt taqdiri yo‘lida fidoiy, oliy janob fazilatlarga ega ko‘plab ulug‘ siymolar xalqimiz ichidan yetishib chiqib, voyaga yetgan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf xos Hojib, Amir Temur Mirzo Ulug‘bek singari ulug‘ ajdodlarimiz qatorida Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodiy faoliyati doimiy tadqiqot mavzularining biridir.

Zahiriddin Muhammad Bobur tarixda, butun dunyoda qo‘rquv bilmas sarkarda, tadbirkor podshoh, mohir davlat arbobi, ayni paytda istedodli shoir, adib, donishmand, tarixchi, zukko olim va tarjimon sifatida nom qoldirgan. Bobur tarixda umri kurashlar, urushu g‘alabalar, notinchlik

bilan kechgan shaxs sifatida ham taniqli. U Temuriylar saltanatini saqlab qolishi uchun harakat qildi. Umri ko‘proq chet ellarda kechdi. Hayotining asosiy qismi Afg‘oniston, Hindiston kabi davlatlar bilan bog‘liq bo‘ldi.

Bobur yirik madaniyat arbobi sifatida ma’lum. U yoshligidan ilm bilan shug‘ullngani, fors, arab tillarini o‘rganishi, adabiyot, tarix, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, musiqa va boshqa sohalar bilan shug‘ullangani bois ham ma’rifatni anglaydigan, madaniyatli kishi bo‘lib yetishdi. U fanning turli sohalariga doir ko‘plab asarlar yozdi. Boburning lirik devonlari, “Boburnoma”, “Mufassal”, “Xatti Boburiy”, “Harb ishi”, “Musiqiya ilmi” islom dini asoslarining bayoni bilan bog‘liq bo‘lgan “Mubayyin”, “Volidiya” tarjimasi va boshqa asarlari uning shuhratini yanada oshirdi.

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining aql-zakovati, keng dunyoqarashi, bilimi bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos soldi va uning shuhratini yuqori pog‘onalarga olib chidqi. Bu sulola Hindistonda 332 yil hukmdorlik qildi. Bobur avlodidan olti shaxs - Bobur, Humoyun, Akbar, Jahongir, Shoh Jahon, Avrangzeblar bu yerda uzoq davr podshohlik qildilar.

Zahiriddin Muhammad Boburning adabiy merosi ko‘p qirralidir. Uning she’rlari, “Boburnoma” si alohida e’tibor bilan o‘rganiladi. Qadimiy Movarounnahr va undagi xalqlar hayoti haqida jonli guvohlik beruvchi asarlar orasida “Boburnoma” alohida ajralib turadi. “Boburnoma” ning o‘ndan ortiq qo‘lyozma nusxalari bo‘lib, ular jahonning turli kutubxonalarida saqlanadi. Asarni 1857 yilda Qozonda N.I. Il’minskiy, 1905 yilda Londonda Beverij xonim nashr ettirdilar. O‘zbekistonda dastlab professor Fitrat 1928 yilda “Boburnoma” dan parchalar e’lon qilgan edi. Asar 1948-1949 yillarda 2 jilda nashr etildi. 1960-1989 yillarda “Boburnoma”ning tuzatilgan nashri amalga oshirildi. Ajoyib lirik shoir, o‘zbek adibi Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan yaratilgan bu asar ijtimoiy – tarixiy, ilmiy – tabiiy va adabiy-lingvistik ma’lumotlar xazinasidir. Unda 1494 yildan 1530 yilgacha O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Hindistonda kechgan voqealar bayon etilgan. Bobur tarixiy faktlarni Shunchaki qayd etish , jang-u jadallar, yurishlar haqida xronologik axborot berish bilangina kifoyalanmay, voqealarni jonli tilda qiziqarli hikoya qiladi, manzara chizadi, tabiatni, etnografik holatlarni tasvirlaydi, davrni, uning xususiyatlarini gavdalantiradi. Shu sababdan asar faqat ilmiy – tarixiy ahamiyati bilan emas, balki o‘zbek badiiy nasrining yorqin namunalaridan biri sifatida ham biz uchun qimmatlidir. Shoir o‘z xotiralarini badiiy naql uslubda sodda va ravon bayon etgan. O‘nlab tarixiy shaxslarning aniq xarakterini yaratadi. Tabiat manzaralarini sur’atini chizadi, kitobni har xil syujetlar, ishqiy sarguzashtlar, she’riy parchalar bilan bezaydi. Tilga olingan shaxslarning portreti kiyinishini, tashqi ko‘rinishini, fe’l atvorini, odatlari, o‘tmishi, avlod-ajdodi, birma bir ta’rif etiladi.

Asardagi markaziy obraz Boburning o‘zi, albatta. Uning his tuyg‘ulariga boy qalbi ko‘z oldimizda yorqin jonlanadi. Ingliz tarixchisi Elfiniston “Boburnoma” va uning muallifi haqida: “Uning shaxsiy his – tuyg‘ulari har qanday mubolag‘adan yoki pardalashdan xoli, uslubi oddiy na mardona, shu bilan birga jonli va ifodali. O‘z zamondoshlari biografiyasini, ularning qiyofalari, urf - odati, intilishlari, qiziqish va qiliqlarini ko‘zguda aks etgandek ravshan tasvirlaydi. Bu jihatdan “ Boburnoma “ O‘rta O‘siyodagi yagona, chinakam tarixiy tasvir namunasidir ,”-deb yozadi. Bobur O‘rta Osiyo, Xuroson va Hindiston geografiyasi, hayvonot hamda nabodot olami to‘g‘risida boy ma’lumot bergan. Xususan, “Boburnoma”da hindlarning etnografiyasi, san’at va madaniyati haqida va Afrika yozuvchilarining Toshkent konferensiyasida (1958-yil) qimmatli dalillar bor. Taniqli hind shoiri Mulk Roj Anand, Osiyoda so‘zlagan nutqida: “Bu kitob siz bilan bizning merosimizdir. O‘zbekistondagi singari bizda ham “Boburnoma” g‘oyat qadrlanad” - degani bejis emas edi. [1,161-162-bet]

Davrning juda ko‘p xususiyatlarini qamrab olishi, qomusiy xarakteri va o‘zbek adabiy tilining beqiyos boy imkoniyatlarini namoyish etishi bilan “Boburnoma” Alisher Navoiyning “

Xamsa”siga qiyos qilgudek madaniy obida hisoblanadi. Asarning tez orada shuhrat qozonib, XVI asrning o‘zidayoq bir necha marta fors tiliga tarjima etilishi ham fikrimizning isbotidir. “ Boburnoma” fors tiliga birinchi marta 1589-yili shoirning nevarasi Shoh Akbar saroyida xizmatda bo‘lgan Abdurahimxon ibn Bayramxon Xoni Xonon tomonidan tarjima qilindi. Tarjima ko‘p nusxada ko‘chirilib, “Voqeati Boburiy”, “Tarixi Bobur shohiy “ nomlari ostida Sharq mamlakatlariga keng yoyildi. Abdurahimxon tarjimada Boburning o‘ziga xos bayon ta’rzini bera olgan, asar fors adabiyoti va tarixchiligida ulkan yangilik sifatida qabul qilingan. Qamrab olingan tarixiy voqealarning ro‘yi-rost ko‘rsatilishi, ilmiy faktlarga boyligi bilangina emas, balki ravon uslubi, sodda va jozibadorligi bilan ham Bobur asari o‘zidan keyin yaratilgan tarixiy me’muarlarga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Chunonchi, Gulbadanbegimning “Humoyunnoma” va Nizomiddin Hiraviyning “Tabaqoti Akbarshoxiy” kabi kitoblarida buni yaqqol his etish mumkin.

Zahiriddin Muhammad Boburning dinga munosabati, oilaga, farzandlarga, odob - axloq, urf - odatlarga munosabati ham alohida o‘rganilgan mavzu. U vatandan uzoqda ham ona tili ravnaqini o‘yladi.Uning Qobul va Hindistonda turib, turkiy tilda ijod etishining o‘zi ona tiliga mehr - muhabbatidan dalolat beradi. Bobur bu bilan cheklanmay, turkiy tildagi ijodini rivojlantiradi. Tilni sof saqlash uchun kurashadi. Bulardan tashqari shoir qaysi yurtga bormasin, u yerni obod qilishga, turli-tuman imoratlar, obidalar qurishga harakat qiladi. Zahiriddin Muhammad Bobur Afg‘oniston va Hindistonda obodonchilik ishlarini shunchalik rivojlantirdiki, natijada Qobul va uning atrofida ko‘pgina shinam bog‘lar, Agrada esa go‘zal qasr va imoratlar maydonga keldi. Albatta, bunday bunyodkorlik ishlari o‘z-o‘zicha bo‘lgan emas: davlatdagi turli xildagi ixtiloflar, ba’zan suiqasd uyushtirishlar, gohida g‘alaba nash’asi, gohida esa mag‘lubiyat o‘kinchlari ham sodir bo‘lgan edi. Bunday hollarni «Boburnoma»ni sinchiklab mutolaa qilgan har bir kishi aniq tasavvur eta oladi. Bobur bularning hammasini mustahkam irodasi va ezgulikka erishish uchun chin ko‘ngildan va g‘ayrat bilan harakat qilgani tufayli yengib o‘tdi. Natijada Bobur yirik va qobiliyatli davlat arbobi sifatida tinchlik - osoyishtalik, bahamjihatlik, adolatni o‘rnatish, obodonchilik, madaniyat, ilm va adabiyotni rivojlantirish uchun o‘zining nodir qobiliyatini va tashabbuskorligini safarbar etdi.

Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodining hali o‘rganilmagan qirralari uning izdoshlari faoliyatida tafakkurni yanada rivojlantirishga turtki bo‘lmoqda. Chunki uning bebaho ilmiy va adabiy merosini kelgusi avlodga yetkazishda yangi bilimlarning kashf etilishi juda muhimdir. Bugungi kunda buyuk bobokalonimizga ulug‘ ehtirom ko‘rsatilmoqda. Bu yurtboshimizning o‘tmish ajdodlarimiz merosiga bo‘lgan buyuk e’tibori bilan bog‘liq. Umuman, Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z shaxsiyati, merosi bilan yosh avlodni Vatanni sevishga, uning nurli istiqboli yo‘lida fidoiylik bilan mehnat qilishga, ijod bilan mashg‘ul bo‘lishga da’vat etaveradi.

Adabiyotlar:

1. Muzaffarova Sh. E. “Bobur-ma’rifatni anglaydigan, madaniyatli shaxs”. Navoiy (Markaziy Osiyo ilmiy merosining insoniyat sivilizatsiyasida tutgan o‘rni) 2016.161-162-bet)

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING HARBIY FAOLIYATI

Nigmatov A.X.

TVCHDPI Tarix o‘qitish metodikasi yo‘nalishi talabasi

Temuriylar sulolasining nomini jahonga taratgan vakillaridan biri Zahiriddin Muhammad Bobur. Bobur Mirzo shoh, harbiy sarkarda, shoir va tarixchi olimdir. Boburning faoliyatiga nazar

tashlasak, 47 yillik hayot yo‘lida shoh va shoirlikda katta yutuqlarga erishgan shaxsdir. Shohlik davrida Hindistonda 332 yil hukm surgan boburiylar imperiyasiga asos slogan. Shoirlik faoliyatida esa, Boburdan bizga uning devonlari, «Boburnoma»si, bir qator ilmiy, tarixiy, diniy-falsafiy va axloqiy-ta’limiy ruhdagi asarlaridan iborat meros qoldi. U Xoja Ubaydullohning «Risolayi volidiya»sini o‘zbekchalashtirdi, musulmon axloqiga oid «Mubayyin» nomli masnaviyni yaratdi, «Xatti Boburiy»ni ixtiro qildi.

Boburning harbiy faoliyati 1494-yili otasi Umarshayx Mirzo baxtsiz hodisa tufayli halok bo‘lgach, hokimiyatga 12 yoshda bo‘lgan Bobur qo‘liga o‘tadi. Bobur yosh bo‘lganligi uchun davlat ishlarini ishonchli beklardan Hojiqozi va o‘qimishli, oqila onasi Qutlug‘ Nigorxonim (vafoti 1505, Toshkent hokimi Yunusxon qizi) yordamida boshqarardi. Bobur Mizro yosh bo‘lishiga qaramay, bobosi Amir Temur saltanatining markazi – Samarqand taxtini egallash hohlaydi. Shu maqsadda Samarqand taxtida o‘tirgan Boysung‘ur Mirzo bilan ukasi Sulton Ali Mirzo o‘rtasida toj-u taxt uchun kurash boshlanganidan foydalanib, Bobur Mirzo boshchiligidagi Andijon qo‘shinlari 1495-1496-yillarda Samarqandga ikki marta muvaffaqiyatsiz yurish qiladi [1]. 1497-yilda Bobur Mirzo yana Samarqandga yurish boshladi va Samarqand qamal qildi. Qamal 7 oydan ortiq davom etdi. Bu vaqtda shahar ichida oziq-ovqat tanqisligi yuz bergani tufayli Boysung‘ur Mirzo askarlari orasida parokandalik ro‘y beradi.

Tang ahvolda qolgan Boysung‘ur Mirzo kam sonli qo‘shini va yaqinlari bilan Qunduz hukmdori Xusravshoh huzuriga qochdi. Bobur Mirzo esa 1497-yilning noyabr oyi oxirida Samarqand taxtini egallashga muvaffaq bo‘ldi. Ammo Andijonda unga qarshi bo‘lgan odamlar tomonidan ukasi Jahongir Mirzoni Andijon taxtiga o‘tqazishga erishdilar.

Vujudga kelgan harbiy-siyosiy tanglikni tushungan Bobur Mirzo qanday bo‘lmasin Andijonni saqlab qolishga qaror qildi va Samarqandni yuz kun idora etgandan so‘ng uni tark etishga majbur bo‘ldi. Samarqand taxtini esa Sulton Ali Mirzo egalladi. Nihoyat, 1500-yilda Bobur Mirzo bilan ukasi Jahongir Mirzo o‘rtasida sulh tuzildi. Unga ko‘ra, Sirdaryoning shimoliy tarafi Axsi shahri bilan Jahongir Mirzoga, daryoning janubiy tomoni Andijon shahri bilan Bobur Mirzoga berildi [2].

1498-yil Samarqand taxtiga bobur ketganidan so‘ng Sulton Ali Mirzo o‘tiradi. Shu orada Dashti Qipchoqdan 1499-yili Muhammad Shayboniyxon Movarounnahrga yurush boshlaydi. 1500 yilda Shaybonixon Samarqandni egallaydi va Sulton Ali Mirzoni qatil etadi. Qolaversa aholini talab temuriy shaxzodalrni ham qilichdan o‘tkazadi.

Bu hol Samarqand shahri aholisining norozilik qo‘zg‘oloniga sabab bo‘ldi. Qo‘zg‘olonga Abulmakarim boshchilik qiladi. Shayboniyxon bu davrda Samarqandda 600 kishini qoldirib o‘zi Kolimalikda dam olayot gan edi. Shunda Samarqand shahri ahli 19 yoshli Bobur Mirzoni Samarqandga chorlab, shahar darvozalarini unga ochib berdilar. Shayboniyning Samarqand shahrida qoldirib ketgan 600 kishidan iborat askarlari qirib tashlandi [3].

Shaharni ikkinchi marotaba egallagan bo‘lsa-da, Bobur Mirzo Samarqanda uzoq vaqt tura olmagan. Chunki shahar vayron bo‘lgan, qolaversa ocharchlik ham hukm surar edi.

Bu haqda bobur o‘zi shunday bayon qiladi: “ Elga bisyor tanqislik bo‘ldi. Anga yettikim, faqir va miskin it etiin, eshak etini yeya kirishdilar”[4].

Bobur Mirzo hukmdor etib ko‘tariladi. Samarqand tumanlari, Qarshi, G‘uzor hududlari ham Bobur Mirzo hukmronligini tan oldi. Muhammad Shayboniyxon Turkiston atroflaridan katta qo‘shin to‘plab yana Samarqand harakatlanadi. Bu orada Bobur qurg‘oqchlik va oziq-ovqat yetishmagani tufayli lashkarlarining bir qismini tarqatib yuboradi.

Bundan foydalangan Shayboniyxon hujum boshlaydi. Bobur Mirzo Kesh, Toshkentdan kelayotgan yordamchi kuchlarni kutmasdan jangga kiradi. Zarafshon qirg‘og‘ida bo‘lgan jangda Bobur Mirzo yengiladi va Samarqandda yashirinadi. Shayboniyxon Samarqandni uzoq

vaqt qamal qiladi. Shaharda misli ko‘rilmagan og‘ir ahvol yuzaga keldi. Bobur Mirzo och-yalang‘och qolgan Samarqandni yarim tunda tashlab Toshkent tomon otlandi. U tog‘asi Toshkent hokimi Sulton Mahmudxon huzuriga Samarqandni qaytarib olishda yordam so‘rab boradi. Biroq Muhammad Shayboniyxon Bobur Mirzo, Sulton Mahmudxonning birlashgan qo‘shinlarini yengadi [5].

1504-yilda Bobur Mirzo Kobulga borib, bu yerda hokimiyatni egallaydi.

Bu davrda Bobur Mirzo og‘ir damlarini o‘tkazadi. Boburning qizi Gulbadanbegimning «Humoyunnoma» asarida shunday deb yozadi: “To‘liq 11 yil davomida Movarounnahr o‘lkasida, chig‘atoy, temuriy va o‘zbek sultonlari bilan shunday janglar va mudofaalar qiladilarki, ularning sanog‘ini batafsil bayon qilishga qalam ojiz va nuqsonlidir. Oxirgi hamrohlari va qarindoshlari boiib, jami 250 ga yaqin kishi, piyoda, yelkalarida chopon, oyoqlarida choriq, qo‘llarida tayoq bo‘lgani holda beyarog‘, xudoga tavakkal qilib Badaxshon va Qobulga qarab yo‘l oldilar” [6].

Bobur Mirzo 1508-yilida Afg‘onistonning podshosi deb e’lon qiladi va Qobul davlat poytaxti bo‘ldi.

1510- yilda Muhammad Shayboniyxon o‘limidan so‘ng Bobur Mirzo Eron shohi Shoh Ismoildan yordan olib, Movarounnahr yurush boshladi. 1511 yilda Shoh Ismoil qo‘shinlari yordamida shayboniylar qo‘l ostidagi Hisor, Ko‘lob, Qunduz, Badaxshon va Qarshi erlarini egallab, Samarqandni ham uchinchi marta qo‘lga kiritdi. Movarounnahrni butunlay qo‘lga kiritish niyatida bo‘lgan Boburga Safaviylarning tajribali sarkardasi Najmiddan Soniy boshchiligidagi 12 ming qo‘shini kelib qo‘shildi [7].

Bobur Samarqandni egallagach, noilojlikdan islomning shiyalik yo‘nalisliiga e’tiqod qiluvchi shoh Ismoilni oliy hukmdor deb e’lon qildi. Bu esa Samarqand xalqining Bobur Mirzodan yuz o‘girishiga sabab bo‘ldi. Chunki Movarounnahr aholisi, Boburning o‘zi ham islomning sunniylik yo‘nalisliiga e’tiqod qilganlar. Bu esa shiya va sunniy adovatlari yanda avj olishiga sabab bo‘ldi. Boburning ittifoqchilari, shiya mazhabidagi eroniy qizilboshlilarning[63] talon-tarojlari (ayniqsa, Samarqand va Qarshi shaharlarida) tufayli mahalliy aholi Boburni qo‘llab-quvvatlamadi. Bobur va eroniylarning birlashgan qo‘shinlari bilan Shayboniylar o‘rtasidagi hal qiluvchi jang 1512 yilning noyabrida G‘ijduvon yaqinida bo‘lib o‘tadi. Mazkur jangda Shayboniyxonning jiyani, Sulton Mahmudning o‘g‘li Ubaydulla Sulton tomonidan ittifoqchilar qo‘shnini tor-mor etildi. Bu mag‘lubiyatdan so‘ng Bobur Movarounnahrdan butunlay chiqib ketdi va Qobul hamda uning atroflarida o‘z hukmronligini to‘la mustahkamladi [8]. Bobur Mirzoning bundan keying maqsadi Hindiston sari bo‘ldi.

1505-yildan Hindistonga dastlabki yurishnini boshladi. 1519-yil bahoriga kelib Bobur Hindistonni zabt etish rejalarini amalga oshirishga kirishadi. 1519-yilda Hindistonga ikkinchi va uchinchi harbiy harkatlarini uyushtirdi. 1520-yilda to‘rtinchi bor yurush qildi. 1522-yildagi harbiy harakatida Qandaxorni egallashga moffaq bo‘ldi. 1525-yilda Panjob qo‘lga kiritdi. Nihoyat, 1526-yil aprelda Panipatda asosiy raqibi, Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diyning yuz ming kishilik qo‘shinini 12 minglik askari bilan tormor qiladi hamda Dehlini egallaydi. Oradan ko‘p o‘tmay, 1527-yilda Qanva yaqinida ikkinchi yirik hind sarkardasi Rano Sango ustidan ham zafar qozonib, Shimoliy Hindistonning Bengaliyagacha bo‘lgan qismini o‘ziga bo‘ysundiradi. 1528-yilda Chandiriydagi jangda ham ustunlik Bobur tomonda bo‘ldi. 1529-yilda Gagra yonidagi janda Ibrohim Lo‘diyning ukasi Mahmud Lo‘diy bilan bo‘lgan to‘qnashuvda Bobur lashkari yana g‘olib keldi. Shu yilda Bengal shohi Nusratshoh bilan do‘stona aloqalr ham o‘rnatdi.

[63]Safaviylarning asosiy tayanch kuchi bo'lgan turk ko'chmanchilari XV asrning 2-yarmida “qizilboshlilar” deb atalgan. Bu harbiy ko'chmanchilar shia imomlari sharafiga boshlariga 12 qizil chiziqli salla o'rab yurganlar.

Bir necha muddat oldin podsholikni Humoyunga topshirgan Bobur 1530-yil 26-dekabrda, 47 yoshida o‘zi asos solgan saltanat poytaxti Agrada vafot etdi va o‘sha yerda dafn etildi. Keyinchalik, 1539-yil, vasiyatiga muvofiq, xoki Kobulga keltirilib, o‘zi bunyod ettirgan «Bog‘i Bobur»ga qo‘yildi. Agrani o‘ziga poytaxt sifatida tanlagan Bobur katta qurilish va obodonchilik ishlarini boshlab yuboradi. Shu tariqa Bobur Hindistonda uch yarim asrga (1526-1858) yaqin hukm surgan qudratli boburiylar sulolasiga asos soldi.

Xulosa qilishimiz mumkinki, Bobokalonimiz bo‘lmish Bobur Mirzo o‘z hayotlik faoliyati oson kechmagan. Doimi janglarda kechgan. Qolaversa, Shoir sifatida ham kelajak avlod uchun o‘z ijot namunalarini qo‘ldirgan va bular ichida eng qadirlisi bo‘lgan “Boburnoma”ni yozgan hamda bizga katta meros sifatida qoldirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1]. Rustambek Shamsutdinov, Shodi Karimov, O‘ktamjon Ubaydullayev. “Vatan tarixi” ikkinchi kitob «Sharq» nashriyoт-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati T.-2010 . bet-13.

[2]. Q.Usmonov, U. Jo‘rayev, N. Norquloy “O‘zbekiston tarixi” XVI—XIX asrning birinchi yarmi “O‘qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent—2014. Bet-6

THE SCIENTIFIC AND SPIRITUAL ROLE OF BABUR'S WORKS IN RAISING THE SENSE OF PATRIOTISM OF YOUNG GENERATION

Student: Raxmatilloyeva G. Instructor: Narimonova J.

Zahiriddin Muhammad Babur was a good writer, poet, scholar, statesman and commander who played a significant role in the culture, literature and poetry of the Middle East. Babur, with his broad outlook and excellent intellect, founded the Baburi dynasty in India and became a statesman in the history of the country.One of his world's most famous historians with his Uzbek-language work called ,,Boburnoma". His elegant ghazals and rubais are the rarest masterpieces of Turkish poetry, and his treatises on Mubayyin (Narrated), Hatti Baburi, Harb ishi, and Aruz have made a worthy contribution to Islamic jurisprudence, poetry, and linguistic theory.

As we know, Zahiriddin Muhammad Babur was born on February 14, 1483 in Andijan in the family of Umar Sheikh Mirzo, the ruler of the Fergana nation. During this period, in Central Asia and Khorasan, the struggle between various governors, brothers, nieces and nephews for power in the great state founded by the great ancestors Amir Temur intensified. It is not a secret, Zahiriddin, who loved literature, fine arts, and the beauty of nature from a young age, like all Temurid princes, laid the foundations of these sciences under the guidance of leading teachers in his father's palace. However, his carefree youth did not last long. In 1494 he was orphaned by his father. At the age of 12, Babur, who succeeded his father as governor of the Fergana nation, switched from pen to sword and had to fight for the throne of Andijan against his brother Jahangir Mirzo, his uncle Sultan Ahmad Mirzo, his uncle Sultan Mahmudkhan and others. In order to reconcile with his brother Jahangir Mirzo, Babur decided to divide the Fergana nation in two and give half to his brother, and he himself began the struggle for Samarkand.This struggle, which lasted for several years, yielded no results other than massacre: Shaibanikhan's hand, which was mixed with a large military force, came to power, and Babur was forced to leave Samarkand. After the conquest of Andijan by Sheibanikhan in 1504, Babur moved south and established his rule in the Kabul nation. Between

1505 and 1515, he made several attempts to return to Central Asia. But these attempts yielded no results.

Later, in order to consolidate its position, it fought several battles for the conquest of India during 1519–1525. In April 1526, Babur won the battles with the Sultan of India, Ibrahim Lodi, in Panipat, and in March 1527, with Rano Sango, the governor of Chitora.Historical records show that during Babur's invasion of India, the Punjab rulers, dissatisfied with the policies of the Delhi ruler Ibrahim Sultan, also supported him, and this victory in the Battle of Sikri gave Babur the opportunity to establish his rule in India and establish the Baburi dynasty. Known in European history as the "Great Mongols," the "Baburi dynasty" ruled India for more than 300 years.Babur did not live long after this victory - he died in Agra in December 1530, and later, according to his will, his children brought him to Kabul and buried him.

In addition to large-scale government work in India, Babur continued his literary and artistic activities and created the above-mentioned works. Bobur's world-famous masterpiece is the Boburnoma. It is known that it covers the history of the peoples of Movarounnahr, Khorasan, Iran and India during the period of Babur's life. As we turn the pages of the Boburnoma, we see the qualities and shortcomings of the peoples of Central Asia, Afghanistan and India, as well as the breadth and complexity of their world of thought, the problems of life at that time, and the political and social life of Babur. Other historical sources written in Babur's time: Mirkhand, Khandamir, Muhammad Salih, Binoi, Muhammad Haydar, Farishta, Abul-Fazl Allami and other historians do not provide such accurate and complete information.In "Boburnoma" the author expresses his highest opinions and comments about Alisher Navoi, Abdurahmon Jami, Behzod, Ulugbek Mirzo and other scholars. Although it covers the history of the peoples of Movarounnahr, Khorasan, India, and Iran in the late 15th and early 16th centuries, it also addresses many current economic and social issues, including the political, economic, and trade relations of the above-mentioned regions. The king‘s work contains extremely rare information about its location, climate, flora and fauna, mountains, rivers, peoples, tribes and peoples and their living conditions, customs, important historical structures, Hindu and Muslim temples, weddings and funerals. That is why "Boburnoma" as a historical and literary heritage amazes scientists around the world.

For many years, prominent orientalists from the West and the East have worked hard to bring the content of the Boburnoma to the attention of the world community. For example, the Dutch scientist Witsen, the British scientists J. Leiden, V. Zrskin, R. Koldekot, A. Beverej, T. Albot, the German Yu. These include Kleinrat and A. Keyzer, Pave de Courteil of France, Mirzo Nasriddin Haydar Rizvi of India, R. R. Art and N. I. Bayur of Turkey and Bakke Gromon of France, Abulhay Habibi of Afghanistan, Rashid Akhtar of Pakistan, Nadvi and Shah Alam Mawlid. Japanese scholars are among the Babur is also known in Uzbek literature for his delicate lyrical works. His life and literary activity coincided with the height of the chaos of feudal groups in Movarounnahr, where political life was finally complicated, and the crisis of the Timurid state continued. If we see such complexities in the Boburnoma, how they are reflected in the poet's psyche can be seen in his poems. When his attempts to unite Movarounnahr failed, Babur reflected in his poems the mood of a time when he was mentally distressed and frustrated by the betrayals of officials. Later, when he left his homeland and went to Afghanistan and India, Babur's poetry began to feel a sense of homeland, a longing for the homeland, and the hope of returning to it:

Tole yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Har ishnikim ayladim – xatolig‘ bo‘ddi,
O‘z yerin qo‘yib Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

Babur has a worthy place in the history of the spiritual culture of our people as a historian, lyric poet and scholar who has contributed to the solution of social problems with his well-known and famous works.

As a conclusion part , we are going to say to youth generation that learning our national literature is our pride.You can feel in Babur's works, issues related to human morality and spiritual maturity were raised. In his works, he talks about how to develop the best moral qualities of a person. Its multifaceted activities serve as a cultural and educational tool for the younger generation today. The ideas of goodness and humanity have not lost their dignity and importance over the centuries.He went down in history not only as a commander and ruler, but also as a scholar and poet who left a rich creative literary and scientific legacy. In his works, as in any great artist, there are eternal and appropriate positive qualities of the previous generation, which always attract the attention of generations. So, as you feel, saving our national literature is in our hand.

Literature

1. Z.M.Bobur Boburnoma. Tahskent, 1960.Bobur. Muxtasar. Tashkent, 1971.Bobur. Asarlar. Uch jildlik. (The works. Three volumes). Tashkent, 1965.Hasanov S. Bobur’s work “Risolayi aruz”. Tashkent, 1986.Stebleva I. Semantika gazeley Babura (Semantics of Bobur’s gazals). Moscow, 1983. .Internet materials also.

BOBUR - BUYUK MUMTOZ SHOIR

Saitmurodov M.U.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

O‘zbek xalqi o‘tmishda o‘tgan ko‘plab buyuk daholari bilan haqli ravishda faxrlansa arziydi. Ularning ko‘plari nafaqat, o‘z diyorida, balki dunyoning ko‘plab mamlakatlarida ma'lum va mashhurdirlar. Ana shunday mo‘'tabar zotlardan biri Zahiriddin Muhammad Boburdir.

Bobur xalqimizga, butun dunyoda qo‘rquv bilmas sarkarda, tadbirkor podshoh, mohir davlat arbobi, ayni paytda iste'dodli shoir, adib, donishmand, tarixchi, zukko olim va tarjimondir.

Bobur tarixda umri kurashlar, urushu g‘alayonlar, notinchliklar bilan kechgan shaxs sifatida ham taniqli. U temuriylar saltanatini saqlab qolish uchun harakat qildi. Umri chet ellarda kechdi. Hayoti Afg‘oniston, Hindiston kabi davlatlar bilan bog‘liq bo‘ldi. Bobur yirik madaniyat arbobi sifatida ma'lum. U yoshligidan ilm bilan shug‘ullangani, fors, arab tillarini o‘rganishi, adabiyot, tarix, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, musiqa va boshqa sohalar bilan shug‘ullangani bois ham ma'rifatni anglaydigan, madaniyatli kishi bo‘lib etishdi. U fanning turli sohalariga doir ko‘plab asarlar yozdi. Boburning lirik devonlari, “Boburnoma”, “Mufassal”, “Xatti Boburiy”, “Harb ishi”, “Musiqiy ilmi” islom dini asoslarining bayoni bo‘lgan “Mubayyin”, “Volidiya” tarjimasi va boshqa asarlari uning shuhratini yanada oshirdi[64].

Bobur keng dunyoqarashi, mukammal aql-zakovati, bilimi bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos soldi. Bu sulola Hindistonda 332 yil hukmronlik qildi. Bobur avlodidan olti shaxs Bobur, Humoyun, Akbar, Jahongir, Shoh Jahon, Avrangzeblar bu yerda uzoq davr podshohlik qildilar.

Sharqning bu ulug‘ siymosi 1483- yil 14- fevralda Andijonda Amir Temurning o‘g‘li

[64] Ahmedov B. O‘zbekistonning atoqli tarixshunos olimlari (Bio-bibliografik ma’lumotnoma). – Toshkent: “Cho‘lpon”, 2003. 85-bet.

Mironshoh nabirasi Abusaid Mirzonning o‘g‘li Umarshayx oilasida tavallud topgan. Onasi Qutlug‘ Nigorxonim toshkentlik mo‘g‘ul xoni Yunusxonning qizi edi[65].

1494- yilda Umarshayx Mirzoga qarshi uning akasi Samarqand hokimi Sulton Ahmad Mirzo va Toshkent hokimi Mahmudxon qo‘shin tortadi. Falokat ro‘y berib, 1494- yil 7- iyunda Umarshayx vafot etadi. 11 yoshli (ba'zan 12 yosh ko‘rsatiladi) Bobur Farg‘ona viloyatining hokimi bo‘ladi. Goh g‘alaba, goh mag‘lubiyatga uchrab turgan Bobur Farg‘ona va Samarqand mulkini qo‘l ostiga birlashtirib tura olmadi. Katta kuchga ega bo‘lgan Shayboniyxon Saripul va Axsida Boburga zarba berib, u yerlami ishg‘ol qiladi. Bobur quvg‘in va sargardon bo‘lib, chet ellarda faoliyat ko‘rsatadi. Shayboniyxon tazyiqi ostida 1504- yili Bobur ozgina askar va a'yonlari bilan Qobulga borib o‘rnashadi. Bobur o‘z yurtidan, toju taxtdan voz kechib ketolmaydi. Bir necha marta Samarqandni qayta yegallashga harakat qiladi. 1512-yilda shoh Ismoildan Yordam olib, Samarqandga yurish qiladi. Samarqandni uchinchi marta egallab oladi. Ubaydulla Sulton va Muhammad Temur Sulton 1513- yilning boshlarida katta qo‘shin bilan Boburga qarshi yurish boshlaydilar. Bobur engiladi. Ismoil madad uchun Najmi soniy boshliq qo‘shin yuboradi. U ham yengiladi. Boburning o‘z saltanatini egallash orzulari barbod bo‘ladi. U Afg‘onistonda o‘z hokimiyatini mustahkamlab oladi. Bobur Hindistonga yurish rejalarini tuzadi. Birinchi navbatda Panjob viloyatini ishg‘ol qilishni mo‘ljallaydi. U Hindistonga yurish faoliyatini 1519-yildan amalga oshira boshlaydi, 1526- yilgacha besh marta harbiy yurish qiladi. 1526-yil noyabrdan harakati Sind, Panjob viloyatlari orqali Dehliga qaratilgan edi. 1526-yil aprelida Dehli sultoni Ibrohim Lo‘di bilan jang qilib, uni yengadi. 27-aprelda Dehlida Bobur nomiga xutba o‘qiladi. So‘ng Chitora hokimi Rano Sango bilan jang bo‘ladi. 1527- yil 16-martda Bobur g‘alaba qozonadi. Bobur Hindistonda katta ishlarni amalga oshiradi. Uning avlodlari Bobur ishlarini davom ettiradilar[66].

Olimlarimizning qayd etishicha, Bobur 47 yil umr ko‘rgan bo‘lsa, shundan 36 yilini uch mamlkatda: Movarounnahrda, Afg‘onistonda, Hindistonda podshoh bo‘lib o‘tkazdi. 20 yil umri Movarounnahrda, 22 yili Qobulda, 5 yili Hindistonda kechdi. Bobur 1530- yil 26-dekabrda dushanba kuni nahorda Agrada bandalikni bajo keltiradi. Uning jasadini Agra shahrida Jamna daryosi bo‘yidagi Bog‘i oromga dafn etadilar. Boburning qizi Gulbadanbegimning yozishicha, qabr oldida besh vaqt namoz o‘qib, marhumning ruhiga tilovat qilib turish uchun maxsus mutavali va 60 ta

xushovoz qorilar tayinlangan. Bobuming rafiqasi ikki yildan ortiq vaqt har kuni ikki mahal qo‘y va mollar so‘ydirib, tayinlangan qorilarga tilovat qildirib turgan. Oradan bir necha yil o‘tkach, Bobur vasiyatiga ko‘ra uning xotinlaridan biri, hazratning qabrini Qobulga ko‘chiradi.

O‘zbek adabiyotida o‘ziga xos boburshunoslik yuzaga keladi. Uning shaxsi va ijodi adabiyotshunos, tarixchi, tilshunos, jo‘g‘rofiya va boshqa soha kishilarining e'tiborini tortib keldi. J.Neru Bobur haqida o‘zining “Hindistonning kashf etilishi” kitobida shunday yozadi: “Bobur dilbar shaxs, Uyg‘onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo‘lgan. U san'atni, adabiyotni sevardi, hayotdan huzur qilishni yaxshi ko‘rardi”[67]

Sho‘rolar davrida Bobur ijodiga bir yoqlama yondashildi. Uni qoralashga, faoliyatini o‘rganmaslikka harakat qilindi. Boburning bizgacha yetib kelgan lirik she'rlari 1917-yili Petrogradda sharqshunos olim A.Samoylovich tomonidan chop etiladi. Keyinroq ular 1931-yilda Istanbul shahrida «Milliy tatabu'lar majmuasi»da ham nashr etiladi. 1940-yili Bobur hayoti va ijodi 9-sinfda o‘rganilishi Davlat dasturida belgilandi. “Adabiyot darsligi”da Navoiy, Turdi, Muqimiy

[65] Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Toshkent: O‘zbekiston, 2008. 12-bet.
[66] Rasulov R. Bobur – O‘zbek tilining sofligi uchun kurashuvchi. / ilmiy to’plam. – Samarqand: 2000. 44-bet.
[67] Ahmedov B. O‘zbekistonning atoqli tarixshunos olimlari (Bio-bibliografik ma’lumotnoma). – Toshkent: “Cho‘lpon”, 2003. 85-bet.

qatori Bobur hayoti va ijodi ham kiritildi. 1947 yili dastur asosida VII sinflarda Bobur merosi o‘rganilishi qayd etildi. Bobur asarlari “Bolalar adabiyoti”ga kiritiladi. Uning asarlari lug‘ati tuziladi. Keyingi yillarda Boburning turli asarlari chop etildi. Bobur shunos olimlar tomonidan ko‘plab tadqiqotlar yaratildi. Boburning adabiy merosi ko‘p qirralidir. Uning she'rlari, “Boburnoma”si alohida o‘rganiladi.

Boburning “Muxtasar” asari aruz nazariyasi haqida. U bu asarni yozishga kirishishdan oldin Navoiy, Rashididdin Vatvot, Nosir Tusiy, Ar Roziy va boshqalarning aruz haqidagi ishlarini o‘rganadi. U yozgan alifbo “Xatti Boburiy” nomi bilan mashhur. Bobur 16-17 yoshlaridan badiiy ijodiyot bilan shug‘ullanadi. 15031504 yillarda «Xatti Boburiy», 1522-yilda “Mubayyin”, 1528-yilda Xo‘ja Ubaydulla Ahrorning “Volidiya” risolasini fors-tojik tilidan o‘zbek tiliga tarjima qiladi. Bulardan tashqari musiqaga oid “Musiqiy ilmi”, “Harb ishi” asarlarini yozganligi ham aytiladi. Boburning dinga munosabati, oilaga, farzandlariga, odob-axloq, urf-odatlarga munosabati ham alohida o‘rganiladigan mavzu[68].

Bobur shaxsiyati bilan bog‘liq ba'zi jihatlar Gulbadanbegimning “Humoyunnoma”sida keltiriladi. U shunday yozadi: “Firdavs makonning katta o‘g‘illari Humoyun podshoh... Qobul arkida (1508-yil 7-mart) tug‘ildilar. O‘sha yili Firdavs makon amrlari va boshqalari: “Endi meni Bobur podshoh deb atanglar», deb buyurdilar. Humoyun podshoh tug‘ilmaslaridan burun Mirzo Bobur deb atash rasm edi. Chunki bugun podshohzodalarni Mirzo deb, o‘zlarini esa Humoyun podshoh tug‘ilgan yillaridan “Bobur podshoh”, deb atashga buyurdilar.”(Gulbadanbegim. Humoyunnoma. 33-bet.)

Gulbadanbegim Humoyun kasal bo‘lganda Bobur iztiroblarini ham ta'sirli yozadi: “Menki, Boburman, umri jonimni o‘g‘lim Humoyunga bag‘ishlayman” deb aytgani, shundan so‘ng Bobur kasal bo‘lib yotib qolgani, Humoyun o‘sha kuni o‘rnidan turganini aytadi.

Bugungi kunda Boburga ulug‘ ehtirom ko‘rsatilmoqda. Bu mustaqilligimiz, hukumatimizning o‘tmish ajdodlarimiz merosiga bo‘lgan buyuk e'tibori bilan bog‘liq. Ayni kunda Andijonda muhtasham Bobur bog‘i hammani lol qoldirmoqda. Bobur nomidagi xalqaro jamg‘arma, xalqaro ekspeditsiyalar mavjudligi, 1993-yilda Bobur merosi bo‘yicha xalqaro anjuman (Samarqandda) o‘tkazilishi va boshqalar ana shu e'tibor natijasidir. Umuman, Bobur o‘z shaxsiyati, merosi bilan xalqimizga xizmat qilaveradi.

Bobur insoniyat tarixidagi ikki buyuk sulola tutashgan nuqtada dunyoga kelgan jahonning eng mashhur shaxslaridan biridir. Murakkab va ziddiyatli hayoti o‘spirinlikdan to umrining oxirigacha jangu jadallar, sarson -sargashtalik, zafar va mag‘lubiyat, ijod-u bunyodkorlik ichida kechdi.

1501 - yili Bobur 240 nafar navkari bilan yetti mingga yaqin qo‘shini bo‘lgan tajribali shoh Shayboniydan Samarqandni tortib olishga muvaffaq bo‘ladi. Ko‘p o‘tmay Shayboniyxon shaharni qamal qildi va bu uzoq davom etdi. Bir tomondan shahar ichidagi ochlik, ikkinchi tomondan qarindoshlari bo‘lmish boshqa temuriylardan madad kelmagani yosh hukmdorni og‘ir bo‘lsa-da bir qarorga kelishga undadi. U yana Samarqandni tashlab ketishga, nafaqat

Samarqandni, jondan aziz Vatanini butunlay tark etishga majbur bo‘ldi. Ikki yilga yaqin sarson-sargardonlikdan so‘ng 1503-yilda Kobulga yo‘l oladi. Kobul va G‘aznani jangsiz egallaydi va o‘zini shoh deb e’lon qiladi. 1507-yildan Hindistonni zabt etish harakatiga tushgan Bobur 1526-yili o‘z maqsadiga yetadi. Shu yilning 21-aprelida Panipat jangida Boburning 12 minglik qo‘shini hind sultoni Ibrohim Lo‘diyning 100 ming kishilik askari bilan to‘qnashadi. Ajdodlardan meros jang sirlari, yillar davomida to‘plagan tajribasi hamda taqdirning bergan achchiq saboqlari qo‘l keldi. Bobur hind yerida Yevropada keyinchalik “Buyuk mo‘g‘ul imperiyasi” deb atalgan ulkan

[68] Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Toshkent: O‘zbekiston, 2008. 12-bet.

saltanatga asos soldi. Bobur va Boburiylar hukmdorligi Hindiston tarixida juda katta ijobiy ahamiyat kasb etd[69]i.

Bobur Hindistondagi din-mazhab janjallarini oldini olishga, mamlakatda osoyishtalik qaror toptirishga urindi. Adolatli qonunlar chiqardi, g‘ayridinlik solig‘i (juz’ya)ni bekor qildi, o‘lgan erning tirik xotinini murda bilan birga yoqishni taqiqladi. Mamlakatda obodonchilik ishlarini yo‘lga qo‘ydi. Kanallar qazdirdi, binolar qurdirdi. Atrofiga olim-u fozillarni to‘pladi. Shunigdek, hind yerida hali hech bo‘lmagan bog‘lar bino qildi. Movarounnahrning shirin - sharbat mevalarini ektirdi. Lekin jang-u jadallar, saltanat tashvishlari, ayniqsa Vatan sog‘inchi nozik qalb egasi bo‘lgan shoirning sog‘lig‘iga salbiy ta’sir qildi.

Begona bir yurtni zabt etish hech qachon oson kechmagan. 1526-yilning 21-dekabrida Bobur dushmanlari tomonidan zaharlanib, tasodif tufayligina omon qoladi. Biroq bu ahvol yigiyma besh-yigirma olti kun davom etadi xolos. Bobur 1530-yilning 26-dekabrida Agrada vafot etadi. Keyin uning xoki, vasiyatiga muvofiq, Kobulga ko‘chiriladi[70].

Bobur xalqimizning har jihatdan yetuk, g‘oyat iste’dodli farzandi edi. U o‘ta notinch, sargardonlikda kechgan umrini zo‘r salohiyati bilan go‘zal qila oldi. Uning hayoti faqat janglar bilangina emas, ijod va lhomiy lahzalar bilan ham to‘la edi. U yigirma yoshida yangi bir yozuv - “Xatti Boburiy”ni kashf qildi. Umr bo‘yi ajoyib she’rlar yozdi, devon tartib qildi. Musiqa bilan shug‘ullanib, “Chorgoh” maqomiga “savt”lar bitdi. 1521-yilda she’riy yo‘lda soliq ishlarini tartibga soluvchi “Mubayyin al-zakot” (“Zakot bayoni”) asarini yozdi. 1523-1525 - yillarda aruz vazni haqida “Muxtasar” nomli risola bitdi. Boburning “Harb ishi”, “Musiqa ilmi” nomli asarlari hozirgacha topilgan emas. U tarjima bilan shug‘ullanib, Xo‘ja Ahrorning “Volidiya” asarini she’riy yo‘l bilan o‘zbekchaga o‘giradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, “Boburnoma” asari Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan yaratilgan ijod namunalari ichida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Bu asarni boshqa tarixiy asarlar bilan ilmiy tahlil etish va o‘rganish, ko‘plab jiddiy tadqiqotlarni talab qiladi.

BOBURDAN BASHARIYATGA BUYUK MA’NAVIY BOYLIK QOLGAN

Saitmurodova M.U.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

Har bir ijtimoiy-siyosiy davr, albatta, adabiy jarayonga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Bu uzoq tarixdan isbotlangan xulosa. Jamiyatimizda ko‘klarga ko‘tarib ko‘pirtirilgan yutuqlar soyasida sarg‘aygan kemtikliklar, yemirilishlar qayta qurish, oshkoralik, demokratiya va nihoyat, milliy mustaqillik yog‘dulari munosabati bilan ko‘zimizga yaqqolroq, aniqroq ko‘rina boshladi. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixini o‘rganish, ilmiy tahlil etish borasidagi muammolar, qusurlar yanada chuqurroq his etildi. Bobur ko‘p qirrali ijodkor. Uning sarkardaligi, podshohligi, shoirligi har biri alohida ahamiyatga molik. U adabiyotimiz tarixida qanchalik shuhratga sazovor bo‘lgan bo‘lsa, Boburnoma”sining o‘rni ham shu darajada yuksakdir. “Boburnoma” nafaqat o‘zbek adabiyotida, balki jahon adabiyotida ham memuar asar sifatida, tarixiy manba, adabiy asar, umuman, keng qamrovli yodgorlik sifatida mashhurdir. Uzoq yillar davomida G‘arb va Sharqning mashhur sharqshunos olimlari “Boburnoma”ni jahon ahliga yetkazish borasida katta faoliyat ko‘rsatdilar. Gollandiyalik olim Vitsen, angliyalik olimlar J.Leyden, V.Erskin, A.Beverej, Albot, germaniyalik

[69] Qudratullayev H. Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi. – Toshkent: 2011. 44-bet.
[70] Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Toshkent: O‘zbekiston, 2008. 205-bet.

Yu.Klaynrat va A.Keyzer Kizer, fransiyalik Pave de Kurteyl, hindistonlik Mirzo Nasriddin Hydar Rizvi, turkiyalik R.Art va N.Bayur va bizning davrimizda fransiyalik olim Bakke Gromon, afg‘onistonlik olim Abulhay Habibiy, pokistonlik olimlar Rashid Axtar, Nadvi va Shoh Olam Mavliyot shular jumlasidandir. Yaponiyalik olimlar ham bu borada katta ishlar olib bormoqdalar. Ma'lumki, Boburning tarixiy, ilmiy va adabiy merosini o‘rganish va ommalashtirishda O‘zbekiston, Tojikiston, Rusiya olimlarining faoliyati ham diqqatga sazovordir. XIX-XX asrlar davomida Georg Ker, N.llminskiy, O.Senkovskiy, M.Sal'e, P.Shamsiyev, Sodir Mirzayev, V.Zohidov, Ya.G‘ulomov, R.Nabiyev, S.Azimjonova, A.Qayumov, N.Mallayev kabi olimlarning harakatlari bilan “Boburnoma” tadqiqiga e'tiborni qaratdilar. (Buyuk siymolar, allomalar. 2-kitob. 115-bet) “Boburnoma”ning to‘liq matni 1857-yilda turkolog Il'minskiy tomonidan Qozonda nashr etildi. 1905-yilda ingliz Beverij xonim nashr ettirdi. Bulardan oldin 1586-yilda fors tiliga tarjima qilingan. 1705-yilda Vitsen golland tiliga tarjima qilib, Amsterdamda chop etdi. 1926 -yilda Leyden va Erskin inglizcha tarjimasini, 1871- yilda Pave de Kurteyl fransuzcha tarjimasi bilan nashr ettirdi. XX asrda Rashit Raxmati Orat turkchaga,

M.Sal’e rnschaga tarjima qildi. 1826-1985 yillar davomida “Boburnoma” 4 marta ingliz, 3 marta fransuz, 1 marta nemis tiliga o‘girilib nashr etildi. O‘zbekistonda dastlab prof. Fitrat 1928 yilda asardan parchalar e'lon qildi. 1948-49 yillarda 2 jildda nashr etildi. 1960-1989-yillarda “Boburnoma”ning tuzatilgan nashri amalga oshirildi. Ushbu asarga asoslanib Boburning hayoti va faoliyatini yorituvchi o‘nlab badiiy asarlar yaratildi. Bular orasida fransiyalik Flora Алла. Stilning “Boburxon” (Parij, 1940), Fernard Grenardning “Bobur” (Parij, 1930), AQSHlik Xarold Lembning “Bobur-yo‘lbars” (Nyu-York, 1961) romanlari, Vamber Gaskonining “Bobur va uning avlodlari yoki Buyuk Mo‘g‘ullar” (Nyu-York, 1980) esse-romanlari bor. Hindistonlik Muni La'l Bobur va boburiylar haqida 6 ta roman yozgan. O‘zbek adabiyotida P.Qodirov, B.Boyqobilov, X.Sultonovlar Boburga bag‘ishlab roman, qissa va doston yaratdilar.

“Boburnoma” dastlab “Vaqoe'” (Voqealar) deb atalgan. So‘ngra “Voqeoti Boburiy”, “Vaqoenoma”, “Tuzuki Boburiy”, “Boburiya” nomlarini olgan. “Boburnoma” sifatida shuhrat topdi. Bobur ushbu asarni 1525-1530 yillarda yaratgan, deb taxmin qilinadi. Asar 1493-34 yillardan 1529-1530 yil voqealarini o‘z ichiga oladi. “Boburnoma”da Movarounnahr, Xuroson, Hindiston, Eron xalqlarining XV asr oxiri XVI asrning birinchi yarmidagi tarixini aks ettirgan. Asarda iqtisodiy, ijtimoiy masalalar, yuqorida qayd etilgan viloyatlarning o‘zaro munosabatlari, jo‘g‘rofiy mavqei, iqlimi, o‘simlik va hayvonot dunyosi, tog‘lari, daryolari, xalqlari, qabila va elatlari, ularning yashash sharoitlari, urf-odatlari, inshootlari, to‘y va dafn marosimlari va boshqalar haqida ma'lumot beruvchi qimmatli asardir.

“Boburnoma” avvalo tarixiy asardir. Unda ko‘p joylar, shaxslar, hukmdoru shoirlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Asar materiallarning ko‘pligi, boyligi, aniqligi va to‘laligi, voqealarni rostgo‘ylik va haqqoniy, sodda tasvirlash bilan e'tiborlidir. Shu jihati bilan ko‘pgina tarixiy asarlardan ustun turadi.

“Boburnoma” o‘zbek nasrining eng yaxshi namunasi hamdir. Bobur tarixiy voqealarni tasvirlar ekan, badiiy ifodalardan ham unumli foydalangan. Muallif maroqli va jozibali badiiy uslub bilan turli xil sarguzashtlarni, rivoyat va latifalarni hikoya qiladi, xalq yumori, xalq maqollari va ta'birlari bilan bezaydi, she'riy parchalar keltiradi. Akademik V.Bartol'd “Boburnoma’ni “turkcha prozaning” eng yaxshi asarlaridan biri, deb baholaydi. “Boburnoma”da joy, manzaralar tasviri ham beriladi. Movarounnahr, Xuroson, Afg‘oniston, Hindiston o‘lkalari, ulardagi shahar, qishloqlar manzarasi, ob-havosi, urf-odati va boshqalar tasviri beriladi. Bobur faqat shoirgina emas, olim, jo‘g‘rof, tabiatshunos, etnograf, tilshunos, san'atshunos sifatida gavdalanadi. Andijon, O‘sh, Xo‘jand, Qobul, G‘azna, Hirot kabi shaharlar tasviri beriladi.

“Boburnoma”da bir necha yuz tarixiy shaxslar, ularning faoliyati va sarguzashtlari tasvir etiladi. Bular shahar va viloyat hokimlari, amir-amaldorlar, askarlar, ilm-fan, san'at va adabiyot vakillari, dehqonlar, qullar, hunarmandlar va boshqa toifa kishilaridir. Umarshayx Mirzo, Husayn Boyqaro, Sulton Ahmad Mirzo, Xisravshoh kabi hukmdorlar, Ahmad Hojibek, Darvesh Muhammad Tarxon, Ulug‘bek, Navoiy, Jomiy, Shayxim Suhayliy, Sulton Ali Mashhadiy, Behzod kabi tarixiy shaxslar obrazi uchraydi. Navoiy haqida: “Alisherbek naziri yo‘q kishi edi. Turkiy til bila to she'r aytibturlar, hech kim oncha ko‘p va xo‘b aytqon emas, Olti masnaviy kitob nazm qilibtur , beshi “Xamsa” javobida, yana bir “Mantiqut - tayr” vaznida “Lisonut tayr” otliq. To‘rt g‘azaliyot devoni tartib qilubtur... yaxshi ruboiyoti ham bor... Ahli fazl va ahli hunarga Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma'lum emaskim, hargiz paydo bo‘lmish bo‘lg‘ay... O‘g‘ul va qiz va ahlu ayol yo‘q, olamni tavre fard va jariyda o‘tkardi. Avoyil muhrdor erdi, avosit bek bo‘lib, necha mahal Astrabodda hukumat qildi, avoxir sipohilikni tark qildi. Mirzodin nima olmas, balki yilda Mirzoga kulliy mablag‘lar peshkash qilur erdi...” (“Boburnoma”. 153-154 betlar).

Navoiydan boshqa Jomiy, Binoiy, Muammad Solih, Hiloliy, Sayfi Buxoriy, Mir Xusayn Muammoiy, Shayxim Suxayliy, Abdullo Marvariy, Behzod, Xusayn Udiy kabi shoir va san'atkorlar haqida ham ma'lumotlar keltiriladi.

“Boburnoma”ning markaziy va asosiy obrazi Boburning o‘zidir. Bobur asarining boshidan oxirigacha kitobxon nazarida turadi. U butun hayot yo‘li, ish- amallari, kishilar va voqealarga munosabati, dunyoqarashi, shodligu qayg‘usi, g‘alaba va mag‘lubiyati, saltanati va darbadarligi, g‘azabi va marhamati, mardligi, jasurligi, qiyinchiliklarga chidami, otliq, yayov kezishi, kuzatuvchanligi va boshqa tomonlari bilan namoyon bo‘ladi. Bobur mohir lashkarboshi, dovyurak bahodir edi. Ayni paytda Bobur ko‘ngilchan, farzandlariga mehribon ota sifatida namoyon bo‘ladi. Boburga ko‘p kishilar yuqori baho berishgan.

“Boburnoma” - qomusiy asar. Unda ilmning turli sohalari bo‘yicha ma'lumotlar mavjud. She'riy parchalar, xalq maqollari asarini yanada o‘qimishli qilgan. Asarda “Dushman ne demas, tushga ne kirmas”, “Uzrash badtar az gunoh”, “Marg bo Yoron surast”, “Az injo ronda va azon jo monda” kabi maqollar qo‘llanilgan.

“Boburnoma” ta'sirida “Humoyunnoma”, “Shajarai turk”, “Shajarai tarokima” kabi asarlar yaratildi.

Uning “Boburnoma” asari nafaqat o‘zbek adabiyoti, balki jahon adabiyotining nodir namunasi sanaladi. Bu memuar (esdalik) asarida Bobur o‘n ikki yoshida taxtga chiqishidan boshlab umrining oxirigacha boshidan o‘tkazganlarini, ko‘rgan kechirganlari, guvohi bo‘lgan voqealarni siyosatchi, davlat arbobi, olim, sayyoh va shoir nigohi bilan tahlil etadi. Shuning uchun bu asar tarix, etnografiya, geografiya, tilshunoslik, adabiyotshunoslik va boshqa fanlar uchun birday manba bo‘la oladi. “Boburnoma”ning o‘zbek nasri taraqqiyotida o‘rni beqiyosdir.

Bobur qanchalik aqlli bo‘lmasin, yoshligi, qarindoshlarining qo‘llab- quvvatlamaganligi sababli o‘z vatanini tark etishga majbur bo‘ladi, 1504-yili, o‘n to‘qqiz yoshdaligida Kobulni zabt qilib, u yerda qaror topadi. Kobuldan turib Movarounnahrni olish uchun bir necha marta yurishlar qiladi, ammo muvaffaqiyat qozonolmaydi, kuch kam edi. 1525 - yilda Bobur uzoq va jiddiy tayyorgarlikdan keyin Hindistonga harbiy yurish qiladi. Panipat shahridagi jangda dehli sultoni Ibrohim Lo‘diyning o‘z armiyasidan to‘rt martacha ortiq bo‘lgan qo‘shinini tor-mor keltiradi va Dehli hamda Organi egallaydi, keyinchalik esa, Shimoliy Hindistonda o‘z hokimiyatini o‘rnatadi Bobur katta harbiy qobiliyatga ega bo‘lib, tadbirli, ehtiyotkor va epchil lashkarboshi bo‘lgan. U har ehtimolga qarshi oldindan chora ko‘rib qo‘yish, konkret sharoitga qarab ish ko‘rish, kurashuvchi kuchlarning nisbatini, ularning nimaga qodir-u, nimadan ojizligini hisobga olishni biladigan oqil

odam edi. Shu bilan birga u uzoq yillar davomida boy harbiy tajriba orttirgan, ko‘pni ko‘rgan, siyosiy tajribasi zo‘r kishi edi.

Boburning Hindistonda davlat va siyosiy arbob sifatidagi asosiy xizmati shundan iboratki, u ba’zi bir ajoyib o‘zgarishlarga imkon berdi, Hindistonning taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan siyosiy birlikni ko‘p hollarda amalgam oshirdi, savdoni rivojlantirdi va hokazo. Bu, ulug‘ mamlakatning ko‘p asrlik tarixida eng muhim etaplardan biri bo‘lgan, Javoharlal Neruning ta’kidlashi bo‘yicha, o‘zining ikki yuz yillik umri davomida Hindistonning davlat mustaqilligi hisoblangan, hind milliy hodisasiga aylanib ketgan va o‘sha davr sharoitida mamlakatdagi ijtimoiy hayotning deyarli hamma sohasining rivojlanishida ijobiy rol o‘ynagan imperiyaga asos soldi, shunday imperiyani boshlab berdi. Bu imperiya Bobur nabirasi - Akbarning ellik yillik podshohligi davrida , ayniqsa o‘z taraqqiyotining eng yuksak bosqichiga chiqqan.

Sarkarda sifatida u Hindistonning keng hududini o‘ziga bo‘ysundirgan, lekin u bu yutuqlaridan ham mustahkamroq g‘alabani qo‘lga kiritishni, ya’ni odamlarning aqlini va qalbini zabt qilishni o‘ylar edi. Akbar, saroyda bo‘lgan portugaliyalik iezuitlarning aytishlariga qaraganda, uning boqishi jozibali bo‘lib, “ko‘zlari quyosh tushib yorigan dengizday chanqab turar edi...” Akbar qadim zamonlardan beri hayol qilib kelayotgan bir davlatga faqat siyosiy jihatdan birlashgan bir butun Hindistonni emas, balki bir xalqqa organik qo‘shilgan yagona Hindiston haqidagi ko‘hna orzuni qayta tikladi...

Uning saroyida har xil diniy e’tiqoddagi, yangi fikr, mulohazalami izhor qiladigan yoki yangiliklar ochgan odamlarni uchratish mumkin edi. Hatto u barchani qanoatlantiradigan umumiy sintetik din barpo qilishga ham uringan. Shimoliy Hindistondagi hindu va musulmonlarning bir-biriga bo‘lgan madaniy ta’sirlari xuddi uning davrida birmuncha oldinga siljigan. Akbarning o‘zi, so‘zsiz, hindular orasida qanchalik mashhur bo‘lgan. Mo‘g‘ul sulolasi xuddi hind sulolasi sifatida mustahkamlangan”. Nihoyat, obyektiv ijtimoiy-iqtisodiy sabablarga ko‘ra Buyuk mo‘g‘ul imperiyasi yemirilgach, “Hindiston inqiroz va izdan chiqish holatida bo‘lgan”, - deydi Neru.

Boburning fikr doirasi, nihoyatda, keng, uning eruditsiyasi juda chuqur, xotirasi esa, “Boburnoma”da ko‘zga tashlanishicha g‘oyatda kuchli, haqiqatan ham kishini hayratda qoldiradigan darajada bo‘lgan. Uni koinotdagi, tabiatdagi barcha narsalar qiziqtirgani singari, ijtimoiy hayotdagi barcha hodisa va sohalar ham qiziqtirgan va u haqiqatan ham hamma narsa bilan shug‘ullangan. Bunda u hamma vaqt kamolotga va yangilikka intilgan.

Bobur hatto alifbe masalalari bilan ham shug‘ullangan. Bobur turk tillari sistemasida so‘zlashuvchi xalqlar orasida arab alifbesini, isloh qilingan, osonlashtirilgan alifbe bilan almashtirish ma’qul ekanligi masalasini amaliy ravishda birinchi bo‘lib taklif qildi va bu yangi alifbening konkret loyihasini o‘zi ishlab chiqdi. Chindan ham Boburning o‘zi tomonidan “Xatti Boburiy” deb atalgan bu alifbe islomga til tegizish bilan birga, o‘zbek tili xususiyatlariga mos kelmaydigan, nihoyatda murakkab, qiyin arab alifbesidan ko‘p hollarda tubdan farq qilar edi. Boburning mazkur alifbesi arab alifbesiga nisbatan soda va qulay bo‘lganligini, masalan, uning hech qanday nuqtalari (ostkisi ham, ustkisi ham) bo‘lmasligiyoq ko‘rsatib turadi.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak o‘zbek xalqining mard va jasur farzandi Zahiriddin Muhammad Bobur garchi olis yurtlarda yashab o‘tgan bo‘lsa-da, o‘z yurti uchun beqiyos xizmat qildi, o‘zbek degan nomni dunyoga tanitdi, temuriy degan yuksak nomni oqladi, vatanga muhabbatini samimiy bir tarzda izhor etdiki, uning o‘lmas asarlari buning isbotidir Boburning eng katta xizmatlaridan biri hisoblanadi. Boburdan bashariyatga buyuk ma’naviy boylik qolgan.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. T. Sharq, 2007.

2. Bobur Zahiriddin Muhammad. Devon. T. Fan, 1994.
3. Bobur. Sochining savdosi tushti. T. Sharq, 2007.
4. Bobur. G‘aribing andijoniydur. T. Sharq, 2008.
5. Valixo‘jayev B., Tohirov Q. O‘zbek adabiyoti tarixi. Samarqand, 2002.
6. Qosimov B. O‘zbek adabiyoti va adabiy aloqalari. T., Fan va texnologiya, 2008.
7. Ibrohim Haqqul. E'tiqod va ijod. T., Fan, 2007.

ЗАХИРИДДИН МУХАММАД БАБУР: ЗНАМЕНИТЫЙ ПОЭТ, ОБРАЗЕЦ НАШЕГО МОЛОДЁЖА

Гадаева М.М.
БИПиПККНО ст.учит.каф. к.ППс
Алиева М.
Студентка 2-курса БГУ

Имя Захириддина Мухаммада Бабура в истории Узбекистана стоит наравне с такими деятелями политики и военного дела как Джалоддин Мангуберды, Амир Тимур, Улугбек, Алишер Навои. Тимуридский царевич, создавший империю Бабуридов в Индии (в западных источниках «Империя великих моголов»), был преданным сыном своей Родины и до конца своих дней боролся за её благополучие.

Бабур родился в семье тимуридского принца Умаршейха – правителя Ферганской области в 1483 году. В возрасте 12 лет, в результате трагической гибели своего отца, он становится новым правителем и вступает в жестокую борьбу за власть в Мавераннахре. В течение 1494-1496 гг., будучи еще ростком, он участвует в сражениях за Самарканд и впервые встречается на поле боя со своим самым сильным врагом – Шейбаниханом, который оказал огромное влияние на дальнейшую судьбу Бабура.

Большую часть своей жизни Бабур провёл в военных походах и сражениях. Он безуспешно пытался объединить разрозненные области Мавераннахра и создать новое великое государство Тимуридов. Его мечтам суждено было осуществиться в Индии, куда он отправился со своими войсками в 1526 году. Бабуру удалось создать основу для Империи великих монголов в Индии, которая просуществовала около 300 лет. Его идеи проповедовали установление согласия между народами, а также внедрение просвещения во все слои населения.

Наряду со своей военной и политической деятельностью Бобур был великим поэтом, чьи рубаи (лирические четверостишия) патриотом своей Родины многих людей и сегодня. Его перу принадлежит одно из самых известных в мировой литературе восточных произведений «Бабур-наме».

«Бабур-наме» - это личные дневники Бабура, которые он вел на протяжении всей жизни, собранные в одно произведение самим Бабуром. «Бабур-наме» - это не только описание личной жизни автора, но и ценный источник по изучению истории, культуры, быта народов, флоры и фауны тех областей, которые посещал Бобур.

Бабур был одним из величайших людей своего времени. Создав одну из самых сильных империй в истории Востока, он, тем не менее, оставался в душе пламенным патриотом своей Родины и до конца своих дней стремился наладить дипломатические и дружественные связи с родным городом Андижаном.

Сегодня андижанцы с гордостью произносят имя Захириддина Мухаммада Бабура и чтят его память. В городе есть памятник Бабуру, а так же Дом Бабура, сохранившийся до нашего времени.

За свою 47-летнюю жизнь Захириддин Мухаммад Бабур оставил богатое литературное и научное наследие. Его перу принадлежит знаменитое «Бабур-наме», снискавшая мировое признание, оригинальные и прекрасные лирические произведения (газели, рубаи), трактаты по мусульманскому законоведению («Мубайин»), поэтике («Аруз рисоласи»), музыке, военному делу, а также специальный алфавит «Хатт-и Бабури».

Бабур переписывался с Алишером Навои. Стихи Бабура, написанные на тюркском, отличаются чеканностью образов и афористичностью. Главный труд Бабура — автобиография «Бабур-наме», первый образец этого жанра в исторической литературе, излагает события с 1493 по 1508 годы и с 1519 по 1529 годы, живо воссоздаёт детали быта знати, нравы и обычаи эпохи. Французский востоковед Луи Базан в своём введении к французскому переводу (1980 г.) писал, что «автобиография (Бабура) представляет собой чрезвычайно редкий жанр в исламской литературе»

В последние годы жизни тема потери Родины стала одной из центральных тем лирики Бабура. Заслуга Бабура как историка, географа, этнографа, прозаика и поэта в настоящее время признана мировой востоковедческой наукой. Его наследие изучается почти во всех крупных востоковедческих центрах мира.

Можно сказать, что стихи Бабура — автобиография поэта, в которых поэтическим языком, трогательно излагаются глубокие чувства, мастерски рассказывается о переживаниях, порожденных в результате столкновения с жизненными обстоятельствами, о чём красноречиво говорит сам поэт:

Каких страданий не терпел и тяжких бед, Бабур?Каких не знал измен, обид, каких клевет, Бабур?Но кто прочтет «Бабур-наме», увидит, сколько мукИ сколько горя перенес царь и поэт Бабур

Ставший одним из богатейших падишахов того времени, он все равно скучал по родной земле — Мавераннахру. Его страдание по родной земле было заметно во многих его мемуарах.

Ты на чужбине — и забыт, конечно, человек!Жалеет только сам себя сердечно человек.В своих скитаньях ни на час я радости не знал!По милой родине скорбит извечно человек[68].

После захвата Северной Индии Бабуру достался знаменитый алмаз «Кохинур», позже он передавался от одного Бабурида к другому, пока не оказался в сокровищнице в Лондоне.

Также Бабур — автор трудов «Деван», «Мубаййин», «Аруз Рисоласи», «Рисолаи Валидиййа», «Харб иши».

Одним из известных газелей Бабура является стихотворение «Доброта» — «Яхшилиг», в котором он пишет о том, что надо делать добро народу-элю (Бори элға яхшилик қилғилки, мундин яхши йўқ Ким, дегайлар даҳр аро қолди фалондин яхшилик)

В 1496 году Бабур построил на горе Сулайман-Тоо в городе Ош домик, который был разрушен советскими властями в 1960-х годах и восстановлен в 1989 году.Существуют предположения, что домик не имеет отношения к Бабуру.

Бабур, будучи в горных районах современного Таджикистана в 1501 году, написал на камнях несколько надписей. Приведём одну из них:

Слышал я, что Джемшид, блаженный по природе,Написал на камне у ручья:«У этого ручья, как и мы, многие отдыхалиИ ушли, не успев мигнуть глазом.Захватили мы мир мужеством и силой,Но не унесли с собою в могилу»

Бабур обменивался письмами и стихами с известными тюркскими поэтами своей эпохи. Он отправил свои стихи и получил ответное письмо от Алишера Навои.

Умер Бабур 26 декабря 1530 года в Агре, возможно, от дизентерии. Согласно его завещанию, его останки были перенесены в Кабул в сад, им основанный. Позже здесь был построен мавзолей. Мавзолей Бабура в Кабуле

Перед смертью Бабур разделил свои владения между четырьмя своими сыновьями. Старшему сыну, Хумаюну, достались индийские владения (Хиндустан), остальные сыновья получили Панджаб, Кабул и Кандагар и должны были чиняться Хумаюну как верховному правителю империи.

Жизнь и творчество Бабура для молодежа как большая школа. Если каждый молодеж будет смелыми, патриотимы, то будущее Узбекистана было бы потрясающими. Мы стараемся быть великими, как наших предках.

Бабур // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона : в 86 т. (82 т. и 4 доп.). — СПб., 1890—1907.

Азимджанова С. А. Государство Бабура в Кабуле и в Индии. — М.: Наука (ГРВЛ), 1977. — 176 с. — 4000 экз. (обл.)

Лэмб Гарольд. Бабур-тигр. Великий завоеватель Востока / Пер. с англ. Л. А. Игоревского. — М.: ЗАО «Центрполиграф», 2002. — 446 с. — ISBN 5-227-01337-3.

Muzaffar Alam & Sanjay Subrahmanyan (Eds.) The Mughal State 1526—1750. Delhi, 1998.

Бабур. Восточная литература. Дата обращения: 19 февраля 2011.

Davis, Paul K. 100 Decisive Battles: From Ancient Times to the Present. — Oxford University Press, 1999. — 462 p. — ISBN 1-57607-075-1.

McChesney R. D. Waqf in Central Asia: Four Hundred Years in the History of a Muslim Shrine, 1480-1889 : [англ.]. — New Jersey : Princeton University Press, 1991. — 378 p. — (Princeton Legacy Library). — ISBN 978-1-4008-6196-5.

ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР ВА ЖИЗЗАХ ВОҲАСИ

Ҳасанбоев Т.Ф.
Жиззах ДПИ докторанти

Бобур Заҳириддин Муҳаммад ибн Умаршайх Мирзо (1483-1530) — ўзбек мумтоз адабиётининг йирик вакили бўлиб, ул зотни бугунги авлодлар: йирик давлат арбоби, истеъдодли саркарда, бобурийлар сулоласи асосчиси, таниқли темурий шаҳзода сифатида эътироф этадилар. Бобурнинг отаси—Умаршайх Мирзо Фарғона вилояти ҳокими, онаси—Қутлуғ Нигорхоним Тошкент ҳокими Юнусхоннинт қизи эди. Бобурнинг онаси ўқимишли ва оқила аёл бўлиб, Бобурга ҳокимиятни бошқариш ишларида фаол кўмак берган, ҳарбий юришларида унга ҳамроҳлик қилган.

Бобур барча темурий шаҳзодалар каби махсус тарбиячилар, йирик фозилу–уламолар устозлигида ҳарбий таълим, фиқҳ илми, араб ва форс тилларини ўрганади, кўплаб тарихий ва адабий асарлар мутолаа қилади, илм- фанга, шеъриятга қизиқади ва мазкур соҳалар

билан шуғуллана бошлайди. Довюраклиги ва жасурлиги учун у ёшлигидан «Бобур» («Шер») лақабини олади [1].

Расмий тарихдан маълумки, Бобур ўн икки ёшида ҳокимият тахтига ўтиради ва унинг азалий орзуси пойтахти Самарқанд бўлган, бобоси Амир Темур тузган марказлашган давлатни қайтадан тиклаш саъй – ҳаракатига киришади. Бунинг учун у муттасил равишда курашади, лекин Темурий шаҳзодалар ўртасидаги тахт талашлар, маҳаллий бек ва амирларнинг исёнлари, Шайбонийхон босқини каби турли хил сабаблар, бу орзуни амалга ошириш имконини бермайди. Айнан шу воқеаларнинг батафсил тафсилоти Бобурнинг шоҳ асари, Мовароуннаҳр, Хуросон, Ҳиндистоннинг 1493-1529 йиллар тарихини ўзида акс эттирган “Бобурнома”да катта маҳорат билан ҳикоя қилинган.

Бобур Мирзо Самарқанд тахти учун олиб борилган курашларда Суғд сарҳадлари билан туташиб кетган қадимги Уструшонанинг (жумладан, тарихий Усрушна) ғарбий музофотлари жойлашган Жиззах воҳаси, ундаги шаҳар, қалъа, кентлардан муҳим ҳарбий плацдарм сифатида фойдаланган. Бу жангу–жадаллар мобайнида бир неча бор Жиззах воҳасида бўлган Бобур унинг табиати, хўжалиги, турар – жой масканлари ҳақида ўз асари “Бобурнома”да атрофлича бўлсада қимматли маълумотларни қайд этган.

Ушбу асарда нафақат, машҳур Суғд ва Фарғона водийсининг шаҳарлари, уларни эгаллаш жараёни, қўл остида ушлаб туриш учун олиб борилган жанглар, балки “қалъа - работлар мамлакати – Уструшона ” ҳақида ҳам Бобур қимматли маълумотлар беради. “Бобурнома” да ёзилишича, Умаршайх Мирзонинг отаси унга; “…Фарғона вилоятини бериб эди. Неча маҳал Тошканд ва Сайром ҳам мирзонинг тасарруфида эдиким, оғаси Султон Аҳмад мирзо бериб эди. ...Фарғона, Хўжанд ва Ўратепаким, асл буларнинг отлари китобларда Усрушнадур ва Усруш ҳам битирлар, қолдилар. Хўжандни баъзи дохили Фарғона эмас дерлар. Султон Аҳмад мирзоким, Тошкандга мўғул устига черик тортиб, Чир суйиниким, Тошкандтин икки шеърий йўл бўлғай, бу сувнинг ёқасидаким шикаст топти. Ўратепада Ҳофизбек дўлдой (ҳоким-Ҳ.Т.) эди, Умаршайх мирзога (Ўратепа ҳокимлигини – Ҳ.Т.)берди. Андин бери Усрушна Умаршайх мирзо тасарруфида эди”[2]. Кўриниб турибдики, бу даврда, яъни XV асрнинг иккинчи ярмида Уструшона ва унинг шаҳарлари ҳудуди темурийзода ҳукмдор Умаршайх Мирзо ибн Абу Саид давлати тасарруфида бўлган.

Демак, Бобур Мирзо қаламига мансуб қимматли манбада қайд этилганидек, Уструшона Умаршайх Мирзо тасарруфида бўлган даврларда, ўлканинг шимолий-ғарбий ҳудудидаги Жиззах воҳасида Дизак, Зомин, Йом, Пишағор, Ёр-Яйлоқ, Халилия кенти, Илонўтти дараси каби аҳоли маконлари ва тарихий жойлар фаолиятда бўлган[3].

Мустақиллик йилларида ўтказилган археологик тадқиқотлар натижасида Ёр-Яйлоқ, Халилия кенти каби жой ва турар-жойларнинг ўрни аниқланган. Хусусан, Ёр-Яйлоқ географик жой номи билан ҳозирги Бахмал туманининг Самарқанд вилоятигача чўзилган Туркистон тизмаларининг шимолий тоғ олди ва дашт ҳудуди аталган. Ҳалилия кенти эса қадимги Жиззах шаҳрининг ўрни Қалиятепа археология ёдгорлигига нисбат бериб айтилган. Бизнинг фикримизга кўра, Қалиятепа (Дизак-Жиззах)даги шаҳар ҳаёти милоддан аввалги III – II асрларда бошланган ва VIII асрнинг охири араб истилосига қадар, узлуксиз давом этган. Кейинчалик, Қалиятепадаги ҳаёт соҳибқирон Амир Темур даврида, мустаҳкам ҳарбий қалъа сифатида қайта тикланган ва унинг набираларидан бири Халил Султон номи билан “Халилия”, деб аталган. XVI асрнинг охирида Қалиятепадаги ҳаёт иккинчи марта тўхтаган ва шу билан қайта тикланмаган. XIV-XVI асрларда фаолият кўрсатган Халилия кенти (қалъаси) кейинчалик тепалик кўринишини олган ва у маҳаллий халқ тилида бироз ўзгаришга учраб, Қалиятепа (аслида Халилия-Ҳ.Т.)шаклида номланиб кетган.

Бобур Мирзо 1499-1500 йиллардаги Самарқандга юриш тарихини битар экан Жиззах воҳаси ҳақида қуйидаги қимматли маълумотларни ҳам айтиб ўтади: “Хўжандтин отланиб Пашоғарға мутаважжиҳ бўлдум. Зоминға етган фурсатта иситтим. Бовужуди иситма Зоминдин отланиб илғор қилиб, тоғ йўли била ўтуб, Работи Хожанинг устига келдимким, ғофилликта шоту қўюб чиқиб, Работи Хожа қўрғониниким, Шовдор туманининг доруғанишини улдур, олилғай. Субҳ вақти етилди. Эли хабардор бўлдилар. Яна ёниб, ҳеч ерда таваққуф қилмай, Пашоғарға келилди. Бовужуди иситма ўн уч-ўн тўрт йиғоч йўлни суубат ва машаққат била қатъ қилдим. Неча кундан сўнг Иброҳим соруни ва Вайс Лоғарийни ва Ширим тагойини ички беклар ва йигитлар била илғор тайин қилдукким, бориб Ёр яйлоқ қўрғонларини сўз била ё зўр била иликлагайлар”[4].

Демак, ушбу битиклардан маълум бўлмоқдаки, Бобур Мирзо Жиззах воҳасидаги аҳоли маконларидан Пашоғар(Пишағор)га келган, кейинчалик, иситма касали билан оғришига қарамасдан, Зомин орқали, тоғ йўли билан Работи Хожага борган ва уни эгаллаган. Кейин эса, ўзининг моҳир лашкарбошиларидан қўшин тузиб, уни Ёр яйлоқ (ҳозирги Бахмал тумани) қўрғонларини эгаллаш учун жўнатган. Бобурнинг ёзишича, 1498-1499 йиллар қиш мавсумини у ўзининг увайсий пири-устози Хўжа Аҳрор Валининг мулк кентларидан бири Пишағор қўрғонида ўтказган.

Маълумки, Темурийларнинг ўзаро урушлари кучайган кезларда Шайбонийхон Мовароуннаҳрни истило қилишга киришади. 1500 йил темурийзода Султон Али Мирзо калтабинлик билан Самарқандни Шайбонийхонга жангсиз топширади. Бироқ, шаҳар аҳолиси ва зодагонларининг маълум қисми темурийлар ҳукмдорлигини тиклаш тарафдори эди. Улар Фарғона ҳокими Бобурга мактуб йўллаб, Самарқандни ишғол қилишга даъват этадилар. Бобур 1500 йил кеч кузида ўз қўшини билан Зомин ва Ёр-Яйлоқ орқали, яширин тарзда Самарқандга етиб келгач, аҳоли унга шаҳар дарвозаларини очиб беради ва бу ерда унинг ҳукмронлиги ўрнатилади[5].

1501 йил апрелда Зарафшон бўйидаги Сарипул қишлоғи яқинида бўлган жангда Бобур қўшинлари Шайбонийхондан енгилади. Бобур Самарқандга чекинади. Шаҳар яна қамал қилиниб, у тўрт ой давом этади. Қамалда қолган шаҳар аҳолисининг очликдан тинкаси қурийди, Бобур 1501 йилнинг иккинчи ярмида иложсизликдан Самарқандни тарк этади ва бу ҳақда шундай ёзади “…Суғднинг улуғ шоҳ-жўйлариға қоронғу кечада урунуб йўл ит-уруб юз ташвиш била тонг отқонда Хожа Дийдордин ўтуб, суннат вақтида Қарбуғ пуштасиға ёрмоштук. Қорбуғ пуштасининг шимолидин Худак кентининг оёғи била Илон Ўтини туслаб тебрадук. ...Кеч намози дигар Илон Ўтида тушуб, от ўлтуруб этини шишлаб, кабоб қилиб, отни лаҳза тиндуруб отландук”[4].

Бобур Жиззах шаҳрига кириб келиши ва бу ердаги шароит ҳақида шундай ёзади; “Тонгдин бурунроқ Халилия(Қалиятепа – Ҳ.Т.) кентига келиб туштук. Халилиядин Дизак (Жиззах) келилди, ул фурсатта Дизакта Ҳофиз Муҳаммадбек дўлдойнинг ўғли Тоҳир дўлдой (ҳоким-Ҳ.Т) эди. Семиз этлар ва майда этмаклар арзон, чучук қовунлар ва яхши узумлар фаровон. Андоқ усраттин мундоқ арзонлиқ ва андоқ балияттин мундоқ амонликқа келдук”[6].

Муаллиф ёзганидек, бу пайтда Жиззахда дўлдой уруғи вакили Ҳафиз Муҳаммадбекнинг ўғли Тоҳир дўлдой ҳокимлик қилган. «Темур тузуклари»да қайд этилишича соҳибқирон томонидан тамға олиб юксак мартабага сазовор бўлган ўн икки аймоқ (барлос, тархон, жалойир, арғун, ...) орасида дўлдой уруғи ҳам бўлган. Соҳибқирон Амир Темурнинг қўшини қирқ аймоқдан чиққан навкарлардан, хос навкарлар, зарбдор-авангард қисм эса фақат юқорида қайд этилган ўн икки аймоқ жангчиларидан тузилган[7].

Дўлдой уруғи бек ва амирларининг аксарият қисми темурий шаҳзодаларга хизмат қилишган, уларга тарафдор бўлишган. Жиззах ҳокими Тоҳир дўлдойнинг отаси Ҳафиз Муҳаммадбек Бобурнинг отаси Умаршайх Мирзо даврида аввал Андижонда, кейинчалик Ўратепада унинг вассал ҳокими сифатида хизмат қилган эди. Эҳтимол, шунинг учун ҳам Тоҳир дўлдой Шайбонийхон ғазабига дучор бўлишидан қўрқмай Жиззахда Бобурни юксак мартабали меҳмон сифатида кутиб олган ва унга ҳурмат-эҳтиром кўрсатган[8].

Шундай қилиб, Бобур Самарқандда Шайбонийхондан енгилгандан сўнг, Илон Ўтти дарасига, у орқали эса Жиззах шаҳрига кириб келади. Ўша пайтлардаги Халилия номи билан юритилувчи, Жиззах шаҳрининг қадимги ўрни ҳисобланмиш – Қалиятепа қўрғонига келади. Бобур ва аъёнлари Қалиятепа – Халилия кентида бироз дам олиб, ундан Жиззахнинг ривожланган ва сўнгги ўрта асрлардаги ўрни, ҳозирги Эски шаҳар мавзеидаги Ўрда (Тупроққўрғон) шаҳрига ташриф буюрадилар. Бобур Мирзо бу ердаги фаровон ҳаёт, озиқ-овқат маҳсулотларининг мўл-кўллиги ва арзонлигидан ҳайратга тушади. Чунки Шайбонийхон қўшинлари томонидан тўрт ойлик Самарқанд қамали даврида Бобур Мирзо ва унинг лашкари ката қийинчиликни, даҳшатли очарчиликни бошидан кечирган эди. Жиззахдаги бундай тўкин-сочинликдан илҳомланган Бобур қуйидаги мисраларни битади;

“Ваҳму усраттин амоне топтуқ,
Янги жон, тоза жаҳоне топтуқ”[4].

Яъни, ўлим ваҳмидан омонлик топдик, онадан дунёга қайта келгандек бўлдик, деб Жиззахдаги маъмурчиликни ва фаровон ҳаётни эътироф этади.

“Ўлум дағдағаси хотирдин рафъ бўлиб, очлиқ шиддати элдин дафъ бўлди. Умрумизда мунча фароғат қилмайдур эдук. Муддатул-умр амонлиғ ва арзонлиғ қадрини мунча билмайдур эдук. Ишрат усраттин сўнг, фароғат машаққаттин кейин лаззатлиқроқ ва яхшироқ кўрунур. Тўрт-беш навбат ушмундоқ шиддаттин роҳатқа ва машаққаттин фароғатқа мунтақил бўлубтур. Аввалғи навбат бу эди. Мундоқ душман балосидин ва очлиқ ибтилосидин халос бўлуб, амонлиғ роҳатиға ва арзонлиғ фароғатига етуштук. Уч-тўрт кун Дизакта истироҳат қилдук. Андин сўнг Ўратепа сари азимат қилдук. Пашағор бир нима йўлдин қақасроқтур, чун муддати анда бўлуб эдим, ўтуб борурда, бориб ани сайр қилдим”[4].

Ушбу сатрларда ҳам Жиззахнинг қай даражада Бобурнинг жонига оро киргани, оғир вазиятда бу шаҳардан қўним топгани, бироз дам олиши учун Шайбонийхон қасосидан чўчимай, унга шарт-шароит яратилгани туфайли таниқли темурий шаҳзода ўз асарида Жиззах шаҳрининг нуфузини юксак даражада ошириб , уни олий мақтовлар билан таърифлайди.

Хулоса қилиш мумкинки, темурийлар даврида Мовароуннаҳрнинг энг қадимги ва йирик маданий марказлари Самарқанд, Бухоро, Шаҳрисабз, Тошкент, Хива, Қўқон, каби бир қатор шаҳарлари орасида Жиззах шаҳри ҳам алоҳида ўрин ва юксак нуфузга эга бўлган. Зеро, Бобур ҳам “Бобурнома ” асарида бу ўлкадаги фаровонлик ва ўзига хосликни, бу ерда “омонлик, янги жон ва тоза жаҳон топганлиги” орқали кўрсатиб берган. Заҳириддин Муҳаммад Бобур фаолияти давомида Жиззах воҳасининг тутган ўрнини мавжуд манбалар маълумотлари таҳлили асосида ҳолис ёритиб бериш орқали, ёшларни ўз ватани тарихини ўрганиб, у билан фахр туйғуси ила яшашга ундайди. Бу эса, буюк аждодларга мос баркамол авлод бўлиб шаклланишга замин яратади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ҳасанбоев Т. Заҳириддин Муҳаммад Бобур наздида Жиззах воҳаси // СамДУ Тарих факултети 2016-йилдаги илмий-тадқиқот ишлари якунлари бағишланган илмий мақолалар тўплами. Самарқанд. 2017. 23-24б.

2. Пардаев А.Ҳ. Жиззах беклиги-Ўрта Осиё хонликлари даврида (XVI асрдан- XIX асрнинг 60-йилларигача). диссертация қўлёзмаси. Тошкент. 2004. 47-48б.

3. Пардаев А.Ҳ. XV-XVI аср ёзма манбаларида Жиззах // Ўзбекистон моддий маданияти тарихи. 32 – нашр, Самарқанд., 2001. 253б.

4. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Тошкент. 1989. 56, 86 б.

5. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2-том.Тошкент.2005. 425б.

6. Ҳасанбоев Т. Жиззах воҳасининг сўнгги ўрта асрлар тарихи манбашунослигига доир // Жиззах воҳаси Марказий Осиё цивилизацияси тизимида. (Республика илмий-амалий конференция материаллари). Жиззах. 2020. 70б.

7. Темур тузуклари. Б.Аҳмедов таҳрири остида. Тошкент. 1991. 86-87б.

8. Пардаев М.Х., Пардаев А.Х. Джизакский оазис в эпоху позднего средневековья (по письменным и археологическим источникам) // Археология, нумизматика и эпиграфика средневековой Средней Азии. Самарканд. 2000.с.121-132.

М У Н Д А Р И Ж А

IV-ШЎЪБА. ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУРНИНГ “БОБУРНОМА” ВА БОШҚА АСАРЛАРИ ДУНЁ ОЛИМЛАРИ НИГОҲИДА

Мадраимов А.
Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг “Бобурнома” асарида Фарғона воқеалари тавсифи ва уларнинг нафис мўъжаз расмлардаги тасвири 4
Mamatov M.A.
Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida milliy – etnik bag‘rikenglik masalalari 10
Аслонов И.Н.
«Бобурнома»да Умаршайх Мирзо ва унинг амирлари шахсининг психологик тавсифи 13
Идиев А.А.
Бобурнома асарида этник ва ва этномаданий жараёнларнинг ёритилиши 15
Rashidova M.X., Namozova D.B.
Boburology abroad 18
Ғайбуллоева М.А.
“Бобурнома” - да Ўрта Осиё халқлари тарихига оид нодир манба 20
Шарахметова М.А.
Заҳириддин Муҳаммад Бобур услубига хос жиҳатларнинг урдуча таржимада берилиши 23
Хайдаров З.А
“Бобурнома”нинг тарихий – манбавий қиймати 27
Хидирова Г.Р.
«Бобурнома»даги Пишоғар топоними 30
Ҳайдаров С.А.
Ёшларда ватанпарварлик ҳиссини тарбиялашда “Бобурнома” асарига ишланган миниатюраларнинг аҳамияти 33
Эргашева Д.К.
“Бабур-наме”- бесценный литературный памятник прозы на узбекском языке 37
Нарзиева М. С.
«Бобурнома» асарининг бугунги кундаги аҳамияти 40
Madrahimov Z.
Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”asari” da Amir Temur siymosi 42
Джураев Ҳ.Х.
Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг “Хатти Бобурий”си тарихи 45
Жайнаров О.Ҳ., Мухаммадиев Р.Р.
«Бобурнома» асарида адлия масалаларининг ёритилиши 50
Холиқов А.А.
“Бобурнома” – тарихий, мазмунан ранг-баранг, тил ва услуби гўзал асар 52
Иминова Д.
«Бобурнома» нинг ўзга тилларга таржималари хусусида 55
Xurramov A.I., Ilhomov J.I.
Ilm-fan rivojida «Boburnoma» asarining dolzarbligi va tarbiyaviy ahamiyati 58
Karimov A.
“Boburnoma” – dunyo olimlari nigohida 61
Mamasidiqov F.
“Boburnoma” haqida qisqacha mulohazalar 63
Sharopov A.M.
“Boburnoma” asarini tarixiy va badiiy jihatdan o‘rganish 65
Qobilova G.Sh.
“Boburnoma” - buyuk qomusiy asar 67
Karimov U., Karimova G.
The significance of the spiritual heritage of baburids in the upbringing of youth in patriotism 70
Xolmatov O.U.
“Boburnoma”da urush epizodlari tasvirining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari 72
Abdullayeva M.I.
“Boburnoma” dunyo olimlari nazdidagi qomusiy asar 75
Oripova M.Q.
«Boburnoma»-o‘zbek mumtoz adabiyotining nodir yodnomasi 78
Hojiyeva N.H.
Boburnoma asarida meva nomlari bilan bog‘liq qarashlar 81
Султонова Н.Ш.

Даврларда сайқал топган асар 83
Mamajonov A., Alisherov A.A.
«Boburnoma» representative of the formation of patriotic education in young people 86
Муҳаммадиева Д.
«Бобурнома» таржималарида паремияларнинг акс этиши 89
Galiyev S.
“Boburnoma” asari chop etilishi va tarjimalari qisqacha tarixi 91
Норов Т.О., Алимова Г.А.
“Бобурнома”да Алишер Навоий ҳақида тарихий маълумотлар 92
Tashkenbayeva D.A.
«Baburname» in the works of foreign researchers 96
Xodiyeva B.X.
Yoshlarni Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirishda Bobur ma’naviy merosining o‘rni 99
Эргашева М.З.
Заҳириддин Муҳаммад Бобур асарларида ватанпарварлик ва элсеварлик ғояларининг ифодаланиши 101

V-ШЎЪБА. БОБУР ВА БОБУРИЙЛАР ФАОЛИЯТИНИ ЎРГАНИШГА ОИД ЗАМОНАВИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ВА ЯНГИЧА ЁНДАШУВЛАР

Абдухаликов С.
Бобурийлар ва ҳозирги замон: виждон эркинлиги ҳуқуқи 104
Абдуллаева М.С., Азамжонов У.У.
Жизнь и наследие Бабура 107
Абдураҳмонова З.А.
Ёшларни саноген тафаккур хусусиятларини ривожлантиришда Бобур илмий ва маънавий мероси 111
Абдураҳимова Д.А.
З.М.Бобур ижодида ватанпарварлик фазилатларининг тараннум этилиши 113
Karimbekov S. A.
Reasons for the Babur empire’s victories 115
Absalamov S.A.
Buyuk bobomiz Zahiriddin Muhammad Boburning buyuklilik sirlari 117
Аҳмедов Ж.З.
Бобур яратган боғлар 121
Аҳмедова Ў.Н.
Бобур ва бобурийлар даври маърифатининг долзарблиги 122
Алимов Ш.Қ., Тиллаев Т.Н.
Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг ҳуқуқий мероси 124
Алимова Г. А., Бурхонов А. С.
Образование государства Бабура в Индии 127
Амирқулова З.М.
Ҳикояларда “Бобур” образининг бадиий талқини 128
Umaraliyev A.A.
Boburiylar davlatida elchilik munosabatlari 132
Атамирзаев И.Х., Солиев Ж.
Шоҳ Бобур – уйғониш даврининг серқирра ижодкори 134
Азизиқулов А.
Ҳинд тарихчилари Бобур хусусида 136
Baqoyev Sh.H.
Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va merosi bugungi kun nigohida 138
Ботирова Н.К.
Бобур ҳаёти ва меросини ўрганишда “Camtasia studio” дастуридан фойдаланиб мультимедияли ўқув - методик видеоролик тайёрлаш 140
Hayitov J.Sh., Yo‘ldoshev Akmal
Zahirddin Muhammad Bobur bog‘lar asoschisi va yangi ekin navlari tarqatuvchisi 143
Mamasiddikov A.A.
Boburiylarning hind jamiyatiga ta’siri 145
Mamiraliyev Q., Ne’matov A.
Boburiylar davrida lug‘atshunoslik 148
Muqimova G.R.
Bobur she’riy asarlaridagi fitomorf metaforalarning semantik xususiyatlari 151
Nigmatov A.X.
Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti haqida bazi fikr mulohazalar 153
Qurbonova D.Sh.
Bobur shaxsiyatidagi yuksak insoniy fazilatlar 156

Turdiyev B.S.
The contribution of bobur and Boburi dynasty to the renewal of world civilization 157
Vohidov A.G‘.
O‘zbekiston hukumatining mustaqillik yillarida muqaddas qadamjolarga munosabati 159
Xomidova M.F., Xayrullayev A.X.
Bobur g‘azallarida intertekstuallik 163
Юлдашев С.Ў.
Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг давлат бошқарув хусусиятлари 165
Yunusov D.B., Sayfiddinov A.A.
Sharq tamadduni – Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti misolida 167
Ғаниев Б.С., Ғаниев А.Б.
Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг ижтимоий-иқтисодий ва маданий соҳада амалга оширган улкан ислоҳотлари 171
Ганиев Ш.А.
Мамлакат ривожланишида демократик институтларнинг ролини ошириш 175
Жуманазаров У.А.
Шоҳ ва шоир Бобур ҳақида достон 178
Иззатуллаева М.Ш.
Бобур-ўзбек мумтоз адабиётининг йирик вакили 181
Ishmatova N.M., Irisboyeva X.U.
Ta’lim-tarbiya tizimida buyuk siymo Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiy faoliyatidan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari 183
Исақова З.
Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва Шайбонийхон муносабатларига янгича ёндашув 187
Исмагулова Г.Н.
Социально-экономические взгляды Захириддина Мухаммада Бабура 191
Қодирова З.З.
Бобур ва бобурийлар даврида аёлларнинг жамиятдаги ўрни 194
Қурбонов Н.Н.
Табиий офатлар буюк шахслар талқинида: Қобул зилзиласи ҳақида Заҳириддин Бобур томонидан қолдирилган маълумотларнинг илмий аҳамияти 198
Маллаева Ф.
Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг адабиёт ва шеъриятда ўрни 200
Maxsadov M.I.
Bobur davlatchiligini bezagan farmonlar 204
Мирзаев А.
Заҳириддин Муҳаммад Бобур маданий меросининг жаҳон тарихида тутган ўрни 207
Мухамедова Л.Д., Худайбердиев Ш.Ш
Қадимги ўзбек тили ҳарбий терминлар таржимасининг ўзига хос хусусиятлари (қиёсий тадқиқи) 210
Норматов Р.Т.
Бобур шахсиятининг тарихий талқини 214
Нуритдинов М.Н.
Sources on the cultural history of India during the reign of the Baburids 216
Пардаев А., Хўжаёров А.
Бобур ва бобурийлар бунёд этган боғлар 219
Ражабов В.Н.
“Дўстлар билан биргаликдаги ўлим тўйдир” 222
Раупов С.С., Назарова Г.Х.
Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва ижтимоий адолат муаммолари 225
Саидов З.
Бобурийлар ва Туркистон алоқалари 228
Tashkenbayev T.T.
Creativity of Zakhiriddin Muhammad Bobur in the Russian historiography of the 20th century 230
Тошбоев Ф.Э., Фурқатов С.Ф.
Жиззах воҳаси аҳолисининг чорвачиликка оид хўжалик ҳаётининг Заҳириддин Бобур асарларида ёритилиши 232
Toshpulatov B.B.
Boburning diplomatlik xususiyatlari 235
Умарова Л., Бобомуродова С.
Бобурнинг адабий-илмий мероси хусусида 237
Ўсаров Ғ.Қ.
Аждодлар тарихи – ренессанс пойдевори 240
Хаитбоев А.М., Касимов О.О.

Бобур оиласида фарзанд тарбияси 242
Xaitov B.T.
Bobur siymosiga nazar 246
Холиков Н.
Бухоро хонлигининг Бобурийлар давлати билан дипломатик алоқалари 248
Ҳайдаров А.
Бобурийлар давлатининг ташкил топиш жараёни 252
Шаюсупова Л.Р., Айтбоев С.С.
Утонченность натуры Захириддина Мухаммада Бабура, как правителя, полководца и поэта 254
Эгамова М.А.
Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг давлатида солиқ сиёсати 257
Эргашева Г.М.
Бобур Мирзо асарларида Ватан мадҳи 259
Эргашева М.С.
Ўзбек халқининг ҳинд тахтидаги жавоҳири 262

VI-ШЎЪБА. БОБУРНИНГ ЖАҲОН ЖАНГ САНЪАТИ ТАРИХИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ

Низомиддинов Н.Ғ.
Бобурнинг жанг санъати тарихига қўшган ҳиссаси Бобурнинг «Ҳинд юриши» ҳақида 267
Тураева С.Р.
Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг ҳарбий иш тарихидан 275
Rashidov R.R., Fayzullayeva V.J.
Zahiriddin Muhammad Boburning Gagradagi zafarli yurishlari 281
Мирабдуллаева Ш.А.
Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг қўшинни бошқаришдаги етакчилик сифатлари 284
Ahmadov A.A., Elova D.D.
Zahiriddin Muhammad Boburning Afg‘onistondagi bog‘lari va qo‘shinidagi yangi texnika xususida 286
Sattorov A.A., Sattorova X.N.
Boburning harbiy san’at rivojida tutgan o‘rni 288
Насиров К.Ж.
Нравственные взгляды правителя и мыслителя Захириддина Мухаммада Бабура 291
Джумашев А.Н., Акромов З.А.
Военное искусство Захириддина Муҳаммада Бабура 293
Абиджанова М.А.
Бобурнинг ҳарбий фаолиятида жанговар ўртоқлик масаласига функционал ёндашув 295
Мамажонов А., Тургунов А.
Военные реформы и вооружение в период правлении Бабура 299
Alimardonov Z.Sh., Isakov S.X.
Zahiriddin Muhammad Boburning artilleriya qurol-aslahalari rivojlanishiga qo‘shgan hissasi 301
Хайдаров К.А.
Бобурийлар сулоласининг ҳарбий юришларидаги психологик тамойиллар 304
Мустафоев Ғ.
Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг ҳарбий хизматчиларга шахсий муносабати 307
Алижонов А.Т.
Заҳириддин Муҳаммад Бобур ижодининг ички ишлар ходимларини тарбиялашдаги ўрни 310
Холиқов И.Р.
Заҳириддин Муҳаммад Бобур ватанпарвар саркарда 313
Jumayeva L.I.
Zahiriddin Muhammad Boburning harbiy yurishlari 316
Насиридинов З.А., Ғиёсов Б.Ҳ.
Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг фавқулодда вазиятлардаги ҳарбий-сиёсий ютуқлари 318
Raximov. I. A.
Buyuk sarkarda- Zahiriddin Muhammad Bobur 320
Шохакимов А.Р.
Бобурийлар давлатининг қўшини ёхуд ҳарбий маъмурияти 323
Розимова Ё.
Заҳириддин Муҳамад Бобур маҳоратли ҳарбий саркарда 326
Ҳайдаров А.У., Раимбоев Д.Х.
Бобурнинг ҳарбий юришларидаги разведка маҳорати 331
Курганов А.М.
“Бобурнома”да қўлланилган ҳарбий терминларнинг лингвомаданий хусусиятлари 333
Tursunboyev A.A.
Zahiriddin Muhammad Boburning sarkardalik mahorati va jangovar taktikasi 335

Гаипов Р.А.
Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг қурол-аслаҳалари тарихи ва унда хавфсизликни таъминлаш масалалари 338
Парпиева А.Ж.
Заҳириддин Муҳаммад Бобур истеъдодли саркарда ва давлат бошқарувида ҳарбий санъати 341
Саидов З.Ҳ.
Бобурнинг разведка маҳорати 345
Шеров М.Б.
Лашкар ва навкарларда креативлик сифатларни шакллантиришда Бобур қўллаган тадбирлар 346
Номуродова М, Бурхонов Т, Хайдаров Ф.
Шоҳ ва шоирнинг ҳарбий стратегияси (Бобурнома асаридан айрим талқинлар) 349
Саминжонов М.А., Ашрапов Ш.И.
Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг Аградаги зафарли юришлари 353
Артиков Ҳ.А., Темиров Р.У.
Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг разведка маҳорати 356
Mo‘minov I.R.
Zahiriddin Muhammad Bobur – qalami va qilichi o‘tkir hukmdor 359

VII ШЎЪБА. БОБУР ҲАЁТИ ВА МЕРОСИНИ ЎРГАНИШ ЁШЛАР НИГОҲИДА

Jalilova L.J., Safarova M.M.
“Bright days after dark nights”- Zahiriddin Muhammad Babur - a prominent statesman and poet 363
Рузикулова Э.
Тенгсиз ибрат соҳиби 366
Sotvoldiyeva M.O.
“Boburnoma” buyuk qomusiy asar 368
Aliyeva N.
Zahiriddin Muhammad Bobur – buyuk shoir va davlat arbobi 370
Rakhimova G.O, Safarova Z.D.
Life deserves to be valued 374
Akhramova M.
«Baburname» and other works in the research of world scientists 375
Раззақов Ж.Н.
Заҳириддин Муҳаммад Бобур даврида меъморчилик (Соҳибқирон Темурдан меросийлик ва ўзига хослик) 377
Qurbonova E.
Boshlang‘ich sinflarda Z.M.Bobur haqidagi asarlarni o‘rganishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish 381
Buxorova U., Xoliqulov A.
Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va merosini o‘rganish 384
Mirzayev Z.M.
Boburiylar davlati kutubxonalarning tashkil etilishiga doir 386
Ўткиров А.Ф.
Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi 389
Xudoyorova N.N., Obidova F.A.
Boburiy avlodlarining ilm-ma'rifatga qo‘shgan hissasi 391
Ikromov N.T., Qilichev B.T.
The place of the great ruler Akbarshah in the history of Indian statehood 394
Mansuraliyev Q.Sh.
History of the military martial art of Zahiriddin Muhammad Babur 396
Azamjonov U.U., Azamjonov A.U.
Zahiriddin Muhammad Babur and historical Margilan 402
Hudoykulov Y.A., Azamjonov A.U.
The scientific heritage of Muhammad Babur from the reserve 406
Olimov K.
Shoh Bobur – unutilmas siymo 409
Xolmonova N.Sh.
“Boburnoma” asarida tarixiy voqeliklarning tavsifi va bayon etilish usuli 411
Nuriddinova Y.B.
The importance of education in the work of Zahiriddin Muhammad Babur 414
Suvonova S.F.
Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Bobur ma’naviy merosining ahamiyati 417
Meliyeva M.R.
Zahiriddin Muhammad Boburning – tarixiy va madaniy merosi 419
Nigmatov A.X.
Zahiriddin Muhammad Boburning harbiy faoliyati 421

Narimonova J., Raxmatilloyeva G.
The scientific and spiritual role of Babur's works in raising the sense of patriotism of young generation 424
Saitmurodov M.U.
Bobur - buyuk mumtoz shoir 426
Saitmurodova M.U.
Boburdan bashariyatga buyuk ma’naviy boylik qolgan 429
Гадаева М.М., Алиева М.
Захириддин Мухаммад Бабур: знаменитый поэт, образец нашего молодёжа 433
Ҳасанбоев Т.Ф.
Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва Жиззах воҳаси 435

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ МИЛЛИЙ ГВАРДИЯСИ ҲАРБИЙ-ТЕХНИК ИНСТИТУТИ

ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР ҲАЁТИ ВА МЕРОСИНИ ЎРГАНИШ ДУНЁ ТАЛҚИНИДА
халқаро илмий-амалий конференцияси тўплами
2021 йил 12 феврал

II-ҚИСМ

ИЗУЧЕНИЕ ЖИЗНИ И НАСЛЕДИЯ ЗАХИРИДДИНА МУХАММАДА БАБУРА В МИРОВОЙ ИНТЕРПРЕТАЦИИ
сборник международной научно-практической конференции
12 февраля 2021 года

ЧАСТЬ II

STUDYING THE LIFE AND LEGACY OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR IN THE WORLD INTERPRETATION
book of international scientific-practical conference
February 12, 2021

PART II

Техник муҳаррир: Н.Абдуллаева

Босишга рухсат этилди. Буюртма: №
Формат 60x90/16 Times New Roman гарнитураси билан рақамли босма усулида босилади.
Ҳажми: 27,8 ш.б.т.; 34,4 т.-ҳ. т. Адади:

© Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Ҳарбий-техник институти, 2021